Chiqindi koni zarar qayta ishlansa katta boylik. Bugungi kunda dunyo miqyosida chiqindilar muammosi dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Tahminlar shuni ko'rsatmoqdaki, so'nggi yillarda maishiy va sanoat chiqindilari yildan-yilga ko'payib borayapti. Ayniqsa XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab maishiy chiqindilar hajmining o'sishi ekologik barqarorlikka juda katta salbiy ta'sir ko'rsata boshladi. Dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida yig'iladigan sanoat chiqindilarining hajmi har yili aholi jon boshiga 1 foizga oshayotganligi uning hajmi yanada ortishi bashorat qilinmoqda. Adabiyotlar tahlillariga ko'ra so'nggi yillarda respublikamizda yiliga 100 million tonnadan ortiq sanoat chiqindisi hosil bo'lishi qayd etilgan. Chiqindixonalar va chiqindi saqlash omborxonalarida 2 mlrd tonnadan ortiq sanoat, qurilish va maishiy chiqindi saqlanayotgani va ular 12 ming gektardan ortiq maydonni, Samarqand viloyatida 2 shahar Samarqand va Kattaqo'rg'on hamda 13 tumanida chiqindixonalar mavjud bo'lib, ularda 22878.1-1342.0 ming m<sup>3</sup> chiqindilar yig'ilgan, ular 26 gektarni egallab turganini inobatga olsak, chiqindilarning salbiy ta'sirini tasavvur etish qiyin emas. Shu yerda ushbuni maxsus qayd etish lozimki, Respublikamiz prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlisga murojaatnomasida [1] mamlakatimizning 2020 yil va kelgusi 5 yilda rivojlantirish bo'yicha, ustuvor yo'nalish va vazifalari haqida ma'ruza qilib, "Atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik holatni yaxshilashga e'tiborni kuchaytirishimiz kerak"ligi zarurligi takidlandi. Shu bilan birgalikda hukumat sanoat rivojining ekologiyaga ta'sirining oldini olish bo'yicha 2025 yilgacha mo'ljallangan kompleks chora tadbirlar dasturini va Ekologiya kodeksi loyihasini ishlab chiqish lozimligi vazifalarini qo'ydi. Prezident 2020 yil 7-martda atrof-muhitni asrash va chiqindilarni boshqarish tartibini takomillashtirish masalasiga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazib, unda 2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi hamda 2019-2028 yillarda O'zbekiston Respublikasida qattiq maishiy chiqindilar (QMCH) bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish strategiyasi ijrosi qoniqarsiz deb takidlandi. Xususan, atrof-muhitga salbiy ta'sirlar saqlanib qolmoqda. Atmosferaga katta miqdorda ifloslantiruvchi moddalar chiqarilmoqda. Fauna va flora xavf ortib borayapti.

Maishiy chiqindi hajmi yiliga 7 million tonnadan ziyod bo'lib, uning atigi 19 % qayta ishlanmoqdaligi, aholiga sanitar xizmat ko'rsatish qamrovini 2021 yila 100%ga yetkazish, chiqindi poligonini sanitariya-ekologiya talabiga muvofiqlashtirish zarurligi qayd etildi. Qurilish vazirligi, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasiga 2020-yilda Toshkent, Samarqand va Andijon viloyatlarida, keyinchalik boshqa hududlarda ham qurilish chiqindisi poligonlari hamda chiqindini qayta ishlash loyixalarini ishga tushirish bo'yicha topshiriqlar berildi. Sohada kadrlar siyosati keskin tanqid qilindi. Tadqiqotlarga grantlar ajratish, xorijda ilmiy xodimlar malakasini oshirish, sohaga innovatsion texnologiya va g'oyalarni jalb qilish muhimligi ta'kidlandi. Hozirgi kunda bu muammolar bo'yicha tegishli vazirliklar tashkilotlari tomonidan ishlar olib borilib O'zMU, SamDU va Qoraqalpog'istonda ekologiya fakultetlarini tashkil etish bo'yicha loyixalar tuzib berildi.

Yuqorida keltirilganlardan ma'lum bo'ldiki, Respublikamiz raxbariyati chiqindilarni zararsizlantirish, utilitatsiyalash va qayta ishlash zarurligini dolzarb deb ta'kidlaydi [2].

Hozirgi kunda dunyo olimlarining ma'lumotiga ko'ra O'zbekistonda 24 million 50 mingdan ortiq aholi yashaydi, ulardan 6 millionga yaqini Zarafshon vodiysi (vodiysi) Samarqand va Navoiy viloyatlarida istiqomat qiladi. Shu jumladan, faqat Samarqand viloyatida 3 million 400 ming aholining yashashi aniqlangan. Aholining soni oshishi bilan chiqindining hajmi ham oshib bormoqda. Adabiyotlar ma'lumotlarini tahlil qilganimizda maishiy chiqindilarni o'rganish 4 yo'l bilan amalga oshganini ko'ramiz, ular: umumiy ekologik holatini o'rganish, sanoat va maishiy chiqindilarni birgalikda tahlil qilish, utilitatsiyalash va maishiy chiqindilarni atrof muhitga ta'sirini maxsus o'rganish orqali. Ilk bor hududimiz farzandi Zardushtning 3100 yil miloddan oldin "Avesto" nomli kitobida tabiat qonunlari, uning unsurlarini: havo, suv, tuproq, o'simlik va hayvonlarini muhofaza qilish kabi tushunchalarni keltirgan [3]. Bu yerda keltirilgan ma'lumotlar va chiqindilarning foydasi, zarari xususida, xalqimizning bu boradagi urf-odatlarini S.A. Muxammadievning kitoblarida ham keltirilgan [11,12].

Q. Xaydarov tabiat va inson o'rtasidagi muammolarni har tomonlama o'rganib nafaqat O'zbekiston, balki Zarafshon vodiysi misolida hamda Samarqand viloyatida hosil bo'ladigan maishiy chiqindilarning ko'payishi va ularni utilitatsiya qilish xususida o'z tavsiyalarini bergan. Unda xuddi shu mavzu Z.Izzatullayev va M.Odilovanning "Ekologik inqirozni oldini olaylik" ommabop maqolasida o'z aksini topgan [7].

O'zbekiston milliy ma'ruzasida O'zbekiston Respublikasida atrof-muhitning holati va tabiiy resurslardan foydalanish hisobotida (1998-2007) umuman chiqindilarga ta'rif berilgan. Unda qattiq maishiy chiqindilar (QMCH) ning morfologik tarkibi, dunyo bo'yicha davlatlar aro utilitatsiya qilinishi foizlar hisobida, ularning O'zbekistonda viloyatlar aro tarqalishi, hosil bo'lishi, dinamikasi, poligonlarga tashish va ko'mish, ularning umumiy maydonlari, davlat nazorati xususidagi ma'lumotlar o'z aksini topgan. Shu yerda Zarafshon vohasining Samarqand, Navoiy va Buxoro viloyatlarida qattiq maishiy chiqindilari xususida muxtasar ma'lumotlar mavjud.

Z.Izzatullayev, M.G.Safin [8] O'zbekistonda "Qog'oz va ekologiya" muammolarini o'rganib, uni o'quv jarayonida haddan tashqari ko'p ishlatilishi va cheklash sabablarini tahlil qilishgan. Hamda buning uchun o'quv jarayonini barcha pog'onalarida information va innovatsion texnologiyalar qo'llashni taklif etishgan.

Sh.A.Shirboev, M.G.Safin "Atrof-muhitni muhofaza qilish" darsligida atmosfera havosini muhofaza qilish muammolari, uni ifloslantiruvchi manbalar, sanoat va maishiy chiqindi ishlab chiqarish muassasalarining faoliyati natijasida hosil bo'lgan zararli moddalarning biologik xilma-xillikka ta'siri va ularni muhofaza qilish chora-tadbirlari atroflicha tahlil qilingan.

Ma'lumki, ekologik inqirozlar tabiatga maqsadsiz ta'sir ko'rsatganda yuz beradi. Keyingi chorak asr orasida ayniqsa, o'tgan asrning 80-yillaridan boshlab shaharsozlik, qurilish va suv havzalarini barpo qilish, yerlarni o'zlashtirish va o'rmonlarni kesish borasidagi ekologik o'zgarishlar, ana shunday maqsadsiz ta'sir tufayli yuz berdi. Hozirgi kunda shahar va hatto tumanlarimizda ko'plab sanoat va mahalliy chiqindilar utilitatsiya qilinmasligi bois atrof-muhitga xavf tug'dirmoqda. Zero, tabiatda xar bir jonivor, o'simlik yoki hayvon turi besamar vujudga kelmaydi va ular ekotizim muvozanatini saqlashdagi xizmatlari bois, ularni ko'z-qorachig'imizdek asrashimiz lozim bo'ladi [5,6].

S.B.Pardayev [14] tuproq unumdorligini oshirishda shahar chiqindilaridan foydalanishni taklif etadi. Sh.T.Xoliqulov va S.B.Pardayevlar Samarqand shahri qattiq maishiy chiqindilarning morfologik tarkibi va unga bog'liq bo'lgan ekologik muammolar hamda, ularning global darajadagi muammoga aylanganligi, chiqindilardan ikkilamchi xom ashyo sifatida foydalanishning asosiy dolzarb masalalari xususida fikr bildirishgan.

Samarqand shahrida 2015 yildan e'tiboran shahar mamuriyati va Fransiyaning poytaxti Parij bilan hamkorlikda "Maroqand obod" utilitatsiya qilish sistemasini joriy qilish bo'yicha 2015-2019 yillarga rejalashtirilgan loyiha bajarildi. Loyihaning asosiy maqsadi shaharda chiqindilar sistemasini rekonstruksiya qilish. Samarqandda ekologik va sanitary-epidemiologik muhitni, salomatlik va hayot sharoitlarini yaxshilashdan iborat edi. Xullas, ushbu ishlarni bajarishga 37 million 167 ming 611 yevro sarflanib loyiha yakunlandi.

G.G.Deusheva va L.E.Belyalovlar [4] qattiq maishiy chiqindilarni o'rganish misolida, ularni atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish xususida amaliy tavsiyalarini berishgan. A.Xaydarovning ma'lumotlariga asosan Samarqand viloyatining Urgut tumanida joylashgan "AL NAZAR ORZU SERVIS" MCHJ 2008-yilda ish boshlab, polietilen bklashkalardan faqat 2010-yilda 500 tonna polesster tola mahsuloti olib va 2012 yilda 5 mlrd

750 ming so'mlik mahsulot tayyorlagan, hatto uning bir qismini Rossiya, Turkiya kabi mamlakatlarga eksport qilgan. Samarqand shahrida ham 7 ta kichik maishiy chiqindilarni qayta ishlash xususiy korxonalarini mavjud, ularni ko'paytirish lozim. Yuqorida keltirilganlardan ma'lum bo'ldiki, chiqindilarni yo'q qilish va undan foydalanish hozirgi kunning dolzarb muammolaridir.

Maxsus maishiy chiqindilarni o'rganishga quyidagi izlanishlar bag'ishlangan [7,9,10] bo'lib, ularda qishloq xo'jaligi ishlarini bajarish jarayonida hosil bo'ladigan maishiy chiqindilar (polietilen plyonkalar, xaltalar, baklashkalar, shishalar), ularni yig'ishtirib, qayta ishlash korxonalariga topshirish. Fermerlar uchun qo'shimcha daromad manbai ekanligi, mahalliy va mintaqaviy hududlarda maishiy chiqindilarni qayta ishlash kompleks sxemalarini ishlab chiqish va uni amalga oshirishni kengaytirish lozimligi, chiqindilar bilan bog'liq muammolarni yechishga keng jamoatchilikning, xususan, mahalla aholisining hissasi katta ekanligi ta'kidlanadi.

Xullas, maishiy chiqindilarni saralash, utilizatsiya qilish, ulardan ikkilamchi mahsulot olish nafaqat qo'shimcha daromaddir balki, ekologik muhitni va inson salomatligini asrashning eng muhim omilidir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий мажлисига мурожатномаси. Тошкент, 2020 йил 24 январь 3-42 бет.
2. Мирзиёев Ш.М. Атроф-муҳитни асраш ва чиқиндиларни бошқариш тартибини такомиллаштириш масалаларига бағишланган йиғилишидаги маърузаси. Тошкент, 2020 йил 7 март, Н 49(7551). [www.xs.uz](http://www.xs.uz) e-mail:Info@xs.uz.
3. Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Аскар Маҳкам таржимаси. Т.: "Шарк", 2001.
4. Деушева Г.Г., Белялова Л.Э. Твердые бытовые отходы и наше отношение к ним// Практические рекомендации по уменьшению заражения окружающей среды. Самарканд: ЭКО ННО, "Зарафшон", 2016. -40 с.
5. Иззатуллаев З., Ботиров Х. Она замин мехрга мухтож// Zarafshon, 2004, 4-iyun, 3 bet.
6. Иззатуллаев З., Ботиров Х. Файзуллаев Б. Экология асослари. Ўқув кўланма. Самарканд: Зарафшон, 2018. -285 бет.
7. Иззатуллаев З., Одилова М. Экологик инкирознинг олдини олайлик// Самарканд: Зарафшон, 2001, 4 сентябр, 3 бет.
8. Иззатуллаев З.И., Сафин М.Г. Қоғоз ва экология// Ma'rifat, 2003, № 90, 13 noyabr, 18 bet.
9. Izzatullayev Z.I., Shodmonov F.A. Kattaqo'rg'on shahri va uning atrofi maishiy chiqindilarining atrof-muhitga ta'sirini baholash va qayta ishlash muammolari// Ilmiy axborotnoma, 2019-yil, 5-son (117). -184-188 b.
10. Mexkamova U. Maishiy chiqindilar, ularning tarkibi, atrof muhitga ta'siri va qayta ishlash muammolari// Magistrning XV ilmiy konferensiyasi materiallari, Samarqand:SamDU, 2015. -123-125 b.
11. Мухаммадиев С. Экология ва муҳофизати табиат. Самарканд: УДС, 2001, -197 с.
12. Мухаммадиев С. Экологии. Самарканд. Т.: "Наврўз", 2015. -301 с.
13. Национальный доклад. О состоянии окружающей среды и использовании природных ресурсов в Республике Узбекистан (2008-2011 гг.) Т.: Чинор ЭНК, 2011. 289 с.
14. Пардаев С.Б. Тупрок унумдорлигини оширишда шаҳар чиқиндиларидан фойдаланиш// Биология, экология ва тупроқшуносликнинг долзарб муаммолари. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. 16 сентябр 2008 йил. Т.: ЎЗМУ, 2008. 98-99 бет.

УЎК 568.2 (075.8)

### ЎЗБЕКISTONDA QORABAG`IR BULDURUQ (*Pterocles orientalis*) NING TARQALISHI, BIOLOGIYASI VA AHAMIYATI

*R.R. Raxmonov, PhD, Buxoro davlat tibbiyot instituti, Buxoro*

*G.U. Safarova, mалаба, Buxoro davlat tibbiyot instituti, Buxoro*

*N.I. Xudoyqulova, Buxoro davlat tibbiyot instituti, Buxoro*

*D.B. Usmonova, Buxoro davlat universiteti, Buxoro*

**Аннотация.** *Ўзбекистонда қорабাগ`ир бұлдуруқнинг биологияси, тарқалиши ва аҳамияти то`ғ`рисидagi ма`lumotlar batafsil berilgan. Bu qush turi ovlanadigan qushlarga kiritilganligi sababli noqonuniy ov qilish va yashash joylarining qisqarishi sababli soning kamayganligi natijasida ovlanadigan qushlar ro`yxatidan chiqarish lozimligi haqida ma`lumotlar keltirilgan.*

**Калит сузлар:** *Ўзбекистон, чо`л, erkak, ur g`ochi, juftliklar, tuxum, ko`payish, Buxoro, Zarafshon, Gazli, Sarmushsoy, Turkiya, Iroq, Eron, Afg`oniston, Pokiston, Hindiston, bahor, yoz, kuz, qish, Qorovulbozor, Jondor, Peshku.*

**Аннотация.** *Приведена подробная информация о биологии, распространение и важности чернобрюхого рябка в Узбекистане. В связи с тем, что этот вид включен в список охотничьих птиц и в результате незаконной охоты и сокращения местообитаний, необходимо его исключить из списка охотничьих птиц.*

**Ключевые слова:** *Узбекистан, пустыня, самец, самка, пары, яйца, размножение, Бухара, Зарафшан, Газли, Сармушсай, Турция, Ирак, Иран, Афганистан, Пакистан, Индия, весна, лето, осень, зима, Караулбазар, Жандор, Пеику.*

**Abstract.** *Provides detailed information on the biology, distribution and importance of the black-bellied sandgrouse in Uzbekistan. Due to the fact that this species is included in the list of hunting birds and as a result of illegal hunting and habitat reduction, it is necessary to exclude it from the list of hunting birds.*

**Keywords:** *Uzbekistan, desert, male, female, pairs, eggs, reproduction, Bukhara, Zarafshan, Gazli, Sarmushsay, Turkey, Iraq, Iran, Afghanistan, Pakistan, India, spring, summer, autumn, winter, Karavulbozor, Jandar, Peshku.*

Bulduruqlar-Pterocletes kenja turkumi bo'lib 1 ta oilasi bulduruqlar - pteroclitidae 16 ta tur bo'lib 2 ta avlodga mansub. Avlodlari bulduruq 14 ta turni o'ziga birlashtirgan ikkinchi avlod suv buldurig'i-sadja bo'lib uni ham 2 ta turi ma'lum. Bulduruqlar uncha katta bo'lmagan qushlar (vazni 300-500 gr) Bulduruqlarning oziqasi asosan turli o'simliklarning urug'lari yoki novdalari va kurtaklaridan yeb turadi. Juda kam miqdorda hasharot bilan oziqlanadi. Bulduruqlar juda ko'p suv ichishadi. Xuddi kaptarlar singari boshini suvdan ko'tarmasdan suv ichadi. Ular doimiy ravishda suv havzalariga uchib borishadi. Ba'zan bir necha o'n kilometr lab masofagacha suv ichish uchun uchib borishadi.

Qorabag'irlar o'rtacha og'irligi 410-550gr orasida. U boshqa bulduruqlarga o'xshaydi ammo uzun oyoqlari, kalta dumi va uchayotganda aniq ajralib turadigan qorabag'ri bilan ajralib turadi, shuningdek boshqa bulduruqlardan o'ziga xos sayrashi bilan ya'ni tchurr-tchurr" singari tovush chiqarishi bilan ajralib turadi. Ular jamoa bo'lib in quradi, suv ichishga va oziqlanishga gala bo'lib boradi.

Bu tur 1758-yilda kichik Osiyodan tutilgan, ekzemplar bo'yicha Karl Linney tomonidan tavsiflangan. Qorabag'ir bulduruq kaptarsimonlar turkumi bulduruqlar kenja turkumining, bulduruqlar avlodiga mansub turdir. Turning 2 ta kenja turidan O'zbekistonda uchraydi.

O'zbekistonning tekisliklaridagi soy va ariqlar atrofida yoz kezlari "churr" deb „r“ tovushini titratib chiqaradigan xarakterli qush ovozi eshitish mumkin. Saldan keyin suvlash uchun uchib ketayotgan qushlarning o'zini ham payqash qiyin emas. Tanasining uzunligi 350-380 mm, qanotlarini yozganida 680-735 mm ga yetadi. Qorabag'irlar uzun o'tkir qanotlari xuddi oqbag'irlarinikiga o'xshaydi va katta-katta masofalariga tez uchib borish uchun moslashgan.

Erkak qorabag'ir bulduruqning qanotining uzunligi 22-25 sm, vazni 480-570 gr. Urg'ochi qorabag'ir bulduruqlar qanotining uzunligi 22-23 sm, vazni 410-465 gr. Erkek qorabag'ir bulduruqning ustki tomoni to'q kulrang bo'lib, katta-katta malla-sarg'ish xollari bor. Tomog'i bilan bo'ynining ikki yoni mallatob. Tomog'i qora hoshiya bilan jig'ildonidan ajralib turadi. Jig'ildoni va ko'kragingning oldingi qismi pushti-kulrang, ko'kragingning orqa qismi sarg'ish kulrang. Ko'ndalangi o'tgan qora tusli yo'l shu qismni oldingi qismdan ajratib turadi. Qorni va tanasining ikki yoni qo'ng'ir qora. Tumshug'i ko'kimtir kulrang. Barmoqlari qoramtir. Dum kalta va uchiga tomon o'tkirlashgan. (1-rasm)

Urg'ochilarida boshi, bo'ynining ustki tomoni, orqasining old qismi bo'ylama qo'ng'ir xollar bilan qoplangan. Orqasining qolgan qismi, beli dum patlarida noto'g'ri shaklli ko'ndalang xalqalari bor. Yoshlari ko'proq urg'ochisiga o'xshash bo'ladi. Urg'ochisining rangi biroz och bo'ladi.



**1-rasm. Erkek qorabag'ir ko'rinishi**

Qorabag'ir bulduruqlarning qanoti uzun, o'tkir bo'ladi. Uzoq masofaga suv izlab uchib borishga yaxshi moslashgan. Uchganda gurrullagan tovush chiqaradi. Uni o'zidan oldin tovushini eshitish so'ngra esa o'zini ham ko'rish mumkin. Yerdan yaxshi yuradi. Bu vaqtda o'zini qiya holatda saqlaydi. Tiniq qoraligi uchun uni qorabag'ir deb nomlaganlar. Yerdan yurganda tez-tez pisib yashirinadi. Qorabag'ir jamoa bo'lib yashaydi. Ya'ni bir necha o'ntasi gala bo'lib yuradi, uchadi, suvga boradi. Bundan ancha oldin bu qushning galalari katta bo'lgan yuzlab individi birga yashagan. Asosiy qishlash areali Bizning mamlakatdan tashqarida Turkiya, Iroq, Eron, Afg'oniston, Pokiston, Hindistonni shimoliy-g'arbida joylashgan bo'lib, ayrim qish juda sovuq kelganda to Nepalgacha ham boradi. Umuman arealning shimoli uchun tipik kelib-ketuvchi qush, uning janubida- Tojikiston, Turkmanistonda qish vaqtida ham uchratish mumkin. Arealning shimoliy qismida uchib o'tuvchi janubida o'troq hayot kechiradi, shuvoqli, donli, o'simliklar o'sadigan cho'l va chala cho'l, qum tuproqli va qumoq yerlarda yashaydi. Shebenli tog'oldi va mafniy landshaftlarga ham kiradi. Inlash joyiga bulduruqlar erta bahorda martning

oylarida yoki aprel oyining birinchi yarmida uchib keladi. Ular asosan 20 tadan iborat to'da bo'lib uchadi. Uchish vaqtida juftliklar yaqqol ajralib turadi. Ularning juftlari qishlash yoki uchib o'tish vaqtida shakllanadi.

Uchib kelgach biroz vaqtdan so'ng nikoh o'yinlarini kuzatish mumkin. Bunda erkaklari urg'ochilari ortidan qichqirib uchadi yoki atrofida aylanadi. Ammo ko'payish nisbatan kechroq boshlanadi. Taxminan 1.5-2 oydan so'ng qo'yiladi. Qorabag'ir bulduruqlari haqiqiy in qurishmaydi. Tuxumlarini maxsus to'shsh va inga emas tuproqdagi chuqurchalarga yoki loy tuproqqa qo'yadi. Bu qushlar uyasini daraxtlarga, qoya toshlarga har xil imoratlar va yerda (oq va qorabag'irlar) quradi. Uyasiga 2-4 ta tuxum qo'yadi. Tuxumlarini modasi bilan nari 14-30 kun bosib yotadi. Bir yilda 2-3 marta va bundan ko'proq tuxum qo'yishi mumkin.

Qorabag'ir O'zbekiston hududida cho'l va yarim cho'l tumanlarida keng tarqalgan, tog'oldi hududlarida ham bor. Ammo baland tog'larda uchramaydi. Uyalash davrida uni Ustyurtda, Amudaryoning quyi oqimi tumanlarida (Darg'onota, Tuproqqal'ada, Meshekli) shimoliy Qizilqumdan to Sirdaryoning quyi oqimigacha tarqalgan. Qizilqumning markazida ham uya qiladi. Bu cho'lning janubida uni uya qilishi Gazli, Buxoro atrofidan to Zarafshon daryosining o'rta oqimigacha qayd qilingan. Qarnop, Qaret, Sandiqli cho'llarida ham tuxum qo'yadi. Nurota tog' va etaklarida, adir zonasida ham uya qiladi. Bu qushni uyasini bizlar malakaviy amaliyot davrida (2007 yil may oyida) Sarmushsoydagi past-baland adirda uchratganmiz. O'zbekistonni janubida qorabag'irni Surxondaryoda Termizdan to Denovgacha, Ko'hitang-Oqtosh, Boysun tog'lari, Sangardon va To'palang daryolari oralig'ida uya qilishi aniqlangan. Farg'ona vodiysida avval keng tarqalgan. Adir zonasida qo'riq yerlarini o'zlashtirilishi bilan uni uya qilish maydoni qisqargan, parchalangan. Qurama tizma tog'larining etaklarida hozir ham uchraydi, uya qiladi. (Tretyakov 1990; Bogdanov 1992).

Bahorda qishlash rayonidan ancha barvaqt uchib ketadi. O'zbekistonning janubida uni bahorda kelishi mart oyining birinchi yarimida qayd qilingan. Bahor iliq kelgan yillarda bu qush hatto fevralning ikkinchi yarimida ham paydo bo'ladi. Qishlash joyidan uyalash joyi tomon oxirgi uchishi arealning oxirida qayd qilingan. Uya qilish arealning shimolida bahorning kelishi martning oxirida (23.03 Sirdaryo quyi oqimi) aprelning o'rtalariga to'g'ri keladi. (Emba daryosida 12.04, Irgizda 13.04). Kuzgi migratsiya qilishi sentabr-oktabrga to'g'ri keladi. Ammo avgustda qorabag'irlarning galalari shakllanadi va asta sekin janubga tomon yo'l oladi. Jizzaxda oxirgi qorabag'irlarni noyabrning boshlarida uchratish mumkin. Buxoro viloyatida ham keyingi yillarda qish biro z iliq kelgan yillari qishlab qolishini kuzatdik. Bahorda bu qushning galalari uncha katta bo'lmaydi. Har birida to 30 tagacha qush bo'ladi. Guruh-guruh b'lib uchadi. Uchish 50 m balandda asosan ertalabki soatlarda (7-12) kuzatilgan. Kuzda uchrashi cho'ziladi va galada qush soni bahordagidan bir qancha ko'p bo'ladi. Qorabag'ir buldurug'ini O'zbekistonda uyalash davrida asosan tekisliklar va adirlar bilan bog'langan. Tipik yashash joylari gil tuproqli va shag'alli o'simliklar (shuvoqzor) bilan qoplangan hududlardir. Barxan qumlar bilan band joylardan va shudgorlangan yerlardan qochadi. Vertical yo'nalishda tarqalishi uya qilishi cho'llarning past tekislik joylaridan to tog'oldilarigacha dengiz sathidan 800 metr baland joylarga kuzatiladi.

Juflarga ajralish migratsiya davrida ro'y beradi. Chunki uchganda ham ularni alohida juft holda ko'rish mumkin. Uyalash uchaskalarida martning 1-2 o'n kunligida ularni juft holda ko'rish mumkin. Nurota tog'larida otilgan erkak qorabag'irning urug'donlarining o'rgandilar 12.03 kuni 10x6,9x6 mm; 18.03 kuni esa 8x4; 8,5x4,5; 8,3x3; va 8,5x3,5 mm kelgan. Bu vaqtda urg'ochilarida hali folekilalar rivojlanmagan bo'lgan. ko'payish davrida urug'donlarning maksimal kattaligi shu holda ya'ni 12-14x6-9 (chap), va 11-16x7-9mm (o'ng) ni tashkil etgan. Qorabag'ir bulduruqlarda juftlarga ajralish ancha erta boshlansa ham ularni urchish, ko'payish davri kech asosan aprelning oxirida, ba'zan oyning birinchi yarimida yoki mayning birinchi dekadasida boshlanadi. Umuman bu qushning ko'payish davri sezilarli darajada cho'ziq bo'ladi. Yoppasiga tuxum qo'yish may oyida kuzatilgan. Buni sabalari har xil. Ya'ni ba'zan qo'yilgan tuxumlar nobud bo'lishi mumkin, bunday hollarda qush takror tuxum qo'yadi. Yoki populyatsiyada ayrim juftlari mavsumida 2 marta tuxum qo'yishi tufayli ko'payish davri cho'ziladi. Tuxum qo'yish juda uzoq davom etadi butun iyul davomida bo'lishi mumkin. Bu holni avgustda ayrimlari tuxum qo'yishi ham tasdiqlaydi. Ularning bunday tuxum qo'yish sababi aniq emas, faqat taxminlarga ko'ra birinchi tuxum qo'yishganda nobud bo'lishi yoki yiliga ikki marta tuxum qo'yish instingi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Qorabag'irlarning uyasi juda sodda tuzilgan. Ya'ni u gil tuproqda yoki toshloq joyda chuqurchani eslatadi. Uyada hech bir qurilish materiali bo'lmaydi, uyani to'shsh yo'q. faqat ba'zan uya ostida shamol uchurib kelgan o'tni qurishi mumkin. Shuvoq yarim butasi ostida ham uyalari joylashgani ma'lum. Sarmushsoyda 2007- yil 13- mayda topilgan 3ta uyasi to'g'ri gil va shag'al tuproq ustida joylashgan edi. Turli yillarda urg'ochisining tuxum yo'lida qo'yilishi lozim bo'lgan tuxumlarni yoki yetilgan yirik follikulalarni mutaxassislar 20- apreldan to 9-avgustgacha uchratganlar. Tuxum qo'yish tugallangan uyalarini O'zbekistonda quyidagi muddatlarda topganlar: 25.04.82 3 ta toza tuxumli uya. 16.05.83 3 ta biroz bosilgan tuxumli uya. 19.05.86 3 ta toza tuxumli uya. 20.05.82 3ta toza tuxumli uya. 20.06 ikkita uyasi topilgan bittasida 3 ta boshqasida 2ta tuxum bo'lgan (Tretyakov 1990).

Sarmushsoydan 2007-yilda topilgan 3 ta uyada 1-3 tagacha tuxum borligini o'z ko'zimiz bilan ko'rganmiz. Birta uyada qo'yiladigan tuxumlar soni ko'pincha 3 ta bo'ladi, kam hollarda 2 ta bo'lishi ham mumkin. Sarmushsoyda 13-14 may kunlarida topilgan uyalardagi tuxumlar soni 1-3 ta dan iborat edi. Ilmiy adabiyotlarda ham uyalardagi tuxumlar soni 2-3 tagacha bo'lishi ko'rsatilgan. Tuxumining shakli ellips, cho'ziq bo'lib uning ikki cheti to'mtoq O'tkir emas. Po'stlog'ining yuzasi yaltiroq xuddi moy surtilgandek ko'rinadi.



Po'chog'ining rangi tiniq kulrang sust yashil foni ham bor. Tuxum yuzasida dog'lar, xollar, nuqtasimon dog'lar bir xil tekis joylashgan. Qorabag'ir tuxumlarining o'lchamlari: (n=15) 5ta uyadan o'lchangan: 49,1-44,0x33,3-29,6 mm o'rtachasi 46,0x37,1 mm. Vazni (n=5) 23,0-20,728 gr o'rtacha 21,98 gr. Qizilqumning shimolida 3 ta uyachadagi tuxumlarining o'lchamlari : 48,8-44,1x33,7-31,1 mm larga teng. (Silangenberg, Feygin 1936). Tuxumlarni bosish, isitish dastlabki tuxumni qo'yishi bilan boshlanadi. Bu jarayon bir oyga yaqin davom etadi, tuxumlarni bosishda ikki jins vakillari ishtirok etadi. Tuxumni bosib turgan qush dastlabki kunlarda xurkitilsa ular darhol uyani tark etadi, to 3 soatgacha tuxumini bosish to'xtab qoladi. Agar tuxum bosish davrining oxirgi kunlarida xurkitilsa uyani tez tark etmaydi, balki xavf soluvchi (odam) ni aldab uyadan chetroqqa jalb etadi, undan keyin esa uchib ketadi. Tuxum bosish davrida ham qorabag'irlar juft holda yani 3-4-6 tasi birgalikda oziqlanishda, suv ichish uchun havzalarga kelishadi. Uyalardan topilgan bo'shliq soni tuxumlarga ega uyalarni aprelning oxirida topilganligiga ko'ra dastlabki jo'jalari mayning uchinchi dekadasi boshida paydo bo'ladi. Iyun oyining o'rtalarida jo'jalarining musicha kattaligida bo'lgan. Bolalarini oziqlanishida ikki jins vakili yani erkak va urg'ochisi ishtirok etadi. Ammo ularga berilgan oziqaning tarkibi noma'lum. Katta qushlar bolalariga jig'ildonda suv keltirishi kuzatilgan. Bu jarayonlar to'jo'jalari mustaqil ucha oladigan bo'lguncha davom ettiradi. Iyul oyida jo'jalari qanot qoqishni boshlaydi. August oyi boshlarida yaxshi uchadi. Ba'zi yillarda havo sovuq kelsa bulduruqlar tuxum qo'ymaydi. Bahor o'ta quruq kelgan kunlarida urg'ochilarida rivojlanishni boshlagan tuxumlar degeniratsiyasi kuzatiladi. August oyida bulduruq ko'chib yuruvchi galasini ko'rish mumkin. Buxoro viloyatining cho'l bilan tutash tumanlari Qorovulbozor, Jondor, Peshku tumanlaridagi g'alladan bo'shagan yerlarda oziqlanib yurgan 8-12 ta qorabag'irlarni 25 -30 sentabrda ham kuzatish mumkin. Qorabag'irlar o'zi oziqasini yerdan tortib oladi, yeydi. Oziqasining tarkibi yil mavsumiga bog'liqdir. Bahorda migratsiya davrida urug'lar ham kam bo'lganda efimer o'simliklarning yashil novdalarini cho'qib oladi. Keyin urug'lar yetilishi bilan ularning ozuqasida boshqodoshlar, butguldoshlar, dukkaddoshlar, sho'raguldoshlarning urug'lari bunda ustunlik qiladi. Yozda va kuzda bug'doy, arpa urug'larini boshqolilar ekinlar yig'ib olingan daladan yo'llar yoqasidan terib oladi. Ularning oshqozonida tez-tez mayda toshchalarni uchratish mumkin. Davriy holda suv ichishga keladi. Kam miqdorda hasharotlar bilan oziqlanadi. Uzlüksiz ravishda ertalab va kechki payt suv ichishga suv havzalariga uchib boradi. Keksa qushlar polaponlarini qayt qilib sug'oradi. Ularning jig'ildondan 1 stakan miqdorda suv topilgan. Ertalab soat 7 dan to 10 gacha qorabag'irlar ko'plab gala bo'lib suv ichishga keladilar, keyin kichik guruh holda kelishadi. Suv ichishga kunning ikkinchi yarimida ham keladi ammo soni ancha kam bo'ladi. Suv manbaga kelib ular avval suvdan 10-15 m qirg'oqqa qo'nadi. So'ngra qadam tashlab suvga keladi. Ayrimlari avval suv havzasi ustidan bir ikki marta aylanib uchadi keyin qo'nadi. Shunda ham ular 10-15 minut kutib turadi, sekinlik bilan suvga yaqinlashadi. Qorabag'irlarning bu vaqtdagi hatti harakati ko'p omillarga bog'liq, chunonchi, joy qushlarga avvaldan tanish bo'lsa yoki suvda boshqa qorabag'irlar turgan bo'lsa undan keyin kelgan guruh ular yaqiniga to'g'ri suvga kelib qo'nadi. Suvga kelganda qorabag'irlar chuchuk suvga sho'r suvga ham qo'naveradi. Suvni ichib bo'lgach ayrim qushlar darrov uchib ketadi, boshqalari esa suvga yaqin turib dam oladi yoki qumga cho'miladi. Bahor va kuzda bu qushlar yomg'irdan so'ngra hosil bo'lgan ko'lmaklardan ham suv ichishadi.

Uya qilish davridan keyin ham qorabag'irlar urchish ko'payish davridagi biotonlarda yashaydi. Ammo ko'proq tez-tez ular lalmi dalalarda, haydalgan yerlarda, paxtasi terilgan hududlarda, shaharlar atrofida va donli ekinlar dalasida yashaydilar. Ularni tuproqli yo'llarda, asfaltli yo'llarning chetida ko'rish ham mumkin. Bunda ular don tashilgan transportlardan to'kilgan donlarni, urug'larni terib oladi va yeydi.

Kuzgi migratsiyasi cho'ziq kechadi. Jo'jalari o'sib uchurma bo'lgandan keyin qorabag'irlar katta galalarni hosil qiladilar va avvali u yer bu yerga ko'chib yurishadi, keyin esa asta sekin qishlash joyi tomon uchishadi. Avgustning o'rtalarida ularni katta galasi o'zida hali yaxshi uchib bilmaydigan yosh qora bag'irlari bilan Sudoche ko'li yaqinida qayd qilingan (Tretskov 1990).

Qizilqumning shimoliy rayonlarida (Bekbergen, Avangard, Ko'kquduqda) oktabrning 11-14 kunlarida 2-4 tasi kichik guruhlarini uchratganlar. Umuman ayrim qorabag'irlarni to noyabr oyigacha turli sharoitlarda kam bo'lsada kuzatish mumkin. Chunonchi, Gazlining janubida ularni 4-5 noyabrda zoolog O.B Mitropolskiy kuzatgan. Bu yerda galadagi qushlar soni 16;30;35;40 tagacha bo'lgan. Hatto 24-noyabrda ham Shofirkonda qorabag'irning 2 ta galasi (20 va 5 ta qush) qayd qilingan. Ana shunday holatni ornitologlar O'zbekistonning boshqa hududlarida- Aydar ko'li sohilida, Zarafshon daryosining o'rta oqimida, Toshkent atroflarida, Mirzacho'lda, Farg'ona vodiysida, Sirdayro sohillarida ham kuzatish mumkin. Migratsiyalar davrida bahorda va kuzda erkak va urg'ochi qorabag'irlar birgalikda bir vaqtda uchishini ham etiborga olish kerak.

O'zbekistonda ayrim yillar qorabag'irlar qishlash uchun qolishi ham fanda ma'lum. O'zbekistonning janubida Surxandaryoda dekabr, fevral oylarida X.S.Solixboyev., M.M.Ostanikov (1964) ko'rganlar. Albatta bu davrda bu qush galalari kam uchraydi, kuzgidek vaziyatda emas. Qizilqumning sharqiy tomonida Mirzacho'lda ham qorabag'ir qishda borligi ma'lum. Taniqli ornitolog N.A.Zaruduniyning takidicha bu qush Tomdi atrofida ham uchraydi. Qishda uni Qarshi cho'lida ham ko'rganlar. Malumotlarga qaraganda qorabag'ir qishda hamma joyda tekis uchramaydi. Hatto tog'larda (Nurota) uni soni juda ham cheklangan bo'lar ekan.

O'zbekistonda qorabag'irlar Qizilqumda (lekin bu cho'lning yaqin atrofida suv bo'lgan joylaridagina) Farg'ona vodiysi, Mirzacho'lda, Zarafshon, Amudaryo, Qashqadaryo va Surxandaryo bo'yida yotgan dashtlarda

uya quradi. Uchib o'tish paytida ham qush shu joylarda uchraydi. Asosiy qishlash joyi Hindiston, O'zbekistonda Mirzacho'lda qishlaydi.

Shuning uchun ham Qizilqumda u faqat qoldiq tog'lar atrofida yashaydi. Qorabag'irlar jamoa bo'lib yashaydigan qushlardir. Ularni bahorda 20-30 tasini gala holida, yoz paytlarida qorabag'irlar juda kam bo'ladigan joylarda ayrim juftlarini ham ko'rish mumkin. Kuzda ular 100-150 tasi bir gala bo'lib to'plangan, ammo bugungi kunga kelib ular hosil qiladigan qushlar galasi 20-30 tadan oshmasligini kuzatdik. Bahorda mart o'rtalarida, qish issiq kelgan yillari esa fevralning yigirmanchi chislolarida uchib o'tishi boshlanadi. Kuzda Amudaryoning past oqimlarida oktabr oxirlarida uchib o'ta boshlasa, Mirzacho'lda noyabr boshlarida boshlanadi. Cho'l o'simliklari kovrak, yantoq va boshqalarning urug'lar va novda nihollari bilan oziqlanadi. Qorabag'irlar O'zbekistonda qishlar ekan ular bir joyda qolmaydi va doim ozuqaga boy joy izlab ko'chib yuradi. Qorabag'irning soni haqida ilmiy adabiyotlarda har xil fikrlar bor. Chunonchi ayrim olimlar, (Meklenbursev, 1958, 1982 Solixboyev va boshqa. 1970: Zohidov 1971: Medchinov 1978) uni soni qisqarmoqda, ayrim hududda yo'qolgan deb hisoblaydilar. Boshqa malumotlar bu qush sonini natisisligini ko'rsatmoqda. Masalan: Surxandaryoda 10 km masofada 11 ta bulduruq hisobga olingan. Qarnab cho'lidagi qishloqlar oralig'ida bu qushning soni kamligi aytilgan. Yani bir gektar maydonga 0,33 ta qorabag'ir to'g'ri kelgan; Toshloq cho'lda esa yana kam 0,12 ta. Kovilli cho'lda 0,01 ta/ga. va hokazo. Janubiy-g'arbiy qizilqumda (Kuldjuqtog') gil qumloq cho'lda 10 gektar maydon 1,1 ta qorabag'ir sanalgan (Shoginov 1978). Bu qush sonining kamayganligini belgilovchi sabablar: yangi yerlarni o'zlashtirilishi, daydi ovchilarning faoliyati deb ko'rsatiladi. Haqiqatdan ham bazan daydi ovchilar avtomashinada bu qushni suv ichishga kelganda ko'plab ovlashgani haqida xabarlar bor. Xulosa o'rnida aytish joizki qorabag'ir O'zbekistonda hozir ham sport ovi obyekti hisoblanadi. Albatta uni sonini zarur darajada saqlash uchun aholi o'rtasida tushuntirish ishlarini olib borish lozim. Qorabag'ir bulduruqlar ov ahamiyatiga ega qushlardir. Ularni asosan suv havzalarida qurol bilan ovlanadi. Ko'pchilik joylarda ko'plab ovlash natijasida bu turning sonini keskin kamayib ketishiga olib kelgan. Uni ovlashni taqiqlash va qat'iy choralar ko'rish orqali saqlab qolish mumkin. Bu qushni ovlanadigan qushlar ro'yxatidan chiqarish ham maqsadga muvofiqdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Бакаев С.Б. Птицы антропогенных ландшафтов аридной зоны Узбекистана. Автореф. докт. дисс. Ташкент, 1994-56С.
2. Богданов А.Н. Птицы бассейна реки Зарафшан. Труды ИЗИПАН УзССР. Т 5 1956. Ташкент.С. 107-171.
3. Богданов О.П., Мекленбурцев Р.Н. Фауна Узбекской ССР. Т.2. Птицы ч.2. Ташкент. изд-во АН Уз ССР. 1956-157стр.
4. Зарудный Н. А Птицы пустыни Кызылкум. М . 1915 - 149с
5. Кашкаров Д. Ю Состав и структура населения птиц в оазисах пустыни Кызылкум Экология некоторых видов млекопитающих и птиц и равнин и гор Узбекистана. Ташкент «Фан», 1981.С.20- 30.
6. Новиков Г. А. Полевые исследования по экологии наземных позвоночных. Москва, 1953.-502 с.
7. Rakhmonov. R.R., Rayimov A.R. Ecological positions of hunting species in Bukhara region // International Journal of Genetic Engineering. – 2019.–№7 (1). – P. 15-18. <http://doi:10.5923/j.ijge.20190701.03>
8. Rakhmonov R.R., Rayimov A.R. Structure and distribution of animals in the Bukhara region // Nature of inner asia 2019. – № 2 (11). – P. 65-68. <http://doi:10.18101/2542-0623-2019-2-65-68>

UO'K 633.11.112.1

### XORAZM VOHASI O'TLOQI ALLYUVIAL TUPROQLARIDA JAVDAR NAVLARINING DON SHAFFOFLIK KO'RSATKICHLARI

*G.M. Satipov, prof., Urganch davlat universiteti, Urganch*  
*G.A. Sapaeva, o'qituvchi, Urganch davlat universiteti, Urganch*

**Annotasiya.** *Xorazm vohasi tuproq- iqlim sharoitiga mos yangi va istiqbolli javdar navlarni tanlash va yetishtirish agrotexnologiyasini ishlab chiqish va fermerlarga tavsiya qilish, shu orqali respublika iqtisodiyotida importni kamayitib eksport hajmini oshirib, qishloq xo'jalik mahsulotlarining ulushini ko'paytirish va aholini doimiy javdar unidan tayyorlanadigan mahsulotlarga bo'lgan talabini qondirish mumkin.*

**Kalit so'zlar:** *Javdar, yangi va istiqbolli javdar navlar, agrotexnologiya, import, eksport, don shaffofligi, moliyaviy barqarorlik, o'g'it me'yori, non maxsulotlari*

**Аннотация.** *Разработка и рекомендации фермерам агротехнологии для селекции и выращивания новых и перспективных сортов ржи, подходящих к почвенно-климатическим условиям Хорезмского оазиса, тем самым сокращая импорт в экономику республики, увеличивая экспорт, увеличивая долю сельхозпродукции и обеспечивая население мука ржаная постоянная, есть возможность удовлетворить спрос.*

**Ключевые слова:** *Рожь, новые и перспективные сорта ржи, агротехника, импорт, экспорт, прозрачность зерна, финансовая стабильность, нормы удобрений, хлебобулочные изделия*

**Abstracts.** *Development and recommendation to farmers of agrotechnology for selection and cultivation of new and promising rye varieties suitable for soil and climatic conditions of the Khorezm oasis, thereby*

reducing imports in the republic's economy, increasing exports, increasing the share of agricultural products and providing the population with permanent rye flour. It is possible to meet the demand.

**Key words:** Rye, new and promising rye varieties, agrotechnology, import, export, grain transparency, financial stability, fertilizer rates, bakery products


Qishloq xo'jaligini rivojlantirish va uning raqobatbardoshligini oshirish mamlakat aholisining 60 foizidan ortiq qismi yashayotgan qishloqlarning farovonlik darajasini yuksaltirishda muhim omil bo'lmoqda. Shu munosabat bilan so'nggi yillarda qishloq xo'jaligini boshqarish tizimida institutsional islohotlar amalga oshirildi, paxta xom ashyosi va boshqali don mahsulotlarining davlat tomonidan kafolatlangan xarid narxlarini sezilarli darajada ko'paytirish hisobiga qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarining moliyaviy barqarorligi oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 28-fevraldagi PQ-3574-son "Paxta xom ashyosi va boshqali don yetishtirishni moliyalashtirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi. Qishloq xo'jalik ekinlaridan yuqori xosil yetishtirish uchun bir qator muhim tashkiliy iqtisodiy chora tadbirlarni amalga oshirish, ishlab chiqarishning moddiy texnika bazasini ancha mustaxkamlash, o'g'itlardan keng foydalanish, tuproqning unumdorligini, meliorativ va ekologik holatlarini yaxshilash, yangi intensiv navlarni yaratish kabi ishlarni amalga oshirish lozim. Respublikamiz Prezidentning 1994 yil 22-apreldagi "O'zdonmahsulot" davlat konsermini "O'zdonmahsulot" davlat aksiyadorlik korportsiyasiga aylantirish to'g'risidagi Farmoni, unda belgilab berilgan maqsad va vazifalar tarmoqda misli ko'rilmagan o'zgarish va yuksalishlarga turtki bo'ldi. Eng avvalo, tizim tasarrufidagi korxonalarining mulkchilik shakli o'zgarib, aksariyat korxonalar aksiyadorlik jamiyatlari sifatida faoliyat yurita boshladi. Donni saqlash, qayta ishlash, mahsulot ishlab chiqarish borasidagi jarayonlarga zamonaviy xorijiy texnologiyalar kirib keldi. Bu esa respublikada non mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va sifatining keskin oshishiga, non mahsulotlari sortimentining tubdan yaxshilanishiga sabab bo'ldi.

Xorazm vohasi O'zbekiston Respublikasining eng shimoliy mintaqasi hisoblanib, yerlari sho'rlangan, qishloq xo'jalik ekinlaridan rejalashtirilgan hosilni olish ko'p mehnat va harajat sarf bo'ladigan mintaqadir. Xorazm mintaqasiga mos, ertapishar, serhosil va yuqori sifatli don beradigan kuzgi javdar navlarini tanlash, ekishga tavsiya berish muhim ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqib, qishloq xo'jaligida ekinlardan mo'l hosil olishning istiqbolli texnologiyalarini yaratish va joriy etish orqali hosildorlikni oshirish, jumladan, javdarni Xorazm vohasi tuproq-iqlim sharoitiga mos yangi va istiqbolli navlarni tanlash va yetishtirish agrotexnologiyasini ishlab chiqish va fermerlarga tavsiya qilish, shu orqali respublika iqtisodiyotida importni kamaytirib eksport hajmini oshirib, qishloq xo'jalik mahsulotlarining ulushini ko'paytirish va aholini kuzgi javdar unidan tayyorlanadigan mahsulotlarga bo'lgan talabini qondirish mumkin.

Tadqiqotlar davomida kuzgi javdar navlarining don sifatini belgilovchi shaffoflik darajasi o'rganildi.

**Kuzgi javdar navlarining shaffoflik darajasi (%)**



Rasmida keltirilgan 5 ta kuzgi javdar navlarining to'la shaffofligi va umumiy shaffoflik darajasi o'g'it berish me'yorlarining turli darajalarida qiyoslab o'rganildi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra javdarning eng yuqori don yaltiroqligi 1-nazorat variantida o'g'it berish me'yoring N0, P0 va K0 kg/ga qilib berilganida Shalola navida o'rtacha 15,4 % ni, xuddi shu nav 2-variantda o'g'it berish me'yoring N150, P90 va K90kg/ga qilib berilganida 21,5 % ni va 3-variantda o'g'it berish me'yoring N200, P120 va K120kg/ga qilib berilganida 26,5 % ni tashkil etadi.

Tajribalarimiz davomida Dubinskaya navida 1-nazorat variantida o'g'it berish me'yoring N0, P0 va K0 kg/ga qilib berilganida o'rtacha 16 % ni, xuddi shu nav 2-variantda o'g'it berish me'yoring N150, P90 va

K90 kg/ga qilib berilganida 18 % ni va 3-varianda o'g'it berish me'yorining N200, P120 va K120 kg/ga qilib berilganida 28 % ni tashkil etganini kuzatdik.

Kuzatishlarimiz natijasida yana bitta nav ya'ni, Vaxsh navida 1-nazorat variantida o'g'it berish me'yorining N0, P0 va K0 kg/ga qilib berilganida o'rtacha 19 % ni, xuddi shu nav 2-variantda o'g'it berish me'yorining N150, P90 va K90 kg/ga qilib berilganida 30 % ni va 3-varianda o'g'it berish me'yorining N200, P120 va K120 kg/ga qilib berilganida 37 % ni tashkil etishini ko'rdik.

Tadqiqotlarimiz davomida Pomirskaya navida 1-nazorat variantida o'g'it berish me'yorining N0, P0 va K0 kg/ga qilib berilganida o'rtacha 28 % ni, xuddi shu nav 2-variantda o'g'it berish me'yorining N150, P90 va K90 kg/ga qilib berilganida 38 % ni va 3-varianda o'g'it berish me'yorining N200, P120 va K120 kg/ga qilib berilganida 42,5 % ni tashkil etishini, Saratovskaya navida 1-nazorat variantida o'g'it berish me'yorining N0, P0 va K0 kg/ga qilib berilganida o'rtacha 18,5 % ni, xuddi shu nav 2-variantda o'g'it berish me'yorining N150, P90 va K90kg/ga qilib berilganida 29,1 % ni va 3-varianda o'g'it berish me'yorining N200, P120 va K120 kg/ga qilib berilganida o'g'it berish me'yorining N200, P120 va K120 kg/ga qilib berilganida 32,5 % ni tashkil etishini kuzatdik.

Tadqiqotlarimiz natijasi shuni ko'rsatadiki, javdarning eng yuqori don yaltiroqligi 1-nazorat variantida o'g'it berish me'yorining N0, P0 va K0kg/ga qilib berilganida o'rtacha 15,4 % dan 28% ni, 2-variantda o'g'it berish me'yorining N150, P90 va K90 kg/ga qilib berilganida o'rtacha 18 % dan 38 % ni, va 3-varianda o'g'it berish me'yorining N200, P120 va K120 kg/ga qilib berilganida o'rtacha 23 % dan 42,5 % ni tashkil etishini kuzatdik. Demak o'g'it berish me'yorining N200, P120 va K120kg/ga qilib berilganida javdarning don yaltiroqligi eng yuqori ekanligi kuzatildi.

Tadqiqot natijasida eng kam don yaltiroqligi javdarning Dubinskaya navida 1- nazorat variantida o'g'it berish me'yorining N0, P0 va K0 kg/ga qilib berilganida 16% ni tashkil qilgan bo'lsa, shu navdagi bu ko'rsatkich 2-varianta yahni o'g'it berish me'yorining N150, P90 va K90 kg/ga qilib berilganida 18% va 3-varianta yahni yahni o'g'it berish me'yorining N200, P120 va K120 kg/ga qilib berilganda 23 % shishasimonlik ko'rsatkichlari teng bo'ldi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rishimiz mumkinki, 1-nazorat variantida o'g'it berish me'yorining N0, P0 va K0 kg/ga qilib berilganida barcha navlarning don umumiy shaffoflik 15,4 % dan 28 % gacha, 2-variantda o'g'it berish me'yorining N150, P90 va K90 kg/ga qilib berilganida 18 % dan 30% gacha, 3-variantda o'g'it berish me'yorining N200, P120 va K120 kg/ga qilib berilganida 23 % dan 42,5 % gacha bo'lganini ko'rishimiz mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Qurbonov F.Q. Donli ekinlar urug'shunoslighi. - Toshkent: O'qituvchi, 1980.
2. Qurbonov G., Egamberdiev S. Sifatli va hosildor urug'lik zarur. //J.: O'zbekiston qishloq xo'jaligi. - 1993. - №3. - B.405.
3. Сергеенков С.Н., Чкиткова Л.И. Озимая рож Восход 1// Зерновое хозяйство, 1985.-№7.
4. Tojiev M., Xo'jmonov O. Kuzgi bug'doy hosildorligi urug' ekish me'yorlari va o'g'itlar miqdoriga bog'liqmi // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. - Toshkent, 1998. - №3.
5. Holiqov A. Javdar va suli. - Toshkent: O'zbekiston, 1973.
6. Зиганшин А.А., Шарифуллин Л.Р. Некоторые вопросы агротехники озимой ржи в лесостепи поволжья //Селекция, семеноводство и агротехника озимой ржи. – М. Колос, 1971.
7. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. - М.: Агропромиздат, 1985.

O'UT: 597.551.4 +591.4

#### SIRDARYO HAVZASIDA UCHROVCHI OSHANIN LAQQACHASI (GLYPTOSTERNON OSCHANINI) NING MORFOMETRIK KO'RSATKICHLARIGA OID

*B.M. Sheraliyev, PhD, Janubiy-g'arbiy universitet, Chongqing, Xitoy*  
*Y.Q. Qayumova, katta o'qituvchi, Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona, O'zbekiston*  
*A.D. Ro'zimov, magistr, O'zbekiston milliy universiteti, Toshkent, O'zbekiston*  
*D.I. Komilova, o'qituvchi, Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona, O'zbekiston*

**Annotatsiya.** Oshanin laqqachasi (*Glyptosternon oschanini*) Sirdaryo havzasining yuqori oqimi endemik turi bo'lib, asosan sovuq suvli havzalarda uchraydi. Tabiatan kamyob bo'lgan ushbu tur uzoq vaqt davomida *G. reticulatum* ning sinonimi hisoblanib kelgan. Ushbu maqolada Oshanin laqqachasining morfometrik ko'rsatkichlari va turni aniqlashda kerak bo'ladigan boshqa diagnostik belgilari haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** endemik tur, taksonomiya, Farg'ona vodiysi, tog' laqqachalari, Sirdaryo.

**Аннотация.** *Glyptosternon oschanini* - эндемик верхнего течения бассейна Сырдарьи, обитающий в основном в холодных водах. Этот природный редкий вид долгое время был синонимом *G. reticulatum*. В этой статье обсуждаются морфометрические параметры *G. oschanini* и другие диагностические особенности, необходимые для идентификации вида.

**Ключевые слова:** эндемичные виды, Ферганская долина, горные сомики, Сырдарья.

**Abstract.** *Glyptosternon oschanini* is an endemic fish species of the upper reaches of the Syr Darya Basin, occurring mainly in cold waters. This historical rare species has long been synonym with *G. reticulatum*. Our

study highlights the morphometric parameters of *G. oschanini* and other diagnostic features needed to identify the species.

**Key words:** endemic species, taxonomy, Fergana valley, Asian sucker catfishes, Syrdarya.


**Kirish.** Tog' laqqachalari (Sisoridae) oilasi laqqasimonlar turkumi ichidagi eng yirik oilalardan biri bo'lib, 23 urug'ga mansub 300 dan ortiq turni o'z ichiga oladi [6]. Oila vakillari Turkiya va Suriya hududlaridagi daryolardan tortib to Osiyoning sharqiy va janubiy hududlarigacha bo'lgan tog' va adirlıklardagi daryo suvlarida uchraydi [9]. Ushbu baliqlar riofil turlar bo'lib, janubiy va janubiy-sharqiy Osiyodagi tog' daryolari ixtiofaunasining asosiy qismini tashkil etadi. Oilaning aksariyat turi tanasining tashqi tomonida muguzlashgan o'simtalar mavjud, shu bilan birga tananing ostki tomonida modifikatsiyalashgan epidermal tuzilmalari bo'lib, u baliqni tez oqar daryolarda suv tubidagi substratga yopishib yashash imkonini beradi [9, 12].

*Glyptosternon* McClelland, 1842 urug'i Osiyo uchun xos bo'lgan baliqlar guruhi bo'lib, ayni vaqtda o'z ichiga beshta turni oladi. Ular: Afg'onistonning Bomiyon havzasida *G. akhtari* Silas, 1952; Xitoy va Hindiston hududida joylashgan Brahmaputra havzasida *G. maculatum* (Regan, 1905); Myanmadagi Irravadi daryosida *G. malaisei* Rendahl & Vestergren, 1941; Sirdaryoning yuqori oqimida *G. oschanini* (Herzenstein, 1889) hamda Afg'oniston, Pokiston, Hindiston va Xitoy hududidan oqib o'tuvchi Hind daryo havzasida *G. reticulatum* McClelland, 1842 [5, 6, 9, 12].

O'zbekistonda Farg'ona vodiysi va Toshkentda Sirdaryo havzasining yuqori oqimida – Qoradaryo [2, 4, 10], Ohangaron [1], Chirchiq [8] havzalarida hamda janubda Surxondaryo viloyatidagi daryolar – To'palang va Sherobod [5] da *Glyptosternon* urug'ining vakillari uchrashi qayd qilingan. Uzoq vaqt davomida Markaziy Osiyo hududida uchraydigan *Glyptosternon* vakillari *G. reticulatum* deb hisoblanib kelingan [5, 8, 12]. Havzadan kashf qilingan *Exostoma* urug'ining deyarli barcha vakillari *G. reticulatum* ning sinonimi sifatida malakalangan [5].

Herzenstein tomonidan 1889-yilda Sirdaryo va Amudaryoning yuqori oqimidan tutilgan namunalarda *Exostoma oschanini* nomi ostida fanga kiritiladi [7]. Uzoq vaqt davomida ushbu tur *G. reticulatum* ning sinonimi sifatida qoldi. Yaqinda e'lon qilingan tadqiqot ishida, Farg'ona vodiysida Qoradaryoning kichik irmoqlari hisoblangan Oqbo'yra va Ko'gart daryolaridan tutilgan namunalarda asosida ushbu turning valid tur ekanligi, *G. reticulatum* dan morfologik va molekulyar jihatdan farqlanishi asoslab berildi [12]. Molekulyar tadqiqotlarda ushbu turning *Glyptosternon* urug'iga mansubligi bir necha marotaba o'z isbotini topdi [10, 12].

Tabiatan kamyob bo'lgan ushbu tur O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobi [3] va Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi (TMXI) ning Qizil ro'yxatiga [11] kiritilgan. Milliy Qizil kitobimizda Oshanin laqqachasining (u yerda turning mahalliy nomi Turkiston laqqachasi deb ko'rsatilgan, lekin bu nom *G. reticulatum* uchun qo'llanilgani bois, biz uni tur epitetidan kelib chiqqan holda Oshanin laqqachasi ko'rinishida berishga qaror qildik) soni kamayib ketishiga sabab bo'luvchi cheklovchi omillar sifatida “daryo oqimining sun'iy tartiblanishi natijasida tabiiy suv rejimining o'zgarishi, suvning ifloslanishi; ko'payish sharoitlarining yomonlashishi; iqlimlashtirilgan baliqlar raqobati; brakonyerlik” deb ko'rsatilganligiga qaramay turning muhofaza masalalari hamon ochiqlicha qolmoqda. Muhofaza masalasi avvalo turni to'g'ri identifikatsiya qilish zarurligini taqozo etadi [10]. Ushbu maqolada yuqoridagilardan kelib chiqqan holda Farg'ona vodiysidan tutilgan Oshanin laqqachasining morfometrik hamda aniqlashda qo'llash mumkin bo'lgan boshqa diagnostik ko'rsatkichlari bayon qilindi.



1-rasm. *Glyptosternon oschanini* ning yuqori Sirdaryo havzasida tarqalishi. Qoradaryo daryosi va Marg'ilonsoy kanali - qizil doira (bizning kuzatuvlarimiz), Ko'gart va Oqbo'yra daryolari - yashil doira [12]; Ohangaron daryosi - sariq doira [1], Chotqol biosfera qo'riqxonasi - pushti doira [8].

**Material va metodlar.** Ushbu tadqiqotga Farg'ona viloyati Marg'ilonsoy kanalining yuqori qismidan 2021-yilning avgust oyida tutilgan baliq namunalari (n=12) asos bo'ldi (1-rasm). Baliq namunalari o'lchashda Thoni *et al.* 2017 [12] metodikasi qo'llanildi. Baliq turini aniqlashda Thoni *et al.* 2017 [12] keltirib o'tgan ma'lumotlardan foydalanildi. TMXI ning onlayn bazasi orqali turning ayni vaqtdagi muhofaza qilinish maqomi tekshirildi [11]. Namunalar formalinning 10% li eritmasida fiksatsiya qilinib, 48 soat o'tgach doimiy saqlash uchun 70% li etil spirtiga ko'chirildi. Namunalar Farg'ona davlat universiteti (FarDU) Biologiya kafedrasidagi kolleksiyada saqlanmoqda.

**Tadqiqot natijalari va muhokamasi.** Kuzatuvlarimiz va adabiyotlar tahlili asosida *G. oschanini* ning Sirdaryo havzasi yuqori oqimi tarkibiga kiruvchi daryolardagi uchrash joylarini qayd etdik (1-rasm). Berg (1949) Oshanin laqqachasini (*G. reticulatum* ko'rinishida) Farg'ona vodiysida Qoradaryo va Norin daryolarida uchrashini yozib o'tadi [5], Boltaboyev (1971) turni Qoradaryoning quyi, o'rta va yuqori oqimida qayd qilgan [4], Thoni *et al.* (2017) esa Qoradaryoning yuqori irmoqlari bo'lgan Ko'gart va Oqbo'yra qayd etadi [12]. Bizning kuzatuvlarimiz davomida Qoradaryoning quyi oqimida aniqlangan Oshanin laqqachasi [2, 10], Norin daryosida qayd etilmadi. Ushbu tadqiqotimiz davomida esa u ilk marotaba Marg'ilonsoy kanalining yuqori qismida uchrashi qayd etildi (2-rasm). Farg'ona vodiysidan tashqarida Toshkent viloyati hududida Ohangaron [1], Chirchiq [5], Ugom [7] va boshqa mayda tog' daryo va soylarida [8] uchrashi qayd etilgan. Bizning hozircha chop etilmagan tadqiqot natijalarimizga ko'ra, O'zbekistonning janubiy hududida joylashgan To'palang va Sherobod daryolarida uchrovchi *Glyptosternon* urug'i vakili boshqa tur bo'lish ehtimoli mavjud. Ayni vaqtda ushbu gipotezani tekshirish ustida ishlamoqdamiz.

Oshanin laqqachasi tanasi silliq, tangachasiz, rangi och jigarrang-kulrangdan to zangori-siyohranggacha, orqa tomonida mayda dog'lari mavjud. Boshi yassi, ko'zlari boshining ustki qismida joylashgan, mayda (HL ning 6,1–8,0% i), jami to'rt juft bo'lgan burun, jag'usti, tashqi va ichki jag'osti mo'ylovlari uzun. Tanasi orqa tomonida oqra suzgich qanotining boshlanish qismiga qarab ko'tarilib boradi. Orqa suzgich qanoti qorin suzgich qanotidan sezilarli darajada oldinda joylashgan. Orqa suzgich qanotidan keyin yog' suzgichi (SL ning 29,0–35,2% i) mavjud. Yog' suzgichi dum bilan qo'shilib ketmagan. Dum suzgich qanotining chetki qismi qora rangda. Suzgich qanotlarining formulasi quyidagicha: D i 6 (12), A i 5 (12), P i 10 (12), V i 5 (12), C i 8+8 i (3), i 8+7 i (6), i 7+7 i (1). Oshanin laqqachasining ushbu tadqiqotda olingan boshqa morfometrik ko'rsatkichlari Thoni *et al.*, 2017 tomonidan keltirilgan ko'rsatkichlar bilan solishtirilgan ko'rinishda 1-jadvalda berilgan.

*Glyptosternon oschanini* o'zining boshqa urug'doshlaridan quyidagi ko'rsatkichlari bilan farqlanadi: *G. akhtari* dan yog' suzgichining dum suzgichiga yetmasli (vs. yetadi) va ko'krak suzgich qanotida shoxlangan nurlarning soni 10 taligi (vs. 11) bilan; *G. maculatum* dan ko'krak (11 vs. 11) hamda dum (14–16 vs. 18) suzgich qanotlaridagi nurlarning soni ozligi bilan; *G. malaisei* dan qorin suzgichining anal teshigiga yetishi (vs. yetmaydi) hamda umurtqa suyaklari sonining ozligi (38 vs. 42) bilan; *G. reticulatum* dan esa yog' suzgichining balandligi (vs. past) va tanasida to'rsimon naqshli dog'larning yo'qligi (vs. bor) bilan farqlanadi.



**2-rasm.** Marg'ilonsoy kanalidan yangi tutilgan *Glyptosternon oschanini* ning tabiiy ko'rinishi.

Avval kuzatilmagan Marg'ilonsoy kanalida Oshanin laqqachasining qayd etilishi, uning Farg'ona vodiysidagi uchrash hududlari haqida haligacha yetarlicha ma'lumot mavjud emasligini ko'rsatadi. Laqqachalar milliy ixtiofaunamizdagi eng noyob baliq turlaridan biri bo'lganligi bois, ularning mavjud tarqalish areallarini o'rganish, populyatsiyalarining soni va hajmini o'rganish, to'yinganlik ko'rsatkichi (condition factor) ni hisoblash yo'li bilan turning tarqalish arealida boshqa baliq turlari bilan qay darajada raqobatda yashayotganlik holatiga aniqlik kiritish zarur hisoblanadi. Ushbu ma'lumotlar turni muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishda muhim kalit hisoblanadi.

TMXI ning Qizil ro'yxatida Oshanin laqqachasining tarqalish areali Farg'ona vodiysidan tashqari O'zbekistonning janubi, Afg'onistonning Bomiyon vodiysidagi suv havzalari deb ko'rsatilgan [11]. Ushbu ma'lumotda *G. oschanini* bilan birgalikda *G. reticulatum* ga oid bo'lgan ma'lumotlar birga qo'shib ko'rsatilgan deb hisoblaymiz. Boisi Amudaryoning eng yirik chap irmog'i hisoblangan Bomiyon va Qunduz daryolarida

uchraydigan *Glyptosternon* urug'i vakillari Sirdaryo havzasida o'tkazilgan ixtiologik-molekulyar tadqiqotlar davomida qayd qilinmagan [10, 12]. Qolaversa ushbu turlar asosan tog' daryolarida uchrab [8, 9], havzaning tekislik qismiga deyarli tushmaydi [5]. Bundan tashqari bizning hali nashr qilinmagan molekulyar tadqiqotimiz O'zbekiston janubidagi va Tojikistondagi *Glyptosternon* urug'i vakillarining *G. oschanini* dan farqlanishini ko'rsatmoqda. Oshaning laqqachasining muhofazasini tashkil qilayotganda uning tarqalish areallarini maksimal darajada to'g'ri aniqlash turni muhofaza qilishda muhim hisoblanadi.

1-jadval.

*Glyptosternon oschanini* ning morfometrik ko'rsatkichlari

Morfometrik ko'rsatkichlar	Ushbu tadqiqot		Thoni <i>et al.</i> , 2017	
	min-max	M±SD	min-max	M±SD
Standart uzunlik (SL) (mm)	79,4–154,7	113,0±24,2	60,6–103,5	83,0±14,3
<b>% SL</b>				
Bosh uzunligi (HL)	23,0–25,4	24,2±0,8	22,9–26,6	24,8±1,5
Tananing balandligi	17,1–19,2	17,9±0,6	13,9–19,4	16,7±2,1
Predorsal uzunlik	35,1–38,7	37,2±1,2	37,1–40,6	39,4±1,3
Dorsal-yog' suzgich masofasi	12,6–18,0	14,2±1,7	13,4–16,0	14,5±1,1
Yog' suzgich asosining uzunligi	29,0–35,2	32,5±1,9	31,5–38,1	34,3±2,2
Yog' suzgich balandligi	4,1–4,6	4,3±0,1	4,1–5,7	4,6±0,6
Prepektoral uzunlik	18,8–23,0	20,4±1,4	19,3–21,5	20,4±0,8
Prepelvik uzunlik	49,2–51,8	50,6±0,8	48,8–52,3	51,0±1,4
Preanal uzunlik	67,8–69,8	68,7±0,7	65,2–70,3	68,0±1,7
Preanus uzunlik	59,7–64,3	62,2±1,2	59,8–63,9	62,0±1,6
Dum bandining uzunligi	23,0–24,4	23,6±0,5	22,6–26,5	25,1±1,5
Dum bandining balandligi	7,0–8,6	7,9±0,5	6,1–7,9	6,9±0,6
Orqa qanot asosining uzunligi	10,4–11,3	10,9±0,3	9,3–12,0	10,6±0,9
Orqa qanot balandligi	15,4–19,0	17,5±1,1	17,5–20,3	19,0±1,0
Anal qanot asosining uzunligi	6,8–8,2	7,6±0,4	6,9–8,4	7,7±0,6
Anal qanot balandligi	14,5–17,0	15,8±0,9	–	–
Ko'krak qanotining uzunligi	20,5–24,1	22,5±1,0	23,3–26,9	25,2±1,3
Qorin qanotining uzunligi	15,4–17,9	16,9±0,9	16,9–19,3	18,5±0,8
Ko'krak-qorin qanotlar masofasi	20,6–24,7	22,0±1,1	–	–
Qorin-anal qanotlar masofasi	17,4–20,0	19,0±0,8	–	–
Anus-anal qanot masofasi	4,4–5,6	5,2±0,3	5,1–8,1	6,3±1,0
<b>% HL</b>				
Bosh balandligi (peshonadan)	55,7–64,3	60,6±2,2	48,7–63,8	53,9±6,2
Boshning maksimal eni	83,2–91,8	86,3±2,9	78,6–90,3	84,4±4,4
Og'iz kengligi	35,2–42,3	37,9±2,2	33,2–36,9	35,7±1,4
Ko'z diametri	6,1–8,0	6,9±0,5	7,1–9,2	7,9±0,8
Ko'zlararo masofa	27,0–29,4	28,2±0,6	–	–
Burun mo'ylovining uzunligi	24,3–35,1	30,4±3,1	25,7–39,6	33,3±4,7
Jag'usti mo'ylov uzunligi	72,8–95,1	87,5±6,3	87,5–106,2	95,5±8,3
Tashqi jag'osti mo'ylov uzunligi	26,1–41,1	35,9±3,9	31,2–37,8	34,9±2,4
Ichki jag'osti mo'ylov uzunligi	15,1–19,8	17,8±1,4	13,0–20,3	17,8±3,0

**Xulosa.** Oshaning laqqachasi Sirdaryo havzasining endemik turi bo'lib, ayni vaqtda O'zbekiston va Qirg'iziston hududida uchraydi. Ushbu tadqiqot davomida u ilk marotaba Marg'ilonsoy kanalidan qayd etildi. Uning soni kam va areali haqidagi ma'lumotlar hamon chalkash va chala. Farg'ona vodiysida ushbu turning muhofazasi borasida real chora-tadbirlar ishlab chiqish zarur hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Atamuratova M.Sh. Ohangaron daryosi suv havzalarining ixtiofaunasi. Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2021. – 44 b.
2. Komilova D., Qayumova Y., & Sheraliyev B. (2020). Qoradaryo suv havzasi ixtiofaunasining sistematik tur tarkibi // Xorazm ma'mun akademiyasi axborotnomasi. 2020. №5/1, 22–28.
3. Mirzayev U.T. Turkiston laqqachasi // O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobi, II jild: Hayvonlar; J.A. Azimov umumiy tahriri ostida. – Toshkent: Chinor ENK. 2019, 118–118 b.
4. Балтабаев А. Ихтиофауна бассейна реки Карадарьи. Автореф. дис. ... канд. биол. наук. – Ташкент, 1971. – 42 с.
5. Берг Л.С. Рыбы пресных вод СССР и сопредельных стран. Часть II, Москва-Ленинград, АН СССР, 1949, 467–926.
6. Fricke R., Eschmeyer W.N., Fong, J.D. Eschmeyer's Catalog of Fishes: Genera/Species by Family/Subfamily. Electronic version accessed 09 November 2021.
7. Herzenstein, S.M. Über einen russischen Wels (*Exostoma Oschanini* Herz.) // *Bulletin de l'Académie Impériale des Sciences St. Pétersbourg*. 1889. (Série 4)1, 119–123.
8. Mirzaev U.T. A review of ecological features of fishes inhabiting Chatkal biosphere reserve in Uzbekistan // *Turkish journal of Zoology*. 2000. №24, 327–331.
9. Ng H.H. Phylogenetic systematics of the Asian catfish family Sisoridae (Actinopterygii: Siluriformes) // *Ichthyological Exploration of Freshwaters*. 2015. №26(2), 97–157.
10. Sheraliev B., Peng Z. Molecular diversity of Uzbekistan's fishes assessed with DNA barcoding // *Scientific Reports*. 2021. №11(1), 16894.

11. Karimov B. *Glyptosternon oschanini*. The IUCN Red List of Threatened Species 2020: e.T169837826A169837859. (<https://www.iucnredlist.org/>)
12. Thoni R.J., Simonov E., Artaev O., Asylbaeva S., Aibek S.U. & Levin B.A. A century in synonymy: molecular and morphological evidence for the revalidation of *Glyptosternon oschanini* (Herzenstein, 1889) (Actinopterygii: Sisoridae) // Zootaxa. 2017. №4277(3), 435–442.

УЎК 581.582.572(575-15)

## ҒАРБИЙ ҲИСОРДА ТАРҚАЛГАН *TULIPA TUBERGENIANA* HOOG (LILIACEAE) ЛОКАЛ ПОПУЛЯЦИЯЛАРИНИНГ ҲОЛАТИ

**О.С. Абдураимов, PhD, ЎЗР ФА Ботаника институти, Тошкент**  
**О.Т. Маматқосимов, кичик илмий ходим, ЎЗР ФА Ботаника институти, Тошкент**  
**Б.Ж.Мавлонов, кичик илмий ходим, ЎЗР ФА Ботаника институти, Тошкент**  
**А.Л.Алламуратов, кичик илмий ходим, ЎЗР ФА Ботаника институти, Тошкент**

**Аннотация.** Мақолада Ғарбий Ҳисор тизмасининг Ўзбекистон қисмида тарқалган *Tulipa tubergeniana* Hoog ценопопуляцияларининг ҳозирги ҳолати баҳоланган. Тадқиқотлар Сурхондарё вилоятининг Бойсун, Боботоз, Шеробод ҳудудларида олиб борилган. Тадқиқотлар давомида тур иштирокида 4 та ценопопуляция ажратилган. Турнинг ёш таркиби *j*, *im*, *v*, *g*, *s* босқичларига бўлиб ўрганилган. Ценопопуляцияларнинг демографик кўрсаткичларига кўра, туплар зичлиги 1 м<sup>2</sup> майдонда 1,15-3,6 та, экологик зичлиги 2-7,2 та ни таъкил қилади. Тупларнинг ёш ҳолати ва унинг самарадорлигини ифодаловчи А.А.Уранов ва О.С.Смирновалар классификацияси (1969) иқни кўрсатадики, ценопопуляциялар ёш (1, 3 ЦП) ва етилган (2, 4 ЦП) типга хос эканлиги қайд этилган.

**Калит сўзар:** *Tulipa tubergeniana*, Қизил китоб, ценопопуляция, онтогенетик структура, демографик кўрсаткич, Ғарбий Ҳисор, Ўзбекистон.

**Аннотация.** В статье приведено оценка современного состояния ценопопуляций *Tulipa tubergeniana* Hoog, распространенных в узбекистанской части Западно-Гиссарского хребта. Исследование проводилось в Байсунском, Боботагском и Шерабадском районах Сурхандарьинской области. В ходе исследования было выделено 4 ценопопуляции с участием вида. Возрастная структура вида изучалась по периодам *j*, *im*, *v*, *g*, *s*. По демографическим показателям ценопопуляций 1 м<sup>2</sup> плотность особей 1.15-3.6, экологическая плотность 2-7.2 штук. Классификация А.А. Уранова и О.С. Смирновой (1969), отражающая возрастной статус и его эффективность, показывает, что ценопопуляции характеризуются молодым (1, 3 ЦП) и зрелым (2, 4 ЦП) типами.

**Ключевые слова:** *Tulipa tubergeniana*, Красная книга, ценопопуляция, онтогенетическая структура, демографический показатель, Западной Гиссар, Узбекистан

**Abstract.** The article assesses the current state of *Tulipa tubergeniana* Hoog coenopopulations distributed in the Uzbek part of the Western Gissar ridge. The research was conducted in Boysun, Bobotag and Sherabad regions of Surkhandarya region. During the study, 4 coenopopulations with the participation of the species were isolated. The age structure of the species was studied in stages *j*, *im*, *v*, *g*, *s*. According to the demographic indicators of coenopopulations, the density of individuals is 1.15-3.6 per 1 m<sup>2</sup>, the ecological density is 2-7.2. AA Uranov and OS Smirnova's classification (1969), which represents the age status of ages and its effectiveness, shows that coenopopulations are characterized by age (CP 1, 3) and mature (CP 2, 4) types.

**Key words:** *Tulipa tubergeniana*, Red Book, coenopopulation, ontogenetic structure, demographic indicators, Western Gissar, Uzbekistan.


**Кириш.** Дунёдаги иқлим ўзгаришлар ва табиий экосистемаларга антропоген босимнинг йилдан-йилга ошиб бориши биохилма-хилликнинг камёб ва эндем компонентлари ҳолатига, айниқса, салбий таъсир кўрсатмоқда. Бугунги кунда камёб ва йўқолиб бораётган тур популяциялари тарқалган ҳудудларни муҳофаза қилиш биохилма-хилликни сақлаб қолишнинг асосий стратегик йўналишларидан бири ҳисобланади. Бу ўринда республикамиз флорасида тарқалган *Tulipa tubergeniana* Hoog ценопопуляциялари ҳолатини баҳолаш ҳамда уларнинг муҳофаза чораларини ишлаб чиқиш муҳим ҳисобланади.

Ҳозирги кунда камёб ва эндем турларнинг ареали, ценопопуляцияларининг ҳолати, камайиб кетиш сабаблари ва уларни муҳофаза қилиш чора-тадбирлари бўйича тадқиқотлар дунёнинг қатор илмий масканларида L.N. Jorра [1], M. Yang [2], J.S. Lefcheck [3] ва бошқа олимлар томонидан олиб борилмоқда. МДХ мамлакатларида ценопопуляцияларнинг замонавий ҳолатини организм ва популяцион белгилар орқали баҳолаш В.А. Черемушкина [4], Е.М. Олейникова [5], Г. О. Османова [6], А. С. Кашин [7] ва бошқа кўплаб тадқиқотчиларнинг ишларида келтирилган. Ўзбекистонда бу борадаги тадқиқотлар О.С.Абдураимов [8-9], Х.Ф.Шомуродов [10], Ш.У.Сарибаева [11] ва бошқалар томонидан олиб борилмоқда.



Ўрта Осиё - лола туркуми турларининг асосий келиб чиқиш ва хилма – хиллик марказларидан бири ҳисобланади. Дунё миқёсида туркум вакилларининг 100 дан ортиқ тури мавжуд бўлса, уларнинг 60 % яқини Ўрта Осиё мамлакатларида тарқалган. Уларнинг 60 % эндемлар бўлиб, тарқалиш ареали ҳам жуда тор ҳисобланади [9]. Ўзбекистон флорасида туркумнинг 34 тури бўлиб, уларнинг 5 таси эндем ва 19 тур Ўзбекистон республикаси “Қизил китоби” га (2019) киритилган [12].

**Тадқиқот объекти ва методлари.** *Tulipa tubergeniana* Hoog Tulipa L. туркумининг *Tulipanum* секциясига мансуб бўлиб, республикамизнинг Бойсун, Сина қишлоғи атрофи, Тўпаланг дарёси хавзаси, Кўхитанг ва Боботоғ тизмаларида тарқалган. Шу билан бирга мазкур тур Тожикистон флорасида ҳам келтирилган. *T.tubergeniana* 1904 йилда Хуг томонидан фанга киритилган ва илмий тавсиф берилган [13]. Ўзбекистон республикаси “Қизил китоби” (2019) га 3 статусда киритилган [14]. Тадқиқотларимиз Сурхондарё вилоятининг турли ҳудудларида олиб борилди, тадқиқотлар давомида *T.tubergeniana* иштирокида 4 та ценопопуляция (ЦП) ўрганилди (1-расм). Ценопопуляцияларнинг демографик кўрсаткичлари ва зичлигини аниқлашда трансект ташлаш (20x1) методидан фойдаланилди. Турнинг экологик зичлиги Одум [15], турнинг тикланиш кўрсаткичи даражаси А.Р. Ишбирдин [16], ценопопуляцияларнинг қариш коэффициенти даражаси Н.В. Глотов [17], турнинг онтогенези Т.А. Работнов [18], А.А. Уранов ва шогирдлари [19] томонидан такомиллаштирилган методлардан фойдаланилди. Тадқиқот олиб борилган ҳудуднинг ГАТ харитаси ArcGIS 10.6.1 дастурида тайёрланди.



1-расм. Тадқиқот олиб борилган ҳудуд харитаси

**Олинган натижалар ва уларнинг таҳлили.** Ҳозир кунга қадар дунё миқёсида *Tulipa* L. туркуми турларининг онтогенетик структурасига доир қатор тадқиқотлар В.М.Вакурова [20], Е.А.Кобозева [21], Л.В. Мухатметшина [22], М.М. Перегрим [23], А.С. Кашин [24,25] ва бошқалар томонидан олиб борилган.

1-жадвал

Ўрганилган ценопопуляцияларнинг характеристикаси

№ ЦП	Ценопопуляциялар жойлашган ҳудудлар	Ўсимлик жамоаси / доминант турлар	Тупроғи	ҚД %	Географик координата
1	Бойсун тумани Шўроб қишлоғи.	хар хил ўтли-шувоқли-бутазор/ <i>Artemisia ferganensis, Zygophyllum atriplicoides.</i>	тошли-шағалли тупроқ	15-18	N 38.211479 E 66.955715 h-1189
2	Шерабод тумани Эгарчи-Лайлакон қишлоқлари	хар хил ўтли-боялишзор/ <i>Alhagi canescens, Cousinia hamadae.</i>	бўз тупроқ	25-30	N 37.923801 E 66.985191 h-844
3	Боботоғнинг Сайхон-1 (Қумкўрғон тумани) бўлими	хар хил ўтли-шувоқли-бутазор/ <i>Allium giganteum, Carex pachystylis, Eremurus regelii</i>	майин бўз тупроқ	30-35	N 37.685584 E 67.940857 h-1207
4	Боботоғ (Томчи ҳудуди)	хар хил ўтли-бутазор/ <i>Atraphaxis pyrifolia, Anemone petiolulosa, Poa pratensis, Ziziphora persica.</i>	майин бўз тупроқ	30-36	N 38.278173 E 68.168721 h-895


Изоҳ: ҚД - қопланиш даражаси.

Тадқиқотлар давомида барча ажратилган ценопопуляцияларнинг маъмурий ҳудуди, ўсимликлар жамоаси ва доминант турлар, тупроғи, тупроқнинг ўсимликлар билан қопланиш даражаси (ҚД) ва географик координатлари аниқланди. Турлар денгиз сатҳидан 844-1207 баландликда тарқалган. Тупроқнинг ўсимликлар билан қопланиш даражаси 15-36 % атрофида бўлиб, энг юқори кўрсаткич 3 ва 4 ценопопуляцияларда кузатилди. Қайд этилган барча ценопопуляцияларда буталарнинг доминантлик қилиши кузатилди (1-жадвал)

Ценопопуляция ҳолатининг энг муҳим кўрсаткичларидан бири – бу унинг онтогенетик тузилиши бўлиб, бу маълум вақт ораллигидаги ўсимликларнинг ёш таркиби ҳисобланади. Онтогенетик структурани таҳлил қилиш, ўрганилаётган ценопопуляцияларнинг ҳозирги ҳолатини ташхислаш ҳамда уларнинг келажакдаги ҳолатини баҳолаш имконини беради.

Тадқиқотлар давомидда турнинг онтогенези 5 босқичга (*j*, *im*, *v*, *g*, *s*) бўлиб ўрганилди. Тур ценопопуляцияларининг онтогенетик структурасини аниқлашда ҳамда уларнинг спектрини баҳолашда дала тадқиқотлари давомида йиғилган гербарий намуналаридан фойдаланилди. Таҳлил натижаларига кўра, ўрганилган аксарият ценопопуляцияларда генератив давргача бўлган тушларнинг умумий сони (*j*, *im*, *v*) генератив ҳамда сенил ёшдаги тушлар сонидан кўп эканлиги қайд этилди. Маълумки лола туркуми вакиллари чап томонлама онтогенетик спектрни ўзида шакллантиради. Қайд этилган ценопопуляциялар чап томонлама (1, 3 ЦП), марказлашган (2 ЦП) ва бимодал (4 ЦП) спектрга хос эканлиги аниқланди.

**Чап томонлама спектр.** Чап томонлама онтогенетик спектр аксарият ҳолларда бир чўққили бўлиб, пик (энг юқори нуқта) ювенил ва виргинил ёшли ўсимликларга тўғри келиши аниқланди. Дала тадқиқотлари давомида *T.tubergeniana* битта уруғ қутисидида 300-450 та атрофида потенциал уруғ шаклланиши қайд этилди. Ювенил ҳолатдаги тушларнинг кўп бўлиши турнинг потенциал уруғ маҳсулдорлиги юқори эканлиги билан боғлиқ бўлиб, аксарият ҳолларда бу вақтинчалик ҳолат ҳисобланади. Чап томонлама спектрга хос бўлган 1 ва 3 - ценопопуляцияларда виргинил босқичидаги тушларнинг улуши 20,83-37,68 % атрофида бўлиши кузатилди. Бу ҳолат бевосита ювенил босқичидаги тушларнинг навбатдаги босқичларга етиб олиши билан боғлиқ. Бундан ташқари табиий шароитда турларнинг вегетатив равишда ҳам кўпайиши кузатилди.



3-расм. *T. tubergeniana* популяцияларининг онтогенетик структураси

**Марказлашган спектр.** Ценопопуляцияларда уруғдан кўпайишни бир меъёрдан ошмаслиги ва генератив босқичнинг анча давомийлиги айрим ценопопуляциялар структурасини марказлашган ҳолатда бўлишига замин яратади. Тадқиқотлар давомида 2 ценопопуляция марказлашган типга хос эканлиги аниқланди. Мазкур ценопопуляцияда генератив тушларнинг улуши 47,82 % атрофида бўлиши аниқланди. Маълумки, *Tulipa* L. туркуми турларининг генератив даври фақатгина битта босқичдан иборат бўлиб, туркум вакилларида бу давр 7-22 йилгача давом этиши қайд этилган[26].

**Бимодал спектр.** Ценопопуляцияларда виргинил ва генератив босқичларнинг кўп эканлиги ценопопуляцияларнинг бимодал спектрли бўлишига замин яратади. 4 ценопопуляция бимодал спектрли бўлиб, мазкур ценопопуляцияда виргинил (38,89%) ва генератив (41,67%) босқичдаги тушлар улушининг кўп эканлиги кузатилди. Ценопопуляцияларда виргинил ва генератив тушларнинг кўп бўлиши, ўтган йиллар мобайнида ёппасига униб чиқиш ҳисобига ҳосил бўлган майсаларнинг кейинги босқичларга муваффақиятли ўта олгани бир томондан ценопопуляцияда виргинил тушларнинг

йиғилишига олиб келган бўлса, иккинчи томондан қулай шароитда генератив даврнинг чўзилиши шу ёшли туплар сонининг ҳам кўпайишига замин яратган.

Ценопопуляциялар турнинг демографик кўрсаткичлари, уларнинг замонавий ҳолатини баҳолашда ҳамда улар устида мониторинг ишларини олиб боришдаги асосий мезонлардан бири ҳисобланади. Тадқиқотлар давомида *T. tubergeniana* ценопопуляцияларида тупларнинг умумий ва экологик зичлиги ўрганилди. Ценопопуляцияларда тупларнинг умумий сони 23-72 та атрофида эканлиги қайд этилди. Туплар зичлиги 1м<sup>2</sup> майдонда 1,15-3,6 тани ташкил қилган бўлса, 1м<sup>2</sup> майдонда экологик зичлиги 2-7,2 та бўлиши кузатилди. 1 ва 2 ценопопуляцияларда туплар миқдорининг паст кўрсаткичга эга бўлиши, бир томондан мазкур ценопопуляциялар ўсадиган ҳудудда аҳоли чорва молларини узлуксиз боқиши билан боғлиқ бўлса, иккинчи томондан ценопопуляцияларнинг аҳоли яшаш масканларига яқин эканлиги билан изоҳланади.

Ценопопуляцияларнинг демографик ҳолатини баҳолашда уларнинг тикланиш ҳамда қарилик индекслари таҳлили катта аҳамиятга эга. Тур тикланиш даражаси - ценопопуляциялардаги генератив туплар улуши билан баҳоланади. Тикланиш даражасининг энг юқори кўрсаткичи 2 ценопопуляцияда қайд этилди. Мазкур ценопопуляцияда генератив босқичдаги тупларнинг улуши 47,82 % ни ташкил қилади. Қолган ценопопуляцияларда бу кўрсаткич мос равишда 0,09-0,71 атрофида бўлиши кузатилди (2- жадвал).

2-жадвал

Ценопопуляцияларнинг демографик кўрсаткичлари

ЦП №	Ёш таркиби, %					Туплар зичлиги, дона (1м <sup>2</sup> )	Р <sub>экол</sub> (1м <sup>2</sup> )	I <sub>г</sub>	I <sub>к</sub>	ЦП тип
	j	im	v	g	s					
1	38	8	21	33	0	1.2	2	0.50	0	Ёш
2	4	9	39	47.82	0	1.15	2.3	1.13	0	Етилган
3	23	30	38	9	0	3.45	4.05	0.09	0	Ёш
4	6	14	39	41	0	3.6	7.2	0.71	0	Етилган

Изох: (I<sub>в</sub>) – тикланиш коэффициенти, (I<sub>к</sub>) – қариш индекси, Р<sub>экол</sub> экологик зичлиги.

Ценопопуляцияларда сенил даврдаги тупларнинг учрамаслиги натижасида қариш индекси коэффицентининг даражаси 0 (ноль) га тенг бўлди. А.А. Уранов ва О.В. Смирновлар [36] классификацияларига кўра, ценопопуляцияларнинг типлари аниқланди. *T. tubergeniana* онтогенетик структурасининг таҳлили шуни кўрсатадики, ценопопуляцияларнинг ёш (ЦП 1, 3,) ва етилган (ЦП 2, 4) типга хос эканлиги қайд этилди. Шу кунгача олиб борилган тадқиқотлар натижаси шуни кўрсатадики, мазкур ҳолат лола туркуми учун хос хусусиятлардан бир ҳисобланади.

**Хулоса.** Ҳозирги кунгача *Tulipa* L. туркуми турларининг интродукцияси ва уларнинг табиий ареалини ўрганиш борасида қатор тадқиқотлар олиб борилган. Маълумки, туркум вакиллари кўкаламзорлаштириш ишларида манзарали ўсимликлар сифатида кенг фойдаланилади. Ҳозирги кунга қадар Ўрта Осиёда тарқалган маданий ўсимликларнинг ёввойи аجدодлари ҳисобланган лола турларининг ценопопуляциялари, демографик кўрсаткичлари, уларнинг замонавий ҳолати ва табиий шароитда уларни муҳофаза қилиш борасидаги тадқиқотлар етарли даражада олиб борилмаган.

Тадқиқотлар давомида аниқланган 4 та ценопопуляциялар ёш (1, 3 ЦП) ва етилган (2, 4 ЦП) типга хос эканлиги қайд этилди. Ценопопуляциялар тўлиқсиз аъзоли бўлиб, уларда сенил тупларнинг учрамаслиги аниқланди. 1 ва 2 ценопопуляция маҳаллий аҳоли яшайдиган ҳудудларга яқин бўлиб, мазкур ценопопуляцияларга антропоген таъсирлар юқори кўринишда эканлиги кузатилди. Ценопопуляцияларнинг демографик кўрсаткичлари ҳамда замонавий ҳолатига доир маълумотлар, камёб ва йўқолиб бораётган турларни мунтазам мониторинг қилишида ҳамда “Қизил китоб” нинг навбатдаги нашрларида кенг фойдаланилади.

#### ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

- Joppa L.N., Roberts D.L., Pimm S.L. How many species of flowering plants are there? // Proc. R. Soc. B published online 7 July 2010 doi: 10.1098/rspb.2010.1004.
- Yang M. The current situation and protection of China Rare and Endangered See Plants. International Journal of Environmental Protection. 2013. Vol.3 Issue.5. –pp.29-34.
- Lefcheck J.S. et. al. Biodiversity enhances ecosystem multifunctionality across trophic levels and habitats // Nature Communications. 2015. № 6. –P. 69-36.
- Черемушкина В.А. Биология луков Евразии. - Н.: Наука, 2004. – 280 с.
- Олейникова Е.М. Стержнекорневые травы юго-востока средней России: Дисс.док. биол. наук. Воронеж, 2014. – 452 с.
- Османова Г. О., Животовский Л. А. Онтогенетический спектр как индикатор состояния ценопопуляций растений. Известия РАН. Серия биологическая, 2020, № 2, с. 144–152
- Kashina A. S., Petrovaa N. A., Shilovaa I. V., Parkhomenkoa A. S., Dynamics of the Demographic Structure of Coenopopulations of *Tulipa suaveolens* Roth (Liliaceae, Magnoliophyta) in the Lower Volga Region Biology bulletin. 2020 Vol. 47 No. 10 DOI: 10.1134/S1062359020100106
- Абдураимов О.С. Қизилкумда тарқалган *Tulipa* L. туркуми турларининг биологик хусусиятлари ва ценопопуляцияларининг ҳолати: Биол. фан. фалс. док. (PhD).. дис.автореф. – Тошкент, 2017. – 44 б.
- Abduraimov O.S., Shomurodov H.F., Daniyarov S.A., Abduraimov A. A. Ontogenetic Structure of Coenopopulations of *Tulipa korolkowii* Regel in Uzbekistan. Journal of Botanical Research, Singapore Vol.2, Issue. 4,2020 P.7-11.

10. Шомуродов Х.Ф. Қизилқумнинг ем-хашак ўсимликлари ва улардан фойдаланиш истикболлари: Биол. фан. док. (DSc) ... дис. автореф. – Тошкент, 2018. –60
11. Саробаева Ш.У. *Astragalus centralis* E. Sheld. ning Жануби-Ғарбий Қизилқум шароитида биоэкологик хусусиятлари ва ценопопуляциялари тавсифи: Автореф. дис. ...б.ф.н Тошкент, 2009. – 22 б.
12. Тожибоев К. Ш., Қадиров Р. У Тюлпани Узбекистана // Научно-производственный центр «Ботаника» АН УЗ Т-2010. – 191 б.
13. Шарипов А., Пратов Ў. Лолалар. Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 1997. –143 б.
14. Красная Книга Республики Узбекистан: Редкие и исчезающие виды растений и животных: (в 2-х томах): Т.1. Растения и грибы. – Ташкент: Chino ENK, 2019.- 356 с.
15. Одум Ю. Экология. Мир, 1986. Т.2. – С.6-8
16. Ишбирдин А.Р., Ишмуратова М.М. Адаптивный морфогенез и эколого- ценотические стратегии выживания травянистых растений // Методы популяционной биологии: материалы VII Всерос. популяционного семинара. Сыктывкар: 2004. Ч.2. – С. 113-120.
17. Глотов Н.В. 1998. Об оценке параметров возрастной структуры популяции растений // Жизнь популяций в гетерогенной среде. Ч. I. – С. 146-149.
18. Работнов Т.А. Жизненный цикл многолетних травянистых растений в луговых ценозах // Тр. БИН АН СССР. Сер. III. Геоботаника.1950. – Вып. 6. – С. 7-204.
19. Уранов А.А. Возрастной спектр фитоценопопуляций как функция времени и энергетических волновых процессов // Биологические науки. 1975. № 2. С. 7–34.
20. Вакурова В.М. Современное состояние редких видов эфемер в заповеднике “Ростовский” и на сопредельных пастбищах. Самарская Лука: Проблемы региональной и глобальной экологии, 2013. – Т. 22. № 4. – С. 69-72.
21. Кобозева Е.А. К вопросу о вегетативном размножении *Tulipa biebersteiana* // Труды VIII международной конференции по морфологии растений. Том.1. / Под общей редакцией д.б.н. В.П.Викторова. – М.: МГПУ, 2009. – С.227-231.
22. Мухатметшина Л.В, Муллабаева Э.З, Ишмуратова М.М. Демографическая характеристика видов рода *Tulipa* L. На южном Урале. Известия Самарского научного центра Российской академии наук. 2013. Т. 15, № 3 (4) – С. 1398-1401.
23. Перегрим М.М, І.І.Мойсієнко, Ю.С. Перегрим, В.О. Мельник. *Tulipa gesneriana* L. (Liliaceae) в Україні К. "Київський університет", 2009. – 135 с.
24. Кашин С.А. и др. Структура ценопопуляций *Tulipa gesneriana* L. (Liliaceae) в Саратовской области // Биоразнообразие аридных экосистем. Сборник научных статей. Москва, 2014. – С. 86-105.
25. Кашин С.А. и др. Особенности экологической стратегии *Tulipa gesneriana* L. (Liliaceae, Liliopsida) // Поволжский экологический журнал. 2016. № 2. –С. 209 – 221.
26. Баранова М.В. Луковичные растения семейства лилейных. Санкт-Петербург: Наука, 1999. – С. 229.

УДК 574.34

## ОСОБЕННОСТИ ЭКОЛОГИИ ПОПУЛЯЦИИ *LEPUS TOLAI* В УСЛОВИЯХ ЮЖНОГО ПРИАРАЛЬЯ

*А.И. Асаматдинова, м.н.с., Каракалпакский научно-исследовательский институт естественных наук, Нукус*

*С.М. Мамбетуллаева, д.б.н., Каракалпакский научно-исследовательский институт естественных наук, Нукус*

**Аннотация.** Мақолада Жанубий Оролбуий шароитида *Lepus tolai* популяциясининг экологик хусусиятларини ўрганиши масалалари қуриб чиқилди. Жанубий Оролбуий шароитида қўм -қуён кенг тарқалган. Жанубий Оролбуий овчилари худудларида яшовчи толай қуёнларининг популяцияси уларнинг озиқланиши ҳимоя хусусиятларининг мавсумий ўзгаришига қараб кенг эвтропиклик ва яшаш жойининг ўзгариши билан ажралиб туради. *Lepus tolai* популяция ҳолати Жанубий Оролбуий ва унинг бошқа худудларида сезиларли даражада антропоген таъсир остида қолган. .

**Калит сўзлар:** Жанубий Орол денгизи, *Lepus tolai*, қўнайиши жараёнлари, озиқланиши, омон қолиши, ҳимоя чоралари.

**Аннотация.** В статье рассматриваются вопросы изучения экологических особенностей популяции *Lepus tolai* в условиях Южного Приаралья. В регионе Южного Приаралья заяц - песчаник распространен повсеместно. Для популяции зайца-толая, обитающего на территории охотугодий Приаралья характерна широкая эвритопность и смена стадий в зависимости от сезонных изменений их кормовых и защитных свойств. Состояние популяции *Lepus tolai* в Южном Приаралье, как и в других частях его ареала, находится под заметным влиянием антропогенного фактора.

**Ключевые слова:** Южное Приаралье, *Lepus tolai*, репродуктивные процессы, питание, выживание, меры охраны.

**Abstract.** The article deals with the issues of studying the ecological features of the *Lepus tolai* population in the conditions of the Southern Aral Sea region. In the region of the Southern Aral Sea, the sandstone hare is widespread everywhere. The population of the tolai hare living in the territory of hunting grounds of the Aral Sea is characterized by a wide eurytopicity and a change of stations depending on seasonal changes in their forage and protective properties. The state of the *Lepus tolai* population in the Southern Aral Sea region, as in other parts of its range, is under the noticeable influence of anthropogenic factors.

**Key words:** Southern Aral Sea, *Lepus tolai*, reproductive processes, nutrition, survival, protection measures.

В настоящее время интенсивного развития науки популяционной экологии, большое внимание уделяется проблемам изучения, сохранения и рационального использования популяций диких животных региона Южного Приаралья. В первую очередь, особое внимание заслуживают виды, которые еще недавно имели традиционно важное охотничье значение для данного региона, главным образом, крупные млекопитающие: хищные и копытные, пушные звери. На этом фоне наиболее четко обозначаются пробелы в изучении экологии мелких и средних по размерам млекопитающих, чье значение в охотничьем хозяйстве не столь значительно или порой недооценивается [1, 2].

В связи с повсеместным увеличением антропогенного воздействия на биогеоценозы формируется, так называемый «антропогенно-нарушенный ландшафт», где одни виды адаптируются и расширяют ареал, другие снижают численность, а местами исчезают. В регионе Южного Приаралья, в последние десятилетия сокращаются площади водно-болотных угодий, тугайных и тростниковых зарослей, расширяются антропогенные территории, более благоприятные для зайца-толая.

Выбор зайца-песчаника объектом исследований определяется его повсеместным распространением в регионе Южного Приаралья, значительными естественными запасами, ролью в биогеоценозах, большим эпидемиологическим значением. Вместе с тем, уровень использования популяции весьма низок и составляет не более 10-12% от численности вида.

На территории Приаралья, заяц-толай (*Lepus tolai*) в отличие от многих других видов диких животных не только существует в условиях усиливающейся хозяйственной деятельности, но и увеличивает свою численность. В связи с этим, он является идеальным объектом для изучения наиболее актуальных вопросов механизмов выживаемости видов в антропогенно-нарушенных ландшафтах, и на мало изученных пустынных территориях.

Отсутствие специальных исследований половой и возрастной структуры популяций зайца-толая (*Lepus tolai*), его биоэкологических особенностей в различных местообитаниях, выживаемости в условиях интенсивного воздействия антропогенных факторов, а так же влияния промысла на динамику численности, не позволяет разработать стратегию охраны и использования вида [6, 7].

В условиях повсеместного усиления антропогенного воздействия на животный мир, сокращения численности зайца-толая (*Lepus tolai*) и возрастания его значения как объекта спортивной охоты, исследования экологии вида, разработка мер его охраны, воспроизводства и рационального использования приобретают особую актуальность заяц-толай (*Lepus Tolai*) - один из значимых видов животных пустынных, полупустынных биогеоценозов Центральной Азии и в частности Южного Приаралья. Поэтому изучение его экологических особенностей представляет, как практический, так и теоретический интерес. Между тем экологические особенности популяции зайца-толая на территории региона Южного Приаралья исследованы еще не достаточно.

В регионе Южного Приаралья заяц - песчаник распространен повсеместно. По данным исследователей наиболее характерными местами обитания являются тамарисковые и чингиловые заросли в низовьях дельты Амударья, песчаные бугры, заросшие кустарником, и полукустарники вблизи водоемов, солончаки, залежи, причинковые полосы, саксаульники [3, 4].

Приведем некоторые характеристики типичных мест обитания популяции зайца-толая на территории Южного Приаралья.

Охотугодья Дауткуль расположены на территории Кегейлийского района в 75 км от города Нукуса. Занимают общую площадь 12,0 тысяча гектаров. Из них водный фонд составляет 2,0 тысяча гектаров. Обводнение происходит через Буркитбайское сооружение и канал Фурхан-узьяк. Рельеф местности равнинно-болотистый. Растительный мир состоит из турганговых, лоховых деревьев и мелко кустарниковых зарослей. Из надводной растительности: заросли камыша и рогоз, из подводной растительности: чалан (рдест, роголистник серебряный) хордовые водоросли.

Государственное лесохозяйство «Казакдарья» площадью в 1192654 га расположено в северо-восточной части Муйнакского района на Казакдарьинских массивах, включающие в себя множества озер различной величины: Узынкайыр, Куатская озерная система, Коктас, Карабескум, Аббас култук и Аралкум – в настоящее время площадь водной поверхности составляет 2000 га, орошаемые земли – 5 га, камышовые заросли – 22870 га, пастбища -37622 га, участки занятые тугайными массивами составляют 211389 га. Каналы и арыки – 87 га, дороги – 8 га, другие земли -418673 га.

Источниками водных ресурсов являются р. Амударья, коллекторы КС-3 и проток Кокдарья и воды термальных скважин. Территория хозяйства занимает равнинную поверхность. Растительный мир характеризуют турангиловые *Populus pruinosa Schrenk* и лоховые *Elaeagnus turcomanica* деревья, кустарниковые заросли из саксаула *Haloxylon aphyllum*, тамарикса *Tamarix laxa*, *Tamarix hispida*, чемыша *Halimodendron halodendron*, солянки *Salsola orientalis* и др. Из околородных растений преобладают

заросли камыша *Phragmites communis* (L.) Trin., рогозы *Typha angustifolia* и солероса *Salicornia europaea* L., а также верблужьей колочки *Alhagi pseudalhagi* и др.

Охот угодья Жалтырбас Муйнакского района расположены в 5 км севернее пос. Казахдарья. Система озер состоит из множества озер различной величины: Жалтырбас, Тербенбес, Узынкаир, Гаван, Атабай култук и др. Имеют общую площадь 36 тысяча гектаров. Рельеф местности: песчано-глинистый-солончаковый. На участках растет саксаул с крупными кустами гребенщика и зарослей джингиля. Из надводной растительности преобладают: заросли камыша, рогоза и луговые пространства покрытые пыреем.

В пустынях Кызылкум заяц-толай, чаще всего, обитает в бугристых песках и межбугровых понижениях, поросших кустарниками, среди разреженного саксаульника с солянками и полынью, в песчаных массивах, граничащих с орошаемыми и залежными землями. Обычно заяц-песчаник летом концентрируется вблизи водоемов и источников, где находит более благоприятные условия для существования.

Как отмечают специалисты, заяц-песчаник по циклу суточной активности – сумеречное животное, которое кормится вечером и ночью. Суточная активность его различные сезоны меняется. Кормовой базой *Lepus tolai* служат разнообразные травянистые и кустарниковые растения. Анализ более 122 желудков показал, что максимальный вес их достигает 120-130 г, наполненность кормом колеблется от 20 до 80% [1, 3, 4].

По визуальным наблюдениям отмечено, что зайцы поедают листья, побеги, цветы и корневища растений. Зимой в желудках *Lepus tolai* найдены остатки плодов, сухих побегов кустарников, а летом-исключительно зелень. По нашим наблюдениям *Lepus tolai* в основном питается как дикой, так и культурной растительностью, включающей более 35 видов [2, 3]. Вегетативные и генеративные части некоторых сельскохозяйственных культур также поедаются, особенно в годы массового размножения зайцев. Однако ущерб приносимый ими сельскому хозяйству невелик. Сильного повреждения саксаульников не наблюдалось.

По данным ученых, период репродуктивной активности у зайца-толая продолжается с января по август месяцы. Количество активных самцов (вес семенников – более 3,0 г) в июле составляет 84,6%, в августе – 28,5% [2, 3]. Средний вес яичников также подвержен значительным изменениям в зависимости от их функционального состояния [1, 2, 7]. В конце августа и в начале сентября наблюдается изменение, как веса семенников, так и размера яичников, вызванное деградацией желтых тел и затуханием размножения. Как правильно отмечают специалисты, уже в середине февраля в яичниках обнаруживаются желтые тела с кровоизлиянием в центре – признак, указывающий начало беременности [2, 7].

В зависимости от специфики условий года, гон у зайца-песчаника обычно происходит в конце января, начале февраля. Кроме того, не все особи одновременно приступают к размножению (сначала старшие особи, имеющие большие весовые группы, а затем молодые прошлого года) [3, 4]. Средняя величина помета заметно изменяется с весны к осени. В апреле – мае среднее число эмбрионов в помете составляет 4,4, а в августе – 3,0. Плодовитость самок зависит от их веса: чем крупнее животное, тем относительно больше величина выводка и количество последнего. Наиболее плодовиты самки весом 2200 – 2300 г, они обычно приносят до 3 пометов в год, средняя величина помета 5,0 – 5,5. Следует отметить, что это группа самок в популяции небольшая (около 25 – 30%) [2, 4, 6].

По нашим данным перезимовавшие самки в течение весеннее – летнего периода обычно приносили один – два выводка и редко три. Как правило, третий помет появляется в конце июля и августе.

Для *Lepus tolai*, обитающего на территории охотугодий Приаралья характерна широкая эвритопность и смена стадий в зависимости от сезонных изменений их кормовых и защитных свойств. Состояние популяции заяц-толай (*Lepus tolai*) в Южном Приаралье, как и в других частях его ареала, находится под заметным влиянием антропогенного фактора. Его действие неоднозначно и главным образом, опосредовано через изменение среды обитания животных и имеет тенденцию к усилению.

В целях более эффективного управления ресурсами зайца-толай (*Lepus tolai*) можно предложить следующие мероприятия. В связи с резким увеличением следовой активности животных во время весеннего гона следует проводить ежегодные зимние маршрутные учеты равномерно в течение всего периода учетов. Это исключит ошибки в определении характера изменений численности вида. Для прогнозирования осенней численности популяции необходимо учитывать погодные условия весенне-летний период и проводить в конце сентября пробные отстрелы зайцев для выяснения возрастной структуры популяции.

#### СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Белкин З.В. К изучению пространственной структуры популяции зайца-беляна в южной Карелии // Экология наземных позвоночных Северо-Запада СССР. Петрозаводск, 1981, с. 143-148.
2. Березин А.В. Экология зайцев Омской области // Терофауна России и сопредельных территорий. Материалы Международного совещания 6-7 февр. 2003 г., Москва. М., 2003. - С. 41.

3. Кудрявцева Т.В., Смирнов М.Н. Роль климатических факторов в размещении населения и динамике численности зайца-русака (*Lepus europaeus* Pall.) на юге Средней Сибири // Вестник КрасГАУ. Вып. 3. - Красноярск, 2008. - С. 148-153.
4. Реймов Р. Мелкие млекопитающие Южного Приаралья. - Ташкент. - ФАН. -1985.- 95 с.
5. Березин А.В. Морфологические особенности зайца-беляка и зайца-русака Омской области / А.В. Березин // Сибирск. зоол. конф. Тез. докл. -Новосибирск, 2004. С. 106-107.
6. Кудрявцева Т.В. Заяц-русак (*Lepus europaeus* Pall., 1778) в Средней Сибири (ареал, экология, использование ресурсов).- Автореф. дисс. ... канд. биол. наук., Улан-Удэ – 2009.- 17 с.
7. Шилов, И.А. Динамика популяций и популяционные циклы /И. Шилов // Структура популяции у млекопитающих: вопросы териологии. — М.: Наука, 1991.-С. 151 -172.
8. Trembl F. Prevalence of Leptospirosis Antibodies in the European Hare (*Lepus Europaeus* Pall.) in the District of Breclav / F. Trembl, J. Pikula, Z. Holesovska // Acta Vet. Brno, 2003, vol. 72. P. 377-381.

УДК 574

## ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА СОСТОЯНИЯ ЛИМНИЧЕСКИХ ЭКОСИСТЕМ КАРАКАЛПАКСТАНА

*А.Д. Атажанова, м.н.с., Каракалпакский научно-исследовательский институт естественных наук, Нукус*

*С.М. Мамбетуллаева, д.б.н., проф., Каракалпакский научно-исследовательский институт естественных наук, Нукус*

**Аннотация.** Мазкур мақолада Қорақалпоғистон ҳудудидаги лимник экотизимларини экологик баҳолаш ва уларнинг маҳсулдорлигини бошқариш масалалари кўриб чиқилган. Лимник экотизимларни минтақавий ва глобал атроф-муҳит ўзгаришларини аниқлашда энг асосий ахборот объекти ҳисобланади. Қаратеренг кулининг гидрохимик режимининг экологик хусусиятлари ундаги биогеоцен моддалар концентрацияси ўзгаришининг мавсумга боғлиқлигини курсатиши маълум бўлди.

**Калит сўзлар:** Қаратерен кўли, периферик кўллар, эвтрофикация, туб чўкиндилари, кўлнинг гидрологик ва гидрохимик режимлари

**Аннотация.** В статье рассматриваются вопросы экологической оценки лимнических экосистем Каракалпакстана и управление их продуктивностью. Лимнические экосистемы являются наиболее информативными объектами для выявления региональных и глобальных изменений окружающей среды. Экологической особенностью гидрохимического режима оз. Каратерен является сезонный характер изменения концентрации биогенных веществ.

**Ключевые слова:** озеро Каратерен, периферические озера, эвтрофированию, донных отложений, гидрологический и гидрохимический режимы озера

**Abstract.** The article deals with the issues of the ecological assessment of the limnology ecosystems of Karakalpakstan and the management of their productivity. limnology ecosystems are the most informative objects for identifying regional and global environmental changes. The ecological feature of the hydrochemical regime of the lake. Karateren is a seasonal change in the concentration of nutrients.

**Keywords:** Lake Karateren, peripheral lakes, eutrophication, bottom sediments, hydrological and hydrochemical regimes of the lake

В настоящее время актуальной проблемой исследований водных экосистем является изучение периферических озер как индикаторов зональной специфики формирования качества вод, развития антропогенно-индуцированных процессов в водах суши различных природно-климатических зон, а также тех глобальных изменений окружающей среды, происходящих в современный период [1, 7]. Наиболее перспективным объектом для оценки состояния водных экосистем, по нашему мнению, являются водоросли - первичное и очень информативное звено трофических цепей.

В современный период остается все меньше озер, особенно малых, с ненарушенной экосистемой, так как хозяйственная деятельность охватила не только водосборные бассейны (сведение лесов, распашка земель, мелиорация, животноводство, добыча нефти, газа и т.д.), но и сами озера (искусственное изменение уровня воды, сброс бытовых и промышленных стоков, добыча сапропелей и грунта, рекреация, энергетика, рыбозаповедение и т.д.) [10].

Водные объекты являются важнейшей составляющей окружающей человека природной среды. Водные экосистемы находятся в состоянии равновесия с условиями внешней среды и имеют сложную структуру, нарушаемую под воздействием антропогенных факторов [11, 12]. Современная глобальность и интенсивность антропогенной деятельности, негативные последствия природных катаклизмов и климатические изменения приводят к нарушению интегративных свойств водных экосистем (продуктивность, качество и токсическое загрязнение, устойчивость, благополучие и др.) [10, 12].

Антропогенное воздействие вносит существенные изменения, прежде всего, в абиотические элементы озерной экосистемы (морфометрические характеристики, гидрологический и гидрохимический режимы озера), определяющие условия жизнедеятельности гидробионтов. Последние

в естественных условиях обеспечивают сбалансированность биологического круговорота, адаптированного в процессе эволюции к определенному режиму абиотических элементов, а также самоочищение экосистемы. При любом антропогенном воздействии нарушается естественное равновесие между биотическими и абиотическими составляющими озерной экосистемы, что приводит к интенсивному заилению и обмелению озер, их зарастанию, загрязнению. Озера «цветут», ухудшается качество озерной воды, в результате теряется их значение как источников чистой воды. Поэтому восстановление, оздоровление и охрана озерных экосистем являются наиболее актуальными проблемами современной лимнологии [7, 11].

Антропогенный фактор в формировании химического состава вод в последние годы становится по значимости в один ряд с природными геохимическими и биологическими процессами [7, 8]. Преобразование водосборов, трансграничные потоки, атмосферные выпадения, индустриальные и хозяйственные сбросы, неорганизованные стоки с селитебных территорий приводят к изменению геохимических

циклов элементов в системе «водосбор-водоем», появлению токсичных компонентов в водной среде, эвтрофированию, закислению, что, в конечном итоге, ухудшает качество вод. Кроме этого, изменение качества атмосферных осадков приводит к изменению геохимии водосборной системы и природного потока элементов, что может приводить к преобразованиям качества водных ресурсов в пределах больших территорий.

Существует множество методов оценки состояния водных экосистем по различным параметрам. В то же время большинство из них применимо не ко всем категориям водных объектов и факторов воздействия. Известно лишь несколько разработанных методов интегральных оценок, позволяющих применять их на любых водных объектах и для оценки большинства факторов воздействия. Так, например, количество растворенной в воде органики является интегральным показателем состояния вод и водных экосистем в целом, так как складывается из органических веществ, возникших в процессе жизнедеятельности организмов на всех трофических уровнях, а также внесенных с бассейна водосбора в результате природных и антропогенных процессов.

По данным исследования малых озер в мировой науке дается оценка долговременным изменениям, происходящим в регионах и на континентах [9]. Выявление долговременных тенденций изменения химического состава вод, обусловленных глобальными изменениями окружающей среды и климата, имеет важное значение для прогноза состояния качества вод в современных условиях.

Экологическая оценка состояния водных экосистем, основанная на биоиндикации с помощью водорослей, позволяет сравнивать водные объекты разного типа и расположенные в различных регионах. Методы биоиндикации разрабатываются уже давно, примерно с начала нашего века. В настоящее время сложилось три системы оценки качества вод, построенных на индикаторном значении таксонов. Видовая характеристика конкретного сообщества недостаточна для оценки состояния водной экосистемы в целом. В структурных характеристиках сообщества прослеживаются следующие закономерности. С увеличением азотно-фосфорной нагрузки сообщество ультра-олиготрофного водоема постепенно повышает свое видовое разнообразие, причем размах изменчивости  $H$  становится максимальным в середине олигосапробной зоны самоочищения [1, 7].

Таким образом, описанная система взаимосвязей и закономерностей может служить моделью функционирования водных экосистем. На основе этой модели можно оценить состояние водной экосистемы, имея только некоторые из параметров. Чаще всего имеется лишь набор гидрохимических характеристик и иногда также продукционных. В этом случае, основываясь на классификации имеющихся химических параметров среды, проводится экстраполяция на ось значений индексов сапробности, а затем на параметры видового богатства и биоразнообразия. При наличии данных по видовому разнообразию или индексам подробности в любой из систем, проводится обратная операция.


Для того чтобы полно и достоверно охарактеризовать состояние водной экосистемы предложенным методом, желательно иметь продукционные и гидрохимические показатели или данные по ним, полученные экстраполированием. Сопоставление полученных данных с продукционными и гидрохимическими позволяют оценить состояние анализируемой экосистемы [2, 3].

Периферические озера являются наиболее информативными объектами для выявления региональных и глобальных изменений окружающей среды. Химический состав вод малых озер (при отсутствии локальных источников загрязнения) более четко отражает зональную и региональную специфику условий его формирования, а также те глобальные антропогенные процессы, которые происходят в последнее время в поверхностных водах суши [3].

Периферические, внутри оазисные, озера образуются в центре культурных оазисов и современной дельты Амударьи т.е. на границе аллювиальной равнины и водораздельных пространств. Питают их в основном сбросные воды ирригационной сети. В водном балансе большую роль играет и выклинивание грунтовых вод.



Гидрорежим данной группы озер в целом подчиняется календарю сельскохозяйственных работ. В периоды промывных и вегетационных поливов уровень воды в этих водоемах резко повышается [4]. Все они в хозяйственный теоретический интерес. В Каракалпакстане к наиболее крупным озерами описываемого типа являются оз. Каратерень.



**Рис.1. Карта-схема расположения оз. Каратерень на территории Каракалпакстана**

Озеро Каратерень расположено в 25 км севернее Тахтакупырского района Республики Каракалпакстан, у подножья возвышенности Бельтау. В конце прошлого века, когда один из рукавов Амударьи-Куваныш-Джарма-имел прямую связь с Аральским морем через Яны – Су питал озеро Каратерень, оно имело очень большую площадь [4]. После того, как связь Куваныш Джармы с Аральским морем прекратилась, площадь озера намного сократилась и не превышала 650 га. В настоящее время общая площадь оз. Каратерень составляет 2169 га. (рис.1).

Основным источником питания являются грунтовые и сбросные воды. Вода соленая с горьковатым привкусом, сине-голубого цвета. Максимальная глубина водоема 8м, средняя 3 минимальная 0,4 м. Прозрачность воды 2 м осенью, 6-зимой.

В последние годы общая зарастаемость водоема несколько сократилась в связи с уменьшением проточности. В юго- западной части озера преобладает рогозовой-тростниковая ассоциация, в южной и северной части-тростниковая. На восточном берегу тростник и рогоз встречаются пятнами.


Таким образом, лишь около 15% общей озера занято зарослями тростника и рогоза, распространяющимися до глубины 0,8 м. Далее до глубины 1,7 м идут главным образом харовые водоросли. С южной и юго-восточной сторон водоем окружают орошаемые земли, с северной и северо-восточной - возвышенность Бельтау, с западной - перевеянные пески. Вокруг озера развиты тамарисково-солянковые ассоциации; на западном берегу - заросли верблюжьей колючки. Берега пологие, плавно изреженные [4, 7].

Как известно, биотические компоненты водных экосистем отражают трофический статус водного объекта, который, в свою очередь, зависит от количества органических веществ, растворенных в воде. В соответствии с этим популяции, виды и сообщества организмов имеют определенный уровень толерантности в сложившихся условиях. Исследование изменений, происходящих в структуре популяций и сообществ, позволяют оценить состояние всей экосистемы. По данным специалистов, кормовая база для рыб в озере была благоприятной. Донные организмы представлены Chionomida Trichoptera Odonata Dreissena Limnaea Vermes Grammaridae [6]. Преобладали личинки хирономид, дрейсены и гаммарусы. По визуальным наблюдениям ученых, бентические и планктонные организмы в оз. Каратерень развиты слабо- содержание бентоса составляло 600 экз/1м<sup>2</sup> с преобладанием тендипедид [6, 8].

Дно представляет собой постепенно углубляющуюся к середине впадину, большая часть которой занята мощными иловыми отложениями. Наиболее широко распространены черные илы с примесью песков, глины, полуразложившихся органических остатков и ракушечника. Черные илы преобладают в центральной части озера, где мощность их достигает двух и более метров. На западном берегу озера

грунт песчаный с примесью ракушника, на юге-восточном-коричневатые глины с полуразложившимися органическими остатками.

Проведенный анализ (рис.2) содержания концентраций биогенных элементов в донных отложениях оз. Каратерень в динамике показал, что если в начале 2000-х гг. до 2015 г., содержание  $\text{NH}_4$  и  $\text{P}_2\text{O}_5$  было более стабильным и составляло в пределах 9-10 мг/л и 7,8- 17 мг/л (соответственно), то уже к 2019 году данный показатели достигли 25 – 28 мг/л соответственно. Показатели  $\text{NO}_3$  в течение рассматриваемого периода лет составили от 6 до 1,2 мг/л.



**Рис.2. Динамика концентрации биогенных элементов в донных отложениях оз. Каратерень**

Таким образом, особенностью гидрохимического режима оз. Каратерень является сезонный характер изменения концентрации биогенных веществ. Содержание  $\text{PO}_4$  в воде оз. Каратерень очень мало. Основное его количество аккумулируется в придонном слое. Концентрация фосфора в детрите (подвижная форма  $\text{P}_2\text{O}_5$ ) подвержена колебаниям. Как показали результаты анализов, весной его содержание составляет 22,6-25,3 мг/кг, а осенью – уменьшается до 13,728 мг/кг. Это свидетельствует о том, что устойчивость к эвтрофикации водных экосистем зависит от подвижности биогенных элементов в системе «вода - донные отложения». Процессы эвтрофирования труднообратимы, поскольку приводят к внутренним, коренным изменениям в экосистеме водоема. Причины и особенности развития процесса эвтрофирования в различных водных объектах разнообразны и любой вид антропогенного загрязнения водоема ведет к перестройке его экосистемы. Поэтому, исследования процессов эвтрофирования на протяжении последних десятилетий остаются актуальными и, видимо, еще долго будут таковыми из-за их ускорения под действием антропогенных факторов.

Развитие мелководных озерных экосистем, имеющих сходный генезис, связано с формированием сообществ, морфологией водоемов и их водосборов. Различия в трофическом статусе мелководных озер определяются разной степенью нарушенности природной сукцессии экосистем на фоне региональных особенностей освоения, природные процессы быстро трансформируются антропогенными даже в случае незначительной внешней нагрузки, что выражается в ускорении темпов эвтрофирования. Использование показателей аккумуляции биогенных элементов в донных отложениях в качестве биоиндикатора состояния водной экосистемы дает возможность объяснить наблюдаемые особенности внешнего и внутреннего их поступления и частично потери, а также описать динамику биогенных элементов в соответствии с имеющимися наблюдениями и может использоваться для прогнозов и решения задач охраны и рационального использования природных водных ресурсов региона Южного Приаралья.

#### СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Атаназаров К.М. Экологическая роль биогенных элементов поверхностных вод низовьев Амударьи в условиях антропогенного пресса: Автореф. ... канд. биол. наук.- Ташкент, 1999.- 23 с.
2. Бердавцева Л.Б., Цыцарин Г.В. Гидролого-гидрохимические аспекты превращения органического вещества в Можайском водохранилище // Водные ресурсы.- 1984.- № 4.- с. 121-129.
3. Дмитриев М.Т., Казнина Н.И., Пинигина И.А. Санитарно-химический анализ загрязняющих веществ в окружающей среде. М.: Химия, 1989. 368 с.
4. Ешимбаев Д. Гидрохимическое состояние водоемов Каракалпакии в условиях водохозяйственных мероприятий в бассейне Амударьи. – Ташкент: ФАН, 1975. - 88 с.
5. Жолдасова И.М., Гусева Л.Н. Состояние гонад и размножение сома в низовьях Амударьи // В кн. Биологические основы рыбного хозяйства республик Средней Азии и Казахстана.- Душанбе.- 1976.- С. 354-365.

6. Жолдасова И.М. Об организации охраны аборигенного рыбного населения низовьев реки Амударьи // Материалы респуб. науч.-прак. совещ. «Проблемы охраны и рационального использования биоресурсов водоемов Узбекистана.- Ташкент.- 2000.- С.39-43.
7. Константинова Л.Г. Антропогенная эвтрофикация поверхностных вод низовьев Амударьи.// Биологические ресурсы Приаралья. – Ташкент: ФАН, 1986. – С.61-90.
8. Россолимо Л.Л. Изменение лимнических систем под воздействием антропогенного фактора. - Л.: Наука. – 1977. – 144 с.
9. Sawicka, K.; Rowe, E.C.; Evans, C.D.; Monteith, D.T.; Vanguelova, E.I.; Wade, A.J.; Clark, J.M.. 2017. Modelling impacts of atmospheric deposition and temperature on long-term DOC trends. Science of the Total Environment, 578. 323-336. 10.1016/j.scitotenv.2016.10.164.
10. Дмитриев В.В., Фрумин Г.Т. Экологическое нормирование и устойчивость природных систем. - СПб., 2004. - 294 с.
11. Мусатов, А.П. Оценка параметров экосистем внутренних водоемов. - М.: Научный мир, 2001. - 192 с.
12. Прыткова, М.Я. Научные основы и методы восстановления озерных экосистем при разных видах антропогенного воздействия. -СПб.: Наука, 2002. - 148 с.

УЎК 591:37.02

## ЗООЛОГИЯ ДАРСЛАРИДА ИЖОДИЙ ВА МУСТАҚИЛ ФИКРЛАШ КЎНИКМАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

**Ф. Батирова, ўқитувчи, Жисмоний тарбия ва спорт буйича мутахассисларни қайта тайерлаш ва малакасини ошириш институти Самарқанд филиали, Самарқанд**

**Аннотация.** Мақолада Зоология ўқув фанидан анатомик, морфологик, цитологик, физиологик, систематик, эволюцион, экологик, генетик ва ҳ.к. тушунчаларни таркиб топтириш, дедуктив мантикий йўналишга эга бўлган масала ва машқларнинг умумий хусусиятлари очиб берилган.

**Калим сўзлар:** зоология, дедуктив, индуктив, мантикий, сут эмизувчи, масала, топтириш.

**Аннотация.** В статье рассматриваются анатомические, морфологические, цитологические, физиологические, систематические, эволюционные, экологические, генетические и др. объясняются структура понятий, задача с дедуктивно-логической направленностью, общие особенности упражнения.

**Ключевые слова:** зоология, дедуктивный, индуктивный, логический, млекопитающее, проблема, задача.

**Abstract.** The article deals with anatomical, morphological, cytological, physiological, systematic, evolutionary, ecological, genetic, etc. the structure of the concepts, the problem with a deductive logical direction, and the general features of the exercise are explained.

**Keywords:** zoology, deductive, inductive, logical, mammal, problem, task.

Ўзбекистон Республикаси таълим тизимини тубдан ислоҳ қилишнинг назарий асоси саналган Кадрлар тайёрлаш миллий дастури талабларидан бири ўқувчиларда ижодий ва мустақил фикрлашни ривожлантириш сана- лади. Фикр инсон фаолияти, унинг ўз кучи, кудрати ва билиминини ташкил этувчи маънавий-инсоний сифатидир. Фикр ривожини ижтимоий-иқтисодий тараққиётнинг асосий ҳаракатлантирувчи кучи бўлганлиги учун, ўқитиш жараёнида ўқувчиларнинг ижодий ва мустақил фикр юритишни кўникмалари ривожлантириш зарур.

Ўқувчиларнинг ижодий ва мустақил фикр юритишни кўникмаларини ривожлантиришда биологиядан ташкил этиладиган таълим-тарбия жараёнида масала ва машқлар ечишни йўлга қўйиш муҳим аҳамият касб этади:

Умумий ўрта таълим мактабларининг 7-синфида ўқитиладиган “Зоология” ўқув фанининг ҳар бир мавзусида анатомик, морфологик, цитологик, физиологик, систематик, эволюцион, экологик, генетик ва ҳ.к. тушунчалар муайян тартибда берилган бўлиб, мавзу баёни асосан дедуктив мантикий йўналишга эга.

Аввал тип ва синфларнинг умумий характеристикаси, кейин вакилларнинг ўзига хос хусусиятлари ўрганилади.

Ўқитувчи мавзу мазмунининг мантикий йўналишини эътиборга олган ҳолда масала ва машқларни дедуктив, шу билан бир қаторда индуктив тарзда ҳам тузиши мумкин.

Дедуктив мантикий йўналишга эга бўлган масала ва машқда аввал умумий хусусиятлардан кейин хусусий белгиларга ўтилади.

1-масала. Нима сабабдан қушларда диафрагма бўлмайдими-ю, сут эмизувчилар учун диафрагма зарур?

Ушбу масалани учинчи ўқувчилар аввал қушларнинг, сут эмизувчиларнинг умумий белгилари, сўнгра нафас олиш жараёни ва унда диафрагманинг вазифаларини аниқлаши лозим.

Индуктив мантикий йўналишга эга бўлган масала ва машқда аввал хусусий белгилар, кейин умумий белгилар тавсиф этилади.

2-масала. Фараз қилинг Сизга қушнинг скелети берилиб, унинг қайси муҳитда яшаганлиги ва қандай озиқ тури билан озиқланганлигини аниқлаш сўралди. Сиз аввало нималарга эътибор қаратиш лозимлиги ва қандай аниқлашни тавсия этган бўлардингиз?

Ушбу масалани ечиш учун ўқувчилар қушларнинг экологик гуруҳлари, уларнинг ўзига хос хусусиятлари, яшаш муҳитига боғлиқ белгилари ва озиқланишига кўра тумшукларининг ўзгаришларини аниқлаши лозим.

Ҳар иккала ҳолда ҳам ўқувчилар аввал ўзлаштирган билимларини янги вазиятларда қўллаш имконини беради.

Зоологияни ўқитишда фойдаланиладиган масала ва машқларни ўқувчилар томонидан ечиш жараёнида фойдаланилган ўқув усулларига кўра:

- Мантиқий масала ва машқлар;
- Ижодий изланишли масала ва машқлар;

Мантиқий масала ва машқларни ечиш жараёнида ўқувчилар мантиқий фикр юритиш операцияларидан фойдаланади.

Масалан, фараз қилинг Сизга сут эмизувчи ҳайвонлар бош скелетларининг мажмуаси берилди, уларнинг қайси муҳитда яшаганлиги ва қандай озиқ тури билан озиқланганлигини аниқлаш сўралди. Сиз аввало нималарга эътибор қаратиш лозимлиги ва қандай аниқлашни тавсия этган бўлардингиз? дейилган масалани ечиш учун ўқувчилар сут эмизувчиларнинг туркумларининг вакиллари, уларнинг тузилишидаги ўзига хос хусусиятларни таҳлил қилиши, уларни ўзаро таққослаши, ўхшашлик ва фарқларни аниқлаб, хулоса чиқариши лозим.

Ижодий изланишли масала ва машқларни ечиш жараёнида ўқувчилар аввал ўзлаштирган билимларини янги вазиятларда ижодий қўллайди.

Масалан, зоологияни ўқитишда фойдаланиладиган машқлар ичида ўқувчиларнинг аввал ўзлаштирган билимларидан фойдаланиш имконини берадиганлари ва ўз жавобларини далиллаш зарур бўлган машқлар ҳам учрайди. Мазкур машқлар ўқувчиларнинг қизиқишини орттириш билан бирга мустақил фикр юритиш кўникмаларини ривожлантиради

Жумладан, ушбу топшириқда қуйидагилар талаб этилади:

1. Нима сабабдан кўршапалакни учар калтакесак ёки қуш деб бўлмайди?

Кўршапалакнинг ҳаёт тарзи ва унинг ўзига хос хусусиятларини аниқланг.

Ўқувчилар ушбу саволларга жавоб топиш жараёнида кўршапалаклар сут эмизувчилар синфининг қўлқанотлилар туркумига мансублигини далиллаши, аввал ўзлаштирган билимларини янги вазиятларда қўллаш имконини беради.

Машқлар ичида турли систематик гуруҳ вакиллари ўзаро таққослаш, улар ўртасидаги ўхшашлик ва фарқларни аниқлаши мумкин.

Қуйида берилаётган масала ва машқларни ечинг ва уларни таҳлил қилинг. Таҳлил асосида матн якунида берилган жадвални тўлдириг.

1-масала. Нима сабабдан илонлар “қовурғаси билан юради” дейилишининг моҳиятини тушунтириг.

2-масала. Нима сабабдан сут эмизувчи ҳайвонларнинг янги туғилган болаларининг боши етук формаларидан фарқ қилиб танасига нисбатан катта бўлади?

3-масала. Ҳашаротларда юрак урушининг частотаси тана ҳажмига боғлиқ эмас. Буни қандай изоҳлаш мумкин?

4-масала. Қушларда тиш бўлмаслиги қайси органларининг ўзгаришига олиб келган? Сиз бу ҳолатни қандай изоҳлайсиз?

5-масала. Одамни операцияга тайёрлаш жараёнида наркоз маскаси юз томонига қўйилади. Ҳашаротларни тинчлантириш учун наркоз маскасини қаерга қўйишни тавсия этасиз?

6-масала. Кўпгина сув ҳашаротлари сув тубига тушганда танаси нафас тешиги билан бирлашган ҳаво резервуари билан ўралган бўлади. Олимлар сув ҳашаротлари устида қуйидагича тажриба ўтказдилар. Ҳашаротларни аквариум тубига тушириб, уларнинг тепага чиқишига тўсқинлик қиладиган шароитни вужудга келтирилди ва 3та аквариумнинг тагига қуйидаги газлар билан сунъий муҳит яратилди.

1-аквариумда фақат азотли муҳит бўлиб ҳашарот 5 минут яшаган.

2-аквариумда ҳаволи муҳит бўлиб ҳашарот 6 соат яшаган.

3-аквариумда фақат кислородли муҳит бўлиб ҳашарот 35 минут яшаган.

Ушбу тажрибанинг моҳияти ва кузатилган ҳолатни изоҳланг.

7-масала. Оқуннинг жабра ёйида очиқ қизил рангли жабра япроқчалари, унга қарама-қарши томонида оқ рангдаги жабра равоқлари жойлашган. Жабра япроқчалари ва равоқларининг функцияси тўғрисида хулоса ясанг.

8-масала. Нима сабабдан йўлбарснинг ичаги сигирникига нисбатан қисқа бўлади?


9-масала. Фордаги сув ҳавзаларида балиқлар кўр бўлиши аниқланган. Улар ўз озиғини қандай топади?

10-масала. Сут эмизувчи ҳайвонларнинг ҳаётий фаоллиги уларнинг юрагининг ҳажмига боғлиқ. Ҳашаротларнинг ҳам ҳаётий фаоллиги уларнинг юрагининг ҳажмига боғлиқми? Фикрингизни асосланг.

Зоологияни ўқитишда масалалар билан бир қаторда машқлардан ҳам фойдаланиш кўзланган натижани беради. Машқлар мазмуни жиҳатидан объектларни таққослаш, ўхшашлик ва фарқларни аниқлаш, ҳайвонларнинг систематик гуруҳига хос белгиларни топиш кабиларга бўлинади.


Ўқувчилар машқларни бажариш жараёнида тирик организмларни таққослаш, уларнинг ўзига хос хусусиятини аниқлаш, биологик жараёнлар ва эволюцион келиб чиқишини таҳлил қиладилар.

Қуйидаги ҳайвонларнинг қайси тип ва синфларга мансублигини аниқланг. Уларнинг ўхшашлиги ва фарқларини аниқланг.




Ўқувчилар ушбу топшириқларни бажариш жараёнида объектларни таниш, уларни систематик гуруҳларга ажратиш, мантикий фикр юритиш кўникмалари ривожлантирилади.

Қуйидаги машқни бажариш жараёнида ўқувчилар ҳайвонларнинг тип ва синфлари, шу жумладан, ҳаракатланиш тип ва органларини аниқлаш тавсия етилади:



Қуйида берилган расмни машқ ўқувчилардан умуртқасиз ҳайвонларнинг турли синфи вакиллари таққослаш, уларнинг яшаш муҳитига мослашиши, паразитлик ҳаёт кечиришига боғлиқ ҳолда вужудга келган белгилари, ўхшашлик ва фарқларни аниқлашни тақоза этади.



Куйида берилган расмли машқ ўқувчилардан умуртқали ҳайвонларнинг турли синфи вакиллари таққослаш, улардаги яшаш муҳитига мослашиш белгилари, ўхшашлик ва фарқларни аниқлашни тақоза этади.

Ҳайвонларни ўзаро таққосланг. Ўхшашлиги ва фарқларини топинг. Ушбу машқни бажариш жараёнида ўқувчилар думлилар ва думсизлар туркуми вакилини таққослаб, ўхшашлик ва фарқларини аниқлайди.

Шундай қилиб, зоологияни ўқитишда фойдаланиладиган масала ва машқлар таълим-тарбия жараёнида муҳим ўрин тутади. Ўқитишда масала ва машқлардан фойдаланиш ўқувчиларнинг билимларини мустаҳкамлаш, умумлаштириш, тизимга солиш ва амалиётга қўллаш имконини беради.

#### ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Мавлонов О.М. Ўқувчиларнинг мустақил ўқишини ташкил этиш ва ўз-ўзини баҳолашда кўп ахборотли тест топшириқларидан фойдаланиш. – Тошкент, 1999. -16 б.
2. Мавлонов О.М., Ж.Толипова. Зоология ўқитиш методикаси. – Т.: Абу Али ибн Сино, 2004. 120 б.
3. Мавлонов О.М., О.Наджимова, М.Нишонбоева. Зоология ўқитиш методлари ва технологиялари. 7-синф. Ўқитувчилар учун қўлланма. – Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2005. – 160 б.

УЎК 582.751.2

### ТОШКЕНТ БОТАНИКА БОҒИ ШАРОИТИДА GERANIUM PRATENSE L. ДОРИВОР ЎСИМЛИГИНИНГ МОРФОЛОГИЯСИ ВА АГРОТЕХНИКАСИ

Д.Б. Бердибаева, б.ф.н., кат.и.х., ЎЗР ФА Ботаника институти ҳузурдаги Тошкент Ботаника боғи, Тошкент

Ш.Ж.Маматова, ўқитувчилари, Тошкент

Н.И. Халлиева, ўқитувчилари, Тошкент

**Аннотация.** Мақолада Тошкент Ботаника боғининг “Доривор ўсимликлар коллекциясида” экиб ўстирилган *Geranium pratense L.* доривор ўсимлигининг морфологияси ўрганилди ва агротехникаси ишлаб чиқилди. Шунингдек, доривор ўсимликларни етиштиришга оид илмий ва амалий маълумотлар берилган.

**Калим сўзлар:** *Geranium pratense L.*, доривор, коллекция, ботаника, морфология, агротехника.

**Аннотация:** В статье изучена морфология и разработана агротехника *Geranium pratense L.* из “Коллекции лекарственных растений” Ташкентского Ботанического сада. Также, представлена научная и практическая информация о выращивании лекарственных растений.

**Ключевые слова:** *Geranium pratense L.*, лекарственная, коллекция, ботаника, морфология, агротехника.

**Abstract.** The article studies the morphology and develops the agronomy of *Geranium pratense L.* from the “Medicinal Plant Collection” of the Tashkent Botanical Garden. Also, scientific and practical information on cultivation of medicinal plants is presented.

**Keywords:** *Geranium pratense L.*, medicinal, collection, botany, morphology, agrotechnics.

**Қириш.** Пушти ёронгул - *Geranium pratense L.* - Герань розовая - Ўрта денгиз соҳилларида, Хитой, Ҳиндистон, Закавказье, Қозоғистон, Шимолий Кавказ, Сибир ва Ўрта Осиёда тарқалган. Асосан чўл, адир ва тоғ зоналарида учрайди.

Пушти ёронгулнинг ер устки қисмида ошловчи моддалари мавжуд. Унинг яшил баргидан ва гулидан хушбўй эфир мойи олинади. Ўсимлик таркибида С витамини, каротин, танин борлиги адабиётлардан маълум [1,2]. Масалан, илдизпоясиди танин, поясиди алкалоид, баргида С витамини ва каротин бор.

Халқ табобатида дори сифатида ишлатилади. Шунингдек, диарея, ошқозон-ичакларнинг яллиғланиши (гастрит, энтероколит), яллиғланишга ва микробларга қарши восита сифатида ишлатилади. Буйрак тошлари, бўғимларнинг ревматик шикастланиши, подагра учун тавсия қилинади. Тумовнинг энг оддий чораси сифатида, ичаклар фаолиятида муаммолар кузатилганда, бўғимларда оғрик кузатилса ёки остеохондрозда ёронгул ва барглари қайнатиб фойдаланилади. ёруғсевар ўсимлик бўлиб, ярим соя жойларда ҳам яхши ўсади [4]. Нам ва унумдор тупроқларда яхши ривожланади. Истироҳат боғларида, хонадонларда гул сифатида ўстирилади.

Пушти ёронгул доривор ўсимлигининг морфологияси ва етиштириш технологияси Тошкент Ботаника боғи шароитида ўрганилмаган.

**Тадқиқот услублари.** Т.А. Работнов, И.Г. Серебряков тавсия этган услублар билан ўрганилди [3].

**Олинган натижалар.** *Geranium pratense* - эфир мойли ва манзарали, кўп йиллик ўт ўсимлик бўлиб баландлиги 20-40 см гача ўсди. Танасининг юқори қисми шохланган бир нечта тик ўсувчи поядан иборат. Барги панжасимон, баъзида патсимон ажралган, майда кертикли, узунлиги 5-8 см, эни 4-6 см, 3-7 бўлақчали, ромбсимон ва тухумсимон шаклга эгаллиги кузатилди. Илдизпоясининг узунлиги 8-9 см гача бўлди.

Тўпгули соябонсимон тузилишга эга. Гулини оч қизил, пушти рангда бўлиб, 3.5-4 см кенгликда, 5 та косачабарг (узунлиги 10-12 мм, эни 3-4 мм), 5 та тожбарг (узунлиги 15-20 мм, эни 8-10 мм), 10 та чангчи ва 1 та тухумдондан иборат. Июнь-август ойларида гуллаши ва ҳашаротлар ёрдамида чангланиши кузатилди.

Мевалари куруқ, бўлакчали 2.5-3 см узунликда бўлди. Июль – сентябрь ойларида пишиб етилди.

Пушти ёронгул кўп йиллик ўсимлик бўлгани учун уни кузда қаламчасидан ва эрта баҳорда уруғидан экиб кўпайтириш мумкин. Одатда қаламчалари орқали кўпайтирилади. Ерни кузда шудгорлаш, эрта баҳорда бороналаш ҳамда экиш олдидан культивация қилиш билан бир вақтда яна бороналаш зарур. Тупрокни ўғитланади, фосфор ва калий солинади. Уруғ экиш билан бир вақтда қаторларга фосфор солиш яхши самара беради. Қаламчалар тайёрланиб олдин илдиз чиқартириб олинади. Кейин илдизи билан бирга иссиқхонага ўтказилиб уни парваришланади. Баҳорда эса очик қуёшли жой танланиб, коллекцияда жўяклар тайёрланиб олиб чиқилади [5].



1-расм. Пушти ёронгулни иссиқхонада қаламчаларидан кўпайтирилган кўриниши



2-расм. Пушти ёронгулни коллекцияда умумий кўриниши

Ўсимлик узок вақт ва ялпи гуллаши учун кучли равишда фосфор ва азотли ўғитлар солиш керак. Кузги шудгор вақтида майдон 25-30 см чуқурликда ҳайдалади, молаланади ва 60 см ораликда қаторлар тортилади. Уруғ 2-3 см чуқурга қалади. Парвариш қилиш ишлари дастлабки кўчат ҳосил бўлиши биланоқ бошланади. Биринчи ўтоқ вақтида ягана ҳам қилиниб, қатор оралари 15-20 см масофада, ҳар бир уяда 1-2 тадан ўсимлик қолдирилади. Қатор оралари юмшатилади ва бегона ўтлардан тозаланади.

Мавсум давомиди ўсимлик экилган майдон тез-тез суғорилади. Ҳар 2-3 суғоришдан кейин зарурат туғилганида, ер юмшатилади, қаторлардаги бегона ўсимликлардан тозаланади.

**Хулоса.** Пушти ёронгулни Ботаника Богининг унумдор тупроқларида яхши ўсанлиги сабабли Ўзбекистоннинг барча унумдор, серҳосил тупроқларида ўстириб кўпайтириш мумкин. Танланган истиқболли турларни етиштириш, маҳаллий дори-дармон ишлаб чиқариш саноатида турли хил доривор воситалар ва шу жумладан гален препаратларини кўпайтириш ҳамда тупроқнинг мелиоратив ҳолатини яхшилашда фойдаланиш имконини яратади.

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Дроздова И. Л. Морфолого-анатомическое изучение травы икотника серого (*Berteroa incana* (L.) DC.) / И. Л. Дроздова, Т. И. Лупилина // Курский научно-практический вестник «Человек и его здоровье». – 2014. – № 2. – С. 94–98.
2. Трёмбаля Я. С. Изучение анатомического строения цветка герани луговой (*Geranium pratense* L.) / Я. С. Трёмбаля, Л. И. Прокошева, Д. Н. Пожидаева // Ученые записки Орловского государственного университета. Серия: Естественные науки. – 2014. – № 7 (63). – С. 226–227.
3. Серебряков, И. Г. Морфология вегетативных органов высших растений Текст. / И. Г. Серебряков. М.: Сов. наука, 1952. - 391 с.
4. Р.Х. Аюпов Доривор ўсимликлар ва улардан фойдаланиш Китоб-1 . 2015 й. 86-б.
5. Мурдахаев Ю. М., Гришечев Е. И., Азизова М. К., Сафаров Т., Рекомендации по агротехнике возделывания лекарственных растений (подорожника большого, фенхеля обыкновенного, пустырника пятилопастного, сафоры японской, диоскореи дельтовидной и диоскореи nipponской) в поливных условиях Узбекистана / –Ташкент: Ташкентское областное правление НТО по сельскому хозяйству, 1984. –28 с.

#### УЎК 631.4

### ОРОЛ БЎЙИ ШЎРЛАНГАН ТУПРОҚЛАРИ УНУМДОРЛИГИГА БИОПРЕПАРАТЛАРНИНГ ТАЪСИРИ

*Л.А. Гафурова, б.ф.д., проф., Ўзбекистон Миллий Университети, Тошкент*  
*Г.М. Шамуратова, таянч докторант, Ўзбекистон Миллий Университети, Тошкент*

**Аннотация.** Мақолада Оролбўйи суғориладиган ўтлоқли-аллювиал тупроқларнинг агрохимёвий хоссалари ҳақида ва ишчи ўсимлигига биопрепаратлар қўлланилиши нормалари ҳамда уларнинг тупроқнинг агрохимёвий хоссаларига таъсири ҳақида маълумотлар берилган. Тадқиқот натижасида Микроўстиргич-2 вариантимида гумуснинг энг юқори кўрсаткичга эга бўлган бўлса, азот элементи деярли ҳамма вариантларимида юқори эканлиги аниқланди. Ҳаракатчан фосфор ва калий элементи бўйича Микроўстиргич-1 вариантимида энг юқори эканлиги аниқланди.

**Калит сўзлар:** суғориладиган ўтлоқли-аллювиал тупроқлар, агрохимёвий хоссалари, биопрепарат, гумус, шўрланган тупроқлар.

**Аннотация.** В статье представлены сведения об агрохимических свойствах орошаемых лугово-аллювиальных почв Аральского моря и нормах применения биопрепаратов к рису и их влиянию на агрохимические свойства почвы. Исследование показало, что гумус имел самое высокое содержание в нашем варианте «Микроўстиргич-2», азот был высоким почти во всех наших вариантах. По подвижному фосфору и калию он оказался самым высоким в нашем варианте «Микроўстиргич-1».

**Ключевые слова:** орошаемые лугово-аллювиальные почвы, агрохимические свойства, биопрепарат, гумус, засоленные почвы.

**Abstract.** The article provides information on the agrochemical properties of irrigated meadow-alluvial soils of the Aral Sea and the norms of use of biopreparations to rice and their impact on the agrochemical properties of the soil. The study found that while humus had the highest content in our “Mikroustirgich-2” option, nitrogen was high in almost all of our variants. In terms of mobile phosphorus and potassium, it was found to be the highest in our option “Mikroustirgich-1”.

**Keywords:** irrigated meadow-alluvial soils, agrochemical properties, biopreparation, humus, saline soils.

**Қириш.** Қорақалпоғистон Республикасида жами суғориладиган ерлар 460439,0 гектар бўлиб, шундан 420958,4 гектари (91,4 %) турли даражада шўрланган ҳисобланади. Жами суғориладиган ерларининг 39480,9 гектари, яъни 8,6 % и шўрланмаган тупроқлардан иборат. Суғориладиган ерларнинг 142585,0 гектари, яъни 31,0 % ини кучсиз даражада шўрланган тупроқлардан иборат. Ўртача шўрланган тупроқлар майдони 139499,1 гектарга тенг, бу эса Республика суғориладиган тупроқларининг 30,3 % ини, кучли даражада шўрланган тупроқлар эса 69385 гектарни, яъни 15,0 % ни ҳосил қилади. Шу ўринда жуда кучли даражада шўрланган тупроқларнинг майдони эса 69488,6 гектарга, яъни суғориладиган ҳудуднинг 15,1 % ига тенглиги маълум бўлади. Шўрланиш типига кўра Республика тупроқлари асосан хлорид-сульфатли ва сульфатли типга мансуб [5].

Мамбетназаров Б.С. Қорақалпоғистон Республикаси ўтлоқли-аллювиал суғориладиган тупроқлари бўйича кенг қамровли тадқиқотлар олиб, уларда гумус ва бошқа озика моддаларига бой эмаслигини ҳамда таркибидаги нитратли азот, ҳаракатчан фосфор ва алмашинувчан калий микдорлари



амал даври охирига бориб камайиб боришини ва бу ҳолатни амал даври давомида озуқа моддаларни ўсимликлар томонидан ўзлаштириш натижаси деб ўз тадқиқод натижаларида изоҳлаган [4].

Гафурова Л.А Орол бўйи тупроқларининг агрокимёвий ва агрофизик хусусиятларини кўп йиллар давомида комплекс ўрганиб, мақбул қийматларида ушбу тупроқларни морфогенетик, агрокимёвий, агрофизик ва биологик фаоллигини ва уларда микроорганизмларнинг ривожланиши тупроқлар гумуси, рН, механик таркиб билан боғлиқлиги, “нафас олиш” интенсивлиги ва фермент фаоллиги шўрланмаган ва кучсиз шўрланган суғориладиган тупроқларда нисбатан юқори бўлиши, шўрланиш ўрта ва кучли даражасигача ошган сари уларнинг фаоллиги минимал даражага тушиб кетганлигини ва биологик фаоллик мавсумий динамикасининг табиати баҳорда ўзининг чўққисига кўтарилиб, ёзда аста-секин пасайиб, кузда бироз кўтарилишини тадқиқод давомида аниқлаган [2,3].

**Метод ва тадқиқот объекти.** Худуд тупроқлари комплекс ўрганилиши даврида генетик ёндашув асосида олиб борилди. Тадқиқотлар Нукус тумани суғориладиган ўтлоқи-аллювиал тупроқларда олиб борилди, уларнинг кимёвий хоссалари, шу жумладан, тупроқнинг озуқа элементлари (азот, фосфор, калий) ва тупроқ унумдорлиги элементлари ўрганилди. Тупроқ гумус Тюрин усули билан, калий тетрафенилборат усулида, азот ва фосфорни аниқлашда фотометрик усулдан фойдаланилди [1].

Шоли экиладиган дала майдонларининг унумдорлигини ошириш учун шоли уруғига ва вегетация даврида Микроўстиргич ва Азоспириллум биопрепаратларидан қўлланилди. Ўзбекистон Фанлар академияси Микробиология институти томонидан ишлаб чиқилган биопрепаратлар шоли ўсимлигининг “Нукус 2” навига белгиланган иккита меъёрга яъни Микроўстиргич биопрепаратини 1-вариантимизда (Микроўстиргич 1) гектарига 2100 мл қўлланилган бўлса, 2-вариантимизда (Микроўстиргич 2) гектарига 2400 мл ҳажмда қўлланилди. Азоспириллум биопрепаратини 1-вариантимизда (Азоспириллум 1) гектарига 2100 мл, 2-вариантимизда (Азоспириллум 2) гектарига 2400 мл қўлланилди. Минерал ўғитлар йиллик меъёри: азотли ўғитлар соф ҳолда 150 кг, фосфорли ўғитлар соф ҳолда 120 кг, калийли ўғитлар соф ҳолда 150 кг дан берилди.

**Тадқиқот натижалари.** Тадқиқотлар давомида, худудда тарқалган тупроқларнинг агрокимёвий ва кимёвий хоссаларининг шўрланиш таъсирида сезиларли равишда ўзгариши кузатилди. Олинган маълумотлар шуни кўрсатадики, ўрганилган худуд тупроқлари гумус билан кам таъминланганлиги билан тавсифланади. Барча тупроқларда гумуснинг катта миқдори юқори горизонтларда тарқалган, ўрта қатламда паст қатламларга қараб камайиб борди.

Оролбўйи суғориладиган ўтлоқи-аллювиал тупроқларда баҳорда олиб борилган тажрибаларимизга кўра 1-кесмамизда гумус миқдори 0,20-1,12% гача мавжудлигини кўрсатди. 2-кесмамизда гумус миқдори ўртача 0,22% дан 1,12% гача бўлса, 3-кесмамизда гумус миқдори 0,28-1,09% гача ташкил этди. 4-кесмамизда гумус миқдори 0,41-1,10% гача этган бўлса, 5-кесмада гумус миқдори ҳайдалма қатламда 0,35-1,07% оралиғида эканлигини аниқладик.

Ўрганилган тупроқларда ялпи калий миқдорининг юқори қатламларда 91,15 мг/кг дан 113,42 мг/кг гача, ўрта қатламларда 61,24 мг/кг дан 91,10 мг/кг гача ва қуйи қатламларда 41,18 мг/кг дан 59,88 мг/кг гача тебраниб туриши маълум бўлди, тупроқ профили буйлаб унинг миқдори тупроқдаги гумус миқдorigа ва механик таркибга боғлиқ равишда ўзгариб бориши аниқланди.

Ўсимликларни фосфор билан озикланишининг асосий манбаи унинг ҳаракатчан шакллари ҳисобланади. Унинг миқдори 2,06-15,02 мг/кг атрофида эканлиги маълум бўлди.

Маълумки, гумус миқдори кўп бўлган тупроқлар тез етилади, механик ҳайдашда кам куч ва энергия сарфланади, тупроқ зичлиги камаяди. Бизнинг олиб борган тадқиқотларимизда ҳам тупроқ унумдорлигини ошириш билан бир қаторда тупроқларнинг бошқа хоссаларига ҳам ижобий таъсир кўрсатди. Тупроқ унумдорлигини ошириш учун биопрепаратлар устида олиб борилган тажрибаларимизда куйдаги маълумотларга эга бўлдик.

Назорат вариантимизда гумус миқдори ҳайдалма қатламда 0,21-0,88% гача бўлса, Микроўстиргич биопрепаратини гектарига 2100 мл қўлланилган вариантимизда гумус миқдори ҳайдалма қатламда 0,28-1%, Микроўстиргич биопрепаратини гектарига 2400 мл қўлланилганда гумус миқдори 0,25-1,02% га етди. Азоспириллум препаратини гектарига 2100 мл қўлланилган вариантимизда гумус миқдори 0,40-0,95% га етган бўлса, Азоспириллум препаратини гектарига 2400 мл қўлланилган вариантда гумус миқдори ҳайдалма қатламда 0,23-0,93% ни ташкил этти.

Олиб борилган тадқиқотларимиз натижасида Назорат вариантимизда азот миқдори 0,011-0,061% ни ташкил этди. Микроўстиргич-1 вариантимизда азот 0,019-0,068% аниқланган бўлса, Микроўстиргич-2 вариантимизда азот миқдори 0,017-0,069% аниқланди. Азоспириллум-1 вариантыда азот 0,018-0,071% атрофида бўлиб, Азоспириллум-2 вариантыда эса азот миқдори 0,015-0,70% га етди. Бунда вариантларимиз орасида Назорат вариантларимизда 0,011% гача камайган бўлса, Азоспириллум-1 ва Азоспириллум-2 вариантларимизда 0,070-0,071% гача юқориланганлиги аниқланди (расм 3).

Тупроқда калий миқдорини текширганимизда Назорат вариантимизда калий миқдори 40,11-97,23 мг/кг га этганлиги аниқланди. Микроўстиргич-1 вариантимизда калий 42,82-110,32 мг/кг ни, Микроўстиргич-2 вариантимизда калий 40,91-108,96 мг/кг атрофида, Азоспириллум-1 вариантыда

калий 42,39-99,35 мг/кг бўлса, Азоспириллиум-2 вариантыда эса калий 40,76-100,97 мг/кг ни ташкил этди. Калий миқдори Назорат вариантимида нисбатан барча вариантларимида юқори кўрсаткичга эга бўлиб, энг юқори калий миқдори Микроўстиргич-1 вариантимида 110,32 мг/кг гача этди (расм 4).

Тажрибамизда Назорат вариантимида фосфор 2,01-12,45 мг/кг оралиғида аниқланиб, Микроўстиргич-1 вариантимида ҳаракатчан фосфор миқдори 2,24-14,25 мг/кг ташкил этган бўлса, Микроўстиргич-2 вариантимида ҳаракатчан фосфор миқдори 2,53-12,86 мг/кг аниқланди. Азоспириллиум-1 вариантыда ҳаракатчан фосфор 2,01-13,44 мг/кг атрофида бўлиб, Азоспириллиум-2 вариантыда эса ҳаракатчан фосфор 2,27-12,88 мг/кг га этди. Натижада ҳаракатчан фосфор миқдори Назорат вариантимида энг кам аниқланган бўлса, Микроўстиргич-1 вариантимида 14,25 мг/кг ни ташкил этиб энг юқори кўрсаткичга эга бўлди (расм 5).

Хулоса. Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, биз тажриба олиб борган шоли экиладиган дала майдонларнинг гумусга бой эмаслиги азот, калий ва ҳаракатчан фосфор этишмаслиги маълум бўлди. Бунга шу ернинг иқлим шароити, релефи, грунт сувлари ва чўл зонаси бўлганлиги таъсир кўрсатади. Шундай экан тупроқнинг унумдорлигини ошириш учун далада агротехник тадбирларни вақтида тўғри амалга ошириш, алмашлаб экишни жорий этиш, зовур ва дренажлардан фойдаланиш, минерал ҳамда органик ўғитлардан етарлича фойдаланиш билан бирга биопрепаратлардан фойдаланиш тупроқда гумус миқдорининг ошиши, ялпи калий, ҳаракатчан фосфор, азот миқдорининг ортиши, биологик фаолликнинг ортиши ва микроорганизмларнинг кўпайиши шунинг ҳисобига тупроқ унумдорлигини сақлаш ва оширишда самарали восита эканлиги тажрибамизда ўз тасдиғини топди.

#### ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Аринушкина Е.В. Руководство по химическому анализу почв М. Изд-во МГУ, 1970. С.257
2. Гафурова Л.А., Саидова М.Э. Влияние почвенно-экологических факторов на изменения ферментативной активности засоленных почв Южного Приаралья. // Ж.Научное обозрение. Биологические науки. -2019, № 3 -С.5-10. 2
3. Гафурова Л.А., Саидова М.Э. Почвы Приаралья и их биологическая активность: монография. Ташкент: Фан, 2015.165 с.
4. Мамбетназаров Б.С., Мамбетназаров Е.Б. Тупроқнинг сув ўтказувчанлигига гўза қатор орасига ишлов бериш услубларининг таъсирин ўрганиш. «Бутун жаҳон атроф-муҳит муҳофазаси куни»га бағишланган «Жанубий Оролбўйи табиий ресурсларини оқилона фойдаланиш» VIII Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. Нукус – 2019, -Б. 69-70.
5. Ўзбек давлат ер тузиш илмий-лойиҳалаш институти “Тупроқ бонитировкаси” шуъба корхонаси, Ўзбекистон суғориладиган ерларининг мелиоратив ҳолати ва уларни яхшилаш. Тошкент, “Университет” нашриёти 2018

УЎК 502:37

## ОРОЛБЎЙИ АҲОЛИСИДА ЭКОЛОГИК ТАЪЛИМ ВА ТАРБИЯНИ ШАКЛЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ

*Н.Р. Джумагелдиев, ўқитувчи, Нукус давлат педагогика институти, Нукус*

**Аннотация.** Мақолада Оролбўйи аҳолисининг экологик таълим ва тарбиясини шакллантириш тенденциялари ҳақида сўз юритилади. Ўзбекистонда, хусусан, Қорақалпоғистон Республикасида экологик таълимни шакллантиришнинг дастлабки босқичларида маданий-тарихийлик муҳим шартлардан бири бўлиб, бу экологик маданиятни, тўпланган ижобий экологик анъаналарни сақлаб қолиш имконини беради.

**Калит сўзлар:** экологик таълим ва тарбия, атроф-муҳит, ривожланиш тарихи, босқичлари, жамият ва табиат.

**Аннотация.** В статье рассматриваются тенденции формирования экологического воспитания и образования населения Приаралья. На ранних этапах становления экологического образования в Узбекистане, в частности в Республике Каракалпакстан, одной из важных предпосылок является культурно-историческая, которая позволяет сохранить экологическую культуру, накопленные позитивные экологические традиции.

**Ключевые слова:** экологическое образование и воспитание, окружающая среда, история развития, этапы, общество и природа.

**Abstract.** The article examines the tendencies of the formation of ecological education and education of the population of the Aral Sea region. In the early stages of the formation of environmental education in Uzbekistan, in particular in the Republic of Karakalpakstan, one of the important prerequisites is cultural and historical, which allows you to preserve the ecological culture, accumulated positive ecological traditions.

**Key words:** ecological education and upbringing, environment, history of development, stages, society and nature.

Бугунги кунда ижобий ўзгаришларни амалга ошириш таълимнинг асосий шартларидан бирига айланиб бормоқда, бу эса аслида, нафақат бугунги, балки келажак талабларидан келиб чиқиб, йўналтирилиши лозим. Таълим Ўзбекистоннинг барқарор ривожланиш сари ўтишининг асосий воситаси бўлиб, фуқароларнинг ижтимоий ва иқтисодий ҳаётда фаол иштирок этиши учун зарур бўлган

билим, кўникма, малака ва қадриятларни шакллантиришни таъминлайди. 1972-йилда Стокгольмда бўлиб ўтган БМТнинг атроф-муҳит бўйича конференциясидан сўнг ЮНЕСКО жаҳон илмий-педагогик ҳамжамиятини экологик таълим ва маърифатни ривожлантиришга йўналтира бошлади. Экологик таълимнинг таърифи, одатда, ушбу мавзу бўйича 1970 йилда Карсон шахрида (АҚШ, Невада) [1] бўлиб ўтган биринчи конференция билан боғлиқ. Унда қуйидаги тахрирда келишиб олинди: “Экологик таълим - бу инсоннинг атроф-муҳит кадр-қимматини англаши ва унинг маданияти, биофизик муҳити ўртасидаги ўзаро боғлиқликни тушуниш, тан олиш учун зарур бўлган билим ва кўникмаларни эгаллаш учун зарур бўлган асосий қоидаларни тушунтириш.

Шунингдек, экологик таълим атроф-муҳит билан ўзаро муносабатлар билан боғлиқ муаммоларни ҳал қилишда амалий кўникмаларни шакллантириш, атроф-муҳит сифатини яхшилашга ёрдам берадиган ҳатти-ҳаракатларни ривожлантиришни ўз ичига олади [2]. Н.М.Мамедов тадқиқотига кўра (2012) [3], кўпинча экологик таълим деганда, унинг бошланғич, сўзма-сўз маъноси, яъни экология соҳасидаги таълим - организмларнинг бир-бири билан ва атроф-муҳит билан алоқаси ҳақидаги фан тушунилади. Бу ибора инглизча - Экология таълимига ўхшайди. Шу билан бирга, 1980-йилларнинг охирига келиб, собиқ Иттифоқда экологик таълимнинг яна бир шакли фаол тарқала бошлади, у инглиз тилида экологик таълимнинг аналогига эга. Шунингдек, бир гуруҳ муаллифларнинг [4] фикрича, анъанавий экологик таълимнинг илмий йўналиши аниқ камчиликка айланган, чунки у ўқувчиларни амалиётдан, реал ҳаётдан узоқлаштиради.

Замонавий экологик таълим классик экологияни ўрганишдан узоқлашмоқда, чунки у айрим мутахассислар учун фойдали бўлиши мумкин. Экология мана шундай ноёб билим соҳаси бўлиб, унда деярли ҳамма экологик амалиёт билан шуғулланади. Бироқ амалиётга йўналтирилган экологик таълим ҳали ҳам камдан-кам учрайди [5].

Шундай қилиб, экологик таълим - бу атрофдаги ижтимоий ва табиий муҳитга масъулият билан муносабатда бўлишни таъминлайдиган экологик билим, кўникма ва малакаларни ўзлаштиришнинг мақсадли ташкил этилган, тизимли жараёни. Табиатни муҳофаза қилиш ва экологик таълим комплекси ёрдамида мактабгача, мактаб ва университетларда экологик таълим, экологик дунёқарашни тарғиб қилиш амалга оширилади. Буларнинг барчаси эътиборни жалб қилиш, қизиқтириш, билим билан бойитиш, инсонларнинг ғояларини шакллантиришга ҳиссий ранг бериш ва экологик ғоялар учун катта резонанс беради. Замонавий экологик таълим ва маърифатнинг асосий мазмуни инсон, жамият ва табиат ўртасидаги муносабатларни уйғунлаштиришнинг назарий шартлари бўлиши керак.

Экологик таълим ва маърифат ўз тараққиётида бир қанча даврларни босиб ўтди. Биринчи босқичнинг бошланишини XX асрнинг урушдан кейинги даври, яъни 1948 йилда Табиат ва табиий ресурсларни муҳофаза қилиш Халқаро иттифоқи (ИУСН) ташкил этилганидан бери деб ҳисоблаш мумкин [6]. Мазкур ташкилот фаолияти туфайли табиатга нисбатан катта қизиқиш уйғотиш, унинг бойлиқларини асраб-авайлаш ва қайта тиклаш борасида илк қадамлар кўйилди.

1970-йилларнинг ўрталарида ЮНЕСКО ва ЮНЕП халқаро экологик таълим дастурини яратдилар. Бу даврни экологик таълим ривожланишининг иккинчи босқичи деб аташ мумкин. 1970-80-йилларда табиатни муҳофаза қилиш ғояларини тарғиб қилиш амалий аҳамиятга эга бўлди. Кўк патрул, мактаб ўрмон хўжалиги, маърифий экологик йўлақлар, ободонлаштириш ва кўкаламзорлаштириш, турли табиий ва тарихий объектларни ўрганиш ва тадқиқ этиш каби иш шакллари ривожланган [7].

Умумтаълим мактабларида таълим жараёнида ёш авлодга экологик таълим ва тарбия бериш муаммоси ҳар томонлама ўрганилаётганига қарамай, ҳали ўрганилмаган қатор муаммолар мавжуд. Ўзбекистонда, хусусан, Қорақалпоғистон Республикасида экологик таълим шаклланишининг дастлабки босқичларида инсониятнинг умумбашарий экологик маданиятини, тўпланган ижобий экологик анъаналарни асраб-авайлаш имконини берувчи маданий-тарихий шарт-шароитлар муҳим шартлардан бири бўлиб, улар республика олий ўқув юртлари эколог олимлари ва ўқитувчиларининг асарларида ўз ифодасини тошган. Оролбўйида вужудга келган экологик вазият нафақат аҳоли саломатлигига, балки республиканинг иқтисодий аҳволига ҳам таъсир кўрсатмоқда, шунинг учун экологик хавфсизлик давлатларнинг стратегик вазифаларидан бири бўлиб, аҳоли учун нормал турмуш шароитларини, барқарор фаровонлик шароитларини ва ресурс базасини таъминлаш каби тушунчалардир.

Шунинг учун ҳам биз бу ҳудуднинг минтақавийлигини, бутун Марказий Осиё минтақасининг экологик муаммоларини, экологик таълим ва маърифат муаммоларини ҳам бирлаштира оламиз.

Экологик вазиятнинг умумий ёмонлашувининг сабабларидан бири аҳолининг, шу жумладан, бошқарув тузилмалари мутахассислари, табиий ресурслардан фойдаланиш билан боғлиқ бўлган иқтисодиётнинг турли тармоқлари ишлаб чиқариш соҳаси ходимлари экологик билимининг етарли эмаслиги ёки пастлиги ҳисобланади. Бошқарув қарорларини қабул қилиш босқичида экологик муаммоларнинг олдини олиш керак, акс ҳолда жамият сабабларни аниқлай олмайди ва уларнинг пайдо бўлиши оқибатларини бартараф эта олмайди.

Умумжаҳон узлуксиз экологик таълимни ташкил этиш ғояси одамлар онгига тобора кўпроқ сингиб кета бошлади. 1980-йилларнинг охирига келиб, дунёнинг кўпгина мамлакатларида аҳолининг

экологик муаммоларга тўғри муносабатда бўлиши учун тегишли маълумотларнинг мавжудлиги ва бу маълумотлардан самарали фойдаланиш учун ўқитилган кадрлар зарурлиги ҳақида тушунчалар мавжуд эди.

Ўзбекистонда “1999-2005-йилларда Ўзбекистон Республикасида атроф-муҳитни муҳофаза қилиш бўйича ҳаракатлар дастури” ишлаб чиқилди ва Вазирлар Маҳкамасининг 1999-йил 20-октябрдаги 469-сонли қарори билан қабул қилинди. Уни ривожлантиришда узлуксиз экологик таълим тизимини ривожлантириш нуктаи назаридан Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги, Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Табиатни муҳофаза қилиш давлат қўмитаси фаол иштирок этди.

Экологик таълим учта асосий таркибий қисмдан иборат:

1) табиий муҳит ҳақида кўпроқ маълумот олиш учун тадқиқотлар;  
2) табиий муҳитдан амалий кўникмалар даражасини шакллантириш ва такомиллаштириш бўйича илмий ва ўқув фаолиятини ривожлантириш манбаи сифатида фойдаланиш мақсадида экологияни ўрганиш;

3) онгли муносабатни ривожлантириш, одамларнинг табиатга муносабатига таъсир қилувчи ижтимоий қадриятларни шакллантириш мақсадида экологияни ўрганиш.

Мазкур учта компонент алоҳида-алоҳида самарали бўла олмайди, улар инсониятнинг табиий муҳитга, экология муаммоларига ва атроф-муҳитни муҳофаза қилишга онгли ёндашиш тизимининг бир таркибий қисмидир [8].

Ҳозирги босқичда экологик муаммоларни ҳал этишда кенг жамоатчиликнинг иштироки атроф-муҳитни муҳофаза қилишнинг энг самарали усули ҳисобланади. Атроф-муҳит муаммоларини режалаштириш, прогнозлаш ва олдини олиш бўйича лойиҳаларни ишлаб чиқиш ва амалга ошириш аҳоли яшаш жойларида табиий муҳитни муҳофаза қилиш ва сақлаш билан боғлиқ муаммоларни ҳал қилишда маҳаллий ҳамжамиятларнинг янада самарали иштирок этишига ёрдам беради.

Жамият тарихий ривожланишининг ушбу босқичида талабалар ва ёшларни экологик тарбиялашнинг асосий маъноси уларда инсон ва табиатнинг ўзаро муносабати ва ўзаро боғлиқлигини англаш, дунёдаги экологик вазиятнинг ўзгаришига ижобий таъсир кўрсатишга тайёрлик ва хоҳишни шакллантиришдир.

XX асрнинг охирида бутун дунёда аҳолининг атроф-муҳитни муҳофаза қилиш бўйича турли тадбирларда иштирок этиш ҳаракати кучайди, атроф-муҳитни муҳофаза қилишда жамоатчилик иштирокининг самарали йўллари ва усулларини аниқлаш, илмий нашрлар ва улар сонини аниқлаш мақсадида илмий тадқиқотлар олиб борилди, дунёнинг турли мамлакатларида тўпланган салоҳиятдан самарали фойдаланиш ғоясини тарғиб қилиш, БМТ ва халқаро ташкилотлар томонидан қўллаб-қувватланган “Барқарор ривожланиш учун таълим” шиори остида ўн йилликнинг эълон қилиниши жаҳон ҳамжамиятининг табиатни муҳофаза қилишга интилишининг ёрқин далили бўлди [9].

Олимларнинг фикрига кўра, бутун дунёда экологик вазият ёмонлашишининг асосий сабабларидан бири нафақат табиатни ўрганишга эътибор бермаслик, шунингдек аҳолининг экологик фалокат таҳдидлари ва хавф-хатарлар ҳақида етарли даражада хабардор эмаслиги ва дунёнинг кўплаб мамлакатлари аҳолисининг ушбу оқибатлар ҳақида билимларининг пастлиги билан ҳам боғлиқ. Бундан ташқари, дунёдаги экологик вазиятнинг ҳалокатли даражада ёмонлашишининг асосий сабабларидан бири бу йўналишдаги сўз ва амалий қадамлар ўртасида чуқур жарликнинг мавжудлиги билан боғлиқ. Кўпгина олимларнинг фикрига кўра, бу икки омил, жумладан, экологик таълимни ташкил этиш билан боғлиқ бўлган [10].

Бугунги кунда Барқарор ривожланиш учун таълим интеграцияси масалаларини, шунингдек, улар билан боғлиқ экологик, ижтимоий ва иқтисодий муаммоларни ҳал қилиш имконини беради. Буни ЮНЕСКОнинг Бутунжаҳон конференцияси (2009) доирасида Бонн декларациясининг қабул қилиниши ҳам тасдиқлайди.

Ўзбекистонда узлуксиз экологик таълим ва барқарор ривожланиш учун таълим тизими Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”, “Табиатни муҳофаза қилиш тўғрисида”ги қонунларига ҳамда Кадрлар тайёрлаш миллий дастурига, Барқарор ривожланиш учун таълимнинг айрим жиҳатларига мувофиқ амалга оширилади. Ривожланиш (ЕСД) қуйидаги стратегик ва дастурий ҳужжатларда акс эттирилган:

- Барқарор ривожланиш концепцияси ва миллий стратегияси, 1998 йил;
- 1997-2010 йилларда Кадрлар тайёрлаш миллий дастури;
- 2004-2009 йилларда мактаб таълимини ривожлантириш Давлат умуммиллий дастури;
- ЮНЕСКО кўмагида амалга оширилаётган “Таълим барча учун” дастури доирасида 2003-2015 йилларга мўлжалланган Миллий ҳаракатлар режаси;

- Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2008-йил 19-сентябрдаги 212-сонли “Ўзбекистон Республикасининг атроф-муҳитни муҳофаза қилиш бўйича 2008-2012- йилларга мўлжалланган ҳаракатлар дастури тўғрисида”ги қарори.

- “Ўзбекистон Республикасида экологик таълимни ривожлантириш, экологик кадрларни тайёрлаш ва қайта тайёрлаш, шунингдек, малака ошириш тизимини такомиллаштириш истиқболлари тўғрисида”ги Дастур (2006-2010) ва Концепция.

Оролбўйида экологик вазиятнинг ёмонлашуви шароитида давлат, жамоат ташкилотлари, илмий муассасаларнинг табиий муҳитни муҳофаза қилиш ва соғломлаштириш соҳасидаги фаолиятини мувофиқлаштириш зарурати ортиб бормоқда [11]. Экологик таълим тизимини яратишда таълим муассасаларида бутун ўқув жараёнига экология фанини киритиш ҳам катта аҳамиятга эга. Шунинг учун аллақачон умумтаълим мактабларининг бошланғич синфларида атроф-муҳитни муҳофаза қилиш элементлари маълум ўқув фанларига киритилган. Экологик таълимнинг устувор аҳамияти кўшимча таълим муассасаларида қўлланиладиган усуллар ва технологияларнинг ўзига хос хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда, уларнинг имкониятларига мос келадиган таълимга таъсир қилишнинг самарали усулларини ишлаб чиқишни талаб қилади.

Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатасида (2019-йил 12-апрел) Экоҳаракат депутатлар гуруҳи, ҳамда Экология ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш кўмитаси ҳамкорлигида Халқаро экологик билимлар кунига бағишланиб “Мамлакатда экологик таълим ва тарбияни ривожлантириш” мавзусида давра суҳбати ўтказилди. Олиб борилган таҳлиллар МДХ давлатлари ва Ўзбекистонда экологик таълим ва маърифат изчил ривожланиб бораётганидан далолат беради. Ўзбекистонда табиатни муҳофаза қилиш ва атроф-муҳитни яхшилаш тизимини янада такомиллаштириш учун, бизнингча, бу борада тўпланган тажрибадан келиб чиқадиган бир қатор амалий тавсияларни ҳаётга татбиқ этиш зарур.

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Программа ООН по окружающей среде (ЮНЕП) [Электронный ресурс] /Официальный сайт. – Режим доступа: <http://www.unep.com.ru/unep>; Горбанев В.А. Саммит ООН по вопросам климата: обещания впечатляют, но будут ли правительства их выполнять? [Электронный ресурс 2014- 29 сентября - Режим доступа: <http://new.mgimo.ru/about/news/experts/259851> (дата обращения: 28.05.2015)
2. Степанов С.А. Экологическое образование для устойчивого развития как важное направление модернизации высшей школы России: автореф. дис. ... д-ра пед. наук. – М., 2011. – 58 с.
3. Мамедов Н.М. Экологическая концепция культуры // Экологическая культура в глобальном мире: модернизация российского образования в контексте международных стратегий: Материалы международной конференции. – М.: МГУ имени М.А. Шолохова, 2012. – С. 57–61.
4. Экологическое просвещение: учебно-методическое пособие / сост. И.М.Зарубина – Киров: ООО «Типография «Старая Вятка», 2012. – 95 с.
5. Скалон Н.В., Колмыкова В.А. Современные аспекты экологического образования. Кемерово: Кемеровский государственный университет, 2015. 114 с.
6. Инновационная программа экологического образования. [Электронный ресурс]. URL: <http://perkuschool.edu.tomsk.ru/new/node/29> (дата обращения: 21.09.2019).
7. Захлебный А.Н. ФГОС: современный этап развития экологического образования для устойчивого развития // Экологическое образование для устойчивого развития в условиях реализации Федеральных государственных образовательных стандартов: Материалы Международной научно-практической конференции (11–12 октября 2011 г.) / под ред. Е.А. Гринёвой. – Ульяновск: УлГПУ, 2011. – С. 17–25.
8. Степанов С.А. Экологическое образование для устойчивого развития как важное направление модернизации высшей школы России: автореф. дис. ... д-ра пед. наук. – М., 2011. – 58 с.
9. Басов, В.М. Проблемы экологического образования и воспитания: метод, рекомендации к семин. и лаб. работам / В. М. Басов; Удмурт, гос. ун-т. — Ижевск: УдГУ, 2001. — 50 с.
10. Мохаммад С.А. Формирование элементов международного экологического управления в экологической политике Европейского союза // Евразийский юридический журнал. – 2013, № 12. – С. 37–39;
11. Бенедик Р.Е. Дипломатия для окружающей среды // Доклад конференции «Экологическая дипломатия». – 1998. – С. 3–12.;
12. Грант W., Duncan M., Newell P. The effectiveness of european Union environmental Policy. – New York: St. Martin's Press, 2000. – 231 p.
13. Матвеева Е.В. Экологическая политика Евросоюза//Вестник Нижегородского университета им. Н.И. Лобачевского. – 2010, № 6. – С. 311–316.
14. Каюмова, К. Г. Тенденции развития правового образования школьников: Дис. ... канд. пед. наук. Казань, 2004. – 195 с.

УЎК 633.31/.37

#### КЎҲИТАНГ ТИЗМАСИ ФЛОРАСИ ТАРКИБИДАГИ FABACEAE ОИЛАСИГА МАНСУБ

#### ТУРЛАРНИНГ ТИК МИНТАҚАЛАР БЎЙИЧА ТАҲЛИЛИ

*А.Ж.Ибрагимов, доцент, Термиз давлат университети, Термиз*

*К.У. Атоев, талаба, Термиз давлат университети, Термиз*

**Аннотация.** *Кўҳитанг тизмаси флораси таркибида Fabaceae оиласи таркибида 23 туркумга мансуб 72 тур борлиги аниқланди. Кўҳитанг тизмасида Fabaceae оиласи вакиллари 5 та тик минтақалар бўйлаб тақсимланади. Оила таркибида асосий турлар хилма-хиллиги тоғ минтақасига тўғри келди. Бундай ҳол Тоғли Ўрта Осиё флораси учун хос бўлган хусусиятдир. Адир-тоғ минтақаси*

бу ерда ҳам миқдор ҳам сифат жиҳатидан бойдир. Адир минтақасида турлар сони нисбатан кам, лекин хилма-хиллиги жиҳатидан қониқарли.

**Калит сўзлар:** *Fabaceae*, оила, флора, тоғ, адир, туркум, тур, баландлик минтақаси.

**Аннотация:** Выявлено, что флора хребта Кохитанг насчитывает 72 вида, принадлежащих к 23 родам семейства *Fabaceae*. На хребте Кохитанг представители семейства *Fabaceae* распределены по 5 крутым зонам. По разнообразию основных видов семейства совпало с горным районом. Это характерная особенность флоры Горной Средней Азии. Адирский горный регион богат как количеством, так и качеством. Количество видов в районе Адир относительно невелико, но удовлетворительно по разнообразию.

**Ключевые слова:** *Fabaceae*, семейство, флора, гора, холм, род, виды, высотный регион.

**Abstract.** It was revealed that the flora of the Kohitang Ridge includes 72 species belonging to 23 genera of the *Fabaceae* family. On the Kohitang Ridge, representatives of the *Fabaceae* family are distributed over 5 steep zones. In terms of the diversity of the main species, the family coincided with the mountainous region. This is a characteristic feature of the flora of Mountainous Central Asia. The Adir mountain region is rich in both quantity and quality. The number of species in the Adir area is relatively small, but satisfactory in terms of diversity.

**Key words:** *Fabaceae*, family, flora, mountain, hill, genus, species, high-altitude region.

Кўхитанг тизмаси Помир-Олой тоғ тизимининг Жануби-Ғарбий қисмида жойлашган. Маъмурий жиҳатдан Сурхондарё вилоятининг Шеробод тумани ҳудудига қарашли.

Кўхитанг тизмасининг ғарбий ёнбағри Туркменистон Республикасининг ҳудуди бўлиб, Койтендаг (умумий майдони 27139 га.) кўрикхонаси жойлашган [1]. Ҳудуд чегарасининг жанубдан шимолга умумий узунлиги тахминан 70 км ни ташкил этади ва денгиз сатҳидан 850-3137 м баландликларда жойлашган. Ўртача сув айирғич баландлиги шимолда (Хатак бўлими) 2682 м, марказий қисмида 3137 м (Кампиртепа бўлимининг Айри бобо чўққиси) ҳамда жанубий қисмида 2361 м ни (Вандоб бўлими) ташкил этади.

Кўхитанг тизмасининг флораси ва ўсимликлар қоплами бўйича маълумотлар С.А. Невский [11], Н.А. Меркулович [10], Р.В. Камелин [5, 6, 7, 8], Ф.О. Хасанов [14], А.И. Ибрагимов [1,2, 3] ишларида ҳам ўз аксини топган.

Олиб борилган илмий тадқиқотлар натижасида Кўхитанг тизмаси флораси таркибида *Fabaceae* оиласи таркибида 23 туркумга мансуб 72 тур борлиги аниқланди. Кўхитанг тизмаси флорасида полиморф оилалар ичида учинчи (72 тур ёки 9,69%) ўринда туради. Бу ҳолат Тоғли Ўрта Осиё флоралари учун хос хусусият бўлса [5, 6], шимолий ҳудудларнинг флораларида тутган ўрни анча салмоқли бўлади [9]. Бу оиланинг етакчилик ўрни *Astragalus* (30 тур), *Vicia* (7) туркумининг турларга бойлиги билан ҳам асосланади.

**Турларнинг тик минтақалар бўйлаб тақсимланиши.** Тоғли ҳудудларда ўсимлик турларининг хилма-хиллиги флора эгаллаган майдоннинг катталигидан ташқари, денгиз сатҳига нисбатан жойлашган ўрни, тик минтақаларнинг сони ва ҳудуднинг геоморфологик тузилишига ҳам боғлиқ бўлади. Шунинг учун, тоғли флораларнинг таҳлили албатта турларнинг тик минтақалар бўйлаб тақсимланишини ўрганишни ҳам талаб этади.

Кўхитанг тизмаси флорасининг тик минтақалар бўйича таҳлили Қ.З. Закиров [12, 13] тақлиф этган тасниф асосида амалга оширилди.

Кўхитанг тизмаси ҳудуди чўл минтақаси таъсири доирасига кирмайди. Тизманинг қуйи чегараси денгиз сатҳидан 700 м баландликдан, яъни адир минтақасидан бошланган ва бу геоморфологик босқич тизмада д.с. 850-1200 м баландликларни қамраб олади. Тоғ минтақасининг умумий чегараси д.с. 1200-2800 м бўлса, яйлов 2800-3137 м баландликларни ўз ичига олади.

Кўхитанг тизмасида турларнинг тик минтақалар бўйлаб тақсимланиши бир хилда эмас. Тадқиқот натижалари бўйича адир минтақаси учун 12 туркумга мансуб 22 тур аниқланди: *Alhagi kirghisorum* Schrenk, *Alhagi pseudalhagi* (M. Bieb.) Desv, *Amoria repens* (L.) C.Presl. (= *Trifolium repens*), *Astragalus alopecias* Pall, *Astragalus campylorrhynchus* Fisch. et C.A.Mey, *Astragalus campylotrichus* Bunge, *Astragalus kudrjashevii* Korol, *Astragalus lipskyi* Popov, *Astragalus maveranagri* Popov, *Astragalus plumbeus* (Nevski) Gontsch, *Chesneya tribuloides* Nevski, *Lathyrus aphaca* L, *Goebelia pachycarpa* (C.A. Mey.) Bunge (= *Vexibia pachycarpa*), *Lathyrus inconspicuus* L, *Lotus sergievskiae* Kamelin et Kovalevsk, *Medicago lanigera* C.Winkl. et B.Fedtsch, *Medicago meyeri* Gruner, *Medicago minima* (L.) Grufberg, *Melilotus officinalis* (L.) Pall., *Psoralea drupacea* Bunge, *Vicia michauxii* Spreng, *Vicia cinerea* M.Bieb. ва бошқалар.

Фақат тоғ минтақасида учун 6 туркумга мансуб 17 тур *Astragalus ammophilus* Kar et Kir, *Astragalus densus* Popov, *Astragalus filicaulis* Fisch. et C.A.Mey, *Astragalus globiceps* Bunge, *Astragalus janischewskyi* Popov, *Astragalus kusnetzovii* Popov, *Astragalus subschachimardanus* Popov, *Oxytropis pseudoleptophysa* Boriss, *Astragalus willisii* Popov, *Astragalus rumpens* Meff, *Astragalus subverticillatus* Gontsch, *Hedysarum*

*magnificum* Kudr, *Cicer grande* (Popov) Korotkova, *Astragalus nobilis* Bunge ex V.Fedtsch, *Onobrychis chorassanica* Bunge, *Astragalus stalinskyi* Sirj, *Trigonella grandiflora* Bunge киради.

Кўхитанг тизмасида яйлов минтақасига хос бўлган ўсимликлар тур сони жиҳатидан камчиликни ташкил этади. *Fabaceae* оиласи вакилларида фақат яйлов минтақаси учун хос бўлган тур иккита *Astragalus leiosemius* (Lipsky) Popov, *Cicer macracanthum* Popov киради.

Адир-тоғ учун (д.с. 850-2800 м) хос тизма флорасида кўпчилик турларни ташкил этади. Ушбу оила хос бўлган турлар 12 туркумга мансуб, 24 турни ташкил этади. Уларга *Astracantha kuhitangi* (Nevski), *Podlech* (= *Astragalus kuhitangi* (Nevski) Sirj), *Astragalus baissunensis*, *Astragalus leptostahys* Pall., *Astragalus marguzaricus* Lipsky, *Astragalus schmalhauseni* Bunge, *Astragalus sieversianus* Pall., *Astragalus sogdianus* Bunge, *Astragalus terrae-rubrae* Butkov, *Astragalus xanthomeloides* Korovin et Popov, *Glycyrrhiza glabra* L., *Lagonichium farctum* (Banks. et S.) Bobr, *Lathyrus cicera* L., *Lens orientalis* (Boiss.) Schmalh., *Melilotus albus* Medik, *Onobrychis micrantha* Schrenk, *Onobrychis pulchella* Schrenk, *Oxytropis megalorrhyncha* Nevski, *Trifolium pratense* L., *Trigonella geminiflora* Bunge, *Vicia angustifolia* L., *Vicia kokanica* Regel et Schmalh., *Vicia narbonensis* L., *Vicia peregrina* L., *Vicia subvillosa* (Ledeb.) Boiss. ва бошқалар киради.

Тоғ-яйлов учун (д.с. 1200-3137 м.) хос тизма флорасида унча кўпчилик турларни ташкил этмайди. Ушбу оила хос бўлган турлар 5 туркумга мансуб, 7 турни *Astragalus bobrovii* V.Fedtsch, *Astragalus subspinescens* Popov, *Cicer songaricum* Stephan. ex DC, *Cicer paucijugum* Nevski, *Hedysarum plumosum* Boiss. et Hausskh, *Melissitus adscendens* (Nevski) Ikonn, *Onobrychis seravschanica* V. Fedtsch. ташкил этади.

**Хулоса қилиб айтганда**, Кўхитанг тизмасида *Fabaceae* оиласи вакиллари 5 та тик минтақалар бўйлаб тақсимланади. Оила таркибида асосий турлар хилма-хиллиги адир-тоғ минтақасига тўғри келди. Бундай ҳол Тоғлиўртаосиё флораси учун хос бўлган хусусиятдир. Адир минтақаси бу ерда ҳам миқдор ҳам сифат жиҳатидан бойдир. Адир минтақасида турлар сони нисбатан кам, лекин хилма-хиллиги жиҳатидан қониқарли. Адир ва қуйи тоғ минтақаларида Кўхистон флораси, яйлов минтақасида эса Олой флораси элементлари устунлик қилади [6, 8] деган фикр Кўхитанг тизмасида ҳам ўз аксини топади.

#### ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Ибрагимов А.Ж. Эндемизм флоры хребта Кугитанг // Биоразнообразие: проблемы и перспективы сохранения: Материалы межд. науч. конф. 13-16 мая 2008 г. – Пенза, 2008. – С. 217-219.
2. Ибрагимов А.Ж., Матеен Аҳмад Фарид. Bioecology of Eremurus types in the Flora of the Baysun Ridge. International Journal of Innovative Research in Science, Engineering and Technology. Issue 5, May, 2021.
3. Ибрагимов А.Ж., Каримов Б.Қ. Endemic Species of flora Kuhitang Ridge: The American Journal of Agriculture and Voimedical Engineering Published: November 30, 2020.
4. Ибрагимов А.Ж., Курбонова З.М., Monocotyledonous Plants in the flora of Surkhandarya state Reserve. The American Journal of Agriculture and Voimedical Engineering. June 30, 2021.
5. Камелин Р.В. флорогенетический анализ естественной флоры горной Средней Азии. – Л.: Наука, 1973. – 353 с.
6. Камелин Р.В. Кухи́станский округ горной Средней Азии. – Л.: Наука, 1979. – 117 с.
7. Камелин Р.В., Хасанов Ф.О. Вертикальная поясность растительного покрова хребта Кугитанг (юго-западный Памиро-Алая) // Бот. журн., 1987. – № 1 (72). – С. 49-58.
8. Камелин Р.В. Флора Сырдарьинского Каратау.–Л.: Наука, 1990. – 145 с.
9. Красовская Л.С., Левичев И.Г. Флора Чаткальского заповедника.–Ташкент: Изд. ФАН УзССР, 1986. – 176 с.
10. Меркулович Н.А. Растительность Ширабадского и Байсунского районов. УзССР (бот-географ. очерк). //Тр. Узб. гос. Ун-та, 1936. Т.3. –С. 9-59.
11. Невский С.А. Материалы к флоре Кугитангтау и его предгорий. В кн. Флора и систематика высших растений – М.,Л.: Изд. АН СССР, 1937. – С. 199-346.
12. Закиров К.З. К проблеме зональности и терминологии ботанический географии в Средней Азии. Высотные пояса долины Зеравшана– Ташкент, Бюлетень САГУ, 1947. Вып 25.– С. 25-30.
13. Закиров К.З. Флора и растительность бассейна р. Зарафшан. – Ташкент: АН УзССР, 1955. – 207 с.
14. Хасанов Ф.О. Ксерофильная древесно-кустарниковая растительность Кугитанг-тау: Автореф. дис... канд. биол. наук. – Ташкент, 1987.– 20 с.

УЎТ: 634.21

### САҚЛАШГА МЎЛЖАЛЛАНГАН ЎРИК (*Armeniaca vulgaris* Lam) МЕВАЛАРИНИ ОРГОНАЛИПТИК КЎРСАТКИЧЛАРИ

*М.М.Исамиддинов, мустақил тадқиқотчи, Тошкент давлат аграр университети, Тошкент*

**Аннотация.** Ушбу мақолада Республикамизда етиштириляётган сақлашга мўлжалланган ўрик меваларини оргоналиттик кўрсаткичлари тўғрисида илмий мулоҳазалар, амалий таклифлар ва тавсиялар келтирилган.

**Калит сўзлар:** оргоналиттик кўрсаткичлар, мева банди, техник пишии, скелет илдизлари, муҳимлик коэффициенти, сифат кўрсаткичи.

**Аннотация.** Ушбу мақолада Республикамизда етиштириляётган сақлашга мўлжалланган ўрик меваларини оргоналиттик кўрсаткичлари тўғрисида илмий мулоҳазалар, амалий таклифлар ва тавсиялар келтирилган.

**Калит сўзлар:** оргоналиттик кўрсаткичлар, мева банди, техник пишиши, скелет илдизлари, муҳимлик коэффициенти, сифат кўрсаткичи

**Аннотация.** Ушбу мақолада Республикаимизда етиштирилаётган сақлашга мўлжалланган ўрик меваларини оргоналиттик кўрсаткичлари тўғрисида илмий мулоҳазалар, амалий тақлифлар ва тавсиялар келтирилган.

**Калит сўзлар:** оргоналиттик кўрсаткичлар, мева банди, техник пишиши, скелет илдизлари, муҳимлик коэффициенти, сифат кўрсаткичи

Данакли мевали экинлар орасида ўрик энг машҳур ва қадимий мева турларидан биридир. Ўрик ўрта Осиё, Кавказорти, Шимолий Кавказ ва Украина, Молдова, Қримда етиштирилади [1, 3].

Ўрик нисбатан иссиқга бардошли ўсимлик ҳисобланади. Унинг ўсиши ва ривожланиши учун катта миқдордаги иссиқлик талаб қилмайди. Декабрь ва январь ойларида ҳарорат  $-25^{\circ}\text{C}$  гача кўтарилганда, дарахтлардаги гул куртаклари совуқдан қаттиқ зарарланади.

Ўрик дарахтлари тупрок шўрланишига сезгир бўлиб, тупрокда тузлар 0,3-0,5% дан ортиқ бўлса нобуд бўлади. Скелет илдизлари яхши ривожланиши туфайли улар шамолга жуда чидамли.

Маълумки, Ўзбекистонда ўрикнинг турли хил қимматли, асосан, эрта ва ўртапишар навлари кенг тарқалган. Европа навлари камроқ ўстирилади ва консерва заводлари учун мўлжалланган. Ўрик меваларини оммавий йиғиш май ойининг охиридан июль ойининг бошигача амалга оширилади. Ўрикнинг бир қатор маҳаллий қуритилган мева навлари қимматли хусусиятларга эга [2, 4]. Ушбу хусусиятлар туфайли улар шамолли жойларда, меваларни тўкишдан кўркмасдан, терим-йиғим вақтини узайтиради, қуритиш муддатини қисқартиради, натижада дарахтда қуритилган мевалар фақат бир ёки икки кун қуритишни талаб қилади.

Ўрик етиштириладиган давлатлардаги об-ҳаво маҳсулот нарҳини белгилашда муҳим аҳамиятга эга. Республикаимизда етиштирилаётган ўрик экилган майдонлар ҳажм жиҳатидан кичик бўлсада, таркибида қанд миқдори кўплиги билан ажралиб туриши кузатилади.

Ўрик гилос каби узилганидан сўнг тез етилиб, тез айнидиган маҳсулотлар гуруҳига киради. Тажрибалардан маълум бўлдики, меваларни узгандан сўнг, иложи борича уларни ўз вақтида совутиш мақсадга мувофиқ. Узилган ҳосилнинг етилиши/ривожланиши ва тез айниш жараёнини нисбатан паст ҳароратли иқлимда секинлаштириш мумкин.

Узилган мева бандининг (плодоножка) мавжудлиги маҳсулот сифатини белгилаб берувчи омиллардан бири бўлади. Айнан, мевабанд туфайли ўрикни узоқ сақлашга эришиш ва маҳсулотнинг шикастланмаганлиги ҳақида маълумотга эга бўлиш мумкин. Одатда маҳсулотнинг бандига қараб кўп харидорлар мевани тахминан қачон ва қандай узилганлиги ҳақида маълумот оладилар.

Тадқиқотлар 2019-2020 йиллар Наманган вилояти Поп туманида жойлашган “Наманган Агрологистика МЧЖ”да ўтқазилди. Феналогик кузатувлар ва оргоналиттик кўрсаткичларини аниқлаш методик қўлланмалар асосида олиб борилди.

Маҳсулотнинг серсувлик миқдори юқори ва ўта ширали, «техник» пишган пайтида узилганда ранги оч сариқ, пишганда тўқ сариқ рангга эга бўлади. Маҳсулотларда шунингдек, доғлар бўлмаслиги, мавжуд қизил доғлар эса тана умумий миқдорининг 5%идан ошмаслиги аниқланди.

Пишиш даври июнь бошидан июль ойининг охиригача давом этади. Мавсум бошида ҳарорат сояда ўртача  $+25/30^{\circ}\text{C}$  ва мавсум сўнгида  $+30/40^{\circ}\text{C}$  ташкил этганлиги кузатилади. Шунинг учун, теримни эрталабдан, ҳарорат сояда  $+20/25^{\circ}\text{C}$  га етганда бошлаган мақсадга мувофиқдир. Маҳсулотни сақлаш ва ундан кейинги юклаб жўнатиш жараёнида, сунъий микроиқлим яратилишида юқорида қайд этилган ҳароратларни инobatга олиш даркор бўлади. Сақлаш пайтида маҳсулотнинг ўзидан этилен моддасини ажратиши ва этиленга таъсирчанлигини инobatга олиш ва ёдда сақлаш керак. Ўрикнинг хид чиқариши ва хидга таъсирчанлик даражаси паст бўлиши кузатилади.

Шу тариқа тажриба олиб борилаётган навларга мансуб ўрик меваларини сифат кўрсаткичларини органолептик усулда аниқлаш учун 100 баллик шкала ишлаб чиқдик. Бунда, Муҳимлик коэффициенти асосида сифат даражаси бўйича баҳолаш назарда тутилади (1-жадвалга қаранг).

Органолептик таҳлил натижасида олинган маълумотлар умумлаштирилди ва 2-жадвалда ифодаланади. Бу тажрибада ҳар бир кўрсаткич бўйича стандарт оғиш 0,5 дан ошмади ва 0,0-0,45 оралиғида бўлди. Шу сабабли умумий баҳолар бир хил бўлди. Сақланган ўрик мевалари органолептик таҳлил қилинганда барча навларда 10, 20 ва 30 кун сақлаганда сезиларли ўзгаришлар қайд этилди. Сақлашнинг биринчи даврида (30 кун) ўрик меваларининг сифати сезиларсиз пасайди ва бу пасайиш ўртача 7,28-8,28 баллни ташкил қилди. Энг яхши сақланган ўрик Субхони навида кузатилади. Барча органолептик кўрсаткичлар бўйича ўзгаришлар таҳлил қилинганда тажриба олиб борилаётган навларда мева этининг хушбўйлиги ва таъмининг мос равишда ўртача 0,43-0,57 ва 0,42-0,71 баллга пасайганлиги кузатилади. Бизнинг фикримизга кўра, бу ўзгаришлар сақлаш мобайнида маҳсулот таркибидаги биокимёвий ўзгаришлар сабабли содир бўлади.



1 – жадвал

## Ўрик меваларини сенсорик таҳлил қилиш учун органолептик кўрсаткичлар шкаласи (2019-2020 йй.)

№	Ўрикнинг сифат кўрсаткичи	Мухимлик коэффициенти	Балл	Балли баҳолаш тавсифи
1.	Ташқи кўриниши	3,0	5	Барра ўрикка хос
			4	Сезиларсиз ўзгариш мавжуд бўлган барра ўрикка хос
			3	Сезиларли ўзгариш мавжуд бўлган барра ўрикка хос
			2	Барра ўрикка хос эмас
2.	Ранги	3,0	5	Изчил ва бир текис, барра ўрикка хос
			4	Кам миқдорда ўзгарган
			3	Сезиларли даражада ўзгарган
			2	Барра ўрикка хос эмас
3.	Таъми	6,0	5	Жуда ширин, ёқимли маза келади
			4	Ширин
			3	Ширинлиги кам
			2	Ширин эмас, ёқимсиз маза
4.	Хушбўйлиги	4,0	5	Ёқимли, ёркин, ўрикка хос
			4	Ёқимли
			3	Кам сезилади
			2	билинмайди, ёқимсиз ҳидли
5.	Этининг консистенцияси	4,0	5	Жуда серсув, юмшоқ, зич
			4	Серсув, зичлиги ўртача
			3	Суви кам, бўшашган
			2	Толали

2-жадвал

## Ўрик меваларини сақлашда органолептик кўрсаткичларининг ўзгариши (2019-2020 йй.)

Сақлаш муддатлари, кун	Кўрсаткичлар					Умумий баҳо, балл
	Ташқи кўриниши	Ранги	Консис-тенцияси	Таъми	Хушбўйлиги	
	Мухимлик коэффициенти					
	3	3	4	6	4	
Шалах (эрта пишар)						
0	4,71±0,45	4,57±0,49	4,71 ±0,45	5,00±0,00	5,00±0,00	96,71
10	4,29±0,45	4,29±0,45	4,29±0,45	4,57±0,49	4,57±0,49	88,57
20	4,00±0,00	4,00±0,00	3,86±0,35	3,86±0,35	3,86±0,35	78,00
30	3,00±0,00	3,00±0,00	2,00±0,00	2,00±0,00	2,00±0,00	46,00
Юбилейний Навои (эрта пишар)						
0	4,43±0,49	4,43±0,49	4,86±0,35	4,86±0,35	4,86±0,35	94,57
10	4,14±0,35	4,14±0,35	4,43±0,49	4,43±0,49	4,29±0,45	86,29
20	3,86±0,35	3,86±0,35	4,00±0,00	3,86±0,35	3,86±0,35	77,71
30	3,00±0,00	3,00±0,00	3,00±0,00	2,00±0,00	2,00±0,00	48,00
Исфарақ (ўрта пишар)						
0	4,29±0,45	4,43±0,49	4,29±0,45	4,14±0,35	4,14±0,35	84,71
10	4,00±0,00	4,00±0,00	4,00±0,00	3,71±0,45	3,71 ±0,45	77,14
20	3,71±0,45	3,71±0,45	3,71±0,45	3,29±0,45	3,43±0,49	70,57
30	3,00±0,00	2,00±0,00	2,00±0,00	2,00±0,00	1,00±0,00	43,00
Субхани (кеч пишар)						
0	4,29±0,45	4,14±0,35	4,14±0,35	4,57±0,49	4,57±0,49	87,57
10	4,14±0,35	4,14±0,35	4,00±0,00	4,00±0,00	3,86±0,35	80,29
20	3,86±0,35	3,86±0,35	3,86±0,35	3,57±0,49	3,43±0,49	73,71
30	3,85±0,00	3,85±0,00	3,80±0,00	3,56±0,00	3,40±0,00	70,00

Умуман олганда, сақлашнинг биринчи даври мобайнида асосий навларда умумий баҳо 80,29 - 88,57 баллни ташкил қилди ва ўз-ўзидан яхши деб баҳоланди. Сақлашнинг иккинчи даврида (20 кун) сифат сезиларли даражада пасайиши ҳақидаги маълумотлар 2 жадвалда келтирилган.

Шуни таъкидлаб ўтиш лозим-ки, юқорида қайд этилган ўрик навларидан «Шалах» нави ўз хусусиятларини нисбатан узоқ сақлай олади. Шу сабабли, мазкур навнинг мевасини «техник» пишган даврда узиб олиб, экспорт қилиш мумкин. Бу даврда узилган мевани сунъий иқлимда совутиш орқали унинг етилиш/ривожланиши секинлаштирилади. Ички бозорга келсак, пишган ўрик сахарда узилиб, бозорга етказилиб, шу куннинг ўзидаёқ истеъмол қилинса мақсадга мувофиқ бўлади. Чунки, ўрик узилгандан сўнг ўз хусусиятларини тез йўқотиши сабабли, уни совутиш керакли натижа бермайди.

Умуман олганда, ўрикнинг қолган навлари ҳам узоқ муддат сақланиш хусусиятга эга эмас. Хозирги кунда маҳсулотни кўпи билан терминал асосида, 10 кунгача ушлаб туриш мумкин.

**Хулоса**

1. Маҳсулотнинг серсувлик миқдори юқори ва ўта ширали, «техник» пишган пайтида узилганда ранги оч сариқ, пишганда тўқ сариқ рангга эга бўлади. Маҳсулотларда шунингдек, доғлар бўлмаслиги, мавжуд қизил доғлар эса тана умумий миқдорининг 5%идан ошмаслиги аниқланди.

2. Ўрикнинг хид чиқариши ва хидга таъсирчанлик даражаси паст бўлиши кузатилди.
3. Сақланган ўрик мевалари органолептик таҳлил қилинганда барча навларда 10, 20 ва 30 кун сақлаганда сезиларли ўзгаришлар қайд этилди.
4. Сақлашнинг биринчи даврида (30 кун) ўрик меваларининг сифати сезиларсиз пасайди ва бу пасайиш ўртача 7,28-8,28 баллни ташкил қилди.
5. Ўрикнинг «Шалах» нави ўз хусусиятларини нисбатан узоқ сақлай олади. Мазкур навнинг мевасини «техник» пишган даврда узиб олиб, экспорт қилиш мумкин. Бу даврда узилган мевани сунъий иқлимда совутиш орқали унинг етилиш/ривожланиши секинлаштирилади.

#### ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Мирзаев М.М. Культура абрикоса в Узбекистане. Т., 2000.-190 с.
2. Буриев Х.Ч. Хаваскор боғбонга кўлланма. –Т.: “Шарк”, 2002. 207 б.
3. Ковалев Н.В. Абрикос. М., 1963. –С 288.
4. Костина К.Ф. Абрикос. ВАСХНИЛ, М., -Л., 1936. 292 с.

УЎК 595.754.1

### ШИМОЛИЙ-ҒАРБИЙ ЎЗБЕКИСТОНДА ТАРҚАЛГАН ҚАЛҚОНЛИ ҚАНДАЛАЛАРНИНГ (HEMIPTERA: PENTATOMIDAE) ЭКОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ

*А.И.Искандаров, таянч докторант, Урганч давлат университети, Урганч*

**Аннотация.** Ушбу мақола шимолий-ғарбий Ўзбекистонда тарқалган яримқаттиққанотли (*Hemiptera*) ҳашаротларнинг *Pentatomidae* оиласига мансуб турларининг экологик хусусиятлари келтирилган. Хусусан, қалқонли қандалаларининг ҳаёт шаклига кўра 11 тури (55%) хортобионтларга, 2 тури (10%) дендробионтларга, 1 тури (5%) тамнообионтларга, 6 тури (30%) тамно-хортобионтларга мансублиги ўрганилди. Озиқланиш ихтисослиги бўйича қалқонли қандалалардан 9 тур (42,1%) полифаглар, 11 тур (57,9%) олигофаг экани келтирилган.

**Калим сўзлар:** яримқаттиққанотлилар, қалқонли қандалалар, авлод, тур, хортобионт, тамнообионтлар, тамно-хортобионтлар, дендробионт, полифаг, олигофаг.

**Аннотация.** В статье представлена экологическая характеристика видов полутвердых насекомых (*Hemiptera*), относящихся к семейству *Pentatomidae*, распространенных на северо-западе Узбекистана. В частности, по образу жизни клопов 11 видов (55 %) относились к хортобионтам, 2 вида (10 %) к дендробионтам, 1 вид (5 %) к тамнообионтам, 6 видов (30 %) к тамно-хортобионтам. По специализации питания 9 видов (42,1%) настоящие щитники являются полифагами и 11 видов (57,9%) – олигофагами.

**Ключевые слова:** полужесткокрылые, настоящие щитники, род, вид, хортобионт, тамнообионт, тамно-хортобионт, дендробионт, полифаг, олигофаг.

**Abstract.** The article presents the ecological characteristics of species of semi-solid insects (*Hemiptera*), belonging to the *Pentatomidae* family, distributed in the north-west of Uzbekistan. In particular, 11 species (55%) of stink bugs belonged to *Hortobionts*, 2 species (10%) to *Dendrobionts*, 1 type (5%) to *Tamnobionts*, 6 species (30%) to *Tamno-hortobionts*. According to the nutrition specialty, 9 species (42.1%) of stink bugs are polyphagous and 11 species (57.9%) are oligophagous.

**Keywords.** Semi-winged, stink bugs, genus, species, hortobiont, tamnobionts, tamno-hortobionts, dendrobiont, polyphagous, oligophagous.

**Кириш.** Яримқаттиққанотли ҳашаротлар синфининг катта қисмини ташкил этиб, ер шарининг худудларида кенг тарқалган. Бугунги кунда динё миқёсида қандалаларнинг 75 оилага мансуб 50 мингдан ортиқ тури тарқалган бўлса, Марказий Осиё мамлакатлари, жумладан Қозоғистонда қандалаларнинг 32 оилага мансуб 1250 дан ортиқ тури рўйхатга олинган [4]. Қандалалар фаунаси Ўрта Осиёда, жумладан, Ўзбекистонда ҳам бой хилма-хиллика эга бўлиб, эндемик ва кизил китобга киритилган турлари билан ажралиб туради. Қандалаларнинг аксарият турлари ўсимликхўр бўлиб, улар 200 дан ортиқ ўсимлик турларини зарарлайди. Масалан, дунёда қишлоқ хўжалиги экинларига жиддий хавф туғдираётган санчиб сўрувчи зараркунандалардан бири ўсимлик яримқаттиққанотлилари (*Hemiptera-Heteroptera*) туркумига кирувчи қалқонлилар (*Pentatomidae*) оиласига мансуб қандалалари ҳисобланади. Қалқонли қандалалар (*Pentatomidae*) *Hemiptera* туркумининг учунчи энг катта оиласи бўлиб, ҳозирги кунда бу оилага 800 га яқин авлод ва 5000 дан ортиқ тур фанга маълум (*Schuh va Slater, 1995; Rider, 2006*). Қалқонли қандалалар бутун дунё бўйлаб тарқалган, улар асосан тропик минтақаларда кенг тарқалган. Улар кўплаб қуруқликлардаги табиий ва сунъий экотизимларда уларнинг популяцияси жуда кўп микдорда учрайди. Айрим турлари йирткич зоофитофаг ва фитозоофагларга бўлинади.[3,5]

**Олинган натижалар.** Тадқиқотлар 2020-2021 йиллар давомида шимолий-ғарбий Ўзбекистоннинг Хоразм вилоятидаги табиий ландшафтлар ва агроценозларида олиб борилган. Тадқиқот мобайнида шимолий-ғарбий Ўзбекистон худудларининг 8 та координата нуқталарида Кириченко (1957) нинг қандалаларни йиғиш ва тур даражасини аниқлаш ҳамда Голуб В.Б., Цуриков М.Н., Прокин (2012)

ларнинг ҳашаротларни йиғиш, коллекция таёрлаш ва сақлаш каби усулларида фойдаланиб, Зоология институти Энтомология лабораториясида таҳлил қилинди. Йиғилган намуналарни экологик гуруҳларга ажратиш, ландшафтлараро тарқалишини ўрганиш, зоогеографик ҳолатини ўрганиш Кириченко (1951), Kerzhner (1962), Асанова ва Искаков (1977), Schuh (1995), Linnavuori (1998) ларнинг тегишли илмий маъналари ёрдамида олиб борилади. Олиб борилган тадқиқотлар натижасида шимолий-ғарбий Ўзбекистоннинг Хоразм вилояти табиий ва агроценозларида тарқалган яримқаттиққанотсимон ҳашаротларнинг Pentatomidae оиласига мансуб турларнинг фаунаси таксономик таркибига кўра фаунадаги кенжа оилалар сони 2 та (Podopinae, Pentatominae)ни, авлодлар сони 11 тани, турлар сони эса 20 тани ташкил этади.

Шимолий-ғарбий Ўзбекистон қалқонли қандалаларини ҳаёт шакли бўйича гуруҳларга ажратиб ўрганиш муҳим аҳамиятга эга. Бу борада хорижий давлатларда кўплаб илмий тадқиқот ишлари олиб борилган. Яримқаттиққанотсимонлар ҳаёт шаклига кўра 11 та гуруҳга (дендробионтлар, геогерпетобионтлар, эпигеобионтлар, эвриобионтлар, годробиогтлар, эктопаразитлар) ажратилади. [2] Шимолий-ғарбий Ўзбекистон қалқонли қандалалари ҳаёт шаклига кўра 4 та асосий ва 2 та оралик гуруҳга мансуб экани аниқланди.

1. Хортобионтлар – ўт ўсимликлар қопламида яшашга мослашган турлар:

а) икки уруғпаллали хортобионтлар икки уруғпаллали ўсимликлар қопламида яшашга мослашган турлар. Уларга *Apodiphus integriceps* *C. pudicus*, *C. fuscispinus* *N. viridula* *E. ornate* *E. oleracae* турлар киради. Бу гуруҳга 6 тур мансуб бўлиб, 30 % ни ташкил қилади.

б) бошоқли хортобионтлар бир уруғпаллали ўсимликлар қопламида яшашга мослашган турлар. Уларга *A. acuminata*, *A. furcula*, *A. melanota*

*H. strictus vernalis*, *H. nitidus* турлари мансуб бўлиб 25 % (5 тур) ни ташкил этади.

2. Дендробионтлар-дарахт ўсимликларда яшашга мослашган турлар.

Улар *P. prasina* *E. wilkinsi* турларидан иборат бўлиб, 10 % (2 тур) ни ташкил этади.

3. Тамнобионтлар – дарахт ва бутазорларда яшашга мослашган турлар. Бу гуруҳга *M. deserticola* тури мансуб бўлиб, улуши умумий турлар ичида 5 % (1 тур) га тенг.

4. Тамно-хортобионтлар-бута ва ўт ўсимликларда яшашга мослашган турлар. Бу гуруҳга *D. quadrimaculata*, *E. ventralis*, *E. maracandica*, *G. lineatum*, *G. consimile*. *B. germari* турлари мансуб бўлиб, улар умумий турлар ичида 30 % (6 тур) ни ташкил этади. (1-жадвал)

Қалқонли қандалалар оиласининг аксарият турлари фитофил (ўт қопламида яшовчи) лар бўлгани учун ҳаёт шаклига кўра ўсимликхўр хортобионтлар ҳисобланади.

1-жадвал.

Шимолий-ғарбий Ўзбекистон қалқонли қандалаларини ҳаёт шакллари

№	Қандалаларнинг ҳаёт шакли	Тур сони	%	
1	Хортобионтлар	икки уруғпаллали хортобионтлар	6	30
		бошоқли хортобионтлар	5	25
2	Дендробионтлар	2	10	
3	Тамнобионтлар	1	5	
4	Тамно-хортобионтлар	6	30	
<b>Ҳама:</b>		<b>20</b>	<b>100</b>	

**Қалқонли қандалаларнинг озуқа манбаларига ихтисослашиши.**

Ҳашаротлар ҳаётида озика бўлган талаб физиологик зарурият бўлиб, турли ҳил озика манбаларидан фойдаланиб насл қолдириш учун турли ҳил мосланишларни вужудга келтиради. Ҳашаротларнинг яшаш учун энг муҳим экологик омиллардан бири озика ҳисобланади. Қалқонли қандалаларнинг кўпчилики олигофаглар ҳисобланиб, улар бир-бирига яқин ўсимлик оилалари билан озикланади [1,2].

Шунингдек қалқонли қандалалар орасида полифаг турлари ҳам кенг тарқалган. Полифитофаг турларининг вояга етган имаголари ва личинкалари озика танламай бир қанча оилага мансуб турли туман ўсимликлар билан озикланиб ривожланади ва шу ўсимликларга тухум қўйиб кўпаяди. Масалан битта *Nezara viridula* (Linnaeus, 1758) қандала тури 145 дан ортиқ ўсимликлар билан озикланиши ўрганилган [6,7].

2-жадвал.

Шимолий-ғарбий Ўзбекистонда тарқалган қалқонли қандалаларнинг озуқа манбаларга ихтисослашиши

Озикланиш гуруҳи		Турлар
Фитофаг	Полифаглар	<i>Apodiphus integriceps</i> , <i>B. germari</i> , <i>C. pudicus</i> , <i>C. fuscispinus</i> , <i>P. prasina</i> , <i>D. quadrimaculata</i> , <i>H. strictus vernalis</i> , <i>H. nitidus</i> , <i>N. viridula</i> .
	Олигофаглар	<i>A. acuminata</i> , <i>A. furcula</i> , <i>A. melanota</i> , <i>M. deserticola</i> , <i>E. ornate</i> , <i>E. oleracae</i> , <i>E. wilkinsi</i> , <i>E. ventralis</i> , <i>E. maracandica</i> , <i>G. lineatum</i> , <i>G. consimile</i> .
<b>Ҳама:</b>		<b>20</b>

Олиб борилган тадқиқотларимиз натижаларида аниқланган қалқонли қандалалар турларини озуқа ихтисослашиш кенглигига қараб таҳлил қилганимизда улар асосан фитофаг гуруҳига мансублиги аниқланди.

1. Фитофаглар-фақат ўсимликлар билан озиқланувчи турлар 20 тани ташкил этиб, улар ўз навбатида 2 гуруҳга ажратилади.

а) Полифаглар-бир ва икки уруғпаллалли ўсимликлар синфининг бир нечта оилага мансуб ўсимликлар билан озиқланадиган турлар 9 тани ташкил этди.

б) Олигафаглар-маълум бир оилаларга мансуб ўсимликлар билан озиқланадиган турлар 11 тани ташкил этди. (2-жадвал)

Хулоса қилиб айтганда шимолий-ғарбий Ўзбекистон хуудларидан аниқланган қалқонли қандалаларининг ҳаёт шаклига кўра 11 тури (55%) хортобионтларга, 2 тури (10%) дендробионтларга, 1 тури (5%) тамнобионтларга, 6 тури (30%) тамно-хортобионтларга мансублиги ўрганилди. Озиқланиш ихтисослиги бўйича қалқонли қандалалардан 9 тур (42,1%) полифаглар, 11 тур (57,9%) олигофаг экани аниқланди.

#### ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Асанова Р.Б., Исаков Б.В. Вредные и полезные полужесткокрылые Казахстана.–Алма-Аты, 1977-202 с.
2. Голубь В.Б., Цуриков М.Н., Прокин А.А. Коллекции насекомых: сбор, обработка и хранение материала. – Москва, 2012. -339 с.
3. Schuh R.T., and J.A. Slater. 1995. The true bugs of the world (Hemiptera: Heteroptera). Ithaca: Cornell University Press, 336 p
4. Schuh R.T. Plant bugs of the world (Insecta: Heteroptera: Pentatomidae): systematic catalog, distributions, host list, and bibliography. New York Entomological Society.–New York, 1995. – 1329 pp
5. Rider D.A. 2008. Number of Genera & Species, Pentatomidea Home
6. Page. <[http://www.ndsu.nodak.edu/ndsu/rider/Pentatomidea/Classification/Genus\\_Species\\_Numbers](http://www.ndsu.nodak.edu/ndsu/rider/Pentatomidea/Classification/Genus_Species_Numbers). htm> (16.VI.2008).
7. Squitier J.M. (1997, updated 2007) “Southern green stink bug” Featured creatures, University of Florida Institute of Food and Agricultural services.
8. Panizzi A.R. et al. (2000). Stink bugs (Pentatomidae). In: Schaefer C.W. & Panizzi A.R. (eds.). Heteroptera of economic importance, str. 421-747. Boca Raton: CRC Press.

УДК 581.5

### ОЦЕНКА ЭКОЛОГИЧЕСКОГО СОСТОЯНИЯ РАСТИТЕЛЬНОГО СООБЩЕСТВА В ТУГАЙНЫХ ЭКОСИСТЕМАХ ПРИАРАЛЬЯ

*Г.А. Кутлымуратова, преподаватель, Нукусский государственный педагогический институт, Нукус*

*С.М. Мамбетуллаева, проф., Каракалпакский научно-исследовательский институт естественных наук, Нукус*

**Аннотация.** Мақолада Орол бўйи тўқайлар экотизимидаги ўсимликлар жамоасининг экологик ҳолатини баҳолаш ҳақида сўз боради. Экологик шароитнинг ёмонлашуви тўқай ўсимликларининг флористик таркибига кескин таъсир кўрсатди. Натижада мезофилл ўт ўсимликлари ўрнига ксерофил, галофил ўсимликлар ўз турларини кенгайтиради.

**Калит сўзлар:** экологик баҳолаш, тўқайлар ўсимликлар, ареал, Приаралье, трансформацияси.

**Аннотация.** В статье рассматриваются вопросы оценки экологического состояния растительного сообщества в тугайных экосистемах Приаралья. Ухудшение экологических условий резко повлияло на флористический состав тугайной растительности. В результате вместо мезофильных травянистых растений расширяют свой ареал ксерофильные, галофильные растения.

**Ключевые слова:** экологическая оценка, тугайная растительность, ареал, Приаралье, трансформация.

**Abstract.** In the article the questions of estimation of the ecological state of vegetable association are examined in the tugai ecosystems of Priaralye. Worsening of ecological terms sharply influenced on флористический composition of tugai vegetation. As a result, instead of mesophylls grassy plants extend the natural habitat xerophile, halophilus plants.

**Keywords:** ecological estimation, tugai vegetation, natural habitat, Priaralye, transformation.

Антропогенное воздействие, значительно усилившееся в последнее десятилетие, привело к значительной трансформации растительного покрова, уничтожению и деградации многих коренных зональных сообществ, замене их на вторичные фитоценозы, упрощению ярусной структуры, падению продуктивности. Среди антропогенных воздействий значительное место занимает возросшая в последнее время рекреация [7].

В настоящее время всем известно, что леса являются основным компонентом биосферы и играют важную роль в формировании благоприятных оптимальных условий для существования жизни на Земле. Сохранение уникальных тугайных лесов в дельте Амударьи на сегодняшний день становится особо актуальным в связи с неблагоприятной экологической ситуацией, сложившейся в регионе Южного Приаралья.

Тугайные леса почти на всем протяжении р. Амударьи сопровождают ее русло и как бы являются ее «природной защитой». Они играют важную роль в экологической функции дельты Амударьи, снижая уровень грунтовых вод и сокращая их засоление. Лесозащитные полосы вдоль рек способствуют регулированию уровня вод и выполняют почвозащитную функцию [2, 10].

Тугайные леса могут сохранить до 80% поверхностного стока в реки и озера с окружающих территорий и, тем самым, играют значительную роль в предотвращении заиления Амударьи и ее притоков. Помимо этого, лесные заросли обеспечивают естественный дренаж и предотвращают вторичное засоление почв в этом районе. Они значительно сокращают испарения из дренажных и оросительных сетей, повышают влажность нижних слоев воздуха и, тем самым, сокращают количество воды, необходимое для орошения [4, 9].

В настоящее время, вследствие высыхания Аральского моря, равновесие экосистемы Южного Приаралья нарушено, давление на природные комплексы здесь достигают чрезвычайной силы, повсеместно происходит антропогенное опустынивание и аридизация. Республика Узбекистан в 1995 году ратифицировала Конвенцию о сохранении биоразнообразия, и уже к 1998 году была разработана Национальная стратегия и план действий по сохранению биоразнообразия. В данном документе отмечено, что сохранение тугайных лесов, растущих вдоль Амударьи, является одним из приоритетных направлений в области сохранения биоразнообразия. В 2001 году Государственным комитетом по экологии и охране окружающей среды Республики Каракалпакстан совместно с учеными и общественностью был разработан пилотный проект «Сохранение тугайных лесов в Южном Приаралье Узбекистана». Далее на его базе был создан среднemasштабный проект «Сохранение тугайных лесов и укрепление системы охраняемых территорий в дельте Амударьи, Каракалпакстан», который был представлен для финансирования Глобальному экологическому фонду (ГЭФ). В середине 2005 года документ был одобрен ГЭФ и поддержан Программой Развития ООН и правительством Республики Каракалпакстан. На реализацию проекта было выделено 2,106,000 долларов США.

Деградация окружающей среды привела к усилению процессов опустынивания, ветровой эрозии почвы, изменению климата, генофонда, биоразнообразия фауны и флоры [1, 2, 6]. В целях освоения и расширения посевных площадей под рис и хлопчатник началось новое вооруженное наступление на тугаи. В результате были почти уничтожены пойменные тугаи – Ечкияр, Мечекли, Кулатау, Безерген, Шаббаз и Нурымтубек, на грани уничтожения находятся – Шокай тугай, Шакал тугай, Саманбай тугай, значительно сократились площади – Бекбай (Назархан), Шортанбай, Еркиндарья и Крантау, Порлытауских тугаев.

Тугаи низовьев Амударьи характеризуются малым количеством видового состава. Так, к примеру, в Бадай-тугае: деревья и кустарники составляют – 17%, многолетние растения – 45,0%, однолетние – 32,0%. В других маленьких тугаях оно еще меньше [2, 10].

В зависимости от площади, состояния вегетации, уровня грунтовых вод, режима полива естественным и искусственным путем, они сильно отличаются между собой экологическими условиями существования и неоднородными показателями флоры и фауны. Например, Бадай-тугае в 1960-1970 годы экологического благополучия было зарегистрировано 123 вида птиц. В эти годы вокруг этих тугайных зарослей существовало несколько мелководных озер, регулярно заливаемые в летние паводки, что создавало условия для отдыха и подкормки перелетных птиц [1, 2, 3, 8].

В настоящее время в результате маловодья, высохли все озерные системы, полив пойменных тугаев естественным путем стал редкостью и малообъемным по площади – резко сократился видовой состав птиц, млекопитающих и других представителей наземных позвоночных [3].

В настоящее время современный флористический состав НАБР состоит из 419 видов высших растений, относящихся к 245 родам, 70 семействам.

По видовому составу крупными семействами являются *Chenopodiaceae* (69), *Poaceae* (57), *Asteraceae* (33), *Brassicaceae* (27), *Fabaceae* (24), *Syringaceae* (23), *Polygonaceae* (18), *Boraginaceae* (16), *Tamaricaceae* (10). Остальные встречались в единичном количестве [6, 8, 9].

Растительный мир НАБР довольно разнообразен и объединяет представителей различных географических комплексов: Голарктический, Космополитный, Западнопалеарктический, Среднеазиатский, Европейский, Адвентивный, Центральноазиатский, Понтический, Средиземноморский, Средиземноморско-ирано-туранский, Средиземноморско-туранский, Средиземноморско-палеарктический, Средиземно-морско-голарктический, Средиземноморско-сарматский, Палеарктический, Арало-каспийский, Восточно-средиземноморско-ирано-туранский, Кавказско-туранский, Ирано-туранский, Иранский, Туранский, Понтико-сарматский, Понтико-средиземноморский, Переднеазиатский, Восточно-средиземноморский, Сарматский, Сармато-ирано-туранский, Сармато-туранский, Прикаспийский, Турано-монгольский, Восточносредиземноморский, Малоазийский, Малоазийско-туранские комплексы [9].

По данным специалистов, в Нижне-амударьинском государственном государственном биосферном резервате произрастают 320-кормовых, 68-лекарственных, 73-алкалоидных, 47-дубильных,

20-красильных, 56-ядовитых, 11-волоконистых, 40-медоносных, 25-эфиромасличных растений [3, 5]. По видовому составу крупными семействами являются Chenopodiaceae (69), Poaceae (57), Asteraceae (33), Brassicaceae (27), Fabaceae (24), Cyperaceae (23), Polygonaceae (18), Boraginaceae (16), Tamaricaceae (10). Остальные встречались в единичном количестве.

Ухудшение экологических условий резко повлияло на флористический состав тугайной растительности. В результате вместо мезофильных травянистых растений расширяют свой ареал ксерофильные, галофильные растения.

Лесные типы угодий подразделяются по густоте насаждений на три типа степени: редкие, средней густоты, густые. Центральная территория, куда входят кварталы № 6,7,8,3,4,10,16 преобладает карабрак, чингиль, гребенщик, которые старые заросли сухими умирающими стеблями прошлых за многих десятилеток. Такие места занимают более 1500 га.

Но в благоприятные годы, когда в высоководные 1998, 2009, 2010 годы вода доходила до 30-40 % территорий тугайного массива, площадью 2000-2500 га эти старые кустарниковые тугайные массивы восстанавливались с трудом, экологическое состояние тугаев постепенно оживалось. Вдоль нового канала протяженностью 10 км появились густые гребенщикообразные заросли и травянистый покров как янтакное выросло дружно кормовое отношение обогащалось [5]. От реки Амударьи по старому руслу Кукдарья до главного распределительного сооружения протяженностью до 3 км наблюдалось появление молодого леса, таких как туранговые, ивовые, лоховые, и успешно дружным появлением травяного покрова: солодка, тростник, янтак и др.

В заповедной зоне «Таллык» в основном имеются туранговые угодья «Таллык» тугай с тугайный массивом общей площадью около 1750га, где около 1300 га имеется лесопокрываемая площадь. Туранговые насаждения молодые, плотность насаждений составляет 0,5-7 и выше, тугай здесь намного лучше, чем в заповедной зоне «Бадай тугай». Травянистый покров отмечен хорошими кормовыми растениями, такие как, янтак, каролия, солоноколосник, солодка, гребенщик, также имеются достаточно большие площади с порослью туранги и лоха.

В Джумьртау или Шеримбет тугай, площадью 560 га водообеспеченность очень высокая. Этот тугай, главным образом, состоит из молодого тугайного леса. Травянистый покров очень высокий и в хорошей стадии развития. Кормовая база богатая, представлена таким растительным миром, как эриантус, рогоз, солодка, янтак, вейник и др.

Назархан тугай расположен в Амударьинском районе Республики Каракалпакстан и представляет сравнительно большую часть территории биосферного резервата - около 3300 га. Водообеспеченность высокая. Растительность состоит, главным образом, из молодого тугайного леса с участками старых лесов. Молодой лес состоит из туранги, подлесок из тростника, гребенщика, кендыря, соляноколосника, чемыша. Вокруг этого тугайного массива расположено множество фермерских хозяйств, где выращивают следующие сельхозкультуры: хлопчатник, пшено, рис, кукуруза и др.

Таким образом, ухудшение экологических условий резко повлияло на флористический состав тугайной растительности. В результате вместо мезофильных травянистых растений расширяют свой ареал ксерофильные, галофильные растения. Сохранение генофонда и биоразнообразия тугайной экосистемы поймы Амударьи становятся большой экологической проблемой.

В целях сохранения хотя бы имеющегося состава видового разнообразия тугайной экосистемы низовьев Амударьи, как обнадеживающий объект резервата генофонда и биоразнообразия, необходимо произвести анализ имеющегося материала и новой типизации тугаев для определения конкретных мест возможного сохранения генофонда и биоразнообразия фауны и флоры и для создания нового кадастра тугайной экосистемы низовьев Амударьи.

#### СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Бахiev А.Б. 1985. Экология и смена растительных сообществ низовьев Амударьи. Ташкент: Фан. 192 с.
2. Бахiev А., Трешкин С.Е., Кузьмина Ж.В. 1994. Современное состояние тугаев Каракалпакстана и их охрана. Нукус: Каракалпакстан. 72 с.
3. Бекбергенова З.О., Мамбетуллаева С.М., Матекова Г.А., Джумабаев Ш. Фауна позвоночных животных Нижне-Амударьинского государственного биосферного резервата // Материалы III Республиканской научно-практ. конфер. «Рациональное использование природных ресурсов Южного Приаралья». -КГУ, Нукус, 2014.- с. 133-135.
4. Кузьмина Ж.В., Трешкин С.Е. Оценка влияния Южно-Каракалпакского магистрального коллектора на заповедник Бадай-тугай // Аридные экосистемы, 2003, том 9, 319-20. С.93-105.
5. Кузьмина Ж.В., Трешкин С.Е. Экологические последствия строительства Южно-Каракалпакского магистрального коллектора // Проблемы освоения пустынь, 2004 №1. Ашхабад-2004. С.13-16.
6. Кузьмина Ж.В., Трешкин С.Е. 2001. Современное состояние флоры и растительности заповедника «Бадай-Тугай» в связи с изменением гидрологического режима // Ботанический журнал. т.86. №1. С. 73-84.
7. Миркин Б.М., Наумова Л.Г. Краткий курс общей экологии // Учебник.-Уфа, 2011, 180 с.
8. Трешкин С.Е., Кузьмина Ж.В.- Структура древесно-кустарниковых тугаев низовьев Амударьи // Вестник ККО АНРУз, 1989г. №4.
9. Трешкин С.Е. 2011. Деградация тугаев Средней Азии и возможности их восстановления. Автореферат дис. ...доктора с/х наук. Волгоград. Всероссийский НИИ агролесомелиорации. 45 с.
10. Шербаев Б. Флора заповедника Бадай-Тугай // Вестник ККО АНРУз, 1980 г.

УЎК: 632.4

**ЭХЕНАТЦЕЯ (*Echinacea purpurea* L.) ДА АЛЬТЕРНАРИОЗ ДОҒЛАНИШ КАСАЛЛИГИ***Д.Д. Қодирова, таянч докторант, Тошкент давлат аграр университети, Тошкент**Х.Х. Нуралиев, профессор, Тошкент давлат аграр университети, Тошкент*

**Аннотация.** Ушбу мақолада Ўзбекистон шароитида интродукция қилинган доривор эхинацеяда доғланиш касаллигининг тарқалиши, ривожланиши, зарари, касалликни қўзғатувчи замбуруғ турининг биологияси ва касалликнинг олдини олиш тадбирлари тўғрисидаги маълумотлар келтирилган.

**Калим сўзлар:** Эхинацея (*Echinacea* L.) *Echinacea purpurea*, *Ascomycetes*, *Dothideomycetes*, *Pleosporales*, *Pleosporaceae*

**Аннотация.** В данной статье рассмотрены распространение, развитие, и вредность болезни пятнистости лекарственной эхинацеи, интродуцированной в условия Узбекистана, классификация видов грибов, вызывающих заболевание, меры борьбы с ним.

**Ключевые слова:** Эхинацея (*Echinacea* L.) *Echinacea purpurea*, *Ascomycetes*, *Dothideomycetes*, *Pleosporales*, *Pleosporaceae*

**Abstract.** This article discusses the spread, development, and harmfulness of the disease of spotting of medicinal echinacea introduced into the conditions of Uzbekistan, the classification of fungal species causing the disease, and measures to combat it.

**Keywords:** *Echinacea* (*Echinacea* L.) *Echinacea purpurea*, *Ascomycetes*, *Dothideomycetes*, *Pleosporales*, *Pleosporaceae*

**Кириш.** Республикамизда қизил эхинацея-манзарали интродуцент ўсимлик сифатида кенг тарқалган бўлиб, манзарали ва доривор ўсимлик сифатида етиштириб келинмоқда. Аммо, бу ўсимлик дориворлик хусусиятларга кўра алоҳида ажралиб туради. Чунки, мазкур ўсимлик чет эл мамлакатлари Давлат фармакопеясига киритилган ва шу аснода турли хил препаратлар тайёрланади.

Кейинги йилларда Ўзбекистонда қизил эхинацея манзарали ўсимлик сифатида кенг оммалашган бўлиб, мазкур ўсимлик ботаник олимлар томонидан доривор ўсимликшунослик соҳасида янги истиқболли тур сифатида ўрганилиб, ишлаб чиқаришга тадбиқ этилган ва йил сайин доривор ўсимликлар етиштиришга ихтисослашган хўжаликларда ушбу ўсимлик экин майдонлари ортиб бормоқда. Эхинацеянинг илдизлари ва илдизпоялари - инулин (6% гача), глюкоза (7%), эфир мойлари ва ёғлар, фенол бирикмалар ҳамда қатронлар сақлайди. Ўсимликнинг барча (ер устки ва ер остки) қисмларида ферментлар, макро(калий, калций) ва микроэлементлари (селен, кобальт, кумуш, молибден, рух, марганец ва бошқалар) мавжуд. Республикамиз табиий иқлим шароитларида қизил эхинацея ўсимлигини ўстириш ва ундан самарали фойдаланиш имкониятлари мавжуд [1].

Бизга маълумки ҳар қандай интродукция қилинган ўсимлик турларида маълум табиий иқлим шароитида ўзига хос микобиотаси шаклланиб, айрим турлари ҳар хил иқтисодий жихатдан ахамиятли касалликлар келтириш хусусиятига эга бўлади, ушбу касалликлар ўсимликнинг ривожланиши ва улардан олинadиган маҳсулот сифатига салбий таъсир этиш хусусиятига эгадир, айрим хавфли касалликлар ўсимликнинг бутунлай нобуд бўлишига олиб келади.


Шу муносабат билан, биз қизил эхинацея ўсимлигининг микобиотасини тўлиқ ўрганишни ва олинган маълумотларни таҳлил қилиш асосида патоген замбуруғ турларни аниқлаш ва улар таъсирида пайдо бўлаётган касаллик турлари, зарари ва тарқалиш қонуниятларини ўрганишни ҳамда иқтисодий ахамияти юқори бўлган касалликларга қарши уйғунлашган кураш тизимини яратишни мақсад қилиб олддик.

**Тадқиқот манбаси ва улублари.** Тадқиқот жараёни ЎЗР ФА Ботаника институтининг микология ва альгология лабораториясида ҳамда Тош ДАУ нинг фитопатология лабораториясида олиб борилди. Тадқиқотларни амалга оширишда касалланган ўсимлик аъзоларидан йиғилган гербарий намуналари манба бўлиб хизмат қилди. Намуналарни йиғиш ўсимликнинг бутун вегетация даврида амалга оширилди. Тадқиқотлар давомида йиғилган гербарий намуналари микологик ва фитопатологик таҳлил қилинди. Тўқима ичидаги микромицетларни ажратишда нам камера (Наумов, 1937) усулидан фойдаланилди [2]. Эхинацея турларида касалликни қўзғатувчи замбуруғларнинг тузилиши, тур таркиби, уларнинг морфологик белгилари текшириш учун универсал МВС -3 НУ 2Е Мотис-1 микроскопларидан фойдаланилди. [3]. Замбуруғларнинг тур таркибини аниқлашда мавжуд аниқлагичлар ва <http://www.indexfungorum.org/names/names> интернет сайтдан фойдаланилди [6;7].

**Тадқиқот натижалари.** Олиб борилган тадқиқотлар давомида ўсимликларнинг бутун вегетация даврида йиғилган гербарий намуналари таҳлил қилинди ва иқтисодий ахамияти юқори бўлган доғланиш касаллиги аниқланди. Касаллик қўзғатувчи *Ascomycetes* бўлими *Dothideomycetes* синфи, *Pleosporales* тартиби, *Pleosporaceae* оиласига мансуб *Alternaria* sp замбуруғи. Унинг мицелийси кулранг-жигарранг, кўп хужайрали. Конидиялари кулранг-жигарранг ёки жигарранг, ўл-чами 20-63x9-18 мкм. Улар узун,

кўпинча шохланган занжирларда хосил бўлади, шакли тескари тўқмоқсимон, тескари ноксимон, тухумсимон ёки эллипссимон, кўндаланг (8 тагача), бўйлама ва қия тўсиқли (1-расм). Замбуруғнинг ўсиши учун қулай ҳарорат 20-25<sup>0</sup>С ҳисобланади. Патоген ўсимлик қолдиқларида конидия ва мицелий кўринишида қишлайди.

**Зарари.** Касаллик дастлаб ўсимлик баргининг устки қисмида ривожланади ва барг юзасининг четки қисмида турли шаклдаги тўқ сарик доғлар хосил қилади. Доғлар дастлаб оч кўнғир, кейинроқ жигарранг тус ва нотекис юзага эга бўлади. Аста-секинлик билан бу доғлар баргининг ички қисмига қараб тарқалиб боради ҳамда барг пластинкасининг остки қисмида ҳам оч яшил доғ кўринишида намоён бўлади. Вақт ўтган сари бу доғлар бир-бирига қўшилиб некрозларни хосил қилади, оқибатда барг пластинкасининг қайиқ сифат бўжмайиши кучли зарарланган ҳолларда баргининг тўкилиши ва ўсимликнинг физиологик жароёнларининг издан чиқиши ҳамда ривожланишига салбий таъсир этади. Бу ҳолат эса ўсимликдан олинадиган хомашёнинг сифатининг пасайишига олиб келади (1-расм).



1-расм. *Alternaria sp* замбуруғининг микроскопик кўриниши



*a*

*b*

2-расм. *Alternaria sp.* барглари зарарлагандаги ташқи томондан кўриниши (*a*-касалланган ўсимликнинг умумий кўриниши; *b*-касалланган барглари).

**Тарқалиши.** Замбуруғ ўсимлик уруғи ва тупроқдаги зарарланган ўсимлик қолдиқларида мицелий ва конидия кўринишида сақланади ва бирламчи инфекция манбаи бўлиб ҳисобланади. Қишлаб чиққан замбуруғ мицелиялари ва конидиялари ўсимликларнинг вегетация даврида ҳарорат 17-18<sup>0</sup>С ва 70-80% намликда ривожланишни бошлайди. Конидиялари эрта баҳорда сув ёки шамол таъсирида тарқалади ва барг тўқималарига кириб боради ва ўсимлик баргида ҳар хил доғлар кўринишида намоён бўлади (2-расм).

**Касалликга қарши қўлланиладиган тадбирлар тизими** Барча ўсимликлар сингари қизил эхинациянинг касалликларига қарши алмашлаб экишга қатъий риоя қилинади, бунда касаллик ва зарарку-нандалари умумий бўлган экинларни ўтмишдош сифатида танлашга руҳсат этилмайди. Тизимда касаллик ҳамда зараркунандаларга қарши мунтазам курашиш кўзда тутилган. Уруғлар фақатгина соғлом ўсимликлардан йиғиб олинishi лозим. Эхинатция уруғини зарарсизлантиришга жуда катта эътибор берилади. Бевосита хўжаликларнинг ўзида нам усулда формалин эритмаси (1:50) билан 10 дақиқа мобайнида дориланади, сўнгра 10-15 дақиқа оқар сувда ювилади ва сояда куриллади. Уруғларга бундай ишлов бериш экишдан 3 кун олдин бажарилади. Формалин билан ишлов бериш уруғнинг ўзидаги замбуруғли ва бактериал касаллик кўзғатувчиларига қарши яхши самара беради. Уруғларга термик ишлов бериш ҳам яхши натижа беради. Уруғлар термостатда 85-90<sup>0</sup>С ҳароратда 1 соат мобайнида зарарсизлантирилади. Бунда термостатдаги ҳаво ҳарорати билан уруғнинг ҳарорати ўртасидаги фарқ 15-20<sup>0</sup>С дан ортиб кетмаслиги кузатиб турилади. Қизил эхинациянинг



касаликларига қарши курашишда ўсимлик қалинлигига қатъий эътибор бериш, ўртача меъёрда суғориш ва тупроқ юзасида ҳосил бўладиган қатқалоқларга қарши курашиш муҳимдир. Вегетация даврида доғланиш касаллигига касаллигига қарши курашиш учун ўсимликларга тўрт марта 1% ли Бордо суюқлиги суспензияси билан ишлов бериш тавсия этилади. Вегетация даврида ўсимликларни ўз вақтида парваришлаш, ўғитларни тўғри қўллаш ва агротехникага қатъий риоя қилиш ўсимликларнинг касаликларга чидамлилигини юқори даражада оширади.

#### ХУЛОСАЛАР

1. Кейинги йилларда Ўзбекистонда қизил эхинаея мазарали ўсимлик сифатида кенг оммалашган бўлиб, мазкур ўсимлик ботаник олимлар томонидан доривор ўсимликшунослик соҳасида янги истиқболли тур сифатида ўрганилиб, ишлаб чиқаришга тадбиқ этилган ва йил сайин дориво ўсимликлар етиштиришга ихтисослашган хўжаликларда ушбу ўсимлик экин майдонлари ортиб бормокда. 2. Эҳнатцеянинг доғланиш касаллигини *Ascomycetes* бўлими *Dothideomycetes* синфи *Pleosporales* тартиб *Pleosporaceae* оиласи *Alternaria* туркумига мансуб *Alternaria* sp. замбуруғи кўзғатади.

2. Касаллик ўсимлик баргида хар хил кўринишдаги доғлар кўринишида намоён бўлади ва бу доғлар бир-бирига қўшилиб некрозларни ҳосил қилади, оқибатда барг пластинкасининг қайиқ сифат бужмайиши кучли зарарланган холларда баргнинг тўкилиши ва ўсимликнинг физиологик жароёнларининг издан чиқиши ҳамда ривожланишига салбий таъсир этади.

4. Қизил эхинаеянинг доғланиш касаллигига қарши кураш тизимини тўғри ташкил этиш, яъни алмашлаб экишга риоя этиш, экиш материалларини фитосанитар ҳолатига эътибор бериш, ўсимликларнинг вегетация даврида агротехник тадбирларни тўғри амалга ошириш ҳамда ўсимликга 4 мартагача 1%ли Бордо суюқлиги суспензияси билан ишлов бериш тавсия этилади.

#### ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙҲАТИ:

1. М.Ў.Оллоёров., Э.Т.Аҳмедов Қизил эхинаея истиқболли шифобахш ўсимлик. “Тошкент” 2021.
2. Наумов Н.А. Методы микологических и фитопатологических исследований. “Москва, Ленинград”, 1937. С 272.
3. Маткаримова А.А., Маҳқамов Т.Х., Махмудова М.М., Азизов Х.Я., Ваисова Г.Б. Ботаника “Тошкент” - Фан ва технология 2018.
4. Билай В.И. Методы экспериментальной микологии — Киев: Наук Думка 1973.
5. Пидопличко Н.П. Грибы паразиты культурных растений определитель. В 3-х т. – Киев, “Наукова Думка”, 1977. Т.1. С. 96-127.
6. <http://www.indexfungorum.org/names/names>
7. <http://www.plantsoftheworldonline.org>
8. Д.Д.Қодирова., Х.Х.Нуралиев ЎЗР ФА Ботаника боғи шароитида интродукция қилинган қизил эхинаеянинг касаликлари ва уларга қарши кураш. “COVID-19 пандемиясидан кейин кичик ва ўрта қишлоқ хўжалиги, боғдорчилик ва гулчилик бизнесини шиддат дилан тиклаш бўйича инноватсион стратегиялар” мавзусидаги халқаро илмий анжуман тўплами. Наманган 2021

УЎК 547.314+582.998. 62

### САМАРҚАНД ШАҲРИ ТУПРОҚ-ИҚЛИМ ШАРОИТИДА ТОШКЕНТ ХИЛОКАТАЛЬПАСИ (×*Chitalpa tashkentensis* T.S.Elias & Wisura) ЎСИМИК ТУРИНИНГ ФЕНОЛОГИЯСИ М.У.Мамадияров, ўқитувчи, Самарқанд давлат университети, Самарқанд

**Аннотация.** Ушбу мақолада Самарқанд шаҳри тупроқ/иқлим шароитида Тошкент хилокатальпаси (×*Chitalpa tashkentensis* T.S.Elias & Wisura) ўсимлик турининг фенологиясини тадқиқ қилинган. Тадқиқотларда Самарқанд шаҳри тупроқ-иқлим шароитида ×*Chitalpa tashkentensis* T.S.Elias & Wisura ўсимлик тури март ойидан октябрь-ноябрь ойларида биринчи совуқ тушишига қадар сақланиши, ўз навбатида ўзига хос гулларга эга мазкур ўсимлик тури манзарали пейзаж ҳосил қилиши ҳамда шаҳарни кўкаламзорлаштиришида истиқболли турлардан бири ҳисобланиши тасдиқланган.

**Калит сузлар:** Тошкент хилокатальпаси, Тошкент читальпаси, манзарали ўсимлик, Тошкент читальпаси фенологияси

**Аннотация.** В этой статье исследовано фенология растения типа Ташкентской хилокатальпы (×*Chitalpa tashkentensis* T.S.Elias & Wisura) в почвенно-климатических условиях города Самарканда. В исследованиях доказано, что в почвенно-климатических условиях города Самарканда тип растения ×*Chitalpa tashkentensis* T. сек. И Elias & Wisura с марта по октябрь-ноябрь месяцы в течении первых месяцев холода будут храниться до осени, которые в свою очередь формируют пейзаж с цветами, так как это декоративное растение имеет большое значение в озеленении города.

**Ключевые слова:** ташкентский хилокатальпа, ташкентский читальпа, декоративное растение, фенология ташкентской читальпы.

**Abstract.** In this article, the phenology of a plant such as the Tashkent hilokatalpa (× *Chitalpa tashkentensis* T.S. Elias & Wisura) is investigated in the soil and climatic conditions of the city of Samarkand. Studies have shown that in the soil and climatic conditions of the city of Samarkand, the plant type × *Chitalpa tashkentensis* T. sec. And Elias & Wisura from March to October-November during the first months of cold will

be stored until autumn, which in turn form a landscape with flowers, as this ornamental plant is of great importance in the landscaping of the city.

**Key words:** Tashkent hilokatalpa, Tashkent chitalpa, ornamental plant, phenology of Tashkent chitalpa.

**Кириш.** Ҳозирда дунё миқёсида урбанизация даражаси ортиши замонвий шаҳарларда атроф-муҳитнинг ифлосланиш даражасини ортишига олиб келмоқда ва мазкур жараённи узоқ муддатли келажак истиқболи нуқтаи назаридан назорат қилиш, мазкур муаммо ечимида илмий асосланган энг оптимал ҳуқуқий-меъёрий, био/экологик ечимларни ишлаб чиқиш масаласининг долзарблашиши қайд қилинади [Хомич, 2002; 2-б.]. Шаҳар экологик муҳитини оптималлаштириш, шаҳарнинг санитар-гигиена нуқтаи назаридан ҳолатини яхшиловчи манзарали ўсимлик турларидан бири – **Тошкент хилокатальпаси** (+*Chitalpa tashkentensis* T.S.Elias & Wisura) бўлиб, кўпгина маҳаллий ўсимлик турларига нисбатан иқлим шароитларига мослашиш даражаси юқорилиги, жумладан об-ҳаво ҳароратининг кескин пасайишига нисбатан чидамлилиги қайд қилинган [Холова, 2019; 121-124-б.].

1960 йилларда Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Ботаника боғида Русанов Н.Ф. томонидан *Catalpa* L. фенологияси ўрганилган ва шунингдек, *Chilopsis* D.Don билан *Catalpa bignonioides* Walt., *C. speciosa* Ward., *C. ovata* G.Don турларини ўзаро чагиштириш йўналишида тадқиқотлар олиб борилган [Rusanov, 1964; 44-47-б.; Rusanov, 1969; 45-51-б.; Rusanov, 1982; 5-7-б.]. Натижада яратилган Тошкент хилокатальпаси (*Chitalpa tashkentensis* (*Bignoniaceae*)) ҳозирда дунё миқёсида кенг тарқалган манзарали ўсимлик турларидан бирига айланган [Elias and Wisura, 1991; 139-144-б.; Li et al., 2006; 1162-1164-б.].

**Тадқиқотнинг мақсади** – Самарқанд шаҳри тупрок/иқлим шароитида Тошкент хилокатальпаси (*Chitalpa tashkentensis* T.S.Elias & Wisura) ўсимлик турининг фенологиясини тадқиқ қилишдан ташкил топган.

#### ТАДҚИҚОТ МАТЕРИАЛИ ВА УСУЛЛАРИ

Тадқиқотларда **объект** сифатида – Самарқанд давлат университетининг Ботаника боғи (Самарқанд ш., Олийгоҳ кўчаси, 15-уй) ҳудудига экилган Тошкент хилокатальпаси (*Chitalpa tashkentensis* T.S.Elias & Wisura) ўсимлик тури танлаб олинди. Тадқиқотларда вегетация даври давомида фенологик кузатишлар умумий қабул қилинган стандарт услуб ёрдамида амалга оширилди [Beideman, 1974; 25-126-б.; Зайцев, 1981; 15-120-б.; Фомина, 2008; 151-153-б.].

#### ОЛИНГАН НАТИЖАЛАР ВА УЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИ

Тошкент хилокатальпаси (*Chitalpa tashkentensis* T.S.Elias & Wisura) – катальпа (*Catalpa bignonioides*) ва хилопсис (*Chilopsis linearis*) гибриди Самарқанд шаҳри тупрок/иқлим шароитида февраль ойининг биринчи ўн кунлигидан (3-6.II) бошлаб барг чиқара бошлаши, баргларининг тўлик шаклланиши март ойининг 1-2 ўн кунлигида (5-12.III) якунланиши кузатилди (1-жадвал).

Тошкент хилокатальпаси (*Chitalpa tashkentensis* T.S.Elias & Wisura) гуллари оч пушти рангда, гулининг узунлиги ~5-6 см (эни ~3-4 см), гултожибарглари 5 та, гуллари ~20-25 тагача тўпгул ҳосил қилиб жойлашади. Самарқанд шаҳри тупрок/иқлим шароитида найчасимон шаклдаги оқиш-пушти гуллари очилиши май ойининг биринчи ўн кунлигидан (6-8.IV) бошлаб, сентябрь ойининг иккинчи ўн кунлигигача (24-28.V) давом этиши кузатилди (1-расм; 2-расм; 1-жадвал).



1-расм. Тошкент хилокатальпаси (*Chitalpa tashkentensis* T.S.Elias & Wisura). Самарқанд шаҳри тупрок/иқлим шароитида (2020 йил; Самарқанд шаҳри).

Шунингдек, Самарқанд шаҳри тупрок/иқлим шароитида Тошкент хилокатальпаси (*Chitalpa tashkentensis* T.S.Elias & Wisura) уруғларининг пишиб етилиши умумий ҳолатда сентябрь ойининг ~2-3 ўн кунлигидан (14-23.IX) бошлаб, октябрь ойининг ~1-2 ўн кунлигигача давом этиши (14-16.XI)

кузатилди. Бирок, қайд қилиш керакки ўсимлик уруғларининг тўлиқ ёппасига ҳолатда пишиб-етилиши ҳолатлари аниқланмади (1-жадвал).

1-жадвал

Самарқанд шаҳри тупрок/иқлим шароитида Тошкент хилокатальпасининг (*×Chitalpa tashkentensis* T.S.Elias & Wisura) ривожланиш фазалари

Т/р	Ривожланиш фазалари	Давомийлик даври	
		Бошланиш даври	Яқунланиш даври
1.	Барг чиқариш	3-6.II	5-12.III (тўлиқ шаклланиши)
2.	Гуллаш	6-8.III	24-28.X
3.	Уруғларининг пишиб-етилиши	14-23.IX	14-16.XI

**Изоҳ:** Фенологик кузатишлар 2019-2020 йиллар давомида Самарқанд давлат университетининг Ботаника боғи (Самарқанд ш., Олийгоҳ кўчаси, 15-уй) ҳудудида амалга оширилди.

Мазкур фенологик кузатиш натижалари мавжуд адабиёт маълумотларига мос келади [Русанов, 1971; 50-58-б.; Холова, 2019; 28-32-б.; Холова ва Қаландаров, 2014; 39-43-б.].

Самарқанд шаҳри тупрок/иқлим шароитида *×Chitalpa tashkentensis* T.S.Elias & Wisura ўсимлик тури вегетация даврининг 3-йилида баландлиги  $l \sim 4-8$  м ни ташкил қилиши, пластинка шакли ланцетсимон тўқ-яшил рангда барглари узунлиги  $l \sim 11,6-16,5$  см га тенг бўлиб, одатда қаламчалари ёрдамида кўпайтирилади (2-расм).



2-расм. Тошкент хилокатальпаси (*×Chitalpa tashkentensis* T.S.Elias & Wisura). А. Ўсимликнинг гул ва мева ҳосил қилган новдаси (17.V.2020 йил; Самарқанд шаҳри), ўсимлик баргининг устки (А) ва остки (В) томондан кўриниши.

Тошкент хилокатальпаси (*×Chitalpa tashkentensis*) дунё миқёсида кенг миқёсда экилувчи манзарали ўсимлик турларидан бири бўлиб (бўйи 20-30 м.; кенглиги 20-25 м.), жумладан Америка иқлим шароитида турли хил касалликларга чидамли ҳисобланиши қайд қилинган [1,2]. Шунингдек, Тошкент хилокатальпаси (*×Chitalpa tashkentensis*) ўсиш-ривожланиш жараёни интенсивлиги юқорилиги, қурқоқчилик таъсирига чидамлилиги билан тавсифланади [3]. Тошкент шаҳри шароитида Тошкент хилокатальпаси (*×Chitalpa tashkentensis* T.S.Elias & Wisura) ўсимлик тури ёруғсевар ўсимлик ҳисобланиб, апрель ойининг 2-ўн кунлигидан бошлаб (+18,1°C) гул қуртаклари ривожланиши, май ойининг 2-ўн кунлигидан бошлаб гуллаш бошлаши (+29,9°C) ва гуллаш жараёни сентябр ойининг 2-ўн кунлигигача (+25,4°C) давом этиши аниқланган. Бунда ўсимликнинг гуллаш даври давомийлиги 110-115 сутка, ёппасига гуллаш жараёни ўртача ~75 суткани ташкил қилади [Холова, 2019; 121-124-б.]. Ўсимликнинг ~1 000 дона уруғининг оғирлиги  $2,64 \pm 0,05$  г га тенг ҳисобланади [Холова, 2019; 121-124-б.].

**Хулоса.** Шундай қилиб, Самарқанд шаҳри тупрок/иқлим шароитида Самарқанд шаҳри тупрок/иқлим шароитида *×Chitalpa tashkentensis* T.S.Elias & Wisura ўсимлик тури март ойидан октябрь-ноябрь ойларида биринчи совуқ тушишига қадар сақланиши кузатилди, ўз навбатида ўзига хос оч-бинафша рангдаги гулларга эга мазкур ўсимлик тури манзарали пейзаж ҳосил қилади ҳамда шаҳарни кўкаламзорлаштиришда истиқболли турлардан бири ҳисобланади.

#### ҲОЛДА АНИҚЛАНГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Beideman I.N. Methods of study of plant und plant communities phenology // Novosibirsk. – «Nauka», 1974. – P.25-156.
2. Зайцев Г.Н. Фенология древесных растений // Москва. – Изд-во «Наука», 1981. – С.15-120.
3. Фомина Т.И. Основные закономерности интродукции декоративных видов природной флоры в лесостепи Западной Сибири Материалы VIII Междунар. науч.-метод. конф. «Интродукция нетрадиционных и редких растений». – Мичуринск, 2008. – Т.2. – С.151-153.
4. Хомич В.А. Экология городской среды: Учеб. пособие для вузов // Омск: Изд-во СибАДИ, 2002. – С.2-267.

5. Rusanov N.F. On the intergeneric hybrids of *Catalpa* and *Chilopsis* // Bull. Main Bot. Gart, Moscow. – 1964. – V.55. – P.44-47.
6. Rusanov N.F. Biology of flowering and fruit setting of catalpa species // Intr. Accl. Pl. (Tashkent). – 1969. – V.5. – P.45-51.
7. Rusanov N.F. Selection and methods for cultivation of difficult to introduce plants. Inform. Bull. – 1982. – V.279 (Tashkent, FAN). – P.5-7.
8. Elias T.S., Wisura W. ×*Chitalpa tashkentensis* (Bignoniaceae), an intergeneric hybrid of ornamental value // Baileya. – 1991. – V.23. – P.139-144.
9. Li J., Shoup S., Elias T.S. Molecular Confirmation of intergeneric hybrid ×*Chitalpa tashkentensis* (Bignoniaceae) // Hort Science. – 2006. – V.41(5). – P.1162-1164.
10. Русанов Н.Ф. Межродовая гибридизация катальпы с хилописом и ее значение для понимания филогении этих растений // Интродукция и акклиматизация растений. – 1971. – Вып. 8. – Ташкент. – Изд-во «Фан». – С.50-58.
11. Холова Ш.А., Қаландаров М.М. Манзарали ўсимликларнинг биоэкологик хусусиятлари ва уларнинг кўкаламзорлаштиришда қўлланилиши // Вестник аграрной науки Узбекистана. – Ташкент, 2014. – №2(56). – С.39-43.
12. Холова Ш.А. Морфологические и биоэкологические особенности декоративных деревьев и кустарников, применяемых в озеленении города Ташкента // Сборник материалов международной научн.–практ. конф. «Инновационные подходы в использовании агробиоразнообразия в устойчивом развитии сельского хозяйства». – Ташкент, 2019. – С.121-124.

УЎК:633.531.31.28.875

## CROTALARIA JUNCEA DAN ЮҚОРИ ПИЧАН ҲОСИЛИ ОЛИШДА ЭКИШ МУДДАТ ВА МЕЪЁРЛАРИНИНГ ТАЪСИРИ

**С.Т. Негматова, к/х.ф.д., Пахта селекцияси, уруғчилиги ва етиштириши агротехнологиялари илмий-тадқиқот институти, Тошкент**

**Ғ.Қ. Ёқубов, к/х.ф.н., доц., Урганч давлат университети, Урганч**

**М.Ш. Нуруллаева, мустақил тадқиқотчи, Урганч давлат университети, Урганч**

**Аннотация.** Мақолада Ўзбекистон Республикасининг тупроқ-иқлим шароитларида етиштириши агротехнологияси мукамал ўрганилмаган ноанъанавий дуккакли экин *Crotalaria juncea* ўсимлигини чорвачиликдаги аҳамияти, етиштириши технологияси элементларидан экиш муддат ва меъёрларини пичан ҳосилига таъсири ёритилган. *Crotalaria juncea* қишлоқ хўжалигида ерларнинг мелиоратив ҳолатини яхшилаши, тупроқ деградациясини камайитириши ва унумдорлигини ошириши билан бирга чорвачиликда юқори калорияли (протеин даражаси 18% - 22% гача) ем-хашак ҳисобланади. Олиб борилган тажрибаларда *Crotalaria juncea* асосий экин сифатида мақбул муддат ва меъёрларда (20-25.04.; 18 кг/га) экилганда бир амал даври давомида 600,0 ц/га яшил масса ёки 174,0 ц/га гача пичан ҳосили олинган бўлиб, юқори натижа олинган 20 апрел муддатида 18 кг/га уруғ экилганда худди шу меъёрда 10 апрел муддатида экилган вариантга нисбатан 40,6 ц/га; 1 май муддатида экилган вариантга нисбатан 10,7 ц/га; худди шу муддатда 10 кг/га уруғ экилган вариантга нисбатан 34,7 ц/га; гектарига 14 кг уруғ экилган вариантга нисбатан 16,8 ц/га юқори пичан ҳосили олинishi илмий асослаб берилган.

**Калим сўзлар:** *Crotalaria juncea* L., ўтлоқи аллювиал тупроқ, экиш муддати, меъёри, яшил масса, пичан ҳосили.

**Аннотация.** В статье описано значение нетрадиционного зернобобового растения *Crotalaria juncea* в животноводстве, влияние посевной техники на сроки и нормы посева из элементов технологии возделывания, мало изученной агротехнологии возделывания в почвенно-климатических условиях Республики Узбекистан. *Crotalaria juncea* - высококалорийный (уровень протеина до 18%–22%) корм в животноводстве, улучшающий мелиорацию почвы, уменьшающий деградацию почвы и повышающий плодородие. В опытах при посеве *Crotalaria juncea* в качестве основной культуры в оптимальные сроки и нормы (20-25,04; 18 кг / га) за время выращивания была получена синяя масса 600,0 т / га или до 174,0 т / га сена в один период внесения: при посеве 18 кг семян в результирующий период 20 апреля такая же норма составила 40,6 ц / га по сравнению с вариантом, посеянным 10 апреля; 10,7 ц / га по сравнению с вариантом, посеянным 1 мая; 34,7 ц / га по сравнению с вариантом с посевом 10 кг / га семян за тот же период; научно обосновано, что урожайность сена на 16,8 ц / га выше, чем при посеве 14 кг семян с гектара.

**Ключевые слова:** *Crotalaria juncea* L., луговая аллювиальная почва, сроки посадки, нормы, рост и развитие, зелёная масса, семена, урожай сена.

**Abstract.** The article describes the importance of the non-traditional leguminous plant *Crotalaria juncea* in animal husbandry, the influence of sowing equipment on the timing and sowing rates from the elements of cultivation technology, a little-studied agrotechnology of cultivation in the soil and climatic conditions of the Republic of Uzbekistan. *Crotalaria juncea* is a high-calorie (protein level up to 18%–22%) animal feed that improves soil reclamation, reduces soil degradation and increases fertility. In experiments with sowing *Crotalaria juncea* as the main crop at the optimal time and rate (20-25.04; 18 kg / hectare), during the cultivation period, a blue mass of 600.0 centners / hectare or up to 174.0 centners / hectare of hay was obtained in one

application period: when sowing 18 kg of seeds in the resulting period on April 20, the same rate was 40.6 centners / hectare compared to the variant sown on April 10; 10.7 centners/hectare compared to the variant sown on May 1; 34.7 centners/hectare compared to the variant with 10 centners/hectare of seeds for the same period; scientifically substantiated that the yield of hay is 16.8 centners/hectare higher than when sowing 14 kg of seeds per hectare.

**Key words:** *Crotalaria juncea L., meadow alluvial soil, planting dates, norms, growth and development, green mass, seeds, hay yield.*

Сўнги йилларда республикамизда иқтисодий ислохатларни амалга оширилиши, чорвачилик фермер хўжаликларига катта эътибор қаратилаётганлиги, чорвачиликда озуқа базасини мустаҳкамлашда суғориладиган ерлардан оқилана фойдаланиб, озуқабоп экинлардан юқори ҳосил олиш ҳисобига озуқа ишлаб чиқаришни кенгайтириш муҳим масала ҳисобланади. Чорвачиликка ихтисослашган фермер хўжаликларида озуқа ишлаб чиқариш технологияси ва тупроқ унумдорлигини сақлаш бўйича илмий асосланган технологиялардан фойдаланиб, юқори натижаларга эришиш мумкин.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 18 мартдаги “Чорвачилик тармоғини янада ривожлантириш ва қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПҚ-4243-сон қарорларида чорва моллари озуқа баъзасини мустаҳкамлашга катта эътибор қаратилган бўлиб, айниқса озуқа базасини мустаҳкамлашда озуқабоп экинлар навларини тўғри танлаб экиш, бирламчи уруғчилик ишларини талаб даражасида олиб бориш бўйича алоҳида топшириқлар кўрсатиб ўтилган.

Хорижий мамлакатларда *Crotalaria* нинг серҳосил навларининг етиштириш агротехнологияларини такомиллаштириш яъни, экиш муддати ва меъёрларини тўғри белгилаш, минерал ва органик ўғитлар билан озиклантиришни мақбуллаштириш ҳамда навбатлаб экишни тўғри татбиқ этиш бўйича тадқиқотлар натижасида тупроқ унумдорлигини тиклаш ва ошириш, чорвачиликни тўғри олиш билан таъминлаш, сифатли тола маҳсулоти олиш бўйича илмий изланишлар олиб борилмоқда.

Республикамизнинг суғориладиган майдонларидан йил давомида 2-3 марта ҳосил олиш имкониятини ҳисобга олиб, ўзининг таркибида юқори сифатли оқсил сақлайдиган ва мавжуд оқсил танқислиги муаммосини ижобий ҳал этадиган қишлоқ хўжалиги экинлари тури ва навларини тўғри танлаш ўта муҳимдир. Республикада тупроқ-иқлим шароитида (Раҳимова, 2003) *Crotalaria alata* тури интродукция қилиниб, унинг биологик хусусиятлари ўрганилган. Шунингдек, (Аберкулов ва бошқалар, 2007) *Crotalaria alata* ни сидерат экин сифатида экиб, ўрнига ғўза ёки шולי етиштириб, мўл ҳосил олиш мумкинлигини тажрибаларда аниқланган.

Бир нечта хорижий олимлар (Cook, White, 1996; Bhardwaj, 2005; Schomberg, 2007) *Crotalaria* туркум ўсимликларини турли регионларнинг об-ҳаво, тупроқ шароитларида ҳар хил навларини биомасса ҳосил қилишини экиш муддатларига боғлиқ ҳолда турлича бўлишини тажрибаларда кузатишган [9]. 1962 йилда Канзас штатида олиб борилган тадқиқот натижаларига кўра, экиш муддатини 2 ҳафтага кечилиши натижасида тўпланган биомасса миқдори 40% гача камайиши кузатилган (White and Haun, 1965).

Айрим маълумотларда (Tripathi ва бошқалар, 2013) келтирилишича, Ҳиндистонда муссонгача бўлган даврда экилган *Crotalaria juncea* дан яшил биомасса ишлаб чиқариш 22-27 т\га гача бўлган. Кубада эса иккита ўримдан 3,4 т пичан ҳосили олинган. Таиландда эса гуручдан кейин яшил гўн сифатида ўстирилганда 6-8 ҳафта ичида 2 т\га юқори сифатли ҳосил олинган.

*Crotalaria juncea* экилганидан 100 кундан кейин ўриб олинди, яна 70 кун тупроқ таркибида азот миқдорини кўпайтириш учун ўстирилади. Чунки, *Crotalaria juncea* экилгандан 100 кундан кейин гуллаб, биомасса йиға бошлайди (Abdul-baki ва бошқалар, 2001).

*Crotalaria juncea* тола учун йиғиб олинганда поясининг юқори қисми шולי сомониға аралаштирилиб ем-хашак ёки пичан учун ишлатилади. Бразилияда силос учун етиштирилган маккажўхори ва *Crotalaria juncea* аралашмаси (6:20 уруғ нисбатида) 16,2 т\га ҳосил берган бўлса, ёлғиз ўзи ўстирилганда 12,9 т\га ҳосил берган. Силосда оқсил миқдори 30,6-32,4% гача бўлган (Obeid, Gomide, 1992).

Ушбулардан келиб чиқиб, республикамизнинг турли тупроқ шароитларида янги, ноанъанавий дуккакли экинлардан юқори ва сифатли ҳосил олиш агротехникасини, хусусан экиш муддати ва меъёри каби омилларни ўрганиш кенг қамровли илмий-тадқиқот ишлари олиб боришни тақозо этади.

Республикамиз турли тупроқ шароитларида чорвачиликда озуқа рационини кўпайтиришда алмашлаб экиш тизимларига янги ноанъанавий дуккакли экин тури бўлган ем-хашак ва яшил ўғит сифатида фойдаланиладиган кўп ўримли (бир йилда 3-4 марта пичан ҳосили олиш мумкин) шу вақтга қадар Ўзбекистонда етиштирилмаган кроталария (*Crotalaria juncea L.*) ўсимлигини киритиш ҳамда етиштириш агротехнологияларини ишлаб чиқиш муҳим масалалардан бири ҳисобланади.

Тадқиқотлар 2017-2019 йиллари Хоразм вилоятининг деградацияга учраган ўтлоқи аллювиал тупроқлари шароитида олиб борилди. Тажрибада ноанъанавий дуккакли экин *Crotalaria* туркум

ўсимликлардан *Crotalaria juncea* уч хил муддат (10-15.04; 20-25.04; 1-5.05) ва уч хил меъёр (10; 14; 18 кг\га) да экиб, экиш муддат ва меъёрларини унинг ўсиши, ривожланиши ва ҳосилдорлигига таъсири ўрганилган.

Тажриба бир ярусда жойлаштирилиб, 9 та вариантдан иборат. Қатор ораси 70 см, узунлиги 50 м. Ҳар бир вариантнинг майдони 280 м<sup>2</sup> бўлиб, тажрибанинг умумий майдони 7560 м<sup>2</sup> - 0,76 га ни ташкил қилган.

Тадқиқотлар «Методика Государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур» (1964, М.: Колос), «Методы агрохимических анализов почв и растений» (1977, Ташкент), «Методы агрофизических исследований» (1973, Ташкент) услубиётлари асосида бажарилган.

Шунингдек, фенологик кузатишлар, биометрик ўлчовлар ва ҳосилдорликни аниқлаш «Методика полевых опытов с зерновым культурами» (1971), «Дала тажрибаларини ўтказиш услублари» (ЎзПТИ, 2007) қўлланилган асосида олиб борилган.

Ўсимликларнинг ўсиб ривожланишига тупроқ, иқлим, ўғит, сув каби бир қанча омиллар билан бир қаторда агротехник тадбирларнинг айрим элементлари яъни уруғнинг экиш муддати ва меъёрлари ҳам ўз таъсирини кўрсатади.

*Crotalaria juncea* ни ўсиши, ривожланиши ва ҳосилдорлигини ўрганиш учун ҳар ойнинг 15 санасида фенологик кузатувлар олиб борилди. Олиб борилган тажрибаларда экиш муддат ва меъёрларининг *Crotalaria juncea* нинг бўйи, ён шохлари, барглари сонига таъсири ўрганилди.

Адабиётларда (Maroyi, 2012) келтирилишича, *Crotalaria juncea* тик ўсувчи ўсимлик бўлиб, бўйи 1-3 (4) метргача бўлиши мумкин. Кузатувлардан олинган натижаларга кўра, июн ойининг бошида (1.06) ўсимликнинг жадал ўсиши кузатилди. Бу пайтда ҳаво ҳарорати ўртача 22<sup>0</sup>С ни ташкил этди. Ўсимликнинг баландлиги вариантлар бўйича 13,2-19,5 см бўлиб, юқори натижалар *Crotalaria juncea* апрел ойининг учинчи ўн кунлигида экилган вариантларда кузатилиб ўсимликлар бўйи 17,2-19,5 см ни ташкил этган ҳолда эрта муддатда экилган ўсимликлардан 3-4 см га юқори бўлди.


Экиш меъёрлари гектарига 10 кг дан 18 кг гача ошириб бориши билан ўсимликнинг бўйи 2,0-3,3 см гача юқори бўлганлиги кузатилди.

Июн ойининг ўртасида (15.06) ҳаво ҳарорати ўртача 25<sup>0</sup>С бўлганда, ўсимликнинг баландлиги вариантлар бўйича 45-64,4 см (айрим тупларда 70-80 см) ни ташкил этиб, илдизи 7-8 см га чуқурлашди. Битта ўсимликдаги умумий барглари сони 30,4-36,2 донга етди. Айрим ўсимликларда 1-3 тагача ён шохлар ҳосил бўлди.

Июл ойининг бошида (1.07) ўсимликнинг ўсиш суръати жуда ҳам тезлашди. Кунлик ўсиши ўртача 2-2,5 см га етиб, асосий поянинг баландлиги 120,0-142,0 см бўлди. Барглари сони эса 50-90 донани ташкил этиб, 4-8 тагача ён шохлар ҳосил қилди. Июл ойининг ўртасида (15.07) эса ўсимлик бўйи 140,0-160,0 см га етди.

1 августда ўтказилган фенологияда ўсимликнинг ўсиши ва ривожланиши жуда ҳам жадаллашганлиги кузатилди. Поянинг ўртача баландлиги 155,0-192,0 см, энг баланди эса 220,0 см эканлиги аниқланди. Бир ой ўтиб сентябр ойининг бошларида (1.09) ўсимликнинг баландлиги 190-228 см бўлиб, энг баланди 270 см га етди. Сентябрь ойининг ўртасида олиб борилган фенологик кузатув натижаларига кўра, ўсимликнинг бўйи 220-258 см, барглари сони эса 141-265 донани ташкил этди.

Фенологик кузатувларнинг октябр ойидаги ҳолатига кўра, ўсимликнинг бўйи вариантлар бўйича 256-304 см бўлиб, энг узун ўсимликнинг бўйи 324 см эканлиги кузатилди (1-диаграмма).




**1-диаграмма. Ўсимликнинг ўсиш динамикасига экиш муддат ва меъёрларининг таъсири**

Олинган натижаларга кўра, 1-июль ҳолатида *Crotalaria juncea* 10 апрел муддатида экилганда ўсимлик бўйи 120,0-128,4 см; 21 апрел муддатида экилганда 130,0-142,0 см; 1 майда экилган вариантларда 125,5-132,4 см бўлиб, апрел ойининг 20-25 саналарида экилганда бошқа муддатда экилган вариантларга нисбатан ўсимлик бўйи 10-14 см гача юқори бўлганлиги кузатилди. Шунингдек, турли

муддатларда экиш меъерининг гектарига 10 кг дан 18 кг оширилиши ҳам ўсимлик бўйининг 7-12 см га юқори бўлишига олиб келди.

*Crotalaria juncea* нинг энг асосий хусусиятларидан бири-бутун ёз давомида барглари қуримасдан туришидир. 1 июлда ўтказилган фенологик кузатувларда бир туп ўсимликдаги барглари сони ўсимликнинг бўйи ва ён шохларига мутаносиб ҳолда вариантлар бўйича 50,0-87,0 дона; 15 июлда 74,6-117,6 дона; 1 августда 95,9-153,0 дона; 15 августда 120,4-203,4 дона; 1 сентябрда 145,0-265,0 дона ва 15 сентябрда эса 166,3-288,0 дона бўлиб, юқори натижалар *Crotalaria juncea* апрел ойининг учинчи ўн кунлигида гектарига 14 кг уруғ экилган 5-вариантда кузатилди (2-диаграмма). Айрим ўсимликларда барг сони 300-500 тагача етганлиги ҳам тажриба вариантларида аниқланди.

1 сентябрдаги фенологик кузатув натижаларига кўра, ўсимлик 20-25 апрел саналарида гектарига 14 кг экилганида ҳосил бўлган барглари сони 265,0 дона бўлиб, худди шу меъёрда 10 апрел муддатида экилган вариантга нисбатан 85,0 дона ва 1 майда экилган вариантга нисбатан 15 донага кўп эканлиги кузатилди. Шунингдек, гектарига 14 кг уруғ экилган вариантдаги барг сони гектарига 10 кг уруғ экилган вариантга нисбатан 85,0 дона, 18 кг/га экилган вариантга нисбатан 111 донага ортиқ бўлган.



**2-диаграмма. Бир туп ўсимликдаги барг сонига экиш муддат ва меъерини таъсири**

Демак, *Crotalaria juncea* асосий экин сифатида Хоразм вилояти тупроқ-иқлим шароитида 20-25 апрел муддатида гектарига 14 кг ҳисобида уруғ экилганда бир туп ўсимликда барг ҳосил бўлиши юқори бўлади [13]. Натижада ўсимлик томонидан кўпроқ органик модда ҳосил бўлишига замин яратилади. Қишлоқ хўжалигида ўтказиладиган тадқиқотларнинг бош вазифаси ўрганилиши мўлжалланган агротехник тадбирларнинг ҳамда ташқи таъсир этувчи омилларнинг ўсимликнинг ҳосилдорлигига таъсирини илмий асослашдан иборат. Таъкидлаш керакки, экиш муддатлари ва меъёрлари ўсимликнинг ўсиши, ривожланиши ва биометрик кўрсаткичларига бўлган турли даражадаги таъсири пировардида *Crotalaria juncea* нинг пичан ҳосилдорлигида ҳам намоён бўлди.

*Crotalaria juncea* қишлоқ хўжалигида ерларнинг мелиоратив ҳолатини яхшилаши, тупроқ деградациясини камайтириши ва унумдорлигини ошириши билан аҳамиятли бўлиб, чорвачилиқда юқори калорияли озуқа ҳамдир. Озуқа сифатида қуритилган поялари ва пичани ишлатилиб, бир амал даври давомида 4-5 мартагача пичан ҳосили олиш мумкин. Пичани таркибида протеин даражаси жуда юқори (18% дан 22% гача) бўлиб, чорвачилиқда юқори калорияли ем-хашак ҳисобланади ва бу хўжалик рентабеллигига бевосита таъсир қилади [3]. Юливаси [3] маълумотларида келтирилишича, *Crotalaria* нинг *Crotalaria alata* L. тури такрорий экин сифатида ёзнинг иккинчи ярмида анғизда экилганда гектаридан 50-60 центнергача қуруқ пичан олиш орқали қўшимча даромадга эришиш мумкин.

Sarkar [10] маълумотларига кўра, дунё бўйича сидерат ҳосилдорлиги 18-27 т/га ни ташкил этса, ем-хашак ҳосилдорлиги тахминан 5-19 т/га ни ташкил этади.

Orwa ва бошқаларни [9] таъкидлашича, *Crotalaria juncea* ем-хашак учун етиштирилганда экилгандан кейин 6-8 hafta ўтгач, ҳар 4 haftaда 4 марта йиғиб олиш мумкин. Бошқа бир маълумотга кўра, *Crotalaria juncea* эрта гуллаш даврида, экишдан 1,5-2,5 ой ўтгач пичан учун ўриш мумкин.

Олиб борилган тажрибаларда ҳам *Crotalaria juncea* ни яшил масса ва пичан ҳосилдорлиги аниқланди. Биринчи ўрим *Crotalaria juncea* экилгандан 2 ой ўтгач ўрилди. Олинган маълумотларга кўра, биринчи яшил масса ҳосили 2019 йилда 20 июнда ўрим олинди.

Вариантлар бўйича яшил масса ҳосили 138,8-182,0 ц/га ни; пичан ҳосили эса 40,9-54,6 ц/га ни ташкил этиб, юқори ҳосилдорлик *Crotalaria juncea* апрел ойининг 20-25 саналарида гектарига 18 кг уруғ экилган 6-вариантда аниқланиб, яшил масса ҳосили-182,0 ц/га ва пичан ҳосили-54,6 ц/га ни ташкил этди. Иккинчи ва учинчи ўримлардан биринчи ўримга нисбатан 6-18 ц яшил масса ва 1,9-3,4 ц пичан ҳосили

кўпроқ йиғиштириб олинди. Октябр ойининг ўрталарида ҳосилни 4-ўрим йиғиштирилиб, унда вариантлар бўйича 11,7,0-30,0 ц/га яшил масса ва 3,5-8,4 ц/га пичан ҳосили олинди (1-жадвал).

1-жадвал

**Crotalaria juncea** нинг яшил масса ва пичан ҳосилдорлиги

Вариантлар	Экин муддати	Экин меъёри, кг/га	Яшил масса	Пичан ҳосили,	Яшил масса	Пичан ҳосили,	Яшил масса	Пичан ҳосили,	Яшил масса	Пичан ҳосили,	Яшил масса	Пичан ҳосили,
			ҳосили, ц/га	ц/га	ҳосили, ц/га	ц/га	ҳосили, ц/га	ц/га	ҳосили, ц/га	ц/га	ҳосили, ц/га	ц/га
			1-ўрим, 20.06.2019		2-ўрим, 21.07.2019		3-ўрим, 25.08.2019		4-ўрим, 12.10.2019			
1	10- 15.04	10	138,8	40,9	152,6	45,8	143,0	42,9	11,7	3,5	<b>446,1</b>	<b>133,1</b>
2		14	156,0	44,5	170,0	50,7	160,4	46,5	17,9	5,2	<b>504,3</b>	<b>146,9</b>
3		18	163,0	48,9	183,0	53,1	171,0	49,6	28,0	8,4	<b>545,0</b>	<b>157,0</b>
4	20- 25.04	10	148,0	42,9	162,8	47,7	153,3	44,4	13,3	4,0	<b>477,4</b>	<b>139,0</b>
5		14	162,4	46,8	180,0	53,6	169,2	49,1	25,5	7,4	<b>537,1</b>	<b>156,9</b>
6		18	182,0	52,8	200,0	58,0	188,4	54,7	30,0	8,4	<b>600,4</b>	<b>173,9</b>
7	1-5.05	10	140,0	40,6	155,5	46,6	146,0	42,3	12,5	3,6	<b>454,0</b>	<b>133,1</b>
8		14	150,0	42,7	177,2	52,3	168,8	47,8	23,9	6,9	<b>519,9</b>	<b>149,7</b>
9		18	170,0	49,3	197,4	57,2	180,0	50,4	20,7	6,1	<b>568,1</b>	<b>163,0</b>

*Crotalaria juncea* асосий экин сифатида ем-хашак учун экилганда бир амал даври давомида 446,0-600,0 ц/га яшил масса; 133,0-174,0 ц/га гача пичан ҳосили олиш мумкин. Юқори натижа олинган 20 апрел муддатида гектарига 18 кг уруғ экилган 6-вариантдан худди шу меъёрда 10 апрел муддатида экилган 3-вариантга нисбатан 55,4 ц/га яшил масса ва 40,6 ц/га пичан; 1 май муддатида экилган 9-вариантга нисбатан 32,3 ц/га яшил масса ва 10,7 ц/га пичан; худди шу муддатда гектарига 10 кг уруғ экилган 4-вариантга нисбатан 123,0 ц/га яшил масса ва 34,7 ц/га пичан; гектарига 14 кг уруғ экилган 5-вариантга нисбатан 63,3 ц/кг яшил масса ва 16,8 ц/га пичан юқори ҳосил олинди.

Хоразм вилоятининг деградацияга учраган, ўтлоқи аллювиал тупроқлари шароитида чорва моллари учун юқори калорияли яшил масса ва пичан ҳосили олиш учун *Crotalaria juncea* апрел ойининг учинчи ўн кунлигида гектарига 18 кг уруғ экин макбул муддат ва меъёр ҳисобланиб, ўсимликнинг бўйи, барглари сони бошқа варинатларга нисбатан юқори бўлиб ўсимлик томонидан кўпроқ органик модда ҳосил бўлишига замин яратилади.

#### ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Аберкулов М, Кидербаева А, Турсунов Қ. Кроталария ўсимлигидан сидерат сифатида фойдаланиш имкониятлари. Состояние селекции и семеноводства хлопчатника и перспективы ее развития: материалы международной научно-практической конференции. Ташкент, 2007, -с. 270-272.
2. Рахимова Н.К. Кроталария алата ва гвизония абуссиниканинг биологиясига оид маълумотлар. //Мустақиллик ва Ўзбекистон фани: республика ёш олимлар илмий конференцияси материаллари. Тошкент, 2003, -82-84 б.
3. Юлиаси З. Ем-хашак ўсимлик *Crotalaria alata* L.-такрорий экин сифатида қўлланилиш имкониятлари. //Ўзбекистон аграр фани хабарномаси. Тошкент-2012. № 1-2 (47-48), 7-9. Б.
4. Abdul-baki, A.A., N.H. Bryan, G.M. Zinati, W. Klassen, M. Codallo, and N. Heckert. Biomass yield and flower production in sunn hemp: Effect of cutting the main stem. J. Veg. Crop Sci. 2001.7:83-104.
5. Bhardwaj, H.L., C.L. Webber, and G.S. Sakamoto. 2005. Cultivation of kenaf and sunn hemp in the mid-Atlantic United States. Ind. Crops Prod. 22:151-155.
6. Cook. C.G and White G.A. *Crotalaria juncea*: a potential multi-purpose fiber crop. In J. Janick (ed.), Progress in new crops. ASHS Press, Arlington, VA. 1996. p. 389- 394
7. Maroyi A. *Crotalaria juncea* L. //Fibres / M. Brink, E. G. Achigan-Dako (eds.). - Wageningen, 2012. – PP. 104-108.
8. Obeid J. A., Gomide J. A., Cruz M. E., Zago C. P., Andrade M. A. S. Silagem consorciada de milho (*Zea mays*, L.) com leguminosas: Producao e composicao bromatologica. Rev. Soc. Bras. Zootec., 1992. 21 (1): 33-38 Pp.
10. Orwa C., Mutua A., Kindt R., Jamnadass R., Anthony S. Agroforestry Database: a tree reference and selection guide version 4.0. World Agroforestry Centre, Kenya. 2009.
11. Sarkar S. K., Hazra S. K., Sen H. S, Karmakar P. G., Tripathi M.K. Sunnhemp in India. ICAR-Central Research Institute for Jute and Allied Fibres (ICAR), Barrackpore, West Bengal. 2015.
12. Schomberg, H.H., N.L. Martini, J.C. Diaz-Perez, S.C. Phatak, K.S. Balkcom, and H.L. Bhardwaj. 2007. Potential for using sunn hemp as a source of biomass and nitrogen for the Piedmont and Coastal Plains regions of the Southeastern USA. Agron. J. 99:1448-1457.
13. Tripathi M. K., Chaudhary B., Sarkar S. K., Singh S. R., Bhandari H. R., Mahapatra B. S. Performance of sunn hemp (*Crotalaria juncea* L.) as a summer season crop for fibre. J. Agric. Sci., 2013. 5 (3): PP. 236-242.
14. White G.A. and Haun J.R.. Growing *Crotalaria juncea*, a multipurpose bean fiber, for paper pulp. Econ. Bot. 1965. 19: PP. 175-183.



**“БИСТ-М” ВА “БИСТ” МИКРОБЛИ ПРЕПАРАТЛАРИ ТАРКИБИ, ХУСУСИЯТЛАРИ ВА ИШЛАТИЛИШ УСЛУБЛАРИ****Х.К. Рўзимова, ўқитувчи, Тошкент вилояти ЧДПИ, Тошкент**

**Аннотация.** Ўсимликлар учун фойдали хусусиятга эга бўлган бактериялар асосида биопрепаратлар яратиш ва улардан фойдаланишга ҳам алоҳида эътибор билан қараб келинмоқда. Минерал ўғитлар билан бирга биопрепаратлардан фойдаланиш, яхши сифатга эга бўлган қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштириш имкониятини бериши кўплаб тажрибаларда ўз исботини топган.

Турли мамлакатлар олимлари томонидан ўсимлик-микроорганизмлар орасидаги ўзаро муносабатларни ўрганиш асосида нафақат ўсимликларнинг ҳосилдорлигини ошириш, балки юқори сифатли экологик хавфсиз маҳсулот олиш мумкин эканлиги кўрсатиб берилган.

**Калим сўзлар:** микроб, биопрепарат, штамм, бактерия, шўрланиш, қурғоқчилик, пестицид, тупроқ, ўсимлик, бугдой, ғўза, экология.

**Аннотация.** Особое внимание также уделяется созданию и применению биопрепаратов на основе бактерий, обладающих полезными свойствами для растений. Использование биопрепаратов в сочетании с минеральными удобрениями было доказано во многих экспериментах, что позволяет выращивать сельскохозяйственную продукцию хорошего качества.

Ученые из разных стран показали, что на основе изучения взаимодействия между растением и микроорганизмами можно не только повысить урожайность растений, но и получить экологически безопасный продукт высокого качества.

**Ключевые слова:** микроб, биопрепарат, штамм, бактерии, засоление, засуха, пестицид, почва, растение, пшеница, хлопок, экология.

**Abstract.** Particular attention is also paid to the creation and use of bacteria-based biopreparations that have beneficial properties for plants. The use of biopreparations in combination with mineral fertilizers has been proven in many experiments to allow the cultivation of good quality agricultural products.

Scientists from different countries have shown that based on the study of the interaction between plant and microorganisms, it is possible not only to increase plant productivity, but also to obtain a high quality environmentally safe product.

**Key words:** microbe, biopreparation, strain, bacteria, salinity, drought, pesticide, soil, plant, wheat, cotton, ecology.

**Кириш:** Кейинги йилларда минерал ўғитларни самарадорлигини таъминлаш мақсадида уларни нанобўлақчаларидан фойдаланиш бўйича тавсиялар ишлаб чиқилган. Минерал ўғитлар ва кимёвий пестицидларни келтирган зарарини эътиборга олинган ҳолда, уларни микдорини имкон борича камайтириш, ҳамда уларни биотехнология маҳсулотлари билан алмаштириш бўйича ривожланган мамлакатларда тизимли ишлар бошлаб юборилган. Атроф-муҳит муҳофазасини таъминлаш экологик тоза маҳсулотлар етиштириш билан бир қаторда тупроқ унумдорлигини ошириш ҳеч бўлмаганда бу кўрсаткични ўзгаришсиз қолдириш бугунги кун қишлоқ-хўжалиги олдида турган энг асосий вазифа қилиб белгиланган. Шу мақсадда тупроқнинг биологик азот ва фосфор билан таъминлай оладиган бактериялар билан тўйинтириш бўйича илмий-амалий тадқиқотлар олиб борилмоқда. Ўсимликлар учун фойдали хусусиятга эга бўлган бактериялар асосида биопрепаратлар яратиш ва улардан фойдаланишга ҳам алоҳида эътибор билан қараб келинмоқда. Минерал ўғитлар билан бирга биопрепаратлардан фойдаланиш, яхши сифатга эга бўлган қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштириш имкониятини бериши кўплаб тажрибаларда ўз исботини топган.

Турли мамлакатлар олимлари томонидан ўсимлик-микроорганизмлар орасидаги ўзаро муносабатларни ўрганиш асосида нафақат ўсимликларнинг ҳосилдорлигини ошириш, балки юқори сифатли экологик хавфсиз маҳсулот олиш мумкин эканлиги кўрсатиб берилган.

Экологик деҳқончиликда кенг спектрли микробли биопрепаратлардан тўғри фойдаланиш катта аҳамиятга эга. Бундай препаратлар бошқаришнинг табиий механизмларини фаоллаштириш ва модификация қилиш ҳисобидан. Хўжалик учун муҳим бўлган кўрсаткичларни кўтариш ёки оптималлаштириш жараёнларини бошқариш имконини беради. Айниқса, комплекс микробли препаратлардан фойдаланиш экологик деҳқончиликда катта потенциалга эга. Шундай препаратлардан бири Замин-М микробли биопрепаратдир. Ватандош олима С.С.Муродова томонидан яратилган бу препаратни асосида шўрга чидамли ризобактериялар *Bacillus subtilis* СКБ-309; *Bacillus megaterium* СКБ-310 ва *Pseudomonas stutzeri* СКБ-308 ташкил қилиб уларнинг ягона озуқа муҳитида рақобатсиз муносабатда яшай оладиган ассоциатив тузулмаси ишлаб чиқилган. Биопрепарат таркибига кирган штамларнинг тупроқнинг шўрланиш стресс шароитида ҳам индолил сирка кислотаси синтезини юқори даражада намоён қилиши аниқланган. Жумладан, *Bacillus subtilis* СКБ-309; *Bacillus megaterium* СКБ-310

va *Pseudomonas stutzeri* СКБ-308 штамлари учун мос равишда  $19,8 \pm 2,8$ ;  $20,5 \pm 3,4$  ва  $4,5$  га тенг эканлиги аниқланган.

Тадқиқот объекти сифатида “Бист” ва “Бист-М” микробли препаратларида фойдалиниди. Бист биопрепарати *Pseudomonas putida* Pp-1 штамми асосида яратилган ва у патент билан ҳимоя қилинган. *Pseudomonas putida* Pp-1 ўсимликларда касал қўзғатувчи фитопатоген замбуруғларнинг ўсишини ва ривожланишини буғиб қўйиш хусусиятига эга. Айниқса у ғўзада вилт касаллигини чақирувчи *Verticillium dahliae* замбуруғига қарши юқори фаолликда таъсир кўрсата олади. *Pseudomonas putida* Pp-1 нинг *Fusarium oxysporum*, *Alternaria alternata*, *Fusarium solani*, *Fusarium oxysporum* f.sp *rasifectum* каби замбуруғларга қарши фаоллиги ҳам борлиги исботланган. *Pseudomonas putida* Pp-1 ни ғўза ва буғдой ўсимликларининг ўсишини ривожлантириши ҳам аниқланган.

“Бист-М” микробли препарати полифункционал хусусиятга эга бўлиб, у *Pseudomonas putida* Pp-1 ва *Bacillus subtilis* –СК5 256 штамларининг аралашмасидан тайёрланган. Ушбу биопрепаратнинг ўсимликларни ўстирувчанлик хусусияти “Бист” га нисбатан кучлироқ. “Бист-М” нинг бионазорат қилиш хусусияти “Бист” препарати даражасида сақланиб қолган. Препарат таркибига кирган бактериялар антагонизм намоён қилмасдан, бир хил муҳитда ривожланадилар ва биомасса ҳосил қиладилар.

Шўрланган тупроқларда буғдой ва ғўза уруғларини униб чиқишларини таъминлай оладилар, ўсимликларни ўстириш ва илдиз ҳосил қилиш жараёнларини тезлаштирадилар, ўзларидан ауксин ва гиббериллин гуруҳларига кирувчи фитогормонлар чиқарадилар. Препарат таркибига вермикулит аралаштирилган бўлиб, у ўсимликларни қурғоқчиликка бўлган чидамлилигини оширади.

“Бист-М” тупроқни шўрланиш даражасини, пестицидлар ва микотоксинлар билан ифлосланишини пасайтиради, тупроқ экологиясини яхшилайти, шўрланган тупроқларнинг унумдорлигини оширади ва ўсимликларни: ғўза ва буғдойнинг ҳосилдорлигини оширади.

Дала тажрибалари Хоразм вилояти, Тупроққабла тумани фермер хўжаликларида ўтказилди.

Туксизлантирилган, тозалаб ювилган ғўза уруғларини 1 соат давомида “Бист” ва “Бист-М” препаратлари (бактериал суспензиялар) билан инкубация қилинади. Суспензиядаги бактериал хужайраларни миқдори  $10^7$ - $10^8$  КОЕ/мл ташкил этган.

Инкубациядан кейин уруғ, соя-салқин жойда қурутилиб, кейин далага чиқарилган.


Мана шуларни эътиборга олган ҳолда, биринчи навбатда “Бист” ва “Бист-М” биопрепаратларни шўрланган тупроқларнинг экологик ҳолатига (микробиологик таркибига) таъсирини ўрганиб чиқишга ҳаракат қилдик.

Дала тажрибаларини ғўза ўсимлигида қуйидаги чизма асосида 3 мартаба қайтариб олиб бордик.

Дала тажрибаларининг чизмаси:

1. Назорат (қурутилган уруғлар),  $N_{250} P_{180} K_{100}$  -100%
2. Тажриба -1:  $N_{250} P_{180} K_{100}$  + “Бист” ( $10^8$  КОЕ/мл)
3. Тажриба -2:  $N_{250} P_{180} K_{100}$  + “Бист-М” ( $10^8$  КОЕ/мл).

Тажриба даласининг микробиологик таркибини ўрганиш, шўрланган тупроқларни шўри ювилганда, уларни микробиологик таркибида, анчагина ўзгариш содир бўлганлигини кўрсатди (расм).



Расм. Ювилган (1) ва ювилмаган (2) экологик ҳолатдаги ўргача шўрланган тупроқлар таркибидаги микроорганизмларнинг ҳолати. (Хоразм вилояти, Тупроққабла тумани “Qalandar Yahshibaev” фермер хўжалиги тупроқлари, 2018 й. 0-30 см чуқурликдаги тупроқ)

1-ювилган тупроқ, 2-ювилмаган тупроқ: АМ-аммонификаторлар; ОЛ-олигонитрофиллар; ФМ-фосформобилизация қилувчи бактериялар; масл-мойни нордонлаштирувчилар (маслянокисые); НТ-1-фаза нитрификаторлари; НТ-2-фаза нитрификаторлари; ДН-денитрификаторлар; Цаэр-аэроб целлюлоза парчаловчилар; Цанаэр-анаэроб целлюлоза парчаловчилар; Актин-актиномицетлар; Микром-микромиицетлар. (Микробиологик таҳлил, ЎзМУ нинг Биология факультети микробиология ва биотехнология кафедрасининг илмий лабораториясида бажарилган).

Ювилиш натижасида ўсимликлар учун ҳамда тупроқ унумдорлигини оширишга хизмат қилувчи ҳамда тупроқнинг экологик ҳолатини белгилаб берувчи аммонификаторлар, фосформобилизация қилувчи бактериялар, 1 ва 2 фаза нитрификаторлари, актиномицетлар сув билан ювилиб кетганлиги кузатилган бўлса, ёғларни нордонлаштирувчи микроорганизмлар, денитрификаторлар, аэроб целлюлоза парчаловчилар ҳамда микромицетлар сони ошганлиги, анаэроб целлюлоза парчаловчилар ва олигонитрофия микроорганизмларни сони деярли ўзгармасдан қолганлиги кузатилди.

#### Тупроқнинг биологик фаоллигини аниқлаш методлари Дала тажрибалари қуйидагича олиб борилган:

1. Назорат –N<sub>250</sub> P<sub>180</sub> K<sub>100</sub>- ананавий экиш.
2. Тажриба –N<sub>250</sub> P<sub>180</sub> K<sub>100</sub>-100%-“Бист” (10<sup>8</sup>КОЕ/мл)
3. Тажриба –N<sub>250</sub> P<sub>180</sub> K<sub>100</sub>-100%-“Бист-М” (10<sup>8</sup>КОЕ/мл)
4. Назорат –N<sub>250</sub> P<sub>180</sub> K<sub>100</sub>-100%+ витавакс (ишлаб чиқарувчининг тавсифномаси бўйича ишлатилган).

Шўрланган тупроқ таркибидаги микрофлорани “Бист-М” ишлатгунча ва ишлатгандан кейин аниқланган. Тупроқни микробиологик анализи 3 марта қайтарилган натижалар асосида олиб борилган ва 5 маротаба ғўза ўсимлигининг вегетацияси даврида “Тупроқ микробиологияси” фанида қабул қилинган суолтирилган суспензиялардан электив муҳитга қайта экиш орқали амалга оширилган: олигонитрофиллар - Эшби муҳитида; аммонификаторлар-балиқ-пептонли агарда; микромицетлар ва актинемидетлар - Чапек муҳитида, фосформобилизация қилувчи бактериялар-Пиковская методи билан; ёғачитувчилар - Виноградский методи ёрдамида; целлюлоза парчаловчиларнинг аэроблари - Гетчинсон ва Клейтон усулида; целлюлоза парчаловчиларнинг аэроблари бактерияларда - Омелянский таклиф қилган метод билан; денитрификация қилувчи бактериялар - Гильтай, нитрификация қилувчи бактерияларнинг I фазага кирувчилари - Сориано ва Уокер, II-фаза нитрификация қилувчи бактериялар - Ватсон ва Уотерберл методлари ёрдамида аниқланган. (Бактерияларни аниқлашда микробиология ва биотехнология кафедраси ходимлари В.В.Шуригин ва бошқалар беғараз ёрдам кўрсатганлари учун, уларга ўз миннатдорчилигимни билдираман). 1 г абсолют қурилган тупроқ таркибидаги бактериялар, микромицетлар ва актиномицетлар сонини ҳисоблашда қуйидаги формуладан фойдаландик:

$$a = \frac{b \cdot v \cdot g}{d};$$

бунда,

а – 1г тупроқдаги микроб хужайраларининг миқдори;

б – ликобчадаги колонияларнинг ўртача сони;

в – ликобчага экилган суспензиянинг суолтирилганлик сони;

г – 1мл суспензиядаги томчилар сони;

д – анализ учун олинган куруқ тупроқнинг оғирлиги.

Бошқа физиологик гуруҳга кирувчи тупроқ микроорганизмларининг миқдорини суяқ муҳитда аниқланган ва уларнинг сонини ҳисоблашда Мак-Креди жадвалидан фойдаланилган.

Шундай қилиб, ўтказилган тадқиқотлар асосида қуйидаги хулосаларга келиш мумкин:

–“Бист” ва “Бист-М” биопрепаратлари шўрланган тупроқларнинг экологик ҳолатидан қатъий назар (ювилган ва ювилмаган), тупроқ таркибидаги ўсимликлар учун фойдали бўлган микроорганизмларнинг сонини маълум даражада кўтарди;

–“Бист” ва “Бист-М” биопрепаратлари тупроқ таркибидаги микромицетлар ва денитрофикаторлар сонининг камайишига олиб келади;

–“Бист” ва “Бист-М” биопрепаратларини микромицетлар ва денитрофикаторлар сонига таъсири, тупроқнинг экологик ҳолатига боғлиқ бўлиб, ювилган тупроқларда, ювилмаган тупроқларга нисбатан жадалроқ ўтиши кузатилди.

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Муродова С.С. Махаллий ризобактериялар штаммлари асосида ғўзанинг стресс шароитларга чидамлилигини оширувчи янги, ракобатдош микроб препаратларини яратиш ва уларнинг амалий ахамиятини баҳолаш. Автореф. докт. биол. наук 03.00.04-биотехнология Институт микробиология АН РЎз 2018, - С. 54.
2. Сидоренко О. Д. Экологичное земледелие и роль бактериальных препаратов. Биологические препараты. Сельское хозяйство. Экология: Практика применения - М., 2008. – С. 296.
3. Блинов В. А., Буршина С. Н., Шапулина Е. А. Биологическое действие эффективных микроорганизмов. Биологические препараты. Сельское хозяйство. Экология: Практика применения М., 2008. - С. 296.
4. Дятлова К. Д. Микробные препараты в растениеводстве // Сорос. образоват. журн. Серия Биология. – 2001. - Т. 7, № 5. - С. 4-18.
5. Карашаева А. С. Ассоциативные diaзотрофы и их взаимодействие с растениями // Молодой ученый. - 2016. - №6. - С. 350-353.
6. Михайловская Н. А., Касьянчик с. А., Миканова о. Влияние бактериального удобрения Калиплант на использование калия зерновыми культурами и горохом на дерново-подзолистой супесчаной почве// Вес. Нац. акад. наук Беларусі. Сер. аграр. навук. 2010. - 2(45), - С. 193-200.

7. Михайловская Н.А., Богдевич И.М., Лученок Л.Н. и др. Патент ВУ № 9646 с 12N 1/20 А 01 N 63/00. «Штамм бактерий *Vacillus circulans* БИМ В-376Д для бактериализации семян зерновых культур» № а 20050228; Заявлен 10.03.2005; Оpubл. 15.10.2007, Бюл. № 4 (57). - С. 112
8. Методы химических анализов почвы, применяемые в лаборатории массовых анализов, Ташкент, 2005.
9. Пружин М.К. Влияние фитогормонов на динамику ростовых процессов сои в условиях Курской области / М.К. Пружин // Соя и другие бобовые культуры. - Воронеж: ВГАУ, 2001. - С. 40-47.
10. Ефимова В.Н., Воробейкова Г.А., Патила А.Б. Азотное питание и продуктивность гороха и кормовых бобов при обработке семян комплексом бактериальных препаратов / Агрохимия. – 1996. - № 1 - С. 10-15.
11. Ашмарина Л.Ф. Проверено на практике / Л.Ф. Ашмарина // Защита и карантин растений. - 1998. - № 7. - С. 17.
Сырая биомасса одного растения, г	Биологический ресурс, г/10 м <sup>2</sup>	Эксплуатационный запас, г
северные районы		
2,8	780	28
центральные районы		
3,4	1012	47

Также отметим, что основной массив произрастания солянки Рихтера в современных экологических условиях находится в Акмангитском (Нукусский район), Акмолинском и Балыкбайчинском массивах Тахтакупырского района Каракалпакстана, общая площадь которых составляет от 80 до 10 тыс. га.

Нами предпринята попытка выявить ресурсы *Salsola Richteri*, учитывая ее высокое лекарственное и кормовое значение (табл. 2).

Таким образом, в настоящее время большое значение приобретает охрана особо ценных лекарственных растений, запасы которых сокращаются или находятся под угрозой. Для каждого вида дикорастущей лекарственной флоры предусмотрена своя инструкция, в которой учтены биологические особенности данного растения, специфика его экологии и размещения, динамика возобновления после заготовок, сроки сбора, способы и нормы заготовки, не нарушающие нормальной регенерации зарослей [8].

Охрана биоразнообразия лекарственных растений предусматривает регламентацию заготовок, строгий контроль за проведением лицензионного сбора, разработку и осуществление специальных мероприятий, способствующих естественному возобновлению.

## СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Акопов И.Э. Важнейшие отечественные лекарственные растения и их применения. - Т. Медицина. - 1986.
2. Гаммерман А.Ф., Кадаев Г.Н., Яценко-Хмелевский А.А. Лекарственные растения. - Москва. - «Высшая школа». - 1983.
3. Бахиев А., Бутов К.Н., Даулетмуратов С. Лекарственные растения Каракалпакии. - Ташкент.- ФАН.-1983.
4. Бондаренко О. Н. Определитель высших растений Каракалпакии.-Ташкент.: Наука. - 1964.
5. Даулетмуратов С. Д. Ресурсы лекарственных растений Каракалпакии и их охрана. Нукус, Каракалпакстан. – 1991.- 135 с.
6. Ережепов С. Флора Каракалпакии, ее хозяйственная характеристика, использование и охрана. - Ташкент.- ФАН.- 1978.- 294 с.
7. Жоллыбеков Б. Изменение почвенного покрова приморской дельты Амударьи при аридизации. - Нукус.- Билим.- 1991.
8. Крылова И.Л., Шретер А.И. Методические указания по изучению запасов дикорастущих лекарственных растений. М., 1971.
9. Турова А.Д., Сапожникова Э.Н. Лекарственные растения и их применение.– М.:Медицина.–1983.-288 с.

УЎТ: 631.41:551.4:631.411.5

**ПСКОМ-ЧОТҚОЛ ТОҒ ОСТИ АДІРЛІКЛАРДА ТАРҚАЛҒАН ТҰҚ ТУСЛИ ВА ТИПИК  
БҰЗ ТУПРОҚЛАРНИНГ АСОСИЙ КИМӨВИЙ ХОССАЛАРИ**

**М.М.Тошқўзиев, б.ф.д. проф., Тупроқшунослик ва агрокимё ИТИ, Тошкент**  
**Х.Х.Каримов, таянч докторант, Тупроқшунослик ва агрокимё ИТИ, Тошкент**  
**Х.Х.Абдурашулов, к.и.х., Тупроқшунослик ва агрокимё ИТИ, Тошкент**

**Аннотация.** Мақолада Чирчиқ дарёси ҳавзасида тарқалган қўриқ, лалми ва сугориладиган тўқ тусли ҳамда типик бўз тупроқларда гумус, умумий озуқа моддалари, карбонатлар миқдорини ва тарқалишини уларни таркиб топганлигига боғлиқ ҳолда тақсимланишига доир маълумотлар келтирилган.

Ушбу тупроқлар кимёвий таркиби бўйича фарқлиниши, улар таркиб топган ётқизиқлари ва гидроморфизмлигига боғлиқлиги аниқланди.

**Калит сўзлар:** типик бўз, тўқ тусли бўз, гумус, умумий озуқа моддалари, карбонатлар.

**Аннотация.** В статье приведены сведения по содержанию и распределению гумуса, питательных веществ, карбонатов в целинных, богарных и орошаемых темных, типичных сероземах бассейна реки Чирчик в зависимости от условий их формирования.

Показаны различия этих почв по химическому составу, в зависимости от сформированных отложений и гидроморфизма.

**Ключевые слова:** типичный серозем, темный серозем, гумус, общие и питательные вещества, карбонаты.

**Abstract.** The article provides information on the content and distribution of nutrients, carbonates in virgin, rainfed and irrigated dark, typical serozem, the Chirchik river basin, depending on the conditions of their formation.

*Differences in chemical composition of these soils are shown, depending on the formed deposits and hydromorphism.*

**Key words:** *typical gray soils, dark gray soils, humus, general nutrients, carbonates.*

**Кириш.** Воҳада тупроқ пайдо бўлиш жараёнлари кўп жиҳатдан худудни геоморфологик, литологик ва тупроқ-иқлимий шароитларидан келиб чиққан ҳолда содир бўлади.

Тошкент вилояти Чирчиқ-Ангрен округи бўз тупроқлар минтақасида, республиканинг шимолий-шарқий қисмида жойлашган. Худуд баландлик минтақалари – баланд тоғлар, ўртача баландликдаги тоғлар, тоғ олди қир-адирлар ва паст тоғлар ҳамда паст-баландли тоғ олди худудларига қўшилиб кетган Чирчиқ-Оҳангарон дарёларининг юқори (IV-V) террасалари, Чирчиқ-Ангрен ва Гижиген дарёларининг III террасаси ясси текисликлари, шу дарёларнинг қуйи (II-I ва қайир) террасаларида жойлашган. Ушбу худуднинг тупроқ қоплами турли тип, типчаларга мансуб зонал ва азонал тупроқларни ўз ичига олади [3,4,5].

Ҳозирги вақтда замонавий деҳқонлик юритишда хосидорликни гарови бўлган тупроқларни ҳолати, хосса-хусусиятларини механик таркиби, гумус ва озика моддаларига боғлиқ ҳолда унумдорлигини тадқиқ қилиш, узоқ муддат давомида суғориладиган деҳқончиликда фойдаланилганда уларда содир бўладиган ўзгаришларни аниқлаш бугунги кунинг долзарб муаммоларидан ҳисобланади. Бундай муаммоларни ечишда деҳқончилик юритилаётган худудда кенг тарқалган асосий тупроқлар хосса-хусусиятларини яхшилаш, унумдорлигини тиклаш, сақлаш ва оширишни илмий-амалий ечимларини тупроқ-иқлим, геоморфологик шароитларидан келиб чиққан ҳолда, кўрсатиб бериш тупроқшунослик соҳасини асосий масаласи ҳисобланади [6-8].

Шу ўринда қишлоқ хўжалигида кенг қўламли олиб борилаётган чора-тадбирлар бевосита ер ресурсларидан оқилона фойдаланиш, уларнинг экологик-мелиоратив ҳолати, бир сўз билан айтганда тупроқ унумдорлиги даражаси билан бевосита боғлиқ. Республикамиз қишлоқ хўжалигида интенсив фойдаланилган ерлар умумий ер майдонининг 10 фоиздан камроғини ташкил этадиган, суғориладиган ерлардир. Булар ҳақиқатдан ҳам Республикамиз “Олтин фонди”ни ташкил этади ва уларда ялпи қишлоқ хўжалик маҳсулотларининг 95 фоизга яқини етиштирилади [9-10].

Шу ўринда шуни такидлаш жоизки, бунинг заминида ер ресурслари ва қишлоқ хўжалик ерларидан фойдаланиш чора-тадбирларини белгилашда, тупроқ хосса-хусусиятларини эътиборга олиш муҳим ва долзарб масалалардан биридир.

**Тадқиқот объекти ва услублари.** Тадқиқотларни объекти сифатида Паркент тумани “Бўстон” массивида тарқалаган янгидан суғориладиган типик бўз тупроқлар (кесма-11), “Бойқозон” массивида тарқалган эскидан суғориладиган типик бўз тупроқлар (кесма-12), “Човганчак” МФЙ худудида тарқалган кўрик тўқ тусли бўз тупроқлар (кесма-13) ва лалми тўқ тусли бўз тупроқлар (кесма-14), “Гулбоғ” агрофирмаси худудида тарқалган, эскидан суғориладиган тўқ тусли бўз тупроқлар (кесма-15) ҳамда “Гулбоғ” массиви худудида тарқалган янгидан суғориладиган типик бўз тупроқлар (кесма-16) ҳисобланади.

Тадқиқотларни бажаришда генетик-географик, профил-геокимёвий ва кимёвий-аналитик услубларидан фойдаланилди.

Тупроқнинг умумий кимёвий таҳлиллари Е.В.Аринушкина [1] ҳамда Ўз ПИТИ [2] қўлланмалари асосида бажарилди.

**Олинган натижалар ва уларнинг таҳлили.** Изланишларда Пском-Чотқол тоғ ости адирликларда тарқалган кўрик, лалми тўқ тусли бўз ва эскидан ва янгидан суғориладиган типик бўз тупроқлари, Паркент тумани турли массивлари тупроқларининг асосий кимёвий хоссалари аниқланди (жадвал).

Ушбу регионда лёссимон, аллювиал-проллювиал ётқизиклардан ташкил топган, ўр-қирли ва тўлқинсимон тоғ этагида жойлашган “Бўстон” массиви ўртача ва кучли ювилган, янгидан суғориладиган типик бўз тупроқларда (кесма-11) умумий гумус миқдори ҳайдов ва ҳайдов остки қатламларида 1,160-0,904 %, умумий азот миқдори 0,080-0,075 % бўлиб, ушбу моддалар бўйича ўртача ва кам кўрсаткичга тўғри келади. Тупроқнинг остки қатламларида уларнинг миқдори сезиларли камайиб, мос равишда 0,639-0,142 % ва 0,043-0,009 % бўлиб, кам ва жуда кам кўрсаткичга тўғри келади. Тупроқни юқори қатламларида C:N нисбати 8,4-7,0 ва остки қатламларида бу нисбат кенгроқ 8,6-9,1 бўлиб, гумусни азот билан таъминланганлиги ўртачадан юқори ҳисобланади [7].

Тупроқларни юқори қатламларида умумий фосфор 0,380-0,320 % бўлиб, юқори, остки қатламларида сезиларли камайиб, 0,280-0,140 % ни ташкил этади ва ўртача, кам кўрсаткичга тўғри келади. Она жинсида эса умумий фосфор 0,110% ни ташкил қилади. Карбонатлар миқдори қатламлар бўйича ва она жинсида 7,286-7,497 % бўлиб, текис тақсимланган ва юқори ҳисобланади.

Лёссимон ётқизикларда таркиб топган, ўр-қирли тоғ олди текислигида жойлашган “Бойқозон” массиви ўртача ва кучли ювилган, эскидан суғориладиган типик бўз тупроқларнинг (кесма-12) ҳайдов ва ҳайдов остки қатламларида гумус ва умумий азот миқдори 1,195-0,959% ва 0,065-0,043% бўлиб, гумус



бўйича ўртача ва кам (1,0-1,5%) кўрсаткичга тўғри келади. Пастки қатламлари- то она жинсигача гумус ва азот миқдори секин – аста камайиб 0,721-0,503% ва 0,031-0,026% бўлиб, ушбу кўрсаткичлар бўйича ўртачага тўғри келади. Она жинсида уларнинг миқдори кескин камайиб, 0,248% ва 0,020% ни ташки этиб, жуда кам ҳисобланади. Ушбу тупроқ қатламларида C:N нисбати 10,7-13,5 бўлиб, гумус таркибида азот ўртачадан юқори ва ўртача кўрсаткичда эканлигини кўрсатади. Она жинсида эса уларнинг нисбати 7,2 ташкил қилиб, юқори кўрсаткичга тўғри келади.

Умумий фосфор ва калий ҳайдов ва ҳайдов остки қатламларда 0,270-0,200 ва 1,372-1,186% бўлиб, ўртача кўрсаткичга, ўрта қатламларида 0,150-0,130% ва 1,080-1,000% гача камайиб, кам кўрсаткичга тўғри келади. Она жинсида эса яна ҳам камайиб, мос равишда 0,100% ва 0,910% ни ташкил қилади.

Ушбу тупроқларда карбонатлар миқдори юқори қатламларда 5,966-7,708% бўлиб, ўртача ва юқори, ўрта қисмида 8,289-7,392% - юқори кўрсаткичга тўғри келади, она жинсида эса 7,233% ни ташкил қилиб, қатламлар бўйича нотекис тақсимланган ҳисобланади.

Жадвал

## Ўрганилган тупроқларнинг гумус, умумий озика моддалари ва карбонатлар миқдори

Кесма №	Қатлам, см	Умумий, %					CO <sub>2</sub> %
		Гумус	N	C:N	P <sub>2</sub> O <sub>5</sub>	K <sub>2</sub> O	
Паркент тумани “Бўстон” массиви, янгидан суғориладиган типик бўз тупроқлар (бедазор)							
11	0-28	1,160	0,080	8,4	0,38	1,464	7,286
	28-38	0,904	0,075	7,0	0,32	1,372	7,497
	38-70	0,639	0,043	8,6	0,28	1,279	7,762
	70-101	0,433	0,031	8,1	0,16	0,908	7,128
	101-133	0,282	0,022	7,4	0,14	0,704	7,497
	133-170	0,142	0,009	9,1	0,11	0,642	7,286
Паркент тумани “Бойқозон” массиви, эскидан суғориладиган типик бўз тупроқлар (шудгор)							
12	0-33	1,195	0,065	10,7	0,27	1,372	5,966
	33-60	0,959	0,043	12,9	0,20	1,186	7,708
	60-92	0,721	0,031	13,5	0,15	1,080	8,289
	92-118	0,503	0,026	11,2	0,13	1,000	7,392
	118-162	0,248	0,020	7,2	0,10	0,910	7,233
Паркент тумани “Човганчак” МФЙ ҳудуди, тўқ тусли бўз тупроқлар (қўрик)							
13	0-6	2,613	0,109	13,9	0,27	1,464	2,482
	6-27	1,252	0,065	11,2	0,22	1,372	2,270
	27-51	1,082	0,048	13,1	0,16	1,186	2,376
	51-74	0,657	0,036	10,6	0,14	1,080	4,488
	74-141	0,327	0,026	7,3	0,10	0,980	7,233
Паркент тумани “Човганчак” МФЙ ҳудуди, тўқ тусли бўз тупроқлар (лалми)							
14	0-27	1,606	0,092	10,1	0,29	1,742	7,444
	27-45	0,829	0,060	8,0	0,27	1,372	3,379
	45-62	0,622	0,043	8,4	0,16	1,093	4,593
	62-97	0,439	0,036	7,1	0,14	0,908	7,233
	97-130	0,360	0,026	8,0	0,12	0,815	8,131
	130-152	0,227	0,014	9,4	0,10	0,704	7,920
	152-195	0,109	0,007	9,0	0,10	0,642	8,230
Паркент тумани “Гулбоғ” агрофирмаси ҳудуди, эскидан суғориладиган тўқ тусли бўз тупроқлар (боғ, узумзор)							
15	0-32	2,000	0,102	11,4	0,28	1,464	3,642
	32-51	1,243	0,054	13,4	0,25	1,272	3,009
	51-83	0,950	0,043	12,8	0,17	1,120	2,764
	83-120	0,818	0,036	13,2	0,12	1,000	3,642
	120-160	0,392	0,026	8,7	0,10	0,980	4,699
	160-200	0,228	0,014	9,4	0,09	0,980	6,405
Паркент тумани “Гулбоғ” массиви, янгидан суғориладиган типик бўз тупроқлар, (сабзавотлар)							
16	0-28	1,223	0,065	10,9	0,27	1,372	0,276
	28-50	0,725	0,036	11,7	0,24	1,093	6,811
	50-81	0,557	0,019	11,1	0,12	0,901	8,236
	81-126	0,491	0,021	13,5	0,10	0,704	6,653
	126-172	0,229	0,011	12,1	0,10	0,642	7,603

“Човганчак” МФЙ ҳудудида тарқалган қўрик тўқ тусли бўз тупроқлар (кесма-13), лёссимон ва скелетли-талконтупроқли пролювиал-делювиал ётқизиклардаги бурмали тоғ олди ҳудудлари, шунингдек паст тоғларда тарқалган тупроқларнинг юқори қатламларида гумус ва умумий азот миқдори 2,613-1,252% ва 0,109-0,065% бўлиб, гумус бўйича юқори ва ўртача, ўрта қатламларда мос равишда 1,082-0,627 ва 0,048-0,036% ни ташкил этади ва ўртача ҳамда кам кўрсаткичга тўғри келади. Она жинсида эса ўз навбатида гумус миқдори 0,327%, умумий азот 0,026% кўрсаткични ташкил этгани ҳолда жуда кам ҳисобланади.

Ушбу тупроқларда C:N нисбати юқори қатламларда 13,9-11,2 ташкил қилиб, ўрта қатламларда 13,1-10,6 ўртача ва ўртачадан юқори, она жинсда эса 7,3 бўлиб, гумусни азот билан таъминланганлиги юқори кўрсаткичга тўғри келади [7].

Умумий фосфор ва калий миқдори профил бўйича текис тақсимланган бўлиб, юқори қатламларида мос равишда 0,160-0,155% ва 1,564-1,342 % бўлиб, кам ва етарли миқдорда бўлгани ҳолда, остки қатламлари ва она жинсида 0,135-0,110 ва 1,240-1,015% ни ташкил этади ва кам миқдорда ҳисобланади. Карбонатлар ҳайдалма қатламида 2,75% бўлиб, кам карбонатли, қолган барча қатламларида 6,49-9,77% бўлиб, ўртача ва юқори карбонатли ҳисобланади.

“Човганчак” МФЙ худудида тарқалган лалми тўқ тусли бўз тупроқлар (кесма-14), лёссимон ва скелетли-талконтупроқли пролювиал-делювиал ётқизиклардаги бурмали тоғ олди худудлари тарқалган тупроқларнинг юқори қатламларида гумус ва умумий азот миқдори 1,606-0,829% ва 0,092-0,060% бўлиб, гумус бўйича ўртача ва кам, ўрта қатламларда мос равишда 0,622-0,439% ва 0,043-0,036% ни ташкил этади, кам ва жуда кам кўрсаткичга тўғри келади. Пастки қатламларда гумус ва умумий азот миқдори 0,360-0,227% ва 0,026-0,014% ташкил қилиб, она жинсда эса ўз навбатида гумус миқдори 0,109%, умумий азот 0,007% кўрсаткични ташкил этгани ҳолда жуда кам ҳисобланади.

Ушбу тупроқларда C:N нисбати юқори қатламларда 10,1-8,0 ташкил қилиб, ўрта қатламларда 8,4-7,4 бўлиб ўртачадан юқори, пастки қатламларда ўз навбатида 8,0-9,4 ташкил қилади. Она жинсда эса 9,0 бўлиб, гумусни азот билан таъминланганлиги ўртачадан юқорига тўғри келади.

Ушбу тупроқларда умумий фосфор ва калий миқдори юқори қатламларида мос равишда 0,290-0,270% ва 1,742-1,372 % бўлиб, юқори миқдорда бўлгани ҳолда, ўрта қатламларда 0,160-0,140%, 1,093-0,908% ўртача ва кам кўрсаткичга тўғри келади. Пастки қатламларда 0,120-0,100 % ва 0,815-0,704% ҳамда она жинсида умумий фосфор миқдори 0,100%, калий миқдори эса 0,642% ни ташкил этиб, кам миқдорда ҳисобланади. Карбонатлар ҳайдов ва ҳайдов остки қатламларида 7,444-3,379% бўлиб, юқори ва кам карбонатли, ўрта қатламларда 4,593-7,233% ўртача ва юқори кўрсаткичга тўғри келади. Пастки қатламларда 8,131-7,920%, она жинсда эса 8,230% бўлиб, юқори карбонатли ҳисобланади.

Лёсс ва лёссимон ётқизикларида таркиб топган, Чотқолнинг ўр-қирли тоғ олди текислигида жойлашган “Гулбоғ” агрофирмаси худудаги эскидан суғориладиган тўқ тусли бўз тупроқларининг (кесма-15) ҳайдов ва ҳайдов остки қатламларида гумус ва азот миқдори 2,000-1,243 ва 0,102-0,094% бўлиб, гумус бўйича юқори (1,5-2,0 %) ва ўртача (1,0-1,5 %)га тўғри келади. Ўрта қатламларда уларнинг миқдори 0,950-0,818% ва 0,043-0,036% ни ташкил этиб, кам кўрсаткичга тўғри келади. Остқи қатламда ҳамда она жинсда уларнинг миқдори кескин камайиб, 0,392-0,228 % ва 0,026-0,014 % ни ташкил қилиб, жуда кам кўрсаткичга тўғри келади. Уларда C:N нисбати барча қатламлар бўйича 8,4-13,4 оралигида бўлиб, тупроқларда гумусни азот билан таъминланганлиги ўртачадан юқори ва ўртача кўрсаткичга тўғри келади.

Ушбу тупроқларда умумий фосфор ва калий миқдори юқори қатламларда мос равишда 0,280-0,250% ва 1,464-1,272% бўлиб, ўртача миқдорда бўлгани ҳолда, ўрта қатламларда уларнинг миқдори 0,170-0,120% , 1,120-1,000% ни ташкил этиб, кам кўрсаткичга тўғри келади. Остқи қатлам ва она жинсида 0,100-0,090 % ва 0,980-0,970 % ни ташкил этади, ҳамда кам миқдорда ҳисобланади. Карбонатлар ҳайдалма ва ҳайдов остки қатламларда 3,642-3,009% бўлиб, ўрта қатламларда 2,764-3,642% бўлиб, кам кўрсаткичга тўғри келади. Остқи қатламда ва она жинсда 4,699-6,705% ташкил этиб, ўртача ва юқори ҳисобланади.

Лёсс ва лёссимон ётқизикларида таркиб топган, Чотқолнинг ўр-қирли тоғ олди текислигида жойлашган “Гулбоғ” массиви худудаги янгидан суғориладиган типик бўз тупроқларининг (кесма-16) ҳайдов ва ҳайдов остки қатламларида гумус ва азот миқдори 1,223-0,725% ва 0,065-0,036% бўлиб, гумус ва азот ўртача ва кам кўрсаткичга тўғри келади. Ўрта қатламларда уларнинг миқдори 0,557-0,491% ва 0,029-0,021% ни ташкил этиб, кам кўрсаткичга тўғри келади. Она жинсда эса уларнинг миқдори кескин камайиб, умумий гумус 0,229% ҳамда азот миқдори 0,011 % ни ташкил қилиб, жуда кам кўрсаткичга тўғри келади. Уларда C:N нисбати барча қатламлар бўйича 10,9-13,5 оралигида бўлиб, тупроқларда гумусни азот билан таъминланганлиги ўртача ва ўртачадан юқори кўрсаткичга тўғри келади.

Ушбу тупроқларда умумий фосфор ва калий миқдори юқори қатламларда 0,270-0,240% ва 1,372-1,093% бўлиб, ўртача миқдорда бўлгани ҳолда, ўрта қатламларда уларнинг миқдори 0,120-0,100% , 0,901-0,704% ни ташкил этиб, кам кўрсаткичга тўғри келади. Она жинсида умумий фосфор 0,100 %, калий эса 0,642 % ни ташкил этади ҳамда жуда кам миқдорда ҳисобланади. Карбонатлар ҳайдалма ва ҳайдов остки қатламларда 4,276-6,811% бўлиб ўртачага, ўрта қатламларда 8,236-6,653% бўлиб, юқори кўрсаткичга тўғри келади. Она жинсда 7,603% ташкил этиб, юқори ҳисобланади.

**Хулоса.** Таҳлил натижаларига кўра, хулоса қилиб айтганда, ушбу тупроқлар гумус, умумий озик моддалари ва карбонатлар миқдorigа кўра, бир худудда тарқалган тупроқлар бўлишига қарамадан, бу тупроқлар шаклланишида турли она жинсларда ташкил топганига боғлиқ ҳолда фарқланади.

Шунга мутаносиб ҳолда, лёссли ва деллювиал-пролювиал ётқизикдаларда шаклланган эскидан ва янгидан суғориладиган тўқ тусли бўз тупроқлар озика моддалари миқдори суғориш даврийлигига боғлиқ ҳолда фаркланиши кузатилди.

Лёссли ва лёссимон ётқизикларда шаклланган эскидан ва янгидан суғориладиган типик бўз тупроқларда юқоридаги тўқ тусли бўз тупроқларга нисбатан гумус ва озика моддалари бироз камлиги ва карбонат миқдори аксинча юқорилиги аниқланди.

#### Фойдаланган адабиётлар рўйхати:

1. Аринушкина Е.В. Руководства по химическому анализу почв / М. МГУ, 1970 – С. 487
2. Методы агрохимических анализов почв и растений Средней Азии. ЎзПИТИ, 1977. – С. 214
3. Ўзбекистон Республикаси тупроқ қопламлари Атласи. Тошкент, 2010. – Б.38-39
4. Каримов Х.Х., Тошқўзиев М.М. Тошкент воҳаси суғориладиган типик бўз тупроқларнинг морфологик ва морфогенетик хосса-хусусиятлари “Тупроқ ва атроф муҳофазаси масалалари” Республика илмий-амалий конференция материаллари Термиз-2020 йил 16-октябрь -Б. 304-307
5. М.М.Ташкузиев, Х.Х. Каримов, А.А.Каримбердиева “Содержание гумуса и элементов питания в горных коричневых почвах и темных серозёмах Ташкентского оазиса” Современное состояние и проблемы рационального использования почв Сибири. Материалы международной научно-практической конференции, посвященной 100 летию образования почвоведения 1-2 октября 2020 г. ISBN 978-5-89764-941-9 Омск- 2020 г. С.133-136
6. Тошқўзиев М.М., Каримов Х.Х. “Чирчик дарёси хавзаси Қибрай тумани турли ётқизиклари суғориладиган типик бўз тупроқларнинг асосий кимёвий хоссалари” Тупроқшунослик ва агрокимё илмий-тадқиқот институти/ Тупроқшуносликнинг долзарб муаммолари инновацион технологиялар - тупроқ ресурсларини барқарор бошқаришнинг асоси// Республика онлайн илмий-амалий семинар тўплами, 3-4 декабр Тошкент-2020 й -Б 81-85
7. Тошқўзиев М.М. Тупроқда умумий гумус ва харакатчан гумус моддалари миқдоридан унинг унумдорлиги кўрсаткичи сифатида фойдаланишга доир услубий кўрсатмалар / Меъёрий ҳужжат, Тошкент, 2006. – 47 б.
8. Тошқўзиев М.М., Қорабеков О.Г. Чирчик-Ангрен дарёлари гидроморф тупроқларининг кимёвий ҳолати, суғориладиган деҳқончиликда ўзгариши “Ҳозирги замон тупроқшунослик ва деҳқончилик муаммолари” Республика илмий анжумани материаллари тўплами Фарғона-2019 йил 16-октябрь -Б. 119-122
9. Кўзиев Р. Тупроқ унумдорлигини сақлаш ва ошириш омиллари// Ўзбекистонда ғаллачиликнинг яратилган илмий асослари ва уни ривожлантириш истикболлари. Ҳалқаро илмий-амалий конференция илмий мақолалар тўплами. Жиззах, 2013. – Б. 235-236.
10. Тошқўзиев М.М., Қорабеков О.Г. Қуйи Чирчик тумани ўтлоқи, ўтлоқи-ботқоқ тупроқларининг айрим кимёвий хоссалари ва мелиоратив ҳолати// “ҚарДУ хабарлари” Илмий-назарий, услубий журнал 3(41). Қарши, 2019. –Б 138-143

#### УЎК 579

### СИРДАРЁ ВИЛОЯТИ ҲУДУДИДА ТОҚ ЎСИМЛИКЛАРИДА ТАРҚАЛГАН КАСАЛЛИК КЎЗГАТУВЧИ МИКРООРГАНИЗМЛАР ТАҲЛИЛИ

*Д.Б. Турабекова, таянч докторант, Тошкент кимё-технология институти, Тошкент*  
*С.С. Саломова, стажер ўқитувчи, Қарши давлат университети, Қарши*  
*Н.А. Хўжамишқуров, декан, Тошкент кимё-технология институти, Тошкент*

**Аннотация.** Мақолада Сирдарё вилояти Гулистон тумани “Нодир-Равшанбек-Бунёд” фермер хўжалигида олиб борилган тадқиқот натижалари келтирилган. Объект сифатида касалликларга чидамлиги турли хил бўлган узум навлари - Тоифи, Чарос, Қора чилги, Хусайни, Мерседес ҳамда Ризамат ота танлаб олинди. Уларда касаллик кўзгатувчи микроорганизмларнинг тарқалиши ҳамда ривожланиши даражаси ўрганилган.

**Калит сўзлар:** *Plasmopara viticola, Uncinula necator, Botrytis cinerea, Gloeosporium ampelophagum.*

**Аннотация.** В статье представлены результаты исследования, проведенного в фермерском хозяйстве «Нодир-Равшанбек-Бунёд» Гулистанского района Сырдарьинской области. В качестве объекта были выбраны сорта винограда с различной устойчивостью к болезням - Тоифи, Чарос, Черный Чилги, Хусейни, Мерседес и Ризамат ота. Изучены распространенность и развитие патогенных микроорганизмов.

**Ключевые слова:** *Plasmopara viticola, Uncinula necator, Botrytis cinerea, Gloeosporium ampelophagum.*

**Abstract.** The article presents the results of a study carried out in the farm "Nodir-Ravshanbek-Bunyed" in Gulistan district of Syrdarya region. Grape varieties with different disease resistance - Toifi, Charos, Black Chilgi, Huseini, Mercedes and Rizamat ota - were selected as the object. The prevalence and development of pathogenic microorganisms were studied.

**Keywords:** *Plasmopara viticola, Uncinula necator, Botrytis cinerea, Gloeosporium ampelophagum.*

**Кириш.** Республикамизда қишлоқ хўжалигининг муҳим тармоқлари бўлган узумчиликни янада ривожлантириш, етиштирилаётган узум ҳосилини миқдори ва сифатини оширишнинг асосий шартларидан бири тоқларни зарарли организмлардан, жумладан касалликлардан химоя қилишдир. Тоқларда бир неча ўнлаб замбуруғ, бактерия, вирус, фитоплазма ва нематодалар кўзгатадиган инфекция касалликлар мавжуд бўлиб. Улар ҳосилнинг кўп қисмини нобуд қилиши мумкин [6]..

Кураш чоралари узумзор яратиш учун жой танлаш, соғлом кўчат экишдан бошланади, ўсаётган токнинг ҳимоя қилиш фаолияти эса касалликлар тарқалиши ва ривожланишини мавсум давомида кузатишлар ўтказиш ва уларнинг натижаларини таҳлил қилиш асосида ташкил этилади [8].

Ҳозирги вақтда Ўзбекистонда токнинг қуйидаги микробиологик касалликлари тарқалган: мильдю, оидиум, антракноз, церкоспороз, кулранг чириш, чипор некроз, филлостиктоз, фомоз, кладоспориоз, бактериал рак ва бошқалар [9]. Россия федерациясидаги барча узум экиладиган зоналарда ҳар йили мильдю, оидиум, токнинг кулранг чириш касаллиги, гроздевая листовертка, трипс, виноградный зудень, шунингдек, ўргимчак кана, филлоксеранинг баргда учровчи формаси ва х. учрайди [1].

Ушбу касалликларни олдини олиш мақсадида доимий равишда илмий ишлар олиб борилади. Жумладан, Н.А.Якушина тадқиқотларига кўра, токнинг Подарок Магарача, Первенец Магарача, Бианка, Сурученский белый, Овидиопольский, Олешковский навлари мильдю ва оидиумга чидамлилиги [10], аммо Шардоне, Каберне-Совиньон, Алиготе, Мерло, Совиньон зеленый, Ркацителли, Саперави, Бастардо Магарачский ва Рислинг узум навлари эса кўп мильдю билан зарарланиши аниқланди [1].

В.А.Володиннинг диссертациясида келтирилган 10 тур касаллик кўзгатувчи замбуруғлардан энг кўп тарқалгани қуйидагилардир: *Phomopsis viticola*-76,3%гача, *Alternaria alternate* – 56,7%гача, *Cladosporium herbarum* –50,1%гача, *Trichotecium roseum* –43,1%гача, *Botrytis cinerea* –30,0%гача [4]. L. Gierland M. Fischerлар томонидан Германиянинг Жанубий Палатина худудида учрайдиган қуйидаги замбуруғлар ҳақида биринчи марта маълумотлар берилган: *Botryosphaeria sarmentorum*, *Cadophora malorum*, *Cadophora novi-eboraci*, *Collophora africana*, *Collophora hispanica*, *Cytospora chrysosperma*, *Diaporthe foeniculina*, *Dothiorella iberica*, and *Phaeoacremonium angustius*. *Diplodia seriata*, *Diplodia mutila*, *Dothiorella iberica*, *Cytospora chrysosperma*, and *Dothiorella iberica* уларнинг учраши мартдан сентябр ойигача ўрганилган [11].

Узум экинларининг катта зарарланишига олиб келадиган касалликлар мажмуасида асосий аҳамиятга эга бўлган эпифитотик хавфли касалликлар мильдю (*Plasmopara viticola* Berl. Et Toni) ва оидиум (*Uncinula necator* Berk.)дир [5].

Мильдю (сохта ун-шудринг) касаллигини сохта ун-шудринг замбуруғлар гуруҳига кирувчи *Plasmopara viticola* Berl. et Toni келтириб чиқаради. Бу энг кучли мавсумий касаллик кўпчилик ток ўсаётган зоналарга катта зарар келтиради [7]. Рекс ва бошқа олимлар мильдюни 4 йил давомида июль-сентябр ойларида барг юзасида парда ҳосил қилишганлигини кузатишган [17]. Ривожланиш муддати қулай об-ҳавода ва симптомлар кўринганда танланган. Баҳолаш ОИВ индикатори 452 (ОИВ 2009) га мувофиқ амалга оширилган [16]. *Plasmopara viticola* колониялари асосан баргни учки кирраларида, шудринг куп тупланадиган қисмларида ҳосил булади [2].

Оидиум (ун-шудринг) мавсумий касалликнинг тарқалиш даражаси ва зарари бўйича иккинчи ўринда туради ва узум етиштирилаётган барча зоналарида учрайди. Кўзгатувчиси *Uncinula Necator* замбуруғининг тарқалиши 5-6°C ҳароратда ва ҳавонинг нисбий намлиги 15-20% гача бўлганда содир бўлади [7]. Е.С.Галкина ва бошқаларнинг Оқ мускатдаги оидиумнинг ўсиш ва ривожланиши ўрганилганда, баргларида ва меваларда кучсиздан (0,2%) то кучли (46%) даражада зарарланиш кузатилган. Ркацели вариантыда эса касаллик белгилари баргларида кучсиз (0,2-1,3%) ва ўрта (11-22,5%) даражада; меваларда кучсиз (0,2-1,3%) ва кучли (49,2-55,3%) даражада ривожланган [5].

Ривожланган давлатлар жумладан Канадада кенг тарқалган *Phaeoacremonium* ва *Cadophora* spp. ҳамда *Phaeoacremonium minimum* ва *Cadophora luteo-olivacea* ўртасидаги симптоматик фарқлар кенг ўрганилган [14]. Корнелл университетида ўсимлик патологи Доналд Реддикнинг Шимолий Америкада ўтказган тадқиқотларида токда биринчи марта ўлик-поя касаллиги синдромини ўрганди [12]. 2010 йилда Италия узумзорларидаги *Botrytis*нинг зарарлантириш ареали ва ҳосили сезиларли даражада паст бўлган [5]. Тадқиқотлар *Botrytis*ни назорат қилиш учун касалланган барглари олиб ташлаш юқори самарадорликка эга эканлигини кўрсатди (*Percival* va boshqalar (1994) [20], *Intrieri* va boshqalar (2008) [18], *Molitor* va boshqalar (2011) [13], *Palliotti* va boshqalar (2011) [19].

#### МАТЕРИАЛ ВА МЕТОДЛАР

Таҷрибалар Сирдарё вилояти Гулистон тумани “Нодир-Равшанбек-Бунёд” фермер хўжалигида олиб борилди. Объект сифатида касалликларга чидамлилиги турли хил бўлган узум навлари: Тоифи, Чарос, Қора чилги, Хусайни, Мерседес ҳамда Ризамат ота танлаб олинди.

Ўсимликларнинг касалланишининг интенсивлиги ёки даражаси (касаллик намоён бўлишининг сифат кўрсаткичи) Власова Э.А. ва бошқалар ишлаб чиққан шкалалар асосида аниқланди. Ушбу шкалалар касаллик ривожланиш даражасини белгилайди [3].

- 0 балл – касаллик симптомлари мавжуд эмас;
- 1 балл – 10% симптом ҳосил қилган;
- 2 балл – 11-25% симптом ҳосил қилган;
- 3 балл – 26-50% симптом ҳосил қилган;

4 балл – 51-75% симптом ҳосил қилган;

5 балл – 75% дан юқори.

Касаллик тарқалиш даражаси куйидаги формула асосида аниқланди:

$$P = n / N \times 100$$

Бу ерда:

P – касаллик тарқалиши

n – касалланган ўсимликлар

N – текширилаётган жами ўсимликлар.

Касаллик ривожланиш даражаси куйидаги формула асосида аниқланди:

$$R = \Sigma(a \times b) / N$$

Бу ерда:

R – касаллик ривожланиши (% ёки балларда);

$\Sigma(a * b)$  – касалланган ўсимликлар сонининг (a) тегишли балл ёки касалланиш фоизи (b);

N- текширилаётган жами ўсимликлар.


1-жадвал.

“Нодир-Равшанбек-Бунёд” фермер хўжалигидаги токнинг Мильдю, Оидиум, Кулранг чириш ҳамда Антракноз билан зарарланиш даражасини

№	Жами текширилаётган ўсимликлар (N)	Касалланган ўсимликлар балл шкаласида						Касаллик тарқалиши (P)%	Касалланган ўсимликлар сонининг тегишли балл ёки касалланиш фоизи $\Sigma(a \times b)$	Касаллик ривожланиши (R)	
		0	1	2	3	4	5				Жами (n)
1	220	80	76	43	21			140	63,6	225	1,02
2	220	129	56	23	12			91	41,4	138	0,63
3	220	139	47	29	5			81	36,8	120	0,54
4	220	160	36	24				60	27,3	84	0,38
5	220	123	57	22	18	10		107	48,6	195	0,88
6	220	140	43	21	11	5		80	36,6	138	0,62

**ОЛИНГАН НАТИЖАЛАР ВА УЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИ**

Касалланиш даражасини текшириш давомида саналар қайд қилиб борилди. Касаллик тарқалиши ҳамда касалланиш даражасини текшириш дорилар сепилиши олтидан ҳамда 7 кундан сўнг, жами 6 марта текшириш амалга оширилди. Натижалар шуни курсатдики, фермер хўжаликда энг кўп 4та касаллик Мильдю, Оидиум, Кулранг чириш ҳамда Антракноз тарқалган.




1-расм. “Нодир-Равшанбек-Бунёд” фермер хўжалигидаги токнинг Мильдю, Оидиум, Кулранг чириш ҳамда Антракноз касаллигини тарқалиши ва касаллик ривожланишининг диаграмма кўриниши


Жадвалдан кўриниб турибдики, тажриба фермер хўжалигида бир мавсумда 6 марта олиб борилган. Тажрибаниннг биринчиси апрел ойининг иккинчи декадасида 220та - Тоифи (26 туп), Чарос (30 туп), Қора чилги (24 туп), Хусайни (60 туп), Мерседес (40 туп), ҳамда Ризамат ота (40 туп), навлари текширилганда 76 та тупда 1 балл, 43 та тупда 2 балл ҳамда 21та тупда ўртача 3 баллик шкалада зарарланиш кузатилди.

Тажриба шу тариқа олиб борилди. Зарарланиш баҳор ва куз ойларида намлик ҳисобига кўпроқ, ёз ойларида ҳаво қуруқ ва иссиқ бўлиши ҳисобига камроқ кузатилди.


Расмдан кўриниб турибдики, июл ойининг биринчи декадасида яъни 4-текширувда, натижалар энг пастни кўрсатди. Бу албатта ҳаво ҳароратининг юқори бўлиши ҳамда намликнинг кам бўлиши билан боғлиқ.




2-расм. Навларнинг *Plasmopara viticola* билан зарарланиш диаграммаси



3-расм. Навларнинг *Uncinula necator* билан зарарланиш диаграммаси



4-расм. Навларнинг *Gloeosporium ampelophagum* билан зарарланиш диаграммаси



5-расм. Навларнинг *Botrytis cinerea* билан зарарланиш диаграммаси



6-расм. *Plasmopara viticola* ning микроскоп остида кўриниши (200x)



7-расм. *Uncinula necator* ning микроскоп остида кўриниши (200x)

**Хулоса.** 1. Ҳозирги вақтда Ўзбекистонда токнинг микробиологик қўзғатувчилари жиддий хавф туғдирмоқда. Шу сабабли касаллик тарқалиш ҳамда ривожланиш даражасини ўрганиш, ҳосил сифати ва миқдорини чамалашга катта ёрдам беради.

2. Олиб борилган тадқиқотлар шуни кўрсатдики, токда ўрганилган микроорганизмлар апрел ойининг иккинчи декадасигача ҳарорат ва намлик етарли даражада бўлганлиги сабабли 63,6% зарарланди. Июл ойининг биринчи декадасида ҳарорат ўта юқори ҳамда намлик етишмаганлиги сабабли, зарарланиш энг паст даражани яъни 27,3% ни кўрсатди.

3. Олиб борилган тадқиқотлар шуни кўрсатдики, текширилган бта навлдан Хусайни нави фоиз ҳисобида микробиологик касалликларга кўпроқ чалинган. Мильдю қўзғатувчиси *Plasmopara viticola* – 32,3%, *Uncinula necator* – 13,2%, *Botrytis cinerea* – 25,9% ҳамда *Gloeosporium ampelophagum* энг кам – 6,8% тарқалган.

#### ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Алейникова Н.В., Борисенко М.Н., Галкина Е.С., Радионовская Я.Э. Современные тенденции развития вредных организмов в ампелоценозах Крыма. плодородство и виноградарство юга россии № 42(06), 2016 г. 5-15ст.
2. Власов В.В. Константинова М.С., Мулюкина Н.А., Шматковская Е.А. Болезни и вредители винограда. Одесса, ННЦ «ИВиВ им. В.Е.Таирова», 2011, 22-23ст.

3. Власова Э.А., Смирнов О.В., Гуськова Л.А. Методические указания по регистрационным испытаниям фунгицидов в сельском хозяйстве. ВИЗР. Москва 2009. 26, 332-335с.
4. Володин В.А. Экологизация элементов защитных мероприятий на этапе получения привойно-подвойных комбинаций винограда в условиях Крыма: дисс. канд. с.х. наук: 06.01.07 / 2017.- С.186 [с.9]
5. Галкина Е.С., Алейникова Н.В., Андреев В.В., Шапоренко В.Н. Практические приемы снижения вредности милдью и оидиума в ампелоценозах крима путем использования препаратов природного происхождения. Сборник научных трудов ГНБС. 2016. Том 142 -С.119-127. [с.119].
6. Наркабулова Н.Ч. Влияние на качество вин перспективных гибридов Технического винограда. *Universum: Технические науки.* №2 (47). 2018г. 46-48ст.
7. Павлюченко Н.Г. Основные болезни и вредители виноградной школки // Защита и карантин растений. 2015. №4. С.23-25. [с.23].
8. Ток касалликлари, зараркунандалари ва уларга қарши кураш. “Ўзвинсаноат холдинг” холдинг компанияси “Ўзумшаробсервис” унитар корхонаси. Тошкент 2013й. 26.
9. Хасанов Б.А., Очилов Р.О., Холмуродов Э.А., Гулмуродов Р.А. Мевали ва ёнғок мевали дарахтлар, цитрус, резавор мевали буталар ҳамда ток касалликлари ва уларга қарши кураш. Тошкент 2010й. 101-135б.
10. Якушина Н.А., Современные рациональные системы защиты винограда от болезней и вредителей. *Виноградарство и виноделие.* № 2 2013г.–С.12-13. [с.12]
11. Gierland L., Fischer M. Grapevine trunk disease in German viticulture II. Associated fungi occurring on non-Vitis hosts, and first report of *Phaeoacremonium angustius*. *Vitis* #56. 2017y. P.103-110. [p.103].
12. Gramaje D., Urbez-Torrez J.R., Sosnowski M.R.. Managing Grapevine Trunk disease with respect to etiology and epidemiology: Current strategies and future prospects. *Plant Disease* (2018) p.102 [p12-39].
13. Molitor, D., Rothmeier M., Behr M., Fischer S., Hoffmann L., Evers D. Crop cultural and chemical methods to control grey mould on grapes. 2011. *Vitis* 50, 81-87p.
14. Mouner E., Cortes F., Cadiz M., and Pajot E. The benefits of *Trichoderma atroviridae* 1-1237 for the protection of grapevines trunk disease: a European nursery survey. *Phytopathol. Mediterr.trunk* 2014 53:591-592.
15. Mosetti J., Herrera C., Sabbatini P., Green A., Alberti G., Peterlunger E., Lisjak K. and Castellarin S. D. Impact of leaf removal after berry set on fruit composition and bunch rot in “Sauvignon blanc”. *Vitis* 55, p57–64 p[60]. (2016).
16. Ochssner I. Hausmann L. and Töpfer R. Rpv14, a new genetic source for *Plasmopara viticola* resistance conferred by *Vitis cinerea*. *Vitis* 55, (2016) p79–81 [p79]
17. Rex, F.; Fechter, I.; Hausmann, L.; Töpfer, R.; 2014: QTL mapping of black rot (*Guignardia bidwellii*) resistance in the grapevine rootstock 'Börner' (*V. riparia* Gm183 x *V. cinerea* Arnold). *Theor. Appl. Genet.* 127, 1667-1677.
18. Intriери D, C.; Filippetti, I.; Allegro, G.; Centinari, M.; Poni, S; 2008: Early defoliation (hand vs mechanical) for improved crop control and grape composition in Sangiovese (*Vitis vinifera* L.). *Aust. J. Grape Wine Res.* 14, 25-32.
19. Palliotti, A.; Gatti, M.; Poni, S.; 2011: Early leaf removal to improve vineyard efficiency: Gas exchange, source-to-sink balance, and reserve storage responses. *Am. J. Enol. Vitic.* 62, 219-228.
20. Percival, D.; Fisher, K.; Sullivan, A.; 1994: Use of fruit zone leaf removal with *Vitis vinifera* L. cv. Riesling grapevines. II. Effect on fruit composition, yield, and occurrence of bunch rot (*Botrytis cinerea* Pers.: Fr.). *Am. J. Enol. Vitic.* 45, 133-140.
21. DOI: 10.5073/vitis.2016.55.79-81

УЎК: 579.8

## НАЪМАТАК (*ROSA* L.) ДА ДОҒЛАНИШ (*DIPLOCARPON ROSAE*) КАСАЛЛИГИ ВА УЛАРГА ҚАРШИ КУРАШ ЧОРАЛАРИ

*Д.С. Хўжақулова, таянч докторант, ЎЗР ФА Ботаника институти, Тошкент*  
*Х.Х. Нуралиев, профессор, Тошкент Давлат Аграр университети, Тошкент*

**Аннотация.** Ушбу мақолада Қашкадарё, Жиззах вилоятлари ва Тошкент ботаника боғи шароитида наъматак турларида тарқалган доғланиш касаллиги ҳақида маълумотлар берилган бўлиб, бунда касаллик қўзғатувчи *Diplocarpon rosae* замбуруғи систематикаси, биологияси, касалликнинг тарқалиши, зарари ўрганилган ва касалликнинг олдини олиш тадбирлари тизими ишлаб чиқилган.

**Калит сўзлар:** *Rosa* L., *Rosaceae*, *Rosales*, *Ascomycetes*, *Leotiomyces*, *Drepanopezizaceae*, *Helotiales*, *Diplocarpon*, *Diplocarpon rosae*.

**Аннотация.** В данной статье представлена информация о разновидностях болезней шиповника в Қашкадарьинской, Жиззакской областях и Ташкентском ботаническом саду, а также изучен видовой состав, классификация, распространение, развитие, вредоносные болезни, разработана система профилактических мер борьбы с болезнями возбудителя *Diplocarpon rosae*.

**Ключевые слова:** *Rosa* L., *Rosaceae*, *Rosales*, *Ascomycetes*, *Leotiomyces*, *Drepanopezizaceae*, *Helotiales*, *Diplocarpon*, *Diplocarpon rosae*.

**Abstract.** This article provides information on the prevalence of spot diseases in the Kashkadarya, Jizzakh regions and the Tashkent Botanical Garden, in which the pathogenesis of the pathogen *Diplocarpon rosae* is studied systematically, biology, disease prevalence, damage and a system of disease prevention measures.

**Key words:** *Rosa* L., *Rosaceae*, *Rosales*, *Ascomycetes*, *Leotiomyces*, *Drepanopezizaceae*, *Helotiales*, *Diplocarpon*, *Diplocarpon rosae*.

**КИРИШ:** Наъматак (*Rosa* L.) *Rosaceae* оиласи мансуб, С витаминга энг бой, бутасимон ўсимлик бўлиб сентябрь, октябрь ойларида пишиб етилади. Дунё бўйича 135 та, Ўзбекистонда 17 та тури

тарқалган [2]. Наъматак доривор ва витаминга бой ўсимлик бўлгани сабабли бутунги кунда кенг майдонларга экиш йўлга қўйилган. Наъматакнинг Самарқанд, Қашқадарё, Сурхондарё вилояти, Фарғона водийси қуйи ва ўрта тоғли ҳудудларда ва Сижжак, Боғистон, Нанай, Яккатут, Бричмулла қишлоқларида витаминга бой, серҳосил навлари танланиб, томорқаларда парвариш қилинмоқда [2]. Мамлакатимизда аксарият йилларда об-ҳавонинг серёғин бўлиши сабабли тоғли ва адирли ҳудудларда патоген замбуруғлар келтириб чиқарадиган касалликлар сони ортмоқда. Инсон ҳаёти учун муҳим аҳамиятга эга бўлган доривор ўсимликлардан бири наъматак ҳам турли-туман патоген замбуруғлар билан касалланиши натижасида таркибида инсон саломатлиги учун зарур витаминлар миқдорини камайишига ҳамда *Rosa L.* турлари сонини юқолиб кетишига олиб келмоқда. Ҳозирги кунда наъматакда *Diplocarpon* туркумига мансуб замбуруғлар катта зарар етказмоқда. Дунёда ушбу туркум вакиллариининг 14 та тури кенг тарқалган бўлиб, шу турлардан биттаси яъни *Diplocarpon rosae* тури Ўзбекистон ҳудудида наъматакни зарарлаши кузатилган. Асосан баргларида турли хил ўзгаришлар келтириб чиқаради. XIX-асрнинг бошларида касаллик тўғрисида Америка олими Фриес (1815) ва Либерт (1826) дастлабки маълумотларни берган. Кейинчалик Аронеску (1834) ва Фрик (1843) томонидан патогенни ривожланиш цикли тўлиқ ўрганилган [5].

Наъматакнинг доғланиш касаллигини Ascomycetes бўлими, Leotiomycetes синфи, Helotiales тартиб, Drepanopezizaceae оиласи, *Diplocarpon* туркумига мансуб *Diplocarpon rosae* замбуруғлар кўзгатади. Польшада қишлоқ хўжалиги университети ходимлари томонидан 2015 йил 15 мартда берилган маълумотларга кўра кузги мавсумда *Diplocarpon* туркуми барг тўқималарига кириб конидия билан қопланган пикнидия ҳосил қилади. Замбуруғ ўсимлик қолдиқларида ва тўқилган баргларида пикнидия ҳолида қишлайди. Эрта баҳорда пикнидиядан конидиялар чиқиб, барг тўқималарига кириб бориши учун микроб найчаларини ҳосил қилади. Улар сув орқали кўпинча ёмғир ёки шамол таъсирида тарқалиб, барг тўқимасига кириб боради ва баргни зарарлайди. Зарарланган барглари барвақт тўқилади. Мицелий баргнинг остки қисмида ривожланади ва барг юзасида доғлар, яралар ҳосил қилади. Бу яралардан иқлим нам ва илик бўлганда доимий равишда конидия ҳосил бўлади. Бу конидиялар бошқа соғлом барглари ҳам тарқалиб уларни зарарлайди. Замбуруғ одатда иссиқ ва нам иқлимли муҳитда яхши ривожланади [8].

**Тадқиқотнинг манба ва услублари.** Тадқиқотлар 2021 йилда Қашқадарё, Жиззах вилояти адир ҳудудларида ва Тошкент ботаника боғида олиб борилди. Касалланган ўсимлик аъзоларидан гербарий намуналари йиғилди. Тайёрланган гербарий намуналари микологик ва фитопатологик таҳлил қилинди. Тўқима ичидаги микромицетларни ажратишда нам камера усулидан фойдаланилди [6]. Замбуруғнинг тузилиши, тур таркиби, уларнинг морфологик белгилари универсал N-300V(HDCE-XN) микроскопидан фойдаланиб кузатилди. Патоген замбуруғнинг тур таркибини аниқлашда мавжуд аниқлагичлардан ва <http://www.indexfungorum.org/names> интернет сайтидан фойдаланилди [7;10]. Наъматак турларининг номларини ёзишда эса <http://www.plantsoftheworldonline.org> интернет сайтидан фойдаланилди [10].

**Тадқиқот натижалари.** Касалланган ўсимлик гербарий намуналари микологик ва фитопатологик таҳлил қилинди. Таҳлил натижасига асосан Замбуруғ Ascomycetes бўлими, Leotiomycetes синфи, Helotiales тартиб, Drepanopezizaceae оиласи, *Diplocarpon* туркуми, *Diplocarpon rosae* турига мансуб [8].

Кузатишлар давомида аниқландики замбуруғ асосан ўсимликнинг барглариини зарарлаш хусусиятига эга бўлиб, дастлаб баргларида битта майда айлана ёки доирасимон, сариқ, кейинроқ жигаррангдан бинафша ранггача бўлган доғлар пайдо бўлади. Вақт ўтиши билан доғлар бутун барг юзасини эгаллаб, тўқ кўнғир тусга киради. *Diplocarpon rosae* замбуруғи билан касалланган барглари барвақт тўқилади. Замбуруғ эса тушган баргларида қишлагга мойилдир. Конидиялари эрта баҳор мавсумида сув орқали кўпинча ёмғир ёки шамол таъсирида тарқалиб, барг тўқималарига кириб боради. Мицелий барг пастки қисмида ривожланади ва барг юзасида доғлар, яралар ҳосил қилади. Бу яралардан иқлим нам ва илик бўлганда доимий равишда конидия ҳосил бўлади. Бу конидиялар бошқа соғлом барглари ҳам тарқалиб уларни зарарлайди. Кузги мавсумда барг тўқилиши содир бўлганда *Diplocarpon rosae* барг тўқималарига кириб конидиофоралар билан қопланган пикнидия ҳосил қилади. Тадқиқотлар давомида касалликнинг жадал ривожланиши асосан йилнинг июнь ойида қайд этилди. Замбуруғнинг инкубация даври 7 – 12 кунни ташкил этади. Касалликнинг ривожланиши учун энг қулай ҳарорат 20-25°C ни нисбий намлик 60-65% ни ташкил этади [8;9].

Тадқиқотлар давомида барглариининг устида дастлабки конидия униб чиққандан кейин 7 соат ичида намлик етарли бўлмаса, инфекция ривожланмаслиги ва 28°C дан юқори ҳарорат касаллик тарқалишини тўхтатгани кузатилди. Илмий изланишлар давомида *Diplocarpon rosae* замбуруғи Жиззах вилоятида кучли тарқалганлиги аниқланди, куз мавсумида ҳарорат 22-25°C да ўсимлик баргининг 70-85% қисми замбуруғ таъсирида зарарлангани кузатилди (1-расм).

#### **Касалликнинг олдини олишга қаратилган тадбирлар тизими.**

Наъматак касалликларига қарши курашишда патогенлар захирасини камайтириш ва ўсимликларнинг касалликларга чидамлилигини оширишга қаратилган агротехник тадбирлар катта аҳамиятга эгадир.



Наъматакни касалликлардан ҳимоя қилиш тадбирлари тизимини қуйидаги изчилликда ифодалаш мумкин:

- экиш материалларини фақатгина соғлом ўсимликлардан тайёрлаш;
- плантацияларда кузда барглари тўкилгандан сўнг ёки баҳорда вегетация бошланмасидан аввал ўсимликларнинг зарарланган қисмларини кесиш, уларни мис ёки темир купороси билан дезинфекция қилиш ва боғ суртмаларини қўллаш;
- тўкилган барглари йиғиб олиш ва ёқиш;
- қатор ораларини шудгорлаш ва туп ораликларини чопиш;
- жойнинг агрохимёвий таҳлилига кўра ўғитларни тўғри солиш;
- доғланиш касаллигига қарши ўсимликларни бутун вегетация мобайнида назорат қилиш;




а



б



с



д

1- расм. Доғланиш касаллиги билан касалланган ўсимлик барглари(а,б) ва замбуруғи конидияларининг микроскопик кўриниши(с,д)

Ўсимликларга Бордо суюқлиги ёки уларнинг ўриндошларини пуркаш орқали касалликларга қарши кимёвий курашиш – бунда 4 марта: яъни биринчиси Бордо суюқлигининг 3%ли суспензиясини ўсимлик уйқуда пайти ҳарорат 10<sup>0</sup> С дан паст бўлмаган вақтда пуркаш, қолган 3 марта эса Бордо суюқлигининг 1% ли суспензиясини гуллашдан олдин, гуллашдан кейин ва меваларга ранг киришидан олдин қўллаш тавсия этилади;

-наъматак меваларини белгиланган нормаларда қуритиш ва сақлашга жойлаштиришдан олдин омборхоналарни пухта дезинфекция қилиш;

### ХУЛОСАЛАР

1. Наъматакнинг доғланиш касаллигини *Ascomycetes* бўлими, *Leotiomycetes* синфи, *Helotiales* тартиби, *Drepanopezizaceae* оиласи, *Diplocarpon* туркумига мансуб *Diplocarpon rosae* замбуруғи кўзгатади. Касаллик асосан ўсимликнинг барглари зарарлаш хусусиятига эга бўлиб, дастлаб баргларида битта майда айлана ёки доирасимон, сарик, кейинроқ жигаррангдан бинафша ранггача бўлган доғлар пайдо бўлади.

2. *Diplocarpon rosae* замбуруғи наъматак барглари зарарлаб эрта тўкилишига олиб келди, бу ҳолат ўз навбатида ўсимликдаги физиологик жараёнларни издан чиқариб, ўсимликнинг ҳосил миқдори ва сифатига салбий таъсир этади.

3. Наъматак доривор ва витаминга бой ўсимликлардан бири бўлиб Республикамизда бугунги кунда кенг майдонларга экиш йўлга қуйилганлиги сабабли наъматакни доғланиш касаллигидан ҳимоя қилишда патогенлар захирасини камайтириш ва ўсимликларнинг касалликларга чидамлилигини оширишга қаратилган агротехник ва касалликнинг олдини олишга қаратилган профилактик тадбирлар катта аҳамиятга эгадир.

## Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. A.V.Roberts, T.Debener and S.Gudin. Amsterdam, the Netherlands. Elsevier Academic Press. Drewes-Alvarez R. Disease/black spot. In: Encyclopedia of Rose Science. 2003. – P. 148 -153.
2. Бердиев Э.Т. Наъматак табиий витаминлар хазинаси. – Тошкент. ТошДАУ тахририят-нашриёт бўлими, 2019. – Б.131.
3. Билай В.И. Методы экспериментальной микологии. – Киев: Наукова Думка, 1982. – С. 106-109.
4. Вадова В.А. Биохимия шиповника. Биохимия культурных растений. – М.: Л. 1840. Т. 7. – С. 531-548.
5. Маткаримова А.А., Махкамов Т.Х., Махмудова М.М., Азизов Х.Я., Ваисова Г.Б. Ботаника. – Тошкент. Фан ва технология, 2018. – Б. 242-245.
6. Наумов Н.А. Методы микологических и фитопатологических исследований. – М.: Л. 1937. – 272 с.
7. Пидопличко Н.П. Грибы паразиты культурных растений определитель. В 3-х т. – Киев: Наукова Думка, 1977. Т.2. – С. 86-127.
8. Walker S, Mandegaran, Roberts AM (1996) Проверка роз на устойчивость к *Diplocarpon rosae*. Acta Hort 209-213.
9. Хўжақулова Д.С., Нуралиев Х.Х. Наъматак туркумнинг (*Rosa L.*) асосий касалликлари ва уларга қарши кураш чоралари. Ўзбекистон аграр фани хабарномаси. – Тошкент. 2020. – № 5/2(83). – Б.168-172.
10. <http://www.indexfungorum.org/names/names>
11. <http://www.plantsoftheworldonline.org>

УЎК 581.4.16.46

**ТОШКЕНТ БОТАНИКА БОҒИ ШАРОИТИДА *HIBISCUS SYRIACUS* f. “*DUK DE BRABANT*” (MALVACEAE JUSS.) НИ ВЕГЕТАТИВ КЎПАЙТИРИШ**

**Д.А. Ҳамраева, илмий ходим, ЎзР ФА Ботаника институти ҳузуридаги академик Ф.Н. Русанов номидаги Тошкент Ботаника боғи, Тошкент**

**Э.Э.Темиров, илмий ходим, ЎзР ФА Ботаника институти ҳузуридаги академик Ф.Н. Русанов номидаги Тошкент Ботаника боғи, Тошкент**

**Аннотация.** Тошкент Ботаника боғи шароитида *Malvaceae* оиласига мансуб *Syria aтиргули* (*Hibiscus syriacus*) нинг “*Duc de Brabant*” формасини вегетатив кўпайтириши бўйича тадқиқот ишлари олиб борилди. Олинган натижаларга кўра, ўрганилган манзарали формани вегетатив усулда кўпайтирилганда илдиз олиши кўрсаткичлари юқори эканлиги сабабли ҳам ушбу формадан кўкаламзорлаштиришида кенг фойдаланиши мумкин. Вегетатив кўпайтиришида корневин стимуляторидан фойдаланиши самарали эканлиги аниқланди. Интродукцион баҳолаши натижаларига кўра, ушбу ўсимлик Республикамиз кўкаламзорлаштириши ишлари учун истиқболли эканлиги қайд этилди. Ўсимликнинг юқори манзаравийлик хусусиятлари уни Ўзбекистонда аҳоли яшаши жойларини кўкаламзорлаштиришида кенг тавсия этиши учун асос бўлади.

**Калит сўзлар:** *Malvaceae*, *Hibiscus syriacus* f. “*Duc de Brabant*”, манзарали форма, вегетатив кўпайтириши, кўкаламзорлаштириши, Тошкент Ботаника боғи, интродукция, Ўзбекистон.

**Аннотация.** В условиях Ташкентского Ботанического сада была проведена научно-исследовательская работа по вегетативному размножению формы “*Duc de Brabant*” гибискуса сирийского (*Hibiscus syriacus*), относящегося к семейству Мальвовых. Согласно полученным результатам, изученная декоративная форма может быть широко использована в озеленении, так как показатели укоренения были высокими при размножении вегетативным способом. Установлено, что применение стимулятора корневина при вегетативном размножении является эффективным. По результатам интродукционной оценки было отмечено, что данное растение является перспективным для работ по озеленению нашей республики. Высокие декоративные особенности растения являются основой для его широкой рекомендации в озеленении жилых районов населения Узбекистана.

**Ключевые слова:** *Malvaceae*, *Hibiscus syriacus* f. “*Duc de Brabant*”, декоративная форма, вегетативное размножение, озеленение, Ташкентский Ботанический сад, интродукция, Узбекистан.

**Annotation.** In the conditions of the Tashkent Botanical Garden, a research work was carried out on the vegetative reproduction of the “*Duc de Brabant*” form of Syrian hibiscus (*Hibiscus syriacus*) belonging to the *Malvaceae* family. According to the results obtained, the studied decorative form can be widely used in landscaping, since rooting rates were high when propagated by vegetative method. It has been established that the use of the stimulator *kornevin* in vegetative reproduction is effective. According to the results of the introduction assessment, it was noted that this plant is promising for landscaping work in our republic. The high decorative features of the plant are the basis for its wide recommendation in the landscaping of residential areas of the population of Uzbekistan.

**Key words:** *Malvaceae*, *Hibiscus syriacus* f. “*Duc de Brabant*”, decorative form, vegetative reproduction, landscaping, Tashkent Botanical Garden, introduction, Uzbekistan.

Бугунги кунда дунёда ўсимликларнинг манзарали, ноёб ва камайиб бораётган турларининг систематикаси, уларнинг экологияси, интродукцияси, кўпайтириш, етиштириш ва

кўкаламзорлаштиришда, шунингдек, ўрмон хўжалигида фойдаланиш чора-тадбирларини ишлаб чиқишга алоҳида эътибор берилмоқда.

Республикамизнинг кескин континентал иқлимига мос келадиган юқори манзарали ўсимлик турларини интродукция қилиш, уларни интродукция шароитида кўпайтириш, етиштириш – кўкаламзорлаштириш соҳаси мутахассислари олдидан турган долзарб масалалардан биридир.

Xorazm vohasining yozi uni o'rab turgan Qizil va Qora qum sahrolarining yozda o'ta darajada qizishi natijasida regressiya tufayli ob-havosining harorati o'ta issiq va quruq bo'ladi. Insonlarning me'yorida yashashlari uchun esa havoning namligi kamida 40-60% va harorati +30-+35 ° C atrofida bo'lishi kerak. Bu me'yorni barpo etish va saqlab turishda daraxtlarning o'rni kattadir. Daraxtlarning barglari o'z atrofi va yuzasida haroratni ko'tarilishini oldini olishi va qizib ketmasligi uchun o'zlaridan katta miqdorda suv bug'latib, atrofidagi haroratni pasaytirib, ma'lum miqdorda namlikni ham saqlash qobiliyatiga ega.

Daraxtlarning barglaridagi transpiratsiya jarayoni *Ulmus uzbekistanica* Drob. (*Ulmus*.1.N.), *Populus alba* L. (*Pop*.1.N.), *Cyleditschiatra cantos* L (*Cyl*.1.N.), *Thuja occidentalis* L. (*Thuj*.1.N), *Biota orientalis* Endl. (*Biota*.1.N), *Sophora japonica* (*Soph*.1.N), *Fraxinus viridis* Machx (*Fr*.Vir.M.N), *Maclura aurantiaca* Nutt (*Mac*.1.N.) larda aniqlandi (1 - jadval).


1 – jadval

O'simlik nomi	Bargning boshlang'ich og'irligi, mg.	Barg og'irligining o'zgarishi (mg hisobida)			8 daqiqa	Umumiy yo'qotilgan suv hisobi, mg.	Transpiratsiya tezligi, mg/10min.	Transpiratsiya tezligi, mg/soat.
		2 daqiqa	4 daqiqa	6 daqiqa				
Fr. Vir. M. N	420	417	414	410	406	413,4	241,8964683	1451,379
Cyl.1.N	80	78	76	74	72	76	1315,789474	7894,737
Mac.1.N	180	175	173	171	170	173,8	575,3739931	3452,244
Thuj.1.N.	257	255	253	251	250	253,2	394,9447077	2369,668
Biota 1.N.	284	280	277	275	274	278	359,7122302	2158,273
Ulmus 1.N.	127	119	115	111	107	115,8	863,5578584	5181,347
Soph.1.N.	321	318	317	315	314	317	315,4574132	1892,744
Pop.1.N	471	465	461	458	455	462	216,4502165	1298,701

O'rganilgan daraxtlarning barglarida kechayotgan transpiratsiyani torzion tarozida o'lchash orqali aniqlandi. O'simliklardagi transpiratsiya jarayonini tezlik bilan aniqlash maqsadida, torzion tarozilardan foydalanish mumkin.

Torzion tarozi juda ixcham bo'lib, buyumlar vaznini mg hisobida aniqlash uchun juda qulay hisoblanadi. Ish A.A.Ivanov (1950) uslubi bo'yicha bajarildi. Bu usul transpiratsiya jadalligi torzion tarozi yordamida barglarni tezlik bilan tortish yo'li orqali amalga oshiriladi.

1 – grafik



Tajribada o'rganilayotgan o'simliklardan foydalanib, transpiratsiya tezligi aniqlandi. Bu tajribaga ko'ra, dastlab o'simlik bargining boshlang'ich og'irligi o'lchandi. Ushbu tajriba soat 9:00 holatida o'tkazildi va shundan so'ng bargning 2,4,6,8 daqiqalardagi og'irligining o'zgarishi torsion tarozida o'lchanib mg da aniqlandi. Bunga ko'ra, ularning boshlang'ich og'irligi Fr. Vir. M. N-420 mg, Cyl.1.N-80 mg, Mac.1.N- 180 mg, Thuj.1.N- 257 mg,

Biota.1.N- 284 mg, Ulmus.1.N-127 mg, Soph.1.N - 321 mg va Pop.1.N-471mg ga tengligi aniqlandi. 2,4,6,8 daqiqadan so'ng bargning yo'qotgan umumiy suv miqdori hisoblab chiqilganda Fr.Vir.M.N-413.4 mg, Cyl.1.N-76 mg, Mac.1.N- 173.8 mg, Thuj.1.N-253.2 mg, Biota.1.N- 278 mg, Ulmus.1.N-115.8mg, Soph.1.N - 317 mg va Pop.1.N-462mg ekanligi ma'lum bo'ldi (1-grafik).

#### Daraxtlarda chang ushlab qobiliyati


Hozirga kelib butun dunyodagi singiri bizning mamlakatimizda ham, jumladan, Xorazm viloyati shahar va qishloqlarida ham havoni asosiy ifloslantiruvchi vositalardan hisoblanmish avtomobillar sonining keskin ortishi natijasida insonlar nafas oladigan ov-havoning turli xildagi changlar bilan ifloslanishi ortib bormoqda. Shahar va qishloqlardagi havoni changlar va gazlardan tozalovchi asosiy vosita bu – daraxtlardir. Ularning barg va novdalari havodagi dispers zarrachalarni ushlab havoni tozalashdagi hissasi 75% ga tengligi tadqiqotlarda aniqlangan.

2 - jadval

№	Daraxt nomi	Barg soni	O'rtacha chang miqdori, gr.
1	Ulm.1.N	5	0,88167
2	Pop.I.N	5	0,94134
3	Mac.1.N	5	0,13034
4	Thuj.1.N	5	0,038
5	Biota.1.N	5	0,108034
6	Soph.1.N	5	0,01534
7	Frax.1.N	5	0,11734

Daraxt barglarining chang ushlab qobiliyati bo'yicha tajriba olib borishda eng avval har bir daraxtdan 5 tadan bargdan olib uning dastlabki og'irligi o'lchandi. Shundan so'ng uning changidan tozalanib qayta tarozida o'lchandi. Ikkala barg og'irligi aniqlanib, ularning ayirmasi bizga olingan namunalardagi daraxt barglarining chang miqdorini aniqlab beradi (2-jadval).

2-grafik



Daraxt barglarining chang ushlab qobiliyati bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich, Pop.I.N da ko'rsatildi va o'rtacha chang ushlab qobiliyati 0,94134 gr miqdorni tashkil etgani ma'lum bo'ldi.

Eng kam chang ushlab qobiliyati esa Soph.1.N da kuzatilib, undagi miqdor 0.01534 gr ni tashkil etdi. Umumiy o'rtacha miqdor esa 0,88167gr ni tashkil etdi (2-grafik).

Olingan natijalardan shuni xulosa qilish mumkinki, daraxtlarning ko'kalamzorlashtirish qimmatli belgilari ularning birinchi navbatda kelib chiqishiga va sharoitga moslashish qobiliyatiga bog'liq. Daraxt barglaridagi transpiratsiya jadalligi ular o'sayotgan sharoitga, shamolga, haroratga, shahardagi transport vositalari harakati soniga, tuproq va havodagi namlikka, daraxtning turiga bog'liqdir. Daraxt barglarining changlarni ushlab qobiliyati daraxt turiga, bargining shakli va kattaligiga, bargning tukliligiga, g'adir- budirligiga, ko'chadagi transport vositalarining harakatiga, sanoat korxonalarining joylashishiga bog'liq bo'lgan holda turlicha miqdorda bo'ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdullayev R.A., Asomov D.K., Beknazarov B.O., Safarov K.S. "O'simliklar fiziologiyasidan amaliy mashg'ulotlar".
2. Jumaniyazov A. "Shaharlarda va avtomobil yo'llari atrofida ekiladigan daraxtlarning ayrim xususiyatlari" / Xorazm Ma'mun Akademiyasi axborotnomasi. Xiva, 2015. № 4, – B. 11-13
3. Muhamadxonov S., Jonguzarov F. "O'simlikshunoslikka oid ruscha – o'zbekcha lug'at". Toshkent, Mehnat, 1989.- B.240.
4. Гроздова Н.Б., Некрасов В.И., Глоба-Михайленко Д.А. Деревья кустарники и лианы. Москва, Лесная промышленность, 1986. –С.166-167.
5. <http://ekobarqaror.muloqot.uz/page/5/>
6. <http://tfi.jethost.uz/intranet/Elibrary/DUET/28.htm>
7. <http://uz.denemetr.com/docs/768/index-97089-1.html>



**MOSHDA O'TKAZILGAN ODDIY DURAGAYLASH ISHLARI NATIJALARI***Sh.Sh. Shodiyev, tayanch doktorant, Janubiy dehqonchilik ITI, Qarshi**Z.F. Ziyadullaev, q/x.f.d., prof., Janubiy dehqonchilik ITI, Qarshi*

**Annotatsiya.** Ushbu tadqiqotda moshning turli ekotiplarga mansub bo'lgan nav va tizmalari ishtirokida oddiy duragaylash ishlari olib borilgan. Duragaylash natijasida olingan duragay avlodlarida donlar hosil bo'lish samaradorligi aniqlangan. Maqsadga muvofiq yangi navlar yaratishda duragaylash usullari samaradorligi va donor navlar belgi hususiyatlarini e'tiborga olish ishlari haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** mosh, nav, tizma, duragay, oddiy duragaylash.

**Аннотация.** В этом исследовании была проведена простая гибридизация с использованием сортов и гребней маши, принадлежащих к разным экотипам. Определена эффективность образования зерна у гибридного потомства, полученного гибридизацией. Обсуждалась эффективность методов гибридизации при создании новых сортов и учет характеристик сортов-доноров.

**Ключевые слова:** машина, сорт, линия, гибрид, простая гибридизация.

**Abstract.** In this study, simple hybridization was performed using varieties and ridges of mung bean belonging to different ecotypes. The efficiency of grain formation in hybrid offspring obtained by hybridization has been determined. The effectiveness of hybridization methods in the development of new varieties and the consideration of the characteristics of the donor varieties were discussed.

**Keywords:** mung bean, variety, line, hybrid, simple hybridization.

**Kirish.** Qishloq xo'jalik ekinlaridan har yili yuqori va sifatli hosil olib, aholini ertangi yoki yil davomida to'yimli oziq-ovqat mahsulotlari, sanoatni esa xom ashyo bilan yetarli darajada ta'minlashda muayyan sharoitning, dehqonchilik talablariga mos keladigan serhosil nav (duragay)lar yaratish hamda ularni xo'jaliklarga keng joriy etish katta rol o'ynaydi. Tanlab olingan donor nav va namunalardan foydalanib turli yo'nalishda duragaylash o'tkazish va duragay ashyolar yaratish, seleksiyaga yangi duragay ashyolar etkazib berish seleksioner olimlar oldidagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Hozirgi paytda respublikaning sug'oriladigan yerlarida ekish uchun moshning yangi navlari yuqori hosildorlik xususiyatiga ega bo'lsada, ularda tashqi muhitning noqulay sharoitlari ta'sirida yillar bo'yicha bir maromda hosil bermasligi va don sifatining pastligi kuzatilmoqda. Shu sababli hosildor va don sifati yuqori bo'lgan yangi navlarni yaratish dolzarb vazifalardan biridir. Shuningdek Respublikamizning sug'oriladigan maydonlari uchun har bir viloyatning tuproq-iqlim sharoitiga mos navlarni yaratish va tanlash hamda ularni ishlab chiqarishga joriy etish lozim. Buning uchun jahon kolleksiya namunalari hamda mahalliy navlardan foydalanib maqsadli chatishtirish o'tkazish, moshning issiqlikka chidamli, hosildor va don sifat ko'rsakichlari yuqori bo'lgan duragay avlodlarini yaratish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Moshning genotiplarini miqdoriy belgilarni tahlil qilganda hosildorligi va ba'zi agromorfologik belgilar o'rtasida sezilarli ijobiy bog'liqlikni ko'rsatdi, ya'ni gullashgacha bo'lgan kunlar 50% gacha gullash, har bir o'simlikda birlamchi shoxlar, har bir o'simlikda ikkilamchi shoxlar, har bir delyankadagi ko'chatlar soni, o'simliklar uzunligi, dukkak uzunligi va bitta dukkakdagi donlar massasi va hosil ko'rsatkichi muhim deb hisoblanadi. Seleksiyasida yakka tanlash uchun barcha genotiplar bilan o'rtacha va ko'proq xilma-xillikka ega bo'lib, mosh yaxshilash uchun seleksiya dasturida foydalanish mumkin [1].

Azam M. G va boshqalarning tadqiqotlarida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, Mosh (*Vigna radiata*) ning hosildorligini o'zgarishi, o'simlik balandligi, har bir o'simlikdagi dukkaklar soniga, 100 ta don vazniga ushbu belgilar uchun gen ta'siri va bunday xususiyatlarni tanlash samarali bog'liqligini takidlagan [2].

Moshning ba'zi belgilar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganish va bu belgilarning qurg'oqchilik sharoitida hosildorligi bo'yicha eng samarali ekanligini aniqlash uchun moshni 1000 urug'lik vazni, bir o'simlikdagi dukkaklar soni, bir dukkakdagi urug'lar soni va dukkak og'irligi o'rtasida hosildorligiga mustahkam bog'liqlik aniqlagan [3].

Qurg'oqchilik sharoitida mosh ekinini fizalogik jarayonlarini buzilishini, jumladan fotasentiz jadalligi kamayishi, gullash davri qisqarishi, gulchangchilarning bepushtligini oshishi, kuchat sonini kamayishi kabi salbiy ta'sir ko'rsatishini aniqlashgan [4].

**Tadqiqotning maqsadi:** issiqlikka chidamli, oqsilga boy va hosildor yangi duragay avlodlar olishga qaratilgan.

Materiallar va uslublar. Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti markaziy tajriba maydonida moshning xalqoro va mahaliy 50 ta nav va namunalari 3 qaytariqda 2,5m<sup>2</sup> maydonda ekilib, har tomonlama qimmatli xo'jalik belgi va hususiyatlarini o'rganilib hamda seleksiya jarayonida oddiy duragaylash ishlari amalga oshirildi. Tajribani joylashtirish va tajriba davomida fenologik kuzatish, hisob va tahlillar (Butunittifoq O'simlikshunoslik instituti VIR, 1984) uslubi bo'yicha va duragaylash ishlar Maks Boling., D.A. Sander., R. S. Matlock (1961) Singh T. P. va R. S. Malhotra (1975). Hattak GSS (1998) usuli buyicha olib boriladi

**Tadqiqot natijalari:** Tadqiqotlarimiz davomida Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot institutining markaziy tajriba dalasida ekip o'rganildi. Andoza sifatida respublikamizda keng maydonlarga ekip kelinayotgan moshning "Qahrabo" navi olindi.

Duragaylash ko'chatzoridagi nav va tizmalardan foydalanib, qimmatli hususiyatlarini inobatga olgan holda duragay kombinatsiyalar jadvali tuzib chiqildi. Duragaylash ishlari oddiy chatishtirish, 11 kombinatsiyada amalga oshirildi.

Tadqiqot jarayonida moshning nav va tizmalarning oddiy duragaylash ishlari Qarshi tumanining iqlim sharoitida 2021 yilning avgust oyining 26-29 sanalarida duragaylash uchun tanlab olingan onalik o'simliklarning gullarini bichish ishlari ya'ni (changchilarini olib tashlash) hamda bir vatq o'zida tanlab olingan otalik o'simlikning changchilari yordamida chanlatish ishlari olib borildi.

1-jadval

2021 yilda mosh nav va tizmalarda o'tkazilgan oddiy chatishtirishlarda olingan natijalar (Qarshi, 2021 yil)

№	Kombinatsiyalar			Chatishtirilgan gullar soni, dona	Gullarni bichish va changlatish, sana	Gullarni bichish va changlatish vaqt, soat	Hosil bo'lgan dukkaklar soni	Olingan donlar soni	
	♀		♂					Dona	%
1	Qahrabo	X	Durdona	15	26.avg	6 <sup>30</sup> -9 <sup>00</sup>	4	22	26,7
2	Qahrabo	X	Radost	15	26.avg	16 <sup>30</sup> -18 <sup>30</sup>	5	29	33,3
3	Radost	X	Durdona	15	26.avg	14 <sup>00</sup> -16 <sup>00</sup>	2	17	13,3
4	KR21-MUNGPYT-IR-06	X	Durdona	15	27.avg	6 <sup>30</sup> -9 <sup>00</sup>	3	19	20
5	KR21-MUNGPYT-IR-11	X	Durdona	15	27.avg	14 <sup>00</sup> -16 <sup>00</sup>	1	6	6,7
6	KR21-MUNGPYT-IR-12	X	Durdona	15	27.avg	16 <sup>30</sup> -18 <sup>30</sup>	3	17	20
7	KR21-MUNGPYT-IR-13	X	Durdona	15	28.avg	9 <sup>30</sup> -11 <sup>30</sup>	1	7	6,7
8	KR21-MUNGPYT-IR-14	X	Durdona	15	28.avg	6 <sup>30</sup> -9 <sup>00</sup>	3	21	20
9	KR21-MUNGPYT-IR-15	X	Durdona	15	28.avg	16 <sup>30</sup> -18 <sup>30</sup>	4	25	26,7
10	KR21-MUNGPYT-IR-18	X	Durdona	15	29.avg	14 <sup>00</sup> -16 <sup>00</sup>	1	9	6,7
11	KR21-MUNGPYT-IR-19	X	Durdona	15	29.avg	16 <sup>30</sup> -18 <sup>30</sup>	3	23	20

Qahrabo / Radost dugaylash kombinatsiyasida onalik sifatida Qahrabo navi, otalik sifatida Radost navi olingan. yuqorida takidlaganimizdek 26 avgust sanasida 15 dona gul suniy chatishtirildi. Chatishtirilgan vaqt tong sahar soat 16<sup>30</sup> dan 18<sup>30</sup> vaqt oralig'ida olib borildi, changlanib hosil bo'lgan dukkaklar soni 5 donani tashkil qildi. Dukkaklardagi umumiy donlar soni 29 donani tashkil qilib, duragaylanish samaradorligi yuqori bo'lib 33,3 % duragay donlari olishga erishildi.

KR21-MUNGPYT-IR-19/Durdona kombinatsiyalari 15 dona gul 29-avgust va 14<sup>00</sup> va 16<sup>00</sup> vaqt oralig'ida suniy chatishtirish tadbirlari olib borilgan bo'lsa, hosil bo'lgan dukkaklar soni 1 dona, donlar soni 9 donani tashkil qilib, duragaylanish samaradorligi 16,7 % ni tashkil qilganligini ko'zdatdik.

Mosh o'simligini suniy duragaylash uchun maqbo'l bo'lgan vaqt tongi 6<sup>30</sup> dan 9<sup>00</sup> va 16<sup>30</sup> dan 18<sup>30</sup> oralig'ida bo'lganda duragaylanish samaradorligi 20-33,3 foiz yuqori bo'lganli aniqlangan bulsa, 9<sup>30</sup> dan 11<sup>30</sup> hamda 14<sup>00</sup> dan 16<sup>00</sup> vaqt oralig'ida duragaylar hosil bo'lishi keskin kamayib ketganligi va bazi kombinatsiyalarda umuman ko'zatilganligi ko'zatlidi, duragaylanish samaradorligi 6,7-13,3 foiz kam tashkil qilganligi ko'zatlidi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Singh C. M., Mishra S. B., Pandey A. Pattern of agro-morphological trait relationship and genetic divergence in greengram [Vigna radiata (L.) Wilczek] //Electronic Journal of Plant Breeding. – 2014. – T. 5. – №. 1. – C. 97-106.
2. Ali Akbar Laliniya, Manni Marefatzoda Khamene International Journal of Farming and Allied Sciences 3 (3), 274-281, 2014
3. Nadeem M, Li J, Yahya M, Sher A, Ma C, Wang X, Qui L (2019) Research progress and perspective on drought stress in legumes. Rev Int J Mol Sci 20:1–32.
4. Azam M. G. et al. Genetic variability, heritability and correlation path analysis in mungbean (Vigna radiata L. Wilczek) //Bangladesh Journal of Agricultural Research. – 2018. – T. 43. – №. 3. – C. 407-416.

УЎҚ 631.4

#### СУҒОРИЛАДИГАН ГИПСЛИ БЎЗ-ЎТЛОҚИ ТУПРОҚЛАРДАГИ ГУМУС ВА ОЗИҚА ЭЛЕМЕНТЛАРИ МИҚДОРИ

*Н.Ю. Абдурахмонов, б.ф.д., к.и.х., Тупроқшунослик ва агрохимё ИТИ, Тошкент*  
*Ў.Т. Собитов, PhD, к.и.х., Тупроқшунослик ва агрохимё ИТИ, Тошкент*  
*К.Д. Курдашев, таянч докторант, Тупроқшунослик ва агрохимё ИТИ, Тошкент*

**Аннотация.** Мақолада Сирдарё вилоятининг Мирзаобод туманидаги А.Кулбеков номли массив янгидан суғориладиган, турли даражада гипслашган бўз-ўтлоқи тупроқларида олиб борилган тадқиқотларда аниқланган гумус ва озика элементларнинг умумий ҳамда ҳаракатчан шакллари ва миқдорлари тўғрисидаги маълумотлар келтирилган.

**Калим сўзлар:** бўз-ўтлоқи тупроқлар, гипс, гумус миқдори, озиқа элементлар, умумий ва ҳаракатчан шакллари.

**Аннотация.** В статье даётся агрохимическая характеристика по содержанию гумуса, валового и подвижного форм азота, фосфора и калия сероземно-луговых гипсированных почв массива им. А. Кулбекова Мирзаабатского района Сырдарьинской области анализированы современные агрохимические состояния сероземно-луговых почв, установлены градации по степени обеспеченности гумусом и подвижных форм питательных (NPK) веществ.

**Ключевые слова:** сероземно-луговые почвы, гипс, содержанию гумуса, питательные элементы, валового и подвижного форм.

**Abstract.** The article gives an agrochemical characteristic according to the content of humus, gross and mobile forms of nitrogen, phosphorus and potassium of sierozem-meadow gypsum soils of the massif named after. And Kulbekov, Mirzaabad district, Syrdarya region, the modern agrochemical conditions of sierozem-meadow soils were analyzed, gradations were established according to the degree of provision with humus and mobile forms of nutrients (NPK) substances.

**Key words:** gray earth-meadow soils, gypsum, humus content, nutrients, gross and mobile forms.

**Қириш.** Ўзбекистонда гипсли тупроқлар Фарғона водийси, Жиззах, Мирзачўл, Маликчўл, Шеробод чўллари ва Устюрт платосида кенг тарқалган бўлиб, улар асосан саҳро зонаси ва бўз тупроқлар минтақаси тоғ олди кенг тарқалган. Республикамининг суғориладиган қишлоқ хўжалик ер майдонларидаги гипсли тупроқларнинг майдони 383,2 минг гектардан ортиқ бўлиб, бу жами суғориладиган қишлоқ хўжалиги ерларининг 10,3 фоизини, жумладан Сирдарё вилояти қишлоқ хўжалик суғориладиган ер майдонларининг 28,6 % ини ташкил этади. Турли даражада гипслашган ерлар юқори даражада шўрланганлиги, ўта зичлашганлиги, сув ўтказувчанлигининг ўта ёмонлиги билан тавсифланиб, бундай ерлар ўсимликларнинг илдиз тизимларини мақбул ривожланишига салбий таъсир кўрсатади.

Ҳозирги кунда республикада қишлоқ хўжалигида фойдаланилаётган суғориладиган гипсли ерлардан самарали фойдаланиш, бундай қийин мелиорацияланувчи ерлардаги гипс миқдорлари, шакллари, гипсли қатлам чуқурлиги ва қалинлигини ҳисобга олган ҳолда, тупроқларнинг гипслашганлик даражаларини аниқлаш, уларнинг унумдорлигини қайта тиклаш, ошириш ва бошқариш мақсадида тупроқларнинг хосса-хусусиятларини ва мелиоратив ҳолатини яхшилаш долзарб вазифалардан ҳисобланади.

**Тадқиқот объекти ва услублари.** Тадқиқотларимиз Сирдарё вилояти Мирзаобод тумани А.Кулбеков номли массивининг кучсиз гипслашган, янгидан суғориладиган бўз-ўтлоқи тупроқларда олиб борилди. Ўрганилган ҳудуд тупроқлари пролювиал-аллювиал ётқизиқларида шакланган бўлиб тоғ ости текисликларида жойлашган.

Тадқиқотлар услубиёти асосини ўрганилган ҳудудлар тупроқ хариталари маълумотларини таҳлил қилиш, қиёсий-географик, тупроқ-картографик, лаборатория-камерал-аналитик тадқиқотлар натижаларини умумийлаштириш ҳамда массив суғориладиган ерлари сифатини баҳолаш услублари ташкил этади. Тадқиқотларнинг тайёргарлик, дала, камерал ва картографик ишларм қабул қилинган йўриқнома [1] асосида, лаборатория-аналитик ишлари умумқабул қилинган услубиётлар [2] асосида бажарилди.

**Олинган натижалар ва уларнинг муҳокамаси.** Суғориш тупроқдаги гумус, озиқа элементлари миқдори ва захирасига жуда катта таъсир кўрсатади. Бу жараён, бир томондан тупроқларга тизимли равишда гўнг солиш, тупроқда катта миқдорда илдиз қолдиқларини қолдирувчи маданий экинлар экиш билан боғлиқ бўлиб, бу тадбирлар ўз навбатида органик моддаларнинг тўпланишига олиб келади, иккинчи томондан эса, тупроққа ишлов бериш ва суғориш агротехник тадбирларни ўтказиш негизида биологик жараёнларни, айниқса, органик моддаларнинг парчаланишини тезлаштиради.

Ўрта Осиё шу жумладан Ўзбекистон шароитида бўз тупроқлар минтақаси ҳудудларини ўзлаштиришнинг дастлабки йилларида, шудгорлаш (ҳайдаш), суғориш ва ишлов бериш тадбирлари баъзан гумус ва бошқа органик моддаларнинг камайишига олиб келади [3]. Кейинчалик эса суғориладиган тупроқлар унумдорлигини оширишда қўлланиладиган агротадбирлар таъсирида тупроқда гумус захираси орта боради. Бир қатор тадқиқотчиларнинг таъкидлашича, кўриқ бўз тупроқларни ҳайдаш ва суғориш, органик моддаларнинг парчаланиш ва минерализацияланиш жараёнларини тезлаштиради. Ўзлаштиришнинг дастлабки 3-4 йили ичида янги суғорилаётган бўз тупроқлардаги жами органик модданинг 40-50 фоизи парчланади ва кейинчалик бу жараён барқарорлашади.

Тупроқдаги органик модда миқдори, гумус ҳосил бўлиш шароитлари, тупроқ қатламининг механик таркиби, суғориш даври, деҳқончилик маданияти, агроирригацион қатламларнинг қалинлиги ва шўрлашиш даражасига боғлиқ ҳолда, тупроқнинг бир қатор хоссаларини бошқариб турувчи асосий омил ҳисобланади. Ўрганилган суғориладиган бўз-ўтлоқи тупроқларнинг кимёвий таҳлил натижалари

шуни кўрсатадики, мазкур тупроқларнинг ҳайдалма қатламидаги гумус миқдори 1,043-1,141 % оралиғида тебраниб, ҳайдалма ости қатламида 1,004-0,688 фоизни ташкил этади, қуйи қатламларга қараб камайиб боради.

Тадқиқот ҳудуди тупроқларида азот миқдори гумус миқдори билан чамбарчас боғлиқ бўлиб, гумус миқдорининг камайиши билан азотнинг умумий миқдори ҳам камаяди.

Гумус миқдори юқори (>1%) бўлган тупроқларнинг ҳайдалма қатламидаги ялпи азот миқдори 0,069-0,071% оралиғида тебраниб, ҳайдалма ости ва қуйи горизонтлар томон камайиб, 0,032-0,060 % ни ташкил этади. Углероднинг умумий азот миқдорига бўлган нисбати устки ҳайдалма қатламларда 7,1-9,3 кўрсаткичларда қайд қилинди (1-жадвал). Азотнинг нитрат шакли тупроқнинг ҳайдалма қатламида 17,4-25,0 мг/кг миқдорларида кузатилиб, қуйи қатламларда бу кўрсаткич 10 мг/кг гача камаяди. Ҳаракатчан азотнинг (N-NO<sub>3</sub>) миқдори ўрганилган бўз-ўтлоқи тупроқларнинг ҳайдалма қатламида юқори кўрсаткичларда кузатилиб, (20,5-25 мг/кг) кесма бўйлаб азотнинг ялпи миқдори ўзгаришларига мос равишда ўзгаради.

Тупроқларнинг фосфор ҳолатини ўрганиш бўйича бир қанча олимлар томонидан тадқиқотлар олиб борилган. Суғорма деҳқончилик шароитидаги тупроқларда фосфорнинг тўпланиши ва ўзгариши табиий шароитдаги тупроқлардан фарқ қилади. Ҳар йили минерал ўғит сифатида солинадиган катта миқдордаги фосфорнинг атиги 15-20% идан ўсимлиқлар фойдаланади, қолган қисми эса тупроқда қолиб, мураккаб жараёнлари таъсирида сувда эримайдиган шаклга ўтиб кетади. Тупроққа ўғит сифатида солинаётган фосфорнинг асосий қисми деярли қисқа вақти ичида ўсимлик ўзлаштира олмайдиган шаклга ўтиб улгуради [4,5].

Бўз-ўтлоқи тупроқларда фосфорнинг сувда эримайдиган шакллarga ўтиб тўпланиши коллоид-иль фракциялари миқдорига, кальций ва магний карбонатларнинг кўп ёки озлигига боғлиқ.

1-жадвал

Сугориладиган бўз-ўтлоқи тупроқлардаги гумус, азот, фосфор ва калий миқдори,

Кесма №	Қатлам чуқурлиги, см	Гумус, %	Умумий %			C: N	Ҳаракатчан, мг/кг		
			Азот	Фосфор	Калий		N-NO <sub>3</sub>	P <sub>2</sub> O <sub>5</sub>	K <sub>2</sub> O
1	0-24	1,043	0,069	0,48	1,450	8,8	20,5	45,1	305
	24-51	0,747	0,066	0,35	1,100	6,5	17,5	36,3	251
	51-82	0,699	0,041	0,20	0,870	9,9	15,1	22,7	110
	82-105	0,591	0,044	0,17	0,610	7,8	13,0	15,8	82
	105-136	0,394	0,032	0,10	0,320	7,1	10,5	10,1	52
2	0-26	1,043	0,070	0,45	1,230	8,6	25,0	41,3	295
	26-49	1,004	0,060	0,33	0,990	9,7	20,0	30,6	150
	49-76	0,984	0,050	0,21	0,790	11,4	15,0	20,1	82
	76-109	0,745	0,068	0,15	0,520	6,4	12,3	10,9	42
	109-125	0,390	0,032	0,09	0,290	7,1	10,9	9,6	36
3	0-24	1,102	0,071	0,40	1,260	9,0	23,2	36,5	289
	24-43	0,905	0,052	0,31	0,995	10,1	17,5	23,2	205
	43-79	0,610	0,041	0,17	0,715	8,6	11,8	16,0	120
	79-110	0,549	0,043	0,14	0,550	7,4	11,2	11,2	98
	110-142	0,393	0,037	0,10	0,315	6,2	11,7	8,5	61
4	0-27	1,141	0,071	0,32	1,134	9,3	17,4	24,6	277
	27-50	0,688	0,038	0,22	1,000	10,5	18,6	19,3	201
	50-81	0,610	0,042	0,16	0,850	8,4	10,5	16,2	153
	81-94	0,590	0,038	0,12	0,705	9,0	10,0	10,0	85
	94-134	0,452	0,041	0,09	0,502	6,4	10,0	7,5	47

Тадқиқот объекти тупроқларининг ҳайдалма қатламидаги фосфорнинг ялпи миқдори 0,32-0,45% ни, хайдов ости қатламида 0,22-0,35% ни ташкил қилади, унинг ҳаракатчан миқдори эса 24,6-45,1 мг/кг атрофида, тебраниб, тупроқнинг ҳайдалма ости ва қуйи горизонтларида 7,5-36,6 мг/кг ни ташкил этади. Бу тупроқлар ҳаракатчан фосфор билан асосан кам ва айрим айирмалари ўртача таъминланган тупроқлар гуруҳига киради (1-жадвал).

Бугунги кунда дунёда калийли ўғитлар азот ва фосфорли ўғитлар ишлаб чиқариш ҳажмидан анча кам бўлиб, 12 млн. тоннани ташкил этади. Бу ўғит ўсимлик организмда муҳим ҳаётий жараёнларни бажаради. Масалан, ҳужайранинг сув фаолиятини тартибга солишни, углеводларнинг барглardan бошқа органларга оқиб ўтишини, фотосинтез жараёнининг бир маромда боришини таъминлайди. Ўсимлик таркибидаги калий миқдори 0,01% дан 2-3% гача бўлиб, бу ўғитни тупроққа беришда тупроқдаги ҳаракатчан калий миқдорини қатъий ҳисобга олиш керак бўлади. Чунки 1 кг тупроқ таркибида 400 мг дан ортиқ калий бўлса, айти тупроққа йиллик нормадаги калий миқдорининг 20-40% ни бериш лозим. Калийли ўғитларни агрохимёвий харитаграммаларга риюя қилмасдан тупроққа бериш, ҳосилнинг пишиб етилишини кечиктиради ва сифатига салбий таъсир кўрсатади.

Шўрланган тупроқлар, одатда, шўрланмаган тупроқларга нисбатан калийга бойроқ. Аммо О.К.Комилов [6] бу нисбатни калийнинг ҳаракатчан шакллари учун тўғри деб кўрсатади. Мирзачўлнинг янгидан ва эскидан суғориладиган бўз-ўтлоқи шўрланган ва шўрланмаган тупроқларида ялпи калийнинг миқдори деярли бир хил. Алмашинувчи калийнинг миқдори шўрланмаган янгидан ва эскидан суғориладиган тупроқларда сувда эрийдиган калийга нисбатан анча кўп, эскидан суғориладиган шўрланган тупроқларда аксинча, сувда эрувчан калийнинг миқдори (250-350 мг/кг) устунлик қилади.

Суғориладиган бўз-ўтлоқи тупроқлар профилида ялпи калий миқдори 0,290-1,450 % атрофида тебраниб, унинг ҳаракатчан миқдори тупроқларнинг ҳайдалма қатламида 277-305 мг/кг ни ташкил этади, барча кесмаларда пастки қатламлар томон ҳаракатчан калий миқдорининг камайиши кузатилади. Бу тупроқлар ҳаракатчан калий билан асосан ўртача (200-300 мг/кг) ва айрим айирмалари бўйича юқори даражада таъминланган.

**Хулоса.** Ўрганилган Сирдарё вилоятининг Мирзаобод туманидаги А.Кулбеков номли массив суғориладиган бўз-ўтлоқи тупроқлардаги гумус миқдори 1,043-1,141 % оралиғида тебраниб, гумус билан ўртача таъминланган тупроқар тоифасига мансуб. Тупроқлар ҳаракатчан азот миқдорига кўра, жуда кам ва кам фосфор бўйича кам ва ўртача ва алмашинувчи калий миқдорига кўра, ўртача ва юқори таъминланган тупроқлар гуруҳларини ташкил этади. Ушбу ўрганилган ҳудудда турли агротехник ва агромелиоратив табирилар ўтказиш мақсадга мувофиқ.

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. «Давлат ер кадастрини юритиш учун тупроқ тадқиқотларини бажариш ва тупроқ карталарини тузиш бўйича йўриқнома». Ердан фойдаланиш, ер тузиш ва ер кадастри бўйича меъёрий ҳужжатлар. Тошкент, 2013, 52 бет.
2. «Ўзбекистон Республикаси суғориладиган тупроқларини бонитировкалаш бўйича услубий кўрсатма» (муаллифлар жамоаси). Ердан фойдаланиш, ер тузиш ва ер кадастри бўйича меъёрий ҳужжатлар. Тошкент, 2005, 24 бет.
3. Кўзиев Р.К., Абдурахмонов Н.Ю. Суғориладиган тупроқлар эволюцияси ва унумдорлиги. Тошкент, “Navroz”, 2015. 208 бет.
4. Мирзажонов К.М., Умбетаев У. Влияния сульфаммонизированных продуктов на подвижность фосфора в карбонатных почвах. //Тупроқ унумдорлигини оширишнинг илмий ва амалий асослари: Халқаро илмий ва амалий анжуман материаллари тўплами. Т.2007. 102-106 бетлар
5. Юлдашев Г., Холдорев Д. Миграция элементов орошаемых засоленных почвах Центральной Ферганы. ФарДУ. Илмий хабарлар журнали. 2001 №3-4. 42-44 бетлар
6. Комилов О.К. Мелиоративное состояние и плодородие вновь освоенных почв Голодной степи. Ташкент. Фан, 1980. 155 бет
7. Мирзаев У.Б. Исфайрам-Шоҳимардонсой конус ёйилмаларидаги арзиқли тупроқ хоссаларининг антропоген омил таъсирида ўзгариши. Б.ф.н. Диссертацияси – Ташкент-2009. -148 бет.

УДК. 572.156. 576.152

### БУХОРО ВИЛОЯТИ ШАРОИТЛАРИДА ПАХТА ЕТИШТИРИШНИНГ ЯНГИ АГРОТЕХНОЛОГИЯСИНИ ЖОРИЙ ЭТИШ АСОСЛАРИНИ ЯРАТИШ

**Б.Ф. Арипов, Бухоро Давлат Университети, Бухоро**  
**З.Р. Ахмедова, ЎЗР ФА Микробиология институти, Тошкент**

**Аннотация.** Маколада Республикаимизнинг Бухоро вилоятида гуза етиштиришида Микрозим-2 биопрепаратидан фойдаланиб, мул ва сифатли ҳосил олиши тугрисида маълумотлар келтирилган.

**Калим сузлар:** пахта, Микрозим-2, биопрепарат, экологик хавфсиз, игурланган тупроқлар, Сайфулло бобо, Порлок нави, тажриба ва назорат, ишлов бериши

**Аннотация.** В статье представлена информация о производстве хлопчатника и высококачественных культур в Бухарской области Республики с использованием биопрепарата Микрозим-2.

**Ключевые слова:** хлопок, Микрозим-2, Биопрепарат, экологически безопасные, засоленные почвы, Сайфулло бобо, сорт Порлок, опыт и контроль, обработка

**Abstract.** The article provides information on the production of mulberry and high-quality crops in the Bukhara region of the Republic of Uzbekistan using the biopreparation Mikrozim-2.

**Keywords:** cotton, Mikrozim-2, biopreparation, environmentally safe, saline soils, Sayfullo bobo, Porlok variety, experiment and control, processing

Ҳозирги кунда Республикаимизда пахта етиштириш бўйича янги агротехнологиялар хусусан, биологик препаратлар ёрдамида мул ва сифатли ҳосил олиш борасида кўплаб инновацион ёндашувлар, амалий ишлар олиб борилмоқда.

Пахта етиштириш борасида асосий эътибор атроф-муҳит ва инсонлар саломатлиги учун безарар, экологик хавфсиз биопрепаратлар яратиш, уларни Республикаимизнинг турли даражада шўрланган тупроқларида қўллаш ишларига қаратилмоқда. Айниқса, маҳаллий шароит ва тупроқ манбаларидан ажратиб олинган замбуруғларнинг энзиматик фаолликлари, метаболитлари асосида яратилган биопрепаратлар юқори самарага эга эканлиги ўрганилган [1].

Хусусан, ЎзР ФА Микробиология институтида яратилган «Микрозим-2» биопрепарати Республикамизнинг бир қатор регионларида қўлланилган [2,3,4,5,6]. Аммо, айрим регионлар қаторида Бухоро вилоятининг турли даражада шўрланган, айниқса 2020 йилдаги кучли шамол таъсирида ўзгаришга учраган шўрхок эррозив тупроқларида қўллаш ишлари амалга оширилмаган. Шу боис, ЎзР ФА Микробиология институти ва Бухоро давлат университети олимлари ҳамкорлигида «Микрозим-2» биопрепаратыни қўллаш ишлари олиб борилди. Жорий этиш ишлари Бухоро вилояти, Бухоро туманидаги «Сайфулло бобо» фермер хўжалигининг 30 га экин майдонида чигитнинг «Порлок» навидан пахта етиштиришда қўллаш бўйича илмий тадқиқот ишлари олиб борилди.

Дастлаб тажриба майдони танлаб олинди ва агротехник ишловлар берилди. Фермер хўжалигининг бошқа бир 30 гектарлик даласи билан бир кунда бир хил ишловлар берилиб, назорат ҳамда тажриба учун чигитлар танлаб олинди. Биринчи назорат учун олинган 30 гектарлик ерга экиладиган «Порлок» чигитлар хўжаликнинг ўзининг анаъанавий усули орқали экишга тайёрланди (расм-1).

Кейинги тажриба учун танлаб олинган 30 гектарлик ер учун танлаб олинган чигитлар экишдан олдин «Микрозим-2» биопрепарати билан ишлов берилиб, 30 кг/га миқдорда махсус мослама ёрдамида экиб чиқилди. Тажриба ҳамда назорат учун тайёрланган чигитлар бир кунда танланган ерларга экилди (1-расм).

Сўнгра, уруғларнинг униб чиқиш энергияси, кейинги ривожланиши, бақувватлиги каби барча фенологик кузатувлар олиб борилди.



1-расм. Чигитларга «Микрозим-2» биопрепарати билан ишлов бериш ва экиш ишларининг олиб борилиши



2-расм. Ғўзаларнинг ўсиб, ривожланишининг кўринишлари 1-ишлов берилган уруғлар, 2-тажриба варианты ғўзасининг, 3-назорат варианты ғўзасининг кўриниши

Кузатишлар давомида чигит экилган далаларнинг тупроқлари дастлабки ва Микрозим-2 қўлланилгандан сўнгги ҳолатлари, микробиологик тавсифи, ферментатив фаоллиги, гумус,

ўзлаштирувчи ҳолга келган азот, фосфор ва калий моддалари, тупроқнинг рН - кўрсаткичи, ғовақчилиги, сув сўрими, электр ўтказувчанлиги, уларнинг таркибларидаги тузлар миқдорлари ўрганилиб борилди.

Дастлаб, назорат ҳамда тажриба учун танлаб олинган ерларга экилган чигитлар униб чиқиши кузатилганда, назоратга нисбатан “Микрозим-2” билан ишлов берилган далалардаги чигитлар униб чиқиши билан фарқлар 3-4 кунга фарқ қилиши, назоратда униш энергиясининг 78%, тажриба вариантларида эса 95-96 % ташкил қилиши кузатилди (2-рКейинги босқичларда ғўзаларнинг чин барг чиқариши, толаларининг бақувватлигида ҳам катта фарқ борлигини кўрсатди.

Натижада тажриба ва назоратдаги ғўзаларнинг ўсиш ва ривожланиш тезлиги, шоналаш, гуллаш ва кўсақлар туғишининг “Микрозим-2” биопрепарати билан ишлов берилган ғўзаларнинг кўсақлар сони назоратдагига нисбатан 7-8 тага кўплиги аниқланди.

Ҳар бир туп ғўзада кўсақлар сонининг ортиши, ўсимликнинг сувга ва шўрга чидамлилигининг ортиши кузатилди. Тажриба варианты ғўзаларининг сувга чанқоқлиги кеч кузатилиб, июль ойида бир мартаба суғорилди.

Кўсақларнинг очилиши қийғос кечиб, июль ойининг охири ва август ойининг дастлабки 10 кунда 80 % ни ташкил қилди.

Дастлабки 1чи терим 16 августда бошланиб, бу даврда кўсақларнинг 89-90% пишиб етилиши, теримни эрта бошлаш мумкинлигини, ҳосилнинг эрта етилишини кўрсатди.



3-расм. Етилган пахта далаларининг умумий кўриниши

Олиб борилган тажрибалар асосида назорат учун танлаб олинган чигит билан "Микрозим-2" биопрепарати билан ишлов берилган чигитлардан олинган ҳосил назоратдаги ҳосилдорлик 35-37 цга, тажрибадаги ҳосилдорлик эса 42-45 цга етганлиги аниқланди, яъни олинган кўшимча ҳосилдорлик 7,0-8,0 % ортик эканлиги кузатилди.

“Микрозим-2” биопрепарати билан ишлов берилган “Порлок” навидан етиштирилган ҳосилдорлик.

Тажриба вариантлари	Очилган кўсақлар сони, %	Ҳосилдорлик, ц/га	Кўшимча ҳосилдорлик, ц/га
Назорат қувур суви билан ишлов берилган	80,0	35-37,0	2,0
“Микрозим-2” биопрепарати билан ишлов берилган.	89-90	42-45	7,0-8,0
Назорат (ишлов берилмаган)	72	25-27,0	17-18,0

“Микрозим-2” энзимли органик ўғитнинг Бухоро вилояти шароитларида пахта етиштиришда қўллаш орқали, ўсимликларни ҳар хил касалликлардан ҳимоя қилиш, тупроқ унумдорлигини ошириш билан бир қаторда биологик фаоллигини тиклаш ва ҳосилдорликни оширишга эришилди.

Шундай қилиб, олинган натижалар экологик жиҳатдан безарар бўлган "Микрозим-2" биопрепаратини Бухоро вилоятидаги шўр тупроқларига экиладиган чигитларга қўллаш орқали пахтачиликда иқтисодий жиҳатдан юқори самарадорликка эришиш мумкинлигига илмий асос солинди.

**ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:**

1. Rashidova N.T., Gulyamova I.T., Akhmedova Z.R. Hidrolisis of soil micromycetes isolated from various sources of the Republic of Uzbekistan and their importance in agriculture// 6<sup>th</sup> ASIAN PGPR International Conference Tashkent. Uzbekistan 2019. 18-21 august. 99 p.

2. Саттаров М.Э., Ахмедова З.Р., Рашидова Н.Т., Гулямова И.Т., Урдушева Б. Использование ферментных препаратов некоторых ксилотрофных грибов в сельском хозяйстве//Иновацион лойиҳаларни ишлаб чиқаришга тадбиқ этиш муаммолари. III Республика илмий-техник конференция. Жиззах 2011. 279-281 б.

3. Ахмедова З.Р., Рашидова Н.Т., Муродиллаева А., Саипов З.А., Урдусева Б. Действие ферментативно активных жидкостей некоторых грибов и их композиций на урожайность хлопчатника и качества волокна// Инновацион ғоялар, технологиялар ва лойиҳаларни ишлаб чиқаришга тадбиқ этиш муаммолари// IV-Республика илмий техник конференция илмий ишлар тўплами. Жиззах 2012. 67-69 б.

4. Эргашева С.З., Рашидова Н.Т., Гулямова И.Т., Саттаров М.Э. “Микрозиум-2” энзим композицияси ва унинг таркибига кирувчи компонентларининг чигит унувчанлигига таъсири// Инновацион ғоялар, технологиялар ва лойиҳаларни ишлаб чиқаришга тадбиқ этиш муаммолари// IV-Республика илмий техник конференция илмий ишлар тўплами. Жиззах 2012. 499-501 б.

5. Қуатбекова Р.А., Ахмедова З.Р., Холмурзаева Б.А., Саипов З.А., Рашидова Н.Т., Дильдабаева З.С. Ферментативные активности ксилотрофных и почвенных грибов// Приоритетные направления развития науки и образования: Будущее и стратегия. Посвященной 70-летию президента Казахстанского университета дружбы народов, академик, доктора химических наук, профессора Абдумусы Муратовича Куатбекова.4-5 июнь. Казахстан 2012. С. 265-268.

6. Ахмедова З.Р., Рашидова Н.Т., Каримова Ф.С. Действие ферментативно активных жидкостей некоторых грибов и их композиций на урожайность хлопчатника и качества волокна// Фан-техника, таълим ва технологиялар: долзарб муаммолар ва ривожланиш тенденциялари// Республика илмий-амалий анжумани материаллари. 1-қисм. 14-15 апрель 2017 й. 352-355 б.

УДК 551.582

### АНАЛИЗ ДИНАМИКИ ТЕМПЕРАТУРЫ И ОСАДКОВ НА ТЕРРИТОРИИ КАРАКАЛПАКСТАНА ПО ВЫБОРКАМ ДВУХ ТРИДЦАТИЛЕТИЙ

*М.Л. Арушанов, Научно-исследовательский гидрометеорологический институт, Ташкент*  
*А.И.Вдовенко, Центр гидрометеорологической службы Республики Узбекистан, Ташкент*  
*Х.Д.Одилов, Центр гидрометеорологической службы Республики Узбекистан, Ташкент*

**Аннотация.** Мақолада Қорақалпоғистон Республикасининг 6 та метеорологик станциясида ўртача йиллик ҳаво ҳарорати ва ёгинлар динамикасининг иккита давр бўйича (1961 йилдан 1990 йилгача ва 1991 йилдан 2020 йилгача) статистик таҳлили келтирилган. Ер сирт ҳаво ҳароратининг ижобий тенденцияси глобал тенденцияга нисбатан  $1.3^{\circ}\text{C}$  дан ошганлиги аниқланди. Ўртача йиллик ёгинларнинг динамикаси эса ўрганилаётган ҳудуд учун нотекис тақсимланган. Муйноқ ва Нукус шаҳарлари ҳудудларида Орол денгизининг қуриши туфайли ўрганилаётган минтақада континентал иқлимнинг мустаҳкамланишига мувофиқ ўртача йиллик ёгинларнинг камайиши кузатишмоқда. Қорақалпоғистон ҳудудининг жануби-шарқий ва шимоли-ғарбий йўналишида, минтақада континенталлик ортиб бораётганига қарамай, тенденцияни ортиши кузатишмоқда. Ушбу натижа махсус бажарилган тадқиқотлар асосида физик асослашни талаб қилади.

**Калит сўзлар:** иқлим, иқлим динамикаси, ҳаво ҳарорати, атмосфера ёгинлари, ижобий ҳарорат тенденцияси, глобал ҳарорат тенденцияси.

**Аннотация.** В статье выполнен статистический анализ динамики среднегодовых температур воздуха и атмосферных осадков по метеорологическим станциям Республики Каракалпакстан по данным двух выборок (1961 по 1990 и с 1991 по 2020 годы). Получено, что положительный тренд приземной температуры воздуха превосходит таковой относительно глобального тренда на  $1,3^{\circ}\text{C}$ . Динамика среднегодовых осадков неоднозначна на исследуемой территории. В достаточно обширных географических областях с центрами в городах Муйнак и Нукус в соответствии с усилением континентальности климата в исследуемом регионе вследствие усыхания Аральского моря, отмечается уменьшение среднегодовых осадков. На территории же Каракалпакстана в направлении юго-восток – северо-запад вопреки факту усиления континентальности в этом регионе отмечается тенденция к их увеличению. Данный результат требует физического обоснования на основе специально выполненных исследований.

**Ключевые слова:** климат, динамика климата, температура воздуха, атмосферные осадки, положительный тренд температуры, глобальный тренд температуры.

**Abstract.** This article provides a statistical analysis of the dynamics of average annual air temperatures and precipitation for 6 meteorological stations of the Republic of Karakalpakstan based on data from two samples (1961 to 1990 and from 1991 to 2020). It was found that the positive trend of the surface air temperature exceeds that relative to the global trend by  $1.3^{\circ}\text{C}$ . The dynamics of average annual precipitation is ambiguous in the study area. In rather vast geographical areas with centers in the cities of Muynak and Nukus, in accordance with the strengthening of the continentality of the climate due to the drying up of the Aral Sea, a decrease in the average annual precipitation is noted. On the territory of Karakalpakstan, in the southeast - northwest direction, despite the fact of increasing continentality, there is a tendency towards their increase. This result requires physical substantiation based on specially performed studies.

**Key words:** climate, climate dynamics, air temperature, precipitation, positive temperature trend, global temperature trend.



**Введение.** Происходящие в настоящее время изменения климата, вызывают серьёзную озабоченность, так как их влияние на природные и хозяйственные системы увеличивается из года в год: частые засухи, наводнения, паводки, ливневые дожди и другие опасные явления оказывают негативное воздействие на социально-экономическую сферу. Исследования в области изменений климата становятся одной из приоритетных задач государственной политики. В этой связи указом Президента Республики Узбекистан принят ряд постановлений в части обеспечения информационно-аналитической поддержкой процесса принятия государственных решений в области климата.

С 2009 года в рамках деятельности Северо-Евразийского Климатического Центра (СЕАКЦ) [Изменение климата и безопасность в Центральной Азии, 2018] ведётся мониторинг климата СНГ; сезонные и годовые бюллетени доступны на сайте СЕАКЦ на странице мониторинга: <http://seakc.Meteo-info.ru/climatemonitoring>. С 2011 года по решению Межгосударственного совета по гидрометеорологии СНГ выпускается Сводное ежегодное сообщение о состоянии и изменении климата на территории государств участников СНГ, в котором данные о климате представлены 14 НГМС стран СНГ (также доступно на сайте СЕАКЦ на странице мониторинга).

В данной статье выполнено исследование динамики температуры и осадков за два сравнительных периода с 1961 по 1990 и с 1991 по 2020 годы по территории Каракалпакстана, которое внесёт определённый информационный вклад в СЕАКЦ.

Рассматриваемая географическая область подвержена значительным эколого-климатическим изменениям, спровоцированных усыханием Аральского моря [Сакиев К. З., Мухаметжанова З. Т., Шадетова А. Ж., и др, 2015, Арушанов М. Л., Тлемуратова Б. С., 2014, Духовный В. А., Стулина Г. В., 2017] и фоновым положительным трендом глобальной температуры. Исследование динамики климатических параметров, в частности, температуры и осадков – основных параметров, выступающих в качестве предикторов в прогностических моделях засух и других опасных явлений, представляется в современных условиях климатических изменений на территории Приаралья – географической области, являющейся центром локальных климатических изменений, весьма актуальной.

**Исходная данные.** Используемая в данной работе информация представляет регулярные измерения температуры приземного воздуха и осадков, осреднённые за год на станциях Каракалпакстана, входящие в метеорологическую сеть Узгидромета (рис. 1).

**Среднегодовые изменения температуры и осадков на территории Каракалпакстана.** На рис. 2 представлены временной ход аномалий температуры, а на рис. 3 – осадков по годам за рассматриваемые два периода. За базовый климатический период взят период с 1961 по 1990 годы с целью наглядности динамики соответствующих отклонений метео величин от их нормы, рассчитанной как среднее по всем метеостанциям за указанный период времени. Разности аномалий среднегодовой температуры (осадков), вычисленные по двум выборкам, рассчитывались по формуле

$$\Delta f_{ij} = (f_{i,j}^{II} - \bar{f}_j^I) - (f_{i,j}^I - \bar{f}_j^I), \quad (1)$$

где  $f_{i,j}^{II}$ ,  $f_{i,j}^I$  – среднегодовое значение метео величины в  $i$ -ый год ( $i=1, 2, \dots, 30$ ) на  $j$ -ой станции ( $j=1, 2, \dots, 6$ ). В (1) верхние индексы – номер выборки ( $I$  – выборка 1961-1990 годы,  $II$  – выборка 1991-2020 годы);  $\bar{f}_j^I = \frac{1}{30} \sum_{i=1}^{30} f_{i,j}^I$  – норма величины  $f$ . Кроме того, вычислялись средние значения  $\Delta f_{ij}$  на каждой станции Каракалпакстана

$$\overline{\Delta f}_j = \frac{1}{30} \sum_{i=1}^{30} \Delta f_{ij}. \quad (2)$$



Рис. 1. Расположение метеорологических станций на территории Каракалпакстана

**Примечание:** станции Тахтакупыр и Актумсук не рассматривались из-за большого количества пропусков в данных




Рис. 2. Разности аномалий среднегодовой температуры (а), рассчитанные по двум выборкам (1961-1990 и 1991-2020 годы); б) – разности средних аномалий среднегодовой температуры по двум выборкам на станциях Каракалпакстана

### Динамика среднегодовой температуры и осадков за два тридцатилетия

Рис. 2 и 3 дают картину тенденций в изменении температурного и влагосодержащего в атмосфере режимов на территории Каракалпакстана за последнее тридцатилетие (1991-2020 годы) относительно предыдущего (1961-1990 годы). Отмечается однонаправленный положительный тренд температуры на всей исследуемой территории.




Рис. 3. То же, что на рис.2, но для осадков

Тренд средней аномалии среднегодовой температуры по территории Каракалпакстана превосходит таковой для глобальной температуры на  $1,3^\circ\text{C}$  (рис. 4). При этом до 1987 г. различие в углах наклона тренда – полином 2-ой степени, было незначительным, далее угол наклона между ними достигает  $25,8^\circ$  (рис. 4), т.е. различие в тенденции роста температуры становится значительным.




Рис. 4. Глобальный [BrownD., CabbageM., McCarthyL., NortonK., 2016] и региональный (Каракалпакстан) тренды аномалий среднегодовой температуры приземного воздуха

Иная картина наблюдается в отношении осадков: здесь в их тренде нет однонаправленного изменения, а именно, станции Кунград и Муйнак показывают уменьшение среднегодовых осадков (на рис. знак «-»), остальные станции – увеличение (знак «+») (рис. 3б).

Наглядно динамика аномалии среднегодовой температуры приземного воздуха и осадков на территории Каракалпакстана представлена на рис. 5, где приведена картина географического распределения разностей норм  $\Delta f = \bar{f}_{1991-2020} - \bar{f}_{1961-1991}$ , вычисленных по двум выборкам. В целом представленные распределения находятся в соответствие с наблюдаемыми климатическими изменениями, касаемо усиления континентальности климата в регионе, [Арушанов М.Л., Тлеумуратова Б.С., 2012, Арушанов М.Л., Шардакова Л. Ю., 2020, Духовный В. А., Стулина Г. В., 2017], как следствие усыхания Аральского моря на фоне глобального потепления: увеличение среднегодовой температуры и уменьшение осадков. Однако в динамике осадков за последнее тридцатилетие имеются особенности, связанные с их увеличением относительно предыдущего тридцатилетия в направлении юго-восток – северо-запад при максимальном их уменьшении в области высохшей части Аральского моря (с минимумом в Муйнаке) и области г. Нукуса (рис. 5б).




Рис. 5. Географическое распределение разностей среднегодовых норм  $\Delta f = \bar{f}_{1991-2020} - \bar{f}_{1961-1991}$  температуры (а) и осадков (б), вычисленных по двум выборкам

Если уменьшение среднегодовых осадков на выше отмеченных территориях объясняется усыханием Аральского моря, то их увеличение в направлении с юго-востока на северо-запад на территории Каракалпакстана находится в противоречии с усиливающейся континентальностью региона и требует специального исследования.




Рис. 6. Глобальные аномалии температуры за последнее тридцатилетие по сравнению с уровнем 1951–1980 гг. [Статистика изменения климата, 2016].

**Заключение.** Выполненный анализ временных рядов температуры приземного воздуха и осадков по шести станциям, расположенных на территории Каракалпакстана, показал следующее:

1. За последнее тридцатилетие, в соответствии с глобальным положительным трендом температуры, на всей территории Каракалпакстана также отмечается её положительный тренд. Однако, если до 1987 года угол наклона между прямыми двух трендов температуры был незначительным, то начиная с 1987 года скорость роста температуры на территории Каракалпакстана значительно превосходит таковую глобальной температуры: разница в амплитудах тренда глобальной и

региональной температур составляет 1,3 °C за 30 лет (угол между прямыми двух трендов равен 28,5°). Указанное отличие находится в соответствии с выполненными исследованиями [Изменение климата и безопасность, 2018, Арушанов М. Л., Тлеумуратова Б. С., 2012, Brown D., Cabbage M., McCarthy L., Norton K., 2016, Climatechange, 2019], согласно которым увеличение температуры происходит неравномерно в разных частях планеты (рис. 6), а это усиливает нестабильность климата. Последнее приводит к увеличению погодных аномалий и связанных с ними стихийных бедствий (штормов, ураганов, наводнений, засух и т.д.), что подтверждается наблюдаемыми данными и их статистическим анализом [Статистика изменения климата, 2016]. Как следует из рис. 6 современное потепление наиболее заметно над континентами, особенно в средних и северных широтах.

2. Динамика осадков на территории Каракалпакстана за последнее тридцатилетие неоднозначна. Согласно усилению континентальности климата вследствие усыхания Аральского моря, отмечаются достаточно обширные области (в окрестностях городов Муйнака и Нукуса) с уменьшением среднегодовых осадков, в то же время, в направлении от юго-восточной части территории к северо-западной наблюдается тенденция к увеличению среднегодовых осадков. Данный факт не укладывается в рамках тенденции усиления континентальности на территории Каракалпакстана и требует объяснений на основе специально проведенных исследований.

#### СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Арушанов М. Л., Тлеумуратова Б. С. Динамика экологических процессов Южного Приаралья. – Hamburg: Palmarium Academic Publishing, 2012. – 189с.
2. Арушанов М.Л., Шардакова Л.Ю. Климатический Атлас-справочник чрезвычайных природных процессов. – Ташкент: 2020. – 270 с.
3. Духовный В. А., Стулина Г. В. Глобальные изменения климата и водные ресурсы бассейна Аральского моря // Проблемы освоения пустынь, №3-4. – 2017. – С. 75-78.
4. Изменение климата и безопасность в Центральной Азии. Региональная оценка. – Электронный ресурс: [https://zoinet.org/wp-content/uploads/2018/02/climsec\\_CA\\_report\\_RU.pdf](https://zoinet.org/wp-content/uploads/2018/02/climsec_CA_report_RU.pdf)
5. Сакиев К.З., Мухаметжанова З.Т., Шадетова А.Ж., и др. Основные тенденции изменения климата Приаралья, Гигиена труда и медицинская экология. №3 (48), 2015. – 56 с.
6. Статистика изменения климата // Организация Объединённых Наций. Доклад Генерального секретаря. – 2016. С. 2-14.
7. Brown D., Cabbage M., McCarthy L., Norton K. NASA, NOAA analyses reveal recordshattering global warm temperatures in 2015. // NASA, 20 January. – 2016. – P. 12-24.
8. Climate change – Электронный ресурс: En.Wikipedia. – 2019.

УДК: 664.8.03+664.854

### ВЛИЯНИЕ СПОСОБА СУШКИ НА ПОКАЗАТЕЛИ КАЧЕСТВА СУШЕНЫХ ОВОЩЕЙ

*Д.З. Каримова, ассистент, Ургенчский государственный университет, Ургенч*

*У.И. Акрамов, к/с.х.н., доцент, Ташкентский государственный аграрный университет, Ташкент*

**Annotatsiya.** *Ushbu ilmiy maqola O'zbekiston hududida rayonlashtirilgan sabzavot ekinlaridan quritilgan mahsulot ishlab chiqarish texnologiyasini ishlab chiqishga bag'ishlangan bo'lib, u asl o'simlik materialining mikronutrientlarini maksimal darajada saqlab qolish va yuqori organoleptik xususiyatlarga ega xavfsiz mahsulot olish imkonini beradi, aholining barcha yosh guruhlari uchun foydali bo'lgan oziqaviy qiymati oshdi.*

**Kalit so'zlar:** *sabzavotlar, qiymat, quritilgan mahsulotlar, texnologiya, mahsulotlar, saqlash*

**Аннотация.** *Данная научная статья посвящена разработке технологии производства, сушеного продукции из овощных культур, районированных на территории Узбекистане, которая позволяет максимально сохранить микронутриенты исходного растительного сырья и получить безопасный продукт с высокими органолептическими свойствами, повышенной пищевой ценностью, полезный для всех возрастных групп населения.*

**Ключевые слова:** *овощи, ценность, сушеная продукция, технология, продукция, хранения*

**Abstract.** *This scientific article is devoted to the development of a technology for the production of dried products from vegetable crops zoned on the territory of Uzbekistan, which allows you to maximize the preservation of micronutrients of the original plant material and obtain a safe product with high organoleptic properties, increased nutritional value, useful for all age groups of the population.*

**Keywords:** *vegetables, value, dried products, technology, products, storage*

**Введение.** Современный рынок продовольственных товаров характеризуется внешней многоплановостью и разнообразием. Товарные группы представлены широко, а каждая группа отличается многочисленными ассортиментными наименованиями по насыщенности и глубине. Совершенствование элементов стайлинга стоит на первом месте для торговых представителей, реализующих товар розничному потребителю. Упаковка большинства товаров привлекает различные сегменты потребителей. Она яркая, изобилует много численными рекламными призывами в виде

тешащих душу слоганов и побуждает совершать покупки. Обратите внимание: растительное масло «безхолестерина», где его и в помине не должно быть, пастеризованное пиво почему-то называют «живым», водка предназначена «для души», сок обязательно «100%-ный» [1, 2].

Результаты анализа патентных данных ведущих зарубежных фирм (США, Великобритания, Германия, Франция, Финляндия, Канада, Швеция, Япония и др.) показывают научно-технический прогресс в пищевых и перерабатывающих отраслях осуществляется по двум основным направлениям: совершенствование производства пищевой продукции на базе традиционных принципов и радикальное изменение производственных процессов на основе применения последних достижений науки и техники [3, 5, 6].

За рубежом часто прибегают к обработке пищевых продуктов инфракрасными лучами. С использованием ИК-облучения сушат чайный лист, производят хлебные и кондитерские изделия, ускоряют необходимое по технологии созревание, например, мясного фарша и напитков (Япония), применяют световые импульсы для предохранения пищевых продуктов от порчи (США) и т.д. [4, 7, 8].

А также, за рубежом большое внимание уделяют вопросам хранения сырья и пищевых продуктов также с помощью других способов и приемов. Для этого сырье и пищевые продукты подвергают обработке естественными бактерицидными средствами, химическими консервантами и воздействию тепловых, центробежных силовых импульсных полей, ультрафиолетовых лучей, облучению, бактериологических ферментов, проводят исследования по хранению сырья и пищевых продуктов в регулируемой газовой среде [5, 6].

Кроме того, сушильные технологии также претерпевают изменения. Все большее применение находят кратковременные технологические процессы сушки с применением щадящих режимов для максимального сохранения физиологически ценных для организма веществ - витаминов, растворимых в воде углеводов, минеральных веществ и быстрого удаления влаги для увеличения сроков хранения. В наш насыщенный событиями век, век космических скоростей и калейдоскопа мгновений нужны будут также продукты быстрого приготовления и поэтому найдут свое место в рационе питания человека нового столетия сушеные продукты, останавливающиеся в течение считанных минут [1].

Однако в Узбекистане стоит вопросы определены, наиболее пригодные сорта столовой моркови и свеклы, лука репчатого среди районированных сортов для сушки, влияния различных способов и продолжительности нагрева на качество сушеной продукции, а также влияния формы нарезки сырья и бланширования на качество готовой продукции.

**Результаты исследования.** Результаты проведенных исследований показали, что анализ изменения массовой доли влаги в образцах моркови, свеклы и лука показывает, что до массовой доли влаги, соответствующей требованиям стандарта (не более 14,0%), продукт высушивается уже в течение 2,5 часов (с применением микроволнового нагрева и при совмещении микро волнового и конвективного способов сушки) и в течение 5,0 часов (при конвективном нагреве). Очевидно, что два первых способа нагрева не конкуренции, но оптимальным следует признать совмещенный способ сушки, после применения, которого в продуктах остается меньше влаги (в моркови – 12,75%, в свекле – 11,58%, в луке репчатом – 11,47%).

В процессе сушки образцов овощей с ростом концентрации сухих веществ растет массовая концентрация аскорбиновой кислоты. Из данных графиков, очевидно, что для каждого способа сушки имеются временные рубежи, по истечении которых заканчивается рост концентрации витамина С (а также, как покажут последующие описания результатов исследований, и каротина в моркови и сахаров). Для микроволновой и совмещенной сушки – это 2,5 часа, для конвективной – 5,0 часов. При их превышении содержание аскорбиновой кислоты снижается. Это можно объяснить тем, что после прохождения этих временных рубежей продукт «пересушивается». Он становится хрупким, каркас частиц дает микротрещины. При этом увеличивается поверхность соприкосновения продукта с кислородом воздуха, и окислительные реакции приводят к количественной потере ценных компонентов.

Анализ графиков показывает, что наибольшее содержание витамина С наблюдается в образцах сушеный овощей, полученных с использованием одновременного совмещения конвективного и микроволнового способов сушки по истечении 2,5 часов сушильного процесса (в моркови – 23,0 мг%, в свекле – 34,75 мг% и в луке репчатом – 39,35 мг%).

Высокую концентрацию витамина С можно объяснить коротким периодом сушки и ранним образованием поверхностного каркаса частиц (по сравнению с микроволновым нагревом), который уменьшает потери аскорбиновой кислоты.

Для того, чтобы определить потери витамина С в процессе сушки образцов овощных культур различными способами предлагается рассмотреть динамику изменений количественных показателей содержания аскорбиновой кислоты в сухом веществе. Что наименьшие потери витамина С наблюдаются в образцах сушеных овощей, полученных после использования совмещенного способа сушки, который позволяет уменьшить потери витамина С в процессе сушки по сравнению с использованием

конвективного способа по всем овощным культурам в среднем на 62,3% и по сравнению с использованием микроволнового способа на 36,0%.

Поскольку каротин является провитамином А, характер его изменений в процессе сушки, по сравнению с характером изменений витамина С, несколько иной.

Окислительные и гидролитические процессы способствуют его разрушению в меньшей степени, но так или иначе каротин концентрируется в большей степени в продукте, полученном с применением совмещенного способа сушки.

Максимальное содержание каротина наблюдается по истечении 2,5 часов сушильного процесса и составляет 33,60 мг%.

Наименьшие потери каротина в процессе сушки моркови фиксируются в образцах, полученных в результате применения совмещенного способа нагрева, позволяющего снизить потери каротина в моркови в процессе сушки по сравнению с применением конвективного способа в среднем на 16,0% и по сравнению с применением микроволнового способа на 8,3%.

Результаты исследований подтверждают, что потери Сахаров во время сушки связаны как с ферментативными, так и с не ферментативными реакциями. В частности такие реакции как меланоидинообразование и карамелизация Сахаров уменьшает их массовую долю. В образцах сушеных овощей на и высшая концентрация Сахаров наблюдается по истечении 2,5 часов сушки с применением совмещенного способа нагрева и составляет: в моркови – 48,80%, в свекле – 52,01%, в луке репчатом – 46,57%

**Выводы.** Таким образом, использования совмещенных способ нагрева в процессе сушки позволяют уменьшить потери витамина С по сравнению с конвективным способом по всем овощным культурам в среднем на 62,3% и по сравнению с микроволновым способом на 36,0%; -снизить потери каротина в моркови по сравнению с конвективным способом в среднем на 16,0% и по сравнению с микроволновым способом на 8,3%; сократить потери Сахаров по сравнению с конвективным способом по всем овощным культурам в среднем на 83,9% и по сравнению с микроволновым способом на 75,6%.

#### СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Гинзбург А.С. Основы техники сушки пищевых продуктов. – М.: Пищевая промышленность, 1973. – 538 с.
2. Джураев Х.Ф., Абдурахмонов О.Р., Усмонов А.У. Сушка ИК-лучами // Пищевая промышленность. 1998. - № 8. – С. 11.
3. Юсупова Г.Г., Зданович Ю.И., Черкасова Э.И. Применение энергии СВЧ-поля для обеспечения безопасности и улучшения качества продуктов растительного происхождения // Хранение и переработка сельскохозсырья, 2005. - № 7. – С. 10-11.
4. Явчуновская С.В. Повышение качества сушки плодоовощной продукции малой и средней влажности за счет создания и использования электрических конвейерных установок микроволновой сушки: Дисс.... канд. техн. наук. – Саратов, 1998. – 234 с.
5. Ahmad Khan, Smalley I.J. Observation of particle segregation in vibrated granular systems // Powder Technol. 1973. Vol.8. N. 1-2. P. 69-75.
6. Anderson R.E., Hardenburg R.E. Results and recommendations on controlled modified atmosphere storage and transport of stone fruits // Mich. State Univ. Hort. Rpt-1997. 28. P. 235-241.
7. Nagomov S.A., Serebrennikov G.G. Fluidized bed heat exchange with a submerged heated surface // Heat Transfer Sov. Rec. 1986. Vol.18. №2. P.81-84.
8. Reynold L., Rothmair W. Freeze Drying and Advanced Food Technology. Academic Press, 1975.

**PERSONAL MALAKASINI OSHIRISH ASOSLARI**  
*M.G'. Abdullayev, o'qituvchi, Andijon davlat universiteti, Andijon*

**Annotatsiya.** Kasbiy rivojlanish personalning o'zlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, chunki ular yangi ko'nikma va bilimlarga ega bo'lish orqali mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lib, bu narsa kasbiy o'sish uchun yanada istiqbolli hisoblanadi. Kasbiy tayyorgarlik xodimlarning intellektual rivojlanishiga qaratilgan bo'lib, bu holat ularning o'ziga bo'lgan ishonchni rivojlantiradi. Personalning kasbiy malakasini oshirishning ahamiyati yildan-yilga ortib bormoqda. Maqolada berilgan xulosalardan amalda foydalanish personalning tayyorgarligini nazorat qilish va keyingi davrlar uchun xarajatlarni to'g'ri taqsimlash imkonini beradi.

**Kalit so'zlar:** personal, kasbiy rivojlanish, kasbiy ta'lim, personalni o'qitish, instruktaj, rotatsiya, shogirdlik va murabbiylik.

**Аннотация.** Профессиональное развитие положительно влияет на самих сотрудников, поскольку они становятся более конкурентоспособными на рынке труда за счет приобретения новых навыков и знаний, что является более перспективным для профессионального роста. Профессиональное обучение направлено на интеллектуальное развитие сотрудников, что, в свою очередь, укрепляет их уверенность в себе. Важность профессионального развития сотрудников растет из года в год. Практическое применение приведенных в статье выводов позволит контролировать обучение персонала и правильно распределять затраты на последующие периоды.

**Ключевые слова:** персонал, профессиональное развитие, профессиональная подготовка, обучение персонала, инструктаж, ротация, ученичество и коучинг.

**Abstract.** Professional development has a positive effect on the employees themselves, as they become more competitive in the labor market through the acquisition of new skills and knowledge, which is more promising for professional growth. Professional training is aimed at the intellectual development of employees, which, in turn, strengthens their self-confidence. The importance of the professional development of employees is growing from year to year. The practical application of the conclusions given in the article will allow you to control the training of personnel and correctly distribute costs for subsequent periods.

**Key words:** personnel, professional development, professional training, personnel training, training, rotation, apprenticeship and coaching.

Kasbiy rivojlanish personalning o'zlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, chunki ular yangi ko'nikma va bilimlarga ega bo'lish orqali mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lib, bu narsa kasbiy o'sish uchun yanada istiqbolli hisoblanadi. Kasbiy tayyorgarlik xodimlarning intellektual rivojlanishiga qaratilgan bo'lib, bu holat ularning o'ziga bo'lgan ishonchni rivojlantiradi. Xodimlar o'z kompaniyasida kasbiy ta'lim olish imkoniyati mavjudligini juda qadrlashadi. Bu, ko'pincha, ma'lum bir korxonaga ishga joylashish uchun qaror qabul qilishda hal qiluvchi omil bo'ladi [1].

Agar biz kasbiy ta'limni tizim sifatida ko'rib chiqsak, uni ikki bosqichga bo'lish mumkin:

- birinchisi, kasbiy tayyorgarlik;

- ikkinchisi, xodimlar tomonidan olingan ko'nikmalarni qo'llash uchun qilingan barcha keyingi harakatlar majmui.

Ko'zlangan maqsadga qarab, ilgari olingan malakalar saqlanib qolishi va o'zgargan muhitga mos kelishi yoki professional yuksalish uchun ishlatilishi kerak. Personalni rivojlantirishga bunday yondashuv uzluksiz ta'lim konsepsiyasiga mos keladi. Bu kadrlar kasbiy tayyorgarligini bosqichma-bosqich tashkil etish tamoyiliga asoslanadi. Ayni paytda xodimlarni qayta tayyorlashning aniq muddatlari belgilanmagan. Taxminiy hisob-kitob o'rtacha faoliyat muddati 40-45 yil bo'lsa, malakali xodim 4-5 marta qayta tayyorlashdan o'tishi va shunga mos ravishda malakasini oshirishi kerak [6].

Ilmiy-texnika taraqqiyotining yuqori sur'atlari va uslubiy bazaning uzluksiz rivojlanishi (3-5 yilda bir marta) asosida har bir xodim 4-5 yilda ikki marta kasbiy qayta tayyorlash kurslaridan o'tishi kerak.

Shu bois ham personalning kasbiy malakasini oshirishning ahamiyati yildan-yilga ortib bormoqda. Mehnat nafaqat amaliy faoliyat davrlarini, balki ishning yangi usullari va usullariga nazariy tayyorgarlikni, nazariy davrlarni ham o'z ichiga oladi. Mehnat va uzluksiz ta'lim toborabir-biridan ajralmas bo'lib bormoqda.

Kasbiy tayyorgarlik, kasb bo'yicha ishlash va malaka oshirish har doim ikkita elementni o'z ichiga oladi: o'rganish elementi va qo'llash elementi.

Kasbiy ta'lim – ta'lim oluvchilarning mehnat va xizmat faoliyatining ayrim turlarini bajarish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga qaratilgan ta'lim turidir.

Ta'lim predmeti bo'lib: bilim - xodimga o'z mehnat vazifalarini bajarishi uchun zarur bo'lgan nazariy, uslubiy va amaliy ko'nikmalarni olishi; qobiliyatlar - xodimning ma'lum bir ish joyida o'ziga yuklangan vazifalarni bajarish qobiliyati; ko'nikmalar - olingan bilimlarni ish jarayonida qo'llash qobiliyati; muloqot usullari

(xulq-atvori) - xodimning muloqot qobiliyatlari darajasi, berilgan ish joyiga xos bo'lgan xatti-harakatlarning shakllanishi, jamoada ishlash qobiliyati. Ta'lim va kasbiy tayyorgarlik bir jarayonning ikki tomonidir [7].

O'rganish jarayonida inson aql-zakovatini rivojlantiradi, ma'lum jarayonlarni tahlil qilish qobiliyatini oshiradi va mashg'ulotlar bevosita bajariladigan vazifalar bilan bog'liq bo'lgan ko'nikma va bilimlarni egallashga qaratilgan.

Kasbiy tayyorgarlik har doim personalning ta'limga bo'lgan ehtiyojlarini baholashdan boshlanadi. Buning uchun xodimni o'qitish va unga qo'yiladigan talablarga muvofiqligini aniqlash kerak bo'ladi. Tahlildan so'ng xodimni o'qitish rejasi tuziladi, o'quv maqsadlari va uni yakunlash natijalarini baholash mezonlari shakllantiriladi.

Personalni o'qitish zarurati kadrlar bo'limi, xodimning o'zi va tashkilot rahbarining birgalikdagi tahlili natijasidir [3].

Kasbiy ta'limga bo'lgan ehtiyojni aniqlovchi manbalar:

- ✓ attestatsiya natijalari;
- ✓ individual rivojlanish rejasi;
- ✓ xodimning o'z arizasi va xohishi;
- ✓ tashkilotning rivojlanish tendentsiyasi.

Keyingi bosqich - o'quv dasturlarini tayyorlash. O'quv dasturini yaratish ham tashkilot, ham maxsus kompaniyalar tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

O'quv dasturini tuzish tartibi mashg'ulotlarga yondashuvga qarab shakllantiriladi. Bu tartib 1-jadvalda keltirilgan bo'lib, u proaktiv yoki reaktiv bo'lishi mumkin.

Personalni samarali tayyorlash ta'lim jarayonini tizimli tayyorlashga bog'liq. Ta'limga proaktiv va reaktiv yondashuvlar tashkilot personalining malakasini oshirish uchun tadbiri uzoq muddatli va qisqa muddatli (operativ) rejalashtirishga mos keladi.

1-jadval.

Tashkilot personalini o'qitish modellari

O'qitish modellari	O'qitish modellarning xususiyatlari
Reaktiv	Qandaydir muammo bor va mashg'ulotning maqsadi uni tuzatishdir
Proaktiv	Korxonaning strategiyasiga muvofiq ravishda doimiy tizimli qiyinchiliklarning oldi olinadi

Uzoq muddatli rejalashtirishda uzluksiz ta'lim tartiblari paydo bo'ladigan muammolarni yoki kelajakdagi ehtiyojlarni oldindan ko'ra oladigan tizimni ishlab chiqadi. Qisqa muddatli darajada rejalashtirish bir yildan ortiq bo'lmagan muddatga amalga oshiriladi. Bunda malaka oshirish dasturlariga bo'lgan talabni qondirishga qaratilgan muammolarni hal etishga, kadrlar tayyorlashning shakl va usullarini to'g'ri tanlashga alohida e'tibor qaratiladi [8].

Kadrlar tayyorlashga qancha pul sarflash kerakligini aniqlash uchun byudjetlashtirish amalga oshiriladi. Kerakli resurslarning mavjudligi baholanadi, ularni taqsimlashning ustuvor yo'nalishlari belgilanadi. Kasbiy ta'limni byudjetlashtirish jarayonida kadrlar kasbiy tayyorgarligi statistikasi tahlil qilinadi. Statistik ma'lumotlar tahlili quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

- kasbiy ta'limni tugatgan tashkilot xodimlarining umumiy o'rtacha xodimlar soniga nisbati (xodimning o'rtacha malakasini oshirish chastotasini tavsiflaydi);
- kasbiy ta'limga sarflangan soatlarning tashkilot vaqtining umumiy balansidagi nisbati (tashkilotdagi kasbiy ta'lim dasturining ko'lamini haqida tushuncha beradi);
- bitta xodimning kasbiy tayyorgarligiga sarflangan soatlar soni (xodimlarni o'qitish ko'lamini haqida umumiy tasavvur beradi);
- kasbiy ta'lim bilan bog'liq xarajatlar miqdori (uch komponentning yig'indisi: to'g'ridan-to'g'ri xarajatlar, bilvosita xarajatlar va yo'qolgan mahsuldorlik - o'qitilgan ishchi, hatto ish joyidan ajralmagan holda ham unumli emas deb hisoblanadi);
- sotish hajmidagi xarajatlar ulushi (sotilgan mahsulotning qaysi qismi o'qitishga sarflanganligini aks ettiradi);
- kasbiy tayyorgarlikning bir soatlik xarajatlari (umumiy xarajatlar va mashg'ulotlarga sarflangan soatlar nisbati sifatida hisoblanadi). Ushbu ko'rsatkich o'quv xarajatlarning samaradorligini baholash va tashkilotning kelgusi yil uchun byudjetini rejalashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Yuqoridagi ko'rsatkichlar o'qitishga sarflangan mablag'larning samaradorligini baholash, raqobatchilar bilan solishtirganda xodimlarning tayyorgarligini nazorat qilish va keyingi davrlar uchun xarajatlarni to'g'ri taqsimlash imkonini beradi.

Kasbiy ta'lim jarayonining yakuniy bosqichi - bu kadrlar tayyorlash va malaka oshirish samaradorligini baholash. Har bir dasturning samaradorligini baholash ancha murakkab, chunki uning butun tashkilot faoliyatiga ta'sirini aniqlash har doim ham mumkin emas [9].

Personalni o'qitish turlari, shakllari va usullari.

Personalni o'qitishning ikkita usuli mavjud: ishdan ajralmagan holda ish joyida o'qitish va ixtisoslashtirilgan muassasalarda, o'quv markazlarida kadrlarni o'qitish.

Birinchi ta'lim usuli xodimning ish joyida qo'yilgan aniq maqsaddan boshlanadi.

Tashkilotlar ushbu usuldan quyidagi sabablarga ko'ra o'qitish uchun foydalanadilar:



- korxonaning korporativ xususiyatlarini hisobga olish;
- sezilarli darajada pul mablag'lari tejaladi;
- korporativ sirlar saqlanadi.

2-jadval.

**Personalni ish joyida o'qitish usullari**

O'qitish usuli	Usulning xususiyatlari
Tajribani egallashga yo'naltirilgan	Korxonada personalni o'qitish yillik rejasini tayyorlash, rejani tuzish uchun asos bo'lib, xodimni individual o'qitish rejasini hisoblanadi (unda o'tkazilayotgan tayyorgarlikning asosiy maqsadlari ko'rsatiladi)
Ishlab chiqarish yo'riqnomasi	Xodimning ish joyining umumiy tavsifi, bajariladigan ishlarning xususiyatlari, mutaxassislik bilan tanishish, moslashish
Ish joyini o'zgartirish	Ish joyini muntazam ravishda o'zgartirish bilan bilim olish va tajriba to'plash. Natijada, qisqa vaqt ichida xodim korxonada va ishlab chiqarish vazifalarining ko'p qirraliligi haqida tasavvurga ega bo'ladi
Ishchilardan yordamchi, stajyor sifatida foydalanish	Muayyan mas'uliyat ulushini o'z zimmasiga olgan holda xodimlarni yuqori, o'rta darajadagi vazifalarning murakkabligi bilan tanishtirish
Loyiha jamoalarida tayyorgarlik	Ta'lim maqsadlarida, cheklangan vaqt oralig'ida murakkab vazifalarni bajarish uchun tashkilotda yaratilgan loyiha jamoasida amalga oshiriladigan hamkorlik

Ushbu usul quyidagi cheklovlarga ega:

- tashkilot ichida kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish manbalarining yetishmasligi;
- chetdan intellektual investitsiyalarni jalb qilmasdan turib, yangi mahsulotlarni yaratish va ilgari surish mumkin emas;

- o'qitish modellarini doimiy ravishda takrorlash hisobiga xodimlarni o'qitish ishlarini bixillashtirishga olib keladi;

- auditoriyaning cheklanganligi, ularni tayyorlash ichki resurslar hisobiga amalga oshirilishi mumkin.

Nazariy bilimlarning yaxshi zaxirasiga ega bo'lgan holda, ish joyida o'qitish ixtisoslashgan muassasaga qaraganda afzalroqdir, chunki u ishlab chiqarish jarayonini to'xtatmaslikka imkon beradi, kamroq xarajatlarni talab qiladi va amaliyot bilan uyg'unlashadi. Ammo bu turdagi treninglar ijtimoiy mavqei va shaxsiy fazilatlarini bo'yicha stajyorlarga yaqin bo'lgan yaxshi o'qituvchilarni talab qiladi. Ish joyida kadrlarni tayyorlashning asosiy usullari quyidagilardan iborat:

- instruktaj - tajribali xodim tomonidan yangi boshlanuvchiga ish usullarini tushuntirish va ko'rsatish. Instruktaj vaqt bo'yicha cheklangan va ta'lim oluvchi mas'uliyatining bir qismi bo'lgan muayyan operatsiyalar yoki protseduralarni o'rganish uchun zarurdir. Instruktaj qimmat emas, oddiy ish turlari uchun samarali. Lekin zamonaviy mehnatni tashkil etishning barcha darajalarida qo'llaniladi;

- rotatsiya - bu xodimlarni o'qitish usuli bo'lib, u yangi mehnat ko'nikmalarini egallash uchun xodimning turli lavozimlarda, ham o'z bo'limida, ham boshqa bo'limda ishlash ketma-ketligini nazarda tutadi. Rotatsiya xodimga ko'p tomonlama malakaga, tashkilotdagi muammolarga ko'p qirrali qarashga muhtoj bo'lgan hollarda qo'llaniladi. Ushbu usulning kamchiliklari bor: unumdorlikning vaqtincha pasayishi tufayli yuqori xarajatlar paydo bo'ladi.

- shogirdlik va murabbiylik - bilim va ko'nikmalarni o'qituvchidan (tajribali ishchi) yangi ishga qabul qilingan xodimga o'tkazish usuli. Mutaxassisni (tibbiyot, xizmat ko'rsatish sohasi, menejment) tayyorlashda amaliy tajriba va ish ko'nikmalari muhim rol o'ynasa, usul maqbuldir. O'rganuvchi instruktorning qanday ishlashini kuzatmasligi kerak, balki mustaqil ravishda kerakli operatsiyalarni bajarishi kerak. O'qitishning mohiyati tashqaridan kuzatuvchi va faoliyatni to'g'rilaydigan murabbiydan maslahat olishdir. Bu usul ko'p vaqt talab etadi [5].

Yuqoridagi ta'lim usullarining afzalliklari va kamchiliklarini ko'rib chiqib, quyidagi xulosaga kelishimiz mumkin: agar ko'plab xodimlar malaka oshirishdan o'tishlari kerak bo'lsa va buning uchun treningni o'tkazish uchun zarur vositalar va o'qituvchilar mavjud bo'lsa, ish joyida o'qitish iqtisodiy jihatdan samarali hisoblanadi. Ammo shu bilan birga, ishtirokchilarni doimiy ravishda mashg'ulotlardan to'xtatib turish, ularni joriy vazifalarni bajarishga jalb qilish mumkin [10].

Ishdan tashqari mashg'ulotlarda tinglovchilar boshqa korxonalar xodimlari bilan muammolarni hal qilishda ma'lumot, tajriba almashish imkoniyatiga ega, ammo bu o'qitish usuli har doim ham korxonada ehtiyojlariga aniq mos kelmaydi. Shuning uchun o'qitish usulini tanlash mashg'ulotning maqsadi bilan belgilanadi va muayyan vaziyatga va tashkilotning imkoniyatlariga bog'liq.

Ish joyidan tashqarida amalga oshiriladigan o'qitishning bir necha turlari mavjud:

- Ma'ruzalar tinglash;
- Konkret sharoitni o'rganish – real yoki shakllantirilgan muammoni uni hal etish yo'llari, usullari va variantlari bilan birgalikda tahlil qilish;
- Trening – har kunlik ishda qo'llash uchun va amaliy ko'nikmalar hosil qilish uchun real holatlarni modellashtirish;
- Rolli o'yinlar – personalni ularga berilgan rollar orqali o'qitish;

- Komp'yuter dasturlaridan foydalangan holda o'qitish. Afzalliklari: mashg'ulotlarni tajribali ekspertlar olib boradi, zamonaviy jihozlar va axborotlardan foydalaniladi. Kamchiliklari: bu usul anchagina qimmat turadi, kurslar amaliyotdan ajralgan bo'ladi va o'zida juda ko'p nazariy ma'lumtlarni saqlaydi, xodim ishdan bo'sh vaqtda ta'lim olishga tayyor bo'lmasligi mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mexnat iqtisodiyeti: /Darslik. K. Abdurahmonovning umumiy taхрири ostida, - Toshkent. „Ўqituvchi“, 2019.
2. Нарзикулов Н. Р., Муртазаев Б. Ч, Бакиева А. И. Инсон ресурслари иқтисодиёти. ТДИУ, 2015.
3. Управление персоналом организации: Учебник / Под ред. А. Я. Кибанова. - Москва. ИНФРА-М, 2017.
4. Управление персоналом: Учебник / Под ред. Базарова Т. Ю., Еремина Б. Л. - Москва. ЮНИТИ, 2017.
5. Макарова И. К. Управление персоналом: Схемы и комментарии. Москва. “Юриспруденция”, 2012.
6. Основы управления персоналом организации: Учебное пособие / Под ред. К. Х. Абдурахманова. — Toshkent. ТГЭУ, 2018.
7. Управление персоналом. (Под ред. С. И. Самыгина). Серия “Учебники, учебные пособия” — Ростов н/Д: „Феникс“, 2016.
8. Управление персоналом организации: Учебное пособие. / В. Федосеев, С. Н. Капустин. — Москва. 2017.
9. Шекшня С. В. Управление персоналом современной организации. Учеб. пособие. Изд. 5-е, Москва М.: ЗАО “Бизнес-школа” “Интел-Синтез”, 2012.
10. Цыпкин Ю. А. Управление персоналом: Учеб. пособие для вузов. - Москва. ЮНИТИ-ДАНА, 2014.
11. Одегов Ю. Г. и др. Управление персоналом. Практикум: конкретные ситуации. / Под ред. М. Н. Кулапова - Москва М.: “Экзамен”, 2013.

#### UO'K 33

#### ZAMONAVIY BULUTLI TEXNOLOGIYALAR

*E.F. Jomonqulova, t.f.n., Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Samarqand*  
*M.Q. Nizomov, talaba, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Samarqand*

**Annotatsiya.** Bu maqolada doirasida: taqsimlangan ma'lumotlarni qayta ishlash, bulutli hisoblash, "bulut" ma'lumotlar, o'z-o'zini o'rganish uchun materiallar ro'yxati tushunchalari muhokama qilinadi. Bulutli hisoblashni ko'rib chiqish uchun oldin, taqsimlangan ma'lumotlarni qayta ishlash usulini bilib olish zarur. Taqsimlangan ma'lumotlarni qayta ishlash - dastur tizimlari guruhini ifodalaydi. Shunday qilib, foydalanuvchi aslida bir necha o'zaro bog'liq tizimlar joylashgan amaliy jarayonlar bilan ishlash mumkinligi haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Grid, Cloud, Uzcloud, Axborot xavfsizligi, Axborotning himoyasi, Xavfsizlik siyosati, Login, Parol, Avtorizatsiya, Virus, Antivirus, Xavfsizlik, Maxsus dastur, Shifrlash, Kodlash, Himoyalash, Virus turlari, Antivirus dasturlari, Xakerlar, Krekerlar, Tashkil qilingan aytoqchilik.

**Аннотация.** В этой статье обсуждаются понятия: распределенная обработка данных, облачные вычисления, «облачные» данные и список материалов для самостоятельного изучения. Чтобы рассмотреть облачные вычисления, вам сначала нужно знать, как обрабатывать распределенные данные. Распределенная обработка данных - представляет группу прикладных систем. Таким образом, говорится, что пользователь действительно может работать с приложениями, имеющими несколько взаимосвязанных систем.

**Ключевые слова:** Сетка, Облако, Uzcloud, Информационная безопасность, Защита информации, Политика безопасности, Логин, Пароль, Авторизация, Вирус, Антивирус, Безопасность, Специальное программное обеспечение, Шифрование, Кодирование, Защита, Типы вирусов, Антивирусное ПО, Хакеры, Взломщики, Организованное шпионское ПО.

**Abstract.** This article discusses the concepts of: distributed data processing, cloud computing, "cloud" data, and a list of materials for self-study. To consider cloud computing, you first need to know how to process distributed data. Distributed Data Processing - Represents a group of application systems. Thus, it is said that the user can actually work with applications that have several interconnected systems.

**Key words:** Grid, Cloud, Uzcloud, Information Security, Information Protection, Security Policy, Login, Password, Authorization, Virus, Antivirus, Security, Custom Software, Encryption, Encoding, Protection, Virus Types, Antivirus Software, Hackers, Crackers, Organized Spyware.

**Bulutli texnologiyalar** - bu internet-foydalanuvchilarga internet xizmati sifatida kompyuter resurslari taqdim etiladigan ma'lumotlarni qayta ishlash texnologiyalari. "Bulut" so'zi bu erda barcha texnik tafsilotlarni yashiradigan murakkab infratuzilmani ifodalovchi metafora sifatida mavjud.

Foydalanuvchi o'z ma'lumotlariga kirish huquqiga ega, ammo uni boshqarolmaydi va infratuzilma, operatsion tizim va o'zi ishlayotgan dasturiy ta'minot haqida qayg'urmasligi kerak. "Bulut" atamasi kompyuter tarmog'i diagrammasidagi Internet tasviriga asoslangan metafora sifatida yoki barcha texnik tafsilotlar yashiringan murakkab infratuzilma tasviri sifatida ishlatiladi.

Internet odamlar hayotining ajralmas qismiga aylandi va muntazam ravishda turli xil vazifalarni bajarishga yordam beradigan yangi imkoniyatlar paydo bo'ldi.

Bulutli texnologiyalar foydalanuvchiga qurilmaga dasturlarni o'rnatmasdan ma'lumotlarga kirish imkoniyatini anglatadi, chunki barcha qo'llab-quvvatlovchilar serverlar tomonidan ta'minlanadi. Bunday xizmatlar bepul va pullik bo'lishi mumkin. Bu esa foydalanuvchining so'rovlarga bog'liq. Bulutli texnologiyalardan foydalanish nimani anglatishini tushunish uchun ularning oddiy sharoitlardan farqini tushunishimiz kerak.

Masalan, elektron pochta mijozni kompyuterga o'rnatilganda va barcha ma'lumotlar qattiq diskda saqlanganda elektron pochta oling. Bunday holda, foydalanuvchi fayllar bilan nima qilishni hal qiladi.

Agar biz brauzer orqali foydalanadigan pochta haqida gapiradigan bo'lsak, unda bu allaqachon texnologiya. Bu erda aniqki, agar serverda muammolar bo'lsa, u holda pochtaga kirish yo'qoladi.

Ma'lumotni saqlash uchun siz qimmatbaho kompyuter va aksessuarlarni sotib olishingiz shart emas, chunki hamma narsa "bulutda" saqlanadi.

Kompyuterning ishlashi yaxshilanadi, chunki ofis ishlarida va boshqa sohalarda bulutli texnologiyalar masofadan turib dasturlarni boshqaradi, shuning uchun kompyuterda juda ko'p bo'sh joy qoladi.

Har yili texnik xizmat ko'rsatish bilan bog'liq muammolar kamayadi, chunki jismoniy serverlar soni doimiy ravishda kamayib boradi va dasturiy ta'minot doimo yangilanib turadi.

Dasturni sotib olish narxi kamayadi, chunki dasturni "bulut" uchun faqat bir marta sotib olish kerak va bu hammasi, va ba'zida siz uni ijaraga buyurtma qilishingiz ham mumkin.

Bulutli texnologiyalar saqlanadigan ma'lumotlar miqdorida cheklovlarga ega emas. Aksariyat hollarda bunday xizmatlar hajmi millionlab gigabaytni tashkil qiladi.

Dasturlar avtomatik ravishda yangilanadi, shuning uchun yuklab olingan dasturlarda bo'lgani kabi, bunga rioya qilishning hojati yo'q.

"**Bulut**" dan har qanday operatsion tizimda foydalanish mumkin, chunki dasturlarga kirish veb-brauzerlar orqali amalga oshiriladi.

Yangi bulutli texnologiyalar sizga har doim hujjatlarga kirish huquqini beradi, chunki asosiysi Internetning mavjudligi.

Yaxshi xavfsizlik va ma'lumotlarni yo'qotishdan himoya qilish, chunki yuborilgan ma'lumotlar avtomatik ravishda saqlanadi va nusxalari zaxira serverlarga tashlanadi



Bulut texnologiyasi bir qator kamchiliklarga ega:

Internet mavjud bo'lmaganda kirish imkoni bo'lmaydi va agar u bo'lmasa, unda faqat kompyuterga yuklab olingan hujjatlar bilan ishlash mumkin bo'ladi. Ta'kidlash joizki, Internet tez va sifatli bo'lishi kerak.

O'rnatilgan dasturga qaraganda katta hajmdagi ma'lumotlarni uzatishda bulut xizmati asta-sekin ishlashi mumkin.

Xavfsizlik kamdan-kam hollarda, lekin ko'p holatlarda Cloud zaxira nusxalarini yaratadi, shuning uchun tashvishlanishga hojat yo'q.

Ko'pchilik sizga bir qator xizmatlarni taqdim etish uchun pul to'lashingiz kerakligidan xijolat tortadi, ammo bu odamlar pul ishlashlari kerak bo'lgan biznes loyihadir.

Bulut xizmatlarining ma'lum tasnifi mavjud, shuninguchunushbu "bulutlar" toifalari quyidagicha ajratiladi:

**Umumiy.** Bu ko'p sonli kompaniyalar va xizmatlar tomonidan darhol foydalanilishi mumkin bo'lgan IT infratuzilmasi. Abonent istalgan kompaniya va individual bo'lishi mumkin. Umumiy bulutli texnologiyalardan

foydalanuvchilar "bulut" ni boshqarish va boshqarish imkoniyatiga ega emaslar, chunki faqat xizmat egasi buni amalga oshiradi.

**Xususiy.** Bulutli texnologiyalar turlarini tavsiflab, siz faqat bitta tashkilot manfaati uchun boshqariladigan va ishlaydigan ushbu xavfsiz IT infratuzilmasi to'g'risida to'xtashingiz kerak. U mijozning xonasida yoki tashqi operatorlarda joylashtirilishi mumkin.

**Gibrid.** Ushbu tur oldingi variantlarning ikkalasining asosiy afzalliklariga ega. Bunday "bulut" aksariyat hollarda mavsumiy faoliyat davrlariga ega bo'lgan tashkilotlar tomonidan qo'llaniladi, ya'ni etarli IT-infratuzilma mavjud bo'lmaganda, quvvatning bir qismi bulut texnologiyalariga o'tadi.

Kompyuterlar va Internet ta'lim tizimiga bir qator vazifalarni bajarish jarayonini takomillashtirish va osonlashtirish uchun kirishdi. O'quv jarayonidagi bulutli texnologiyalardan quyidagi maqsadlarda foydalanish mumkin:

Xodimlarning muhim hujjatlar bo'yicha hamkorligini tashkil etish, masalan, yillik reja yoki dastur. Ularning har biri hujjatning qismi uchun javobgardir va agar kerak bo'lsa, barcha foydalanuvchilar sharhlar qoldirishlari va ma'lumotlarni to'ldirishlari mumkin.

Umumiy loyihaviy ish, shuning uchun o'qituvchi topshiriqlarni talabalarga topshirishi, majburiyatlarni baham ko'rishi va hisobotlarni tekshirishi, sharh berishi mumkin.

Bulutli texnologiyalar elektron kundalikni yaratish va har qanday yozma topshiriqlarni uzatish uchun ishlatilishi mumkin. Bu uy maktabiga boradigan yoki biron bir sababga ko'ra darslarni o'tkazib yuboradigan bolalar uchun juda yaxshi tanlovdir.

Bulutli ma'lumotlarni kontseptsiya sifatida qayta ishlash quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- 1) xizmat sifatida infratuzilma
- 2) xizmat sifatida platforma
- 3) dastur sifatida xizmat sifatida
- 4) ma'lumotlar xizmat sifatida
- 5) xizmat sifatida ish joyi

Bulutli texnologiyalar uchun eng muhim xususiyat foydalanuvchilarning Internet-manbalarini notekis talab qilishidir. Ushbu notekislikni bartaraf etish uchun yana bir oraliq qatlam qo'llaniladi - **serverni virtualizatsiya qilish**. Shunday qilib, yuk virtual serverlar va kompyuterlar o'rtasida taqsimlanadi.

**Bulutli texnologiyalar** - Bu xizmatlarni taqdim etuvchi turli xil tushunchalarni o'z ichiga olgan bitta katta tushunchadir. Masalan, dasturiy ta'minot, infratuzilma, platforma, ma'lumotlar, ish joyi va boshqalar. Bularning barchasi nima uchun kerak? Bulutli texnologiyalarning eng muhim vazifasi ma'lumotlarni uzoqdan qayta ishlashga muhtoj bo'lgan foydalanuvchilarning ehtiyojlarini qondirishdir.

Bulutli texnologiyalar yosh kompaniya uchun moliyaviy jihatdan maqbul echimdir har xil qimmatbaho uskunalar va dasturlarni sotib olish, shuningdek, uni qo'llab-quvvatlaydigan odamlarni yollashning hojati yo'q.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Axmedova O."Axborot xavfsizligiga oid terminlarning ruscha- o'zbekcha izohli lug'ati" Toshkent, fan nashriyoti, 2009.- b.54.
2. Amirov D.M, Atajonov A.Y, Ibragimov D.A, Raximjonov Z.Y, Saidxo'jayev S.S. "Axborot - Kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug'ati" BMTTD ning O'zbekistondagi vakolatxonasi, 2010.- b.320.
3. Usmanova N.B. Ma'lumotlar uzatish tizimlari va tarmoqlari. O'quv qo'llanma. T: TUIT.2006.
4. Kruk B.I. Telekommunikatsion sistem seti. Sovremenne texnologi.M: Goryachaya liniya - Telekom 2003 yil.
5. Olifer V.P. Kompyuterni seti. Moskva - 2003 yil
6. Muhammedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. T:TDPU 2004 yil.

### UO'K 33

## MADANIYAT VA SAN'AT SOHASIDA IQTISODIY KO'RSATGICHLARNI BOSHQARISHNING AHAMIYATI

*A.S. Xushvaqtoy, o'qituvchi, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti, Toshkent*

**Annotatsiya.** Maqolada madaniyat va san'at sohasida iqtisodiy ko'rsatgichlarni ishlab chiqish va uni boshqarish haqida so'z yuritilgan. Ijodiy ishlab chiqarish jarayonida smetalarni to'g'ri sarflash va ijod jarayonida iqtisodiy ko'rsatgichlarni tahlil qilishning dolzarb jihatlari bo'yicha fikr-mulohaza yuritilib, O'zbekistonda madaniyat va san'at sohasida daromadlar va iqtisodiy ko'rsatgichlarni ommalashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** iqtisod, madaniyat, ko'rsatgich, smeta, daromad, tadbir, stavka, konsert, tomosha.

**Аннотация.** В статье рассматриваются вопросы разработки и управления экономическими показателями в сфере культуры и искусства. Состоялись обсуждения текущих аспектов правильного использования оценок в творческом производственном процессе и анализа экономических показателей в творческом процессе, а также предложения и рекомендации по повышению доходов и экономических показателей в сфере культуры и искусства в Узбекистане.

**Ключевые слова:** экономика, культура, показатель, смета, доход, мероприятие, ставка, концерт, шоу.

**Abstract.** The article deals with the development and management of economic indicators in the field of culture and arts. Discussions were held on the current aspects of the proper use of estimates in the creative production process and the analysis of economic indicators in the creative process, and suggestions and recommendations for the promotion of income and economic performance in the field of culture and arts in Uzbekistan.


**Keywords:** economy, culture, indicator, estimate, income, event, rate, concert, show.

Madaniyat va san'at sohasida iqtisodiy ko'rsatkishlarni boshqarish va tahlil etish o'ziga xos murakabliklarga ega jarayon hisoblanadi. Chunki, sohada barcha inson resurslari tomonidan yaratilgan ijodiy ishlar ijodiy ishlab chiqarishning mahsulidir. Keyingi yillarda sohada ijodiy ishlab chiqarishning iqtisodiy tahlillari yaratish va ommaga ulashish masalalariga aholining qiziqishi ortib bormoqda. Shu sababdan ham madaniyat va san'at sohasining iqtisodiy bazasi va uning manbalari yaratilmoqda. Madaniyat va san'at sohasi iqtisodiyot bilan bir-birini to'ldiruvchi va rivojlantiruvchi ijtimoiy hodisa sifatida shakllangan. Sohada iqtisodiy ko'rsatkishlarni samarali boshqarish, ularning ochiq statistik resurslarini aholiga taqdim etish va rivojlantirish orqali jamiyat taraqqiyotiga erishishi mumkin. Jamiyat taraqqiyotida aholining real daromadlarini tahlil qilish, madaniyat va san'at sohasida bandlik va pul topish manbasi, daromadlari ko'rsatkishlarin oshiqshirish masalalari haligacha mukammal yoritilib berilmagan. Demak, bu yo'nalishda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish zarur.

Iqtisodiy ko'rsatkichlar inson va jamiyat hayotining iqtisodiy jihatlarini, ehtiyojini qondirishning iqtisodiy imkoniyatlarini ifodalaydi. Jamiyat iqtisodiy taraqqiyoti va har bir insonning farovonligini (nominal va haqiqiy daromadlar, ish bilan bandlik va boshqalar) darajasini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar iqtisodiy ko'rsatkichlar sirasiga kiritiladi. Bu ko'rsatkichlar ishchi kuchini (aholini) takror ishlab chiqarish bilan uzviy bog'liq bo'lib, uning iqtisodiy asoslarini ochib beradi. Bu, ayniqsa aholi daromadlarini salmog'i va ularni differensiyalashda yaqqolroq namoyan bo'ladi [1: 78]. Madaniyat va san'at sohasining iqtisodiy asoslaritalablari negizida iqtisodiy ko'rsatkishlarni ishlab chiqarish jarayonini boshqarish ijodiy faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi muassasalarning o'zari tomonidan ishlanadigan ishlardir. Bu ishlarni tahlil qilishning bir jihati o'ta murakkab, ammo, ikkinchi jihati o'ta qiziqarli jarayon. Sababi, madaniyat va san'at sohasi doimo davlatimiz e'tiborida bo'lgan. Bu haqida Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev: "Ijtimoiy yo'nalishdagi islohotlar haqida so'z borganda, ilm-fan, ta'lim-tarbiya, sog'liqni saqlash, madaniyat va san'at, ommaviy axborot vositalari, jismoniy tarbiya va sport kabi sohalarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, kadrlar salohiyatini oshirish masalalari o'tgan 5 yilda e'tiborimiz markazida bo'lganini alohida qayd etish lozim" – deya ta'kidlab o'tgan edi. Haqiqatan ham madaniyat muassasalari o'zini-o'zi mablag' bilan ta'minlashni o'z tarkibidagi ijodiy to'garaklar, havaskorlik jamoalari, xalq teatrlarining ijodiy ishlari orqali amalga oshiradi. Quyida 2013-yilda Madaniyat va sport ishlari vazirligi va Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan jadvalda madaniyat markazlarida pullik to'garaklarning summaları ko'rsatilgan. Hozirgi kunda madaniyat markazlarida pullik to'garaklar, studiya va jamoalar qatnashchilarining bir oylik to'lov summasining eng kam miqdori viloyatlar markazlari, Nukus va Toshkent shahrida bazaviy hisoblash miqdorining 10% va undan yuqori, Respublikaning boshqa tuman(shahar)larida 5%dan kam bo'lmasligi lozim [2: 22].

Hozirgi kunda madaniyat markazlarida pullik to'garaklar viloyatlar markazlari, Nukus va Toshkent shaharlarida 27 ming so'm Respublikaning boshqa tuman(shahar)larida 13500 so'mni tashkil qiladi. Yuqorida belgilangan summalar o'zgarishi mumkin bunday holatda "pullik to'garaklar, studiya va jamoalarning to'lov summasi – Markazlardagi to'garak ishtirokchilarining ota-onalar kengashi bilan kelishilgan holatda (uni bayonlashtirish orqali) markaz rahbarining tegishli buyrug'i bilan ko'paytirilishi mumkin [3: 23]. Mazkur sahada faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarni moddiy rag'batlantirish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va sohada tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish ayniqsa, sohaga yosh tadbirkorlarni jalb qilish maqsadida so'nggi yillar davomida Davlatimiz tomonidan bir qator qarorlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-avgust "Madaniyat va san'at tashkilotlari, ijodiy uyishmalar va ommaviy axborot vositalari faoliyatini yanada rivojlantirish, soha xodimlari mehnatini rag'batlantirish boyicha qo'shimcha sharoitlar yaratishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3201-sonli qarori, 2018-yil 14-may "Davlat madaniyat muassasalari va davlat arxivlari xodimlari mehnatiga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimini joriy etish va ularni moddiy rag'batlantirishni kuchaytirish to'g'risida"gi PQ-3727-sonli, 2018-yil 1-avgust "Madaniyat va sanat sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3892-sonli qarori, 2018-yil 26-avgust "O'zbekiston Respublikasida madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirish to'g'risida"gi PQ-3920-sonli qarori, 2019-yil 30-sentabr "Bolalar musiqa va san'at maktablari rahbar, o'qituvchi va kontsertmeysterlari mehnatiga haq to'lash va ularni moddiy rag'batlantirish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-4468-sonli qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 19-iyun "Davlat madaniyat muassasalari va davlat arxivlari xodimlari mehnatiga haq to'lash va ularni moddiy rag'batlantirishning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash haqida"gi 458-sonli qarori, 2019-yil 5-may "Ommaviy ijroga

mo'ljallangan dramatik, musiqali va musiqali-dramatik asarlar yaratganligi uchun mualliflik haqini to'lash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 385-sonli, 2019-yil 9-iyul "Madaniyat va san'at sohasida davlat-xususiy sheriklikni amalga oshirishga ko'maklashish va moliyalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 570-sonli qaror, 2020-yil 23-may "O'zbekiston Respublikasida muzey va teatrlarning marketing faoliyati samaradorligini oshirish to'g'risida"gi 325-sonli qarori, 2021-yil 21-yanvar "Madaniyat va san'at sohasida davlat-xususiy sheriklik asosida beriladigan davlat mulki ob'ektlarining ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 30-sonli qarorlari [4:470] shular jumlasidandir. Yangi O'zbekiston – bu, avvalo, yangicha iqtisodiy munosabatlar, yangicha iqtisodiy demakdir. Shu bois mamlakatimiz iqtisodiy tizimi to'liq qayta qurilmoqda, qanchalik og'ir bo'lmasin, bozor mexanizmlarini amalda joriy etishni boshladik [5: 18]. Yangi O'zbekistonda barcha sohalardagi kabi madaniyat va sanat sohasi ham o'z iqtisodiy tizimini to'liq qayta qurdi va san'at bozori mexanizmlari amaliyotda joriy etila boshladi. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2020-yil 31-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizim tashkilotlari tomonidan ko'rsatiladigan konsert-tomosha xizmatlarining tariflarini shakllantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 498-son buyrug'i asosida "O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizim tashkilotlari tomonidan ko'rsatiladigan konsert-tomosha xizmatlarining tariflarini shakllantirish tartibi to'g'risida nizom ishlab chiqildi va tasdiqlandi. Unga ko'ra konsert-tomosha tashkilotlarining konsert-tomosha xizmatlarini ko'rsatilganligi uchun hisoblanadigan mablag'larning eng kam koeffitsientlari quyidagi jadvalda (1-jadval) o'z aksini topgan.



Маданият ва аҳоли дам олиш марказларининг пуллик тўғарақларида қатнашин (бориш)нинг 2013 йил учун ойлик тўловлари

МИҚДОРЛАРИ

(сўмда)

Хизмат турлари	Вилоятлар марказлари, Нукус ва Тошкент шаҳарлари	Республиканинг бошқа туман (шаҳар)лари
Тўғарақлар, жамоалар ва студиялар	5 000	3 000

Изоҳ:

Пуллик тўғарақлар, жамоалар ва студияларда қатнашин (бориш) учун ойлик тўловларнинг миқдори Маданият ва аҳоли дам олиш марказларида ташкил этилган маслаҳат органлари (бадний ёки методик кенгаши)нинг хулосаси ҳамда марказ раҳбарининг тегишли буйруғи билан кўпайтирилиши мумкин.

I, II ва III тип Маданият ва аҳоли дам олиш марказларида, бюджетдан ажратилган штат бирликлари ҳисобидан, тегишли равишда 5, 3 ва 2 нафар тўғарақ раҳбарлари фаоллият кўрсатади.

Маданият ва аҳоли дам олиш марказларида фаолият қонунчилиққа эйд бўлмаган пуллик тўғарақ, жамоалар ва студиялар сони чекланмайди.

1-jadval

Ijrochi nomi	Asarning ijro soni	Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoriga nisbatan koeffitsiyentning eng kam miqdori		
		I toifa	II toifa	III toifa
<b>Yakkaxon ijrochilar</b> (har bir ijrochiga) Artist-vokalchi (barcha janrlar), balet artisti, maqomchi, artist-laparchi, sozanda, raqqos(a), lektor-musiqachi, illyuzionist	5 tagacha	0,7	0,5	0,3
	10 tagacha	1,2	1,0	0,6
	10 tadan ortiq	1,6	1,3	0,8
<b>Xor artistlari</b> (har bir vokal ijrochisiga) jamoaviy vokal ijrochilar	5 tagacha	0,4	0,3	0,2
	10 tagacha	0,6	0,4	0,3
	10 tadan ortiq	0,8	0,6	0,4
<b>Sozanda</b> (har bir ijrochiga) orkestr va ansambl cholg'uchilari	3 tagacha	0,4	0,3	0,2
	5 tagacha	0,5	0,4	0,3
	10 tadan ortiq	0,8	0,6	0,4
<b>Raqqos(a), balet artisti</b> (har bir artist va raqqosaga)	3 tagacha	0,4	0,3	0,2
	5 tagacha	0,5	0,4	0,3
	10 tadan ortiq	0,8	0,6	0,4
<b>So'z ustasi</b> (har bir qiziqchi va askiyachilarga)	-	1,0	0,8	0,6
<b>Boshlovchi</b> (har bir konferanse, suxandon, lektor va aktyorga)	-	1,0	0,8	0,6
<b>Badiiy-rahbar xodimlar</b>	-	3,0	2,0	1,0

Ijrochi nomi	Asarning ijro soni	Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoriga nisbatan koeffitsiyentning eng kam miqdori		
		I toifa	II toifa	III toifa
Har bir Bosh: rejissyor, dirijer, baletmeyster, xormeyster, badiiy rahbar, dizayner va rassom				
<b>Badiiy xodimlar:</b>				
1) Har bir musiqiy, raqs, konsert jamoasi va alohida ijodiy guruhning badiiy rahbari hamda ssenariy muallifiga	-	2,0	1,5	1,0
2) Har bir sahnalashtiruvchi-rejissyor, sahnalashtiruvchi-baletmeyster, sahnalashtiruvchi-rassom, musiqa rahbari, ovoz rejissyori, baletmeyster, xormeyster, dirijyorga	-	1,5	1,0	0,8
3) Muvofiqlashtiruvchi mutaxassis	-	1,5	1,0	0,8
4) Har bir rejissyor yordamchisi, assistent, dirijyor assistenti, konsertmeyster, dizayner, suflyor, ovoz operatori, barcha janrlar (bezakchi, chiroq bo'yicha, modeler) rassomlari. Vokal bo'yicha, balet bo'yicha, sirk nomerlari bo'yicha repetitorlar, hayvonlarni o'rgatuvchi artistlarga	-	0,8	0,6	0,4
<b>Texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar</b>				
Har bir liboschi, ishchi, sahna mashinisti va sahna ustasi	-	0,3	0,2	0,2

**Jadvaldagi toifalarga izoh:**

**I toifaga** – Madaniyat vazirligining respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniyat vazirligining respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlarining xodimlari;

**II toifaga** – viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetidan mablag' oluvchi madaniyat tashkilotlarining xodimlari;

**III toifaga** – tuman (shahar) mahalliy byudjetlaridan mablag' oluvchi madaniyat tashkilotlarining xodimlari kiradi.

Bunda, madaniyat vaziri zarur hollarda jamoalarning badiiy saviyasi o'zgarishiga qarab ularning toifasini oshirishi yoki tushirishi mumkin.

Yuqoridagi ya'ni 1-ilovagi jadvalda belgilangan eng kam koeffitsiyentlar quyidagicha hisoblanadi:

**Yakkaxon ijrochilar** – 5 tagacha, 10 tagacha va 10 tadan ortiq asarlar ijro etganda tegishli toifalarda belgilangan koeffitsenti mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoriga ko'paytirilgan xolda;

**Xor artistlari** - 5 tagacha, 10 tagacha va 10 tadan ortiq asarlar ijro etganda tegishli toifalarda belgilangan koeffitsenti mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoriga ko'paytirilgan xolda

**Sozanda** – 3 tagacha, 5 tagacha va 5tadan ortiq asarlar ijro etganda tegishli toifalarda belgilangan koeffitsenti mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoriga ko'paytirilgan xolda

**Raqqos(a)lar, balet artistlari (jamoaviy)** - 3 tagacha, 5 tagacha va 5tadan ortiq asarlar ijro etganda tegishli toifalarda belgilangan koeffitsenti mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoriga ko'paytirilgan xolda

**So'z ustasi** - tegishli toifalarda belgilangan koeffitsenti mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoriga ko'paytirilgan xolda

**Boshlovchi** - tegishli toifalarda belgilangan koeffitsenti mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoriga ko'paytirilgan xolda

**Badiiy-rahbar xodimlar** - tegishli toifalarda belgilangan koeffitsenti mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoriga ko'paytirilgan xolda

**Badiiy xodimlar** - (barcha qismlari) - tegishli toifalarda belgilangan koeffitsenti mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoriga ko'paytirilgan xolda

**Texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar** - tegishli toifalarda belgilangan koeffitsenti mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoriga ko'paytirilgan xolda

Konsert-tomosha tadbiri xarajatlarini hisoblash quyidagi formula asosida amalga oshiriladi;

$$A) X = (M \times T) \times I;$$

$$B) Z = X1 + X2 + X3 + X4 + X5 + X6 + X7 + (X8a + X8b + X8v + X8g) + X9 \text{ bunda,}$$

T – toifa (asarning ijro soniga qarab toifaning tegishli koeffitsenti belgilanadi);

I-ijrochi nom iva soni (toifaning tegishli koeffitsentini aniqlash uchun);

M- mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori;

X (X1, X2, X3, X4, X5, X6, X7, X8a, X8b, X8v, X8g, X9) - har bir ijrochi yo'nalishi uchun talab qilinadigan xarajat;

Z- konsert dasturi uchun talab qilinadigan xarajat;

Misol tariqasida, konsert dasturida **5 ta** yakkaxon ijrochilar **5 tagacha** asarda, **10 ta** xor artistlari **5 tagacha** asarda, **8 ta** sozandalar **5 tadan** ortiq asarda, **8 ta** raqqos(a)lar, balet artistlari (jamoaviy) **5 tagacha** asarda, **1 ta** so'z ustasi, **1 ta** boshlovchi, **2 ta** badiiy rahbar, **4 ta** badiiy (**1 ta** ssenariy muallifi, **1 ta** sahnalashtiruvchi-rejissyor,

**1 ta** muovofiqlashtiruvchi mutaxassis va **1 ta** konsertmeyster) va **2 ta** texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar, **jami 41 ta** xodimlar ishtirok etganda quyidagicha hisoblanadi

**X1- 5ta** yakkaxon ijrochilar 5 tagacha asarda ( $5x (0,7x679330* \text{ so'm}) = 2\ 377\ 655 \text{ so'm}$ ;

**X2- 10 ta** xor artistlari **5 tagacha** asarda ( $10x (0,4x 679330* \text{ so'm}) = 2\ 717\ 320 \text{ so'm}$ ;

**X3-8ta** sozandalar **5 tadan** ortiq asarda ( $8 x (0,8x 679330*\text{so'm}) = 4\ 347\ 712 \text{ so'm}$ ;

**X4- 8 ta** raqqos(a)lar, balet artistlari (jamoaviy) **5 tagacha** asarda ( $8 x (0,5x 679330* \text{ so'm}) = 2\ 717\ 320 \text{ so'm}$ ;

**X5- 1 ta** so'z ustasi ( $1x (1,0x 679330* \text{ so'm}) = 679\ 330 \text{ so'm}$ ;

**X6 – 1 ta** boshlovchi ( $1x (1,0x 679330*\text{so'm}) = 679\ 330 \text{ so'm}$ ;

**X7- 2 ta** badiiy-rahbar xodimlar ( $2x (3,0 x 679330 \text{ so'm }) = 4\ 075\ 980 \text{ so'm}$ ;

**4 ta** badiiy xodimlar, shu jumladan:

**X8a – 1 ta** ssenariy muallifi ( $1 x (2,0 x 679330 \text{ so'm}) = 1\ 358\ 660 \text{ so'm}$ ;

**X8b – 1 ta** sahnalashtiruvchi-rejissyor ( $1 x (1,5 x 679330 \text{ so'm}) = 1\ 018\ 995 \text{ so'm}$ ;

**X8v- 1 ta** muovofiqlashtiruvchi mutaxassis ( $1 x (1,5 x 679330 \text{ so'm}) = 1\ 018\ 995 \text{ so'm}$ ;

**X8g- 1 ta** konsertmeyster ( $1 x (0,8 x 679330 \text{ so'm}) = 543\ 464 \text{ so'm}$ ;

**X9-2 ta** texnik va xizmat ko'rsatuvchi ( $2 x (0,4 x 679330 \text{ so'm}) = 543\ 464 \text{ so'm}$ ;

**Z- jami 22 078 225 so'm= 2 377 655+2 717 320 +4347 712+ 2 717 320+ 679 330+ 679330+ 4 075 980+ (1 358 660+ 1 018 995+ 1 018 995+ 543 464)+ 543 464.**

Tadbir ishtirokchilari tomonidan ijro etilayotgan asarlarning davomiyligi har 10 daqiqadan ortiq bo'lgan vaqti 1 ta asarga tenglashtirib hisoblanadi.

Bir asarni ijro etadigan jamoa a'zolari 40 nafardan oshgan taqdirda konsert-tomosha tadbirlari uchun yuqorida ko'rsatib o'tilgan tariflarga istisno tariqasida kelishuv asosida mehnatiga haq to'lash amalga oshiriladi.

Ushbu Nizom Xalqaro anjuman, festivallar hamda 8 mart – Xotin-qizlar kuni, 21 mart – Navro'z, 9 may – Xotira va qadrlash kuni, 1 sentabr – Mustaqillik kuni, 1 oktabr - O'qituvchi va murabbiylar kuni, 21 oktabr – Davlat tili bayrami va 8 dekabr – Konstitutsiya kuni bayramlariga bag'ishlab Respublika, Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda viloyatlar, tumanlar markazlarida o'tkaziladigan asosiy ommaviy-madaniy tadbirlarga tatbiq etilmaydi. Tadbirlarga jalb etiladigan erkin ijodkorlar (vazirlik tizim tashkilotlarida ishlamaydigan) mehnatiga haq to'lash tomonlarning o'zaro kelishuvi asosida amalga oshiriladi. Mehribonlik uylari, maktabgacha ta'lim muassasalari, umumta'lim maktablari va maktab-internatlarga xizmat ko'rsatishda mazkur tartib bo'yicha hisoblanadigan umumiy miqdorning 50 foizi qo'llanilishi mumkin.

Tadbir ishtirokchilarining ovqatlanish, transport, safar bilan bog'liq hamda ovoz kuchaytirish, yoritish moslamalari va boshqa texnik jihozlar o'rnatilishi bo'yicha barcha sarf-xarajatlar tadbir buyurtmachisi tomonidan qoplanadi.

Tadbir tashkilotchisi ommaviy-madaniy va konsert-tomosha tadbirlarni yuqoridagi mezon va qoidalariga amal qilgan holda o'tkazsa, tadbir juda mazmunli o'tishini ta'minlagan bo'ladi. Tadbir tashkilotchisi yoki prodyuseri madaniy tadbirning tarif stavkalarini ishlab chiqqan holda, har bir tadbir uchun maxsus smeta ishlab chiqadi. Bunda tarif stavkalari – tegishli ravishda belgilab berilgan turli razryadga ega bo'lgan ishchilarning mehnatiga to'lanadigan haq miqdori majmui hisobidan ishlab chiqiladi. Har bir ijodiy jarayon talab yoki maxsus tayyorgarlik asnosida vujudga keladi. Ijodiy ishlab chiqarishning ham o'z zaxirasi bo'ladi. Bular insonning ijodiy salohiyati mahsuli hisoblangan, qo'shiq, raqs, she'r, teatrlashtirilgan parchalar va boshqa iqtidor mahsullaridir. Bu jarayonlar tadbir repetitsiyasidan to tadbirning finaliga qadar uzluksiz amalga oshiriladigan jarayonlar hisoblanadi. Tadbirda tomoshabinning ehtiyoj va talablarini puxta o'rganib chiqish, tadbirning tomoshabinbopligini ta'minlaydi. Tomoshabini ko'p tadbir esa, iqtisodiy jihatdan ma'lum natijalarga erishadi.

Ishlab chiqarish vositalarining zaxira va ehtiyotlar sifatida bolmish vaqti – bu ularning ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan davridir. Xo'jalik aloqalarining samarali tizimini belgilash, ishlab chiqarish vositalari bozorini shakllantirish, ehtiyojlarni puxta hisobga olish, muomala vaqtini qisqartirish uchun muhim ahamiyatga ega [6: 323]. Iqtisodiy faoliyat juda murakkab, keng qamrovli turli hodisa va jarayonlardan iborat. Inson yashar ekan, uning hayoti turli hodisa va jarayonlarning ma'lum tarkibiy qismini tashkil etadi.

Iqtisodiy faoliyat shu jarayonlardan biri bo'lib, ular orqali insonlar o'zlarining ehtiyojlarini qondirishi va yashashi uchun turli-tuman noz ne'matlar, ya'ni moddiy, ma'naviy, ijtimoiy shart-sharoitlar yaratadilar. Insonlar turli xil mehnat faoliyati bilan ishlab chiqarish jarayonida qatnashadilar va uning natijasi sifatida jamiyatda ijtimoiy mahsulot yaratiladi [7: 59]. Madaniyat va san'at sohasida inson omili bilan yaratilgan, ijodiy ishlab chiqarish jarayonining mahsulotlari jamiyat rivojiga katta hissa qo'shadi. Uning iqtisodiy ko'rsatkishlarini boshqarish esa kompleksli yondashuv va tahliliy usullarni amaliyatga joriy etishni talab qilmoqda. Bunda ko'piroq istiqbolli ilmiy izlanish va tadqiqotlar olib borishimiz zarur.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdurahmonov Q. X., Xolmo'minov Sh.R. Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi – Toshkent, 2004. TDIU. 208 bet.
2. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2019-yil 18-aprel "Madaniyat markazlari faoliyatini tashkil etishga oid normativ hujjatlarni tasdiklash tugrisida" 232-sonli buyrug'i 1-ilova "Madaniyat markazlarida to'garak, studiya va jamoalar faoliyatini tashkil etish to'g'risida Nizomi"ning 22-bandi



3. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2019-yil 18-aprel "Madaniyat markazlari faoliyatini tashkil etishga oid normativ hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" 232-sonli buyrug'i 1-ilova "Madaniyat markazlarida to'garak, studiya va jamoalar faoliyatini tashkil etish to'g'risida Nizom"ning 23-bandi

5. A.Naydarov. Madaniyat – milliy yuksalish poydevori. – Toshkent, Oltin meros press, 2021. – 470-478 b.

6. Янги Ўзбекистон демократик ўзгаришлар, кенг имкониятлар ва амалий ишлар мамлакатига айланмоқда. – Тошкент, Ўқитувчи, 2021. 52 б.

7. Shodmonov Sh. Sh., G'afurov U. V. Iqtisodiyot nazariyasi. – Toshkent, Fan va texnologiya, 2005, 784 bet.

8. Ruzmetov B., Ibragimov B., Ruzmetov Sh., Qurbanbayeva G., Iqtisodiyot nazariyasi. Urganch, 2016 y. 216

UO'K 33

## ZIYORAT TURIZM OBYEKTлари ARXITEKTURA MUHITINI TASHKIL ETISH METODLARI

*P.Sh. Yusupova, magistrant, Toshkent arxitektura qurilish institute, Toshkent*

**Annotatsiya.** Maqolada Respublika hududidagi ziyorat turizm obyektlari, shahar brendining muammolari, sayyohlik va investitsiya jozibadorligini oshirishga va aholini o'zini o'zi aniqlashga yo'naltirilgan shahar brendini yaratish muammolari borasida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Visual ,havo va tuproq harorati, obodonlashtirish, manzarali o'simliklar, landshaft dizayni, tanishtirish, kichik landshaft, 3d ko'rinishlari, shaharzoslik, brend, dizayn kodlar, sayyoh.

**Аннотация.** В статье рассматриваются объекты паломнического туризма в стране, проблемы бренда города, проблемы создания бренда города, направленного на повышение туристско-инвестиционной привлекательности и самоопределения населения.

**Ключевые слова:** Визуал, температура воздуха и почвы, озеленение, декоративные растения, ландшафтный дизайн, презентация, малый ландшафт, 3d виды, градостроительство, бренд, дизайнерские коды, турист.

**Abstract.** The article discusses the problems of tourism facilities in the country, the problems of the city brand, the problems of creating a city brand aimed at increasing the attractiveness of tourism and investment and self-determination of the population.

**Keywords:** Visual, air and soil temperature, landscaping, ornamental plants, landscape design, presentation, small landscape, 3d views, urban planning, brand, design codes, tourist

Visual indentifikatsiyalash va shahar brendining muammolari so'nggi paytlarda shaharning iqtisodiy, sayyohlik va investitsiya jozibadorligini oshirishga va aholini o'zini o'zi aniqlashga yo'naltirilgan shahar brendini yaratish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shaharlarni brendlash yoki brendini o'zgartirishning asosiy strategik vazifasi aholining yoki turistlarning munosabatini o'zgartirish, iqtisodiy yoki madaniy jozibadorlikka e'tiborni qaratishdir. Shahar dizayni obrazi tarixiy jihatdan shakllanadi va bir qator omillarga bog'liq: ijtimoiy, diniy me'yorlar, madaniy an'analar, shaharning tabiiy-iqlimiy xususiyatlarini hisobga oladi. Shaharlarning sayyohlik jozibadorligini oshirish uchun noyob unutilmas binolarni yaratish va me'moriy muhitning loyihalash ob'ektlarini yaratish kerak. Shakli va mazmuni bo'yicha noyob loyihalar shaharning ramziga aylanadi, uni aniqlashga yordam beradi va unga sayyohlarni jalb qiladi.

Tarixiy va madaniy etnik va boshqa assotsiativ obrazlarning zamonaviy talqinidan foydalangan holda yangi ob'ektlarni yaratish usuli juda dolzarb va istiqbolidir.

Yurtimiz juda buyuk va boy tarixga ega va bilamizki yurtimizga tashrif buyuruvchi sayyohlarning aksariyati ziyoratgohlarimizga borishni maqsad qiladi. Asosiy ziyorat obyektlarimiz esa, Toshkent, Samarqand va Buxoro shaharlarimizdir. Yuqorida keltirilganidek vizual indentifikatsiyalash va brending bugungi kunda alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Ziyorat turizm obyektlarining visual indentifikatsiyasi va brendlash tamoyillari sohasida chet ellik mashhur mutaxassislardan J.Bloom, R.Hillenbrand, Le Corbuseva boshqalarning ijodiy ishlari, N.Baranov, A.Bunin, K.Linch, M.Barxin, V.Lavrov kabi shaharsozlik sohasidagi ko'plab tadqiqotchilar zamonaviy shaharlarning tarhiy-me'moriy yechim va ko'rinishlarining shakllanish qonuniyatlarini aniqlashga harakat qilganlar [2]. Yo'lning bo'lish qismida qatorli butalar, butalar guruhlar, past bo'lyi daraxtlar, gullar ekiladi. Uni chegaralash uchun bordyurlar, yashil to'siqlar yoki betonli devorcha barpo etiladi. Bo'linish qismidagi daraxtlar gazonlarda (chim ustida) ekiladi [1].

O'zbekiston shaharsozligida g'ayri tabiiy keskin o'zgarishlar XIX asr oxiridan boshlanganini hisobga olganda, ya'ni shaharlar miqyosida bosh rejalarni loyihalash va ular orqali ovropacha shaharsozlik tizimini kiritish yo'lga qo'yilishidan boshlangan davrni tadqiq etish bilan O'zbekiston zamonaviy shaharsozligi rivojiga ilmiy-tanqidiy baho berish mumkin[3].

Bu davrni tadqiq etgan quyidagi mutaxassislarning ishlari diqqatga sazovordir: Sh.D.Asqarov, M.Q.Ahmedov, M.A.Yusupova, G.S.Durdieva, va boshqalarning izlanishlari tarixiy shaharlarda XIX asr mobaynida bunyod etilgan me'moriy inshootlar va majmualarni shakllanish tahlili zalvorli va ularning zamonaviy shaharsozlikdagi o'rmini belgilashga qilingan xulosalari diqqatga sazovordir.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi esa aynan shu shaharlarimizaro alohida turistik marshrutlar ishlab chiqish, va unda harakatlanayotgan sayyohlar uchun me'moriy obidalar, ularning xaritasi, musulmon sayyohlarga qulaylik uchun namozxonalar qurib xaritada ularni ham aks ettirish, ziyorat turizmi salohiyatidan samarali foydalangan holda O'zbekistonni O'rta Osiyoning halol turizm markaziga aylantirishdir.

Aynan shu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qurilish tarmog'ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021-2025 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlashtirish" gi PF-6119-son farmonining 7-bandida "2022-yil 1-iyulgacha shahar muhiti elementlarining maqsadi, an'anaviy arxitektura va madaniyati, shuningdek, joyning tabiiy-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda hududiy "dizayn-kod"ning ishlab chiqilishi va joriy etilishini" bajarilishini ta'minlashga bag'ishlangan qarori qabul qilindi. Bunda shaharlar muhitining o'ziga xos elementlarining milliy arxitekturasi va o'sha hududning ob-havo vaziyatlarini hisobga olgan holda "dizayn-kod" ishlab chiqish va yagona me'moriy va badiiy ko'rinishini yaratishga ham katta e'tibor qaratildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 yanvardagi PF-5611-son Farmoniga 2-Ilova 2019 - 2025 yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasini amalga oshirish bo'yicha 2019 yilga mo'ljallangan chora-tadbirlar rejasining 25- punktida "Turistlar erkin yo'nalish olishlari uchun respublika bo'yicha asosiy turistik namoyish ob'ektlari va turizm ob'ektlariga olib boruvchi yo'llarda yagona shakldagi turistik-axborot ko'rsatkichlarini o'rnatish", turizm navigasiyasining yagona unifikatsiyalashtirilgan tizimini joriy etish va rivojlantirish, ko'chalarda, hududlarda, turizm namoyishi ob'ekti hisoblangan bino va inshootlar ichida, transport vositalari va tarmoqlarida hamda avtomobil yo'llarida turizm navigasiyaning unifikatsiyalashtirilgan ko'rsatkichlarini o'rnatish konsepsiyalari rejalashtirilgan.

Toshkent-Samarqand-Buxoro turistik marshrutlarining ziyorat turizm obyektlarini vizual identifikatsiyalash hamda brendlash masalalarini hal qilishdagi ustuvor vazifalar shulardan iborat:

- Toshkent-Samarqand-Buxoro turistik marshrutlari dizayn kodlarini ishlab chiqish;
- ishlab chiqilgan dizayn kodlar albatta tarixiy va milliylikimizni aks ettirgan soda va tushunarli ko'rinishda bo'lishi;
- joylardagi ziyoratgohlarga olib boruvchi yo'llarning yangi, zamonaviy talablarga javob beradigan landshaft yechimlarini ishlab chiqish;
- mavjud ziyoratgohlarda 3d vizualizatsiyali qurilmalar o'rnatish;
- musulmon sayyohlar uchun namozxonalar qurilib, ularga olib boruvchi yo'llarga ko'rsatkichlar o'rnatish;
- Toshkent islom madaniyati markazida ham sayyohlar uchun alohida xarita, turli tillarga tarjima qilingan hadislar to'plami va islom olimlari haqida ma'lumotlari bor kitobchali o'ziga xos xaltalarni taqdim etishni tashkillashtirish;
- qadimiy obidalarimiz atrofida amfiteatrlar o'rnatib, ularda boy tariximiz aks etgan teatr sahna ko'rinishlari namoyishlarini tashkillashtirish;

Xulosa qilib aytganda ilmiy izlanishlar natijalari tahlil qilinganda O'zbekiston ziyorat turizm obyektlarining visual identifikatsiyalash va brendlash yoki uni qayta ishlab chiqib o'zgartirishlar kiritish uchun Toshkent-Samarqand-Buxoro turistik marshrutlarini yo'lga qo'yish orqali sayyohlar uchun xalqaro miqyosdagi ziyorat turizm obyektlarini sayohat qilish anchagina qulay bo'lishidir.

Yangi loyihalangan ziyoratgohlar atrofi landshaft yechimlari va o'rnatiladigan ko'rsatkichlar orqali ayniqsa noqulay joylashgan ziyorat obyektlarini topib borish qulay va yo'llarning estetik zavq beradigan bo'lishi kutiladi. Bundan tashqari ziyoratgohlar yaqinida namozxonalar loyihalaniishi, yaratiladigan dizayn kodlar orqali turistlarni yanada ko'proq jalb qilinishi, alohida turistik marshrutlar xaritasi, ziyoratgohlar haqidagi turli tillarga tarjima qilingan ma'lumotlarning broshyuralari orqali ham dizayn kodlarning yaqqol namoyon bo'lishiga yo'l ochib beriladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Z. Adilov, Z. Matniyozov The Proposals Of Landscape Solutions For Highways Environment // International Journal Of Scientific & Technology Research (IJSTR) ISSN 2277-8616 Volume 9, Issue 04, April 2020. -P. 3110-3114.
2. А. С. Уралов, Л. А. Адилова. Ландшафт архитектуры. Чулпон номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. Тошкент – 2014. 382б
3. Досахметов А. О. Аҳоли яшаш жойларини кўкаламзорлаштириш. Маърузалар матни. Тошкент, ТошДАУ, 2001.

УДК 331.108.

#### ПОНЯТИЕ И СУЩНОСТЬ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО КАПИТАЛА

*А.М. Абиткориев, преподаватель, Андижанский государственный университет, Андижан*

*Аннотация. Интеллектуальный капитал контсептсиясининг ривожланishi 17-асрда бoshlangan va hozirgi kungacha davom etmoqda. Tadqiqotchilarning amaliy va professional manfaatlari bilan belgilanadigan ko'plab mualliflik ta'riflari va tasniflari mavjud. Ko'pincha noto'g'ri ishlatiladigan til apparati chalkashlikka olib keladi va ma'lum bir mavzuda qobiliyatsizlikni ko'rsatadi. Интеллектуальный капитал bo'yicha hisobot mavjud emasligiga qaratasdan, uning ayrim elementlari turli huquqiy hujjatlarda aks yettirilgan.*

*Kalit soʻzlar:* kapital, intellektual kapital, inson kapitali, kognitiv kapital, kapital shakli, kapitalning shakllanish bosqichlari.

*Аннотация.* Развитие концепции интеллектуального капитала началась в 17 веке и продолжается до сих пор. Существует огромное количество авторских определений и классификаций, определяемых практическими и профессиональными интересами исследователями. Зачастую неправильно используемый языковой аппарат вызывает путаницу и показывает некомпетентность в заданной теме. Несмотря на то, что отчетности по ИК не существует, отдельные элементы ИК отражены в различных правовых актах.

*Ключевые слова:* капитал, интеллектуальный капитал, человеческий капитал, когнитивный капитал, форма капитала, этапы становления капитала.

*Abstract.* The development of the concept of intellectual capital began in the 17th century and continues to this day. There are a huge number of author's definitions and classifications determined by the practical and professional interests of researchers. Often incorrectly used language apparatus causes confusion and shows incompetence in a given topic. Despite the fact that there is no reporting on IC, individual elements of IC are reflected in various legal acts.

*Key words:* capital, intellectual capital, human capital, cognitive capital, form of capital, stages of capital formation.

В современных условиях интеллектуальный капитал (ИК) становится фактором, который формирует развитие и конкурентоспособность компаний. Современные исследователи оценивают ИК как ведущий экономический ресурс, который обладает такими особыми свойствами как возможность неоднократного использования и накапливаемость отдельных элементов – знаний и умений. Учет данных особенностей в процессе управления деятельностью компании может оказать влияние на ее стоимость, что является немаловажным для всех участников экономических отношений.

На протяжении столетий природа и сущность капитала привлекали внимание экономической науки. Можно выделить четыре этапа становления теории интеллектуального капитала.

Этап I. Становление общей экономической категории «капитал». Понятие «капитал» впервые появилось в конце 17 века. Начиная с этого момента, экономисты давали разные определения капиталу, но до сих пор однозначного определения этому понятию так и не дано и процесс формирования концепции капитала все еще продолжается. Уже на первоначальном этапе выделялась субъективная составляющая, связанная с человеческими способностями (А.Смит, Ж.Б.Сэй). Представитель классической школы А.Смит, согласно научному труду «Исследование о природе и о причинах богатства народов», считал, что «..одной из частей капитала является «полезность талантов, приобретенных жителями страны или членами общества... Для приобретения этих талантов требуются всегда немалые расходы...». А.Смит также выделял такое свойство капитала, как способность приносить доход. Более того, капиталом могли считаться только те ценности, которые связаны с производительным трудом: производство, перепродажа или иных действий, направленных на получение прибыли.

Этап II. Мышление и знание как основные факторы получения дохода. На втором этапе предпринимательское мышление и знания становятся решающими факторами создания богатства и получения дохода. Е. Бем-Баверк в «Позитивной теории капитала» считает, что капитал – относительно редкое накопленное благо, повышающее производительность процесса производства. Человек предстает максимизатором полезности, экономическое поведение которого зависит от его субъективных мотивов.

И. Шумпетер в «Теории экономического развития» говорит, что основой предпринимательства становится синтез – знание плюс управление.

И.Фишер в «Теории капитала, процента и денег» говорит, что капитал является «полезным предназначенным материальным объектом», и, следовательно, поскольку человеческие существа обладают этой характеристикой, последовательность в рассуждениях требует их включения в понятие капитала.

Этап III. Выделение человеческого капитала. В основе теории человеческого капитала лежит способность «рабочей силы» мыслить и производить силой своего интеллекта специфические продукты – интеллектуальные, а также, увеличивая багаж собственных знаний и навыков, грамотно управлять новейшими средствами производства [1]. Человеческий капитал рассматривается через способность работника использовать знания и навыки, компетентность и уровень квалификации. Ученые-экономисты приходят к выводу, что интеллектуальный капитал отражает дисконтированный доход вложений, сделанных, прежде всего, в образование человека. На этом этапе экономисты пытаются впервые определить стоимость нематериальных активов и человеческого капитала.

Датой зарождения человеческого капитала считается октябрь 1962 года, когда журналом «Journal of Political Economy» был выпущен номер «Инвестиции в людей» [2]. После выпуска журнала и

экономисты активно приступили к изучению человеческого капитала. Уже в следующем году Т.Шульцем был написан первый учебник по теории человеческого капитала [3], и термин «человеческий капитал» мгновенно распространился [4]. До конца XX века были написаны еще десятки книг по теме человеческого капитала.

Сами же истоки теории человеческого капитала прослеживаются еще в работах таких крупных экономистов, как А.Смит, У.Петти, К.Маркс, Д.Ст. Милль, Г.Сиджвик, Г.Рошер, Л.Вальрас и многих других.

Понятие «человеческий капитал» было введено еще А.Смитом. Он считал, что «человеческий капитал — это накопленные знания и умения членов общества, которые дают право на получение дохода». Еще в 1956 г. он писал, что «увеличение производительности полезного труда зависит, прежде всего, от повышения ловкости и умения рабочего, а затем от улучшения машин и инструментов, с помощью которых он работал» [5].

Д.Ст.Милль самого человека как богатство не рассматривал. «Но его приобретенные способности, которые существуют лишь как средство и порождены трудом, с полным основанием, попадают в эту категорию... Мастерство, энергия и настойчивость рабочих страны в такой же мере считаются ее богатством, как и их инструменты и машины" [6].

И. Гийот полагал, что «человеческий капитал состоит приобретенных знаний, навыков, мотиваций и энергии, которыми наделены человеческие существа и которые могут использоваться в течение определенного периода времени в целях производства товаров и услуг... Он — форма капитала, так как является источником будущих заработков или будущего удовлетворения; он человеческий, так является частью человека [7]».

Таким образом, в основе формирования концепции интеллектуального капитала главным образом стоит концепция человеческого капитала.

Этап IV. Формирование теории интеллектуального капитала. Являясь основой концепции интеллектуального капитала, концепция человеческого капитала не являлась полноценной и самостоятельной. Уже в 90-е гг. человеческий капитал не представлял ценности без организационных возможностей компании [8], т.к. только совместно с организационными компетенциями эффективной компании отдельный индивид способен совершить нечто стоящее. В таком контексте интеллектуальный капитал рассматривается как результат соединения человеческого капитала со способностями и компетенциями организации.

Теория интеллектуального капитала получила развитие в работах таких зарубежных экономистов, как Э. Брукинг, Л. Эдвинссон, М.Мэлоун, К.-Э. Свейби, Дж. Стоунхаус, П. Страссман, Т. Стюарт, и др.

В России развитие теории интеллектуального капитала рассматривается в трудах таких ученых, как Б.Б. Леонтьев, С.А. Курганский, В.Л. Иноземцев, В.Л. Абрамов, Н.В. Алтухова, А.Л. Гапоненко, В.А. Дресвянников, А.В. Елин, И.Е. Елина, И. Иванюк, В.С. Катькало, А.Н. Козырев, Б.Б.Леонтьев, А.М. Макаров, А.Л. Сергеев, В.А. Скворцова, А.П. Панкрухин, И.И. Просвирина и др.

Таким образом, современная теория ИК начала формироваться еще во 2-ой половине XX века, появившись в ходе развития теории человеческого капитала. С тех пор понятие ИК претерпело множество изменений, исследовалась сущность ИК в различных аспектах. Большинство исследователей определяют ИК как нематериальные активы, которые не отражены в финансовых отчетах компании, и могут быть классифицированы, оценены и управляемы компанией.

Несмотря на то, что понятие «интеллектуальный капитал» давно существует, оно еще до сих пор не стало привычным в мире. Очень часто понятие «интеллектуальный капитал» используется наряду с понятиями «знания», «человеческий капитал», «когнитивный капитал», выступая как синонимы за счет отсутствия однозначных трактовок [9]. В настоящее время в научном обществе до сих пор нет единого определения интеллектуального капитала.

Человеческий капитал – это индивидуальные качества работника, которые рассматриваются в качестве человеческих ресурсов, не подлежащих адекватной замене машинами или бумажной документацией. В эту категорию входят такие ресурсы, как профессиональные способности, компетенция, креативность, отношение к работе, умения, неявные знания, личные деловые связи, культура поведения и т. п.

Таким образом, существует огромное количество различных подходов к определению структуры ИК. Это препятствует достижению единого определения интеллектуального капитала, что влияет на практические и исследовательские интересы в сфере ИК. Более того, многие исследователи и практики рассуждают об ИК исходя из собственной логики и сферы научных интересов, используя при этом аналогичный языковой аппарат при описании различных явлений в отношении ИК, что вызывает путаницу у читателя.

Таким образом, развитие концепции интеллектуального капитала началась еще в 17 веке и продолжается до сих пор. Существует огромное количество авторских определений и классификаций, определяемых практическими и профессиональными интересами исследователями. Зачастую

неправильно используемый языковой аппарат вызывает путаницу и показывает некомпетентность в заданной теме. Несмотря на то, что отчетности по ИК не существует, отдельные элементы ИК отражены в различных правовых актах, причем в отечественной и зарубежной практике соотношение понятий интеллектуального капитала, интеллектуальной собственности и нематериальных активов различается.

#### СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Афонин А. С. Интеллектуальный капитал в современных условиях: роль знаний / А.С.Афонин // Вестник ЮРГТУ (НПИ). – 2009. – № 3. – С.38-49
2. Цветкова Г. С. Эволюция экономической категории «интеллектуальный капитал» / Г.С.Цветкова, О.В.Полякова // Материалы международной конференции Динамика научных исследований. – 2007. – т. 3.
3. Блауг. М. Методология экономической науки, или, как экономисты объясняют. Пер. с англ. / Науч. ред. и вступ. ст. В.С. Автономова. М.: НИП «Журнал Вопросы экономики». – 2004. – 416 с.
4. Schultz T.W. The Economic Value of Education / T.W. Schultz. – New York: Columbia University Press, 1963
5. Котырло Е.С. Человеческий капитал и экономическое развитие Российского Севера: Моногр. – М.: Современная экономика и право, 2009. – 364 с.
6. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов / А.Смит / М.: Соцэкгиз, 1956.–490 с.
7. Милль Дж. С. Основы политической экономии: Т. 1 / Дж.С.Милль. – М.: Прогресс, 1980 - С. 139.
8. Капеллошников Р.И. Концепция человеческого капитала. Критика современной буржуазной политической экономии. / Р.И.Капеллошников. – М.: Наука, 1977. - С.16
9. Саакова Л. В. Устойчивое и эффективное развитие корпоративных структур в экономике знаний: формирование интеллектуального потенциала / Под научной редакцией заслуженного деятеля науки РФ, д.э.н., профессора Багиева Г.Л. – СПб.: Изд-во СПбГУЭФ, 2012, - 266 с.

#### УЎҚ 33

### СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИ САНОАТИДА ТАРКИБИЙ ЎЗГАРИШЛАРГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОМИЛЛАРНИ ЎРГАНИШДАГИ НАЗАРИЙ ВА УСЛУБИЙ ЁНДАШУВЛАР

*Ф.Т. Джумаев, ўқитувчи, Термиз давлат университети, Термиз*

**Аннотация.** Мақолада миллий иқтисодиётда таркибий ўзгаришларни амалга ошириши молиявий аҳволни яхшилаш, ривожланиши устувор йўналишларини белгилаш, халқаро майдондаги мавқеини мустаҳкамлашда муҳим аҳамият касб этиши қайд этилган. Шунингдек, рақобатбардошлик даражасига, мамлакатнинг молиявий ҳолатига саноатдаги таркибий ўзгаришлар кўп жиҳатдан таъсир қилиши келтириб ўтилган. Шу билан бирга, саноатда таркибий ўзгаришларни амалга ошириши ижобий ёки салбий натижага олиб келадиган турли омиллар таъсирида бўлиши кўрсатилган.

**Калит сўзлар:** таъсир этувчи омиллар, таркибий ўзгаришлар, тармоқ, омилларни танлаш, самарадорлик.

**Аннотация.** В этой статье отмечается, что осуществление структурных изменений в национальной экономике играет важную роль в улучшении финансового положения, определении приоритетов развития, укреплении ее позиций на международной арене. Также упоминается, что структурные изменения в промышленности во многом влияют на уровень конкурентоспособности, финансовое положение страны. В то же время было показано, что на осуществление структурных изменений в промышленности влияют различные факторы, которые приводят к положительному или отрицательному результату.

**Ключевые слова:** влияющие факторы, структурные изменения, отрасль, отбор факторов, эффективность.

**Abstract.** In this paper noted the implementation of structural changes in the national economy plays an important role in improving the financial situation, determining development priorities, strengthening its position in the international arena. It is also mentioned that structural changes in industry largely affect the level of competitiveness, the financial position of the country. At the same time, it was shown that the implementation of structural changes in industry is influenced by various factors that lead to a positive or negative result.

**Key words:** influencing factors, structural changes, sector, selection of factors, efficiency.

**Кириш.** Ҳозирги вақтга келиб мамлакат, минтақалар миқёсида халқ хўжалигида турли давомийликдаги иқтисодий тараққиётни, молиявий барқарорликни таъминловчи таркибий тармоқ ўзгаришлари рўй бермоқда. Шунингдек, саноатда амалга оширилаётган таркибий ўзгаришлар натижаси минтақа иқтисодиётининг ҳолатига таъсир кўрсатмоқда. Таркибий ўзгаришларнинг самарадорлигини таъминлаш учун унга таъсир этувчи омилларни аниқлаш, ўрганиш ва ҳисобга олиш мақсадга мувофиқдир. Бу эса саноатда таркибий ўзгаришларга таъсир этувчи омилларни ўрганишдаги назарий ва услубий ёндашувларни таҳлил қилишни тақазо этади. Сабаби, саноатда таркибий ўзгаришларни амалга оширишда таъсир қилувчи омиллар танланмаган.

**Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили.** Кўпгина иқтисодчи олимлар ўз асарларида миллий иқтисодиётда, минтақада таркибий ўзгаришларни амалга оширишга таъсир қилувчи омилларни ўрганганлар. Хусусан: Бердиев Р. Б. [1], Гасанов М. А. [2], Дадобоев Б. А. [3], Дювина Н. В. [4],

Егорова К. С. [5], Капкаева Э. Р. [6], Каримова М. Т. [7; 8], Расулев А. Ф. [9], Таран Е. А. [10], Трофимова Н., Таймасов А. [11].

**Мақоланинг мақсади** - таркибий ўзгаришларга таъсир қилувчи мавжуд омилларни ўрганиш ҳамда тармоқ даражасидаги таркибий ўзгаришлар доирасида омилларни таснифлаш ва танлашга ёндашувни такомиллаштиришдан иборат.

**Таҳлил ва натижалар.** Иқтисодиётдаги таркибий ўзгаришлар аҳолининг ўзгарувчан эҳтиёжлари, капитал жамғариш, ижтимоий эҳтиёжларнинг ривожланиши, давлатнинг иқтисодий сиёсати, ташқи иқтисодий алоқалар, фан-техника тараққиёти, инновацион жараёнлар, аҳолининг миграцияси, меҳнат фаолиятини яхшилаш таъсирида содир бўлади.

Амалга оширилган тадқиқотлар натижаларини ҳисобга олган ҳолда шуни таъкидлаш мумкинки, уларда фақат саноат ривожланишига салбий таъсир кўрсатадиган омиллар, иқтисодиётдаги таркибий ўзгаришлар берилган бўлиб, булар омилларнинг таъсирини ҳисобга олишга имкон бермайди. Шунингдек, муаллифлар минтақавий даражада саноатдаги таркибий ўзгаришларни рағбатлантирувчи омилларни аниқламайдилар, бу эса бундай ўзгаришларни сақлаб қолиш чораларини шакллантириш ва таркибий ўзгаришларнинг мумкин бўлган таъсирини баҳолаш имконини бермайди. Шундай қилиб, олиб борилган тадқиқотлар асосида тармоқ даражасидаги таркибий ўзгаришлар доирасида омилларни таснифлаш ва танлашга илмий-услубий ёндашув таклиф этилади, бу мавжудлардан фарқли ўлароқ, иккита компонентни камраб олади. Булар: омилларни икки гуруҳга ажратиш ва структуравий конфигурацияларни амалга оширишда омилларни танлаш тартибидир. Ёндашувдан фойдаланиш омилларни танлаш, уларнинг ижобий таъсирини кучайтириш, таркибий ўзгаришлар самарадорлигини таъминлаш ва минтақани ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш имконини беради.

Сурхондарё вилояти саноати даражасида ўрганилаётган даврдаги вазиятга қараб махсус сабабларни танлаш имконини беради. Омилларни танлашда тармоқ фаолияти турларини, самарадорлик кўрсаткичларини, режалаштирилган таркибий ўзгаришлар даврини ва уларнинг таъсирини тузатиш бўйича чора-тадбирларни амалга ошириш тезлигига таъсир қилувчи омилларни танлашни ҳисобга олиш тавсия этилади. Албатта, соҳанинг таркибий ўзгаришларга тайёрлигини баҳолаш ва бундай ўзгаришларни рағбатлантиришда рағбатлантирувчи омиллар муҳим ўрин тутди. Таклиф этилган таклифларнинг схематик кўриниши 1-расмда кўрсатилган ва биз уни батафсилроқ кўриб чиқамиз.

Хусусан, биринчи компонент омилларни икки гуруҳга ажратилган. Булар: яъни тармоқдаги таркибий ўзгаришларга таъсир этувчи бозор муҳити омилларини таснифлашни амалга ошириш; Сурхондарё вилоятида саноат ривожланишини таъминловчи омиллар. Биринчи гуруҳ доирасида саноатдаги таркибий ўзгаришларга салбий таъсир кўрсатадиган ва бу ўзгаришларни чеклаб қўядиган омиллар кўриб чиқилади. Иккинчи гуруҳда эса, саноат миқёсида таркибий ўзгаришларни рағбатлантирувчи ҳамда унинг рақобатбардошлигини оширишга хизмат қилувчи омиллар белгиланди. Ушбу омилларни икки гуруҳга ажратиш ташқи омилларнинг салбий таъсирини ўз вақтида ҳисобга олиш, тармоқдаги таркибий ўзгаришларни муваффақиятли амалга ошириш имконини берувчи омилларни ажратиш кўрсатиш имконини беради.

**Эслатма:** ДФ<sub>1</sub>, ДФ<sub>2</sub>, ДФ<sub>n</sub> – дистимуляция қилувчи омиллар; СФ<sub>1</sub>, СФ<sub>2</sub>, СФ<sub>n</sub> – рағбатлантирувчи омиллар

Саноатдаги таркибий ўзгаришларга таъсир кўрсатадиган ва салбий силжишларга олиб келиши мумкин бўлган бозор муҳитининг омилларига қуйидагиларни киритиш тавсия этилади:

- саноат учун хом ашё, материаллар нархининг ўзгариши ва валюта курсининг ўзгариши;
- аҳоли даромадлари сонининг ўзгариши ва камайиши, уларнинг эҳтиёжларининг ўзгариши;
- кадрлар алмашинувининг кўпайиши ва уларнинг янада ривожланган ҳудудларга кетиши;
- етказиб берувчилар ва рақобатчилар бозоридаги ўзгаришлар;
- мамлакатдаги пул тизимининг мураккаблиги;
- минтақавий бозорга киришда тўсиқларнинг мавжудлиги;
- давлат даражасидаги бозор;
- ҳар бир соҳадаги саноатнинг ўзига хос хусусиятлари;
- истеъмолчи эҳтиёжларининг динамиклиги;
- мамлакат ва минтақадаги иқтисодий вазият;
- молия бозорининг ҳолати;
- ички бозорни ривожлантириш;
- сиёсий вазиятнинг беқарорлиги;
- қонун ҳужжатларининг саноат фаолиятини тартибга солиш йўналишидаги ўзгаришлари;
- саноат учун ўз хомашё базасининг йўқлиги;
- хорижий давлатларнинг экспорт-импорт операцияларига оид қонун ҳужжатларидан хабардорликнинг пастлиги;
- саноатда эскирган ускуналарнинг тарқалиши;



1-расм. Тармоқ даражасида таркибий ўзгаришлар доирасида омилларни таснифлаш ва танлаш тизимининг мантикий тузилмаси

- солиқ тизимининг номукамаллиги ва катта солиқ юки;
- божхона сиёсатининг мураккаблиги;
- sanoat маҳсулотлари бўйича экспорт-импорт операцияларининг мураккаблиги;
- юқори технологияли sanoatнинг аҳамиятсиз улуши;
- sanoatнинг хом ашё ва материалларга импортга боғлиқлиги ва уларни ноқулай шартларда

этказиб беришнинг сезиларли даражаси;

- sanoatнинг материаллар ва энергия сарфини ошириш;
- атроф-муҳитнинг sanoat ифлосланиши;
- sanoatни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш ва молиялаштиришнинг паст даражаси.

Сурхондарё вилояти sanoati ривожланишини таъминловчи, яъни таркибий ўзгаришларга ижобий таъсир кўрсатувчи омилларга қуйидагилар киради:

- мулкчилик шакли бўйича хўжалик юритувчи субъектнинг тузилиши;
- минтақанинг sanoat маҳсулотларига ҳам ички, ҳам ташқи бозорларда талабнинг ўсиши;
- вилоят sanoati билан хорижий корхоналар ўртасида алоқаларни ўрнатиш;
- sanoat маҳсулотларининг рентабеллиги, ишлаб чиқариш ва сотиш ҳажмининг ўсиши;
- sanoat учун ахборот базасини шакллантиришнинг дастлабки шартлари;
- sanoatда маҳсулот ишлаб чиқаришнинг янги технологияларининг пайдо бўлиши; халқаро

бозорларга чиқиш;

- инфратузилманинг ривожланиши ва географик жойлашуви;
- sanoatнинг очиклиги, минтақа иқтисодиёти;
- минтақавий даражада доимий буюртмалар мавжудлиги;
- sanoatни ривожлантириш дастурлари;
- малакали кадрлар улуши ва меҳнат унумдорлиги даражасини ошириш;
- sanoatни инвестицион ривожлантириш;
- илмий-техник тараққиёт;
- инвестиция лойиҳаларини амалга ошириш;
- минтақавий даражада молиявий ва инвестициявий қўллаб-қувватлаш;
- илмий ва маркетинг тадқиқотларини амалга ошириш имконияти;
- минтақада логистика тизимининг мавжудлиги;
- инновацион ривожланиш истиқболлари ва имкониятлари, шунингдек илмий-тадқиқот

ишларини амалга ошириш;

- минтақада малакали кадрларнинг салмоқли қисми;
- ҳудуд sanoatининг инновацион фаолиятни фаоллаштиришга тайёрлиги;
- sanoatнинг истеъмолчиларнинг ўсиб бораётган эҳтиёжларини қондириш қобилияти;
- минтақавий миқёсда sanoatнинг барқарор рақобатдош позитцияси;
- sanoatнинг моддий харажатларини камайтириш, маҳсулот ишлаб чиқариш ва сотиш таннархини

пасайтириш истиқболлари;

- юқори сифатли sanoat маҳсулотлари ишлаб чиқариш, ассортиментни кенгайтириш; сотиш каналлари тизимининг тармоқланиши;
- аҳоли жон бошига sanoat маҳсулотларининг қўшилган қийматининг улуши;
- ялпи ҳудудий маҳсулот улушида sanoatнинг роли ортиб бориши;
- вилоят sanoatининг мамлакат sanoat ишлаб чиқаришидаги улуши;
- вилоят sanoat тармоқлари экспортининг мамлакат sanoati экспорти ҳажмидаги улуши;
- илмий, илмий ва техник ишларни бажариш учун кенг имкониятлар.

Иккинчи компонент, яъни Сурхондарё вилоятининг sanoat даражасидаги таркибий ўзгаришлар доирасида омилларни танлаш тартиби муҳим рол ўйнайди. Ушбу тартибни амалга ошириш таркибий ўзгаришларга, sanoatнинг ривожланишига, унинг рақобатбардошлик даражасига салбий ва ижобий таъсир кўрсатадиган энг муҳим омилларни танлаш имконини беради. Омилларни танлашда уларнинг ўзаро боғлиқлигини ҳисобга олиш керак ва кўп сонли омилларни танлаш салбий ёки ижобий таъсирни аниқлашда хатоларга олиб келиши мумкин. Шунинг учун омилларни танлашда тармоқнинг ўзига хос хусусиятларини, уларнинг аҳамиятлилик даражасини ва таркибий ўзгаришларга таъсирини, тармоқ фаолияти турларини, самарадорлик кўрсаткичлари динамикасини, режалаштирилган таркибий ўзгаришларни амалга ошириш муддатларини ҳисобга олиш керак.

**Биринчи босқич** - кўрсаткичларни танлаш тартибини амалга ошириш, тадқиқот мавзуси ва объектини аниқлашдир. Бизда тадқиқот предмети аналитик, яъни Сурхондарё вилояти sanoat даражасидаги таркибий ўзгаришлар доирасида омилларни танлаш тартиби ҳисобланади. Таҳлилчи омилларни тадқиқ қилиш, энг муҳимларини танлаш, ишлаб чиқариш тармоқларининг фаолият юритиши, Сурхондарё вилояти ривожланишининг ўзига хос жиҳатлари, таркибий ўзгаришларни амалга ошириш соҳасида малакали мутахассис бўлиши керак. Бу омилларни тўғри танлаш ва тармоқдаги таркибий ўзгаришларга энг кўп таъсир кўрсатадиган омилларни аниқлаш имконини беради.



**Иккинчи босқич** - қайси тизим, механизм ёки жараён учун омилларни танлаш тартибини бажариш зарурлигини аниқлаш. Бизнинг тадқиқотимизда саноат учун омилларни танлаш керак, яъни халқ хўжалиги тармоқлари, минтақа саноати даражасида содир бўлиши мумкин бўлган таркибий ўзгаришлар жараёни.

**Учинчи босқич** - бу икки гуруҳ омиллари ва тадқиқот объекти ўртасидаги алоқаларни ўрнатиш. Ушбу босқични амалга ошириш тадқиқот объекти билан боғлиқ бўлган энг катта таъсир кўрсатадиган омилларни танлашга имкон беради ҳамда иккинчи даражали аҳамиятга эга бўлган ва нотўғри баҳолашга олиб келиши мумкин бўлган омилларни ҳисобга олмайди.

**Тўртинчи босқич** - саноат даражасидаги таркибий ўзгаришлар доирасидаги омилларни танлаш. Олдинги босқич натижаларига кўра, омилларни тўғридан-тўғри танлаш ва уларни икки гуруҳга бўлиш, яъни саноатдаги таркибий ўзгаришларга таъсир этувчи бозор муҳити омиллари, Сурхондарё вилоятида саноат ривожланишини таъминловчи омиллар. Аммо иккита гуруҳ учун омиллар рўйхати аниқланган, тўғриланган ва дастлабки омиллар тўпламига нисбатан камроқ бўлади. Танланган омиллар, энг муҳимлари саноат даражасида таркибий ўзгаришларни амалга оширишда ҳисобга олинади.

**Бешинчи босқич** – саноат даражасидаги таркибий ўзгаришлар доирасидаги омилларни ҳисобга олиш. Ушбу босқич таркибий ўзгаришларни амалга оширишда танланган омиллар ҳисобга олиншини англатади, чунки улар саноатнинг ривожланишига, рақобатбардошлик даражасига таъсир қилади ва минтақанинг рақобатбардошлигини оширади. Танланган омиллар ҳисобга олинмаса, соҳада таркибий ўзгаришларни амалга оширишдан қутилган натижаларга эришмаслик хавфи мавжуд. Шу сабабли, ушбу тадқиқотни амалга оширишда омилларни танлаш тартиби муҳим рол ўйнайди.

**Олтинчи босқич** - саноат даражасидаги таркибий ўзгаришлар доирасидаги омиллар таъсирини баҳолаш. Ушбу босқични амалга ошириш саноатнинг ривожланиш ва рақобатбардошлигига таъсир даражасини баҳолаш, уларнинг қутилаётган натижаларга мумкин бўлган таъсирини таҳлил қилиш имконини беради. Бундан ташқари, Сурхондарин вилояти даражасида бундай баҳолаш инновацион, инвестициявий, молиявий омиллар таъсирини таҳлил қилиш ва инновацион ривожланиш ҳолатини яхшилаш, хорижий инвестицияларни жалб этиш, кўшимча маблағлар ажратиш бўйича чора-тадбирлар ишлаб чиқиш имконини беради.

**Еттинчи босқич** – Сурхондарё вилоятининг саноат даражасидаги таркибий ўзгаришлар доирасида омилларнинг салбий таъсирини камайтириш ёки омилларнинг ижобий таъсирини кучайтириш бўйича тавсиялар шакллантириш. Ушбу босқичда салбий таъсирни камайтириш ва рағбатлантирувчи омиллар таъсирига мувофиқ фаолият соҳаларини яхшилаш бўйича тавсиялар ишлаб чиқиш мақсадга мувофиқдир.

Худуд саноатида таркибий ўзгаришларга омилларнинг таъсирини кучайтириш чора-тадбирлари куйидагилардан иборат: инвестиция лойиҳаларини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш; маҳаллий ва хорижий инвестицияларни жалб этишда худудий раҳбарликни фаоллаштириш; худудда саноатни ривожлантириш дастурларини раҳбарият томонидан қўллаб-қувватлаш ва амалга ошириш; саноат даражасида тадқиқот ва ишланмаларни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш; худудий даражада инфратузилмани ривожлантиришни молиялаштириш; Сурхондарё вилояти саноатидаги таркибий ўзгаришлар юзасидан маҳсулотлар бозорларини кенгайтириш ҳисобига худуднинг рақобатбардошлик даражасини ошириш; ишлаб чиқариш ва маркетингни бошқариш; давлатни қўллаб-қувватлаш орқали саноат маҳсулотларига талабнинг ўсишини рағбатлантириш, бу эса жаҳон ва ички бозорларда обрў-эътиборни оширади; янги технологияларни жорий этиш орқали максимал фойда ва харажатларни минималлаштириш, маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажмини истеъмолчиларнинг эҳтиёжларига мослаштириш; хорижий компаниялар билан халқаро шартномалар тузиш ва халқаро алоқаларни юритиш; халқаро бозорларда рақобатбардош позицияларни мустаҳкамлаш; тармоқ учун ягона ахборот базасини шакллантириш; ахборот алоқаларини ўрнатиш; вилоят саноатининг республика миқёсидаги бошқа тармоқлар билан алоқаларини ўрнатиш; тармоқларда ишлаб чиқариш технологиясини такомиллаштириш; моддий-техник таъминот тузилмасини такомиллаштириш ва доимий буюртмаларни таъминлайдиган худудий миқёсдаги тармоқлар учун маркетинг фаолиятини амалга ошириш; малакали ишчиларни ёллаш, уларнинг малакасини ошириш; саноатда таркибий ўзгаришларни фаоллаштириш механизмларини жорий этиш; ассортиментни кенгайтириш, янги маҳсулотлар ишлаб чиқариш ва нархларни ўзгартириш орқали харидорларнинг эҳтиёжларини қондириш учун тармоқ имкониятларини доимий равишда кенгайтириш; ишлаб чиқаришни автоматлаштириш; фан-техника тараққиёти натижаларини соҳага жорий этиш; илмий тадқиқотлар учун илмий марказлар яратиш; эскирган асбоб-ускуналарни доимий янгиланган туриш, юқори сифатли маҳсулот ишлаб чиқариш учун замонавий ишлаб чиқариш технологияларидан фойдаланиш; янги худудий маҳсулотда саноат улушининг ўсишига таъсир этувчи маҳсулотлар ишлаб чиқариш, кўрсатилган хизматлар ҳажмини ошириш; ишлаб чиқарилаётган саноат маҳсулотлари сифатини доимий назорат қилиш, ишлаб чиқарилаётган маҳсулотлар турини кенгайтириш; инновацион ривожланиш мамлакатимиз саноат ишлаб чиқариши ҳажмида вилоят саноати улушининг ўсишини таъминлайди; саноатнинг рақобатбардошлигини ошириш, унинг ички ва халқаро

бозорлардаги мавқеини мустаҳкамлаш мамлакатимиз саноати экспорти ҳажмида худуддаги саноат тармоқлари экспорти улушини оширишни кафолатлайди.

Шундай қилиб, Сурхондарё вилояти саноатида таркибий ўзгаришларни амалга оширишда ижобий ва салбий таъсир кўрсатувчи омилларни аниқлаш ва танлаш муҳим масала ҳисобланади. Буни амалга оширмаслик саноатдаги таркибий ўзгаришларнинг самарасиз бўлишига олиб келади, бу эса худуд саноати ва миллий иқтисодийнинг рақобатбардошлигининг пасайишига олиб келади. Бундан ташқари, омилларни ўрганиш кўзланган самарага эришиш, рақобатбардошликни ошириш, соҳа ҳолатини яхшилаш натижалари асосида худуднинг иқтисодий ривожланишини кафолатлайди.

**Хулоса.** Хулоса қилиб айтганда, таркибий ўзгаришларни амалга оширишдан кутилаётган самарани таъминлаш бозор муҳити омилларининг таъсирини ҳисобга олган ҳолда амалга оширилади. Тармоқ микёсидаги таркибий ўзгаришлар доирасида омилларни таснифлаш ва танлашга илмий-услубий ёндашув такомиллаштирилди, у иккита компонентни, яъни омилларни икки гуруҳга бўлиш ва омилларни танлаш тартибини амалга оширишни ўз ичига олади. Омилларнинг таснифига келсак, рағбатлантирувчи ва дистимуляция қилувчи омиллар таъкидланган бўлиб, уларни ҳисобга олиш таркибий ўзгаришларга ижобий таъсир қилади. Кўрсаткичларни аниқлагандан сўнг, уларни танлаш тартиби амалга оширилади, бу эса энг муҳимларини ажратиш кўрсатиш ва таркибий ўзгаришларни амалга оширишда уларни ҳисобга олиш имконини беради. Бу ҳаракатларнинг барчаси соҳадаги таркибий ўзгаришлардан кўзланган натижаларга эришишни таъминлайди.

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Бердиев Р. Б. Институциональные факторы инвестиционного развития в постсоветском пространстве (на материалах Республики Таджикистан): автореф. дис... док. экон. наук. Бишкек, 2012. 42 с.
2. Гасанов М. А. Структурная модернизация - фактор устойчивого развития экономики: дисс... канд. эк. наук. Томск, 2004. 189 с.
3. Дадобоев Б. А. Факторы формирования и развития отраслевой структуры экономики региона (на примере Согдийской области Республики Таджикистан): дисс... канд. эк. наук. Худжанд, 2013. 182 с.
4. Дювина Н. В. Структурные изменения как фактор нового качества экономического роста: автореф. дис... канд. экон. наук. Самара, 2008. 23 с.
5. Егорова К. С. Регулирование экономики региона на основе активной структурной политики: автореферат дис. канд. экон. наук. Самара, 2019. 24 с.
6. Капкаева Э. Р. Сущность, классификация, причины возникновения и методы определения структурных сдвигов. *Челябинский гуманитарий*. 2010. №10. С. 40-43.
7. Каримова М. Т. Иностранные инвестиции как фактор структурной перестройки экономики Таджикистан. *Проблемы современной экономики. Экономика Таджикистана: проблемы и решения: Сб. науч. статей. Спец выпуск*. Санкт-Петербург: НКП «РОСТ», 2006. С. 79-83.
8. Каримова М. Т. Развитие предпринимательства как фактор обеспечения структурных сдвигов в промышленности Таджикистан. *Проблемы развития экономики Таджикистана и пути их решения*. Душанбе: «Нодир», 2012. С. 82-90.
9. Расулев А. Ф. Тенденции и перспективы развития экономики Узбекистана в условиях мирового финансово-экономического кризиса и посткризисный период. *Экономічний вісник Донбасу*. 2013. №1 (31). С. 83-88.
10. Таран Е. А. Конвергентные структурные сдвиги в экономике: автореферат дис. канд. экон. наук. Красноярск, 2020. 27 с.
11. Трофимова Н., Таймасов А. Анализ структурных факторов развития российских регионов. *Экономика и управление: научно-практический журнал*. 2017. №4 (138). С. 30-33.

УЎК 311 (519.23)

### ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ЮҚОРИ МАЛАКАЛИ КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ САМАРАДОРЛИГИНИНГ ИҚТИСОДИЙ-СТАТИСТИК ТАҲЛИЛИ

*М.Д. Зарипова, таянч докторант, Термиз давлат университети, Термиз*

**Аннотация.** Мақолада юқори малакали кадрлар тайёрлаш сифати ва самарадорлигига таъсир этувчи омилларнинг иқтисодий-статистик таҳлили амалга оширилган. Шунингдек, динамика қаторларини таҳлил қилишда қўлланиладиган статистик кўрсаткичлар тизими баён этилган. Иқтисодий-статистик таҳлилга таянган ҳолда илмий асосланган таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган.

**Калим сўзлар:** динамика қаторлари, мутлоқ ўзгариш, ўзгариш суръати, қўшимча ўзгариш суръати, миқдорий баҳолаш, ўртача даража, базисли кўрсаткич, занжирсимон кўрсаткич

**Аннотация.** В статье проводится экономико-статистический анализ факторов, влияющих на качество и эффективность подготовки высококвалифицированных кадров. Также описана система статистических показателей, используемых при анализе динамических рядов. На основе экономико-статистического анализа разработаны научно обоснованные предложения и рекомендации.

**Ключевые слова:** динамические ряды, абсолютное изменение, темп роста, темп прироста, количественная оценка, средняя уровень, базисный показатель, цепной показатель.

**Abstract.** The article provides an economic and statistical analysis of the factors affecting the quality and efficiency of training highly qualified personnel. The system of statistical indicators used in the analysis of dynamic series is also described. Based on the economic and statistical analysis, scientifically based proposals and recommendations have been developed.

**Keywords:** dynamic series, absolute change, growth rate, additional growth rate quantitative assessment, average level, basic indicator, chain indicator.

Юқори малакали кадрлар тайёрлаш сифати масаласи ҳар қандай давлатнинг устувор йўналишларидан бири ҳисобланади.

Айниқса, жаҳон бозори конъюктураси кескин ўзгариб, глобаллашув шароитида рақобат муҳити тобора кучайиб бораётган ҳозирги даврда, сифатли юқори малакали кадрларга бўлган эҳтиёж аҳамияти, ҳар қачонгидан ҳам тобора ошиб бормоқда. Бундай шароитда, яъни шиддат билан ўзгариб бораётган технологиялар асри, жамиятимиздан меҳнат бозори талабларига жавоб бера олмайдиган кадрлар тайёрлаш эски тизимидан воз кечиб янги тизимга ўтишни тақозо этади.

Мамлакатимизда бу борада кенг қамровли ислохотлар амалга оширилаётганлиги, яъни, келажак бунёдкори бўлмиш ёшларни олий таълимга янада кенгроқ қамраб олиш мақсадида олий таълим муассасаларига қабул квоталари оширилаётганлиги, замонавий таълим йўналишлари ва мутахассисликлар ҳамда сиртки ва кечки бўлимларнинг очилиши эвазига кадрлар тайёрлаш йўлга қўйилаётганлиги, туманларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш ҳамда таълим тизимида кадрлар қўнимсизлигини камайтириш мақсадида бакалавриятнинг кундузги таълим шаклларида йўналишлар бўйича умумий белгиланган давлат гранти асосидаги қабул кўрсаткичларига нисбатан туманлар учун қўшимча давлат гранти асосидаги мақсадли қабул кўрсаткичлари ажратилаётганлиги, янги олий таълим муассасалари ҳамда хорижий давлатлардаги нуфузли университетлар филиаллари ташкил этилаётганлиги, олий таълим муассасаларининг молиявий ҳолати яхшиланаётганлиги, олий таълим сифатини ошириш борасида олий таълим ташкилотларининг моддий-техник базаси мустаҳкамланаётганлиги, ўқув аудиторияларини замонавий ўқув-илмий лабораториялар, ахборот-коммуникация технологиялари воситалари билан жиҳозланаётганлиги, юқори салоҳиятга эга кадр сифатида камол топиши учун барча шарт-шароитлар яратиб берилаётганлиги, кадрлар тайёрлаш жараёнини сифат жиҳатдан янги босқичга кўтариш давлат сиёсати даражасида юксак эътибор берилаётганлигидан далолатдир [1-4].

1-жадвал

2010/2011-2020/2021 ўқув йилларида олий таълим ташкилотлари талабалари сонининг ҳудудлар кесимида таҳлили [10]

Ҳудудлар	2010 / 2011	2011 / 2012	2012 / 2013	2013 / 2014	2014 / 2015	2015 / 2016	2016 / 2017	2017 / 2018	2018 / 2019	2019 / 2020	2020 / 2021
<b>Талабалар сони, минг киши (ўқув йили бошига)</b>											
Ўзбекистон Республикаси	274,5	253,0	258,3	259,3	261,3	264,3	268,3	297,7	360,2	441,0	571,5
Қорақалпоғистон Республикаси	16,9	15,5	15,9	16,0	16,4	16,9	17,5	19,4	22,3	25,4	35,5
<i>Вилоятлар:</i>											
Андижон	15,5	14,0	15,2	15,7	16,5	17,4	17,6	19,2	21,7	26,0	30,9
Бухоро	14,4	13,4	13,8	13,8	13,6	13,7	14,0	15,9	20,9	24,8	35,6
Жиззах	8,6	8,4	8,9	9,3	10,1	10,2	10,9	12,5	14,7	18,0	23,4
Қашқадарё	11,6	10,6	11,2	11,8	12,7	13,3	14,3	15,9	18,4	22,5	27,8
Навоий	9,7	8,5	8,4	8,1	8,5	8,4	8,8	9,7	11,6	13,6	17,0
Наманган	12,5	11,0	11,1	10,8	11,0	11,0	11,5	13,3	16,7	20,1	26,0
Самарқанд	23,0	22,3	23,3	24,3	25,1	26,0	26,8	29,1	34,9	41,1	54,8
Сурхондарё	7,1	6,4	6,5	6,7	6,7	7,0	7,4	9,3	15,1	20,1	25,6
Сирдарё	4,2	3,8	3,9	3,8	3,8	3,8	3,9	4,6	6,8	9,1	9,6
Тошкент	12,0	10,4	9,1	8,3	7,4	7,2	7,3	8,1	14,9	20,9	28,5
Фарғона	19,6	17,7	18,2	18,5	18,2	18,2	18,3	21,5	27,2	35,8	48,4
Хоразм	8,8	8,1	8,2	8,3	8,3	8,6	9,1	10,5	13,4	16,2	22,8
Тошкент шаҳри	110,8	103,2	104,8	104,2	103,2	102,8	100,8	108,7	121,6	147,3	185,5

Бирок, шунга қарамасдан, юқори малакали кадрлар тайёрлаш янги парадигмаси шароитида қатор муаммолар пайдо бўлиши табиий ҳолдир. Бу муаммолар кадрлар тайёрлаш сифатига таъсир этувчи омилларни иқтисодий-статистик таҳлил этиш орқали аниқланиши ва табиийки, уларга жавоб топиш орқали “қисман” ҳал қилиниши барчага маълум.

Шу боис, мақолада юқори малакали кадрлар тайёрлаш жараёнига таъсир этувчи омилни, яъни олий таълим ташкилотларининг 2010/2011 - 2020/2021 ўқув йилларидаги талабалари сони статистик кўрсаткичларини иқтисодий-статистик таҳлил қилишга ҳаракат қиламиз.

Маълумки, ҳодисаларнинг вақт давомида ўзгаришини таърифловчи статистик кўрсаткичлар қатори динамика қаторлари деб юритилади. Бизнинг мисолимизда, бу 2010/2011-2020/2021 ўқув йилларида республикамиз олий таълим ташкилотларида таҳсил олган талабалар сони. Динамика қаторларини таҳлил қилиш жараёнида бир қатор кўрсаткичлар ҳисобланади. Жумладан: мутлоқ ўзгариш (ўсиш ёки камайиш); ўзгариш суръати (ўсиш ёки камайиш коэффиценти); қўшимча ўзгариш суръати (ўсиш ёки камайиш коэффиценти) (фоизда); бир фоиз ўзгариш (ўсиш ёки камайиш)нинг мутлоқ моҳияти (қиймати).

Динамика қаторлари кўрсаткичларини ҳисоблаш иккита давр даражасини таққослаш натижасида олинади. Одатда, таққосланадиган даража сифатида қаторнинг биринчи ва ёки олдинги йил даражаси қабул қилинади. Таққосланиш усулига қараб, бу кўрсаткичлар ўзгарувчан ва ўзгармас базали кўрсаткичларга бўлинади. Уларни базисли ва занжирсимон кўрсаткичлар ҳам деб аташади [5]. Базисли дейилишига сабаб қаторнинг барча ҳадлари база деб қабул қилинган битта ҳад билан таққосланади. Занжирсимонда эса ҳар бир таққослашда таққослаш базаси ўзгариб боради.

Мутлоқ ўзгариш деб, динамика қатори икки ҳадининг фарқига айтилади. Мутлоқ ўзгариш базисли усулда қуйидаги формула ёрдамида ҳисобланади:

$$\Delta Y_6 = Y_i - Y_0 \quad (1)$$

Мутлоқ ўзгаришни занжирсимон усулда ҳисоблаш формуласи эса қуйидагича:


$$\Delta Y_3 = Y_i - Y_{i-1} \quad (2)$$

бу ерда:  $\Delta Y_6$  ва  $\Delta Y_3$  – базисли ва занжирсимон усулларда мутлоқ ўзгариш;  $Y_i$  - таққосланувчи ҳад;  $Y_0$  - база деб қабул қилинган таққосланадиган ҳад;  $Y_{i-1}$  - таққосланувчи ҳаддан олдин келувчи таққосланадиган ҳад.

1-жадвалда келтирилган маълумотларни (1) ва (2) формулалар ёрдамида ҳисоблаймиз. Ҳисобланган мутлоқ ўзгариш кўрсаткичлари 2-жадвалда келтирилган.

2-жадвалда келтирилган ҳисоблаш натижалари таҳлили, 2011/2012 ўқув йили бошига республика ОТТларида таҳсил олаётган талабалар сони (таққосланувчи ҳад) базис ўқув йили (2010/2011 ўқув йили) бошига республика ОТТларида таҳсил олаётган талабалар сонидан (таққосланадиган ҳаддан) кичик эканлигини кўрсатмоқда. Яъни, 2010/2011 базис ўқув йилига нисбатан 2011/2012 ўқув йилида республика ОТТларида таҳсил олаётган талабалар сони камайганлигини англатади. Шунингдек, 2011/2012 - 2016/2017 ўқув йиллари оралиғида ҳам, республика ОТТларида таҳсил олаётган талабалар сони базис ўқув йилига нисбатан камайганлигини, 2017/2018 - 2020/2021 ўқув йиллари оралиғида эса базис йилга нисбатан ижобий томонга ўзгарганлигини (ўсганлигини) кўрсатмоқда.

Айтиб ўтиш жоиз, мутлоқ ўзгариш нафақат ижобий (плюс), балки салбий (минус) белгига ҳам эга бўлиши мумкин. Базисли ва занжирсимон усулда ҳисобланган, 2010/2011-2020/2021 ўқув йиллари бошига республика олий таълим ташкилотларида таҳсил олган талабалар сони мутлоқ ўзгариш кўрсаткичлари ўзаро боғлиқдир: занжирсимон усулда ҳисобланган мутлоқ ўзгаришлар йиғиндиси ( $\Sigma \Delta Y_3 = -21494 + 5317 + 947 + 2042 + 2959 + 3990 + 29408 + 62515 + 80787 + 130521 = 296992$  минг киши) базис усулда ҳисобланган охириги мутлоқ ўзгаришига ( $\Delta Y_6$  охириги = 296992 минг киши) тенгдир. Яъни,  $\Sigma \Delta Y_3 = \Delta Y_6$  (охириги).



1-расм. Республика бўйича ОТТ талабалари сонини 2010/2011-2020/2021 ўқув йилларида мутлоқ ўзгариш кўрсаткичларини маркерли графикаси

ОТТда таҳсил олаётган талабалар сони динамикасини ўрганишда ўзгариш суръати кўрсаткичининг ҳам ўзига хос хусусиятлари мавжуд. Ўзгариш суръати деб, қаторлар икки ҳадининг

нисбатига айтилади. Бу кўрсаткич коэффициентда ва фоизда (%) ифодаланади, яъни ҳар қайси кейинги давр даражаси бошланғич ёки ўзидан олдинги давр даражасига нисбатан қанча маротаба катта ёки кичик эканлигини ёки қанча фоиз ташкил этишини кўрсатади. Ўзгариш суръати статистик кўрсаткичи куйидаги формулалар билан аниқланади:

$$R_6 = \frac{Y_i}{Y_0} * 100 \tag{3}$$

$$R_3 = \frac{Y_i}{Y_{i-1}} * 100 \tag{4}$$

бу ерда:  $R_6$  ва  $R_3$  – базисли ва занжирсимон ўзгариш суръатлари;  $Y_i$  - таққосланувчи ҳад;  $Y_0$  - база деб қабул қилинган таққосланадиган ҳад;  $Y_{i-1}$  - таққосланувчи ҳаддан олдин келувчи таққосланадиган ҳад.

(3) формула базисли ўзгариш суръати, (4) формула эса занжирсимон ўзгариш суръати кўрсаткичини (коэффициентини) ҳисоблаш формуласидир.

Шу ўринда айтиш жоиз, статистика бўйича чоп қилинган кўпгина адабиётларда ушбу кўрсаткич “ўсиш суръати” номи билан юритилади ва у доимо ижобий белгига эга бўлиши кераклиги таъкидланади [5-7]. Бу фикр унчалик ҳам нотўғри эмас, аммо ҳаётда барча кўрсаткичлар ҳар доим ҳам ўсиши мумкин эмаслигини ёддан чиқармаслик зарур. Шу боис бу кўрсаткичларни ўзгариш суръатлари деб аташ афзалроқдир.

1-жадвал маълумотлари асосида ўзгариш суръати кўрсаткичларини ҳисоблаймиз:


Ҳисобланган ўзгариш суръати кўрсаткичлари 2–жадвалда келтирилган.

2-жадвалда келтирилган базисли усул ҳисоблаш натижалари таҳлили, 2011/2012 - 2016/2017 ўқув йиллари оралиғида республика ОТТларида таҳсил олаётган талабалар сони базис даврга нисбатан ўзгариш суръати кўрсаткичи камайганлигини кўрсатмоқда. Бу эса ўз навбатида, ўзгариш суръатининг 100% дан паст эканлигини, ўрганилаётган ҳад ўзидан олдинги ҳадга нисбатан камайиб кетганлигини билдиради. Шунингдек, 2017/2018 - 2020/2021 ўқув йиллари оралиғида, республика ОТТларида таҳсил олаётган талабалар сони ўзгариш суръати кўрсаткичи базис давр (2010/2011 ўқув йили)га нисбатан юқорилигини кўрсатмоқда. Бу ҳол, ўзгариш суръатининг 100% дан юқори эканлигини, яъни ўрганилаётган ҳад ўзидан олдинги ҳадга нисбатан ўсганлигини англатади. Айниқса, ўзгариш суръати кўрсаткичи 2020/2021 ўқув йилида 2010/2011 - 2011/2012 ўқув йиллари нисбатига қараганда ҳам, юқори эканлигини, 2,26 баробарга ортганлигини (208,2 фоиз) кўриш мумкин.

№	Йиллар	Қорақалпоғистон Республикаси		Андижон		Бухоро		Жиззах		Қашқадарё		Навоий		Наманган		Самарқанд		Сурхондарё		Сирдарё		Тошкент		Фарғона		Хоразм		Тошкент шаҳри														
		Баз.	Зан.	Баз.	Зан.	Баз.	Зан.	Баз.	Зан.	Баз.	Зан.	Баз.	Зан.	Баз.	Зан.	Баз.	Зан.	Баз.	Зан.	Баз.	Зан.	Баз.	Зан.	Баз.	Зан.	Баз.	Зан.	Баз.	Зан.													
1	2010/11	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-													
2	2011/12	92,0	92,0	90,6	90,6	93,0	93,0	97,7	97,7	91,2	91,2	87,3	87,3	87,5	87,5	96,7	96,7	90,0	90,0	92,0	92,0	86,7	86,7	86,7	86,7	89,9	89,9	89,9	89,9	92,2	92,2	92,2	92,2	94,0	94,0	94,6	94,6	93,1	93,1	93,1	93,1	
3	2012/13	94,0	102,2	98,1	108,4	95,8	103,0	103,8	106,3	96,4	105,8	86,1	88,6	88,6	88,6	101,3	104,7	91,7	90,0	90,0	93,7	93,7	69,0	76,2	87,9	87,9	92,7	92,7	103,1	103,1	93,8	93,8	101,2	101,2	94,0	94,0	94,6	94,6	99,4	99,4	99,4	99,4
4	2013/14	94,5	100,6	101,4	103,4	96,1	100,3	108,1	104,1	101,8	105,4	83,2	96,6	86,2	97,2	103,0	104,4	94,3	94,3	90,0	91,3	97,5	69,0	69,0	90,5	90,5	94,1	94,1	101,5	101,5	93,8	93,8	100,5	100,5	94,0	94,0	94,6	94,6	99,4	99,4	99,4	99,4
5	2014/15	97,0	102,6	106,9	105,4	94,6	98,4	117,3	108,5	109,3	107,6	87,1	94,7	88,0	102,1	103,0	98,6	95,2	90,0	91,0	99,7	99,7	61,4	61,4	89,0	89,0	92,8	92,8	98,6	98,6	97,7	97,7	100,8	100,8	95,1	95,1	94,6	94,6	99,0	99,0	99,0	99,0
6	2015/16	100,0	103,1	112,2	105,0	95,1	100,6	119,2	101,6	115,0	105,2	86,5	99,3	87,8	99,7	103,7	103,7	98,6	98,6	90,6	90,6	99,6	60,1	60,1	97,8	97,8	92,7	92,7	99,9	99,9	97,7	97,7	100,8	100,8	92,8	92,8	94,6	94,6	99,6	99,6	99,6	99,6
7	2016/17	103,8	103,8	113,8	101,3	97,4	102,4	126,7	106,3	123,5	107,3	90,7	104,9	91,8	104,7	103,3	105,3	98,6	98,6	90,6	91,7	103,4	60,9	60,9	101,3	101,3	91,4	91,4	100,8	100,8	97,7	97,7	105,8	105,8	91,0	91,0	94,6	94,6	98,1	98,1	98,1	98,1
8	2017/18	115,1	110,8	124,1	109,1	111,0	113,9	146,0	115,3	137,1	111,0	99,6	109,8	106,4	115,9	108,5	131,4	98,6	98,6	90,6	91,7	103,4	67,6	67,6	111,0	111,0	109,4	109,4	117,1	117,1	118,6	118,6	114,8	114,8	91,0	91,0	94,6	94,6	98,1	98,1	98,1	98,1
9	2018/19	131,8	114,5	140,5	113,2	145,5	131,1	171,6	117,6	158,8	115,8	119,7	120,2	133,8	125,7	119,9	213,5	98,6	98,6	90,6	91,7	103,4	69,9	69,9	111,0	111,0	138,5	138,5	126,6	126,6	151,9	151,9	114,8	114,8	91,0	91,0	94,6	94,6	98,1	98,1	98,1	98,1
10	2019/20	150,6	114,2	168,4	119,9	172,5	118,5	209,7	122,2	193,8	122,1	140,3	117,1	160,7	120,1	119,9	285,3	98,6	98,6	90,6	91,7	103,4	74,8	74,8	111,0	111,0	182,5	182,5	131,8	131,8	184,0	184,0	128,1	128,1	91,0	91,0	94,6	94,6	98,1	98,1	98,1	98,1
11	2020/21	210,0	139,5	199,9	118,7	248,1	143,8	272,5	130,0	240,3	124,0	171,0	124,8	207,6	129,2	178,6	361,2	98,6	98,6	90,6	91,7	103,4	103,4	147,7	147,7	140,5	140,5	182,5	182,5	151,9	151,9	128,1	128,1	91,0	91,0	94,6	94,6	98,1	98,1	98,1	98,1	

2-расм. Худудлар кесимида ОТТ талабалари сонини 2010/2011-2020/2021 ўқув йилларида ўзгариш суръати кўрсаткичлари

ОТТ талабалари сони ўзгариш суръати худудлар кесимида таҳлил этилганда, Қорақалпоғистон Республикаси, Сурхондарё ва Хоразм вилоятлари 2016/2017 - 2020/2021 ўқув йиллари оралиғида, Андижон ва Қашқадарё вилоятлари 2013/2014 - 2020/2021 ўқув йиллари оралиғида, Бухоро, Наманган, Сирдарё ҳамда Фарғона вилоятлари 2017/2018 - 2020/2021 ўқув йиллари оралиғида, Жиззах ва Самарқанд вилоятлари 2012/2013 - 2020/2021 ўқув йиллари оралиғида, Тошкент шаҳри, Навоий ҳамда Тошкент вилоятлари 2018/2019 - 2020/2021 ўқув йиллари оралиғида базис даврга нисбатан ўсганлигини, яъни ўзгариш суръатининг 100% дан юқори эканлигини кўрсатмоқда. Таҳлил этилаётган йилларнинг қолган ўқув йиллари оралиғида эса базис даврга нисбатан камайганлигини, яъни ўзгариш суръатининг 100% дан пастлигини кўрсатмоқда (2-расм).



3-расм. Ўзбекистон Республикаси бўйича ОТТ талабалари сонини 2010/2011-2020/2021 ўқув йилларида ўзгариш суръати кўрсаткичларининг гистограммаси

Мутлоқ кўрсаткичларга ўхшаб ўзгариш суръатлари ҳам ўзаро боғланган кўрсаткичлардир, яъни занжирсимон усулда ҳисоблаб чиқилган натижалар (ўзгариш суръатлари кўрсаткичлари) кўпайтмаси базисли усулда ҳисобланган охириги (ўзгариш суръати кўрсаткичига) натижага тенг. Масалан:

$$\frac{Y_{2011/2012}}{Y_{2010/2011}} \times \frac{Y_{2012/2013}}{Y_{2011/2012}} \times \frac{Y_{2013/2014}}{Y_{2012/2013}} \times \frac{Y_{2014/2015}}{Y_{2013/2014}} \times \frac{Y_{2015/2016}}{Y_{2014/2015}} \times \frac{Y_{2016/2017}}{Y_{2015/2016}} \times \frac{Y_{2017/2018}}{Y_{2016/2017}} \times \frac{Y_{2018/2019}}{Y_{2017/2018}} \times \frac{Y_{2019/2020}}{Y_{2018/2019}} \times \frac{Y_{2020/2021}}{Y_{2019/2020}} = \frac{Y_{2020/2021}}{Y_{2010/2011}}$$

ёки

$$0,922 \times 1,021 \times 1,004 \times 1,008 \times 1,011 \times 1,015 \times 1,110 \times 1,210 \times 1,224 \times 1,296 = 2,082.$$

Базисли ўзгариш суръатининг ўзаро бўлинмаси эса тегишли даврдаги занжирсимон ўзгариш суръатига тенг. 2-жадвал маълумотлари асосида ушбу фикрнинг исботини кўриб чиқамиз.

2018/2019 ўқув йили учун базисли ўзгариш суръати, яъни ушбу даврда (ўқув йили бошига) республика ОТТда таҳсил олган талабалар сонини 2010/2011 ўқув йили бошига (базис даврга) республика ОТТда таҳсил олган талабалар сонига нисбати 131,2% (1,312 коэффициент)ни, 2019/2020 ўқув йили учун базисли ўзгариш суръати эса 160,6% (1,606 коэффициент)ни ташкил этмоқда:

$$R_6 = \frac{Y_{2018/2019}}{Y_{2010/2011}} * 100 = \frac{360204}{274520} * 100 = 131,2\%$$

$$R_6 = \frac{Y_{2019/2020}}{Y_{2010/2011}} * 100 = \frac{440991}{274520} * 100 = 160,6\%$$

Бу кўрсаткичлар ўзаро бўлинмаси 1,224 коэффициент (122,4%) ни ташкил этади:

$$\frac{160,6\%}{131,2\%} * 100 = 122,4\%$$

2019/2020 ўқув йили учун занжирсимон ўзгариш суръати, 2019/2020 ўқув йили бошига республика ОТТда таҳсил олган талабалар сонини 2018/2019 ўқув йили бошига республика ОТТда таҳсил олган талабалар сонига нисбати билан аниқланади:

$$R_3 = \frac{Y_{2019/2020}}{Y_{2018/2019}} * 100 = \frac{440991}{360204} * 100 = 122,4\%$$

Демак, тегишли давр учун занжирсимон усулда аниқланган ўзгариш суръати 122,4% (1,224 коэффициент)ни ташкил этади. Бундан кўринадики, 2019/2020 ҳамда 2018/2019 ўқув йиллари базисли ўзгариш суръатининг ўзаро бўлинмаси тегишли даврдаги (2019/2020 ўқув йили) занжирсимон ўзгариш суръатига тенг.

Маълумки, ўрганилаётган ҳодиса ва жараёнларнинг динамикасини миқдорий томондан баҳолашда кўшимча ўзгариш суръатининг ҳам ўзига хос хусусиятлари мавжуд. Кўшимча ўзгариш суръати деб, ҳодисаларнинг мутлоқ ўзгаришини динамика қаторлари бошланғич ҳадиға нисбатига айтилади. У жорий давр даражаси базис давр даражасидан неча фоизга кўп (ёки кам) эканлигини кўрсатади. Кўшимча ўзгариш суръати - самарадорликнинг энг универсал қиёсий кўрсаткичи ҳисобланади.

Кўшимча ўзгариш суръати – вақт ўтиши билан қийматнинг ўзгариши демакдир. Кўшимча ўзгариш суръати ҳам ўзгариш суръати каби ҳам ижобий (+), ҳам салбий (-) қийматларга эга бўлиши


мумкин. Унинг ижобий қийматлари бизга кўрсаткичларнинг ўсиши, салбий қийматлари эса пасайиши ҳақида маълум қилади. Қўшимча ўзгариш суръати куйидаги формулалар билан ҳисобланилади:

$$\Delta R_6 = \frac{\Delta Y_6}{Y_0} * 100, \quad \text{ёки } R - 100, \quad (5)$$

$$\Delta R_3 = \frac{\Delta Y_3}{Y_{i-1}} * 100, \quad \text{ёки } R - 100. \quad (6)$$


бу ерда, (5) базисли (6) эса занжирсимон қўшимча ўзгариш суръатини ҳисоблаш формуласи.

2-жадвалда келтирилган базисли усул ҳисоблаш натижалари таҳлили, қўшимча ўзгариш суръати 2011/2012 - 2016/2017 ўқув йиллари оралиғида республика ОТТларида таҳсил олган талабалар сони даражаси базис даврда таҳсил олган талабалар сони даражасидан камлигини, 2017/2018 - 2020/2021 ўқув йиллари оралиғида эса республика ОТТларида таҳсил олган талабалар сони даражаси базис даврда таҳсил олган талабалар сони даражасидан ортанлигини кўрсатмоқда.



4-расм. Ўзбекистон Республикаси бўйича ОТТ талабалари сонини 2010/2011-2020/2021 ўқув йилларида базисли қўшимча ўзгариш суръати, %

ОТТ талабалари сони қўшимча ўзгариш суръатини ўрганилаётган йиллар учун ҳудудлар кесимида таҳлил этадиган бўлсак, Қорақалпоғистон Республикаси ОТТларида 2016/2017 ўқув йилидан бошлаб талабалар сони (17,5 минг киши) даражаси базис даврдаги даражасидан 3,8 % (+3,8 %)га, Андижон вилояти ОТТларида 2013/2014 ўқув йилидан бошлаб талабалар сони (15,7 минг киши) даражаси базис даврдаги даражасидан 1,4 % (+1,4 %)га, Бухоро вилояти ОТТларида 2017/2018 ўқув йилидан бошлаб талабалар сони (15,9 минг киши) даражаси базис даврдаги даражасидан 11,0 % (+11,0 %)га, Жиззах вилояти ОТТларида 2012/2013 ўқув йилидан бошлаб талабалар сони (8,9 минг киши) даражаси базис даврдаги даражасидан 3,8 % (+3,8 %)га, Қашқадарё вилояти ОТТларида 2013/2014 ўқув йилидан бошлаб талабалар сони (11,8 минг киши) даражаси базис даврдаги даражасидан 1,6 % (+1,6 %)га ўсганлигини кўриш мумкин.



5-расм. Ўзбекистон Республикаси бўйича ОТТ талабалари сонини 2010/2011-2020/2021 ўқув йилларида занжирсимон қўшимча ўзгариш суръати, %


№	Йиллар	Қорқалмистон Республикаси		Андижон		Бухоро		Жиззах		Қашқадарё		Навоий		Наманган		Самарқанд		Сурхондарё		Сирдарё		Тошкент		Фарғона		Хоразм		Тошкент шаҳри	
		Баз.	Зан.	Баз.	Зан.	Баз.	Зан.	Баз.	Зан.	Баз.	Зан.	Баз.	Зан.	Баз.	Зан.	Баз.	Зан.	Баз.	Зан.	Баз.	Зан.	Баз.	Зан.	Баз.	Зан.	Баз.	Зан.	Баз.	Зан.
1	2010/11	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-
2	2011/12	-8,0	-8,0	-9,4	-9,4	-7,0	-7,0	-7,0	-7,0	-8,8	-8,8	-12,7	-12,7	-12,5	-12,5	-3,3	-3,3	-10,0	-10,0	-8,0	-8,0	-13,3	-13,3	-10,1	-10,1	-7,8	-7,8	-6,9	-6,9
3	2012/13	-6,0	2,2	-1,9	8,4	-4,2	3,0	3,0	3,8	-3,6	5,8	-13,9	-13,9	1,2	1,3	4,7	4,7	1,9	1,9	-6,3	-6,3	-13,3	-13,3	3,1	3,1	-6,7	-6,7	-5,4	-5,4
4	2013/14	-5,5	0,6	1,4	3,4	-3,9	0,3	0,3	8,1	1,6	5,4	-16,8	-16,8	-2,8	5,7	4,4	4,4	2,8	2,8	-8,7	-8,7	-31,0	-31,0	5,4	5,4	-6,2	-6,2	-6,0	-6,0
5	2014/15	-3,0	2,6	6,9	5,4	-5,4	-1,6	-1,6	17,3	9,3	7,6	-12,9	-12,9	2,1	8,9	3,0	3,0	1,0	1,0	-9,0	-9,0	-38,6	-38,6	2,6	2,6	-5,4	-5,4	-1,0	-1,0
6	2015/16	0,0	3,1	12,2	9,0	-4,9	0,6	0,6	19,2	15,0	5,2	-13,5	-13,5	-0,3	12,9	3,7	3,7	3,5	3,5	-9,4	-9,4	-39,9	-39,9	3,1	3,1	-2,3	-2,3	-0,4	-0,4
7	2016/17	3,8	3,8	13,8	13,3	-2,6	2,4	2,4	26,7	23,5	7,3	-9,3	-9,3	4,7	16,7	3,3	3,3	6,8	6,8	-6,3	-6,3	-39,1	-39,1	3,8	3,8	3,3	3,3	-1,9	-1,9
8	2017/18	15,1	10,8	24,1	9,1	11,0	13,9	13,9	46,0	37,1	11,0	-0,4	-0,4	15,9	26,6	8,5	8,5	24,8	24,8	10,7	10,7	11,0	11,0	17,1	17,1	18,6	18,6	7,9	7,9
9	2018/19	31,8	14,5	40,5	13,2	45,5	31,1	31,1	71,6	58,8	15,8	19,7	19,7	25,7	51,8	19,9	19,9	35,6	35,6	63,5	63,5	84,0	84,0	31,8	31,8	31,9	31,9	14,8	14,8
10	2019/20	50,6	14,2	68,4	19,9	72,5	109,7	109,7	171,6	140,3	22,1	40,3	40,3	50,7	78,6	17,6	17,6	53,6	53,6	118,2	118,2	144,0	144,0	14,2	14,2	21,2	21,2	35,0	35,0
11	2020/21	110,0	39,5	99,9	18,7	148,1	187,5	187,5	282,2	240,3	24,0	60,7	60,7	80,7	107,6	17,6	17,6	62,5	62,5	130,4	130,4	166,0	166,0	14,5	14,5	21,2	21,2	11,8	11,8

6-расм. Худудлар кесимида ОТТ талабалари сонини 2010/2011-2020/2021 ўқув йилларида қўшимча ўзгариш суръати кўрсаткичлари

Худди шунингдек, Навоий вилояти ОТТларида 2018/2019 ўқув йилидан бошлаб талабалар сони (11,6 минг киши) даражаси базис даврдаги даражасидан 19,7 % (+19,7 %)га, Наманган вилояти ОТТларида 2017/2018 ўқув йилидан бошлаб талабалар сони (13,3 минг киши) даражаси базис даврдаги даражасидан 6,4 % (+6,4 %)га, Самарқанд вилояти ОТТларида 2012/2013 ўқув йилидан бошлаб талабалар сони (23,3 минг киши) даражаси базис даврдаги даражасидан 1,3 % (+1,3 %)га, Сурхондарё вилояти ОТТларида 2016/2017 ўқув йилидан бошлаб талабалар сони (7,4 минг киши) даражаси базис даврдаги даражасидан 5,3 % (+5,3 %)га, Сирдарё вилояти ОТТларида 2017/2018 ўқув йилидан бошлаб талабалар сони (4,6 минг киши) даражаси базис даврдаги даражасидан 10,7 % (+10,7 %)га, Тошкент вилояти ОТТларида 2018/2019 ўқув йилидан бошлаб талабалар сони (14,9 минг киши) даражаси базис даврдаги даражасидан 24,4 % (+24,4 %)га, Фарғона вилояти ОТТларида 2017/2018 ўқув йилидан бошлаб талабалар сони (21,5 минг киши) даражаси базис даврдаги даражасидан 9,4 % (+9,4 %)га, Хоразм вилояти ОТТларида 2016/2017 ўқув йилидан бошлаб талабалар сони (9,1 минг киши) даражаси базис даврдаги даражасидан 3,3 % (+3,3 %)га ҳамда Тошкент шаҳри ОТТларида 2018/2019 ўқув йилидан бошлаб талабалар сони (121,6 минг киши) даражаси базис даврдаги даражасидан 9,7 % (+9,7 %)га ўсганлигини яъни ушбу даврларда ижобий қийматларни кузатиш мумкин (6-расм).

Таҳлиллар, худудларнинг юқорида қайд этилган ўқув йилларидан олдинги даврларида ОТТларида таҳсил олган талабалар сони даражаси базис даврдаги (2010/2011 ўқув йилида) даражасидан пастлигини (камлигини) яъни салбий қийматларни кўрсатмоқда (6-расм).

Таҳлил қилинаётган давр учун ОТТ талабалари сонининг динамикасини баҳолашда бир фоиз қўшимча ўзгаришни мутлоқ моҳияти кўрсаткичини аҳамияти жуда катта ҳисобланади. Бу кўрсаткични фақат занжирсимон усул учун ҳисоблаш маънога эга бўлади. Базис усули учун у ўзгармас бўлиб қолаверади.



7-расм. Ўзбекистон Республикаси бўйича ОТТ талабалари сонини 2010/2011-2020/2021 ўқув йилларида бир фоиз қўшимча ўзгаришини мутлоқ моҳияти кўрсаткичларининг гистограммаси

Бир фоиз қўшимча ўзгаришнинг мутлоқ моҳияти кўрсаткичи мутлоқ ўзгаришни қўшимча ўзгариш суръатига нисбати билан баҳоланади ва қуйидаги формула билан ҳисобланади.



$$A_i = \frac{\Delta Y_3}{\Delta R_3} = \frac{Y_i - Y_{i-1}}{\frac{Y_i - Y_{i-1}}{Y_{i-1}} \cdot 100} = \frac{Y_{i-1}}{100} = 0,01 \cdot Y_{i-1} \quad (7)$$

бу ерда,  $(A_i)$  - бир фоиз кўшимча ўзгаришнинг мутлоқ моҳияти кўрсаткичи;  $\Delta R_3$  - занжирсимон кўшимча ўзгариш суръати ( $\Delta R_3 = \frac{Y_i - Y_{i-1}}{Y_{i-1}} \cdot 100$ );  $\Delta Y_3$  - занжирсимон мутлоқ ўзгариш ( $\Delta Y_3 = Y_i - Y_{i-1}$ ).

(7) формулага асосан, ўрганилаётган давр учун ОТТ талабалари сонини бир фоиз кўшимча ўзгаришининг мутлоқ моҳияти кўрсаткичи ҳисоблаб чиқилди (2-жадвал).

2-жадвал натижаларига кўра, бир фоиз кўшимча ўзгаришнинг мутлоқ моҳияти кўрсаткичи  $(A_i)$ , база даражанинг юздан бир қисмини, шунинг билан бир вақтнинг ўзида мутлоқ ўзгаришнинг мос келадиган кўшимча ўзгариш суръатига нисбатини ҳам ифодалаши ҳамда база даражанинг билвосита ўлчови бўлиб хизмат қилиши аниқланди.

2-жадвалда ОТТ талабалари сони динамика қаторларини таҳлил қилиш жараёнида қўлланилган статистик кўрсаткичларнинг (мутлоқ ўзгариш; ўзгариш суръати; кўшимча ўзгариш суръати; бир фоиз ўзгаришнинг мутлоқ моҳияти) ҳисоблаш натижалари келтирилган.

Таъкидлаш жоизки, тадқиқот мобайнида ўтказилган иқтисодий-статистик таҳлил ва кўп йиллик олий таълим тизими фаолияти билан боғлиқ бўлган тажриба бу кўрсаткичларни биргаликда ҳисоблаш ва комплекс таҳлил қилиш зарурлигини исботлади.

Олий таълим ташкилотларида юқори малакали кадрлар тайёрлаш сифатини баҳолаш жараёнлари билан боғлиқ ҳодисаларнинг (ўрганилаётган давр, 2010/2011 - 2020/2021 ўқув йиллари) динамикасига умумлаштириб баҳо бериш учун уларнинг ўртача даражаларини ҳисоблаш зарур. Бу эса ўз навбатида юқорида қайд этилган фикрни яна бир бор тасдиғи эканлигини кўрсатади. Бунинг учун, ОТТ талабалари сони динамика қаторининг ўртача даражаси, ўртача мутлоқ ўзгариш, ўртача ўзгариш суръати, ўртача кўшимча ўзгариш суръатлари ҳисоблаб чиқилади.

2-жадвал

Ўзбекистон Республикаси бўйича ОТТ талабалари сонининг 2010/2011-2020/2021 ўқув йилларидаги динамикаси кўрсаткичлари

№	Йиллар	Талабалар сони, минг киши	Мутлоқ ўзгариш, минг киши		Ўзгариш суръати, %		Кўшимча ўзгариш суръати, %		1 % кўшимча ўзгаришни мутлоқ моҳияти
			Базисли	Занжир-симон	Базисли	Занжир-симон	Базисли	Занжир-симон	Занжир-симон
1	2010 / 11	274,5	-	-	100,0	-	-	-	-
2	2011 / 12	253,0	-21,5	-21,5	92,2	92,2	-7,8	-7,8	2745,2
3	2012 / 13	258,3	-16,2	5,3	94,1	102,1	-5,9	2,1	2530,3
4	2013 / 14	259,3	-15,2	0,9	94,5	100,4	-5,5	0,4	2583,4
5	2014 / 15	261,3	-13,2	2,0	95,2	100,8	-4,8	0,8	2592,9
6	2015 / 16	264,3	-10,2	3,0	96,3	101,1	-3,7	1,1	2613,3
7	2016 / 17	268,3	-6,2	4,0	97,7	101,5	-2,3	1,5	2642,9
8	2017 / 18	297,7	23,2	29,4	108,4	111,0	8,4	11,0	2682,8
9	2018 / 19	360,2	85,7	62,5	131,2	121,0	31,2	21,0	2976,9
10	2019 / 20	441,0	166,5	80,8	160,6	122,4	60,6	22,4	3602,0
11	2020 / 21	571,5	297,0	130,5	208,2	129,6	108,2	29,6	4409,9

Динамика қаторларининг ўртача даражасини аниқлаш уларнинг турига боғлиқ. Даврий динамика қаторларининг ўртача даражаси оддий арифметик формула билан аниқланади:

$$\bar{Y} = \frac{Y_1 + Y_2 + \dots + Y_n}{n} = \frac{\Sigma Y}{n} \quad (8)$$

Пайт (моментли) динамика қаторларининг ҳадлари орасидаги саналар тенг бўлса, ўртача даража ўртача хронологик формула билан аниқланади [9]:

$$\bar{Y} = \frac{\frac{1}{2}Y_1 + Y_2 + \dots + \frac{1}{2}Y_n}{n-1} \quad (9)$$

Таҳлил этилаётган қаторлар (1-жадвал) динамика қаторининг пайт (момент)ли турига киради. Сабаби, унинг ҳадлари ОТТ талабалари сонини фақатгина бир пайт (ўқув йили боши) га кўрсатмоқда. Эслатиб ўтиш жоиз, даврий динамика қаторларида ҳадлар шу давр оралиғи (интервал)да берилади. Масалан, бир йилда ОТТларида таҳсил олган талабалар сони, ташкил этилган янги олий таълим муассасалари ёки хорижий давлатлардаги нуфузли университетларнинг филиаллари сони, ОТТларида фаолият кўрсатган профессор-ўқитувчилар сони ва ҳоказо.

Шундай экан, ўрганилаётган динамика қатори ўртача даражаси ((9) формулага асосан) ўртача хронологик формулага асосан ҳисобланади.

$$\bar{Y}_{\text{хрон}} = \frac{\frac{1}{2} * 274,5 + 253,0 + 258,3 + 259,3 + 261,3 + 264,3 + 268,3 + 297,7 + 360,2 + 441,0 + \frac{1}{2} * 571,5}{11 - 1} =$$

$$= \frac{137,3 + 253,0 + 258,3 + 259,3 + 261,3 + 264,3 + 268,3 + 297,7 + 360,2 + 441,0 + 285,8}{10} =$$

$$= \frac{3086,463}{10} = 308,6463 = 308,6 \text{ минг киши.}$$

Республикамиз бўйича ОТТ талабалари сони (1-жадвал) пайт (моментли) динамика қатори ўртача даражаси (2010/2011 - 2020/2021 ўқув йиллари учун) ўртача хронологик формулага асосан ҳисоблаб чиқилганда 308,6 минг кишини ташкил этди. Ўзбекистон Республикаси ҳудудлари бўйича эса у қуйидаги натижаларни кўрсатди (3-жадвал).


ОТТ талабалари сони динамика қатори ўртача хронологик даражаси кўрсаткичларини ҳудудлар кесимида (3-жадвал) таҳлил этсак, энг юқори кўрсаткич Тошкент шаҳри (114,4 минг киши) га, юқори кўрсаткич Самарқанд (29,2 минг киши), Фарғона (22,8 минг киши), Андижон вилоятлари (18,6 минг киши) ҳамда Қорақалпоғистон Республикаси (19,2 минг киши)га, энг паст кўрсаткич эса Сирдарё вилоятига (5,0 минг киши) тўғри келганлигини кўриш мумкин.

3-жадвал маълумотлари асосида қурилган Парето диаграммаси (8-расм)га эътибор қаратилса юқорида қайд этилган таҳлилар исботига ҳолат қолмайди. Чунки, Парето диаграммаси Ўзбекистон Республикаси ҳудудлари бўйича ОТТ талабалари сони (2010/2011-2020/2021 ўқув йиллари) динамика қаторининг ўртача хронологик даражаси кўрсаткичларини камайиш тартибида тақсимланишини кўрсатади.

3-жадвал

2010/2011-2020/2021 ўқув йилларида ОТТ талабалари сони динамика қаторининг ҳудудлар кесимида ўртача даражалари кўрсаткичлари [10]

Ҳудудлар	Ўртача хронологик даража, минг киши	Ўртача мутлоқ ўзгариш, минг киши	Ўртача ўзгариш суръати, фоизда
Ўзбекистон Республикаси	308,6	29,7	107,6
Қорақалпоғистон Республикаси	19,2	1,9	107,7
<i>Вилоятлар:</i>			
Андижон	18,6	1,5	107,2
Бухоро	16,9	2,1	109,5
Жиззах	11,9	1,5	110,5
Қашқадарё	15,0	1,6	109,2
Навоий	9,9	0,7	105,8
Наманган	13,6	1,3	107,6
Самарқанд	29,2	3,2	109,1
Сурхондарё	10,1	1,9	113,8
Сирдарё	5,0	0,5	108,7
Тошкент	11,4	1,7	109,1
Фарғона	22,8	2,9	109,5
Хоразм	10,7	1,4	110,0
Тошкент шаҳри	114,4	7,5	105,3



8-расм. Ўзбекистон Республикаси ҳудудлари бўйича ОТТ талабалари сони (2010/2011-2020/2021 ўқув йиллари) динамика қаторининг ўртача хронологик даражаси кўрсаткичларини Парето диаграммаси ёрдамида таъсирланиши

ОТТ талабалари сони динамика қаторини комплекс таҳлил қилиш ва ўртача даражаларини аниқлашнинг яна бир статистик кўрсаткичи ўртача мутлоқ ўзгариш ҳисобланади. Ўртача мутлоқ

ўзгариш - ОТТ талабалари сони динамика қаторларининг индивидуал ўзгариш даражаларига умумлаштириб тавсиф беради. Уни ҳисоблашнинг бир неча хил усуллари мавжуд.

Биринчи усулда, у занжирсимон усулда ҳисобланган мутлоқ ўзгаришларни уларнинг сонига нисбати билан аниқланади. У қуйидаги формула ёрдамида ҳисобланади:

$$\overline{\Delta Y} = \frac{\Sigma \Delta Y_3}{n} \quad (10)$$

бу ерда,  $\Sigma \Delta Y_3$  – занжирсимон усулда ҳисобланган мутлоқ ўзгаришлар йиғиндис;  $n$  – занжирсимон усулда ҳисобланган мутлоқ ўзгаришлар сони.

$$\begin{aligned} \bar{Y} &= \frac{-21,5 + 5,3 + 0,9 + 2,0 + 3,0 + 4,0 + 29,4 + 62,5 + 80,8 + 130,5}{10} = \\ &= \frac{297,0}{10} = 29,6992 = 29,7 \text{ минг киши.} \end{aligned}$$

Ушбу усулда ҳисобланган Ўзбекистон Республикаси бўйича ОТТ талабалари сони динамика қаторининг ўртача мутлоқ ўзгариши  $\bar{Y} = 29,7$  минг кишини ташкил этмоқда.

Иккинчи усулда, ўрганилаётган динамика қаторининг ўртача мутлоқ ўзгариши мутлоқ ҳадлар ёрдамида ҳисобланади, яъни охириги ҳад ( $Y_n$ ) билан биринчи ҳад ( $Y_0$ ) фарқини  $m-1$  га нисбати билан аниқланади. Бу усул формуласи қуйидагича бўлади:

$$\overline{\Delta Y} = \frac{Y_n - Y_0}{m-1} \quad (11)$$

бу ерда,  $Y_0$  – база деб қабул қилинган ўқув йилидаги республика бўйича ОТТ талабалари сони (биринчи ҳад);  $Y_n$  – охириги ўқув йилидаги (таҳлил этилаётган йилларнинг энг охиригисидagi) республика бўйича ОТТ талабалари сони (охириги ҳад);  $m$  – таҳлил этилаётган йиллар сони.

$$\overline{\Delta Y} = \frac{571,5 - 274,5}{11 - 1} = \frac{297,0}{10} = 29,6992 = 29,7 \text{ минг киши.}$$


Ушбу усулда ((11) формула асосида) ҳисобланган Ўзбекистон Республикаси бўйича ОТТ талабалари сони динамика қаторининг ўртача мутлоқ ўзгариши, яъни Республика ОТТларида 2020/2021 ўқув йилида (ўқув йили бошига) таҳсил олган талабалар сони (571,5 минг киши) билан 2010/2011 ўқув йилида (базис ўқув йилида) таҳсил олган талабалар сони (274,5 минг киши) фарқини,  $m-1$  га нисбати ҳам  $\bar{Y} = 29,7$  минг кишини ташкил этмоқда.

Учинчи усулда, ОТТ талабалари сони динамика қаторини ўртача мутлоқ ўзгариши, базисли ва занжирсимон мутлоқ ўзгаришларнинг ўзаро боғлиқлигидан фойдаланган ҳолда аниқланади ва унинг формуласи қуйидагича бўлади:

$$\overline{\Delta Y} = \frac{\Delta Y_6 \text{ (охириги)}}{m-1} \quad (12)$$

бу ерда,  $\Delta Y_6$  (охириги) – базис усулда ҳисобланган охириги мутлоқ ўзгариш;  $m$  – таҳлил этилаётган йиллар сони.

$$\overline{\Delta Y} = \frac{297,0}{11 - 1} = \frac{297,0}{10} = 29,6992 = 29,7 \text{ минг киши.}$$



9-расм. Ўзбекистон Республикаси ҳудудлари бўйича ОТТ талабалари сони (2010/2011-2020/2021 ўқув йиллари) динамика қаторини ўртача мутлоқ ўзгариш кўрсаткичларини Парето диаграммаси ёрдамида тасвирланиши

Республика ОТТ талабалари сони динамика қаторини ўртача мутлоқ ўзгариши ( $\overline{\Delta Y}$ ), уч хил усул ((10) – (12) формулалар) билан ҳисобланганда ҳам, бир хил қиймат (29,7 минг киши)га эга эканлигини кўрсатди. Шунингдек, республикамиз ҳудудлари бўйича ОТТ талабалари сони (1-жадвал) динамика қаторлари ўртача мутлоқ ўзгариши (2010/2011 - 2020/2021 ўқув йиллари учун), уч хил усул билан ҳисоблаб чиқилганда ҳам бир хил натижалар олинди. Мутлоқ ўзгариш кўрсаткичлари 3-жадвалда келтирилган.

Шу ўринда таъкидлаш жоиз, юқоридаги фикрнинг асослилиги, илмий фаолият олиб бораётган тадқиқотчиларга, динамика қаторларининг ўртача мутлоқ ўзгаришларини ҳисоблашда, ушбу усуллардан бирини ёки энг мақбулини танлаш имконияти борлигини билдиради.

3-жадвал маълумотлари асосида қурилган Парето диаграммаси (9-расм) таҳлили, Ўзбекистон Республикаси ҳудудлари бўйича ОТТ талабалари сони динамика қаторини ўртача мутлоқ ўзгаришининг, энг юқори кўрсаткичи Тошкент шаҳри (7,5 минг киши)га, юқори кўрсаткичи Самарқанд (3,2 минг киши) ва Фарғона (2,9 минг киши) вилоятларига, энг паст кўрсаткичи эса Навоий (0,7 минг киши) ва Сирдарё (0,5 минг киши) вилоятларига тўғри келаётганлигини кўрсатмоқда.

Таъкидлаш жоиз, ишнинг вазифаси ОТТ талабалари сони динамик қаторларини фақатгина ўртача даражаларини йиллар бўйича ҳисоблаш эмас, балки узоқ даврлар учун ҳам ўрганилаётган ҳодисанинг интенсивлигини баҳолашдан иборатдир. Бу вазифа ўртача ўзгариш суръатларини аниқлаш орқали амалга оширилади. Шундай экан, ОТТ талабалари сони динамикасига умумлаштириб баҳо беришда ўртача ўзгариш суръатининг аҳамияти юқоридир.

Ўртача ўзгариш суръати, занжирсимон усулда ҳисобланган ўзгариш суръатлари маълум бўлса, ўртача геометрик формула ёрдамида аниқланади [8]:

$$\bar{R}_{\text{геометрик}} = \sqrt[n]{R_1 \times R_2 \times R_3 \times \dots \times R_n} \quad (13)$$

бу ерда,  $R_1, R_2, R_3, \dots, R_n$  - занжирсимон усулда ҳисобланган ўзгариш суръатлари кўрсаткичлари (коэффициентлари);  $n$  - занжирсимон усулда ҳисобланган ўзгариш суръатлари кўрсаткичлари (коэффициентлари) сони.

Ушбу формула 2-жадвал маълумотларига қўллаймиз:

$$\begin{aligned} \bar{R}_r &= \sqrt[10]{92,2 \times 102,1 \times 100,4 \times 100,8 \times 101,1 \times 101,5 \times 111,0 \times 121,0 \times 122,4 \times 129,6} \\ &= \sqrt[10]{208,19} = 107,6\% \end{aligned}$$

Бинобарин, республика бўйича ОТТ талабалари сони динамика қаторини ўртача ўзгариш суръати 107,6 фоизни ташкил этди.

Республика бўйича ОТТ талабалари сони динамика қатори ўртача ўзгариш суръати, занжирсимон ва базисли ўзгариш суръатлари ўртасидаги ўзаро боғлиқлик ҳисобга олинган ҳолда ҳам аниқланиши мумкин ва у қуйидаги формулалар кўринишида ифодаланади:

$$\bar{R} = \sqrt[n]{\prod R_3} \quad (14)$$

ёки


$$\bar{R} = \sqrt[n]{R_6 \text{ (охирги)}} \quad (15)$$

бу ерда, (14) формуладаги  $(\prod R_3)$  - занжирсимон усулда ҳисобланган ўзгариш суръатлари натижаларининг кўпайтмаси;  $n$  - занжирсимон усулда ҳисобланган ўзгариш суръатлари кўрсаткичлари (коэффициентлари) сони; (15) формуладаги  $(R_6 \text{ (охирги)})$  - базисли усулда ҳисобланган охириги ўзгариш суръати натижаси;  $n$  - илдиз даражаси, у таҳлил этилаётган йиллар сонидан 1 ни айириш орқали аниқланади:  $n=m-1=11-1=10$ .

(15) формулага 2-жадвалдаги базисли усулда ҳисобланган охириги ўзгариш суръати кўрсаткичини қўллаймиз:

$$\bar{R} = \sqrt[10]{208,2} = 107,6\%$$

Бу усулда олинган натижа ҳам 107,6 фоизни ташкил этди.



10-расм. Ўзбекистон Республикаси ҳудудлари бўйича ОТТ талабалари сони динамика қаторини ўртача ўзгариш суръати

Бундан ташқари, республика бўйича ОТТ талабалари сони динамика қатори ўртача ўзгариш суръати, мутлоқ ҳадлар (даражалар) ёрдамида ҳам ҳисобланиши мумкин. Уни формуласи қуйидаги кўринишга эга:

$$\bar{R} = \sqrt[m-1]{\frac{Y_n}{Y_0}} \quad (16)$$

бу ерда,  $Y_0$  – база деб қабул қилинган ўқув йилидаги республика бўйича ОТТ талабалари сони (биринчи ҳад);  $Y_n$  – охириги ўқув йилидаги (таҳлил этилаётган йилларнинг энг охиригисидagi) республика бўйича ОТТ талабалари сони (охириги ҳад);  $n$  – илдиз даражаси,  $n=m-1=11-1=10$ .

$$\bar{R} = \sqrt[11-1]{\frac{571,5}{274,5}} = \sqrt[10]{\frac{571,5}{274,5}} = \sqrt[10]{2,081859} = 1,076081$$

Бу кўрсаткич ҳам коэффициентда ҳам фоизда (%) ифодаланади. Шундай экан, республика бўйича ОТТ талабалари сони динамика қаторини ўртача ўзгариш суръати 1,076081 ёки 107,6 % ни ташкил этади.

Ўзбекистон Республикаси ҳамда унинг ҳудудлари кесимида ОТТ талабалари сони динамика қаторини ўртача ўзгариш суръати ( $\bar{R}$ ), уч хил усул ((13), (15) ва (16) формулалар) билан ҳисобланганда ҳам, бир хил натижалар олинди.

2010/2011-2020/2021 ўқув йилларида ОТТ талабалари сони динамика қаторининг ҳудудлар кесимида ўртача ўзгариш суръати кўрсаткичлари 3-жадвалда келтирилган.

ОТТ талабалари сони ўртача ўзгариш суръати (2010/2011 - 2020/2021 ўқув йиллари оралиғида) ҳудудлар кесимида таҳлил этилганда (3-жадвал ва 10-расм асосида) Сурхондарё вилоятининг (113,8 %) ўртача ўзгариш суръати барча ҳудудларга қараганда ҳам юқори эканлигини, Навоий вилояти (105,8 %) ва Тошкент шаҳрининг (105,3 %) ўртача ўзгариш суръати энг паст эканлигини кўрсатди. Бирок, энг паст ўртача ўзгариш суръатлари ҳам 100 % дан юқори эканлигини кўриш мумкин. Бу эса ўз навбатида, мамлакатимизда ОТТ талабалари сонининг ривожланиш интенсивлиги ошиб бораётганлигини билдиради.

Хулоса қилиб айтганда, республикамиз олий таълим муассасаларининг 2010/2011 - 2020/2021 ўқув йилларидаги талабалари сони динамикасини миқдорий томондан баҳолашда мутлоқ ўзгариш, ўзгариш суръати, қўшимча ўзгариш суръати, бир фоиз ўзгаришининг мутлоқ моҳияти статистик кўрсаткичлари қўлланилди. Шунингдек, ОТТ талабалари сони динамикасига умумлаштириб баҳо бериш учун динамика қаторининг ўртача даражаси, ўртача мутлоқ ўзгариш, ўртача ўзгариш суръатлари ҳисобланди. Олинган натижалар жадвал кўринишида ифодаланди. Жадвалда келтирилган ҳисоблаш маълумотлари статистик графикларда тасвирланди. Улар асосида иқтисодий-статистик таҳлил амалга оширилди ва хулосалар чиқарилди. Таҳлилларга кўра, республикамизда таҳсил олаётган талабалар сони ўсиш тенденциясига эга эканлиги аниқланди.

Бу ҳол, шубҳасиз, мамлакатимиз тараққиёти учун ижобий бўлиб, аҳолини саводлилиқ, билим даражасини ошириш, ишсизликка барҳам бериш, иқтисодиёт тармоқ ва соҳалари эҳтиёжини кадрлар орқали қондиришга олиб келади.

Бирок, жаҳон бозори конъюнктураси кескин ўзгариб, глобаллашув шароитида рақобат муҳити тобора кучайиб бораётган ҳозирги даврда, мамлакатимиз ижтимоий-иқтисодий соҳа ва тармоқларини барқарор ҳамда жадал суръатлар билан ривожлантириш учун ҳар томонлама етук, билимли, малакали, рақобатбардош, янгиликларни тез ўзлаштирадиган, ўзгарувчан муҳитга тез мослаша оладиган, мустақил фикр ва мушоҳада юритадиган, меҳнат бозори талабларига жавоб берадиган кадрларга бўлган эҳтиёж масаласида етарли даражада ўз самарасини бера олмайди.

Юқорида қайд этилган муаммо, қуйидаги чора-тадбирлар тизимини амалга ошириш орқали ҳал қилиниши мумкин:

- кадрлар тайёрлаш сифатига таъсир этувчи, яъни ОТТларнинг ривожланиш ва фаолият юритиш самарадорлиги, ОТТ профессор-ўқитувчилар таркиби сифати, моддий-техник базаси ва инфратузилмаси ҳолати, ахборот-коммуникация технологиялари (АКТ) ва замонавий ўқув лаборатория тўпламлари билан таъминланганлик даражаси, талабалари (битирувчилари) ўзлаштиришининг сифат кўрсаткичлари ва ютуқлари, уларнинг рақобатбардошлиқ даражаси, меҳнат бозорида уларга бўлган талаб каби омилларни ўрганиб, иқтисодий-статистик таҳлилинини амалга ошириб, хулоса ва таклифлар ишлаб чиқиш;

- олий таълим муассасалари профессор-ўқитувчилари, талаба-битирувчилари ўртасида сўровлар ўтказиш, иш берувчиларнинг фикрини ўрганиш ҳамда илғор хорижий тажрибаларни таҳлил қилиш орқали ОТТларда юқори салоҳиятли кадрлар тайёрлаш сифатини тахҳислашнинг такомиллаштирилган механизминини ишлаб чиқиш;

- сифатли, юқори малакали кадрларга бўлган талабни аниқлаш ва узоқ муддатли прогнозларни ишлаб чиқиш.

#### ҲОИДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. О.Хатамов, М.Зарипова Олий таълим муассасалари инновацион фаолигини баҳолашга ёндашувлар таҳлили. *Biznes-Эксперт* журнали, 2021 йил, № 6, 26-31 бетлар.

2. Зарипова М.Д., Артикаева Г.К. Олий таълим муассасалари талабалари билимларини назорат қилиш ва баҳолашнинг математик моделлари. *Хоразм Маъмур академияси ахборотномаси*, 2021 йил, № 2 (72), 99-111 бетлар.

3. Зарипова, М. (2021). Олий таълим муассасаларида таълим сифат ва самарадорлигини корреляцион-регрессион таҳлил ёрдамида ошириш. Иқтисодиёт ва таълим, (5), 269–276. Retrieved from <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/244>

4. Xatamov O.Q., & Zaripova M.D. (2021). Correlation-regression analysis - as a means of improving the quality and efficiency of the education system in higher education institution. "European Scholar Journal", Vol. 2 No. 5, May 2021, ISSN: 2660-5562, <https://scholarzest.com/index.php/esj/article/view/724>.

5. Х. Шодиёв, Е. Абдуллаев, З. Тошматов ва бошқ. Статистика.// Дарслик. Тошкент.: "Ибн-Сино", 2004, -354 бет.

6. К.Э. Плохотников, С.В. Колков. Статистика: Учеб. пособие / - 4-е изд., стер. - М.: ФЛИНТА, 2012. -288 с.

7. И.И. Елисеева, М.М. Юзбашев. Общая теория статистики: Учебник / Под ред. И.И. Елисеевой. — 5-е изд., перераб. и доп. — М.: Финансы и статистика, 2004. — 656 с.

8. И.И. Елисеева. Статистика/ Учебник для вузов. - СПб.: Питер, 2010. - С. 122.

9. X. Shadiyev, I. Xabibullayev, V. Maxmudov va boshq. Statistika.// Darslik. T.: "Tafakkur bo'stoni", 2013, b.-128.

10. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси маълумотлари асосида муаллиф ишланмаси

УДК 33

## УПРАВЛЕНИЕ УСТОЙЧИВЫМ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИМ РАЗВИТИЕМ РЕГИОНОВ НА ОСНОВЕ СИСТЕМЫ СТРАТЕГИЧЕСКОГО ПЛАНИРОВАНИЯ

*Д.И. Курёзов, соискатель, Каракалтакский научно-исследовательский институт гуманитарных наук, Нукус*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada davlat strategik rejalashtirish jarayonining tashkiliy va institutsional shakllantirishni ta'minlash zarurligi bayon etilgan va uni amalga oshirish uchun mas'uliyatni davlat hokimiyati organlarining alohida tarkibiy bo'linmalariga yuklash asoslab berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *strategik rejalashtirish, boshqaruv qarorlari.*

**Аннотация.** *В этой статье описывается необходимость обеспечить организационно-институциональное оформление процесса государственного стратегического планирования и обосновывается возложение обязанности по его реализации на конкретные структурные подразделения органов государственной власти.*

**Ключевые слова:** *стратегическое планирование, управленческие решения.*

**Abstract.** *This paper describes the need to ensure the organizational and institutional design of the state strategic planning process and substantiates the assignment of the responsibility for its implementation to specific structural divisions of public authorities.*

**Key words:** *strategic planning, management decisions.*

В современных условиях развития региональных социально-экономических систем понятие «устойчивость» не является их системной характеристикой. С экономической точки зрения оно отражает динамику цен, рыночной конъюнктуры, оптимальные пропорции, эффективность использования ресурсов, адаптацию к неблагоприятным внешним и внутренним факторам и др. Именно поэтому, отождествление региона с административно-территориальной единицей страны дает определенные позитивные возможности в рамках управления его устойчивым развитием на основе целостности, комплексности и специализации. В этой связи, совершенствование процесса территориального управления обуславливает необходимость разработки современного теоретического инструментария на основе системы стратегического планирования.

Практика ограниченного планирования в виде отдельных стратегий, концепций, программ и проектов не обеспечит обоснованное принятие решений по достижению стратегических целей устойчивого регионального развития, поскольку ориентировано главным образом на решение макроэкономических или отраслевых проблем. Кроме того, анализ социально-экономического развития региона на основе только роста отдельных количественных целевых индикаторов, при отсутствии оценки взаимовлияния реализации отдельных направлений деятельности является существенным ограничением эффективного управления и планирования, снижающим продуктивность достигнутых результатов и их не соответствию затраченным усилиям и израсходованным средствам.

Узбекистан взял курс активного перехода от директивного к стратегическому планированию в 2017 г. с принятием Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017-2021 годах.

Кроме того, в республике принят ряд принципиальных мер и решений, обеспечивающих формирование благоприятных условий хозяйствования в улучшающихся институциональных условиях, которые включают в себя:

- создание уполномоченного органа в лице Министерства экономического развития и сокращения бедности Республики Узбекистан, ответственного за разработку документов стратегического планирования;

- обеспечение полноценного участия бизнес- и экспертного сообщества в подготовке и обсуждении документов стратегического планирования уже на всех стадиях;

- формирование прозрачного механизма отчетности о ходе реализации поставленных стратегических целей и задач;
- совершенствование процедур разработки и реализации фискальной и денежно-кредитной политики, обеспечивающих их согласованность друг с другом.

В последние годы были предприняты целый ряд мер по совершенствованию системы стратегического планирования в Узбекистане и отдельных сферах государственного и общественного строительства.

Важнейшим условием достижения Стратегии является четкое функционирование системы государственного управления, способной обеспечить полноценную реализацию осуществляемых реформ, принимаемых нормативно-правовых актов и государственных программ, а также своевременно выявлять и эффективно решать проблемы общественно-политического и социально-экономического развития.

Реализация административной реформы позволила сформировать систему государственного управления, способную обеспечить реализацию курса реформ, своевременно выявлять и эффективно решать проблемы общественно-политического и социально-экономического развития.

Чрезмерное государственное регулирование способствовало проявлению системных проблем в сфере налогообложения хозяйствующих субъектов, для преодоления которых в республике принята Концепция совершенствования налоговой политики. Она предусматривает последовательное снижение налогового бремени, упрощение системы налогообложения и совершенствование налогового администрирования в целях формирования конкурентной среды, обеспечения устойчивого развития национальной экономики и улучшения инвестиционного климата в республике.

Процесс стратегического планирования в областях республики должен быть переориентирован с разработки отдельных и не взаимосвязанных документов на формирование методологии реформирования и управления региональными социально-экономическими системами, что обуславливает необходимость модернизации применяемого инструментария и внесения корректив в деятельность органов регионального управления принципиально новых подходов.

Причем реализация системы стратегического планирования региона должна быть направлена как на определение и достижение основных индикативных показателей, так и на выбор приоритетов устойчивого развития при сбалансированности экономических, социальных и экологических ориентиров. Это потребует от органов территориального управления применение системного подхода, мобилизации всех имеющихся ресурсов, налаживания сотрудничества с предпринимательскими, консалтинговыми и научными структурами, неправительственными некоммерческими организациями.

Приоритетным индикатором деятельности органов территориального управления при выборе моделей, ориентиров и инструментария определяющих параметров социальной политики в рамках стратегического планирования является соотношение экономического и социального направлений развития. Это потребует концентрации управленческих решений на таких направлениях как:

- формирование институциональных основ стратегического планирования социально-экономического развития региона;
- повышение значимости социальных проблем и социальной ориентированности стратегий социально-экономического развития региона;
- достижение сбалансированности полученных доходов, привлеченных инвестиций и объемов выделенных средств на финансирование социальных и экологических программ;
- рост инвестиционной и инновационной привлекательности региона, модернизация технологий и производственной инфраструктуры;
- обеспечение участия предпринимательских структур, некоммерческих и общественных организаций к стратегическому планированию и реализации программ регионального социально-экономического развития.

Инструментами воздействия индикативного плана на экономическое поведение производителей и потребителей призваны служить не прямые требования и указания государственных органов, а рычаги косвенного воздействия. В их число входят: предоставление государственных заказов, доступ к природным и иным ресурсам, находящимся в государственной или территориальной собственности, льготное кредитование и налогообложение, таможенные преференции, содействие инвестированию и др.

Инструментарий и алгоритм принятия плановых решений субъектами социально-экономического регионального развития при формировании стратегий могут существенно варьировать. Подходы к организации стратегического планирования дифференцируются по степени соответствия потребностям развития экономики региона, количеству и составу субъектов, вовлеченных в данный процесс, уровню агрегирования аналитической информации, а также ряду других параметров. Совершенствование этих механизмов неизбежно будет строиться на основе изучения и оценки зарубежного опыта, применительно к специфике Узбекистана.

Поскольку стратегическое планирование является непрерывным итеративным процессом, включающим в себя последовательность шагов и стадий, оно должно быть приспособлено к реально существующим механизмам принятия решений в сложных социально-экономических системах. Поэтому необходимо обеспечить организационно-институциональное оформление процесса государственного стратегического планирования и возложить обязанности по его реализации на конкретные структурные подразделения органов государственной власти.

#### СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Кузнецов А.П. Устойчивое развитие региона: эколого-экономические аспекты: монография / А.П. Кузнецов, Р.Ю. Селименков ; под науч. рук. д.э.н., проф. Т.В. Усковой. – Вологда: ИСЭРТ РАН, 2015. – 136 с.
2. Осипова М.Ю. Разработка статико-динамического подхода к оценке и управлению устойчивым развитием региона. Дис. ... канд. экон. наук: 08.00.05. – Пермь, 2017. – 259 с.
3. Дружинин П.В., Шкиперова Г.Т. Эколого-экономические модели и прогнозы в системе регионального управления // Проблемы прогнозирования, «Экономика и бизнес», 2012. - С.88-97.
4. Ченцов А.С. Императивы эколого-экономического развития региона // Основы экономики, управления и права, 2012. - №3. - С.89-93.
5. Сыромятникова О.П., Задорова Т.В. Оценка эколого-экономического развития региона // Региональная экономика: теория и практика, 2016. - №8. – С.176–186.
6. Тяглов С.Г. Принцип многоуровневого управления устойчивым развитием региональной экономики в части обеспечения эколого-экономических императивов // Terra economicus, 2014, том 12. - № 2, ч. 3. – С.178-182.
7. Мурзин А.Д. Регулирование эколого-экономических отношений на уровне региона: синергетический подход // Вестник Дагестанского государственного университета. 2015. Том. 30. Вып. 5. – С.50-54.
8. Хисамутдинов И. А. Социо-эколого-экономическая оценка региона в контексте перехода к устойчивому развитию // Стратегия развития региона, 2013. - №4 (283). – С.9-15.
9. Захарова Е.Н., Барташевич А.А. Управление эколого-экономическими рисками в системе инструментов регионального устойчивого развития // Вестник Адыгейского государственного университета. Серия 5: Экономика, 2011.
10. Третьякова Е.А., Миролубова Т.В., Мыслякова Ю.Г., Шамова Е.А. Методический подход к комплексной оценке устойчивого развития региона в условиях экологизации экономики // Вестник УрФУ. Серия экономика и управление. 2018. Т. 17, № 4. – С. 651–669.

УЎТ 639

### БАЛИҚЧИЛИК СОҲАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИНГ ЎРНИ

*Х.Б.Ражапов, катта ўқитувчи, Урганч Давлат университети, Урганч*

**Аннотация.** *Мазкур мақолада балиқчилик соҳасини ривожлантиришда кичик бизнес ва тадбиркорликнинг ўрни ва жиҳатлари, шарт-шароитлари, имкониятлари, муаммолари ёритилган.*

**Калим сўзлар:** *тадбиркорлик ва кичик бизнес, балиқчилик, балиқчилик хўжалиги, пандемия, карантин, балиқ маҳсулотлари.*

**Аннотация.** *В данной статье описаны роль и аспекты, условия, возможности и проблемы малого бизнеса и предпринимательства в развитии рыбной отрасли.*

**Ключевые слова:** *предпринимательство и малый бизнес, рыболовство, рыбная хозяйства, пандемия, карантин, рыбная продукция.*

**Abstract.** *This article describes the role and aspects, conditions, opportunities and problems of small business and entrepreneurship in the development of the fishing industry.*

**Keywords:** *entrepreneurship and small business, fishing, fish industry, pandemic, quarantine, fish products.*

Ижтимоий-иқтисодий тараққийтни янги, янада юксак босқичга кўтаришда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик (КБХТ) нинг ўрни ва роли бениҳоя каттадир. Дунёда иқтисодиётни ривожлантиришнинг синалган усуллари орасида энг самаралиси ва макбули, кичик бизнес равнақи учун учун кенг йўл очиб бериш ҳисобланади. Кичик бизнес соҳасининг иқтисодиётдаги аҳамияти унинг иқтисодиётда рақобат муҳитини таъминлаш, йирик корхоналар учун маҳсулот ва хизматлар етказиб бериш, янги иш ўринларини яратиш ва иккиламчи бандликни таъминлаш, бозор тизимининг мослашувчанлигини ошириш, илмий-техникавий инқилобни фаоллаштириш, ресурсларни ишлаб чиқаришга сафарбар этиш, солиқ тушумлари ҳажмини ўсишини таъминлаш, аҳоли даромадлари ва фаровонлиги даражасини барқарорлаштириш каби муҳим омиллар билан белгиланади.

Ўзбекистон Республикаси мустақилликка эришганидан кейин иқтисодиётдаги энг муҳим ва стратегик йўналишлар сифатида хусусий мулк, тадбиркорлик ва кичик бизнесни ривожлантириш учун янада кенг имкониятларни яратиш вазифаси белгиланди.

Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 53-моддасида “Бозор муносабатларини ривожлантиришга қаратилган Ўзбекистон иқтисодиётининг негизини хилма-хил шакллардаги мулк ташкил этади. Давлат истеъмолчиларнинг ҳуқуқи устунлигини ҳисобга олиб, иқтисодий фаолият,



тадбиркорлик ва меҳнат қилиш эркинлигини, барча мулк шакллариининг тенг ҳуқуқлилигини ва ҳуқуқий жиҳатдан баб-баравар муҳофаза этилишини кафолатлайди”[1], деб белгилаб қўйилган.

Хусусий мулк бошқа мулк шакллари каби дахлсиз ва давлат ҳимоясидадир. Мулкдор фақат қонунда назарда тутилган ҳолларда ва тартибдагина мулкидан маҳрум этилиши мумкин[1].

Республикада иқтисодий эркинлаштириш шароитида қишлоқ хўжалигида тадбиркорлик фаолияти билан шуғулланадиган хўжалик юритиш шакллариини ташкил қилиш ва ривожлантириш бўйича ҳам барча шарт-шароитлар яратилди.

Аҳолини озик-овқатга кундан кун ўсиб бораётган талабини қондириш учун қишлоқ хўжалигининг бошқа тармоқлари қатори балиқчилик соҳасини ривожлантириш ҳам ҳозирги кунда асосий масалалардан бири ҳисобланади. Республикада балиқчилик тармоғини жадал ривожлантириш, балиқ маҳсулотлари ишлаб чиқаришнинг замонавий ва инновацион услубларини жорий этган ҳолда ҳажмларини ошириш, соҳани тартибга солиш бўйича бир қатор қонун ҳужжатлари қабул қилиниб, уларнинг ижросини сифатли ва пухта таъминлаш чоралари қўрилмоқда. Шу билан бирга, интенсив усулда балиқ етиштириш бўйича ишларга етарли даражада эътибор қаратиляпти, ҳудудларда балиқчилик тармоғини ривожлантиришда юзага келаётган муаммоларни ҳал этиш, балиқчилик хўжаликларини қўллаб-қувватлаш борасида олиб борилаётган ишларни жадаллаштириш ҳозирги кунни долзарб масалаларидан бири ҳисобланади. Балиқчилик хўжаликларига бириктирилган сув ҳавза майдонларидан илмий ёндашув асосида самарали фойдаланиш, уларнинг мелиоратив ҳолатини яхшилаш, шунингдек, ресурс тежамкор технологиялар ва инновацияларни кенг қўламда жорий қилиш ишларига етарлича эътибор бериш, сунъий сув ҳавзалари ҳосилдорлигини ошириш учун балиқчилик хўжаликларининг минерал ўғитларга бўлган талаби тўлиқ қондириш, минерал ўғитни бошқа муқобил ўғитлар билан алмаштириш бўйича илмий-тадқиқот ишларини олиб бориш, балиқни интенсив усулда етиштириш, овлаш ва қайта ишлаш учун зарур асбоб-ускуна, анжом ва механизмларни маҳаллий ишлаб чиқаришни йўлга қўйиш зарур. Тадбиркорларнинг ушбу фаолият билан шуғулланишига Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 6 апрелдаги ПҚ-3657 (Балиқчилик тармоғини жадал ривожлантиришга доир қўшимча чора тадбирлар тўғрисида) ва 2018 йил 6 ноябрдаги ПҚ-4005 даги (Балиқчиликни янада ривожлантиришга доир қўшимча чора тадбирлар тўғрисида тадбиркорликни ривожлантириш тўғрисида) қарорлари асос бўлмоқда. Шу сабабли тадбиркорлар сафи йилдан-йилга кўпайиб, халқ хўжалигининг турли соҳаларида фаолият кўрсатмоқдалар ва бу эса мамлакатимизда катта ўзгаришларга сабаб бўлмоқда.

1-жадвал

**Хорижий давлатлар бозорини эгаллаш бўйича амалга ошириш зарур бўлган ишлар ҳақида тавсиялар [7]**

<p><b>1. Балиқчилик соҳасини ривожлантириш.</b></p>	<p>1.1. Балиқчилик соҳасини бозор муносабатларига мослаштириб бориш, бозор талабларига қараб такомиллаштириш, барқарорликни таъминлаш, бозорлардаги талаб ва таклифларни ўрганиш.                  1.2. Режали балиқ тутиш орқали балиқчилик соҳасини ривожлантириш. Давлат табиатни муҳофаза қилиш қўмитаси томонидан балиқ овлаш ва балиқларни урчиш даврида назоратни кучайтириш, табиий муҳитни муҳофаза қилиш. Балиқ тутиш меъёрларини асослаш.                  1.3. Балиқчилик соҳасини молиявий тизимини яхшилаш. Имтиёзли кредитлар, субсидиялар ажратиш орқали. Бунинг учун тижорат банклари билан ҳамкорликни кучайтириш керак.                  1.4. Уруғлар (балиқ турлари бўйича) ишлаб чиқаришни жонлантириш ва кичик бизнес (фермер) хўжаликларига уруғ етказиб бериш тизими самарадорлигини такомиллаштириш. Қимматли балиқ турлари ва чавокларини интенсив етиштириш учун питомник ва наслчилик ишларини давлат-хусусий шериклик шартларида такомиллаштириш.                  1.5. Балиқчилик соҳасида ахборот-коммуникация технологияларини кенг жорий этиш, илмий-тадқиқот ишларни кучайтириш ва илм-фан ютуқларидан самарали фойдаланиш, балиқчилик соҳаси ходимлари малакасини ошириш тизимини йўлга қўйиш орқали кадрлар салоҳиятини ошириш. Балиқчилик соҳасида хориж тажрибаларини қўллаш.</p>
<p><b>2. Аквакультурани ривожлантириш ва бу тажрибани</b></p>	<p>2.1. Аквакультурани ривожланиши учун қўллаб-қувватлаш тизимини барпо этиш.                  2.2. Ходимларни ўқитиш ва малакасини ошириш. Стандарт моделни яратиш. Билим ва тажрибаларни тарқатиш ва омма эътиборига етказиш.                  2.3. Намунавий ишлаб чиқаришни йўлга қўйиш.                  2.4. Янги сув ҳавзаларини очиш                  2.3. Аквакультурани ривожлантириш бўйича қўлланмалар ишлаб чиқариш ва тарқатиш.                  2.5. Аквакултурани ривожлантириш бўйича фаолиятни кенгайтиришда меҳнат ресурслари, техник ва маъмурий ахборотлар каби зарур шарт-шароитларни яратиш.</p>

## 3. Экспорт салоҳиятини ошириш

- 3.1. Балиқларни қайта ишлаш ва балиқ маҳсулотларини ишлаб чиқариш (консерва, икра, балиқ уни ва бошқалар) бўйича замонавий комплексларни ташкил этиш. Биринчи навбатда, аҳоли эҳтиёжларини қондириш, шунингдек, кейинчалик қўшни мамлакатларга экспорт қилиш учун.
- 3.2. Озиқ-овқат хавфсизлиги ва сифатини назорат қилиш тизимини модернизация қилиш. Соҳада маҳсулот сифатини таъминлаш мақсадида совутиш мосламалари билан таъминланганлик даражасини ошириш.
- 3.3 Халқаро бозорларда тан олинган сифат стандартларини жорий этишга қўмаклашиш механизмларини ишлаб чиқиш. Миллий сифат тизимини такомиллаштириш бўйича режа ишлаб чиқиш.
- 3.4. Тайёр балиқ маҳсулотларини сотиш учун экспорт қилишга мўлжалланган транспорт-логистика инфратузилмасини ташкил этиш. Маҳаллий ва мақсадли халқаро бозорларда балиқ ва балиқ маҳсулотлари маркетинги ва ташиш харажатларини камайтириш.
- 3.5. Соҳада ташқи иқтисодий алоқаларни кенгайтириш. Хорижий ҳамкорлар билан ишлаш тизимини такомиллаштириш.
- 3.6. Экспортга мўлжалланган маҳсулотлар салмоғини ошириш мақсадида ишлаб чиқаришга замонавий технологияларни жорий қилиш.
- 3.7. Тайёр маҳсулотларни экспорт қилишга йўналтирилган хорижий инвестиция иштирокидаги корхоналар сонини қупайтириш ва фаолиятини такомиллаштириш.
- 3.8. Республиканинг экспорт бозоридаги мавқеини мустаҳкамлаш ва кенгайтириш, янги экспорт бозорларини эгаллаш.
- 3.9. Балиқчилик соҳасида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг экспортдаги иштирокини рағбатлантириш, бунинг учун зарур шарт-шароитларни яратиш.
- 3.10. Соҳа ва соҳанинг худудлар экспорт салоҳиятидан самарали фойдаланишни кўзда тутадиган, ўзаро мувофиқлаштирилган чора-тадбирлар дастурини ишлаб чиқиш ва изчил амалга ошириш.

Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қўмитасининг маълумотларига кўра, қишлоқ, ўрмон ва балиқ хўжаликлари томонидан етиштирилган маҳсулот (хизмат)ларининг умумий ҳажми 2019 йилда 224265,9 миллиард сўмни, 2020 йилда эса 261892,2 миллиард сўмни ташкил қилди. 2020 йилда 2019 йилга нисбатан 1,17 фоизга ўсиш кузатилди. Хоразм вилояти бўйича қишлоқ, ўрмон ва балиқ хўжаликлари томонидан етиштирилган маҳсулот (хизмат)ларининг умумий ҳажми 2019 йилда 14447,6 миллиард сўмни, 2020 йилда эса 16957,7 миллиард сўмни ташкил қилди. Хоразм вилоятида ҳам 2020 йилда 2019 йилга нисбатан 1,17 фоиз ўсиш кузатилди.

Тадбиркорликни ривожлантиришнинг яна бир муҳим жиҳатларидан бири бу ишлаб чиқарилган маҳсулотларни сотиш учун ташқи бозорларни топиш масаласи ҳамдир. Тадбиркорлар томонидан етиштирилаётган балиқ ва балиқ маҳсулотларининг асосан ички бозорларга йўналтирилганлиги талабга нисбатан таклифнинг ортиб бориши натижасида тадбиркорлар кўзланган самарага эга бўлмаяпти. Хоразм вилояти учун яқин келажакда қўшни вилоятлар бозорига чиқиш ва узоқ истиқболда хорижий давлатлар бозорларини ҳам эгаллаш стратегик мақсад сифатида белгиланиши керак (1-жадвал).

Ҳозирда пандемия шароитида аҳолининг гўшт ва гўшт маҳсулотларига бўлган талабининг ортиши, ўз навбатида ушбу маҳсулотларнинг таннархи ошиб кетишига сабаб бўлмоқда. Бу эса ўз навбатида аҳоли талабини қондириш мақсадида парранда ва балиқ маҳсулотлари билан таъминлашни тақозо этади. Бунинг ечими сифатида паррандачилик ва балиқчилик соҳасида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантириш ва такомиллаштириш заруриятини тақозо этади. Бу эса ўз навбатида янги ишчи ўринларнинг яратилиши, мамлакатимиз бозорларига балиқ ва балиқ маҳсулотларининг чиқарилишини ошишига ҳамда нархларнинг тушишига сабаб бўлади.

Қишлоқ, ўрмон ва балиқчилик хўжалиги соҳаси коронавирус пандемияси даврида иқтисодиёт тармоқлари орасидаги энг кам зарар кўриб фаолият кўрсатаётган тармоқлардан биридир.

Ҳукуматимиз томонидан ушбу соҳага қаратилаётган алоҳида эътибор сабабли, фаолият кўрсатаётган корхона ва ташкилотлар сони 2018 йилнинг мос даврига нисбатан қарийб икки баравар кўпайди ва ўтган йилнинг мос даврига нисбатан эса 12 124 тага ошган[2].

Халқимиз етти хазинанинг бири деб биладиган паррандачилик ва балиқчилик бўйича ишга солинмаган имкониятлар кўплиги, бу тармоқлар аҳолини гўшт ва тухум билан таъминлаш, оилаларга даромад манбаи яратишда муҳим ўрин тутди. Агрофирмалар ташкил этиш орқали бу маҳсулотларни экспорт қилиш ҳам мумкин.

1960 йилгача Ўзбекистонда балиқчилик асосан Орол денгизи ҳавзасида олиб борилган, йилига 15000 тоннагача балиқ маҳсулотлари етиштирилган. Орол денгизи кичрайиб бориши натижасида Ўзбекистон балиқ маҳсулотлари етиштириш учун бошқа сув ҳавзаларидан фойдаланиб, бошқа сув жонзоти турлари етиштирилмоқда. Натижада, Совет Иттифоқи томонидан импорт қилинган балиқ маҳсулотларини ҳисобга олганда Ўзбекистонда йиллик жон бошига ҳисобланган истеъмол 10-12 кг ташкил қиларди [3]. Совет Иттифоқи тарқаб кетгандан сўнг, балиқчиликдаги аҳвол иқтисодий қийинчилик туфайли ёмонлашди, натижада балиқчилик манбалари, тугилган балиқ сони ва сув жонзотлар тури камайиб кетди. Йиллик жон бошига ҳисобланган балиқ истеъмоли шу давр ичида камайди ва ҳозирги кунда 1кг дан камроқдир. 70 йилларгача Қорақалпоғистон, Орол Денгизи қурий бошлагунга қадар, Ўзбекистонда балиқчилик соҳасида энг муҳим роль ўйнаган. У шунингдек балиқ маҳсулотларини консерваларини, музлатилган балиқларни қўшни Собиқ Совет Иттифоқи давлатларига

экспорт қилган. Орол денгизининг суви камайиб кетгандан сўнг, балиқчилик Орол денгизининг юқорироқ оролчаларига ва Амударё бўйига кўчди.

Балиқларнинг ҳаддан ташқари кўп овланиши Ер юзидаги миллиардлаб одамлар учун протеин манбаи бўлган балиқларни йўқ қилишга хавф солмоқда. Кенг кўламли саноат балиқчилиги ҳажмларининг ортиши, шунингдек балиқ ресурслардан фойдаланиш зарур даражада тартибга солилмаганлиги ушбу муаммони янада ўткирлаштирмоқда

Ҳозирда Ўзбекистонда 3420 та балиқ етиштирувчи хўжаликлар рўйхатдан ўтган бўлиб, совет даврида ташкил қилинган 20 та катта хўжаликлар балиқ етиштиришда энг катта улушга эга. Асосан фермерлар бўлган кичик балиқчилик хўжаликлари сув етишмайдиган ва қишлоқ хўжалиги учун яроқсиз бўлган ҳудудларда фаолият юритишга мажбур бўлиб, уларнинг ишлаб чиқаришдаги улуши жуда оз. Уруғлар республика бўйича 8 та катта хусусий балиқчилик хўжаликларида етиштирилиб тарқатилади.

Дудланган балиқ етиштириш эса бирон бир балиқ тури тутилганидан кейин оила доирасида амалга оширилади, кейин эса маҳаллий бозорларда сотилади.


Хоразм вилоятининг асосий балиқ бозори Урганч шаҳрида жойлашган. Шу билан бирга туман марказий бозорларида ҳам ўз фаолиятини олиб боради. Шунингдек, Республикамиз пойтахти Тошкент шаҳрига ҳам балиқ ва балиқ маҳсулотлари тарқатилади. Бу узоқ масофали савдо-сотиқ асосан куздан баҳоргача давом этади. Ёзнинг иссиқ кунларида эса совутиш мосламаларнинг танқислиги туфайли савдо-сотиқ яхши бўлмайди. Бозордаги хом балиқ ёзда совутиш мосламаларнинг танқислиги ва санитар текширишнинг етарли эмаслиги туфайли чирий бошлайди. Харидорлар ёзда балиқ сотиб олишдан ўзларини тийишади.

Хоразм вилоятида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик умумий ҳолатини барча ҳудудлар ва иқтисодий тармоқларида ижобий суръатлар билан ривожланаётган барқарор соҳа сифатида баҳолаш мумкин. Вилоят аҳолиси ўзининг ташаббускорлиги ва ишбилармонлиги билан бошқа кўшни давлатлардан аҳолисидан ажралиб туради. Бу эса ўз навбатида минтақанинг асосий рақобат устунликларидан бири ҳисобланади.

Хоразм вилоятида ер ости сувлари кўтарилиши ҳаммамизга маълум, бундан эса ўз навбатида тадбиркорликни ривожлантиришда самарали фойдаланиш имкониятларини топиш ва уларни амалиётга татбиқ этиш долзарб масала ҳисобланади. Бу борада сунъий қўлларни ташкил этиб, уларда балиқчиликни ривожлантиришнинг инновацион усуллари, яъни балиқларни урчитиш, рационал озиклантириш, ривожланиш жараёнини қишда ҳам давом этиш жараёнини таъминлашни йўлга қўйиш мумкин. Бу борада маҳаллий мутахассислар ва вилоятнинг илмий салоҳиятидан самарали фойдаланиш керак бўлади.

Тадбиркорлар имконияти ва салоҳиятидан самарали фойдаланган ҳолда балиқ ва балиқ маҳсулотларини сақлаш, транспортировка қилиш, қайта ишлаш ва қадоқлаш ишларида замонавий технологияларни қўллаш асосида экспортбоп маҳсулотлар ишлаб чиқаришни ташкил этиш муҳимдир.

Балиқ ва балиқ маҳсулотларини тарқатиш ва савдога чиқариш тизими қуйидаги 1-расмда берилган.



1-расм. Балиқ ва балиқ маҳсулотларини савдога чиқариш тизими [3]

2020 йил 8 июлда Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев раислигида ўтказилган видеоселектор йиғилишида ҳудудларда тадбиркорликни ривожлантириш ҳамда бюджет тушумларини сўзсиз таъминлаш чора-тадбирлари муҳокама қилинди.

Ушбу видеоселекторда Давлатимиз раҳбари Шавкат Миромонович **“Пандемиядан кучли бўлиб чиқишнинг бирдан бир йўли – кичик бизнес ва тадбиркорликка қулай муҳит яратиш”** лозимлигини айтиб ўтдилар[4]. Мураккаб шароитга қарамай, ушбу соҳани ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш бўйича зарур чоралар кўрилмоқда, лекин баъзи ҳудудларда бу борадаги ишлар қоникарли эмаслиги таъкидланди.

Карантин талабларининг юмшатилиши натижасида корхоналар фаолияти тикланди. Бироқ 69 мингта тадбиркорнинг фаолиятини жонлантириш кераклиги, жойлардаги раҳбарлар 9 ой якуни бўйича

уларнинг камида 70 фоизини, йил якунига қадар тўлиқ қувват билан ишлашига масъул ва жавобгарлиги белгиланди.

Мамлакат миқёсидаги мутасаддиларга худудларга бориб тушуми камайган корхоналар билан тизимли ишни йўлга қўйиш вазифаси юклатилди.

Йиғилишда таъкидланганидек, тадбиркорлар карантин қоидаларига амал қилишда санитария ва ёнғин хавфсизлиги идоралари томонидан тушунарсиз ва бир-бирига зид талабларга дуч келмоқда. Шу боис, тадбиркорларнинг муурожаатлари ва таклифлари асосида жорий тартибларни қайта кўриб чиқиб, оммавий ахборот воситалари ва ижтимоий тармоқларда тушунарли шаклда аҳолига етказиш топшириғи берилди.

2019 йилда рўйхатдан ўтган тадбиркорларнинг, яъни, янги бизнес субъектларининг 23 мингтаси ёки 24 фоизи бугунги кунда фаолият кўрсатмаётганлиги сабабли, масъул раҳбарлар улар билан мулоқот қилиши, тез фурсатларда уларни ишга тушириш чоралари кўрилиши белгиланди.

Бунда тадбиркорга кўпроқ шароит яратиб бериш, жумладан, электр, газ, сув таъминоти, йўл, кредит билан боғлиқ масалаларни ечиб бериш лозимлиги кўрсатиб ўтилди.

Фаолият бошлаётган кичик бизнесни қўллаб-қувватлашнинг мутлақо янги тизимини ишлаб чиқиш топшириғи берилди. Бунда тадбиркорни махсус курсларда ўқитиш, субъектни рўйхатдан ўтказиш, асбоб-ускуна сотиб олиш харажатларининг бир қисмига грант ажратиш назарда тутилади. Ушбу тизимнинг вертикал ижросини таъминлаш учун ҳозирда фақат республика даражасида фаолият юритаётган Тадбиркорликни ривожлантириш агентлиги ишини тумангача тушириш лозимлиги қайд этилди.

Бу белгиланган чоралар ва бажарилиши лозим бўлган ишлар кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик давлатимиз эътиборида эканидан далолатдир.

2020 йилда қишлоқ, ўрмон ва балиқчилик хўжалиги маҳсулот (хизмат)лари ҳажми ўтган йилнинг мос даврига нисбатан 103,1 % ни, шу жумладан, деҳқончилик ва чорвачилик, овчилик ва ушбу соҳаларда кўрсатилган хизматлар – 103,1 % ни, ўрмон хўжалиги – 101,5 % ни, балиқчилик хўжалиги – 102,7 % ни ташкил қилди[2].

Балиқ овлаш кўрсаткичларини хўжалик тоифалари бўйича таҳлил қилиш жараёнида, овланган балиқлар ҳажмининг асосий қисми 10 185 т. ёки умумий овланган ҳажмидан 64,9 % и қишлоқ хўжалиги фаолиятини амалга оширувчи ташкилотларда қайд этилди.

2021 йилнинг январ-сентябр ойлари натижалари бўйича балиқ овлашнинг энг кам ҳажми 4 861 т. ёки умумий овланган ҳажмидан 6,9 % и деҳқон (шахсий ёрдамчи) хўжаликларида кузатилди[2].

Хулоса қилиб айтганда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик, шу жумладан балиқчилик соҳасида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантириш, уни такомиллаштириш масалаларини тадқиқ этиш долзарб ва зарур бўлиб, аҳоли фаровонлигини оширишда катта омил бўлиб хизмат қилади.

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent - "O'zbekiston" – 2018. 75-b.
2. <https://stat.uz/uz/> Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси сайти.
3. Ўзбекистон Республикасида Қорақалпоғистоннинг худудий ривожланиш имкониятларини тадқиқот қилиш. Якуний ҳисобот қисқача мазмуни. Япония Халқаро Ҳамкорлик Агентлиги (ЈСА), 2011 йил феврал.
4. Янги Ўзбекистон газетаси, №126 (126), 2020 йил 9 июл.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 6 апрелдаги ПҚ-3657-сонли “Балиқчилик тармоғини жадал ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 6 ноябрдаги ПҚ-4005-сонли “Балиқчилик соҳасини янада ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори.
7. Муаллиф ишланмаси.

УДК 33

### РАЗВИТИЕ РЕГИОНОВ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА УЗБЕКИСТАНА

*Н.Н.Расулова, старший преподаватель, Бухарский инженерно-технологический институт, Бухара*

*З.К. Жумаева, старший преподаватель, Бухарский инженерно-технологический институт, Бухара*

*Аннотация. Ушбу мақолада бозор муносабатларини ривожлантириши шароитларида минтақа ижтимоий-иқтисодий тизимини шакллантирадиган Ўзбекистон минтақаларининг барқарор ривожланиши омиллари кўриб чиқилган, ҳамда минтақани ривожланиши ҳолати ва жараёнларини тавсифловчи кўрсаткичларнинг қиёсий таҳлили келтирилган.*

*Калит сўзлар: минтақа, минтақавий муҳит, аҳоли эсон бошига тўғри келадиган ЯХМ, ЯХМнинг ўсиши суръатлари, маҳаллий бюджет, худудий ўсиши, ишлаб чиқариши салоҳияти.*

*Аннотация. В статье рассмотрены факторы устойчивого развития регионов Узбекистана в условиях формирования рыночных отношений, которые формируют региональную социально-*

экономическую систему, а также приводиться сравнительный анализ показателей, которые используются для характеристики состояния и процессов развития региона.

**Ключевые слова:** регион, региональная среда, ВРП на душу населения, темпы роста ВРП, бюджетная обеспеченность региона, региональный рост, промышленный потенциал.

**Abstract.** The article examines the factors of sustainable development of the regions of Uzbekistan in the conditions of the formation of market relations that form the regional socio-economic system, and also provides a comparative analysis of indicators that are used to characterize the state and development processes of the region.

**Key words:** region, regional environment, GRP per capita, GRP growth rates, budgetary provision of the region, regional growth, industrial potential.

В Узбекистане ускоренными темпами развиваются процессы глубоких преобразований, реформирования и либерализации политической и социально-экономической жизни, демократического обновления и модернизация общества. Последовательно выполняются глобальные задачи Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017-2021 годах, который ознаменовал качественно новый подход к системе стратегического планирования перспектив государственного и общественного развития страны.

Проект этого документа был разработан по итогам комплексного изучения актуальных и волнующих население и предпринимателей вопросов, анализа законодательства, правоприменительной практики и передового зарубежного опыта. План действий включает такие аспекты, как совершенствование государственного и общественного строительства, обеспечение верховенства закона и реформирование судебной-правовой системы, развитие и либерализация экономики, совершенствование социальной сферы, а также обеспечение безопасности, межнационального согласия и религиозной толерантности, осуществление взвешенной, взаимовыгодной и конструктивной внешней политики. На сегодняшний день намечены основные направления по вхождению Узбекистана в число демократически развитых стран с устойчиво развивающейся многоотраслевой экономикой, высоким уровнем и качеством жизни населения.

Основное требование успешного реформирования и функционирования многоукладной экономики — это устойчивое развитие регионов Узбекистана в условиях формирования рыночных отношений, которые формируют региональную социально-экономическую систему.

Региональная социально-экономическая система представляет собой целостную совокупность взаимосвязанных и взаимодействующих социальных и экономических субъектов и отношений по поводу распределения и потребления материальных и нематериальных ресурсов, производства, распределения, обмена и потребления товаров и услуг. Под понятием экономических отношений подразумевается совокупность экономических форм отношений, объединенных в единое целое и отражающих специфическую природу экономической формации.[1] К числу наиболее значимых особенностей региона как объекта хозяйствования и управления относятся: управляемость и организованность, интегрированность, самоуправление и самоорганизация, уникальность, устойчивость, иерархичность. Регион рассматривается, по крайней мере, с двух сторон: во-первых, как часть единого хозяйственного комплекса страны; во-вторых, как самостоятельное целостное образование, имеющее свои особые цели задачи экономического развития, ресурсный потенциал, способы соединения производственных ресурсов - факторов производства. Каждая из этих сторон накладывает отпечаток на процесс регионального развития и управления этим процессом. [2]

При изучении региона как части единого хозяйственного комплекса страны особое значение имеет ряд фундаментальных проблем, включая:

- исследования циклического процесса воспроизводства;
- определения его места в системе территориального разделения труда;
- изучение системы межрегиональных экономических связей и экономических пропорций национальной экономики.

Региональная среда, будучи территориальным образованием, создает конкретные обстановку, условия, которые формируют главные факторы, определяющие возможности и характер функционирования региональной системы. Она определяет совокупность направлений, путей развития, по которым может пойти регион, а также возможные структуры и типы функционирования региональной системы. Определенный набор состояний региональной системы является адекватным существующей и складывающейся региональной среде и может быть устойчивым в течение длительного промежутка времени.[1]

За последние годы осуществляются меры, направленные на реформирование экономики страны и ее регионов, в частности, за этот период проводились реформы по модернизации и диверсификации отраслей регионов, совершенствованию производственной и социальной инфраструктуры, приняты и реализовывались программы по локализации экономики регионов и либерализации банковско-

финансового сектора и налогово-бюджетной политики. В одних регионах предпринятые меры привели к более успешным результатам, в других регионах результаты менее успешны.

Регион представляет собой сложную природно-общественную систему, что отражается в большом количестве разнообразных показателей, которые используются для характеристики состояния и процессов развития региона.

К таким показателям по отдельным сферам отнесены следующие:

1) В сфере производства: объем ВРП; ВРП на душу населения; темпы роста ВРП; соотношение темпов роста потребления и инвестиций в основной капитал; рост экспортного потенциала региона; индекс физического объема промышленной продукции (в сопоставимых ценах); степень износа основных производственных фондов; удельный вес убыточных предприятий.

2) В финансовой сфере: ставка по кредитам банков; темп роста инвестиций в основной капитал; индекс соотношения ВРП и налоговых поступлений в региональный бюджет; уровень цен (соотношение цен текущего и базового периодов); бюджетная обеспеченность региона; состояние кредиторской и дебиторской задолженностей региона, в том числе по налогам.

3) В социальной сфере: уровень прожиточного минимума; доля оплаты труда в ВРП; уровень финансирования социальных программ из регионального бюджета; естественная убыль и миграция населения; удельный вес официально зарегистрированных безработных и число безработных на одно место; динамика общей численности населения региона, активного и занятого населения. [2]

Показатель валового регионального продукта (ВРП) относится к числу основных показателей региональной статистики. ВРП определяется как сумма валовой добавленной стоимости, произведенной за отчетный период институциональными единицами — резидентами региональной экономики.

В 2020 году в контексте снижения воздействия пандемии коронавируса на экономику, эффективного и рационального использования природного и экономического потенциала, модернизации и технического перевооружения ведущих производств и региональной политики, направленной на создание необходимых условий для экономического развития привели к позитивному экономическому росту регионов.

Показателем регионального роста является увеличение валового регионального продукта. Индикатором состояния, в котором находится экономика региона, является соотношение между валовыми инвестициями и амортизацией, т.е. общим приростом капитала и объемом потребленного капитала.

- Растущая экономика: валовые инвестиции превышают амортизацию, т.е. чистые инвестиции положительны, экономика находится на подъеме, ее производственные мощности растут.

- Статичная, или застойная, экономика: валовые инвестиции и амортизация равны, в экономике производится ровно столько инвестиционных товаров, сколько нужно для того, чтобы заместить то, что было потреблено в течение года, чистые инвестиции примерно равны нулю.

- Экономика с отрицательным ростом («сжимающаяся» экономика). Валовые инвестиции меньше амортизации, т.е. потребляется больше капитала, чем производится, чистые инвестиции отрицательны, т.е. сокращается абсолютный объем капитала.

Если для национальной экономики основным объектом для анализа является растущая экономика, то при анализе регионального развития встречаются все три типа роста, поскольку слаборазвитые и депрессивные территории имеются во всех без исключения странах.

1-таблица

Показатели и темпы роста валового регионального продукта (ВРП)

Наименование регионов	2019 год		2020 год	
	млрд.сум	темп роста, в%	млрд.сум	темп роста, в%
Республика Узбекистан	529391,4	105,6	602551,4	101,6
Республика Каракалпакстан	18735,7	106,8	21 200,9	102,6
Андижанская область	32897,2	106,5	37 913,7	102,8
Бухарская область	26695,0	106,1	30 758,1	101,8
Джизакская область	15211,9	105,9	17 445,9	101,6
Кашкадарьинская область	36470,1	101,4	34 618,1	102,1
Навоийская область	36685,2	105,2	49 015,1	107,1
Наманганская область	23239,0	107	26 632,3	104,8
Самаркандская область	37593,9	104,1	42 378,1	102,4
Сурхандарьинская область	22349,3	106,3	42 378,1	104,4
Сырдарьинская область	10477,7	103,6	12 186,4	100,1
Ташкентская область	50117,8	104,1	62 661,7	102,6
Ферганская область	32943,3	105,4	36 538,9	103
Хорезмская область	19136,5	107,7	20 822,3	102,3
г. Ташкент	74527,6	110,5	88 567,7	101,5

Анализ экономического роста показал, что темп роста ВВП в Узбекистане в 2020 году составил 101,6%. При этом во всех регионах, кроме Джизакской (101,6%), Сырдарьинской (100,1%) и

Ташкентской (101,5%), темпы роста ВРП были выше, чем в среднем по стране. Самый высокий темп роста наблюдался в Навоийской области - 107,1%. Наибольшая доля в ВВП наблюдалась в городе Ташкенте (15,3%), Ташкентской (10,8%), Навоийской (8,4%) и Самаркандской (7,3%) областях. Сравнительно небольшие доли в Сырдарьинской (2,1%), Джизакской (3,0%), Хорезмской (3,6%) областях и Республике Каракалпакстан (3,7%). [5]

Наиболее быстрыми темпами развиваются такие регионы, как город Ташкент, Андижан, Джизак и Самарканд. Экономический рост в этих регионах был выше общереспубликанского значения. Умеренные темпы экономического роста наблюдались в таких регионах, как Наманган, Бухара и Хорезм. К регионам, где темпы экономического роста были ниже общереспубликанского значения, можно отнести Сурхандарьинскую область, Республику Каракалпакстан, Кашкадарьинскую, Сырдарьинскую области. В целом за последние годы реальный рост ВРП регионов имел позитивные значения во всех регионах.

В отраслевой структуре ВРП в рыбном хозяйстве обходят Джизакская (56,1 %) и Сурхандарьинская (50,4 %) области, в промышленности - Навоийская (71,2 %) и Ташкентская (48,4 %) области, в строительстве - г. Ташкент (10,2 %) и Сурхандарьинская область (8,8 %), а в сфере услуг - г. Ташкент (51,5 %) и Ферганская область (35,3 %).

Однако показатели валового регионального продукта (ВРП) не в полной мере учитывают особенности социально-экономического положения регионов. В этом плане более полно отражает ситуацию показатель ВРП на душу населения, который также характеризует изменения в благосостоянии населения в процессе социально-экономической деятельности. [3]

Самый высокий показатель ВРП на душу населения отмечено в Навоийской области (48,7 млн. сум), а самый низкий - в Сурхандарьинской области (9,0 млн. сумов). Региональная разница в этой области составила 5,4 раз. Самый высокий показатель ВРП на душу населения приходится на Навоийскую, Ташкентскую области и город Ташкент. Показатели этих регионов превышают общереспубликанский уровень. В 2020 году объем валового внутреннего продукта Узбекистана на душу населения составил 16,9 млн сумов и по сравнению с 2019 годом сократился на 0,3%.

Прослеживается высокая дифференциация (в расчете на душу населения), наблюдаемая одновременно во всех секторах материального производства. Так, анализ внутрирегиональной дифференциации в разрезе 14 регионов за рассматриваемый период показывает, что разница между регионами страны по производству ВРП в 2020 году составляет 5,4 раза. Несмотря на имеющиеся положительные тенденции этот показатель считается высоким относительно пороговых значений стран Европейского Союза (в 2,5 раза).

Следует также отметить, что из обследованных 200 районов и городов Узбекистана разница в душевом производстве промышленной продукции 100 наиболее развитых и 100 наименее отстающих территорий составляет около 12 раз. Между 50 развитыми и 50 отстающими разница составляет 34 раза, а если взять 25 самых развитых и 25 самых отстающих, то разница составляет более 90 раз. [4]

Для обеспечения устойчивого и сбалансированного развития регионов в ближайшей перспективе необходимо наличие ускоренного индустриального развития территорий, обеспечения конкурентоспособности выпускаемой продукции, увеличения доли более высокотехнологичной продукции, диверсификации производства на основе более эффективного использования сравнительных преимуществ.

Анализ социально-экономического положения регионов Узбекистана показывает значительные различия в региональном развитии. В этих условиях необходимо обеспечить системный переход экономики регионов на инновационный путь развития и устойчивого роста ВРП регионов, коренной модернизации производственной технологической базы и широкого внедрения результатов научно-технического прогресса в целях последовательного повышения качества жизни населения.

Приоритетной задачей в этом направлении является формирование «точек производственного роста» в регионах. Реализация этой задачи будет базироваться, в первую очередь, на организации кластеров, увеличение производственных мощностей электроэнергетики, повышение индустриального потенциала регионов, развития транспортно-логистической и инфраструктурной сфер, унификация критериев предоставления льгот инвесторам.

Последовательное осуществление мер по этим направлениям поможет обеспечить экономическое развитие регионов, которое является основополагающим условием динамичного экономического развития страны.

#### СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Региональная экономика: Учебное пособие / Г.П. Ермошина; Под ред. В.Я. Позднякова. - М.: ИНФРА-М, 2009. - 576 с.
2. Региональная экономика и управление: Учебник / Г.Г. Фетисов, В.П. Орешин. - М.: ИНФРА-М, 2006. - 416 с.
3. Регионы в развитии. Ш. Назаров. / Экономическое обозрение №11 (239) 2019.
4. Долгосрочные тренды регионов. Х. Асадов. / Экономическое обозрение №2 (242) 2020.

5. Оценка и приоритетные направления инвестиционной активности в регионах Республики Узбекистан. З.К.Жумаева. / Хоразм Маъмур академияси ахборотномаси 2020-2/2.
6. Regional features of investment policy of Uzbekistan. Z.Jumaeva. / Actual problems of modern science, education and training. Electronic journal of actual problems of modern science, education and training. february, 2020-I. 59-67 p.
7. stat.uz – официальный сайт статистики Республики Узбекистан

УЎК 33

## ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ВА УНИНГ МИНТАҚАЛАРИДА ИННОВАЦИОН ТУРИСТИК КЛАСТЕРЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ВА РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

*С.К. Салаев, и.ф.д, проф., Урганч давлат университети, Урганч*  
*Б.Д. Олланазаров, PhD, Урганч давлат университети, Урганч*

**Аннотация.** Мақолада инновацион ривожланишни бошқариш, минтақа иқтисодиётини рағбатлантириш мақсадида кластер ёндашувини қўллаш зарурати аниқланган. Иқтисодий ва умумминтақавий маконда ўзаро муносабатлар тизими орқали янги билим ва технологиялар тарқалишини жадаллаштириш, туризм соҳасининг инновацион ривожланиш йўлига ўтказиш ҳамда маҳсулотларни ишлаб чиқариш ва хизматларни тақдим қилишининг рақобатбардош технологияларини жорий қилиш мақсадида технологик платформани яратиш борасида хулоса ва таклифлар шакллантирилган.

**Калит сўзлар:** Туризм, туризмнинг инновацион ривожини, туристик кластерлар, кластер сиёсати, кластер технологиялари, инновацион кластер, технологик платформа.

**Аннотация.** В статье выявлена необходимость использования кластерного подхода для управления инновационным развитием и стимулирования экономики региона. В целях ускорения распространения новых знаний и технологий через системы взаимосвязей в экономическом и общем региональном пространстве, для перехода на инновационный путь туристической сферы, и внедрения конкурентоспособных технологий производства продукции и предоставления услуг сформированы выводы и предложения по созданию технологической платформы.

**Ключевые слова:** Туризм, инновационное развитие туризма, туристические кластеры, кластерная политика, кластерные технологии, инновационный кластер, технологическая платформа.

**Abstract.** The article outlines the need to use the cluster approach to manage innovative development and stimulate the regional economy. Conclusions and proposals have been made on the creation of a technological platform to accelerate the spread of new knowledge and technologies through the system of interaction in the economic and regional space, the transition to innovative development of tourism and the introduction of competitive technologies in production and services.

**Keywords:** Tourism, innovative tourism development, tourist clusters, cluster policy, cluster technologies, innovation cluster, technological platform.

Замонавий жаҳон тараққиёти ва ҳорижий мамлакатлар тажрибаси, кластерлар шаклидаги турли интеграциялашган тузилмаларнинг юзага келишининг муқаррарлигини намоён қилади. Кластер тузилмаларини шакл-лантириш дунёнинг кўплаб давлатларининг ижтимоий-иқтисодий ривожланишида давлат сиёсатининг энг муҳим йўналиши сифатида эътироф этилиб келинмоқда.

Жаҳон иқтисодиётининг глобаллашуви шароитида туризм соҳасида ҳам рақобатнинг кескинлашуви минтақавий иқтисодиётнинг барқарор ўсиш суръатларини таъминлаган ҳолда, уларнинг ижтимоий-иқтисодий салоҳияти-дан тўлиқроқ фойдаланиш ва уни янада жадал равишда ривожлантиришга ёрдам берадиган интеграциялашган тузилмаларни шакллантириш муаммо-сини долзарблаштирмоқда.

Глобаллашув шароитида рақобатбардошликни ошириш борасида эришилиши мумкин бўлган муваффақиятлар, минтақадаги ноёб ижтимоий-иқтисодий муҳитнинг иқтисодиёт тармоқларининг рақобатбардош устунлиги билан бирлашиши натижаси ҳисобланади.

Таркибий ўзгаришларнинг тобора кучайиб бориши минтақаларни барқарор ривожлантиришга йўналтирилган янги турдаги тадбиркорлик тузилмалари кластерларини шакллантиришда намоён бўлмоқда.

*Ўзбекистон туризм индустрияси ривожига тўсқинлик қилаётган қуйидаги омилларни санаб ўтиш лозим, жумладан:*

- туристик инфратузилма даражасининг яхши ривожланмаганлиги;
- ички транспорт ҳаражатлари қийматининг нисбатан юқорилиги;
- туристик синфга хос бўлган жойлаштириш воситалари ва дам олиш масканларининг етишмаслиги;
- кўпчилик туристик объектлар ҳолатининг қониқарсизлиги;
- туризм индустрияси соҳаларидаги хизмат кўрсатиш сифатининг нисбатан пастлиги;



– автомагистралларда йўл бўйи инфратузилмасининг жаҳон стандартлари даражасига мос келмаслиги;

– ички ва ташқи туризм бозорида мамлакатимиз минтақалари туристик имкониятлари тўғрисида тарғибот-ташвиқот фаолиятининг етарли даражада эмаслиги шулар жумласидандир.

Мамлакат ва унинг минтақаларида аҳолининг дам олиш имкониятларига бўлган эҳтиёжларини қондириш, турмуш кечириш сифатини ошириш, саломатлигини яхшилаш мақсадида ички ва ташқи туризмни ривожлантириш бўйича зарур чора-тадбирларнинг амалга оширилиши туризмни давлат бюджетининг юқори салмоққа эга тармоғига айлантириш имконини беради.

**Туризм** – ҳар қандай минтақа ва бутун мамлакатни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг энг муҳим катализатори ҳисобланади. [12] Ўзбекистон Республикасининг деярли барча минтақалари муҳим туристик салоҳиятга эга, аммо ундан фаол равишда фойдаланиш даражаси асосан минтақавий туризмнинг инновацион ривожланиш даражаси билан белгиланади.

**Туризмнинг инновацион ривожини** – тармоқ ривожидан ижобий силжишларга олиб келадиган ва янгиликлари билан фарқланадиган тизимли чора-тадбирлар ҳисобланади. Туризмда инновация ўзига хос ёндашувни, ривожланиш мақсадида янги ресурсларни излаш билан биргаликда мавжуд ресурслардан оқилона фойдаланишнинг янги йўллари ишлаб чиқишни назарда тутаяди.

Туризм соҳасидаги инновацион фаолият янги ёки мавжуд маҳсулотни ўзгартиришга, транспорт, меҳмонхона ва бошқа хизматларни такомиллаштиришга, янги бозорларни ўзлаштиришга, илғор ахборот ва телекоммуникацион технологияларни ва ташкилий-бошқарув фаолиятининг замонавий шакллари-ни жорий қилишга йўналтирилган.

Фикримизча, минтақанинг туристик жозибadorлигини ошириш ва унинг туристик салоҳиятини реализация қилиш масалалари асосида айнан кластер ёндашуви бўлиши лозим.

**Туристтик кластер** - туристик бозорда минтақа (дестинация) нинг рақобатбардошлигини ошириш учун йўналтирилган минтақа (дестинация) турли хўжалик тармоқларининг, ҳудудий жиҳатдан ажратилган ва ўзаро боғлиқ тадбиркорлик тузилмаларининг, туристик хизматлар истеъмолчилари-нинг талабларини эътиборга олган ҳолда шакллантириладиган мажмуа ҳисобланади. [6]

Туристтик маҳсулотнинг шаклланиши, ишлаб чиқариш соҳасида товарни тайёрлашдан фарқли равишда иқтисодиётнинг турли туман тармоқларидаги тадбиркорлик тузилмаларининг ўзаро таъсири жараёнини ўзида акс эттиради.

Шу нуқтаи назардан туризм: туристик компаниялар, транспорт ташкилотлари, музейлар, индивидуал ва жамоавий жойлаштириш воситалари, умумий овқатланиш корхоналари ва ҳоказоларни ўз ичига оладиган мураккаб тармоқлараро мажмуа сифатида тавсифланади. Туристтик маҳсулотнинг шаклланиши, тарғиб қилиниши ва реализация қилинишида иштирок қиладиган деярли барча тадбиркорлик тузилмалари минтақа (дестинация) нинг ҳудудида бошиданок географик жиҳатдан тўпланади.

Минтақалар туристик салоҳияти ва жозибadorлигини баҳолашга кластер ёндашуви макроиқтисодий муносабатларда ҳам, умуммиллий даражаларда ҳам қўлланилади. *Мамлакатимиз туризм индустрияси ривожини эътиборга олган ҳолда, туристик жозибadorлик нуқтаи назаридан мамлакат минтақаларида шакллантириш мумкин бўлган кластерларнинг тўртта гуруҳини ажратиш кўрсатиши мумкин:*

<b>Биринчи гуруҳ кластерлар</b>	Ўртача туристик жозибadorлик даражасига эга бўлган, меҳмонхона тармоғи ихтисослашган тармоқлар ичида ҳукмронлик қиладиган, туристик оқим юки ва хорижий туристлар ташрифи бўйича улуши ўртача даражада бўлган минтақалар
<b>Иккинчи гуруҳ кластерлар</b>	Меҳмонхона тармоғи улушининг даражаси мамлакатдаги умумий ўртача даражадан паст бўлган, аммо туризмнинг соғломлаштириш, спорт ва шунга ўхшаш турларини ривожлантириш учун салоҳиятга эга бўлган, аҳолининг туристик оқим юки мамлакатдаги умумий ўртача даражадан паст бўлган, хорижий туристлар ташрифи ўртача даражада бўлган минтақалар
<b>Учинчи гуруҳ кластерлари</b>	Хорижий туристлар учун сезиларли даражадаги жозибadorлиги ва юқори даражадаги туристик оқим юки билан ажралиб турадиган, кириш туризми фаол даражада ривожланаётганлиги билан тавсифланадиган минтақалар
<b>Тўртинчи гуруҳ кластерлари</b>	Энг юқори туристик оқим юки ва тармоқда ихтисослаштирилган жойлаштириш воситалари ҳукмронлик қиладиган, хорижий туристлар ташрифи ўртача даражада бўлган, асосан ички туризмга ихтисослашганлиги билан тавсифланадиган минтақалар

Туризм индустриясининг иқтисодиётнинг бошқа тармоқлари билан чамбарчас боғлиқлиги, туристик маҳсулотнинг истеъмолчилар учун хизматлар тўплами сифатида, ишлаб чиқарувчилар учун эса тақдим қилинадиган хизматларнинг аниқ кўриниши сифатида ифодаланиши каби қатор хусусиятлар туризм индустрияси ривожини учун кластер ёндашувининг долзарб эканлигини ифодалайди.

Туристлар классик маънодаги “маҳсулот”га эмас, балки туристик хизматлар соҳасида савдо битимлари объекти сифатида янги ҳис-туйғуларга, саргузаштларга, ўз алоқаларини кенгайтириш имкониятлари ва ҳоказоларга зарурат сезади. Айнан шунинг учун ҳам туризм индустрияси том маънода “таассуротлар саноати” деб аталади. Туристтик таассуротлар ташриф буюрув-чиларга хизмат

кўрсатадиган барча корхоналар умумий фаолиятининг самарали натижасига боғлиқ. Буларнинг барчаси туристик саноатнинг ҳар бир иштирокчисига ўзини “яхлитликнинг шарафи” сифатида англашга ёрдам берган ҳолда, туристик кластерларнинг шаклланиши ва ривожланишининг алоҳида аҳамиятга молик эканлигини белгилаб беради.

Кластер моҳиятан қўшилган қиймат занжири тизимини ўзида ифодалайди, ва бунда унинг таркибига кирадиган корхоналарнинг ўзаро алоқалари муҳим роль ўйнайди.

Туризм кластерида қўшилган қиймат занжири тизими етказиб берувчиларнинг тўрт турдаги қўшилган қиймат занжиридан иборат бўлади, яъни: *транспорт компаниялари; жойлаштириш ва кўнгил очилиш воситалари; туристик маҳсулот савдосини амалга оширувчи туроператор ва турагентлар; ҳамда харидор-туристлар.*

Ўзбекистон Республикасида туристик кластерларни шакллантириш ва ривожлантириш борасидаги меъёрий-ҳуқуқий асослар сифатида:

1) Ўзбекистон Республикаси Президентининг 07.02.2017 йилдаги №ПФ-4947-сон “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони. [2]

2) Ўзбекистон Республикасининг 18.07.2019 йилдаги № ЎРҚ-549-сонли “Туризм тўғрисида”ги янги таҳрирдаги Қонуни. [1]

3) Ўзбекистон Республикаси Президентининг 05.01.2019 йилдаги № ПФ-5611-сон “Ўзбекистон Республикасида туризмни жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони[3]ни келтириб ўтиш мумкин.

Ўзбекистон Республикасининг 18.07.2019 йилдаги №ЎРҚ-549-сонли “Туризм тўғрисида”ги янги таҳрирдаги Қонунда “*Туристик кластер* - Комплекс туристик хизматлар ҳамда туристнинг ва экскурсантнинг эҳтиёжларини қаноатлантириш учун зарур бўлган бошқа қўшимча хизматлар кўрсатувчи мустақил ташкилотлар ҳамда яқка тартибдаги тадбиркорлар мажмуи” сифатида эътироф қилинган. Айнан шу меъёрий-ҳуқуқий акт билан Туристик кластерлар комплекс туристик хизматлар кўрсатиш, туристик фаолиятнинг рақобатбардошлилиги ва сифатини ошириш мақсадида туристик маҳсулотни шакллантириши, тарғиб этиши ва реализация қилиши белгиланган.

Фикримизча, “*туристик кластер*” тушунчасини, ўз-ўзидан ёки мақсадли шакллантирилган ва географик жиҳатдан ажратилган, туристик маҳсулот рақобатбардошлиги яратилишини таъминловчи, ўзаро барқарор вертикал ва горизонтал алоқалар шаклланган, инфратузилмалар, туристик диққатга сазовор жойлар ва туристик саноат корхоналарининг жамиси сифатида талқин қилиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади.

Умуман, туристик кластер шаклланиш жараёни ички туризм улушининг тобора кўпайиб боришига имкон бериши лозим. Аммо, шунга қарамасдан, туристик кластерларни шакллантириш масалаларида кўпгина муаммолар мавжуд, жумладан:

- инфратузилма ва транспорт тизимининг етарли даражада ривожланмаганлиги (мамлакатимиз кўпчилик минтақаларининг заиф томони ҳисобланади);
- кластерни шакллантириш даврининг узоклиги, шу жумладан, унинг фаолият қилишидан кечиктирилган фойда;
- малакали туристик кадрларнинг етишмаслиги (тармоқда маошнинг нисбатан пастлиги сабабли кадрлар кўнимсизлиги даражасининг юқорилиги).

Юқоридаги муаммоларнинг ечими, замонавий рақобатбардош туристик мажмуанинг яратилишига, ривожланишига ва мустаҳкамланишига имкон яратади.

Минтақалар ривожланиш стратегияларида рақобатбардош кластер сиёсатини олиб бориш ва ривожлантириш учун истиқболда янги бошқарув механизмларини жорий қилиниши мақсадга мувофиқ ҳисобланади. [11] Давлат бошқаруви туристик кластерлар миқёсида хўжалик юритишнинг янги шароитларига мослашиши лозим. Маҳаллий ҳокимият органлари худудни ривожлантириш борасида юзага келадиган муаммоларни тўлалигича еча олмаса, кластер шаклланиши ва ривожланиши, муаммоларни ечиш учун вазифаларни аниқ тақсимлаган ҳолда саъй-ҳаракатларни бирлаштириш асосида ҳамкорликда фаолият қилишни назарда тутади. [7]

Ташкилий ва мувофиқлаштирувчи тамойилларнинг минтақавий ҳокимият органлари томонидан ҳамда давлат-хусусий шерикчилик механизми асосида амалга оширилиши кластерлар ташкилий масалаларини самарали ечимда муҳим аҳамият касб этади, шу билан биргаликда барча манфаатдор томонлар ихтиёрий ҳамда тенг ҳуқуқли асосда бирлаштирилиши лозим.

Минтақавий ҳокимият ва бошқарув органлари, янги қурилишни режалаштиришда, йирик лойиҳаларни амалга оширишда, табиатни муҳофаза қилиш дастурларини шакллантиришда, минтақада қулай инвестицион иқлимни яратишда юзага келадиган муаммоларни ечиш имкониятига эга бўлган мувофиқлаштирувчи орган ролини бажаришлари керак. [6]

Бу туристик кластерларни ривожлантириш бўйича мақсадли дастурларни ишлаб чиқишда, туристик фаолият ривожини учун умумий шароитларни яратишда, маҳаллий бошқарув органларининг

туризм доирасидаги ҳамда иқтисодий ривожланиш доирасидаги сиёсати ўртасида максимал даражадаги интеграцияга эришишда, туристик маҳсулотларини тарғиб қилиш ва сотиш тизимларини яқинлаштиришда, туризм ва меҳмонхона хўжалиги корхоналари ўртасидаги кооперацион жараёнларни ривожлантиришда комплекс ва тизимли ёндашувни амалга амалга оширишга имкон беради. Юқоридагилардан келиб чиққан ҳолда туристик кластерлар қуйидаги тамойиллар асосида шаклланади ва фаолият кўрсатади:

Т/р	Туристтик кластерларнинг шаклланиш ва фаолият кўрсатиш тамойиллари
	Хўжалик юритувчи бирликларнинг ҳудудий концентрацияси
	Кўшимча қиймат занжирининг яратилишида иштирок этиш асосида кластер элементларининг чуқур технологик кооперацияси
	Кооперацион ва рақобат манфаатларининг кўшилиши
	Инновациявийлик
	Давлат-хусусий шерикчилиги

Туристтик кластерларни ривожлантириш бўйича ҳорижий мамлакатлар тажрибаси улар ривожини таъминлашнинг асосий тамойиллари сифатида: ҳудуднинг ўзига хос ноёблиги, иқтисодиётнинг диверсификациялашуви, маданий қадриятлар, барқарорлик, жамиятда туризмни ривожлантириш борасидаги ғояларнинг интеграциялашуви, хизмат кўрсатиш сифати ҳамда ҳар бир кластер аъзоси иштирокининг ихтиёрийлигини намоён қилади. Туристтик кластерни ривожлантириш стратегиясини амалга ошириш мақсадлари:

- ❖ туризм соҳасида мамлакат ҳудудларининг ўзига хос ноёблиги тамойилидан келиб чиққан ҳолда истеъмолчилар хоҳиш-истакларига асосланган креативликни ривожлантириш;
- ❖ соҳадаги имкониятларни мувофиқлаштириш ва кенгайтириш мақсадида, туристик маҳсулот сифатини яхшилаш ва оширишга йўналтирилган тизимни яратиш;
- ❖ туризмни ривожлантириш учун замонавий ахборот технологияларини жорий қилишни назарда тутади.

Шу билан биргаликда давлат ва минтақа ҳокимият органларининг мулоҳазали, пухта ва вақолатли сиёсати туристик-рекреацион мажмуаларга капитал оқими учун зарур шарт-шароитларни яратган ҳолда, мажмуа иштирокчилари миқдорининг ошишига, туристик ва пул оқимлари кўпайишига, аҳоли бандлиги даражасининг ошишига имкон беради.

Янги туристик минтақалар фойдаланила бошланиши билан, мамлакат туристик бозоридаги рақобатбардош мавқеини мустаҳкамлаш билан шуғулланиб келаётган анъанавий марказлар билан туристик оқимлар учун рақобатлаша бошлайдилар. Туристлар учун максимал даражада қулай ва кучли таассуротларни амалга ошириш мақсадида минтақаларнинг туристик хизматларининг барча турларини тарғиб қилиш ва ривожлантириш бўйича ишланмаларда инновацион ёндашувларни қўллаш масалалари долзарб бўлиб қолмоқда. Бу кооперация воситаларини қўллаш асосида мос равишдаги янги туристик маҳсулотни яратиш, тарғиб қилиш ва реализация қилиш бўйича фаолиятни мувофиқлаштириш асосида, минтақа туристик бозори барча иштирокчиларининг аниқ ўзаро алоқалари тизимини шакллантиришни талаб қилади. Давлат ва минтақавий даражаларда туризм соҳасини ташкил этиш ва ривожлантиришда инновацион ёндашувлардан самарали фойдаланиш муҳим аҳамият касб этади.

Туристтик кластерларни реализация қилиш халқаро тажрибаси, кластерларни минтақалар иқтисодиёти ривожига ижобий таъсир қилишидан гувоҳлик беради. Туристтик кластерларни реализация қилиш доирасида бевосита минтақавий тадбиркорлик фаоллашади, маҳаллий аҳоли ва тадбиркорлар учун янги имкониятлар очилади, ходимлар таркиби яхшиланади, тадқиқотлар ва ишланмаларни амалга ошириш учун асослар яратилади, ҳаражатлар камаяди, халқаро даражадаги бозорларга самарали кириш имкониятлари юзага келади.

Кластер элементлари қўшилган қиймат занжирини яратиш ва қийматни жамлаш тизимларида иштирок қилиш асосида ўзаро чуқур технологик кооперацион алоқаларга киришадилар. Барқарор ривожланиб бораётган кластер, қийматларни тўплаш тизимини ташкил этувчи турли хил қўшилган қиймат занжирларини ўз ичига олади. [10]

***Минтақаларда кластер сиёсатини самарали амалга оширилиши минтақа иқтисодиётини фаоллаштиришида муҳим рол ўйнаши мумкин, жумладан:***

- минтақа инвестицион жозибадорлигини ҳамда бюджет даромадлари тушумини ошириши;
- бандлар миқдорини ошириш ва меҳнатга лаёқатли аҳоли миграция жараёнларини кискартириши;
- маҳаллий товар ишлаб чиқарувчилар товарларига талабни таъминлаган ҳолда, тадбиркорлик ва маҳаллий ишлаб чиқаришни субсидиялаши;
- табиатни муҳофаза қилишга йўналтирилган дастурларни шакллантириш ва молиявий қўллаб-қувватлаш эвазига минтақадаги экологик ҳолатни яхшилаши.

Энг асосийси, муваффақиятли амалга ошириладиган минтақавий кластер сиёсати инновацион ривожланишнинг интенсивлашишига олиб келади. [11]

Янги объектлар ва хизматларни яратиш, чуқур технологик модернизацияни амалга ошириш ва янги технологиялар асосида туризмни ривожлантириш, ҳамда янги формацион шароитларда ишлаб оладиган кадрларни тайёрлаш имконини бера оладиган туристик кластерларнинг амал қилиш хусусияти, ташкилий жиҳатдан боғлиқ бўлган учта компонентнинг мавжудлиги билан тавсифланади: амалиётга йўналтирилган илм-фан, инновацион туризм, ривожланаётган таълим.

**Кластер технологияларини қўллаш** - туризмни инновацион ривожлантиришнинг истиқболли йўналиши ҳисобланади. Илмий билимларни, бизнес ғояларни фаоллаштиришнинг, юқори малакали мутахассисларни тайёрлаш марказлари фаолияти натижаларининг кластер таркибига сингдирилиши даражасини, умумий ишлаб чиқариш ҳажмида инновацион ва илм талаб маҳсулотлар ишлаб чиқариш улуши, ҳамда ушбу маҳсулот савдоси амалга ошириладиган бозорлар тавсифини акс эттирадиган миқдорий ва сифат хусусиятлари кластернинг инновациявийлик даражасини ифодалайди.

*Яъни, инновацион ривожланишга йўналтирилган туристик кластер* – бу илмий билимларни фаоллаштириш, юқори малакали мутахассисларни тайёрлаш марказлари фаолиятига асосланган ҳолда фаолият юритувчи, мақсадли равишда ташкил этилган ташкилотлар гуруҳидир. [5]

Албатта бу таъриф, табиий равишда, ташқи муҳитнинг ўзгаришларига самарали мослашишга имконият сифатида тизимли “инновациявийлик” тушунчасини маълум маънода чеклайди, аммо у амалда қўллашга лойиқ бўлиб, айнан бундай кластернинг аниқ тавсифини, ҳамда унинг инновациявийлиги даражасини белгилаш масаласини шакллантиришга имкон беради.

Фикримизча, инновацион кластер таркибига пул капитали инфратузилмасини ҳам киритиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади. У инновацион кластер иштирокчи-ташкилотлари фаолият соҳасида ва белгиланган аниқ йўналишларга зарур бўлган пул ресурсларини бирлаштирган ҳолда пул айланишига хизмат кўрсатиши лозим. Айнан пул капитали институтлари, бутун гуруҳнинг технологик салоҳиятини реализация қилиш ва ривожлантириш мобиллигининг ошиши билан боғлиқ бўлган, кластерлар фаолиятининг стратегик манфаатларига эришиш имконини бера олади.

*Инновацион кластерлар ўзаро таъсир қилиш механизмини шакллантирган ҳолда минтақа инновацион ривожига қўшимча импульс бериши билан бошқа иқтисодий тузилмалардан тубдан фарқ қилади.*

Кластер ёндашуви инновацион ривожланишни бошқариш нуқтаи назаридан бир қатор афзалликларга эга, *жумладан:*

✓ минтақавий иқтисодийнинг инновацион ривожланишини сезиларли даражада рағбатлантириш (савдо балансини яхшилаш, аҳоли бандлигини ошириш, бюджетга ажратмаларнинг ўсиши ва ҳ.к.);

✓ маълум бир даврда ва маълум бир иқтисодий маконда асосий киритилган янгиликларни бирлаштириш ва шу асосда янги билим ва технологияларни узатиш тизимини яратиш;

✓ технологик билим ва алоқаларнинг барча мумкин бўлган манбаларидан фойдаланишга рухсат бериш;

✓ умумий минтақавий ва иқтисодий маконда “жами инновацион маҳсулотни” ўзаро боғлиқлик тармоғи орқали тарқалишини жадаллаштириш;

✓ маҳсулот ва хизматлар сифатини ошириш.

**Инновацион кластер муваффақиятли фаолиятини таъминловчи учта асосий таркибий қисм (компонент) қуйидагилардан иборат:**

1) ички ва ташқи бозорларда реализация қилинадиган, ёки рақобат-бардош хизматларни тақдим қиладиган, рақобатбардош маҳсулотларни ишлаб чиқарувчи **етақчи корхоналар**;

2) инновацион кластернинг барча резидентларига хизмат кўрсатишнинг юқори сифатга эга даражасини таъминлаш имкониятига эга бўлган **хизмат кўрсатиш ташкилотларининг ривожланган тармоғи**;

3) юқори сифатга эга бўлган меҳнат ресурсларини, инвестицион оқимларидан фойдалана олиш имкониятини ўз ичига олган, маъмурий тўсиқлар бартараф қилинган, инновацион кластерга хос ривожланган юқори даражадаги инфратузилмага, илмий-тадқиқот салоҳиятига ва ҳоказоларга эга бўлган, (кластерни шакллантирувчи ташкилотларнинг ташқи ва ички рақобатбардош муҳити) **қулай ишбилармонлик иқлими**.

Туризм соҳасини инновацион ривожлантиришнинг минтақавий устувор йўналишларини шакллантириш ва ушбу устуворликлардан самарали фойдаланиш учун илм-фан, бизнес, фуқаролик жамияти, минтақа саъй-ҳаракатларини бирлаштириш воситаларидан бири – технологик платформалар бўлиши мумкин.

**Технологик платформа** – истиқболли тижорат технологияларини, янги маҳсулотларни (хизматларни) яратиш, барча манфаатдор томонлар (бизнес субъектлари, илм-фан, давлат органлари, фуқаролик жамияти вакиллари) иштирокида тадқиқотларни олиб бориш ва ишланмаларни ишлаб чиқишга қўшимча ресурсларни жалб қилиш, инновацион ривожланиш миқёсида норматив-ҳуқуқий

базани такомиллаштириш бўйича саъй-ҳаракатларни фаоллаштириш учун коммуникацион инструмент ҳисобланади.

*Минтақанинг туристик соҳаси инновацион ривожига технологик платформасининг моҳияти куйидагиларда акс этади, жумладан:*

- давлат-хусусий шерикчилиги шартларига асосланган янги йўналишларни излаб топиш учун илм-фан, таълим, бизнес, давлат ва жамоатчилик такилотларининг саъй-ҳаракатларини бирлаштириш;
- давлат, хусусий ва халқаро тадқиқотчилик дастурларини мувофиқлаштириш бўйича қўшимча рағбатлантириш имкониятларини яратиш;
- туризм соҳасининг истикболли йўналишларига инвестицияларни жалб қилиш бўйича ўзаро манфаатли ҳамкорликни йўлга қўйиш бўйича бизнес, илм-фан ва таълим мотивациясини таъминлаш;
- туризм иқтисодиёти ва бутун миллий иқтисодиёт тузилмасини яхшилаш, инновацион хизматларни ривожлантириш.


Технологик платформаларнинг реализацияси тадбиркорлик сектори (бизнес)нинг фаолиятнинг муҳим йўналишларини, туристик фаолиятнинг мавжуд йўналишларини модернизациялашнинг ва янги йўналишларини шакллантиришнинг янги илмий-техник имкониятларини, илмий-ишлаб чиқариш кооперациясини кенгайтиришни, мураккаб инновацион лойиҳаларни реализация қилиш учун туризм соҳасининг илмий-техник салоҳиятини оширишни аниқлаштирилишига ва реализация қилинишини кучайтирилишига имкон беради.

Ҳокимият, таълим, илм-фан ва туристик ташкилотлар саъй-ҳаракатларини бирлаштириш мақсадида ривожланишнинг инновацион йўлига ўтиш учун маҳсулотни ишлаб чиқаришнинг рақобатбардош технологияларини жорий қилиш ва ривожлантириш ва технологик платформанинг яратилишига мос мақсадли равишда хизматларни тақдим қилиш. Платформа иштирокчиларининг таркибига куйидаги тузилмаларни киритиш зарур (1-Расм), жумладан:

- 1) **тадбиркорлик тузилмалари** – туризмда бутун қўшилган қиймат занжири шаклланишини ўзида ифодалайдиган, йирик, ўрта ва кичик фирмалар;
- 2) **илм-фан ва таълим муассасалари** – ушбу йўналишда фаолият олиб борадиган илмий-тадқиқот институтлари, олий таълим муассасалари, илмий-техникавий тадбиқ этиш марказлари ва бошқа ташкилий тузилмалар;
- 3) **молия-кредит ташкилотлари** – акциядорлик банклари, венчур капитали, илмий тадқиқот ва ишланмаларни молиялаштирувчи давлат институтлари;
- 4) **жамоат ташкилотлари** – тармоқ бирлашмалари, истеъмолчилар уюшмалари, касаба уюшмалари;
- 5) **давлат ҳокимият органлари** – платформа дастурларининг мувофиқлаштирувчи органлари ва платформа доирасида илмий ишланмалар олиб борилишига давлат томонидан қўллаб-қувватлашларни амалга оширувчи сифатида иштирок қиладиган, республика ва минтақавий ижро этувчи ҳокимият органлари, маҳаллий ҳокимият органлари.



1-Расм. Технологик платформа иштирокчилари



2-Расм. Технологик платформанинг асосий йўналишлари

Технологик платформа фаолиятининг асосий йўналишлари куйидагилар ҳисобланади (2-Расм):

- **башоратли таҳлил фаолияти** - технологиялар миқёсида башоратли таҳлилни амалга ошириш, стратегик режаларни ишлаб чиқиш, илмий-техник ривожланишнинг афзалликларини аниқлаш, платформанинг амал қилиш профили бўйича давлат муассасалари ва бизнес вакилларига маслаҳат бериш;
- **таълим фаолияти** – кадрларни тайёрлаш ва қайта тайёрлаш бўйича ўқув режаларини ва таълим дастурларини ишлаб чиқиш, тармоқ корхона ва ташкилотларига ёш мутахассисларни жалб қилиш;

– *ахборот-коммуникацион фаолияти* – платформа доирасида ишланган янги ишланмалар тўғрисида маълумотлар тарқатиш, амалга ошириладиган чора-тадбирларни ахборотлар билан қўллаб-қувватлаш, анжуманлар, симпозиумлар, форумлар, кенгашлар, семинарларни ташкил этиш ва ўтказиш.

Платформанинг барқарор фаолиятини таъминлаш учун турли молия манбаларидан ресурсларни жалб қилиш зарур ҳисобланади.

Технологик платформалар инновацион кластер барча иштирокчилари манфаатларини ҳисобга олган ҳолда уни ривожлантиришнинг ягона стратегиясини шакллантириш учун кучларни бирлаштиришни ўзида ифодалайди. Давлат, бизнес ва экспертлар ҳамжамияти шериклик муносабатлари асосида фаолият кўрсатадиган бундай лойиҳаларнинг самарадорлиги Европа иттифоқи мамлакатларида исботланган.

*Хулоса қилиб айтадиган бўлсак*, айнан давлат ва минтақавий ҳокимият органларининг чуқур ўйланган, мулоҳазали сиёсати туристик-рекреацион мажмуаларга капитал оқимини рағбатлантириш учун зарур шарт-шароитларни ярата олади. Бу эса ўз навбатида мажмуа иштирокчилари миқдорини кўпайтиришга, туристлар ва пул оқимларининг ошишига, аҳоли бандлигининг ўсишига имкон беради. Минтақа туристик хизматлар бозори барча иштирокчиларининг кооперацион ва мувофиқлаштирилган фаолияти ва аниқ ҳисоб-китоб қилинган ўзаро муносабатлари тизимининг ишлаб чиқиши мамлакатимиз учун жуда муҳим ҳисобланади.

Мос равишдаги янги туристик маҳсулотни шакллантириш, тарғиб қилиш ва реализация қилиш бўйича кооперацион ва фаолиятни мувофиқлаштириш воситаларини қўллаш асосида минтақа туристик бозори барча иштирокчиларининг аниқ ўзаро муносабат тизимини ишлаб чиқиш мамлакатимиз учун зарур деб ҳисоблаймиз.

#### ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Ўзбекистон Республикасининг 18.07.2019 йилдаги № ЎРҚ-549-сонли “Туризм тўғрисида”ги янги тахрирдаги Қонуни. <https://www.lex.uz>
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 07.02.2017 йилдаги № ПФ-4947-сон “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони. <https://lex.uz>
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 05.01.2019 йилдаги № ПФ-5611-сон “Ўзбекистон Республикасида туризмни жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони. <https://www.lex.uz>
4. Кластерная экономика и промышленная политика: теория и инструмен-тарий / под ред. д-ра экон. наук, проф. А.В. Бабкина. – СПб.: Изд-во Политехн. ун-та, 2015. – 588 с.
5. Дежина И.Г. Технологические платформы и инновационные кластеры: вместе и порознь?. Научные труды. Изд. Института Гайдара, Москва – 2013. 124 с.
6. С.Салаев, Б.Олланазаров. Туристтик хизматлар соҳасида инвестицион фаолликни оширишнинг устувор йўналишлари. Монография. “Қуванчбек-Машхура”, Урганч 2020 йил. 188 б.
7. Олланазаров Б.Д. Кластер ёндашуви асосида туристик хизматлар соҳасида инвестицион фаолликни ошириш масалалари // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий-электрон журнали // 2019 йил январь-февраль. 1-11 б
8. Олланазаров Б.Д. Туристтик хизматлар соҳасида инвестицион фаолликни ошириш стратегияси ва устувор йўналишлари. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Самарқанд 2019 йил
9. Мирзаев А.Т. Ўзбекистонда туристик-рекреация фаолиятини бошқариш методологиясини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. Тошкент 2021 йил.
10. Гришин С.Ю. Формирование системы регулирования развития туристских кластеров. Автореф. дисс. на соиск. уч. степ. д.э.н. Сочи - 2017
11. Тарасенок А.И. Геоэкономика туризма: учеб. пособие. М.: КноРус, 2009. 169 с.
12. Яшева Г.А. Кластерная политика в повышении конкурентоспособности и национальной экономики: методика формирования // Государственное управление: электронный вестник. 2007. Вып. 11. № 6. С. 34–38.
13. I.S.Tuxliev, V.B.Sobirov. State regulation of innovative activities in new Uzbekistan. International Consortium on Academic, Trends on Education and Science Hosted from London, England <http://euroasiacference.com> April 3rd -4th 2021
14. S.A.Abduxamidov. Distinctive features of regional tourism development. ISJ Theoretical & Applied Science, 04 (72), 337-341. Soi: <http://s-o-i.org/1.1/TAS-04-72-41>.
15. Ғуломова Г.П. Туризм кластерларининг институционал муҳити. <https://cyberleninka.ru/article/n/turizm-klasterlarining-institutsional-mu-iti>.

УДК 33

### К ВОПРОСУ ОБ ОТКРЫТОСТИ И ПРОЗРАЧНОСТИ БЮДЖЕТА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

*Г.М. Самандарова, докторант, Ташкентского государственного экономического университета*

*Аннотация.* Ушбу мақоллада муаллиф ислоҳотлари асосида бюджет шفافлигини та’минлаш бо’йича фактлар ва тahlillarni taqdim etadi, shuningdek, barcha darajadagi byudjet daromadlarini shakllantirishning dolzarb masalalarini muhokama qiladi va o’rganadi. Barcha darajadagi byudjetlarning barqarorligini oshirish va daromadlarini oshirishning shakllanish manbalari va asosiy yo’nalishlari o’rganiladi.

*Калит со’злар:* barcha darajadagi byudjetlar, byudjet daromadlari, soliqlar, soliq stavkalari, byudjet daromadlarining tarkibi, soliq siyosati.

***Аннотация.** В этой статье автор представляет факты и анализ того, как обеспечить прозрачность бюджета на основе тех же бюджетных реформ, а также рассмотрены и исследованы актуальные вопросы формирования доходов бюджетов всех уровней. Исследованы источники формирования и основные направления повышения устойчивости и увеличения доходов бюджетов всех уровней.*

***Ключевые слова:** бюджеты всех уровней, доходы бюджета, налоги, налоговые ставки, государственное регулирование, состав бюджетных доходов, налоговая политика.*

***Abstract.** In this article, the author presents the facts and analysis of how to ensure budget transparency based on the same budget reforms, as well as discusses and investigates topical issues of generating budget revenues at all levels. The sources of formation and the main directions of increasing the stability and increasing the revenues of budgets of all levels are studied.*

***Key words:** budgets of all levels, budget revenues, taxes, tax rates, government regulation, composition of budget revenues, tax policy.*

Начиная с 2020 года внедряется новая бюджетная система, направленная на расширение полномочий Олий Мажлиса Республики Узбекистан и местных Кенгашей народных депутатов, дальнейшее повышение ответственности распределителей бюджетных средств, обеспечение самостоятельности органов государственной власти на местах за формирование доходов и использование средств местных бюджетов [1]. Современные тенденции развития финансовой системы свидетельствуют, с одной стороны, о расширении самостоятельности органов местной власти Республики Узбекистан, а с другой стороны, о необходимости реализации за счет средств местных бюджетов приоритетных направлений государственной политики, сформулированных в Указах Президента Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по повышению финансовой самостоятельности органов государственной власти на местах, усилению ответственности налоговых и финансовых органов за полноту поступлений в местные бюджеты» от 13 декабря 2017 года за № 5283. В Законе Республики Узбекистан «О Государственном бюджете Республики Узбекистан на 2021 год» от 25 декабря 2020 года за № 657 одной из первоочередных на ближайшую перспективу определена задача завершения работы по распределению полномочий между публично-правовыми образованиями и созданию действенных стимулов для расширения собственной доходной базы местных бюджетов [2].

Это обуславливает необходимость выявления резервов роста доходов региональных бюджетов для повышения устойчивости бюджетов всех уровней Республики Узбекистан и обеспечения органов власти достаточными финансовыми ресурсами для выполнения ими приоритетных социально-экономических задач. Доходы бюджетов различных уровней в совокупности определяют направление и эффективность государственной политики любой страны, обеспечивая должный уровень развития социально-экономической сферы, развитие инфраструктуры, расширение сферы деловой активности населения. Поэтому использование бюджетных средств, относясь к компоненту финансовой системы, порождают общественные отношения, которые определяют систему расходов бюджета. На сколько эффективно и своевременно будет осуществляться формирование доходной части бюджетов, настолько эффективно и качественно будет организована государственная политика страны в отношении осуществления ее основных функций.

Законом Республики Узбекистан «О Государственном бюджете Республики Узбекистан на 2020 год» впервые устанавливается, что расходы республиканского бюджета в разрезе министерств и ведомств утверждаются палатами Олий Мажлиса Республики Узбекистан, а расходы местных бюджетов – местными Кенгашами народных депутатов [3]. В целях обеспечения открытости бюджетного процесса разработан и запущен информационный портал «Открытый бюджет», который содержит подробную информацию по исполнению государственного бюджета, его параметрам, составляющим и прогнозным показателям. Портал также предоставляет возможность гражданам самим определять направления для расходной части местных бюджетов.

Наряду с этим, на официальных страницах Министерства финансов на ежедневной и ежемесячной основе размещаются данные о доходной и расходной частях госбюджета, контрактах, заключенных в системе госзакупок, а также отчёты о средствах, выделенных министерствам и ведомствам, выделяемых в рамках государственных программ в различных направлениях соответственно. Начиная с 2020 года в консолидированном Государственном бюджете отражаются государственные расходы, осуществляемые за счет государственных целевых фондов и средств привлеченных внешних заимствований, усилен охват и уровень прозрачности бюджета. Налажено ведение учета общего фискального баланса в соответствии с международными стандартами [3]. Для выполнения стоящих перед парламентом задач по усилению парламентского контроля за формированием и исполнением Государственного бюджета, в целях оказания парламенту квалифицированной помощи в реализации своих полномочий в области принятия и контроля исполнения Государственного бюджета было образовано Бюджетное управление Законодательной палаты Олий Мажлиса Республики Узбекистан. В

свою очередь проводимые реформы требуют повышения ответственности министерств, ведомств и органов государственной власти на местах за своевременное финансирование расходов первого уровня, государственных программ и мероприятий по социально-экономическому развитию регионов, недопущения реализации мероприятий с неопределенными источниками, а также дальнейшего ужесточения бюджетной дисциплины.

В целях дальнейшего укрепления государственной финансовой системы и бюджетной дисциплины, повышения прозрачности налогово-бюджетной системы, усиления заинтересованности органов государственной власти на местах за исполнение прогнозных показателей доходов бюджета, а также обеспечения реализации Закона Республики Узбекистан «О Государственном бюджете Республики Узбекистан на 2020 год» [1].

Кроме того, с 2022 года следующие виды расходов планируется финансировать из местных бюджетов:

- строительство, реконструкцию и капитальный ремонт общеобразовательных учреждений, дошкольных образовательных организаций, учреждений здравоохранения, а также ремонтно-восстановительные работы на объектах в рамках мероприятий по улучшению мелиоративного состояния орошаемых земель;
- ремонт территорий, прилегающих к многоквартирному жилому фонду, и капитальный ремонт тепловых сетей и котельного оборудования теплоснабжающих организаций;
- бесплатные адвокатские услуги для малообеспеченным и нуждающимся слоям населения.

Законопроект также предусматривает, что во всех районах (городах) 5% утверждённых общих расходов бюджетов будет направлено на мероприятия, определённые на основании общественного мнения [2]. Тенденция последних лет показывает, что после утверждения бюджета в течение года его расходы могут повыситься. Например, в 2021 году расходы госбюджета увеличивались два раза за год. Президент Шавкат Мирзиёев после рассмотрения поправок в закон о госбюджете на 2021 год в парламенте 2 июля увеличил предельные размеры ассигнований, выделяемых министерствам и ведомствам, сначала на 13,1 трлн сумов (1,2 млрд долларов) – с 135,8 трлн до 148,9 трлн сумов, а 6 декабря – на 11,69 трлн сумов (1,09 млрд долларов по курсу ЦБ на 10 ноября), то есть с 148,9 до 160,6 трлн сумов [2].

Итак, полноценная реализация бюджетного процесса в соответствии с принципом прозрачности – это просто невероятная задача. Поэтому, когда речь идет о «прозрачности», каждое небольшое мероприятие способствует тому, что появляются возможности контроля или более эффективного использования средств бюджета. Вместе с тем некоторые бюджетные инструменты, которые вводятся, лишь на первый взгляд увеличивают «прозрачность» бюджета, но на самом деле и они могут быть источником коррупции. Таким образом, несмотря на то что бюджетное развитие идет стремительными темпами, по-прежнему остаются проблемные зоны в направлении прозрачности бюджетного процесса. Вследствие этого необходима компиляция как правовых, так и экономических инструментов, и методов.

#### СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Эсанбоевна Н.Ж., Ташматова Р.Г. Пути увеличения доходного потенциала бюджетов разных уровней республики Узбекистан // Science and Education. 2021. №5.
2. Картирование научно-исследовательских работ и инноваций в Республике Узбекистан// <https://unesdoc.unesco.org/ark:48223/pf000037>
3. Жиянова Н. Э. Управление государственными финансами. Учебное пособие. / - Т.: Иктисод-молия, 2019.
4. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

УЎК 33

### ЕРЛАРНИ ШЎРЛАНИШИ НАТИЖАСИДА ВУЖУДГА КЕЛАЁТГАН ТАШҚИ САМАРАЛАР ТУРЛАРИ, УЛАРНИ ТУРКУМЛАШ ВА БАҲОЛАШ КЎРСАТКИЧЛАРИ

*Ж.К. Сауханов, ўқитувчи, Қорақалпоқ Давлат Университети, Нукус*

**Аннотация.** *Учбу мақолада ташиқи самараларни келтириб чиқараётганлигини асослаб ва уларнинг таъсир даражасини мазкур тадқиқот иши доирасида баҳолаб, регрессион усулдан фойдаланиб минтақадаги ижтимоий-иқтисодий кўрсаткичларнинг қишлоқ хўжалигида маҳсулот етиштириши ҳажми бўйича эластиклик коэффициентларини аниқлаган.*

**Калит сўзлар:** *ташиқи самаралар, ерларнинг шўрланиши, сугориладиган ерлар, эластиклик коэффициенти.*

**Аннотация.** *В данной статье выявлены коэффициенты эластичности социально-экономических показателей региона по объему сельскохозяйственного производства с использованием метода регрессии, основанного на формировании внешних эффектов и оценке степени их влияния в контексте данного исследования.*

**Ключевые слова:** *внешние эффекты, засоление почв, орошаемые земли, коэффициент эластичности.*



**Abstract.** This article reveals the coefficients of elasticity of socio-economic indicators of the region in terms of the volume of agricultural production using the method of regression, based on the formation of external effects and the assessment of the rate of growth.

**Key words:** external effects, soil salinization, irrigated lands, coefficient of elasticity.

**Кириш.** Қорақалпоғистон Республикасида ерларнинг шўрланиши қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштириш жараёнида бир қатор муаммо ва қийинчиликларни келтириб чиқаргани ҳолда ташқи самараларни вужудга келишига сабаб бўлмоқда. Хусусан, маҳсулот етиштириш жараёнида қўшимча тадбирларни амалга оширишни талаб қилиниши, маҳсулот миқдори ва сифатини пасайиши, таннархнинг ошиши кабилар шулар жумласидандир. Бундан ташқари экин майдонларини қисқаришига сабабчи бўлгани ҳолда қишлоқ хўжалик маҳсулотларини етиштириш салоҳияти ҳамда ҳажмини камайтириш, соҳада банд бўлган аҳоли сони, шунингдек уларнинг даромадлари даражасини қисқаришига олиб келмоқда. 2030 йилда 3 500 кг/ бошга, умумий экин майдонлари таркибида озуқа экинлари майдонлари улушини 2021 йилда 10 фоизга, 2025 йилда 12 фоизга, 2030 йилда 15 фоизга ошириш, кучли шўрланган ерларнинг улушини камайтириш 2021 йилда 43 фоизга, 2025 йилда 41 фоизга, 2030 йилда 37 фоизга камайтириш [1] каби устувор вазифалар қўйилган. Ушбу вазифани самарали бажариш мавжуд ресурслар (шу жумладан ер ресурслар)дан унумли фойдаланиш ва ишлаб чиқариш кучларни оқилона жойлаштириш орқали эришиш мумкин.


**Асосий қисм.** Минтақада экин майдонлари 1991 йилда 413,9 минг гектарни ташкил қилгани ҳолда жами суғориладиган ерлардаги улуши 84 фоизни ташкил қилган, яъни мавжуд майдоннинг 16 фоиздан фойдаланилмаган. 2020 йилга келиб суғориладиган ерлар миқдори 1991 йилга нисбатан 4 фоизга оширилган бўлсада, экин майдонлари унинг 51 фоизини ташкил қилгани ҳолда 260,0 минг гектарга тенг бўлган. Яъни 2020 йилга келиб экин майдонлари 153,9 минг гектарга камайган бошқача айтганда, 1991 йилга нисбатан 37 фоизга камайган. Бу дегани қишлоқ хўжалигида етиштириладиган маҳсулот ҳажмини, соҳада бандлар сонини ҳам мос равишда қисқаришига олиб келади [2,3].

Бир томондан бандлар даражасини камайтирган бўлса, бошқа томонда маҳсулот етиштириш учун зарур бўлган харажатлар миқдорини ошиши ҳамда шўрланган ерларда ҳосилдорликни пасайиши эвазига фойда нормасини ҳам камайтирмоқда. Бу эса ўз навбатида қишлоқ хўжалигида рентабелликни пасайишига, унга бўлган қизиқишни ҳам пасайишига ва хусусий инвестицияларнинг бошқа тармоқларга оқиб ўтишига сабаб бўлмоқда.

Ерларнинг шўрланиш даражаси ва уни бартараф этиш масалалари бевосита сув ресурсларининг мавжудлиги билан боғлиқ бўлиб, сув танқислиги ошган йилларда экин майдонларини қисқариши максимал даражага етган. Яъни 2001 йилда минтақада экин майдонлари 173,5 минг гектарни ташкил қилгани ҳолда тадқиқ қилинаётган даврдаги қуйи чегарасига эришган ва суғориладиган ерлардан фойдаланиш даражаси 36 фоизни ташкил қилган.

Тадқиқот натижаларига кўра ерлар шўрланиши натижасида ҳар бир гектар ер учун сарфланадиган сув миқдори 50 фоизга ошиши мос равишда экин майдонларини камайтирилишига сабаб бўлган. Бу эса ўз навбатида маҳсулот етиштириш ҳажми, бандлар сони, улар даромадини ҳам шунга пропорционал равишда қисқаришига сабабчи бўлгани ҳолда учинчи томон учун ташқи самараларни келтириб чиқармоқда [4].

Юқоридагиларни инобатга олган ҳолда мавжуд маълумотлар асосида Қорақалпоғистон Республикасида суғориладиган ерлардан фойдаланиш даражаси динамикаси асосида ерлар шўрланишини қишлоқ хўжалигида маҳсулот етиштириш ҳажмига таъсирини баҳолаб ўтмоқчимиз. Суғориладиган ерлардан фойдаланиш даражасини жами экин майдонини суғориладиган ерларга нисбати сифатида аниқланди (1-расм).



1-расм. Суғориладиган ерлардан фойдаланиш даражаси [6]

Жами суғориладиган ерлардан фойдаланиш даражаси 2001-2002 йилларда ўзининг куйи нуқтасига эришган бўлиб, кескин пасайиш кузатилган яъни 74 фоиздан 36 фоизгача пасайган. Кейинги даврда 2008 йилни инобатга олмагандан экин майдонларидан фойдаланиш даражаси барқарорлиги сақланиб қолган. Тадқиқот ишининг олдинги параграфларида амалга оширилган тадқиқот натижалар бўйича олинган хулосаларга кўра ерларнинг шўрланиш даражаси қишлоқ хўжалигида етиштирилган маҳсулот ҳажмига юқори таъсирга эга бўлмоқда.

Келтириб ўтилганлар қишлоқ хўжалигида ерларнинг шўрланиши натижасида экин майдонларининг қисқариши эвазига маҳсулот ҳажмини камайиши ижтимоий иқтисодий тараққиётга ўзининг салбий таъсирини кўрсатиб, ҳудуд аҳолиси учун ташқи самараларни келтириб чиқараётганлигини асосламоқда. Ушбу ташқи самаралар ва уларнинг таъсир даражасини мазкур тадқиқот иши доирасида баҳолаб ўтишни мақсад қилганмиз. Бунинг учун регрессион усулдан фойдаланган ҳолда дастлаб минтақадаги ижтимоий-иқтисодий кўрсаткичларнинг қишлоқ хўжалигида маҳсулот етиштириш ҳажми бўйича эластиклик коэффициентларини аниқлаб оламиз. Мазкур таҳлилни амалга ошириш учун 2000-2020 йиллар маълумотларидан фойдаланганмиз ва қуйидаги натижаларга эга бўлганмиз (1-жадвал).

Аниқланган моделларнинг адекватлигини текшириш учун қатор мезонлардан фойдаланил, хусусан Стьюдент мезони асосида аниқланган ҳар бир коэффициентнинг адекватлиги асосланган. Ушбу мезоннинг жадвал қиймати ҳам келтириб ўтганмиз, яъни  $t_{жад} = \pm 2,093$  га тенг бўлиб, аниқланган барча кўрсаткичлар 2,093 дан катта ёки -2,093 дан кичик эканлигини кўришимиз мумкин. Детерминация коэффициентларининг юқори қийматга эга бўлиши натижавий омил билан таъсир қилувчи омиллар орасидаги ўзаро таъсирнинг кучли эканлигини асосламоқда. Ушбу моделлар адекватлигини асослаш учун Фишер мезонига тўхталмадик, чунки таъсир қилувчи омиллар сони бирга тенг бўлганда унинг натижалари Стьюдент мезони билан бир хил бўлиб қолади.

Келтириб ўтилган тадқиқот натижалари кўра қишлоқ хўжалигининг минтақа ижтимоий иқтисодий тараққиётида аҳамияти юқори эканлиги асосламоқда. Жумладан қишлоқ хўжалигида етиштирилган ялпи маҳсулот миқдорини бир фоизга ўзгариши ЯХМ ҳажмини 0,96 фоизга ўзгаришини олиб келади. Саноат билан қишлоқ хўжалиги орасидаги боғлиқликни ўрганиш учун икки вариантдаги моделни келтириб ўтганмиз, биринчи вариантда барча коэффициентлар адекват ва детерминация коэффициенти 0.96 ни ташкил қилади. Мазкур модел натижадалари бўйича саноатнинг етиштирилган ялпи қишлоқ хўжалиги маҳсулоти ҳажми бўйича эластиклик коэффициенти 1,32 га тенг бўлмоқда. Иккинчи ҳолатда озод ҳад йўқ бўлгандаги ҳолат қараб чиқилган натижада детерминация коэффициенти 0.99 гача ошганлигини кўришимиз мумкин. Иккинчи модел бўйича иккала кўрсаткич орасидаги эластиклик коэффициенти 1,05 ни ташкил қилади. Биз умумий натижаларни қиёсий таҳлил қилган ҳолда айнан иккинчи модел асосида аниқланган эластиклик коэффициентидан фойдаланиш мақсадга мувофиқ деб топдик.

1-жадвал

Ижтимоий-иқтисодий кўрсаткичларнинг қишлоқ хўжалигида маҳсулот етиштириш ҳажми бўйича эластиклик коэффициентлари [6]

№	Модел	Стьюдент мезони	Детерминация коэффициенти	Эластиклик коэффициенти
1.	$\ln(YaHM) = 1.13 + 0.96 * \ln\left(\frac{Q}{X}\right)$	$b_0 = 5,49$ $b_1 = 20,49$	$R^2=0.96$	0.96
2.	$\ln(sanoat) = -1.20 + 1.32 * \ln\left(\frac{Q}{X}\right)$	$b_0 = 5,49$ $b_1 = 20,49$	$R^2=0.96$	1.32
	$\ln(sanoat) = 1.05 * \ln\left(\frac{Q}{X}\right)$	$b_0 = 75,64$	$R^2=0.99$	1.05
3	$\ln(JonBUD) = -5.42 + 2.75 * \ln\left(\frac{Q}{X}\right)$	$b_0 = -11,26$ $b_1 = 25,02$	$R^2=0.97$	2.75
	$\ln(JonBUD) = -6.80 + 1.22 * \ln(YaHM) + 1.57 * \ln\left(\frac{Q}{X}\right)$	$b_0 = -10,02$ $b_1 = 2,6$ $b_2 = 3,4$	$R^2=0.98$	$E_{YaHM}^{JonBUD} = 1.22$ $E_{QX}^{JonRBUD} = 1.57$
	$\ln(JonBUD) = 1.52 * \ln\left(\frac{Q}{X}\right)$	$b_0 = 46,41$	$R^2=0.99$	1.52
4	$\ln(JonRBUD) = -2.46 + 1.79 * \ln\left(\frac{Q}{X}\right)$	$b_0 = -7,21$ $b_1 = 22,97$	$R^2=0.97$	1.79
	$\ln(JonRBUD) = -3.24 + 0.69 * \ln(YaHM) + 1.13 * \ln\left(\frac{Q}{X}\right)$	$b_0 = -6,30$ $b_1 = 1,7$ $b_2 = 3,23$	$R^2=0.97$	$E_{YaHM}^{JonRBUD} = 0.69$ $E_{QX}^{JonRBUD} = 1.13$
	$\ln(JonRBUD) = 1.23 * \ln\left(\frac{Q}{X}\right)$	$b_0 = 76,02$	$R^2=0.99$	1.23


Саноат билан қишлоқ хўжалиги орасидаги эластиклик коэффициентлари анча катта бўлиб, буни қуйидагича изоҳлаш мумкин. Қишлоқ хўжалиги саноатга икки томонлама таъсир кўрсатади биринчидан қишлоқ хўжалигида маҳсулот етиштиришда саноат маҳсулотларидан фойдаланилади, яъни саноат маҳсулотларига бўлган талабни шакллантиради, иккинчидан қишлоқ хўжалиги енгил саноатни хом-ашё билан таъминлаб саноат маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажмига таъсир кўрсатади. Юқоридаги таҳлил натижаларни асосланган ҳолда шуни таъкидлаш мумкинки қишлоқ хўжалигида ўзгаришлар ҳудуддаги юридик ва жисмоний шахслар фаолияти ҳамда ҳаёт тарзига бевосита ва билвосита таъсирларини келтириб чиқаради. Бундан ташқари қишлоқ хўжалигини ЯХМ ҳажми билан ҳам юқори боғлиқликка эгаллиги ижтимоий-иқтисодий кўрсаткичларни ўзгартиргани ҳолда аҳоли даромадларида ўз аксини топади ва ҳудуд аҳолиси учун ташқи самараларни келтириб чиқаради.

Юқорида келтирилган фикрларни таҳлил натижалари ҳам асосламоқда, яъни, қишлоқ хўжалигини аҳоли умумий даромадлари ҳамда реал даромадларига таъсири анча кучли эканлиги аниқланди. Қишлоқ хўжалигидаги ўзгаришларни аҳоли умумий даромадларига таъсирини ўрганиш учун уч кўринишдаги модел ишлаб чиқилди. Ишлаб чиқилган барча моделлар мезонлар бўйича адекват бўлиб, уларнинг бири-бирига нисбатан устунлигини фақат детерминация коэффициенти орқали фарқлаш мумкин. Иккинчи моделда ЯХМни ҳам қўшимча омил сифатида олганмиз аммо, қўшимча омилни киритилиши детерминация коэффициентида етарли ўзгаришни таъминламади. Моделни адекватлигига тўхталадиган бўлсак барча коэффициентлар белгиланган даражадаги ораликқа тегишли бўлмоқда. Бу ерда ҳам энг юқори детерминация коэффициенти учини вариантга тўғри келмоқда ва унга кўра қишлоқ хўжалигида маҳсулот етиштириш ҳажмини бир фоизга ўзгариши аҳоли умумий даромадлари ҳажмини 1,52 фоизга ўзгартириш аниқланди.

Аҳолини турмуш тарзидаги ва харид қобилиятидаги ўзгаришларни уларнинг реал даромадлари асосида қараб чиқиш мумкин [5]. Шу сабабли қишлоқ хўжалигида ялпи маҳсулот ҳажмидаги ўзгаришларнинг аҳоли реал даромадларига таъсирига ҳам алоҳида эътибор қаратиб ўтдик. Бу ерда ҳам худди юқоридаги каби уч вариантдаги модел ишлаб чиқилди ва детерминация коэффициенти бўйича учунчи моделдан фойдаланиш мақсадга мувофиқ деб топдик. Натижада, қишлоқ хўжалигида ялпи маҳсулот ҳажмини бир фоизга ўзгариши аҳоли жонбошига реал даромадларни 1,23 фоизга ўзгаришига сабаб бўлаётганлиги аниқланди.

Ерларнинг шўрланиши натижасида кейинги даврда сув танқислигини ошириш ҳамда экин майдонларини қисқариши қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ҳажмидаги ўзгаришларга сабаб бўлмоқда. Бунинг натижасида минтақадаги ижтимоий-иқтисодий кўрсаткичлар ўзгаргани ҳолда ҳудуд аҳолиси учун ташқи самараларни келтириб чиқармоқда. Мазкур ташқи самараларни юқорида аниқланган модел натижалари асосида баҳолаб ўтамоқчимиз.

Аниқланган коэффициентлардан фойдаланган ҳолда қишлоқ хўжалигида шўрланиш натижасида экин майдонлари қисқаришини умумий ижтимоий-иқтисодий кўрсаткичларга таъсирини баҳолаб ўтамик (2-расм).



2-расм. Қорақалпоғистон республикасида экин майдонлари қисқариши эвазига ялпи маҳсулот ҳажмини камайиши сабабли вужудга келаётган ташқи самараларни баҳолаш натижалари (фоизда) [6]

Фикримизча экин майдонларини қисқариши пропорционал равишда қишлоқ хўжалигида маҳсулот етиштириш ҳажмини камайишига сабаб бўлади, бундан ташқари мавжуд ривожланиш шароитида ҳам

ер ресурсларини оширилиши шунга мос бўлган маҳсулот ҳажмини оширишга имконият яратади. Шу сабабли Қорақалпоғистон Республикасида экин майдонларини 2000 йилга нисбатан фоиздаги ўзгаришини қишлоқ хўжалигида ялпи маҳсулот ҳажмидаги ўзгаришни ифодалайди деб қабул қилган ҳолда унинг умумий ижтимоий иқтисодий кўрсаткичларга таъсирини баҳолаб ўтганмиз. Натижаларга кўра 2000 йилда экин майдонлари 1999 йилга нисбатан 14,5 фоизга камайгани ҳолда минтақада ЯХМ ҳажмини 14,0 фоизга, саноат ишлаб чиқариш ҳажмини 15,3 фоизга, аҳоли умумий даромадларини 22,1 фоизга, аҳоли реал даромадларини 17,9 фоизгача пасайишига сабаб бўлган.

Кейинги даврдаги экин майдонларидаги барча ўзгаришлар 2000 йилдан нисбатан олинган бўлиб, 2005 ва 2015 йилларга тўғри келмоқда. 2005 йилга қадар экин майдонларидаги кескин ўзгаришни иккита ҳолат билан изоҳлаш мумкин. Биринчидан 1999-2001 йиллардаги сув танқислигининг бўлиши, иккинчидан ерларни шўрланув даражасини пасайтириш мақсадида камроқ экин майдонларидан фойдаланиш ва сув ресурслари чекланганлиги муаммосини бартараф этиш. Натижада жами шўрланган ерлар улуши 2000-2005 йиллар орасида 7,5 фоизга қисқанган бўлса, 2005-2010 йиллар мобайнида 1,5 фоизга, 2010-2015 йиллар мобайнида эса 2,7 фоизга қисқарганлиги кузатилади.

Бугунги кунга келиб, яъни 2020 йилда экин майдонларининг 2000 йилдагига нисбатан 22,9 фоизга кам бўлиши, митақада яратилган ЯХМ ҳажмини 22,0 фоизгача йўқотилишига сабаб бўлмоқда. Бундан ташқари саноат ишлаб чиқариш имкониятинидан фойдаланиш даражасини 24,1 фоизга камайтирмоқда. Натижада ҳудудда истиқомат қилувчи аҳоли умумий даромадларини 34,9 фоизини, реал даромадларини 28,2 фоизини йўқотилишига сабаб бўлмоқда.

**Хулоса.** Бу каби йўқотишларни вужудга келиши, қишлоқ хўжалиги маҳсулот етиштирувчиларга ҳам қўшимча муаммоларни келтириб чиқармоқда. Хусусан саноат корхоналарини камайиши, маҳсулотни қайта ишлаш тизмидаги пасайишлар уларни маҳсулот сотиш билан боғлиқ харажатлари ва таваккалчилиги даражасини ошишига сабаб бўлмоқда. Қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини сақлаш ва қайта ишлаш саноатидаги ўзгаришлар бозорда кескин тебранишларни келтириб чиқаргани ҳолда таваккалчилик даражасини оширмоқда, бундан ташқари аҳоли реал даромадларидаги ўзгаришлар ҳам уларнинг харид қувватини камайтирмоқда. Бу каби ўзгаришлар қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини реализация қилиш билан боғлиқ харажатларни ошишига ва аниқ, ишончи маълумотга эга бўлиш имкониятларини пасайишига сабаб бўлмоқда.

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 23 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2020 — 2030 йилларга мўлжалланган стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5853-сонли Фармони. <https://lex.uz/docs/4567334>
2. Сауханов Ж.К. Қишлоқ хўжалигида ерларнинг шўрланиш даражасининг статистик таҳлили. // “Инновацион иқтисодий: муаммо, таҳлил ва ривожланиш истиқболлари” Халқаро илмий-амалий анжумантезислар тўплами. –Қарши, 2021. 331-334 б.
3. Досчанов Т. Эколого-экономические проблемы химизации агропромышленного комплекса в Узбекистане. Тошкент «Фан», 1989, 9,0 п.л.
4. Шодиев Т.Ш. Экономические модели развития сельского хозяйства. – Т.:Фан, 1986. -С.168;
5. Lofgren H. A Standard Computable General Equilibrium Model in GAMS. IFPRI. Washington, 2002, www.ifpri.org,
6. Муаллиф ишланмаси

УДК 339:004.738.5

## ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОЦЕССОВ ЭЛЕКТРОННОЙ ТОРГОВЛИ НА ОСНОВЕ МЕСТНЫХ ХАРАКТЕРИСТИК

*Б.Н. Солиев, ассистент, Ферганский филиал ТУИТ, Фергана*  
*З.К. Эрматова, ассистент, Ферганский филиал ТУИТ, Фергана*

**Аннотация.** Мақолада рақамли иқтисодиётнинг юртимиздаги ҳуқуқий асослари, қабул қилинган ҳужжатлар ҳақида маълумот берилди. Сўнгра унинг имкониятлари, истиқболлари ва уларни белгиловчи омиллар кўрсатилган. Электрон тиждорат жараёнларини маҳаллий хусусиятлар асосида таҳлили, солиштирма статистик маълумотлар ҳақида маълумот берилди. Яқунда эса муаммоларнинг бартараф этилишидаги сабабчи омилларга ечимлар таклиф қилинди.

**Калим сўзлар:** электрон тиждорат, рақамли иқтисодиёт, ахборот-коммуникация технологиялари, онлайн банкинг, миждорат, ҳисоб рақам, интернетга уланиш тезлиги, ўтказувчанлик қобилияти.

**Аннотация.** В статье представлена информация о нормативно-правовой базе цифровой экономики в нашей стране, принятых документах. Затем он описывает его возможности, перспективы и факторы, которые их определяют. Также была предоставлена информация по анализу процессов электронной коммерции на основе местных особенностей, сравнительная статистика. В конце концов, были предложены решения причинных факторов в преодолении проблем.

**Ключевые слова:** электронная коммерция, цифровая экономика, информационные и коммуникационные технологии, онлайн-банкинг, клиент, счет, скорость интернет-соединения, пропускная способность.

**Abstract.** The article provides information about the legal framework of the digital economy in our country, the adopted documents. It then outlines its capabilities, prospects, and the factors that determine them. Information on the analysis of e-commerce processes on the basis of local characteristics, comparative statistics was also provided. In the end, solutions were proposed to the causal factors in overcoming the problems.

**Keywords:** e-commerce, digital economy, information and communication technologies, online banking, customer, account, internet connection speed, bandwidth.

Если сегодня заглянуть в СМИ, то можно увидеть множество статей о достижениях нашей страны в области информационных и коммуникационных технологий. Растущий уровень передачи информации по местным и международным интернет-каналам в нашей стране также создает основу для внедрения систем электронной коммерции, основанных на информационных и коммуникационных технологиях. В частности, внедряются системы электронного документооборота, разрабатываются электронные платежи и совершенствуется нормативная база, созданная в сфере электронной коммерции. В целях реализации Закона Республики Узбекистан «Об электронной коммерции» в нашей стране приняты масштабные меры по дальнейшему развитию электронной коммерции с широким использованием современных информационных и коммуникационных технологий. Принятие законов в области электронной коммерции датируется 2004 годом. Постановление Олий Мажлиса Республики Узбекистан № 614-П о реализации Закона Республики Узбекистан «Об электронной коммерции» [1] подписано 29.04.2004. Позднее в 2004 году в закон были внесены поправки. Принят Закон Республики Узбекистан «О внесении изменений и дополнений в Закон Республики Узбекистан [2] «Об электронной торговле». [3]

«Интернет меняет наши представления о расстоянии и времени. Масштаб сети - это новое измерение информации и человеческих отношений сегодня». [4] Если сосредоточить описание этой сети на процессах электронной коммерции. Электронная коммерция - одна из самых быстрорастущих отраслей в последнее время. Он имеет ряд преимуществ перед традиционной торговлей. Это может сэкономить время пользователя, деньги на поездки и другие расходы. Товары, заказанные через службу доставки, могут быть доставлены по адресу без переплаты.

Сегодня перед нашим правительством стоят важные задачи по упрощению процессов электронного бизнеса, поощрению развития платформ мобильных денег и использованию электронных технологий, развитию необходимой инфраструктуры электронной коммерции, повышению доверия к онлайн-транзакциям, а также созданию эффективных юридических рамки для борьбы с киберпреступностью. Понятие электронной коммерции - это технология выполнения операций (операций), в том числе получение заказа на товары, оплата, участие в управлении доставкой товаров (услуг). Эти действия (операции) осуществляются с использованием информационных технологий и электронных средств, обеспечивающих переход права собственности или использование права от одного юридического (физического) лица к другому.

Развитие нетрадиционной торговли положительно сказывается на структуре рынка труда в Узбекистане. Индустриализация высоких информационных технологий создаст тысячи новых рабочих мест. Одновременная стабилизация экономики Узбекистана, повышение конкурентоспособности товаров и услуг и развитие электронной коммерции увеличит экспортный потенциал нашей страны. Электронная коммерция будет способствовать повышению уровня жизни населения, развитию таких сфер, как маркетинг, менеджмент.

В последние годы возможности для развития электронной коммерции в стране из года в год растут. Его развитие создаст возможности для наших местных производителей открывать новые рынки и находить новых клиентов. Выбор правильного пути решения существующих проблем электронной коммерции в Узбекистане отражается на благосостоянии людей, развитии нашего общества, нашем экономическом развитии.

Перечень вопросов, связанных с предоставлением льгот для семей в целях повышения их благосостояния и затронутых в рамках данной статьи, не претендует на полное освещение всех нерешенных вопросов в рамках семьи. Некоторые из них остаются спорными в процессе становления более обеспеченной семьи, или семьи уровня среднего класса.

#### СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Беккер Г.С. Человеческое поведение: экономический подход. – М.: ГУ ВШЭ, 2003. – 672с.
2. Беккер Г. Человеческий капитал (главы из книги). Воздействие на заработки инвестиций в человеческий капитал. США: экономика, политика, идеология. – 1993. – № 11.
3. Зверева Н.В. Семья и воспроизводство человеческого капитала // Вестн. Моск. ун-та. Сер.6, Экономика. - 1998. - N 5. - С.31-42.
4. Николас Б. В условиях глубоких социальных изменений государство всеобщего благосостояния необходимо, как никогда прежде // Финансы и развитие. Декабрь 2018. с.16-19.
5. Ройк В.Д. Экономика развития: неравенство, бедность и развитие : учебное пособие для вузов. – Москва: Издательство Юрайт, 2019. – 474 с.
6. Зайналов Ж.Р., Одегов Ю.Г., Кулапов М.Н. Совершенствование системы социального обеспечения в целях сглаживания социального неравенства. Институциональное развитие социально-экономических и финансовых систем: национальная экономика в глобальной среде. Материалы XI международной научно-практической конференции. Самарканд, СамИЭС, 11-12 июня 2021г. с. 207-210.
7. Ijtimoiy siyosat. O'quv qo'llanma. i.f.d., prof. A.V.Vaxabovning umumiy tahriri ostida. – Toshkent: "MUMTOZ SO'Z", 2019. 312 bet.
8. Аҳолини ижтимоий жиҳатдан муҳтож қатламларини ижтимоий ҳимоя қилиш тизимининг манзиллигини кучайтириш механизмини такомиллаштириш: Монография. Вахабов А.В., Бахтиёрв Б.Б. – Тошкент: "Университет", 2020.156 бет.
9. Хақимов О. Борьба с бедностью начинается с мест//Экономическое обозрение №11 (250), 2020. с. 8-15.
10. Абатуров В. Глобальная борьба с бедностью: опыт зарубежных стран // Экономическое обозрение №11 (250), 2020.с. 16-21.
11. Махкамвва Ш. Социально-экономические намерения молодежи Узбекистана // Рынок, деньги и кредит. 2018. № 8. С. 66.
12. Алиева С.С., Хусанов Б.Ш. Стратегия развития, как условие сокращения бедности. С. 323-325.



13. Инновацион молиявий хизматлар: муаммо ва ечимлар: Монография/ муаллифлар жамоаси. – Т.: “Iqtisod-Moliya”, 2020. -368 б. (XVI боб).

14. Хусанов Б.Ш. Финансовый механизм регулирования социального обеспечения населения: теория и практика. Монография. – Т.: «Iqtisod-Moliya», 2021. – 208 с.

УЎҚ 33

## ИҚТИСОДИЙ БАРҚАРОРЛИКНИ ТАЪМИНЛАШДА СОЛИҚЛАРНИНГ ТАЪСИРЧАНЛИГИ

*Н.Э.Эрназаров, ўқитувчи, Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, Самарқанд*

**Аннотация.** Мазкур мақолада солиқларнинг иқтисодий барқарорликни таъминлаш ва солиқлар бўйича олимларнинг мулоҳазалари, солиқларнинг иқтисодий барқарорликни таъминлашдаги ўрни, солиқлар бўйича тушумларнинг прогнозлари атрофида таҳлил қилинган. Солиқларнинг иқтисодиётдаги аҳамияти, бу бўйича кўрсаткичларни таҳлил қилиш орқали мамлакатимизда солиқлар бўйича мавжуд ҳолатлар бўйича илмий хулоса ва таклифлар берилган.

**Калит сўзлар:** давлат бюджети, солиқлар, даромад, самарадорлик, иқтисодиёт, имтиёзлар, ер солиги, фойда солиги, бюджети, маҳаллий бюджет.

**Аннотация.** В статье подробно анализируются взгляды ученых-налоговиков на обеспечение экономической стабильности и налогов, роль налогов в обеспечении экономической стабильности, прогнозы налоговых поступлений. Значение налогов в экономике, анализ этих показателей дает научные выводы и рекомендации о текущем состоянии налогов в нашей стране.

**Ключевые слова:** государственный бюджет, налоги, доходы, эффективность, экономия, льготы, земельный налог, налог на прибыль, бюджет, местный бюджет.

**Abstract.** The article analyzes in detail the views of tax scientists on ensuring economic stability and taxes, the role of taxes in ensuring economic stability, forecasts of tax revenues. The importance of taxes in the economy, the analysis of these indicators provides scientific conclusions and recommendations about the current state of taxes in our country.

**Keywords:** state budget, taxes, revenues, efficiency, savings, benefits, land tax, income tax, budget, local budget.

**Кириш.** Иқтисодий барқарорлигини таъминлаш ва мутаносиб ривожланишини таъминлаш, мамлакатнинг мавжуд табиий-хомашё, ишлаб чиқариш ва меҳнат салоҳиятидан оқилона фойдаланиш, ишлаб чиқариш кучларини оптимал жойлаштириш ҳамда аҳолининг турмуш даражаси ва фаравонлигини изчил ошириб бориш, шунингдек маҳаллий бюджет даромадларини мустаҳкамлаш юзасидан олиб борилаётган тизимли ислоҳатларни изчил давом эттириш корхоналар иқтисодий барқарорлигини таъминлашда солиқларнинг таъсирчанлиги муҳим ўрин эгаллайди.

Мамлакатимизда 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини 3.2-бандида таркибий ўзгартиришларни чуқурлаштириш, миллий иқтисодиётнинг етакчи тармоқларини модернизация ва диверсификация қилиш ҳисобига унинг рақобатбардошлигини ошириш, фаол инвестиция сиёсатини олиб бориш, маҳаллий хомашё ресурсларини чуқур қайта ишлаш асосида юқори қўшимча қийматли тайёр маҳсулот ишлаб чиқаришни жадал ривожлантириш, маҳсулот ва хизматлар бозорида монополияни босқичма-босқич камайтириш, ишлаб чиқаришни маҳаллийлаштиришни рағбатлантириш сиёсатини давом эттириш, экспорт фаолиятини либераллаштириш ва соддалаштириш, экспорт таркибини ва географиясини диверсификация қилиш, иқтисодиёт тармоқлари ва ҳудудларнинг экспорт салоҳиятини кенгайтириш ва сафарбар этиш [1] бўйича устувор вазифалар белгиланган.

**Адабиётлар шарҳи.** Ф.Мирзаев томонидан корхоналар инновацион фаолиятини рағбатлантиришда турли солиқ имтиёзларининг ўзига хос хусусиятлари ва бу борадаги илғор хориж тажрибани Ўзбекистонда қўллаш истиқболлари тадқиқ этилган [2].

К.Орзибеков томонидан иқтисодиётни инновацион йўл билан ривожлантиришда солиқ механизмни такомиллаштириш ҳамда инновацион фаолиятни солиқлар воситасида рағбатлантиришнинг илғор тажрибалари ва уларни Ўзбекистон шароитида қўллаш масалалари таҳлил қилинган [3].

Юқоридаги адабиётлар таҳлилидан келиб чиқиб, иқтисодиётни солиқлар воситасида тартибга солишнинг қуйидаги алоҳида жиҳатларини келтириш мумкин. Солиқ юки даражасининг иқтисодий фаолликка тескари мутаносиблиги солиқлар воситасида иқтисодиётни тартибга солишда турли хил самарали механизмлардан фойдаланиш имконини беради. Шунингдек, солиқларнинг мажбурийлиги солиқлар воситасида иқтисодиётни тартибга солишда устунлик берса, иккинчи томондан солиқ тўловчиларнинг солиқларни яширишга бўлган интилишининг мавжудлиги туфайли солиқ назорати самарали ташкил этилганлиги етарли даражада натижа беради. Бундан ташқари, солиқларнинг бошқа мажбурий тўловлардан энг муҳим фарқли жиҳати эквивалентсизлик хусусиятидир. Ушбу хусусият

солиқлар орқали иқтисодиётни самарали тартибга солиш учун давлат томонидан кўрсатиладиган ижтимоий товарларнинг муносиб бўлишини талаб этади.

**Тадқиқот методологияси.** Тадқиқот жараёнида услубий асос сифатида молиявий ва иқтисодий таҳлилнинг бир қатор мантиқий, илмий абстракциялаш, қиёсий таҳлил, динамикада ўрганиш, маълумотларни гуруҳлаш ҳамда тасвирий статистика таҳлиллardan фойдаланилди.

**Таҳлил ва натижалар.** Сўнгги йилларда мамлакатимизда корхоналарнинг иқтисодий барқарорлигини таъминлаш ва иқтисодиётни инновацион ривожлантириш мақсадида муносиб шарт-шароитлар яратиш бўйича кенг қўламли ишлар амалга оширилиб келинмоқда.

Шунингдек, вилоят иқтисодиётининг республикада ўртача даражада ривожланганлигининг ҳам асосий сабаби ҳудудда табиий ресурсларнинг бир қадар камлиги ва ўзлаштириш даражасининг пастлиги билан изоҳланади. Шундай экан, ҳудудий иқтисодиётни ривожлантиришда қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини қайта ишлаш ва хом-ашёдан тайёр маҳсулотлар ишлаб чиқаришга ихтисослашган саноатни ривожлантириш ва ушбу соҳа учун қўшимча солиқ имтиёзларини жорий этиш ҳамда давлат марказлашган инвестиция дастурларини ишлаб чиқиш заруратини тақозо этади.

Самарқанд вилояти ҳудудий жиҳатдан 2 та шаҳар ва 14 тумандан иборат бўлиб, уларнинг жами солиқ тушумларидаги улуши кескин фарқ қилмасида, шаҳарлар ва туманлар бир-биридан кескин фарқ қилади.

Таҳлил натижаларидан кўриш мумкинки, вилоят таркибидаги шаҳар ва туманлар бўйича ўртача солиқ тушумлари 2020 йилда 9,8 фоизга тўғри келган. Туманлар бўйича солиқ тушумларининг улуши ўртача кўрсаткичдан юқори бўлган ҳудудлардан ташқари, ҳудудлар бўйича солиқ тушумлари даражаси ўртача кўрсаткичдан паст туманларнинг солиқ тушумларидаги улуши анча камдир. Бу ҳолат, вилоятнинг ушбу ҳудудлари асосан қишлоқ хўжалигига ихтисослашганлиги, саноат ва хизмат кўрсатишнинг етарли даражада ривожланмаганлиги каби қатор сабабларга кўра намоён бўлмоқда. Вилоятнинг айрим ҳудудларида саноат корхоналари бармоқ билан санарли ҳолос.

Вилоятда солиқ тушумлари динамикаси иқтисодиёт тармоқлари бўйича ўрганилганида, бу борада ҳам кескин номуносибик мавжудлигини гувоҳи бўлишимиз мумкин.

Жадвал маълумотларидан кўринадикки, 2020 йилда жами даромадлар 108 фоизга бажарилган бўлсада, жисмоний шахслардан олинadиган мол-мулк солиғи 88 фоизга, ер солиғи эса 92 фоизга бажарилган ҳолас, Қуйдаги солиқ турлари юқори кўрсаткичга бажарилган Сув ресурсларидан фойдаланганлик учун солиғи 278 фоизга, юридик шахслардан олинadиган ер солиғи 149 фоизга, ер қаъридан фойдаланганлик учун солиғи 119 фоизга ва тадбиркорлик фаолиятининг айрим турлари бўйича қатъий белгиланган солиғи 113 фоизга ортиғи билан бажарилган.

1-жадвал

2020 йилда Самарқанд вилоятида иқтисодиёт тармоқлари бўйича солиқ тушумлари динамикаси [4]

Т/Р	Солиқ ва мажбурий тўлов турлари	Йиллар		
		Режа	Ижро	Фоизда (%)
	Жами солиқ тушумлар:	2 574 367	2 779 459	108%
1	Юридик шахслардан олинadиган фойда солиғи	115 679	131 583	114%
2	Айланмадан солиқ(ягона солиқ тўлови)	91 581	96 006	105%
3	Жисмоний шахслардан олинadиган даромад солиғи	796 704	800 383	100%
4	Тадбиркорлик фаолиятининг айрим турлари бўйича қатъий белгиланган солиқ	26 700	30 138	113%
5	Кўшилган қиймат солиғи	495 344	551 464	111%
6	Акциз солиғи	129 084	139 229	108%
7	Юридик шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ	31 169	31 744	102%
8	Жисмоний шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ	98 502	86 618	88%
9	<i>Ер солиғи, жами</i>	<i>166 087</i>	<i>186 766</i>	<i>112%</i>
	<i>юрдидик шахслардан</i>	<i>59 787</i>	<i>88 960</i>	<i>149%</i>
	<i>жисмоний шахслардан</i>	<i>106 300</i>	<i>97 806</i>	<i>92%</i>
10	Ер қаъридан фойдаланганлик учун солиқ	16 883	20 088	119%
11	Сув ресурсларидан фойдаланганлик учун солиқ	4 510	12 519	278%
12	Давлат божи	76 131	84 633	111%
13	Жарималар	53 657	67 218	125%
14	Йиғимлар	95 877	100 143	104%
15	Бошқа тушумлар	5 000	53 510	0%

Бугунги кунда солиққа тортиш амалиётидаги муаммолардан бири солиқларни бюджетга ўз вақтида ва тўлиқ тушиши билан боғлиқдир. Давлат солиқ хизмати органларидаги асосий иш ҳажми ҳам ушбу масалага қаратилган.

Ҳудудларда солиқ боқимандалигини бартараф этишдан кўра, уларни юзага келиш сабабларини аниқлаш ва уларни бартараф этиш учун аниқ чора-тадбирларнинг белгиланиши мақсадга мувофиқ.

Шундан келиб чиқиб, солиқларни ўз вақтида бюджетга келиб тушмаслик, яъни солиқлар бўйича боқиманда кўрсаткичлари сабабларини тадқиқ этиш лозим.

Маҳаллий ҳокимият органлари даромадларининг асосини ташкил этадиган солиқлар ва йиғимлар бўйича улар ваколатларининг чекланганлиги, қайсидир маънода маҳаллий ҳокимият органларининг ўз даромадларини мустақамлашга доир қизиқишларини чеклаб қўймоқда. Шунинг билан биргаликда маҳаллий бюджетлар даромадларини шакллантиришнинг субвенция бериш тизимининг мавжудлиги уларни юқори бюджетга тобелигини билдиради. Бу эса иқтисодий эркинлаштириш шароитида маҳаллий ҳокимият органларининг эркинлигини таъминлашга қаратилган давлат сиёсатини тўлиқ рўёбга чиқариш имконини бермайди.

Шу жиҳатдан келиб чиққан ҳолда айтиш лозимки, маҳаллий бюджетлар даромадларини шакллантиришнинг умумдавлат солиқларидан ажратмалар белгилаш ва субвенция тизимининг мавжудлиги, республикамиз бюджет қонунчилигига мувофиқ белгиланган маҳаллий бюджетларда тақчилликка йўл қўйиш мумкин эмаслиги билан асосланиб, ушбу ҳолат ҳам маҳаллий ҳокимият органларининг боқимандалигини кучайтирмоқда.

Қайд этилган муаммолардан келиб чиққан ҳолда маҳаллий ҳокимият органларининг солиқлар бўйича ваколатларини кенгайтиришга қаратилган ислохотлар олиб бориш республикамиз солиқ тизимини такомиллаштиришнинг муҳим йўналиши қилиб белгиланиши лозим.

**Хулоса ва таклифлар.** Иқтисодий барқарорликни таъминлашда солиқларнинг таъсирчанлигини ошириш бўйича олиб борилган тадқиқот муайян натижасида қуйидаги хулоса ва таклифлар берилди:

-худоудларда ресурсларнинг нотекис тақсимланганлиги, саноатнинг ривожланиш даражаси турличалиги каби бир қатор омиллар мавжудки, бу ҳолат худоудлар иқтисодийлигини бир текис ривожланишига имкон бермайди. Шу боис, худоудлар иқтисодийлигини тартибга солишда уларнинг ривожланганлик даражаси эътиборга олинishi зарур.

-солиқлар давлат томонидан иқтисодий тартибга солишнинг муҳим воситаларидан бири бўлиши билан бирга, амалда бу борада қатор муаммоларнинг мавжудлиги солиқлар тартибга солиш механизмининг самарали ишлаш имкониятини бермаяпти. Шунинг учун тадбиркорлар ва давлат ўртасидаги муносабатларда солиқлар асосий воситага айланмаган. Бу ҳолат давлат томонидан иқтисодий солиқлар воситасида тартибга солиш механизмининг кўзда тутилган даражада амалга ошириш имкониятини бермаяпти ва худоудларнинг ривожланишига салбий таъсир кўрсатмоқда. Иқтисодий барқарорликни родини кучайтириш ва маҳаллий бюджетлар базасини кенгайтириш борасида қуйидагилар амалиётга тадбиқ этилиши мақсадга мувофиқ:

- ҳозирги вақтда режадан ортиқ тушумлар республика ва маҳаллий бюджетларнинг жорий эҳтиёжларидан келиб чиқиб, тизимланмаган усулда тақсимланмоқда. Бу борада ягона барқарор меъёрий ҳужжатлар жорий этилса, субвенцияларга бўлган эҳтиёжни кейинчалик солиқ тушумларининг ошиши билан қоплашга истикболли имконият яратилади;

- тўғридан тўғри келиб тушадиган солиқларни ҳисоблаш усули ва имтиёзларини қайта кўриб чиқиш лозим.

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони.

2.Mirzayev F. and others. On instruments of tax incentives of the innovative development in the economy of Uzbekistan. // Section 14. Economics and management / 2017. 94-98 p.

3.Орзибеков К. Инновацион фаолиятни солиқлар воситасида рағбатлантиришнинг илғор тажрибалари ва уларни Ўзбекистон шароитида қўллаш масалалари. “Иқтисодий ва инновацион технологиялар”. № 4, 2015. 1-7 б.

4.Самарқанд вилояти ДСБ маълумотлари асосида муаллиф томонидан ҳисобланган.

УЎТ:338

### ДАВЛАТ-ХУСУСИЙ ШЕРИКЛИК ЛОЙИХАЛАРИДА РИСКЛАР ТАҲЛИЛИ

*С.Б. Юнусова, катта ўқитувчи, Тошкент молия институти, Тошкент*

**Аннотация.** Давлат-хусусий шериклиги механизми инфратузилмани яратиши ёки модернизация қилиши молиялаштиришнинг муқобил усулидан бири ҳисобланади. Мақолада давлат-хусусий шериклик лойиҳаларида юзага келиши мумкин бўлган рисклар таҳлил қилинган.

**Калит сўзлар:** давлат-хусусий шериклиги, инфратузилма, риск, риск турлари, PFRAM 2.0.

**Аннотация.** Механизм государственно-частного партнерства является одним из альтернативных способов финансирования создания или модернизации инфраструктуры. В статье анализируются риски, которые могут возникнуть в проектах государственно-частного партнерства.

**Ключевые слова:** Государственно-частное партнерство, инфраструктура, риски, типы рисков, PFRAM 2.0.

**Abstract.** *The mechanism of public-private partnership is one of the alternative ways to finance the creation or modernization of infrastructure. The article analyzes the risks that may arise in public-private partnership projects.*

**Key words:** *Public-private partnership, infrastructure, risks, types of risks, PFRAM 2.0.*

**Кирриш.** Давлат-хусусий шериклиги механизми инфратузилмани яратиш ёки модернизация қилишни молиялаштиришнинг муқобил усулидан бири ҳисобланади. Давлат харидлари орқали молиялаштиришга муқобил усул сифатида у инфратузилмани ривожлантириш жараёнини тезлаштириши мумкин. Объектларни молиялаштириш учун маблағлар баъзида давлат бюджетидан эмас, хусусий шерик томонидан тақдим этилсада (ДХШ компанияси орқали жалб қилинган хусусий ташаббускор капитали ёки қарз маблағлари шаклида), кўпгина лойиҳалар хусусий шерикни жалб қилиш ва уни қўллаб-қувватлаш учун давлат сектори томонидан молиялаштирилади. Лойиҳани амалга ошириш жараёнида юзага келиш имконияти билан боғлиқ кўнгилсиз ҳолатлар ва оқибатлар риск тушунчаси билан изоҳланади.

**Адабиётлар шарҳи.** Давлат-хусусий шериклиги механизми турли олимларнинг, экспертларнинг, етакчи халқаро ташкилотларнинг илмий тадқиқот ишларида турлича баён этилган. Шу билан бирга, “давлат-хусусий шериклиги”нинг умум қабул қилинган таърифи ҳам ҳали мавжуд эмас. ДХШ турли халқаро молия ташкилотлари, хорижий ва маҳаллий иқтисодчи олимлар, мутахассислар томонидан ҳар хил талқин этилади.

Халқаро Валюта жамғармаси томонидан берилган таърифда эса “ДХШ – давлат томонидан анъанавий тарзда таъминладиган инфратузилмавий активлар ва хизматларни хусусий сектор томонидан тақдим этишга қаратилган келишувдир” деб таърифланади[1].

Дунёда давлат-хусусий шериклигини биринчилардан бўлиб кенг тадқиқ қилган хорижлик олим Э.Р.Йескомбнинг фикрича “ДХШ – бу давлат сектори томонидан инфратузилма объектларини сотиб олишнинг (давлат харидлари) муқобил шакли бўлиб, давлат қарз маблағлари ёки солиқ тушумларидан молиялаштирилади” [2, Йескомб Э. Р. ]. Хорижлик олим ушбу таърифда ДХШ асосан давлат бюджети маблағлари ҳисобидан молиялаштирилишини назарда тутди. Ўзбекистонлик иқтисодчи-олимлардан Н.А.Юсупов, Ф.Э.Карабаев, Н.Н.Обломуродовлар фикрича: “ДХШ бу фақат давлат томонидан ёки хусусий шерик томонидан кўрсатилган хизматларнинг анъанавий тизимига муқобил кўринишидир. ДХШ нинг тўғри ёндашувида, авваллари хусусий сектор томонидан маҳаллий, ҳудудий ёки халқаро даражада фойдаланмаган ресурслари йўналтирилади” [3, Юсупов Н.А., Карабаев Ф.Э., Обломуродов Н.Н.].

Юқоридаги таърифлардан умумий хулоса қилиб шунини айтишимиз мумкинки, ДХШ – бу давлат томонидан истеъмолчиларга кўрсатиладиган хизматларнинг сифатини ошириш, турини кўпайтириш, ушбу хизматлар учун ажратиладиган маблағлардан фойдаланиш самарадорлигини оптималлаштириш мақсадида инфратузилма объектларига хусусий сектор (якка тартибдаги тадбиркор, юридик шахс ва юридик шахслар бирлашмаси)ни жалб қилиш орқали томонларнинг маълум муддатга юридик жиҳатдан ҳамкорликдаги фаолиятидир.

**Тадқиқот методологияси.** Давлат-хусусий шериклигининг хориж тажрибаси ва Ўзбекистонда давлат-хусусий шериклик амалиётни такомиллаштиришда қўллаш бўйича дунё олимлари ва иқтисодчилари томонидан олиб борилган тадқиқотларни ўрганиш, маълумотлар тўплаш, тўпланган маълумотларни таҳлил қилиш, синтезлаш, мантикий фикрлаш каби иқтисодий тадқиқот усулларидан кенг фойдаланилди.

**Таҳлил ва натижалар муҳокамаси.** Бугунги кунда Ўзбекистон Республикасида ДХШ соҳасида 200 га яқин лойиҳалар рўйхатдан ўтган бўлиб, улардан 45 % ни сув хўжалиги лойиҳалари ташкил қилган, бундан ташқари экология, таълим, соғлиқни сақлаш соҳасида ҳам анчагина лойиҳалар ишлаб чиқилган. Шулардан 88% ДХШ битими имзоланган лойиҳалардир. Умумий лойиҳалар қийматининг 70,4 % ни коммунал хизматлар соҳасидаги лойиҳалар ташкил қилган (1 – жадвал) [4].

2021 йилда ижтимоий ва ишлаб чиқариш инфратузилмасини ривожлантиришнинг асосий параметрлари ва 2022-2023 йиллар учун мақсадли мўлжаллар[5] учун ажратилган маблағлар таркибида ДХШ лойиҳалари учун 2021-2023 йилларда жами 850 млрд. сўм ажратиш мўлжалланган. Шундан 200 млрд. сўми 2021 йилда ажратилган, 300 млрд сўм 2022 йилда ва 350 млрд. сўм 2023 йилда ажратиш режалаштирилган. Бундан ташқари 2021 йилда давлат бюджетидан давлат-хусусий шериклик асосида ташкил этилган мактабгача таълим муассасаларига 930 500 млн. сўм субсидиялар ажратиш ҳам кўзда тутилган [6].

Куйидаги 1-расмда ДХШ лойиҳаларининг миқдор жиҳатдан турлари бўйича сони ва лойиҳалар қиймати келтирилган бўлиб, 1 млн. АҚШ долларигача бўлган лойиҳалар 170 та бўлиб, жами қиймати 31,1 млн. АҚШ долларини ташкил қилган. Суммаси 1 млн. АҚШ долларидан 10 млн. АҚШ долларигача бўлган лойиҳалар 26 тани ташкил қилиб, жами 69,4 млн. АҚШ долларига тенг. 10 млн. АҚШ долларини

ва ундан юқори бўлган лойиҳалар бор йўғи 3 тагина бўлсада, қиймати 1 707,8 млн. АҚШ долларини ташкил қилиб, барча турдаги лойиҳалардан катта ҳисобланади.

1– жадвал

Ўзбекистон Республикасидаги ДХШ лойиҳалари таҳлили[4]

Соҳалар кесимида	Жами лойиҳалар сони	Жами лойиҳалар қиймати	ДХШ битими имзоланган лойиҳалар	ДХШ битими имзоланиши арафасидаги лойиҳалар	Тендер босқичида бўлган лойиҳалар
Энергетика	4	474,0	0	1	3
Коммунал хизматлар	5	1 676,93	4	0	1
Транспорт	1	82,8	1	0	0
Соғлиқни сақлаш	28	33,09	26	2	0
Сув хўжалиги	88	16,79	88	0	0
Экология	29	53,40	14	0	15
Таълим	29	10,69	29	0	0
Спорт	1	0,60	1	0	0
Маъданият	7	4,63	6	1	0
Ахборот технологиялари	1	20,0	1	0	0
Қишлоқ хўжалиги	1	4,72	1	0	0
Ҳуқуқни муҳофаза қилиш	1	3,0	1	0	0
<b>Жами</b>	<b>195</b>	<b>2 380,65</b>	<b>172</b>	<b>4</b>	<b>19</b>

Шу сабабли, амалда ҳозирги кунда энг кўп қўлланиладиган ДХШ нинг асосий моделларининг хусусиятларини яхшироқ тушуниш учун биз инфратузилма лойиҳаларини амалга оширишда ҳисобга олиниши керак бўлган характерли рискларнинг асосий турларини кўриб чиқишимиз зарур.


ДХШ лойиҳасидаги рискларни кўриб чиқадиغان бўлсак:

— инфратузилма объектларини лойиҳалаштириш ва қуриш босқичлари билан бевосита боғлиқ бўлган қурилиш рисклари: лойиҳа чегараларини (қурилиш ҳажмлари) ноаниқ тавсифлаш rischi, ортиқча харажатлар rischi, объектдан фойдаланишда кечикиш rischi;

— банк фоиз ставкалари ёки курснинг ўзгариши, моддий ва энергия ресурслари нархлари ўзгариши билан боғлиқ молиявий рисклар, уни амалга ошириш жараёнида лойиҳа қийматининг ўзгаришига таъсир қилиши мумкин бўлган бошқа омиллар ва б.;

— бозорни ўрганиш ва прогнозлаш жараёнида ноаниқликлар туфайли юзага келиши мумкин бўлган рисклар;

— бажариш мажбуриятлари ёки операцион тайёргарлиги мезонлари бўйича шартнома мажбуриятларини (техник шартларни) бажармаганлик билан боғлиқ рисклар, яъни сифат стандартларига жавоб бера олмаслик ёки хизматнинг узлуксизлигини таъминлай олмаслик rischi;



1-расм. Ўзбекистон Республикасида амалга оширилаётган ДХШ лойиҳалари сони ва қиймати[7]

— активларнинг келажакдаги бозор қиймати билан боғлиқ бўлган қолдиқ қиймат рисклари (рискларнинг ушбу тоифаси, айниқса шартнома муддати тугагандан кейин активлар давлатга қайтарилиши керак бўлган вақтда муҳим ҳисобланади.);

— сиёсий ва ҳуқуқий хатарлар (зарурат туғилганида қуйидаги ҳолатларда ҳукумат ушбу хатарларни хусусий сектор томонидан кафолат билан таъминлайди: ҳарбий ҳолат, терроризм, фуқаролик тартибсизликлари, қонунчиликдаги ўзгаришлар, иқтисодий сиёсатдаги ўзгаришлар, хусусан тартибга солиш шароитида шунингдек, ҳукумат лойиҳа бўйича шартнома мажбуриятларини бажара олмаса). Бундан ташқари, қурилиш ва (ёки) реконструкция қилиш босқичи жуда узоқ ва доимий капитал харажатларни талаб қилади, шу билан бирга лойиҳани амалга оширишдан фойда олиш белгиланган вақтдан кечикади ва инвестиция қилинган маблағларнинг қайтарилиши бир вақтнинг ўзида эмас, балки

узоқ вақт давомида амалга оширилади. ДХШ лойиҳаларида рискларни таҳлил қилишдан асосий мақсад лойиҳани самарали амалга оширилишига таъсир этувчи омилларни аниқлашдир.

2-жадвал

**Жаҳон тажрибасида ДХШ асосида амалга оширилган лойиҳаларда юзага келган рисклар таҳлили[8]**

№	Лойиҳа номи	Лойиҳа амалга оширилган соҳа	Лойиҳа қийматининг кўтарилиб кетиши (%)	Лойиҳанинг қўтилган муддатидан кечикиши (%)	Талаб дефицити (%)	Молиялаштириш манбаларининг	Изоҳ
1.	Сиднейдаги Кросс-сити туннели, Австралия	Туннел	0	0	71	йўқ	Ҳаракатнинг камайиб кетиши
2.	Лондондаги “Barts and Near” шифохонаси, Буюк Британия	Соғлиқ и сақлаш	....	....	йўқ	ҳа	Бюджетдан етарли даражада молиялаштирилмаганлиги
3.	Пусандаги метро линияси, Корея	Темир йўл	....	....	85	йўқ	Талабнинг нотўғри баҳоланганлиги
4.	Сюдод-Реал аэропорти, Испания	Аэропорт	0	0	100	йўқ	Лойиҳага талаб бўлмаганлиги сабаб 2012 йил банкротликдан тугатилган
5.	Евротуннел, Франция-Буюк Британия	Йўллар	100	0	67	йўқ	Бозорда йўловчи ва юк ташиш хизмати улушининг 200% га ошириб баҳолангани
6.	Тузизлантириш қурилмалари, Австралия	Сув хўжалиги	....	....	ҳа	йўқ	Лойиҳанинг муқобиллари кўпайгани сабаб, талабнинг етарли эмаслиги.

Жаҳон амалиётини таҳлил қилганимизда, шуни гувоҳи бўлдики, кўпгина лойиҳалар лойиҳа қийматининг кўтарилиб кетиши натижасида, лойиҳанинг қўтилган муддатидан кечикиши натижасида, талабнинг нотўғри баҳоланганлиги натижасида ҳамда молиялаштириш манбаларининг етарли эмаслиги натижасида лойиҳалар барбод бўлмоқда.

ДХШ лойиҳаларини амалга ошириш жараёнида лойиҳа билан боғлиқ рискларни аниқлаш ва уларни таҳлил қилиш билан бир қаторда уларни томонлар ўртасида тўғри тақсимлаш ҳам муҳим жиҳатлардан бири ҳисобланади.

**Хулоса ва таклифлар.** Хулоса қилиб айтганда, рискларни таҳлил қилишда давлат шериги хавфнинг юзага келиши эҳтимоли, хавфнинг лойиҳа натижаларига таъсири ва хавфни энг кам харажат билан бартараф қилиш қобилиятини (агар хавф таъсирини назорат қилиш имкони бўлмаса) ҳисобга олиш керак. Юқорида кўриб чиқилган таҳлилларимиз ва қўйида санаб ўтиладиган таклифлар мамлакатимизда давлат-хусусий шериклик соҳасини ривожлантириш ҳамда соҳада амалга оширилаётган лойиҳаларимизнинг самарадорлигини ошириш имконини беради:

❖ Талаб рискин тўғри баҳоланда, лойиҳалар барбод бўлиб қолиши рискин олдини олишда ДХШ лойиҳаларида жамоатчилик назоратини жаҳон тажрибасидан келиб чиққан ҳолда йўлга қўйиш зарур;

❖ ДХШ лойиҳасида хусусий шерикни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш мақсадида бюджет тизими бюджет маблағлари, субсидиялар ва тижорат банклари кредит линиялари орқали бюджетдан маблағлар ажратилганда, давлатнинг фискал рискин жаҳон талабларига мос ҳолда баҳолаш учун Жаҳон банки ва Халқаро валюта фонди томонидан ишлаб чиқилган PFRAM 2.0 аналитик дастурини қўллаш мақсадга мувофиқ бўлади.

**ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:**

1. <https://ppp-certification.com/node/2560/play/30084>
2. Государственно-частное партнерство: Основные принципы финансирования / Э. Р. Йескомб ; Пер. с англ. — М. : Альпина Паблишер, 2015. — 457 с. С. 24
3. Н.А.Юсупов, Ф.Э.Карабаев, Н.Н.Обломуродов “Теория и практика государственно-частного партнерства” учебный модуль. Ташкент-2013. С.6
4. Молия вазирлиги ҳузуридаги Давлат-хусусий шерикликни ривожлантириш агентлиги маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган 22.11.2021 ҳолатига
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 28 декабрдаги “2021 — 2023 йилларда Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий ва ишлаб чиқариш инфратузилмасини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПҚ-4936-сон қарорига 1-ИЛОВА

6. <https://lex.uz/uz/docs/5188512>

7. Молия вазирлиги хузуридаги Давлат-хусусий шерикликни ривожлантириш агентлиги маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган 01.12.2021 ҳолатига

8. <https://www.elibrary.imf.org/view/books/071/28328-9781513511818-en/ch011.xml#ch11bx03>

УЎК 33

## ТАЪЛИМ ХИЗМАТЛАРИ БОЗОРИНИ РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАР АСОСИДА БОШҚАРИШНИНГ ЎЗИГА ҲОС ХУСУСИЯТЛАРИ

*Э.Б. Ягаева, стажёр-тадқиқотчи, Фаргона Политехника Институтини, Фаргона*

**Аннотация.** Мақолада сўнгги йилларда технологик инновацияларнинг жадал ривожланиши бизнес дунёсини ўзгаришлари ҳақида маълумот берилган. Рақамли трансформация компанияларнинг иқтисодий позициясини яхшилаши, жамият ва атроф-муҳитга ҳисса қўиши, лекин технологик эволюциядан ташқари, бу жараён ўз ўрнида ижтимоий ва маданий ўзгаришларни ҳам олиб келиши ҳақида ҳам гапириб ўтилган. Янги тенденциялар пайдо бўлиши билан компаниялар рақамли технологиялари юқори саводхонлигига эга ёшларни ўқитиши зарурлигини кўрди, олий таълим муассасалари (ОТМ) янгидан меҳнат бозорининг талаблари билан ҳамқадам бўлиши учун ўз таълим усуллари ўзгартиришига мажбур бўлганликлари ҳақида ҳам батафсил маълумот ёритилган.

**Калит сўзлар:** олий таълим тизими, рақамли технологиялар, бошқарув тизими, таълим хизматлари бозори, трансформациялашув, меҳнат бозори талаблари.

**Аннотация.** статья представлена информация о стремительном развитии технологических инноваций в последние годы и изменениях в мире бизнеса. Утверждалось, что цифровая трансформация улучшит экономическое положение компаний, будет способствовать развитию общества и окружающей среды, но, помимо технологической эволюции, этот процесс, в свою очередь, приведет к социальным и культурным изменениям. С появлением новых тенденций компании ощутили необходимость обучать молодых людей с высокой грамотностью к цифровым технологиям, а высшие учебные заведения (ВУЗы) были вынуждены изменить свои методы обучения, чтобы идти в ногу с требованиями рынка труда.

**Ключевые слова:** система высшего образования, цифровые технологии, система управления, рынок образовательных услуг, трансформация, требования рынка труда.

**Abstract.** The article reveals information on the rapid development of technological innovation in recent years and changes in the business world. It has been argued that digital transformation will improve the economic position of companies, contribute to society and the environment, but in addition to technological evolution, this process will in its turn lead to social and cultural changes. With the emergence of new trends, companies have seen the need to educate young people with high literacy in digital technologies, and higher education institutions (HEIs) have been forced to change their teaching methods to keep up with the demands of the labor market.

**Key words:** rapid development, digital transformation, technological evolution, emergence of new trends, literacy in digital technologies, economic position, teaching methods, demands of the labor market.

Жаҳон амалиётида олий таълим тизимида инновацион фаолиятни ахборот технологиялари асосида бошқаришни такомиллаштириш бўйича бир қатор муаммоларнинг илмий ечимларини таъминлаш юзасидан мақсадли илмий тадқиқот ишлари ташкил этилган. Хусусан, олий таълим муассасаларининг рейтингини ошириш, ички инновацион салоҳиятидан самарали фойдаланиш асосида таълим, инновацион ва ишлаб чиқариш фаолиятини интеграциялаш механизмларини жорий этиш билан тармоқ таълим ресурсларини шакллантириш, таълим тизимининг рақобатбардошлигини ошириш мақсадида инсон капиталини ривожлантириш, бошқарув механизмларини такомиллаштириш, иқтисодиётнинг замонавий талаб ва эҳтиёжларига мувофиқ юқори малакали кадрлар тайёрлаш ва уларни ишга йўналтиришни бошқаришга мажмуавий ёндашиш, таълим сифатини ошириш, жараёнларни оптимал бошқариш ва тартибга солишни такомиллаштириш, таълим жараёнига инвестициялар, инновациялар ва рақамли технологияларини жалб этиш каби масалалар асосий илмий тенденциялардан ҳисобланади.

Иқтисодиётдаги рақамли ўзгаришлар шароитида таълим хизматлари бозорини ташкил этиш ва бошқаришда рақамли технологиялардан фойдаланишни ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратиб келинмоқда.

Ўзбекистон республикаси Президентининг 2020 йил 5 октябрдаги ПФ-6079 сонли ““Рақамли Ўзбекистон - 2030” стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони мувофиқ: Мамлакатимизда рақамли иқтисодиётни фаол ривожлантириш, барча тармоқлар ва соҳаларда, энг аввало, давлат бошқаруви, таълим, соғлиқни сақлаш ва кишлоқ хўжалигида замонавий ахборот-коммуникация технологияларини кенг жорий этиш бўйича комплекс чора-тадбирлар амалга оширилмоқда. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини

ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясида «узлуксиз таълим тизимини янада такомиллаштириш, сифатли таълим хизматлари имкониятларини ошириш, меҳнат бозорининг замонавий эҳтиёжларига мос юқори малакали кадрлар тайёрлаш сиёсатини давом эттириш, таълим ва ўқитиш сифатини баҳолашнинг халқаро стандартларини жорий этиш асосида олий таълим муассасалари фаолиятининг сифати ҳамда самарадорлигини ошириш, ўрта махсус, касб-хунар ва олий таълим муассасалари битирувчиларини ишга жойлаштириш ҳамда хусусий тадбиркорлик соҳасига жалб этиш» [1] бўйича устувор вазифалар белгилаб берилган.

Сўнгги йилларда технологик инновацияларнинг жадал ривожланиши бизнес дунёсини ўзгартирди. Рақамли трансформация компанияларнинг иқтисодий позициясини яхшилади, жамият ва атроф-муҳитга ҳисса қўшади, лекин технологик эволюциядан ташқари, бу жараён ўз ўрнида ижтимоий ва маданий ўзгаришларни ҳам олиб келади. Янги тенденциялар пайдо бўлиши билан компаниялар рақамли технологиялари юқори саводхонлигига эга ёшларни ўқитиш зарурлигини кўрди, олий таълим муассасалари (ОТМ) янгидан меҳнат бозорининг талаблари билан ҳамқадам бўлиш учун ўз таълим усулларини ўзгартиришга мажбур бўлди. Шунингдек, аниқлаш компанияларни рақамли трансформация ташаббусларида иштирок этишга олиб келадиган мотивацияларни аниқлаш меҳнат бозори талабларини қондириш ва ОТМлар томонидан амалга оширилаётган саъй-ҳаракатларни аниқлаш учун зарур бўлган кўникмалар жамиятнинг рақамли эволюциясини кузатиб боришга катта ҳисса қўшади.

Иқтисодиётдаги рақамли ўзгаришлар шароитида таълим хизматлари бозорини ташкил этиш, таълим тизими фаолиятига рақамли технологияларни жорий этиш бўйича илмий изланиш олиб бораётган олималарнинг тадқиқотлари ўрганиб чиқилди. Замонавий жамиятда ахборот ва билимларнинг изчилликда ўсиши асосий тенденция ҳисобланади. Д.Белл[1], А.Тоффлер[2] каби олимларнинг ҳисоблашича, ахборот ва билимлар иқтисодиёт тараққиётни ҳаракатлантирувчи кучи саналган энг муҳим ишлаб чиқариш омилига айланади. Замонавий жамиятнинг айнан шу хусусиятига асосланган ҳолда кўплаб тадқиқотчилар уни П.Дракер[3] каби «ахборот жамияти» ёки «билимлар жамияти» деб, ёки М.Поратнинг фикрига кўра, «ахборот иқтисодиёти»га ёки «билимлар иқтисодиёти»га асосланган жамият[4] деб атайдилар, чунки ахборот жамиятида иқтисодий муваффақиятлар миллий, минтақавий, маҳаллий ёки корпоратив инновациялар тизими ва узлуксиз таълим тизими мавжудлиги ва самарадорлигига тобора кўпроқ боғлиқ бўлиб бормоқда.

Шунингдек, Т.Науширвановнинг фикрига кўра рақамлаштириш таълим сифатини яхшилади, айнан шу сабаб ҳам технологиялар қатор мамлакатларда фаол тарзда таълим тизимига киритилмоқда: бу талабаларни ўзлаштиришнинг мониторингини яхшилабгина қолмай, ўқиш жараёни қизиқарлироқ, унинг натижалари сезиларли даражада юқори бўлишига ёрдам берадиган янги таълим усуллари ва ёндашувларини ишлаб чиқишга ҳам ёрдам беради [5].

Paswan, A., D'Souza, D., & Zolfagharian, M. A. тадқиқотларида эса рақамли трансформация бўйича жуда кўп турли хил истиқболлар стратегик танловларни тушуниш ва баҳолашдаги муаммолар ўрганилган [6].

Бозорда иқтисодиёт, ҳукумат муайян тармоқларни қоплаш ёки молиялаштириш учун курашади ва бозор механизми ўз-ўзини молиялаштириш учун зарур бўлган таълим олиш имконини беради. Г.М.Захированинг сўзларига кўра: “Замонавий иқтисодиёт учун сизга профессионал компетенциялардан ташқари рақамли воситалар билан ишлаш кўникмаларига эга бўлган ходим керак [7]. Шу боис олий ўқув юртлари битирувчилари олдида таълим стандартлари, дастурлари, доимий ўзгариб турадиган ва билим тезлигини оширишга мойил бўлган компетенциялар рўйхати талаблари илгари сурилади.

Сўнгги пайтларда содир бўлган глобаллашув ва иқтисодий халқаролашув йилларида ўсиб бораётган сиёсий, иқтисодий ва молиявий ўзаро боғлиқлиги билан боғлиқ турли мамлакатлар ўртасидаги муносабатлар ҳам ўта жадаллик билан ўсиб бормоқда. Бугунги кунда олий таълимнинг инновацион салоҳиятини ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Инновацион таълим технологиялари педагогик фаолиятни (ва бошқарувни) мақсадли, оқилона ўзгартиришни англатади, таълим муассасаларида педагогик ва маъмурий инновацияларни ишлаб чиқиш ва жорий этиш орқали: таълим, бошқарувнинг янги мазмуни; янги иш усуллари, янги воситалар, ташкил этишнинг янги шакллари таклиф этади.

Сўнгги йилларда бутун дунё бўйлаб университетлар тез таъсирли ўзгаришларга дуч келмоқда ва улар ўз навбатида рақамлаштириш томон технологик тараққиёт ва ижтимоий электрон тенденциялардан таъсири туфайли ўтказилмоқда. Бошқа барча инқилобий ўзгаришлар сингари, рақамли трансформация кучли сошлаш, қайта сошлашни ўз ичига олади.

Глобаллашган иқтисодиёт натижасида ижтимоий-иқтисодий-таълим тизимидаги кучли ўзгаришлар олий таълимда таълим стандарти, сифати, марказсизлаштириш, виртуал ва мустақил ўрганиш каби тенденцияларни кўзда тутди. Ушбу драйверлар (трендлар) таълим соҳаси трансмиллий таълимни биргаликда рағбатлантириш илгари сурмоқда. Рақамлаштирилган таълимни бўшлиғини



тўлдиришнинг муқобил механизмларидан бири сифатида кўриш мумкин. Бу ҳодисага рақамли тадбиркорлик сифатида қаралади [9].

**Ахборот технологиялари истеъмолчиларининг асосий гуруҳлари[8]**

№	Номи	Мазмуни
1	Хусусий ва давлат корхоналари	-саноат ишлаб чиқариши ва хизматлар кўрсатиш соҳасида банд бўлганлар: ахборот технологиялари асосий истеъмолчилари, ушбу бозорнинг ривожланишини белгилаб беради ҳамда товарлар ва хизматлар етказиш билан боғлиқ масалаларни ҳал қилиш учун амалий дастурий таъминотга талаб шакллантиради. Компаниялар, бошқарув самарадорлигини оширишга интилан ҳолда, турли интеграцияланган бошқарув тизимларига барқарор талаб шакллантиради (Enterprise Resource Planning Systems – ERP Systems, Customer Relationship Management Systems – CRM Systems, Product Service Management Systems – PSM Systems).
2	Илмий-тадқиқот ташкилотлари ва университетлар	-улар илмий-тадқиқот вазифаларини бажаришнинг дастурий таъминоти, молиявий ва маъмурий бўлинмалар, илмий кутубхоналар фаолиятини автоматлаштириш, катта ҳажмдаги ахборот билан ишлаш бўйича ҳисоблаш марказлари хизматлари ва шахсий конъюнктуралар учун инфратузилма дастурий таъминотига асосий талабни шакллантиради.
3	Уй хўжаликлари	-улар биринчи навбатда шахсий компьютерлар учун инфратузилма дастурий таъминотига, матнли, овозли, видео ва график ахборотни қайта ишлашга талаб қўяди.

Рақамли трансформация имкониятларини интеграция қилиш учун университетлар ўзларининг имкониятларидан фойдаланадилар ташқи филиаллари ёки трансмилий масофавий таълим орқали имкониятларни етказиб бериш каби аммо, талабалар муқаррар равишда таълимни рақамлилаштиришга, биринчи навбатда, ахборот коммуникациялари ва технологияларига боғлиқ бўладилар. Кенг тарқалган глобаллашган таълим университетларни таълимни шакллантириш, ишлаб чиқиш, йетказиб бериш ва доимий такомиллаштириш механизмларига тубдан таъсир қилди. Глобаллашув-ходисаси томнидан кўйилган муаммолар университетларни анъанавий шаклларига бошқа боғлиқ бўлмаслиги кўрсатди [10].

Ахборот асрида, хусусан, университетлар қўлаб талабаларнинг таълим тажрибасини ошириш учун ноёб рақамли технологияларни ўрганиш ташаббусларни илгари сурди. Бу маҳсулот портфелига, йетказиб беришнинг ўзига, интеграцияга ва ташкилий тузилмага таъсир қилувчи муҳим операцияларни ўзгартиришни талаб қилади. Университетлар техник ва маданий ўзгаришларни комбинациясини талаб қилади. Рақамли маданиятга ўтишга раҳбарлик қилиш жуда мураккаб. Рақамли трансформация стратегияси нафақат университетларда таълимни тақдим этиш моделларини ўзгартирди, балки талабаларни ҳам глобаллашган таълим талабида қайта белгилаб берди. Университетлар нуқтаи назаридан рақамли трансформация стратегиялари мақсадлари:

- а) умумий даромадни ошириш;
- б) унумдорликни ошириш;
- с) инновацион амалиётлар ёрдамида қийматларни яратиш;
- е) бренд обрўси ва янгилигини ривожлантириш[8].

Университетлар мураккаб трансформация стратегияларини бошқариш учун рақамли трансформацияни аниқлаш керак бўлган бошқарув амалиётларида зарурият сезади. Яъни, улар марказлаштирилган фалсафа сифатида ёрдам берадиган эпчил, реалистик ва кенгайтириладиган рақамли трансформация стратегияларини шакллантиришлари керак. Рақамли технологиялардан фойдаланиш ва интеграция университетларга ўзларининг анъанавий виртуал чегараларидан ташқарига чиқиш, курслар портфелига таъсир қилиш, етказиб бериш моделини ва университетнинг бутун қиймат занжирини тартибга солиш имконини беради[9].

Олий таълимни рақамли тизимга ўтиши - трансформация жараёнлари биз Грузия ва Португалия техника университетлари мисолида кўриб чиқишимиз мумкин. Грузия Техника Университети инновацион таълим муассасаси сифатида инновацион фаолият олиб боради, яъни олиб келадиган янги таълим технологиялари, янги дастур ва усулларни ишлаб чиқади ва янги таълим натижаларини қўллаиди[10]. Грузия олий таълимидаги инновацияларни тушуниш ва "инновацион таълим муассасаси портрети" ни ташкил етувчи асосий хусусиятларни ҳисобга олган ҳолда кўрсатилган. Турли даражадаги инновациялар ўқув амалиёти элементларининг янгилик даражасига қараб ажратилади. Уларнинг конструктив хусусиятлари таълимдаги инновациялар мезони бўла оладиган инновациялар тавсифланади [11].

Инновацион ёндашувлар ва тегишли таълим технологиялари замонавий олий таълимнинг қуйидаги долзарб муаммоларини ҳал қилишга ёрдам беради:

1. Билимларни самарали ўзлаштириш; касбий қарорлар қабул қилиш имконини берувчи амалий тадқиқот кўникмаларини шакллантириш;
2. Билимларни тўплашдан мустақил изланиш механизмларини яратишга ўтиш ва илмий-тадқиқот фаолияти кўникмаларини шакллантириш;
3. Талабалар шахсининг қадрият йўналишларини шакллантириш;
4. Когнитив фаолликни ошириш; ижодий қобилиятларни ривожлантириш;

5. Талабаларнинг муваффақиятли ижтимоий мослашуви учун қулай дидактик ва психологик шароитларни яратиш.

Шундай қилиб, бугунги кунда таълимдаги инновациялар энди алоҳида ҳодиса ёки тасодифий топилмалар эмасдир. Инновациялар умуман Грузия ва хусусан Грузия техника университетининг таълим маконининг ривожланиш векторини белгиловчи тизимга айланди.

Португалия сифат ва бошқарув самарадорлигига эга, сиёсий барқарорлик ва зўравонлик ёки терроризмнинг йўқлиги, энг юқори иқтисодий ўсишни қайд етувчи иқтисодий кўрсаткич, шунингдек, сифат - бу таълим [12]. Шу нуқтаи назардан, мамлакатнинг бошқарув қобилияти бошқарув мактаблари сифатининг ошиши кутилмоқда ва давлат ислохотлари макроиқтисодий мақсадларга мослаштирилмоқда. Олий таълимнинг ўсиши ва минтақавий иқтисодий ўсиш ўртасида ижобий боғлиқлик мавжуд, академик бирликлар сонининг 10% га ўсиши, қоида тариқасида, минтақанинг аҳоли жон бошига ялпи ички маҳсулотининг 0,4% ўсиши билан боғлиқ. Бу таъсир мамлакатнинг кам ривожланган ҳудудларида кўпроқ таъсир қилади. ОТМларнинг ҳиссаси нафақат улар жойлашган ҳудудга, балки қўшни минтақаларга ҳам таъсир қилади, уларнинг таъсири географик жиҳатдан яқинроқ бўлган минтақаларга кучлироқдир [13]. Португалияда олий ўқув юртлиари иккилик тизимда ташкил этилган бўлиб, университет ва политехника таълимини бирлаштирган бўлиб, улар давлат ёки хусусий бўлиши мумкин ва олий таълимга кириш учун талаб ва шартларга жавоб берадиган барча фуқароларнинг киришини таъминлаши керак. Политехника институтлари мамлакатда олий таълимни кенгайтириш учун пайдо бўлган, университетлар мавжуд бўлмаган жойларда жойлашган ва ўқитиш таклифи тегишли ҳудудлардаги меҳнат бозори еhtiёжларини қондириш учун ишлаб чиқилган. Ўқитишнинг янги парадигмалари, яъни масофавий таълим билан ОТМлар ўқитувчилар ва талабалар еhtiёжларини қондириш учун бир қатор дастурий таъминот ва воситаларга сармоя киритдилар. Энг кўп қўлланилган воситалар MOODLE, ZOOM ва TEAMS дастурий таъминотлари эди. ОТМлар, шунингдек, бошқарув органлари, ўқитувчилари ва қолган академик ҳамжамиятга мактаб мақсадларига мувофиқ бўлиши учун, яъни технологик нуқтаи назардан талабаларни, бўлажак менежерларни ва компания ходимларини тайёрлаш ва ўқитишни таклиф қилади, тобора рақамли дунёнинг муаммолари. ОТМларда ҳам бор янги кўникмаларга эга бўлишни ёки билимларни мустақамлашни хоҳлайдиган мутахассислар учун шакллантирилган курслар ва тренинглари. Аммо шуни таъкидлаш керакки, ОТМларнинг стратегияси уларнинг таълимига қараб ўзгаради мактаб типологияси, чунки муҳандислик мактаби бизнес мактабидан фарқли мақсадларга эга. Мисол учун, муҳандислик мактаблари юқори рақамли кўникмаларга эга бўлган, инновациялар ва дастурлаш қобилиятига эга мутахассисларни тайёрлайди, бизнес мактабларининг вазифаси эса бизнес моделларини яхшилаш ва рақамли қийматни кўшишдир.

Рақамли иқтисодиёт ва меҳнат бозорининг жамиятнинг барча тармоқларига глобал ўтиши даврида таълим тизимини ҳам бозор муносабатлари асосида ривожлантириш зарур. Инсон капиталини такомиллаштириш рақамли иқтисодиётни ривожлантиришнинг муҳим омилдир. Олий таълим, қоида тариқасида, бўлиши керак бўлган фундаментал асосий билимларни беради нодавлат таълим тақдим етувчи замонавий кашфиётлар, кўникмалар ва технологиялар билан доимий равишда тўлдирилади”.

Иқтисодиётни рақамлаштириш ва тезкор ахборот алмашинувида мослашиш даврида жамиятда замонавий ва илғор, бозорга йўналтирилган таълим тизимига еhtiёж бор. ҳаётнинг барча соҳаларида инновацияларни ўз ичига олган ўз ҳисобидан инновацияларга асосланган. Аҳамиятидан келиб чиқиб, нодавлат таълим хизматлари бозори вужудга келиши табиий барқарор иқтисодий ривожланиш учун бундай таълим хизматлари. Иқтисодий ривожланиш натижасида меҳнат бозори таълим тизимидан замонавий ахборот дастурлари асосида учта маҳсулот яратишни талаб қилмоқда: меҳнат, таълим ва илмий-техникавий ҳудудлар. Шу билан бирга, талабни нафақат давлат маблағлари ҳисобидан, балки турли мулкчилик шаклларидаги хусусий сектор билан ҳамкорликда қондириш мақсадга мувофиқдир.

Таълим тизимида рақамли технологиялардан фойдаланиш мамлакат рақобатбардошлигини ҳосил қилувчи омили сифатида муҳим аҳамиятга эга бўлиши ахборот ва коммуникация технологиялари воситаларидан фойдаланиш кўникмалари, ахборот ва коммуникация саводхонлиги асослари, ахборот оқимлари ва технологияларнинг тезкор алмашиши шароитига мослашиш кўникмаларига эга бўлиши замонавий меҳнат бозорининг асосий талабидир. Айнан мазкур малака ва кўникмалар (билимларни амалиётда қўллаш олиш, креатив фикрлаш ва ҳ.к.) таълим жараёнига ушбу воситаларни тўлақонли интеграцияси ҳолатида шаклланади. Шунингдек, компьютер ва интернет орқали таълим олишнинг (шахсга йўналтирилган) янги шакллари ва усулларини тадқиқ этиш, илмий асосланган рақамли иқтисодиётни ривожлантириш шароитига мос таълим парадигмасини ўзгаритиш учун самарали инструментлар ҳисобланади.

Рақамли технологияларни бошқарув тизимида қўллашнинг мақсадга мувофиқлигини, шунингдек, таълим тизимини ривожлантиришнинг умумий стратегик мақсадларини ҳисобга олган ҳолда қуйидаги жиҳатларни эътиборга олиш зарур:

- Рақамли технологияларни нафақат ўқитишда, балки бошқарув жараёнларини ташкил қилишда ҳам қўллаш; бу ходимларнинг функционал мажбуриятларини аниқ тақсимлашга ҳамда ОТМ

менежменти самарадорлигини оширишга имкон беради;

- ўқитувчилар малакасини тизимли равишда ошириш (шу қаторда онлайн тартибида ҳам), бу эса ўқитувчиларнинг ОТМ йўналишидан келиб чиқиб (ихтисослиги) ўз услублари ва рақамли таълим ресурсларини ишлаб чиқишига шароит яратади;

- инновацион жараёнларни рақамли технологияларидан фойдаланиши орқали нафақат бир мамлакат ичида, балки халқаро миқёсда ҳам маълумот ва тажриба алмашиш имконияти яратилади. Натижада тармоқ ресурсларидан профессионал тарзда фойдаланиш ривожланади;

- рақобатбардош кадрлар сифати ва тайёргарлигини ошириш учун фан, таълим тизими, бизнес ва иқтисодийнинг реал сектори интеграциясини таъминлаш.

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Bell Daniel. *The Coming of Post'Industrial Society: A Venture in Social Forecasting.* – Harmondsworth: Penguin, 1973;
2. Toffler Alvin. *Powershift: Knowledge, Wealth, and Violence at the Edge of the 21st Century.* – N.Y.: Bantam, 1990.
3. Drucker Peter F. *The Age of Discontinuity.* – Heinemann, 1969; *Post-Capitalism Society.* – N.Y.: Pantheon, 1993.
4. Porat Mark Uri. *The Information Economy: Definition and Measurement.* – Washington, 1977; *Communication Policy in an Informational Society / in Communications for Tomorrow.* Ed. by Robinson G.O. – N.Y.: Praeger, 1978.
5. Timur Naushirvanov, Ta'limni raqamlashtirish: Estoniya, Singapur va Janubiy Koreya tajribasi, Khan Academy O'zbek Blog, Nov 15,2019;
6. Paswan, A., D'Souza, D., & Zolfagharian, M. A. (2009). Toward a contextually anchored service innovation typology. *Decision Sciences*, 40(3);
7. Захирова Г.М. “Развитие негосударственных образовательных услуг в условиях цифровой экономики ”, *Innovations management* 13/2, 2020;
8. Абрамова А. В. Международная торговля информационными технологиями: современное состояние и перспективы развития. М.:МГИМО,2007,с.12-13.
9. Angelopoulos, M. K., Christina A. K, and Yannis A. P “Lean Management Through Digital Transformation: Challenges and Opportunities for the Energy and Public Utilities Industry”, *Journal of Advanced research in management*, 10(2), 2019;
10. De Lourdes Machado-Taylor, M.; Soares, V.M.; Teichler, U. *Challenges and Options: The Academic Profession in Europe*; Springer International Publishing: Berlin, Germany, 2017. [CrossRef];
11. Shaughnessy, H. (2018). Creating digital transformation: Strategies and steps. *Strategy and Leadership*, 46(2), 19–25. <https://doi.org/10.1108/SL-12-2017-0126>;
12. Valero, A.; Van Reenen, J. The economic impact of universities: Evidence from across the globe. *Econ. Educ. Rev.* 2019, 68, 53–67.[CrossRef];
13. Veiga, F.; Alexandre, F.; Cerejeira, J.; Arezes, P.F. O Crescimento da Economia Portuguesa. Estudo Para a Associação Missão Crescimento, Escola de Economia e de Gestão da Universidade do Minho, Portugal. 2019. Available online: <https://www.eeg.uminho.pt/pt/investigat/nipe/Documents/Crescimento%20Economia%20Portuguesa.pdf> (accessed on 19 May 2020).

## PERSONNEL TRAINING IN AMUDARYA REGION AND KHOREZM

*M.B. Allanyazov, Postgraduate student, St. Petersburg State University, Saint-Petersburg, Russia*

**Annotatsiya.** Bu Markaziy Osiyoda milliy-hududiy chegaralanishdan oldingi kadrlar siyosati bo'lib, O'rta Osiyoda Sovet hokimiyati paydo bo'lgandan keyin mas'uliyatli lavozimlarga mahalliy aholi emas, balki ko'pincha Markaziy Rossiya yoki Ukrainadan tashrif buyuruvchilar joylashtirila boshlandi. mahalliy aholi vakili bo'lmaganlar.

Amudaryo departamenti va viloyatidagi sovet hokimiyatining boshqaruv organida sharqiy musulmon millatiga mansub birorta ham kuchli va nufuzli shaxs yo'q edi.

**Kalit so'zlar:** Milliy chegaralash, kadrlar siyosati, Amudaryo bo'limi, O'rta Osiyo, nomenklatura, RKP (b) MK Sredazbyurosi

qolganligi aniq. Mustaqillik sharofati bilan Orol bo'yi hududiy tarixiy shaxslarning mardlik xizmatlarini yangichasiga o'rganish, tarixiylik jihatdan beg'araz baholash, o'tmish darslarini namuna etib, tarixiy sabog'i etib namoyish qilishda, yangicha izlanishlar bo'lib o'tmoqda...[6].

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Бердақ шығармалары. (Шежире). ҚҚ МБ. Т.1941. Бердақ шығармалары. (Шежире). ҚҚ МБ. Н.1950.
2. К.Худайбергенов. «Хива хонлари шажараси». Х.1996.
3. Мунис ва Огахий. «Фирдавси –ил-иқбол». Т.2010. Мунис ҳам Огахий. «Фердауси–ил-иқбол». Академик Х.Хамидий аўдарған. Н.2010.
4. О. Ж. Юсупов. Россия ҳам Арал бойы халықлары. Н.1993.
5. Академик С.К.Камалов. Каракалпаки в XVIII-XIX вєках. Т.1968.
6. Академик Ж.Б.Базарбаев; Р.Базарбаев. Тарийхқа жаңаша көз карас.Н .2019.
7. Ғ.Хожаниязов.О.Ж.Юсупов.Қарақалпақстандағы муқаддесорынлар.Н .1994.
8. К.Кунназаров. Нөкис қаласының қурылыў тарийхынан. Н.2003
9. К.Кунназаров. БЕС ҚАЛА. Теңиздің әтирапы елим. Н.2010.
10. С.Ш. Талдахметов. Қазақстан тарийхы. А-2013.
11. У. Ембергенов, Ж. Шамуратов. Сулаймон Боқирғоний (Ҳаким ота). Т-2015.

UO'K 93/94

### BUXORO XONLIGI TARIXNAVISLIGI

*B.T. Jurayev, Ilmiy bo'lim boshlig'i, Denov tadbirkorlik va pedagogika institute, Denov*

*Annotatsiya. Mazkur maqolada Buxoro xonligining tashlik topishi, Shayboniylar hukmronligi davrining o'ziga xos jihatlari, ma'daniyati rivoji ochib berilgan.*

*Kalit so'zlar.: Sulola, tarixshunoslik. tarixnavislik, ilm-fan, hunarmanchilik, savdo-sotiq.*

*Аннотация. В данной статье раскрываются истоки Бухарского ханства, особенности периода правления Шайбани, развитие культуры.*

*Ключевые слова: Династия, историография. историография, наука, ремесла, торговля.*

*Abstract. This article reveals the origins of the Bukhara Khanate, the peculiarities of the period of Shaybani rule, the development of culture.*

*Key words: Dynasty, historiography. historiography, science, handicrafts, trade.*

O'zbek davlatchiligi tarixida Buxoro xonligi davrida ikkita sulola hukmronlik qilgan yillarni o'z ichiga qamrab oladi. Bu Shayboniylar (1500-1601 yy.), Ashtarxoniylar (1601-1756 yy.) hukmronligi bo'lib, har bir shajaraning taxtni egallab turgan yillari tarixini o'rganish tarixshunosligimizning dolzarb vazifalaridan biridir.

Sharq tarixining ulkan tadqiqotchisi akademik V.V.Bartol'd «O'rta Osiyoning ikkinchi quruvchisi» deb baho bergan hukmdor – bu XVI asrda hukm surgan askarboshi hamda buyuk davlat arbobi, shayboniylar sulolasidan Abdullaxon II dir. Agar Muhammad Shayboniyxon O'zbekiston va o'zbek xalqi tarixida shayboniylar davlatining asoschisi, Ubaydullaxon I uning mustahkamlovchisi sifatida tanilgan bo'lsa, Abdullaxoni soniy siyosiy tarqoqlikni tugatish va markazlashgan davlatning quruvchisi bo'lib kirdi. Yoki, Ahmad Donish ta'biri bilan aytganda: «Hijriyning har yuzinchi, minginchi yillarida davlat va jamiyatni yangilovchi hukmdorlar vujudga kelib turadi. Bir minginchi hijriyning boshlarida Buxoroda yangilovchi bo'lib Abdullaxon maydonga keldi».

Bugungi kunda, yirik huquqshunos olim, professor Ziyodulla Muqimov ta'biri bilan yondoshilganda ham «U o'z hukmronlik yillari markazlashgan davlat timsolida farovonlik, Turkistonda tartib va madaniyatni ta'minlagan hakmdor sifatida shuhrat topib kelmoqda»{1:766}.

Abdullaxon soniy zamonida tarixshunoslik sohasida ham ko'zga ko'rinarli asarlar yaratilib, bunga misol tariqasida Buxoroda yashab ijod qilgan Xasanho'ja Nisoriyning «Muzakkiri ahhob» asarini («Do'stlar yodnomasi») keltirib o'tish mumkin. Bu asarda XVI asrda Movarounnahrda, shuningdek, Afg'oniston, Hindiston, Eron, Turkiya va Qoshg'arda yashab o'tgan 228 nafar shoir haqidagi ma'lumotlar jamlangan. Ular orasida o'z asarlari bilan o'zbek va tojik adabiyoti rivojiga ulkan hissa qo'shgan Bobur, Hiloliy, Majlisiy, Xoja, Shayboniy, Uvaysiy, Komron, Bayramxon, Mushfiqiy kabi yirik so'z san'atkorlari to'g'risida qimmatli ma'lumotlar bor. Abdullaxon Ikkinchiga bag'ishlab yozilgan bu asar Davlatshoh Samarqandiyning «Tazkirat shuaro», Alisher Navoiyning «Majolis un-nafois» asarlaridan keyin «uchinchi tazkira» hisoblanadi va XVI asrda O'rta Osiyo, Eronu Hindistondagi adabiy muhitni va adabiy hayotning boshqa masalalarini yoritishda katta ahamiyat kasb etadi.

Shayboniylar davrida tarixnavislik sohasidagi katta yutuqlardan biri, bu katta ilmiy qimmatga ega bo'lgan, xususan Muhammad Solihning «Shayboniyнома», Mirzo Muhammad Haydarning «Tarixi Rashidiy» asarlarini alohida ta'kidlab o'tish joizdir.

Albatta tarix ilmining rivojini boshqa ilm-fanlar taraqqiyotisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu davrda Movarounnahrda musavvirlik, xattotlik, musiqa san'ati, fiqh hamda ko'pgina aniq fanlar: tibbiyot, mantiq, handasa (geometriya) va ilmi hay'at (astronomiya) sohalarida ham anchagina uytuqlar qo'lga kiritildi. «Muhammad amali shabaka» (1550), Bobokalon mufti Samarqandiyning «Risola dar ilmi hisob», «Vasiyat bar

chahor qism», Muhammad Husayn Minajjim Buxoriyning «Ma'rifati samti qibla» va boshqa asarlar bu davrda aniq fanlardagi yuksalishdan dalolat beradi.

Shayboniylar davrida Buxoro xonligida, tibbiyot sohasida yozilgan asarlar{2:78}, ayniqsa kuchaydi. Ularda ilgari surilgan davo usullari, tashxis qo'yish, dorilar tayyorlash o'rta asr musulmon sharq tibbiyotiga xos ilg'or an'analar XVI asrda ham davom etganidan dalolatdir.

Shayboniylar davrida, ayniqsa ulardan Ubaydullaxon va Abdullaxon II hukmronlik qilgan yillarda Buxoro xonligi iqtisodiy va madaniy hayotida birmuncha o'zgarishlar ro'y berdi. Hunarmandchilik taraqqiy etdi: temir va cho'yan quyish, qurolyarog', mis va jez idishlar yasash, to'qimachilik, qog'oz, sovun ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Adabiyot, tarix, tarjimonlik, lug'atchilik, me'morlik, naqqoshlik, tasviriy san'at va boshqa ravnaq topdi: „Muzakkir ulahbob“ (Hasanxoja Nisoriy), „Tazkirat ushshuaro“ (Mutribiy), „Shayboniynoma“ (Muhammad Solih), „Zubdat ul-asror“ (Abdulla ibn Muhammad), „Abdullanoma“ (Hofiz Tanish Buxoriy), „Badoye' ul-vaqoye“ (Zayniddin Vosifiy) kabi yirik adabiy va tarixiy asarlar yaratildi, lug'atlar tuzildi (Amin Ahmad Roziy — „Haft iklim“ va boshqalar), Rashiduddin Fazlulloh („Jome' at-tavorix“) va Sharofiddin Ali Yazdiy („Zafarnoma“)ning tarixiy asarlari o'zbek tiliga tarjima qilindi. Musiqa, xattotlik (Kavkabi Najmiddin Buxoriy, Mir Ali Hiraviy, Ahmad Husayniy, Mir Husayn al-Husayniy, Sulton Ali Mashhadiy, Do'stmuhammad Buxoriy, Mahmud ibn Ishoq ash-Shihobiy va boshqalar) yuqori darajada rivojlandi. Tasviriy san'at yuksalib, Buxoro miniatyura maktabi vujudga keldi. Kutubxonachilik (Abdulazizxon, Abdullaxon II kutubxonalar va boshqalar), kitob bezash va muqovachilik rivojlandi. Tibbiyot ilmi taraqqiy etdi (Muhammad Husayn ibn al-Miroqiy Samarqandiy, Shoh Ali ibn Sulaymon, Sulton Ali va boshqalar), yirik shaharlarda shifoxona (dor ushshifo)lar tashkil qilindi. Bu davrda me'morlik yuksak darajaga ko'tarildi — Shayboniixon madrasasi, Mir Arab madrasasi, Abdullaxon madrasasi, Ko'kaldosh madrasasi va boshqa, Masjidi kalon va boshqa Govkushon majmuasi va boshqa karvonsaroylar, Timi kalon va boshqa rastalar, Abdullaxon bandi, Zarafshon suv ayirg'ichi va boshqa ko'prik va suv omborlari qurildi, ariq, kanallar qazildi, sardoba va hammomlar solindi, Buxoro shahri yangi mudofaa devori bilan o'raldi. Qabr toshi (Shayboniixon, Abusaidxon qabr toshlari va boshqalar) yasash badiiy darajaga yetdi. Ta'limtarbiyaga e'tibor kuchaydi, har bir mahallada maktab ochildi, ba'zi xonadonlarda uy ta'limi joriy etildi. Bolalar olti yoshdan o'qishga qabul qili"Nadigan bo'ldi. Madrasalarda ilohiyotdan tashqari riyoziyot, faroiz, handasa, fiqh, she'r san'ati, mantiq, musiqa, xattotlik va boshqa fanlar o'qitildi [4:67].

Ashtarxoniylar davridagi muttasil urush harakatlari madaniy hayot taraqqiyotiga katta to'sqin bo'ldi. Diniy zo'ravonlik kuchaydi, dunyoviy fanlar o'rmini islom aqidalari egallay boshladi. Lekin shunga qaramay adabiyot, san'at va boshqa sohalarda bir qancha iste'dodli olimlar (musiqada Darvishali Changiy va boshqalar) yetishib chiqdi. Adabiy, tarixiy asarlar — „Hayvonnoma“ (Sayd Nasafiy). „Bahr ul-asror“ (Mahmud ibn Vali), „Ubaydullanoma“ (Muhammad Amin Buxoriy), „Tarixi Abulfayzxon“ (Abdurrahmon To'le'), „Muhit uttavorix“ (Muhammadamin ibn Muhammadzamon Buxoriy), „Subhonqulixon to'g'risida hajviya“ (Turdi) va boshqa Tibbiyot va me'morlik bir oz taraqqiy etdi: ashtarxoniylardan Subhonqulixon Buxoroda maxsus shifoxona hamda tibbiyot kutubxonasi qurdirdi. Hashamatli binolar (Sherdor madrasasi, Tillakori madrasasi, Abdulazizxon madrasasi, Nodir devonbegi madrasasi, Bolohovuz masjidi va boshqalar) bunyod etildi. Maktab va madrasalarda asosan diniy fanlar, qisman adabiyot (Navoiy, Fuzuliy, Hofiz, Bedil va boshqalar) o'qitildi.

XVI asr 60-yillarida Shayboniylar bilan Safaviylar o'rtasida kuchayib ketgan ziddiyat Abdullaxonni Safaviylar ustiga yurish qilishga majbur etdi. Yurishga tayyorgarlik ko'rilayotgan davrda Buxoro siyosiy hayotida muhim rol o'ynovchi voqea sodir bo'ldi. Xoja Islom aralashuvi bilan yirik siyosiy masala o'z ijobiy yechimini topdi. Bu – Buxoroni Balxga almashtirishni to'xtatish voqeasi bo'lib, voqea Xoja Islom ijtimoiy-siyosiy nufuzining cho'qqisi hisoblanadi. Pirmuhammadxon Buxoro taxtini egallagan taqdirda shaharga Abdullaxon bergan siyosiy va madaniy maqomni bera olmasligi aniq edi;

– XVI asr o'rtalari Buxoro xonligi tarixida Xoja Islomning Abdullaxonga nisbatan siyosiy homiyligi davri hisoblanadi. Bu an'ana Xoja Islom vafotidan keyin ham davom etib, uni Xoja Sa'd o'z zimmasiga oldi. Xoja Sa'dning Abdullaxonga nisbatan siyosiy homiyligi Buxoro xonligidagi mavjud siyosiy vaziyat taqozosi hisoblanadi. Aks holda Abdullaxonning barqarorlikni mustahkamlash va xonlik hududlarini kengaytirish uchun olib borgan kurashlari muayyan to'siqlarga uchrashi mumkin edi;

– Jo'ybor xojalarining yirik vakillaridan biri Xoja Tojiddinning Ashtarxoniy xonlari bilan munosabatlari Buxoro xonligidagi ichki vaziyatni belgilagan. Xoja Tojiddin ashtarxoniy xonlardan Valimuhammadxon, Imomqulixon, Nadrmuhammadxon o'z ta'sirini o'tkaza oldi. Xonlikning Balx viloyatida yuz bergan siyosiy ixtiloflar Xoja Tojiddin aralashuvi bilan hal qilishgan hollar ham mavjud. Hatto Nadrmuhammadxonning hokimiyatdan chetlashtirilishida Xoja Tojiddinning qo'li borligini o'rta asr mualliflari e'tirof etishgan;

– Jo'yboriylar, jumladan, Xoja Tojiddin faoliyatida aqliy mehnat kishilari, qorilar, sahhoflarga homiylik qilish ko'zga tashlanadi. Buxoro xonligining turli joylarida istiqomat qiluvchi Xoja Tojiddin muridlari uning moddiy yordamidan bahramand bo'lishgan. Ularga ko'rsatilgan iltifotlar shubhasiz, Xoja Tojiddin obro'yining oshishiga olib keldi hamda ta'sir doirasini kengaytirdi. Xoja Tojiddin davrida Buxoroning Jo'ybor mahallasi muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi maskanga – shayxlar, muridlar, muxlislar to'planadigan joyga{3:10};

adolatsizlikka yo'liqqan kimsalar uchun esa siyosiy panoj beriladigan bir go'shaga aylandi. Adolatsizlikka uchragan kimsalarni o'z himoyasiga olgan Jo'yboriylar bu bilan rasmiy hokimiyatga nisbatan o'z

qudratini oshkora namoyish etishga va omma o'rtasida ko'proq obro' orttirishga, ijtimoiy mavqeni yanada mustahkamlashga harakat qildilar;

– Maqomotnavislikni istisno qilganda, alohida olingan nufuzli xonadon tarixiga bag'ishlab asar yozish an'anasi O'rta Osiyoda mavjud emas edi. Jo'yboriyalar shu an'anani boshlab berdilar. "Ravzat ar-rizvon", "Manoqibi sa'diya", "Matlab at-tolibin" singari asarlar bevosita Jo'ybor xojalari tashabbusi va maslahatlari bilan yozildi.

– Jo'yboriyalar o'z qo'l ostidagi katta mablag'larning bir qismini masjid, madrasa, xonaqoh va boshqa diniy-ma'rifiy binolar qurishga va ta'mirlashga sarflashgan. Bog'lar barpo etish, yangi yerlarni o'zlashtirish, suv chiqarish ular faoliyatining bir qismini tashkil etardi;

– Buxoroda mavjud shaxsiy kutubxonalardan Jo'yboriyalarga tegishli kutubxona o'z davrining eng boy kutubxonasi sanalgan. Unda fanning turli sohalariga oid ko'plab kitoblar saqlanardi. Jo'yboriyalarning ma'rifiy tadbirlari Buxorodagi adabiy muhit rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Shu muhit ta'sirida Jo'yboriyalardan Muhammad Yusuf Xoja shoir sifatida shakllandi va o'zidan nazmiy meros qoldirdi {3: 11}.

Xullas, Buxoro xonligi Shayboniyalar davrida ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-madaniy hayot rivojlanib uni yanada yangi bosqichga ko'tardi. Bu davrda ko'plab manbalar, adabiyotlar yaratilib, ilm-fan rivojiga katta hissa qo'shadi. Bu jarayonlarda Jo'ybor shayxlarining ahamiyati katta hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ziyodulla Muqimov. Abdullaxon ikkinchi (1534-1598 yy.) // Zarafshon, 1997 yil 1 noyabr, № 168.
2. Zokirov Shavkat. Madaniyat yuksalgan davr. // Ma'rifat, 2000 yil, 1 iul.
3. To'rayev Halim Buxoro xonligining XVI-XVII asrlar ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-madaniy hayotida jo'ybor xojalarining tutgan o'rni. Avtoreferat. Toshkent 2007.
4. Hofiz Tanish Buxoriy, Abdullanova, 1—2 j.lar, T., 1999, 2000;
5. Mir Muhammad Amini Buhari, Ubaydullanova, T., 1957;
6. Abduraxmon Tole, Istoriya Abulfeyzxana, T., 1959;

UO'K 93/94

## BUYUK IPAK YO'LI TARIXINING MAHALLIY VA XORIJIY TARIXSHUNOSLIKDA TADQIQ ETILISHINING QIYOSIY TAHLILI

*N.H. Xushvaqto'v, Tayanch doktorant, Samarqand davlat universiteti, Samarqand*

**Annotatsiya.** Ushbu ilmiy maqolada Yevrosiyo hududidan kesib o'tuvchi qadimiy Buyuk ipak yo'li tarixining mahalliy va xorijiy tarixshunoslikda o'rganilishi qiyosiy tahlil qilingan. Mahalliy va xorijiy adabiyotlarda Buyuk ipak yo'lining paydo bo'lishi va rivojlanishiga oid barcha jihatlarini yoritib berilishi qiyosiy tahlil metodologiyasi yordamida aniqlashtirilgan. Maqolaning xulosa qismida mavzu bo'yicha o'rganilgan tarixshunoslikga oid ma'lumotlarning tahlili va yangiligi aytib o'tilgan.

**Kalit so'zlar.** Buyuk ipak yo'li, tarixshunoslik, manbashunoslik, Xitoy, Samarqand, Yevropa, Osiyo, sivilizatsiya, madaniyat, tarixiy adabiyotlar, qiyosiy tahlil.

**Аннотация.** В статье проводится сравнительный анализ изучения истории древнего Великого Шелкового пути, пересекающего Евразию, в отечественной и зарубежной историографии. Освещение всех аспектов возникновения и развития Великого Шелкового пути в отечественной и зарубежной литературе определено с использованием методологии сравнительного анализа. Заключительная часть статьи содержит анализ и обновление исторических данных, изученных по теме.

**Ключевые слова.** Великий шелковый путь, историография, источниковедение, Китай, Самарканд, Европа, Азия, цивилизация, культура, историческая литература, сравнительный анализ.

**Abstract.** This paper provides a comparative analysis of the study of the history of the ancient Great Silk Road, which crosses Eurasia, in local and foreign historiography. The coverage of all aspects of the emergence and development of the Great Silk Road in local and foreign literature has been determined using the methodology of comparative analysis. The concluding part of the article provides an analysis and updates of the historical data studied on the topic.

**Key words.** The Great Silk Road, historiography, source studies, China, Samarkand, Europe, Asia, civilization, culture, historical literature, comparative analysis.

Buyuk ipak yo'li – G'arb bilan Sharqni madaniyat, iqtisodiyot, ijtimoiy hayot jihatlarini o'zaro tarixan bog'lab kelgan sivilizatsiyalararo muloqat yo'li sifatida insoniyat tarixida o'chmas iz qoldirgan. O'zbekiston G'arb bilan Sharq uchrashgan betakror tarixiy o'lka, dunyoning ikki tomonlarini yaqinlashuvida va insoniyat sivilizatsiyasi yaxlitligida Buyuk ipak yo'lining xizmati beqiyosdir.

G'arb bilan Sharqning bir necha ming yillar davomida bir-biriga bog'lab kelgan ana shunday qadimgi asosiy yo'llardan biri – "Buyuk ipak yo'li" dir. Ushbu yo'l fanga "Ipak yo'li" nomi bilan XIX asrning 70-yillaridan boshlab nemis olimi Ferdinand fon Rixtgofer tomonidan kiritildi. Bu haqida Rixtgoferning "Xitoy" nomli asarida beriladi. Unga qadar bu yo'l "G'arbiy meridional yo'l" deb atalar edi. Bu o'rinda shuni ta'kidlab o'tish lozimki, Buyuk Ipak yo'lga qadar, O'rta Osiyo va Sharq xalqlarini biri biri bilan bog'lab turuvchi La'l

yo'li, Shoh yo'li singari yo'llar ham mavjud bo'lgan. Tarixiy manbalarga ko'ra, Buyuk Ipak yo'lida savdo aloqalarining ilk bor yuksalgan davri - mil.avv. III asr – milodiy III asrlarga to'g'ri keladi. Ushbu davrda Ipak yo'lining sharqiy qismida xunlar imperiyasi, g'arb tomonida mil.avv. 558-330 yillarda Eronning Ahamoniylar imperiyasi, mil.avv. III asrda hozirgi Janubiy Qozg'iston va O'zbekiston hududida tashkil topgan Qang' davlati mavjud bo'lgan. Ahamoniylar bu davrda savdo yo'lida kata qismini o'z nazoratiga olib turgan. Milodiy III-IV asrlarda Xitoy va Markaziy Osiyo mayda davlatlarga bo'linib ketdi bu esa yo'l rivojiga o'z tasirini ko'rsatmasdan qolmadi. Buyuk ipak yo'li milodiy VI-XII asrlarda yana bir yuksalgan davriga to'g'ri keladi. Bu davrda Turk xoqonligi kuchaygan davrga to'g'ri keladi. Xitoyda esa Ipak yo'lini o'z nazoratiga olgan Tan (618-907) imperiyasiga birlashgan davriga to'g'ri keladi.

Buyuk ipak yo'li o'zining insoniyat tarixining bir necha ming yillik ulkan tarixi davomida sharq-u g'arbning turli xalqlari orasida savdo-sotiq va madaniyatlararo muloqot yo'li sifatida o'zgacha tarixiy xarakteri bilan ajralib turadi. O'zbekiston va xorij tarixshunosligida Buyuk ipak yo'li tarixini tadqiqot qilish o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalishlardan biri bo'lib, bugungi kunga qadar dolzarb tarixiy ilmiy tadqiqot yo'nalish sifatida tarixchilar tomonidan o'rganilib kelinmoqda. O'zbekistonning qadimiy shaharlaridan Ipak yo'lining eng muhim kesib utuvchi markaziy tarmoq yo'llari joylashgan. Shuning uchun ham ushbu shaharlar tarixi bo'yicha tarixiy ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan tarixchilar, albatta Ipak yo'li tarixiga ham to'xtalib o'tiladi. Mavzuni dolzarbli shundaki, ushbu tarixiy ahamiyatga molik bo'lgan yo'lining o'tmishini o'rganish orqali Osiyo va Yevropa davlatlarining bizga bugungi kungacha ma'lum bo'lgan qimmatli ma'lumotlarning o'zaro bir-biri bilan aloqadorlik tomonlarini tadqiq etishimiz mumkin.

“Buyuk ipak yo'li shaharlarining xorij tarixshunosligida ilmiy tahlili” mavzusida Osiyo va Yevropa tarixchilarning ilmiy tadqiqot ishlarining qiyosiy tahlil ilmiy metodologiyasidan unumli tarzda foydalanib, o'z fikr-mulohazalarimizni keltirib o'tamiz. O'zbekistonda bugungi kunga qadar bir guruh olimlar tomonidan Buyuk ipak yo'lining tarixshunosligi haqida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Ilmiy tadqiqotlar natijasida, Buyuk Ipak yo'lining hududlar bo'yicha o'rganilish tarixshunosligini quyidagicha taqsimladik, G'arbiy Yevropa davlatlarida Buyuk Ipak yo'lining tarixshunosligini o'rganish; Osiyo davlatlarida Buyuk Ipak yo'lining tarixshunosligini o'rganish. Asosan Xitoy, Hindiston, Janubiy Koreya, va Yaponiya tarixchilari tomonidan Ipak yo'li tarixini o'rganish; O'rta Osiyo davlatlarida Buyuk Ipak yo'lining tarixini o'rganishga alohida ahamiyat beriladi. Chunki ushbu hudud savdo yo'lining eng muhim hududlaridan biri hisoblanadi. Jumladan, Mahmud Qoshg'ariyning “Devoni lug'otit-turk” asarida Yaponiyanning nomi tilga olinib, uni “Jabarqa” deb ataydi va ilk bor ushbu o'lkani o'z xaritasida nomlagan buyuk alloma hisoblanadi. Arxeologik ilmiy tadqiqotlar natijalariga ko'ra, milodiy VI asrda qadimgi O'zbekiston ijtimoiy-ma'naviy hayotida mavjud bo'lgan buddizm ta'limotini Kushon davlati hududidan Buyuk ipak yo'li orqali Xitoy, Koreya va Yaponiyaga tarqalganligi bugungi kunda o'z isbotini topgan hisoblanadi.

Buyuk ipak yo'lining ayrim tarmoqlari, tarixiy davrlardagi o'rni va roli to'g'risida ayrim tarixshunoslik tadqiqotlarga to'xtalib o'tamiz. Bu sohada A.R. Muhammadjonov, T.Nigmatov, V.A.Shishkin, A.Yu. Yakubovskiy o'zlarining ilmiy tadqiqotlarida Buyuk ipak yo'lining insoniyat sivilizatsiyasidagi o'rni haqida chuqur mulohaza yuritishgan hisoblanadi. Buyuk ipak yo'li tarixini o'rganishda mahalliy olimlardan akademik Edvard Rtveladze, Ablat Xo'jayev, O.P.Kobzeva [1], Abduxaliq Abdurasul o'g'li, A.K.Qirg'izboyev, A.Berdimurodov, A.Anarbayev, G.A.Agzamov, A. Aytboyev, O'Mavlonov [3] va boshqa bir nechta tarixchi olimlar mavzuning ayrim jihatlarini o'zlarining ilmiy tadqiqot ishlarida yoritib berilgan.

O'zbekiston hududidan o'tgan Buyuk ipak yo'lining tarixiy manzilgohlari haqida, taniqli arxeolog olim, akademik Rtveladze Edvard Vasilevich “Buyuk ipak yo'li” kitobida juda ko'plab moddiy madaniyat haqida ma'lumotlar yozilgan. Kitobda Xitoyning qadimgi O'zbekiston savdogarlari faoliyati bilan bo'g'liq Buyuk ipak yo'li manzilgohlari haqida ma'lumotlar yozilgan. Ablat Xo'jayevning “Buyuk ipak yo'li: munosabat va taqdirlar” [4] nomli kitobida Ipak yo'li tarixi haqida juda ko'plab ilmiy ma'lumotlar yozilgan. Abduxaliq Abdurasul o'g'lining “Buyuk ipak yo'li” [2], “Chin va Mochin”, va boshqa ilmiy adabiyot tadqiqotlarini aytishimiz mumkin. O'zbekistonning Buyuk ipak yo'lini tiklash borasida Osiyo mamlakatlari bilan hamkorligi A.K.Qirg'izboyevning “O'zbekiston Respublikasining Osiyo mamlakatlari bilan xalqaro hamkorligi” monografiyasida chuqur tahlil qilib berilgan. Xitoylik tarixchi olimlarning asarlarida, mil.avv. IV asrda Xitoy matolari Hindistonda va Yevropa mamlakatlarida paydo bo'lgan. Hindistonda ushbu matolar “chayna patta” (Cina patta), Yevropa mamlakatlarida “ser” deb nomlangan. Ipak yetishtiradigan mamlakat esa “Serika” deb nomlangan. Xitoy olimlarining ko'pchiligi Serika deb Xitoyni atalgan deb hisoblashsa, boshqa bir guruh xorij olimlar Serika bu-Qoshg'ariya deb yozib qoldirishgan. Mil.avv V asrda Yunonistonda ipak matodan uzun kiyimlar tikilgan va bu – “Amorgiam” deyilgan, chunki matoni nomi “Amorgis” hisoblangan [4]. Xitoy olimi Li Mingvey O'rta yer dengizi bilan Xitoyning shimoliy viloyatlarini bog'lovchi hududlar ushbu dengizning sharqiy tomonidan Mesopotamiya, Eron tog'lari va Markaziy Osiyo hududlaridan iborat ekanligini ta'kidlab o'tgan. Shu o'rinda ipakni Markaziy Osiyoga tarqalishi haqida, arxeolog A.Asqarov, Suxondaryodagi Sopollitepa yodgorligidan topilgan ipak qoldiqlarining yoshini 3600-3700 yillar deb ta'kidlab, ilgari bizning yurtimizda Xitoydan ham oldin ipak yaratilganligini aytib o'tgan.



Mavzuni o'rganishda xorijiy tarixchi olimlardan Peter Frankopan [5], Agnew Neville[6], Valeria Hansen [7], Nils Ambolt [8], Prabodh Chandra [9], Beckwith Christopher [10], Blunt Wilfrid [11], Bonavia Judy [12], Hedin Sven [13], Hopkirk Peter [14], Liu Xinru [15], Nebenzahl Kenneth [16], Tucker Jonathan [17], Whitfield Susan [18], Whitlock Monica [19], Wood Frances [20], Nile Green [21], Jacqueline Moore [22], Bernard Ollivier [23] va boshqa ko'plab xorijiy tarixchilarning ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan.

Valeria Hansenning "Ipak yo'lining yangi tarixi" deb nomlangan ilmiy asarida Samarqand shahrining g'arb va sharq davlatlari bilan qiyosiy tahlil uslubi yordamida aniq tushuntirilib berilgan. V.Hansenning ushbu Buyuk ipak yo'lining fundamental tarixiga bag'ishlangan. Ushbu adabiyot kirish, 7 ta bo'lim va xulosa qismlaridan iborat. Asarning 4-bo'limi ya'ni "So'g'diylarning vatani. Samarqand va So'g'diyonadagi Ipak yo'li savdogarlari" nomli bo'limi Buyuk ipak yo'lining asosiy shaharlaridan biri bo'lgan Samarqandga bag'ishlangan. V.Hansening ilmiy faktlarga asoslangan kitobida Buyuk ipak yo'lining asosiy tarmog'i hisoblangan qadimiy So'g'diyona o'lkasining markazi Samarqand shahri va bu yerda qadimdan yashab kelgan so'g'diylar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotimiz Markaziy Osiyo shaharlarining Buyuk ipak yo'lidagi tarixini xorijiy tarixshunos olimlari tadqiqotlarida o'rganilishini qiyosiy tahliliga qilishga qaratilgan. Xorij tarixshunosligini tadqiq etishda yangi yo'nalishni boshlab berish, buning uchun avvalo bugungi kunda tarixiy tadqiqot olib borishda eng rivojlangan xorijiy universitetlar olimlarining ilmiy tadqiqotlaridan foydalanish, xalqaro miqyosda e'tirof etilayotgan ilmiy jurnallardagi soha bo'yicha o'zining yetuk mutaxassislari tomonidan nashr ettirilgan risolalarni tahlil qilib ulardan namuna sifatida tadbiiq etish, xorijiy davlatlar tarixshunosligida yurtimiz tarixi bo'yicha nashr ettirilgan ilmiy adabiyotlarni qiyosiy tahliliy usullardan foydalangan holda xulosalar chiqarish orqali jahon tarixshunosligida foydalanilayotgan zamonaviy tarixiy metodlarni O'zbekiston tarixshunosligida joriy etish, ilmiy tadqiqot mavzusini yanada aniqlashtirish maqsadida ma'lum bir tarixiy davr, dolzarb tarixiy tematik yo'nalish, tanlangan dolzarb tematik yo'nalishning tarixiy geografik hududi, tarixiy tematik yo'nalishni yagona bir maqsadga jipslashtirish maqsadida ma'lum bir Buyuk ipak yo'li tarixshunosligining asosiy yo'nalishni belgilab olish tadqiqotdan ko'zlangan natija hisoblanadi. O'zbekiston tarixida Buyuk ipak yo'lini o'rganish bo'yicha barcha asoslar yetarlicha, chunki O'zbekiston ilm- fani va madaniyatining ravnaqiga, qadimiy shaharlarining rivojlanishiga, diplomatiyani rivojlanishiga, iqtisodiy va madaniy aloqalarning o'rnatilishiga Buyuk ipak yo'li ijobiy ta'siri bo'yicha manba va adabiyotlar mavjud. Buyuk ipak yo'li Yevrosiyo xalqlari madaniyatlararo sivilizatsiyasi taraqqiyoti tahlil etish orqali, alohida "Buyuk ipak yo'li shaharlari sivilizatsiyasi tarixshunosligi" yo'nalishiga asos solish mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Кобзева О.П., Джалилов О.З. Узбекистан и Китай на возрождающемся Шелковом пути (Монография). – Ташкент.2015. с 103.
2. Абдухолик Абдурасул ўғли. Буюк ипак йўли // Мулоқот. – Тошкент, 1994.
3. Мавлонов Ў.Урта Осиёда қадимги йўللарининг шаклланиши ва ривожланиши тарихидан. Республика конференция материаллари тўплами.-Тошкент:Академия, 2001.
4. Хо'jayev A. Buyuk ipak yo'li:munosabatlar va taqdirlar.-Toshkent:O'zME, 2007.280 b.
5. Frankon. P. The Silk Roads (a new history of the world). – London. Bloomsbury Press, 2015.-656 p
6. Agnew Neville. Conservation of Ancient Sites on the Silk Road. Los Angeles, The Getty Conservation Institute, 1997
7. Hansen. V. Silk Road a new history. -London. Oxford university Press, 2012. -320 p.
8. Ambolt, Nils. Caravan. Travels in Eastern Turkestan. London,Blackie&Son. 1939.
9. Bagchi, Prabodh Chandra. India and Central Asia. Calcutta, National Council of Education, 1955.
10. Beckwith Christopher. Empires of the Silk Road. A History of Central Eurasia from the Bronze Age to the Present. Princeton, Princeton University Press, 2009.
11. Blunt, Wilfrid. The Golden Road to Samarkand. London, Hamish Hamilton, 1973.
12. Bonavia Judy. The Silk Road. Xi'an to Kashgar. Hong Kong, Odyssey, 1992.
13. Hedin, Sven. The Silk Road. London, George Routledge & Sons Ltd., 1938.
14. Hopkirk, Peter. Foreign Devils on the Silk Road. The Search for the Lost Cities and Treasures of Chinese Central Asia. London, John Murray, 1980.
15. Liu, Xinru. The Silk Road in World History. New York,Oxford University Press, 2010.
16. Nebenzahl Kenneth. Mapping the Silk Road and Beyond. 2000 Years of Exploring the East. New York, Phaidon Press, 2004.
17. Tucker Jonathan. The Silk Road. Art and History. London, Philip Wilson, 2003.
18. Whitfield Susan. Life Along the Silk Road. London, John Murray, 1999.
19. Whitlock Monica. Beyond the Oxus. The Central Asians. London, John Murray, 2002.
20. Wood Frances. The Silk Road. Two Thousand Years in the Heart of Asia. London, British Library, 2003
21. Nile Green. Writing Travel in Central Asian History. Indiana university press. 2014.
22. Jacqueline M. Moore, Rebecca Woodward Wendelken. Teaching the Silk Road: A Guide for College Teachers. SUNY press. 2010.
23. Bernard Ollivier. Walking to Samarkand: The Great Silk Road from Persia to Central Asia. 2020. 312 p.
24. Berdimurodov A. Buyuk ipak yo'li.O'zbekiston nashriyoti. T.2017.

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI SALOHIYATINING OSHISHIDA ILMIY  
MAKTABLARNING O'RNIGA DOIR**

*D.T. Mamarasulov, tadqiqotchi, Samarqand davlat universiteti, Samarqand*

«...Samarqand Movarunnahrning olimu fuzalo, adiblari yig'ilgan shahar bo'lib, ularning eng mashhuri Samarqandda ta'lim va tarbiya olib kamolotga erishganlar.»

*X asr arab sayyohi Abulqosim ibn Havqal*

**Annotatsiya.** Maqolada asosan Samarqand davlat universitetida fan va ta'lim sohasida erishilgan yutuqlar hamda bu yutuqlarning qo'lga kiritilishida fidoyilik namunalarini ko'rsatib mehnat qilgan, ilmiy maktablar yaratib, o'zlarining o'chmas izlarini qoldirgan taniqli olimlar, ular boshlagan ishlarni davom ettirib, bugungi kunda dorilfununning shuhratini dunyoga taratishga harakat qilayotgan murabbiylar to'g'risida va ilmiy maktablar vakillari tomonidan qilingan kashfiyotlar, to'plangan fundamental bilimlar va amaliy ishlanmalar, axborot kommunikatsion texnologiyalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish haqida so'z yuritildi.

**Kalit so'zlar:** Ilmiy maktablar, nazariya, ustoz-shogird, analizlar, ilmiy yutuqlar, akusto- optik, fundamental g'oyalar, landshaftshunoslik, Samarqand maktabi.

**Аннотация.** В статье рассматриваются достижения Самаркандского государственного университета в области науки и образования, а также известные ученые, проявившие преданность этим достижениям, создавшие научные школы и оставившие неизгладимый след., О тренерах, которые пытаются распространить известность о дорилфунун в современном мире и об открытиях, сделанных представителями научных школ, о накопленных фундаментальных знаниях и практических разработках, применению информационных и коммуникационных технологий в учебном процессе.

**Ключевые слова:** научные школы, теория, педагог, анализ, научные достижения, акустооптические, фундаментальные идеи, пейзаж, самаркандская школа.

**Abstract.** The article is mainly about the achievements of Samarkand State University in the field of science and education, as well as well-known scientists who have worked tirelessly to create scientific schools, left their mark on the world, and coaches who are trying to spread the fame of dorilfunun in the world. the discoveries made by the representatives of scientific schools, the accumulated fundamental knowledge and practical developments, the application of information and communication technologies in the educational process.

**Keywords:** Scientific schools, theory, teacher-student, analysis, scientific achievements, acousto-optical, fundamental ideas, landscape, Samarkand school.

Darhaqiqat Samarqand qadimdan ilm-fan, ta'lim-tarbiya va ma'naviyat-ma'rifat markazi bo'lib kelgan.

Samarqand zaminida ildizlari Mirzo Ulug'bek Madrasasiga borib taqaluvchi Samarqand Davlat universiteti faoliyati davomida fan va ta'lim sohasida erishilgan yutuqlar hamda bu yutuqlarning qo'lga kiritilishida fidoyilik namunalarini ko'rsatib mehnat qilgan, ilmiy maktablar yaratib, o'zlarining o'chmas izlarini qoldirgan taniqli olimlar, ular boshlagan ishlarni davom ettirib, bugungi kunda dorilfununning shuhratini dunyoga taratishga harakat qilayotgan ilm-fan, ta'lim-tarbiya va ma'naviyat-ma'rifat markazi sifatida ildam qadamlar tashlamoqda.

Ana shunday ilmiy maktablardan biri botanika ilmiy maktabidir.

**-Botanika ilmiy maktabi**-Samarqandda botanika ilmiy maktabiga asos solinishini Universitetning rektori va botanika kafedrasining birinchi mudiri professor Nikolay Ivanovich Merkulovich (1927-1938)[1] tomonidan ilmiy maktabining yaratilishiga ilk qadam qo'yilgan. Dastlab botanika ilmiy maktabining asosiy ilmiy yo'nalishi Zarafshon daryosi havzasi florasi va uning xilma-xilligini o'rganishga qaratilgan.

Maktab davomchilaridan Ye.I.Proskoryakovning ilmiy ishlari[2] asosan botanikaning nazariy masalalariga, floristik va xomashyoshunoslik sohalariga bag'ishlangan bo'lib uning dastlabki shogirdlari M.I.Ikramov, N.A.Amirxanov, I.H.Hamdlov, F.Guzairov, J.T.Qobulov, M.I.Ikramov, O.Jalolov, N.A. Amirxanov, R.S. Haydarov, I.X. Xamdlov, A.X. Xamidov, Q.Karimov, M.M.Malikov, R.E.Egamberdiev, A.I.Inamov, O'R.Rahimov, I.J.Jo'raev, M.Halilov, M.M.Mo'minov va boshqalar[1] Respublikamizning oliy o'quv yurtlarida samarali faoliyat ko'rsatib, botanika yo'nalishining rivojlanishida o'zlarining munosib hissalarini bor.

**-O'simliklar fiziologiyasi ilmiy maktabi**-Samarqand davlat universitetida o'simliklar fiziologiyasi ilmiy maktabining tashkil topishi va uning shakllanishi Abaeva Sofya Saidovna[3], [1] nomi bilan bog'liq. Olim universitetda turli muhim lavozimlarda faoliyat olib borishi bilan bir qatorda ushbu ilmiy maktabning rivojlanishida o'zining katta hissasini qo'shdi. O'simliklar fiziologiyasi ilmiy maktabining a'zolari S.S.Abaeva rahbarligidagi ilmiy tadqiqotlarda asosiy e'tiborni o'simliklarda mikroelementlarning fiziologik rolini aniqlashga qaratdilar. Ko'p yillik izlanishlar natijasida bor, marganes va mis kabi mikroelementlarning paxtachilikdagi ahamiyati katta ekanligi aniqlandi. Ushbu ilmiy maktabining davomchilari M.G.Nosirov, Z.J. Jo'raeva,

X.X.Keldiyorova, S.X. O'roqov, B.S. Avutxonov, Sh.S. Ataeva va boshqalar bu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlarni boshqa qishloq xo'jalik ekinlari, jumladan tamaki, grechixa, bug'doy bilan yanada kengaytirgan holda olib bormoqdalar.

- **Zoologiya ilmiy maktabi**-Samarqand Davlat universiteti bag'rida shakllangan zoologlar ilmiy maktabi o'zining chuqur va serqirra tarixiga ega. Mazkur ilmiy maktabda bir nechta yirik ilmiy yo'nalishlarga asos solingan. Ularning biri fitogelmintologiya yo'nalishi bo'lib, ushbu yo'nalishning asoschisi A.T.To'laganov[4], [1] hisoblanadi. Dunyoga mashhur Samarqand ilmiy muhitida kamol topgan O'zbekiston Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi darajasigacha erishgan zahmatkash olim Ahror To'laganovich To'laganovning serqirra ma'muriy va ilmiy faoliyati tahsinga sazovordir. Uning tadqiqotlari natijalariga ko'ra g'o'za o'simligining vegetativ a'zolarida topilgan turlarning aksariyati Tylenchida turkumining parazit vakillaridan iborat bo'lgan. Shuningdek, ilmiy maktabning alaridan a'zolaridan biri G.R.Po'ladovning Samarqand viloyatida "G'o'zaning vilt kasalligiga chalinishida parazit fitonematodalarining roli" mavzusidagi ishi ham etiborga sazovordir. Shuningdek, Mirzacho'l hududi nematodafaunasi tarkibida bundan oldin O'zbekiston nematodafaunasida qayd qilinmagan 15 tur nematoda yangi tur sifatida aniqlandi.

Samarqand zoologlar ilmiy maktabining yirik yo'nalishlaridan biri – umurtqali hayvonlar morfologiyasi va qiyosiy anatomiyasi yo'nalishidir. Bu yo'nalishning asoschisi taniqli zoolog-olim, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, biologiya fanlari doktori, professor Boris Gervasevich Turkevich[1] hisoblanadi.

B.G.Turkevichning ishlarini davom ettirgan, S.K.Dal, A.F.Turdakov, M.X.Maxsutov, A.S.Ostroumov, A.M.Didusenko, I.S.Burnashev, D.M.Sagdiev, M.M.Axmedov, K.K.Povarova, M.V.Kalujinalar Zarafshon daryosi o'rta oqimi umurtqali hayvonlarining ekologik-faunistik izlanishlarini olib bordilar[5].

-**Organik kimyo ilmiy maktabi**-Samarqandda organik kimyo ilmiy maktabiga professor Yuriy Vasilevich Kurbatov asos solgan.

Yu.V.Kurbatovning[1] ilmiy faoliyati organik kimyoning sifat nazariyalari, vodorod bog'lar, kislota asos va amfoter birikmalarning fundamental nazariyalari va qonunlariga bag'ishlangan nazariy ishlar va organik reaksiyalarning yangi tiplariga bag'ishlangan eksperimental tadqiqotlar bilan bog'liqdir.

Ilmiy maktab xodimlari tomonidan ion-radikallar sohasida ilmiy izlanishlarning asosi bo'lgan nazariy organik kimyoning yangi konsepsiyasi yaratilgan, aynan anion-radikal aromatik o'rin olish ( $S_{AR}$  reaksiyalar) reaksiyalarining yangi tiplari ishlab chiqilgan. Yangi reaksiyalar qatori quyidagidan iborat: aromatik birikmalarni piridin asoslarining N-oksidlar bilan degidrollash, anion-radikal va dianion aromatik va alifatik o'rin olish ( $S_{AR}$  reaksiyalar), analogik qaytarilish o'rin olish, qaytarilish degidrodimerizatsiya, anion-radikal birikish, anion-radikal disproporsiyalanish, aromatik qaytarilish radikal-nukleofil o'rin olish, anion-radikal kondensatsiyasi va h.k.

D.A.To'raeva 1995 yildan beri Nyu-York Fanlar akademiyasining a'zosi, har yil xalqaro simpozium, kongress va konferensiyalarda ma'ruzalar bilan ishtirok etib kelmoqda. Uning rahbarligida 1995-1997 yillarda "Ion-radikal reaksiyalari asosida organik birikmalar sintezining yangi umumiy prinsiplarini yaratish", 1996-1999 yillarda 5F (PFI) davlat granti, 2003-2007 yillarda 3F № 3.7 davlat grantlari muvaffaqiyatli bajarildi.

-**Analitik kimyo ilmiy maktabi** -Analitik kimyo sohasidagi dastlabki ilmiy-tadqiqot ishlari o'tgan asrning 60–70 yillarida A.N.Ataullaev[1] tomonidan yog'lar tahlili bilan boshlangan bo'lsa, keyinchalik ushbu ishlarni iqtidorli olim N.S.Zokirov davom ettirdi. Bu maktab faoliyati natijasida X.Sh.Husainov, E.A.Abdurahmanov, Q.M.Murodov, N.Q.Muhammadiev, I.M.Ergashevlar o'z dissertatsiyalarini himoya qilishdi.

T.Q.Hamraqulov[1] tashabbusi bilan faoliyat olib borgan laboratoriyada bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining samarali bo'lishida MDU professori P.K.Agasyanning xizmatlari ham beqiyos bo'ldi.

Laboratoriyaning faoliyati kichik o'lchamli, uzoq muddat ishlash imkonini beruvchi, selektiv va yuqori sezgirlikka ega bo'lgan avtomatik ravishda ishlaydigan elektrokimyoviy sensorlar ishlab chiqarishdan iborat edi. Bajariladigan ishlar analitik kimyoning muhim vazifalaridan hisoblangan atrof-muhitning ifloslanishi, jumladan, havo atmosferasi, suv tarkibi, sanoat korxonlari va qishloq xo'jaligi chiqindilarini doimiy analitik nazorat qilishdan iborat bo'lgan. Ushbu muammolarni hal qilish uchun 70-yillarda standart gaz aralashmalarni tayyorlash uchun asboblardan foydalanildi (S.M.Vasina, D.M.Ivniskiy, D.A.Ilyosov, T.Q.Hamraqulov). Yer sharoitida va samolyotlarga o'rnatilgan laboratoriya sharoitlarida is gazi, karbonat angidrid va kislorod miqdorini aniqlash uchun ishlatiladigan qurilmalar konstruksiyalari yaratilib, ishlab chiqarishga joriy etildi (V.V.Abramova, S.M.Vasina, D.M. Ivniskiy, I.Qudratov, R.Priev, T.Q.Hamraqulov).

Ilmiy maktabda olib borilgan tadqiqotlar natijasida "Kislorod gazi miqdorini yopiq sistemalarda avtomatik analiz qilish usuli"ni yaratganliklari uchun prof. T.Q.Hamraqulov, dotsentlar V.V.Hamraqulova, A.M.Nasimov va Z.N.Normuradovlarga Beruniy nomidagi Davlat mukofoti berildi.

-**Tabiiy geografiya va antropogen landshaftshunoslik ilmiy maktabi**-Samarqand Davlat universitetida shakllangan ilmiy maktablardan yana biri "Tabiiy geografiya, landshaftshunoslik asoslari va antropogen landshaftshunoslik" masalalari bilan shug'ullanuvchi geograflar maktabidir. Ilk geograflar maktabining shakllana boshlashi 1932 yilga borib taqaladi. Geograflar ilmiy maktabining shakllanishiga geolog olim Ya.A.Leven[1] katta hissa qo'shgan. M.U.Umarov, M.X.Halimov, A.S.Saidov, A.Abdulqosimov, L.Alibekov, T.J.Jumaboev, J.X.Hoshimov, M.A.Abdujabborov, A.Mamatov, I.Ataev va boshqa geograflar ilmiy

maktabining bir qator tadqiqotchilari o'z izlanishlarini karst, soxta karst, suffoziya, erozion jarayonlarga qaratganlar. Geograflar ilmiy maktabida tajriba orttirgan va malakaga erishgan bir qator olimlarimiz uzoq yillar davomida respublikamizning bir qator tashkilotlarida mohir pedagog bo'lib faoliyat olib borishgan (M.Xalimov, Z.Sultonov, J.A.Hoshimov, va boshqalar) Hozirgi kunda Sh.T.Xoliqulov, S.B.Abbosov, X.Boymurodov va boshqalar rahbarlik, ilmiy va ilmiy-pedagogik faoliyatlarini davom ettirmoqdalar. A.Abdulqosimov rahbarligida tayyorlangan bir necha shogirdlar ilmiy maktab ishini davm ettirmoqda. Ustoz ana shunday ilmiy izlanishlari va qilgan mehnatlari uchun 2006 yilda "El-yurt hurmati" ordeniga sazovor bo'ldi. Professor A.Abdulqosimov xalqaro jurnallarning tahririyat a'zosi ham[7].

**-Tuproqshunoslik ilmiy maktabi** - Tuproqshunoslik ilmiy maktabining tarixiy ildizlari Samarqand Davlat universitetining ilk yillardagi faoliyati bilan bog'liq. Dastlabki davrda ochilgan tuproqshunoslik yo'nalishi bitiruvchilari universitetning hozirgi tuproqshunoslik ilmiy maktabining shakllanishida ma'lum hissasi bor. Universitet bitiruvchilardan O.Komilov, A.V.Kim, U.Matkarimov va boshqalar[1] tomonidan respublikamiz tuproqshunoslik sohasida sho'rlangan tuproqlar melioratsiyasi, o'simliklarni o'g'itlash sohasida ilmiy ishlar olib borilib, natijalar Mirzacho'l misolida amaliyotga tatbiq qilingan. Mustaqillik yillarida tuproqshunoslik ilmiy maktabining samarali faoliyat olib borishida Sh.Xoliqulovning hissasi katta bo'ldi. Sh.T.Xoliqulov o'tgan asrning 70-yillaridayoq "Plyonka bilan mulchalashning tuproq xossalari va g'o'za hosildorligiga ta'siri" borasida ilmiy tadqiqotlar olib bordi.

**-O'zbek tilshunoslik ilmiy maktabi** -Turli yillarda dorilfunun bag'rida shakllangan ilmiy maktablar uning salobatini hamon yuksakda ushlab turibdi. Ma'rifatli dunyo hamjamiyatida ana shunday maktablardan biri o'zbek tilshunosligi maktabidir.

Ilk faoliyatini ikki yo'nalishda – tabiiy va ijtimoiy fanlar fakultetlari tarkibida boshlagan oliygohning ijtimoiy fanlar fakultetida til va adabiyot bo'limi ham ish boshlagan va bu sohalarda ilmiy tadqiqot ishlari ham yo'lga qo'yilgan edi. Bugun biz bu ikki yo'nalishning, ayniqsa, o'zbek tilshunosligi fanining oyoqqa turishida xizmatlari beqiyos bo'lgan Abdurauf Fitrat, G'ozzi Olim Yunusov, Solih Mutallibov singari fidoyilarning nomlarini chuqur ehtirom bilan tilga olamiz. Sohaning shakllanishiga xizmat qilgan A.A.Sokolov, Ye.D.Polivanov, I.T.Ponomaryov[1] singari rus olimlarining nomlarini hurmat bilan eslaymiz.

1927-1931 yillarda O'zbekiston Davlat pedakademiyasida o'qituvchilik qilgan professor G'ozzi Olim Yunusovning, 1927-1930 yillarda Samarqand Oliy pedagogika institutida tahsil olgan va shu dargohda o'zbek tili va adabiyotini o'qitish metodikasidan dars bergan professor Solih Mutallibov (1900-1991), Samarqandda o'zbek tilining ilmiy tadqiqini boshlab bergan olimlardan yana biri Abdurauf Fitrat bo'ldi. Maktab faoliyati gullab yashnagan bu davrda maktab respublikamizning boshqa oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tekshirish institutlari uchun ham yuqori malakali mutaxassislar – fan nomzodlari yetishtirib bera boshladi. Ahmadjon Abdullaev, Rauf Sayfullaev, S.Ravshanova, Farog'at Ubaeva, Erka O'rozov, Lola Abdullaeva, Fathiddin Is'hoqov, I.Ziyoeva, Xolmirza Xoliyorov, B.Egamberdiev, T.O'rinov, H.Hamroev, Amir Hazratqulov, Bozor O'rinboev, Muxtor To'ychiev, O'rol Nosirov, Ikrom Suyarov, Abdujabbor Doniyorov, Bekmurod Yo'ldoshev, Yoqub Xo'jamberdiev, Malik Mahmatqulov, Samariddin Asliddinovlar ushbu maktab davomchilaridir. Ularning ilmiy kamolotida kafedraning yetakchi olimlaridan U.Tursunov, A.Sulaymonov, H.Berdiyev, Xudoyberdi Doniyorovlarning xizmatlari katta bo'ldi. U.Tursunov[8], Rahmatulla Qo'ng'urov, Suyun Karimov, Abduvali Abdusaidov, Jo'liboy Eltazarov, S.Karimovlar ushbu maktabning rivojida o'z xissalarini qo'shishdi va qo'shib kelmoqda.

**-Arxeologiya ilmiy maktabi** -Samarqand Davlat universitetida arxeologiya ta'limi va ilmiy tadqiqot ishlarining boshlanishi taniqli paleolitshunos olim David Natonovich Lev[1] nomi bilan bog'liqdir. 1971 yilning dekabrda universitetda "Arxeologiya" kafedrasini tashkil qilindi va M.D.Juraqulov[1] kafedra mudiri etib tayinlandi. Shu vaqtdan e'tiboran universitetda arxeologiya maktabiga asos solindi. Ilmiy maktab a'zolari uzoq yillar davomida Samarqand so'nggi paleolit davri makonini tadqiq qilishni davom ettirib, boy arxeologik manbalarni qo'lga kiritdilar.

Shuningdek, o'tgan asrning 80-90 yillari ilmiy maktab a'zolarining arxeologik tadqiqot natijalari sermahsul bo'ldi. Xususan, Qoratepa–Sazag'on tog'ining shimoliy-sharqiy qiya betlaridagi dara soylar qayirlaridan 30 dan ziyod mezo-neolit (mil. avv. 12-6 ming yilliklar) davrlariga doir urug'-jamolarning manzilgohlari, g'or tipidagi 10 dan ortiq makonlar topib o'rganildi. Professor N.A.Avanesova rahbarligida tashkil qilingan arxeologlar guruhi Surxondaryo vodiysining Sherobod tumanida joylashgan Bo'ston VI-VII bronza davriga tegishli nekropolni o'rganish bilan shug'ullanib, boy va qiziqarli manbalar to'plandi. Hozirgi vaqtda arxeologiya ilmiy maktabi a'zolari "O'rta Osiyo qadimgi tosh asri arxeologiyasi", "Sazag'on madaniyati va uning O'zbekiston neolit davrida tutgan o'rni", "O'rta Osiyo ikki daryo oralig'i qadimgi sivilizatsiyasi tarixi", "O'zbekistonda so'nggi paleolit davri (texnik-tipologik tadqiqot)", "Zarafshon vohasi tosh davri ustaxonalari (texnik, tipologik tadqiqotlar)", "O'zbekiston paleolit davri toshga ishlov berish ustaxonalari" kabi ilmiy mavzular doirasida arxeologik tadqiqotlar olib bormoqdalar. Arxeologiya ilmiy maktabi a'zolari tomonidan olib borilgan ko'p yillik arxeologik qazishmalar natijasida kafedra qoshida muzey tashkil qilingan. Ushbu muzeyda saqlanayotgan topilmalar vatanimiz qadimgi tarixining keyingi 150 ming yildan ziyod davrini o'z ichiga oladi.

Xozirda N.A.Avanesova, N.Xolmatov, D.Jo'raqulova, O.T.Ergashev, R.B.Abriyev va boshqalar ilmiy maktab davomchilari sifatida ilmiy faoliyatni davom ettirmoqda.

**-Tarixchilar maktabi**-Markaziy Osiyo xalqlari tarixi bo'yicha olim professor Po'lat Soliyev va XIV-XV asr temuriylari tarixi bo'yicha mutaxassis, professor I. Umnyakov[1] tarixchilar ilmiy maktabini yaratdilar. Maktabning rivojlanishida akademik I.Mo'minov va professorlar Yu.Aleskerov, M.Aminov, M.Abramov, M.Egamberdiev, A.Tilavov, F.Xaydarovalarning[1] ilmiy va ilmiy-pedagogik faoliyatlari alohida o'rin tutadi. Mustaqillik yillarida mazkur maktabning yutuqlari professorlar M.Jo'raqulov, Sh.Pirimkulov, I. Saidov, B. Ergashev, F. Nabiyev, Sh.Gofforov, B. G'oyibov, G. Normurodova, dosentlar N.Toshkenbaev, F. Alieva, M. Xudoyberdiev, I. Nizamov, X.Mamaraximov, B.To'raqulov, M.Raxmatullayev, M. Nasrullayev, R. Xoliqulov, S.Sharipov, M. Xoshimovalarning izlanishlari bilan izchil boyib bordi. O.Iriskulov, S.Muxiddinov, S.Djumanov, Sh.Xamraqulova, S.Usarov, F.Rashidova, Z.Akbayeva, F.Narmanov va boshqa yosh olimlar tarixchilar ilmiy maktabini davomchilari xisoblanadi.

**-Falsafa ilmiy maktabi**-Darhaqiqat, universitet falsafa ilmiy maktabi ham boy tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan bo'lib, bu maktabning yuzaga kelishi falsafa kafedrasining tashkil etilishi jarayoni bilan bog'liq. Universitet falsafa kafedrasiga dastlab I.M.Mo'minov asos solgan. Universitetda 1928-1932 yillardayoq M.Krasnousov, P.G.Larina, X.Fayzullaev, I.M.Mo'minov[1] singari yetakchi ustozlarning faol ishtirokida ustozshogird tamoyili mezoni bo'yicha mamlakat taraqqiyoti uchun layoqatli yoshlardan jadallik bilan milliy kadrlar tayyorlashga kirishildi. Prof. O.Bozorov, M.Bozorov, J.Yaxshilikov. R.Mardonov, R.Ahmedjonov, M.Madirimova, G.Abdusaidova, Sh.S.Qo'shaqov, P.S.Haydarov, M.O.Olloyorov, H.Karimov, O.Ergashev, Sh.Qo'shoqov va boshqa ko'plab olimlar ushbu maktab davomchilari hisoblanadi.

Xulosa o'rinda shuni aytib o'tish zarurki dunyo sivilizatsiyasiga buyuk allomalarni yetkazib bergan bu yurtida ta'lim tizimi qay shaklda bo'lganligi, qay tartibda amalga oshirilganligi, qanday tamoyillarga asoslanib olib borilganligi, uning rivoji uchun qanday shart-sharoitlar yaratib berilganligi haqidagi fikrlar ham o'tmishimizga ob'ektiv va adolatli nazar tashlashning bir bo'lagidir. Universitetning tarixiy asosi xisoblangan Ulug'bek madrasasi va akademiyasi ilmiy yutuqlari dunyo ahliga ayon. Ammo bugun dunyo hamjamiyatida mavqei tobora ortib borayotgan xalqimizning o'tmishiga xolisona nazar tashlab qo'ya qolishning o'zi yetarli emas. Tinimsiz izlanishlarni, hayotimizga ilmiy-texnikaviy, ta'limiy-ma'rifiy texnologiyalarni hayotga tatbiq etishga juda katta ehtiyoj sezilayotgan bir paytda, o'tmish merosimizni ham chuqur o'rganish, o'z davrida dunyo miqyosida yirik kashfiyotlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llangan usul va metodlarni tahlil etib, zarur bo'lgan hollarda ulardan foydalanish keng ko'lamda olib borilayotgan kadrlar tayyorlash milliy dasturining tarkibiy qismi bo'lishi zarur. Shunday ekan, o'zbek ta'limi milliy modelining asosiy halqalaridan biri bo'lgan oliy ta'lim tarixini o'rganish ham dolzarb va hal etilishi lozim bo'lgan g'oyatda muhim vazifalardan biri bo'lib turadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Бархаёт сиймолар [узб.]. Ташкент, 2001. С. 73—74.
2. <https://zarnews.uz/uz/post/nabotot-olamining-zukko-bilimdoni>
3. <https://zarnews.uz/uz/post/ilm-izlab-ziyo-ulashgan-olima>
4. <http://new.tdpu.uz/article/510>.
5. Багдасарова В.А., Фундукчиев С.Э. Зарафшанский государственный заповедник // В кн.: Заповедники СССР.- М., 1990, Даль С.К. Позвоночные низовьев реки Зарафшан. //Тр. УзГУ – Т. 7. Самарканд, 1936, Даль С.К. К изучению наземных позвоночных систем Зарафшанского и Туркестанского хребтов. //Тр. УзГУ. – т.7. – Самарканд, 1936., Лаханов Ж.Л. Ўзбекистоннинг умуртқали ҳайвонларининг аниқлағичи. Тошкент, 1988, Сиязов К.А. Биотопические особенности бассейна Зарафшана //Тр УзГУ, 1937, Сагитов А.К. Состояние изученности орнитофауны заповедников Узбекистана. //Тез. докладов
6. Abduraxmanov.E., Murodova Z.B., Eshqobilova M.E. Atrof-muhit obyektlari analizi fanidan uslubiy qo'llanma. Samarqand, SamDU 2013 y, Sh.Otaboyev, M.Nabiyev. Inson va biosfera. T. O'qituvchi 1995 y, Abduraxmanov.E., Murodova Z.B., Eshqobilova M.E. Atrof-muhit obyektlari analizi fanidan uslubiy qo'llanma. Samarqand, SamDU 2013 y, Abduraxmanov.E. Gazlar analizi 1-3 qism. Samarqand SamDU 1997-1998 yil, Abduraxmanov.E., Tillayev S.U., Murodova Z.B. Sifat analizi uslubiy qo'llanma Samarqand. SamDU 2012 y.
7. "Euro-Ameriran scientific cooperation", "European science review", "European Journal of Humanities and Social Sciences", "Austrian Journal of Humanities and Social Sciences".
8. <https://qomus.info/oz/encyclopedia/t/tursunov-ulug-toshmuhammedovich/>.

UO'K 903

#### QASHQADARYO VOHASIDA ADABIYOT MUHITI TARIXINING O'ZIGA XOS RIVOJLANISHI

A. Pardayev, dotsent, t.f.n., Qarshi Davlat Universiteti, Qarshi  
A. Axmatov, mustaqil izlanuvchi, Qarshi Davlat Universiteti, Qarshi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Qashqadaryo vohasida XIX asrdan boshlab XX asrning oxiriga qadar adabiy hayotida yangi bir bosqich, ko'tarilish yuzbera boshlaganligi barcha tarixiy davrlarda adabiyot va san'at rivojlangan o'lkalardan biri bo'lib adabiyot tarixini bilmasdan turib, hozirgi adabiyot jarayonlariga bog'liq bo'lgan muhim masalalar to'g'risida fikr yuritib bo'lmaydi. Shu bois, Qashqadaryo adabiy hayotida

sovet davrida ijod qilgan taraqqiyot yo'lining qonuniyatlarini aniqlab olish uchun eng avvalo unga xos bo'lgan umumiy jarayonlarni tarixiylik nuqtai-nazardan ko'zdan kechirish lozim.

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston, Qashqadaryo, Qarshi, Koson, Buxoro, Nasaf, adabiyot, san'at, taskiranavislik, dialektiga, pyesalari, roman, dramaturgiya, nasr, folklor, publitsistik, shoirlar, ijodkorlar.

**Аннотация.** В данной статье начало нового этапа в литературной жизни Кашкадарьинского оазиса с XIX до конца XX века - одной из самых развитых стран в истории литературы и искусства во все исторические периоды без знания истории литературы невозможно думать о возникших важных вопросах. Поэтому, чтобы определить закономерности пути развития Кашкадарья в литературной жизни советской эпохи, необходимо сначала взглянуть на присущие ей общие процессы с исторической точки зрения.

**Ключевые слова:** Узбекистан, Кашкадарья, Кариши, Касан, Бухара, Насаф, литература, искусство, живопись, диалект, пьесы, роман, драма, проза, фольклор, публицистика, поэты, художники.

**Abstract.** In this article, the beginning of a new stage in the literary life of the Kashkadarya oasis from the XIX to the end of the XX century is one of the most developed countries in the history of literature and art in all historical periods without knowing the history of literature. It is impossible to think about the important issues that have arisen. Therefore, in order to determine the laws of the path of development of Kashkadarya in the literary life of the Soviet era, it is necessary to first look at the general processes inherent in it from a historical point of view.

**Key words:** Uzbekistan, Kashkadarya, Karshi, Kasan, Bukhara, Nasaf, literature, art, painting, dialect, plays, novel, drama, prose, folklore, journalism, poets, artists.

Qashqadaryo vohasi barcha tarixiy davrlarda adabiyot va san'at rivojlangan o'lkalardan biri bo'lib kelgan. O'tmish adabiyoti tarixini bilmasdan turib, hozirgi adabiyot jarayonlariga bog'liq bo'lgan muhim masalalar to'g'risida fikr yuritib bo'lmaydi. Shu bois, Qashqadaryo adabiy hayoti taraqqiyot yo'lining qonuniyatlarini aniqlab olish uchun eng avvalo unga xos bo'lgan umumiy jarayonni tarixiylik nuqtai-nazardan ko'zdan kechirish lozim. XIX asrdan boshlab Qashqadaryo adabiy hayotida yangi bir bosqich, ko'tarilish yuz bera boshladi. V.Bartold, I.Mo'minov, V.Zohidov, V.Abdullayev, A.Qayumov, E.Rustamov, E.Shodiyev, A.Mirzayev, T.Qorayev, P.Ravshanov kabi olimlar ham o'zlarining ilmiy-tadqiqot ishlarida Qashqadaryoda yashab ijod etgan shoirlar haqida qimmatli ma'lumotlar berishgan. Albatta, o'tmishdagi Qashqadaryo adabiy jarayonini o'rganish hech qachon to'xtab qolmaydi, olimlarimizning keyingi ilmiy tadqiqotlarida yangidan-yangi qirralar kashf etilib borilaveradi. Chunki o'zbek adabiyoti tarixini yaxlit holda yanada mukammallashtirish, boyitishda jumladan Qashqadaryo vohasi adabiy muhitini o'rganish ham muhim ahamiyatga egadir [1].

Akademik Vohid Abdullayev 1978 yilda nashr etilgan "O'zbek adabiyoti tarixi"ning 3-kitobidagi "Taskiranavislik" bobida "Salohiddin Salohiy asarlaridagi so'zlarning tarkibiga nazar solsangiz; "harfi avqot", "pushlar va do'shlar" kabi so'zlarning Buxoro muzofoti o'zbeklari dialektiga doirligi bilan qayerdadir, Nasaf-Qarshidan u qadar uzoq bo'lmagan joyda hayot kechirganligi aniqlandi" deb ma'lumot beradi. Adabiyotshunos olim Toji Qorayev esa shoir Salohiddin Salohiyning asli kitoblik ekanligini qayd etib, keyinchalik u Kattaqo'rg'onga borib qolgan va o'zbek, tojik tillarida devon tuzganligini aytadi. Adabiyotshunos Poyon Ravshanov esa Salohiddin Salohiyning 1876 yilda tug'ilib, 1964 yilda 88 yoshida vafot etgan kattaqo'rg'onlik Salohiddin Mahsum-Salohiydan farqlash kerakligini ta'kidlab, Toji Qorayev fikrlarida chalkashlik borligini ta'kidlaydi va Salohiddin Salohiyning Qarshi adabiy maktabida yetishgan barkamol shoirlardan biri ekanligini ta'kidlaydi [2].

XX asrning 20-30 yillarida kelib Qashqadaryoda Haydar Hofiz, Abdulla shoir, Shamsi Oston, Bahrom Sharif, Ota Said, Oston O'roq, Kuhiy (Po'lat Qurbonov), Jabbor Maxsumov kabi ijodkorlar yashab, faoliyat ko'rsatdi. Ular o'zlari hohlamagan holda hukmron tuzumini madh etuvchi asarlarni yaratdilar [3].

1958 yili qashqadaryolik ijodkorlar "Ko'rtak" nomli she'riy to'plamni e'lon qildi. Mazkur to'plamga Samad Qodirovning "Partiya", Chori Hamroning "Kolkox qishlog'i", Umarjon Ismoilovning "Cho'pon", Sh. Orifiyning "Urush haqida xotiralar", To'ra Jumanning "Yangi portret va yangi rassom" va boshqa asarlari kiritildi. Bu davrda qashqadaryolik ijodkorlardan Orol Mo'minov, Abdulla Oripov, Samar Nurov, Jumaniyoz Jabborov O'zbekiston bo'yicha taniqli ijodkorga aylandi. Orol Mo'minovning "Hayotim sahifalari" nomli publitsistik asarida XX asrning 40 yillaridan boshlab to' hozirgi davrgacha bo'lgan turmush-tarzimining muhim tomonlarini umumlashtirishga harakat qilinadi, 1946-1985 yillar orasida o'zbek adabiyoti o'z taraqqiyotining murakkab davrini bosib o'tdi [4].

XX asrning 50 yillarining ikkinchi yarmida she'riyatda "Qoraqalpoq daftari" turkumining, Shayxzoda, Zulfiya, Shukrullo, M.Boboyev qalamiga mansub she'rlarning yuzaga kelishi, nasrda "Quyosh qoraymas" romani (Oybek), dramaturgiyada "Shohi so'zana" (Abdulla Qahhor), "Yurak sirlari" (B.Rahmonov) pyesalarining paydo bo'lishi bilan o'zbek adabiyoti taraqqiyoti tarixida yangi davr boshlandi. Bu asarlarda inson, uning ruhiy olami, insoniylik mohiyati, quvonchi va qayg'u-alamlari butun murakkabligi bilan ifodalana boshlandi [6].

Qashqadaryo vohasi folklori bilimdonlaridan biri filologiya fanlari nomzodi, dotsent Abdimo'min Qahharov edi. A. Qahharov 1953-95 yillar davomida Qarshi Davlat pedagogika instituti o'qituvchi va talabalarning maxsus ekspeditsiyalarini tashkil etib, Janubiy O'zbekiston, Tojikiston va Turkmaniston respublikalarida yashovchi elatlar, o'zbek qavmlaridan juda ko'p folklor materiallarni yozib oldi. Janubiy O'zbekiston hududida yashab ijod etgan xalq dostonlarining 200 dan ortig'ini ro'yxatga oldi. Ularning 200 yildan ziyod davrdagi ustoz-shogirdchilik an'analari tarixini o'rganib, xalq baxshilari poetik maktablarini aniqladi, ularning shajarasini tuzib chiqdi. A. Qahharov 1984 yilda "Yangi dostonlar" monografiyasini, 1985 yilda "Oychinor", 1983 yilda "Nuralining bandi bo'lishi", 1994 yilda "Sohibqironning tug'ilishi", 1995 yilda "Janubiy O'zbekiston dostonchiligida yetakchi muammolar" kabi ilmiy va matnshunoslikka oid tadqiqotlarini chop ettirdi [7].

Bu davrda qashqadaryolik ijodkorlardan Orol Mo'minov, Abdulla Oripov, Samar Nurov, Jumaniyoz Jabborov O'zbekiston bo'yicha taniqli ijodkorga aylandi. Orol Mo'minovning "Hayotim sahifalari" nomli publitsistik asarida XX asrning 40 yillaridan boshlab to hozirgi davrgacha bo'lgan turmush-tarzimning muhim tomonlarini umumlashtirishga harakat qilinadi. Jumaniyoz Jabborov ijodiy faoliyatini 1952 yildan boshlagan. Shoirning ilk to'plami "Vatanimni kuylayman" 1953 yilda nashr etildi. Shundan so'ng uning qator she'riy kitoblari nashr etila boshladi. "Bahor nafasi" (1956), "Gulshan" (1957), "Maqsad yo'lida" (1958), "Tog'lar sadosi" (1961), "Ona yer qo'shig'i" (1962), "Subhidam xayollari" (1964) kabi o'nlab she'riy kitoblari chop etildi. U mohir dramaturg sifatida ham keng tomoshabinlar e'tiborini qozongan sahna asarlarini yaratdi. Uning "O'jarlar" (1971), "Yillar o'tib" (1975), "To'ydan oldin tomosha" (1979), "Cho'l chaqmog'i", "Jon qo'shnilar", "Ziyofat", "Neksiya" singari qator dramatik asarlari mamlakatimiz teatrlarida, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston respublikalari teatr sahnalarida muvaffaqiyatli namoyish etildi. Shuningdek, Firdavsiyning "Shohnoma" asari hamda A. Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani asosida musiqali drama yaratdi [8].

Abdulla Oripov 1941 yil 21 martda Qashqadaryo viloyati Koson tumani Neko'z qishlog'ida dunyoga keldi. 1958 yilda o'rta maktabni oltin medal bilan tamomlagan, Oripov Toshkent Milliy universitetining jurnalistika fakultetiga o'qishga kirib, uni ham 1963 yilda imtiyozli diplom bilan yakunlaydi. «Yosh gvardiya» (1963-69), G'afur Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotlarida muharrir (1969-74), «Sharq yulduzi» jurnalida adabiy xodim. Bo'lim mudiri (1974-76), O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida adabiy maslahatchi (1976-82), mas'ul kotib (1985-88), Toshkent viloyat bo'limida mas'ul kotib (1982—83), «Gulxan» jurnalida muharrir (1983-85), 1996 yildan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, ayni vaqtda, O'zbekiston Respublikasi Mualliflik huquqini himoya qilish davlat agentligi raisi lavozimlarida faoliyat yuritgan [9].

Xulosa o'rnida shuni takidlash lozimki Qashqadaryoda o'tgan davr mobaynida jamiyatning ma'naviyat va madaniy qiyofasi boy axloqiy hamda moddiy qadriyatlar zahirida shakllanadi. Bu borada milliy adabiyot va san'atning rivojlanish tarixini muayyan davr xususiyatlarga bog'lab o'rganish va jiddiy tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etdi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Yo'ldoshev B. Qashqadaryo badiiyati. T. Sharq. 2002.
2. To'xtamishov I. O'chmas xotiralar. Qarshi, Nasaf. 2002.
3. Yo'ldoshev B. Qashqadaryo badiiyati. T. Sharq. 2000.
4. Yo'ldoshev B. Qashqadaryo badiiyati. T. Sharq. 1998.
5. Ravshanov P. Adabiy sahifalar. T. Nasaf, 1985
6. O'zbekiston Respublikasi Ensiklopediyasi. T. 1998.
7. Yo'ldoshev B. Qashqadaryo badiiyati. T. Fan. 1998
8. Axmedov V.A. O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari. T. 1991.
9. <http://qashqadaryo.uz/>.

UO'K 902

#### ASHTARXONIY BOQI MUHAMMADXONNING BOSH VAZIRI MIRZO HOSHIM SAMARQANDIYNING "DAFTARDOR"LIK FAOLIYATI HAQIDA P. Rahmonova, o'qituvchi, Samarqand Davlat Universiteti, Samarqand

**Annotatsiya.** Maqola ilk ashtarxoniy hukmdor Boqi Muhammadxonning bosh vaziri Mirzo Hoshim Samarqandiyning daftardorlik faoliyatiga bag'ishlangan. Uning mansab pillapoyalaridan ko'tarilib borish jarayonini aks ettirilgan. Mansabdorning shayboniylar sulolasiga mansub ikki podshoh, bir shahzoda va ashtarxoniy hukmdor Boqimuhammadxon davridagi faoliyati tilga olingan.

**Kalit so'zlar:** Samarqand, ilk ashtarxoniyilar, Boqi Muhammadxon, Mirzo Hoshim, Tarixi sayyid Roqim, daftardor, devon, viloyat, Ibodulloh sulton.

**Аннотация.** Статья посвящена Мирза Хашиму Самарканди, который был премьер министром аштарханида Баки Мухаммадхана, освещена его деятельность как "дафтардара". Речь идет о его карьере по государственному чинам. Упомянется деятельность чиновника в период правления двух царей и одного царевича династии Шейбанидов, а также аштарханидского государя Бакимухаммадхана.

**Ключевые слова:** Самарканд, первые аштарханиды, Баки Мухаммадхан, Мирза Хашим, Тарих-и саййид Рақим, "дафтардар", "диван", область, Ибадуллах султан.

**Abstract.** The article is dedicated to activity of Mirza Hashim Samarkandi, who was the prime minister of Ashtarkhanid Baki Muhammadkhan as “daftardar”. It’s about his career in government ranks. The activity of the official is mentioned during the reign of two kings and one prince of the Sheibanid dynasty, as well as the Ashtarkhanid sovereign Baki Muhammadkhan.

**Key words:** Samarqand, first Ashtarkhanids, Baqi Muhammadkhan, Mirza Hashim, “Tarixi sayyid Rokim”, “daftardar”, “devon”, region, Ibadullah sultan.

Ilk ashtarxoniyalar davri Samarqand tarixini o‘rganishda davlat boshqaruvida bevosita ishtirok etgan samarqandlik mansabdorlarning faoliyatini yoritish ham muhim ahamiyatga ega. Bunga Boqi Muhammadxonning bosh vaziri bo‘lgan Mirzo Hoshim Samarqandiyini misol qilish mumkin. Chunki uning faoliyati o‘sha davrga oid birlamchi qo‘lyozma manbalarda keltirilgan bo‘lsa-da, hozirgacha tadqiqotchilar e‘tiboridan chetda qolmoqda.

Samarqand davlat universitetida 1939-1965 yillarda foyil olib borgan tarixchi, manbashunos olim Ivan Ivanovich Umnyakov (1890-1976) o‘zining shaxsiy kutubxonasiga ega bo‘lgan. Unda ko‘plab qo‘lyozma manbalar ham saqlangan. Shulardan biri “Tarixi sayyid Roqim” asari bo‘lib, unda Mirzo Hoshim Samarqandiy haqida shunday yozilgan: “Mirzo Hoshim devon asli samarqandlikdir. Uning ota-bobolari sultonlar va hoqonlar dargohida vazirlik bilan shug‘ullangan. Jumladan, uning katta otasi Mullo Xurd devon jannatmakon Shayboniyxon vazirligida hurmatli edi. Uning Hirot viloyatidagi yodgorliklaridan hammom va karvonsaroy binosi hanuzgacha faoliyat ko‘rsatib turibdi. Ammo janob Mirzo Hoshim shahid Ibadulloh sulton zamonida Samarqand viloyatining daftardori edi. Abdulloh Bahodirxon davlatida necha vaqt devon boshlig‘i, adolatli Boqimuhammad Bahodirxon saltanati vaqtida esa vazirlik va devon boshlig‘i mansabida bo‘lgan” [5: ].

Mirzo Hoshim Samarqandiy va uning ajdodlari faoliyatini tushunish uchun ularning ismiga qo‘shib aytilgan “devon” laqabini sharhlash lozim. Ma‘lumki, o‘rta asr manbalarida “devon” atamasi bir necha ma‘nolarda ishlatilgan. Birinchisi davlatning kirim-chiqimlari yoziladigan daftar va shu ishlar olib boriladigan mahkama. Ikkinchisi davlat kirim-chiqim ishlari (daftarxonasi)ning boshlig‘i, vazir.

“Musaxxir al-bilod” asarida yozilishicha Muhammad Shayboniyxon 1507 yil 13 mayda Xurosonga yurish qilib, g‘alabaga erishadi. Shundan so‘ng o‘z qo‘shinidagi har bir amir va sardorni loyiq mansablar bilan siylaydi. “Hirot hukumati va dorug‘aligi Jon Vafobiyya topshirildi. Ul o‘lkaning vazirlik ishi Xoja Xurd laqabli xoja Abulvafo qo‘liga berildi” [4: 108]. Bu shaxsning faoliyati alohida tadqiqotni talab qiladi. Bu maqolada esa Mirzo Hoshim Samarqandiyning “daftardorlik” faoliyati haqida so‘z yuritiladi.

“Tarixi sayyid Roqim” asarida yozilganidek, Mirzo Hoshim Samarqandiy bu vazifani “Ibadulloh sultonning zamonida”da bajargan. Ma‘lumki, “Samarqand mamlakati 986/1578 yilda Iskandarmonand sohibqiron (Abdullaxon II) tasarrufi doirasiga kirgach, u mamlakatga ozod ravishda yon atrof-tumanlari bilan birga qo‘shib idora etishi uchun Ibadulloh Sulton ixtiyoriga topshirdi” [4: 210; 231]. Davlat rahbarining ukasi bo‘lgan, manbalarda saltanatnavvob yoki navvob, ya‘ni xonning o‘rinbosari, valiahd deya tilga olingan bu shahzoda mazkur lavozimda shahid bo‘lguncha turgan. Uning bevaqt o‘limi 994/1586 yilda sodir bo‘lgan [6: 214-215]. Birlamchi manbalardagi ushbu ma‘lumotlar “Tursun Muhammad sulton 1578-1598 yillari Samarqand hokimi bo‘lgan” [2: 232] degan axborotni jiddiy tahrir qilishni talab etadi. Bu masala keyingi tadqiqotlarda aniqlashtiriladi.

“Musaxxir al-bilod” asarida yozilishicha: “shavkatli (Ibadulloh) sulton Samarqandda hukumat qanotini yoyib, o‘z idora uslubida adolat uchun tirishdi va qisqa vaqtda Samarqandni farovon va obod joyga aylantirdi. Xullas, hech mubolag‘asiz va tilyog‘lamalikka berilmay, ortiqcha so‘zamollik ishlatmay va behuda maqtoqlar bilan bo‘rtirmay aytish mumkinki, Bahrom-savlat ul sulton shijoat, mardonalik, o‘zdan kechishlik tariqi va jasurlik, chavandozlik shevasi hamda kamondan o‘q otish va qilich chopishda o‘z zamonasida o‘xshashi yo‘q yagona va tengsiz durdona edi. Uning shijoat-hayratini ko‘rgan odamlar Bahman saf shikanligi, “Shohnoma”dagi qo‘rg‘oshin tanli Isfandiyor shavkati shukuhi haqidagi dostonlarni allaqachon unutgan edilar. Haqiqatdan ham ul sultonning ayrim janglari qissasi, ba‘zi kurashlari dostoni o‘sha asrda ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan voqealardan hisoblanardi. Ular mana bizning ushbu zamonimizgacha aytib yuriladi va bu sulton qahramonliklari hech qanday ta‘rifu tavsifga sig‘maydi. Hukumati va saltanati ayyomidan olti yil o‘tgach, ul baland martabali xusrav Samarqand mamlakatida olamdan o‘tdi. Undan esa adolatli va xalqqa mehribonligi tufayli obod bo‘lgan Samarqand viloyati yodgor qoldi” [4: 210].

Ibadulloh sultonga pichoq urib, uning shahid qilgan shaxs o‘zining xos mahramlaridan biri Mirzo Abdurahim ekan. “Musaxxir al-bilod” asarida u Chinbiy do‘rmon o‘g‘li deb ko‘rsatilgan va “sulton ittifoqi tufayli ixtiyorsizlik pastligidan baxtiyorlik darajasiga yetishgan amirlardan” ekanligi aytilgan [4: 211]. “Abdullanoma” muallifi esa uni Husaynbiy do‘rmon o‘g‘li deb yozadi va aniq vazifasini ham ko‘rsatadi. Ibadulloh sulton uni “ixtiyorsizlikning tuban martabasidan baxtiyorlik darajasining avjiga yetkazgan edi. Ko‘p yillar podshohlik ishlariga daxldor qilib devondagi kotiblarni nazorat qilib turishga tayinlagan, ya‘ni mushriflik mansabi unga topshirilgan edi” [6: 214].

Bu qotillikni eshitgan “Hasanxojakim, ul hazratning naqibi erdi, ulug‘ vazir, katta va mukarram amir, sulton hazratlarining yaqin kishisi, hoqon davlatining ishonchli odami Muboriziddin hoji otaliq va davlatning



boshqa amirlari va ul hazratning akobirlari, mansab va hashamat markaziga, janobi sulton saltanatining qarorgohi bo'lgan Samarqandning oliy arkiga tezlik bilan yetib borishdi" [6: 215]. Bu haqda "Musaxxir al-bilod"da shunday yozilgan: "Bu mamlakatda ul hazrat saltanatining *naqiblik* mansabida turgan janob Hasanxoja xurd ibn Ja'farxoja hamda hukumat palosida *devonbegilik* lavozimini boshqarayotgan Hojibiy do'rmon va davlatning boshqa amirlari va sultonning saroy a'yonlari Samarqand oliy Arki tomon oshiqdilar va qotilning qay bir qarindosh tuqqani bo'lsa, ularni ham topib, boshqalarga ibrat bo'lishi uchun olov yoqtdilar va *Mirzo Abdurahim* bilan birga qo'shib ularni ham shu gurullagan gulxanda xas-xashak kabi kuydirdilar [4: 211-212]. Manbalarda keltirilganidek, Ibodulloh sultonning jahonda kechirgan hayoti muddati ellik bir yosh va jannatmisol Samarqandda sultonlik (saltanat surgan davri) davri olti yil bo'lgan. Uning shahid etilishi bayon etilgan yuqoridagi ikki manbada ham bir necha mansabdorlar tilga olingan. Ularning orasida *Mirzo Hoshim Samarqandiy* nomini uchramasligi quyidagicha izohlanishi mumkin.

Birinchidan, manbalarda asosan yuqori mansab egalari tilga olingan. Ikkinchidan, "*daftardor*"lik quyi mansab bo'lib, bu vazifada ishlagan *Mirzo Hoshim Samarqandiy* o'sha vaqtda ancha yosh bolgan va hali tanilmagan.

Ibodulloh sulton hukumatining, umuman unga o'xshash viloyat hokimlarining boshqaruv tizimi kam o'ganilgan mavzu. Yuqoridagi manbalarda keltirilgan "Samarqand hukumati" a'zolari va ularning faoliyati hozirgacha tadqiqotchilar e'tiboridan chetda qolmoqda. Bu masala alohida jiddiy tadqiqotni talab etishini hisobga olib, Ibodulloh sulton hukumatida nechta "*daftardor*" faoliyat yuritgan? Degan savol bilan cheklandik. Hozircha bunga aniq javob topilmadi. Qiyosiy o'rganish va xulosa chiqarish uchun Jo'ybor xojalari faoliyati yoritilgan "Matlab ut-tolibin" asaridagi quyidagi ma'lumotlar e'tiborlidir.

Xoja Kalon nomi bilan tanilgan Xoja Sa'd (1531-1589) Jo'yboriyning "Ish yurutuvchisi ixtiyorida 4 nafar *daftardor* bor edi: 1) uy va xonadon daftari *munshiyasi* (kotibi) va *mufattish* (taftishchi, ya'ni revizor-auditor)i 2) xazina daftardori 3) kirim-chiqim daftardori 4) maoshlar daftardori. Ularning har birida bir nechta *mirzo* bo'lib, umuman "*daftardorxonasi*"da 40 nafar *mirzo* xizmat qilar edi" [3: 141]. Uning o'g'li Tojiddin Hasan (1574-1646) daftardorxonasida esa 14 nafar bitikchi (*mirzo*) xizmat qilgan [3: 194].

Demak, *Mirzo Hoshim Samarqandiy* Samarqand viloyat hokimi Ibodulloh sultonning devonxonasida "*daftardor*"lik bilan shug'ullangan. Ya'ni Samarqand viloyatining kirim-chiqimlari yoziladigan *daftarni* yuritgan, moliya, iqtisod, soliq sohalariga rahbarlik qilgan.

Xulosa qilib aytganda ilk ashtarxoniy hukmdor Boqimuhammadxonning bosh vaziri bo'lgan *Mirzo Hoshim Samarqandiy* o'zining *daftardorlik* faoliyatini Samarqand hokimi shayboniy Ibodulloh sulton zamonida viloyatining *devonxonasida* olib borgan.

"Tarixi sayyid Roqim" asarida Hoshim Samarqandiyning nomi bilan birga keltirilgan "*mirzo*", "*devon*", "*daftardor*" laqablari uni qaysi sohada ishlagani, qanday mansablarda faoliyat ko'rstganligini anglatadi.

*Mirzo Hoshim Samarqandiy* faoliyat olib borgan mahkama, ya'ni davlat idorasi o'rta asr manbalarida "*devon*", "*daftardorxonasi*" atamallari bilan ifodalangan ekan. Tarixida o'tgan "**mahalliy podshohlar**", ya'ni viloyat hokimlarining boshqaruv tizimi, hukumat a'zolarining faoliyatini o'rganish muhim ilmiy yangiliklar berishi shubhasiz. *Mirzo Hoshim Samarqandiyning "shahid Ibodulloh sulton zamonidan keyingi faoliyati* navbatdagi tadqiqotlarimizda yoritiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994.
2. Аҳмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 2001.
3. Мухаммад Толиб. Маглаб ут-голибин. Ўзбек тилига таржима, сўзбоши ва изоҳлар муаллифлари Ф.Каримий, Э.Миркомиллов. Масъул муҳаррир Х.Тўраев. – Тошкент: Mo'vago'unnahr, 2016.
4. Мухаммадиёр ибн Араб Қатаған. Мусаххир ал-биллод. Форс тилидан таржима, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари И.Бекжонов, Д.Сангилова. Масъул муҳаррир Ш.Воҳидов. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009.
5. Тарихи саййид Роқим. Қўлэзма. Форс тилида. И.И. Умняков кутубхонасидан.
6. Ҳофиз Таниш ал-Бухорий. Абдуллонома (Шарафномаи шохий). Иккинчи китоб. Форс тилидан С.Мирзаев ва Ю.Ҳақимжонов таржимаси. Изоҳлар муаллифи Б.Аҳмедов. – Тошкент: Шарқ, 2000.
7. Самарқанд тарихи. Масъул муҳаррир И.М. Мўминов. – Т.: Фан, 1971. Том I.
8. Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. Иккинчи китоб. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2019.

UO`K 950(575.1)

#### TARIXIY MANBALARDA SULTON JALOLIDDIN MANGUBERDINING HARBIY SARKARDALIK MAHORATI HAQIDA

*A.R.Raxmatullayeva, dotsent, t.f.n., Toshkent davlat pedagogika universiteti, Tashkent*

*D.M.Yunusova, II bosqich magistrant, Toshkent davlat pedagogika universiteti, Tashkent*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolda, Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti va ibratli vatanparvarlik faoliyatiga oid yozma manbalardan muhim ma'lumot, mavzu tarixshunosligi, Jaloliddin Manguberdining olib borgan janglari strategiyalari ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Sulton Jaloliddin Manguberdining hayoti va faoliyati, manbalar, tarjima, tadqiqotlar, ilmiy-ommbop asarlar, badiiy adabiyotlar, harbiy sarkarda, jang olib, xarita, strategiya.

**Аннотация.** В данной статье приводятся важные сведения из письменных источников о жизни и образцово-патриотической деятельности Султана Джалалиддина Мангуберди, раскрывается тематика историографии, стратегии сражений, которые вел Джалалиддин Мангуберди.

**Ключевые слова:** Жизнь и деятельность султана Джалалиддина Мангуберди, источники, Перевод, Исследования, Научно-популярные произведения, художественная литература, военачальник, поля сражений, карта, стратегия.

**Abstract.** This article provides important information from written sources about the life and exemplary patriotic activities of Sultan Jalaliddin Manguberdi, reveals the subject of historiography, the strategy of battles fought by Jalaliddin Manguberdi.

**Key words:** Life and activity of Sultan Jalaliddin Manguberdi, sources, Translation, Research, Popular science works, fiction, military commander, battlefields, map, strategy.

Xalqimiz hech qachon qullikka tushishga tinch qarab turmagan. Vatanparvar qahramonlarimiz ichida shirin jonini, oilasini Vatan yo'lida fido etgan Sulton Jaloliddin Manguberdi bo'lib, u nafaqat Vatanimiz balki insoniyat tarixida Sharq xalqlarida mo'g'ul bosqinchilarining insoniyat boshiga tushgan qullik jabr-zulmi o'rnatilishiga qarshi tengsiz janglarda g'alaba qozongan. Jaloliddin Manguberdi – bor-yo'g'i o'ttiz ikki yillik (1198-1231 yy) qisqa hayoti davomida elu yurt uchun, xalq ozodligi uchun so'nmas xizmat qilgan ulug' ajdodimizdir. Uning jang maydonlaridagi jasoratiga xatto Chingizxonning o'zi ham tan bergan.

Bu sulton shohlar ichida eng zo'ri, ammo og'ir taqdirli, sultonlik o'rniga janglar va fitnalar qurboni bo'lgan, mo'g'ularga kurashga umrini, oilasini bag'ishlagan insondir. Ayni paytda otasi Xorazmshoh Sulton Muhammadning kaltabin siyosati qurboni bo'ldi.

Jaloliddin Manguberding porloq ruhini abadiylashtirish maqsadida "Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligini nishonlash haqida" 1998 yilda qabul qilingan Qarorga ko'ra, yurti Xorazmda yirik ko'cha, maydonlarga uning nomi qo'yildi. Urganch shahri markazi Shovot kanalining so'l sohilida majmua, 1999 yilda haykal bunyod etildi.

1999 yil Jaloliddinning 800-yillik yubileyiga bag'ishlangan 25 so'mlik yubiley tangalar muomalaga kiritilgan.

2000 yilning 30 avgustida "Jaloliddin Manguberdi" ordeni ta'sis etildi.

Jaloliddin Manguberdi haqida p'esa va boshqalar yaratilgan edi. (Maqsud Shayxzoda esa "Jaloliddin" 1943 yili dramasi yozgan). Endilikda video film tasvirga olindi (2020 yil)

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev Jaloliddin Manguberding harbiy vatanparvarligini chuqur o'rganishga e'tibor berib, "...buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberding hayoti va harbiy mahorati haqida hamma ham yetarli bilimga egami? Vaholanki, bu ajdodlarimizning g'alabalari, strategiya va taktikalarini dunyodagi ko'plab harbiy maktab va akademiyalarda bugun ham o'rganishadi". Ilg'or harbiy qismlarga ulug' milliy sarkardalarimizning nomini berish, mohir lashkarboshi bobolarimiz haqida ilmiy tadqiqotlar, badiiy kitoblar, kinolar yaratishga ko'rsatma berdi.

Xorazm viloyati Urganch shahrining bosh maydoni markazida 36 metrlik Jaloliddin Manguberdi haykali o'rnatiladi. Haykal rossiyalik haykaltaroshlar tomonidan bronzadan yaratilmoqda. Haykal loyihasi ustida 2 yil ishlangan, loyihaning yakuniy varianti O'zbekiston Prezidenti tomonidan ma'qullangan. Haykalning umumiy og'irligi tonnadan oshadi, haykal O'zbekistonga qismlarga ajratilib poezdda olib kelinadi.

Prezident Sh.Mirziyoev haykal haqida: "Haykalning ulug'vorligi muhim albatta, lekin menga birinchi navbatda ma'naviyat kerak, yoshlarimizning tariximizni chuqur bilishi zarur. Bu maydonning har bir nuqtasida ulug' bobokalonimizga oid sodda tildagi ma'lumotlar joylashtirilsin. Sulton Manguberding nafaqat boshqa viloyatdagi yoshlarimiz, balki xorazmlilar ham ko'ngildagidek bilishmaydi. Olimlarimiz yana bir bor ma'lumotlarni ko'rib chiqib, maydonning barcha burchaklariga joylashtirib chiqish choralari ko'ringlar".

Jaloliddin Manguberding sarkardalik dahosi haqida kechirib bo'lmas darajada oz kitob yozilgan. Bor kitoblar ilmiy-ommabop asarlar yoki badiiy adabiyotlardir. Ammo ilmiy nuqtai nazardan, sulton olib borgan janglar soni, janglar jarayoni, janglarning sxematik kartasi, g'alaba yoki mag'lubiyat sabablari, oqibatlar, jang taktikasi va strategiyalari umuman tadqiq etilmagan. Shuningdek, Jaloliddin tuzgan davlat, zarb etilgan tangalar haqida uncha muncha tarixchilar bilmaydi ham.

Eng muhimi bu davr tarixini mukammal yorituvchi tarixiy manba tarjima qilingan, mavjud ma'lumotlar uzuq – yuluq yoki kam emas, balki batafsil yoritib berilgan. Jumladan, tarixiy manbalardan eng muhimlari:

- tarixiy voqealar shohidi bo'lgan, Sultonning shaxsiy kotibi davlat lavozimidagi tarixchi Shixobiddin Muhammad an-Nasaviyning "Siyrat as-sulton Jaloliddin Mangburni";

- Alouddin Atomalik Juvayniyning "Tarixi Jahonkushoy";

- Ibn al-Asirning "Al – komil fi tarix" nomli asarlari to'liq ma'lumot beradi.

Shihobiddin Nasaviyning "Siyrat as-sulton Jaloliddin Mangburni" ("Sulton Jaloliddin Manguberding hayot tafsiloti") asari Jaloliddin Xorazmshoh haqida turli davrlarda bitilgan barcha asarlar orasida eng ishonchlisi, xolis yozilganidir.

Nasaviy Jaloliddin Manguberdi haqida, jahonda biror kishi bundayin mardni ko'rmagan, ilgari nomdorlar orasida bo'lganini ham eshitmagan. U sherlar orasida eng zo'r arslon edi, dovyurak chavandoz, lashkar orasida eng botiri, deb yozadi. Shuningdek, shunday ta'rif beradi: "Jaloliddin 1198 yil Alouddin Muhammad va uning turkman kanizagi Oychechakdan tug'ilgan. U bug'doyrang, o'rta bo'yli, turkiy qiyofali va turkiycha gapiradigan kishi edi. Shu bilan birga u forsiyda ham so'zlasha olardi. Lashkar orasida eng botiri bo'lsa-da halim, muloyim inson edi. U nihoyatda jiddiy, kamgap, kulish o'rniga, faqat jilmayib qo'yardi. U adolatni xush ko'rardi, faqat u yashagan davrda yuz bergan fitnalar uni yengib qo'ydi. Qo'l ostidagi odamlarning og'ir hayotini yengilashtrishni yaxshi ko'rardi, ammo u yashagan davrdagi alg'ov-dalg'ovlar, zamon qonunlari uni zulm qilishga majbur etdi" [1].

Alouddin Atomalik ibn Bahouddin Muhammad al-Juvayniyning "Tarixi Jahonkushoy (jahongir Chingizxon)" asari muallifi ham Jaloliddin bilan birga janglarda ishtirok etgan. Ammo asarini Chingizxoniga bag'ishlagan. Nega bunday bo'lgan? Tarixchi Muhammad Xorazmshohning Xurosondagi noibi bo'lgan, mo'g'ullar xuruji vaqtida Sulton Jaloliddin bilan birga mo'g'ullarga qarshi janglarda qatnashgan. Mo'g'ullar 1221 yili Nishopurni ishg'ol qilgach, u Tusga qochib borib qal'alardan biriga yashirinadi. Lekin qal'a hokimi uni bandga olib, mo'g'ul lashkarboshilaridan Kulbulotga topshirdi. Kulbulot asirning ma'lumotli va iste'dodli shaxs ekanligini anglab, uni tirik qoldirdi. Keyinchalik Bahouddin Muhammad mo'g'ullar xizmatiga qabul qilindi va to vafotiga (1258) qadar Xuroson Xurosondagi mo'g'ul hokimlari Chintemur, Kirkuz, Arrun opa huzurida sohib devonlik vazifasida turdi.

Tadqiqotlardan eng muhimi mashhur ozarbayjon tadqiqotchisi Ziyo Buniyotovning "Anushtegin – Xorazmshohlar davlati (1097-1231)" (Gosudarstvo Xorezmshaxov — Anushteginidov) nomli monografiyasidir. Unda muallif Shihobiddin an-Nasaviyning "Siyrat as-sulton Jaloliddin Mangburni" asari asosida tadqiq etan.

O'zbek olimlaridan K.Matyoqubov Shihobiddin an-Nasaviyning asarini o'zbek tiliga tarjima qildi.

Zabardast olim J.Raximov tomonidan Jaloliddin Manguberdi hayoti sarkardalik faoliyati tadqiq etildi.

Bu sulton shohlar ichida eng sho'rpehona, og'ir taqdirli, sultonlik baxtini ko'rmagan, umri asosan mo'g'ullarga qarshi kurashda o'tgan. Ayni paytda otasi Xorazmshoh Sulton Muhammadning kaltabin siyosati qurboni bo'ldi, desak to'g'ri bo'ladi. Sababi, otasi axvolni o'nglashga na izn berdi na chiqish yo'li uchun kurashdi!

Jaloliddin harbiy muhitda ulg'aydi va harbiy san'atni puxta egalladi. Otasi fitnalardan qo'rqqani uchun o'g'lini o'z yonida ya'ni Gurganchda saqlab yurgan. Yosh Jaloliddin dushmanlar bilan tinimsiz janglar bo'lib o'tuvchi chegaraga mas'ul qilib qo'yilgan. Otasi soliqlardan bezor bo'lgan xalq qo'zg'olonlarini qurol bilan bostirar, shuning uchun Jaloliddinning kuchlarni birlashtirish fikrini qabul qilmagan. Shunda Jaloliddin Jayhunni yonida mo'g'ullarni o'zi kutib olishga otasidan izn so'raydi. U: "biz xalqdan og'ir soliqlar yig'dik, ammo baxtsizlik yuz berganda ularni himoya qilmay qochamizmi?", "Ota taxtga davoim yo'q, ammo qo'shinga meni bosh qiling, kuchlarni qo'shay Chingizxonni kutib olib majaqlay", degan fikriga qarshi chiqadi. Shunga qaramay, Jaloliddin otasiga mardlik qanday bo'lishi kerakligini so'zlar bilan ifoda qilib, otasiga: "Siz qo'shinga buyruq bering-da, o'zingiz bir chetda bizning g'alaba qozonishimizni kuting", – degan jur'atli taklifni bildirgan edi.

Mo'g'ullar bosqiniga qadar Xorazmshohlar davlatidagi siyosiy, harbiy ahvoli og'ir bo'lib, bu davlat ichidan zil ketayotgan edi.

Sulton Xorazmshoh bilan onasi Turkon xotun o'rtasida siyosiy mavqei uchun ketayotgan kurash xatto 2015 yilda valiahd deb e'lon qilingan Jaloliddin buvisi tomonidan buvisi tomonidan taxtdan oldirilib, o'rniga Dashti Qipchoqlar malikasidan tug'ilgan Qutbiddin O'zlog'shohning taxtga qo'yilishi xorazmshohning kechirib bo'lmas katta siyosiy xatosi edi, ya'ni tez va oson bosib olinadigan o'lja edi.

Ammo Muhammad xorazmshoh har bir qal'a o'zini o'zi mudofaa etsin deydi, o'zi esa Eronga qochib Kaspiy dengizining Ashuro nomli orolida jon saqlaydi, ko'p o'tmay kasallikka chalinib vafot etadi. Ammo ketar chog'ida Jaloliddinning beliga qilich bog'laydi va yurt himoyasini vasiyat qiladi, sulton deb e'lon qiladi. Buvisi Turkon xotun esa Jaloliddin bilan ketishdan ko'ra mo'g'ullarga asir tushishini afzal ko'rди. Uni Qoraqurumga cho'rilikka olib ketishdi [2].

Jaloliddin Manguberdi tengsiz janglarda harbiy sarkardalik dahosini namoyon etdi. Jaloliddin uchun 700 ta ga qarshi 300 ta qo'shin bilan g'alaba qozonish oson edi. Barcha janglarda karnay surnay sadolari ostida bayroq xilpiratib jangga kirgan [2].

Jaloliddin Vatan va xalq erki uchun kurashib, mo'g'ullarga qarshi 11 yil davomida kurash olib bordi, 13 dan ortiq mo'g'ullarga qarshi ot surib, uning 10 dan ortiq g'olib bo'lgan. Uni yozma manbalarda Xorazm arsloni degan nom bilan ataydilar [2].

1221 yil kuzda Chingizxon, Tuluy, Chig'atoy, O'gaday, Jo'chilar birlashib Jaloliddin qo'shinini o'rab oladi. M.Ivanin mo'g'ullarni sonini 250 mingta deb yoritadi<sup>1</sup>. O'sha paytda Jaloliddinda 30 ming qo'shin bor edi. Shunday katta qo'shin bilan Jaloliddin o'rab olingach, 6000 qo'shini bilan pistirmanini yorib chiqishga muvaffaq bo'ladi. Ammo noteng kuchlarda mag'lubiyat aniq bo'lganida Jaloliddin Hindistonga borib, tayyorgarlik bilan g'alaba qilish maqsadida Sind daryosiga yaqinlashganda soat sayin ko'payib kelayotgan

mo'g'ullarning barcha kuchlariga bas kelolmasligini bilgach, onasi, singlisi, ayoli va 8 yosh o'g'lini daryoga cho'ktirishga sulton farmonini beradi. Bu haqda onasi buni so'raydi va farmon bajo keltiriladi. Shunda mo'g'ullar uning o'g'li va singlisini qutqarib asir qilib Chingizxonga olib boradilar.

**Jaloliddin Manguberding olib borgan janglari**

№	Janglar nomi	Sana	Joy toponimikasi	Kuchlar nisbati		Natijasi
				Jaloliddinda	dushmanida	
1	Niso jangi	1220-yil	Turkmaniston	300 otlq	700 otlq	G'alaba
2	Qandahor himoyasi	1221-yil fevral	Afg'oniston	10 000		G'alaba
3	Valiyon qal'asi himoyasi	1221-yil	Afg'oniston	130 000		G'alaba
4	Parvon janggi	1221-yil	G'azna	60.000-70 000	Shiki Kutuxu lashkarida 30-45 000	G'alaba
5	Sind (Hind) daryosi	1221-yil 25-noyabr 9-dekabr	Hindiston	30 000 Jaloliddinda	250 000 Chingizxonda	mag'lubiy atli
6	Shatra	1221 yil dekabrda	Hindistonning Shatra viloyati	4000-6000	Hindlar 5000	G'alaba
7	Basra yaqinidagi jang	1225-yil	Bag'dod atrofida	20 000		G'alaba
8	Garni janggi	1225-yil 8 avgust	Sharqiy Armanistonning Dvin shahri yaqinida		Tvan Mxagordzeli boshchiligidagi Gruzinarlar 60000	G'alaba
9	Ray	1227	Eron			G'alaba
10	Isfahon yaqinidagi Sind qishlog'idagi jang	1227-yil senyabr	Eron		mo'g'ullarning Taynal no'yon qo'shini boshlig'i	G'alaba
11	Arman podshosi Xettum I	1228-yil	Kavkazda		arman podshosi Xettum I, Misr sultoni Ashra, Rum sultoni Alouddin ittifoqligida	mag'lubiy atli
12	Arzinjon yaqinidagi Yassi Chaman tekisligidagi jang	1230-yil 7 - 10 avgust	Kurdiston	700 otlq	3000 suvoriy ittifoqdoshlar Alouddin Kaykubod	mag'lubiy at
13	Ozarbayjon	1231-yil	Ozarbayjon		mo'g'ullarning Ugedey lashkari	mag'lubiy at

Singlisi Xonsultonni Chingizxon Jo'chi nomli o'g'liga xotinlikka beradi, o'g'lini esa yuragini sug'urib itiga yediradi. Shunda bir soniyada oilasidan ayrilgan Jaloliddin endi o'nglanmasa kerak degan fikr paydo bo'lganda, Jaloliddin yangi bir qiyofada, maqsadli, yanada kuchli namoyon bo'lib, askarlarga nutq so'zlaydi: "Agar shu jangda yurt ozodligi yo'lida arzimasi matoh jonimizni ayamassan shahid ketsak men dunyoda eng baxtli Sulton bo'laman, agar aksi bo'lsa eng baxtiqaro sulton bo'laman!", degach, barcha askarlar ikkilanmay jangda qulay bo'lishi uchun sovutlarini yechib, o'lim uchun jangga kirdilar. Mo'g'ullar Jaloliddinga "bolta" deb nom bergan edilar. U jangda shunday bir na'ra tortib jangga kirardiki, epchillik bilan ikki qo'lida boltadan foydalanar ediki, yonidagi mo'g'ullarning kallalari yog'ilardi.

Nasaviy ma'lumoticha: "Jaloliddin o'ziga o'zi shivirlardi, diqqat bilan quloq soldim, shunday eshitdim deb yozadi: E, yaratgan Alloh! Nega meni oddiy cho'lpon yoki dehqon qilib yaratmasdan sulton qilib yaratding. Ne gunohim uchun menga tinchlik bermaysan. Ne qilmishlarim uchun meni buncha quvg'inlikka duchor qilgansan. Na turmushimda na yurishimda halovat bor!"

Ammo noteng kuchlarda mag'lubiyat aniq bo'lganida Jaloliddin Hindistonga borib, tayyorgarlik bilan g'alaba qilish maqsadida Sind daryosiga yaqinlashganda soat sayin ko'payib kelayotgan mo'g'ullarning barcha kuchlariga bas kelolmasligini bilgach, onasi, singlisi, ayoli va 8 yosh o'g'lini daryoga cho'ktirishga sulton farmonini beradi. Bu haqda onasi buni so'raydi va farmon bajo keltiriladi. Shunda mo'g'ullar uning o'g'lini va singlisini qutqarib asir qilib Chingizxonga olib boradilar. Singlisi Xonsultonni Chingizxon Jo'ji nomli o'g'liga xotinlikka beradi, o'g'lini esa yuragini sug'urib itiga yediradi. Shunda bir soniyada oilasidan ayrilgan Jaloliddin endi o'nglanmasa kerak degan fikr paydo bo'lganda, Jaloliddin yangi bir qiyofada, maqsadli, yanada kuchli namoyon bo'lib, askarlarga nutq so'zlaydi: "Agar shu jangda yurt ozodligi yo'lida arzimasi matoh jonimizni ayamassan shahid ketsak men dunyoda eng baxtli Sulton bo'laman, agar aksi bo'lsa eng baxtiqaro sulton bo'laman!", degach, barcha askarlar ikkilanmay jangda qulay bo'lishi uchun sovutlarini yechib, o'lim uchun jangga kirdilar. Mo'g'ullar Jaloliddinga "arra, bolta" deb nom bergan edilar. U jangda shunday bir na'ra tortib jangga kirardiki, epchillik bilan ikki qo'lida boltadan foydalanar ediki, yonidagi mo'g'ullarning barchasini kallalari yog'ilardi.

Jaloliddin Chingizxon bilan yakkama yakkam ham janga kirib, ayniqsa uni quvib, boshiga arqon tortib sudraydi, ammo uni qo'riqlaydagan maxsus "Keshik" degan qo'shini yetib kelib qutqarib qolgan. Shunda uning

harbiy sarkardaligiga Chingizxon tan bergan ekan. Kuchlar teng bo'lmagach, Jaloliddin Sind daryosiga baland qoyadan otlari bilan sakraydilar. Yog'iyga bo'yin egmay, dushman ko'z oldida daryoga ot solgan Jaloliddin Manguberdining Vatan ozodligi yo'lidagi jasorati esa asrlar osha barchani hayratga solib kelayotgani sir emas Chingizxon havas bilan uning ortidan qarab qolarkan, o'g'illarini yoniga chaqirib, "Otaga berilgan munosib o'g'il shundoq bo'lishi kerak! Bu dovyurak hali boshimizga ko'p tahlialar soladi, shunday bo'lsada o'ldirmang uni, u yashashga haqli" deydi<sup>[1]</sup>.

Jaloliddin Hind o'lkasiga horib tolib borarkan, uni hind rojalari bilan jangga kiradi, g'alaba qilgach, 4 yil usha yerda qoladi va o'z nomidan tangalar zarb qildiradi. So'ng Eronga, Iroqda mo'g'ullarga qarshi kurashadi. Qaerga bormasin, ya'ni sulton tug'ilganidan boshlab saroydagi fitnalardan boshi chiqmagan edi, bu fitnalar uni o'zga yurtlarda ham ta'qib etdi. Ya'ni, u shuncha og'ir janglarda emas balki uxlab yotganida kurd jangchisi uni nayza sanchib o'ldiradi. (balki mo'g'ullar talabi bilandir.)

Jaloliddin Hind o'lkasiga horib tolib borarkan, uni hind rojalari bilan jangga kiradi, g'alaba qilgach, 4 yil usha yerda qoladi va o'z nomidan tangalar zarb qildiradi. So'ng Eronga, Iroqda mo'g'ullarga qarshi kurashadi. Qaerga bormasin, ya'ni sulton tug'ilganidan boshlab saroydagi fitnalardan boshi chiqmagan edi, bu fitnalar uni o'zga yurtlarda ham ta'qib etdi. Ya'ni, u shuncha og'ir janglarda emas, balki uxlab yotganida mo'g'ullar talabi bilan kurd jangchisi uni nayza sanchib o'ldiradi.

Jaloliddin Manguberdining ibratli hayoti va sarkardalik faoliyatini barcha qirralari bilan o'rganish bugungi tarixshunoslikning muhim va dolzarb vazifalaridandir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Mangubardi hayoti tafsiloti / Kamol Matyoqubov tarjimai. – T.: O'zbekiston, 2006. – 384 b.
2. Ivanin M.I. Ikki buyuk sarkarda: Chingizxon va Amir Temur/ A.Mahkamov tarjimai. – Toshkent: Fan, 1994. – B. 82-83.
3. Буниятов З.М. Государство Хорезмшахов — Ануштегинидов. - М., 1986. 5 с.
4. Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-та'рих. Полный свод истории/ Перевод с арабского языка, примечания и комментарии П.Г.Булгакова [дополнения к переводу, примечаниям и комментариям, введение и указатели Ш.С. Камалиддина]. – Ташкент; Цюрих: Изд-во АН РУз, 2005. – 595 с.
5. Juvayniy Alouddin Atomalik. Tarixi Jahonkusho (Jahon fotihi tarixi)/ Mas'ul muharrirlar: H.Boltaboev, M.Mahmudov. – Toshkent: MUMTOZ SO'Z, 2015. – 504 b.
6. Раши Д-ад-Дин. Сборник летописей. Т. I, кн. 1, перевод с персидского Л. А. Хетагурова, редакция и примечания А. А. Семенова, М.-Л., 1952; т. I, кн. 2, перевод с персидского О. И. Смирновой, примечания Б. И. Панкратова и О. И. Смирновой, редакция А. А. Семенова, М.-Л., 1952; т. II, перевод с персидского Ю. П. Верховского, примечания Ю. П. Верховского и Б. И. Панкратова, редакция ИИ. Петрушевского, М.-Д., 1960.
7. Шихаб-ад-Дин Мухаммад ибн Ахмад ан Насави. Сират ас-султан Днгалал ад-Дин Манкбурни (Жизнеописание султана Джалал ад-Дина Манкбурни). Критич. текст, пер. с араб., предисл., коммент., примеч. и указ. З.М.Буниятова. - М.: Издательская фирма «Восточная литература» РАН, 1996. — 778 с. (Памятники письменности Востока. СУП).

#### UO'K 93/94

### MUSTAQILLIK YILLARIDA BUXORODA TO'QIMACHILIK SANOATINING RIVOJLANISHI

*F.X. Utayeva, katta o'qituvchi, Buxoro Davlat Universiteti, Buxoro*

**Annotatsiya.** Maqolada Buxoroda to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish, ichki va xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanish, to'qimachilik sanoatining mustaqillik yillarida rivojlanishi, to'qimachilik korxonasi xalqaro talablarga mos keladigan trikotaj buyumlarni ishlab chiqarishni haqidagi ma'lumotlar manbalar va matbuot materiallari asosida tahlil etiladi.

**Kalit so'zlar:** Yengil sanoat korxonasi, paxta, pilla, yigiruv-to'quv, pardoqlash.

**Аннотация.** В статье анализируются данные о стремительном развитии текстильной и швейной промышленности Бухары, эффективном использовании внутренних и иностранных инвестиций, развитии текстильной промышленности за годы независимости, производстве трикотажных изделий в соответствии с международными стандартами. даны.

**Ключевые слова:** Предприятие легкой промышленности, хлопчатобумажная, коконная, прядильно-ткацкая, отделочная.

**Abstract.** The article analyzes the data on the rapid development of the textile and garment industry in Bukhara, the effective use of domestic and foreign investment, the development of the textile industry during the years of independence, the production of knitted goods in accordance with international standards. are given.

**Key words:** Light industry enterprise, cotton, cocoon, spinning and weaving, finishing.

**Kirish.** Mustaqillik yillarida Buxoroda to'qimachilik sanoatni ustuvor rivojlantirishga katta ahamiyat berildi. Ichki va xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanish, yangi korxonalar qurish, eskilarini qayta jihozlash, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, korxonalar mulk shakllarini o'zgartirish, resurslardan oqilona foydalanish sanoatning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

1993 yil ipak gilamlar ishlab chiqaradigan "Afg'on - Buxoro - Samarqand" qo'shma korxonalari ishga tushirildi. 1994 yilda "Buxoroteks" hissadorlik jamiyati o'z mablag'lari hisobiga, dunyoning eng nufuzli

to'qimachilik mashinalari ishlab chiqaruvchi Shvetsariyaning "Riter" firmasining quvvati 2597 yigiruv urchuqli avtomatik tizimini sotib oldi. Shvetsariya Konfederatsiyasi bilan iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirish maqsadida "O'zbekiyengilsanoat" uyushmasiga qarashli "Buxoroteks" aksionerlik jamiyati bilan "Mashiniyenfabrik Riter AG" firmasi o'rtasida uskunalarni montaj qilish va ishga tushirishni 1997 yil aprel oyida tamomlash sharti bilan ip ishlab chiqaruvchi uskunalarni yetkazib berish va montaj qilishga qiymati 5.04 mln Shveysariya franki hisobida kontrakt tuzildi.

"Buxoroteks" hissadorlik jamiyatida Shvetsariyaning "Riter" firmasining avtomatik yigiruv tizimi o'rnatilishi korxonada yuqori sifatli dunyo andozalari talabiga javob beradigan mahsulot ishlab chiqarish bilan birga barcha mashina va qurilmalar, shaxsiy kompyuterlar bilan jihozlangan va jarayonlar avtomatik boshqariladi. [1]

Riter avtomatik tizimidagi toy paxta titgichning unumdorligi 1-navli tolani qayta ishlashda 1200 kg/soat, 2-navli tolalarda esa 800 kg/soat bo'lib, unda uzunligi 60 millimetrgacha bo'lgan barcha turdagi tolalarni qayta ishlash tavsiya etiladi. Qayta o'rash avtomatlari Germaniyaning "Shlyafgorst" firmasida ishlab chiqarilgan. Ahamiyatlisi shundaki, ipni qayta o'rashda ularning uzilish ehtimolini ancha kamaytiradi. "Buxoroteks" hissadorlik jamiyatiga keltirilgan Shveysariyaning "Beninger" firmasi dastgohi to'qimachilik sanoatidagi piltalab tandalash, Germaniyaning "Nokvo" firmasi dastgohi guruhlab tandalash, "Zucker muller" firmasi dastgohi ohorlash mashinalari ishlab chiqarilgan mahsulotning sifatini yaxshilashni ta'minlaydi.

2007 yilda Buxoro viloyati Qorako'l tumanida Qorako'lteksning bo'sh yotgan binolaridan birida trikotaj matolaridan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan "Poykent Tekstil" xorij bilan hamkorlikda to'quvchilik korxonasi tashkil etildi. Xomashyodan ko'ra tayyor mahsulot ishlab chiqarish korxonasi uchun ko'proq foyda keltirishini hisobga olgan holda tashkil etildi. Qorako'lteks AQSh bilan hamkorlikda xomashyo tayyorlash bilan bir qatorda 2007 yil halqaro moliya korparatsiyasining 1,5 million AQSh dollari miqdoridagi sarmoyasi "Asaka" davlat aksiyadorlik tijorat banki orqali qayta moliyalashtirilib jalb qilinishi hisobiga eng zamonaviy, yiliga 1200 tonnagacha mato to'qish va bo'yash dastgohi va uskunalari bilan jihozlangan yirik sex ishga tushirildi. [6] Bu to'qimachilik korxonasi xalqaro talablarga mos keladigan trikotaj buyumlarni ishlab chiqarishni samarali yo'lga qo'ya boshlagan. 2007 yil "Poykent Tekstil" korxonasi direktori Qayum Hamdamovning takidlashicha, bundan bir necha yil ilgari "Qorako'lteks" moliyaviy muammolar sababli ancha murakkab ahvolga tushib qolgan. Aylanma mablag'i yetarli bo'lmasligi sababli to'qimachilik korxonasining o'zlashtirish darajasi pasayadi.[5] Paxta tolasining yuqori resurslaridan oqilona va samarali foydalanish, shuningdek sifatli, eksportga yo'naltirilgan, xalqaro standartlarga javob beradigan to'qimachilik sanoatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori ko'plab to'qimachilik korxonalariga juda katta madad bo'ldi. "Poykent Tekstil"ga Respublika qarori bilan bosqichma-bosqich qoplash sharti bilan kredit berildi. 2009 yil mahsulot ishlab chiqarish 105 foizga etkazildi. 2010 yilda MDH mamlakatlari va boshqa xorijiy davlatlarga 1,5 million AQSh dollari miqdorida mahsulot eksport qildi. Biznes rejasida loyiha bo'yicha 55 foizdan 70 foizga o'zlashtirish rejaga belgilab qo'yilgan. 2007 yilda davlatdan olgan kreditni 2017 yilga qadar o'zaytirilgan holda shartnoma tuzilgan. Korxonada 400 dan ortiq yigiruvchilar, to'quvchilar, chilangaru-ustalar mehnat qilmoqda.

"Textiles Spektrum Kolors" (TSK) mas'uliyati cheklangan jamiyat bo'lib o'zbek-ingliz to'qimachilik qo'shma korxonasi hisoblanadi. TSK qo'shma korxonasi "Romitan - Teks" ishlab chiqarish maydonlari bazasi asosida tashkil etilgan. "Textiles Spektrum Kolors" mas'uliyati cheklangan jamiyat 2007 yil 3 dekabrda tashkil etilgan. O'z ishlab chiqarish faoliyatini esa 2008 yil may oyidan boshladi.[6]

"Textiles Spektrum Kolors" jamoasi tomonidan doimiy ravishda ishlab chiqariladigan mahsulot turlari, tuzilishi, ornamentlari rivojlantirilib, takomillashtirilib kelinmoqda. Korxonadagi tikuv sexida turli choyshablar to'plami, sochiqlar ishlab chiqarilmoqda. Bundan tashqari buyurtma asosida turli xildagi chixol-qoplar, erkaklar ko'ylagi va boshqa turdagi kiyimlar tikiladi. Korxonada ishchi va muhandislarning shiori yuqori sifatli mahsulotlari bilan Jahonni nufuzli davlatlari bilan hamkorlikni davom ettirish.

O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimovning 2010 yil 15 dekabrda "2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi hamda 2011 yil 30 martdagi "To'qimachilik sanoati korxonalarini jadal rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha choralar to'g'risida"gi PQ-1512-son qarorlari mamlakatimiz jumladan, Buxoroda to'qimachilik sanoat tarmog'ida juda keng imkoniyatlar eshigini ochib berdi.[2] Buxoro viloyatida loyiha qiymati 2,8 mln. AQSh dollarlik "Buxoro Energo tekstil" korxonasi ishga to'shirildi. "O'zbekengilsanoat" aktsiyadorlik jamiyati tomonidan sobiq "Buxoroteks" AJ negizida tashkil etiladigan "Indorama Indast LTD" O'zbekiston - Singapur qo'shma korxonasi o'z loyihasi bilan ishlamoqda. Buxoro viloyatida faoliyat ko'rsatgan "O'zbekengilsanoat" AJ tasarrufidagi korxonalar respublika miqyosida engil sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish holati viloyat bo'yicha to'qimachilik va engil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 2016 yilda 2010 yilga nisbatan 321.4 foizga o'sishi kuzatildi.

O'zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan asosiy vazifalar mamlakatimiz iqtisodiyotini dunyo mamlakatlari ichida ustuvor mavqeiga ega bo'lishini, jahon bozorlaridagi global raqobatda erkin harakatlana olishi va ishlab chiqarishni jahon bozorini hisobga olgan holda tashkil etishga qaratilgan. Mamlakat hududlarida yengil sanoat

sohalarini rivojlantirish, ularning hudud iqtisodidagi o'rni va ahamiyatini oshirish, aholi talab va ehtiyojlarini milliy ishlab chiqaruvchilar mahsulotlari bilan qondirish, ushbu tarmoqlarda band bo'lgan aholining turmush darajasi va farovonligini oshirish kabi vazifalarni ado etish dolzarbligi yanada oshmoqda. [3]

2017 yil 14-dekabrda qabul qilingan "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonga muvofiq, O'zbekiston to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati korxonalarini uyushmasi tashkil etildi. Bunda davlatning tartibga solish va xo'jalik funksiyalarini o'z ichiga olgan "O'zbekengilsanoat" AJ tugatildi va to'qimachilik sanoati korxonalarini "O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasi tuzildi. [3] Tekstil kompaniyalari ilk bor paxtani to'g'ridan-to'g'ri fermerlardan sotib oladigan bo'ldi. "O'zbekengilsanoat" kompaniyasi o'rni "O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasi egalladi. Mahalliy to'qimachilik sanoati korxonalarini tomonidan fermer xo'jaliklari va boshqa qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilaridan paxta xom ashyosiga to'g'ridan-to'g'ri buyurtma berish tizimi joriy etildi. Paxta-to'qimachilik klasterlari tashkil etildi.

Keyingi yillarda olib borilayotgan ana shunday oqilona islohotlar samarasi o'laroq, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik ta'minlanayapti, bu, o'z navbatida, xorijlik investorlarning qiziqishini yanada kuchaytirmoqda. Natijada dunyoga mashhur ko'plab yirik kompaniyalarning faoliyati kengayib, iqtisodiyotning turli sohalarida samarali ish olib borilmoqda.

Buxoro shahrida ishga tushirilgan "Buxoro kotton tekstil" qo'shma korxonasi ana shunday ilg'or ishlab chiqarish ob'ektlaridan biridir. E'tiborlisi, investorlar "Paraglide Ltd" (Buyuk Britaniya) va "Kompaniya Petromaruz" (Rossiya) kompaniyalari mazkur loyiha doirasida tayyor to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishgacha bo'lgan jarayonni qamrab oladigan paxta-to'qimachilik klasteri tashkil etish yuzasidan amaliy tadbirlarga kirishgan.[7] Buxoro shahrida 2017 yil 29 mayda "Buxoro kotton tekstil" korxonasi tashkil etildi. 2019 yil 75 mln AQSh dollarida investetsiya o'zlashtirilgan. 30 mln 454 ming AQSh dollari "O'zbekiston tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining", 4153 ming AQSh dollari O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy aloqalar milliy bankining imtiyozli kreditlari tashkil etadi. AQSh, Belgiya, Fransiya, Germaniya va jahonning etakchi korxonalarida ishlab chiqarilgan eng zamonaviy asbob-uskunalarini keltirilgan.

2019 yil aprel oyida ip-kalava ishlab chiqarish bo'limi tomonidan Portugaliya, Polsha, Shvetsiyaga 5 ming AQSh dollariga teng ip-kalava yetkazib berilgan. Eksport salohiyati oshirilgan. 954 nafar ishchi va mutaxassislar faoliyat yuritmoqda. Yiliga 24 turdagi ip-kalava ishlab chiqadi. Buyuk Britaniya qo'ashma korxonasi asosida tashkil etilgan "Buxoro kotton tekstil" sanoat to'qimachilik va ishlab chiqarish korxonasi Buxoro viloyatida ortiqcha ish urinlari tashkil etish uchun sanoat tarmog'ini kengaytirmoqda. 1000 kishining bandligi ta'minlanishi ko'zda tutilgan korxonada 6,5 ming tonna ip-kalava, 10 ming kvadrat metr jinsi mato va 1,5 million dona tayyor tikuvchilik mahsulotlari ishlab chiqariladi.

**Xulosa.** Bugungi kunda Buxoro to'qimachilik sanoati milliy iqtisodiyotning strategik jihatdan muhim va jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. Ishlab chiqarishga yangi texnologiyalarini joriy etish, yuqori zamonaviy uskunalardan samarali foydalanish, to'qimachilik sanoat korxonalarida yuqori mehnat unumdorligini, sanoat ishlab chiqarishining ko'payishini ta'minlaydi va yangi ish o'rinlarini ta'minlaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси биринчи Президентининг 2010 йил 15 декабрдаги "2011-2015 йилларда Ўзбекистон Республикаси sanoatini rivojlantirishning ustuvor iynalishlari turg'risida" gi PQ-1442 – sonli qarori. www.lex.uz
2. Ўзбекистон Республикаси биринчи Президентининг 2011 йил 30 мартдаги "Tukimachilik sanoati korxonalarini jadal rivojlantirishni raqbatlantirish buyicha kushimcha choralar turg'risida" gi PQ-1512 - sonli qarori. www.lex.uz
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2017 yil 14-dekabrda qilingan "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5285-son farmoni
4. Murtazo Rahmatov. (Kompaniya Petromaruz, Rossiya) direktorlar kengashi raisi//Ishlab chiqarish klasteri innovatsion iqtisodiyotga o'tishning muhim bosqichidir Xalq so'zi 2017yil 28 mart
5. Bankrot korxonada qudratli MCHJ ga aylantirildi. // Vuxoronoma 2019 yil, 17- aprel
6. Жалилов Ж. Ф. // "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. № 6, ноябрь-декабрь, 2017 йил, 3-бет.
7. Erkin Yodgorov // Qorako'teks qad rostlamoqda. Buxoronoma, 2010, 15-sentyabr

УЎК 93/94

### ҚОРАҚАЛПОҚ ФИЛЬМЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

(Овоз режиссёрлиги тарихидан таҳлиллар)

*М.Б. Абдреймов, ўқитувчи, Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти Нукус филиали, Нукус*

**Аннотация.** Мақолода Қорақалпоғистонда фильм суратга олиш жараёнларининг тарихий босқичлари ва "Қорақалпоқфильм"нинг шаклланиш жараёнлари ҳақида сўз юритилади. Қорақалпоқ кинематография тарихида ilk ovozli қорақалпоқ фильмларининг ўзига хос хусусиятлари таҳлил қилинган. Қорақалпоғистонда кинематография санъатининг дастлабки фильмлари ва унда ишлатилган овоз режиссурасининг унсурлари ҳақида фикр-мулоҳозалар юритилган. "Қорақалпоқфильм"нинг тарихини тадқиқ этиши юзасидан таклиф ва тавсиялар берилган.

**Калит сўзлар:** Қорақалпоқфильм, овоз, режиссура, ижодий жараён, фильм, хусусият, кинематография.

**Аннотация.** В статье рассматриваются исторические этапы кинопроизводства в Каракалпакстане и становления «Каракалпакфильма». Анализируются особенности первых в истории каракалпакского кинематографа звучания каракалпакских фильмов. В Каракалпакстане обсуждались первые фильмы кинематографии и использованные в них элементы звукорежиссуры. Были внесены предложения и рекомендации по изучению истории «Каракалпакфильма».

**Ключевые слова:** Каракалпакфильм, звук, режиссура, творческий процесс, фильм, художественный фильм, кинематография.

**Abstract.** The article deals with the historical stages of filmmaking in Karakalpakstan and the formation of “Karakalpakfilm”. The peculiarities of the first sounding Karakalpak films in the history of Karakalpak cinematography are analyzed. In Karakalpakstan, the first films of cinematography and the elements of sound directing used in it were discussed. Suggestions and recommendations were made to study the history of “Karakalpakfilm”.

**Keywords:** Karakalpakfilm, sound, directing, creative process, film, feature, cinematography.

1931 йили 1 июнда СССРда биринчи овозли бадий фильмнинг суратга олинishi барча Иттифок давлатларнинг кинематографияси ривожига туб тарихий ривожланиш йўлини бошлаб берди. СССР кинематографияси тарихида биринчи овозли бадий фильм 1928 йили тарқатилиб юборилган “Межрабпом-Русь” акциядорлик жамияти негизида шу йили ташкил этилган “Межрабпомфильм” томонидан суратга олинган. У “Ҳаётга саёҳат” (Путёвка в жизнь, 1931, 1 июнь) фильмидир. Фильм режиссёри Николай Владимирович Экк ҳисобланади. Кино драма жанрида бўлиб, бастакор Яков Столяр мусиқа басталаган. Фильмда овоз оператори вазифасини бажарган ва бу касбни тарих зарбарақларига муҳрланган Евгений Георгиевич Нестеров бўлди.

У 1910 йили 18 март куни Томск шаҳрида дунёга келади. 1936 йилдан бошлаб “Ленфильм”да овоз оператори бўлиб ишлай бошлаган. Нестеров рус кино тарихида ўчмас из қолдирган овоз режиссёри ва ижодкор арбоб саналади. Овоз режиссёрлиги соҳасида эллик олти йиллик касбий тажрибага эга бўлиб, қирқ етти фильмда овоз режиссёри бўлиб ишлади. Унинг 1936 йили “Болтиқ бўйи депутати” (Депутат Балтики), 1938 йили “Комсомольск”, 1939 йили “Ўқитувчи” (Учитель), 1941 йили “Корзинканинг саёҳати” (Приключения Корзинкиной), 1955 йили “Икки капитан” (Два капитана), 1962 йили “Биринчи тўп” (Первый мяч), 1967 йили “Ҳеч ким сезмаган воқеа” (Происшествие, которого никто не заметил), 1974 йили “Нотаниш меросхўр” (Незнакомый наследник), 1976 йили “Бергамодан Турффальдино” (Труффальдино из Бергамо), 1983 йили “Мен сени унутмайман” (Я тебя никогда не забуду) в.х. фильмлари томошабинлар ва санъатшунос олимлар томонидан эътироф этилган. Евгений Георгиевич Нестеров шу билан бирга, йигирма тўққизта хориж фильмларини дубляж қилишда овоз режиссёри сифатида ишлаган.

Жумладан: 1963 йили “Севади севмайди” (Любит – не любит, “Таджикфильм”), 1956 йили “Яширин кайфият” (Скрытые настроения, Япония), 1972 йили “Париждан ўғирлаш” (Похищение в Париже, Франция), 1984 йили “Ҳамма қобилиятли” (У всех таланты, ЧССР) ва кўплаб фильмлари ҳали ҳам экрандан тушмасдан томошабинлар кўнглида илиқ таассуротлар билан қарши олинган.

СССР худудларда кинематография соҳасини ривожлантириш мақсадида 1925 йил 4 июнда Тошкентда “Шарқ юлдузи” номи билан илк киностудия ташкил этилди. 1936 йилдан эса “Ўзбекфильм” деб атала бошлаган. Орадан йиллар ўтиб иккинчи жаҳон уруши йиллари даврида студия “Тошкент киностудияси” деб номи қайта ўзгартилган. Ва ниҳоят 1958 йилдан қайтадан “Ўзбекфильм” деб ўзгартилган.

Қорақалпоғистонда биринчи Ўзбекфильм томонидан суратга олган фильми “Орол балиқчилари” (Рыбаки Арала) ҳисобланади. Қорақалпоқ кинематография фильмининг энг дастлабки фильмининг режиссёри Юлдаш Агзамовдир. Мазкур фильм 1958 йили суратга олинади. Фильмда овоз оператори бўлиб, Г. Сенчило фаолият кўрсатган.

Иккинчи овозли фильм эса Иккинчи жаҳон уруши даврида Қорақалпоғистон Республикаси фуқароларига Ватанпарварлик ҳиссини ошириш мақсадида 1941 йили куриб кетаётган Орол денгизи ва Қорақалпоқ ҳаёти ҳақидаги фильмдир.

Фильмнинг воқеалар ривожига сабабчиси ва асосий персонажи ўша даврдаги колхоз раисининг қизи, тарих фани ўқитувчиси Айжамалдир. Айжамал илм-фан соҳасида ўз йўлини танлаган замонавий фикрлайдиган давр аёли бўлиб, жамиятда аёлларнинг ижтимоий-маънавий фаоллигини янада оширишни ўз олдига мақсад қилган. Айжамал фан номзоди бўлиш ниятида анча илмий-амалий ишларни амалга оширади. Диссертациясининг мавзуси “Қорақалпоқ инқилобий дунёқарашини шакллантиришда рус халқининг роли” эди. Фильмнинг ғоявий хусусияти ўша давр мафқурасини тараннум этишни ўз олдига мақсад қилган. Диссертация ҳимоясида 1950 йил олдин содир бўлган воқеалар сўз этилади.



Яъни 1905 йили инқилоб иштирокчиси Лейтенант Григорий Бутаков ўз ҳаёти эвазига Алексеевни қутқаради. Инқилобий балиқчи, Айжамалнинг бобосининг озод бўлишига ёрдам беради. Айжамал диссертациясини муваффақиятли ҳимоя қилиб, Мўйноқга қайтади.

У билан бирга колхозга Александр Бутаков ҳам келади ва балиқчилар орасида тез обрў эътибор қозонади. Айжамал билан Алексеевнинг ўртасида севги пайдо бўлади. Балиқ овлаш кемаси капитани маҳаллий аҳоли вакили Ерناзар Қулимбетов ҳам Айжамални яхши кўради ва Алексеевни хуш кўрмаслигини кўрсатади. Ерназар Қулимбетов Оролга қимматбаҳо юкни етказиб бериш вазифасини олади. Фильмнинг кулминацион нуқталари ҳам ўшандан бошланган. Бутаков парвозга боради. Денгизда бирданига тўфон кўтарилади. Шунда кемадаги экипажни қутқариш учун кемада оғир юкларни ташлашингиз керак деган хабарни олади. Бироқ Қулимбетов уни рад этади. Кейин Бутаков масъулиятни ўз зиммасига олиб юкларни ташлашни буюради.

Шу тариқа одамларнинг ҳаётини сақлаб қолади. Одамлар ундан миннатдор бўлади. Қиссадан ҳисса, Айжамал билан Семён Алексеевлар ўз мақсадларига эришади. Бу фильмнинг қорақалпоқ киносиди тутган ўрни ниҳоятда каттадир. Ҳаттоки, халқаро кинематографиясида қорақалпоқ кино санъатининг таъсирини сезиларли даражада ифодалайди. Фильм воқеалари Орол денгизининг тўлиб турган пайтида олинганлиги сабабли, ундаги кино тасвир тарихнинг олтин зарварақларида ёзилиб қолганлиги ҳозирги кунда қорақалпоқ халқи учун қувонарли ҳолат ва тарихнинг бир акси. Фильмда овоз режиссёри Г. Сенчило Оролга овоз бериб, сайқаллантириб унинг шиддатини янада жонлантира олган. Орол табиати ва қушлар, тўлқинларнинг овози синхрон бўлиб, кадр билан ўзгача визуалликни ифода қилган.

Фильмнинг 19:58 дақиқасида инқилобчилар учрашуви эпизодида денгиз кампашзорлар орасидан қайиқларда сузиб келишади. Қайиқлар сузишда эшак эмас, узун ёғочлар ёрдамида сузадилар. Сувнинг овози секин ва шу қадар аниқ берилганки овоз режиссёри бу эпизодни драматургия воқеасидан келиб чиқиб тўғри ва қизиқарли қилиб амалга ошира олган. 20:26 дақиқасида эса Оролнинг тўлқини қирғоққа келиб урилишининг овози, бу худди ҳозирги замон техникаси ёрдамида ёзиб олингандек таассурот қолдиради. Фильмнинг 25:32 дақиқасида инқилобчилар Семёновични таниб, унинг қочганини сезиб кўнғироқ чаладилар. Кўнғироқ овозидан сўнг мусиқа билан аскарлар қочоқни ушлагани чиқишади, шу жойидаги мусиқа томошабиннинг руҳий покланиш ҳолатига киришига таъсир қилгани билинади. Овоз режиссёри бошқа миллатнинг вакили бўлгани билан, унинг маҳорати шу даражадаки, маҳаллий халқнинг этномаданиятини таҳлил қилиб, овоз унсурларидан профессионал даражада фойдаланган.

Фильмда милтиқдан ўқ отиш эпизодларида ҳам ўзига хос касбий маҳорат мавжуд бўлиб, аynи фильмнинг 26:49 дақиқасида қувлаш жараёнида ўқ отишма жараёнлари бўлади. Таҳлилий натижаларимга кўра, қорақалпоқ кино санъатида ҳозирга қадар бунақа жангари сахналар жуда кам ишлатилган экан.

Энди, мустақилликка эришгандан кейин жангари “Кўрғон” фильми суратга олинган, бу ҳақида кейинроқ тўхталиб ўтаман. “Орол балиқчилари” фильмида асосан кулминацион воқеалар денгизда бўлиб ўтгани учун овоз операторига жуда қийин масъулиятли иш юклатилганлиги маълум. Масалан, фильмнинг 31:24 дақиқасида кемадаги суҳбат эпизодида кема сузиб келаётган пайтидаги сув овози жуда табиий ҳисобланади. Бу овозни ўша даврдаги овоз оператори учун жуда қийин кадр бўлганлиги аниқ. Фильмнинг 55:35 дақиқасида эса денгизнинг сатҳи кўтарилиши эпизодида овоз режиссёрининг маҳорати таҳсинга лойиқдир. Денгиз бўйида истиқомат қилувчи аҳоли турар уйларига сув тошади ва қаттиқ шамол туради. Орол атрофидаги нарсаларни ҳаммасини учира бошлайди. Мазкур сахнадаги шовқинли овозлар фильм драматургиясининг бош ғоясини очиб беради.

Мазкур кадрдаги лавҳаларни суратга олиш қанчалик қийинчилик туғдирган бўлса, унинг овоз ёзиш жараёнлари ҳам шу даражада қийин бўлганлиги билинади. Фильмда худди шундай кўп ижодий меҳнатни талаб қиладиган лавҳалар мужассам. Фильмнинг 1:01:06 дақиқасида Алексеев қайиқдагиларни қутқариш эпизодида табиат ҳодисалари тўфон, ёмғир орасида кўринар-кўринмас ҳолатда йигитларни қутқариб, қаҳрамонлик кўрсатиш пайтида бир қанча шовқинларни бир яхлит қилиб овоз режиссёри кадрга мослаштириб овоз ярата олган. Бундан бошқа ҳам Орол муаммоси билан Қорақалпоғистон Республикасида кўплаб ҳужжатли ва бадиий, илмий-оммабоп фильмлар суратга олинди.

Қорақалпоқ киносиди яна бир фильм 1981 йили Т. Қайипбергеновнинг “Итоатсиз” (Непокорная) фильмидир. Бу фильмда бутун бир миллатнинг ҳаёти акс этган. Фильм сценарийсини Григорий Марьяновский ва Тўлепберген Қайипбергеновлар ёзган. Анатолий Кабулов режиссёрлик қилади. Фильм воқеаси: 1925 йили совет ҳукумати аъзолари узок қорақалпоқ қишлоқларига келади.

Улар келган пайтда фильм қаҳрамонлари Туримбет ва Жумагул бир-бирларига кўнгил кўйишади. Лекин, кейинчалик эски аҳд билан оила қуришни хоҳламай қолади. Ёш хотин уйдан қочиб кетади. Кино бошланишида Жумагулнинг чанқовуз чалиб кум тепалиқда ўтиргани ва акустик ҳолатни дала овози, даладаги қушлар овози, шамол овози билан бирга бир яхлит чанқовуз овози моҳирона

уйғунлаштирилган. Ундан кейин Жумагулни кидириб келаётган қизчанинг овози ҳам моҳирона ифодаланган.

Тан олиш керакки, ўша даврларда овоз режиссёрлик касби ҳозирги пайтга қараганда техник жиҳатдан ўзига яраша қийин бўлган. Овоз режиссурасидаги ҳамма визуал маҳсулотлар лентага ёзилган бўлиб, монтаж ишлари ҳам лентада ишланган. Ҳозирда бўлса рақамли программада қирқкиш ёки улаш ҳеч қандай қийинчилик туғдирмайди. Фильм бошланишидан воқеалар кескин тус олиб, одамни дарров ўзига жалб қилади. Фильмнинг таъсирини ошираётган яна бир элемент бу фильмдаги мусиқанинг кучи ва овоз режиссёрининг касбий маҳоратидир. Уша даврларда “Қорақалпоқ киноси” деган пайтда овоз режиссёрлари учун қулоғига биринчи бўлиб эшитиладиган шовкин Қорақалпоғистон ерларидаги қадамларнинг ўзига хослиги ҳисобланади. Уларнинг хусусияти шундаки, қорақалпоқ ерлари қизил кум ва қора тупроқлардан иборат. Бундаги муҳитда фильмнинг географик хусусиятлари ҳам овоз режиссурасига катта таъсир қилади. Шу билан бирга, маҳаллий табиаттаги ҳайвонот дунёсининг айримлари яқин республикаларда учрамайди. Маҳаллий иншоотлар ва аҳоли истиқомат қиладиган миллий ва ўша даврдаги воқеалар ва қаҳрамонларнинг диалоглари қора уйда бўлиб ўтади. Бу дегани қора уйнинг акустик қурилмаси жуда юмшоқ овоз тарқалиши кам доирадир. “Йтоатсиз” фильмининг 5-дақиқасида Жумагул уйга қайтган чоғида ола мўйноқ дуторининг жарангдор овози эшитилади. Бу чолғу бошқа халқларда йўқ. Маҳаллий чолғу ҳисобланади.

Мусикадан бундай бадиий фон тарзида фойдаланиш тажрибаси овозли кинонинг дастлабки босқичида ҳам сақланиб қолган. Кейинчалик вақт ўтиши билан кинога бастакор жалб қилинди, улар бадиий фильмлар учун махсус мусикалар яратадиган бўлдилар. Мусиқа кинода энг муҳим ифода воситаларидан бирига айланди, фильмларнинг мазмунини ҳам, қаҳрамонлар образларини ҳам очиб беришга кўмаклашди. Мусикадан кино санъатининг барча турлари ва жанрларида фойдаланиб келинмоқда [1: 5].

Фильмнинг бу лавҳасида Жумагулнинг тўй тараддуди бошланган бўлади “Қорақалпоқ халқ мусикаларида халқнинг бошидан ўтган тарихий воқеалар, дастурлар ва ёрқин келажакка талпинган Ватанига бўлган муҳаббати содиқлиги номён бўлган” [2: 8] – дея таъкидлайди В. Шапраников маҳаллий аҳолининг ўзига хос хусусиятларини ўрганган ҳолда.

В. Шапраников “Қорақалпоқ халқ кўшиқлари” асарида халқ мусикаларини теран ўрганиб, уни тоифаларга бўлган ва у қорақалпоқ мусикаларини кўп қиррали бўлганлиги, унинг колоритининг ранг-баранглиги ҳамда ҳар хил ритмга бойлигини ҳисобга олган. Уни махсус тизимга жойлаштиришга ҳаракат қилган. Профессор Владимир Беляев ўзининг илмий тадқиқотларида ўзбек, туркман халқ мусикаларининг қорақалпоқ мусикаси билан яқинлиги ҳақида фикрлар билдиради. Шунингдек, қорақалпоқ халқ мусикаларининг оригиналлиги, миллийлиги ва ўзига хос хусусиятларига алоҳида аҳамият берган. Масалан: лавҳаларда интонациянинг кўп бўлиши, орттирилган секундда интервалнинг кам қўлланиши ва яна бошқа да тафовудларнинг бор эканлигини атаб ўтган. Режиссёр Анатолий Кабулов бу ишларни чуқур таҳлил қилган. Чунки, фильмда маҳаллий хусусиятлар ва кўшни халқлардан тафовудлар сезилиб туради. Бу эса бошқа халқларнинг фильмга қизиқишини оширади.

Мавзу бўйича олиб бораётган илмий тадқиқотлар натижасида маълум бўлди. 1936 йил чоп этилган “Қизил Қорақалпоғистон” газетасининг 29 апрелдаги (чоршанба) сонидида қуйидагича маълумот берилган: “Қорақалпоғистон Республикасининг кино трестининг ва унинг ёнидаги местком биринчи май байрам кунини турли муваффақиятлар билан қарши олиш ва тайёргарлик ишлари биринчи майга қадар ёзги кинотеатрнинг фаолиятини йўлга қўйиб, очилиш кунидида овозли кинога 2500 томошабин, болалардан 1200, колхоздан 300 одам, ҳаммаси бўлиб 4500 томошабин қатнашиши керак, дея ёзилган.

Шунингдек, ҳомийликга олган Шораҳандаги болалар уйига кино кўйиб бериш, ёзги кинони лозунка, портретлар билан безатиш, биринчи ва иккинчи май кунини очилган ёзги кинотеатрда овозли “Бақитлы Жўгинис” (Бахтли Юнус) номли кинони намойиш этишмоқчи” [3:4] деган ёзувлар газета саҳифаларига муҳрланган. Қорақалпоғистон Республикасининг халқи ўша даврлардан овозли киноларни томоша қилганлиги ўз тасдиғини топди.

1970 йили 19 февралда Қорақалпоқ халқининг маданият ва санъат соҳаси яна бир поғонага кўтарилиб тарихий лаҳзаларни кадр орқали яна қайта тиклаш ва замон билан ҳамнафас бўлиб, янгилар ва ривожланишлар даврини бошлайди.

Кинематография бўйича давлат кўмитасининг (Госкино УзССР) №45 буйруғи асосида Нукус шаҳрида Ўзбекистон илмий-оммабоп ва ҳужжатли фильмлар киностудиясининг Қорақалпоғистон филиали ташкил этилади.

1970 йил Ўзбекистон илмий-оммабоп ва ҳужжатли фильмлар киностудиясининг Қорақалпоғистон филиали учун дастлабки қадам бўлди. Киностудия жамоаси ўзининг мавжуд чекланган имкониятига қарамадан ўзига топширилган режа кўрсатгичларини муносиб бажарди. Шу йилнинг ўзида республика кинотеатрларида қорақалпоқ тилига таржима қилинган “Она муҳаббати” (2 қисимли), “Судланмасин”, “Хотинининг номуси”, “Ўсмиринлар” бадиий фильмлари намойиш этилди. Режиссёр Фулом Салихов “Ҳамроз” фильмининг дубляжини якунига етказди. Филиал жамоаси,

Тошкент киностудияси ёрдамида Қорақалпоғистоннинг тарихий ҳаётини тасвирлайдиган “Қорақалпоғистон” киножурналининг махсус 4 та сонини тасвирга олиб, экранларга олиб чиқишга эришди. Шундай қилиб, киножурналнинг ҳар хил сонларида меҳнат қаҳрамони, шифокор Оразимбет Халмуратов, Қорақалпоғистондан биринчи СССР халқ артисти Ойимхон Шамуратова, чимбойлик меҳнат қаҳрамони, пахтакор Амангул Сапарбаева, Ўзбекистон санъат арбоби, таниқли рассом Қидирбой Сайпов ва бошқалар тўғрисида сюжетли фильмлар олишади. Бундан ташқари “Амударё шоликорлари” хужжатли фильмини тасвирга олиш ишларини бошлайди. Бу қорақалпоқ миллий киносининг илк қадамлари эди. Қорақалпоқ кинематографиясини бойитиш ва илк фильмларни оммага кўрсатиш ва соҳани ривожлантириш бугунги кундаги энг долзарб муаммолардан бири. Чунки, қорақалпоқ илк фильмлари Россия Федерациясининг архивларида сақланмоқда. Собиқ иттифоқ даврида олинган фильмларни чуқур илмий татбиқ этиш зарур. Бу соҳанинг фундаментал асосини яратишда катта аҳамият касб этади. Киношунос ва драматург М. Низанов бу ҳақида қуйидагича таъкидлаб ўтган эди: “Москвадаги Красногорск киноархивида Қорақалпоғистон ҳаётидан 1928 йилдан 1939 йилларгача олинган кинокадрларни кўриб, қаттиқ қувондим. Аммо, уларнинг режиссёрлари ҳам операторлари ҳам ўша даврдаги марказий студиялардан келган бўлиб, эски иттифоқ кинохроникаси мавзуларида туширилган эди. Улардан нусха кўчириб олишга рухсат олдим, лекин иш юзида моддий имкониятим бўлмади” [4: 6].

Биз соҳани яъни қорақалпоқ кинематографиясининг тараккий этишида бу фильмларни олишимиз, ўрганишимиз, таҳлил қилишимиз зарур. Соҳада маҳаллий олимлар томонидан яратилган асарлар ниҳоятда камнамо. Шунини ҳисобга олиб қуйидаги таклифларни билдираман:

- Қорақалпоқ кинематографиясининг ижодий-тарихий ўтмишини чуқур ўрганиш;
- Қорақалпоқ кинематография тарихи бўйича илмий ўқув-методик қўлланмаларни ишлаб чиқишни йўлга қўйиш ва муаллифларни рағбатлантириш;
- Мазкур соҳада Россия Федерацияси билан илмий-тадқиқот ишларини йўлга қўйиш, манбалар алмашишни таъминлаш ва ривожлантириш;
- Қорақалпоқ кино санъатида овоз режиссёрларининг ишларини баҳолаш учун танловлар ўтказиш мумкин.

#### ҲОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Абулқосимова Х. Кино санъати асослари.-Тошкент.-“Ўзбекистон миллий энциклопедияси”.2009.-96 б.
2. А.Надинова. Қарақалпоқ музика тарихи. Ташкент, 2018, 384 бет.
3. Газета “Қызыл Қарақалпақстан”. 1936 йил, 29 апрель, №99 (1348).
4. Низанов М. Кино қалай жаратылды. – Некис, “Билим” 2014. 52 б.

УЎҚ 902

### ХІХ АСР ОХИРИ - ХХ АСРНИНГ БОШЛАРИ ХИВА ХОНЛИГИДА СОЛИҚ МАЪМУРИЯТИ А.Э. Абдухалилова, таянч докторант, Тошкент Давлат Шарқшунослик Университети, Тошкент

**Аннотация.** Ушбу мақолада Хива хонлиги Қўнғиротлар сулоласи даврида солиқ тизими ва амалиёти, солиқ йиғиши жараёнида хонлик мансабдорларининг ўрни ва роли кўрсатилиб берилди. Солиқ маъмуриятчилигида расмий хужжат юритиши ишлари жуда яхши ташкил этилганлиги тадқиқотга жалб этилган Хива хонлиги архив хужжатлари мисолида кўрсатиб берилди.

**Калим сўзлар:** Солиқ, солиқ маъмуриятчилиги, закот, солгут, ушр, девонбеги, қўшбеги, меҳтар, масжид қавми, биқазу, тоза, санаг дафтари, кесир пули, имом пули, божмон.

**Аннотация.** В этой статье были рассмотрены проблемы и процессы системы налогообложения во время династии Конгиратов в Хивинском ханстве, роль должностных лиц ханства в процессе сбора налогов. На примере архивных документов хивинского ханства, привлеченный в исследовании была проиллюстрирована хорошо организованная работа с официальной документацией в налоговом управлении.

**Ключевые слова:** Налог, налоговое администрирование, закот, налог, десятина, девонбеги, кушбеги, меhtar, биказу, тоза, санаг дафтар, кесир пули, имам пули, божман.

**Abstract.** This article examined the problems and processes of the taxation system during the dynasty of the kongirats in the Khanate of Khiva, the role of officials of the Khanate in the process of tax collection. Well-organized work with official documentation in the tax administration was illustrated by the example of archival documents of the Khanate of Khiva involved in the study.

**Keywords:** Tax, tax administration, zakot, solgut, ushr, devonbegi, kushbegi, mehtar, bikazu, toza, sanag daftar, kesir puli, imam puli, bozhman.

Хива хонлигида ҳукмрон сулола иқтисодий сиёсатининг асосий соҳаларидан бири солиқ тизими бўлиб, солиқлар ва йиғимлар давлат шакли ва ҳокимият тизимидан қатъи назар хазинани тўлдиришнинг асосий манбаси ҳисобланади. Солиқ солиш жараёнини ҳуқуқий меъёрлар билан тартибга солмасдан,

давлат ва жамиятнинг барқарор мавжудлигини таъминлаш мумкин эмас. Шу сабабдан солиқ маъмурияти ва функционал вазифаларини тадқиқ этиш долзарблик касб этади.

Хива хонлигида солиқ амалиётида маълум бир тоифадаги давлат амалдорларигина эмас, балки хонлик мулозимларининг деярли барчаси иштирок этганлар. Улар ўзларининг асосий хизмат вазифаларини бажариш билан бирга, солиқ тизимида ҳам ўзларига топширилган вазифаларни амалга оширганлар[1:125].

Хива хонлигида асосий солиқ йиғувчилар девонбеги, қўшбеги ва меҳтар ҳисобланган. Уларнинг ҳар бири ўз девонхонасига эга бўлиб, уч-тўрт девон (мирза)дан иборат жамоага раҳбарлик қилган ва солиқ амалиётини бошқарган.

Хива хонлиги солиқ маъмуриятида давлат газнасига келиб тушувчи солиқлар масжид кавмининг қайси вилоятга қарашли эканлиги эмас, балки иқтисодий томондан бир хил бўлишига эътибор қаратилиб, арна, ёф ва жўйнинг шимолий томони ёки жанубий томони сифатида тақсимланиб, солиқ дафтарларида ҳам шу шаклда қайд этилган. Мисол учун, пойтахт Хивада Шохобод арнасининг шимолий қисмидан солиқ йиғишга меҳтар назоратида бўлса, шаҳарнинг жанубий қисми қўшбегига тегишли бўлган.

Шарқшунос олим А.Кун бу амалдорларнинг таъсир доирасини қуйидагича келтиради: “Девонбеги хонликнинг жанубий қисмидан йиғиладиган солғут учун масъул бўлган. Аниқроқ қилиб айтадиган бўлсак, Полвонота ариғи ўнг томонидаги ерлар: Хонқа, Ғазавот ариғининг жануби- ғарбидаги ерлар, Гурлан, Вазир, Янгиариқ, Манғит, Қипчоқ, Қиёт...[2:130].”

Меҳтарга ҳам худди шундай ерлар тақсимланган бўлиб, Полвонота ариғидан жанубда жойлашган ерлар, Ғазавот ариғининг шимоли-жануби қисмидаги ерлар солиқ топширган ва хонликдаги солғут, натурал солиқлар (дахяк), хон ерларидан олинадиган турли йиғимларга меҳтар масъул бўлган[3:73].

Девонда солиқ тушуми *санок дафтари* деб номланувчи ҳужжат юритилган. Солиқ дафтарига девонбеги ва қўшбеги масъул бўлган. Бу икки амалдор бир бирига бўйсунмаган ва алоҳида санок дафтарлари юритган[4:431].

Баёнийнинг ёзишича, ушбу дафтарлар саройда хазина билан биргаликда сақланиб келган. Саройда ҳужжатлар алоҳида бинода, махсус ажратилган кишиларнинг назорати остида бўлган[3:76].

Хонликда ҳужжат юритиш ишлари тартиб билан олиб борилган. Хива хонлари архивида сақланаётган “Меҳтар оқони саноғи” солғут тушуми бўйича юритган ҳисоб-китоб дафтарлари бунга яққол мисол бўлади. Ҳужжат “Қўй йили жумоди аввал ойинда Душанба куни меҳтар оқо саноғдафтари олиғондан бошлаб 146 пухта тилло олдук” деб бошланиб, сўнгра масжид номлари ва олинган солиқ суммаси келтирилган. “Масжиди Абдурахимбой 26 тилло олинди, масжиди Саидназар ўн икки тилло олинди, Масжиди Мулла Мухаммад Рахимбой йигирма ёрим тилло олинди[5:431]” Ҳужжатда номлари келтирилган солиқ тўловчилар исмлари устига *борур* деб ёзиб борилган. Бу ер эгаси солғутдан ташқари меҳнат мажбурияти (қозу ва қочу) ўташи лозимлигини аниқлаган. Баъзи исмлар тепасида *коранда би қозу* ёзуви учрайди, бундай ҳолда ер эгаси канал ва ариқларни тозалаш ва таъмирлаш ишларидан озод қилинганлигини билдирган. Солиқ тўловчилар рўйхатларининг баъзиларида исмларининг қаршисида ёки уски қисмда *тоза* атамаси келтирилган бўлиб, бунда мулкдор эгалик қилаётган ер янги ўзлаштирилган ерлардан бўлиши керак ва солиқ имтиёзига эга бўлган. Чунки худди шундай тоза атамаси “Қўй йили моҳи шавволга мувофиқ ёрликдорларнинг дафтари юзасидин ёзилгон меҳтар оқо саноғ дафтари”да ҳам кўплаб учрайди[6:432]. Унда Манғит вилоятида янги ерларга эгалик қилаётган солиқ тўловчилар рўйхати келтирилган. Қизиқарли жиҳати, мулкдорларнинг масжидлар бўйича эгалик қилаётган ер таноби ва унинг қанчаси “*тоза*” эканлиги ёзилган. Масалан, Масжиди Мухаммад Карим оталиқда Мулла Бекниёз ибн Бержон ерининг 5/10 таноби тоза деб белгиланган. Бу маълумот унинг 5 таноб ери янги ўзлаштирилганлиги ва ўша қисми учун имтиёзли солиқ тўлаганлигини аниқлатади. Одатда солғут дафтарларининг деярли барчасида ҳужжат юритиш шундай тартибда олиб борилган.

“Йилқи (от) йили дарғабек ва мингбоши оқоларнинг олғон солғутлари” сарлавҳа билан бошланувчи ҳужжатда 1275-йил (1858-йил) учун йиғилган солиқ миқдори билан бир қаторда уларнинг сарф этилиши қайд этилган. “Хазратимиз(хон)га 5000 пухта тилло, жума куни яна минг, яна минг, сешанба куни яна минг пухта тилло юборилди[4:431].” Демак, ушбу амалдорлар томонидан хон хазинасига саккиз минг тилло топширилганлиги билдирилмоқда. Ҳужжатнинг давомида Уста Юсуфга минг ва уста Алланазарга беш юз тилло зарбхонага кумуш сотиб олиш учун берилди.

Яна бир солғутдан келиб тушган маблағларнинг сарфланиши билан боғлиқ қўшбеги дафтарида ушбу солиқ ҳисобидан хон саройи ва хизматчилари харажатлари учун берилган маблағлар, шунингдек, ҳарбий мулозимларга берилган ойлик ҳақлар рўйхати келтирилган[7:531].

Одатда Хива хонлигида солғут солиғининг йиғиш вақти октябр ойида бошланиб, май ойи охирида якунланган. Мазкур солиқни йиғиш даври бошланишидан аввал, хонлик девонхонасидан кадҳудо ва миробларга махсус ёрлик юбориб, уларга солғут йиғимига тайёргарлик кўриш вазифаси юклатилган. Сўнгра қўшбеги ва меҳтар жойларга ўз одамларини жўнатганлар, кўрсатилган худудга етиб келиб,

мирзалар оқсоқол ва бир неча аҳоли вакиллари билан биргаликда ушбу ҳудуддаги ернинг таноби ва экилган экин турини аниқлаб таноб дафтарига киритганлар.

Солғут йиғиб бўлингач, уни оқсоқоллар ҳудудларга солиқ тўплаш учун келган девонхона ходимларига топширишган. Хива хонлигида имомлар фақат диний унвон бўлмасдан, масжид мадрасалар ерларидан келадиган фойдадан ҳисоб-китоби ҳамда солиқ тўловлари масалари билан шуғулланишганлигини кўрамиз [2:131].

Имомлар ва оқсоқоллар солиқ йиғиш жараёнида қонунбузарликнинг олдини олиш мақсадида бевосита назоратни йўлга қўйишган.

Солиқ йиғувчилар ўз меҳнати учун ҳукумат томонидан белгиланган маош олмаган, йиғиладиган солиқлардан маълум фозини ўзида қолдирган. Солғут тўлаш вақти тўғрисида хабарни йетказганлик учун ҳар бир солиқ тўловчидан бир танга миқдорда ҳақ олинган. Бу йиғим *чонар пули* деб аталган.

Солғут солиғи йиғими якунида қўшбеги ва меҳтар ҳузурида ишловчилар фойдасига *кесир пули* деб аталадиган солиқ ундирилган. Бу йиғим фақат қарздорлар рўйхатда турган ер эгаларидан олинган. Унинг миқдори ҳар бир тўланмаган солғут учун бир тангадан тўланган. Кассир пули асосий солиқ йиғувчига тўлиғича берилиб, у қолган девонларга тақсимлаб берган[8:99].

Юқорида санаб ўтилган солиқ йиғувчиларни рағбатлантириш мақсадида девонлар фойдасига бир тиллодан *имом пули* деб аталган солиқ йиғилган. Қўшбеги ва меҳтар меҳнати учун оладиган ҳақ хонлик томонидан тайинланган маошдан ташқари, девонлар фойдасига йиғилган пул имом пули, ёрлик пули ва бошқаларнинг бир қисмини олган[3:53].

Хон саройидаги олий мансабдорлардан бири бўлган девонбеги бош вазир бўлиши билан бир қаторда давлат молияси ва закот солиғи учун жавобгар шахс бўлган. Тарихий манбаларга кўра, девонбеги Бешарикдан то Кўхна Урганчгача бўлган ҳудудда закот йиғган.

Закот солиғини йиғиш маҳсус *божмон* деб аталадиган солиқ йиғувчилар томонидан амалга оширилган. Улар карвон йўлларида туриб, Хивага келтирилган турли хил маҳсулотлар учун чегара пунктларида закот олишган ҳамда солиқ тўловчига квитанция (патта) берган. Бу патта қоғозининг берилишидан мақсад солиқ тўловчидан закот олинганлиги ва бошқа закотчилар томонидан яна қайта закот талаб қилинмаслигини олдини олиш учун бўлган[9:453].

Асосий солиқлар солғут ва закотдан ташқари маҳсулот билан тўланадиган ғалла солиғи ҳам бўлиб, унга мушриф деб аталувчи амалдор масъул бўлган. Мушриф ўзининг бир неча ёрдамчилари ҳамроҳлигида ер эгаси ва оқсоқол билан биргаликда ернинг танобини ва тўланадиган экин маҳсулотлари тури (буғдой, шולי, жўхори ва бошқалар) ва миқдорини аниқлаб берган. Шундан сўнг мушриф томонидан бу маълумотлар кайд этилган. Ушбу кайд дафтарида хонликка келиб тушган дон миқдори ва унинг сарфланиши ёзиб борилган[10:410]. Бу масала юзасидан ўрганилган 1845-1848-йилларга оид ҳужжат матнида, “1262-ҳижрий Хон хазратлари омборига келиб тушган ғалла Рафаник 4360 ботмон, Султон Махмуд тура 440 ботмон, жами 4800, Карим бек ғалласи 514 ботмон шולי 1010 ботмон, Саид Мухаммад хўжа 5000 ботмон жўхори, 1000 ботмон шולי ...”

Ҳосил йиғиш жараёнида солиқ тўловчи хонлик ғазнасига топширилувчи дон билан биргаликда мушриф хизмат ҳақи учун дизхоқ тўловини ҳам амалга оширган[2:131].

Хива хонлигида мавжуд анъанага кўра, ушбу тўлов ўша заҳоти олинмаган, балки доннинг хонлик омборига келиб тушгандан сўнггина мушрифга тегишли бўлган қисми ажратиб берилган. Бу одатда бир ёки икки ботмонни ташкил этган.

Юқорида кўриб чиқилган ҳужжатлар таҳлили асосида, Хива хонлигида солиқ маъмурияти юқоридан пастга қараб хон, қўшбеги, девонбеги, меҳтар, ҳоким, бек, имом, оқсоқоллар каби тартиб шакллантирилганлиги хонлик иқтисодий-сиёсатнинг муҳим соҳаси бўлган солиқ йиғиш ижросини амалга оширилганлиги аниқланди. Ҳукмдор саройида солиқ масалалари билан шуғулланиш учун лавозим таъйин этилмаган. Амалдорлар асосий хизмат вазифасини бажариш билан бир қаторда солиқ амалиётига ҳам бошчилик қилган. Солиқ амалиёти тўғрисида маълумот берувчи “Хива хонлари архиви ҳужжатлари”да солиқ йиғиш жараёни раийатдан ортиқча тўловлар талаб этилмаганлиги, солиқ миқдорини белгилашда имтиёзлар ҳисобга олиниб, баъзида эса англашилмовчилик натижасида ортиқча олинган солиқ эгаларига қайтариб берилганлик ҳолатларига ҳам дуч келдик. Солиқ йиғиш жараёнида ҳужжат юритиш ишлари ҳам тартибли йўлга қўйилган бўлиб, ҳар бир амалдор ўзига бириктирилган ҳудуд солиқлари бўйича “саноғ дафтари” деб номланувчи ҳужжат юритиб, солиқ тўловчи хўжаликлар, солиқ имтиёзлари, масжид қавмидан йиғилган умумий миқдор, уларнинг сарфи ҳам қайд этиб борганлигини кўришимиз мумкин. Бундай амалиёт бугунги кун давлат солиқ сиёсатида ҳам ўз аҳамиятини йўқотмаган. Зеро, илғор хорижий тажриба ҳамда синалган амалиёт асосида мамлакат миллий солиқ тизими яратиш долзарблик касб этади.

#### ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Кун А.Л. Заметки о податях в Хивинском ханстве//Туркестанские ведомости –1873. – №32. С.125-126
2. Кун А.Л. Порядок взимания податей в Хивинском ханстве // Туркестанские ведомости –1873. – №33. С.130-131
3. Йўлдошев М.Й. Хива хонлигида феодал ер эгаллиги ва давлат тузилиши. - Т.1959.Б.73
4. ЎзР МА, И.125-фонд, 2-рўйхат, 431 -йиғма жилд, 1-варак

5. ЎзР МДА, И.125-фонд, 2-рўйхат, 382-йиғма жилд, 1-варак
6. ЎзР МДА, И.125-фонд, 2-рўйхат, 432 -йиғма жилд, 14-варақлар
7. ЎзР МА, И.125-фонд, 2-рўйхат, 531-йиғма жилд, 1-варак.
8. Иванов П.П. Архив хивинских ханов в XIX в. Исследование и описание документов с историческим введением. Л. 1940. С.99
9. ЎзР МА, И.125-фонд, 2-рўйхат, 453 -йиғма жилд, 1-варак
10. ЎзР МА, И.125-фонд, 2-рўйхат, 410 -йиғма жилд, 1-варак

УЎК 93/94

## ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ЙИЛЛАРИДА ХОРАЗМ ВИЛОЯТИДА МАДАНИЙ ҲАЁТ

*Ш.Аллаберганов, PhD, Урганч давлат университети, Урганч*

*К.Давлатов, Урганч давлат университети, Урганч*

**Аннотация.** Ушбу мақолада Иккинчи жаҳон уруши йилларида Хоразм вилоятида маданий ҳаёт таҳлил қилинган.

**Калим сўзлар:** Хоразм, уруш, ғалаба, митинг, фронт, маданият, ижод, зиёли

**Аннотация.** В данной статье анализируется культурная жизнь Хорезмской области в годы Второй мировой войны.

**Ключевые слова:** Хорезм, война, победа, митинг, фронт, культура, творчество, интеллигенция

**Abstract.** This article analyzes the cultural life of Khorezm region during the Second World War.

**Key words:** Khorezm, war, victory, rally, front, culture, creativity, intellectuals

Иккинчи жаҳон уруши жаҳон тарихида мисли кўрилмаган даражада катта ва даҳшатли, бутун инсоният бошига оғир кулфатларни солган уруш бўлди. 1941 йил 22 июнда немис-фашист босқинчилари хужум қилмаслик тўғрисидаги шартномани бузиб, кўкқисдан собиқ СССР худудига бостириб кира бошладилар. Бу уруш тарихида мисли кўрилмаган даҳшатли урушлардан бири эди. Ўзининг бой ўтмишига, миллий ва умуминсоний қадриятларига эга бўлган ўзбек халқи фашизм балосига қарши кураш олиб боришни ўзининг бурчи деб билди, уни йўқ қилишда бутун борлигини, куч-қудратини сафарбар этди. Урушнинг биринчи кунларидан Хоразм вилояти ҳарбий комиссариютига ихтиёрий равишда фронтга кетиш ҳақида 1156 ариза тушди, шундан 47 таси аёллардан эди.

Тарихимизнинг ушбу мураккаб ва синовли даврдаги саҳифаларини чуқур тадқиқ этиш ва тадқиқот натижаларини халқимизга етказиш, келажак авлодларга қолдириш ва ўша тарих мисолида ёш авлодни маънавий-мафкуравий мезонлар асосида тарбиялаш учун тарихчи олимларимиз олдида кўпдан-кўп масъулиятли вазифалар турибди.

2020 йилда Иккинчи жаҳон урушида фашизм устидан қозонилган ғалабанинг 75 йиллик байрамига бағишлаб Хоразм вилояти муҳофаа ишлари бошқармаси тмонидан музей ташкил этилди [1]. Қисқа вақт ичида музей фондида 200 га яқин экспонат ва тарихий ҳужжатлар йиғилди. Шунингдек, давлатимиз раҳбарининг ташаббуси билан Тошкентда бунёд этилаётган Ғалаба боғидаги Шон-шараф музейи фонди учун вилоятимиздан 100 дан ошиқ экспонат тақдим этилди. Албатта ушбу материаллар уруш йилларидаги фронт ва фронт оридаги ҳаётни ўрганишда муҳим аҳамият касб этади.

Айниқса, фронтларда ўзбек тилида чиққан газеталар фронт ва фронт ортидаги Ўзбекистон халқининг ғалабага кўшган улкан ҳиссасини тўлақонли ёритишда ниҳоятда қимматли, ноёб манба бўлиб хизмат қилади. Ушбу ҳарбий газеталардаги мақолалар, очерклар, хабарлар, суҳбатлар, ахборотлар, фронтларга йўлланган хатлар, жангчиларнинг ота-оналари, турмуш ўртоқлари, фарзандлари, қавм-қариндошларига ёзган хатлари, ҳарбий кўмондонлик ва бўлимлар томонидан ўзбекистонлик жангчиларга берилган турли фахрий, мақтов ёрлиқлари, суратлар Ўзбекистоннинг Иккинчи жаҳон уруши давридаги тарихини янада кенгрок ёритишда кўл келади [2].

Уруш бўлаётган ва душман яқинлашиб келаётган худудлардан муҳим саноат корхоналарини, колхоз, совхоз ва МТСларнинг мулкларини, маданий бойликлар ва ўқув масканларини Шарққа, жумладан, Ўзбекистонга зудлик билан кўчириб келтириш, жойлаштириш ишлари бошланиб кетди.

Ўзбек халқининг инсонийлик, олижаноблик, болажонлик фазилатлари уруш йилларида мамлакатнинг ғарбий вилоятларидан кўчириб келтирилган аҳолига, болаларга кўрсатган очикқўнғиллиги, ҳамдардлиги ва ғамхўрлигида ўз ифодасини топди. Ўзбек халқи урушнинг дастлабки йилларида Россия, Украина, Белоруссия, Молдавия, Болтиқбўйи республикаларидан кўчириб келтирилган бир миллиондан кўпроқ кишиларни, шу жумладан, 200 мингдан кўпроқ етим болаларни ўз бағрига олди.

Урушнинг дастлабки кунларидаёқ СССР ФАнинг Ўзбекистон филиали, республикада ишлаб турган 75 та илмий муассасалар, шу жумладан, 25 та илмий тадқиқот институтлари, 23 та илмий станция ва бошқалар, барча олимлар республика хўжалик ҳаётини ҳарбий изга солиш билан алоқадор муаммоларни ҳал этишга жалб этилди. Уларнинг заводлар, фабрикалар, темир йўл ва автомобил йўллари транспорт корхоналари билан бевосита алоқалари ўрнатилди. Олимларнинг тадқиқот

ишларини мувофиқлаштириш мақсадида 1941-йил 29 оябрда Ўзбекистон Илмий муҳандис-техника жамияти тузилди. Ғарбий ҳудудлардаги йирик шаҳарлардан кўплаб илмий муассасалар Ўзбекистонга кўчириб келтирилди. СССР ФАнинг тарих, иқтисодиёт ва ҳуқуқ, жаҳон хўжалиги ва жаҳон сиёсати, шарқшунослик, жаҳон адабиёти, моддий маданият, тупроқшунослик, сейсмология институтлари, бир қанча музейлар ва кутубхоналар шулар жумласига киради [3].

Дарҳақиқат, уруш Хоразм вилояти зиёлиларини ҳам жиддий синовдан ўтказди. Адабиёт, санъат, маданият, маориф соҳалари ҳам ҳарбий асосда қайта қурилди. Уруш маориф соҳасида катта қийинчиликлар туғдирди. Уруш йилларида юзага келган қийинчилик, етар-етмасликка қарамай вилоятда маданий оқартув муассасалари-клублар, кутубхоналар, музейлар, кино, халқ ижодий уйлари, маданият ва истироҳат боғлари, халқ театрлари аввалгидек ўз фаолиятини давом эттирдилар. Улар ўзларини кундалик фаолияти билан фронтдаги воқеалар, халқаро аҳвол, хоразмлик жангчиларни қахрамонлиги, фронт орқасида халқнинг фидокорона меҳнати ҳақида меҳнаткашларни хабардор қилиб бордилар [4].

Айниқса улар "Ўзбек халқининг жангчиларига уларнинг эл-юртларидан мактуб"ни ташкил қилишда ва унга жангчилар жавобини ташвиқ-тарғиб қилишда катта хизмат қилдилар. Бу хатда ўзбек халқи ўзининг юрак сўзларини изҳор этиб, ўзбек жангчиларини фашизмга қарши мардонавор курашга, бир томчи қони қолгунча ватанни ҳимоя қилишга чорлади. Ўша мактуб кўп минглик митингларда, фронтдаги ўзбек жангчилари орасида ўқиб берилди. Бу мактубга жуда кўп жангчилар, солдат ва офицерлар жавоб хати йўлладилар.

Хатларнинг бирида шундай сўзлар битилган: "...Ўзбек халқининг ўзбек жангчиларига юборган оташин мактуби бизнинг руҳимизни янада кўтарди. Биз фашист одамхўрларига қарши бир қатра қонимиз қолгунча, сўнгги нафасимиз чиққунча аёвсиз курашамиз муқаддас тупроғимизга бостириб кирган фашист жаллодлариня ер қаърига тикамиз, деб тантанали қасамёд қиламиз" [5]. Бу хатлар халқ ўртасида корхоналарда, ташкилотларда, мактабларда жамоа хўжаликларида ўқиб эшиттирилди, ташвиқ ва тарғиб қилинади эди.

Вилоятдаги маданий оқартув ходимлари, театр ва труппаларнинг ижодий жамоалари бу хатларни концерт режасидан, спектакллар олдида ўқиб беришар, айримларини эса декламация қилар эдилар. Масалан, ўша даврда шоир Қурбон-ота Исмоилов ёзган декламациялар театр сахналарида кўп айтилар эди.

Уруш йилларида вилоятда иккита театр (Урганч ва Хивада) бир қанча труппа ва ҳаваскорлик тўғарақлари мавжуд эди. Театр ва труппаларнинг репертуарлари уруш мавзуи билан алмаштирилди. Бу театрларда "Лайли ва Мажнун", "Фарҳод ва Ширин", "Ошиқ Ғариб ва Шоҳсанам", "Тоҳир ва Зухра", "Аршин мол-олан" каби спектакллар билан бирга уруш мавзуидаги "Ўлим босқинчиларга", "Қасос", "Жалоладин" каби спектакллар ҳам муносиб ўрик олдилар.

Бу даврларда вилоят театрларида Ҳожихон Болтаев, Мадрахим Ёқубов (Шерозий), Нурмуҳаммад Болтаев, Қаландар Бойжонов, Салай Деванов, Маҳмуджон Сапаев, Ваҳобжон Фаёзов, С.Камолов, А.Отажонов, А.Бобожонов, С.Исмоилов, К.Раҳимов, Р.Оллаберганов, Р.Бойжонова, Б.Деванов, О.Очилова, Ў.Ғойбова, Саройманов, Қуранбой Кўшнайти, С.Хўжаева, Р.Абдурахманова каби талантлар фидокорона хизмат қилдилар.

Бундан ташқари ҳар бир туманда труппалар "фаолият кўрсатиб, халқ руҳиятини кўтаришда катта роль ўйнадилар. Бу труппалардан талантли артистлар, бастакорлар, шоирлар етишиб чиқдилар. Хазорасп труппасидан Абдулла Жўжак, Озод-бола Жаббаров, Қаландар Матчанов, Саъдулла Самандаров, Худайберган тўқ-тўқ, Қаландар сурнай, Шовотдаги труппадан Комилжон Отаниёзов, Хива колхоз-совхоз театридан Юсуп Жаббаров каби таниқли ижодкорлар етишиб чиқдилар.

Хивада гармончи хотин-қизлар ансамбли ташкил қилинди. Бу труппа ва ансамбллар репертуарида ҳам уруш мавзуи устунлик қилди. Хива труппасида Қурбон-ота Исматов, Умар Курбоний-Афлотун, Онажон Сафарова, Онабиби қори Отажонова Ожиза каби ижодкор шоир ва шоираларнинг бўлиши труппа репертуарининг замон билан ҳамнафас ўзгариб туршини таъминлади. Бу хилдаги репертуарларда ватанпарварлик, халқлар дўстлиги, урушга нафрат, фронт ва мамлакат ичкарисидаги халқнинг фидокорона меҳнати каби масалалар ифодаланди.

Уруш йиллари ўзбек адабиёти, айниқса, халқ оғзаки ижоди кенг ривожланди. Унда урушга нафрат, ғалабага ишонч халқ оғзаки ижоди асарларининг ҳам асосий мотивлари бўлиб қолди. Хоразм халқ кўшиқларидан "Иним келар шод бўлиб", "Гитлер деган бир бўри", "Гитлерга нафрат", "Қиз ва йигит мактуби", "Душманларнинг дарвозаси йиқилсин" каби бир қатор асарларда халқнинг ёвуз душманга нафрати, ғалабага ишонч мотивлари ифодаланди.

Уруш йиллари Матёқуб Абдуллаев, Аҳмад. Бобожонов, Дўстжон Матжон, Раҳим Бекниёз каби каламкашлар фронтда қатнашдилар. Улар нафақат шеърлари билан, балки кўлида қурол билан ҳам душманга қарши курашдилар. Матёқуб Назаров Муридо, Аҳмад Бобожон, Харратов-Чоқар, Эгам Раҳим, Умар Қурбоний-Афлотун, Қурбон-ота Исмоилов, Юнус Юсупов-Айёмий каби ёзувчилар ўзларининг шеърлари билан матбуотда қатнашдилар. Улар ўзларининг ижодида ўша даврнинг руҳини

ифодаловчи ажойиб образлар яратдилар. Кекса халқ шоири Курбон ота Исмоилов Ватан урушининг биринчи кундаёқ душманга чексиз нафрат, ўз ватанига садоқат ва муҳаббат билан меҳнат фронтга отланди. У Хоразмдаги эски санъаткорларни тўплади ва улар билан маслаҳат қилиб концерт эстрадаси тузди. Эстрада вилоятнинг 100 дан ортиқ колхозида завқли концертлар берди. Концерт тинглаган меҳнаткашлар халқ шоирининг “Қизил аскар”, “Гитлерга ўлим” ва “Қахрамонларга” мавзуларини эшитиб завқландилар. Курбон ота 1000 сўм пулни мудрофа фондига топширди [6].

Умар Курбонийнинг "Лаънати Гитлер" (9 июль, 1941), "Афқору асосинг-ла чуқурга йўқол!" (27 август, 1941), Чокарнинг "Қўзғолинг" (1941), Курбон ота Исмаиловнинг "Ватанпарварлик кўшиғи" (5 июль, 1941) "Буюк Ватан ичра эру киз барчамиз аскар" (28 июнь, 1941), "Москва" (21 ноябрь, 1941). "Янги йил саломини" (1 январь, 1942), Айёмийнинг "Бир Ватанки, ер шарида яшнаяжак баркамол" (1941) каби асарлари уруш бошланган 1941 йилдаёқ ёзилиб, матбуотда чоп этилди.

Шу тариқа Хоразм вилояти зиёлилари, маданият ва санъат соҳасидаги ижодкорлар, шоир ва ёзувчилар уруш йилларида ўзларига хос услуб ва қурол билан душманга қарши кескин кураш олиб бордилар.

#### ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Хоразмда Иккинчи жаҳон урушида қозонилган ғалабанинг 75 йиллигига бағишлаб музей ташкил этилди. 23.04.2020//www.xorazm.uz
2. Шамсутдинов Р. Иккинчи жаҳон уруши ва фронт газеталари. Тошкент: “АКАДЕМНАШР”, 2017. –Б.11.
3. Ўзбекистоннинг уруш гирдобига тортилиши//www.e-tarix.uz
4. Қаранг: Хоразм тарихи. 2-жилд. Урганч, 1996.
5. Ватанинг қақирғига жавоб. Тошкент: Ўздавнашр, 1944. –Б.35.
6. Хоразм ҳақиқати 19 сентябрь 1942 йил № 217 (4225)

УЎК193.4(575.1)

### ХІХ АСР ОХИРИ ХХ АСР БОШЛАРИДА МИРЗАЧЎЛНИНГ СУҒОРИЛИШИ ТАРИХИ

*Қ.Алманов, Phd, Гулистон давлат университети, Гулистон*  
*И.Жураев, ўқитувчи, Гулистон давлат университети, Гулистон*

**Аннотация.** Ушбу мақолада муаллиф Жиззах воҳаси ҳудудидаги Мирзачўлнинг ўзлаштирилиши сув ҳўжалиги тарихи хусусида фикр мулоҳазаларини тарихий манбаларга асосланган ҳолда ёритиб, баъзи хулосаларни бериб ўтган. Ушбу хулосаларга таяниб биз бу воҳанинг маданий ҳаёти тўғрисидаги муҳим маълумотларга эга бўлишимиз мумкин.

**Калит сўзлар:** Мирзачўл, Зарафшон, Н.К.Романов, Туркистон, Уяс, Қирқтол, Боёвут.

**Аннотация.** В данной статье автор делает некоторые выводы на основе исторических источников, комментируя развитие Мирзачул в Джиззакском оазисе в истории водного хозяйства. На основании этих выводов мы можем получить важную информацию о культурной жизни этого оазиса.

**Ключевые слова:** Мирзачул, Зарафшан, Н.К. Романов, Туркестан, Уяс, Кирхтол, Бойовут.

**Abstract.** In this article, the author summarizes his views on the history of the development of Mirzachul in the Jizzakh oasis, based on historical sources, and draws some conclusions. Based on these conclusions, we can gain important information about the cultural life of this oasis.

**Keywords:** Mirzachul, Zarafshan, NK Romanov, Turkestan, Uyas, Kirqtol, Boyovut.

**1. Долзарблиги:** Ўрта Осиё Россия томонидан босиб олингач, бу ерлардаги бойлик манбаларига қизиқиш кучайиб кетди. Ерларни ўзлаштириш муаммоси ҳам биринчи даражада ҳал қилинадиган ишлардан бири эди. Айниқса, Мирзачўлга қизиқиш кучли бўлиб, рус тўқимачилик саноатини ривожлантириш учун бу ерларга пахта экиш, Мирзачўлни пахта хом ашёси манбаига айлантириш йўлида ҳаракат қилинди. Ўрта Осиёнинг иссиқ ва қуруқ иқлимли шароитида воҳаларда, хусусан Мирзачўлни ХХ аср бошидаги экологик муҳити, қуруқ, чанг-тўзонли, ўта жазирама иссиқ, гармселли об-ҳаво, ичимлик суви муаммоси билан характерланиб, чечак, бўғма, вабо, захм, терлама, безгак каби касалликлар анча кенг тарқалган эди. Айни ҳолларда безгак касалидан русийзабон аҳоли кўп азият чекди.

Фикримизча, Мирзачўлни ўзлаштириш учун кўчирилган русийзабон аҳоли Осиёга хос иқлим ва эпидемиологик хасталикларга анчалик чидамсиз бўлиб, “пахтачилик билан боғлиқ маҳаллий дехқончилик анъанасини рус кўчирма дехқонлари тўлалигича ўзлаштира олмадилар”, иммигрантларнинг ўтроқлашуви юз бермади[1].

**2. Методлар ва ўрганилганлик даражаси:** ХІХ асрнинг сўнгги йилларида ирригация ва мелиорация бўйича Россия мутахассислари Ўрта Осиёга, хусусан Мирзачўлга кела бошладилар. Уларнинг орасида буюк княз Н.К.Романов ва рус ирригатори Г.К.Ризекампфлар ҳам бор эди.

1903 йили Ўрта Осиёда америкаликлар экспедицияси пайдо бўлиб, унинг таркибида археологлар бўлмаса ҳам, археологик деб аталган эди. Экспедиция бошлиғи Р.У.Помпелли тоғ муҳандиси эди. Экспедициянинг илмий раҳбари У.М.Дэвис эса табиий география ва геоморфология билимдони



сифатида танилган эди. Унинг ёрдамчиси ролида кейинчалик америкалик «геосиёсатдонлар»нинг етакчиси бўлиб қолган Элсворт Хантингтон бўлган. Экспедиция амалда рекогносцировка олиб бориб, унинг мақсади Туркистонда суғориш ишларини кенгайтириш истиқболли нақадар реал эканлигини аниқлаш эди. Экспедиция Мирзачўлда олиб борилаётган ишлар билан танишиб, қадимги суғориш тизимлари изларини, жумладан, Эски Туя-тортар каналини ҳам ўрганиб чиқди, нивелировка ва топографик съёмкаларни бажарди. Зарафшон юқори оқимида Самарқанд ва Бухоро воҳаларининг асосий сув томири бўлган музликларнинг ҳолатини тадқиқ этди. Сўнгра Помир ва Тянь-Шанда бўлиб, у ерлардаги музликларни ўрганди ҳамда Амударё ва Сирдарёнинг потенциал сув ресурслари ҳақида маълумот тўплади.

Туркистонда суғориш истиқболларини тадқиқ этиш билан чегараланмасдан, экспедиция катнашчилари психологик хужумни бошлаб юбордилар. Осиёни, айниқса Туркистоннинг қуриб кетиши назариясини илгари сурди. Икки йилдан сўнг Хантингтон Вашингтонда босилиб чиққан ишидаги «Иқлим ва тарих» бобида халқларнинг жадал ривожланиши ва «ўзига хос тарихий роли» атлантик мамлакатлар иқлими таъсири остида бўлаётганлиги тушунтирилиб, унинг фикрича, бу маданиятнинг ривожига ҳам таъсир этарди. У Осиё халқлари циклоник иқлим зонасида яшаётган англосакслар ёрдамсиз ўлиб қолади ва йўқ бўлиб кетади, деган ғояни илгари сурган эди. Чоризм маъмуриятининг юқори мансабдорларидан айримлари Хантингтон сўзларини жиддий қабул қилиб, Мирзачўлда қурилиши бошланган янги магистрал канални муваффақиятсизликларга учрайди, деб тахмин қила бошладилар. Бунинг натижасида Россиянинг ишбилармон ва ҳукумат доиралари Туркистонда ирригацияни ривожлантириш ишларига катта эҳтиёткорлик билан ёндоша бошладилар. Қурилиш учун кредитлар очиш қийинлашди, канал лойиҳалари тасдиқланмасдан ўзгараверарди, чунки Ўрта Осиёнинг қуриб кетиши ҳақидаги «назария»лар таъсирига тушиб қолган амалиётчи-ирригаторлар ҳам ўз ишларига ишончсизлик билан қарай бошлаган эдилар.

Бу даврда атоқли рус олими А.И.Войсков ва унинг шогирди Л.С.Берглар Хантингтон ва уни қувватловчиларга кескин қарши чиқишди. Хантингтон ғояларининг Россияда қувватланиши натижасида Мирзачўлни ўзлаштириш ишлари тўхтатилиб қўйилганлигини инобатга олган ҳолда Л.С.Берг: «Мирзачўлда йил давомида 200-300 мм ёғингарчилик тушиб, бунинг ҳаммаси буғланиб, йўқ бўлади, агар нам кўп бўлган йилда кўпроқ ёғингарчилик бўлса, буғланиш ҳам кўпроқ; курғоқчилик йилларида эса аксинчаси бўлади. Бир сўз билан айтганда, прогрессив қуриб қолиш аниқланмади», деб тушунтиради[2].

А.И.Войсков Мирзачўлни суғориш тарафдори бўлиб, 1908 йилдаёқ Туркистоннинг пахтачилик истиқболлари ҳақида: «Ҳозирнинг ўзида Рус Туркистони катта миқдорда пахта етиштириб бермоқда, унинг сифати эса ўртача Америка навларидан ҳеч ҳам ёмон бўлмасдан, аксинча яхшироқдир», деб ёзган эди[3]. А.И.Войсков ҳақли эканлигини Туркистон пахтасини ўз қўлларига киритиш учун ҳаракат қилган америкалик ишбилармонларнинг ўзлари кўрсатди. 1910 йил ноябрида Петербургда америкалик миллионер Жон Гейс Гаммонд пайдо бўлди. Биринчи интервьюдаёқ Гаммонд: «Биз, амалиёт одамлари учун Россия ташаббускорлик ва Америка капиталини жойлаштириш учун кенг майдондир», деди. Уч ҳафтадан кейин эса журналистларга: «Туркистондан Россия шунча пахта олиши мумкинки, у нафақат Россия саноати эҳтиёжларини қондиришга, балки жуда бой ташқи савдо моддасини ҳам келтириб чиқаради», деб таъкидлайди.[4]

1911 йил мартида муҳандис-ирригатор ва тупроқшунослардан таркиб топган Гаммонд экспедицияси Ўрта Осиёга йўл олди ва энг аввало Мирзачўлга ташриф буюриб, сўнгра Келиф Узбойи худудига йўл олди.

1912 йил январига келиб, Мирзачўлга қизиқиш янада кучайди. Катта Ярославль мануфактураси директори А.И.Кузнецов йирик тўқимачилик фирмалари номидан ҳаракат қилгани ҳолда, москвалик саноатчилар ўртасида Мирзачўлда 250 минг десятина майдонни суғориш учун концессия бериш тўғрисидаги масалани кўтариб чиқди. 1912 йил март ойида Туркистонга ер ажратиш ва ер ишлари бош бошқарувчиси А.И.Кривошеин жўнаб кетди. Сафар мақсадини у: «шахсан жойда Туркистон пахтачилигини кенгайтириш имконияти шароитларини кўриб чиқиш» деб тушунтирди.

Сафардан қайтиб, пахтачиликни кенгайтириш ҳақида: «бу ўлка учун чинакам марказий масала бўлиб, унда битта эмас, балки учта асосий томон бор. Агар бир томонда «пахта» деб ёзилган бўлса, иккинчи томонда – «суғориш» деб ёзиб қўйилган, учинчи томонда эса энг муҳим бўлиб қолиши мумкин бўлган «русларни жойлаштириш» деб ёзилган», деган эди[5].

Чоризм маъмурлари Мирзачўлни ўзлаштиришга, пахта етиштириш майдонига айлантиришга катта эътибор бера бошлади. Шу билан бир вақтда бу ерларни руслаштиришга ҳам киришди. Маҳаллий аҳоли учун Мирзачўлга йўл ёпик эди, дехқонлар у ерга фақат батрак сифатида ўта олар эди. Илгари Бекободдан Боёвутгача бўлган худудда бир қанча ўз ерларини катта бўлмаган ариқлар ёрдамида суғораётган қишлоқ жамоалари бўлган бўлса, буюк княз томонидан канал ўтказиш бўйича ишлар олиб борилган пайтда, бу ариқлар йўқ қилинди ва ерлар янги канал сувлари билан суғорила бошланди.

Суғориш ишлари туфайли кўчманчиларнинг ерларда ўtroқлашув жараёни тўxtатилди. Доимий равишда Мирзачўлда истиқомат қилиб келаётган кўчманчилар 9 овулни (216 хўжалик, аҳолининг умумий сони 2207 киши) ташкил этарди. Бу эса ушбу улкан ҳудуд бутун аҳолисининг катта қисмини ташкил этарди. XIX аср охирида кўчманчилар аста-секин ўtroқчиликка ўта бошлаган, бироқ 1903 йилда агроном Понятовский ва Хўжанд уезди давлат мол-мулклари бошлиғи Вальневлардан иборат комиссия суғорилаётган ҳудуднинг иқтисодий истиқболларини ўрганиб чиқиб, кўчманчиларни ҳисоб-китобдан умуман чиқариб ташлашди ва «Мирзачўлни аҳоли билан таъминлашда бу кўчманчилар ҳеч қандай аҳамиятга эга эмас, қисқа вақтга келиб кетадиган ҳамда ҳеч қандай иқтисодий ва бошқа алоқада бўлмайдиган элемент сифатида чўлда аҳолини жойлаштиришда ҳисоб-китобга киритилмайди. Шунинг учун комиссия ўз ишини мураккаблаштирмаслик учун бу элементни умуман ҳисобга олмади ва улар ҳақида ҳеч қандай маълумотлар тўпламади», деб тушунтирдилар[6].

Чоризм маъмурияти Мирзачўлда бепоён ерларни ўзлаштирилишини қўллаб-қувватлаши керак эди, лекин ўлка ер ишлари бошқармасида катта рол ўйнаган ўша Понятовский суғорилган ерлар фақатгина кўчиб келувчи русларга мулк сифатида берилиши керак, маҳаллий деҳқонлар эса ижарачи-чорикор ёки батрак ролини ўйнаши керак, деган нуқтаи назарни қаттиқ туриб ҳимоя қилди. У: «янги суғорилган ерларда рус посёлкалари билан бир қаторда ҳеч бўлмаса икки баробар кўп одамлардан иборат ва кўпсонли туземец-ижарачиларнинг посёлкаларини бунёд этиш керак», деб ёзган эди. 1907 йилда Мирзачўлдаги ишларни тафтишдан ўтказган Гидрогеология қўмитасининг комиссияси таркибида Туркистоннинг ўлка ер ишлари бошқармаси бошлиғи С.Раунер каби билимдонлар: «Комиссия экинларни суғоришда фойдаланиш мақсадида маҳаллий ери йўқ аҳолига бериш учун суғорилган ерлар захирасига эга бўлиши кераклигига эътиборни қаратади. Қўшни Фарғона вилоятида сўнгги вақтларда ер тақчилиги билиниб турмоқда, шунинг учун ҳам ушбу вилоят аҳолисининг бир қисми Мирзачўлдаги суғорилган ерлардан фойдаланиши мумкин», деган расмий хулоса чиқарди.

**3. Тадқиқот натижалари:** Кўчириш сиёсатини ишлаб чиққанда чор Россияси ҳокимият доиралари Гидрогеология қўмитаси таклифини инобатга олмадилар. Ер ажратиш ва ер ишлари Бош бошқарувчиси А.В.Кривошеин каби мансабдорларнинг: «Туркистонда рус элатининг сиёсий жиҳатдан ҳам кўпайиши унинг хўжалик кучи билан ҳам мустақамланиши керак. кўчиб келган русларнинг қўлларига низосиз ер бойликларини, яъни Туркистондаги суғорилган ерларни бериш керак» каби фикрлари эса катта эътибор билан эшитиларди.

Кривошеиннинг ушбу таклифи Мирзачўлдаги канал сувлари билан суғорилаётган давлат ерларини ажратиш ҳақидаги давлат қонунига муқаддима бўлди. 1914 йил 21 июнда чиқарилган ушбу қонун давлат ерларида истиқомат қилиш учун фақат христиан эътиқодида бўлганлар қўйилади, деб тасдиқлаб нуқта қўйди. Суғорма деҳқончилик қилишда мингйиллик тажрибага эга бўлган маҳаллий деҳқонлар эса Мирзачўлда ижарачилар сифатида ҳам яшаш ҳуқуқидан маҳрум қилинди.

1911 йилда Мирзачўлда 11931 десятина суғориладиган ерлар бўлиб, уларнинг қарийб бешдан бир қисми (19%) буюк княз мулки бўлган. 1962 десятинали (16%) – давлат ерлари бўлиб, улар ҳам ижарага берилган эди. Мирзачўлга келган ишбилармон ва келгинди авантюристлар катта фойда кўрар эдилар. Мирзачўлдаги давлат ерларининг энг йирик ижарачиларидан бири бўлган италян фуқароси Фара 430 десятина ерни ижарага олган эди. Чорикорларга ерлардан ташқари, омов ва хўкизларни ҳам ижарага бериб, кейинчалик унинг тўрига тушиб қолган камбағалларнинг деярли ҳамма нарсасини тортиб оларди.

**4. Хулосалар:** Юқоридаги фикрлардан куйидагича хулосалар қилиш мумкин: Республикамиздаги экомуаммолар Россия империяси давридан бошланган бўлиб, Мирзачўлни ўзлаштириш жараёни тўла илмий асосланмаганди, ирригацион иншоотлар қурилишидаги хатоликлар, мелиоратив иншоотлар йўқлиги туфайли ўзлаштирилган ерларнинг мелиоратив ҳолати ёмонлашди. Аҳолини тоза ичимлик суви билан тўлик таъминланмаганлиги иммигрантларнинг эпидемиологик хасталиклар билан касалланишининг бирламчи манбаи бўлди;

Россиядаги кўчирувчилик сиёсати замирида нафақат ижтимоий-сиёсий сабаб, мақсадлар..., шунингдек, экологик моҳияти ҳам бор эди. XIX асрнинг 80- 90-йилларида Россиядаги очлик ва қаҳатчилик, XX аср бошларидаги ҳосилсизлик туфайли деҳқон хўжаликларининг хонавайрон бўлганлиги кўчирувчилик сиёсатини белгиловчи эконоамият бўлди.

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. «Ўзбекистонда урбанизация жараёнлари: тарих ва ҳозирги замон» мавзудаги халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. Т. 2007 й.
2. Берг Л.С. Об изменении климата в историческую эпоху. // Землеведение. 1911. С.23-24
3. Войеков А.И. Орошение Закаспийской области с точки зрения географии и климатологии. / Известия Императорского Русского географического общества. Т.44. Вып.3. СПб., 1908. – С.143
4. Новое время. 1910 г. 30 ноября; Туркестанские ведомости. 1910 г. 22 декабря
5. Кривошеин А.В. Записка главноуправляющего землеустройством и землеведением о поездке в Туркестанский край в 1912 г. – СПб, 1912. – С.4.
6. Караваяев В.Ф. Холодная степь в ее прошлом и настоящем. П., 1914. С.70-78

## ЎЗБЕК ВА ҚОЗОҚ ХАЛҚЛАРИНИНГ ҚАДИМИЙ ДИНИЙ ЭЪТИҚОДЛАРИДА ЭТНИК ЖАРАЁНЛАРНИ НАМОЁН БЎЛИШИ

*О.С. Артикбаев, доц.в.б., Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, Тошкент*

**Аннотация.** Мазкур мақолада ХХ асрда Тошкент воҳаси ўзбек ва қозоқ халқлари қадимий диний эътиқодларини урф-одат ва маросимларда намоён бўлиши, этник ва иноэтник ҳусусиятлар ва этник жараёнлар ёритиб берилган.

**Калим сўзлар:** *Этнос, этник, иноэтник, эътиқод, урф-одат, маросим, тотемизм, анемизм, фетешизм, магия, шомон, этноконтакт, зардуштийлик.*

**Аннотация.** В данной статье описывается проявление древних религиозных верований узбекского и казахского народов в традициях и обрядах Ташкентского оазиса в ХХ веке, этнические и внеэтнические особенности и этнические процессы.

**Ключевые слова:** *этнос, этнос, иноэтнический, вера, традиция, обряд, тотемизм, анемизм, фетишизм, магия, шаман, этноконтакт, зороастризм.*

**Abstract.** This article describes the manifestation of the ancient religious beliefs of the Uzbek and Kazakh peoples in the traditions and rituals of the Tashkent oasis in the twentieth century, ethnic and non-ethnic features and ethnic processes.

**Key words:** *ethnos, ethnic, other-ethnic, faith, tradition, rite, totemism, anemism, fetishism, magic, shaman, ethno-contact, zoroastrianism.*

Этномаданий алоқалар ва этник жараёнларни ўрганиш этнос ва этник гуруҳларнинг умуммиллий ва минтақавий ҳусусиятларни, этник ва иноэтник жиҳатларни аниқлашга хизмат қилади. Қадимий диний эътиқодлар ўзбек ва қозоқ халқлари урф-одат ва маросимларда этник жараёнларни намоён бўлишини Тошкент воҳаси материаллари асосида тадқиқ этамиз.

Умуман олганда, қадимий диний эътиқодлар ва улар билан боғлиқ урф-одат ва анъаналар айрим тадқиқотчилар жумладан, Радлов В.В, Потапов Л.П, Лобачева Н.П, Хайтун А.Е, Толеубаев Т.А, Абдуллаев У.С, Аширов А.А каби олимлар томонидан ўрганилган. Бир ҳудудда қадимдан бирга яшаб келган ва этноконтакт ҳудудлардан бири бўлган Тошкент воҳасидаги ўзбек ва қозоқ халқлари қадимий диний эътиқодларни урф-одат ва маросимларда этник жараёнларни намоён бўлиши алоҳида тадқиқот сифатида ўрганилмаганлиги билан долзарбдир.

Ўзбек ва қозоқ халқларида урф-одат ва маросимлари замирида қадимий диний эътиқодлар: тотемизм, анемизм, фетешизм, магия, табиат ва аждодлар руҳига сиғиниш, шомонлик ҳамда зардуштлиқка ҳос тасаввурларнинг излари сақланиб қолинган. Хўжалигида чорвачилик устун бўлган ёки ҳозирда ўтроқ турмуш тарзига эга аҳоли жумладан, Тошкент воҳаси қозоқ этник гуруҳлари орасида ҳайвон тотемларига эътиқод қилиш кучли бўлган. Улардан айримларига тўхталиб ўтамиз масалан, бўрининг аъзоларидан: жағ суяги, юнги, териси, тирноғи ва тишидан “қўриқловчи” ва “асровчи” восита сифатида фойдаланганлар [1]. Бу одат ўтроқ аҳоли орасида ҳам мавжуд бўлиб, уларда кўпроқ бўрининг тиши ва тирноғидан ҳар хил инс-жинслар ва ёмон кўзлардан (ёвуз кучлар) асровчи восита сифатида қадрланган. Ҳатто бўри тиши, юнги ва тирноғидан тумор ясаб бўйнига осиб юришган ёки уйнинг тўрига илиб қўйишган. Бу удум ҳозирги кунда ҳам аҳоли орасида сақланиб қолган.

От азалдан инсонни оғирини енгил, узоғини яқин қилувчи ҳамда яқин дўсти сифатида қадрланиб келинган. Қадимда чорвадор халқларга ҳос бўлган от тотеми билан боғлиқ “давра солиш” удуми [2] қозоқларда [3], Фарғона водийси аҳолиси [4] орасида яқин ўтмишгача мавжуд бўлган. Лекин биз тадқиқ этаётган даврда ХХ асрда бу удум Тошкент воҳаси аҳолиси жумладан, қозоқлар орасида ҳам кузатилмади, фақат кекса ёшдаги кишиларнинг айримларигина “давра солиш” удумига ота-боболар амал қилишганлигини таъкидлайдилар ҳолос.

Тошкент воҳаси халқларида ҳам жонсиз нарсаларга ишониш, муқаддаслаштириш каби фетешистик тасаввурлар кучли бўлган. Масалан: ХХ аср бошларида аввал хўжалиги чорвачилиқка асосланган қозоқларда ҳайвон аъзоларидан: кўзи, тиши, тирноғи, юнгидан тайёрланган туморлар кенг тарқалган бўлса, ўзбекларда эса исирик, калампир ва бошқа мевали дарахт уруғларидан тайёрланган туморлар мавжуд бўлган. Туморлардаги бундай тафовут этномаданий алоқалар натижасида йўқолиб туморларда намоён бўлган фетешистик тасаввурларида умумийлик юзага келди. Шу билан бирга қоғозга араб тилида қуръон оятлари ёзилиб тайёрланган туморлар ҳам кенг тарқалган. Қадимги диний эътиқодлар тизимида аждодлар руҳига сиғиниш барча халқлар каби, ўзбек ва қозоқ халқларида ҳам мавжуддир. Қадимги анимистик қарашлар, уларнинг кундалик ҳаётида кўп учрайдиган “руҳ”, “арвоҳ”, “оҳират”, “у дунё”, “бу дунё”, “ёлғон дунё”, “чин дунё”, “арвоҳ капалак” каби тушунчалар намоён бўлади.

Рухга эътиқод қилиш (анимистик тасаввурлар) ўзбек ва қозоқ халқларида мотам ва мархумни ёдга олиш билан боғлиқ маросимларда қадимий диний эътиқодлар: тотемизм, фетешизм, шомонлик, зардуштийлик ва ислом дини амаллари билан аралашган ҳолда намоён бўлади. Аҳоли орасида бу каби иримлар ёки эътиқодлар ислом дини расм-русумлари сифатида қабул қилиш ҳолатлари учрайди. Шу ўринда шомонлик хусусида ҳам тўхталиб ўтиш жоиз бўлади. Қадимда одамлар шомонларни руҳлар билан мулоқот қила олиш кудратига эга деб ишонганлар [5]. Жумладан, шомонлар турли касалликларни даволаш, мархумни дафн этиш, йўқолган нарса-буюмларни топиш, башорат қилиш каби хусусиятларга эга бўлган деб ҳисобланган. Биз тадқиқ этаётган даврда бу каби вазифаларни бажарувчилар шомонлар деб аталмасда, қозоқларда “баксы”, ўзбекларда “бахши”, “фолбин” ёки “фолчи”, “кинначи” деб аташган [6]. Улар ўзига хос вазифаларни бажаришган. Масалан: фолбинлар йўқолган нарса-буюмларни топиш, келажакни башорат қилишган. Бахшилар эса, фол очиш билан бирга ёвуз кучларни ва руҳларни инсон танасидан хайдашган. Кинначилар эса, суқ ва зиён ёки кўз тегиш билан холсизланганларни даволаганлар. Бахшилар билан боғлиқ “кўчирик” маросими Тошкент воҳаси ўзбек ва қозоқ халқлари орасида кенг тарқалган маросим ҳисобланади. Унда доира чалиб “зикр” тушиш орқали ёвуз кучларни ва руҳларни хайдашган. Зикр қатнашчиларининг маълумотларига кўра, зикр тушиш жараёнида айримлар кулган, бақирган, айримлар эса йиғлаган, лекин улар қандай қилиб бундай стресс-руҳий ҳолатга тушишганлигини аниқ айтишга олмайдди. Уларнинг тасаввурича ёвуз руҳлар инсон танасини тарқ этиш жараёнида шундай ҳолатга тушилар экан [6]. Зикр тушиш ва у билан боғлиқ амаллар аҳолининг асосан бахшилар, кинначилар ва кекса аёллар орасида сақланиб қолинган.

Тошкент воҳаси ўзбек ва қозоқ халқларида ҳам зардуштийликнинг асосий эътиқод рамзи ҳисобланган олов кадрланган ҳамда ёвуз руҳлардан ҳимоя воситаси сифатида фойдаланилган. Жумладан, бола туғилиши даврида, чилла даврида, никоҳ тўйи маросимларида бажариладиган удумларда олов билан боғлиқ иримлар бажарилган. Масалан, ўзбек ва қозоқ халқларида никоҳ маросимларида келин куёв хонодонига киришдан аввал икки ёшни олов атрофида 3 марта айланиши билан улар покланиш, жоду ва ёвуз кучлардан ҳолос бўлишига ишонишган ва бу удумга амал қилишган.

Бу удумга бошқа халқлар каби Тошкент воҳасининг этник жамоалари ҳам амал қилинган, лекин 1980 йиллар охири-1990 йиллар бошига келиб “оловда айланиш удуми” шаҳар ҳудудларида, сўнгра қишлоқ аҳолиси орасида йўқолиб борди. Масалан, Янгийўл, Чиноз шаҳарлари, Қовунчи, Яллама каби қишлоқ жами аҳолиси орасида урфдан қолди. Лекин бу удум 1930 йилларда Тошкент воҳасига Жиззах вилоятининг асосан Фориж ва бошқа туманларидан кўчиб келиб алоҳида қишлоқ жамоасини ташкил этган ўзбеклар ва қозоқ этник гуруҳларининг айримларида қисман сақланиб қолинган. Бу ҳолат ҳозирда бошқа воҳалардан келган аҳоли ва қозоқ этник гуруҳлари аралаш яшайдиган ҳудудларда (Ўзбекистон, Турсунбой Эрназаров, Амир Темур жамоа хўжаликлари ҳудуди) кўпроқ кузатилади [6]. Шунини алоҳида таъкидлаш керакки, Чиноз туманида Очамайли маҳалласида қозоқларнинг очамайли уруғига мансуб аҳоли яшайди. Уларда ҳам 1990 йилларга келиб оловда айланиш удуми урфдан қолди. Чунки 1980 йиллардан бошлаб маҳаллий ўзбеклар билан қиз олди-берди муносабатларини кучайишининг таъсири бўлиши мумкин (Агарда оловда айланиш удумига келин яшайдиган қишлоқ ёки маҳаллада амал қилинса, келин томон бу удумни куёв томондан талаб қилмаган чунки улар ҳудудидаги одатларга амал қилишган). Умуман олганда, олов келин куёвни уйига кўчиб келиши жараёнида ва ундан кейинги даврда яъни чилла вақтида ҳам ҳамроҳлик қилган [7].

Кўзи ёриган аёл чилла амалларига қатъий амал қилган ҳолда хонада туну-кун хонани ёруғ бўлиши учун (аввалари шағам, чироқ, шам, ҳозирда электр чироғи) чироқ ёқиб кўйиш йўли билан зарар етказувчи инс-жинслардан ўзи ва чақалоғи ҳимояланган. Чилла даврида ёш келин-куёв ётоғи, кўзи ёриган аёл ва чоқалоқнинг хонаси, ёки мархум чиққан хона 40 кун давомида ёруғ бўлиши ҳисобланган. Бундан ташқари мархум дафн қилингандан кейин 40 кун (чилла вақтида) давомида унинг руҳига бағишлаб чироқ (шам) ёқиш одати воҳа қозоқларида ҳам мавжуд бўлиб, биз тадқиқ этаётган даврда бу одатга ҳафтанинг хар пайшанба кунини амал қилинган. Дафн ва таъзия билан боғлиқ маросимлардаги олов билан боғлиқ амалларнинг генезиси зардуштийлик дини билан боғлиқ бўлиб, ҳозирда аҳоли онгида ислом дини амалларидан бири сифатида эътироф этилади.

Тошкент воҳаси ўзбек халқи ва қозоқ этник гуруҳларида, оилада фарзанд туғилиши ва у билан боғлиқ маросимларда умумийлик жиҳатлари мавжуд бўлиб, улар қуйидаги ҳолларда намоён бўлади. Биз тадқиқ этаётган даврда чақалоқ туғилиши ва у билан боғлиқ амаллар асосан ёши улуғ аёллар томонидан бажарилган. Шу билан бирга Тошкент воҳаси ўзбек ва қозоқ халқларида чақалоқ сочи ва тирноғини илк бор олиш билан боғлиқ ўзига хос иримлар ҳозиргача сақланиб қолинган. Масалан, чақалоқ тирноғи аввалари кесувчи асбоблар ёрдамида олинмаган. Чунки илк тирноқлар нозик бўлганлиги боис ўсган сари синиб тушган. Фарғона водийси аҳолисининг айримларида чақалоқнинг онаси бола бармоқларидаги ўсган тирноқларини тиши ёрдамида кесиб олган [8]. XX аср охирига келиб бу каби амалларга риоя этилмай кўйилди. Ҳозирда эса, чақалоқ сочи ёки тирноғи қайчи ёрдамида олинади. Чақалоқ узоқ умр кўрсин, обрў эътиборли бўлсин деган маънода бу амаллар ёши кексалар томонидан бажарилган. Олинган соч ва тирноғи мевали дарахт тагига ёки оёқ ости бўлмайдиган жойга кўмилган.

Умуман олганда, боланинг олинган тирноғи ва сочини ерга кўмиш ирими асосида ёвуз кучлардан уни ҳимоя қилиш, мевали дарахт тагига кўмишдан мақсад эса, бола умрининг узун бўлиши ҳамда сер фарзанд бўлишига ишонч ва тасаввур ётади [9].

Хуллас, ўзбек халқи ва қозоқ этник гуруҳларининг оилавий урф-одат ва маросимларида зардуштийликка оид расм-русумлар ҳамда шомонлик эътиқоди билан боғлиқ тасаввурлар аҳоли онгида диний тус олганлиги ва дини амаллар сифатида таркиб топганлиги билан умумийликни намоён этади.

#### ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Потапов Л.П. Волк в старинных народных поверьях и примитах узбеков // КСИЭ. АН СССР. Вып.3. М.1956. С.139; Дала ёзувлари. Чиноз тумани, Кўтарма кишлоғи 2002 йил.
2. Аширов А.А. Релекты и древних верований населения Ферганской долины. Автореферат дисс соис уч. Степ. Кан. Ташкент, 2000
3. Радлов В.В Из Сибири.Страницы дневника. М., 1989 (переиздание). С 282-283
4. Абдуллаев У.С. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар. -Т., 2005. Б-165.
5. Аширов А.А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари Тошкент: 2007 31-53 бетлар.
6. Дала ёзуви. Тошкент вилояти Чиноз Янгийўл туманлари 2002 йил.
7. Лобачева Н.П. Из истории верований и обрядов: Огонь в свадебном комплексе Хорезмских узбеков (По материалам середины XX в.) // Э О. 2001. № 6, С 32.
8. Хайтун А.Е. Пережитки тотемизм у народов Средней Азии и Казахстан //Уч. Зап. Тадж. Гос.Унв. т.XIV Душанбе, 1956 С. 86-100; Абдуллаев У.С. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар. Т., 2005.
9. Толлеубаев Т.А. Реликты доисламских верований в семейной обрядности казахов. Алма-Ата.,1991. С-214

УЎК 93/94

### ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА БАХШИЧИЛИК ВА ДОСТОНЧИЛИК САНЪАТИДА ҲАЛҚАРО ҲАМКОРЛИК: ЭРИШИЛГАН НАТИЖАЛАР ВА ТАҲЛИЛ

*Г.Қ. Аҳимбетова, доц., Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти Нукус филиали, Нукус*

*Г.У. Мунтеева, ўқитувчи, Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти Нукус филиали, Нукус*

**Аннотация.** Мақолада Янги Ўзбекистонда бахшичилик ва достончилик санъатида сўнгги йиллар мобайнида эришилган натижалар ва уларнинг таҳлили ҳақида сўз юритилади. Шу билан бирга халқаро маданий ҳамкорликлар ва миллий маданиятимизнинг ривожланиши жараёнлари бўйича фикр-мулоҳазалар юритилган. Янги Ўзбекистонда бахшичилик ва достон ижрочилигини ривожлантириши юзасидан таклиф ва тавсиялар берилган.

**Калим сўзлар:** бахши, достон, санъат, жараён, маданият, ижро, фестивал, жиров, миллий маданият.

**Аннотация.** В статье рассматриваются результаты, достигнутые за последние годы в искусстве бахши и эпоса в Новом Узбекистане, и их анализ. В то же время стороны обменялись мнениями по вопросам международного культурного сотрудничества и развития нашей национальной культуры. Были внесены предложения и рекомендации по развитию искусство бахши и этического исполнение в Новом Узбекистане.

**Ключевые слова:** бахши, дастан, искусство, процесс, культура, исполнение, фестиваль, жсырау, национальная культура.

**Abstract.** The article discusses the results achieved in recent years in the art of bakhshi and epic in New Uzbekistan and their analysis. At the same time, the sides exchanged views on international cultural cooperation and the development of our national culture. Suggestions and recommendations were made on the development of bakhshi and epic performance in the new Uzbekistan.

**Keywords:** bakhshi, epic, art, process, culture, performance, festival, narrator, national culture.

Кейинги йилларда мамлакатимизда миллий маданиятимиз ва санъатимизни асраб-авайлаш, тараққий эттириш, бутун дунёга номоён этиш, нуфузини янада юксалтириш, айниқса ёшларнинг маънавий иммунитетини мустаҳкамлаш, умуман олганда, жаҳолатга қарши маърифат билан курашишнинг самарали йўли сифатида халқимизнинг бебаҳо санъати бўлган бахшичилик ва достончиликни қайта тиклаш, уларни янада оммалаштириш, илмий жиҳатдан тадқиқ ва тарғиб этиш борасида кенг кўламли ишлар олиб борилмоқда.

Янги Ўзбекистон ижтимоий-гуманитар, маданий-маърифий соҳаларда халқаро майдонда ўзаро манфаатли ва истиқболли ҳамкорликни йўлга қўйди. Президентимиз Ш.Мирзиёевнинг ташаббус ва саъй-ҳаракатлари билан аждодларимизнинг асрий маънавий мероси миллий маданиятимизга эътибор ва эъҳтиром янги тусга кириб, ўз ривожланиш истиқболлини белгилаб олди. Янги Ўзбекистонда ўтказилаётган халқаро маданий-маърифий тадбирлар Ватанимизнинг бой моддий ва маънавий меросларимизни дунё микёсида тарғиб қилишга ва уни янада ривожлантиришга туртки бўлди. Бу

ислохотларни нафақат Марказий Осиё, балким бутун дунё Янги Ўзбекистоннинг маданий юқорилаш суръатлари деб баралла тан олди.

Президентимиз Ш.Мирзиёев: “Россия Федерацияси, Хитой Халқ Республикаси, Америка Қўшма Штатлари, Япония, Жанубий Корея, Туркия, Бирлашган Араб Амирликлари, Европа Иттифоқи ва Осиё мамлакатлари билан сиёсий, савдо-иқтисодий, инвестициявий, транспорт-коммуникация ва маданий-гуманитар алоқаларни янада ривожлантиришга алоҳида аҳамият берамиз” [1: 62] – дея таъкидлаб ўтгани каби янги Ўзбекистон кўплаб ривожланган давлатлар билан маданий-гуманитар ҳамкорликларни самарали амалга ошириб келмоқда. Бу ҳамкорлик маданият ва санъат соҳасида ҳам ўз ифодасини тошмоқда.

Бу борада бахшичилик санъатини ривожлантиришда катта ижодий мактаб яратилди десак муболаға айтган бўлмаймиз. 2018 йил 1 ноябрда Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Халқаро бахшичилик санъати фестивалини ўтказиш тўғрисида”ги ва 2019 йил 14 майда “Бахшичилик санъатини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарорлари ҳамда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 26 апрелда “Бахшичилик ва дostonчилик санъатини янада ривожлантириш ҳамда такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ва 2019 йил 23 сентябрда “Республика бахшичилик санъати маркази ва унинг хузуридаги бахшичилик санъатини ривожлантириш жамғармаси фаолиятини ташкил этиш тўғрисида”ги қарорлари қабул қилинди [2: 3].

Президентимизнинг “Дostonчилик ва бахшичилик – миллий ғуруримиз. Унинг замиридаги эзгу кадриятларни халқимизга етказиш лозим”, деган даъватларидан келиб чиқиб, бахшичилик санъатини келажак авлодга етказиш ҳамда уни янада таракқий эттиришда куйидаги долзарб масалаларга алоҳида эътибор қаратиш лозим:

- бахшилар ижроларини аудио, видео тасмаларига ёзиб олиш, китоб ҳолига келтириш, шу дostonлар асосида фильмлар яратишни йўлга қўйиш;

- ёшларни миллий кадриятларимизга содиқ руҳда тарбиялашда эзгуликка чорлайдиган, ватанпарвар, мард, жасур бўлишга ундайдиган дostonларимизни мактабларнинг таълим тизимига дарслик сифатида киритиш;

- дostonларни фундаментал илмий тадқиқ этиш ишларини янада кучайтириб, худудларда аввал мавжуд бўлган бахшичилик мактабларини қайта тиклаш чораларини кўриш.

Ҳозирги ёш бахшилар битта дostonни ёд олишга ўргатишни йўлга қўйиш, давр талабидан келиб чиқиб, бахшичилик санъати ва дostonларимизнинг махсус вебсайт ва мобил иловасини яратиш, унга дostonлар матнини, бахши ижролари аудиоларини, юртимизда фаолият олиб бораётган бахшилар тўғрисидаги маълумотларни жойлаштириш ҳамда оммавий ахборот воситаларида мунтазам равишда ёритиш каби ишлар ҳам кун тартибида турибди [3: 2].

Юртимизда дoston куйлаш анъанаси қадимда уч йўналишда ривожланган. Биринчи йўналиш – Булунғур, Нарпай, Нурота, Қўрғон, Шаҳрисабз, Қамай, Шеробод, Жанубий Тожикистонда яшовчи ўзбек-лақай дostonчилик мактабларида дўмбира чертиб, якка ҳолда, бўғиз овоз билан ижро этилган. Иккинчи йўналиш – Хоразмда тор, дотор, ғижжак, гармон, буламон, қўшна, доира жўрлигида баъзан якка, баъзан жуфт ҳолда, очиқ овоз билан ижро этилган. Учинчи йўналиш – Фарғона водийсида дотор жўрлигида очиқ овозда айтилган. Қўрғон дostonчилик мактабининг энг истеъдодли вакиллари Эргаш Жуманбулбул ўғли (1868–1937) ва Пўлкан шоир (1874–1941) бўлиб, улардан “Алпомиш”, “Якка Аҳмад”, “Ойсулув”, “Кунтуғмиш”, “Тўрўғлининг туғилиши”, “Юнус пари”, “Мисқол пари”, “Авазхон”, “Ҳасанхон” каби дostonлар ёзиб олинган. Булунғур дostonчилик мактаби қаҳрамонлик дostonларини ижро этиш билан машҳур бўлган. Бу мактабнинг истеъдодли вакили Фозил Йўлдош ўғли (1872–1955 йиллар) “Алпомиш”, “Ёдгор”, “Юсуф билан Аҳмад”, “Зулфизар”, “Маликаи айёр”, “Нурали”, “Муродхон”, “Ширин билан Шакар” каби дostonларни маромига етказиб айтган. XIX асрда Қашқадарё воҳасининг Қамай қишлоғи билан боғлиқ Қамай дostonчилик мактаби мавжуд бўлган. Бу мактаб Дехқонобод ва Ғузор туманлари атрофида яшовчи Абдукарим Жуйрук, Мулла Холназар ўғли, Бозор Шерқул ўғли, Ҳазратқул бахши Худойбердиев каби 60 га яқин бахшиларни бирлаштириб, Шаҳрисабз дostonчилик мактаби билан ижодий ҳамкорлик қилган.

Қамай дostonчиларидан “Нуралининг ёшлиги” (1972–1977), “Хонимой” (1963) ва бошқа дostonлар ёзиб олинган. Бахшичилик санъатининг яна бир йирик йўналиши Шеробод дostonчилик мактаби бўлиб, унда истеъдодли халқ бахшиси Қодир Раҳим ўғлининг (1936–1985) хизматлари катта бўлди. Шерна Бекназар ўғли, Мардонақул Авлиёқул ўғли, Умир Сафар ўғли, Нормурод бахши, Аҳмад бахши, Нурали Боймат ўғли, Мамадрайим бахши, Юсуф Ўтаган ўғли, Эшқобил бахши, Қодир Раҳим ўғли кабилар ушбу мактабнинг йирик вакиллари бўлиб, бугунги кунда Хушбоқ Мардонақулов, Шоберди Болтаев, Бобораҳим Маматмуродов, Қора ва Чори Умировлар, Қахҳор Қодир ўғли, Абдуназар Поёнов, Шодмонбахши, Илҳомбахши, Муҳаммадибахши, Сафарбахши, Зулхумор бахши каби бир қанча бахшилар Шеробод дostonчилик мактаби анъаналарини давом эттирмоқдалар. Бу мактаб вакилларида “Олтин қовоқ”, “Малла савдогар”, “Зайидқул”, “Оллоназар Олчинбек”, “Ойчинор”, “Шерали”, “Келиной” каби дostonлар ёзиб олинган. Хоразм дostonчилик мактаби санъати бошқа

достончилик мактабларидан услуби жиҳатидан фарқ қилади. Хоразм достонлари ёзма манбага эга бўлиб, баъзан айтувчи қўлида матн ҳам бўлган, уларда мусиқа етакчи роль ўйнаган, кўпроқ ишқий-романтик достонлар айтилган. Бола бахши – Курбонназар Абдуллаев Хоразм достончилиги мактаби ривожланишида жуда катта хизмат кўрсатган. Ушбу мактабнинг йирик вакиллари Рўзимбек Муродов, Отахон Матякубов, Рўзимбой Норматов – Қаландар бахши, Норбек, Матназар ва Етмишбой Абдуллаевлар бўлиб, улардан “Ошиқ Ғариб”, “Ошиқ Маҳмуд”, “Хирмондали”, “Базирён”, “Авазхон” каби достонлар ёзиб олинган. Қорақалпоқ мумтоз бахшичилик мактабининг йирик номоёндаси ноёб истеъдод соҳиби Жиен Жиров (Аманлиқ ўғли, 1730–1784) “Улуғ тоғ”, “Пўстан эл” достонларини куйлаган. Шунингдек, Бердақ Қарғабой ўғлининг (1827–1900) “Айдос бий”, “Омонгелди”, “Эрназар бий” достонларини, Утеш Алшинбой ўғли (1828–1902), Кулмурот Курбон ўғли (1845–1926), Курбонбой Тожибоев (1876–1958), Омар Суғиримбет ўғли каби қорақалпоқ достончилик мактабининг йирик номоёндалари куйлаган. Ғайрат Утемуратов, Тенелбай Каллиев, Гулнара Алламбергенова, Зияда Шерипова, Бакберген Сиримбетов, Гулбаҳор Ахимбетова каби бахши ва жировлар қорақалпоқ бахшичилик мактабининг бугунги кундаги ижодкорларидир.

2019 йил 5–10 апрель кунлари Термиз шаҳрида биринчи Халқаро бахшичилик санъати фестивали бўлиб ўтди. Бу катта санъат байрамида дунёнинг 74 та давлатидан 200 га яқин меҳмонлар ва улар орасида АҚШ, Германия, Франция, Россия, Хитой, Япония, Туркия, Жанубий Корея каби йирик давлатларнинг маданият ва санъат номоёндалари, фольклоршунос олимлари ва оммавий ахборот воситалари вакиллариининг иштирок этганлиги фестивалнинг нуфузини янада оширди [4: 6].

6–7-апрел кунлари Термиз шаҳридаги илмий-амалий конференция ишида бахшичилик ва достончилик санъати йўналишида илмий изланиш ва тадқиқотлар олиб бораётган олим ва мутахассислар, шу жумладан, 15 та хорижий мамлакатдан ҳамда 16 нафар маҳаллий фольклоршунос олимлар қатнашди. Конференцияда Болгария, Эрон, Корея, Молдова, Россия, Туркия, Франция ҳамда кўшни давлатлардан энг тажрибали мутахассислар иштироки унинг нуфузи юқори эканлигини ва бахшичилик санъати халқаро маданий ҳамкорликнинг самарадор омили эканлиги алоҳида эътироф этилди.

2019 йил 6 апрел куни бўлиб ўтган Халқаро бахшичилик санъати фестивали тантанали очилиш маросимида фахрий меҳмон сифатида Қозоғистон Республикаси Маданият ва спорт вазири Аристанбек Мухаммеди ўғли, Тожикистон Республикаси Маданият вазири Шамсиддин Орумбекзода, Қирғизистон Республикаси Президенти маслаҳатчиси Султон Раев, Қирғизистон Республикаси Маданият, ахборот ва туризм вазири ўринбосари Кайрат Имоналиев, Афғонистон Исломи Республикаси Балх вилояти ҳокими Исҳоқ Раҳгузар, АЙСЕКО ташкилотининг маданий масалалар бўйича Нажиб Рҳиати Салих, ЮНЕСКО бошқарма бошлиғи Андрей Чевелов ҳамда Буркина Фасо, Уганда ва Қувайт давлатларининг ЮНЕСКОдаги вакиллариининг иштироки бахшичилик санъатининг халқаро маданий ҳамкорликнинг юксак омили эканлигидан далолат беради. Мазкур фестивал ва унинг доирасида ташкил этилган маданий тадбирларда кунда 50 000 дан ортиқ аҳоли ташрифи кузатилган. Бу жараёнлар ҳақида Президентимиз Ш.Мирзиёев: “Халқаро мақом анжумани, бахшичилик ва миллий хунармандчилик фестивалларини ташкил этганимиз ва юксак савияда ўтказганимиз Янги Ўзбекистонни дунёга кенг тарғиб этишда муҳим аҳамиятга эга бўлди. Янги Ўзбекистон жаҳон майдонида кучли салоҳият, муносиб обрў-эътиборга эга бўлган, ҳар томонлама обод ва фаровон мамлакатга айланди [5: 65] – дея таъкидлаб ўтган эди. Халқаро маданий ҳамкорликнинг самарадор омилини янада ривожлантириш мақсадида катта амалий ишлар амалга оширилмоқда. Инсоният номоддий маданий мероси репрезентатив рўйхатига киритиш масаласини кўриб чиқилиши учун тегишли идора ва ташкилотлар, соҳа мутахассислари ва олимлар ҳамкорлигида Ўзбекистон бахшичилик санъати бўйича барча керакли ҳужжат ва материаллар тайёрланиб, ЮНЕСКО бош қароргоҳига юборилди. Миллий бахшичилик санъатини ЮНЕСКОнинг номоддий маданий мерос рўйхатига киритиш чоралари кўрилмоқда [6: 2].

Республикамизда фаолият олиб бораётган қарийб 310 нафар бахшилар рўйхати шакллантирилди. Шунингдек, Ўзбекистон Миллий телерадиокомпанияси билан ҳамкорликда телевидение ва радио архивида сақланаётган бахшилар ижросидаги достонларни магнит тасмалардан замонавий формат – CD ва CVD дискларга ўтказиш йўлга қўйилди. Бугунги кунга қадар 20 нафар бахши ижросидаги достонларнинг аудио дисклари тайёрланди. Ушбу аудио ёзувдаги достонлар қоғозга туширилиб, рисолалар тайёрланмоқда. Ҳозиргача 10 та достон китоб ҳолатига келтирилди [7: 4].

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 10 апрель “II Халқаро бахшичилик санъати фестивалига тайёргарлик кўриш ва бахшичилик санъатини ривожлантириш учун қулай шарт-шароитлар яратишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарорига асоасан 2021 йилнинг 17–20 сентябрь кунлари Нукус шаҳрида II Халқаро бахшичилик санъати фестивали ўтказилди. Нукусдаги II Халқаро бахшичилик санъати фестивалида 22 давлатдан 100 дан ортиқ бахши, оқин ва жировлар, бадий жамоалар қатнашди. Мазкур фестивалнинг халқаро маданий ҳамкорликни ривожлантиришдаги самараси ниҳоятда юқори бўлди. Буни ўша тадбир иштирокчилари ҳам алоҳида таъкидлаб ўтди. Масалан, Россия Федерациясининг Саха Республикаси (Якутия)дан келиб иштирок этган меҳмонимиз,

1-ўрин соҳиби Юлиана Кривошапкина таассуротлари билан ўртоқлашди: “Мен Қорақалпоғистонга келиб жуда кўп маълумотга эга бўлдим. Фольклор асарлари жуда ёқди. Мана, сахнада дostonлардан парчалар томоша қилдик. Ҳакамлар ҳайъати мени ғолиб деб топганидан ниҳоятда мамнунман. Дўстлик ришталаримиз бардавом бўлишини тилаб қоламан. Халқаро анжуман иштирокчилари бир-биридан қизиқарли таассуротларга бой ўтган маданий тадбирни “Буюк ипак йўлида тирилган афсоналар” деб номладилар [8: 6].

Ҳақиқатан ҳам бақшичилик санъати нафақат маданий-маърифий балким туризм, иқтисодий, илм-фан соҳасида ҳам халқаро ҳамкорликнинг синалган ва самарали усули ва омилдир.

Шу билан бирга сўнги уч-тўрт йил ичида республикада фаолият олиб бораётган бахши, оқин ва жировлар рўйхати шакллантирилди, ҳозирги кунда улар 310 нафардан ортик. Қорақалпоғистон Республикасида 120 нафар, Бухоро вилоятида 7 нафар, Жиззах вилоятида 4 нафар, Қашқадарё вилоятида 55 нафар, Навоий вилоятида 15 нафар, Наманган вилоятида 1 нафар, Самарқанд вилоятида 11 нафар, Сирдарё вилоятида 2 нафар, Сурхондарё вилоятида 60 нафар, Тошкент вилоятида 4 нафар, Фарғона вилоятида 1 нафар, Тошкент шаҳрида 3 нафар, Хоразм вилоятида 27 нафарни ташкил этади. Бахшиларнинг 45 фоизи ёшлардан иборат. Қорақалпоғистон Республикаси ҳамда вилоятларда жами 34 нафар бахшидан 22 нафари Ўзбекистон халқ бахшиси, 3 нафари Қорақалпоғистон халқ бахшиси, 2 нафари Қорақалпоғистон халқ жирови, 7 нафар ёш бахшилар “Ниҳол” мукофоти совриндоридир [9: 347].

2021 йилнинг статистик маълумотларига эътибор қаратадиган бўлсак, бахшичилик йўналиши бўйича Қорақалпоғистон Республикасида 19 та, Бухоро вилоятида 9 та Жиззах вилоятида 7 та, Навоий вилоятида 5 та, Самарқанд вилоятида 8 та, Сурхондарё вилоятида 14 та, Хоразм вилоятида 18 та, Қашқадарё вилояти 20 та болалар мусиқа ва санъат мактабларида жами 1589 нафар ўқувчилар ўқитилмоқда. Болалар мусиқа ва санъат мактабларида бахшичилик йўналиши бўйича дарс бераётган ўқитувчиларнинг умумий сони 242 нафар бўлиб, шундан 23 фоизи олий, 65 фоизи ўрта махсус ва 12 фоизи ўрта маълумотли кадрлар ҳисобланади. Албатта, бу каби муаммоларга ҳам ўз вақтида эътибор қаратилиб, маданият ва санъат соҳадидаги Олий таълим муассасаларига қабул квоталари кўпайтирилди ва янги ОТМ ташкил этилди.

Фольклор санъатининг ўзига хос жарни бўлган бахшичилик санъатини кенг тарғиб қилиш, ўрганиш, сақлаш ва ривожлантириш бугунинг кундаги энг долзарб вазифалардан биридир. Бахшичилик халқаро фестивали сабабли бахши-шоир, оқин, жировларнинг нафақат Ўзбекистонда балким, халқаро майдонда ҳам нуфузи бирмунча юқорилади. Дунё халқларининг янги Ўзбекистон билан маданий-маърифий соҳада илмий ва ижодий ҳамкорлик қилиш иштиёқи юқорилади. Бахшичилик санъати ҳозирги кунда янги Ўзбекистонда халқаро маданий ҳамкорликнинг энг таъсирчан ва самарадор усули ва омил деярлик олинди. Бу фестиваллар орқали дунё ҳамжамиятининг Марказий Осиё халқлари миллий маданиятига қизиқиши янгича тус олди. Чунончи, бундай ислохотларнинг ижобий самараси, Президентимиз Ш.Мирзиёевнинг таъбири билан айтганда: “Бизнинг асосий мақсадимиз – Марказий Осиёни фаровон ва барқарор ривожлантаётган, ишонч ва дўстлик маконига айлантиришдир”. Шундай экан, бахшичилик ва дostonчилик санъатини янада дунёга тараннум ва тарғиб этишни самарали ишларни амалга оширишимиз керак.

Бахшичилик ва дostonчилик санъатини янада ривожлантириш борасида бир нечта таклифлар бериб ўтмоқчиман:

– Бахшилар ҳаёти ва ижодига бағишлаб “Устоз бахшилар” номли туркум китоблар чоп этиш ҳамда етакчи дostonчилик мактаблар тарихи, анъаналарини, вакилари ҳақида маълумотларни жамловчи “Янги Ўзбекистон бахшилари” изоҳли луғат яратиш;

– Болалар мусиқа ва санъат мактаблари ҳамда ихтисослашган маданият ва санъат мактаблари ўқувчи ва талабалари учун бахшичилик санъати тарихига доир “Ўзбекистонда бахшичилик санъати”, “Бахшичилик ҳудудий мактаблари тарихи”, “Тарихий, қахрамонлик, ботирлик дostonлари”, “Хоразм дostonчилик санъати мактаби”, “Қорақалпоқ бахши-жиров мактаби” каби ўқув қўлланмалари, тавсияномалар ва дарсликлар яратиш;

– Маҳаллий ҳокимликлар билан ҳамкорликда ҳудудларда мавжуд бўлган Булунғур, Нурота, Қўрғон, Шаҳрисабз, Қамай, Нарпай, Шеробод бахшичилик, Хоразм дostonчилик, Қорақалпоқ бахши-жиров мактаблари ва уларнинг фаолияти ҳамда намояндалари ҳаёти ва ижодини ўрганишга доир илмий экспедициялар ташкил этиш;

– Бахшичилик санъати билан боғлиқ миллий мусиқа чолғуларини ишлаб чиқаришни йўлга қўйиш мақсадида ҳудудларнинг ўзига хос хусусиятлари ва бахшиларнинг ижро услубларидан келиб чиқиб махсус устахоналар ташкил этиш;

– Бахши ва дostonчилик соҳасидаги ўқитувчи кадрлар етишмаслиги боис, мавжуд 323 та болалар мусиқа ва санъат мактабларида фаолият олиб бораётган ўқитувчилар ўртасида танлов (кастинг) ўтказиб, уларнинг касбий маҳоратларини ошириш учун бахши ва дostonчилик санъатининг илмий ва назарий



манбалари билан кенгроқ таништириш мақсадида Ўзбекистон Фанлар академияси билан ҳамкорликда ойлик стажировкалар ўтказиб боришни йўлга қўйиш;

– “Ўзбеккино” Миллий агентлиги ва Қорақалпоқфильм киностудияси билан ҳамкорликда таниқли бахшилар ҳаёти ва ижодига бағишланган ҳужжатли, илмий оммабоп ва бадиий фильмлар яратиш мумкин.

Давлатимиз раҳбарининг бахшичилик санъатини халқаро миқёсда кенг тарғиб этишга қаратилган сай ҳаракатлари кўхна тарихимизнинг сўнмас оҳангларини бутун дунёга тараннум этиш ва бу ноёб санъатнинг ўзига хос ижрочилик услуби ва хусусиятларини намойиш этиш учун зарур бўлган барча имкониятларни яратади. Келгусида ҳам бахшиларимиз дўмбирасининг оҳангини, дostonларимиздаги ибратли ва хикматли инсонпарварлик ғояларини мадҳ этувчи қўшиқларни дунё аҳли тинглаб боради. Фақат эзгулик бахш этадиган дуторнинг ноёб оҳангини ва бахшиларнинг юксак маҳорати билан инсонни комилликка етаклайдиган халқ оғзаки ижодининг нодир дурдоналаридан баҳраманд бўлишларига ишончимиз комил.

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. – Тошкент, Тасвир 2020 йил. 62 бет
2. Дурдона оҳанглари. Газ. Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 2018 йил 30 март. № 14.
3. Газ. Янги Ўзбекистон. 2021 йил 18 сентябрь. № 187 (443), 2 бет.
4. Миллий маданиятимизнинг ташриф қоғози. Газ. “Янги Ўзбекистон” газетаси, 2020 йил 7 ноябрь 214-сон
5. Янги Ўзбекистон демократик ўзгаришлар, кенг имкониятлар ва амалий ишлар мамлакатига айланмоқда. Тошкент – 2021 йил. «Ўқитувчи» МЧЖ матбаа уйи. 65 бет.
6. Газ. Янги Ўзбекистон. 2021 йил 18 сентябрь. № 187 (443), 2 бет.
7. Кўхна тарихимизнинг сўнмас оҳанглари. Газ. Маданият. 2019 йил 31 январь, №5-сон
8. Газ. Янги Ўзбекистон. 2021 йил 22 сентябрь. № 189 (445), 6 бет.
9. Холмўминов М. “Санъатшунослик ва маданиятшуносликнинг долзарб муаммолари: анъана ва замонавий тенденциялар” Республика илмий-назарий конференцияси мақолалар тўпламидан. Тошкент-2021.

#### УЎК 34.03

### ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНING ТЕРРОРИЗМ ВА ЭКСТРЕМИЗМНИНГ ТУРЛИ КУРИНИШЛАРИГА ҚАРШИ КУРАШИШ ФАОЛИЯТИДАГИ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ

*Ф. Ахмуродов, Каишкарё вилояти ИИБ, Қарши*

**Аннотация.** Ушбу мақолада Ўзбекистон Республикасининг терроризм ва экстремизмнинг турли кўринишига қарши курашишидаги халқаро ва миллий ҳуқуқий асослари, терроризм ва экстремизмга қарши курашишидаги халқаро ҳамжамиятдаги ўрни ва ушбу йўналишида олиб бориладиган ишларни йўлга қўйиш борасидаги стратегияси, Ўзбекистонда терроризмга қарши курашиш аҳволи ҳақида маълумотлар берилди.

**Калит сўзлар:** Терроризм, экстремизм, конфессия, Бирлашган миллатлар ташиклоти (БМТ), Европа хавфсизлиги ҳамкорлиги ташиклоти (ЕХХТ), конвенция, битим, қонун, фармон, қарор.

**Аннотация.** В данной статье основное внимание уделяется международной и национальной правовой базе Республики Узбекистан в сфере борьбы с терроризмом и экстремизмом, роли международного сообщества в борьбе с терроризмом и экстремизмом, а также роли терроризма в борьбе с терроризмом и экстремизмом.

**Ключевые слова:** Терроризм, экстремизм, вероисповедание, Организация Объединенных Наций (ООН), Организация по безопасности и сотрудничеству в Европе (ОБСЕ), конвенции, соглашения, законы, указы, решения.

**Abstract.** This article focuses on the international and national legal framework of the Republic of Uzbekistan in the fight against terrorism and extremism, the role of the international community in the fight against terrorism and extremism, and the role of terrorism in the fight against terrorism and extremism.

**Keywords:** Terrorism, extremism, confession, United Nations (UN), Organization for Security and Cooperation in Europe (OSCE), conventions, agreements, laws, decrees, decisions.

XXI – асрда терроризм глобал тус олган муаммоларнинг бирига айланган бўлиб, бу муаммо бизнинг Ўзбекистон Республикасини ҳам четлаб ўтмагани ҳақиқатдир. Ўзбекистон Республикаси истиқлолга эришган дастлабки даврларда кўплаб террорчилик ҳуружларга дуч келган бўлиб, мустақиллигимизни кўра олмайдиган ва бундай олий неъматни кадрламайдаган ҳар хил экстремистик ва террористик гуруҳ аъзолари хорижий давлатлардаги раҳнамолари ёрдамида халқни қурқув ва даҳшатга солиш, конституциявий тузумга таҳдид қилиш ва ҳокимиятни кўлга киритиш мақсадида бир канча кўпуровчилик ҳаракатлари содир этди.

Терроризм ҳақида сўз борар экан албатта биз унинг луғавий маъносига тухталишимиз зарур. Терроризм (лот. terror — кўрқинч, даҳшат) -сиёсий рақибларни, мухолифларни йўқотиш ёки кўрқитиш,

аҳоли ўртасида ваҳима ва тартибсизликлар келтириб чиқариш мақсадидаги зўравонлик ҳаракатлари (таъқиб қилиш, бузиш, гаровга олиш, қотиллик, портлатиш ва б.) дейган маънони англатади.

Диний экстремизм ва терроризм маънавий таҳдидларнинг бир тури бўлиб, улар ўзлари мансуб бўлган диний конфессия вакиллари радиқал ҳаракатларга чорловчи, мамлакатдаги тинчлик ва осойишталикни издан чиқаришга интилувчи, мавжуд конституцион тузумни ағдариб ташлашга даъват этувчи тажоввужкор сиёсий фаолиятдир.

“Бугунги кунда халқаро терроризм, экстремизм, наркотирафик, ноқонуний миграция, одам савдоси, экологик муаммолар кучайиб бораётгани бутун инсониятни, жумладан, бизни ҳам қаттиқ ташвишга солмоқда. Бундай мураккаб шароитда юртимизда ва минтақамизда тинчлик осойишталикни асраш ҳар қачонгидан ҳам долзарб аҳамият касб этиб бормоқда” дея таъкидлайди. Бундан келиб чиқиб ҳозирги кунда юртбошимиз томонидан юқорида келтириб ўтилган масалалар долзарб ва ўта жиддий муаммо эканлигини англашимиз мумкин.

Ўзбекистон Республикасининг “Терроризмга қарши курашиш тўғрисида”ги қонуни 2000 йил 15 декабрь куни қабул қилинган бўлиб, 6 бўлим, 31 моддадан иборатдир.

**Қонуннинг мақсади:** терроризмга қарши кураш соҳасидаги муносабатларни тартибга солишдан иборат.

**Терроризмга қарши курашнинг асосий принциплари:** қонунийлик, шахс ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларининг устуворлиги, терроризмнинг олдини олиш чоралари устуворлиги, жазонинг муқаррарлиги, терроризмга қарши кураш ошқора ва ноошқора усуллари уйғунлиги, жалб этиладиган кучлар вавоситалар томонидан террорчиликка қарши ўтказиладиган операцияга раҳбарлик қилишда яққабощчилик принципларидан иборат.

**Қонун билан қўйидагилар тақиқланади:** терроризмни тарғиб қилиш; террорчилик гуруҳлари ва ташкилотларини тузиш ҳамда уларнинг фаолият кўрсатиши; террорчилик фаолиятига дахлдор юридик шахсларни, уларнинг бўлинмалари (филиаллари) ва ваколатхоналарини (шужумладан чет эл ва халқаро ташкилотларнинг ваколатхоналарини) аккредитация қилиш, рўйхатдан ўтказиш ва уларнинг фаолият кўрсатиши; террорчилик фаолиятига дахлдор чет эл фуқаролари ҳамда фуқаролиги бўлмаган шахсларнинг Ўзбекистон Республикасига кириши; тайёрланаётган ёки содир этилган террорчилик ҳаракатларига оид маълумотлар ва фактларни яшириш.

Ўзбекистон Республикасида 2000 йил 15 декабрда қабул қилинган “Терроризмга қарши курашиш тўғрисида” Қонунида “Терроризм” - сиёсий, диний, мафқуравий ва бошқа мақсадларга эришиш учун шахснинг ҳаёти, соғлиғига хавф туғдирувчи, мол-мулк ва бошқа объектларнинг йўқ қилиниши (шикастлантирилиши) хавфини келтириб чиқарувчи ҳамда давлатни, халқаро ташкилотни, жисмоний ёки юридик шахсни бирон-бир ҳаракатлар содир этишга ёки содир этишдан тийилишга мажбур қилишга, халқаро муносабатларни мураккаблаштиришга, давлатнинг суверенитетини, ҳудудий яхлитлигини бузишга, хавфсизлигига путур етказишга, қуролли можаролар чиқаришни кўзлаб ифвогарликлар қилишга, аҳолини кўрқитишга, ижтимоий-сиёсий вазиятни беқарорлаштиришга қаратилган, Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодексида жавобгарлик назарда тутилган зўрлик, зўрлик ишлатиш билан кўрқитиш ёки бошқа жиноий қилмишлар деб таърифланади.

Ўзбекистон Республикаси терроризм ва экстремизмга қарши курашиш масаласида ўз позициясига эга бўлиб, нафақат минтақада балки жаҳонда тинчлик ва барқарорликни таъминлашга ўз ҳиссасини қўшиб келмоқда. Жумладан, Бирлашган миллатлар ташкилоти, Европада хавфсизлик ва ҳамкорлик ташкилоти, Евроосиё иқтисодий ҳамкорлиги ташкилоти, Мустақил Давлатлар Ҳамдўстлиги, Шанхай ҳамкорлик ташкилоти, Ислон конференцияси ташкилоти каби халқаро ташкилотлар доирасида қабул қилинган экстремизм ва халқаро терроризмга қарши курашиш борасидаги ҳужжатлар ва шартномаларни бажаришда фаол иштирок этиб келди.

Ўзбекистон бир неча давлатлар билан терроризм ва экстремизмга қарши курашиш бўйича ўзаро **шартнома ва битимлар** имзолади. Масалан, 2011 йил 16 июнь кундаги “Жиноий даромадларни легаллаштиришга ва терроризмни молиялаштиришга қарши курашиш бўйича Евросиё гуруҳи тўғрисидаги” Битим, Ўзбекистон Республикаси ҳукумати билан Туркия Республикаси ҳукумати ўртасида 2004 йил 1 сентябрь кундаги “Халқаро терроризмга қарши кураш соҳасида ҳамкорлик тўғрисида”ги Битим, Ўзбекистон Республикаси ҳукумати билан Покистон Ислон Республикаси ҳукумати ўртасида 2005 йил 6 март кундаги “Халқаро терроризмга қарши кураш соҳасида ҳамкорлик тўғрисида”ги Битим, Ўзбекистон Республикаси ҳукумати билан Миср Араб Республикаси ҳукумати ўртасида 2007 йил 18 апрель кундаги “Уюшган жиноятчилик ва терроризмга қарши курашда ҳамкорлик қилиш ҳақида”ги Битимларни келтириш мумкин.

Ўзбекистон Республикаси томонидан халқаро шартнома ва ҳужжатларда кўрсатилган вазифа ва мажбуриятларни фаол тарзда бажариб келаётганлигини таъкидлаш лозим. Бунинг яққол исботи сифатида Ўзбекистон Республикаси делегацияси 2021 йил июль ойида бўлиб ўтган БМТ Инсон ҳуқуқлари бўйича кенгаши 47-сессиясида, шунингдек, “Можароли ҳудудлардан олиб чиқилган аёллар ва болаларни реабилитация ҳамда реинтеграция қилиш” мавзусидаги семинарлари ишида фаол иштирок

этиб, Ўзбекистон Республикаси Президенти топшириғига биноан бугунги кунгача ўтказилган “Меҳр -1, 2, 3, 4, 5” операциялари доирасида террорчилик фаолиятининг ўчоғи бўлган Сурия, Ироқ ва Афғонистон каби давлатларда оғир аҳволга тушиб, чорасиз қолган **беш юз нафар аёл ва болалар** инсонпарварлик ҳаракати инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилиш соҳасидаги асосий халқаро ҳужжатлар, шунингдек, халқаро гуманитар ҳуқуқ тамойилларига мувофиқ равишда амалга оширилди. Энг асосийси, қуролли можаролар давом этаётган ҳудудларга бориб қолган аёллар ва болаларни ўз ватанига қайтариш, ҳимоя остига олиш ҳамда жамиятга мослаштириш ишлари аввало миллий даражада ҳал этилиши жуда муҳим.

**Ўзбекистон Республикаси Президенти ва Ҳукумати томонидан Терроризм ва экстремизмга қарши курашишдаги ижтимоий муносабатларни тартибга солувчи бир қанча норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни қабул қилинган бўлиб, қуйидагиларни мисол келтиришимиз мумкин.** Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 19 сентябрь кундаги ПФ-5542-сонли “Террористик, экстремистик ёки бошқа тақиқланган ташкилот ва гуруҳлар таркибига адашиб кириб қолган ўзбекистон республикаси фуқароларини жиноий жавобгарликдан озод этиш тартибини такомиллаштириш тўғрисида”ги Фармони, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 20 сентябрь кундаги ПҚ-3947-сонли “Жиноий фаолиятдан олинган даромадларни легаллаштиришга, терроризмни молиялаштиришга ва оммавий қирғин қуролини тарқатишни молиялаштиришга қарши кураш бўйича идоралараро комиссияни ташкил этиш тўғрисида”ги Қарори, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 01 июль кундаги ПФ-6255-сонли “2021 - 2026 йилларга мўлжалланган экстремизм ва терроризмга қарши курашиш бўйича ўзбекистон республикаси миллий стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Фармони, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 23 июнь кундаги №414-сонли “Террорчилик ҳаракати оқибатида зарар кўрган шахсларни ижтимоий реабилитация қилиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги қарорлари ва шу каби бошқа қонун ости ҳужжатлари тегишли ташкилот ва идораларнинг терроризм ва экстремизмга қарши курашиш фаолиятидаги ижтимоий муносабатларни тартибга солишда ёрдам бериб келаётгани ҳақиқатдир.

Она Ватанимизни тинчлиги, яқинларимизни хотиржамлиги, давлатимизни келажаги учун терроризм ва экстремизмга қарши курашишга барчамиз бирдек масъулмиз.

#### ҲОЎДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Мирзиёев Ш.М. “Халқаро хотин-қизлар” байрамига бағишланган учрашувдаги нутқи. Постда газетаси, 2018 йил, 10 март
2. Ўзбекистон Республикасининг Терроризмга қарши курашиш тўғрисидаги қонуни. “Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Аxbоротномаси”, 2001 й., №1, 15-модда
3. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-ou/ozbekiston-milliy-entsiklopediyasi-davlat-ilmiy-nashriyoti-uz/>
4. <https://lex.uz>
5. <http://www.uzdaily.uz/uz/post/7267>.

УДК 93/94

### МИРОВАЯ ПОЛИТИКА ПОСЛЕ ВЫВОДА ВОЙСК США ИЗ АФГАНИСТАНА: ТЕНДЕНЦИИ, СЦЕНАРИИ, ПРОГНОЗЫ

**Ф.М. Бафоев, к.п.н., доц., Бухарский инженерно-технологический институт, Бухара**

**Аннотация.** Мақолада қо‘шни Афғонистоннинг Һиндистон ва Покистоннинг ядровий ва оддий қуrollari устидан назоратни амалга оshirish bo‘yicha shartnomaviy bazasini mustahkamlash, xalqaro terrorism tahdidlarini bartaraf etish bo‘yicha yangi yondashuvlarni ishlab chiqish, jahon siyosatini insonparvarlashtirish, uning rolini hisobga olish muhimligi isbotlangan. Xitoyning yangi dunyo tartibini shakllantirishda muayyan davlatlar uchun tahdidlar, xavf-xatarlar va tahdidlar reestrini yaratish imkoniyati, bir qator mamlakatlarda (jumladan, Afg‘oniston, Markaziy Osiyo) suv va oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash.

**Калит со‘злар:** jahon siyosati, xalqaro munosabatlar, yangi dunyo tartibi, xalqaro tashkilotlar, tashqi siyosat, Afg‘oniston, Tolibon, AQSH, jahon iqtisodiyoti, mintaqaviy tashkilotlar, jahon boshqaruv institutlari, xalqaro huquq, harbiy amaliyotlar, iqlim o‘zgarishi, suv resurslari, oziq-ovqat, pandemiya, ko‘p qutblilik, neoliberalizm, mo‘tadil konservatizm, xalqaro terrorism, diniy ekstremizm.

**Аннотация.** В статье доказывається необходимость укрепления договорной базы контроля за ядерными и обычными вооружениями соседних с Афганистаном Индии и Пакистана, выработки новых подходов к ликвидации угроз международного терроризма, гуманитаризации мировой политики, важность учета роли КНР в формировании нового мирового порядка, возможность создания реестра угроз, рисков и вызовов конкретным странам, обеспечения водной и продовольственной безопасности ряда стран (в том числе Афганистана, Центральной Азии).

**Ключевые слова:** мировая политика, международные отношения, новое мироустройство, международные организации, внешняя политика, Афганистан, талибы, США, мировая экономика, региональные организации, институты мирового управления, международное право, военные операции,

изменение климата, водные ресурсы, продовольствие, пандемия, многополярность, неолиберализм, умеренный консерватизм, международный терроризм, религиозный экстремизм.

**Abstract.** *The article proves the need to strengthen the treaty base for control over nuclear and conventional weapons of India and Pakistan, neighboring Afghanistan, to develop new approaches to eliminate the threats of international terrorism, to humanize world politics, the importance of taking into account the role of China in the formation of a new world order, the possibility of creating a register of threats, risks and challenges to specific countries, ensuring water and food security in a number of countries (including Afghanistan, Central Asia).*

**Keywords:** *world politics, international relations, new world order, international organizations, foreign policy, Afghanistan, Taliban, USA, world economy, regional organizations, world governance institutions, international law, military operations, climate change, water resources, food, pandemic, multipolarity, neoliberalism, moderate conservatism, international terrorism, religious extremism.*

Вывод войск США из Афганистана так или иначе оказал серьезное воздействие на всю мировую политику, процессы выработки, принятия и реализации решений, затрагивающих жизнь всего мирового сообщества.

Надо признать, что события осени 2021 г. оказали в целом негативное влияние на современную полицентричную международную систему, в какой-то мере расшатали международно-правовой фундамент, заложенный и поддерживаемый ООН, усилили нестабильность и неустойчивость, недоверие между участниками международных отношений.

«Постафганский» период мирового переустройства, конечно, может продолжаться недолго, хотя «окончательный дизайн его пока неизвестен» [1]. Это дает право попытаться сформулировать основные тенденции, сценарии, прогнозы мировой политики на предстоящий, краткосрочный период.

Прежде всего следует сказать, что при всей витиеватости современных международной отношений, Афганистан, события в нем будут продолжать оказывать влияние на всю мировую политику – хотя бы потому, что 90% опиатов, как известно, на мировой рынок поступает именно из указанной страны, и не исчезли исходящие отсюда угрозы международного терроризма и религиозного терроризма. Современная мировая политика никак не исключает в качестве участника международных отношений талибский Афганистан, общественные движения в нем, внутрисоциальные регионы.

Приход к власти в Афганистане талибов подтвердил, что ныне многие тенденции в современной мировой политике связаны с вопросами национальной идентичности и самоопределения. Указанные события доказали необходимость большего внимания ко всем слоям политической элиты стран мусульманского Востока, нетрадиционным акторам в лице различных религиозных движений, появление новых субъектов как в мировом, так и страновых политических процессах.

Возникают вопросы совершенствования договорной базы контроля за ядерными и обычными вооружениями соседних с Афганистаном Индии и Пакистана, возможности преодоления разногласий сторон по отдельным договорам и соглашениям.

Нынешний Афганистан ставит на повестку дня более детальный анализ угроз международного терроризма, новых, неординарных подходов по их нейтрализации. Экспертное сообщество может также глубже изучать международный терроризм как инструмент внешней политики, перспективы контртеррористической деятельности государств. В целом, в ближайшей и среднесрочной перспективе борьба с террористической угрозой не перестанет быть одним из приоритетных направлений деятельности мирового сообщества.

Особенностью нынешнего этапа развития международных процессов становится не просто сопровождение политической, экономической, социальной, военной и других сфер, как было ранее. Продолжает, несмотря на все негативные факторы, происходить гуманитаризация мировой политики, «социально-гуманитарные составляющие начинают инкорпорироваться во все другие области международных отношений и мировой политики» [3, 76-78].

Далее. Мировая политика в предстоящий период будет продолжать развиваться в тесной связи с мировой экономикой, состоянием экономики в ведущих странах мира и, прежде всего, США, мировых рынков, цен на энергоносители. В этой связи большое значение будет иметь преодоление системных сбоев в мировой экономике, ростов дефицитов, инфляции, прерываний цепочек поставок [1].

Несомненно, что США продолжали и будут продолжать ставить демократию и права человека в центр своей внешней политики. При этом официальный Вашингтон будет исходить из того, что в «демократических обществах есть более здоровые граждане, менее жестокие конфликты и более процветающие сообщества» [2].

(Проведенный анализ подтверждает, что сегодня КНР в какой-то мере перехватывает инициативу по формированию нового мирового порядка, ибо китайские стратегические проекты являются наиболее масштабными, привлекательными по сравнению с предложениями США, ЕС, других стран).

В нынешнее сложное время ряд региональных организаций (например, ШОС) все больше становятся важным субъектом мировой политики, занимают достойное место в ряду влиятельных международных структур.

Вместе с тем, эпоха пандемии и события в Афганистане показали, что институты мирового управления в целом «далеко не всегда работают эффективно, их возможности не всегда соответствуют динамике глобальных процессов». Эти события показывают, «у каких институтов есть потенциал, а какие нуждаются в донастройке» [1]. (Попутно отметим, что именно требование мировой политики рассматривать международные проблемы во взаимосвязи друг с другом и в едином общемировом контексте заставляет нас производить параллельный анализ влияния на мировую политику как вывода войск США из Афганистана, так и пандемии).

В современных условиях вновь резко возрос спрос на международное право, совокупность международных норм, согласованные решения, различные двусторонние и многосторонние договоренности. С другой, почти смежной стороны, обнаруживается падение внимания к крупномасштабным, дорогостоящим военным операциям США, их союзников по НАТО за своими рубежами.

Можно будет спрогнозировать пересмотр неолиберальной теоретической традиции, рост умеренного консерватизма в исследованиях мировой политики.

(Разумеется, сказанное о международном праве мне означает упадок интереса к неформальным договоренностям, не получающим институционального оформления, политическим консультациям, международным конференциям и форумам).

В свете последних событий заслуживает внимание предложение руководства России составить на уровне ООН своего рода реестр угроз, рисков и вызовов конкретным странам, их возможных их последствий для соседних, других государств и мира в целом. «Подобная «дорожная карта» способна сподвигнуть многие государства по-новому взглянуть на мировые проблемы и оценить, какую пользу именно они могут извлечь из кооперации» [1].

Одна из продолжающихся (хотя и не связанных непосредственно с событиями в Афганистане) угроз – превращение «борьбы за сохранение природы, за сохранение нужных параметров по климату в какой-то скрытый инструмент конкурентной борьбы на мировых рынках» [1].

И другой, связанный с изменением климата (и с Афганистаном, Центральной Азией), вопрос – проблема водных ресурсов. Остро стоит вопрос долгосрочных последствий принимаемых решений в этой сфере, судьбы стран, водный баланс которых нестабильный и не обеспечен на длительное время. Другой вопрос – проблема чистоты водных источников, питьевой воды.

Предмет особого внимания – снижение объема качественного продовольствия, предлагаемого на мировой рынок, рост цен на этот вид продукции и, в целом, обеспечение продовольственной безопасности ряда стран (в том числе Афганистана, Центральной Азии).

Задача Узбекистана в рассматриваемой связи «добиваться поставленных целей, достойно конкурировать на мировой арене» [4].

В целом, вывод войск США из Афганистана закрепил продолжающийся уже многие годы переход к глобальной многополярности. Понятно, что перед лицом глобальных вызовов мировому сообществу необходимо единение, а не новый раскол.

#### СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Заседание дискуссионного клуба «Валдай». Владимир Путин принял участие в пленарной сессии XVIII заседания Международного дискуссионного клуба «Валдай». 21 октября 2021 г. // Официальный веб-сайт Президента РФ – [www.kremlin.ru](http://www.kremlin.ru).
2. Secretary Antony J. Blinken at UN Security Council Meeting on Climate and Security. Remarks. Antony J. Blinken, Secretary of State. New York City, New York. September 23, 2021 // [www.state.gov](http://www.state.gov).
3. Лебедева М.М. Гуманитаризация мировой политики // Полис. Политические исследования. – 2021. – №4.
4. Мирзиёев Ш.М. Учителям и наставникам Узбекистана. 29 сентября 2021 г. // Официальный веб-сайт Президента Республики Узбекистан – [www.president.uz](http://www.president.uz).

УЎК 93/94

### ЁШЛАРНИНГ МАЪНАВИЙ ТАРБИЯСИДА САНЪАТ МУЗЕЙИНИНГ АҲАМИЯТИ (И.В.Савицкий номидаги Қорақалпоғистон давлат санъат музейи мисолида)

*Г.Ж. Бектурсинова, ўқитувчи, Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти Нукус филиали, Нукус*

*Аннотация. Мазкур мақолада ёшларни маънан етук шахслар этиб тарбиялашда миллий қадриятларимизнинг ўчоги бўлган музейларнинг ўрни ва аҳамияти ҳақида фикр-мулоҳаза юритилган. Айниқса, И.В.Савицкий номидаги Қорақалпоғистон давлат санъат музейи фаолиятининг ижтимоий ва маданий-маърифий тарбия тизимидаги ўрни ва ижобий таъсири юзасидан сўз юритилади.*

**Калит сўзлар:** тарбия, ёшлар, музей, музей иши, миллийлик, маънавият, маданият, шахс, мерос, маърифат, тарих.

**Аннотация.** В статье обсуждается роль и значение музеев, являющихся сердцевинной наших национальных ценностей, в воспитании молодежи как духовно зрелых людей. В частности, роль и положительное влияние деятельности Каракалпакского государственного художественного музея имени И.В.Савицкого в системе социально-культурного и просветительного образования.

**Ключевые слова:** образование, молодежь, музей, музейная работа, национальность, духовность, культура, личность, наследие, просвещение, история.

**Abstract.** This article discusses the role and importance of museums, which are the hearth of our national values, in educating young people as spiritually mature individuals. In particular, the role and positive impact of the activities of the Karakalpak State Museum of Art named after I.V.Savitsky in the system of social, cultural education.

**Keywords:** education, youth, museum, museum work, nationality, spirituality, culture, personality, heritage, enlightenment, history.

Янги Ўзбекистонда шиддат билан давом этаётган маънавий-маърифий ислохотларнинг пировард мақсади халқни рози қилиш, миллий қадриятларнинг яшовчанлигини таъминлаш борасида янги самараларга эришишдир. Бунда ёшларни ҳар томонлама тўғри тарбиялаш долзарб вазифалар сирасига киради. Айниқса, миллий ўзлгимиз яхши тушинган ва маънавийяти юқори ёшларни тарбиялашда музейларни ўрни ва аҳамияти беқиёс. Чунки, музейлар юксак маънавиятимизнинг илдизи десак муболаға айтган бўлмаймиз. Маънавият эса ёшларнинг интеллектуал салоҳиятини ифодаловчи катта куч. Президентимиз Ш.Мирзиёев: “биз учун маънавият – инсонлар ўртасидаги ўзаро ишонч, ҳурмат ва эътибор, халқ ва давлат келажагини биргаликда қуриш йўлидаги эзгу интилишлар, ибратли фазилатлар мажмуасидир. Бошқача айтганда, барча сиёсий-ижтимоий муносабатларнинг мазмуни ва сифатини белгилайдиган пойдевордир [1: 267] – деб таъкидлаб ўтган эди.

Зотан, халқимизнинг маданий мероси ҳақида ёшларга бор ҳақиқатни етказиш – уларда миллий ғурурни шакллантиришга ёрдам беради. Ҳозирда энг долзарб муаммоларидан бири бўлган ҳар томонлама ривожланган, маънавий етук комил шахс тарбияси ҳамжамиятимизнинг барча жабҳаларида ўзига хос тарзда сайқал топмоқда. Янги Ўзбекистонда кун сайин мустақамланиб бораётган янгича дунёқараш негизида она юртнинг ҳар бир фарзанди учун Ватан тарихини севиш, ўрганиш, дилига жо этишдан ҳам муқаддасроқ бурч йўқ. Шунинг учун ҳам Янги Ўзбекистонда ижтимоий-иқтисодий ривожланиш билан бирга, маънавий юксалишга ҳам алоҳида эътибор қаратилмоқда. Бу хусусида Президентимиз Ш.Мирзиёев: “Ҳаммангиз яхши тушунасиз, агар жамият ҳаётининг танаси иқтисодиёт бўлса, унинг жони ва руҳи – маънавиятдир. Биз Янги Ўзбекистонни барпо этишда ана шу иккита мустақам устунга, яъни, бозор тамойилларига асосланган кучли иқтисодиётга ҳамда аждодларимизнинг бой мероси, миллий ва умуминсоний қадриятларга асосланган кучли маънавиятга таянамиз [2: 4]” – деган эди. Биз бу тамойилга асосланган ҳолда етук яшил иқтисодиёти билан бирга ёшлар тарбиясида асрий қадриятларимизга суянган маънавий тарбия воситаларидан кенг фойдаланамиз.

Музейлар маданий-маърифий муассаса ҳисобланиб, уларнинг вазифаси тарихий ҳужжатлар, маданий ва маънавий ёдгорликларни тўплаш, табиий бойликлардан намуналар жамлаш ва сақлаш, уларни илмий жиҳатдан ўрганиб кўргазмаларга қўйиш ва кенг халқ оммасига ҳавола қилишдан иборат. Музейлар аҳолининг кенг табақалари ўртасида маданий-маърифий ишларни олиб бориши фикримизнинг далили демакдир [3: 3].

Мустақиллик даврида музейлар ишига алоҳида эътибор берилди. Бунинг бир қанча омиллари бор: Биринчидан, тарихий қадриятларимиз мустахлақчилик йилларида онгимиздан ўчириб ташланган миллий туйғуларни қайта тиклаш;

Иккинчидан, миллий ғурур, миллий онгни юксалтириш учун унутилган тарихимизни қайта тиклаш;

Учинчидан, аждодлар ҳурматини жойига қўйиш ёш авлодни аждодлар номи ва мероси билан фахрланишга ўргатиш, миллий ғурурини юксалтириш, бунок анъаналарнинг давомчиси этиб тарбиялаш [4: 19].

Музейларнинг ёшлар маънавий тарбиясида фойдаланиш, соҳадаги ислохотларнинг жамият тараққиётига таъсирини ошириш ва модернизация қилишда музейларнинг фаолиятини ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш билан бирга ёшларни музейларга қизиқтириш керак. Ёшларнинг маънавий тарбиясида музейларнинг ўрни ҳақида сўз этар эканмиз, аввало, унинг тарихига қисқача тўхталиб ўтамиз. “Музей” – юнонча атама бўлиб, “муза” сўзидан келиб чиққан. Қадимги Юнон мифологиясида санъат ва фан маъбудалари “музалар” деб юритилган. Музалар, яъни маъбудалар ёки худолар шоир ва санъаткорларга илҳом беради деб эътиқод қилинган. Шунинг учун антик поэзия асарларининг бошида кўпинча Музага мурожаат қилинган, санъат ва адабиётга, тарихга оид бир қанча маъбудалар мавжуд бўлган. Музейлар фаолияти халқнинг тарихий тараққиёт жараёнида ривожланиб бориши, қўлга

киритган ютуқлари ҳамда қолдирган бой маданий-маънавий мероси хусусида жуда катта таассурот беради. Музейлар маданий-маърифий муассаса сифатида омманинг ижтимоий эҳтиёжларини қондириш, уларни маънавий тарбияга етказишнинг энг етакчи воситаларидан ҳисобланади. Музей иши эса, жамоатчилик фаолиятининг фан, тарбия ва маданияти билан алоқада бўлиб турадиган ўзига хос бир қисми сифатида жамият тараққиётининг умумий тенденциялардан четда қолмаган. Музей ишини муаммоларини умумлаштирувчи, музей амалиётида фойдаланадиган ва махсус адабиётларда ўз аксини топган билимлар мажмуаси – музеология ёки музейшунослик дейилади.

Бу термин XIX асрнинг иккинчи ярмида пайдо бўлганлигига қарамадан жуда кўплаб жаҳон олимлар томонидан ўрганиб чиқилган. Музейшуносликнинг назарий системаси тушунча ва методлари XVI асрдан бошлаб шакллана бошлаган. Лекин фан сифатида сўнгги ўн йилликларда шаклланди. Музейшунослик – ижтимоий ахборотни сақлаш воситасида англаш ва етказиш жараёнини ўрганувчи ижтимоий фандир [5: 2]. Шунинг учун ҳам ёшлар маънавий тарбиясида музейларнинг роли кун сайин ортиб бормоқда. Музейлар ҳам вазифасига кўра тарихни, ўтмишни намойиш қилишнинг ўзига хос ибратхонасидир. Шундай экан, музейлар ёшларга тарихдан сабоқ беради, у халқнинг асрлар давомида қўлга киритган ютуқлари, илм-маърифатга қўшган ҳиссаси ҳақида кўргазмали, ишончли, илмий асослар билан инсониятга маърифат таркатади. Музейлар мазмун жиҳатдан қуйидаги турларга бўлинади:

- Тарих музейлари, тарих-архитектура ва тарихий адабиёт музейлари;
- Ўлкашунослик музейлари;
- Хогира-ёдгорлик музейлари;
- Санъат музейлари;
- Соҳа музейлари;
- Турли музейлар.

Узоқ ўтмиш даврларга бориб тақаладиган тарихга бой, қадим маданиятга эга бўлган халқимиз олдида ўз ўтмишини, келиб чиқиши, ота-боболари, урф-одатлари, маънавий бойликларини, юксак маданияти, санъатини янада чуқурроқ ўрганиш, англаш ва бевосита давом эттиришдек вазифаси туради. Ёшларга маънавий тарбия беришда тарихий хотирага эҳтиёж сезамиз. Тарихий хотира – ҳар бир халқ, миллат ўзининг замон ва макондаги ўрнини, насл-насабини, ўзлигини англаши, ўзининг ҳақиқий тарихини, маънавият ва маданияти жиҳатдан туган ўрнини, унинг ривожига қўшган ҳиссасини, ўзининг миллий ифтихорини, ғурурини мустақил ва ҳолисона англаб олишидир. Албатта, агар халқ ўзининг тарихий хотирасига, тарихий онгига эга бўлса, у муқаррар ўзи кечирган тарихий-ижтимоий жараёнларни чуқурроқ тушунади ва талқин қилади. Бу ўринишлар халқнинг вакиллари – олимлари, мутафаккирларининг илмий фаолиятида мужассамланади ва улар томонидан жамиятни, инсон ҳаётини ва маънавиятини илмий-назарий таҳлил этишда, унинг маълум назариясини, тамойилларини яратишда намён бўлади. Музейлар тарихий хотирани жонлаштириш омили бўлиб хизмат қилар экан, унда намойиш этилаётган материаллар ашёвий далил сифатида ўз даврига хос хусусиятларни акс эттирганлиги билан ўша давр маданияти, санъатидан берадиган хабари билан жуда қимматлидир. Улар халқимизнинг юксак ривожланган маданияти, адабиёти, санъати ҳамда маънавий дунёқарабини ёшлар маънавий оламига сингдиришда хизмат қилиши даркор.

Қорақалпоғистон Республикасида ҳам дунёга машҳур музейлар фаолият олиб боради. Жумладан, Савицкий номидаги Қорақалпоқ давлат санъат музейи жаҳонда энг машҳур музейлардан бири саналади. Музей экспонатлари монография (этнод, чизгидан тортиб то етук асарлар) тартибида тўплангани билан ҳам қимматлидир. Яна музейнинг ўзига хослиги экспонатларнинг зич жойланиши, экспозицияларда тўшамни тўлақонли намойишига эришганидир. Музей санъат асарларини тўплаш, тарғиб этиш, каталоглар чоп этиш, кўргазмалар ташкил қилиш билан шуғулланади. Музей қошида гиламчилик устахонаси ишлаб турибди; “Нукус музейининг дўстлари” клуби фаолият олиб боради, кўргазмалар уюштиради. Музей Халқаро музейлар қўмитаси (ИКОМ) аъзоси [6: meros.uz].

Музей коллекциялари рус авангард рассомлари асарлари номинацияси бўйича дунёда иккинчи ўринда (Санкт-Петербургдаги Рус музейидан кейин), Марказий Осиё худудида эса биринчи ўринда туради. Қорақалпоқ этнографияси ва археологик тадқиқотлар, шунингдек қорақалпоқ халқи миллий анъаналари, урф-одатлари, осори-атиқалари ва миллий кадриятлари борасида этнографик материаллар тўплами ҳам ташкил этилган. Машҳур рус рассоми ва коллекционер И.Савицкий ўша даврдаги совет сиёсий тизимини таъқиқларига қарамай рус авангард рассомлари асарлари коллекциясини тўплаган. Игор Савицкий номидаги мазкур музей 1966 йилда ташкил топган. Москвалик рассом Игор Савицкий биринчи марта Қорақалпоғистонга археологик ишларни бажариш учун 1950 йилда Хоразм археологик-этнография экспедицияси аъзолари сафида келган. Ушбу экспедиция фаолияти давомида рассом қорақалпоқ ва хоразм халқининг тарихига оид қазилма бойликлар, кўҳна буюмларни қўлга киритган ва ўша даврларда марказ музейлар ҳисобланмиш Москва, Ленинград музейларига диққатга молик экспонатлар ва қимматбаҳо манбаларни тўплаб етказган.

Кўп эмас, оз эмас етти йил мобайнида Нукусда истиқомат қилган И.Савицкий қорақалпоқ халқи халқининг миллий туриш-турмуш тарзи, урф-одатлари, миллий кадриятларига меҳр қўйиб, уларни яхши

кўриб қолган. У 1957 йилда Нукусга кўчиб келишга аҳд қилади ва Москванинг Арбатидagi квартирасини ташлаб, 1957 йилнинг кузида Нукусда кўчиб келган. Нукус Фанлар Академиясига ишга қиради, қорақалпоқ миллий либосларини йиғиш ва маҳаллий табиатининг ўзига хос кўринишларини чизиш ишларига киришиб кетади. Бир мунча вақт ўтгач, рассом маҳаллий раҳбарларни янги музейга асос солишга, ўзи йиққан материаллар ва экспонатлар музей ташкил этишга асос бўлишини исбот қилади ва унинг илтимослари инобатга олиниб, музей ташкил этилади. Музейга Савицкий раҳбарлик қила бошлади. У ўтган асрда 17 йил мобайнида собиқ Совет Иттифоқининг ҳар бир бурчагидан ўн минглаб экспонатлар йиғиб музейни бойитади. Савицкий жаҳон маданий хазинасига катта обрў олиб келадиган беқиёс асарларни ҳар қандай машаққатларга қарамай юзага чиқара олди. Машхур коллекционер тўплаган экспонатлар ва коллекциялари 90.000 дан ортиқ ҳар хил экспонатдан ташкил топган. Музейдан рус авангард рассомлари қатори ўзбек рассомлари, Қорақалпоғистон ва Қадимий Хоразмнинг халқ амалий санъати предметларигача жой олган. Рассом йиққан материаллар асосида ва маҳаллий аҳолининг катта ёрдами билан шўролар даврига қадар бутун дунёда қувғин қилиниб, асарлари ҳеч қаерда қабул қилинмаган.

У XX аср авангард рассомларининг асарлари билан музейни бойитиш йўлларини топади. Ўша даврда расмий давраларда социалистик реализм асарлари тан олинган бўлиб, авангард рассомлар асарлари қаттиқ таъқиқ остига олинган эди. Нафақат Ўзбекистонда, балки бутун Совет Иттифоқида авангардист рассомлар асарларини музейда сақлашни бирор музей раҳбарининг қўлидан келмаган. Шуниси аҳамиятга моликки, Нукуснинг марказдан узоқда жойлашгани Савицкийнинг ўз тажрибасига асосан ушбу асарларни намойиш этишига асос бўлган. Таниқли москвалик рассом Александр Волковнинг таъбири билан айтганда “Нукус музейининг ютуғи шундаки, Савицкий давлат музейини ўзининг дидига қараб жиҳозлай олди”. Савицкий рассом сифатида ҳам, ижодкор сифатида ҳам ўзгача инсон бўлган. Унинг умри мазмуни музейлар учун экспонатлар, тарихий осори-атиқалар йиғиш, янги манбаларни жамоатчиликка тақдим этиш ва шу йўл билан халқнинг энг бой анъаналарини ўрганишдан иборат бўлган. Ман шу қутлуғ фаолиятдан бошқа ҳеч нарса уни қизиқтирмаган.

Ижод кишиларни қизиқтириши мумкин бўлган ҳаётий қизиқлар, яъни қаерда яшаш, қандай овқатланиш, қандай турмуш тарзи кечириш ҳаёлига ҳам келмаган, унинг ҳаёлида фақат ҳайрат картиналар ва кўҳна буюмлар йиғиш бўлганлигини унинг дўстлари, танишлари, ижодкор дўстлари ва замондошлари кўп гапирганлар. Она юрти Украинада орттирган билими, кўникмалари, рус дворян жамиятининг ўзига хос турмуш тарзи, француз тилини мукаммал эгаллагани, шарқу-ғарб мусиқасидан ниҳоятда яхши хабардорлиги, театр ва санъат жони дили эканлиги, одамлар билан ниҳоятда оддий ва самимий муомаласи нафақат рассом, балки музейнинг ажойиб раҳбари бўлишига ҳам катта таъсир кўрсатди. Шу сабабли ҳам нукусликлар уни ҳали ҳамон фахр ва ҳурмат билан тилга олишади. Биз музей тарихига алоҳида урғу беришимиздан мақсад бу ижодкорнинг умр йўли ва фаолиятининг ўзи ҳам ёшларга ҳар томонлама ўрнатки ва маънавий тарбия бўла олишини исботлашдир. Савицкийнинг музейга экспонат йиғиш ишлари борасида “иштаҳа”си ниҳоятда катта эди, минглаб экспонатларни узоқ ўлкалардан келтириш учун ҳам маҳаллий раҳбарлар унга моддий кўмак кўрсатишгани музейнинг росмана бойишига катта туртки бўлган. Кўп экспонатларни кўрқмай қарзга олганини ҳам маҳаллий халқ ҳалигача айтиб юради. Ўша даврларда иш шу даражага етдики, қарзга берилган экспонатларнинг эгалари раҳбари идораларга рассом устидан шикоят қилдилар, Молия вазирлиги маблағ ажратмай қўйди, натижада Савицкий ниҳоятда қийин аҳволда қолди, шунда ҳам бўшашмаган. Мана ярим аср ўтиб, авангард санъат маҳсулотлари ғарбда миллионлаб долларга баҳолаётганини кўриб, ўша вақти Савицкий ҳақиқий жасорат намунасини кўрсатганини ҳис қилиш мумкин. Унинг ташкил этган музейи энг ноёб экспонатлар музейи бўлишини, ҳатто Париждан ташриф буюрувчилар ушбу музейни “жаҳон санъати камертони” сифатида тан олишларини башорат қилган экан, ҳақиқатдан ҳам ҳозир худди шундай ҳолат музейга ташриф буюрувчи хорижлик меҳмонлар томонидан берилаётган таърифда ўз тасдиғини топмоқда. Музей фаолияти билан дунё аҳлини янада чуқурроқ таништириш ва ёшларнинг маънавий тарбиясини ошириш, миллий ғурур ва ифтихорини тараннум этиш мақсадида 2010 йилда И.В.Савицкий номидаги Қорақалпоғистон давлат санъат музейи ҳақида “Ўзбекистон марвариди” номли ҳужжатли фильм суратга олинган. Худди шу йили америка киноижодкорлари томонидан суратга олинган “Таъқиқланган санъат саҳросида” (Desertofforbiddenart”). Голливуд кино усталарининг бу фильми жаҳон маданият ва маърифат аҳлига музейнинг тарихий экспонатлари, Ўрта Осиё кумликларидан топилган осори-атиқалар, XX аср рус авангард рассомлари асарлари билан теранроқ таниши имконини берган.

Мазкур фильмдан барча таълим муассасаларида тарғибот-ташвиқот воситаси сифатида фойдаланиш мумкин. Чунки фильмда маънавий қадриятларимизнинг устувор хусусиятлари уфириб туради. Чунки диёримиз жаҳон тарихи ва цивилизациясининг энг қадимий масканлари ва марказларидан биридир. Республика худудида сақланиб қолган юзлаб бебаҳо археологик меъморий ва ёзма ёдгорлик, амалий санъат ва халқ ижодиёти намуналари, – буларнинг барчаси халқимизнинг бой ва бетакрор тарихий маънавий меросидир. Бу мерослардан ёшлар маънавиятини оширишда янада



самарали фойдаланиш зарур. Ана шу меросни ўрганиш, уни авайлаб асраш ва келажак авлодларга бенуқсон етказиш бизларнинг шарафли ва масъулиятли бурчимиз ва вазифамиздир [7: 97,98].

Энди ёшларнинг маънавий тарбиясида музейларнинг фаолиятини янги босқичга олиб чиқишимиз керак. Қорақалпоғистонда И.В.Савицкий номидаги Қорақалпоғистон давлат санъат музейи ёшларимизни маънан кучли қилиб тарбиялашда ўз олдига махсус маънавий тарбия ва мактаб бўлиб хизмат қилмоқда. Ёшларни музейларга жалб қилиш, қизиқтириш ва доимий иштирокини таъминлаш маданият ва санъат соҳаси ходимларидан ҳам алоҳида фаоллик талаб этади. Шундай экан, ёшларимизни маънавий жиҳатдан савиясини юксалтириш, уларни миллий ва умумбашарий кадриятларимиз асносида маънавий етук, баркамол шахслар этиб тарбиялашда барчамиз камарбаста бўлишимиз зарур, деб ҳисоблаймиз.

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. “O‘zbekiston” нашриёти, 2021. 464 бет.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев. Инсонпарварлик, эзулик ва бунёдкорлик Миллий гоямизнинг пойдеворидир [Матн] :Тошкент: «ТАСВИР» нашриёт уйи, 2021. – 36 б.
3. Бектурсунова Г. Қорақалпоғистонда музейлар билан ишлашнинг инновацион тенденциялари (И.Савицкий номидаги музей мисолида) диссертация. – Тошкент, 2021. 81 б. Кўлёзма шаклида.
4. Караманова Г. Музейшунослик (маъруза матнлари). Нукус -2007. 74 б.
5. Якубов А. Музейшунослик фанидан маъруза матни. – Самарқанд, 2015. 44 б. СамДУ
6. Қаранг: Ўзбекистон маданий мероси веб-сайти. Манба: <https://meros.uz/uzc/object/ivsavitskiy-nomidagi-qoraqalpogiston-sanat-muzeyi>
7. Бекмуродов М. Рашидова М. Музейшунослик Тошкент – 2007 146. А. Қодирий номидаги Тошкент Давлат Маданият институти нашриёти

УЎК: 902 (575.141)

#### МАРКАЗИЙ ОСИЁ МЕЪМОРИЙ БЕЗАКЛАРИНИ ЎРГАНИШ

*Б.Н. Болиев, кичик илмий ходим, Самарқанд археология институти, Самарқанд*

**Аннотация.** Ушбу мақолада шиша ва шишасимон сирнинг ўранилиш тарихи, бу борадаги ютуқ ва камчиликлар, меъморий ёдгорликларни таъмирлашдаги муаммолар ҳақида фикр юритилган.

**Калит сўзлар.** Шиша, шишасимон сир, ёдгорлик, хосса, таъмирлаш, мозаика, технология, тузланиш, манба, қоплама, устахона.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются взаимосвязанные развитие стекла и глазурей и их научное изучение исследователями, достижения и недостатки исследований, проблемы реставрации архитектурных памятников.

**Ключевые слова.** Стекло, глазурь, свойства, памятник, особенность, реставрация, мозаика, технология, анализ, основа, инсоляция, источник, облицовка, мастерской.

**Abstract.** In this article illuminates the problems of repairing architectural monuments, development of glass and glaze by relating to each other and investigation of them by researchers, and success and snjrtags of explorations.

**Key words.** Glass, glaze, monument, character, feature, repair, mosaic, craftsman, ceramics, technology, analysis, base, salting, source, coating, workshop.

Кишилиқ тарихий тараққиётининг моддий маданияти тизимида табиий шиша билан тош даврдан бошлаб танишган ва бу даврдан ибтидоий одамзот шишасимон минераллардан курол сифатида фойдаланиб келишган[1, С. 23]. Ўзбекистон ҳудудида эса дастлабки шиша буюмлари бундан III-IV минг йилликка оид Замонбобо ёдгорлигида қайд этилган[2, С. 30-31]. Шунингдек, антик даврга оид шиша идишлар Афросиёб ва қадимги Термиз ёдгорликларида ҳам учрайди[3, С. 129]. Айниқса, илк ва ривожланган илк ўрта асрларга келиб шишасозлик хунармандчилиги янада ривожланган. Бу даврда Зарафшон тоғларида темир, мис, қалай, олтин, кумуш билан бир қаторда ҳам шишасимон минераллар ҳақидаги маълумотлар ёзма манбаларда ҳам учрайди[4, Б. 48]. Шунингдек, манбаларда шишасозлик сирларини мукамал ўрганган Ўрта Осиёлик мохир хунармандлар рангли шишалардан Хитой императори учун тахт ясаб берганликлари ҳам қайд этилган[5, С. 11]. Айниқса, Тан сулоласи даврида Фарғона, Тоҳристон ва Кешдан Хитойга олиб борилган рангли шиша буюмлари ниҳоятда қадрланган[6, С. 265-322]. Хусусан, Марказий Осиёда шишасозлик кенг қўламда ишлаб чиқариш милодий V асрдан бошлаб рўй беради. Бироқ милоддан аввалги I минг йилликдан бошлаб шишадан ва шишага ўхшаган қотишмалардан тайёрланган мунчоқлар кўплаб учрайди. Шиша идишларнинг хилма-хил турлари ва шишасозлик устахонаси Қувада работдаги будда ибодатхонаси яқинидаги хунармандлар даҳасидан аниқланган[7, Б. 67].

Маълумки, IX-XII асрларга келиб ошхона, тиббиёт идишлари, чирокдонлар, пардоз анжомлари, тақинчоқлар билан биргаликда дераза ойналари ҳам ишлаб чиқариш йўлга қўйилди. Бу даврда Бухоро, Самарқанд, Ахсикент, Ўтрор ва бошқа ўрта аср шаҳарларида кенг қўламда шиша идишлар ишлаб чиқарилган. Шу ўринда, шишасимон сир қопланган буюмлар эраמידан олдинги IV минг йилликлардан

маълум[8, С. 80; 9, 265-272; 10, 207]. Шиша идиш ва буюмлар юзига қопланган шишасимон сирларни кимёвий таҳлил қилиб солиштирилганда уларнинг таркиби деярли бир хил эканлиги кузатилди. Фақат шишасимон сирларга маълум миқдорда ранг берувчи унсур оксидлари қўшилганлиги таҳлиллар натижасида аниқланди. Бундан кўриниб турибдики, шиша ва шишасимон сир асрлар давомида бир-бирини тўлдириб, ривожлантириб келган. А.А. Абдураззоковнинг фикрича қадимги сопол идишларнинг юзига шишасимон сир билан безаш ва кейинроқ ўрта асрларга келиб майолика ва мозаика қоплама тахтачаларнинг юзига турли рангдаги шишасимон сирлардан нақшли безаклар бериш хунармандчилиги қадим замонлардан бошлаб шишасозлик билан чамбарчас боғланган ҳолда ривож топган деган фикри ҳам исботлайди. Бу ҳудудда яратилган шиша маҳсулотларининг кўпгина кимёвий таркиблари маълум вақтлардан кейин шишасимон сир таркибига ҳам жорий этилган[11, С. 20-25]. Мамлакатимиз ҳудудида қадимги сопол ва кошин маҳсулотлари юзига қопланган шишасимон сирларнинг кимёвий таркиблари жиҳатидан маҳаллий шиша таркибларининг маълум даражада қайтарилиши ва қурилиш соҳасига жорий этилиши деб қараш мумкин. Шу сабабдан шишасозликка оид бўлган кўпгина маълумотлар ўз моҳияти билан меъморчиликда ишлатилган шишасимон сир ва сирлаш соҳасига ҳам алоқадор дейишимиз мумкин.

Сопол ва кошин асосли ўрта аср қоплама материаллари таркиби ва хоссаларини ўрганиш масалалари баъзи муаллифларнинг илмий мақолаларида қисман бўлсада ёритиб ўтилган. Кошин сополдан таркиби ва хусусиятлари жиҳатидан кескин фарқ қилади. Кошинлар сополга нисбатан мўрт, юмшоқ ва ғоваксимон ашёдир. Унинг юмшоқ ва мўртлиги мозаика яшаш технологиясини осонлаштиради, ғоваклиги эса юзига қопланган шишасимон сирнинг чуқурроқ ютилиб, мустаҳкам ўрнашишини таъминлайди. Бу хусусияти кошин ва шишасимон сир орасидаги иссиқликдан кенгайиш коэффициентини сополга нисбатан барқарорлигини таъминлайди. М.А. Безбородов томонидан Анау (Туркманистон) мақбарасидаги мозаикали қоплама материалларини ўрганиб, мақбаранинг мозаикали қопламаси оҳакли асосга эга бўлиб, асосан оқ ва бошқа турли рангдаги сирлар билан махсус пишириш орқали ясалган деган хулосага келган[12]. Шунингдек, Ўзбекистон ҳудудида жойлашган меъморий обидалардаги шишасимон сир ва улар қопланган асос намуналари П.И. Балабан ва М.К. Раҳимовлар томонидан атрофлича ўрганилган. Улар ярим миқдорий спектрал таҳлил усули асосида муҳим хулосалар чиқаришган[13, С. 18-20].

Н.С. Гражданкиннинг илмий изланишларида қадимги меъморий қоплама материалларни (асосларни) кимёвий-технологик ўрганиш ҳамда шишасимон сирларнинг ишлатилган хом-ашёлари масалалари ёритилган[14, 123-158; 15, С. 152-160;]. Ф.А. Бурнашева шишасимон сирлар кимёвий таркибини таҳлил қилиш, унинг ишлаб чиқариш технологияси ва физик кўрсаткичларини аниқлашга, ўрганишга ёрдам беради деган хулосага келади. Унинг таҳлиллари мовий, яшил, сариқ ва оқ рангли шишасимон сирлар таркибида PbO кўп миқдорда, кўк ва қора рангли шишасимон сирларда у 1 % яқин эканлигини аниқлади[16, С. 137-143]. Афросиёб шишасимон сирларини ҳам Ф.А. Бурнашева махсус ўрганиб, хом-ашё манбаларини бир-бирига солиштириш учун техник таҳлил усулини ва асоси сопол бўлган шишасимон сирларнинг иссиқликдан кенгайиш коэффициентини аниқлашда дилатометр усулидан фойдаланишни таклиф қилган[17, С. 178-184]. Бошқа изланувчиларнинг фикрича буюмлар сиртига қопланган материалларни кенг тавсифлаш учун замонавий физик-кимёвий усулларни қўллашда тизимли равишда бош технологик кўрсаткичларини ўрганишдан иборат деб таъкидлайдилар[18, С. 149-156; 19, С. 50-55].

Э.В. Сайко Хуттал, Суғд ва Фарғона сопол идишларига қопланган шишасимон сирларни ва сополини ўрганиб, спектрал таҳлил усулидан фойдаланиб, кимёвий таркибини аниқлаган[20, С. 10-25]. Шунингдек, бу борадаги тадқиқотларни А.А. Абдураззоқов давом эттириб, сопол ва кошин асосли безак қоплама материалларининг кимёвий таркибини, технологиясини, физик-кимёвий кўрсаткичларини ўрганиб ва олинган натижалар асосида тарихий ёдгорликларни таъмирлашда ишлатишга мумкин бўлган янги замонавий қоплама материалларни яратишга ва консервация қилишнинг замонавий усулларини яратишга муваффақ бўлди. Таҳлил этилган манбалардан маълум бўлдики, сопол ва кошин асосларга қопланган шишасимон сирларни кимёвий-технологик ўрганиш етарли даражада бир-бирига боғланган ҳолда олиб борилмаган. Тадқиқ этилаётган қоплама материалларнинг баъзи хосса ва хусусиятлари тизимли равишда ўрганилмаган. Шунингдек, тарихий меъморий обидалар Самарқанд ва унинг атрофида жойлашган бўлишига қарамай, обидаларни таъмирлашда илмий-тадқиқот ишларига етарли эътибор қаратилмаган, чунки ишлаб чиқариш жараёни илмий натижаларга асосланган бўлиши керак. Ёдгорликлардаги намлик даражасининг ошиши, асосларнинг нураши, атроф-муҳит таъсири, шишасимон сирнинг асос сиртидан кўчиб тушиши, тузланиш миқдорининг ошиш муаммолари ханузгача ечилмаган.

XX асрнинг охирида Самарқанд, Бухоро, Хива, Қарши, Қўқон шаҳарларида меъморий ёдгорликларни таъмирлашга ихтисослаштирилган махсус илмий-амалий таъмирлаш устахоналари (МИАТУ) фаолият юритган бўлиб, мазкур устахоналарда таъмирланган ёдгорликлар ҳозиргача сақланиб турибди. Афсуски, ҳозирги вақтда бу устахоналар ўз иш фаолиятини тўхтатган. Таъмирлаш

устахоналарини тиклаш, уста мутахассисларни тўплаш ва замонавий асбоб-ускуналар билан жиҳозлаш меъморий ёдгорликларни илмий-амалий ўрганиш ва таъмирлаш ишларининг сифатли бўлишини кафолатлайди.

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Паничкина М.З. Палеолит Армении. Ленинград, 1950.
2. Кузьмина Е.Е. Могильник Заман-Баба // Советская этнография. №2. 1958.
3. Абдуллаев К. Художественное стекло Старого Термеза // ИМКУ. Вып. 29. Самарканд, 1998.
4. Ибн Хавқал. Китоб сурат ал-ард // Араб тилидан ўзбек тилига Ш. Камолиддин таржимаси. Тошкент, 2011.
5. Качалов Н. Стекло. М., 1959.
6. Бичурин И.Я. Собрание сведений о народах обитавших в Средней Азии в древние времена, М-Л. 1950. Т. II.
7. Ширинов Т.Ш., Матбобоев Б.Х. АхмадАл-Фарғоний даврида Кубо шаҳри. Тошкент, 1998.
8. Гражданкина Н.С. Архитектурно-строительные материалы Средней Азии // Ташкент, 1969.
9. Бурнашева Ф.А. Опыт технологического исследования глазурей керамической мозаики XV века из медресе Улугбека // Научные работы и сообщения, кн.3, Ташкент, 1961.
10. Абдуразаков А.А., Жалалова С. Исследование химических составов древней бытовой керамики юга Узбекистана // ИМКУ. Вып. 20. Ташкент, 1966.
11. Абдуразаков А.А. История стеклоделия Средней Азии в древности и средневековье // Автореферат диссертации на соискание ученой степени д.и.н. Ташкент, 1993.
12. Безбородов М.А. Мозаичные резные изразцы средневекового Анау // Доклады АН СССР, серия "Химическая технология". №5. М., 1946.
13. Балабан П.И., Рахимов М.К. Средневековые глазури Узбекистана // Стекло и керамика. №5. 1955.
14. Гражданкина Н.С. Опыт технологического исследования древней красноангобирванной керамики Узбекистана // ИМКУ, вып. 3, Ташкент, 1962.
15. Гражданкина Н.С. Методика химико-технологического исследования древней керамики // Археология и естественные науки. М., 1965.
16. Бурнашева Ф.А. Глазурная полива керамической посуды Афрасиаба X-XII вв. // ИМКУ. Вып. 4. Ташкент, 1963.
17. Бурнашева Ф.А. Методика изучения древней глазури // Археология и естественные науки. М., 1965.
18. Августиник А.И. "К вопросу о методике исследования древней керамики". Краткие сообщения института истории материальной культуры // Вып. 64. Изд. АН СССР, 1956.
19. Такибаев С.С., Ахметов С.Ф. Секреты древней глазури. М., 1991.
20. Сайко Э.В. Глазури и керамика Средней Азии VIII-XII вв. Изд. АН Тадж.ССР, Душанбе, 1963.

УЎК 93/94

#### ИЛК ЎРТА АСР СУҒД ТАРИХИНИ ЎРГАНИШДА БАКТРИЙ МАНБАЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ

*Б.С. Ғойибов, доц., т.ф.д., Самарқанд давлат университети, Самарқанд*  
*Д.Х. Аҳмадов, магистрант, Самарқанд давлат университети, Самарқанд*

**Аннотация.** Мазкур илмий мақолада ўрта асрлар ўзбек давлатчилигининг энг йирик маҳаллий давлатларидан бири ҳисобланган Суғд тарихи билан боғлиқ тарихий манбалар ҳақида сўз юритилади. Мазкур манбалар бактрий манбалари мисолида илмий адабиётлар таҳлили асосида амалга оширилган.

**Калим сўзлар:** конфедерация, тарих, Суғд, тарихий манба, ёзув, географик ҳудуд, деворий сурат.

**Аннотация.** В данной научной статье рассматриваются исторические источники, связанные с историей Согда, одного из крупнейших локальных государств Узбекского государства в средние века. Эти источники основаны на анализе научной литературы на примере бактрийских источников.

**Ключевые слова:** конфедерация, история, Согд, исторический источник, письменность, географический район, фреска.

**Abstract.** This scientific article deals with historical sources related to the history of Sughd, one of the largest local states of the Uzbek state in the Middle Ages. These sources are based on the analysis of the scientific literature on the example of bacterial sources.

**Keywords:** confederation, history, Sughd, historical source, writing, geographical area, mural.

Суғд конфедерацияси тарихига бевосита алоқадор манбаларни аниқлаш ва маълумотларнинг ишончлилиги даражасини белгилашда уларнинг қандай муҳитда яратилганлиги ҳам муҳимдир. Суғд конфедерация тарихига оид нисбатан кенг маълумот келтирилган суғдий, хитой, араб-форс, қадимги туркий тилидаги манбалар таҳлилига бағишланган бир қатор тадқиқотлар амалга оширилган. Бошқа тиллар, хусусан, бактрий ("Бактрия" ибораси географик маънони ифодалаш учун ишлатилган. Географик маънодан фаркли бўлиши учун ёзув ва тилни ифодалаш мақсадида "бактрий" атамасини ишлатиш маъкул деб топилди – А.Д.) тилидаги манбалар таҳлили тадқиқотчилар назаридан бирмунча четда қолган. Ушбу манбаларни тадқиқ этиш Суғд конфедерацияси тарихининг баъзи хусусиятларини ўрганишда муҳим аҳамиятга эга. Чунки шу асосда Суғд тарихининг бирламчи ва ёрдамчи манбалари аниқланади ҳамда маълумотларнинг реал тарихий жараёнларга боғлиқлиги қай даражада эканлиги ўз аксини топади. Қолаверса, турли тиллардаги манбалар муаллифларнинг у ёки бу жиҳатдан (масалан,

этник ёки сиёсий жиҳатдан) мансублиги тарихий жараёнларни қанчалик даражада холис акс эттирилганлигини аниқлашда муҳим омил саналади.

Суғд конфедерацияси тарихининг баъзи қирралари акс эттирилган бактрий тиллардаги манбаларнинг рус тилидаги нашрлари асосида муаммони тадқиқ этишга ҳаракат қилиш ҳам муҳим ҳисобланиб, ушбу манбаларда Суғд конфедерацияси тарихига махсус боб ёки бўлим ажратилмаган бўлса-да, улардан муаммонинг баъзи қирраларини ёритишда унумли фойдаланиш мумкин [1].

Бактрий тилли ва ушбу тил асосидаги юнон ёзуви (кейинчалик мил. авв. II-I асрларда юнон алифбоси асосида бактрияликлар ўз ёзувларини ишлаб чиққанлар), суғдий тил тарқалган ҳудудга қўшни бўлган минтақалардан бири ҳисобланади. Географик жойлашувига кўра, Суғднинг жанубий ҳудудлари илк ўрта асрлар Тохаристон (тарихий Бактрия) билан чегарадош бўлиб, ушбу минтақалар тарихи бири-бири билан боғлиқ.

Аммо Суғд тарихи билан боғлиқ маълумотлар кўпгина бактрий манбаларда учрамайди. Масалан, 1905 йил А. фон Ле Кок томонидан Туйок дарёси (Турфон / Шарқий Туркистон) воҳасидан топилган “Берлин эфталит парчалари” деб номланувчи бактрийча ҳужжатлар, Андрэ Марик томонидан 1957 – 1959 йилларда Сурх-Коталдан топилган қушонлар даврига оид бактрийча диний ҳужжатлар, 1962 йил Эски Термизнинг Қоратепа ибодатхонаси харобаларидан топилган диний мазмундаги ҳужжатлар, совет-афғон экспедицияси томонидан 1973 – 1974 йилда Шимолий Афғонистондаги Дилбержин шаҳар харобасидан топилган бактрийча ёзув машқи намуналарида Суғд конфедерацияси хусусидаги маълумотлар учрамайди. Уларнинг аксарияти диний мазмунда [2].

Тарихий Тохаристон ҳудудидан XX асрнинг 90- йиллари давомида топилган бактрий тилидаги, мутахассислар томонидан асосан милодий III-VII асрларга оид деб тахмин қилинган ҳужжатларнинг топилиши муҳим воқеа бўлди [3]. Эроншунос Н. СимсВильямс томонидан ўрганилган мазкур манбалар, асосан инглиз, қисман рус тилларига таржима қилинган бактрий ҳужжатлари [4] бошқа тилларга тўлиқ таржима қилинмаган. Бактрий тилли ҳужжатларнинг инглиз тили таржималарининг айримлари ўзбек тилида ҳам эълон қилинди [5].

Мутахассислар мазкур бактрий ҳужжатлар 639, 678, 681, 702 йилларда тузилганлигини келтириб ўтишади [6]. Ҳужжатлар олди-сотди, ижарага бериш, мажбурият, кафолат хати каби ҳуқуқий масалаларни қамраб олган. Бактрий тилли ҳужжатларнинг тузулиши ҳам Муғ тоғи суғдий ҳужжатларига ўхшашлиги билан диққатни тортади. Уларда ҳам ҳужжатнинг кириш формуласи, мақсади, ҳужжат тузилганда гувоҳлик қилганлар, тузилган санаси каби таркибий қисмлари мавжуд. Балки, хоқонлик тасарруфидаги девон ва маҳкама ишларининг бир хилда юритилиши марказий ҳокимият томонидан назорат қилингандир.

Бактрия ҳужжатлардан Суғд конфедерацияси ҳукмдорлари унвони билан алоқадор баъзи маълумотлар келтирилган. Масалан, ҳужжатларда келтирилган *хар* ёки *х̄р* унвони қадимги эроний тилдаги *xšāθriya* – “ҳукмдор” маъносини бериб [7], суғдий тилда [*əxšēθ*] деб талаффуз этиладиган “их-шид” сўзига ўхшаш. Бу икки атама ёзилишига қарамай, бир хил маъно англатиш учун ишлатилганлиги тарихий ҳақиқатга тўғри келади. Ушбу масалада олимларни ҳам фикри бир жойдан чиққан. Масалан, М.Исҳоқовнинг фикрига кўра, илк ўрта асрларда Тохаристон ҳукмдорлари унвони сифатида *ихрид* деб тушуниб келинган унвон палеографик жиҳатдан манбаларда чиндан ҳам шундай ўқилади. Бироқ, бу унвоннинг таркибидаги *-р* ҳарфи Жанубий Суғд минтақасида *-и* деб ўқилиши лозим. Бундай ноёб палеографик ҳодиса Жанубий Суғдга қўшни Тохаристон (Бактрия)да амал қилган юнон-бактрий ёзувидаги меъёр таъсирида юзага келган. Бактрий юнон ёзувида *reih* ҳарфи *иин* учун ишлатилган. Бунинг фонологик маъноси ушбу товушларнинг ўзгариши ўрни бирлиги, талаффузда эса, бири тор оралик шовқинли, иккинчисининг талаффузи титроқлиги билан белгиланади. Бактрий юнон ёзувида эса *иин* учун *reih* дан фойдаланиш каби қабул қилинган палеографик усул бир муддат “миллий” суғдий ёзувнинг жанубий минтақа амалиётига таъсир қилган кўринади. Бироқ, бу амалиёт кенг тарқалмаган. Шу сабабли, *ихрид* атамаси тарихан *ихшид* атамасининг маҳаллий варианты деб ҳисобланиши лозим [8].

Бактрия ҳужжатларида бир неча маҳаллий ҳукмдорларга Турк хоқонлари томонидан унвонлар тақдим қилиниши билан боғлиқ маълумотлар ўрин олган[9]. Ушбу ҳужжатларда Турк хоқонлари томонидан хоқонлик тасарруфида бўлган ҳукмдорларга тақдим қилинган *элтабар* унвони, бундан ташқари, хоқонликнинг жойлардаги назоратчи ноиблари бўлган *тудун* каби, *хоқон*, *тархон* ва бошқа ўнлаб қадимги туркийча унвонлар акс этган[10]. Манбада ушбу унвонларнинг хоқонлик бошқарувида ишлатилганлиги тилга олинади. Бу эса мазкур унвонларнинг Суғд конфедерацияси тарихи билан боғлиқлиги масаласи кучайтиради.

Бактрий тилида ёзилган бир неча ҳужжатлар Суғднинг ўзидан ҳам топилган. Хусусан, Панжикент харобаларидан ёрлик ва бир қанча сопол парчаларда битилган сўзлар, Афросиёб деворий суратларидаги бактрийча ёзув намуналари топиб ўрганилган [11]. Мазкур бактрийча манбаларнинг аксарият қисми хўжалик ва олди-сотди мазмунида бўлиб, уларда фақат конфедерация тарихини ёритишда ёрдамчи маълумот сифатида фойдаланиш мумкин.

Хуллас, Суғд тарихи алоқадор бактрий тилидаги ёзма ёдгорликларнинг манбашуносликдаги аҳамияти юқори. Уларнинг муаллифлари воқеалар жараёнини ёритиш асносида Эфталлийлар, Турк хоқонлиги каби давлатларнинг тасарруфида бўлган халқлар ва мамлакатларни санаш асносида Суғд тарихига тўхталишган. Уларда конфедерациянинг шаклланиши, ундаги танга зарби, давлат рамзлари каби асослар хусусида сўз юритилмайди. Бактрий тилида бирор тарихий асар етиб келмаган. Бактрия хужжатлари ҳали илмий жамоатчиликка кам таниш бўлиб, уларнинг рус, инглиз ва бошқа дунёвий тилларга тўлиқ таржима қилиниши натижасидагина ўрганилаётган муаммонинг баъзи хусусиятларини тадқиқ этиш мумкин.

#### ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Moravcsik G. Byzantinoturcica. II. – Berlin, 1958; ТерМкртичян Л. Х. Армянские источники о Средней Азии V–VII вв. – М., 1979; Пигулевская Н.В. Византия и Иран на рубеже VI и VII веков. – М.Л., 1946. – 289 с.; Сирийские источники по истории народов СССР. – М.Л., 1941. – 174 с.
2. Спеллин-Каменский Н.М. Бактрийский язык / Основы иранского языкознания. Среднеиранские языки. – М.: Наука, 1981. – С. 314-345.
3. Sims-Williams N. Bactrian Documents from Northern Afghanistan. I: Legal and Economic Documents. Corpus Inscriptionum Iranicarum, 2.3.1. – Oxford: 2000. – P. 8.
4. Симс-Вильямс Н. Новые бактрийские документы // ВДИ. – М.: 1997. – № 3. – С. 3-11.
5. Ўзбекистон тарихи. (Хрестоматия). 2-жилд. 1-қисм. – Тошкент: Фан, 2015. – Б. 49-56.
6. Ўзбекистон тарихи. (Хрестоматия). 2-жилд. 1-қисм. ... – Б. 50.
7. Симс-Вильямс Н. Новые бактрийские документы // ВДИ. – М.: 1997. – № 3. – С. 7.
8. Исҳоқов М. Суғдиёнада “ихшид” ва “ихрид” унвонлари ҳақида / Ўзбек давлатчилиги ва маданияти тарихида жанубий Ўзбекистоннинг ўрни. Республика илмий анжумани. – Қарши: 2011. – Б. 64-65; Яна қаранг: Ғойибов Б. Суғд конфедерацияси: шаклланиши, таракқиёти ва таназзули. – Тошкент: 2015. – Б. 33-34.
9. Ўзбекистон тарихи. (Хрестоматия). 2-жилд. 1-қисм. ... – Б. 50.
10. Sims-Williams N. Bactrian Documents from Northern Afghanistan. I: Legal and Economic Documents. Corpus Inscriptionum Iranicarum, 2.3.1. – Oxford: 2000. – P. 74, 82, 88, 98.
11. Спеллин-Каменский Н.М. Бактрийский язык. ... – С. 332.

УЎҚ 93/94

### ҚУЙИ ЗАРАФШОН ВОҲАСИДА БОБОДЕҲҚОН БИЛАН БОҒЛИҚ УРФ-ОДАТ ВА МАРОСИМЛАР (БУХОРО ВОҲАСИ МИСОЛИДА)

*Н.А. Жумаева, катта ўқитувчи, Бухоро Давлат Университети, Бухоро*

**Аннотация.** Мақолада Бухоро воҳаси зироатчиларнинг қадимий-диний культлар билан боғлиқ урф-одат ва маросимлари манбалар ва дала маълумотлари асосида таҳлил этилади.

**Калит иборалар:** урф-одат, культ, деҳқончилик, фаришталар, Наврўз байрами, оташпарастлик, ҳосилдорлик, мифология, олов.

**Аннотация.** В статье анализируются обычаи и традиции земледельцев Бухарского оазиса, связанные с древними религиозными культами на основании источников и полевых данных.

**Ключевые слова:** обычаи, культ, земледелие, ангелы, праздник Навруз, поклонение огню, урожайность, мифология, огонь.

**Abstract.** Article deals with the analyses of the traditions and customs of farmers in Bukhara oasis connected to the ancient religious cults based on the sources and field data.

**Key words:** Tradition, cult, farming, angels, Navruz holiday, fire-worshipping, harvest, mythology, fire.

**Кириш.** Бухоро аҳолиси узок асрлар давомида ўз ажодлари томонидан мерос қилиб қолдирилган урф-одатлар, маросимлар ва удумларга катъий амал қилиб келмоқда. Ижтимоий кундалик ҳаётда катта ўрин тутган бу маросимларда, аввало зироатчилик билан боғлиқ удум ва маросимлар ўзининг келиб чиқиш илдизлари исломгача бўлган табиат ҳодисаларини илоҳийлаштириш, осмон ва ер илоҳларига сизгиниш билан боғлиқ бўлган. Бажарилаётган ҳар бир ирим, урф-одат замирида воҳа аҳлининг зироатчилик билан боғлиқ асрий ҳаётий тажрибалари, зийраклик билан узлуксиз кузатишлари жамланган бўлиб, уларнинг туб моҳиятига эътибор берилса, эзгуликнинг ҳаётбахш нурларига талпиниш, деҳқончиликда самарали ҳосил етиштириш, юз бериши мумкин бўлган кўнгилсизликлардан огоҳ этиш, ҳалол меҳнатни рағбатлантириш табиат неъматларини кўпайтириш ва авайлаб асрашдан иборат бўлган. Зироатчилик билан боғлиқ бўлган халқ урф-одатлари ва маросимлар доно халқимиз тафаккурининг ғаройиб мўъжизаларидан биридир. Аждодларимиз асрлар давомида уларга амал қилиш билан бирга ўзига хос қоидалар, дуолар, айтимлар ва аломатларни ҳам яратишган.

**Асосий қисм.** XIX аср охири – XX асрнинг бошларида Бухоро хонлигига қарашли барча туманларида яшовчи аҳолининг ижтимоий-иқтисодий ҳаётида патриархал – уруғчилик муносабатлари анъаналари ҳукм суради. Бу даврда Россиянинг Ўрта Осиёни босиб олиши ўзбек халқи ҳаётидаги муҳим ижтимоий-сиёсий ва маданий муаммоларни ёппасига юзага чиқарди. Ижтимоий таракқиётнинг

мана шу босқичи деҳқон ва зироатчилик билан боғлиқ бўлган бир канча расм-русумларнинг характерини белгилаб берди.

Қадимдан Ўрта Осиё халқларига алоқадор бўлган деҳқончиликка оид расм-русумлар, иримлар яшовчан бўлиб чиқди ва унутилмади. Воҳада бу удумлар асрлар давомида халқнинг яшаш ва меҳнат тарзи билан боғланиб ўтказиб келинди. Айниқса, Ўрта Осиёдаги бошқа халқлар каби зироатчилик хомийси - Бободехқон култи (1) ва у билан боғлиқ урф-одатлар кенг тарқалган.

Шахсий мулоқотларимиз билан боғлиқ маълумотлардан шу нарса маълумки, деҳқончилик хомийси Бободехқон ҳалол меҳнат билан кун кўрувчи, деҳқонларга хомийлик қилувчи, уларнинг меҳнат унумига унум қўшувчи пир ҳисобланган. У айна саҳар пайтида деҳқонлар томонидан кўтарган хирмонлар бошида пайдо бўлиб, тонг саҳар турган деҳқонларнинг хирмонига барака улашиб улар пешона тери билан етиштирган ҳосилни тўкилиб, сочилиб исроф бўлишдан асрар эмиш. Қадимги ёзма манбаларни кузатиш жараёнида Бободехқон образи билан боғлиқ бир маълумотга дуч келдик. Носируддин Бурҳониддин Рабғузийнинг асарида [1] зироатчиликнинг хомийси Бободехқон Одам тимсолида ўз аксини топади.

Асардаги «Қиссаи Одам сафий алайҳиссалом» ҳикоятида агар Оллоҳ Каброил, Исрофил, Микоил, Азроил каби фаришталарни яратмаганда, оламбунчалар ранг-баранг ривожланмаган бўларди, дейилади. Қачонки бирор нарсани яратиш зарур бўлса ёхуд бошқа бир ишни амалга ошироқчи бўлса, шу фаришталар хизматидан фойдаланади. Кекса тажрибали деҳқонлар маълумотича яхшилик фаришталари ерга тушиб деҳқонларга, чорвадорларга ехуд бошқа касб эгаларига яхшилик қилмоқчи бўлсалар, Хўжайи Хидир, Хўжайи Хизр, Бободехқон, Деҳқонбобо суратида пайдо бўлишар экан.

Юқорида номи эслатилган Рабғузийнинг ҳикоятидан шу нарса аён бўладики, «Одам Ҳиндустонда Анжалус отлиғ ерда Сарандиб тоғинга тушди. Ҳавво Жадда тоғинга тушди. Одамнинг ёши томган ерда ўт-ем, ачиғ-сучук дорулар бўлди. Ҳаввонинг кўзи ёши томган ерда уд (2), каранфул (3), сунбул, хино, ўсма унди» [1,26]. Демак, ерда пайдо бўлган ўт-ўланлар, хайвонлар инсон (Одамнинг) мўъжизаси туфайли рўй берган экан.

Тилга олинган Одам ато ҳам, Жаброил, Исрофил, Мекоил, Исроил каби фаришталарнинг ҳар бири инсон турмушига, деҳқончилик ишларига аралашishi мумкин экан. Улар бир-бирини тўлдириб туради, яъни юдизи Олтой бориб тақалади, боғланади.

Одам ато ва Момо Ҳаво ерга қувилгач, уларнинг яшаши учун шароит зарур эди. Улар ерга тушгач, қоринлари оч қолади. Шунда Жаброил ёрдамга келиб, уларга хўкиз, бугдой олиб келади (4). Одамга ер ҳайдашни, уруғ сепиши, ўсимликни парвариш қилишни, ғалла ўришни, янчишни, ун қилишни ва пиширишни ўргатади.

Демак, Одам деҳқончиликда зарур бўлган барча қуролларнинг, маданий ўсимликларнинг ижодкори-пиридир. Кексалар айтганидек, барча ишлар - деҳқончилик ҳам, чорвачилик ҳам, ҳунармандчилик ҳам Одамдан мерос қолган. Одам -Бободехқон кўзга кўринмайди, аммо унга қурбонлик қилиб мурожаат қилинганда кишиларга ёрдам кўрсатади, экинларга ривож бериб, бало-қазолардан асрайди, деган тасаввурлар юзага келган.

Бободехқон тимсолини зироатчилар ягона қиёфада тасаввур қилишолмайди. Шунингдек, фақат Бободехқонга бағишланган алоҳида маросим ҳам йўқ. Бободехқон турли маросимларда тилга олинади. унинг рамзи сифатида кўп ўринларда соқолига оқ тушган кекса киши намоён бўлади. Куз ёки эрта баҳорда далага кўш тушганда, ариқларни тозалашда, уруғ экишда, ғалла ўришда, хирмондаги донни совиришда биринчи ишни бадавлат, бола-чакаси, неvara-чевараси кўп, иши доим олдинга кетадиган тадбиркор, обрўли киши бошлаб берган (5). Деҳқончиликдаги ҳар қандай ишнинг бошланишида Бободехқон рамзи сифатида кекса отахонлар туришган. Юқоридаги фикрларни Н.А.Кисляков,[2] К.А.Богомолова,[3] М.Р.Рахимов,[4] М.С.Андреев,[5] Л.Ф.Моногарова[6] каби этнография соҳаси маълумотлари ҳам тасдиқлайди.

Элшунос олим И.Муҳиддиновнинг ёзишича, Язгулом воҳасидаги барча қишлоқларда Бободехқон вазифасини «файгунай» ёки «шогун» деб аталган энг ҳурматли, обрў эътиборли тажрибали қария бажарган. Хинго дарёси ҳавзасидаги тожиклар уни «шавгун», Рушон, Бартанг ва Хуфда «хушпойқадам» дейишган[7]. Уларнинг вазифаси авлоддан-авлодга ўтган. М.С.Андреев ҳам юқоридаги фикрларни тасдиқлаб, ҳар қайси «қутлуғ қадам» (хушпойқадам) ёки «омад келтирувчи») авлоддан авлодга ёхуд отадан ўғилга ўтган, қўли енгил бўлган одам томонидан бажарилган, у зироатчилик маросимида аниқ бир вазифани бажарган: биринчи кўш чиқариш - шудгорлашда, уруғ сочишда, ғалла ўриш ва суғоришда бош бўлган, шунингдек, етти кун мобайнида эркакларнинг аёллар машғул бўлган ёзги яйловга боришини таққилаган.

Шуни таъкидлаш керакки, оғзаки сўров маълумотларича, Бухоро воҳасида Бободехқон тимсолини бажарувчи шахслар олдиндан белгилаб қўйилмаган, яъни бу вазифани хамиша бир киши бажармаган. Шу боисдан ҳам бу вазифа отадан ўғилга мерос қолдирилмаган(6). Жондор туманидага Бухорча қишлоғида, агар қишлоқда эшон(дин донишманди) киши яшаса, кўпроқ Бободехқон вазифасини ўша

киши бажарган. Агар эшон оламдан ўтиб қолган бўлса, унинг ўрнини катта ўғилларидан бири бажарган(7).

Ўрта Осиёнинг бошқа ҳудудларидаги сингари Бухоро воҳасида ҳам Бободехқон тимсолини нуруний чол қиёфасида тасаввур қилишган. Ромитан туманида қўш чиқариш, ғалла ўрими, хирмон янчиш маросимларида нуруний чол иштирок этолмай қолса, бу вазифани даврадаги энг еши катта киши бажарган. У кишининг ёши 50, 55, 60 да бўлиши мумкин экан(8).

Олот туманида илм эгаси кишлоқ муллеси ёхуд унинг ўғилларидан бири ҳам маросим чоғида «Куръон»дан оятлар ўқиб дуо қилиши, ишни эса кексароқ киши бошлаб бериши мумкин, дейишар экан. Юқоридаги маълумотлар замирида Бободехқон тимсолида бир неча хил мифологик персонажларни тасаввур қилиш анъанаси мавжудлигидан далолат беради. Ислон дини пайдо бўлгандан сўнг яратилган «Нурнома» мажмуасининг «Рисолаи деҳқон» бобида «Одам алайҳиссаломдин то жаноб расулиллоҳ Саллоллоҳу алайҳи васалламнинг саодатларигача 7777 деҳқон ўтибдурлар. Ҳаммалари оқил ва доно ва касб-корига мувофиқ рисола ва соҳиб дуо эдилар» дейилади. Балки, «Нурнома»нинг эл орасида тарқалиши зироатчилар тасаввуридаги Бободехқон тимсолининг шаклланишига асос бўлган бўлиши ҳам мумкин.

Деҳқончилик билан шуғулланадиган аҳоли ҳосилнинг миқдорини табиатга ва ундаги сеҳрли (магик) кучларга боғлиқ деб ҳисоблашган. Баъзан экинларнинг ривожини паст бўлиб, ҳосил кам бўлса ва бу ҳодиса икки-уч марта қайтарилса, бундай ер майдонига одамлар салбий назар билан қарашган. Гиёҳ унмайдиган ёки кам ҳосилли пайкалларни «ит теккан ер» (инс-жинс теккан маъносидан), «худо қарғаган ер» деб номлашган[8].

Рус олими Г.П.Снесаревнинг маълумотларига қараганда хоразмликлар ўлган одамнинг жасади теккан ерни нопок, деб ҳисоблаганлар. Агар экин экиладиган ерда одам жасади ёки унинг суякларини топилса, бу жой ҳаром ҳисобланган. Бундай ерни беш марта суғоргандан кейингина экин экишган. Айрим жойларда эса бундай ерларнинг атрофини уват олиб ўраб қўйишган ва 2-3 йил давомида суғормаганлар, экин ҳам экмаганлар[9].

Дала суҳбати маълумотларидан шу нарсани англаш мумкинки, воҳа деҳқонлари Бободехқоннинг Хизр қиёфасида ҳам тасаввур қилганлар. Демак, аждодларимизнинг ўйлашича, Хизр бобо халол меҳнат қилган, покиза, диёнатли инсонларнинг олдида ҳамиша ҳозир – нозир. Хизр - архаик мифологияда баҳор ва тирилиши рамзи: кейинча бу қатламга Шарқ диний ва эпос бадий тафаккури орқали «оби ҳаёт» - тириклик суви бахш этувчи, деган тасаввур қўшилади(10). Юқоридаги ҳикояни назарда тутиб шуни айтиш мумкинки, «ўлик ер»ни тирилтиришга интилган йигит кушчига Хизр бобо ёрдамга келган. Кишиларнинг назарида «ўлик ер» тирилиши ва мўл-кўл ҳосил бериши мумкин.

Назаримизда, халқ ривоятларида Хизрнинг деҳқонлар хомийси сифатида тасвирланиши бежиз эмас. Ахборотчиларнинг мулоҳазаларига кўра, қадимда Бободехқон кишиларни деҳқончилик қилишга ўргатган, ҳар хил меҳнат қуролларини кашф қилган. Хўжаи Хизр Бободехқон каби ўзи зироатчилик билан шуғулланмаган, аксинча, кайсидир бир ҳолатда ёрдам қўлини чўзган. Албатта, деҳқонлар кузги ва баҳорги шудгор, экин-тикин, суғориш, ўриш, хирмон қилиш, янчиш ишларида Хизр бободан ёрдам сўрашган. Кишилар Хизр бобони ҳар жойда учратиш мумкин: деб тасаввур қилинади.

Кишлоқ аҳли кўпни кўрган, деҳқончиликда суяғикотган кексалардан ерни шудгорлашда ҳам, уруғ сепишда ҳам, ғалла ўришда ва янчишда ҳам доимо маслаҳат олишган. Агар даладаги экинлар кўнгилдагидек, бўлиқ ривожланса, инс-жинслар ҳазиллашмасин, балою казолардан асрасин деб, Деҳқонбобо ҳақида ис чиқарилган. Маълумотларга қараганда, ис чиқаришнинг бирор белгиланган куни бўлмаган. Зироатчилик билан боғлиқ удумларнинг кўплари баҳорда, Наврўз байрами арафасида бажарилган. Бухоро воҳасида Наврўз 21 мартдан 22 мартга ўтар кечаси, «Қозон тўлди» соф оилавий удум бўлиб, ҳар бир оила ўз имкониятига қараб тансиқ таомлар (кўпинча палов), кўкат сомсалар, бўғирсоқлар тайёрлаган. Шунингдек, Бободехқон ҳақида «ис» чиқарилган. «Қозон тўлди»нинг эртаси куни ис ёғи билан қўшга қўшиладиган хўкизларнинг шохлари мойланган[10].

Пайкалларга ораланган инс – жинсларни ҳайдаш. Ҳар хил мушкулларни осон қилиш фақат уларга хос хусусиятлардир. Бободехқонга ис чиқариш жараёнида оловга сиғинишнинг ҳам гувоҳи бўламиз. Демак, инс-жинсларни даф қилиш, уларни олов билан қуйдириш, қўрқитиш оташпарастлик динига хос бўлса, Куръон суралари билан дуои бад қилиш ислонга динига хос, улар кейинчалик бир-бири билан уйғунлашган. Зироатчиларнинг тасаввурига кўра, олов ва дуонинг қудрати бирлашиб, ёвуз кучлар устидан осонлик билан ғалаба қилган. XIX аср охири - XX асрнинг бошларида ҳам Бухоро деҳқонлари ўзларига номаълум бўлиб кўринган табиатнинг кўринмас кучларидан қўрқувга тушар экан, айни пайтда аждодларга ўхшаб, улардан кутулиш чораларини ҳам излашган.

**Хулоса.** Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, Ўрта Осиёда яшовчи халқлар орасида зироатчилик хомийси Бободехқон ёки Деҳқонбобо образининг тарихий-мифологик асослари қадимги ҳосилдорлик илоҳи билан боғлиқ. Қадимги аждодларимизнинг эътиқодий инончлари, табиат ҳодисаларини илоҳийлаштириш билан боғлиқ мифологик ҳосилдорлик худоси ёки ҳосилдорлик илоҳларига топиниш анъаналари замирида пайдо бўлган ҳамда хомий куч тимсоли сифатида мифологик қахрамонлар

қаторидан ўрин олган ва кейинчалик уларга исломий тус берилган. Демак, халқимизнинг зироатчилик ҳомийси Бободехқон култига сиғиниш удумида исломгача бўлган эътиқодий қарашларнинг исломий анъаналар билан қоришиқ ҳолда синкретик тарзда сақланиб келаётганлигини кўришимиз мумкин.

#### Изоҳлар:

1. Бободехқон култи Помир тожикларида ҳам мавжуд бўлган. Бу тўғрисида батафсилроқ қаранг: И.Муҳиддинов. Реликты I доисламских обичаев и обрядов у земледельцев Западного Памира. - Душанбе. 1989.

2. Уд- сугир

3. Қаранфул – қалампирмунчок

4. «Одамнинг Қорни явлоқ очди. Жаброил мавло ёрлиқи бирла икки уй келтурди ужомҳдин, бири кизил, бири қора. Жаброил ужомҳдин уч увун буғдой келтурди, уч хисса кили. Иккиси санга, бири Ҳаввога- теди. Текма бир увун юз минг снр эрди. Уя уйлар ужомҳдин чикмишингга йиғлаштилар, кўхлари ешинднн кўнок бўлди. Илгарудин сидилар нахуд унди, кейинднн солган ёсмук унди. Жаброил уч увун буғдойни ушоқ синдурди эрса телим Одам Ҳавво таридилар. Одам тариған бутдой учди, Ҳавво тариған арпа унди. Ул соатда ўқ унди. Одам айди: «Енму?» Жаброил айди: «Йўқ, тиксун». Тикди. «Енму?» Айди: «Ўрғил» Ўрди. Айди: «Енму?» Айди: «Янчғил». Янчди. Айди: «Енму?» Айди: «Совурғил». Совурди. Айди: «Енму?» Айди: «Угутгил». Угутди. Айди: «Енму?» Айди: «Йўғурғил». Йўғурди. Айди: «Енму?» Айди: «Пиширғул». Айди: «Енму?»... Ёрлиғ келди: Эй Одам. куннинг икки улуши борди. бир улуши колди. Сабир килғил. кун ботсун. Бу кун рўза тутғил. Ул кун Ошур куни эрди. Ман санинг бирла уч иш Қилайин, сендан хушнуд бьшайин, ёзуКингни ёрликайн, ужомҳга кивурайин. Қачон Одам ул кўмочни егали ўғиради эрса Жаброил келди. Ул кўмочни уч улуш Қилдилар. Икки улушни Одамга берди, бир улушни Ҳаввога берди. Анинг учун эрга эрга икки улуш, хотунга бир улуш тегди. (Носируддин Бурхониддин Рабғузий. Кўрсатилган асар. 27-бет)

5. Дала ёзувлари, 1996 йил, Жондор тумани, Бухорча клшлоғи.

6. Дала ёзувлари, 1996 йил, Жондор тумани, Бухорча кишлоғи.

7. Дала ёзувлари, 1996 йил, Ромитан тумани.

8. Дала ёзувлари, 1996 йил, Олот тумани,.

9. Дала ёзувлари, 1997 йил, Жондор тумани. Бухорча ва Асбоб кишлоқлари.

10. Ўзбек мифологик афсоналарида Хизр тириклик бахш этадиган хаёт сувини топиб ичганлиги учун абадий барҳаётликка эришган мўъжизакор ҳомий ҳисобланади. Шу боис Хизр образи кўпинча сув манбалари билан боғлиқ ҳолда тасвирланади. Бу ҳақда қаранг: Ипак йўли афсоналари. Тўплаб, нашрга тайёрловчи М.Жураев. -Т.: Фан, 1993. -Б. 87-88.

#### ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Носируддин Бурхониддин Рабғузий. Киссаси Рабғузий. 1-китоб. -Т.: Ёзувчи, 1990. -Б. 25-26.
2. Кисляков Н.А. Патриархально-феодалное отношение среди оселого сельского населения Бухарского ханства в конце XIX - начала XX вв//ТИЭ. -М-Л. 1962. – С 28-29.
3. Богомолова К.А. Следь древнего культа воды I у таджиков//Изв.отд. общественных наук. АН Тадж ССР. Сталинабад, 1952. - Выш. 2. - С. 19-21.
4. Рахимов М.Р. Земледелие бассейна р. Хингоу в дореволюционны период. // Труды АН Тадж ССР. -Сталинабад, 1957. Т. 43. - С. 7.
5. Андреев М.С. Таджики долины Хуф. Сталинабад, 1953. -Выш.1. - С. 1 1-12.
6. Моногарова Л.Ф. Материалы по этнографии ёзгулумцев//ТИЭ. и.с.. 1959. т.Х1. - Вып. VII - С. 12
7. Муҳиддинов И.Реликты доисламских обычаев и обрядов у земледельцев Западного Памира (XIX-начало XX в). -Душанбе, 1989. -С. 11.
8. «Нурнома » мажмуаси. -Т., 1991. -Б. 32.
9. Қаранг. Снесарев Г.П. Реликты домусульманскнх верованияи и обрядов у узбеков Хоразма. - М.: Наука, 1969. - С. 226.
10. Мирзаев Т., Жўраев М. Асрларни мунаввар қилган байрам-Наврўз. -Т., 1992. –Б.58.

УЎК: 9(с54)

### ТУРКИСТОН – ХУРОСОН САВДО ЙЎЛЛАРИ ТАРИХИДАН Н.Ю. Жўрабоев, тарих фанлари номзоди, доцент, ТДТрУ, Тошкент

**Аннотация.** Мақолада Туркистонни Эроннинг шимолий-шарқий вилояти Хуросон билан XX аср бошларида олиб борган савдо-иқтисодий алоқалари ва икки ўртада амал қилган савдо йўллари тарихи архив ҳужжатлари ҳамда тегишли манбалар асосида ёритиб берилган.

**Калит сўзлар:** Туркистон, Эрон, Хуросон, Машиҳад, Аишхобод, савдо йўллари, қарвон йўллари, иқтисодий муносабатлар.

**Аннотация.** В статье освещается торгово-экономический отношения и торговых путей между Туркестаном и Северо-Восточной провинции Хорасан в начала XX века на основе архивных материалов и подобных источников.



*Ключевые слова:* Туркестан, Иран, Хорасан, Мешхед, Ашгабад, торговые пути, караванные пути, экономическая отношения.

*Abstract.* The article expresses the trade and economic relations and trade routes between Turkestan and the North-Eastern province of Khorasan in the early twentieth century on the basis of archival materials and similar sources.

*Keywords :* Turkestan, Iran, Khorasan, Mashhad, Ashgabat, trade routes, caravan routes, economic relations.

Туркистон-Эрон халқлари ўртасидаги алоқалар ўзининг узоқ тарихига эга. Мамлакатимиз мустақилликни қўлга киритганидан сўнг ана шу дўстона муносабатлар янги босқичга кўтарилди. Хусусан, 1992 йилнинг ноябрида Ўзбекистон Президенти Ислам Каримовнинг Эронга расмий ташрифи мазкур муносабатларнинг янги ҳуқуқий асослари яратилишига имкон берди. Ушбу сафар чоғида имзоланган муҳим ҳужжатлар халқларимизнинг ўзаро алоқалари янада мустаҳкамланишига, мамлакатларимиз ўртасидаги савдо-сотиқнинг ривожланишига, қатор соҳаларда тенг манфаатли ҳамкорлик ўрнатилишига хизмат қилди.

Агар тарих назари билан қарасак, Туркистон-Эрон савдо-иқтисодий муносабатлари ва, шунингдек, Эрон ҳудудлари орқали Шарқнинг бошқа давлатлари билан олиб борган иқтисодий алоқаларимиз кўп жиҳатдан мавжуд савдо йўллари, транспорт воситаларининг ҳаракат йўналишларига боғлиқ бўлганлигини кузатишимиз мумкин. Шу ўринда Туркистон-Эрон савдо-иқтисодий муносабатлари тарихига назар ташласак ҳам, кўхна қарвон йўлларининг мазкур алоқаларимиз тизимида нечоғли ўрин тутганлигини гувоҳи бўламиз.

Маълумки, Туркистон-Эрон халқлари яшаган ҳудудлар табиатан бир-бири билан туташ бўлган ва бу ўзаро савдо-содиқ ишларини ривож топишида муҳим омил бўлиб хизмат қилган. Туркистоннинг Бухоро, Самарқанд, Хива, Марв, Тошкент каби йирик шаҳарлари Эроннинг шимолий-шарқий вилояти – Хуросон билан мунтазам равишда савдо муомаласида бўлган. Эроннинг Машҳад, Нишопур, Сабзор шаҳарларидан йўлга чиққан қарвонлар Копетдоғ ва туркман дашти орқали Ашхобод, Марв шаҳарларига келган ва шу ердан Қорақум чўллари орқали Туркистоннинг марказий туманларига қараб йўл олган. Шу тариқа, Эрон Буёқ Ипак йўлининг Туркистон тармоғидаги жанубий йўналиш тараккиётида муҳим ўрин тутган.

XIX аср охири ва XX аср бошларида Туркистон Эрон билан икки йўналишда – қуруқлик ва денгиз (Каспий денгизи) орқали савдо-сотиқ қилар эди. Қуруқлик чегарисидан моллар Ашхобод, Ортиқ, Хивабод, Душак ва Хўжа-Бўлон божхоналари, Четлин ва Чаача пунктлари ҳамда Серахс, Гаудон, Қорақалъа ҳамда Қайнақасир заставалари; денгиздан эса Красноводск, Челекен божхоналари, Ҳасанқули ва Чиқишлар заставалари орқали олиб ўтилган [1]. Агар, 1911 йилда Ўрта Осиё (Туркистон) - Эрон чегарасидаги умумий мол айрбошлаш миқдори 16953.264 рублни ташкил қилган бўлса, бу рақам денгиз ва қуруқлик орқали чегара савдосида куйидагича манзара касб этган:

**Денгиз чегарасида:**

Экспорт – 2.303.645 р.

Импорт – 582.203 р.

Умумий мол айрбошлаш – 2.885.848 р.

**Қуруқлик чегарасида:**

Экспорт – 7.162.387 р.

Импорт – 6.875.029 р.

Умумий мол айрбошлаш – 14.067.416 р. [2].

Кўриниб турибдики, қуруқлик чегарасидаги савдо денгиз орқали бўлган савдога нисбатан қарийб 7 баробар кўп миқдорни ташкил этган. Буни, албатта, қуруқликдаги чегара қатта ҳудуддан ўтганлиги, бу йўналишдаги савдо йўлларининг яқин ва қулайлиги ҳамда Эроннинг энг йирик вилояти – Хуросонни деярли ана шу чегарада савдо қилиши билан изоҳлаш керак. Шу билан бирга, мазкур чегара бўйлаб қилинадиган савдо-сотиқ ишларида Туркманистоннинг марказий шаҳарларидан бири – Ашхободнинг етакчи роль ўйнаганлигини ҳам алоҳида таъкидлаш лозим.

Ашхобод Самарқанд, Бухоро каби қадимий шаҳарларга қараганда анча ёш бўлса-да, XIX асрнинг охириларида бошлаб руслар, кавказликлар ва форсларнинг кўчиб келиши ҳисобига унинг аҳолиси тезлик билан ортиб борди. Манбаларнинг гувоҳлик беришича, XIX асрнинг иккинчи ярмида Ашхободда 33 та қарвон сарой, турли хил моллар билан савдо қилувчи 768 та дўкон мавжуд бўлиб, шаҳарда 3200 эронликлар истиқомат қилган. Урушгача (1914 й.) бўлган даврда Туркистоннинг Хуросон билан биргина Ашхобод божхонаси орқали қилган савдоси 7.270.212 рублга етган [3]. Бунда, Ашхободдан Кучан орқали Машҳадга олиб борадиган арава йўлининг мавжудлиги мазкур йўналишда савдо-сотиқни кенг қўламда амалга оширишга имкон берган. Шу муносабат билан, Туркистон-Хуросон савдосида муҳим роль ўйнаган яна бир қатор қарвон йўллар хусусида батафсил тўхтаб ўтишни жоиз деб билдик.

Туркистон-Хуросон савдосида, юқорида таъкидлаганимиздек, Ашхобод-Кучан-Машҳад йўли муҳим ўрин эгаллаган. Бу йўлдан арава ва енгил автомобиллар қатнаши мумкин бўлган. Ёз мавсумида фургон арава билан Ашхободдан Машҳадга 7 кунда, қишда эса 10 кунда борилган. Туя билан мазкур йўлни ёзда 20 кунда, қишда 13 кунда босиб ўтилган. Бу йўлнинг умумий масофаси 295 км. бўлиб, Ашхободдан Кучангача 132 км., Кучан-Машҳад оралиғи эса 163 км. ташкил этган. Гаудон билан Кучан

ўртасидаги қарийб 84 км.лик масофа тоғлик худуддан ўтган бўлишига қарамай, қишин-ёзин бу йўлда туя ва арава қарвонларини учратиш мумкин эди [4].

Туркистон-Хуросон иқтисодий алоқаларида фойдаланиб келинган иккинчи йўналиш – бу Душак-Чаача-Машҳад савдо йўли бўлган. Мазкур йўлнинг масофаси 176 км. бўлиб, унинг 83 км. собиқ Шўролар давлати худудидан (Туркменистон), 93 км. Эрон худудидан ўтган. Бу йўлдан фақат юк ҳайвонларигина юра олган. Сабаби, 60 км.лик масофа (Копетдоғдан Машҳадгача) тоғлик-довон йўли бўлиб, унинг 15 км.лик юқори қисмига фақат туя ва хачир чиқа олган, холос. Бу йўлни ёзги мавсумида туя билан 15, қишда эса 10 кунда, хачир билан ёзда 10, қишда 6 кунда босиб ўтиш мумкин бўлган [5].

Шу билан бир қаторда, Туркистон-Хуросон савдосида фойдаланиб келинган Қаҳқа-Машҳад (161 км.), Душак-Келат-Машҳад (153), Душак-Қоратекли-Машҳад (163) ва Серахс-Машҳад (191 км.) каби иккинчи даражали йўллар ҳам бўлган. Ушбу тўрт йўналишнинг учтасида (Серахс-Машҳад йўлидан ташқари) факт юк ҳайвонларигина қатнай олган. Серахс-Машҳад йўлидан фургон араваларда юкларни 5 кун ичида манзилга етказиш мумкин бўлган [6].

Шундай қилиб, Туркистондан ортилган юклар ана шу йўллар орқали Хуросоннинг маъмурий маркази бўлган Машҳадга келтирилган. Бу ердан вилоятнинг Сабзавор, Нишопур, Шохруд, Турбати-Ҳайдари каби шаҳарларига элтувчи ички йўллар бўлган. Қолаверса, Хуросон Туркистон учун денгиз ва океан ҳавзаларига олиб чиқиш йўлидаги дастлабки дарбоза ҳисобланган. Агар, Хуросондан Дуздобга келинса, бу ердан темир йўли орқали бемалол Карачига (1500 км.), сўнг Карачи-Бомбей-Порт Саид-Марсель-Ливерпуль (13700 км.) йўналишига чиқиб олиш ва яна сув йўли орқали эса Карачи-Бомбей-Порт Саид-Марсель-Нью-Йоркгача (16500 км.) бориш мумкин эди. Муҳими шундаки, Карачи-Бомбей-Сингапур-Йокагама (Япония) сув йўли орқали (1200 км.) эса жанубий-шарқий мамлакатларнинг портларига бориб етиш ҳам мумкин бўлган [7].

Маълумки, ўтган асрнинг 20-йилларида амалга оширилган янги иқтисодий сиёсат (НЭП) ташқи иқтисодий алоқалар соҳасида ҳам бирмунча ўзгаришлар қилишни тақозо этди. Ўшанда, Туркистонга кўшни Шарқ мамлакатларидан озик-овқат маҳсулотлари келтириш муҳим масалага айланган эди. Ишни илдам ривожлантиришга мавжуд транспорт йўлларининг носозлиги, ҳаракат йўналишлари эса етарли даражада қулай эмаслиги ҳалақит берарди. Ана шундай шароитда, дастлаб, Ўрта Осиёнинг кўшни Шарқ мамлакатлари билан савдо-иқтисодий алоқалари масаласининг билимдони, ўша йилларда (1924-1926 й.й.) собиқ СССР нинг Кобулдаги ваколатхонасида Ташқи савдо вакили ва маслаҳатчиси бўлиб ишлаган Б.И.Дологополов Россия Шарқ Савдо Палатасининг Ўрта Осиё бўлими наشري бўлган “Торговля Среднего Востока” журналида эълон қилган “1924-25 йилларда кўшни мамлакатлар билан савдомиз” номли мақоласида Урта Осиёнинг хорижий Шарқ билан, хусусан, Эрон билан бўлажак савдо алоқаларини ривожлантирмоқ учун, аввало, мавжуд Полтараққ (Ашхобод)-Гоудон-Кучан-Машҳад юк автомобиль магистралини яхшилаш, шунингдек, Ўрта Осиё темир йўлини Эроннинг Астробод, Шохруд, Машҳад, Нишопур, Сабзавор шаҳарлари билан боғловчи тармоғини қуриш масаласини кўтариб чиққан эди [8].

Архив маълумотларинг гувоҳлик беришича, бу масала Россия Шарқ Савдо Палатасининг Ўрта Осиё бўлими томонидан бир неча марта муҳокама қилинган ва Палатанинг бу борадаги таклифлари собиқ СССР Йўл ва Алоқа комиссарлигининг Ўрта Осиё вакилигига тақдим этилган. Эрон ҳукуматининг Ўрта Осиёдаги консули Мирзо Каримхон Мубассар Рушоний ҳам бу масала ҳақида гапириб, Ўрта Осиё темир йўли тармоғини Эрон чегарасигача давом эттириш мақсадга мувофиқ эканлигини таъкидлаган ва бундан Эрон раҳбариятини хабардор қилган [9].

Афсуски, ушбу долзарб масалага ўша йилларда жиддий эътибор берилмади. Натижада, Ўрта Осиё жумхуриятлари ташқи дунёга чиқишнинг қулай имкониятларидан маҳрум бўлиб қолаверди.

Шуни мамнуният билан таъкидлаш жоизки, чинакам истиқлол туфайлигина мазкур масалага қайта ҳаёт бахш этилди. Марказий Осиё, Эрон, Покистон, Туркия ҳукумати раҳбарлари билан бўлган қатор учрашувлар чоғида Ўзбекистон томонидан бу муаммо қайта-қайта кун тартибига олиб чиқилди. Президент Ислоҳ Каримов республика зиёлилари билан бўлган учрашу чоғида қуюнчаклик билан: “Мен ҳар доим айтаман: олдимизда турган энг катта ғов шундаки, бизнинг коммуналчимиз чатоқ. Иккита темир йўл бор, холос. Бирдан кирилади, иккинчисидан чиқилади. Агар мўлжалдаги учта дарбозани очиб олсак, биттаси жунубга – Карачига, биттаси ғарбга – Форс курфазига, яна биттаси – Хитойга чиқади”,- деб таъкидлаган эди [10].

Дарҳақиқат, мустақиллик шарофати ўлароқ Ўзбекистонни автомобиль ва темир йўллар орқали жаҳонга чиқиш масаласи давлат сиёсати даражасига кўтарилди. Мамлакатимизнинг Марказий Осиёнинг энг муҳим йўллари чорраҳасида жойлашганлиги ташқи иқтисодий алоқаларимизда Евроосиё иқтисодий-маданий кўпригини барпо этиш имкониятини берди Хусусан, “Ғарбий дарбозани” очиш борасида улкан ишлар амалга оширилди ва оширилмоқда. Ҳолбуки, ҳеч бир мамлакат алоқа йўлларини – автомобиль, ҳаво ва темир йўл тармоғини ривожлантирмай туриб тараққиётга эриша олмаган. Ҳеч шубҳа йўқки, Марказий Осиё давлатларининг бу соҳадаги баҳамжиҳат ҳаракати келажакда қудратли ва буюк давлатларга айланишимизда, кўхна Туркистон минтақасида яшаётган барча халқларнинг фаровон

турмуши учун барқарор замин яратади ҳамда Буюк ипак йўли орқали шаклланган анъанавий алоқаларимизга умрбоқийлик бахш этади

Хулоса қилиб айтганда, ўтган аср бошларида Туркистон-Хуросон савдосида кенг истифода қилинган йўллар, биз туркистонликларни янги аср бошида қўшимиз Эрон билан бўлажак савдо-иқтисодий алоқаларимиз ва у орқали денгизга (Форс курфазии) чиқиш йўлларимизни ўзаро ҳамкорликда ҳал қилишга даъват этади. Гарчи XV-XVII асрларда бир қатор денгиз йўлларининг кашф қилиниши Буюк ипак йўлининг халқаро нуфузига маълум маънода салбий таъсир ўтказган бўлса-да, мазкур йўл куруклик орқали ўзаро туташ ўлкаларда, ҳеч бўлмаганда, маҳаллий аҳамиятини узок йиллар сақлаб қола олди. Бу ўринда, Туркистон билан Эроннинг Хуросон вилояти ўртасида XX аср бошларида амал қилган савдо йўлларига бир сидра назар ташлаш негизида, биз юқорида зикр этган маълумотларнинг ўзиёқ, фикримиз далили бўла олади, деб ўйлаймиз.

#### ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Ўзбекистон Марказий Давлат архиви. 17-фонд, 1-опис, 917-дело, 11-саҳифа.
2. Защук С. Торговля с Северо-Восточной Персией. – «Народное хозяйство Средней Азии», №4, Ташкент, 1924, с.34.
3. «Туркмановедение», №9, 1929, с.47.
4. Надеждин В. Транспорт в торговле Средней Азии с сопредельными странами Востока. – «Вопросы торговли Средней Азии (сборник статей)». Ежегодник Средне-Азиатской Восточной Торговой Палаты. Ташкент, 1929, с.91-92.
5. Ўша жойда.
6. Ўша жойда.
7. Ўша жойда.
8. Қаранг: «Торговля Среднего Востока», №9-11, Т., 1925; Яна қаранг: Отчет Среднеазиатской Торговой Палаты за 1926 год. Т., 1927, с.18.
9. ЦГА Узбекистан. Фонд 9, опис 1., ед.хр.2467, л.81.
10. Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура.- Т., «Ўзбекистон», 1996,101-б.

УДК 93/94

### ОБЕСПЕЧЕНИЯ ТРУДОВЫМИ РЕСУРСАМИ ПРОМЫШЛЕННЫЕ ЗОНЫ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ ВО ВСЕ ВРЕМЕНА РЕОРГАНИЗАЦИЙ ОРГАНИЗОВАННОГО НАБОРА РАБОЧИХ В 1950-1960 гг. (на основе архивных материалов)

*Ж.Г. Зарипов, докторант, Бухарский Государственный Университет, Бухара*

**Аннотация.** Ушбу мақолада 1950-1960 йилларда Бухоро вилоятида мавжуд саноат корхоналарида ишчиларни уюшган ҳолда қабул қилиш бўлимининг ривожланиши архив материаллари асосида илмий ёритиб берилган.

*Kalit so'zlar:* ko'chirish (migratsiya), tasnif, malaka, sovxoz, kolhoz.

**Аннотация.** В статье на основе архивных материалов научно освещается развитие отдела организованного найма рабочих на действующих промышленных предприятиях Бухарской области в 1950-1960 гг.

**Ключевые слова:** переселения (миграция), классификация, квалификация, совхоз, колхоз.

**Abstract.** This article scientifically covers the development of the department of organized recruitment of workers in the existing industrial enterprises in Bukhara region in 1950-1960 on the basis of archival materials.

**Key words:** resettlement (migration), classification, qualification, state farm, collective farm.

**Введение.** План по распределению рабочих по промышленным зонам сдвигался очень медленными темпами при этом оно не было полностью отдален от дел переселения населения совхозов и колхозов. Сельскохозяйственная политика продолжалась вплоть до 1955 года. Создается вопрос почему так мало, или для некоторых специалистов так много такая политика переселения продолжалась?

С созданием Главным переселенческим управлением в 1949 году, основной целью организованного набора рабочих служило развития районов промышленного строительства. Планы по распределению рабочих на каждый год отличался количеством трудоспособных граждан в периоде всей истории СССР.

**Основная часть.** Острый недостаток специалистов привело к повышению классификации каждому работнику тяжелой и легкой промышленности и строительства. На пример 13 августа 1952 г. в письме №836 от Каланова Начальника Узбекской республиканской конторы Оргнабора рабочих, облуполномоченному оргнабору рабочих Бухарской области Назарову было требование о состоянии рабочих на 1951-1952 гг. и план того сколько из них на 1952-1953 гг. будут обучаться на заочных и вечерних высших и средних учебных заведениях [1]. Старт о развитии рабочих в промышленных и строительных зонах означал отставанию производительности промышленности и нехватки образованных рабочих в строительстве при этом каждый год поставленный план по оргнабору рабочих выполнялся досрочно. План по разработке о численности квалификационных рабочих привело к новым

условиям и договорам между промышленных предприятий и рабочих. На пример: не имеющий никакой опыт и образования рабочий, прибывший на предприятия, мог приобрести квалификацию бурильщика, забойщика, плавильщика или другую либо профессию по его выбор в течении 3-4 месяцев. Совет министров гарантировал беспрепятственно освобождать от работы лиц, изъявивших желание на строительстве или в другой сфере промышленности.

В льготы и преимущества входили ряды льгот указом президиума верховного совета СССР от 20 марта 1948 г. постановлением совета министров Совета Министров СССР от 31 августа 1948 г [2].

- 1) Единовременное вознаграждение за выслугу лет  
Свыше года – 10% от тарифной ставки  
3 лет – 15%, 5 лет - 20%, 10 лет – 25%, 15 лет – 30% (тарифная ставка в месяц составлял 1000 рублей годовая 12000 рублей)
- 2) Правительственные награды (ордена, медали, и т.д.)
- 3) Льготы по социальному страхованию
  - а) Пособие по временной нетрудоспособности (кроме пособий по беременности и родам) в размере 100% заработной платы
  - б) при профессионального заболевания и в последствии увечья пособия должна платить 100% независимо от непрерывности стажа.
  - в) рабочим не состоявшим членами профсоюза выплачивать половинном размере.
- 4) льготы по социальному обеспечению (пенсия, пенсия по инвалидности, пенсия по случаи потери кормильца от 244 до 680 руб.)
- 5) льготы по индивидуальному жилищному строительству.

При желании остаться в постоянных кадрах свинцовой промышленности, ему в рассрочку предоставляется 10 тысяч рублей на индивидуальное жилищное строительство с погашением в течении 7 лет. Кроме того, предприятие оказывает помощь в строительстве дома.

- б) Самое основное льготы по оргнабору

Рабочим, направляемым в промышленность в порядке организованного набора, выплачивается безвозвратное 1000 рублей на самого рабочего, в размере 250 рублей за каждого переезжающего с ним члена семьи, при условии заключения договора с рабочим на 2 года [3].

Самая основная причина миграции в промышленных зонах это был, гарантированный опыт и получения средних и высших образовательных дипломов, потому что, начиная 1952 года каждая промышленная зона должна была иметь высоко квалифицированного работника для развития. Такие условия труда просто заставили всех задуматься и решиться перейти на механическую подвижность населения Узбекского ССР в том числе и Бухарскую область для работы в промышленность.

Остановкой или ослабленной политикой как мы сейчас говорим в современном мире – миграции стало несколько причин, первая из них это как я напоминал ранее – это переход промышленной миграции на Министерство сельскохозяйственных дел, такая ситуация оставила большую дыру на переселенческое управления для урбанизации народов.

Вторая причина после переселения всех на сельскохозяйственные работы для орошения целинных земель все граждане начали развивать некоторые обычаи и традиции, например, традиции жить там, где жили отцы и деды – в кишлаках, они все еще сильны, - а также, особенностями быта, природно климатических условий республики [4]. Все это вместе взятое сдерживало развития миграции на промышленных зонах, в зонах строительство и самое главное на урбанизацию народов на территориальное перераспределения и межреспубликанском и во внутриреспубликанском миграционном обмене.

Конечно же такая политика переселения играла на руку отставанию промышленности Республики, но таких некоторых республик как Сибирь и Урал это не задело причина этому была перенесение всех тяжёлой военно промышленных зон предпочтительно далеко от мест военных зон, этот факт показала сама великая война [5]. Здесь была и не особенно важная ситуация – у Сибири и на территориях Урала не было плодородных земель для их орошения, хоть и оно было это не играла важную роль для экономики страны, потому что все планы выполнялись на территориях Средней Азии.

Во третьих и последней точкой стал Переезд Организованного набора в Бухарской области. По решению Исполнительного комитета Бухарского областного Совета депутатов трудящихся №37 п.671 от 7 августа 1953 года «О размещении Областного отдела организованного набора рабочих при Облсполкоме». Обязать Бухарский горисполком Хусанова в срок до 10 августа 1953 года представить освободившиеся помещения горкомхоза по ул.Фрунзе №25, ранее занимаемое правлением артели «Кзыл-Магданчи» Бухарского Облпромсовета, для размещения Облотдела организованного набора рабочих при облсполкоме [6]. В этом решении сразу два зрелищных недостатка, первое это закрытия промышленного артеля и перенесения горисполкома от дел облсполкома.

Наряду с проблемами набором рабочей силы на промзоны были изменены права оргнабора по постановлении Совета Министров УзССР от 18 января 1957 года №19 «о мерах по улучшению

организованного набора рабочих и трудоустройства неработающего городского населения». По решению Исполнительного комитета Бухарской области от 15 февраля 1957 года №4 переименовать отдел организованного набора рабочих Бухарского Облисполкома на отдел организованного набора рабочих и трудоустройства при Бухарском Облисполкоме [7], одним решением Исполнительный комитет Уз ССР расширило действия и права оргнабора рабочих и сократило его территориальные действия по Бухарской области, теперь оргнабор рабочих разделили на некоторые районы по Бухарской области:

По Бухарскому району – Свердловским, Гала-Асийским, Рамитанским

По Каганскому району – Каракулский, Алатские районы.

Гиждуванскому – Пешкунский, Вабкентский, Шафирканский и Кызыл-тепинские районы. (по решению Бухарского Облисполкома от 15 мая 1957 года №4 приказом 74. В седьмом пункте решения было принято о выделении помещений для Керминского и Гиждуванского оргнабора рабочих и трудоустройства и обеспечить всеми необходимыми бытовыми условиями) [8].

К дополнениям все права отдела организованного набора рабочих и трудоустройства при облисполкоме были переданы к выполнению функции по оргнабору.

Все учеты по неработающему городскому населению, в том числе ученики, которые окончили 10-е классы и не продолжающих учебу и их трудоустройство на предприятия внутри страны и обеспечения правами для выезда в другие города и республики СССР.

Было принято о размещении рабочих по путевкам оргнабора районных и городских отделов на местах, без ограничения семейным и возрастным признакам, и устроить на работу лиц, которые были уволены ранее за нарушения трудовой дисциплины и отбывших наказание. Все эти новые расширенные инструкции по оргнабору дала возможность расширить зону прав оргнабора для востребованной рабочей силой после этого постановления Исполнительного Комитета, все отзывались даже на обычные разеснительные работы инспекторов оргнабора. Для улучшения качество для лиц, рабочих, не окончивших общеобразовательные школы были даны еще были созданы необходимые условия для обучения их производственным профессиям через курсовую сеть, путем бригадного, индивидуального обучения [10]. Это решения играло очень важную роль для дополнения высоко квалифицированных рабочих в, промышленных и строительных зон.

Постановлением ЦК КП Узбекистана и Совет Министров Узбекской ССР от 30 апреля 1960 года №403 Главное управление отдела организованного набора и трудоустройства был реорганизован на «Главное управления переселения и организованного набора рабочих» [11]. В обязанности отдела переселения и оргнабора рабочих входили:

1. Проведение организованного набора рабочих для постоянной работы в промышленности, строительстве и на транспорте Узбекской ССР и других районов СССР.

2. Организацию и руководство переселением колхозного и неколхозного населения в колхозы и совхозы Узбекской ССР

3. Руководство и контроль за организацию переезда переселенцев на новые места жительства, за их приемом, хозяйственным и жилищно-бытовым устройством, представлением установленных льгот, а также за организацией переезда рабочих, направляемых на предприятия и стройки в порядке организованного набора рабочих.

4. Направления совместно и постоянно действующими, комиссиями при городских и районных исполнительных комитетах депутатов, трудящихся молодежи, окончившей средние образовательные школы и подростков, получивших среднего образования на работу и на производительное обучение в промышленность, строительство, транспорт и другие отрасли, а также трудоустройство временно работающих граждан по их профессиям и специальностям.

5. Оказать помощь работникам, освобождаемые от работы в связи с реорганизацией, в их трудоустройство [12].

Так же был утвержден штат отдела переселения и организованного набора рабочих, в него входили Заведующий отделом, районный уполномоченный по организованному набору рабочих и переселению (заместитель), старший бухгалтер и сторожевая охрана [13].

Заведующим отдела был назначен Р.Нуруллаев [14] а главным бухгалтером П.П. Коряков (был переселен по оргнабору из Украинской ССР) [15].

#### СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Государственный Архив Бухарской области Ф – 1172, Оп – 1, Ед.хр – 1, Д – 15, Л.427

2. Государственный Архив Бухарской области Ф – 1172, Оп – 1, Ед.хр – 1, Д – 15, Л.375

3. Государственный Архив Бухарской области Ф – 1172, Оп – 1, Ед.хр – 1, Д – 15, Л.374-379

4. Л.Максакова., - «Миграция населения Узбекистана», Ташкент. 1986 г. ст-47

5. О.Д. Воробьева., - «Занятность и миграция Дальнего Востока: механизмы взаимосвязи». Москва. 2010 г. ст –

122.

6. Государственный Архив Бухарской области Ф – 1172, Оп – 1, Ед.хр – 1, Д – 32, Л.3.

7. Государственный Архив Бухарской области Ф.1172. Оп. 1. Ед.хр – 1, Дело – 32, Л.68

8. Государственный Архив Бухарской области Ф.1172. Оп. 1. Ед.хр – 1, Дело – 32, Л.72

9. Государственный Архив Бухарской области Ф.1172. Оп. 1. Ед.хр – 1, Дело – 32, Л.78
10. Государственный Архив Бухарской области Ф.1172. Оп. 1. Ед.хр – 1, Дело – 32, Л.69
11. Государственный Архив Бухарской области Ф.1172 ОП. – 1, Ед.хр. – 1, Дело – 16, Л.116
12. Государственный Архив Бухарской области Ф.1172 ОП. – 1, Ед.хр – 1, Дело – 16, Л.117
13. Государственный Архив Бухарской области Ф.1172 ОП. 1 Ед.хр. – 1, Дело – 16, Л.119.
14. Государственный Архив Бухарской области Ф.1172 ОП. 1 Ед.хр. – 1, Дело – 16, Л.120.
15. Государственный Архив Бухарской области Ф.1172 ОП. 1 Ед.хр. – 1, Дело – 16, Л.122.

УЎК 93/94

## ЯССАВИЯ ВА НАҚШБАНДИЯ ТАЪЛИМОТИДАГИ УМУМИЙЛИК ВА ХУСУСИЙЛИК

Э.Х. Зойиров, доц., ф.ф.н., Бухоро муҳандислик технология институти, Бухоро

**Аннотация.** Аҳмад Яссавий ҳамда Маҳдуми Аъзамларнинг тинчлик, барқарорлик, дўстлик ва ҳамжиҳатликни мустақамлаш, ўзаро меҳр – оқибат, шафқат ва муруват муҳитини қарор топтиришга қаратилган гояларидаги умумийлик ва хусусийлик таҳлил этилган.

**Калим сўзлар:** Аҳмад Яссавий, Маҳдуми Аъзам, умумийлик, хусусийлик, ихвон, макон, замон, хон, адолат, шариат, тариқат.

**Аннотация.** Анализируется общая и частная идея Ахмада Яссавий и Махдуми Аъзама а также создания и укрепления идеи стабильность условия мира, укрепление дружбы и единство, любви и милосердия.

**Ключевые слова:** Ахмад Яссавий, Махдуми Аъзам, общий, индивидуальность, братство, пространства, время, хан, справедливость, шариат, тарикат.

**Abstract.** The article analyzes the general and particular ideas of Ahmad Yassaviy and Mahdumi Azam as well as the creation and strengthening of the idea of stability of the world, strengthening friendship and unity, love and mercy

**Key words:** Ahmad Yassaviy, Mahdumi Azam, general, individualism, brotherhood, space, time, khan, justice, sharia, tarikat

Мамлакатимизда диний қадриятларни тиклаш, тасаввуф таълимотини чуқур ва холисона ўршанишдан кўзланган асосий мақсад комил инсон шахсини шакллантириш, ижтимоий-сиёсий муаммоларни ҳал этиш, жамиятни янгилашда тасаввуфнинг бугунги кун талабларига жавоб берадиган бой тажриба ва оқилона фойдаланишдир. Тасаввуф илми, унинг тариқатларидаги кенг кўламли таълимотлар, узоқ ўтмишга эга бўлиб, илдишлари қадимий даврларга бориб такалади. Президентимиз Ш.Мирзиёев 28 декабрь 2018 йилдаги Олий Мажлисга навбатдаги Мурожаатномасида олдимизга қўйган улкан вазифаларни амалга оширишда биз учун куч-қудрат манбаи бўладиган миллий ғояни ривожлантиришимиз зарур.

Хусусан, миллий ўзлигимизни англаш, Ватанимизнинг қадимий ва бой тарихини ўрганиш, бу борада илмий-тадқиқот ишларини кучайтириш, гуманитар соҳа олимлари фаолиятини ҳар томонлама кўллаб-қувватлашимиз лозим.

Тасаввуф таълимотининг ижтимоий-сиёсий қарашларини ўрганиш ва ундаги ижобий томонларидан миллий истиқлол мафкурасининг теран илдишлари сифатида фойдаланиш озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт қуришга ёрдам беради. Жамоанинг тинчлиги ва осойишталиги масаласи тасаввуф аҳлининг мунтазам диққат марказида бўлган.

Юсуф Ҳамадонийнинг шогирди Андоқий сўфийлик биродарлигининг 3 та шарти:

1. Ихвон – яъни, муайян шахс
2. Макон – яъни, муайян жой
3. Замон - яъни, муайян вақт [1]

тўғрисида муҳокама юритган.

Баъзи манбаларда Аҳмад Яссавий дарवेशлик осон эгалладиган маслак эмаслигини жуда яхши билган ҳолда дарवेशсифат инсонларнинг етишишини замон, макон ва иршод унсурларига боғлаб бундай дейди: "Мубтадийлар мурури, мутасаввифлар судури ва мунтаҳийлар зуҳури шу тўрт асосга боғлиқдир: Макон, Замон, Ихвон, Рабти султон".[2]

Яссавийга кўра шариатни билмоқ ва унга мувофиқ яшамоқ сўфийнинг бирламчи вазифасидир. Шариатсиз тариқат бўлмаганидек, тариқат тарбиясининг яна бир шарти "сиёсатлиғ муршид"дир:

Тариқатга сиёсатлиғ муршид керак,

Ул муршидга эътиқодлиғ мурид керак.

Хизмат қилиб пир ризосин топмоқ керак,

Мундоғ ошиқ Ҳақдин улуш олур эрмиш.[3]

Аммо Маҳдуми Аъзам ушбу қоидаларни қуйидагича шарҳлайди:

1. ХОН – тариқат фаолиятининг самарали бўлишини таъминлаш ҳукмдорларга боғлиқ ва уларнинг бош вазифаси саналади.

2. ИХВОН (биродарлик) – тариқат аъзолари ўз хатти – ҳаракатларида ҳамдард, ҳамнафас, ҳамфикр ва ҳамжихат бўлишлари керак.

3. МАКОН (ўрин, мавқе) – тариқат аҳли барча вазифаларини бажариши учун яратилган муҳит : яшаш жойи, хонақо, жоме- масжид ва бошқалар,

4. ЗАМОН (вақт) – вақт, он, нафас, имконият ҳар бир нафаснинг қадр - қиммати ва огоҳликда ўтиши.[4]

Эътибор берсангиз Махдуми Аъзам шартлар қаторининг биринчи ўрнига ХОН тушунчасини қўяди ва бу билан сиёсий фаолиятнинг тариқат хизматида устунлигини алоҳида таъкидлаб ўтади.

Шунингдек, пайғамбаримизнинг “бир соатлик адолат олтмиш йиллик нафл ибодатдан афзал” мазмунидаги ҳадисини эслатиб, давлат раҳбарлари ҳамиша адолат тарозисини ҳар ишда, ҳар доим қўллашлари лозимлигини уқтиради, одилликни давлат мустаҳкамлиги, умрбоқийлиги ва равнақининг асоси эканлигини баён қилади. Бу адолатнинг ибодатдан афзаллигини, мўмин – мусулмон адолат тантанаси учун интиломоғи лозимлигини қайд этишдир.

Шу тариқа, мутасаввиф ХОН деб адолатни, унинг мезони қилиб - ҳақиқат ва икки палласи деб шариат ва тариқатни кўрсатади. Адолат инсоннинг табиати ва ижтимоий тузумнинг моҳиятини белгилайдиган қудратли маънавий кучга эга бўлган ғоядир.

Марказий Осиё мутасаввифлари маънавий меросининг диний мутассиблик ва фундаментализмга қарши курашдаги аҳамияти яна шундаки, улар ислом динининг талаблари, ақидавий тамойилларига изчил риоя қилган ҳолда уларни умуминсоний қадриятлар билан, иймон, ахлоқий турмуш тарзи, ўзаро ҳамжихатлик ва меҳр - муҳаббат билан боғлашга ҳаракат қилганлар. Шу муносабат билан тадқиқотчи Г.Н. Наврузованинг қуйидаги фикрларини асосли деб ҳисоблаймиз: «Тасаввуф моҳиятан Қуръонга ва ҳадисларга асосланган бўлса-да, лекин умуминсоний қадриятлардан айримларини ўзида мужассамлаштирган таълимотдир;

Тасаввуф диний таълимот бўлиши билан бирга, тажрибада юзага чиқадиган амалий билим ҳамдир. Калом ва фалсафа имонни ақлий бир ҳодиса сифатида баҳоласалар, тасаввуф эса, имонни ахлоқий турмуш тарзи, ўзаро ҳамжихатлик, меҳр - муҳаббат ва ҳол сифатида баҳолайди». [5]Шунинг учун ҳам Марказий Осиё мутасаввифларининг жамоанинг тинчлиги ва осойишталигига доир ғояларининг диний фундаментализм ва экстремизмга қарши курашдаги аҳамияти ҳам ана шундандир.

Ёр куррасининг турли нуқталарида низо ва адоватлар ўчоғига чўғ қадалган ҳаракатлар бўлаётган ҳозирги жараёнда улуғ бобоқалонларимиз Аҳмад Яссавий ҳамда Махдуми Аъзамларнинг тинчлик, барқарорлик, дўстлик ва ҳамжихатликни мустаҳкамлаш, ўзаро меҳр – оқибат, шафқат ва мурувват муҳитини қарор топтиришга қаратилган ушбу эзгу даъватлари ўзига хос долзарб аҳамият касб этади.

“Музаққир ул-ахбоб” асарида келтиришича, ҳукмдор Убайдуллоҳон ўз пири ҳазрат Махдуми Аъзамга ушбу рубоийни ёзиб юборади:

Аҳволи ним, эй дўст, Яке-ду бинам,  
Ҳаргиз, ки бинам, Ҳақ чунон ба ў бинам  
Мустағриқи Ҳақ чунон шудам дарҳола ҳол,  
Ҳақ гўяму, Ҳақ бишнаваму Ҳақ бинам [6]

Мазмуни:

Ярим аҳволини, эй дўст бир-икки кўраман,  
Нимани кўрсам барчасини у билан бирга кўраман.  
Барча ҳолатда ҳам Ҳаққа шунчалар фарқ бўлибманки,  
Фақат Ҳақ дейман, Ҳақни эшитаман ва Ҳақни кўраман.

Убайдуллоҳоннинг бу рубоийсига ҳам жавоб тариқасида Махдуми Аъзам “Шарҳи рубоийти Убайдий”[7] рисоласини ёзади. Умуман мутасаввифанинг рисоалари тўпламидан “Убайдий” шеърларига бағишлаб ёзилган учта рисола, алоҳида диққатга сазовордир.

Убайдуллоҳон Аҳмад Яссавий таълимотидан ҳам хабардор эканлигини қуйидаги девонидан билиш мумкин:

Барча машоих сарвари, Султон Хожаҳмад Яссавий.  
Сонсиз муридлар раҳбари, Султон Хожаҳмад Яссавий.  
Хизр Отонинг ҳамроҳи, огоҳларнинг огоҳи,  
Доим илоҳий волаҳий, Султон Хожаҳмад Яссавий.  
Аллоҳ зикри ҳамдами, барча валилар аъзами,  
Сирри илоҳи маҳрами, Султон Хожаҳмад Яссавий.  
Ҳам ишқ аҳли содиқи, ушшоқ хайли Вомиқи,  
Дедор ганжи шоиқи, Султон Хожаҳмад Яссавий.  
Ўғли шаҳид ўлғон замон, берди хабар бир нотавон,  
Аблақ отин берди равон, Султон Хожаҳмад Яссавий.  
Лозола раъсуссобирин, манзўру куллиннозирийн,  
Султону куллил- орифийн, Султон Хожаҳмад Яссавий.

Бахту Саодат ахтари, жон махзанининг жавҳари,  
 Ҳикмат биҳорин гавҳари, Султон Хожаҳмад Яссавий.  
 Эй дўст кони маҳамат, ҳам баҳри илму маърифат,  
 Султони мулки офият, Султон Хожаҳмад Яссавий.  
 Кўнглумда қолмасдур ғамим, сиз каби бўлса маҳрамим,  
 Гар бўлса ҳар дам ҳамдамим, Султон Хожаҳмад Яссавий.  
 Бўлгон ҳаво йўлида сад, айлаб ҳаво ишини рад,  
 Айлар боримизга мадад, Султон Хожаҳмад Яссавий.  
 Иззат самоси ховари, ҳам ишқ мулки довари,  
 Мискин Убайдий ёвари, Султон Хожаҳмад Яссавий.

Аҳмад Яссавий ва Маҳдуми Аъзамнинг қарашлари инсон қалби ва онгига ижобий таъсир этадиган ҳаётий ғоялар тизимини ўзида мужассам этган бўлиб, миллат, халқ ва жамиятни бирлаштирувчи таълимот вазифасини ўтайди. Мутасаввифларнинг инсонпарварлик ва умуминсоний ғоялар билан суғорилган тасаввуфий қарашлари Ўзбекистонда яшовчи барча халқ, миллат, элат, ижтимоий қатлам ҳамда дин вакиллари тинч ва тотув яшашига қўмаклашади, диний мутаассиблик, экстремизм ва терроризмга қарши курашда, миллий ғоянинг мафкуравий негизини тушунишда, баркамол авлодни тарбиялашда муҳим омил бўлиб хизмат қилади.

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Идрис шох. Нақшбандия тарикати. -Т., 1993. – 14 б.
2. Усмон Турар. Яссавийнинг Туркистон тарихидаги ўрни ва мутасаввифлиги // Хожа Аҳмад Яссавий. ҳаёти, ижоди, анъаналари. -Т.: Ўзбекистон, 2001. – 129 б.
3. Аҳмад Яссавий. Девони ҳикмат / нашрга тайёрловчи Абдушукуров Р. – Т., 1992. – 8 б.
4. Хожагий Аҳмад Косоний. Зубдат ус – соликийн ва танбеҳ ус – салотийн. Қўлёзма. Ўз Р ФАШИ № 501 / XX. - 143 – 144 в.
5. Наврузова Г.Н. Нақшбандия тасаввуфий таълимоти ва баркамол инсон тарбияси. Фалсафа фанлари доктори илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация автореферати. – Т., 2002. – 14 б.
6. Хасанхужа Нисорий. Музаққир ахбоб. -Т., 1993. - 23 б.
7. Хожагий Аҳмад Косоний. Рисола - йе шарҳи Убайдий // Тарж. Абдулҳаким Шаърий Жўзжоний. Тасаввуф ва инсон. -Т.:Адолат, 2001.–117 б.

УЎК 94 (575.1)

### ҚОЗОҒИСТОН ЎЗБЕКЛАРИ ЖАМОАТ ТАШКИЛОТЛАРИ ТАРИХИГА БИР НАЗАР (1991-2020 йй)

*А.Б. Йўлдошев, ўқитувчи, Бухоро Давлат Университети, Бухоро*

**Аннотация.** Ушбу мақолада Қозоғистон Республикасида истиқомат қилаётган миллий-маданий марказлари ва театри тарихи ҳақида илмий мушоҳада юритилади. Шунингдек, ушбу жамоат ташкилотларида фаолият юритган шахслар ҳақида тарихий фактлар асосида маълумотлар келтирилган.

**Калит сўзлар:** Қозоғистон, ўзбеклар, устав, миллий-маданий марказ, қурултой, лидер, депутат, вояга етган, қадрият, анъана, урф-одат, театр, гострол, маданият, ижодий уюшма, газета.

**Аннотация.** В данной статье представлено научное наблюдение истории национально-культурных центров и театра в Республике Казахстан. Имеются также сведения о лицах, работавших в этих общественных организациях, основанные на исторических фактах.

**Ключевые слова:** Казахстан, узбеки, устав, национально-культурный центр, съезд, лидер, депутат, взрослый, ценности, традиции, обычаи, театр, гастроли, культура, творческое объединение, газета.

**Abstract.** This article presents a scientific observation of the history of national cultural centers and theater in the Republic of Kazakhstan. There is also information about the persons who worked in these public organizations, based on historical facts.

**Key words:** Kazakhstan, Uzbeks, charter, national cultural center, congress, leader, deputy, adult, values, traditions, customs, theatre, tour, culture, creative association, newspaper.

Қозоғистон Республикасида истиқомат қилаётган ўзбекларни ижтимоий жиҳатдан бирлаштиришда қатор жамоат муассасалари, бирларшмалари ва уюшмаларининг ҳамда матбуот органларининг фаолияти муҳим аҳамият касб этади. Жумладан, Қозоғистон ўзбек этномаданият бирлашмалари "Дўстлик" ҳамжамияти, вилоят ҳамда шаҳар ўзбек этномаданият жамоат бирлашмалари, "Қозоғистон ўзбеклари" маданият маркази, Чимкент шаҳар "Ўзбек драма театри", "Ижодкор" ва "Истеъдод" адабий бирлашмалари, "Чашма" ижодий уюшмаси, "Сайрам садоси" газетаси, "Жанубий Қозоғистон" вилоят газетаси, "Жануб жарчилари" республика ижтимоий-сиёсий, маънавий-маърифий ҳафтаномаси ва хоказолар шулар жумласидандир.



Қозоғистон Республикасида ўзбекларни бирлаштирган жамоат бирлашмаси ташкил этиш ғояси XX аср 80-йиллари охирида шакллана бошлади. Мустақилликнинг дастлабки йилларида ўзбекларни бирлаштирган илк миллий-маданий марказларнинг фаолияти кўзга ташланиб борди. Шундай жамиятлардан бири С.М.Исаков томонидан 1992 йилда ўзбеклар кўп сонли бўлиб яшаётган Жанубий Қозоғистон вилоятида “Ўзбек миллий-маданий марказ” таъсис этилиши билан намоён бўлди [1, 13].

Аммо том маънодаги ўзбекларни бирлаштирган марказ 1995-йилда ташкил этилган Қозоғистон Республикаси ўзбекларининг “Дўстлик” уюшмаси эди. Қозоғистон Республикаси ўзбекларининг “Дўстлик” уюшмаси ўзбеклар кўпчилик бўлиб истикомат қиладиган Жанубий Қозоғистон, Жамбул ва Қизилўрда вилоятлари зиёлиларининг сай-ҳаракатлари билан ташкил этилиб, ушбу ҳудудларда истикомат қиладиган ўзбек миллати вакилларининг ҳуқуқ ва мафаатларини ҳимоя қилиш, ушбу ҳудудларда миллатлараро муносабатларни қарор топтириш, ўзбек тилини, ўзбекона урф-одат, анъана ва кадриятларни асраб авайлаш, адабиёт, санъат, маданият ва бошқа ижтимоий муносабатларни тараккий этириш мақсадини кўзлаган эди [1, 14].

Қозоғистон Республикаси ўзбекларининг “Дўстлик” уюшмаси ташкил топган кундан бошлаб, унга академик Бахтиёр Қодирбеков раислик қилган бўлса, унинг ўринбосари сифатида Ғофур Қосимов фаолият олиб борди. Уларнинг фаолияти таҳлил қилинар экан, асосан Ўзбекистон ва Қозоғистон муносабатларини янги босқичга олиб чиқиш борасида таклиф ва тавсиялар тайёрлаш, Қозоғистон ўзбекларининг ижтимоий фаоллигига эришиш, ижтимоий ҳимояга муҳтожларни қўллаб қувватлаш, турли маънавий-маърифий тадбирлар ташкил этиш каби ўнлаб амалий тадбирларни қайд этиб ўтиш ўринли бўларди.

Уюшмани 2001-2003 йиллар оралиғида таниқли кардиожаррох Озод Тошпўлатов, 2003-2008 йилларда Рўзакул Халмуродов, 2008-2010 йилларда Раҳматжон Абдусаттаров (унинг ўринбосарлари Ғофур Қосимов, Икром Ҳошимжонов ва Мамадияр Қодирбеков-Дисс.), 2010-2016 йилларда жамоат арбоби Ғофур Қосимов, 2016-йил 26-ноябрдан Икром Ҳошимжонов бошқариб келмоқда [2].

Қозоғистон Республикаси ўзбеклари “Дўстлик” ҳамжамиятининг фаолиятида Ҳамжамият кенгашининг қарорлари муҳим аҳамиятга эга бўлиб, ушбу кенгаш Ҳамжамият фаолиятининг вазифаларини белгилаб беради. Шунингдек, ушбу кенгашнинг ҳамжамият аъзоларини, унинг раиси ва ўринбосарларини, маслаҳатчиларини, унинг ҳудудий марказ раисларини сайлаш ҳуқуқига эга ҳисобланади. Жумладан ушбу кенгашнинг 2017 йил 23 январдаги қарорига мувофиқ куйидаги таркибда ҳамжамият бошқаруви таркиби шакллантирилган. Чимкентлик У.Р. Қодиров - ташкилий масалалар бўйича биринчи ўринбосар, Тарозлик Б.Т. Мўминов - адабиёт-санъат, маданият ва спорт ишлари бўйича ўринбосар, Астаналик Х.Х. Шарипов - Қозоғистон халқлари ассамблеясида иш юритиш бўйича ўринбосар, Алматилик А.Ж.Исматуллаев - молия, сармоя, ҳомийлик ва хўжалик ишлари бўйича ўринбосар, Чимкентлик Н.Ж.Досметова - таълим-тарбия, гендер тенглиги, урф-одат ва анъаналар бўйича ўринбосар лавозимига сайланганлар [3]. Кенгаш қарорига мувофиқ Р.С.Холмуродов, Ф.А.Қоратоев, ва Г.А.Қосимовлар ҳамжамиятнинг маслаҳатчилари сифатида сайланган.

Қозоғистон Республикаси ўзбеклари “Дўстлик” ҳамжамиятида бир қатор ўзбек зиёлиларининг фаолияти таҳсинга сазовор бўлиб, уларнинг ҳаракатларида миллатга нисбатан чексиз ҳурмат ва эҳтиром уфуруб туради. Жумладан, ҳамжамият оқсоқоллар кенгаши раиси Б.Турдиқулов, Энбекши туман ўзбек этномаданият жамоат бирлашмаси раиси Т.Нишонбоев, Тулабий тумани ўзбек этномаданият жамоат бирлашмаси раиси Усмонали Қодиров, Алмати шаҳар ўзбек этномаданият жамоат бирлашмаси раиси Абдулла Исматуллаев, Астана шаҳар ўзбек этномаданият жамоат бирлашмаси раиси Шерзод Пўлатов ҳамда ўринбосари Ҳасан Шарипов, Манғистов вилояти ўзбек этномаданият жамоат бирлашмаси раиси Эргаш Султонов, Туркистон шаҳар ўзбек этномаданият жамоат бирлашмаси раиси Д. Маннотов, Чимкент шаҳар Абай тумани этномаданият жамоат бирлашмаси раиси А.Абдухолиқов, Илхомжон Алимқулов, Кўлкент қишлоқ ўзбек этномаданият жамоат бирлашмаси раиси И. Қурбонов, Оқсувкент ўзбек этномаданият жамоат бирлашмаси раиси Ғ. Раимқулов, Қозоғистон Республикаси ўзбеклари “Дўстлик” ассоциацияси аъзолари А.Пратов, Ф.Махмудовлар фаолияти эътиборга лойиқ [2].

Қозоғистондаги вилоят ва шаҳарларда ўнлаб ўзбек миллий-маданий марказлар фаолият юритиб келмоқда. Жумладан, Чимкент шаҳрида 2та ўзбек (Жан.Қоз. вилояти ва Чимкен шаҳрида) МММ, 1992 йилда Жамбил илоятида тузилган МММнинг Тароз, Меркнси, Байзак, Чуй, Жамбул ва Кулан туманларидаги филиаллари мавжуд. Кейинчалик Қозоғистоннинг Қизил Ўрда (1994 йил), Актюбинский (2000 йил), Манғитсой (2001 йил), Кустанай (2003) йил, Олмаота (2006 йил), Қарағанда (2007 йил), Павладор (2013), Шарқий Қозоғистон (2013 йил, Семейлатинск шаҳрида) областида, Остона (2005) шаҳарларида ўзбек МММ ташкил этилди [4].

Қозоғистон Республикаси ўзбеклари “Дўстлик” ҳамжамияти қошидаги “Ижодкор” адабий бирлашмасининг фаолиятида ёшларни ўзбек адабиёти руҳида тарбиялаш, ўзбек адабий муҳитини асраб авайлаш, адабиётга шайдо ёш иқтидорларни аниқлаш, ўзбек адабиёти намоёндалари билан мунтазам алоқалар ўрнатиш ва шу каби қатор вазифаларни кўриш мумкин. Ушбу адабий бирлашмадан жуда кўплаб шоиру, шоиралар етишиб, ҳозирги Қозоғистон ўзбеклари адабиётига ўз хиссаларини

қўшмоқдалар. Абдурахим Пратов, У. Каримова, С. Камол қизи, Э. Султонова, М. Сафарова, З. Мўминжонов, Қ. Баҳодирова, Ё. Мадалиев, С. Ақромов, И. Абдунабиев ва бошқалар шулар жумласидандир [5].

Қозоғистон ўзбеклари нафақат иқтисодий ҳаётда, балки республиканинг ижтимоий-сиёсий фаолиятида ҳам муносиб ўрин эгаллаб, шу орқали Қозоғистоннинг иқтисодий ва маънавий қудратини юксалтиришга ўз ҳиссасини қўшмоқда. Миллий-маданий марказ аъзолари оммавий ахборот воситаларида, телевидения, радиода фаол қатнашиб, ўзбек аҳолиси манфаатларини ҳимоя қилмоқда. Жумладан, Алишер Навоий, Мирзо Бобур, Амир Темур, Мубаширхон ат-Тарозий юбилейларига бағишланган тадбирлар ўзбек халқининг маданий-тарихий меросини тарғиб этишда катта аҳамиятга эга бўлди.

“Чимкент шаҳар ўзбек драма театри” Жанубий Қозоғистон вилояти ҳокимлигининг 2003 йил 14 мартдаги 127-сонли қарори билан ташкил этилди. Театрнинг асосий вазифаси этиб, миллий менталитетга ҳамоҳанг, бадиий жиҳатдан юксак, халқчил сахна асарларини сахналаштириш, томоша ва концерт дастурларини яратиш, ёшлар қалбида миллий ғурур, миллий ифтихор туйғуларини шакллантириш, уларни она Ватанга муҳаббат, умумбашарий қадриятларга ҳурмат, инсонпарварлик ғояларига садоқат руҳида тарбиялашга муносиб сахна асарлари, томошалар ва концерт дастурлари билан ҳисса қўшиб бориш, ўзбекларнинг турмуш маданиятини ошириш, миллий қадриятлар, урф-одатлар, анъаналар, миллий байрамларни тиклаш ҳамда давом эттиришда кўмаклашиш, кўргазмалар, фестивал, кўрик-танлов, маърузалар, маданият, санъат, илм-фаннинг атоқли арбоблари билан учрашувлар, бенефис, театр спектакллари, махсус тайёрланган дастурлар, дам олиш ва ижодий кечалар, мақсадли театрлаштирилган маросим кечалари ва бошқа томоша тадбирларини ташкил қилиш ва ўтказиш, мамлакатда ва хорижда театр ва концерт-томоша гастроль фаолиятининг кенг қўламли дастурларини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш кабилар белгиланди [6].

Театрнинг очилиш маросимида Қозоғистон Республикаси Президенти Нурсултон Назарбойев иштирок этди. Чимкент шаҳар ўзбек драма театрига Ўзбекистон Республикасидан бир қатор театр жамоалари гастрол билан келди. Чимкент шаҳар ўзбек драма театри Қозоғистонда истиқомат қилаётган ўзбек миллати вакиллари учун чинакам маънавият марказига айланди [7]. Бу ерда ҳар йили Марказий Осиёнинг республикалари ўзбеклари иштирокида “Аскиа” ҳазил ва кулги фестивали, ёш шоир ва ёзувчиларнинг “Шеърят юлдузлари” танловлари, “Офарин”, “Лапар” халқаро танлови, “Мақом” ва бошқа тадбирлар ўтказилиши жуда аҳамиятлидир.

Коллектив Чимкент, Туркистон, Кентау шаҳарлари, шунингдек, Туркистон вилоятининг Сайрам, Қозғурт, Сариоғаш, Сузоқ, Тўлқубасс, Тўлеби туманларига тез-тез гастрол сафарларида боради. Театр репертуарига 86 дан ортиқ спектакл киритилган. Бугун театр сахнасида “Темир хотин”, “Сеҳрли олмалар”, “Улар урганда”, “Жасорат она”, “Келинлар кўзғолони”, “Кучук кув”, “Қирмизи олма”, “Заҳарли томчилар”, “Умр охиридаги бахт”, “Тўй”, “Зора кўзғолони” каби спектакллари томоша қилиш мумкин [8].

Театр халқаро, вилоят ва республика театр фестивалларида қатнашиб, энг яхши сахна кўринишлари, истеъдодли санъаткорлари фестивал лауреати унвонига сазовор бўлиб, дипломлар билан тақдирланган. Жумладан, 2006-йилда вилоят театри Алматадаги халқаро театр фестивалда “Томошабинлар” номинацияси бўйича мукофоти қўлга киритган бўлса, 2011-йилда театри актёри Р.Саитхўжайев Астанадаги республика танловида “Енг яхши эркак роли” номинациясида ғолиб бўлди. Ҳозирда театр жамоасида 53 та ижодкор фаолият юритиб келмоқда.

Театр жамоаси директор Икром Ҳошимжонов ва театр режиссиёри Қувондиқ Қосимов томонидан ташкиллаштирилган гастролларда Ўзбекистон, Тожикистон, Қирғизистоннинг турли шаҳар ва туманларида ўзларининг ижод намуналари ижро этишди. 2015 йилнинг январ ойида театрга машҳур театр режиссиёри Аскер Қўлданов таклиф қилинди. Қозоқ хонлигининг 550 йиллиги ва Қозоғистон халқи ассамблеясининг 20 йиллиги доирасида “Муҳаммад Ҳайдар Дулатий” тарихий спектаклини сахналаштирди. Хуллас, ўзбек драма театри жамоаси ўз фаолияти давомида нафақат ўзбек маданияти ривожига ўз ҳиссасини қўшди, балки замонамиз одамларни ўйлантираётган муаммоларни сахнага кўтариб жаҳон санъатига ўзларининг ҳиссаларини қўшдилар.

Қозоғистон ўзбекларининг иқтисодий, ижтимоий-сиёсий, маънавий-маърифий, маданий ҳаётини ёритишда матбуотнинг ўрни бекиёсдир. Қозоғистондаги ilk ўзбек газетаси 1918 йили 12 июнда Алмати шаҳрида Собиржон Шокиржонов муҳаррирлигида чиққан «Еттисув ишчи-халқ муҳбири» газетасидир. Газетада болшевиклар ҳокимиятининг мақсадлари, ички ва ташқи сиёсати ҳақидаги маълумотларни Еттисув минтақаси халқларига етказиш вазифасини бажарган. 1918 йилнинг 9 декабригача ушбу газетанинг 41та сони дунё юзини кўрган. Ўзбек тилдаги ушбу газета 1919 йил январ ойидан «Учкун», 1919 йил июнь ойидан «Бухоро», кейинчалик «Кўмак» номи билан чоп этилган. «Еттисув ишчи-халқ муҳбири», «Учкун», «Бухоро» ва «Кўмак» газеталари эски ўзбек ёзувида, араб алифбосида чоп этилган бўлиб, бугунги кунда Қозоғистон Республикаси Миллий кутубхонасининг нодир қўлёзмалар жамғармасида сақланмоқда [9].

Бундан ташқари Қозоғистонда ўзбек тилида «Дехқон товуши», 1927 йилда «Қизил қишлоқ», 1930-йилларда Чимкент шаҳрида «Пахта зарбдори» газеталари нашр этилиб турди. «Пахта зарбдори» газетасининг сўнгги сони 1936 йили 23 мартда чоп этилди.

«Сайрам садоси» газетаси Туркистон вилоятида 1932 йилдан буён фаолият юритиб, Сайрам туманининг ахборий газетаси ҳисобланади ва ҳафтада бир маротаба чоп этилади. Унинг илк муҳаррири ва асосчиси Зухра Алиакбар қизи Алимова бўлиб, у Сайрам туманига Коммунистик партиянинг Урта Осиё бюросидан партия ишларини жонлантириш учун махсус юборилган эди. Дастлаб газета «Пахта учун» деб номланиб, 1962 йилдан *"Меҳнат байроғи"* номи остида чоп этилган.

1990 йилдан газета номи *"Сайрам садоси"*га ўзгартирилган. *"Сайрам садоси"* туман газетаси таҳририятини Зухра Алимова, Худойберган Солметов, Бобожон Мирзаев, Абдукарим Дониёров, Тешавой Жаҳонгиров, Боймурод Эрметов, Кулаҳмад Турсунов, Ҳайдарқул Эшонқулов, Худойберган Хўжанов, Раҳмонқул Исонов, Мақсад Алиқулов, Файзулла Ақромов, Собиржон Юсуфалиев, Юсуфжон Сайдалиев каби ижодкорлар бошқарган. Газетага 2008 йилдан буён эса Абдусаттор Умаров муҳаррирлик қилмоқда [10].

Жанубий Қозоғистон газетаси 1991 йил 1 апрелдан Туркистон шаҳрида Туркистон вилоятининг ижтимоий-сиёсий газетаси сифатида дунё юзини кўрди. 1999 йилга қадар ушбу газетанинг номи «Дўстлик байроғи» деб аталиб, республика ва вилоят ҳаётида содир бўлган ижтимоий-сиёсий воқеликлар ҳақида кўплаб маълумотлар, вилоят ўзбеклари, уларнинг фаолияти, ўзбек адабиёти ва санъати номоёндалари ва тарихий шахсларининг ҳаёти ва ижоди тўғрисидаги маълумотларни, шунингдек, ўзбек халқининг тарихи ва анъаналари ҳақида кўплаб мақолаларни муштарийларга етказиб берди. Ҳозирги кунда газетанинг бош муҳаррири Ф. Қоратаев бўлиб, ҳафтада икки маротаба чоп этилмоқда. Газета Қозоғистон Республикаси Маданият ва ахборот вазирлиги томонидан 2010 йил 26 майда рўйхатга олинди, №10957-Г гувоҳнома берилган [11]. «Жанубий Қозоғистон» газетаси директор-бош муҳаррири Алишер Сотволдиевнинг сай-ҳаракатлари билан газетанинг нуфузи ортиб, Қозоғистонда бўлаётган воқеликларга ҳолисона баҳо бериб борилган. Жумладан, Н. Назарбаев ташаббуси билан Қозоғистонда қозоқ тилини лотин графикасига асосланган алифбога кўчириш ғоясига кенг жамоатчиликнинг диққатини тортадиган туркум мақолалар чоп эттирган. Кентов шаҳар ўзбек этномаданият бирлашмаси раиси Х. Абдувалиевнинг «Бизнинг лотинчамиз қандай бўлади?» мақоласи, З. Мўминжоновнинг Жанубий Қозоғистон давлат педагогика университети чет эл талабаларини мослаштириш маркази раҳбари Ш. Норалиева билан «Лотинчамиз қандай бўлади?» мақоласи, Х.Кўчқоров, Ф.Иқромов, Ғ.Қирғизбоев, Қ.Тошхўжаевларнинг Мурожаати эълон қилинган [12].

Ҳозирда Қозоғистон Республикасида ўзбек тилида ўнлаб газета ва журналлар давлат ва бошқарув идоралари ва хусусий секторга тегишли бўлиб ўз саҳифаларида ижтимоий-сиёсий жараёнларни, фан ва адабиёт, маданият ва маориф янгиликларини, ўзбекларнинг кундалик ҳаёти ва турмуши ҳақидаги материалларни мутассил эълон қилиб келмоқда. Газета ва журналлардан ўзбек адабиёти номоёндалари ҳамда журналистларининг ҳикоя, очерк, суҳбат материаллари, Қозоғистон иқтисодиётига оид маълумотлар, ўзбекларнинг қишлоқ хўжалиги, саноат, миллий ҳунармандчилик соҳасидаги ютуқлари каби юзлаб соҳалардаги лавҳалар ўрин олган. Биргина Жанубий Қозоғистон вилоятида 10 номда газета ва журналлар ўзбек тилида босилиб, улардан Жанубий Қозоғистон вилояти ижтимоий-сиёсий давлат газетаси «Жанубий Қозоғистон» (бош муҳаррир Алишер Сотиболдиев), Туркистон шаҳар ҳокимлиги матбуот органи «Туркистон» (Райимжон Алибоев), хусусий газеталар: «Сайрам садоси» (Абдусаттор Умаров), «Сайрам сабоси» ва «Жамият ва маърифат» (Абдумалик Сарманов), «Адабиёт ва санъат» (Абдуғаффор Мухаммедов), «Жануб жарчилари» (Зокиржон Мулишжанов), «Исфижоб» (Эркиной Султонова), «Робита» (Фазлиддин Идинов), «Иқоним-Иймоним» (Муталиб Юлдашев), шунингдек, хусусий журналлар: «Сайрам боғи», «Туркистон овози», «Мақтабдош», «5\*5» ўйинлари», «Иймон», «Чимкент оқшоми» «Саодат сари» (Мухайё Бегматова), болалар учун «Бойчечак», «Камалак», «Болажон» ва «Болалар олами» кабиларни қайд этиб ўтиш мумкин. Ушбу матбуот органларининг нашр юзини кўришида қозоғистонлик сармоядор ўзбекларнинг моддий жихатдан кўрсатаётган ёрдамлари муҳим аҳамиятга эга бўляпти.

Қозоғистон Республикаси телеканалларида Ўзбекистон ижод аҳли, журналистлар фаол иштирок этмоқдалар. Шу билан бирга «Қозоғистон-Чимкент» телеканалда ҳафтада бир бор ўзбек тилида «Юртимиз жамоли» телекўрсатуви (муҳаррир: Зебунисо Бекматова. –дисс.) ташкил этиб келинмоқда. Бундан ташқари «Сайрам» хусусий телеканалда ўзбекча телекўрсатув дастурлари ҳам киритилган. Мустақиллик йилларида, ҳуллас, 11 та номдаги даврий матбуот материаллари ўзбек тилида босилиб, Қозоғистон ўзбеклари орасида кенг тарқалган.

Ҳуллас, юқоридагиларни инобатга олган ҳолда Қозоғистон Республикаси ўзбеклари «Дўстлик» ҳамжамияти, Чимкент шаҳар ўзбек драма театри ва ўзбек тилидаги матбуот органларини моддий ва маънавий жихатдан қўллаб қувватлаш улар фаолияти самарадорлигини ошишига хизмат қилади. Марказий Осиё давлатлари ўртасида кечаётган интеграцион жараёнларжадаллашувига хизмат қилади. Қолаверса, миллий маданий марказлар ва жамоат ташкилотлари қўллаб қувватлаш Қозоғистон

Ўзбекларнинг Ўзбекистонга бўлган ижобий кайфиятини шакллантирадиган ва ўзаро алоқаларни янги босқичга олиб чиқади.

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Қозоғистон Республикаси ўзбеклари “Дўстлик” ҳамжамиятининг жорий архиви. 1995 йил ҳисоботлари. 13-14 варақлар.
2. Муаллифнинг шахсий суҳбат материаллари. И.А. Ҳошимжонов билан суҳбат. 2021 йил 15 октябр.
3. Қозоғистон Республикаси ўзбеклари “Дўстлик” ҳамжамиятининг жорий архиви. 2017 йил 23 январ баённомаси.
4. Интернет маълумоти. URL: <https://articlekz.com/article/18448> // Казахская и Узбекская диаспора: роль национально-культурных центров в их исторической судьбе
5. Қозоғистон Республикаси ўзбеклари “Дўстлик” ҳамжамиятининг жорий архиви. “Иждокор” адабий бирлашмасининг 2018 йил баённомалари. 2 варақ.
6. Қозоғистон Республикаси ўзбеклари “Дўстлик” ҳамжамиятининг жорий архиви. 2003 йил ҳисоботлари. 14-15 варақлар.
7. Интернет маълумоти. URL: <https://ru.sputnik.kz/theaters/20190318/9591418/uzbekskij-teatr-shymkent.html>.
8. Интернет маълумоти. URL: <https://ticketon.kz/place/uzbekskij-dramaticheskij-teatr-g-shymkent>.
9. “Жанубий Қозоғистон” газетасининг 2019 йил 24 январ сони. Абдурахим Пратовнинг “Қозоғистон ўзбек матбуотига – 100 йил” мақоласи.
10. Интернет маълумоти. URL: <https://janubiy.kz/item/2707/>
11. “Жанубий Қозоғистон” вилоят ижтимоий-сиёсий газетаси таҳририяти масъулияти чекланган биродарлиги жорий архив ҳужжатлари. 1-3 варақлар.
12. “Жанубий Қозоғистон” газетасининг 2018 йил 2 июнь, 26 сентябр, 8 декабр сонлари.

УЎК 93/94

## ЖАНУБИЙ ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛК УРБАНИЗАЦИЯ ЖАРАЁНЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

*Д. Қудратов, ўқитувчи, Гулистон давлат университети қошидаги академик лицей, Гулистон*

**Аннотация.** Мақолада Шаҳарлар тарихига бағишланган илмий тўпламлар, монографиялар ва кўп сонли мақолалар таҳлил этилган. Асримиз бошларида ҳам қадимги шаҳарларнинг ўрганилиши бўйича самарали ишлар амалга оширилди. Аммо, ҳозирги кунга қадар мавзунинг тарихи нуқсонли кам тадқиқ этилган. Бактрия, Сўғд, Хоразм, Тошкент воҳаси ва Фарғонада шаҳарларнинг шаклланиши хусусиятлари ва ривожланишининг тарихий қонуниятлари муаммосига тегишли мавжуд илмий қарашлар, ёндашувлар ва хулосалар, Ўзбекистон қадимги урбанизацияси масаласи ўрганилишининг асосий натижалари етарли даражада таҳлил қилинмаган ва мавжуд маълумотлар умумлаштирилмаган масалалари ёритилган.

**Калит сўзлар:** урбанизация, тадқиқот, тизим, бронза ва илк темир, Бактрия, Сўғд, Хоразм, Тошкент, илк давлатчилиги, Илк антик, Ўрта антик, Кечки антик.

**Аннотация.** В статье анализируются научные сборники, монографии и многочисленные статьи по истории городов. В начале века была проделана эффективная работа по изучению древних городов. Однако на сегодняшний день историография предмета мало изучена. Существующие научные взгляды, подходы и выводы по проблемам формирования и развития городов в Бактрии, Согде, Хорезме, Ташкентском оазисе и Фергане, основные результаты изучения древней урбанизации в Узбекистане недостаточно проанализированы и имеющиеся данные не обобщены.

**Ключевые слова:** урбанизация, исследование, система, бронза и первое железо, Бактрия, Согд, Хорезм, Ташкент, первая государственность, ранняя античность, средняя античность, поздняя античность.

**Abstract.** The article analyzes scientific collections, monographs and numerous articles on the history of cities. At the beginning of the century, effective work was done on the study of ancient cities. However, to date, the historiography of the subject has been little studied. The existing scientific views, approaches and conclusions on the problems of the formation and development of cities in Bactria, Soghd, Khorezm, the Tashkent oasis and Fergana, the main results of the study of ancient urbanization in Uzbekistan are insufficiently analyzed and the available data are not generalized. ...

**Key words:** urbanization, research, system, bronze and first iron, Bactria, Sogd, Khorezm, Tashkent, first statehood, early antiquity, middle antiquity, late antiquity.

**1. Долзарблиги:** XX асрнинг иккинчи ярмидан бошлаб минтақанинг жанубидаги бронза даврига оид ёдгорликларни кенг миқёсда тадқиқ этилиши натижасида ушбу минтақанинг қадимги тарихи ва маданияти тўғрисида бой маълумотлар олинди. Турли йилларда жанубий Ўзбекистон ҳудудларида илк, ривожланган ва сунгги бронза даври илк деҳқончиликнинг пайдо бўлиши ҳамда ривожланиши, урбанизация жараёнлари ҳамда илк давлатчилик масалалари, маданий ва иқтисодий алоқалар, хунармандчиликнинг тараққий этиши масалалари бўйича В.Массон, А.Асқаров, Э.Ртвеладзе, Б.Абдуллаев, А.Сагдуллаев, Т.Ширинов, У.Рахмонов, Э.Сайко, Ш. Шайдуллаев, Б.Эшов каби олимлар тадқиқот ишлари олиб бордилар. Ушбу тадқиқотлар натижасида бронза даври ўлкамиз жанубий

худудларида бўлиб ўтган ижтимоий- иқтисодий, сиёсий ва маданий тараққиёт масалалари ва айниқса, бу худудларда илк шаҳарларнинг пайдо бўлиш асослари ва ривожланиш босқичлари, илк давлатчиликнинг пайдо бўлиши жараёнларига кўплаб аниқликлар киритилди. Ушбу масалалар ўйинча жуда кўп янги маълумотлар фанга жорий этилди ва этилмоқда.

Амударёнинг ўрта ва юқори оқими шимоли ҳамда жанубида жойлашган ерлар «Авесто» нинг қадимги қисмларида Баҳди, форс подшолари миҳхатларида Бақтриш, грек-рим тарихчилари маълумотларида Бақтрия ёки Бақтриёна, ҳинд манбаларида Бахлика, милонинг бошларига оид хитой манбаларида Дахя ёки То-хо-ло ўлкаси сифатида эслатиб ўтилади. Замонавий тарихий маълумотларга кўра Бақтрия ерлари бу Афғонистоннинг шимолий шарқий қисмини, Жанубий Тожикистон ва Ўзбекистоннинг жанубидаги (Сурхон воҳаси) ерларни ўз ичига олган. Шунингдек, замонавий тарихий адабиётларнинг барчаси ҳозирги кунда Сурхондарё вилояти, Тожикистоннинг Кулоб ва Қўрғонтепа вилоятларини ўз ичига олган ерларни шимолий Бақтрия сифатида эътироф этадилар[1].

**2. Методлар ва ўрганилганлик даражаси:** Тадқиқотчиларнинг фикрларига қараганда неолит даврига келиб «ҳисорлик» овчилар кичик ва йирик дарёлар воҳаларини, Бойсунтоғ ва Қуҳитангтача бўлган тоғ ва тоғ олди худудларини ўзлаштирадилар. Бронза даврига келиб эса бу минтақа худудларда бошқа кўринишга эга бўлган ҳамда ўзига хос хўжалик шаклидаги янги маданиятлар шакллана бошлайди.

Босқичма-босқич шаклланган маданият соҳиблари яшаган манзилгоҳлардан бири Сополлитепа бўлиб, бу ёдгорлик Сурхондарё вилояти Шеробод тумани худудида, Қуҳитангтоғдан оқиб тушувчи кичик дарёнинг қадимги ирмоғи бўйида жойлашган. Сополлитепа пайдо бўлган сой маҳаллий аҳоли орасида Улонбулоксой деб аталади. Сополлитепа Ўзбекистон худудларида ҳозирги кунга қадар аниқ бўлган энг қадимги ўтроқ деҳқончилик қишлоғи бўлиб, А.Асқаровнинг фикрича, ушбу маданият куйидаги бешга асосий босқичга бўлинади:

1. Сополли босқичи -мил. авв. 1700-1500 йй.
2. Жарқўтон босқичи-мил. авв. 1500-1350 йй.
3. Кўзали босқичи-мил. авв. 1350-1200 йй.
4. Молали босқичи - мил. авв. 1200-1050 йй.
5. Бўстон босқичи - мил.авв. 1050-900 йй[2].

Бу босқичларнинг саналари тадқиқотчилар томонидан махсус таҳлил этилиб[3], илмий жиҳатдан асосланган ҳамда эътироф этилган.

Бақтрия худудида олиб борилган тадқиқотлар таҳлилидан шундай хулоса чиқариладиган бўлса Шимолий Бақтриянинг қадимги шаҳарлари узоқ давом этган тарихий жараёнлар ва турли ижтимоий-иқтисодий, сиёсий, маданий ва табиий-географик омилларнинг таъсири натижасида шаклланиб келган. Қадимги Шарқ ва маҳаллий кўринишдаги урбанистик маданиятнинг уйғунлашуви қадимги Бақтрия шаҳарсозлигининг асосини ташкил этади. Кейинроқ эса ўзига хос бўлган шаҳар маданияти мустақил равишда ривожланади.

Мил. авв. II минг йилликнинг иккинчи чорагида Амударёнинг ўнг қирғоғида аниқроғи, унинг ғарбий қисмида Сополлитепа кўринишидаги дастлабки мустаҳкам қишлоқлар пайдо бўлади. Ушбу қишлоқлар бу худудларда ривожланган бутунлай янги кўринишдаги қишлоқлар бўлиб, неолит даври (Ҳисор маданияти) манзилгоҳларидан ажаралиб туради.

Ушбу ёдгорликда узоқ йиллар тадқиқотлар олиб борган А.Асқаровнинг фикрича, ёдгорлик мустаҳкам асосда қад кўтарган бўлиб, куйидаги ажралиб турувчи белгиларга эга: икки қисмли тузилиш - мустаҳкам марказий қисм ва унинг атрофида мустаҳкамланмаган манзилгоҳ, унча катта бўлмаган майдон, асосий қисмнинг аниқ режавий тузилиши, саккизта кўп хонали турар-жойлар қисмларининг марказлашуви ва уларнинг йўлақлар билан ажралиб туриши, бўлма (отсек)лари бўлган ҳимоя деворлари. Ундан ташқари, кулолчилик ва металлга ишлов бериш хунармандчилиги ҳамда деҳқончиликнинг етакчи мавқега эга бўлиши -ҳам Сополлитепа учун хосдир[4].

**3. Тадқиқот натижалари:** Тадқиқотлар натижаларига кўра, Сополлитепа аҳолисининг асосий машғулоти сунъий суғоришга асосланган ўтроқ деҳқончиликдан иборат эди. Қазилмалар пайтида катта хум кўринишидаги идишлардан ва омборхона вазифасини бажарувчи хоналар сатҳидан топилган арпа, буғдой, тарик донлари ҳамда бутун Сополлитепа мажмуида кўплаб учрайдиган дон янғич, келисоп, кетмон ва ўроқлар айнан деҳқончилик хўжалигидан далолат беради. Ундан ташқари, турар-жой қолдиқлари, манзилгоҳнинг тузилиши ва умуман археологик топилмаларнинг кўриниши ҳам манзилгоҳ аҳолисининг қадимги деҳқончилик маданиятига хос бўлган ўтроқ турмуш тарзини ифода этади.[5]

Сополлитепа манзилгоҳи аҳолисининг яна бир муҳим хўжалик тармоғи чорвачилик эди. Қазилмалар пайтида жуда кўплаб топилган уй ва ёввойи ҳайвонларнинг суяклари айнан мана шу жараёндан далолат беради. Умуман олганда, Сополли маданияти соҳиблари хўжалигида сунъий суғоришга асосланган деҳқончилик ва уй чорвачилиги манзилгоҳдаги иқтисодий ҳаётнинг асосини ташкил этган. Ундан ташқари ушбу маданиятга хос бўлган кулолчилик ишлаб чиқаришнинг юқори даражаси, металлга ишлов беришнинг жадал ривожланиши, тўқимачилик соҳасининг тараққиёти каби

омиллар манзилгоҳнинг нафақат иқтисодий, балки ижтимоий ҳаётида ҳам муҳим аҳамият касб этади. Сополли манзилгоҳидаги ушбу ҳолат минтақадаги миграция жараёнлари билан боғланади.[6]

Ўрта Осиёнинг жанубий ҳудудларидаги бронза даври кўчиш жараёнлари, маданий мажмуалар, топографик ҳолат ва бошқа йўналишлардаги тадқиқотларни таҳлил этиб шундай хулоса чиқариш мумкинки, бу ҳудудларда иккита зона: дашт чорвадор қабилалари жадаллик билан кириб келган шарқий (Дашли-Шимоли-Шарқий Афғонистон ва Жанубий Тожикистон) ва ўтроқ деҳқончилик қабилалари банд этган ғарбий (Сополли-Шимолий-Ғарбий Афғонистон ва Жанубий Ўзбекистон) зоналарга бўлинади.

Ғарбий зонада деҳқончилик жамоаларининг маркази Балхоб воҳасида бўлган нисбатан кучли уюшмаси шаклланади. Бу уюшма шимолдаги чорвадор қабилаларнинг хужумларини муваффақиятли қайтариб турган. Шунингдек бу зонанинг деҳқончилик жамоалари аҳолиси ҳарбий тўқнашувларда иштирок этиб турганлигини Дашлидан топилган кўп сонли ҳарбий қурол- яроғлар ҳам тасдиқлайди.[7]

Минтақада ўтроқ деҳқончилик жамоалари шимолий чегараларининг кенгайиши муносабати билан Сополлитепа ўзининг илгариги аҳамиятини йўқота бошлайди ва бўшаб қолади. Асосий марказ вазифаси эса, тоғ дарасидан чикувчи йўл устидаги мустаҳкам қалъа сифатида пайдо бўлган Жарқўтонга ўтади. Жарқўтон ёдгорлиги Сурхондарё вилояти Шеробод туманидаги Шеробод дарёсининг кўҳна ўзани Бўстонсой ёқасида жойлашган.

Ушбу ёдгорликда 1973 йилдан бошлаб узлуксиз олиб борилган тадқиқот ишлари натижасида бу ҳудудларда рўй берган урбанизация жараёнларига кўплаб аниқликлар киритиш имконияти пайдо бўлди. Хусусан, Жарқўтондаги 100 гектардан кам бўлмаган ҳудуддан арки аъло, шаҳристон, улкан ибодатхона қолдиқлари, металл эритувчи печлар, 20 гектарли қабристон, кўплаб моддий маданият буюмлари топиб ўрганилди. Ундан гашқари Жарқўтон ҳудудида олиб борилган тадқиқотлар кўҳна шаҳарнинг пайдо бўлиб ривожланган санасини аниқлаш ҳамда ушбу ҳудудларда юз берган тарихий-маданий жараёнларни бир неча босқичларга ажратиш ўрганиш имкониятини берди.[8]

Т.Ширинов тадқиқотларининг таҳлилларига кўра, Жарқўтондаги қадимги шаҳар ҳаёти уч босқичга, яъни, Жарқўтон (мил. пвв. 1500-1350 йиллар), Кўзали (мил. авв. 1350-1200 йиллар) ва Мўлали (мил. авв. 1200-1000 йиллар) босқичларига бўлинди. Кейинроқ, Жарқўтоннинг қарама-қаршида, Бўстонсойнинг ўнг соҳилида ўрганилган ёдгорликлардаги тадқиқотлар натижасида Мўлали босқичини икки фазага, яъни Мўлали (мил. авв. 1200- 1000 йиллар) ва Бўстон (мил. авв. 1000-900 йиллар) фазаларига бўлиб ўрганиш имконияти пайдо бўлди.[9]

Тадқиқотлар таҳлилларидан хулоса чиқарадиган бўлсак, мил. авв. II минг йилликнинг ўрталарига келиб Жарқўтон ўша ҳудудлардаги деҳқончилик билан шуғулланувчи аҳоли қабилалари уюшмаларининг мустаҳкам марказига айланади. Афтидан, айнан мана шу марказ орқали Ҳисор тоғ олди воҳалари ва жанубий Тожикистоннинг ғарбий ҳудудларига шимолдаги аҳолининг кўчишлари бўлиб ўтади. Айнан мана шу ҳудудлардан топилган ёдгорликлар топографияси ва уларни даврлаштириш ушбу жараён изчиллик билан бўлиб ўтганлигини кўрсатади. Ундан ташқари яна шу нарса ҳам маълумки, бу жараённинг ривожланиши мил. авв. II минг йилликнинг йккинчи ярми Амударёнинг ўнг қирғоғидаги ўтроқ деҳқончилик турмуш тарзи кечирувчи аҳоли манзилгоҳларида аҳоли сонининг ўсиши ва ишлаб чиқарувчи кучларнинг тараққиёти учун ҳам кенг имкониятлар яратди.[10]

Бронза даври Жанубий Ўзбекистон шаҳарлари ҳақида гап кетар экан шуни таъкидлаш жоизки, бу давр ёдгорликлари фақат археологик тадқиқотлар орқалигина ўрганилиб, бу даврдаги сиёсий-маъмурий тузилмалар ҳамда ижтимоий-иқтисодий муносабатлар эса ёзма манбаларсиз, қиёсий таққослаш асосида ўрганилади. Айнан мана шунинг учун ҳам тадқиқотчиларнинг ушбу жараёнлар хусусидаги хулосалари кўп ҳолларда тахминлардан иборат.[11] Масалан, А.Асқаров ва Б.Абдуллаевлар бронза даври ривожланишининг Жарқўтон босқичини (мил. авв. II минг йиллик ўрталари) ибтидоий жамоа тузуми емирилиш даврига, кўзали ва молали босқичларини (мил. авв. II минг йилликнинг охири) эса мулкий тенгсизлик муносабатлари пайдо бўлиши даврига оид деб ҳисоблайдилар.[12] В.И.Сарианиди эса, - аксинча, мил. авв. II минг йилликнинг охири-I минг йилликнинг бошларида давлатчилик муносабатлари шакллана бошлаган Бақтриянинг умумий ижтимоий ривожланиш даражасини ошириб юбормасликни тақлиф этади.[13]

Т.Ш.Шириновнинг фикрича, Жарқўтонни Месопотамиядаги «чифдом» ва «ном» га ўхшаш кичик давлатнинг маъмурий маркази бўлган деб тахмин қилиш мумкин Аммо, Месопотамиядаги давлатлардан фарқли ўларок, у беқарор сиёсий бирлашма бўлган. Мил. авв. II минг йилликнинг охири -I минг йилликнинг бошларида Ўрта Осиёнинг жанубида бир неча кичик давлат уюшмалари вужудга келган бўлиб Дашли 3, Гонур Туғолоқ, Улуғтепа, Намозгоҳтепа, Олтиндепа каби Жарқўтон ҳам улардан бирининг маркази бўлган.[14]

Ўрта Осиёнинг жанубида илк шаҳарлар ва давлат уюшмаларининг пайдо бўлиш жараёни В.М.Массон томонидан нисбатан аниқроқ изоҳланган. Тадқиқотчи бу жараёнда иккита асосий босқични ажратади.

1) маълум воҳаларда шаҳар-давлатларнинг пайдо бўлиши.

2) улар асосида йирик ижтимоий-сиёсий низомнинг шаклланиши.

Сўнгги йиллардаги тадқиқотлар натижаларини умумлаштирган А.Асқаров Жарқўтонни, умумий майдони 100 гектардан кам бўлмаган шаҳар-давлат сифатида изоҳлайди.[15]

Э.В.Ртвеладзе ўзининг сўнгги йиллардаги ишларидан бирида Ўзбекистон ҳудудидаги илк давлатчилик масалаларига тўхталиб, мил. авв. II минг йилликнинг иккинчи ярми-Ўзбекистоннинг жанубида эмбрионал шаклда давлатга ўхшаш тузилма қарор топади, давлатнинг бундай намунаси Жарқўтонда ўз аксини топган дейиш мумкин,[16] деган фикрни илгари суради.

Фанда ишлаб чиқилган типологияга асосан илк давлатларнинг нисбатан қадимги шакли (Месопотамияда) шаҳар-давлатлар, «номлар» ҳисобланади. Умуман олганда ном-давлатлар шаҳар-давлатлар, жамоалар ва воҳалар марказларини (Жарқўтон мисолида қиёсий таҳлил қилиш мумкин. Хусусан, Жарқўтонда манзилгоҳдан ташқарида бунёд этилган маҳсус қабристонлар Сополлига нисбатан жамиятнинг ижтимоий ривожланиши юқори даражада бўлганлигидан далолат беради.

Шунингдек, ички бозор учун маҳсулот ишлаб чиқарган кулолларнинг алоҳида маҳаллалари шаклланиши ҳамжамиятнинг нисбатан ЮҚОРИ даражада ривожланганлигининг муҳим белгиси ҳисобланади. Бу даврда Жарқўтон жамиятидаги кулолчилик ихтисослиги маҳсулот ишлаб чиқаришда устун даражада эди. Ундан ташқари, Жарқўтон қабрларидан топилган буюмларнинг сони ва сифати ҳам мулкий табақаланиш нисбатан мажмуи кучайганлигидан далолат беради. Жарқўтон манзилгоҳлар мажмуи Бўстонсой воҳасида марказлашган ва табиий чегара ва тоғ олди билан чегараланган ҳамжамиятни ўзида акс эттиради.

Жарқўтон кўринишидаги манзилгоҳлар мажмуини ном давлатлар билан қиёслаш учун егарли қатор умумий белгилар бор. Жумладан, Месопотамиядаги ном давлатлар учун хос бўлган ёзув намуналари Жарқўтондан ҳам топилганлиги катта илмий аҳамиятга эга бўлди. Хусусан, Ш.Шайдуллаев Ўзбекистоннинг жанубидан топилган пиктографик белги - ёзувлар ҳақидаги мақоласини матбуотда қилди. Тадқиқотчининг маълумотларига кўра, Жарқўтон ёдгорлигидан сополларга битилган 47 белгидан иборат ёзувнинг тоилиши аждодларимизнинг бронза даврида пиктографик ёзувни яратгани ва ўз фикрини турли белгиларда ифодалаганини кўрсатади. Шунингдек, Шерободдаги Ғоз қишлоғи ёнидаги илк темир асрига оид ёдгорликдан тош ўғир (кели) топилган бўлиб унинг сиртида умумий сони 14 та бўлган пиктографик белги ёзув мавжуд. Тадқиқотчи бу белгини миср иероглификаси билан солиштириб улардан бири "ҳақиқат", яна бири эса дунёнинг айланиши "Чархпалак" деб ўқилиши мумкинлигини тахмин қилади.[17]

**4. Хулосалар:** Хуллас, бронза даври Жанубий Ўзбекистон ҳудудларида яшаган ўтрок деҳқончилик жамоалари жамият тараққиётининг юқори поғонасида бўлиб, ибтидоийликнинг сўнгги босқичидан цивилизацияга ўтадилар. Ушбу ўзига хос цивилизациянинг бошланиши шаҳармонанд (протогород) белгиларни ўзида акс эттирган Сополлитепа бўлган бўлса, Жарқўтон айнан йирик шаҳар белгиларини ўзида мужассамлантирган марказ эди.

Жарқўтон Ўзбекистон ҳудудларидаги илк шаҳарларнинг ёрқин мисол бўла олади. Шеробод воҳасидаги шу даврга оид Жарқўтон мажмуига кирувчи манзилгоҳлар гуруҳини эса шаҳар-давлат ёки ном давлатлар сирасига киритишимиз мумкин ёки ҳеч бўлмаганда, мил. авв. II минг йилликнинг сўнгги чорагида Шимолий Бактрия ҳудудларида йирик ва мустаҳкамланган марказларга эга бўлган, ном ёки воҳа кўринишидаги давлатларнинг бошланиш босқичида бўлган ҳудудий-сиёсий бирлашмалар шакллана бошлаган деган ғояни илгари суриши мумкин. Шундай қилиб, Сурхон воҳаси нафақат Ўзбекистон, балки бутун Ўрта Осиё ҳудудларида илк урбанистик марказлардан бири ҳисобланиб, ушбу ҳудудларда урбанизация жараёнларининг бошланиш санаси 4000 йилдан кам эмас дейишга жиддий илмий асослар бор.

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Шайдуллаев Ш.Б. Ўзбекистон ҳудудида давлатчиликнинг пайдо бўлиши ва ривожланиши босқичлари (Бактрия мисолида). докт. даражасини олиш учун ёзилган диссертация Қўлёзма-Самарқанд. 2009.Б.70 (213).
2. Асқаров А.А.Сапаллитепа..... С.83-84
- 3.Шайдуллаев Ш.Б. Ўзбекистон ҳудудида давлатчиликнинг пайдо бўлиши ва ривожланиши босқичлари (Бактрия мисолида). докт. даражасини олиш учун ёзилган диссертация Қўлёзма-Самарқанд. 2009.Б.70 (213).
- 4.Асқаров А.А.Древнеземледельческая культура.....с.75-73.
- 5.Асқаров А. Мустақиллик йилларида тарих, археология ва этнология// Ўзбекистонда Ижтимоий фанлар.1996. № 6.63-73 бб.
- 6.Сагдуллаев А.С.Некоторые проблемы происхождения средние азиатских комплексов типа Яз// Советская археология.1989.№.2.с.49-66.
- 7.Сарианиди В.И.Афганистон в эпохи бронзы и раннего железа. Автореф диссертация.докт.ист.наук. М.,1975. 56 с.
- 8.Турсунов С.Н, Қобилов Э, Муртазаев Б ва бошқ. Сурхондарё тарихи.Тошкент,2004. Б.18.(216)
- 9.Асқаров А, Абдуллаев Б. Джаркутан.Ташкент: Фан.1973.с.17.(120)
- 10.ШириновТ.Ш.Ранняя городская культура эпохи бронзы юга Средней Азии (По материалам городища Джаркутан).Авторед. дисс.докт.ист.надк.М.,1993.49 с.
- 11.Сагдуллаев А.С.Древние пути на юге Узбекистана // Общественные науки Узбекистана.Ташкент, 1981.№7.с.34-38.

12. Аскарлов А., Буряков Ю., Квирквелия О., Радиловский В. Теоретические и методологические проблемы исследований в археологии. – Ташкент; Фан, 1988, 200с.
13. Аскарлов А., Абдуллаев Б. Джаркутаи ..... с.47.
14. Сарияниди В.И. Месопотамия И Бактрия во Птыс. до.н.э// Советская археология. 1986. №2. с.34-47.
15. Ширинов Т.Ш. Теоретическая проблемы урбанизации в Среднеазиатской археологии // Марказий Осиёда урбанизация жараёнининг пайдо бўлиши ва ривожланиши босқичлари. Самарқанд. 1995. 114-116 бб.
16. Массон В.М. Протогородская цивилизация юге Средней Азии// Советская археология. 1990. №4. с.61-68.
17. Аскарлов А. Энг қадимги шаҳар ..... Б.16

УЎҚ 93/94

## ХОРАЗМ ВОҲАСИ НИКОҲ ТҶИЛЛАРИДА ХАЛҚ ДОСТОНЧИЛИК САНЪАТИНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ

*Н.М. Маткаримова, доц., PhD, Урганч Давлат университети, Урганч*

**Аннотация.** Ушбу мақолада XX асрнинг бошларидаги Хоразм воҳаси никоҳ тўйи базмларидаги асосий ўринни эгаллаган бахшилар ва достончилик санъатининг ривожига ҳақида маълумот берилган.

**Калим сўзлар:** Никоҳ тўйи маросими, халқ оғзаки ижоди, достон, достончилик мактаби, бахшичилик санъати, жамоавий ижрочилик, айтишув.

**Аннотация.** В этой статье освещено развитие народных певцов бахши и мастеров сказителей дастанов в свадебных вечеринках Хорезмского оазиса в начале XX века.

**Ключевые слова:** Вечеринки брачных свадеб, народное устное творчество, дастан, школа профессии сказителей дастанов, творчество народных певцов бахши, общественное исполнение, мастерство произношение двух сторон.

**Abstract.** This article includes bakshi men local songs performers and narrators art development that played an important role during wedding parties in Khorezm oasis in the early 20<sup>th</sup> century.

**Keywords:** Wedding ceremony, folklore, narration, school of narrators, Art of bakshi, collective performance, saying.

Хоразм халқи эъзозлаб келаётган фольклор хазинасининг энг қимматбахо дурдоналаридан бири достонлар ҳисобланади [8]. “Достон” сўзи қисса ҳикоя, саргузашт, таъриф ва мақтов маъноларида ишлатилади. Адабий атама сифатида у халқ оғзаки ижоди ва ёзма адабиётдаги йирик ҳажмли эпик асарларни англатади [1]. Достончилик жуда қадим замонлардан буён ривож топган ва халқ бахшилари орқали оғиздан-оғизга ўтиб, сайқал топиб келган. “Ошиқ Маҳмуд”, “Ошиқ Ойдин”, “Ошиқ Ғариб ва Шоҳсанам”, “Ошиқ Албанд”, “Асил ва Карам”, “Юсуф ва Аҳмад”, “Қумри билан Тўти”, “Лайли ва Мажнун”, “Хирмондали”, “Тўрўғлининг арази”, “Нажаб ўғлон” каби достонлар шулар жумласидандир [3].

Шу ўринда бахши сўзига ҳам таъриф бериб ўтсак. Халқ оғзаки ижодининг юксак, профессионал санъат тури – достон ва достончиликнинг пайдо бўлиши, тараққиёти бахшилар номи билан боғлиқдир. Ҳ.Т. Зарифовнинг ёзишича, бахши мўғулча ва бурятча “бахша”, “бағша” сўзларидан олинган бўлиб, устод, маърифатчи деган маъноларни беради [1]. Ўзбекларда бахши – кенг маънода халқ достонларини қуйловчи, ёдда сақловчи ва наслдан-наслга ўтказувчи санъаткор. Эпик асарларни элга етказишда Ўзбекистоннинг деярли барча ерларида яқка ижрочилик ҳукмрон бўлса, Хоразмда асосан жамоавий ижрочилик етакчилик қилади. Ижро давомида достонларнинг шеърӣ қисмлари қуйланса, прозаик ўринлари бахшиларнинг ўзларига хос ифодали тилда баён этилади.

Хоразм достончилиги мактаби санъати бошқа достончилик мактабларидан услуби жиҳатидан фарқ қилади. Хоразм бахшиларининг қуйлари кўп ва хилма-хилдир. Достоннинг ҳар бир қўшиғи муаян қуйда ижро этилади. Достончилар буларни бахши йўллари ёки бахши наъмалари деб юритадилар. Хоразм достончилигининг ўзига хосхусусиятларидан яна бири шундаки, бу ерда қаҳрамонлик достони “Алпомиш” учрамайди, аксинча Хоразм бахшилари репертуарларидаги ишқий-романик достонларнинг аксарияти республикамизнинг бошқа ерларида мавжуд эмас [4]. “Авазхон”, “Бозиргон”, “Сайёдох ва Ҳамро”, “Қоракўз ойим”, “Гулруҳ пари”, “Шобаҳром”, “Завриё”, “Қирқ минглар” каби достонлар ана шундай достонлар туркумига киради [5].

Шунинг учун ҳам никоҳ тўйларида Хоразм достончилиги репертуарларидан кўплаб намуналарни учратишимиз мумкин. Бахшилар келин туширув тўйларида ишқий достонларни, бошқа тўйларда, сайил ва байрамларда эса кўпроқ қаҳрамонлик достонларини қуйлаб келганлар. Қадимдан буён хоразмлик бахшилар одатда тўй ва томошаларда яхшироқ кўринадиган супача устида ёки ёғоч кат (каровот) устида ўтириб дугор чертиб достон айтганлар [6]. Қишлоқ жойларида ерга олдин чим, яъни камиш ёйилиб, устидан кигиз ёки палос тўшалиб, одамлар давра бўлиб ўтиришган ва жим бўлиб бахшининг дам соз, дам шеърӣ мисралардан иборат бўлган достонини тинглашган. Маълумки, Хоразм достонлари бир кечада сўз ва соз билан қуйлаб тамомлашга (қун ботгандан ярим кечгача бўлган муҳлатга) мўлжалланган [7]. Шунинг учун ҳам кўпроқ кечки никоҳ тўйи базмларида бахшилар достон қуйлаганлар.



Тўйлардаги дoston айтишув жараёнлари айниқса диққатга сазовордир. Унда икки, уч бахши бир-бирларини енгунча бир дostonни навбатма-навбат дотор чалиб айтганлар. Баъзан бир тўйда икки бахши бир-бирига қарама-қарши ўтириб дoston куйлаган. Ғолиб чиққан бахшини тўй иштирокчилари қизгин табриклаган. Хоразм воҳаси халқлари тўй ва байрамларда бахши ва жировларнинг айтишувларини катта қизиқиш билан томоша қилганлар ва уларни олқишлаганлар. Никоҳ тўйига келган бахшиларнинг дostonларини тинглаш учун одамлар ҳатто қўшни қишлоқдан ҳам кимдир от ул овда, кимдир пиёда дура-дура одамлар келишган. Чунки, ўша даврлардаги никоҳ тўйи базмлари ўз даври учун концерт вазифасини бажарган. Одамлар бахшиларнинг дostonларини ёд олиб, хиргойи қилиб юришган, шеърлий матнлардан ўз сўзларида иқтибос келтиришган. Тўй-ҳашамларда, оила тантаналарида, байрамларда бахшиларнинг иштирок этиши одатий ҳол бўлган.

Хоразм бахшилари дostonларини, асосан, доторда ижро этадилар, уларга ғижжак ва буломонда созандалар жўр бўлади. XX асрнинг 30- йилларида Хоразм бахшилари дostonларни тор ва рубобда куйлай бошладилар. Шу муносабат билан айрим бахшилар ансамблида ғижжак ўрнига скрипкадан фойдаланиш, ансамблга доирачи, ҳатто ўйинчи олиб кириш ҳоллари бўлди. Бола бахши ва унинг ансамбли бунга мисол бўлади. Хоразмда баъзан эпик асарлар ёки уларнинг парчаларини гармонда ижро этиш ҳоллари ҳам мавжуд. Бундай ҳолларда уларни бахши эмас, балки, созчи деб юритилган [1]. XX асрнинг бошларидан шаҳарларда бахшилар хизматидан фойдаланиш йўқолди, уларнинг ўрнини хофизлар ва ашулачилар олди [4]. Дostonларнинг минг йилликлар давомида ажодлар ворисийлигини боғловчи бўғин ва халқ дунёқарашининг шаклланишига хизмат қилувчи муҳим манба эканлигини ҳисобга оладиган бўлсак, уларни тўй маросимларидан четда қолиб кетиши ачинарли ҳолат. Айниқса, енгил-елпи, маза-матрасиз кўшиқлар ижро этилаётган бугунги тўй-тантаналарида, бунга сезиш унчалик ҳам мушкул иш эмас. Энг ачинарлиси, байрамларда, тўй-базмларда дoston эшитиб улғаймаган, унинг сеҳрли оҳанглиридан баҳраманд бўлмаган авлод, йиллар ўтиб, уни антик давр маданияти намунаси сифатида эсга олиши мумкин ҳолос.

Айни пайтда бахшичилик ва дostonчилик санъатининг тарихи, бахшилар ва дostonчилар ижодини мукамал ўрганиш, бу борада фундаментал тадқиқотлар олиб бориш, халқ оғзаки ижоди ёдгорликларини тўплаш, нашр этиш юзасидан яна кўпгина чора-тадбирларни амалга оширишга эҳтиёж сезилмоқда. Ана шу мақсадда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2010 йил 7 октябрдаги 222-сон қарори билан тасдиқланган “2010–2020 йилларга мўлжалланган номоддий маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш, асраш, тарғиб қилиш ва улардан фойдаланиш Давлат дастури”нинг 10-банди ижросини таъминлаш мақсадида ЎзР ФА Алишер Навоий номидаги Тил ва адабиёт институтида “Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари” 100 жилдлигини нашрга тайёрлаш ва уни текстологик ўрганиш масалалари” номли фундаментал илмий лойиҳани амалга оширишга киришилди. Дostonчилик санъатининг энг юксак намунаси бўлган сара асарлар ушбу кўп жилдликдан жой олади. Бугунги кунда Ўзбекистоннинг Сурхондарё, Қашқадарё, Самарқанд ҳамда Хоразм вилоятларида яшаб ижод этаётган бахшилардан кўплаб дoston намуналари ёзиб олинмоқда.

Мамлакатимизда мустақиллик йилларида халқимизнинг юксак бадий ижодиёти асосида яратилган номоддий маданий мерос дурдоналарини асраб-авайлаш, халқоғзаки ижодининг қадимий анъаналарини тиклаш ва миллий кадриятларни изчил ривожлантириш, ижодий уюшмалар ҳамкорлигида бахши ва дostonчилар ижодининг энг яхши намуналарини тарғиб қилиш борасида кенг кўламли ишлар амалга оширилди.

Бахшичилик ва дostonчилик санъатини ривожлантириш, бахши-шоирлар ижодининг ўзбек маданияти ва санъатидаги ўрни ҳамда аҳамиятини янада ошириш, шунингдек, ўқув-услубий адабиётлар яратиш, бахшичилик ва дostonчилик санъатини оммавий ахборот воситалари, интернет тармоғи орқали мамлакатимизда ҳамда чет элларда тарғиб этиш, устоз бахшилар ва дostonчилар, соҳа олимлари ва мутахассислари, иқтидорли ёш бахшилар ҳамда дoston ижрочилари фаолиятини моддий ва маънавий жиҳатдан қўллаб-қувватлаш, ёш авлодни мардлик, ҳалоллик, миллий ва умуминсоний кадриятлар, она юртга ва ажодлар меросига юксак садоқат руҳида тарбиялаш мақсадида 2018 йил 26 апрелда Вазирлар Маҳкамасининг “Бахшичилик ва дostonчилик санъатини янада ривожлантириш ҳамда такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори эълон қилинди. Вазирлар Маҳкамаси қарори билан “Бахшичилик ва дostonчилик санъатини янада ривожлантириш ҳамда такомиллаштириш бўйича 2018–2022 йилларга мўлжалланган “Йўл харитаси” тасдиқланди.

Ўзбек халқи турмуш тарзидан мустаҳкам ўрин олган дostonчилик санъати ва унинг намуналарини қайта тиклаш, ривожлантириш ва шу билан бирга уларни этник анъаналар таркибига сингдириш ва қайта жонлантириш йўлидаги бундай саъй-ҳаракатлар миллат менталитетини сақлаш ва ўзига хос характер хусусиятини мустаҳкамлашда муҳим омил бўлиб хизмат қилади.

#### ҒОИДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Охунжон Сафаров. Ўзбек халқ оғзаки ижоди. Т.: “Мусиқа” нашриёти, 2010, 228-бет.
2. Саидов М. Ўзбек халқ дostonчилигида бадий маҳорат. Т.: ФАН, 1969, 21-бет.
3. Ўрол Ўтаев, Отаёр. Тошкент.: Ёзувчи, 1994, 51-бет.
4. М.Муродова. Фольклор ва этнография. Тошкент. Алоқачи, 2008, 81-бет.

5. Тўра Қиличев. Хоразм халқ театри. Тошкент. Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988, 99-бет.
6. Т. Алланазаров. Каракалпакский советский театр, стр.39.; Тўра Қиличев. Хоразм халқ театри. Тошкент. Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988, 100-бет.
7. Ж.Қобулниёзов. Кириш сўзи. Ошиқ Маҳмуд, Авазхон. Тошкент
8. О.Мадаев. Хоразм дostonлари. “Хоразм ҳақиқати” газетаси, 1970 йил, 10 январь.

УЎК 902

## ЎЗБЕКИСТОНДА ГИЁҲВАНДЛИК ВА ХАЛҚАРО НАРКОБИЗНЕСГА ҚАРШИ КУРАШ ТАРИХИ

**Ж.И. Махматқулов, катта тезкор вакил, Қашқадарё вилояти ИИБ ЖҚБ Гиёҳвандлик воситалари ноқонуний муомаласига Қарши курашиши бўлими, Қашқадарё**

**Аннотация.** Ушбу мақолада Ўзбекистонда гиёҳвандликка қарши курашда Марказий Осиё давлатлари, Россия, Эрон, Хитой, Польша, Италия, Покистон, Украина, Германия, Грузия, Туркия, Болгария, Латвия ва бошқа мамлакатларнинг бу борадаги тажрибаси шунингдек, БМТ, МДХ, ШХТ ва ОДКБ халқаро ҳуқуқий меъёрлари доирасида тузилган миллий қонунчиликка асосланган маълумотлар келтирилган.

**Калит сўз:** Гиёҳвандлик, наркотик, психотроп, БМТ, ЮНИСЕФ, МДХ, ШХТ, ОДКБ, Марказий Осиё, Миллий марказ, конвенция, божхона, жиноят

**Аннотация.** В данной статье рассматривается опыт стран Центральной Азии, России, Ирана, Китая, Польши, Италии, Пакистана, Украины, Германии, Грузии, Турции, Болгарии, Латвии и других стран по борьбе с наркотиками в Узбекистане, а также международно-правовые нормы ООН, СНГ, ШОС и ОДКБ на основе национального законодательства.

**Ключевые слова:** Наркотики, наркотики, психотропные средства, ООН, ЮНИСЕФ, СНГ, ШОС, ОДКБ, Центральная Азия, Национальный центр, конвенция, таможня, преступность

**Abstract.** In this article, the experience of Central Asian countries, Russia, Iran, China, Poland, Italy, Pakistan, Ukraine, Germany, Georgia, Turkey, Bulgaria, Latvia and other countries in the fight against drugs in Uzbekistan, as well as UN, CIS, SCO and CSTO international legal data based on national legislation drawn up within the framework of the norms.

**Key words:** Drugs, narcotics, psychotropic, UN, UNICEF, CIS, SCO, CSTO, Central Asia, National Center, convention, customs, crime.

Гиёҳвандликка қарши кураш бугунги куннинг энг долзарб муаммоларидан бирига айланди. БМТнинг маълумотларига қараганда, дунёда ҳозир 8 млн. киши героин, 191,2 млн. киши эса турли хил гиёҳванд моддаларни истеъмол қилади. Бунинг оқибатида 20 минг киши захарланган[2;1].

Гиёҳвандликка қарши кураш муаммоси у ёки бу мамлакатнинг ички муаммоси бўлибгина қолмай балки глобал даражадаги аҳамият касб этади. Унга қарши кураш жаҳон ҳамжамиятидан бутун куч ва имкониятларни бирлаштириб ҳамкорликда комплекс чора-тадбирларни ишлаб чиқиш, уларни биргаликда адо этишни тақозо этади. Бугунги кунда Ўзбекистон наркотрафикка қарши кураш соҳасида Марказий Осиё давлатлари, Россия, Эрон, Хитой, Польша, Италия, Покистон, Украина, Германия, Грузия, Туркия, Болгария, Латвия ва бошқа мамлакатлар билан тузилган икки томонлама шартнома, шунингдек, МДХ, ШХТ ва ОДКБ доирасида тузилган кўп томонлама мажбуриятларни бажариб келмоқда[1;3].

Гиёҳвандликка қарши курашда халқаро-ҳуқуқий ва миллий-ҳуқуқий меъёрларни тадқиқ қилиш, турли давлатларнинг бу борадаги тажрибасини ўрганиш, миллий қонунчиликка асосан халқаро ҳуқуқий меъёрларни тадқиқ қилиш ҳозирги куннинг энг долзарб муаммоларидан бири ҳисобланади.

Наркоманияга қарши кураш ҳозирги кунда бутун дунё мамлакатларининг асосий муаммоларидан бири бўлиб келмоқда. Шундан келиб чиқиб, Ўзбекистоннинг Биринч Президентини И.Каримов БМТ Бош Ассамблеясининг 1993 йил 28 сентябрда 48-сессиясида қилган маърузасида наркомания ва нарқобизнесга қарши курашиш энг муҳим муаммоларнинг бирига айлангани боис бутун дунёни унга қарши курашга курашишга чақирди. Ўзбекистоннинг бу борадаги позициясини баён этиб, Марказий Осиёда БМТнинг минтақавий комиссиясини тузишни таклиф этди. Натижада Тошкентда БМТнинг минтақавий ваколатхонаси иш бошлади.

Вазирлар Маҳкамасининг қарорига асосан 1994 йилда 30 апрелда БМТнинг наркотик моддаларни назорат қилиш ва уларга қарши курашни мувофиқлаштириш мақсадида Халқаро дастури доирасида Ўзбекистон Республикасида наркотикларни азорат қилиш давлат комиссияси ташкил этилди. Ушбу комиссия таркибига ҳуқуқни муҳофаза қилувчи идоралар, бошқа давлат ташкилотларининг раҳбарлари киритилди[3;3]. Юқоридаги амалий ишлар натижасида 1992–1994 йилларда Афғонистондан кириб келган 15 тонна 447 кгдан кўпроқ гиёҳвандлик моддалари, шу жумладан, 1167 кг «гашиш» наркотик моддалар Ўзбекистонда ушлаб қолинди [9].

Бундан ташқари Миллий марказ ходимлари ҳуқуқ-тартибот органлари билан ҳамкорликда гиёҳвандлик муаммоларига бағишланган Қирғизистон, Қозоғистон, Россия, Ҳиндистон, Буюк Британия, Туркия каби бир қатор мамлакатларда ўтказилган семинарлар ва учрашувларда қатнади. Хорижий давлатлар ва халқаро ташкилотлар билан ҳамкорлик алоқаларини мустақамлаш мақсадида Хитой, Литва, Полша ва Исроил давлатларида “Гиёҳванд моддаларни тарқалишига қарши кураш”га бағишланган анжуманларда иштирок этишди [3;3].

1996 йил 24 октябрда Вазирлар Маҳкамасининг “Миллий кинология марказини ташкил қилиш тўғрисида”ги 364-сонли қарорига асосан Давлат божхона қўмитаси қошида Миллий кинология маркази ташкил этилди. Марказий Осиёда ягона бўлган ушбу марказ фаолияти билан АҚШ, Франция, Россия, Ҳиндистон, Туркия, Эрон, Қирғизистон давлатлари ҳамда Бутунжаҳон божхона ва Евробожхона ташкилотлари делегация вакиллари яқиндан танишиб, уни юқори баҳоладилар [5;4]. 1999 йил 19 августда “Гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддалар тўғрисида”ги ҳамда БМТ конвенцияларини ратификация қилиш ҳақидаги қонунлар қабул қилинди. Бунинг натижасида Ўзбекистонда Наркотик моддаларни назорат қилиш давлат комиссияси тузилди. Унинг 2011 йил 8 июндаги қарори билан Наркотик моддаларнинг суистеъмоли ва ноқонуний айланишига қарши кураш бўйича 2011-2015 йилларга мўлжалланган комплекс чора-тадбирлар дастури тасдиқланди [9].

2007 йил 26 июнь куни Ўзбекистон Республикаси Миллий хавфсизлик хизмати томонидан гиёҳванд моддаларни йўқ қилиш бўйича ҳар йили ўтказиладиган тадбир “Халқаро наркотик моддаларни суистеъмол қилиш ва уларнинг ноқонуний айланишига қарши кураш кунига” бағишланди. Тадбирда ҳуқуқни муҳофаза қилиш ва суд органлари, жамоатчилик, оммавий ахборот воситалари, мамлакатимизда фаолият кўрсатаётган халқаро ташкилотлар ва дипломатик корпус вакиллари иштирокида Тошкентдаги саноат корхоналарининг бирида бунинг учун махсус ажратилган печларда 1435 килограмм гиёҳванд модда - героин, қорадори, марихуана, наша, шунингдек, катта микдордаги кўкнори похоти, таркибида наша бўлган ўсимликлар, ҳапдори ҳамда эритма кўринишидаги психотроп моддалар ёқиб юборилди. Бундай тадбир илк марта 1994 йилда ўтказилган эди. Ўтган вақт ичида Ўзбекистонда ёқиб юбориш йўли билан 40,5 тонна гиёҳванд моддалар йўқ қилинди [1].

2007 йилда БМТнинг мамлакатимиздаги Гиёҳванд моддалар ва жиноятчилик бўйича бошқармасининг ваколатхонасида Ўзбекистон Республикасининг Наркотик моддаларни назорат қилиш давлат комиссияси вакиллари иштирокида Халқаро наркотик моддаларни суистеъмол қилиш ва уларнинг ноқонуний айланишига қарши кураш кунига бағишланган матбуот анжуманида Афғонистон мавзусига алоҳида тўхталиб ўтилди. Афғонистонда халқаро ҳамжамият томонидан кўрилатган чора-тадбирларга қарамай, гиёҳванд моддалар ишлаб чиқаришнинг ўсиши давом этаётгани таъкидланди. Халқаро экспертларнинг маълумотларига кўра, 2007 йилда бу мамлакатда ишлаб чиқарилган қорадори микдори 2006 йилги кўрсаткичга нисбатан 34,4 фоизга кўпайган. Ўзбекистонда 2007-2010 йилларга мўлжалланган комплекс чора-тадбирлар дастури ишлаб чиқилди [1;3].

2011 йил 8 июндаги қарори билан Наркотик моддаларнинг суистеъмоли ва ноқонуний айланишига қарши кураш бўйича 2011-2015 йилларга мўлжалланган комплекс чора-тадбирлар дастури тасдиқланди [9]. Вазирлар Маҳкамасининг 2015 йил 12 ноябрдаги “Гиёҳвандлик воситалари, психотроп моддалар ва прекурсорларни Ўзбекистон Республикаси ҳудудига олиб кириш, ундан олиб чиқиш ва транзит тарзида ўтказиш тартибини, шунингдек, уларнинг муомалада бўлиши юзасидан назоратни такомиллаштириш тўғрисида”ги қарори билан ҳозирга қадар мамлакатимизда таъқиқланган гиёҳвандлик воситалари рўйхатига қўшимча 80 турдаги янги гиёҳвандлик воситалари киритилди [4].

Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Нью-Йоркдаги штаб-квартирасида Бош Ассамблеянинг 71-сессияси яқунлари бўйича БМТнинг олти расмий тилида Ўзбекистоннинг гиёҳвандликка қарши сиёсатининг асосий йўналишлари ва унинг асосида 2016 йилда амалга оширилган ишлар ҳақида маълумот берилди. 2016 йилда «Қоралолоқизғалдоқ-2016» операциясида Ўзбекистонда гиёҳванд моддаларнинг ноқонуний айланишига қарши кураш йўлида қабул қилинган ташкилий-амалий ва тезкор-профилактик чоралар натижасида 6646 жиноий ҳолат аниқланган. 3 тонна ва 542,4 килограмм гиёҳванд модда, шунингдек 19 277 та психотроп таблетка ноқонуний айланишдан олинган. Шунингдек, гиёҳванд моддалар олинувчи ўсимликларни етиштириш бўйича 1070 ноқонуний ҳолат аниқланган. 4900 квадрат метрга экилган гиёҳванд ўсимликлар йўқ қилинди. [6]. БМТнинг гувоҳлик беришича, Афғонистон қора дориларининг 60 фоиздан кўпроғи Тожикистон чегараларини босиб ўтади. 2000 йилда Тожикистонда 7 тонна турли хил гиёҳвандлик моддалари ва 1,8 тонна героин, Ўзбекистонда эса 3 тоннага яқин қора дорилар тортиб олинди. Ноқонуний нарқобизнес билан шуғулланишга, ҳатто, аёллар ҳам жалб этилмоқда. Чунончи, Ўзбекистон ҳудудида қўлга олинган тарқатувчиларнинг 25 фоизи аёллардир. ЮНИСЕФ (БМТ болалар фонди) экспертлари томонидан 35 та мамлакатда болалар ва ўсмирлар ўртасида ўтказилган сўров шуни кўрсатдики, уларнинг 60 фоизи мактаб, коллеж ва олий ўқув юрғларида гиёҳванд моддаларни истеъмол қилиб кўрганлар [7;3].

Вояга етмаганларнинг спиртли ичимликлар ва гиёҳвандлик воситаларига ружу қўйишининг асосий ижтимоий сабаблари ҳам мавжуд. Буларга нотинч оилалар, шахс яшаётган муҳит, жамиятнинг

муносабати ва ўтиш давридаги иқтисодий қийинчиликлар ва бошқа муаммолар киради. Шунингдек, ҳозирги кунда алкоголизм ёки гиёҳвандлик воситаларини истеъмол қилувчи вояга етмаганлар томонидан жиноят содир этиш ҳоллари кузатилмоқда. Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг маълумотларига коўра дунёда 500 миллиондан ортиқ одам гиёҳвандлик дардига юлиққан. Унинг аксарият қисмини 30 ёшгача бўлганлар ташкил этади. Бунинг оқибатида ҳар йили 200 мингдан ортиқ киши ҳаётдан кўз юмади. Шу билан бирга, жаҳонда содир этилаётган жиноятларнинг 57 фоизи гиёҳвандлар ҳиссасига тўғри келади[8].

Хулоса ўрнида шуни айтишимиз мумкинки, дунёга тарқаладиган жами қора дорининг 75 фоизи Афғонистондан чиқади. 2000 йилда Афғонистонда 4600 тонна ана шундай ажал уруғи ишлаб чиқарилди. Бу жами оғунинг 65 фоизи демакдир. Гиёҳванд моддани тайёрловчилар биринчи галда Афғонистоннинг яқин қўшнилари бўлган Тожикистон ва Ўзбекистон ҳудудидан фойдаланишга интилади. Бу эса минтақадаги ҳавфсизликка катта ҳавф туғдирмоқда.

#### Фойдаланилган адабиётлар руйхати:

1. А.Иванова “Гиёҳвандлик йўлидаги мустаҳкам ғов” // Халқ сўзи, 27 июнь, 2008 йил. 3 б
2. Ф.Тоҳиров “Гиёҳвандлик –хавфли иллат” // Инсон ва қонун 5-феврал, 2002 йил №5 1-б
3. Ҳ.Иброҳимов “Гиёҳвандликка қарши кураш: ҳамкорлик–ҳаракат мезони” // Инсон ва қонун 19 феврал, 2002 йил №5 3-б
4. Ҳ.Юлдошов “Ўзбекистонда 1,6 тоннадан ортиқ гиёҳвандлик воситалари ёқиб юборилди” // Халқ сўзи, 26 июнь, 2018 йил
5. Ш.Анваров “Оғули ҳаёт азоб” // Тошкент ҳақиқати. 20 февраль, 2008 йил,
6. “Ўзбекистоннинг гиёҳвандликка қарши сиёсати натижалари маълум қилинди” // Халқ сўзи, 29.08.2017
7. Тошкент ҳақиқати 2001 йил 15 сентябрь №73 3 б
8. Холматова М., Муравьева Н. Ёшлар оилавий ҳаёт бўсағасида.-Т.: Ўзбекистон, 2000

УЎК 93/94

### “МАРКАЗИЙ СУҒД” ТАРИХИНИНГ ЎРТА АСР МАНБАЛАРИДА ЁРИТИЛИШИ Д.А. Махмудов, ўқитувчи, ҚарДУ Педагогика Институтини, Қарши

**Аннотация.** Ушбу мақолада Ўрта асрларда муҳим географик ҳудуд ҳисобланган Марказий Сўғдийнинг ўрта аср ёзма манбаларида ақс эттирилиши илмий асосланган.

**Калим сўзлар:** Сўғд, ёзма манбалар, В.В. Бартольд, Зарафшон дарёси, Самарқанд.

**Аннотация.** Эта статья научно основана на отражении Средней Согдианы, которая в средние века считалась важным географическим районом, в средневековых письменных источниках.

**Ключевые слова:** Согдийский, письменные источники, В.В. Бартольд, река Зарафшан, Самарқанд.

**Abstract.** This article is scientifically based on the reflection of Central Sogdiana, which was considered an important geographical area in the Middle Ages, in medieval written sources.

**Keywords:** Sogdian, written sources, V.V. Barthold, Zarafshan river, Samarkand.

Суғд тарихи кўплаб тадқиқотчиларнинг диққат марказида бўлиб, ушбу масалага оид ёндашувлар ва асарларининг тарихшунослик нуқтаи-назаридан таҳлили муаммони ушбу гуруҳларга ажратиш имконини беради.

Суғд ва унинг марказий шаҳри Самарқанд тарихий-географияси масаласида анча кенг тадқиқот олиб борган В.В. Бартольд айрим манбаларда Самарқанд шаҳри ва атрофларининг фақатгина бир қисми Суғдга киритилгани, Зарафшон дарёси ва унинг икки тармоғи бўлмиш Оқдарё ва Қорадарё орасида қолган ҳудуд (орол) Ним Суғуд “ярим Суғд”, Оқдарёнинг шимолидаги Суғуди Калон “Катта Суғд” орасида фарқ бўлганига эътибор қаратади [1].

Муқаддасий ва Ёқут Сомонийлар вазири Жайҳонийнинг асарига таяниб келтиришларича Самарқанд Суғднинг энг муҳим шаҳри бўлиб, ундан кейин навбати билан Кеш, Насаф, Кушония ва бошқалари келади. Шу билан бирга, айрим географлар Суғднинг маркази сифатида Иштихонни кўрсатиб, Самарқанднинг Суғд маркази сифатидаги ўрнига тўхталмай ўтишади. Бундай ёндашган айрим араб-форс географлари Бухорони Суғдга киритган ҳоллар ҳам учрайди. Улар бунга далил сифатида Суғд (Зарафшон) дарёсининг Бухорогача етиб боришини келтириб ўтишади [2]. Фақат Муқаддасий бундай қарашларга қарши чиқиб, шундай ёзади: “Урдун (Иордания) дарёси Фаластин ҳудуди ичига қараб оқишига қарамай Фаластинни Урдунга тегишли деб бирор кимса айтмайди. Шу тариқа Суғд дарёсининг Бухоро ичкарасига қараб оқиши Бухорони Суғдга киритишига имкон бермайди. Суғд дарёси фақатгина у ердан оқиб ўтиб, унинг ерларини сугоради” [3]. Бундан кўринадики, илк ўрта асрларда, яъни исломдан олдинги даврларда хитойликлар Ан (Бухоро)ни Кан (Суғд)дан алоҳида ўлка сифатида кўрсатганликлари [4] каби IX–XI асрларга бу ўлкаларга ташриф буюрган араб-форс географлари ҳам Бухоро воҳасини Суғддан алоҳида ўлка сифатида талқин қилишган.

Муқаддасийнинг Суғд ҳақидаги қарашлари эса қуйидагича: “Суғд – Самарқанд ерларининг барчасини қамраб олади. Самарқанд Суғднинг маркази бўлиб, бу ернинг барча шаҳарлари унга тобедир.

*Чунки Самарқанд бу ўлкадаги энг қадимий, энг кенг ва ўзига қарашли энг кўп рустоқларига эга бўлган жойдир. Агар бирортаси чиқиб, “Бухоро бошқарув ва девонлар маркази бўлса-ю, нега уни бош шаҳар сифатида қабул этмайсан” деса, унга шундай жавоб берилади: У (Бухоро)нинг бошқарув маркази бўлиши бу шаҳарнинг бош шаҳар бўлишини шарт қилиб қўймайди. Фақат, у Сомоний ҳукмдорлари бу ерни ўзларига маъқул топиб, Самарқанддан у ерга кўчиб ўтган бир жойдир” [5].*

Ибн Ҳавқал эса ўз асарининг бир жойида Кеш ва Насаф билан бирга Бухорони ҳам Суғд ўлкасига киритиш мумкинлигини ёзиб, асарининг бошқа бир жойида Суғд ўлкасининг Бухоро томонидан Карминийадан ўтгач, Самарқандга қарашли Дабусиядан эътиборан бошланишини, шу тариқа навбати билан Рабинжон, Кушония ва Самарқанд келиши ва Суғд бу ерлардан иборатлигини айтиб ўтади. Фақат Ибн Ҳавқал ҳам айрим олимларнинг Бухоро, Кеш ва Насафни Суғдга киритишига қарши чиқиб, ушбу шаҳарларнинг девонда (яъни Сомонийлар девонида-Д.М.) Суғддан алоҳида ҳисобланишини айтиб ўтади [6]. Шу ўринда, унинг бу масалага ўша давр маъмурий ҳолатидан келиб чиқиб ёндашганини айтиб ўтиш керак. Бу борада хорижлик тадқиқотчилар ҳам ўз фикрларини билдирган бўлиб, араб ва форс географлари орасида Насаф ва Кешни Суғдга киритмаслик ҳолати учраши, бироқ бундай ёндашув ўз даври маъмурий бошқарув тизими билан боғлиқ равишда келиб чиққани таъкидлайдилар [7].

Ёкут Суғднинг маъмурий маркази Самарқанд эканини ёзиб, Суғднинг иккига бўлиниши, биринчиси Самарқанд Суғди, иккинчиси эса Бухоро Суғди деб аталишига урғу беради. Унга кўра, Самарқанд Суғди Бухоро чегарасидан бошланиб, Буттам (Зарафшон/Панжикент) тоғларигача чўзилган Суғд водийси бўйлаб чўзилган эди [8]. Самъоний, Қазвиний ва Абул-Фидо каби ўша давр муаллифлари Суғд ҳақида ёзар экан фақатгина Самарқанд Суғди тўғрисида сўз юритиб, Бухоронинг Суғдга алоқадорлиги борасида ҳеч бир маълумот бермасдан ўтишган [9].

Ле Стренж Суғд ўлкаси Сайхун (Сирдарё) ва Жайхун (Амударё) орасида ўрнашиб, унумдор тупроқларни ўз ичига олгани ва ушбу ўлкани иккита дарё суғоришини, биринчиси Самарқанд ва Бухорони суғорадиган Суғд ёки Зарафшон дарёси, иккинчиси эса Кеш ва Насафдан оқиб ўтувчи дарё (Қашқадарё) эканига урғу бериш билан бирга Суғдга Самарқанд ва унинг атрофидан иборат ўлка сифатида қараш мантиқлироқ эканини олға суради. Унга кўра, Бухоро, Кеш ва Насаф шаҳарларига алоҳида-алоҳида ўлкалар сифатида қараш мантиқлироқдир [10]. Ушбу маълумотлардан мусулмон географларининг Суғдни муайян бир ўлка сифатида қадимги даврларга нисбатан анча тор маънода тавсифлаганини кўришимиз мумкин. Самарқанд айрим муаллифларни истисно қилганда, деярли барча мусулмон географлари томонидан Суғд таркибидаги ва ушбу ўлканинг бош маркази сифатида тилга олинishi билан бирга Кеш ва Насафни Суғдга кириши ёки тескариси эканлиги масаласида бир-бирини рад қилувчи маълумотлар учраши эса ўша даврдаги сиёсий муҳит билан боғлиқ эди. Мусулмон географларининг кўпчилиги эса Бухоро воҳасининг Суғдга кирмаслигини илгари сурган бўлсалар, баъзи муаллифлар эса уни ё Суғдга киритиши ёки “Бухоро Суғди” деган атамани қўллаганликлари ҳам диққатни тортади. Бу эса бундаё ёндашув минтақадаги илк мусулмон сулолалари давригача узук-юлук равишда етиб келган анъаналар боғлиқ бўлса керак мазмунидаги қарашларга имкон беради. Яъни исломдан олдинги даврларда Суғд янада кенгроқ ҳудудларни ўз ичига олган ва унинг акс-садоси айрим мусулмон муаллифларининг асарларида ўз ифодасини топган [11].

Суғднинг йирик шаҳарлари куйидагилардан иборат бўлган дейиш мумкин: 1. Дабусия 2. Рабинжон 3. Кушония 4. Иштихон 5. Кеш 6. Насаф (Нахшаб).

Ушбу шаҳарлар ёки кичик ҳукмдорликларнинг деярли барчаси, айниқса, Кушония, Иштихон ва Кабудон Самарқандга кўпроқ тобе, Кеш ва Нахшаб айрим эса пайтларда нисбатан тобе эди. Улар Самарқандга тобе бўлиши билан биргаликда сиёсий ва маъмурий жиҳатдан алоҳида-алоҳида кичик ҳукмдорликлар – мулкликлар бўлиб, улардан ҳар бирининг ўз ҳудуди, бошқарувчи сулоласи, бошқарув маркази, ўзига қарашли рустоқ ва кишлоклари мавжуд эди. Улар кўпинча ўз ички бошқарувларида мустақил, бироқ сиёсий ва ҳарбий жиҳатдан Самарқандга қарам эдилар. Муайян бир конфедерацияга бирлашган алоҳида ҳукмдорликлар деб атаса бўладиган ушбу сиёсий бирликларнинг умумий номи Суғд, марказий ҳукмдорлиги эса Самарқанд эди. Яъни, ҳудудий жиҳатдан нисбатан кичик бўлишларига қарамай уларнинг ҳар бирига алоҳида-алоҳида вилоят бўлган деб эмас, кичик ҳукмдорлик сифатида қараш керак бўлади. Чунки Кушония ёки Иштихон ҳудуди бўйича кичик бўлиб, бирор туман кўламида бўлса ҳам, сиёсий ва ҳукукий жиҳатдан мавқеи вилоятга нисбатан анча юқори эди [12].

Жайхоний келтирган бир ривоятда Суғд ўлкаси географик жойлашувига кўра инсон тасвирига ўхшаши таъкидланади: унинг боши Бунжикас (Панжикент), оёқлари Кушония, сирти Авфар, қорни Кабудонжакас ва Туркасфо (яъни Марзубон), қўллари Маймурғ ва Бузмажондир [13].

Қисқаси, Суғд ўлкасининг араб ва форс географларини ўзига тортган жиҳатлари улардан бир қанчасининг асарларида биридан-иккинчисига кўчиб, улар орасида куйидаги маълумот диққатга сазовордир: “Сўғд, Сўғд дарёси (Зарафшон дарёси)нинг ўнгида ва сўлида, бир томони Бухоро ҳудудига, бошқа томони эса Буттам (Уструиона) ҳудудига бориб туташадиган ва ҳеч қандай бир тўсиқ билан узилмайдиган муайян бир водийда жойлашган бўлиб, бир учидан иккинчи учигача узунлиги саккиз кунлик масофадир. Бу ерда ям-яшил далалар, боғлар ва адирлар бир-бирига занжирдай боғланиб кетган

вазиятадир. Ўлка доимий равишида оқиб турувчи дарёлар билан ўралган бўлиб, қир-адирлар орасида кичик-кичик кўллар бор. Дарахтлар ва экин-тикинли майдонларнинг яшиллиги водийнинг икки учигага чўзилиб кетган” [14].

Сўғд ўлкасининг табиий-географик жойлашуви ва иқлим хусусиятлари ҳақида IX – XII асрларда эслатиб ўтилган ушбу маълумотларга ўхшаш маълумотлар анча кейинги даврларда ҳам тарихий ва адабий асарларда ўрин олганлиги кўзга ташланади. Жумладан, Заҳириддин Муҳаммад Бобур ўзининг “Бобурнома” асарида Самарқанд вилояти ва унга яқин жойлашган вилоят ва туманлар ҳақида маълумотларни келтириб ўтади [15].

Хулоса. “Марказий Сўғд” сиёсий ва маданий жиҳатдан марказ вазифасини бажарган бўлиб, бу ҳолат ўз даври манбаларида аксини топган. Айниқса, Самарқанд шаҳри кўп асрлар давомида ҳам “Марказий Сўғд”нинг, ҳам бутун Сўғд ўлкасининг маркази ва етакчи сиёсий кучи сифатида ўзини намоён қилган. Марказий Сўғд асосан Самарқанд ва унга сиёсий ва иқтисодий-маъмурий жиҳатдан боғлиқ бўлган Маймуғ, Кабудон, Фай, Иштихон, Кушония каби катта-кичик мулклик ёки хукмдорликларни ўз ичига олган. Географик жойлашувига кўра бир-бирига яқин бўлган ушбу мулкликлар ўз ички бошқарувида бирмунча мустақил бўлиб, ўз хукмрон сулолаларига эга бўлишса-да, кўпинча Самарқанддаги етакчи сулолага бўйсунган.

#### ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Bartold V.V. Soğd / İslam Ansiklopedisi, X. S. 737.
2. Aydinli O. Semerkant tarihi – fethinden Samanilerin yıkılışına kadar ..., s. 46.
3. Moqaddasi, 216 (Aydinli O. Semerkant tarihi – fethinden Samanilerin yıkılışına kadar ..., s. 46-47).
4. Бичурин Н. Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. В 3-х томах. – М. - Л.: Изд. АН СССР, 1950. – Т. I. – С. 271, 281.
5. Moqaddasi, 217 (Aydinli O. Semerkant tarihi – fethinden Samanilerin yıkılışına kadar ..., s. 47).
6. Ibn Havkal, s. 491-492 (Aydinli O. Semerkant tarihi – fethinden Samanilerin yıkılışına kadar ..., s. 47-48).
7. Aydinli O. Semerkant tarihi – fethinden Samanilerin yıkılışına kadar ..., s. 48.
8. Yakut. Mucemu'l-buldan. III, p. 409-410 (Aydinli O. Semerkant tarihi – fethinden Samanilerin yıkılışına kadar ..., s. 48).
9. Камолиддин Ш. Абу Са'д 'Абд ал-Карим ас-Сам'ани и его труд «Китаб ал-ансаб». Важный источник по истории и истории культуры Средней Азии / LAP – Lambert Academic Publishing RU, 2018. – С. 133-133, 167-168.
10. Strange G. The Lands of the Eastern Caliphate. – London, 1905. – P. 460.
11. Aydinli O. Semerkant tarihi – fethinden Samanilerin yıkılışına kadar ..., s. 49.
12. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия ..., с. 146-147; Aydinli O. Semerkant tarihi – fethinden Samanilerin yıkılışına kadar ..., s. 51.
13. Aydinli O. Semerkant tarihi – fethinden Samanilerin yıkılışına kadar ... s. 52.
14. Китаб ал-масалик ал-мамалик Истахри ... с. 22, 33; Худуд ул-олам (Мовароуннахр тавсифи ..., б. 12).
15. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Нашрга тайёрловчи П. Шамсиев. – Т., Юлдузча, 1999. – Б. 47.

УДК 93/94

### ВНЕШНЕПОЛИТИЧЕСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА (XVIII-XIX ВЕКА)

*М.А. Мубинов, преподаватель, Бухарский Государственный Университет, Бухара*

**Аннотация.** В данной статье излагается некоторые важные информации о внешнеполитической и дипломатической деятельности Бухарского эмирата в XVIII-XIX веках. Есть также свидетельства того, что Бухарский эмират является полноценным и независимым субъектом внешней политики.

**Ключевые слова:** эмират, внешняя политика, социально-политические связи, сарбаз (солдат), “Кучуккайнаржа”, Средняя Азия.

**Аннотация.** В данной статье излагается некоторые важные информации о внешнеполитической и дипломатической деятельности Бухарского эмирата в XVIII-XIX веках. Есть также свидетельства того, что Бухарский эмират является полноценным и независимым субъектом внешней политики.

**Ключевые слова:** эмират, внешняя политика, социально-политические связи, сарбаз (солдат), “Кучуккайнаржа”, Средняя Азия.

**Abstract.** This article presents some important information about the foreign policy and diplomatic activities of the Bukhara Emirate in the 18th-19th centuries. There is also evidence that the Bukhara Emirate is a full-fledged and independent subject of foreign policy.

**Key words:** emirate, foreign policy, socio-political ties, sarbaz (soldier), "Kuchukkainarza", Central Asia.

**Введение.** Активные политические и социально-экономические процессы шли при образовании Бухарского эмирата в Мавераннахре. Даже накануне нашествия Российской империи не прекращалась внешнеполитическая и экономическая деятельность Бухарского эмирата. Достигнуты большие успехи в изучении истории Бухарского эмирата, а также в выражении научных и объективных аналитических

взглядов, вызвавшей особый интерес в мировой историографии. Установление внешнеполитических и экономических отношений с Бухарским эмиратом, ведение с ним торговли было важно для Великобритании, Германии, России, Турции, Ирана, в том числе, эти внешние связи были крайне необходимы. Цель написания данной статьи - осветить международные отношения Бухарского эмирата в XVIII-XIX веках и на основе исторических источников, а также доказать, что Бухарский эмират являлся самостоятельным субъектом внешней политики в тот период и играл важную роль во всех отношениях с другими странами в регионе.

Во второй четверти XVIII века Бухарский эмират установил дипломатические отношения с некоторыми иностранными государствами. В частности, в 1779 году эмир Даниялбий аталык назначил Эрназара Максуд угли послом в Россию и Османскую империю, в том числе его задача заключалась в том, что он должен был укреплять двусторонние взаимовыгодные отношения с этими государствами. Посол Бухары был принят тёплом Екатериной II и турецком султаном Абдулхамидом I. Провелись переговоры по Бухара-Османским, Бухара-Российским отношениям [1, с.95]. В 1783-1784 годах Даниялбий аталык отправил послов в Стамбул к Абдулхамиду I во главе Мухаммада Шарифа. Даниялбий послал письмо через послов к имени султана. В ответ султан отправил письмо через Мухаммада Шарифа.

В 1786 году султан Абдулхамид I направил послов во главе Оламдора Махмуда Саида в Бухару, так как турки были недовольны результатами Кючук-Кайнарджинского договора, подписанного с Россией в 1774 году. Султан попросил эмира Шахмурада (1785-1800) оказать туркам политическую, так и моральную поддержку против России, чтобы вернуть Крым, который перешел к России по договору. Очевидно то, что Бухарский эмират в то время был независимым и могущественным государством и вёл полностью независимую внешнюю политику. В частности, в 1786 году эмир Шахмурад с целью решения вопросов Ирана и предотвращения Русско-Турецкой войны с Россией отправил своих послов во главе Палванкула курчи в эту страну. Кроме этого, эмир Шахмурад выступав против господства Российской империи над казахскими джузами, послал письмо через послов к биям казахских джузов [2, с.74-75]. Эти данные показывают, что бухарские эмиры начали свои действия против России в то время, когда российское вторжение не представляло угрозы. Бухарский эмират участвовал в международных отношениях как самостоятельным и полноценным субъектом.

В первой половине XIX века замечались попытки сближения в бухарско-китайских отношениях. Эти попытки принимались бухарцам. Например, эмир Бухары Хайдар (1800-1826) в 1816 году направил послов в маньчжурское официальное учреждение в Кашгаре с целью установления взаимных политических и торговых отношений между двумя странами. Согласно правилам дипломатических отношений государств Средней Азии, послы принесли письмо и подарки от эмира. Несмотря на молчание насчёт того посольства официального китайского правительства Маньчжурии торгово-экономические связи продолжались между Бухарой и Китаем.

Таким образом, государства Средней Азии продолжали торговать с соседними странами в любой политической или экономической ситуации. Среди этих стран развита внешняя торговля Бухарского эмирата с Китаем [3, с.178-179]. В начале XIX века внешние связи Бухарского эмирата более активировались. В 1969 году в Нью-Йорке профессор Йельского университета Г. Хембли опубликовал свою книгу под названием «Средняя Азия», которая посвящена на историю узбекских ханств. В 13 главе книги автора анализированы ценные сведения о внешней политике Бухарского эмирата. В данной книге освещаются административное устройство, внешняя дипломатия, торговые связи Бухарского эмирата. В 1969 году в Лондоне была опубликована книга Джеймса Ланта «Бухара Бернс», в которой приведены сведения о приезде сотрудника Ост-Индской компании, лейтенанта Александра Бернса в 1831-1832 годах по поручению Английского правительства, проделанных ему работах по установлению дипломатических отношений между Бухарой и Англией, Бухарско-Русско-Турецко-Иранских отношениях [4, с.42]. Во время правления Амира Насрулло были проведены реформы в Бухарском эмирате, а также внешнее влияние и военная мощь эмирата значительно возросли. Но после победы над англичанами в 1845 году эмир Кабула Дост Мохаммадхан отвоевал город Балх от Бухарского эмирата, который когда-то был оккупирован эмиром Шахмурадом. После этого, мангытские эмиры занялись политической деятельностью с целью установления своего господства в среднеазиатском регионе. В произведении Мухаммада Хакимхана Туры «Мунтахаб ат-таварих» излагаются события того периода и отношения Бухарского эмирата с Кокандским ханством. В нём отражаются данные о том, что захват войск эмира Бухары Джиззак, поход на Коканд, поражение правителя Кокандского ханства Мухаммадалихана. Согласно данным произведения Мулла Алим Махдум Хаджи «Тарихи Туркестан» (История Туркестана): в 30-х годах XIX века Бухарский эмират установил политические связи с Ираном, а также в 1834-1835-годах из Ирана в Бухару приглашён Абдусамад Табризи тупчи (пушкарь, артиллерист). На войне против Коканда Абдусамад Табризи возглавил в качестве главой артиллерии. По данным книги Н. Ханикова «Описание Бухарского ханство»: «Осенью 1841 года эмир Бухары послал в Коканд около 1000 солдат, 30 000 узбекских войск, большую армию с 11 артиллерийскими орудиями.

Коканд был оккупирован». Таким образом, Бухарский эмират в 1842 году захватил большую часть Мавераннахра и сыграл важную роль во внешней политике этого региона. Политическое давление Российской империи стало значительно усиливаться в 50-х и 60-х годах XIX века. Осенью 1867 года эмир Музаффар послал муфти Мулла Мухаммада Хужа Порсо к Османскому правителю в Стамбул. Мухаммад Ходжа Порсо передал дары и секретное письмо эмира султану Абдулазизу 24 сентября 1867 года. Турецкий султан отказался оказывать военную помощь, но согласился послать артиллерию и военных советников. Турецкий султан дал 50 000 куруш из казны султана и отправил Ходжу Мухаммада Порсона в хадж [5, с.3-9]. Амир Музаффар отправил письмо королеве Англии, в котором сообщил ей о нарушениях прав человека, материальной и моральной поддержке, а также о том, что она правит страной как правитель справедливо. Сохранилось единственное письмо королевы Виктории эмиру Бухары Музаффару 1872 года. Венгерский ученый, путешественник и шпион Герман Вамбери (1833–1905) также отмечает, что в 1865–1867 годах среднеазиатские ханства возлагали свои надежды на Великобританию и Турцию, чтобы избежать российского вторжения. 24 декабря 1867 года посол Бухарского эмира в Стамбуле вручил главному послу Генри Эллабу письмо эмира, но не получил конкретного ответа. Эмир Бухары не ограничился отправкой послов. 7 февраля 1868 года эмир и 14 его чиновников написали письмо британскому правительству, в котором говорилось, что российские военные оккупировали Джизак, Уратюбе и Янгикурган, убив тысячи мирных жителей и мусульман [6, с.3-9].

В заключение следует отметить, что представление о том, что мангытские правители Бухары ничего не сделали против нападения русских, было неверным. Бухарский эмират вел активную внешнюю политику во всех отношениях с другими странами накануне нападения Российской империи. Выражая свои взгляды и комментарии к теме, мы обратились к источникам с критической точки зрения. Не только внешняя политика Бухарского эмирата, но и внешняя деятельность всех среднеазиатских ханств требует более глубокого исследования. Перед историческими исследованиями в этой области стоят серьезные задачи в будущем.

#### СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Гулямов Х.Г. Из истории дипломатических отношений России с Бухарским ханством XVIII в. –Т.: Фан. 1992. С.95.
2. Рахмонкулова З. “Бухоро амирлигининг дипломатик алоқолари”//Жамият ва бошқарув. 2002. №3. –Б.74-75.
3. Қўлдошев Ш. Манғитлар даврида Бухоро-Хитой муносабатлари/Бухоро тарихи масалалари(Республика илмий-назарий анжумани материаллари). Бухоро: 2017. –Б.178-179.
4. Авазов Й. Бухоро амирлигининг ташқи иқтисодий алоқалари (XIX-XX аср бошлари)//Мозийдан садо. 2007. - №1. –Б.42
5. Mehmet Saray. Rus ishğ`ali devrinda Osmanli davlatining Turkiston hanliklari orasindagi siyasi munasebetler (1775-1875). Қаранг: Ҳайитов Ш. Ҳайитов Ш.А. Россия империяси босқини арафасида Бухоро амирлиги ва Ўрта Осиё хонликларининг дипломатияси/ Бухоро тарихи масалалари(Республика илмий-назарий анжумани материаллари). Бухоро: 2017. –Б.3-9.
6. Содиқов Х. Тарихнинг чигал сўқмоқлари. Қаранг: Ҳайитов Ш.А. Россия империяси босқини арафасида Бухоро амирлиги ва Ўрта Осиё хонликларининг дипломатияси/ Бухоро тарихи масалалари(Республика илмий-назарий анжумани материаллари). Бухоро: 2017. –Б.3-9.

УЎК 726:393

### ХОРАЗМ ВОҲАСИДА АҲОЛИ ДАФН ИНШОТЛАРИ ВА ДАФН МАРОСИМЛАРИ МАНБАШУНОСЛИГИГА ДОИР БАЪЗИ МУЛОҲАЗАЛАР

**Ш.Б.Рахимов, кичик илмий ходим, Хоразм Маъмун академияси, Хива**

**Аннотация.** Хоразмнинг Ўрта Осиё чўл минтақаси марказидаги географик ўрни мазкур воҳа (давлат)нинг қўлини кўманчилар ва уларнинг бирлашмалари билан алоҳида муносабатда бўлишига олиб келди. Хоразм Ўрта Осиё сак-массагетлар оламининг бир қисми бўлиб, қадимий Хоразм деҳқонлари билан кўчманчиларнинг ўзаро диний муносабатлари муаммолари археолог олимларимиз фаолиятида алоҳида ўрин эгаллайди. Шу боисдан, дафн қилинадиган жойларнинг топографияси, дафн турлари ва эволюцияси муҳим аҳамиятга эга бўлиб, баъзи ҳолларда Ўрта Осиёнинг қадимий ва Ўрта асрлар тарихидаги оилавий шакллар, маданий ҳамда этник алоқаларни ривожлантириши каби муаммоларни ўрганишида ноёб манба ҳисобланади.

**Калит сўзлар:** Шимолий ва жанубий Тагискен, Уйгарак, Тумек-кичиджик, Таримқоя II ва III, мозор-қўрғонлар, Қалъалиқир, оссуарийлар, Бозорқалъа.

**Аннотация.** Географическое положение Хорезма в центре среднеазиатского пустынного края обусловило особые отношения этого оазиса (государства) с соседними горняками и их объединениями. Хорезм является частью среднеазиатского мира сак-массагетов, и проблемы религиозных взаимоотношений древних хорезмийских крестьян и кочевников занимают особое место в работах наших археологов. Поэтому топография, типы захоронений, эволюция захоронений являются важным,



а в ряде случаев уникальным источником при изучении таких проблем, как семейные формы, культурные и этнические связи в древней и средневековой истории Средней Азии.

**Ключевые слова:** Северный и Южный Тагискен, Уйгарак, Тумек-кичиджик, Таримкоя II и III, мавзолеи, Каликикыр, оссуарии, Базаркала.

**Abstract.** The geographical position of Khorezm in the center of the Central Asian desert region determined the special relations of this oasis (state) with neighboring miners and their associations. Khorezm is a part of the Central Asian world of the Sak-Massagets, and the problems of religious relations between the ancient Khorezm peasants and nomads occupy a special place in the works of our archaeologists. Therefore, topography, types of burials, evolution of burials are an important, and in some cases a unique source in the study of such problems as family forms, cultural and ethnic ties in the ancient and medieval history of Central Asia.

**Key words:** Northern and Southern Tagisken, Uygarak, Tumek-kichidzhik, Tarimkoy II and III, mausoleums, Kalikikyr, ossuaries, Bazarkala.

XX асрнинг 40-йиллари ўрталаридан Хоразм археологик ва этнографик экспедицияси ходимлари Оқчадарё ҳамда Сирдарё қуёи хавзаси текислиги географик ҳолатини номаён қилган Инкордарё ирмоғи соҳилига уланган шимолий ва жанубий Тагискен платосида чорвадор қабилалар томонидан қолдирилган халқасимон Тагискен мақбараси ҳамда Уйгарак мазор-қўрғонларини археологик харитага қайд қилиб, мақсадли илмий режа асосида ўрганиш объекти сифатида белгилаб олинганлиги муҳим аҳамият касб этади. 1946 йилдан бошлаб, ХАЭЭ ходимлари Сирдарёнинг ўрта қисмидаги Тагискен ва Уйгарак мазор-қўрғонларида қазилма ишларни олиб бориши муносабати билан Тагискен қабристонини атрофларида 50 та [Толстов С.П. 1961. № 4. –С. 114-116], улардан 38 таси, Уйгаракда эса 80 та [Левина Л.М. 1996. –С. 87], шундан 70 тасида қазилма ишлари олиб борилган. Тагискен мазор-қўрғонлари мураккаб меъморчилик режавий усулда бўлиб, тўртбурчак, халқасимон қабрлардан иборат бўлган. Шулардан энг каттаси (мақбара №6), халқасимон, ички қисми тўртбурчак шаклда, жасад жойлаштиришга мўлжалланган. Ташқи ва ички девор 2 метр йўлак билан ажратилган. Мақбара девор қалинлиги 4 м, унинг баландлиги 6-7 м. Шу билан бирга мақбарада ёғоч устунга мўлжалланган чуқурчалар қолдиғи сақланиб қолинган. Жасадлар куйдирилган [Толстов С.П. 1962. –С. 81-82.; Толстов С.П., Итина М.А. 1966. №2. –С. 151-155]. Жанубий Тагискен қабристонини икки мажмуага бўлинган. Улардан биринчисида 12 та қўрғон, иккинчисида жанубий 29 та қўрғон Шимолий Тагискен некрополида жойлашган. Жанубий Тагискен милоддан аввалги VII-V асрларга тааллуқли бўлиб, милоддан аввалги V-аср мазорлари қабристоннинг жанубий қисмида, олдинроқлари эса унинг шимолий қисмида тўпланган [Левина Л.М. 1996. –С. 88.; Токарев С.А., 1964]. Уйгарак қабрлари милоддан аввалги VII-VI асрларга оид; V-аср қабрлари камдан-кам учрайди, жамланган учта гуруҳ - шарқий (тахминан 30), марказий (27) ва ғарбий (21). Жанубий Тагискен ва Уйгаракдаги дафн маросимлари қадимги қабр ва майит маросимига биноан ер ости чуқурларида амалга оширилган. Барча ҳолатларда қабрлар тепаликка куйилган. Тепаликни сақланиб қолган баландлиги 0,3-2 м, диаметри 10-40 м. Ичида дастлабки темир асри ривожланган давр ёдгорликлари Орол микрарайони аввалги даврдаги Сирдарёнинг қуёи оқимидаги сақ қабилалари маданияти (Уйгарак, Жанубий Тагискен кўмилган жойлари) ва Ўрта Осиёнинг жанубидаги қишлоқ хўжалиги воҳаларининг кучли маданий таъсири асосида ташкил топган, бу қурилиш меъморчилиги, қулоччилик шакллари техникасида намоён бўлган [Итина М.А., Яблонский Л.Т. 2001. –С. 295.]. Ушбу таъсир милоддан аввалги IV-II асрларда Сирдарёнинг қуёи оқимида Сақ қабилалари маданиятига янги кўриниш берганига қарамай, унинг дастлабки Сақ жойларига нисбатан давомийлиги нафақат сополлар, балки дафн маросимида ҳам кузатилиши мумкин [Толстов С.П., Итина М.А. 1966. №2. –С. 151-175]. Тадқиқотчиларнинг маълумотига кўра, неолит даври овчи-термачилар томонидан қолдирилган қабр қолдиқлари Устюрт чинки, Оқчадарё, Сарикамишбўйи хавзалари ҳамда юқори Узбой худудларида археологик тадқиқотлар натижасида ўрганилган. Е.Б.Бижановнинг Устюртда овчи-термачилар томонидан қолдирилган Каскажол қабристонини олиб борган археологик изланишлар натижасида олинган антропологик ашёлар неолит даври охириги босқичида турмуш тарзини олиб борган уруғ жамоалари оила аъзолари ва аждодлари дафн қилинган қабрлар бўлиб, ушбу дафнларда деярли жасад яхлит суякларини сақланиб қолмаган, лекин устамонлик тарзда ишлов берилган камон ўқ учлари, чиганоқдан ишланган зеб-зийнат буюмлари олинган. Яна шуниси қизиқки, қабр ер сатҳига қизил бўёқ сепилган [Бижанов Е.Б. 1985. №1. –С. 250-252.]. Афсуски, майит қайси ҳолатда жойлаштирилганлиги тўғрисидаги фикр-мулоҳазалар изоҳланган эмас. Бизнинг назаримизча, уруғ жамоалари раҳномаси раҳбарлигида оламдан ўтганларни қабрларда чалқанчасига ётқизиблиб, қўллари тана бўйлаб чўзилган ҳолатда жойлаштирилган.

Калтаминор маданияти қуёи даври (милоддан аввалги III минг йиллик ярми) ёдгорликлари доирасига мансуб Сарикамиш бўйи дельтасининг жанубий қисмидаги Тумек-кичиджик неолит даври қабристонининг кашф қилиниши ғоят муҳим аҳамият касб этди. Қабристондан олинган бош суяғи ўша давр аҳолисининг антропологик типини ифода этади, унда ҳам шимолий, ҳам жанубий хусусиятлар

мавжуд. Шу билан бирга, неолит уруғ жамоаларининг дафн маросимларини ўрганишда Сарикамишбўйи хавзасида Тумек-Кичиджик қабридан олинган антропологик ашёлар диққатга сазовар. Тумек-Кичиджикда олиб борилган археологик изланишлар натижаларига кўра, 30 та қабрда олиб борилган изланишлар натижасида жасадлар қисқа, нисбатан чуқур қабрларга кўмилган бўлиб, қўллари тана ён қисми бўйлаб йўналтирилган. Тумек-Кичиджик қабрларидаги жасаднинг қизил бўёқ сепилган жойга қўйилиши Оқчадарё хавзасида неолит даври уруғ жамоалари турар-жойлари Ёнбош IV,V, Толстов маконлари ҳамда Каскажол дафн маросимларига айнан ўхшаш. Жасад танаси ҳам қизил бўёқга эга. Жасад боши шимоли-шарқий томон йўналтирилган. Баъзи қабрлар атрофи тўсиқлардан иборат бўлиб, юқори қисми тошлар билан ўраб олинган. Х.Юсупов маълумотларидан маълумки, Узбой ўрта қисмида жойлашган Чопинкир (Хонали ва Ялқим) баландлиги атрофида алоҳида жуфт қабрлар ер сатҳига қўйилганлиги аниқланган. Хонали баландлигида 12 та қабр қолдиғи ўрганилиб, уларнинг хажми айлана шаклда, ўлчами 10 м, баландлиги 0,5 м. Қабрларнинг ички тузилиши турлича, яъни 1x1,25x1,50x2,40 см, 1,65x2,50 см, 1,30x1,50x2,15x2,35 см. Жасадлар чалқанчасига чўзилган ҳолатда, боши жанубга қараб йўналтирилган. Хонали қабрлар тузилишини такрорлайдиган қабрлар қолдиқлари Ялқим баландлигида 6 та қабрларда ўрганилган. Олинган кулолчилик ашёлари Хонали ва Ялқим қабрларини мил. авв. VII-V асрларга оидлиги тўғрисида хулосага келинган [Юсупов Х. 1981. –С. 131-142.]. Кейинги тадқиқотларда, Х.Юсупов Хоразм сўл соҳили жануби-ғарбидаги Сарикамишбўйи хавзаси баландлигида жойлашган Таримқоя II ва III мазор-қўрғонларида қазилган ишларини олиб бориши муносабати билан айланаси хажми 4-10 м, баландлиги 0.2-0.5 м бўлган қабрлардан антропологик ашёлар олишга муяссар бўлган. Жумладан, Таримқоя II да 2 та мазор-қўрғон ўрганилган бўлиб, унинг тузилиши яримшар шаклда, айланаси 6 м, баландлиги 1 м бўлиб, унинг устки қисми майда плиткалар билан қопланган. Марказида тўғрибурчакли чуқур, узунлиги 1.5 м, кенлиги 0.65 см, чуқурлиги 0.30 см, жасад ғужанак холда, ўнг ёнга ётқизилган, боши жанубга қаратилган. Иккинчи қўрғон устки қисми майда тош бўлакчалари билан қопланган. Унинг айланаси 7 м, баландлиги 1 м. Шу билан бирга, Таримқоя III қабрларида оламдан ўтганларнинг суяклари майда хажмли безакли ва безаксиз идиш товоқларда жойлаштирилган бўлиб, улар мил. авв. V-IV асрларга оиддир [Юсупов Х. 1979. –С. 94-95. Рис. 2. –С. 97. Рис. 4.]. Мил.авв. VI-V асрларда Қуйисой аҳолиси томонидан қолдирилган 50 та қабрдан 40 тасида олиб борилган қазилма ишлар натижасида уларнинг режавий тузилиши, майитлар чалқанчасига қўйилишини намоён қилган дафн маросимлари аниқланган [Лоховиц В.А. 1979. –С. 134-146.] Назаримизча, юқорида қайд қилинган тарихий даврда Қуйисойликлар ота-боболари дафн маросимларини давом эттирганлар. О.А.Вишневская Яссиқир, В.А.Лоховиц Тузқир, Б.И.Вайнберг Тумек-Кичиджик ва Таримқоя, Б.И.Вайнберг, Х.Юсупов, Д.Дурдиевлар Шоҳсанамқир қабрларини археологик жихатдан ўргандилар.

XX аср 70-80 йилларида ХАЭЭ ходимлари томонидан Сарикамишбўйи атрофларида темир даври аҳолиси қабр-мазорларини археологик жихатдан ўрганиш объектига айланганлигини қайд қилиш лозим. Б.И.Вайнбергнинг Сарикамишбўйи хавзасида Оқчадарёдан кўчиб келган чорвадорлар томонидан қолдирилган 43 та мазор қўрғонидан 18 та қабрда олиб борилган археологик изланишлар натижасида кўтармаси паст бўлган қабрнинг устки қисми оқ рангли тош билан қопланган. Қабрларнинг тузилиши тўғрибурчак шаклда, унинг ўлчами 60-70 см дан 1 м хажмдаги чуқурчадан иборат бўлган. Жасадлар қабрларда орқа билан чўзилган ҳолатда, қўллари икки ён томонга чўзилган бўлиб, боши ғарбга, айрим ҳолларда жануби-ғарб ва ғарбий томонга йўналтирилган. Қабрларда ягона, айримларида жасадлар жуфт ҳолатда дафн қилиниши неолит даври одамларининг урф-одатлари маросимларида ўз аксини топган [Вайнберг Б.И. 1979. –С. 27.].

1950-1953 йилларда Қальалиқирда қазилма ишлари муҳофафазасида девори ички қисмидан, шимоли-ғарбий бурчаги яқинида, дарвоза олди лабиринти шимолида ҳамда сарой деворида, чуқурчада 40 дан зиёд хилма хил шаклдаги оссуарийлар топилган. Оссуарийлар тошдан, пиширилган ва хом лойдан тайёрланган. Оссуарийлар тўғрибурчакли, айлана, гумбазсимон, квадрат ва арксимон шаклдаги оёқли ва оёқсиз оссуарийлардан иборат бўлган [Толстов С.П. 1962. –С. 114-116. Рис.-57].

1951-1957 йилларда антик даврга оид бўлган Қўйқирилган қалъа ёдгорлиги атрофларида 10 та оссуарийлар орасидан алоҳида хайкалсимон оссуарийлар ўрганилганлиги илмий аҳамият касб этади. Квадрат шаклдаги оссуарийларга аёл ва эркак чордона ҳолатда ўтиргани таъсир этилган. Оссуарийлар оламдан ўтган мархумларнинг суяклари сақланишга мўлжалланган.

1971 йилда Ш.Ботиров номидаги Тарих институтининг археология гуруҳи Шоҳсанам ёдгорлигининг шимоли-ғарбидаги Тумек-Кичиджик баландлигида 40 та қўрғон қайд қилиниб, ундан 5 та лаҳад типидagi қабрлар ўрганилиб, мил.авв I - мил. II асрларга оид антропологик ашёлар олинган [Лоховиц В.А. 1979. –С. 134-146]. Давдон ирмоғи ўрта қисми Кўхна Уаз ёдгорлигида ва Шоҳсанам қир атрофларида чуқур шаклига эга бўлган мазор-қўрғонларида қуйдирилган жасадларнинг кули аниқланган бўлиб, унинг тарихий санаси IV-V асрларга оиддир [Неразик Е.Е. 2013. –С. 10.]. Оқчадарё хавзасида олиб борилган археологик изланишлар натижаларига кўра, антик даврга оид бўлган Бозорқалъа яқинида 20 та қабр рўйхатга олиниб, уларнинг 3 таси археологик жихатидан ўрганилган. Оламдан ўтганлар чуқур бўлмаган қабрларга қўйилган, устки қисми тупроқ билан ёпилган. Майитлар

чалқанчасига ва ёнбошланган ҳолатда жойлаштирилган. Қабрдан топилган кам сонли сопол бумлари таҳлилидан келиб чиқиб, мил. авв. IV-III ёки кейинги эволюцияси V-III асрлар билан белгиланган [Гудкова А.В., Маньлов Ю.П. 1981. –С. 154-167]. Фикримизча, мил. авв. VI аср иккинчи ярми чорагида зироаткор аҳоли томонидан бунёд қилинган Бозорқалъа аҳолиси янги авлодлари оламдан ўтган оила аъзолари ва сафдошларини ер сатҳидан 50-1 м чуқурликдаги қабрларга ён томони ва елка бўйлаб чалқанчасига қўйиш урф-одатларини олиб борганлар.

1-жадвал

**Жанубий Хоразм ўрта аср ёдгорлик қабристонлари ўрганилиш динамикаси  
(археологик тадқиқотлар асосида)**

Давр	Қабристонлар	Археологик тадқиқотлар.
Неолит даври қабрлари	Каскажол, Тумек Кичиджик, Ёнбош IV, V, Толстов маконлари, Таримқоя II ва III мазор-қўрғонларида, Шохсанамқир,	Е.Б.Бижанов (Каскажол), А.В.Виноградов, Л.Т.Яблонский, Б.И.Вайнберг (Тумек-Кичиджик ва Таримқоя) Б.И.Вайнберг, Х.Юсупов, Д.Дурдиевлар (Шохсанамқир), 1971 йилда Ш.Ботиров номидаги тарих институти (Тумек Кичиджик),
Бронза даври қабрлари	Кўкча-3, Тузқир тақирликларида, Мешекли қабристониди, Чопинқир (Хонали ва Ялқим) баландлиги,	М.А.Итина (Кўкча-3), В.А.Лоховиц, С.Р.Баратов, Х.Юсупов (Чопинқир (Хонали ва Ялқим) баландлиги),
Темир даври қабрлари	Тагискен, Уйгарақ	А.И.Тереножкин (XX асрнинг 40-йиллари ўрталаридан),
Антик давр қабр иншоотлари	Қалъалиқир, Бозорқалъа, Қўйқирилган қалъа	С.А. Вязигин (Қалъалиқир) 1950-1953 йилларда, 1951-1957 йй (Қўйқирилган қалъа),
Илк ўрта асрлар қабр иншоотлари	Кубатоғ, Тўққалъа, Миздахкон (Гаур қалъа), Куоққалъа	Н.Н. Вактурская О.А., Вишневская, Е.Е. Неразик, Ю.А. Рапопорт, В.А. Лоховиц, А.Ю.Якубовский (1928-1929 йй, 1962 - 1965, 1985 йй) Миздахкон (Гаур қалъа), Я.Фуламов ва Т.Мирғиёсовлар (1936-йилда) Манғит қишлоғи яқинидаги Кубатоғдан, XX-аср 50 йил ўрталаридан Ю.А.Рапопорт, Г.П.Снесарев Кубатоғ қабристони, Гаурқалъа (Миздахкон)да А.Ю.Якубовский, 1962-1965 йилларда В.Н.Ягодин Гоурқалъада, 1960 йиллардан А.В.Гудкова (Тўққалъа), А. А.Некрасов, В.И.Пилявский, Н.С.Гражданкиналар А.Ю.Якубовский (Миздахконда), М.Мамбетуллаев (Куоу қалъа)
Ривожланган ўрта асрлар қабр иншоотлари	Қиронтоғ, Миздахкон, Тўққалъа (Эски Дарсон), Қалмиққирилган, Олмаотишган, Аширматтепа,	1960 йиллардан А.В.Гудкова (Тўққалъа), 1973 й. М.Мамбетуллаев (Олма отишган, Қалмиққирилган), В.Н.Ягодин, Ходжайов, В.М.Филимонов, Ғ.Хўжаниязов (Миздахкон), 2002, 2004, 2006 йилларда Ғ.Хўжаниязов, Н.Юсупов, Ш.Амиров, Ж.Даулетназаров, М.Калменов, Авизова А, Сайпанов Б., Бағдасаровлар Н, Қдирниязов М-Ш., Тўрабеков М (Қиронтоғ), 2017 йилда Садуллаев Б.П. раҳбарлигида (Аширматтепа)

Шу тариқа, юқорида келтирилган фикр мулоҳазалардан ушбу бандни қуйидагича яқунлаш мумкин:

Юқорида қайд қилинган маълумотлар ушбу бандни қуйидагича хулосага келишга имкон яратди:

- II-минг йиллик ўрталаридан бошлаб, Волга ва Урал тоғи оралиғида ёғочбанд ҳамда Қозоқистоннинг шимоли-шарқий ҳудудлари хўжалик соҳаларини олиб борган ярим кўчманчи қабилалар Хоразмнинг жанубий Оқчадарё ҳудудига келиб жойлашиши этник жараёнлар зичлигини ҳосил қилган. Мазкур давр маҳаллий Сувёрған, Тозабоғёблиқлар этник жараённи ҳосил қилган. Мазкур этник жараёнлар мил. авв. VII-асрнинг иккинчи ярми охириларигача давом этган;

- Мил. авв. X-VIII асрларга келганда Оқчадарё ҳавзасида Сувёрған ва Тозабоғёблиқлар омухталашини натижасида янги этник қатлам этник жараёнларни давом эттирганлар;

- Мил. авв. VII-аср охиридан бошлаб, Шимолий Бактриядан кўчиб келган ўтроқ аҳоли бир гуруҳ вакиллари Амударё ўнг ва сўл сарҳадларини босқичма-босқич ўзлаштириб, этник жараёнлар географиясини кенгайтирганлар.

**ФЙДАЛЕНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙҲАТИ:**

1. Вайнберг Б.И. Памятники Куясайской культуры//Кочевники на границах Хорезма. -М. наука. 1979. –С. 27.
2. Гудкова А.В., Маньлов Ю.П. Могильник у городища Базаркала//Культура и искусство древнего Хорезма. --М. Науки. 1981. –С. 154-167
3. Итина М.А., Яблонский Л.Т. Мавзолеи Северного Тагискена. Поздний бронзовый век Нижней Сырдарьи. – - М., 2001. -С. 295.
4. Левина Л.М. Этнокультурная история восточного Приаралья. -М. 1996. -С. 87.
5. Левина Л.М. Этнокультурная история восточного Приаралья. -М. 1996. -С. 88.
6. Лоховиц В.А. Подбойно катомбные и коллективные погребения могильника Тумек-Кичиджик//Кочевники на границах Хорезма. -М. наука. 1979. –С. 134-146.
7. Лоховиц В.А. Подбойно катомбные и коллективные погребения могильника Тумек-Кичиджик//Кочевники на границах Хорезма.-М. наука. 1979. –С. 134-146.

8. Неразик Е.Е. Формирование раннесредневекового общества в низовых амударьи.-М. 2013. –С. 10.
9. Токарев С.А. Ранние формы религии и их развитие. -М., 1964
10. Толстов С.П. По древнем дельтам Окса и яксарта. Из-во. Вост-лит. -М. 1962. –С. 114-116. Рис.-57
11. Толстов С.П. Приаральские скифы и Хорезм//СЭ-М. 1961.№ 4. –С. 114-116.
12. Толстов С.П., Итина М.А. Саки низовьев Сырдарьи (по материалам Тагискена). -СА. 1966. №2. -С. 151-175.
13. Толстов С.П. По древнем дельтам Окса и Яксарта. М. Вост. Лит. 1962. –С. 81-82.
14. Толстов С.П., Итина М.А. Саки низовьев Сырдарьи//По материалам Тагискена. СА. М. 1966. №2. –С. 151-155
15. Юсупов Х. Курганы могильников Тарым-кая II и III//Кочевники на границах Хорезма. -М. Наука. 1979. –С. 94-95. Рис. 2. –С. 97. Рис. 4.
16. Юсупов Х. Памятники древних кочевников Заузбойского плато (Чопинкыр)//Культура и искусство древнего Хорезма. -М. Наука. 1981. –С. 131-142.

УЎК 93/94

## ХОРАЗМ ХАЛФАЧИЛИГИ АНЪАНАЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ЛОКАЛ ХУСУСИЯТЛАРИ

*Н.Э. Сабирова, доц., ф.ф.д., Хоразм ВХТХҚТМОҲМ, Урганч*

**Аннотация.** Ушбу мақолада сўз шоира-дostonчи халфалар ҳақида сўз юритилган. Шунингдек, халфачилик тарихида шоира-дostonчи халфаларнинг ўрни, тарихи ва ижоди хусусида ва Хоним халфа ижоди ҳақида маълумотлар келтирилган. Шунингдек, халфа ижодидан келтирилган намуналарда Хоразм халфачилик санъатида хос бўлган хусусиятлар таҳлилга тортилган.

**Калим сўзлар:** Хоразм фольклори, Хоразм халфачилиги анъаналари, шоира-дostonчи халфалар, Хоним халфа ижоди, халфачилик санъати

**Аннотация.** В данной статье речь идёт о поэтах-эпосах халфах. Также имеется информация о роли, истории и творчестве поэтов-эпических халфов в истории Хорезмского фольклора, а также о творчестве госпожи халфы Ханымджан. Также особенности хорезмского искусства халфы анализируются на примерах из произведений халфы.

**Ключевые слова:** фольклор, традиции Хорезмско фольклора, поэтико-эпические сказительницы, создание госпожи-сказительницы Ханымджан, искусство Хорезмского фольклора и сказительниц

**Abstract.** This article deals with the half-epic poets. There is also information about the role, history and work of the epic half-poets in the history of Khorezm folklore, as well as the work of Mrs. Khalfa Khanimdzhan. Also, the features of the Khorezm art of the khalfa are analyzed using examples from the works of khalfa.

**Key words:** folklore, traditions of Khorezm folklore, poetical and epic storytellers, the creation of the lady-storyteller Khanimdzhan, the art of Khorezm folklore and storytellers

Хоразм минтақасида дostonларни кироат билан ўқиб эшиттирадиган ёки оғзаки равишда гармон жўрлигида куйлайдиган яна бир ижрочилар борки, уларни воҳада халфалар деб юритишади [Ҳакимов, 2013: 88].

Хоразм воҳасида халфачилик анъаналари қадимдан бошлаб кенг оммалашган. Ҳозирги кунда халфа деганда, дастлаб, тўйларда хизмат қиладиган, гармон чалиб ашула айтадиган аёл ва унинг ёнидаги доирачи билан рақосадан иборат кичик ансамбль тушунилади. Қолаверса, тўй ва азаларда диний ва дунёвий китобларни кироат билан ўқийдиган аёллар ҳам халфа деб юритилади. Республикамизнинг бошқа минтақаларида учрамайдиган бу анъана хусусида кўпгина тадқиқотлар эълон қилинган [Қобулнийёзов, 1965:23].

Хоразм халфачилигининг илк забардаст сиймоларидан бири шоира Хоним халфа Саидамат қизи бўлиб, у Хивада Хоним сувчи лақаби билан машҳурлик қозонган. Шоира-халфа саводхон, хонандалик ва созандалик қобилиятини тўла эгаллаган. Қисса-дostonларни махсус оҳангга солиб (речитатив) куйлаган. 1895 йилдан бошлаб дoston ва кўшиқларни гармон жўрлигида ижро қила бошлаган [Юсупов, 1967:115]. Дастлабки ўзбек фольклоршунослигининг дарғаларидан бўлган Ҳоди Зарифнинг шоира-халфа ҳақидаги хотираларига эътибор қаратамиз: “1930 йил, ёзнинг иссиқ кунлари. Хивада, Дошҳовлидаги Хоразм музейи биносига тадқиқот ишларини бошлаб юбордик. Илмий ходим Бекжон Раҳмон хивалик Хонимжон аяни Дошҳовлига етаклаб келди. Мендан анчагина катта ёшли бу аёл таъзим билан, улуғ камтарлик, хурмат ва икром билан кўришганда, мен ўзимни мусофирликда онам ўз бағрига олаётгандек ҳис этдим. Биз суҳбатлашиб, тезда она-боладек бўлиб қолдик... маълум бўлишича, бу олижаноб аёл хонлар хонадонининг кулларида, Исфандиёрхоннинг чўриларидан бири бўлган экан... Мен бу шоиранинг “Хон зулми”, “Бевафо золим” каби инқилобий руҳдаги шеърларини ўз оғзидан ёзиб олганим билан фахрланаман. Мени эпос ҳам қизиқтирар эди. Катта қобилият эгаси, санъаткор, шоира Хонимжон халфадан “Асилхон” (“Асил Карам”) дostonини ёзиб олдим. Ўша йили ундан Буюк Каримий “Тоҳир ва Зухра” дostonини ҳам ёзиб олган. Мен халқ ижодчиларининг зўр вакиллари кўрганман. Аммо аёл халқ шоирлари билан шахсан учрашмаган эдим. Хивада шунга муяссар бўлдим” [Мирзаев, 2013:262].

Биз фольклоршунослар – ҳаммамиз шўро даврида Хоним халфа ҳақида юқорида қайд қилингандек, мубҳам, ноаниқ тасаввурда эдик. Энди бу жабрдийда аёлнинг ҳақиқий ҳаёт саҳифаларини

варақлаш учун мозийга қайтамиз. XIX асрнинг қоқ ўртаси. Муҳаммад Аминхон даври. Кунларнинг бирида хон саройи дарвозаси олдига номаълум аёл янги туғилган чақалоқни ташлаб кетади. Боланинг йиғиси дарвозабонлар қулоғига эшитилгач, улар чақалоқни кўриб, эшик оғасига хабар беришади. Эшик оғаси эса болани кўтариб хоннинг олдига киритади. Хукмдор дарҳол олиму уламоларни чақириб, уларга воқеани баён қилади. Йиғилганлар: –Бу болани сизга Худо етказди. Кечагина жангу жадаллардан омон-эсон қайтиб келдингиз. Бу бола сизга Худонинг юборган мукофоти илтифотидур, – дейишади. Хон бу сўзлардан кейин кайфи чоғ бўлиб, болага исм қўйишни таклиф қилади. Кўпгина мунозаралардан кейин унга Қутлигалди исмини маъқул топишади. Аммо болани кўпроқ Қутлимурод деб аташган. Бола вояга етгач, уни хон саройи сув билан таъминлаш гуруҳига бошчи қилиб тайинлайди. Ўша йиллари Хиванинг жанубий қисмида Пахлавон Маҳмуд мақбарасининг орқасида Саидмуродбий оиласида бир қиз дунёга келади. Унга Хонимжон деб исм қўйишади. Бу қиз зехли, илму урфонга иштиёқманд бўлиб, етти-саккиз ёшларида кўплаб халқ кўшиклари, эртак ва дostonларини ёд олади. Шунингдек, Навоий, Фузулий, Огаҳий, Машраб каби буюк шоирларнинг ғазалларини мутолаа қилади. 14–15 ёшларида форс ва араб тилларини ўрганади, ўзи ҳам шеърлар машқ қила бошлайди. Бу даврга келиб, хонлик тахтига Муҳаммад Раҳимхон соний – Феруз чиққан эди У Хонимжоннинг таърифини эшитгач, бу қизни саройга олдириб, ўзининг суюкли қизи Чинни бикага мураббий қилиб тайинлайди. Кейинроқ сарой халфаларининг бошчиси қилиб қўяди. Феруз тахтга ўтиргандан кейин ўн йиллар ўтгач, Хонимжонни биз юқорида тилга олган Қутлигалдига никоҳлаб, катта тўй ўтказади. Хоним халфа шу сабабдан бўлса керак, кўп шеърда Хоним сувчи тахаллусини қўллайди. Бу тахаллус эрининг касби-корига хурмат юзасидан танланган бўлса керак. Хоним халфа иккита ўғил кўрган. Биринчиси Раҳимберган Петербургда ўқиб, “Ёш хиваликлар” ташкилоти фаолига айланган. Инқилобдан кейин Самарқандда шўро ҳукуматининг масъул лавозимларида ишлаган. Кейинги тақдири номаълум. Уни қатағон тегирмони домига тортиб кетган. Иккинчи ўғил Каримберган ўқишга унчалик қизиқмай, савдо-сотик билан шуғулланган. Чорсуда дўконлари бўлган. Унинг Бикажон бика исмли қизидан ҳозирда элга машҳур бўлган Ўзбекистон халқ рассоми, истеъдодли ижодкор Тўра Қурёзов туғилган. Шу тариқа, 1920 йил ҳам келиб, Хивада хон ағдарилади. Шўро тузуми айғоқчилари хонга алоқадор кишилар атрофида изғий бошлашади. Бу исковучлар Хоним халфани ҳам эсдан чиқармадилар. Хоним халфа жуда бой-бадавлат яшар эди. У хавфни сезиб, гилам ва бошқа ашёларни қўшниларга тарқатиб улгура олди, холос. Аммо иккита кичик кути сандиқчада олтин, қумуш ва бриллиантлар бор бўлиб, улар айвон саҳнидаги устунлар тагига кўмилган эди. Исковучлар ҳаммасини тортиб олиб кетишди. Хоним халфанинг катта кутубхонаси бор эди. Кўрққанидан барча китобларини қабристонга олиб бориб кўмиб ташлайди. Элакчилик кўчасидаги уйини мусодара қилиб, давлат тасарруфига олишди. У ерда баландлиги икки қаватли уйга тенг келадиган мусиқа асбоби бор эди. Уни фақат оёқ ва қўллари ҳаракатида Хоним онанинг ўзигина чала олар, кўплаб ёш халфаларни ўша ерда тарбиялар, уларга мусиқа ва хонандаликдан таҳсил берар эди. Бизнингча, бу асбоб Феруз Петербургдан олдириган орган мусиқа асбоби бўлиши керак. Ёки бўлмаса, Янгиариқнинг Чиқирчи қишлоғида яшаган немислар уни ясаб беришган ёки Европадан олиб келиб, хонга туҳфа қилишган. Соз жойлашган уй икки-уч оилага бўлиб берилган. Улар киш бўйи созни бўлаклаб, ўчоққа ўтин сифатида ишлатишган. Хоним халфага тазйик тўхтамаган. Охир-оқибат у келини ва қизи билан Пишканик қишлоғига кўчиб ўтган. Шундай бўлса-да, у 5 йилга қамалган. Қамокда Хоним халфа Исфандиёрхоннинг биринчи хотини Бикажон бика билан бир камерада ўтирган. Бикажон бика унга бир вақтлари кўп яхшилиқлар қилган эди. Чунки Феруз вафотидан кейин Исфандиёр барча шоиру созанда, халфаларни саройдан ҳайдаган, ўша пайтда Бикажон бика Хоним халфани хондан илтимос қилиб, саройда олиб қолган эди. Анча кексайиб қолган Хоним халфа турмадан чиққач, кўп яшамай, 1936 йилда вафот этади [Курызов, 2014:13]. Хоним халфа шўро ҳукуматига хизмат қилишга ҳам уриниб кўрган. Машҳур хонанда Мадраҳим Шерозий билан ҳамкорлик қилиб, янги даврга мос кўшиқлар ҳам куйлаб юрган. Тамарахоним билан танишган. Тамара хоним унинг бир дафтар тўла шеърларини чоп қилдираман, деб олиб кетган, аммо шеърларнинг кейинги тақдири номаълумлигича қолган.

Хоним халфанинг “Найлайн армонли кетдим”, номли шеъри бор:

Эй ёронлар, биродарлар,  
Найлайн, армонли кетдим.  
Қараб турган қиз-жувонлар,  
Найлайн, армонли кетдим.

Жойим, айвоним йиқилди,  
Уйимга қора тикилди,  
Болаларим етим қолди,  
Найлайн, армонли кетдим.

Энди менинг чиқар жоним.  
Оқар бўлди қизил коним,

Йўқдир турмоққа мадорим,  
Найлайин, армонли кетдим.

Ушбу парчадан маълум бўладики, Хоним халфанинг умри хор-зорликда кечган. Биз бу шеърни шу пайтгача шоиранинг хонлар давридаги аянчли ҳаёти тарзида шарҳлаб келдик, ваҳоланки, шеър ижодкорнинг шўро даври ҳаётининг ифодаси экан [Ўзбек педагогикаси антологияси, 1995:415]. Ушбу шеър шоиранинг ўлими арафасида ёзилган. Унинг Исфандиёрхонни лаънатловчи “Бевафо золим” шеъри шўро даврида ёзилган. Бунинг асосий сабаби Исфандиёрхон ўз қилмишлари сабабли лаънатлашга лойиқ ҳукмдор бўлган. У бошқа санъаткорлар қатори, Хоним халфани ҳам саройдан бадарға қилади. Қолаверса, шоира шўро сиёсатидан жуда кўрқиб қолган. Ҳатто отасининг исмини ҳам Саидмуродбий тарзида айтишга ҳадиксираб, Саидамат, туғилган жойини ҳам Хива шаҳри эмас, Пишканик деб айтишга мажбур бўлган. Ҳоди Зарифга ўзини хоннинг чўриси деб таништирган. Шу сабабли айрим шеърларида эски тузумни қоралашдан бошқа илож топа олмаган. Шоиранинг кўпгина шеърлари, илгари айтганимиздек, Тамарахоним қўлида қолиб кетган. Аксарият шеърлари Анаш халфа, Ожиза, Назира халфа каби шоғирдлари тилидан ёзиб олинган. “Ўзбек шеърляти антологиясида [Ўзбек шеърляти антологияси, 1961:56] иккита, “Ўзбек педагогика антологияси”да учта шеър чоп этилган. Ҳозирги даврда халфалар ижро этаётган тўй-маросим ва дoston қўшиқларининг деярлик барчаси Хоним халфа мусика анъаналари асосида яшаб келаётир. Афсуски унинг оёқ билан попишакларини, қўл билан клавишларини босиб чаладиган “Катта сози” бизгача етиб келмаган ва унинг номини ҳам бирор халфа, чевараси Тўра ака ҳам эслай олмайди. Замон ўткинчи, аммо Хоним сувчи каби хонлар ҳукмронлиги давридаёқ гармон, “Катта соз” чалган илғор фикрловчи ижодкорлар кам топилади. У яратган Хоразм халфачилик санъати мактаби эса ҳаммиша барҳаёт ва боқийдир. Хоним халфа жуда иқтидорли, бадеҳағўй, хофизаси кучли ижодкор. Унинг репертуарида ўнга яқин дoston бўлган, аммо фақат “Асли-Карам” дostonи ёзиб олинган. Дoston матнини Хоним халфа яшаган даврдан 100 йил олдин кўчирилган нусха билан қиёслаганда, шоиранинг нақадар бадеҳағўй бўлганлигига қаноат ҳосил қилдик. Шеърлар ниҳоятда нафис қилиб қайта ишланган. Шоира ижодига мансуб кўплаб шеърлар дoston таркибидан жой олган. Дostonнинг Хоним халфа варианты ҳозирда Ўзбекистон ФА Тил ва адабиёт илмий текшириш институти фольклор бўлимида 42-рақамли хазинада сақланмоқда.

### ХОНИМ ХАЛФА ИЖОДИДАН НАМУНАЛАР “Асил ва Карам” дostonидан ҲАР ГЎЗАЛНИ ГЎЗАЛ ДЕМА

Ҳар гўзални гўзал дема,  
Гўзал сени демагунча.  
Ёлборма кўнглим, ёлборма,  
То ўзи ёлбормагунча.

Ёлбориб ёнингга келсин,  
Товланиб қўйинга кирсин,  
Санинг ёринг бўлдим, десин,  
Сен тегма, ул тегмагунча.

Нозли ёрни кўрмак ўлмас,  
Сиёх зулфин ўрмак ўлмас,  
Унга кўнгил бермак ўлмас,  
Ўз кўнглини бермагунча.

### ЭШИТ

Ҳастаман, ҳажрингдаман, эй шаҳи султоним, эшит,  
Ўлгудекман кўрмасам, сарви хиромоним эшит.

Ўз-ўзимни ўлдирурман, сен қоларсан қонима,  
Сўзимнинг будир адоси, шоҳи-султоним, эшит.

Шоҳсан оламда сан бир ғойиби бенаво,  
Шоҳ гадога раҳм қилмасми, султоним, эшит,

Токи мен бедор ўлибман гул юзини кўрмакка,  
Мен сенга арз айладим, шоҳи қадрдоним, эшит.

Хар маҳал келса уни жон устида сақлар эдим,  
Раҳм қилсин ҳолима, ул меҳрибоним сан, эшитг.  
**ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РҲЙХАТИ:**

1. Қобулнйёзов Ж. Хоразм халқ кўшиқлари. –Т.: Фан, 1965.
2. Мирзаев Т. Ходи Зариф сабоқлари. –Т.: “SHAMS ASA”, 2013.
3. Курёзов Т. Нотекис йўллар. –Т.: 2014. –Б.3-13-бетлар.
4. Ўзбек педагогикаси антологияси. –Т.: “Ўқитувчи”, 1995.
5. Ўзбек шеърйати антологияси. 1-том. –Т.: Ўздавнашр, 1961.
6. Юсупов Ю. Хоразм шоирлари. –Т.: “Адабиёт ва санъат”, 1967.

УЎК 93/94

## БУХОРО МАЪРИФАТПАРВАРЛАРИНИНГ ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ИСЛОҲОТЛАР ҲАҚИДАГИ ҒОЯЛАРИДА ТОЛЕРАНТЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МУАММОЛАРИ

*А.Салохов, катта ўқитувчи, Бухоро муҳандислик технология институти, Бухоро*

**Аннотация.** Ушбу мақолада Бухоро маърифатпарварларининг ижтимоий-сиёсий ислоҳотлар ҳақидаги ғояларида толерантликни шакллантириши муаммолари фалсафий таҳлил қилинган.

**Калим сўзлар:** Абдурауф Фитрат, толерантлик, маърифатпарварлик, жаҳид, жаҳидчилик.

**Аннотация.** В статье проведён философский анализ формирования толерантности в идеях бухарских просветителей о социально-политических реформах.

**Ключевые слова:** Абдурауф Фитрат, толерантность, просвещение, джаҳид, джаҳидизм.

**Abstract.** The article provides a philosophical analysis of the formation of tolerance in the ideas of Bukhara enlighteners about socio-political reforms.

**Key words:** Abdurauf Fitrat, tolerance, enlightenment, jadid, jadidism

Дастлабки маърифатчилик вакиллари халқни асосан янги маданият, маърифатга чақирган бўлса, жаҳидчилик кенг ижтимоий-маърифий ҳаракатга айланиб, ўз олдига жаҳиятни ислоҳ қилиш, мустақилликка эришиш, қоқоқликдан қутулиш, ўлка халқларининг жаҳон маданиятида қадим тарихий мавқеини тиклаш билан боғлиқ йирик вазибаларни қўйди. Ушбу даврнинг дастлабки маърифатпарварлари қаторига Аҳмад Дониш, Бердақ, Муқимий, Фурқат, Завқий, Баёний, Аваз Ўтарларни киритиш мумкин. Туркистон жаҳидчилиги ҳаракатининг асосчилари ва ғоявий раҳбарлари сифатида – Бехбудий, Мунавварқори Абдурашидхонов, Абдулла Авлоний, Фитрат, Айний, Ҳамза ва бошқалар тапқил этади.

Абдурауф Фитратнинг бой ва кўпқиррали фаолияти бадий адабиётнинг деярли ҳамма жанрларида – адабиёт назарйиси, драматургия ва публицистика, фалсафа, тилшунослик ҳамда бир неча бошқа соҳаларда ўчмас из қоқдирди. У йирик давлат ва жамоат арбоби эди. Фитратнинг буюк хизматларидан бири шундан иборатки, у ХХ аср биринчи ярмидаги ўзбек маърифатпарварлигининг чўққиси ҳисобланган жаҳидчилик ҳаракатининг асосчиларидан бири бўлиб танилди. У маърифатчилик, илм-фанни қўллаш ва ривожлантириш муаммоларини ҳам услубий-назарий, ҳам амалий нуқтаи назардан ҳал қилишга катта ҳисса қўшди. У ёшларнинг ижтимоий фаоллиги ва бағрикенглик ғояларининг ўзига хос хусусиятлари, уларнинг бутун ҳаёти ва қарашларига сингиб боришини белгилади. Абдурауф Фитрат 1886 йилда Бухорода туғилган. У диний мактабни битиргач, машҳур «Мирараб» мадрасасида ўқиди. У ўзбек, форс, араб тилларини мукамал эгаллади. Фитрат жаҳидчилик ҳаракатининг моҳияти ва мазмунини тушунгандан кейин унинг изчил тарафдори бўлиб, жаҳидчиликнинг назарий муаммоларини ҳал қилишга киришди. Бухоролик жаҳидларнинг тавсияси бўйича Фитрат ўз таҳсилини давом эттириш учун Истамбулга кетди. Шу ерда у 1910 – 1913 йилларда нафақат илм орттириб, балки мазмундор бадий, илмий, ижтимоий фаолият кўрсатди, жаҳидчилик ҳаракатининг ривожланишига катта ҳисса қўшди.

Жаҳидчилик мавзуидаги илк асарларидан бири бўлган «Ҳиндистонда бир фаранги ила бухоролик муддариснинг жаҳид мактаблари хусусида қилган мунозараси» ва «Ҳинд сайёҳи баёноти» асарида жаҳидчилик ҳаракатининг янги руҳдаги ғояларини илгари сурди. Илм-фан тараққиёти учун имконият берилиши оқибатида бошқа мамлакатлар, халқлар томонидан яратилган янгилик, кашфиёт, ихтироларни мамлакатга кириб келишига шароит яратади. Мамлакат, юрт фаравонлиги, ободлигини таъминлаш учун бегона маданият ютуқларининг, фан-техникадаги илғор русмларнинг кириб келишига имконият яратиб берилиши ҳам бағрикенгликни англатади. Шунинг учун Фитрат Ҳукумат томонидан Бухорода мадраса бино қилинганини эътироф этар экан, у бу мадрасада тафсир, ҳадис, калом, фикҳ билан бир қаторда ҳисоб, тажвид, тарих фанининг ўқитилишини олқишлайди. [1]

Илм-фаннинг ижтимоий тараққиётга олиб бориши, уларнинг катта маънавий аҳамияти Фитратнинг фикрича, ислом манбаларида ҳам ўз аксини топган. Шу билан бирга шундай ёндашиш моҳиятан бағрикенглик ғоялари билан боғлиқ эканлигини таъкидлайди: «Шунинг учундирки, агар илмга рағбат дунё хароблиги ва баъзи ишларнинг эгасиз қоқилишига сабаб бўлса, Пайғамбарингиз «У тлуб-

ул илма ва лав би-с-син», «Утлуб-ул'илма мин-ал-махди ила-л-лаҳади», «Ал'илму иззуд-дунйа ва шараф-ул-ахирах», яъни «Илмни Чиндан бўлса ҳам изланг», «Бешикдан қабргача илм изланг», «Илм дунёнинг иззати ва охирагининг шарафидир» ҳикматлари билан ўзининг барча умматларини илм таҳсилига даъват этмаган бўлар эди».[2] Янги усулдаги таълимнинг энг муҳим хусусияти шундан иборатки, у ёшларнинг фаоллигини, уларнинг салоҳиятини ижтимоий-маънавий камолотга қаратади, ижтимоий ислоҳларни амалга оширишга тайёрлаб боради. Аввало, инсоннинг моҳияти, унинг табиати билиш, илм-фанларни вужудга келтириш қобилияти билан белгиланади. Шундан Фитратнинг инсон ва жамият ҳаётида илм-фан, маърифат энг муҳим омиллардан бири эканлигини таъкидлаш фикри келиб чиқади. Шунинг учун «Инсон ер юзидаги махлуқларнинг энг шарафлисидир, - деб ёзади у. Лекин инсоннинг ҳаёт кечириши жамият, халқ, миллат билан боғланган». Шу нуқтаи назардан у инсон тарихининг энг муҳим саҳифалари ва ҳодисаларини уларнинг қанчалик тараққиёт талабларига жавоб бериши нуқтаи назардан таҳлил қилади ва англайди. Янги таълимнинг муҳим фазилатларидан бири ёшларнинг ижтимоий фаоллиги, бағрикенглик туйғусини шакллантириш билан боғланган.

Фитратнинг ушбу фикрича: «Таҳсили жадиданинг равиши шуки, болани олти ёшлигидан мактабга юборадилар, у ўн тўққиз ёшида олим, мутадаийин, ватанпарвар, диндўст, миллатпараст, сиддиқ, одил, тамом исломий амрларга мутиъ, бутун инсоний шартларга муштамал бир шахс бўлади».[3]

Ёшларнинг толерантлигини шакллантириш ва ривожлантириш масаласининг муҳим томони, унинг муддати ва вақти билан боғланган. «Мактаби қадим ва мадрасалардаги усули қадим билан бирга ўттиз йил, таҳсили жадида муддати эса ўн уч йилдир». [4] Шулардан келиб чиққан ҳолда Фитрат ёшларнинг келажак ижтимоий мавқе ва фаолиятларини аниқ кўрсатишга муваффақ бўлади. «Таҳсили жадиданинг фойдаси: бойларнинг болалари пулли мактабларда, бечораларники пулсиз мактабларда камоли осудалик билан таҳсил олиб хатмдан сўнг муддарислик, сипоҳийлик, тижорат, хунармандлик, кимдир дехқончилик, умуман хоҳлаган ишига дарҳол қийналмасдан киришиб, ўз вазифаларини удалай оладилар» [5], дейди.

Ёшларда бағрикенглик хусусиятлари ривожланиши учун «усули жадиднинг» қуйидаги хислати муҳим аҳамият касб этади. «Демак, таҳсилингиз учун янги бир усул топингки, ҳам қадимги илмлар, ҳам янги фанларни камоли осойиш билан ўн икки йил давомида ўн саккиз ёшда хатм қилиб, ундан сўнг ислом муҳофазасининг асбобини ҳозирламоққа киришинг. Демак, собит бўлдики, усули жадида шунга кўра бидъати ҳасанадир ва жоиздир, лозим ва вожиб ҳамдир».[6]

Фитрат ёшларнинг ижтимоий фаоллиги ва бағрикенглиги муаммоларининг яна бир муҳим томонига алоҳида эътибор беради. У ҳам бўлса аёлларнинг ўша даврдаги мавқеи ва янги таълимнинг ушбу муаммони ҳал қилишдаги аҳамиятидир. Кўпчилик мутаассибларнинг фикрича, «мактаб ва мадрасаларда таҳсил усули ғоят узоқ» бўлгани учун ва баъзи бир бошқа сабабларга кўра қизлар, аёллар таълимдан маҳрум бўлишлари керак эди. Фитрат шу аҳволга қарши чиқди, уни қоралади. «Сизларнинг мактаб ва мадрасангиз таҳсил усули ғоят узоқдир, шу сабабдан бечора аёллар улар учун ҳам фарзи айн бўлган илм ва ирфон шарафини қўлга киритишдан маҳрум қолмоқдалар. Иккинчи: улар илмсиз қолмоқдалар, ҳар (бир) илмсиз тарбиясиз бўлгани каби, улар ҳам тарбиясиз бўлиб қоладилар».[7] дейди у. Умуман олганда, «...эски усулда бутун аёллар илм олиш шарафидан маҳрум бўляпти, эркакларнинг аксари хат-саводсиз ҳаёт кечирмоқдалар. Ҳар асрда бир ёки иккита улуғ олимимиз етишяпти, усули жадидага кўра, осонлик билан аёллар ҳам, эркаклар ҳам олим бўладилар».[8]

Ёшларни маърифат ва бағрикенглик руҳида тарбиялаш муаммолари бир-бирлари билан қанчалик боғланганликлари, замонавий аҳамият касб этганликлари Фитратнинг қуйидаги фикрида чуқур ифодасини топган: «Агар динга, Ватанга, молга, жонга, авлодга муҳаббатингиз бўлса, агар диннинг ҳалос бўлиши, шариатнинг ривожи, Ватан ободлиги, авлоднинг тинчлиги, яхши ном қолдиришнинг чорасини хоҳласангиз, сизнинг иложингиз, аввало, касби маорифдир. Қобилиятлиларни таҳсил учун ўқишга юборинг».[9]

Янги даврда халқимизнинг ижтимоий-фалсафий қарашлари, биринчи навбатда, маърифатпарварлик ва унинг янги босқичи бўлган жадидчилик билан боғлиқ бўлган. Жадидлар кенг кўламли ижтимоий-маърифий ҳаракат сифатида майдонга келиб, нафақат маориф соҳасидаги ислоҳотлар, балки Туркистон мустақиллигига эришиш учун ижтимоий-сиёсий соҳада ҳам ислоҳотлар ўтказишни ёқлаб чиққанлар, толерантлик муаммосига янгича ёндашувларни илгари сурганлар.

Жадидлар ёшлар таълими ва тарбияси борасида илгари сурган ғояларда толерантликка кўп қиррали ижтимоий-маънавий ҳодиса деб қаралганлиги бундай ёндашувнинг ўзига хос жиҳатини ташкил этади. Ёшларни толерантлик асосида ижтимоий-ахлоқий юксалтиришнинг мазкур йўналишига хос хусусиятлар олий таълим муассасаларида ўқитиладиган ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихи бўйича ўқув курслари ҳамда оммавий ахборот воситаларининг маърифатпарварлик соҳасидаги фаолиятдан изчил ва мақсадга мувофиқ фойдаланишни тақозо этади.

#### ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. «Ойна» журнали, 1915 йил, 8-сон, 200 бет.

2. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 1-жилд. Т.: «Маънавият», 2000. 4-б.



3. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. I-жилд. 83-б.
4. Ўша ерда. 83-84-б.
5. Ўша ерда. 81-84-б.
6. Ўша ерда. 90-91-б.
7. Ўша ерда. 90-б.
8. Ўша ерда. 84-б.
9. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. I-жилд. 97-98-б.

УЎК 93/94

## БУХОРО АМИРЛИГИ ВА ХИВА ХОНЛИГИНИНГ ЯГОНА ИМПЕРИЯ БОЖ ТИЗИМИГА КИРИТИЛИШИ ВА УНИНГ ОҚИБАТЛАРИ

*Т.Т. Сафаров, доцент, Бухоро муҳандислик-технология институти, Бухоро*

**Аннотация.** Ушбу мақолада Бухоро амирлиги ва Хива хонлигининг Россия томонидан ягона империя бож тизимига киритилиши ва унинг оқибатлари ҳақида фикр мулоҳаза юритилган.

**Калим сўзлар:** умумроссия бозори, бож, божхона, транзит, товар.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается информация о вхождении Бухарского эмирата и Хивинского ханства в единую таможенную систему и её последствиях.

**Ключевые слова:** общероссийский рынок, пошлина, таможня, транзит, товар.

**Abstract.** The information about the entry of the Bukhara Emirate and the Khiva Khanate into single customs system and its consequences are considered in this article.

**Keywords:** the whole Russian market, duty, customs, transit, product.

Бухоро амирлиги ва Хива хонлигининг Россия империяси томонидан забт этилиб вассалга айлантрилиши натижасида янги мулкларни иқтисодий жихатдан ягона умумроссия бозорига қўшиб олиш вазифаси кун тартибига қўйилади. Ўрта Осиёда Россия саноати маҳсулотларини сотиш учун арзон ва қулай бозорга эга бўлган Россия империяси минтақадаги савдо йўлларини ҳам бевосита шу мақсадларга хизмат қилдириш учун бу худудни империя бож тизимига киритиш масаласига бефарқ қарай олмас эди. Жумладан, Шарқий Туркистон (Қашқар), Афғонистон ва Шимолий Эроннинг истеъмол бозорини эгаллаб олиш, Бухоро амирлиги ва Хива хонлигининг савдо йўлларини тўлалигича назорат қилиш мақсадида Ўрта Осиёда ягона божхона тизимини жорий этишнинг саъй-ҳаракатлари бошлаб юборилди.

Афғонистон Россия товарларини сотиш учун қулай бозор сифатида рус савдо доираларини азалдан қизиқтириб келаётган эди. Бухоро амирлигининг эгаллаб олиниши ва унинг Россия империясига қарам этилиши натижасида амирни мустақил ташқи алоқалар ҳуқуқидан маҳрум этган империя ҳукумати Афғонистон орқали бўладиган савдо муносабатларида ўз манфаатларини биринчи ўринга қўя бошлайди. Россия ва Бухоро ўртасида тузилган 1873 йилги сулҳ шартномасининг 7-моддасида[1] Бухоро-Афғонистон чегарасида транзит товарлар, яъни Россиядан Афғонистонга олиб ўтиладиган товарлардан бож тўлови олинмаслиги белгилаб қўйилади. Чегарада транзит товарлардан бож олинишига йўл қўймаслик, Афғонистондан Россияга пахта хом ашёси, жун, қорақўл терини бож тўловисиз олиб ўтиш учун Бухорода рус тижорат айғоқчилигини таъсис этиш режаси илгари сурилади[2].

Россия империяси Афғонистон худудидида ўз манфаатларини кўзлаб – Сарой қўриқлаш нуктасига бож олиш ҳуқуқини беришни режалаштирди. Бу тадбирдан Шимолий Афғонистон худудларида фаол савдо-сотик қилиш ва бу ердаги бозорда инглиз-хинд товарлар устунлигига йўл қўймаслик, Россия товарларини харид қилиш учун 800 версть йўл босишлари керак бўлган афғон савдогарлари учун қулайлик яратиш, Афғонистоннинг Сарой қўриқлаш нуктаси билан туташган қисмида Россия енгил саноати учун муҳим бўлган хом ашё ҳисобланган қимматбаҳо америка пахта навини етиштириш мақсадлари кўзланган эди[3].

Амударё бўйлаб ўтган афғон чегарасидан кечиб ўтиш жойлари назоратини ҳам Бухоро амирлиги тасарруфида бўлиши Россия империясига маъқул келмай қолган эди. Булардан ташқари, Россия ҳукумати Афғонистондан Россия бозори учун олиб чиқиладиган товарлардан олинадиган бож тўловлари тарифини ҳам қайта кўриб чиқишни режалаштираётган эди. Хусусан, пахта хом ашёси, пахта толаси, калава ип каби товарлардан олинадиган бож миқдорини қайта кўриб чиқиш режалаштирилади[4]. Айрим товарларга бож тарифи бекор қилинган бўлиб, божсиз олиб ўтиладиган товарларнинг энг асосийсини афғон қўйлари ташкил этган. Россия товарларини Афғонистоннинг ички қисмларига етказишда ҳам талайгина муаммолар мавжуд эди. Масалан, савдогар Мозори-Шарифга товар олиб келганида, товар келтиргани учун бож тўлар, шаҳардан қарвон чиқиб кетганида, яна бож тўлар, бу жараён ҳар бир чегара худудларидаги шаҳарларда янгидан давом этган. Афғонистондан Россияга товар олиб ўтишда чегарадаги рус божхоналаридан ташқари, Бухоро амири ҳукуматига ҳам бож тўланиши шарт эди. Россия савдогарлари афғон чегарасидан товар олиб ўтишда ўз манфаатларини

химоя этадиган рус ҳукумати вакиллари бўлиши талабини илгари сурганлар. Шунинг учун ҳам бу борада Бухоро амирлиги ҳукумати билан улар мурасага келишга мажбур бўлганлар.

Афғонистонга олиб ўтиладиган товарлар асосан туяларда карвон йўли билан ташилиб, уларнинг фақат бир қисмигина Амударё орқали ўтган сув йўли билан ташилган, шунинг учун карвон йўли билан товарларни олиб келиш жуда қимматга тушган. Россия билан Афғонистонни боғловчи темир йўлларнинг мавжуд эмаслиги ўзаро савдони қийинлаштирган. Бадахшонда инглиз-ҳинд товарлари жуда кам бўлса-да, рус товарлари ҳам бу ерга тез ва кўп миқдорда етиб кела олмаган, чунки, Россия ва Бухоро савдогарлари Сарой ва Чубек орқали Афғонистоннинг Рустам ва Файзобод шаҳарларига, у ердан эса инглиз мулклари бўлган Читрал ва Искардо шаҳарларига боришлари талаб этилган[5].

Афғон чегарасидаги чўл зонаси, тоғ сўкмоқларининг кўплиги, бу ердаги чегарани кўриқловчи аскарларнинг оз сонли эканлиги афғон савдогарларига рус товарларини олиб Саройдан 3 кунлик масофада бўлган Читралга ўтиш учун қулайлик туғдирган. Бу ердаги бозорда эса арзон ва сифатли рус саноат товарлари савдоси ҳукмронлик қилган[6].

Афғон-Бухоро чегарасида ташкил этилган божхоналарда ўрнатилган тартиб-қоидалар, бухоролик ва афғонистонлик савдогарларнинг саноат товарларини олиб ўтганлиги учун жорий этилган мукофот ҳуқуқидан маҳрум этилганлиги, Бухоро амирлиги ҳукумати томонидан божхона назоратининг олиб борилишидаги тартибсизликлар савдо алоқаларининг бир хил ривожланиб боришига тўсқинлик қилган. 1888-1889 йилларда Афғонистон билан савдо-сотик алоқаларининг таҳлили натижаларига кўра мамлакатдаги ижтимоий-сиёсий воқеалар, чунончи Шимолий Афғонистондаги Исҳоқхон кўзғолони ва бошқа ички сиёсий можаролар ўзаро савдо-сотикқа салбий таъсир кўрсатган. 1888 йилнинг иккинчи ярмида Бухоро орқали Афғонистон билан савдо алоқалари таҳлил қилинганда, бу даврда Афғонистон бозорига киритилган рус товарлари куйидагича бўлган: 11 турдаги товарнинг умумий оғирлиги 701,72 пудни, умумий суммаси 1403080 рублни ташкил этган[7].

1889 йилнинг иккинчи ярмида Бухоро амирлигига Афғонистоннинг Сарипул, Маймана, Андхўй, Шибирғон, Ахча шаҳарларидан товарлар келтирилиб, уларнинг асосини жун, тулки териси, қоракўл (оқ, қора, қизил) териси, қўй териси, қора олхўри, анор пўчоғи (ранг учун), майиз, писта, бодом, кунжут, зиғир, хурмо, кўкнор, қоплар ва гилам ташкил этган. Ҳиндистондан Бухорога асосан, кўк чой, чит газламаси, андар сари, ҳинд парчаси, индиго каби маҳсулотлар олиб келиб сотилган[8].

Бухорога киритилган товарлар асосан Келиф божхонаси орқали ўтказилиб, ҳар йили тахминан Ҳиндистон ва Кобулдан 1475080 рубл, Ахчадан 220352 рубл, Шибирғондан 234320 рубл, Андхўйдан 62360 рубл миқдорида товар келтирилар эди. Юқорида саналган товарлар орасида инглиз-ҳинд товарларининг салмоғи катта бўлиб, қолган маҳсулотлар эса Афғонистоннинг Чорвилоятдан келтирилган. Афғонистон бозорларига киритилган Бухоро молларининг қиймати 133475 рублни ташкил этган ҳолда рус молларининг қиймати 1084914 рублни ташкил этган[9]. Айрим рус товарлари, масалан, шакар Бухоро амирлигининг воситачилиги билан эмас, балки Керки орқали Афғонистонга киритилган.

1888-1889 йилларда Бухоро амирлиги ҳудуди орқали Афғонистон ва Россия ўртасида ҳамда Афғонистон давлати ва Бухоро амирлиги ўртасидаги савдо-сотик муносабатлари натижаларининг кўрсатишича, Россия товарлари Афғонистонда инглиз-ҳинд ҳамда бошқа Европа товарлари билан бемалол рақобатлаша олган. Афғонистондан Бухорога келтирилган товарлар таҳлилининг кўрсатишича, ҳинд импорт маҳсулотлари (чай, индиго, юпка материал) учун Афғонистон транзит ҳудуд бўлиб хизмат қилган, айни пайтда Чорвилоятдан Бухорога жун, қоракўл, ранг-бўёқлар ҳам жўнатилган. Афғонистондан Бухоро бозорларига Россия саноати учун зарур маҳсулотлар ҳам чиқарилган. Кавказ йўли очилгунга қадар инглиз-ҳинд ва афғон товарлари Бухоро бозорларига Шимолий Афғонистон орқали келтирилган. Гарчанд тўхтовсиз хавф-хатар, ўзаро савдони чеклашга қаратилган ҳатти-ҳаракатлар бўлиб турса-да, бу йўналишда рус ва маҳаллий товарлар билан савдо-сотик тўхтовсиз давом этиб турган.

1892 йилда ва 1894 йилнинг бошларида афғон-Бухоро чегарасидан ўтказилган товарларнинг катта қисмини инглиз-ҳинд товарлари ташкил этган. Шу жумладан, афғон товарлари, хусусан қоракўл терисининг ҳажми ҳам кескин кўпайган. Фақатгина 1893 йилнинг июн ойида Афғонистон амири Абдурахмон Бухорога 165 тойдан иборат бўлган уч партияда қоракўл терисини жўнатган[10]. Афғон амири Абдурахмон (1880-1901 йилларда ҳукмронлик қилган) ва унинг оиласи афғон савдосида юксак мавқега эга эди.

1890 йилга келиб, Ўрта Осиёдаги савдо-сотик ва уни тартибга солиш билан боғлиқ бир қатор масалаларни ҳал этиш зарурияти пайдо бўлади. Туркистон генерал-губернаторлигида Россия империяси ҳукумати ўрнатган божхона тизими, унинг амал қилиши марказий ҳукуматни қониқтирмаслиги бир томондан, Бухоро амирлиги ва Хива хонлигининг ўз ҳудудлари чегарасидаги савдо-сотикни, товарларни киритиш ва чиқариш тартиб-қоидаларини ўз хоҳиш истакларига бўйсиндиришга уринишлари, иккинчи томондан ушбу масалага эътибор қаратишга ундаётган эди. Гарчанд, 1868, 1873 йилги Бухоро-Россия, 1873 йилги Хива-Россия сулҳ шартномалари амал қилаётган бўлсада, бу ердаги вазият, яъни афғон-Бухоро, Эрон-Хива чегараси орқали мол киритиш ва чиқариш билан боғлиқ ишлар рус ҳукуматини тўла

қониқтирмади. Шунинг учун Бухоро ва Хивани ягона рус божхона тизимига киритиш, бу иккала мамлакатни ягона империя иқтисодий райониға жалб этиш ва уларнинг иқтисодий, молиявий аҳволи устидан назорат ўрнатиш чоралари изланган. Бу масалада империя марказида махсус мунозаралар уюштирилган, лекин ҳукмрон доираларнинг фикрлари бу борада бир хил эмасди. Россия ҳукумати Хива хонлиги ва Бухоро амирлигини ягона божхона тизимига киритиш катта сарф-харажатларни талаб қилади деб ҳисоблашган.

1890 йил 12 июнда Молия вазирлиги қошида умумимперия божхона муассасаларига ўхшаш Туркистон божхона округи ташкил этилиб, унинг таркибига маҳаллий вилоятларнинг, Еттисув ва Закаспий вилоятларининг божхона муассасалари ҳам киритилган[11].

1892 йилнинг октябрида Туркистон божхона округи бошлиғи Туркистон генерал-губернаторига мактуб йўллаб, унда: «Самарқанд темир йўлининг ўтказилиши билан Оренбургдан Бухоро ва Тошкентга, шунингдек, Бухородан Тошкентга ва Сирдарё вилоятининг шимолий қисмиға борадиган қарвон йўли ўзининг аввалги аҳамиятини йўқотди»[12] - деб ёзган эди.

Россия империяси молия вазирлиги, ҳарбий вазирлик, Туркистон генерал-губернаторлиги, Туркистон божхона округи вакиллари Бухоро амирлиги ва Хива хонлигини ягона рус божхона ҳудудига киритиш каби масалаларини илгари сурган эдилар. Молия вазирлиги томонидан илгари сурилган ушбу таклифлар империя ҳукуматининг ҳарбий ва ташқи ишлар вазирлиги томонидан ва ҳамда табиийки, Туркистон генерал-губернаторлиги томонидан ҳам қўллаб-қувватланганди.

Россия империяси молия вазирлигининг ташаббуси билан 1892 йилнинг охирида ҳарбий, молия ва ташқи ишлар вазирликлари вакиллари ва Туркистон генерал-губернаторлиги иштирокида махсус кенгаш чақирилади ҳамда Бухоро амирлиги ва Хива хонлигини ягона рус божхона тизимига киритиш мақсадга мувофиқ деб топилади. Аммо император Александр III Бухоро амири томонидан норозилик бўлиши мумкинлигини эътиборга олиб юқоридаги қарорни тасдиқлашга шошилмайди. Ушбу мақсадни амалга ошириш учун амирға чет эллардан келтириладиган ва Россия ҳудудига олиб ўтиладиган товарлардан олинадиган бож тўловининг бир қисмини бериш ваъда қилинади. Ҳукумат ишни тезлаштиради ва тез орада яна кенгаш чақирилади. Бу масалани ҳал этиш учун амирликка бирин-кетин икки марта махсус экспедиция ташкил этилиб, уларнинг вакиллари Каспийорти вилояти ва Бухоро амирлигида бўлишиб, вазиятни ўргандилар. Экспедиция бошлиғи генерал-майор Усов томонидан 1893 йилнинг октябрида ягона божхона тизими тўғрисидаги лойиҳа Туркистон генерал-губернатори Вревскийға (1884-1889 йил) ва Бухоро амириға жўнатилади[13].

Хива хонлигини Россия бож тизимига киритиш сиёсати ҳам айнан шу даврда амалга оширилади. 1873 йил 12 августда Туркистон генерал губернатори Кауфман билан Хива хони Саид Муҳаммад Раҳимхон ўртасида имзоланган шартномаға мувофиқ, Хива хонлиги ҳудудида савдо-сотик билан шуғулланувчи рус савдогарлари ҳар қандай савдо тўловидан, закотдан озод қилинган эди (9-модда), рус савдогарлари Хива хонлиги ҳудудидан бож тўловисиз ўз товарларини қўшни мамлакатга олиб ўтиш (божсиз, транзит савдо) ҳуқуқиға эға бўлганлар (10-модда), рус савдогарлари хонликнинг барча шаҳарларида маҳаллий аҳоли билан савдо муносабатларини ўрнатиш ва савдо-сотик ишларининг тўғри амалга оширилишини назорат қилиш учун ўз айғоқчиликларини ташкил этиш ҳуқуқиға ҳам эға эдилар (11-модда)[14].

Мазкур шартномаға асосан, Россия ва Хива ҳамда Россия-Эрон (Каспий бўйи орқали) ўртасида олиб борилган савдо-сотикда ҳам ўзига хос ҳолатлар мавжуд эди. Тўғри, 1873 йилги шартномаға мувофиқ, Хива хонлигининг катта ҳудуди унинг таркибидан чиқиб Россияға ўтганди. Кўп товарлар Бухоро амирлиги орқали Афғонистонға чиқарилаётган бўлса-да, товарларнинг маълум қисми Хива хонлиги орқали, транзит йўли билан чет мамлакатларға, хусусан, Эронға олиб кетилаётган эди. Хива хонлиги ҳудудида рус товарларининг эркин олиб ўтилиши, Амударё бўйлаб рус кемаларининг қатнови ташкил этилганлиги, рус товарларини Хива ҳудудига киритилиши ва ушбу ҳудуддан чиқарилишида шартномаға риоға этилиши йўлга қуйилган бўлса-да, Россия империяси бу билан чекланишни истамасди.

Бухоро амирлиги ва Хива хонлигини рус божхона ҳудудига киритиш тўғрисидаги Қонун 1894 йилнинг 6 июлида қабул қилинган бўлиб, умуман рус-афғон чегарасидаги савдони назорат қилиш 1895 йилнинг 1 июлидан тўла кучға киради ҳамда Россиянинг Ўрта Осиёдаги ташқи савдо устидан назорати узил-кесил ўрнатилади[15].

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ремез А.И. Внешняя торговля Бухары до Мировой войны. – Ташкент: САГУ, 1922. – С.33.
2. ЎзР МДА И-1 фонд, 27 рўйхат, 408-иш, 17-варақ
3. ЎзР МДА И-1 фонд, 27 рўйхат, 408-иш, 18-варақ.
4. ЎзР МДА И-1 фонд, 27 рўйхат, 408-иш, 17-варақ.
5. ЎзР МДА И-1 фонд, 27 рўйхат, 408-иш, 10-варақ.
6. ЎзР МДА И-1 фонд, 27 рўйхат, 408-иш, 11-варақ.
7. ЎзР МДА И-1 фонд, 1- рўйхат, 48-иш, 24- варақ.
8. ЎзР МДА И-1 фонд, 34-рўйхат, 696-иш, 36-48 -варақ.
9. ЎзР МДА И-1 фонд, 34-рўйхат, 696-иш, 34-варақ.
10. ЎзР МДА И-1 фонд, 34-рўйхат, 696-иш, 146-варақ.

- 11.Эргашев Ф. Туркистонда мустамлака акциз ва божхона ташкилотлари // Жамият ва бошқарув. – №2; 2008.– Б.73.
- 12.ЎзР МДА И-1 фонд, 11-рўйхат, 827-иш, 5-варак.
- 13.Соколов А.Я. Торговая политика России в Средней Азии и развития русско-афганских торговых отношений. – Ташкент: Фан, 1971. – С.172.
- 14.Гулишамбаров С.И. Экономический обзор. – Асхабад: Б.и., 1913. – С.158-159.
- 15.ЎзР МДА И-1 фонд, 11-рўйхат, 1319- иш, 2-варак.

УЎК 93/94

## ЎЗБЕКИСТОНДА ТУРИЗМ СОҲАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ТАРИХИЙ, МИЛЛИЙ ВА МИНТАҚАВИЙ ЖИҲАТЛАРИ

*А.С. Тоъжиев, ўқитувчи, Урганч Давлат Университети, Урганч*

*Аннотация.* Ушбу мақолада мустақиллик йилларида Ўзбекистонда туризм соҳасини ривожлантиришнинг тарихий, миллий ва минтақавий жиҳатларининг мазмуни ва моҳияти ёритилган.

**Калим сўзлар:** Буюк ипак йўли, саёҳат, бозор иқтисодиёти, тарихий-маданий мерос, ҳаракатлар стратегияси, ташаббускорлик.

*Аннотация.* В этой статье освещены суть и содержание исторических, национальных и региональных аспектов развития сферы туризма в Узбекистане за годы независимости.

**Ключевые слова:** Великий шёлковый путь, путешествие, рыночная экономика, историко-культурное наследие, стратегия действий, инициативность.

**Abstract.** In this article, the content and main point of historical, national and zone aspects of improving tourism sphere in Uzbekistan during the years of independence has been described.

**Key words:** Great silk road, travel, market economics, historigal-cultural heritage, strategy of actions, initivenes.

Мамлакатимизда туризм ишига мустақилликнинг дастлабки йилларидан бошлаб асосий давлат сиёсати даражасида қаралди. Туризм соҳасининг ривожини учун барча зарур ташкилий-ҳуқуқий механизм вужудга келтирилиб, муҳим меъёрий ҳужжатлар қабул қилинди ва бу иш ҳозирда ҳам давом этмоқда.

Ўзбекистон Республикасининг “Туризм тўғрисида”ги Қонунида туризм тушунчасига қуйидаги тарзда таъриф берилган: “туризм-жисмоний шахснинг доимий истиқомат жойидан соғломлаштириш, маърифий, касбий-амалий ёки бошқа мақсадларда борилган жойда (мамлакатда) ҳақ тўланадиган фаолият билан шуғullanмаган ҳолда узоғи билан бир йил муддатга жўнаб кетиши (саёҳат қилиши)”.

Туризм французча тоур сўзидан олинган бўлиб, сайр-саёҳат маъносини англатади[6, б. 63].

Барча соҳаларда бўлгани каби туризм соҳасида ҳам кўплаб чуқур ислоҳатлар амалга оширилиб келинмоқда. Ўзбекистон Республикаси биринчи Президентининг 1992-йил 27-июлдаги “Ўзбектуризм Миллий Компаниясини ташкил этиш тўғрисида”ги Фармони, 1995-йил 2-июндаги “Буюк ипак йўлини қайта тиклашда Ўзбекистон Республикасининг иштирокини авж олдириш ва республикада халқаро туризмни ривожлантириш борасидаги чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони, 1999-йил 15-апрелдаги “2005-йилгача бўлган даврда Ўзбекистонда туризмни ривожлантириш Давлат дастури тўғрисида”ги Фармони, айниқса, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг 1999-йил 20-августда қабул қилинган “Туризм тўғрисида”ги Қонуни шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг ва бошқа мутасадди давлат ташкилотларининг туризмга оид қатор қарорлари, меъёрлар, низомлар, қоидалар белгилаб берилди[6, б. 16].

Ўтган асрнинг 90-йиллари бошига келиб ёш мустақил давлатлардаги сиёсий вазият шундай эдики, улар олдида ижтимоий ривожланишнинг икки йўли турар эди. Биринчиси, халқ хўжалигини аввалгидек сотсиалистик йўналишда ривожлантириш. Иккинчиси, тараққиётнинг сотсиалистик ҳам, капиталистик ҳам эмас, балки жаҳон амалиёти синовидан ўтган бозор иқтисодиётига асосланган адолатли, демократик жамият куриш йўлидан бориш эди.

Маълум бўлдики, тузумнинг сотсиалистик тараққиёт йўли совет жамияти мисолида мутлақо ўзини оқламади. У маъмурий-буйруқбозлик усулига асосланган бўлиб, халқнинг ижодий, эркин меҳнатига қулай шароит яратмас эди. Иккинчиси эса ривожланган мамлакатлар синовида бардош берган, халқ турмушини яхшилашга қаратилган йўл эди. Ўзбекистон шунини танлади, шу йўлнинг сиёсий ва ҳуқуқий асосларини яратишга қаратилган ислоҳатларни амалга оширишга дадиллик билан киришди.

Шу тариқа Ўзбекистон мустақил, ҳуқуқий, демократик давлат ва фуқаролик жамиятини куриш йўлига кирди, бозор иқтисодиётига ўтиш, халқаро ҳуқуқнинг мустақил субъекти сифатида жаҳон ҳамжамиятига кириш йўлини тутди [5, б. 88].

Биринчи Президент Ислам Каримовнинг мустақилликнинг дастлабки йилларида нашр этилган асарлари ва маърузаларидаёқ бозор иқтисодиётига ўтишдан қўзланган мақсадни аниқ белгилаб берди. Хусусан, 1992-йил 2-3 июлда XII чақириқ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг X сессиясида қилган нутқида И.Каримов “Бозор муносабатларига ўтиш-кўр-кўрона мақсад эмас, балки иқтисодни ўнглаш, жамиятни янгилаш йўли. Демократик давлат курмоқчи эканмиз, энг аввал, ижтимоий адолат

принципларига содиқ бўлиб қолишимиз керак” ... “Агар бозор етим-есирларнинг, қариялар ва камбағал-ночор одамларнинг кўз ёши эвазига қуриладиган бўлса, бунақа бозорнинг уйи куйсин”[1, б. 26]. деган эди.

Буюк Ипак йўли устида жойлашган мамлакатимиз қулай табиий-иқлим шароитларига, бой тарихий, маданий меросга ва айни пайтда ҳам ички, ҳам халқаро туризмни ривожлантириш учун юқори салоҳиятга эга.

Таҳлиллар шуни кўрсатмоқдаки, кейинги йиллардаги барча сиёсий ижтимоий-иқтисодий беқарорликларга қарамай, мамлакат туризм соҳаси инвестицияларисиз ва дотацияларисиз маҳсулотлар ва хизматлар ишлаб чиқариш ҳажмини ошириб бораётган халқ хўжалиги тармоқларидан биридир.

Сўнгги йилларда давлат тузилмаларининг туризмга муносабати кескин ўзгармоқда. Улар туризмда миллий иқтисодиётнинг ўсишини, бозор муносабатларини шакллантириш, давлат бюджетига катта маблағлар тушишининг амалий усулини, бўш вақтдан оқилона фойдаланишни, дам олиш вақтини мазмунли ўтказиш шаклини ва аҳолини мамлакатнинг тарихий-маданий қадриятларига жалб қилиш усулларини кўрсатмоқдалар.

Хорижий мутахассислар Ўзбекистонни унинг нодир табиий ресурсларини ва тарихий-маданий мероси туфайли туристик жиҳатдан истиқболи порлоқ мамлакатлар жумласига киритадилар[7, б. 6].

Ўзбекистон туризмнинг ривожланишида “Буюк Ипак Йўли”нинг тутган ўрни ва моҳияти ниҳоятда чексиз. Бир неча асрлар давомида ушбу заминнинг Ғарб ва Шарқда истиқомат қилган халқларни Жануби-шарқий Осиёдан то Ўрта ер денгизи мамлакатларигача чўзилган ва “Буюк Ипак Йўли” деб ном олган савдо-сотик йўли бир-бири билан боғлаб турар эди.

“Буюк Ипак Йўли” қарийб икки минг йиллик тарихга эга бўлиб, бу йўл асосан Италиядан тортиб Туркия орқали Ироқ ва Эронга борган. У ердан эса Марказий Осиё ҳамда Шимолий Помир орқали ўтиб Қашқар ва Ёрқентгача етган. Бу ерда йўл иккига ажралган ҳамда шимол томондан Такла-Макон саҳросини айланиб ўтиб, Лобнор кўли яқинида яна қўшилган ва Хитойгача борган.

“Буюк Ипак Йўли”да Туркистон ҳудуди етакчи ролни бажариб келган. Ушбу ҳудуддаги Самарқанд, Бухоро, Хива, Термиз, Хўжанд, Чоржуй каби қатор шаҳарлар ипак йўлидаги асосий манзиллар бўлган. Ўзбекистон ўзининг қулай географик ўрни туфайли бу тарихий йўлда марказий ўринни эгаллаган. “Буюк Ипак Йўли” кўп асрлар давомида кишилиқ маданиятининг вужудга келишида катта ўрин эгаллаган.

Буюк ипак йўлининг тарихда тутган ўрни ҳамда аҳамиятини тиклаш, бу йўлда халқаро туризмни ривожлантириш каби мақсадларни мўлжаллаб, 1994-йилнинг октябр ойида Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг ЮНЕСКО бўлими иштирокида Ўзбекистонда Жаҳон Туристик Ташкилотининг (ЖТТ) кенгаши бўлиб ўтди. Кенгаш аъзолари Ипак йўли туризм фаолиятини тиклаш, уни ривожлантиришга қаратилган Самарқанд Декларациясини қабул қилдилар. 2002-йилнинг октябрида ЖТТ нинг Буюк Ипак йўли дастури борасида 4-анжумани Бухоро шаҳрида ўтказилди. Унда Ўзбекистон ҳукуати томонидан Самарқанд шаҳрида ЖТТ “Ипак йўли” лойиҳасининг координатцион офисини очиш фикри илгари сурилди ва бу гоё халқаро экспертлар томонидан маъқулланди.

Мамлакатимизда Президентимиз Шавкат Мирзиёевнинг бевосита ташаббуси ва раҳбарлигида қабул қилинган ҳамда изчил амалга оширилаётган Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси тараққиётнинг янги босқичини бошлаб берди. Бу жараённинг амалий натижалари, белги ва хусусиятлари бугунги кунда ҳаётимизнинг барча жабҳаларида, энг муҳими, халқимизнинг онг-у тафакқури, интилиш ва ҳаракатларида яққол кўзга ташланмоқда. Шу маънода, Ҳаракатлар стратегияси Ўзбекистонни тез суръатлар билан ўзгараётган замон талаблари асосида жадал ривожлантиришнинг илмий-назарий, амалий-конструктив асосларини белгилаб берадиган, тараққиётнинг янги даври учун мўлжалланган муҳим дастуриламалдир десак, айни ҳақиқат бўлади. Бу кенг кўламли, ноёб ҳужжат давлатимизнинг барча соҳаларида янгича ёндашув ва мезонларни жорий этиш, аҳолининг барча қатламлари ўртасида ташаббускорлик, тадбиркорлик, эл-у юртимиз тақдири ва келажаги учун маъсулият ва дахлдорлик туйғусини ошириш, аниқ тизим асосидаги самарали фаолият тартибини жорий этишда тобора ҳал қилувчи аҳамият касб этиб бораётганини ҳозирги кунда юртимизда ва хориждаги нуфузли эксперт ва таҳлилчилар, жаҳон сиёсат майдонида катта ўрин тутадиган атоқли давлат ва сиёсат арбоблари кенг эътироф этишмоқда[3, б. 3].

Ўзбекистон Республикаси таркибида Қорақалпоғистон Республикаси, 12 та вилоят, Тошкент шаҳри ва жами вилоятлар таркибида 157 туман ва шаҳарча мавжуд. Ўзбекистон Республикаси ҳудуди бўйича дунёда 55-ўринни, аҳолисининг сони бўйича 39-ўринни эгаллаб турибди.

Мамлакатимизни 2017-2021 йилларда ривожлантиришнинг Ҳаракатлар стратегиясида вилоят, туман ва шаҳарларни комплекс ва мутаносиб ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш, уларнинг мавжуд салоҳиятидан самарали ва оптимал фойдаланиш масаласига алоҳида эътибор қаратилган.

Юртимизда Самарқанд, Бухоро, Хива, Шахрисабз, Кўкон каби жаҳонга машхур туристик шаҳарлар мавжуд. Туризм соҳасида деярли барча вилоят ва туманларда имкониятлар етарли, аммо юқорида санаб ўтилган ҳудудларда мулоқ ва нисбий устунликлар кўпроқ саналади[2, б. 264].

Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Президенти этиб сайланганидан сўнг миллий иқтисодиётнинг устувор йўналишларидан бири сифатида белгиланган туризм салоҳиятини ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Ўзбекистонга келаётган хорижлик сайёҳлар сони кейинги уч йил мобайнида мутасил ортиб бормоқда. Истикболда – 2023 йилга бориб Ўзбекистон бу кўрсаткични 10 миллионга етказишни ўз олдига мақсад қилиб қўйган.

Ўзбекистон улкан туризм салоҳияти ва ғоят бой маданий-тарихий меросга эга. Бу заминда пурвиқор тоғлар билан ўралган водийлар ва жазирама саҳролар, қадимий меъморий обидалари билан машхур тарихий мажмуалар ва замонавий мегаполислар ажиб бир тарзда уйғунлашиб кетган. Ўзбекистонда 11 та миллий табиий боғлар ва давлат кўрикхоналари, 12 та махсус кўрикхона, 106 та музей, 37 та театр, 187 та маданият ва истироҳат боғи мавжуд.

Мамлакатда 7400 та маданий мерос объекти асраб-авайлаб сақланмоқда. Уларнинг 209 таси тўртта шаҳар-музейда – “Хива шаҳридаги Ичанқалъа”, “Бухоро шаҳрининг тарихий маркази”, “Шахрисабз шаҳрининг тарихий маркази” ва “Самарқанд – маданиятлар чорраҳаси” ҳудудида жойлашган бўлиб, ЮНЕСКО Жаҳон маданий мероси объектилари рўйхатига киритилган. Ўзбекистон босқичма-босқич 86 давлат фуқаролари учун визасиз тартибни жорий этди, 77 давлат фуқаролари учун виза беришнинг соддалаштирилган тартибини қўлламоқда, 54 мамлакат фуқаролари учун эса, агар улар Ўзбекистон ҳудуди орқали транзит тарзида ўтаётган бўлса, соддалаштирилган тартибда виза олиш ҳуқуқи берилган.

2018-йилда ўзбек миллий таомлари “National Geographic” журналининг “Гастрономик туризм” номинациясида биринчи ўринни эгаллади, Ўзбекистон кўплаб хорижий нашрлар, жумладан, “The New York Times”, “The Guardian”, “Lovely Planet” томонидан саёҳат учун энг жозибador ва қизиқарли йўналиш сифатида эътироф этилмоқда[4, б. 299].

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. И.А.Каримов. Ўзбекистон: миллий истиқдол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т.: “Ўзбекистон”, 1996.
2. Ш.М.Мирзиёев. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини “Халқ билан мулоқот ва инсон манфаатлари йили” да амалга оширишга оид Давлат дастурини ўрганиш бўйича илмий-услубий рисола. Т.: “Маънавият”-2017.
3. Ш.М.Мирзиёев. Миллий тикланишдан миллий юксалиш сари. Т.: “Ёшлар нашриёт уйи” – 2019.
4. Ш.М.Мирзиёев. Миллий тикланишдан-миллий юксалиш сари. 4-жилд. Т.: “Ўзбекистон”-2020.
5. Нарзулла Жўраев. Мустақил Ўзбекистон тарихи. Т.: Гафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2013.
6. М.А.Мирзаев, М.Т.Алиева. Туризм асослари. Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти. 2011.
7. И.Тухлиев, Ғ.Х.Қудратов, М.Қ.Пардаев. Туризмни ривожлантириш. Т.: 2010.

УЎК 092

#### АШУРАЛИ ЗОҲИРИЙ МАЪРИФАТПАРВАР ОЛИМ

*Ю.Б. Турсунова, таянч докторант, ЎзФА Тарих институти, Тошкент*

**Аннотация.** Мазкур мақола жадид маърифатпарварларидан бири Ашурали Зоҳирий ҳаёти ва ижоди, унинг аянчли тақдири ҳақида.

**Калим сўзлар:** Жадид, таълим, панисломизм, пантуркизм, тил ва имло, маърифатпарвар.

**Аннотация.** Эта статья о жизни и творчестве одного из джадидских просветителей Ашурали Захири, о его печальной судьбе.

**Ключевые слова:** Джадид, образование, панисламизм, пантуркизм, язык и орфография, просветители.

**Abstract.** This article is about the life and work of one of the Jadid enlighteners Ashurali Zahiri, about his sad fate.

**Keywords:** Djadid, education, pan-Islamism, pan-Turkism, language and spelling, enlightener.

XX аср ўзбек халқи ҳаётида сиёсий, ижтимоий, иқтисодий, маданий, маърифий соҳаларда ўзгаришлар даври бўлди. Бир томондан совет ҳокимиятининг олиб борган зўравоник сиёсати бўлса, иккинчи томондан жадид маърифатпарварларининг ўлкани муқаррар таназзулдан олиб чиқиш учун бўлган ҳаракати Кўконда ҳам маърифатпарварларнинг илм, маърифат учун курашувига сабаб бўлди. Мана шу жараёнларда фаол иштирок этган маърифатпарварлардан бири йирик тилшунос, луғатшунос, адабиётшунос олим, журналист, таржимон ва педагог Ашурали Зоҳирийдир. Олим илмий-маърифий, педагогик, адабий-публицистик фаолияти билан ўзбек халқи маданияти тарихида муносиб ўрин тутди.

Ашурали Зоҳирий 1885 йили Кўкон яқинидаги Ойим қишлоғида туғилган. У дастлабки бошланғич маълумотни эски мактабда, 1897-1914 йилларда эса Кўкондаги Мухаммад Алихон (Мадалихон) мадрасасида таҳсил олади. Ушбу йиллар мобайнида араб ва форс тилларини пухта эгаллайди, ўзбек ва форс-тожик мумтоз адабиётини ўрганади. Шунингдек, турк, озарбайжон, татар ва рус тилларини ҳам пухта эгаллайди. Ҳар томонлама билим соҳиби бўлган А.Зоҳирийнинг илмий-

педагогик фаолиятининг бошланиши XX асрнинг бошларига тўғри келади. У 1907-1917 йилларда Қўқон шаҳридаги 2- рус-тузем мактабида, шунингдек, жаҳид мактабида ўзбек тили ва адабиётидан дарс беради. Туркистон халқининг миллий-маданий ривожига катта хизмат қилади. «Ойна» журнали саҳифаларида Қўқон шаҳрида товуш усулида дарс бераётган йигирма икки нафар жаҳид зиёлилари номи кўрсатилган[1]. Рўйхат бошида Ашурали ибн Муҳаммадзоҳирнинг тургани унинг ўз даврида жаҳид ҳаракатчилигининг етакчиларидан бири бўлганини кўрсатади. Ашурали Зоҳирийнинг маърифатпарварлик соҳасидаги дастлабки иши сифатида С.Оқоев билан ҳамкорликда туркийзабон мактабларнинг бошланғич синф ўқувчилари учун тузилган «Туркий хрестоматия ёхуд терма китоб» (Қўқон, Шумаков типолитографияси, 1912)[2] дарслигини кўрсатиш мумкин. У 1912 йил мактаб ўқувчилари учун «Туркий хрестоматия ёхуд терма китоб» дарслигини тузди. Ашурали Зоҳирий педагогик фаолиятини журналистик ва илмий фаолият билан қўшиб олиб борди. Тилшуносликнинг турли масалаларига бағишланган мақолалари эълон қилинди. Айниқса, имло масаласи Ашурали Зоҳирий илмий фаолиятида марказий ўринни эгаллайди. Ўзбек тилида биринчи бўлиб бошланғич синфлар учун «Имло» дарслигини яратди, китоб Қўқондаги «Ғайрат» кутубхонаси томонидан нашрга тайёрланиб, 1916 йил Қозонда нашр этилди [3]. Бу китобда илк маротаба араб графикаси асосидаги ўзбек ёзувида тўғри ёзиш қоидалари, пунктуацион қоидалар ўз ифодасини топди. У дарслиқда шундай фикрларни билдиради: *“Бизнинг ҳозирги (эски) имломизда қоида деган нарса асло риоя этилмагонлигидан ҳар ким ўзича қандай ёзмоқни хоҳласа, ўшандай ёза бергон; бу адабиётимизнинг кенгайишига сад бўлиб, ёшларимизнинг қийналишидан бошқа ажнабий миллатларнинг қошида тилимизни масхара қилдириб, маданий тилларга баҳо қўйгонда, қимматли ҳеч бўлишига сабаба бўлдик. Шунга биноан бул “Имло” рисоласини ёздим. Энг зарур қоидаларни дарж этдим. “ҳойе расмия”ни имломизга киргиздим”*[4].

1912-1919 йилларда эса педагогик фаолият билан бирга журналист сифатида ҳам қизғин иш олиб боради.ўз мақолалари билан ислом, диний ахлоқ, янги усулдаги таълим ва тарбия, миллий таққийёт мавзуларига доир ўз карашлари билан матбуотнинг фаол иштирокчиларидан бирига айланади.

Ашурали Зоҳирий Қўқонда «Ғайрат» номли хусусий нашриёт ташкил этди. 1916-1921 йилларда «Садойи Фарғона», 1922-1928 йилларда «Янги Фарғона» газеталарида адабий ходим бўлиб ишлади.

1917-1918 йилларда Туркистон Мухторияти ҳукуматининг барпо этилиши А.Зоҳирий фаолиятига янгича йўналиш бағишлайди. У «Эл байроғи» газетасига муҳаррирлик қилиб, Мухторият ғояларининг кенг халқ оммаси ўртасида тарқалишига муносиб ҳисса қўшади.

А.Зоҳирий фаолиятининг 1917 йилдан кейинги асосий йўналиши маърифатпарварлик билан боғлиқ. У Қўқондаги биринчи дорилмуаллимнинг ташкилотчиси ва дастлабки замонавий мактабларнинг муаллими сифатида Фарғона водийси учун кўплаб ўқитувчиларни етиштириб берди. У асос солган дорилмуаллимнинг кейинчалик педагогика техникумига айлантирилди.1921,1922-1926 йилларда ушбу техникумда ўқитувчилик қилди. Ушбу даргоҳда Абдулла Қаҳҳор, Собир Абдулла, Усмон Носир сингари ёзувчи-шоирлар таҳсил кўришган. 1930 йили эса техникум базасида Фарғона давлат педагогика институти ташкил этилди ва Ашурали Зоҳирий номи берилди. У Навоийнинг «Муҳокамат ул-луғатайн» ва «Вақфия» асарлари устида матншунослик тадқиқотлари олиб борган. 1916 йил «Муҳокамат ул-луғатайн»ни хуснихатда кўчириб, 1917 йил Қўқонда Вайнер кутубхонасида чоп эттирган. «Вақфия»ни ҳам нашрга тайёрлаган, лекин номаълум сабабларга кўра нашр этилмаган. Матбуот воситасининг халқ оммасига зўр таъсирини чуқур англаган Ашурали Зоҳирий 1917 йилнинг 1 июнидан она шаҳри Қўқонда ўз муҳаррирлиги остида "Юрт" журналинини чиқара бошлади. "Юрт" техник жиҳатдан ўз замонасидаги журналларнинг энг кўрками эди"[5].

Ашурали Зоҳирий Абдурауф Фитрат ва Махмуд Ҳодиев (Боту) ва бошқа ёш маърифатпарварларнинг араб имлоси ўрнига лотин имлосини жамиятда қўллаш борасида, 1921 йил Фитрат томонидан ташкил этилган Тошкентдаги ўзбек тили ва имлоси қурултойида ўз маърузаси билан иштирок этади ва кенгашда ўз эътирозини билдиради. У *“Агар биз янги имло билан дарс беришга одатланиб турганда чет ерларга (Чунончи, Қашқарга) борсок, онда муаллимлик қилар бўлсак, биз ёзгонни ҳеч ким ўқий олмайди. Бу имлода ёзу ёзмоқчи бўлсак, ҳеч ким билмайди. Ҳозирга қадар тузилган панни ва адабий китобларни ўқий олмаймиз. Шунинг учун бу тўғрида менинг пиқрим: ажнабий сўзларни ўз ҳарти билан ёзайлик. Майли, озорни ўз чўзгимиз билан ҳам ёзайлик, лекин сўнгидан яна кавсайин орасида ўз ёзуви билан кўрсатилсун”*[6] дейди. У гарчи араб имлосини лотин имлосига ўзгартиришга қарши бўлса-да, 1926 йилда Бокуда бўлиб ўтган туркологлар съездида барча туркий халқларнинг лотин ёзувига ўтиши ҳақида қарор қабул қилингандан сўнг бу сиёсат билан баҳслашиш ортиқча эканлигини тушунди. Ўша даврда бу сиёсатга қаршилиқ, Совет ҳукуматида қарши боришдек баҳоланди. Шунинг учун Ашурали Зоҳирийдек маърифатпарварлар биров чекинишга мажбур бўлдилар. Шу йили Самарқандда бўлиб ўтган республика тил-имло анжуманида Назир Тўрақуловнинг Боку таассуротлари бўйича маърузасидан сўнг сўзга чиққан Ашурали Зоҳирий лотин графикасига ўтиш жараёнида араб ёзувида ўз ифодасини топмаган ўзбек фонемалари учун махсус ҳарфлар белгилаш масаласини кун тартибига қўйди. Бу масалани кўтариб чиқиши ҳам Ашурали Зоҳирийнинг синчков фонолог

эканлигидан далолат беради. Ашурали Зоҳирий гарчи ўзини «пантуркист» ҳисобласа ҳам, лекин ўша даврда айрим «пантуркист»лар томонидан кўтарилган барча туркий тилларни бирлаштириш, умумтуркий тилни яратиш ғоясига қўшилмайди. Соф ўзбек тилининг тараққиёти учун курашади[7].

Ашурали Зоҳирий 1925 йил «Русча-ўзбекча луғат» тузган. 1926 йил Чўлпон билан ҳамкорликда «Адабиёт парчалари» тўпламини нашр эттирган. Ушбу даврда Туркистон зиёлилари ўртасида тил-имло масаласида турлича қарашлар, баҳслар боис мактабларда она тили ва адабиёт таълими ёмон аҳволда эди. Мактаб дарсликлари - алифбо ва ўқиш китоблари етишмас, борлари ҳам замон талабига жавоб бермас эди. Ўзбек тилининг қонун-қоидалари юзасидан жиддий илмий тадқиқотлар яратилмаган, ўзбек тили грамматикасига оид дарсликлар эса умуман йўқ эди. Шу сабабли бу давр матбуотида маориф соҳасидаги ушбу камчиликлар кўп марта танқид қилинган.

**1930 йил январида ГПУ ходимлари томонидан ҳибсга олиниб қатағон қилинган «Ботир гапчилар» ташкилоти аъзолари[12].**

№	Исми ва шарифи	Туғилган йили ва жойи	Ҳибсга олинганча бажарган иши	Жазо тури
1	Ёқуб Омон	1903й. Наманган	«Янги Фарғона» газетаси хизматчиси	10 йил қамок
2	Носир Зокирович Эркин	1899 й. Қўқон	«Янги Фарғона» газетаси хизматчиси	10 йил қамок
3	Ашурли Зоҳирий	1885 й. Қўқон тумани Ойим қишлоғи	Қўқон механика техникуми ўқитувчиси	10 йил қамок
4	Лутфулло Олимий	1893 й. Наманган	«Янги Фарғона» газетаси маъсул муҳаррири	10 йил қамок
5	Умархўжа Ҳамидов	1898 й. Қўқон	Қўқон рабфақда мудир	Доимий назоратда туриш шarti билан озод этилган.
6	Нуриддин Эрматов	1908 й. Қўқон	Қўқон рабфақда ўқитувчи	5 йил қамок
7	Муҳиддин Ҳусайнов	1907 й. Қўқон	Қўқон шаҳридаги партия мактаби ўқитувчиси	5 йил қамок
8	Абдулла Қаҳҳор	1907 й. Қўқон	«Янги Фарғона» газетаси хизматчиси	Доимий назоратда туриш шarti билан озод этилган.
9	Карим Ортиқбоев	1903 й. Қўқон	«Янги Фарғона» газетаси экспедитори	5 йил қамок
10	Турғун Парпиев	1908 й. Поп тумани Хўжаобод қишлоғи	Фарғона педагогика техникуми ўқитувчиси	5 йил қамок
11	Абдулла Ҳолматов	1907 й. Риштон тумани Амиробод қишлоғи	Фарғона шаҳар халқ таълими бўлими бошлиғи	5 йил қамок
12	Мирзаабдулла Солиев	1898 й. Қўқон	«Янги Фарғона» газетаси хизматчиси	ГПУ айғоқчиси, озод қилинган.
13	Мухтор Муҳаммадиев	1899 й. Қўқон	Қўқон рабфақда ўқитувчи	3 йил қамок
14	Абдулла Раҳматзода	1898 й. Қўқон	Қўқондаги педагогика курсида мудир	3 йил қамок
15	Маматкул Ҳолдаров	1900 й. Қўқон тумани Орзиқтепа қишлоғи	Қўқон шаҳрида ўқитувчи	3 йил қамок
16	Обиджон Ҳакимов	1895 й. Қўқон шаҳри	Қўқон шаҳридаги 1- босқич ўзбек мактабида ўқитувчи	3 йил қамок
17	Комилжон Қосимов	1900 й. Фарғона тумани Ингичка қишлоғи	Қўқон шаҳрида ўқитувчи	3 йил қамок
18	Воси Қаюмов	1901 й. Қўқон	Қўқон шаҳридаги ўзбек чуқурлаштирилган мактабида ўқитувчи	3 йил қамок
19	Тошпўлат Акбаров	1898 й. Андижон округи Асака қишлоғи	Касби ўқитувчи, ҳибсга олинган пайтда ишсиз	3 йил қамок
20	Толибжон Охунжонов	1895 й. Қўқон тумани Қизилмуш қишлоғи	Хизматчи, ҳибсга олинган пайтда ишсиз	3 йил қамок

Ашурали Зоҳирий «Она тили» («Садойи Фарғона», 1914 й., 13 апрел), «Мархум Исмоилбек қандай ишлар қилган?» («Садойи Фарғона», 1914 й, 60-сон), «Хукумат ўзгариши» («Юрт», 1917 йил, 1-сон), «Миллий ишлар комиссари Тожхўжа афандининг «Фиқҳа жамияти»га берган саволи муносабати ила» («Улуғ Туркистон», 1918 й, 110-сон), «Имло масаласи ҳақида иккинчи турли мулоҳаза» («Иштирокию», 1919 йил, 19 июнь.), «12-фирқа қурултойида миллатлар масаласи» («Фарғона», 1923 йил, 13 май), «Ўтканларга бир қараш» («Фарғона», 1923 йил, 100-сон), «Бир йил тўлди» («Фарғона», 1924 йил, 199-сон), «Олти ойлик ўзбек адабиёти (босма сўзи)га бир қараш» («Фарғона», 1924 йил, 21



июнь), «Ўзбеклар» («Фарғона», 1926 йил, 346-сон), «Туркиёт қурултойи тўғрисида» («Фарғона», 1926 йил, 384-сон), «Келурнома» («Маориф ва ўқитғучи», 1927 й., 9-10 сонлар), «Тил ва имло масаласи» («Қизил Ўзбекистон», 1929 й, 29 март) каби кўплаб мақолалар ёзган. Уларда замоннинг энг долзарб масалалари: она тили муҳофазаси, маданий-дунёвий маърифат, янги таълим-тарбия, миллий уйғониш, хурият, тараққиёт, миллий давлатчилик ғоялари, шунингдек, олимнинг тилшунослик, адабий-танқидий қарашлари акс этган. Шунингдек у, 1927-1928 йилларда нашр этилган «Ўзбекча-русча мукамал луғат»нинг муаллифидир. Бу луғат ҳозирда «Шаҳидлар майдони хотираси» музейида сақланмоқда.

Совет ҳукуматининг олиб борган руслаштириш сиёсатига қарши миллий зиёлилар ўртасида норозиликлар юзага келади ва яширин партиялар тузиш ишлари бошланади. Шулардан бири 1929 йил ноябрь ойида Қўқонда Ашурали Зоҳирий[8] томонидан ташкил этилган «Ботир гапчилар» ташкилоти эди. Ташкилот атиги 3 ойча фаолият кўрсатган, лекин шу қисқа вақт давомида ташкилот низоми ва дастури ишлаб чиқилган. Бу ташкилотга 20 киши аъзо бўлиб кирган, шу жумладан, ёш ёзувчи Абдулла Қаҳҳор (1907-1968) ҳам жалб қилинган[9]. Ташкилот 1925-1927 йилларда Қўқонда фаолият олиб борган «Темур» гуруҳининг давомчиси эди[10]. 1930 йил 31 январь, 4 февраль, 9 май кунлари ташкилотга алоқадор шахслар ҳибсга олинади. ОГПУ нинг Ўрта Осиёдаги мухтор вакиллиги томонидан «фош этилган» бу ташкилот тақдири 1930 йил 6 февралда бўлган йиғилишда ҳал қилинади ва 5 нафари 10 йиллик, 6 нафари 5 йиллик, 8 нафари 3 йиллик қамоқ жазосига ҳукм этилади[11]. Уларнинг кўплари қамокни ўташ вақтида вафот этади. Тирик қолганлари эса «Катта қирғин» компанияси томонидан қайта-қайта тергов қилинади. Ашурали Зоҳирий эса қамоқ муддати тугатгач, яна сеvimли касби — маърифатпарварлик билан шуғулланади. Аммо 1937 йилда қатағон бўрони авж олгач, у яна қамоққа олинади, ўша йилнинг 4 декабрида отиб ташланади.

Хулоса қилиб шунини айтиш мумкинки, Ашурали Зоҳирий Мунавварқори Абдурашидхонов, Фитрат, Абдулла Қодирий каби ўз даврининг илғор кишиларидан бири эди. У катта матонат билан энг қийин вазифаларни амалга ошира олган, етук олим сифатида бир вақтнинг ўзида ҳам ўқитувчилик, ҳам журналистик касби билан шуғуллана олган тарихий шахсдир. Унинг хотираси аждодлар хотирасида мангу яшайди.

#### ҲОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Хўқонда усули савтия муаллимлари// Ойна журнали, 1914.-№12.276- бет.
2. Ўзбек адабиёти тарихи. 5- жилд. Тошкент.1980. 173- бет.
3. Т.М.Тоғаев:“Великая степ”. Ашурали Зоҳирий – жадид қурашчиси. Нур-Султан.Халықаралық Турки академиясы. 2019 й.
4. Ашурали Зоҳирий. Имло. Қозон: “Умид” типо-литографияси. 1916. 3- бет. Ҳ. Жамолхонов, Қ. Сапаев. Имло муаммолари. Тошкент. 2007. 8-бет.
5. Зиё Саид. Танланган асарлар. Тошкент. 1997 йил. 57- бет
6. 1921 йил январида бўлган биринчи Ўзбек тили ва имло қурултойининг чиқарган қарорлари. Тошкент. Туркистон жумҳуриятининг давлат нашриёти. 1922 йил, 16- бет.
7. А. Нурмонов. Ўзбек тилшунослиги тарихи. Тошкент. “Ўзбекистон”.2002 й. 133- бет.
8. Ўзбекистон тарихи. (1917-1991 йиллар) 1-жилд.Тошкент “Ўзбекистон”. 2019 й. 1-жилд. 452-бет.Ўзбекистон ФА Тарих институти архиви, 33391-фонд, П-7876.
9. Ўзбекистон тарихи. (1917-1991 йиллар) 1-жилд. Тошкент “Ўзбекистон”. 2019 й. 452- бет.
10. РИСТДА, 62-фонд, 2-рўйхат, 2199-иш, 10-12-варақлар. С. Ҳошимов. Совет ҳокимиятининг Ўзбекистондаги қатағон сиёсати ва унинг оқибатлари. (1917-1936 йиллар).Тошкент. “Академнашр”. 2018 й. 151- бет.
11. Убайдуллаев Ў.Қ. Ўзбекистонда 20-30 йилларда мустабид тузумга қарши миллий муҳолифат ҳаракати.(маҳаллий зиёлилар мисолида. Тарих фан номз. Дисс. Тошкент. 2004. 74-бет.
12. Ўзбекистон ФА Тарих институти архиви, 33391-фонд, 19- иш, 375- варақ.

УЎК 93/94

### СОВЕТ ДАВЛАТИНИНГ МОЛИЯВИЙ СИЁСАТИ ВА УНИНГ ХОРИЖ АДАБИЁТЛАРИДА ЁРИТИЛИШИ

*Р.Н. Тўхтаева, PhD., Қариш Давлат Университети, Қариш*

**Аннотация.** Ушбу мақола совет давлати пул муомаласининг Россия мутахассислари ва хорижлик олимларнинг ишларида ёритилиши, пул ислохотларининг оқибатлари, совет пуллари қадрсизланишининг сабаблари каби масалаларнинг адабиётлардаги таҳлилини ўрганишга бағишланади.

**Калит сўзлар:** Совет давлати, молиявий сиёсат, иқтисодиёт, инфляция, кредит тизими, пул, солиқ.

**Аннотация.** Данная статья посвящается изучению анализа вопросов освещения денежного обращения советского государства в работах российских специалистов и зарубежных учёных, а также последствие денежных реформ, причин инфляций советских денег.

**Ключевые слова:** Советское государство, финансовая политика, экономика, кризис, инфляция, кредитная система, деньги, налог.

**Abstract.** This article is dedicated to research the analyses of some matters such as the demonstration of the monetary affairs in the Soviet Union in the works of Russian specialists and foreign scientists, results of the monetary reforms, reasons for the inflation in the Soviet Union.

**Key words:** Soviet state, financial policy, economics, crisis, inflation, credit system, money, tax.

Иқтисодий соҳанинг асосий таркибий қисми ҳисобланган молия тизими масаласи барча тарихий даврларда иқтисодчилар ва тарихчилар диққат марказидаги мавзулардан бири бўлиб келди. Жумладан, XX аср 90-йилларининг бошларида Россиялик мутахассислар томонидан совет давлатининг молиявий сиёсати, пул муомаласи ва ҳозирги замон шароитида уларнинг моҳияти, сохта пуллар муаммоси, инқироз ва инфляция, пул ва кредит тизими атрофлича ўрганилади [1]. Аксарият илмий ишларда асосий эътибор инфляция ва унинг олдини олиш, инфляциядан чиқиш йўллари хусусидаги маълумотлар таҳлиliga қаратилади. А. Асомов ва И. Шешеронинг мақолалари шулар жумласидандир. Г. Вермуш тадқиқотларида асосан пул муомаласидаги жиддий масалалардан бири, яъни сохта пуллар хусусидаги маълумотлар ўз аксини топган.

Россиянинг “Знание-сила” журналининг 1997 йил №1 сонидан Россия Федерацияси Давлат архиви ходими Т. Царевокаларнинг 1947 йилги пул ислоҳотининг 50 йиллиги муносабати билан “Хроника одной реформы” номли мақоласи эълон қилинади. Шунингдек, бу даврда Ю.Я. Ольсевичнинг мақоласида совет иқтисодиёти ўрганишнинг қай даражада лозимлиги, хусусидаги фикрни илгари сурилади.

Кейинги йиллардан Россиялик мутахассислар томонидан турли тарихий даврларда пул кредит тизими, янги молиявий сиёсати тарихи ҳам кенг тадқиқ этилмоқда[2]. Т.Я. Сокольников, Ю. Голанд, С.С. Родионов, Е.Ф. Жуков, Л.И. Бородин, Т.А. Дробышевская, В.Т. Рязанов, Ю.А. Бабичева кабиларнинг асарлари шулар жумласидандир. Ю. Голанднинг монографияси бевосита тадқиқот даврий чегарасига яқинлиги билан қимматли бўлиб, асарда совет давлатида амалга оширилган янги иқтисодий сиёсат (НЭП)нинг моҳияти ва бу даврда валюта тизимини барқарорлаштириш тадбирлари тарих фанининг замонавий тадқиқот усулларига мувофиқ ўрганилади. Асарда мавзуга доир совет даври адабиётларида келтирилмаган маълумотлар берилди. Келтирилган фикр-мулоҳазалар Россия Федерациясининг давлат архиви (ГАРФ), Россия Давлат иқтисодиёт архиви (РГАЭ), Россия Федерацияси Президенти архиви (АПРФ) жамғармаларида сақланаётган ҳужжатларнинг аниқ далилий маълумотларига асосланган ҳолда баён этилган.

Ю. Голанд асарида совет даври пул тизими тарихи танқидий ўрганилиб, соҳада йўл қўйилган хато ва камчиликлар, муаммолар рўй-рост очиб берилган. Муаллифнинг таъкидлашича, совет даврида валюта қонунчилиги асослари яратилган бўлсада аммо уларга амал қилиш интизоми мавжуд эмас эди. Асарда совет ҳукмронлигининг дастлабки йилларида хориж пул бирликларининг совет валюта бозорига “интервенцияси” ва бунинг сабаблари ҳамда аҳволнинг бундай шароитга кўчиши туфайли “червонец” пулларнинг қадриятига кенг йўл очилиши сифатида таърифланади [3]. Мамлакатда валюта бозор доимий равишда ОГПУ (Бирлашган давлат сиёсий бошқармаси) томонидан мувофиқлаштирилиб борганлиги, хусусан 1923 йил сентябрь ойининг охирида ОГПУ раиси Ф. Дзержинский партия сиёсий бюросига нархларнинг кўтарилишига таъсир қилаётган ашаддий олиб-сотарларни, айниқса, қора биржа билан алоқадор валюта олиб-сотарларга чора қўллаш таклифи билан чиққанлиги ҳақида маълумотлар берилди [3]. Ушбу асарнинг қимматли жиҳатларидан бири шундаки, унда совет ҳукмронлиги даври пул ислоҳоти ва умуман соҳа фаолиятига алоқадор қўллаб тарихий шахслар ва уларнинг бу борадаги олиб борган ишлари ҳақида гапириб ўтилади.

А.О. Гусейновнинг таъкидлашича [5], 1947 йилги совет пул ислоҳоти ижтимоий-иқтисодий соҳа ривожини таъминламаган, адабиётларда ислоҳот натижасида мавжуд пул массаси ва маҳсулотлар массаси тенглашди деб, таъкидланган, аммо амалда бугунлай бошқа манзара ҳукмронлиги очиб берилди.

А. Пижиговнинг мақоласида ҳам совет пул ислоҳоти жараёнлари танқидий ўрганилиб ҳамда ислоҳот натижасида давлат халқдан улкан миқдорда пуллар тортиб олганлиги, тўпланган маблағлар асосан совет ҳарбий қудратини мустаҳкамлаш ва ҳарбий дастурларни амалга ошириш учун сарфланганлиги асослаб берилди. Бу фикрлар Е. Зубкованинг асарларида ҳам ўз аксини топади. Унинг таъкидлашича, пул ислоҳотини бу мамлакатдаги молиявий вазиятни юмшатиш учун халқ қўлидаги пулларни тортиб олиш тадбири сифатида таърифлайди [6]. Ушбу ҳолатни С.А. Папков ўз асарида вазиятдан чиқиш деб баҳолаб, ўша давр учун типик ҳодиса эканлигини таъкидлайди [7].

Россия давлатида кейинги йилларда пул муомаласини тадқиқ этишга бағишланган қўллаб диссертация ишлари ҳам бажарилмоқда. И.А. Чудновнинг докторлик диссертацияси мавзуси мана шу долзарб мавзуга бағишланган[8]. Тадқиқотчи асосий эътиборни совет даври пул ислоҳотларини амалга оширишнинг назарияси ва амалиётига қаратади. Тарихий жараён асосан иқтисодчи нуқтаи-назаридан ўрганилиб, ёритилади.

Совет даври пул ислохотлари масаласи нафақат Россия балки, АҚШ ва Англия каби давлатларнинг мутахасисларининг ҳам диққат эътиборидаги вазифаларидан бирига айланди.

XX асрнинг 40 йилларининг иккинчи ярмида совет пул кредит тизими масалалари жаҳоннинг йирик сиёсатчилари, иқтисодчилари томонидан маълум даражада ўрганилди. Бу даврда Америка газеталарида совет пул муомаласи ва ислохотлари шарҳланган қатор мақолалар эълон қилинди. Айниқса, Американинг “New York Times” газетасининг иқтисодий шарҳловчиси Генри Хэзметт томонидан қатор мақолалар туркуми нашр этилди[9]. Ушбу мақолаларда америка ҳукуматининг совет иқтисодиёти, хусусан пул муомаласи ва молиявий масалаларига муносабати тўла ўз аксини топган.

Р. Манделл эса XX аср халқаро пул тизимини мукамал ўрганиб, бу соҳага сиёсий воқеаларнинг деперминанти сифатида баҳо беради [10]. Унинг маърузасида таъкидлашча, молиявий соҳани барқарорлаштириш усуллари, пул-кредит тизими жаҳон тажрибасида бир хил. Аммо молиявий тадбирлар ва ислохотларнинг натижалари турли мамлакатларда турличадир.

1983 йил апрелда Луизиана (Америка) университетиде симпозиум ўтказилди. Бу анжуманда С. Линц маъруза қилиб, Иккинчи жаҳон урушининг Совет иқтисодиётига таъсири масаласи ғарбнинг советшунос олимлари тадқиқотларида етарли даражада ўз аксини топмаганлигини таъкидлайди[11].

Р.В. Дэвис ва А. Ноуь асарларида 1947 йил совет пул ислохоти жараёнларини талқин этишда, деярли совет олимлари билан бир хил фикрларни илгари сурдилар[12]. Масалан, Р.В. Дэвиснинг таъкидлашча, совет пул ислохоти натижасида аҳоли қўлидаги нақд пул маблағлари билан таклиф этилаётган товар маҳсулотлари баланси тенглашди. А. Ноуь эса совет пул ислохот натижасида белгиланган янги нархлар “реал”дир-деб баҳо беради.

В. Каткофф асарида 1940-1965 йилда совет иқтисодиётнинг аҳволи таҳлил этилиб, унда таъкидланишича, Иккинчи жаҳон урушидан кейинги йилларда совет пули кадрсизланиши ниҳоятда кучайган. Н. Ясни асарида ҳам совет давлатида 1922-1924, 1947 йилги пул ислохотлари таҳлил этилиб, баъзи муаллифларнинг асарларида ушбу ислохотларни таққосланишга уринишлари ноўринлигини асослашга ҳаракат қилади. Чунки совет давлатининг XX асрнинг 20 йиллар ва 40 йилларидаги иқтисодий ҳаёти бир-биридан жиддий фарқ қилади. Ўз ўрнида пул муомаласи ва молиявий соҳада ҳам жиддий тафовутлар мавжуд эди.

Хуллас, муайян давлатнинг иқтисодий ислохоти ва молиявий аҳволи, хусусан, пул муомаласи турли соҳа мутахасисларининг диққат марказидаги масалаларидан бири ҳисобланиб, турли тарихий даврларда ушбу муаммонинг ёритилиши адабиётларда турлича талқин этилди. Россия ва бошқа давлатлари олимлари томонидан ҳам совет пул тизими сиёсати атрофлича ўрганилиб, уларда пул ислохотларининг моҳияти ва унинг оқибатлари тарихий далиллар асосида таҳлил этилган.

#### ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Хлевнюк О.В. Советская экономическая политика на рубеже 1940-1950-х годов и “дело Госплана” // Отечественная история. -2001. -№3. –С. 78;
2. Бородкин Л.И., Дробышевская Т.А. Советская экономика в 1930-1970 гг.: Взгляд из XXI века. Международная конференция в Звенигороде. (22-24 июня 2001 г.). // Экономическая история. Вып. 7. Москва, 2001. С.4.
3. Голанд Ю. Кўрсатилган асар. 92-бет.
4. Гусейнов А.О. Инфляционные процессы в Российской экономике в 50-е годы и денежная реформа 1961 г. // Деп. в ИНИОН. 19.07.1999; Пыжиков А. Военные приоритеты мирного времени: Экономическое развитие СССР в 1945-1953 гг. // Вопросы экономики. -2001. №5;
5. Зубкова Е. Послевоенное общество: политика и повседневность 1945-1953. –М., 2000; С.79-86.
6. Папков С.А. “Последная жертва”: денежная реформа 1947г. // ЭКО. -2001, С.148.
7. Чуднов И.А. Теория и практика денежных реформ в СССР. Автореф....дисс.докт.экон.наук. Москви, 2005.
8. Hazlitt H. Lenin Was Right // Newsweek. -1947. -22 September. Hazlitt H. Must We Subsidize Socialism? // Newsweek. -1947. -24 November. Hazlitt H. Can We Buy Off Communism. // Newsweek. -1947. -15 December. Hazlitt H. A Century of Communism // Newsweek. -1948. -12 January. Hazlitt H. The Marshall Plan: We Cannot Buy Off the Russians // Newsweek. -1948. -26 January.
9. Keep John L.N. Last of the empires. A. history of the Soviet Union 1945-1991. –Oxford, 1995. P.23. Stockolm. Mundell R.A. Reconsideration of the Twentieth Century. Nobel Memorial Prize Lecture 1999, December 8.
10. Linz S.J. World war II and Soviet economic growth 1940-1953 // The impact of World war II on the Soviet Union. – Ed.by Linz S/J/ Rowman and Allanheld Pub. 1985. –P.11.
11. Davies R.W. The development of the Soviet budgetary system. –Cambridge, 1958. Katkoff V. Soviet economy 1940-1965. –Baltimore, 1961. –P.133,240,375. Jasny N. Soviet industrialisation 1928-1952. –Chicago, 1961. -237. Bergson A. The economics of Soviet planning – London, 1964 –P.55. Nove A. An economic history of the USSR. –London, 1969.

УЎК 93/94

#### МОВАРОУННАХРГА ҲАДИС ИЛМИНИНГ КИРИБ КЕЛИШИ ВА РИВОЖЛАНИШИ А.А. Шоназаров, илмий ходим, Имом Бухорий халқаро илмий-тадқиқот маркази, Самарқанд

*Аннотация.* Ушбу мақолада Мовароуннахрга ҳадис илмининг кириб келиши ва ривожланиши ҳақида маълумотлар берилди. Шунингдек, Мовароуннахр заминида ҳадис илмини олиб келган саҳоба ва

тобеинлар ҳам келтирилади. Бу ердаги ҳадис мактабларига асос солган ва ҳадис илмининг ривожланишига беқиёс ҳисса қўшган муҳаддислар ҳақида ҳам сўз боради.

**Калим сўзлар:** Мовароуннаҳр, ҳадис, ровий, муҳаддис, саҳоба, тобеин, саҳих, муснад, тўплам, тадвин.

**Аннотация.** Эта статья предоставляет информацию о проникновении и развитии науки хадисов в Мовароуннахре. Будут также привезены сподвижники и последователи, которые принесли науку хадисов в страну Мовароуннахр. Есть также разговоры об исследователях хадисов, которые основали школы хадисов и внесли неоценимый вклад в развитие науки хадисов.

**Ключевые слова:** Мовароуннахр, хадис, рассказчик, мухаддис, товарищ, последователь, сахих, муснад, сборник, тадвин.

**Abstract.** This article provides information on the penetration and development of the science of hadith in Movarounnahr. Companions and followers who brought the science of hadith to the land of Movarounnahr will also be brought. There is also talk of the hadith scholars who founded the schools of hadith and made an invaluable contribution to the development of the science of hadith.

**Keywords:** Movarounnahr, hadith, narrator, muhaddith, companion, follower, sahih, musnad, collection, tadvin.

Ҳадис илми вужудга келган даврдан бошлаб муҳаддислар илм талабида ўзга юртларга сафар қила бошлади. Мана шу жараён Мовароуннаҳр ерларига ҳадис илмининг кириб келиши ва ривожланиши учун асосий омил бўлиб хизмат қилди. Мовароуннаҳр ҳадис илмининг вакиллари бу минтақага илк кириб келган саҳоба ва тобеинларни минтақадаги илк муҳаддислар қаторида номларини, ривоят қилган хадисларини келтиради.

Абу Ҳафс Насафий Саид ибн Жаноҳ Бухорийнинг “Китобул қибла” асари воситасида Мовароуннаҳрга 674-675 йилда кириб келган тўққиз кишининг номини келтиради. Улар қўйидагилар: Абу Усмон Саид ибн Усмон ибн Аффон, Абу Жаъфар Қусам ибн Аббос, Абул Олия Руфайъ ибн Михрон Раёҳий Басрий, Муҳаммад ибн Восӣ, Бурд (Анас ибн Моликнинг мавлоси), Заҳҳок ибн Музоҳим, Лайс ибн Абу Сулайм, Зиёд ибн Михрон Аздий ва Хулайд ибн Ҳассон Басрий [5: 40-41].

Халифа Муовиянинг Хуросондаги волийси Абу Усмон Саид ибн Усмон ибн Аффон (ваф. 675 йилдан кейин) Мовароуннаҳрга биринчилардан бўлиб кириб келган. Сўнгра Хуросондан Абу Жаъфар Қусам ибн Аббос етиб келиб, Самарқандни фатҳ этишда унга ҳамроҳ бўлган. Мазкур икки киши манбаларда Мовароуннаҳрга илк кирган саҳоба ва тобеинлардан, яъни хадисларни бу ҳудудга олиб келган кишилар сифатида зикр этилади.

Абу Усмон Саид ибн Усмон умавий халифа Муовия ибн Абу Суфённинг Хуросонга тайинлаган волийси бўлиб, у 674-675 йилда Самарқандга қилинган юришда қўшинга раҳбарлик қилди. Абу Ҳафс Насафий Саид ибн Усмоннинг ҳадис илмига алоқадорлигини кўрсатиш мақсадида унинг Марв масжидидаги минбардан туриб хутбада ўз отаси Усмон ибн Аффондан эшитган икки хадисни ривоят қилганини келтиради. Аммо Саид ибн Усмон муҳаддис сифатида ўлкада фаолият олиб бормаган.

Абу Жаъфар Қусам ибн Аббос (ваф. 676 й.) Муовия ибн Абу Суфённинг халифалик даврида Мовароуннаҳрга қилинган юришда Саид ибн Усмон билан бирга қатнашган, Самарқандда вафот этган ва шу ерда дафн этилган [3: 528]. Унинг мақбараси ёнига кейинчалик халқ орасида алоҳида ҳурматга лойиқ кишилар дафн этилган. Жумладан, Самарқандда яшаган Тоҳир ибн Юнус Фоний (ваф. 1125 й.), Самарқандда Қодирхон даврида хатиблик қилган Абу Муҳаммад Абдурахмон ибн Яхё Жикилий (ваф. 1122 й.), Умар ибн Муҳаммад Хаббоз (ваф. 1129 й.) каби муҳаддисларнинг қабрлари Қусам ибн Аббос мозори атрофидан жой олди. Шу жойда Қусам ибн Аббос мадрасасига асос солинди ва бу мадраса кейинчалик муҳим ҳадис марказларидан бирига айланди.

Имом Насафий бу саҳоба ривоят қилган икки хадисни келтиради. Улардан бири: “Фазилат ва адолатни Аллоҳнинг раҳмдил бандаларидан талаб қилинлар, шунда уларнинг паноҳида кун кечирасизлар” [3: 530], маъносидаги ҳадис.

Абул Олия Руфайъ ибн Михрон Раёҳий Басрий (ваф. 712 й.) Абу Бақр Сиддиқ халифалиги даврида исломни қабул қилган. У Саид ибн Усмон билан биргаликда Амударёни биринчилардан бўлиб кечиб ўтган басралик тобеинлардан эди. Бир ривоятга кўра, Абул Олия Жайхун ортида биринчи бўлиб азон айтган. У Умар ибн Хаттоб, Али ибн Абу Толиб, Абдуллоҳ ибн Аббос ва Савбон каби саҳобалардан ҳадис ривоят қилган. Чунончи, у қуйидаги хадисни ривоят қилган: “Ким менга ҳеч кимдан ҳеч нарса сўрамасликка қафолат берса, мен унга жаннатнинг қафолатини бераман” [3: 51].

Абу Ҳафс Насафий ўзининг “Ал-Қанд фи зикри уламои Самарқанд” асарида илк даврда Мовароуннаҳрга кирган ва муҳаддислик фаолиятини олиб борган Балх, Нишопур, Марв, умуман Хуросон ёки Араб мамлакатларидан келган кўплаб кишилар ҳақида хабар беради. Бундан келиб чиқадиги, ҳадис илмининг минтақага кириб келишида ташқи алоқаларнинг ўрни катта бўлган. Бу ердаги муҳаддисларнинг кўпчилиги фақат ҳадис илми билан чекланмай, адаб илми ва шеърят соҳаларида ҳам самарали фаолият юритган. Натижада, бу ўлканинг турли жойларидан буюк муҳаддислар етишиб чиқди.

Шу асрнинг иккинчи ярмига келиб Хуросондаги ҳадис мактаблари орқали Исҳоқ ибн Роҳавайх Марвазий ва Абдуллоҳ ибн Муборак Марвазийнинг (118-181/736-797 й.) ҳамда Абдулҳамид ибн Ҳумайд ибн Наср Абу Муҳаммад Ҳофиз Кешийнинг (170-249/786-863 й.) Мовароуннаҳрлик шогирдларидан маҳаллий ислом уламолари етишиб чиқа бошлади.

Самарқандда мавжуд бўлган ҳадис мактабларининг ҳам ўрни бўлиб, бу ерга илм талабида турли ўлкалардан олим ва талабалар келишган. Самарқандда ҳадис илмининг ривожланиши тарихига назар солинса, бу соҳа анча олдин бошланганлигини кўришимиз мумкин бўлади. Бунга илк ҳадис илми намояндалари сифатида Абу Муқотил Самарқандий, унинг шогирди Абу Бакр Аҳмад ибн Наср Атакий ҳамда унинг икки ўғли – Салм ибн Ҳафс (ваф. 826/1423 й.) ва Умар ибн Ҳафс (ваф. 834/1430 й.) алоҳида зикр этилган [4: 117].

Самарқандда ҳадис илмининг ривожланганлигини ҳамда кўплаб муҳаддисларнинг бу жойда жам бўлиши ҳақидаги фикримизни қуйидаги маълумот ҳам тасдиқлайди.

Абу Жаъфар Муҳаммад ибн Абу Хотим Варроқ Бухорий бундай дейди: “Мен Сулайм ибн Мужоҳиддан эшитдим. У: “Мен Абул Азҳардан эшитганман”, деди. Абул Азҳар: “Самарқандда тўрт юзта муҳаддис етти кун тўпланиб Муҳаммад ибн Исмоил Бухорийни адаштиришга ҳаракат қилдилар. Шомни санадини Ироқни санадига, Ироқни санадини Шомни санадига, Яманни санадини Ҳарамайн (Макка ва Мадина)ни санадига ва Ҳарамайн (Макка ва Мадина)ни санадини Яманни санадига алмаштирдилар. Улар Имом Бухорийни санадда ҳам матнда ҳам бирор хато билан тўхтата олишмади”, деган эди” [2: 34. 7: 12/411]. Имом Бухорий Самарқандга келган вақтда бу шаҳарда бу кишини имтиҳон қилиб, буюк муҳаддис билан тенглаша оладиган ёки тенглашишга ҳаракат қилган тўрт юз муҳаддиснинг бу шаҳарда истиқомат қилишининг ўзи ҳам бу жойда ҳадис илмининг ривожланганлигига ишончли мисол бўла олади.

Илк ҳадис мактабларига асос солиб, ҳадис илмини Мовароуннаҳрда ривож топишига катта ҳисса қўшган машҳур муҳаддис алломалар:

Абдулҳамид ибн Ҳумайд ибн Наср Абу Муҳаммад Ҳофиз Кеший, “Муснад” ҳадис тўплами муаллифи;

Имом Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил Бухорий (810-870 й.), “Ал-Жомий ас-саҳиҳ” ҳадис тўплами муаллифи;

Имом Абу Исо Муҳаммад ибн Савра ибн Мусо Термизий (824-892 й.), “Ас-Сунан” ҳадис тўплами муаллифи;

Имом Ҳофиз Абу Муҳаммад Абдуллоҳ ибн Абдурахмон ибн Баҳром ибн Абдусамад Доримий Самарқандий (181/797-255/869 й.), “Ас-Сунан” ҳадис тўплами муаллифи;

Абу Саид Ҳайсам ибн Кулайб Шоший, “Муснад ал-кабир” ҳадис тўплами муаллифи;

Абу Ҳафс Нажмиддин Умар ибн Муҳаммад Насафий Самарқандий, “Ал-Қанд фи зикри уламои Самарқанд” асарининг муаллифи.

Манбаларда келтирилишича, VIII-асрнинг ўрталаридан XV-асрнинг ўрталаригача Мовароуннаҳрнинг турли шаҳарларида минглаб муҳаддислар ҳадис илми билан шуғулланган. Ушбу гапимизни қуйидаги маълумот ҳам қўллаб-қўвватлайди.

Мовароуннаҳрда VIII-X асрларда жуда кўп муҳаддислар етишиб чиқиб, юрт шаънини дунёга тараннум этишган. Айнан бу даврларда Мовароуннаҳрнинг ўзида 3000 дан ортиқ таниқли муҳаддислар фаолият олиб боришган. Самарқанд, Шош, Кеш, Бухоро ва Насаф шаҳарлари ислом оламидаги нуфузли илм марказлари қаторидан саналган [4: 115].

Кутайба ибн Саъд: “Агар Термизга борсангизлар, Аҳмад ибн Ҳасандан, Кешга борсангизлар, Абд ибн Ҳумайд Кешийдан, Самарқандга борсангизлар, Абдуллоҳ ибн Абдурахмондан ва Шошга борсангизлар, Абдуллоҳ ибн Абу Аробадан ҳадис эшитингизлар, яъни улар айтган ҳадисларни маҳкам тутингизлар”, деди [1: 83].

Ушбу маълумот Термиз, Кеш, Самарқанд ва Шошнинг ўша даврдаги илм-маърифат марказига айланганига ёрқин бир ишорат ҳисобланади. Мазкур шаҳарларда асос солинган ҳадис мактабларидан кўплаб машҳур муҳаддислар етишиб чиққан. Демак, VIII-IX асрларда Мовароуннаҳрнинг Шош, Кеш, Самарқанд, Насаф, Бухоро, Термиз ва бошқа шаҳарлари илм-маърифат марказлари бўлган.

“Китобул ансоб” асарида Мовароуннаҳрдаги ҳадис мактаблари ҳақида: “IX-X асрда Самарқанд вилоятларидан бири Иштихон шаҳрида Аҳмад ибн Ҳишом Навқадакий ҳамда Довуд ибн Амр Рустуғфарий ҳадис мактаблари, Насо шаҳрида Аҳмад ибн Шуайб Насоий мактаби, Хўжандда – Яҳё ибн Фазл Хўжандий ҳадис мактаблари мавжуд бўлган ва улар ўз фаолиятларини олиб борган” [6: 155], деб келтирилган.

Юқоридаги маълумотларга хулоса қиладиган бўлсак, ўрта асрларда Мовароуннаҳр диёрида ўзига хос ҳадис мактабига асос солиниб, ҳадислар матни, санади ва ровийлари тарихи кенг ўрганилган. Шу сабаб, Мовароуннаҳрда ҳадис илми кенг ривожланган. Бунинг натижасида диёримиздан кўплаб муҳаддис, муфассир, фақиҳ ва мутафаккирлар етишиб чиқиб, дунё илм-фан равнақига катта ҳисса қўшган.

## ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Абу Бакр Муҳаммад ибн Абдулгани Бағдодий. Ат-Тақийд ли-маърифати рувотис сунани вал асонид. – Байрут: Дорул кутубил илмия, 1987.
2. Абу Жаъфар Варроқ Бухорий. Шамоили Бухорий. Абу Муовия Байрутий нашри. – Байрут: 2019.
3. Абу Ҳафс Нажмиддин Умар ибн Муҳаммад ибн Аҳмад Насафий. Ал-Қанд фи зикри уламои Самарқанд. – Саудия арабистони қироллиги: Мактабатул кавсар, 1412/1991.
4. Гоя муаллифи: Ш. Умаров. Имом Бухорий таърифи. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2019.
5. Д. Раҳимжонов. Ҳадисшунослик фанидан маърузалар матни. – Тошкент: 2010.
6. Камалиддинов Ш.С. Китобул ансоб. – Тошкент: Фан, 1993.
7. Шамсиддин Муҳаммад ибн Аҳмад ибн Усмон Заҳабий. Сияру аъломин нубало: 25 жилдли. – Байрут: Дору муассасатир рисола, 1992.

УЎК 930.85

**ЎРТА АСРЛАРДА КЕШ-ШАХРИСАБЗ ТАРИХИ ЁЗМА МАНБАЛАРДА  
С.Ж. Шукуров, ўқитувчи, Қариш давлат университети педагогика институти, Қариш**

**Аннотация.** Мазкур мақолада Кеш-Шахрисабз тарихи ёзма манбаларда ҳақида бўлиб унинг пайдо бўлишидан ҳозирга қадар маълумотлар келтирилган бўлиб, ижтимоий-иқтисодий ва маданий марифий ҳаёт тарзи ёритиб берилган

**Калим сўзлар:** Халқ ҳунармандчилиги, археологик экспедициялар, археологик-стратеграфик, сиёсий жараёнлар.

**Аннотация.** В данной статье рассказывается об истории Кеш-Шахрисабза в письменных источниках, и с момента его появления до настоящего времени освещается социально-экономический и культурный уклад жизни

**Ключевые слова:** Народные промыслы, археологические экспедиции, археолого-стратегика, политические процессы.

**Abstract.** This article is about the history of Kesh-Shahrisabz in written sources, and from its appearance to the present time, the socio-economic and cultural life style has been highlighted.

**Keywords:** Folk Crafts, archaeological expeditions, archaeological-strategifik, political processes.

**Кириш. Кеш-Шахрисабз ёзма манбаларда**

Республикамиз мустақиллиги йилларида моддий маданий ва археологик мерос ёдгорликларини ўрганиш ишларига давлат сиёсати сифатида эътибор қаратилди [1]. Бугунги кунга келиб моддий ва маънавий маданият, ижтимоий-иқтисодий, ғоявий ва этник масалаларни ўзида мужассам этган ўтмиш тарихимизни янги илмий қарашлар ва манбаларни янги методологик жиҳатдан илмий таҳлил этиш асосида ўрганиш анъанаси кучайди. Зеро давлатимиз раҳбари таъкидлаб ўтганидек, “Бизнинг ҳавас қилса арзийдиган буюк тарихимиз бор, ҳавас қилса арзийдиган улуг боболаримиз бор, ҳавас қилса арзийдиган бекиёс бойликларимиз бор” [2]. Ушбу сўнмас меросни ўрганиш учун мамлакатимизда жуда катта шароит вужудга келтирилди. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси 2019 йил 21 сентябрда “Археологик тадқиқотларни тубдан такомиллаштириш тўғрисида”ги қарорни қабул қилганди. Қарорга мувофиқ, Ўзбекистон Фанлар академияси тизимида Миллий археология маркази давлат муассасаси шаклида ташкил этилди [3]. Марказнинг асосий вазифаларидан бири республика ҳудудида мавжуд йирик қадимги шаҳарларни очиқ осмон остидаги музейларга айлантиришдан иборат.

Кеш-Шахрисабз шаҳри Ўзбекистоннинг жанубий вилояти бўлиши Қашқадарё воҳасининг юқори қисмида жойлашган бўлиб, бу ҳудудда қадимги даврлардан илк шаҳарсозлик маданияти ва ўзбек давлатчилигининг илк тарихий илдизлари намён бўлган. Кеш-Шахрисабз шаҳри Ўзбекистоннинг жанубий вилояти бўлиши Қашқадарё воҳасининг юқори қисмида жойлашган бўлиб, бу ҳудудда қадимги даврлардан илк шаҳарсозлик маданияти ва ўзбек давлатчилигининг илк тарихий илдизлари намён бўлган. Ўзбекистоннинг энг қадимий шаҳарларидан бири ҳисобланган Кеш-Шахрисабз шаҳри кўпчилик тадқиқотчи олимларнинг фикрларига кўра Ўзбекистоннинг жанубий вилояти ҳисобланган Қашқадарё воҳасида жойлашган. Кеш шаҳри ҳақидаги ёзма манбаларни кўздан кечирар эканмиз, шаҳарнинг минг йиллик тарихи турли давр манбаларида турлича учрайди.

Кеш-Шахрисабз шаҳри тарихи ёзма манбалари икки асосий қисмдан иборат бўлиб, Кеш-Шахрисабзнинг энг қадимги манбалари ва кейинги даврда очилган ва топилган археологик манбалар ҳисобланади.

Биринчи гуруҳга Аҳамонийлар сагратлигидаги Бактр архив ҳужжатлари қиради. Бу манбалар оромий тилида (асоси суғд алифбосида) терига ёзилган. Бу ҳужжатлар Афғонистоннинг шимолий қисмидан топилган [4].

Кеш топоними даставвал Зардушт Каъбасидаги Шопур I (242 – 273) битикларида учрайди. Унда Шопур II ўз давлати чегараларини шу жумладан, Ўрта Осиёдаги Каш, Суғд ва Шош тоғларигача етиб келган чегараларини тасвирлайди. Мил.авв. II асрнинг 2-ярми ва охирида Жанубий Суғд ҳудудида олд

томонида Геракл, орқасида Зевс тасвири акс эттирилган ҳамда суғд афсонаси битилган кумуш тангалар зарб қилинган [5].

Иккита хронологик гуруҳ акс эттирилган ушбу тангалар милоднинг III асрига, Жанубий Суғдда Кангюй Абт(а)т сулоласи ҳукмронлигига чек қўйилган вақтга тўғри келади. Бу Шопур И Шарқни ишғол қилганидан кейин юз берган бўлиши мумкин. Бу “Зардўшт Каъбаси”даги ПҚН ёзувида акс эттирилган бўлиб, унда Каш (Кеш) ушбу сосонийлар шоҳи томонидан ташкил этилган қайта давлат таркибига киргани қайд этилган [6].

Зардўшт Каъбасидаги Шопур I битигида Кеш Македониялик Александр юришлари даврида бу вилоят Наутака деб, мил.авв. I – II асрларда маҳаллий номнинг хитойча бузилган шаклида Су-се деб номланган. Милодий III аср ўрталаридан XVI асрга қадар қўлланилган Каш (Кеш) номи қайд этилган.

Мил.авв. IV – III асрларда Ўрта Осиёга юриш қилган Македониялик Александрнинг солномачилари Бранхитлар шаҳри ҳақида ёзиб қолдирганлар. Академик Э.В. Ртвеладзе Ерқўғон шаҳрини юнон манбаларидаги Бранхитлар шаҳри билан айнанлаштиради [7]. Ўша даврда зарб этилган “бронза давридаги ҳукмдор тасвири”[8] орқали буни изохлашга ҳаракат қилади. III – IV асрлардан то VIII асргача бўлган “Нахшаб” ҳамда “Кеш подшоси” тангалари Ерқўғон шаҳрининг ўша даврда Кеш мулки тасарруфида бўлганлигини кўрсатади [9].

Қадимги юнон муаррихларидан Арриан, Геродот, Плутарх, Квинт Курций Руф, Константин Багрянородний асарларининг чоп этилиши катта аҳамият касб этган эди. Бу асарлар биринчи манба сифатида ўзига хос илмий тасаввур шаклланишига хизмат қилади. Уларда милоддан бурунги даврда Македониялик Искандарнинг Марказий Осиёни истило этиши сабаб, мазлум этилган халқлар, уларнинг ушбу зарблари билан бир қаторда шаҳар ва қишлоқлари, одамлари ҳақида маълумот берилган. Македониялик Александрнинг асосий жанглари Қашқа воҳасида кечган. Искандарнинг ўзи Навток (Наутака) вилояти ва унинг асосий шаҳри бўлган Нахшобда узоқ муддат тўхтаб турган. Искандар тарихини битган қадим Юнон муаррихлари шу муносабат билан бу воҳанинг бир қанча шаҳар ва қишлоқларини тилга олиб ўтганлар. Абул Фазл Байҳақийнинг “Тарих-и Масъуди”[10] (шарқшунослар орасида кўпроқ “Тарих-и Байҳақий” номи билан машҳур бўлган) номли XI аср воқеа-ҳодисаларини қамровчи салмоқли асари чоп этилади.

Абуабр Муҳаммад ибн Жаъфар Наршахийнинг (899 – 959) “Бухоро тарихи” (943 – 944 йилларда ёзилган) номли асарида, асосан, Бухоронинг ўрта асрлардаги тарихи ҳақида ҳикоя қилинсада айни пайтда Мовароуннаҳрда кечган тарихий воқеаларга ҳам ўрин берилган. Чунончи, Суғд, Кеш ва Нахшобдан 120 минг кишилик қўшин йиғилиб, арабларга қарши жангга шайлангани, Кеш ва Нахшобдан катта қўшин тўплани, Қутайбага қарши чиқилгани, Муқанна кўзғолони ва унинг Кеш вилоятида қўллаб – қувватлангани ҳусусида анча батафсил баён этилган [1].

Мамлакатимиз жанубидаги олис ўтмишдан эътиборан вужудга келган маданият ўрта асрлардаёқ олимларга шаҳарлар тарихини яратишга имконият берган. X асрга Насафда етишган муаррих Абу-л-Хорис Асад ибн Ҳамдувайх ал-Варсиний ан-Насафий Насаф ва Кеш тарихига доир “Китоб муфҳарат ахл Насаф ва Кашш”ни яратади. Унинг бу китобидан вақтида араб муаррихлари, хусусан, Самъоний фойдаланган. XI асрнинг иккинчи чораги охирларида яшаган яна бир аллома Абу-л Аббос Жаъфар ибн Муҳаммад ал-Мустаффирий ан-Насафий “Насаф ва Кашш тарихи” деган салмоқли китоб ёзган [11].

Абу Райхон Берунийнинг (973 – 1048) “Қонуни Масъудий” асарида ҳам Кеш шаҳрининг тарихий – географиясига тўхталиб ўтади.

Абу Саъд Абдулкарим ибн Муҳаммад ас-Самонийнинг (1113 – 1167) “Китоб ал-ансоб” қомусий асарида Ўрта Осиё табиати, хўжалиги, шаҳарлари, олим ва фузалолари ҳақида қимматли маълумотлар берилган, Кеш алоҳида вилоят сифатида тавсифланган. Кеш шаҳри Нахшабга нисбатан кичикроқ ва маҳаллий аҳоли шаҳар номини “Кишш” шаклида талаффуз қилади, дейилади [13]. Ушбу асарда Насаф ва Кеш вилоятларидаги 70 дан ортиқ қишлоқлар, қасабалар тилга олинган [11]. Чигатой улусининг ҳукмдори Бурокхон (1265 – 1269) ўғли Бектемурни Кеш ва Нахшабга ҳоким этиб тайинлагани, ўзи эса 1269 йили Эронга муваффақиятсиз юриш қилгани, шунингдек, 1272 йили Абақхон қўшинлари Эрондан Мовароуннаҳрга, жумладан, Кеш ва Нахшабга ҳам чопқин ясаганлари ҳақида ҳам мазкур асарда хабар берилган.

XX аср тадқиқотчи олимлари томонидан ҳам Кеш тарихи тўғрисида бир қатор манбалар мавжуд. Археолог олим А.С. Сагдуллаев Кешни Ҳозирги Китоб ўрнида деб кўрсатади. Кўп тадқиқотчилар Каш топонимини Қашқадарё водийсидаги Кеш билан айнан бир жой деб ҳисоблашади. В.П. Луконин эса бу жой Қошғар бўлиши мумкин деб ҳам тахмин қилади [14].

В.В Бартольд Каш (Кеш) шаҳрининг ҳозирги пайтда Шаҳрисабз деб аталиши, унинг Самарқанд ва Балх савдо йўли бўйида жойлашганлигини қайд этган [15]. В.В. Бартольд Кеш номини маъқул топган, шундан сўнг бу ном илмий адабиётларда кенг қўлланила бошлаган. Ваҳоланки Киш шакли тўғрироқлигига ҳам асослар кам эмас.

**Хулоса.** Юқоридаги фикрлардан ҳам кўриниб турибдики, Қашқадарё воҳаси дунё маданияти тараққиётининг отин белбоғи бўлиши Буюк Ипак Йўлининг энг муҳим нуқталаридан бирида жойлашган. Бу серфайз замин ўзининг бекиёс моддий ва маънавий неъматлари билан машҳурдир.

Кеш-Шаҳрисабз — ўрта асрларда Кеш деб номланган қадимги шаҳар «Дилкаш», «Кубба-тул илм вал-адаб» ташбеҳлари билан эъзозланган бу шаҳар муайян даврларда тақдир тақозоси ила жаҳон тарихидаги баъзан шонли, баъзида эса фожиали муҳим воқеалар марказида бўлиб келди.

Кудратли давлат, буюк иқтисодий-ижтимоий ислохотлар ҳақиқий маънавият заминидида вужудга келади. Тарихий, маданий-маънавий қадриятлар бой меросимизни ўзлаштириш асосида мустақиллик мафкурасининг шаклланиш жараёни ҳам аниқ кўзга ташланиб бормоқда.

Биринчи Президентимиз Ислон Абдуғаниевич Каримов айтганларидек: “Бугун янги ўзбек давлати барпо этар эканмиз, биз тарихдан, аждодлар меросидан, уларнинг руҳи покидан, Туркистон халқларининг қадриятларидан, маънавий меросидан баҳраманд бўлишимиз табиийдир” [16]. Юқоридаги фикрдан ҳам кўриниб турибдики, Ватанимиз тарихи, унинг ҳудудидаги қадимий шаҳарлари тарихини билмай туриб Ватанимиз тарихини, ўзбек давлатчилиги тарихини яратиб бўлмайди. Бу борада Ватанимизда бир қатор ишлар олиб борилмоқдаки, биз бу ишларни кенг кўламда олиб борилаётган археологик ишлар асосида ҳам кўришимиз мумкин. Юқорида келтириб ўтганимиздек Кеш-Шаҳрисабз шаҳри ҳудудида олиб борилган археологик тадқиқот ишлари фикримиз далилидир.

#### ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Мирзиёев Ш.М.: “Ижтимоий барқарорликни таъминлаш, муқаддас динимизнинг софлигини асраш - давр талаби” мавзусидаги анжуманда сўзлаган нутқи // Халқ сўзи, 2017 йил 16 июнь.
2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. - Т.: Ўзбекистон, 2017
3. Халқ сўзи, 2019 йил 23 сентябрь.
4. Франц Грене Новые свидетельства о Нахшабе и Кеше античного периода. // Қарши шаҳрининг жаҳон цивилизацияси тарихидаги ўрни. Тошкент – Қарши, “Фан”, маъруза, 2006, 34 – б.
5. Ртвеладзе Э.Е. Монеты Кеша // История и культура южных районов Средней Азии в древности и средневековье. Т, 1989, с. 40.
6. Қарши. Кичик альбом, Т.: Маънавият, 2006, 19-б.
7. Ртвеладзе Э.В. Этнод по исторической географии Бактрии и Согдианы во время похода Александра Македонского / ВДИ 2000, №4, с. 104 – 112.
8. Кабанов С.К. Нахшебские монеты V – VI вв. // ВДИ. 1961, №1, с. 137 -144.
9. Отахўжаев А. Илк ўрта асрларда (V – VIII) Сўғд мулкида Насаф шаҳри ва вилояти. // Қарши шаҳрининг жаҳон цивилизацияси тарихидаги ўрни. Тошкент – Қарши, “Фан”, маъруза, 2006, 129 –б
10. Бичурин Н.Я. (Иакинф) Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена в 3-х томах, 1950-1953.
11. Равшанов П. Қарши тарихи. Т.: Янги авлод, 2006, 10-40-б.
12. Шаҳрисабз 2700 минг йиллик мерос. Альбом, -Т., Шарқ, 2002, 149-б.
13. Камолиддинов С.Ш. Историческая география Южного Согда и Тохаристана по арабоязычным источникам IX-XIII вв.-Т.: Узбекистан, 1996, с.15.
14. Луконин В.Г. Культура Сасанидского Ирана. М., 1969, с. 126.
15. Бартольд В.В Кеш, соч, Т.: Ш, М., 1965, с.460
16. Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. Т.: Ўзбекистон, 1994, 129-б.
17. Архитектурные памятники Кашкадарьи. Т.: Узбекистан, 1979
18. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Т.:1, М.: Наука, 1963.

УДК 93/94

## ВОПРОСЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ МЕЖДУНАРОДНОГО СОТРУДНИЧЕСТВА В ОБЛАСТИ КУЛЬТУРЫ И ИСКУССТВА

*М.Б. Юлдашева, доц., Государственный институт искусств и культуры Узбекистана, Ташкент*  
*А.Н. Колканатов, магистрант, Государственный институт искусств и культуры Узбекистана, Ташкент*

**Аннотация.** Мақолада маданият ва санъат соҳасидаги давлат сиёсати самарадорлигини ошириши, маданият арбобларини қўллаб-қувватлаш, халқаро ва давлатлараро маданий алоқаларни кенгайтириши, маданият муассасаларининг моддий-техник базасини яхшилаш ва янада ривожлантириши концепсияларини ишлаб чиқиши ва хорижий ҳамкорлар билан тажриба алмашиши масалалари ҳақида сўз боради. Ижодий тадбиркорликнинг мақсади – мамлакат, компания ва ташилотнинг турли соҳаларида муваффақиятга эришиши учун янги гояларни яратиши ва янги ечимларни топиши.

**Калит сўзлар:** ижодкорлик, ижодий бошиқарув, ижодий тадбиркорлик, маданият, санъат, маданий эҳтиёжлар.

**Аннотация.** В статье говорится, о том, что повышение эффективности государственной политики в области культуры и искусства это поддержка деятелей культуры, расширение международных и межгосударственных культурных связей, улучшение материально-технической



базы учреждений культуры, разработкой концепций дальнейшего развития и обменом опытом с зарубежными партнерами. А целью креативного предпринимательства является генерация новых идей и поиск новых решений для достижения успеха страны, фирмы и организации в различных областях.

**Ключевые слова:** креативность, креативный менеджмент, креативное предпринимательство, культура, искусство, культурные потребности.

**Abstract.** The article says that improving the effectiveness of state policy in the field of culture and art is to support cultural figures, expand international and interstate cultural relations, improve the material and technical base of cultural institutions, develop concepts for further development and exchange experience with foreign partners. The goal of creative entrepreneurship is to generate new ideas and find new solutions to achieve the success of the country, company and organization in various fields.

**Keywords:** Creativity, creative management, creative entrepreneurship, culture, art, cultural needs.

Министерство культуры Узбекистана и Фонд развития культуры и искусства при Министерстве активно развивает сотрудничество с международными культурными организациями и благотворительными фондами в сфере культуры и искусства. Фонд занимается повышением эффективности государственной политики в области культуры и искусства, поддерживает деятелей культуры, расширением международных и межгосударственных культурных связей, улучшением материально-технической базы учреждений культуры, разработкой концепций дальнейшего развития и обменом опытом с зарубежными партнерами. Происходит все более активное проникновение творчества из сферы искусства и науки в другие сферы человеческой деятельности. Не стала исключением и сфера управления. В теории управления в последнее время все больше внимания стали уделять проблеме широкого использования креативного потенциала менеджеров и топ-менеджеров предприятия [1].

Во многих институтах и университетах появляются специальные курсы креативного менеджмента и креативного предпринимательства, способствующие развитию навыков инновационных творческих решений в управлении и бизнесе. Так же широкое применение нашли многочисленные курсы и тренинги, которые способствуют усовершенствованию творческого потенциала и помогают научиться находить креативные идеи. Существенные изменения в технологии и конкуренция просто заставляют компании разрабатывать нетрадиционные подходы к решению традиционных задач, искать принципиально новые решения.

**Аннотация.** В статье исследуется автоматический анализ текста, компьютерный текст, который включает в себя ряд сложных операций, выполняемых текстом, и его близость к человеческому языку по заданному алгоритму.

**Ключевые слова:** синтаксический и семантический анализ текста, формальная грамматика, автоматический синтез текста, морфологический анализ.

**Abstract.** The article examines automatic text analysis, computer text, which includes a number of complex operations performed by the text, and its proximity to the human language according to a given algorithm.

**Key words:** syntactic and semantic text analysis, formal grammar, automatic text synthesis, morphological analysis.

**Kirish.** Hozirda vaqtda axborot texnologiyalari har qanday kasbiy faoliyat sohasining, shu jumladan tilshunoslikning ajralmas bir qismidir. Tilshunoslikda axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini o'rganish tegishli bilim sohasining asosiy tushunchalarini bilishni nazarda tutadi, jumladan, tilshunoslik (til, lingvistika, hisoblash lingvistikasi va boshqalar) informatika esa (axborot, algoritm, model va boshqalar) iborat bo'lishi mumkin.

Matnni avtomatik tahlil va sintez qilish nazariyasini rivojlantirish (sun'iy intellektni yaratish uchun lingvistik asoslarni ishlab chiqish) nuqtai nazaridan ham, amaliy ehtiyojlarni amalga oshirish nuqtai nazaridan ham hisoblash tilshunosligining muhim vazifalari hisoblanadi.

Avtomatik holda matnlarni tahlil qilish bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi.

1) **grafik tahlil:** so'zlar, jumlar, paragraflar va matnning boshqa elementlari chegaralarini ajratib ko'rsatish (masalan, gazeta matnidagi yon panellar);

2) **morfologik tahlil:** matnda qo'llanilgan har bir so'zning boshlang'ich shaklini va bu so'zning morfologik belgilari majmuini aniqlash;

3) **tahlil qilish:** grammatik tuzilmani aniqlash matnli jumlar;

4) **semantik tahlil:** iboralarning ma'nosini aniqlash.

Grafik tahlil tokenizatsiya sifatida ham ta'riflanadi (ot angl. token = alohida so'z, ibora yoki matnning boshqa muhim elementi). Har xil turdagi ajratgichlar matn elementlari chegaralarining rasmiy signallari sifatida ishlaydi: bo'shliqlar,

so'zlar orasidagi chegaralar, bosh harflar va tinish belgilari, jumlar va jumalarning tarkibiy qismlari orasidagi chegaralar, ma'noga bog'liq bo'lgan jumlar guruhlari orasidagi chegaralarni bildiruvchi paragraflar va boshqalar. [1]

Biroq, so'z chegaralarini belgilashning rasmiy usuli har doim ham qo'llanilmaydi. Masalan, xitoy tilida tilning rasmiy chegaralari yo'q. Bundan tashqari, umumiy Yevropa tillarida ham bo'shliq bilan ajratilgan turg'un so'z birikmalari mavjud bo'lib, ular bitta leksema sifatida qabul qilinishi kerak, masalan, Nyu-York, shubhasiz, bunday holatlar tizimlarda hisobga olinishi kerak.

Grafematik tahlil, masalan, batafsil tokenlar ro'yxatini yaratish orqali, morfologik tahlilda har biri ishlatiladi va matndagi so'z asl shakliga ko'tariladi va so'zning matn shaklining morfologik xususiyatlari to'plamini aniqlaydi: bular nutq qismi; jins, otlar uchun son va hol, fe'llar uchun so'zlar soni va boshqalar.

Matnda qo'llanilgan har bir so'z so'z shakli (yoki so'z qo'llanishi) deb ataladi. Matnning uyg'unligini ta'minlash uchun bir xil so'zlarning takrorlanishi talab qilinadi, shuning uchun ko'pincha matnning bir yoki bir nechta jumlarining turli xil so'z shakllari bir xil asl shaklga ko'tariladi:

Bu mening qishlog'im;

Mana mening uyim.

Mana men chanada dumalab ketyapman

Tik tog' bo'ylab.

She'ning ushbu parchasi so'z shakllarining alifbo-chastotali lug'ati quyidagicha ko'rinadi: v-1, mana-3, g'am-1, qishloq-1, uy - 1, rulon - 1, tik - 1, mening - 1, meniki - \, tomonidan - 1, turdagi - 1, chana- 1, men- 1. Bu yerda 3 marta qo'llangan o'zgarish zarrachadan tashqari, egalikning egalik o'rini ham qayd etamiz. 1-shaxs birlik raqami, mening va meniki shakllarida ishlatiladi. [1.2]

Bizning odatiy lug'atlarimizda odatda so'z shakllari emas, balki ma'lum va o'xshash shaklga qisqartirilgan so'zlar keltirilgan. Matnda qo'llaniladigan so'z shakllarining shunday boshlang'ich shakli sifatida tilning turiga qarab lemma (leksemaning lug'at shakli) yoki o'zak (morfemalarni o'zgartiruvchi so'zning yadro qismi) qo'llanilishi mumkin. Masalan, swim, swims, swam, va shaklidagi inglizcha so'zlar suzish lemmasiga qaytishni bildiradi.

Boy so'zli flektiv va agglyutinativ tillarda, barcha mumkin bo'lgan so'z shakllarini saqlash uchun o'zgartirish katta xotira resurslarini talab qiladi.

Misol uchun, raqamlarni o'zgartiradigan ruscha ot (2 ta raqam) va holatlar (6 ta holat), 12 ta so'z shakliga ega. Rus fe'li yanada xarakterlanadi, grammatik xususiyatlarning murakkab to'plami va shunga mos ravishda juda ko'p sonli so'z shakllariga ega. Bunday holda, uning asosini so'z ko'tarilayotgan boshlang'ich shakl sifatida ishlatish qulayroqdir.

To'g'ri, morfologik tahlilda "asos" atamasi har doim ham emas kanonik (maktab) grammatikasiga kiritilgan bir xil ma'noga ega. Masalan, so'zda harflar almashinishi (o'tirish- o'tiribman, do'st - do'stlar va hokazo) kelsa, bu hollarda asos (aniqrog'i, kvazi asos yoki mashina asosi) so'z tarkibiga kiradi nafaqat morfemalarni o'zgartiruvchi so'z, balki o'zgaruvchan harflarsiz, ya'ni mos ravishda si # va boshqalar # bo'lishi mumkin.

Asoslarni ta'kidlashning bunday turi stemming deb ataladi, ya'ni turli so'z shakllarining bir kvazis asosga yasalishi. Stemming ba'zi avtomatlashtirilgan vazifalarni hal qilish uchun, masalan, Internetda qidirish uchun juda mos keladi. Shunday qilib, ism fotografiyasi va fotografik sifatlar to'liq yoki to'liq bo'lmagan kvazi-asoslar sifatida fotosuratdan foydalanuvchi so'roviga mos keladi. Qidiruv natijasida foydalanuvchi fotografik portret va portret fotosurati iborasi bilan hujjatlar ro'yxatini oladi. [3.4]

Morfologik tahlil uchun faqat ma'lum so'zning shakllantiruvchi paradigmasi tarkibiga kiradigan barcha so'z shakllari uchun umumiy bo'lgan so'z shaklining boshidan boshlab harflar ketma-ketligi deb tushuniladigan mashina asosi tushun-chasi muhim ahamiyatga ega. Keyingi qadam so'zning nutq qismiga tegishlilikini (nutq qismini teglash) va uning morfologik xususiyatlarini aniqlashdan iborat bo'lib, bu ko'pincha so'zning o'zgartiruvchi elementlarining qatlamlanishi (mashina oxiri) yordamida yuzaga keladi.

Kompyuterning yakuni - shaklni tavsiflovchi elementlar muayyan leksemani anglash va paradigma shaklida ifodalangan bo'ladi. Kompyuter qo'shimchalarining barcha mumkin bo'lgan to'plamlari tipik leksema paradigmasida mustahkamlangan. Bunda, bir tomondan, turli leksema shakllarning tipik paradigmalari (demak, kompyuter oynalari)ning, masalan, ruchka va zarba bo'g'inning, ikkinchi tomondan, leksema shakllarning kompyuter asoslariga mos kelishini kuzatish mumkin, turli tipik paradigmalarga ega bo'lgan holda, yolg'on # leksemalarining mashina bazasining tipik paradigmalarni solishtirish mumkin.

Muayyan tipik paradigmalarga kiritilgan kompyuterning oxiri bo'yicha har bir so'z shaklining to'liq morfologik tavsifi amalga oshiriladi.

Masalan bunday qoidalar quyidagilar:

✓ Agar so'z shakli ham fe'l, ham ot bo'lishi mumkin bo'lsa va oldida artikl bo'lsa, bu holda bu so'z shakli ot hisoblanadi.

✓ Agar so'z shakli ham bosh gap, ham tobe bog'lovchi bo'lsa va undan keyin gap oxirigacha fe'l bo'lmasa, bu holda bu so'z shakli bosh gap hisoblanadi.

Avtomatik morfologik tahlil uchun parserlar qo'llaniladi - so'zlarni avtomatik tahlil qilish uchun maxsus kompyuter dasturlari ish olib boradi.

Morfologiklardan tashqari sintaktik parserlar ham mavjud. gaplarning sintaktik tuzilmalarini avtomatik tahlil qilish uchun ishlatiladi.

Umumiy morfologik tahlil quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi

1) lemmatizatsiya shakliga ega bo'lgan so'z shakllarini normallashtirish, ya'ni turli xil so'z shakllarini qandaydir birlashgan tasvirga - asl shaklga (lemma) yoki o'zak shaklga keltirish, ya'ni turli so'z shakllarini bitta kvazi-o'zakga qisqartirish;

2) nutq qismini belgilash, ya'ni har bir so'z uchun nutq qismini belgilash matndagi shakllar;

3) to'liq morfologik tahlil — so'z shakliga grammatik belgilar berish

**Tahlil qilishda rolni aniqlash** kerak va gapdagi so'zlar va ularning bir-biri bilan munosabati. Avtomatik tahlilning ushbu bosqichining natijasi har bir gapning sintaktik aloqalarini modellar shaklida, masalan, bog'liqliklar daraxti shaklida taqdim etishdir.


Tahlil qilish muammosi tahlil qilish uchun muqobil variantlarning mavjudligi (sintaktik noaniqlik), solishtirish:

uch palto— (qancha?) uchta (qanday?) palto

uch palto— (nima qilish kerak?) uchta (nima?) palto


Sintaktik noaniqlik paydo bo'lishi so'z shakllarining leksik-morfologik yarim noaniqlik (bir xil so'z shakli bir xil leksemaning turli xil boshlang'ich shakllariga yoki turli morfologik shakllariga qaytishi mumkin), shuningdek, tahlil qilish qoidalarining noaniqligi bilan belgilanadi. Sintaktik tuzilmani ifodalashga qaratilgan bo'lishi mumkin, masalan, bevosita komponentlar daraxti yoki tobeliklar daraxti shaklida. Shunday qilib, "Qiz polni yuvadi" jumlasini birinchi holatda 1-rasmda ko'rsatilgan model bilan, ikkinchisida - 2-rasmda tasvirlangan.[4]

To'g'ridan-to'g'ri tarkibiy qismlar modelida sintaktik tuzilmani uning juft elementlariga bo'lish muhimdir: gap (S) sub'ekt guruhiga (NP) bo'linadi, bu holda bitta ot (N) va predikat bilan ifodalanadi. Guruh (VP). Ikkinchi o'zgaruvchan fe'l (V) va qo'shimcha (O) ga bo'linadi. Bog'liqliklar daraxtida tahlilning boshlang'ich nuqtasi grafikning yuqori qismida joylashgan predikat (V) bo'lib, unga sub'ekt (N) va to'ldiruvchi (O) bog'liq bo'ladi. Natijada, x tahlilning har ikkala turida ham tahlilning boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi. bir xil sintaktik birliklar farqlanadi - N, V va O - ular orasidagi sintaktik munosabatlar har xil.



1-rasm. To'g'ridan-to'g'ri tashkil etuvchi daraxti

To'g'ri, ba'zi hollarda bir xil ko'rinadigan sintaktik tuzilma turli sintaktik modellarni qurishni talab qiladi.



Aks ettiruvchi to'g'ri modelni tanlash uchun muayyan gapdagi sintaktik munosabatlar, bunday hollarda semantikani jalb qilish kerak.

**Semantik tahlil**, ehtimol, eng ko'p matni avtomatik tahlil qilishning murakkab yo'nalishi. Bunda matndagi so'zlar o'rtasida semantik munosabatlar o'rnatish, bir tushunchaga aloqador turli lingvistik iboralarni birlashtirish talab etiladi.

Gaplarni semantik tahlil qilish uchun hol grammatikalari va semantik holatlar (valentlik) qo'llaniladi. Bunda gapning semantikasi bosh so'z (fe'l)ning uning semantik faollari bilan bog'lanishlari orqali tasvirlanadi. Masalan, transmit fe'li beruvchi (agent), qabul qiluvchi va uzatish ob'ektining semantik holatlari bilan tavsiflanadi.

Semantik tahlil so'zning ma'nosi elementar semantik birlik emas degan fikrga asoslanadi. U ko'proq elementar ma'nolarga - semantik tilning lug'at birliklariga bo'linadi. Semantik tilning bu birliklari atomlarning bir turi bo'lib, ularning turli xil birikmalaridan "molekulalar" - tabiiy tilning haqiqiy so'zlarining ma'nolari hosil bo'ladi.

Masalan, "o'zim", "kimdir" elementar ma'nolari bo'lsa, "To bor", "majburlash", "to'xtatish", "boshlash" va "yo'q", keyin ularning yordami bilan biz o'zbek tilidagi so'zlarning butun guruhini aniqlashimiz mumkin.

Ham semantik tilning elementi, ham o'zbek tilining so'zlari bo'lgan ettita nomli so'zlardan tashqari, ular orasida quyidagi so'zlar mavjud: 1) egalik qilmoq = "ega bo'lmoq", 2) ega bo'lmoq = "bo'lmoq", 3) ol = "o'zinga ega bo'l", 4) ber = kimgadir ega bo'l". Aynan semantik tahlil barcha lingvistik darajadagi avtomatik tahlildan kelib chiqadigan yarim oila (omonimiya) muammolarini hal qilish imkonini beradi.

✓ Leksik omonimiya: tovush yoki imloning mos kelishi umumiy ma'no elementlariga ega bo'lmagan so'zlar, masalan, qizilcha, yuz va kasallikning turi.

✓ Morfologik omonimiya: shakl va bir xil so'z (leksema)ning mos kelishi, masalan, jins so'zi ot jinsning nominativ va ortirma hollariga mos keladi.

✓ Leksik-morfologik omonimiya (omonimiyaning eng keng tarqalgan turi).

✓ Sintaktik omonimiya: sintaktikning noaniqligi bir nechta talqinlarga ega bo'lgan tuzilma.

Avtomatik sintez - bu izchil matn yaratish jarayoni bo'lib, uning alohida bosqichlari morfologik tahlil bilan bir xil, ammo teskari tartibda qo'llaniladi: avval semantik sintez amalga oshiriladi, keyin sintaktik, morfologik va grafik.[5.6.7]

Semantik sintez - semantik belgi va so'z birikmasidan uning sintaktik tuzilishiga o'tish; sintaktik – so'z birikmasini ifodalovchi so'z shakllarining leksik va grammatik belgilar zanjiriga sintaktik tuzilishidan o'tish; leksiko-morfologik - leksik va grammatik xususiyatlardan haqiqiy so'z shakliga o'tish. So'zning normal shakli va uning parametrlari bo'yicha morfologik sintez paytida dastur mos keladigan so'z shaklini topadi. Grafematik sintez so'zlarni bitta matnga birlashtiradi, kiritilgan matn qismlarining chiqish qismlariga mos kelishini nazorat qiladi.

Ingliz tilidagi yozma dialogni sintez qiluvchi birinchi kompyuter dasturlaridan biri amerikalik olim Jozef Vayzenbaumning Eliza dasturidir.

Dastur minimal lingvistik ma'lumotlarni o'z ichiga oladi:

1) ba'zi barqaror nutq formulalarini amalga oshiradigan kalit so'zlar majmuasi;

2) oldingi gapni umumiy savolga aylantirish qobiliyati [o'sha yerda]. "Eliza" dasturining ishi yosh ayol va uning yaratuvchisi D. Weizenbaum tomonidan 1966 yilda nashr etilgan "Eliza" dasturi o'rtasidagi muloqotning quyidagi parchasi bilan tasvirlangan. Dastur tomonidan modellashtirilgan nusxalar katta harflar bilan yozilgan.

Men are all alike.

IN WHAT WAY?

They're always bugging us about something or other.

CAN YOU THINK OF A SPECIFIC EXAMPLE?

Well, my boyfriend made me come here.

YOUR BOYFRIEND MADE YOU COME HERE

He says I'm depressed much of the time.

I AM SORRY TO HEAR YOU ARE DEPRESSED

It's true. I am unhappy.

DO YOU THINK COMING HERE WILL HELP YOU NOT TO BE

UNHAPPY?

I need some help, that much seems certain

Hozirgi vaqtda tabiiy tilda yozma dialoglarni kompyuterda modellashtirish tizimlarida murakkabroq algoritmlardan foydalaniladi. Xususan, maxsus belgilash tili yaratilgan bo'lib bu sun'iy intellekt AIML (Artificial Intelligence Markup Language), virtual agentlarni (yoki botlarni) yaratishda qo'llaniladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Автоматическая обработка текстов на естественном языке и компьютерная лингвистика: учеб. пособие. М.: МИЭМ, 2011. С.91—97, 106—111.

2. Баранов А.Н. Введение в прикладную лингвистику: учеб. пособие. 3-изд. М.: ЛКИ, 2007. С.20—25.

3. Всеволодова А.В. Компьютерная обработка лингвистических данных: учеб. пособие. 2-изд., испр. М.: Флинта: Наука, 2007. С.50—51, 66—67.

4. Зубов А.В., Зубова И.И. Информационные технологии в лингвистике: учеб. пособие. М.: Академия, 2004. С.33—34.

5. Леонтьева Н.Н. Автоматическое понимание текстов: системы, модели, ресурсы. М.: Академия, 2016.

6. Pulatov A.K., Muhamedova S. Kompyuter lingvistikasi (o'quv qo'llanma). -Toshkent, 2014.

7. Rahimov A. Kompyuter lingvistika asoslari. -Toshkent: Akademnashr, 2011.

UDC 811.111.26

### CONTRASTIVE ANALYSIS OF THE STYLISTIC MEANS OF ANADIPLOSIS IN THE COMPOSITE SENTENCES OF ENGLISH AND UZBEK

*S.E. Eshchonov, lecturer, Uzbek National University, Tashkent*

*Annotatsiya.* Ushbu maqola qo'shma gaplardagi stilistik vosita sifatida anadiplozni o'rganishga qaratilgan. Bundan tashqari, ingliz va o'zbek tillarida stilistik vositalar qarama-qarshi qo'yilgan.

*Kalit so'zlar:* stilistika, strukturaviy-semantik, anadiploz, kontrastiv tahlil.

*Аннотация.* В данной статье основное внимание уделяется изучению анадиплоза как стилистического приема в сложных предложениях. Кроме того, в английском и узбекском языках



*стилистические приемы противопоставлены.*

**Ключевые слова:** *стилистика, структурно-семантическая, анадиплоза, контрастный анализ*

**Abstract.** *This article focuses on the study of anadiplosis as a stylistic device in composite sentences. In addition, the stylistic devices are contrasted in English and Uzbek.*

**Keywords:** *stylistics, structural-semantic, anadiplosis, contrastive analysis.*

During the recent years, it has been gained huge achievements in scientific research and study of composite sentences. Nevertheless, in current time, the syntax of composite sentences is considered to be the most controversial issue of linguistics. [1]

In modern linguistics, there are specific reasons for huge interests in researching communicative units, as well as, studying simple and composite sentences within the range of text. [2]

A study of communicative pragmatic and stylistic features of syntactic units such as simple and composite sentences is still one of the most important problems in General Stylistics, especially Syntactic Stylistics.

Many scientific studies on composite sentences have been conducted, and today's interest in studying these linguistic units and elucidating their structural-semantic, communicative-pragmatic features is growing rapidly. This is because the analysis of most features of composite sentences in languages of various types has not yet been completed, not only in terms of General Linguistics but also in terms of target languages.

As evidence of our opinion we can quote proper Uzbek scientist A. Mamajonov's scientific research. In his scientific work, he drew the main attention to the discovery of the stylistic nature and functional description of the means by which the above names are mentioned, including the stylistics of composite sentences (Mamajonov, 1990, 1992). In other scientific research, for example, I.K.Usarov in the composite sentences of languages of different systems, he managed to give a wide coverage of the structural-semantic and communicative-pragmatic aspects of asyndeton, polysyndeton, antithesis and chiasmus (Usarov, 2004).

In Uzbek linguistics, studying matters of syntactic stylistics, especially, of composite sentences was initially put on the agenda in the scientific works of well-known Uzbek linguist M.A.Askarova and later in A.Shomaksudov, I.Rasulov, R.Kungirov and H.Rustamovs' works.

For the first time in the history of Uzbek linguistics, M.A.Askarova analyzed the matter of syntactic synonyms of composite sentences and explained that synonymous composite sentences differ from each other in terms of their stylistic features. [3] In this work, the scientist emphasized that synonymous relations between composite sentences can be observed in sentences which are peculiar to only one functional style.

Although in Uzbek linguistics syntactic-stylistic devices have not still been examined as an object of specific investigations, a great Uzbek linguist, Professor A.Mamajonov raised urgent problems like synonyms in composite sentences, parallel constructions, antithesis, enumeration, ellipsis, gradation, epiphora, inphora, anaphora which are expressed, for the first time, within composite sentences, and he gave certain solutions very differently and specifically.

While syntactic-stylistic devices have not yet been studied in depth in Uzbek linguistics, Professor A.Mamajonov, a great Uzbek linguist, analyzed devices such as antithesis, anaphora, epiphora and inphora which are expressed by composed sentences, and he was able to explain them systematically. [4]

In Uzbek linguistics there are some syntactic-stylistic devices in composite sentences, such as anaphora, epiphora, compositional structure, repetition, parallel constructions, antithesis, gradation, rhetorical question.

**Anadiplosis** is considered one of the most common, universal tools in stylistic tools. In order for the speaker to have a strong influence on the interlocutor in the process of communication, he seeks to make his communicative-pragmatic provision – purpose, that is, with the help of a stylistic tool “anadiplosis”, with the intention of fully realizing the “anadiplosis cognitive/conceptual semantics”, which is inextricably linked with the need to convey to him or her description of any subject, or phenomenon more attractive.

**Anadiplosis** is a figure of speech which consists in the repetition of the same word at the end of one and at the beginning of the following clauses, sentences.

*“All service ranks the same **with God,***

***With God,** whose puppets, best and worst,*

*Are we.”*

In English:

*“The general who became **a slave. The slave** who became **a gladiator. The gladiator** who defied an emperor”;*

In Uzbek:

*“For the development of the country, it is necessary to create an powerful economy, it is necessary to establish a industry for the development of the economy, it is necessary to bring techniques from abroad to ensure that production”.*

In Russian:

*“The General who became a slave. A slave who became **a Gladiator. Gladiator** who defied the Emperor”* can be examples.

**Anaphora** - is the repetition of the same words, phrases at the beginning of utterance:

*U alla aytmasa, tonglar otmaydi,  
U alla aytmasa, quyosh botmaydi.  
U alla aytmasa, dillarning g'ashin,  
Kulgular yuvmaydi va yo'qotmaydi. (Saida Zunnunova)*

**Epiphora** - is the repetition of the same words at the end of the utterance:

*Bunda bor: harorat, muhabbat, shafqat va mehnat nonini ko'ramiz baham. (G'afur G'ulom) Vaqt hamma narsadan kuchli, deydilar, quyosh, tovush va nur harakatini taajjublanarli tez, deydilar, atom va vodorot quvvatini tengsiz va beqiyos qu drat, deydilar. (Vohid Zohidov)*

**Compositional structure** is a stylistic device based on comparison of different objects:

*Ana o'sha tog'midi, tog' atrofi bog'midi? Bog' yonida uymidi, uy atrofi gulmidi? Gul shoxida bulbulmidi? (Xalq og'zaki ijodidan)*

**Repetition** is a deliberate recurrence of the same word, phrase or a group of words. Repetition is used to express the speaker's emotions and excitement, to make logical emphasis, to call the attention of the reader to the key words of the utterance. — **Bolam, bolajonim, bolaginam**, — *Bahri xolaning butun vujudi titrardi... — Xayr, qizim. Baxtli bo'lgin. Baxtli bo'linglar. ("Saida Zunnunova)*

**Parallel constructions** is a stylistic device based on the use of identical syntactical structures in two or more sentences.

*Tuproq kulgusidan yasharar olam,  
Tuproq yig'isidan quriydi hayot.  
...Onaning orzusi quchmagan baxt yo'q,  
Onaning xayoli to'xtagan vaqt yo'q. (Saida Zunnunova)*

**Antithesis** is a lexico-syntactical stylistic device based on opposition or contrast of ideas, expressed by parallel constructions. For example: They speak like saints and act like devils. It should be noted that antithesis is based on relative opposition, which appears in the context. The main stylistic function of antithesis is to create a contrast in description and thus to emphasize the idea given in the contrast:

*Sen kech turding, lanjsan, senga  
Olam zimiston,  
Men tong bilan turdim, menga  
Borliq nurafshon. (Erkin Vohidov)*

**Gradation** is a syntactical stylistic device based on the arrangement of a number of words, phrases or sentences in an ascending order of importance to express growing emotional tension. In gradation, each successive unit is perceived emotionally stronger than the preceding one.

**Climax:** *Nido bergin qaydasan? Sharpangga quloq tutdim.  
Sirli tushlar ko'rib men, bor dunyoni unutdim.  
Tongda turib nomingga ushbu she'rimni bitdim.  
Dildagi ohim mening, binnchi muhabbatim,  
Yolg'iz ollohim mening, birinchi muhabbatim!*

(Ablulla Oripov)

**Anticlimax:** *Bu nigoh uning oromini buzar, yurak-bag'rini ezar, dadasining yoniga qaytgisi, bo'ynidan quchoqlagisi, unga yaxshi-yaxshi gaplarni aytgisi kelardi. (Saida Zunnunova)*

**Rhetorical question** is a syntactical stylistic device, which contains a statement made in the form of a question. In other words, the sentence, which is an affirmative statement in its logical sense, has the form of an interrogative sentence. Rhetorical questions are close to exclamatory sentences and are used to express various kinds of emotions: doubt, surprise, challenge, etc. Rhetorical questions are usually expressed by complex sentences, in which the subordinate clauses serve as the context.

1. *O'z uyini, o'z Vatanini kim sevmaydi? Ulfating qarg'a bo'lsa, yemishing go'ng, degan gapni kim eshitmagan? (Tursunoy Sodiqova)*

2. *Muhabbat yoritgan uyda ham shuncha —*

*Bemavrid, bemahal o'charmi chiroq?*

*Yaqin y o'liar birdan tusharmi yiroq?*

*Nogahon ochilmay so'larmi g'uncha? (Saida Zunnunova)*

3. *Axir, qaysi yil dehqon uchun yengil kelgan? Qaysi yil osonlik bilan hosil ko'tarilgan? Tabiat hech qachon ehsonlarini osonlikcha hadya etgan emas. (Vohid Zohidov)*

**Asyndeton** is a stylistic device in which deliberate omission of connecting words between the components of a sentence in one sequence in order to give the statement more concise, compact. For example:

*Oypopuk, Oypopuk!.. Buloqdek tiniq, sof inson, tengi yo'q qiz!.. Uni sevmay botarmidi?! U - hayotning o'zi, u - kelajak, bitmas-tuganmas orzular!...( O'lmas Umarbekov)*

*Bu nigoh uning oromini buzar, yurak-bag'rini ezar, dadasining yoniga qaytgisi, bo'ynidan quchoqlagisi, unga yaxshi-yaxshi gaplarni aytgisi kelardi. (Saida Zunnunova)*

The absence of the conjunction "and" before the last word in a row of homogeneous members of a sentence means that this enumeration is not complete.

**Polysyndeton** is the intentional repetition of service components for communication between homogeneous members of a sentence or separate sequences of sentences of different lengths.

For example:

*U irodasi va aqlini yo'qotgan edi va bamisoli o'pqonga tushgan xassimon, o'zini butkul majruh tuyg'ular qo'liga topshirgan edi. (O'ktam Usmonov)*

*Yoki vabo meni olib ketar, Yoki sovuq muzlatib qo'yar, Yoki to'siq peshonamga urar... (Mamatqul Xazratqulov)*

An asyndeton can have a variety of stylistic effects. Compactness, pace, a representation of voice, enhancing the visualization of speech, whipping up expression, dynamism, saturation and disarrangement are the most frequently generated effects. In addition, asyndeton seems to have contrary effects. On the one hand, the technique may be used to create speed or balance. The stylistic device, on the other hand, may cause abruptness and disorder. Furthermore, according to Rossette, the impact that an asyndeton produces can vary depending on the context.

#### REFERENCES:

1. Usarov I.K. The theory of composite sentences and the degree of studying the problems of syntactic stylistics in linguistics// Journal of Critical Reviews. 2020. 485-488 b.
2. Kruchina I.N. Nekotorie tendensii razvitiya sovremennoy teorii slojnogo predlozheniya. – Voprosi yazikoznaniya., 1973.
3. Askarova M.A. Ergash gaplarning sintaktik sinonimikasi masalasi doir. – ToshP'ning ilmiy asarlari. 1963a. T.42, k 1, 257-281 b.
4. Mamajanov A, Kushma gap stilistikasi. – Toshkent, 1990. 111-b.
5. Polysyndeton Rhetorical Devices. (2013). Academic Paper Services-The Insider News. Retrieved March 12, 2017 from <https://essayscam.org/forum/rt/polysyndeton-4107/>
6. Van Gorp, H., Ghesquiere, R., & Delabastita, D. *Lexicon van literaire termen : H.van Gorp, R. Ghesquiere, D. Delabastita, e.a.* 6de dr. Leuven: Wolters.1999.
7. Baldick, C. *The Oxford dictionary of literary terms.* 3rd ed. [Oxford]: Oxford University Press. 2008.
8. Usarov I. K. Problems of general stylistics of composite sentences, AKD. Tashkent, 2004.
9. Khoshimov G. M. Typology of composite sentences in different languages, ADD. Tashkent, 2002.
10. Khoshimov G. M. Principles and methods of typological comparison of composite sentences. Andijan, Khayet, 2016.

UO'K 808.5

#### TILSHUNOSLIKDA DISKURS VA SIYOSIY DISKURS NAZARIYASI N.N.Fayziyeva, tayanch doktorant, O'zbekiston Milliy Universiteti, Toshkent

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada hozirgi kunda ko'plab muzokaralarga sabab bo'lib kelayotgan diskurs masalasi hamda zamonaviy tilshunoslikning yo'nalishlaridan biri hisoblangan siyosiy lingvistik sohasi va tilshunoslikda siyosiy nutq, siyosiy diskurs tushunchalari tahlilga tortilgan bo'lib bu borada tilshunoslikda bayon qilingan fikrlar tadqiqot obyekti sifatida o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** matn, diskurs, siyosiy tilshunoslik, siyosiy diskurs, siyosat, manipulyatsiya.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается проблема дискурса, которая в настоящее время является предметом многочисленных дискуссий, а также тенденции современного языкознания. В области политической лингвистики и языкознания анализируются концепты политической речи и политического дискурса, а в качестве объекта исследования изучаются идеи, высказанные в лингвистике.

**Ключевые слова:** текст, дискурс, политическая лингвистика, политический дискурс, политика, манипуляция.

**Abstract.** This article deals with the problem of discourse, which is currently the subject of numerous discussions, as well as the trends of modern linguistics. In the field of political linguistics and linguistics, the concepts of political speech and political discourse are analyzed, and the ideas expressed in linguistics are studied as an object of study.

**Key words:** text, discourse, political linguistics, political discourse, politics, manipulation.

Hozirgi tarqiy etgan zamonda shuni ko'rishimiz mumkinki, diskurs atamasi nafaqat tilshunoslikda balki jamiyatning boshqa sohalarida ham ko'plab qo'llanilib kelmoqda. Diskurs atamasi nafaqat pragmalingsvistikaning obyekti bo'libgina qolmasdan, balki, siyosat, madaniyatshunoslik, sotsiologiya, pedagogika va shunga o'xshab ko'plab ijtimoiy va iqtisodiy fanlarning o'rganilayotgan tadqiqot obyektlaridan biri bo'lib qolmoqda. Ko'p tilshunos olimlar diskursni (fransuzcha "discourse", inglizcha "discourse", -harakat, uzluksiz almashinish, suhbat, so'zlashish) nutqiy faoliyat jarayoni so'zlashish uslubi kabi mazmunlarda tushuntirishga harakat qiladi. [9,2]. XX asrning 50-yillarida fransuz olimi E.Benvenist nutq ma'daniyati sohasida ish olib borib, fransuz tilshunosligida yangi hisoblangan "diskurs" atamasiga "notiq tomonidan tayinlangan nutq" deb fikr beradi. [1,14] Z. Harris, amerikalik olim esa 1952 yilda o'zining "Discourse analysis" deb nomlangan asarida ushbu "diskurs" atamasini ilk bor tilshunoslik termini sifatida ishlatadi. Diskurs atamasining dastlabki

tahlil bosqichlarida ikkita asosiy ma'no mavjud ekanligini ko'rib chiqishimiz mumkin bo'ladi. Ularning birida tilshunoslikni o'rganishda qo'llaniladigan soha doirasidan tashqaridagi tuzilmalar, u nazariyada konsepsiya bilan aniqlanadigan matn hisoblanadi. [5,19] Shuning uchun ham o'sha davrda "matn tilshunosligi" bilan "diskurs tahlili" atamaları bir-birining o'rniga ishlatilib kelingan. Boshqa ma'noda, u nutq amaliyoti, nutq faoliyati va kommunikativ harakatlar bilan belgilanadigan faoliyat hisoblanadi. V.G. Borbotkoning fikriga ko'ra diskurs-bu tillarning aloqa vositalari-so'zlar, jumlar va ularning uyushmalaridan iborat bo'ib, ularning semantik integral shakllanishiga ega bo'lgan matn hisoblanadi. [8,30] Ya'ni diskurs bu-alloqa holatiga qarab ikki va undan ortiq faol ishtirokchilarning birgalikda amalga oshiradigan aloqasi hisoblanadi.

T.V.Deyk diskurs atamasining rivojlanishiga o'zining katta hissasini qo'shgan va ushbu atamaga quyidagicha ta'rif bergan: "Diskurs- bu barcha ijtimoiy va gumanitar fanlarda keng tarqalgan ilmiy amaliyotning bir qismidir". [2,10] Bundan tashqari u diskursni keng va tor ma'nosini ajratgan. Keng ma'noda, diskurs so'zlovchi va tinglovchi o'rtasida yuzaga keladigan murakkab aloqa vositasi sifatida muloqot deb tushuniladi. Tor ma'noda esa, diskurs qabul qiluvchilar o'rtasidagi aloqa harakatining yakunlangan yoki davom etayotgan "mahsuloti" sifatida belgilanadi. T.B.Ryabovanning ham fikriga ko'ra diskursga ikki xil-keng va tor tomondan fikr yuritishimiz osonroq bo'ladi. Keng ma'noda, diskurs-ma'lum bir sohada ishlatiladigan til hisoblanadi. Har xil diskurslarning har birini o'ziga xos tarzda ajratib ko'rsatish, ijtimoiy talqin qilish uchun o'ziga xos asosiy tushunchalarga ega. Tor ma'noda esa, diskurs ma'lum bir ma'nolardan kelib chiqadigan va nisbatan cheklangan bayonotlar to'plamini o'z ichiga olgan izchil matnni bildiradi va bu ichki mantiq bilan tavsiflanadi. [12,310]

N.V.Zaychikova diskursning uchta asosiy xususiyatini ko'rsatadi: 1) u matn ichiga mahkamlangan; 2) kognitiv asosga ega; 3) mafkuraviy jihatdan belgilangan bo'ladi. Bu uchta xususiyat har qanday turdagi diskurs uchun asosiy hisoblanadi.

E.S.Kubryakova "diskurs" tushunchasini aniqlashga quyidagi yondashuvlarni tasniflaydi: 1) tarkibiy-sintaktik yondashuv: fragment sifatida diskurs matn, ya'ni jumla darajasidan yuqori bo'lgan tushuncha; 2) tarkibiy-stilistik yondashuv: Bu yondashuvda asosan stilistik xususiyatlarga katta e'tibor qaratiladi. Diskurs matndan tashqari aniq bo'lmagan qismlarga bo'linishi, o'z-o'zidan paydo bo'lishi, vaziyat, yuqori kontekst, uslubiy o'ziga xosligi bilan ajralib turadigan og'zaki nutqni tashkil qilish; 3) kommunikativ yondashuv: diskurs xuddi dialogga yoki suhbatga o'xshab nutq faoliyati sifatida (nutq, foydalanish, tilning ishlashi), yoki suhbat sifatida, ya'ni dialogik talaffuzning bir turi sifatida yoki gapirishdan farqli o'laroq, ma'ruzachi nuqtai nazaridan gapirish hisobga olinadi. [10,15]

Diskurs tushunchasini bugungi kunda juda ham ko'plab ishlatilganligini ko'rishimiz mumkin. Ularning eng ko'p ishlatilishi bu siyosiy diskurs hisoblanadi. Siyosiy diskurs-bu har bir narsaning ifodasi bo'lib, u odam va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar majmuasini ifodalaydi. Bunday hodisa, asosan ma'lumot oluvchilarning dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan hisoblanadi. Tilshunos olimlar Z.D.Popova va A.I.Sternin ta'kidlaganidek: "Siyosiy diskursdan foydalanish xuddi sinov toshiga o'xshab, siz turli til guruhlarida madaniy qadriyatlar qanday modellashtirilganini, ijtimoiy tartib qanday targ'ib qilinayotganini, so'zlovchining nutqi jarayonida qanday dunyoning lisoniy tasvirining elementlari ishlatilayotganligini, har bir til jamoasiga xos bo'lgan dunyoning konseptual tasvirini ko'rishimiz mumkin bo'ladi". [11,48] Bundan tashqari siyosiy diskurs masalasi bevosita madaniyat bilan bog'liq tushunchadir. Chunki har bir siyosiy diskursda ma'ruzachi hamda tinglovchi o'z madaniyatiga tegishli so'zlar va so'z birikmalarini ishlatishga va ularning fikrini tushinishga harakat qiladi. Shu sababli siyosiy diskurs nafaqat ma'noga ega (haqiqat bilan bog'liq), balki muhim "bog'lanish" (subyektiv ravishda muayyan guruhlar bilan bog'liq) hamdir. Har xil mavzular o'rtasidagi aloqa diskursda har xil ko'rinishda namoyon bo'ladi: kommunikativ shakllar ularning mazmunini hosil qiladi.

Siyosiy diskurs-bu tegishli matnlar (konsept yoki tushuncha bo'lishidan qat'iy nazar) tomonidan tuzilgan amaliy lingvistik faoliyatning ma'lum bir turi hisoblanadi va uning eng asosiy maqsadi siyosiy jarayonlarga xizmat qiladi. U maxsus lug'at (ma'lum bir mavzu sohasiga tegishli so'zlar va iboralar lug'ati), siyosatning individual tushunchalari o'rtasidagi semantik aloqalar bilan tavsiflanadi. Siyosatga tegishli bo'lgan barcha hodisalar siyosiy diskurs orqali namoyon bo'ladi. Siyosatga oid notiqlik, siyosiy mavzudagi rasmiy matnlar, masalan, farmonlar, qonunlar, qarorlar, siyosatshunoslikka oid ilmiy maqolalar, gazeta va jurnalistik materiallaridan iborat. Ushbu turlarning har biri siyosiy nutqning har birining o'z maqsadlari bor.

Tilshunos hamda boshqa olimlarning siyosiy diskursga bergan ta'rif va mulohazalaridan shuni bilishimiz mumkinki, til va siyosat siyosiy diskursda bir-biri bilan chambarchas bog'liq tushuncha bo'lib, ularning o'rtasidagi munosabatlar haqida turlicha qarashlar mavjud: -agar siyosat faqat nutq orqali namoyon bo'lsa, unda siyosiy diskursni o'rganish, siyosatni tushunish uchun zaruriy shartdir. Chunki siyosatni tushunish uchun, uning tilini tushunishimiz kerak bo'ladi; -har qanday turdagi diskurs...kurash maydonidir. Bu birinchi navbatda dinamik lingvistika ya'ni ijtimoiy ma'nolar ishlab chiqariladigan va boshdan kechiriladigan semantik maydondir. Bu siyosiy diskursga nisbatan eng aniq bo'lgan ta'rifdir, chunki siyosiy faoliyat va siyosiy nutq amaliyoti birinchi navbatda hokimiyat bilan bog'liqdir [6,54]; -diskursning ahamiyati haqidagi savollar ta'rifiga ko'ra u siyosiy jihatdan javob beriladi, chunki aynan diskurs va nutq insonni siyosiy mavjudotga aylantiradi. Insoniyat jamoalari uchun zarur bo'lgan va ularda namoyon bo'lgan faoliyatning barcha shakllari faqat ikki siyosiy tushunchadan iborat bo'lgan: Aristotel "bios politikos" deb atagan narsani tashkil etuvchilar ya'ni harakat (praxis) va nutq

(leksika). Shu ikki tushunchadan qolgan barcha insoniyatga tegishli sohalar o'sadi [3,20]; -til insonning eng kuchli qurolidir. Qurollangan kuchlar odamlarni ko'p yillar, hatto avlodlar davomida bo'yusinish holatida saqlash qobiliyatiga ega. Biroq, faqat kuchli til orqali inson ongini manipulyatsiya qilish va odamlarni o'z maqsadlariga hamkorlik qilishga undash mumkin. Shuning uchun tilni tushunish siyosiy mustaqillikning boshlanishiga aylanadi [4,23];-siyosat-bu lingvistik faoliyat bo'lib, unda til boshqalarni siyosiy masalalar to'g'risida xabardor qilish va ularni muammolar bilan bog'liq harakatlarda ishtirok etishga ishonitirish uchun ishlatiladi.

Diskurs va siyosiy diskurs atamasi bir-biri bilan har doim aloqada bo'ladi va o'rtadagi munosabatlarni tilshunos olim R.Vodak quyidagicha ta'riflaydi: "Diskurs nafaqat mustaqil tadqiqot sohasi bo'libgina qolmasdan, balki, ishlab chiqarish va idrok nazariyalari majmui sifatida tushuniladi". [7,21] Uning bu tarifi bilan oldingi berilgan ta'riflardan kengroq ta'rif berilganligini va bu tushuncha kengaytirilganini ko'rishimiz mumkin. Shunga asoslanib taxmin qilish mumkinki, siyosiy diskurs ishtirokchilari nafaqat siyosatchilar, balki siyosiy aloqalarda ishtirok etuvchi boshqa ishtirokchilar, masalan, jamoatchilik, odamlar, fuqorolar, namoyishchilar, saylovchi va boshqalarni aytishimiz mumkin bo'ladi. Shu bilan bir qatorda R.Vodak siyosiy diskursning quyidagi funksiyalarga ega bo'lishini ishora qiladi:

-Ishontirish funksiyasi; Ma'lumot berish funksiyasi; Bahsli funksiyasi; Ishontiruvchi-funksional; Delimitatsiya (boshqasidan farqli o'laroq); Guruhiy funksiyasi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, siyosiy diskurs ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning ajralmas qismi bo'lib, u murakkab lingvistik birlik, bilim va harakatni shakllantiradi va belgilaydi. Siyosiy diskursni amalga oshirish nafaqat lingvistik vositalar (verbal va noverbal) orqali, balki muloqotning aksiologik formati bilan belgilanadigan ekstalingvistik omillar ham mavjud, shuningdek, nutqning o'zi mavjud bo'lgan sharoitni aniqlaydigan bilim tuzilmalari ham mavjud.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Benveniste E. On Discourse [Text] / E. Benveniste// The Theoretical Essays: Film, Linguistics, Literature. – Manchester: Manchester Univ. Press, 1985.
2. Dijk T. A. van. Discourse, Opinion and Ideologies // Discourse and Ideologies. -Clevedon: Multilingual Matters LTD, 1996. P. 7-37.
3. Dallmayr F.R. Language and politics: Why does language matter in political philosophy? - Notre Dame; L.: Univ. of Notre Dame press, 1984. - XII, 243 p.
4. Green D. Shaping political consciousness: The language of politics in America from McKinley to Reagan. - Ithaca; L.: Cornell Univ. press, 1987. - XII, 277 p.
5. Kress G. Ideological structures in discourse // Handbook of discourse analysis – L. etc., 1985. – Vol.4. – P. 27-42
6. Seidel G. Political discourse analysis // Handbook of discourse analysis. - L. etc., 1985. - Vol. 4. - P. 43-60.
7. Wodak R. Critical Linguistics and Critical Discourse Analysis // Handbook of Pragmatics. Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins Publ. Co., 1994. -P. 30-42.
8. Борботько В.Г. Психологические механизмы речевой регуляции и инспиративная функция языка // Функционирование языка как средства идеологического воздействия. Краснодар: Изд-во КубГУ, 1988. - С.30.
9. Кибрик А.А., Паршин П.Б. Дискурс // Электронная Энциклопедия Кругосвет. <http://www.krugosvet.ru/articles/82/1008254/print.htm>; М., 1993
10. Кубрякова Е.С. О понятиях дискурса и дискурсивного анализа в современной лингвистике // Дискурс, речь, речевая деятельность. – М., 2000. – С. 7-25
11. Попова З.Д. Лексическая система языка / З.Д. Попова, И.А. Стернин. – Воронеж : Изд-во Воронеж. ун-та, 1984. – 148 с.
12. Рябова Т. Б. Политический дискурс как ресурс «создания гендера» в современной России // Личность. Культура. Общество. – М., 2010. Т. VIII. Вып. 4 (32). – С. 307–320.

UO'K 81-13

#### SON KOMPONENTLI ANIQLOVCHILI (ATTRIBUTUV) QO'SHMA SO'ZLARNING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI

*A.J.Jumaniyazov, prof., f.f.n., Urganch Davlat Universiteti, Urganch*  
*N.M.Polvanova, o'qituvchi, Urganch Davlat Universiteti, Urganch*  
*F.I.Allaberganova, o'qituvchi, Urganch Davlat Universiteti, Urganch*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada aniqlovchili (attributiv) qo'shma so'zlar, jumladan, aniqlovchi komponenti son yoki miqdor-daraja, hajm bildiruvchi so'z turkumlari bilan ifodalangan qo'shma so'zlar borasida ayrim fikr mulohazalar bildiriladi.

**Kalit so'zlar:** aniqlovchi, son, komponent, qo'shma, leksik-semantik

**Аннотация.** В данной статье дается некоторое представление об атрибутивных сложных словах, в том числе сложных словах, в которых определяющий компонент представлен рядом слов, обозначающих число или количество, объем.

**Ключевые слова:** определитель, число, компонент, соединение, лексико-семантический

**Abstract.** This article provides some insights into attributive compound words, including compound words in which the defining component is represented by a series of words denoting a number or quantity, a volume.

**Keywords:** determiner, number, component, compound, lexical-semantic

Bunday qo'shma so'zlarning birinchi komponenti sanoq sonlar (*beshbarg, qirqoyoq, mingboshi,*) yoki miqdor, hajm bildiruvchi (*yakkabog', qo'shog'iz, juftso'z, yartiquloq, yarimkalla*) so'zlar bilan ifodalangan bo'ladi. Shu ma'noda ushbu qo'shma so'zlarni 2 guruhga ajratishimiz mumkin:

- 1) Aniqlovchi komponenti son bilan ifodalangan
- 2) Aniqlovchi komponenti miqdor, hajm, daraja bildiruvchi so'zlar bilan ifodalangan qo'shma so'zlar (Umumma'lumki, "Miqdor" – o'lchash, sanash mumkin bo'lgan narsalarning oz-ko'pligi, soni, chamasi. "Daraja" – ish-harakat, xususiyat yoki holatning me'yor, chegarasini anglatadi, ko'pincha aniqlovchilar bilan ishlatiladi. "Hajm" – biror jismning bo'y, en va balandlik jihatidan katta-kichikligi; fazoda egallab turgan o'rni (kub birligi bilan o'lchanadi))

Dastavval, aniqlovchi qismi sanoq son bilan ifodalangan qo'shma so'zlarga to'xtalamiz. Bunda, odatda, sonlar anglatayotgan ma'nosiga nisbatan aynan (nomlanayotgan songa teng), kamaytirilgan holda, oshirilib yoki ko'chma holatlarda uchraydi.

**Son miqdori va nomi ayni bo'lgan qo'shma so'zlar.** Bunday qo'shma so'zlarda son aniqlovchi vazifasida keladi va son orqali bildirilayotgan ma'lumot nazarda tutilgan yohud e'tibor qaratilayotgan narsa va hodisa haddi bilan ayni yoki barobar bo'ladi. Masalan, *beshburchak* - ta'kidlanayaptiki nomlanayotgan chizma(narsa)da burchak 5 ta, ortiqcha ham emas, kam ham emas. Analog misol sifatida *beshbarg* (yaprog'i 5 ta), *sakkizoyoq* (oyog'i 8 ta), *uchovlon* (3ta og'-ini), *beshkashta* (5 ta kashtasi bor) kabi qo'shma so'zlarni nomlash mumkin. Inventarimizda bu kabi so'zlardan 164 tasi bor. Bunday qo'shma so'zlar kundalik hayotimizning barcha jabhalarida uchraydi va ko'pchilik tillarga xos, ishimizdagi misollar ingliz tilidan olingan:

**O'zbek tilidan misollar:** *uchburchak, to'rtburchak, beshburchak, oltiburchak, ikkiolon, uchovlon, to'rtovlon...*

**Ingliz tilidan misollar:** *five-stones, three-wheeler, two-handed, two-seater, one-horse...*

**Son orqali hajm yoki miqdor darajasi kamaytiriladigan qo'shma so'zlar.** Songa e'tibor berilmaydi, ko'zda tutilgan had, narsalarning soni muloqotda inobatga olib o'tirilmaydi, suhbatdoshlar uchun ko'plik va ozlik ro'l o'ynamaydi. Muloqotda nazarda tutilgan narsa va hodisaning soni yoki haddi, mohiyatiga e'tibor berilmaydi, ahamiyatsiz qoldiriladi. Mazkur hodisa ko'pincha sonlar orqali berilayotgan xabarning (son anglatayotgan til birliklarining) ko'chma ma'nolariga xosdir. Misol sifatida *birtyin, beshurug'* qo'shma so'zlarini keltirish mumkin.

Misollar: -Biz yashagan davrlarda kichik daftar yoki bir quti gugurtning bahosi birtyin edi.

- Barcha qilgan mehnatlarim birtyin bo'ldi.

Keyingi paytlarda qishloq xo'jalik ishlari, dehqonchilikda *beshurug'* so'zi ko'p uchramoqda. *Beshurug'* nomi bilan qovun yoki tarvuzning urug'i kam lekin aynan besh emas (yuzlagan bo'lishi mumkin) bo'lgan turi tushuniladi.

(Ms: "-Beshurug' farg'ona vodiysida ko'proq ekiladi." (*Qomus info. Online ensiklopediyasi*))

**Sanoq son orqali narsa va hodisa miqdori realikka(boriga) nisbatan oshirilib ko'rsatiladigan qo'shma so'zlar.** Bunday qo'shma so'zlarda nomlanayotgan son mubolag'a qilinadi. Misol sifatida *qirgo'rim, qirqkokil, mingoyoq, qirqoyoq* so'zlarini keltirishimiz mumkin. Chunonchi, qirgo'rimda soch o'rimlari o'n tadan ohsa o'rimning ko'pligi qirq soni bilan atalaveradi, qirq qirqni bildirmaydi. Mingoyoq qo'shma so'zi orqali olinayotga ma'lumot ham hasharotning mingta oyog'i borligini ko'rsatmaydi. Oyoqlar sonining bir qarashda nechta ekanligi anglanilmasa, nisbatan ko'p bo'lsa, taxminan yigirma tadan ohsa mingoyoq deb aytilaveradi. Og'zaki nutqdan quyidagi misollarni keltirishimiz mumkin: *mingmehmon, mingchinor, qirgugujum...* Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, ushbu so'zlar tilimizda ba'zan qo'shib ba'zan ajratib yoziladi va buning natijasida ularning qo'shma so'z yoki so'z birikmasi ekanligini anglash mushkul kechadi. Bunday holatlar tilshunoslikning stilistika sohasida ko'p uchraydi, ular mubolag'a (giperbola) deb nomlanadi. Yuz marta aytmoq, ming marta ta'kidlamoq, million marta takrorlamoq, birpiyola choyga taklif qilmoq, biro g'iz gap aytmq iboralarida so'z birikmasi sifatida qo'llanilganligi sabab bu misollar tahlilga tortilmadi.

Ms: "- *Qirqkokil qizchani chehrasi misol*

*Quyosh ham beg'ubor, ko'k-tiniq, toza*

*Gohida bulutlar suzar erinib*

*Horg'in yo'lovchiday shoshilmay sira"*

(*Abdug'ofur Mamatov*)

"-Biz mingoyoq, kaltakesak.. va turli qo'ng'izlardan kolleksiya tuzdik."

(*"O'zbek tili" darsligi*)

**Sanoq son va hajm bildiruvchi so'z ko'chma ma'noda ishlatiladi.** Qo'shma so'z tarkibidagi son yoki miqdor bildiruvchi komponent o'zi anglatayotgan yakka narsani nomlamaydi va o'zining tub ma'nosini anglatmaydi ma'no ko'chishi yuz beradi. Birinchi komponentning ma'nosi (son, miqdor) ikkinchi komponent (narsa, hodisa) ma'nosi bilan mushtaraklashib uchinchi bir narsa va hodisa ifodalanadi, ma'no ko'chishi yuz beradi. Masalan, *birpul* – bu yerda ko'zda tutilayotgan narsani hatto bir so'mga ham teng emasligi, hech narsaga arziyasligi nazarda tutiladi. *Birpul* so'zi aslida so'zlashuv tiliga xos bo'lgan muqim til birligidir, biroq eski

zamonlarda birpul deganda nazarda faqat 1 so'm tushunilgan (ma'nodosh), chunki undan katta so'm kupyura muomalada yo'q bolgan.

Ms: -“Tuya birpul, qani birpul

Tuya ming pul, qani tuya

“- Yonimda birpulim ham yo'q”

Hozirda esa muomalada pullar qiymat jihatidan rangbarangligi sababli birpul deganda qaysi qiymat tushunilishi noma'lum. Birpul deganda assotsiativ tarzda 1 so'mga ishora qilinadi xolos. 1 so'm deganda bitta so'm tushuniladi lekin birpul deganda bitta pul tushunilmaydi. Biroq rivoyatlarda birpul qo'shma so'zi uchraydi:

- “*Birpul* berib yig'latdim, mingpul berib tindirdim” (ayni ma'nosida)

- “Turdi g'ilay olti yillik toat-ibodatini *birpul* qildi”(ko'chma ma'noda)

Kezi kelganda aytish joizki, birpul atamasiga O'zbek tilining izohli lug'atda qo'shma so'z sifatida izoh berilmagan, biroq “bir” so'zi izohli lug'atda “1) 1 raqami va shu raqam bilan ifodalangan eng kichik son, miqdor; 2) hisob, miqdor, o'lcham, chama ma'nolarini anglatuvchi so'zlar bilan kelib, predmetning miqdorini, o'lchamini anglatadi,” – deb izohlangan. “Pul” so'zi esa “oldi-sotdi yoki to'lov muomalalarida narx, baho, qiymat o'lchovi bo'lgan metal yoki qog'oz belgi, aqcha,”-deya ta'riflangan.

Yuqorida keltirilgan misollarni inobatga olgan holda shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, “birpul” atamasining a)bir so'm; b)hech narsa; c)vosita ma'nolarini anglatadi.

O'zbek tilida birinchi komponenti son bilan ifodalangan qo'shma so'zlarni o'rganar ekanmiz, bu borada shu turdagi qo'shma so'zlar ingliz tilida qanday guruhlariga bo'linishi mumkinligi haqida ham qiziqdik. Izlanishlar natijasi shuni ko'rsatdiki, o'zbek tilida son komponentli qo'shma so'zlar 4 turga bo'lingan bo'lsa ingliz tilida ushbu guruhlar soni 2 tani tashkil etadi. Ya'ni ingliz tilida faqat “son miqdori va nomi ayni bo'lgan qo'shma so'zlar” hamda “sanoq son va hajm bildiruvchi so'z ko'chma ma'noda ishlatiladigan qo'shma so'zlar”ni farqlash mumkin.

Son miqdori va nomi ayni bo'lgan qo'shma so'zlarga misollar:

-*Two-seater* - a vehicle or piece of furniture with seats for only 2 people.

-*Three-day event* - (n) a sport event lasting three days in which people ride horses in various competition

-*Three-wheeler* - (n) a vehicle that has three wheels, especially motorcycle, tricycle.

Sanoq son va hajm bildiruvchi so'z ko'chma ma'noda ishlatiladigan qo'shma so'zlarga misollar:

-*Two-bit* - not very good or not important (Am.Eng.-Informal)

-*Two-star* - a two-star hotel is of an average standard

-*Four-eyes* - (impolite) an insulting word for someone who wear glasses

Quyidagi chizmada har ikkala tildagi son komponentli qo'shma so'zlarning turlari va ularga misollar yaqqolroq tasvirlashga harakat qilamiz:

№		O'zbek tilida	Ingliz tilida
1	Son miqdori va nomi ayni bo'lgan qo'shma so'zlar.	<i>uchburchak, to'rtburchak, beshburchak, oltiburchak, ikkiyovlon, uchovlon, to'rtovlon, sakkizoyoq, beshkashta</i>	<i>five-stones, three-wheeler, two-handed, two-seater, one-horse</i>
2	Son orqali hajm yoki miqdor darajasi kamaytiriladigan qo'shma so'zlar.	<i>birtyin, beshurug'</i>	—
**Conclusion.** This means that the more a society needs a language, the more important it is for a language to have a society. The position and development of a language depends on its circulation and its ability to serve as a means of communication. In addition to the above issues, the sociolinguistics of language in every member of society also pays great attention to the study of the speech characteristics of women, men, adolescents, school and kindergarten children. Achievements in sociolinguistics show that languages affect each other not only

lexically, but also the internal structure of each other. Accordingly, in modern linguistics, the concept of "the process of interaction of the internal structure of languages" is formed. The development of international relations lays the groundwork for the rapprochement of the cultures of the peoples and nations living in those countries, as a result of which languages interact, which in turn ensures the internal development of languages.

#### REFERENCES:

1. Baskakov N.A., Sodiqov A.S., Abduazizov A.A. General linguistics T., 1979.
2. Hojiev A.P. A concise dictionary of linguistic terms. -T: 2001.
3. Loya Ya. V. History of linguistic studies. M., 1968.
4. Normurodov R. Sociolinguistics (Methodological manual). Termiz 2004, 62 pages.
5. Muminov S.M. Socio-linguistic features of Uzbek communication behavior. DD.-T.2000.
6. Usmonov S. General Linguistics. T., 1972.
7. www.ziyonet.uz

УЎТ:81-26

### INGLIZ TILI ADBIYOTIDA EPITETDAN FOYDALANISHNING ADABIY QIRRASI

*Z.F. Shukurova, assistent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Toshkent*

**Annotasiya.** Ushbu maqola epitetning ingliz adabiyotida stilistik vosita sifatida hissiyoti va uning she'riyatdagi tahliliga bag'ishlangan. Epitet o'rin, narsa yoki shaxsga rang berish orqali xarakterlovchi sifatlash va so'z birikmasidir va shu narsaning belgilarini yanada ko'proq namoyon etishga yordam beradi va ingliz adabiyotida epitetdan foydalanishning ahamiyatini belgilaydi. Ushbu maqolada shuningdek, ko'plab samarali ma'lumotlarni o'z ishiga olgan ba'zi taniqli olimlarning nazariyasida epitetning tasnifiga urg'u qaratiladi.

**Kalit so'zlar:** epitet, stilistik vosita, sifatlash so'z, ko'proq rang, ko'chma ma'no, tavsiflovchi termin.

**Аннотация.** Данная статья посвящена анализу эпитета как стилистического приема в англоязычной литературе и его эмотивность в поэзии. Уточняется, что эпитет-прилагательное словосочетание, которое характеризует место, вещь или человека, придавая ему цвет, помогает сделать характеристики этой вещи более заметными и определяет важность использования эпитета в англоязычной литературе. В этой статье также подчеркивается классификация эпитетов в теории некоторых выдающихся ученых, которая может дать много продуктивной информации.

**Ключевые слова:** эпитет, стилистический прием, красочное словосочетание, больше цвета, переносное значение, описательный термин.

**Abstract.** This article is devoted to analysis of epithet as a stylistic device in English literature and its emotiveness in poetry. It is clarified that epithet adjectival phrase that characterizes a place, a thing, or a person by giving a color to it that assists to make the characteristics of this thing more prominent and determines the importance of utilizing the epithet in English literature. This article also emphasizes the classification of epithet in some outstanding scholars' theory which can give lots of productive information.

**Key words:** epithet, stylistic device, adjectival phrase, more color, figurative meaning, descriptive term.

Kirish. Hozirgi kunda ingliz va o'zbek tillarida rang-baranglik va sifatni ifodalovchi epitetlarning o'rnini har ikki til uchun juda muhim. Bunday janrlarga qadim zamonlardan to hozirgi kungacha shakllangan uzoq davr kiradi. Epitetlar ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan noyob meroslardan biridir. Ma'lumki, aksariyat stilistik vositalar har qanday mavzuga asoslanadi, nafaqat xatti-harakat, narsa, iqlim balki do'stlik, tabiat go'zalligi va oshiq bo'lishi mumkin. Azaldan, rivojlanayotgan epitetlar va stilistik vositalar biror shaxs tomonidan ishlab chiqilmagan, ularni mahalliy odamlar og'izdan-og'izga aytib kelishgan. Bir muncha vaqt o'tgach, ular qadimda Aristotel, Kvintilian va boshqalar faqat bitta nom ostida ishlab chiqqan boshlagan.

Epithet - joy, narsa yoki shaxsni tasvirlovchi yoki biror narsaning xususiyatlarini yanada ko'proq namoyon etishga yordam beradigan sifatlash iboradir. Bu tasvirlovchi iboralar notiqqa foyda keltiradigan ijobiy yoki salbiy ma'noda ishlatilishi mumkin. Epitet qadimgi asrlardan beri o'rganilgan va u haqida ko'plab tadqiqotlar va ma'lumotlar to'plangan. Bu so'z birinchi bo'lib Aristotel va Kvintilian asarlarida qo'llanilgan. Aristotel epitet metaforaga o'xshash stilistik vosita ekanligini ta'kidlagan. Agar kimdir metafora ishlatasa, u so'zni asosiy ma'nosidan biroz farq qiladigan tarzda ishlatgan. Metaforalar og'zaki ingliz tiliga qaraganda yozma ravishda keng tarqalgan va ko'pincha juda she'riy ko'rinishga ega bo'lgan.

Maqolaning dolzarbligi. Ingliz tilidagi epitetlar tasvirlanayotgan narsani o'zgacha ifodalash xususiyatiga ega. Epitetning ma'nolari barcha tillarda har xil bo'lishi mumkin va ularning barchasida ulardan foydalanishning g'ayrioddiy usuli mavjud. Stilistika va she'riyatning eng mashhur atamasi epitetdir. Epitet yunon tilidan olingan bo'lib, "odatda she'riyat va stilistikada uning o'rniga ishlatiladigan iboraga qo'shilgan sifat" degan ma'noni anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, u tasvirlanayotgan narsani chiroyli va uning sifatlarini yaqqolroq tarzda ifodalash yoki tasvirlashga yordam beradi. Epitet tasvirlanayotgan narsaga ko'proq rang, uslub va go'zallik beradi. Shuning uchun, epitet stilistik tushunchalarning eng muhim va etakchi atamalaridan biri. Epitet narsaning,

shaxsning, hodisaning yoki fikrning ayrim xususiyatlarini, sifatini ta'kidlaydigan stilistik vosita sifatida qaraladi. Uning vazifasi yozuvchining tasvirlangan narsaga, shaxsga yoki g'oyaga baholovchi sub'ektiv munosabatini ochib berishdir. Shunday ekan, epitetlar ham belgilarning o'xshashligiga, ob'ektlarning yaqinligiga va mos ravishda ularni taqqoslashga asoslanishi mumkin. Epitet biror narsani tasvirlash uchun ishlatiladigan va o'quvchiga ob'ektning ba'zi xususiyatlari yoki belgilarini ko'rsatish uchun aniqlovchi so'z, ibora yoki hatto jumladagi mantiqiy va hissiy ma'noning o'zaro ta'siriga asoslanishi mumkin.

Ko'pgina taniqli filologlar epitetni ranglarning xilma-xilligi sifatida o'rganishgan, masalan, F.I. Buslaev, A.N. Veselovskiy, A.A. Potebnya, V.M. Jirmunskiy, B.V. Tomashevskiy va boshqalar. Ingliz she'riyati ularning jasur va aqlli qirollari va go'zal malikalarini tasvirlash uchun epitetlarga juda bo'ydir, bu ism yoki ismga hamroh bo'lgan yoki uning o'rnida yuzaga keladigan va umumiy foydalanishga kirgan tasvirovchi atama va uni ulug'langan taxallus deb ta'riflash mumkin. Asosan, ingliz tilidagi epitetlar biror narsani chiroyli va hissiy tarzda tasvirlaydi; ko'pincha tabiatning go'zalligi ifodalanadi; ular so'zni uning asosiy tasviridan biroz farq qiladigan tarzda qo'llashadi; o'z sevishganlarini takrorlab bo'lmaydigan, o'ziga xos va ta'sirchan tarzda tasvirlaydi. Misol uchun, Bayron she'rlarida qo'llangan epitetlar metaforik, metonimik va kinoyali va u ko'rish, eshitish, hidlash kabi hissiy funksiyalarimiz bilan narsalarni tasvirlaydi.

Maqolaning mazmuni. Epitetlar ko'pincha sifatlar bilan ifodalangan rang-barang ta'riflardir. Bu atamaning qat'iy ma'nosi faqat epitetlarga tegishli bo'lib, ular ba'zida majoziy ma'noda qo'llanilishi ham mumkin, masalan quyidagi misollarda ko'rishimiz mumkin (oltin kuz, ko'z yoshi bo'yalgan derazalar). Bu misollar majoziy vazifani bajaradi va aniq epitetlardan o'zgacha ifodalanishi bilan farq qiladi. Sifatlovchi-epitetlar to'ldiruvchi, qiyosiy ma'no beruvchi va o'ziga xos tasvirlovchi vazifasini o'taydi (Sevimli, mehribon, qari, mayin! G'amgin fikrlar bilan do'stlasholmaysiz) kabi misollarda ko'rishimiz mumkin. Aksariyat epitetlar biror narsani ifodalaydi, ammo harakatlarni majoziy ma'noda tasvirlaydiganlar ham mavjud. Bunda ish-harakat og'zaki ot bilan ko'rsatilgan bo'lsa, epitet sifatdosh bilan ifodalanadi (og'ir bulut harakati, yomg'irning uyqu shovqini), epitet sifatida predmetning majoziy xususiyatini beruvchi ibora, sifatdoshlar rolini o'ynaydigan otlar ham ishlatilishi mumkin (Shoir - dunyoning aks-sadosi, nafaqat - uning ruhining hamshirasi) kabi misollar bunga yaqqol mos keladi.

Biroq, Kvintilian epitetni ikkiga ajratadi: shoirlar ishlatadigan epitet va notiqlar ishlatadigan epitet. U shoirlar epitetni tez-tez ishlatib turishini va u tasvirlangan so'zning asosiy ma'nosidan biroz boshqacha qo'llanilishini, lekin notiq nutqida epitet o'sha so'z ma'nosida, hech qanday mubolag'ali so'zsiz bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Bu borada, A.A. Potebnya va uning izdoshlari D.N. Ovsyaniko-Kulikovskiy, A.A. Zelenetskiylar epitetni rivojlantirish uchun juda ko'p harakat qilishgan. Epitet rivojiga rus shoirlaridan V.G. Gak, Gumboldt, I.V. Arnold, I.R. Galperin, Panasenko va A.N. Veselovskiy, V.M. Jirmunskiylar ham o'z hissalarini qo'shgan.

Yana bir filolog A. Veselovskiy rang va yorug'likning fiziologik idroki aqliy tuyg'ular bilan bog'liq bo'lgan ranglarning milliy ramziyligini ta'kidladi (yashil - yangi, tiniq, yosh, oq - orzu qilingan, engil, quvonchli). Bunday misollar esa shoirning epitet borasidagi ulkan mahoratini ko'rsatadi. Matnda o'zining bevosita ma'nosini saqlab qolgan so'zlar bilan ifodalangan ta'riflarni so'zlarga bog'lab bo'lmaydi, lekin bu ularning estetik vazifani bajara olmaydi va kuchli vizual vosita bo'la olmaydi, degani emas. Masalan: (Ko'kda, kesilgan muz quyoshni o'ynaydi; Ko'chalarda iflos qor eriydi -P.), bu aniq epitetlar ifodasi bo'yicha rassom erta bahorni tasvirlashda qo'llashi mumkin bo'lgan har qanday metaforadan qolishmaydi. Yorqin tasvirlar ko'pincha nutqiy rang epitetlarini beradi (pushti bulutlar, xira-tiniq ko'k rang, yorug'likning och oltin dog'lari - A.) va ularning kuchli ifodasini namoyon etadi.

Epitetning ingliz she'riyatning eng samarali usuli, deb shubhasiz aytishimiz mumkin. O. Veselovskiy epitet tarixi poetik uslubning qisqartirilgan turi ekanligini ta'kidlagan. V.M. Jirmunskiy fikricha, epitet stilistikaning muhim omili bo'lib, u boshqa belgilar orasidan eng kerakli belgilarni tanlashga yordam beradi va shoirning poetik fazilatlarini namoyon etadi, deya ta'kidlagan. Narsaning sifatini, rangini, hajmini, shakli, ta'mini va holatini ifodalovchi so'zlar ingliz va o'zbek tillarida ham taqqoslash sifatida qaraladi, bir narsadan ikkinchisiga o'tadi va uning asosiy ma'nolari bilan bir oz farq qiladi. Narsalar tasvirining go'zalligini oshirish maqsadida bu stilistik vositadan ko'proq va samarali qo'llaniladi va barcha o'quvchilar e'tiborini tortishiga ko'mak beradi.

Epitetning o'zbek she'riyatidagi o'rnini haqida gapiradigan bo'lsak, o'zbek mumtoz adabiyoti ingliz she'riyatidan epitet qo'llash uslubi bilan ajralib turadi. Masalan, o'zbek she'riyatida asosan Tangriga bo'lgan ilohiy ishq; xudo "yor", "gul" sifatida tasvirlangan. Mashrab, A. Navoiy g'azallarida asosan quyidagi so'zlar: "sharob", "gul", "sevgi", "yurak", "may" so'zlari tez-tez ishlatiladi; xudoga bo'lgan muhabbat ularning asosiy mazmunidir; ular odamlarning orzu va istaklarini ham tasvirlaydi; lirik qahramon xudoga bo'lgan muhabbatini go'zal epitetik iboralar bilan ifodalaydi. Hozirgi kunda, o'zbek tiliga nisbatan chet tillarini o'rganish ancha samarali, chunki chet tillari haqidagi tushunchalarni solishtirmasdan tushunish qandaydir tushunarsiz bo'lar edi. Masalan, qiyoslash darajasi, bundan qiyosiy va ustun darajalarni o'rganish muhim bo'lib bormoqda.

Xulosa. Biror narsani hayajonli va chiroyli tasvirlash uchun she'riyatda epitet muhim rol o'ynaydi. She'riy epitet ko'pincha odamlarning fazilatlarini yanada serqirra va jozibali tasvirlashga yordam beradi. Masalan, ingliz tilidagi epitetlar va o'zbek tilidagi sifatlashlar aslida o'xshash emas va turli ta'riflarga ega. Quyidagini aytish joizki, epitet turli xil tasniflarni taklif qilinishi bilan birga, turli nuqtai nazardan o'rganiladi. Stilistika nuqtai

nazaridan epitetlarni umumiy til (qattiq sukunat, chaqmoq chaqqon yechim) va individual mualliflik (sovuq dahshat, beparvolik, sovuq xushmuomalalik - A.), xalq-poetik (qizil qiz, yaxshi yigit) deb ajratish mumkin, chunki ular bilan so'z birikmalari tilda barqaror xususiyatga ega.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Aristotle (1908–1952). The Works of Aristotle Translated into English under the Editorship of W. D. Ross, 12 vols. Oxford: Clarendon Press.
2. Арнольд И.В. Стилистика. Современный английский язык: М.: Флинта: Наука, 2012. – 384 с.
3. Потебня А. А. Эстетика и поэтика. — М.: Искусство, 1996.-613 с.
4. Жирмунский В. М. «О некоторых вопросах еврейской диалектографии», в кн.: Язык и мышление, т. 9, Минск, 2010.
5. The analysis of Byron's poetry in English literature-2005, p-75.

UDC 81'42

### DISCOURSE AS A SET OF LINGUISTIC, COGNITIVE AND COMMUNICATIVE ASPECTS

*G.B. Sobirova, o`qituvchi, O`zbekiston Milliy Universiteti, Tashkent*

**Annotatsiya.** Maqolada ijtimoiy munosabatlarning mahsuloti / natijasi, shuningdek ularni yaratish va tartibga solish mexanizmi / vositasi sifatida nutqning nazariy tadqiqotlarini umumlashtirish taklif etiladi. Muallif filologiya fanida to'liq ishlab chiqilgan nutq tushunchalarini tizimlashtiradi va nutqning har xil turlari va turlarini tadqiq qilish bilan bog'liq munozarali masalalarga e'tibor beradi.

**Kalit so'zlar:** nutq, kontekst, aqliy makon, kognitiv, kontseptsiya, kommunikativ aspekt, lingvo-kognitologiya.

**Аннотация.** В статье предлагается обобщение теоретических исследований дискурса как продукта/результата социальных отношений, а также как механизма/инструмента их построения и регулирования. Автор систематизирует представления о дискурсе, наиболее полно разработанные в отечественной филологической науке, и акцентирует внимание на спорных вопросах, связанных с исследованиями различных типов и видов дискурса.

**Ключевые слова:** дискурс, контекст, ментальное пространство, когнитивный, концепт, синергетика, лингвокогнитология.

**Abstract.** The article proposes a generalization of theoretical studies of discourse as a product / result of social relations, as well as a mechanism / tool for their construction and regulation. The author systematizes the concepts of discourse, most fully developed in the philological science, and focuses on controversial issues related to research of various types and types of discourse.

**Key words:** discourse, context, mental space, cognitive, concept, communicative aspect, linguacognitionology

The term “discourse” (Fr. discours, Eng. discourse, from Lat. discursus ‘running back and forth; movement, circulation; conversation, conversation’) means ‘speech, a linguistic process activities; way of speaking’ [1]. This term has many different uses and is used in many humanities related to language in linguistics, literary criticism, semiotics, sociology, psychology, philosophy, ethnology and anthropology, etc.

A branch of linguistics, as well as an interdisciplinary direction that studies discourse is called Discourse Analysis or Discourse Studies. Although language interaction is for centuries it has been the subject of such disciplines as rhetoric and oratory, and then - stylistics and literary criticism, as a scientific direction itself, discourse analysis has been formed only in recent decades [3].

Discourse is an object of interdisciplinary study. In addition to linguistics, such sciences as psychology, computational linguistics are associated with the study of discourse and artificial intelligence, philosophy and logic, sociology, anthropology and ethnology, literary studies and semiotics, historiography, theology, jurisprudence, pedagogy, theory and practice of translation, communication research, political science. Each of these disciplines approaches the study of discourse in its own way, however some of them have had a significant impact on the linguistic discursive analysis.

With any interpretation of the term, from the narrow "dialogue" to the extremely broad "speech immersed in life", scientists recognize that there are laws, rules, strategies and tactics for generating and understanding discourse. Such rules determine the coherence of speech, the ratio of the known and the new, and other parameters that are formed by the choice of certain linguistic means and their combination. Discourse in the sociological, sociolinguistic sense is communication characterized at least by a certain discursive policy (scenario) or at the most by a wide socio-cultural and cognitive context.

The concept of "cognitive context", which the researcher Gilles Fauconnier designates mental areas, and the scientist J. Lakoff - mental spaces. So, the cognitive context consists of both knowledge and ideas and intentions to the cultural situation, the methods of communication and the status-role relationships of its participants, the register and the subject of communication; also in this regard - to discourse and its style, that is, to all aspects of contextuality [3].

According to N.N.Boldyrev, any cognitive area (mental space, conceptual structure) containing knowledge of a certain kind associated with a given linguistic unit can act as a cognitive context. Then the meanings of words in the language are correlated not so much with the paradigmatic and syntagmatic contexts, "but with certain cognitive contexts - cognitive structures, or blocks of knowledge that stand behind these meanings and provide their understanding" [4].

Researcher A. V. Polonskiy argues that taking into account the cognitive context "helps to identify the mechanisms for constructing the mental space of a discursive personality and society as a whole," thereby making it possible to describe a particular discourse as "a key category of human being" [5].

The context also includes some cognitive characteristics of participants (for example, opinions), which are a component of their social appearance, without which it is impossible to explain the processes of persuasion, information transfer, ways of expressing ideology, etc. [6]. The social context, of course, affects the specific act of communication; therefore, the process of constructing social reality is possible within the framework of specific discursive practices.

Thus, the cognitive-discursive foundations of the context determine the following conclusion: the subject of discursive activity sees the world not through language, but through the prism of his conceptual system, formed through external information about the world and represented precisely in discursive activity.

Modern linguists offer holistic models of discourse, with a list of their components, characteristics, features; for example, in the work of A. A. Kibrik "Discourse Analysis in Cognitive Perspective" the following are considered: modes, genres, structure of discourse, types of genre schemes, discursive factors of lexical and grammatical phenomena, etc. [7]. V. I. Karasik's research suggests a discourse analysis scheme: typical participants, goals, values, strategies, genres, precedent texts and discursive formulas [8].

Based on the listed axioms of discourse linguistics, particular ideas about discourse arise. So the discourse:

- is a semiotic linguistic space, into which he transposes concepts and images for the purpose of communicative impact [9];
- actualizes the potential of the language system, being a reflexive process, as a result of which new models and templates are created from the language material, which receive the status of elements of the language system, ensuring its self-development [10];
- subordinate to synergetic laws, procedural and self-organized; the procedurality of discourse is due to its connection with speech activity: speech practice forms discourse (monological and dialogical) [11];
- is determined by extralinguistic factors; the extralinguistic component of discourse unites multiple, closely interacting communicatively cognitive elements, which defines the analysis of discourse as a communicative-cognitive phenomenon [12];
- is considered as a communicative event, it is "speech immersed in life" [13];
- mediates speech communications, consisting of illocutionary acts [14].

#### REFERENCES:

1. Сер ио П. Квадратура смысла: Французская школа анализа дискурса. М., 1999.
2. Герасименко И. Когнитивный контекст эпистолярного дискурса А. Чехова // Учен. зап. Крым. федер. ун-та им. В. И. Вернадского. Филологические науки. 2016. Т. 2 (68), № 4. С. 107.
3. Болдырев Н. Принципы и методы когнитивных исследований языка.
4. Болдырев Н. Когнитивная семантика: Курс лекций по английской филологии. Тамбов, 2000. С. 17–18.
5. Полонский А. Медиа – дискурс – концепт: опыт проблемного осмысления.
6. Дейк Т. ван. Язык. Познание. Коммуникация: пер. с англ. / сост. В. В. Петрова. М., 1989. С. 138.
7. Кибрик А. Анализ дискурса в когнитивной перспективе: дис. ... д-ра филол. наук. М., 2003.
8. Карасик В. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. Волгоград, 2002.
9. Олянич А. Презентационная теория дискурса: автореф. дис. ... д-ра филол. наук. Волгоград, 2004.
10. Борботко В. Принципы формирования дискурса: От психолингвистики к лингвосинергетике. М., 2011.
11. Буров А. Когниолингвистические вариации на тему русской языковой картины мира. Пятигорск, 2003.
12. Шевченко И. Дискурс как когнитивно-коммуникативный феномен. Харьков, 2006.
13. Арутюнова Н. Дискурс // Лингвистический энциклопедический словарь / гл. ред. В. Н. Ярцева. М., 1990. С. 136.
14. Григорьева В. Дискурс как элемент коммуникативного процесса: прагмалингвистический и когнитивный аспекты. Тамбов, 2007.

UO'K 808.3

### KINOYANING IJOBIIY TANQID ORQALI IFODALANISHI M.R.Turdimatova, mustaqil tadqiqotchi, Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada kinoyaning pragmatik xususiyatlari, jumladan, nutq egasi tomonidan ishlatilganda kinoya nafaqat tanqidni ijobiy tarzda ifodalashini tushunish va shu bilan birga kinoyani yoritib berishda nutqiy voqelikda nutq egasi ovoz tonini kinoyador tarzda yetkazib berishi turli kontekstlarda tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Assimetriya muammosi, tanqidiy kinoya, kinoya tabiati, ijobiy kinoya, nutq toni, go'yoki usuli.

**Аннотация.** В данной статье анализируются прагматические особенности иронии, в том числе понимание того, что ирония при использовании говорящим выражает критику только в положительном ключе, в то же время реалистично передавая тон голоса говорящего в речи.

**Ключевые слова:** проблема асимметрии, критическая ирония, природа иронии, положительная ирония, тон речи, метод «как если бы».

**Abstract.** This article analyzes the pragmatic features of irony, including the understanding that irony when used by the speaker only expresses criticism in a positive way, while at the same time conveying the tone of voice of the speaker in speech in a realistic way.

**Keywords:** The problem of asymmetry, critical irony, the nature of irony, positive irony, tone of speech, as-if method.

Kinoyaga ko'p tariflar berilar ekan, biz ularning turlicha ekanligini turli diskurslar tahlilida kuzatishimiz mumkin, va odatda kinoya ko'p muloxazalarda tanqidiy deb tan olinadi: gapirayotgan nutq egasi istehzo orqali o'zining salbiy bahosini berishda vaziyatni yumshoqlik bilan ijro etgandek ko'rsatib ijobiy munosabatni namoyish etishga intiladi. Bunda ijobiy fikr tagidan aksi ya'ni salbiylik kelib chiqadi deb hisoblash mumkin. Vaholanki, so'zlovchi kamdan-kam hollarda bo'lsa-da, zohiriy ayblov bilan maqtashi, yaxshi fikr bildirishi ham mumkin. Bir nutqda ko'zlangan ma'noni yetkazib berishda ikki xil yo'l paydo bo'lar ekan, ular orasidagi bu nomutanosiblik kinoyaning assimetriya muammosini keltirib chiqaradi. Ushbu maqolada kinoyaning tanqid ma'nosi va uning ifodalanish yo'llari o'rganiladi va pragmatik jixatdan turli m'nolarda qo'llanilishi tahlil qilinadi. Kinoyaning tabiati haqida turli izohlariga to'xtalar ekanmiz, nazariyotchi tilshunoslarning aksariyati ikkita asosiy fikrni qo'llab quvvatlaydilar. Birinchidan, kinoyada kinoya o'rnida hech narsa aytilmaydi va ta'kidlanmaydi. Sperber va Wilson (1981, 1998) va Kreuz va Glyuksbergning (1989) (Reminder theory) ta'kidlab ko'rsatish nazariyasiga ko'ra, so'zlovchining o'z nutqining tub mazmunida nimani nazarda tutayotganligini tavsiflash uchun turli xil alternativ (muqobil variant) lar taklif qilingan. Klark va Gerrig (1984) va Kumon-Nakamura esa (1995) kinoyani taqlid qilish nazariyasi (Allusional pretence theory) orqali kinoyadagi nutq egasi har doim biror narsa aytmoqchiligiga sha'ma qiladi. Grice (1967a/1989) so'zlovchi kinoyadorlikni nazarda tutganda, (As-if) go'yoki ruknida umumiy mazmunni aytayotgandek tuyuladi va aksincha teskari ma'noni bildiradi; shuning uchun boshqa ko'plab olimlar, jumladan Haverkeyt (1990), Levin (1982) lar bu hodisani - "bilvosita inkor" jarayoni deb ataydilar.

Darhaqiqat, kinoyaning aksariyat holatlarida gapiruvchichi salbiylikni ifodalash uchun ijobiy munosabatni namoyon qiladi. Ijobiy kinoyalarni ajratib turadigan narsa shundaki, ma'ruzachi go'yo aytmoqchi bo'lgan (yoki da'vo qiladigan yoki ta'kidlab o'tadigan) ishoralarni ifoda qilishning qisqartirilgan usuli sifatida qabul qilish mumkin bo'ladi. Aniqroq qaralganda, go'yoki mazmunida - salbiy munosabatni namoyon qiladi, ijobiy munosabat esa, mazmunan bildiriladi.

Quyida mulozamat bildirish orqali ifodalangan kinoyaning turlicha tadqiqini ko'rib chiqishimiz mumkin.

Nilufar imtixon topshirdi va o'rtog'iga javoblarni o'rnini almashtirib qo'ydim deb dugonasiga qayta-qayta aytib yurdi. Natijalari esa yuqori chiqdi.

Dugonasi esa: Rosdan ham javoblarni almashtirib qo'ygan ekansan! - dedi.

Ushbu misolda berilgan kontekstda kinoyaning ichki mohiyati, so'zlovchi va tinglovchi orasida sodir bo'lgan o'zaro diskursda namoyon bo'ladi. Bunda kinoyaning ishlatilishi go'yoki so'zlovchi o'zini yashirin tarzda, bila turib konkretlikdan chetga olganini sezish mumkin. Ikkinchi so'zlovchi bo'lgan dugonasi esa vaziyatga baho berar ekan, Nilufarning avval aytib o'tgan fikrini o'ziga tasdiqlash trazda qaytaradi va kinoyani ijobiy talqin orqali ochib beradi. Ijobiy ifodalanish ortida esa istexzoli ma'no yashiringanligini sezish mumkin, lekin ikkala kommunikantlar nutq jarayonini boricha anglab yetishadi. Vaholanki, Nilufar yolg'on gapirgani fosh bo'lganini sezib, dugonasining so'zlariga o'z reaksiyasini salbiy tarzda qabul qilganligini kuzatishimiz mumkin.

Shu bilan birga ushbu kontekstda Gricening kinoya nazariyasida tahlil qilib ko'ramiz. Yuqorida aytib o'tilganidek kinoyaning ichki mohiyati turlicha bo'lishi mumkin jumladan, (As-if) go'yoki ruknidagi o'ziga xos usulni quyidagicha tushunish mumkin bo'ladi:

Go'yoki (As-if content): Rosdan ham javoblarni almashtirib qo'ygan ekansan!

Kinoyaviy: Sen yolg'on gapiribsan!

Yuqoridagi misollarda so'zlovchining tanqidi osongina ko'chganligi istehzoli mazmundagi imo-ishora borligi mavjud.

Agar "Berilgan misoldagi aldagan yoki o'zini chetga olgan degan fikrga qo'shilsak, salbiy baholovchi munosabat ekanligini ko'ramiz. Bu yerda dugonasi salbiy baholovchi, tanqidiy munosabat bildirgan tarzda; Ya'ni, u biror narsani yoki kimnidir tanqid qilgan. Albatta, bu yerda ikki kommunikant kinga nisbatan salbiy baholanishi mutanosiblik keltirib chiqarishi mumkin: Nilufarni A, dugonasini X tarzda tahlil qilamiz:

A ga ("yolg'on ma'lumot bergani" uchun) yoki X ga (chunki u "A ga ishonib ahmoq bo'lgani uchun") tarzda kinoyaning diskurs pragmatik hodisasi kuzatilyapti.

Kinoiy so'zlardagi tanqidni yo'naltirishda esa X so'zlovchi o'z maqsadidan kelib chiqib istehzoli ohangda kinoyadan foydalangan va bu o'z o'rnida, misolda tanqidni A va X tomonidan o'zaro qabul qilinganligini: X so'zlovchi o'zini ahmoq sezgani uchun aynan kinoyani nutqda qo'lladi va do'stini tanqid qilib o'tdi.

Yuqoridagi misollarda kinoyaviy nutqning o'z vazifasini ado etishda oshkora tanqid orqali ochib berilgan bo'lsa, bunday nutqlarda o'zaro suhbat yoki bir necha kishilar davrasida sodir bo'lgan voqelikka munosabatlari orqali ham kinoyadan foydalanilgan. Grice o'zining fikrlarida davom etar ekan, kinoyani chuqur va izchil tahlil qilishda faqat diskurs va nutq ishtirokchilari emas balki xuddi shu jarayonda to'satdan sodir bo'lgan nutqiy voqelikka ham duch kelishimiz mumkin deya quyidagi misolni beradi (Grice 1989: 53):

A va B shaxslar ko'cha bo'ylab yurib ketishyapti. To'satdan ularni yonginasidan oynalariga darz ketgan mashina o'tadi va ikkalasi ham oynalarga ko'z tashlaydi. Shunda, B shaxs aytadi, "Qara, mashinaning hamma oynalari o'ta yap-yangi ekan!". A shaxs esa bu so'zlardan ensasi qotadi va o'ylanib qoladi. B davom etarkan: "Shuni ham tushunmading-a, shunchaki kinoya qildimda".

Bu vaziyatdan kelib chiqqan holda, B ning nutq ifodasi ochiqchasiga haqiqat emasdi va o'z o'rnida kinoya uyg'otish maqsadida zid ma'no orqali ifodalangan nutqiy voqelikni hosil qilishga ulgurdi. Shunga qaramay, kinoyaviy nutq hosil qilishda faqat vaziyat taqazo etgan shaxslar emas balki aynan nutq egasi o'ziga xos kinoyaviy ovoz tonini ijro etishi ham dolzarbligini sezishimiz mumkin bo'ladi.

#### REFERENCES:

1. Grice, H.P. 1967a. "Logic and conversation". In H.P. Grice (1989), 22–40.
2. Kreuz, R.J. and Glucksberg, S. 1989. "How to be sarcastic: 1e echoic reminder theory of verbal irony". *Journal of Experimental Psychology: General* 118(4): 374–386.
3. Kumon-Nakamura, S., Glucksberg, S., and Brown, M. 1995. "How about another piece of pie: 1e allusional pretense theory of discourse irony". *Journal of Experimental Psychology: General* 124(1): 3–21.
4. Sperber, D. and Wilson, D. 1998. "Irony and relevance: A reply to Seto, Hamamoto, and Yamanashi". In R. Carston and S. Uchida (eds), *Relevance theory. Applications and Implications*. Amsterdam: John Benjamins, 283–293.
5. Turdimatova, M. Semantic notion of diminutives in the formation of uzbek and english. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 2(2).

UO'K 808.5

### TARJIMASHUNOSLIKNING NAZARIY MASALALARI

*V. Qalandarova, o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika instituti, Jizzax*  
*N.Yakhshilikova, talaba, Jizzax davlat pedagogika instituti, Jizzax*

**Annotatsiya.** Maqolada tarjimashunoslik nazariyasi va amaliyotining predmeti, qonun-qoidalari, tarjima jarayonlari, tarjima asarlari, tarjimon faoiyati, tarjima tarixi va yo'l-yo'riqlari haqida gap boradi. Shuningdek, til vositalarini u yoki bu darajada tanlash xususiyatini o'z ichiga olganligi jihatidan har qanday tarjima ma'lum ma'noda ijodiy xarakterga ega bo'lishi va badiiy asarning milliy shaklini qayta tiklash – badiiy tarjimaning muhim muammolaridan biri hisoblanishi muammolari ko'tarilgan.

**Kalit so'zlar:** tarjimashunoslik, adabiyotshunoslik, stilistika, poetika, interpretatsiya, adabiyotshunoslik, asliyat, realiya, badiiy tarjima, kolorit, peyzaj, yumor.

**Аннотация.** В статье рассматриваются предмет, теория, процессы перевода, переводческие произведения, деятельность переводчика, история перевода и основные направления в теории и практике перевода. Также ставится вопрос о том, является ли любой перевод творческим в каком-либо смысле, и является восстановление национальной формы художественного произведения одной из важнейших проблем художественного перевода, так как предполагает выбор языка в той или иной степени Другая.

**Ключевые слова:** перевод, литература, стилистика, поэтика, интерпретация, литература, оригинальность, реальность, художественный перевод, колорит, пейзаж, юмор.

**Abstract.** The article discusses the subject, theory, translation processes, translation works, translator's activities, translation history and guidelines in the theory and practice of translation studies. It also raises the question of whether any translation is creative in any sense, and whether the restoration of the national form of a work of art is one of the most important problems of literary translation, as it involves the choice of language to one degree or another.

**Key words:** translation, literature, stylistics, poetics, interpretation, literature, originality, reality, literary translation, coloring, landscape, humor.

Tarjima nazariyasi predmeti - tarjima amaliyoti, tarjima asarlari, tarjima jarayonlari, tarjimon faoiyati, tarjima tarixi va ularni o'rganish asosida tug'ilgan til bilan chambarchas bog'liq, tarjimaning qonun-qoidalari, yo'l-yo'riqlarini aks ettiradi va umumlashtiradi. Tarjima nazariyasi tarjimaning keng jonli amaliyoti bilan bog'liq bo'lgan qarashlar, nuqtai nazarlar, kuzatishlar, rang barang tajribalarni ilmiy-tanqidiy o'rganadi, tarjima qoidalari va tamoyillarini, ulaming chegaralari, me'yorlarini bayon qiladi. Tarjimashunoslik problematikasi (muammolar majmui)da quyidagi munosabatlar haqida gap boradi:



1. Asl nusxa bilan tarjima tillari o'rtasidagi munosabat (bu yerda qiyosiy tilshunoslik erishgan yutuqlardan foydalaniladi).

2. Asl nusxa bilan tarjima o'rtasidagi mazmun va shakl munosabati (boshqa tillardagi formalarning estetik funksiyalarini aks ettirish) – bu yerda adabiyotshunoslik, qiyosiy stilistika va poetika yutuqlaridan foydalaniladi.

3. Umuman asl nusxa bilan tarjimaning badiiy qimmatini o'rtasidagi munosabat – bu yerda adabiy tanqid metodlari qo'l keladi. Tarjima jarayonining mohiyati asl nusxada aks etgan shakl bilan mazmunning birligini, yaxlitligini saqlash uchun bo'lak tildan muqobil vositalar qidirib topishdan iborat. Bundan tashqari, asl nusxa mazmunini boshqa tilda berishning mavjud bir nechta imkoniyatlari orasida eng muqobil va muvofiq variantini tanlash ham adekvat tarjimaning asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Ana shu muqobil til vositalarini qidirib topish va muvofiq variant tanlash ijodiy xarakterga ega bo'lib, tarjima qiluvchi kishi, ya'ni tarjimondan ongli mehnat talab etadi. Tilning ifodaviyligi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ilmiy, ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar tarjimasida ham muayyan badiiy-ijodiy masalalarni yechishga to'g'ri keladi. Bu tarjimondan adabiy mahoratni talab qiladi. Bunday tarjima san'at jumlasiga kiradi. Til vositalarini u yoki bu darajada tanlash xususiyatini o'z ichiga olganligi jihatidan har qanday tarjima ma'lum ma'noda ijodiy xarakterga ega bo'ladi. **Tarjima nazariyasining vazifasi** – asl nusxa bilan tarjima o'rtasidagi nisbatning qonuniyatlarini kuzatishdan, alohida, xususiy xarakterdagi tarjima hodisalaridan tug'ilgan xulosalarni ilmiy ma'lumotlar asosida umumlashtirishdan hamda tarjimachilik amaliyotiga bilvosita ta'sir o'tkazish, uning sifatini yaxshilashga ko'maklashishdan iborat. [<https://lib.jspi.uz/>] Tarjima amaliyoti maqbul ifoda vositalarini topish hamda muayyan konkret tarjima masalalarini hal qilishda muqobil model, qoida, dalil va isbotlarni tarjima nazariyasidan oladi. Shunday qilib, asl nusxa bilan tarjima o'rtasidagi munosabat hamda konkret hollarda yuz berib turadigan, izohlash, tushuntirish va umumlashtirishni talab etadigan farqlanuvchi, tafovut qiluvchi formalar tarjima nazariyasining asosiy predmeti hisoblanadi.

Biror-bir xalq o'z qobig'ida, o'z-o'zicha rivojlana olmaydi. U boshqa xalqlarning yutuqlari, tajribalarini o'zlashtirgan va rivojlantirgan holda yuksaladi. Ma'lumki, jahon tamaddunining beshigi Sharq hisoblanadi. Aleksandr Makedonskiy Sharqni istilo qilganda qadimgi Hindistonda rivojlangan tabiiy fanlarning yutuqlari, ko'hna Eron madaniyati tajribalarini o'zlashtirib, G'arb ilm-fani va madaniyatini muvaffaqiyatlarini o'zaro omuxta qilgan holda Yunonistonda antik davr uyg'onishi sodir bo'ldi. Keyin katta hududda o'z saltanatini o'rnatgan arablar fan va madaniyatini rivojlantirishga e'tibor berdilar. Ma'mun ar-Rashid IX asrning boshida Bag'dodda Ma'mun akademiyasini tashkil qiladi. "Bayt ul-hikma" ("Bilimlar uyi") deb atalgan bu ilmiy markazga turli joylardan iste'dodli kishilarni to'plab, yunon, yahudiy, sanskrit, suryoniy, fors tillaridan ko'plab ilmiy-adabiy, falsafiy-axloqiy asarlar arab tiliga tarjima qilinadi va ularga sharhlar yozilib, musulmon dunyosiga tarqatiladi. Beruniy ham yunon, sanskrit va suryoniy tillarini o'rganib, bu tillardagi asarlardan bevosita foydalanganligi, hatto ularni tarjima qilganligi ma'lum, yoki Ibn Sino Aristotelning "Metafizika" asarini bir necha marta o'qisa-da tushunmaydi. Keyin unga Forobiy yozgan sharh orqali uni xatm qiladi. So'ng XII-XIII asrlarda arablar tasarrufidagi Ispaniyaning Toledo va Kardova shaharlarida tarjima maktablari vujudga kelib, arab tilidagi barcha ilmiy, ba'zi adabiy kitoblar ham lotin tiliga tarjima qilinadi va ular orqali Yevropaga tarqaladi. Tarjima tarixi juda qadim zamonlardan boshlanadi. Qadim zamonlardan buyon turli tillarda so'zlashuvchi xalqlar bir-birlari bilan muomala qilganlarida tarjimon (tilmoch) orqali ish bitkazganlar. Tarjimonsiz ish bitirish qiyin bo'lgan. Savdo-sotiq ishlarida, diplomatik munosabatlar va madaniy aloqalarda hamma vaqt tarjimaga zarurat tug'ilgan. Qadim zamonlardan beri xalqlar o'z tarjimonlariga katta hurmat bilan qaraganlar. Ularning nomlari tarix sahifalarida abadiy yozilib qolgan. [<https://arm.tdpushf.uz/>] Tarjima tarixi madaniyat, san'at va adabiyot tarixi bilan chambarchas bog'langan. Ma'lumki, O'rta Osiyo xalqlarining madaniyati qadimiy davrlardan boshlanadi. Arablar istilosiga qadar ham O'rta Osiyoda yashab ijod qilgan olim va yozuvchilar o'zlari-dan keyin boy ilmiy va adabiy meros qoldirganlar, balki ular ichida ko'pgina tarjima asarlari ham bo'lishi haqiqatdan uzoq emas. Ammo arab istilochilari mamlakatni zabt qilgach, bu ajoyib asarlarni islom diniga qarshi deb yondirib yuborganlar. VII asrda Iroq, Suriya, Falastin, Eronni bosib olgan arab istilochilari Marv, Xorazm, Buxoro va Samarqandni qo'lga kiritadilar. VIII asrning boshlarida Movarounnahr (ikki daryo o'rtasi)ni arablar butunlay egallagan edilar. O'rta Osiyo arab xalifaligi hukmronligi ostida qoldi. Bosqinchilarning zulmi ostida azob chekkan xalqlar ularning buyruqlariga bo'ysunar, tartiblarini so'zsiz bajarishga majbur edilar. Arablar dastlab islom dinini O'rta Osiyo xalqlariga majburan qabul qildira boshladilar. Qadimgi Xorazm, so'g'd yozuvlari o'miga arab yozuvi joriy qilindi. Madrasalarda arab tilini o'rganish majburiy qilib qo'yildi. Arab istilochilari turk va fors tillarini bilgan tarjimonlardan ham foydalandilar. Ular turkiy xalqlar bilan arablarni bir-biriga bog'lovchi vositachi rolini o'ynadilar. Islom dini mamlakatda hukmron din, arab yozuvi yagona yozuv, arab tili adabiy til bo'lib qoldi. Olimlar va shoirlar arab tilida kitoblar yoza boshladilar. Arablar istilosi davrida eng ko'p tarjima qilingan asarlar tarixiy-badiiy janrda yaratilgan kitoblar bo'lib, ularni ko'pincha adib, shoirlar tarjima qilar edilar. Katta-katta olimlar, tarixchilar yetishdi. Forobiy, Ibn Sino, Beruniy kabi olimlar o'z asarlarini arab tilida yozdilar. 359 yilda vafot qilgan olim Abu Bakr Muhammad bin Ja'fariy Narshaxiy Buxoro tarixiga oyid "Tahqiqul-viloyat" (O'lkani o'rganish) nomli asarini yozdi. Bu asar fors tiliga, keyingi davrlarda rus tiliga ham tarjima qilindi. Eng qadimiy asarlardan biri 922 yilda vafot qilgan Abu Ja'far Muhammad bin Jarir Tabariyning "Tarixi Tabariy" nomli bir necha tomli asari bo'lib, 963 yilda Buxoroda

somoniy amirlarining saroyida vazir bo'lgan Mir Abu Ali bin Muhammad Bal'amiy tojikchaga qisqartib tarjima etgan. Keyinchalik bu asarning o'zi ham boshqa tillarga tarjima qilingan. Tabariy va Bal'amiy haqida shunday so'zlarni o'qiymiz. Somoniylar saroyida tarix va geografiyaga katta diqqat berilar edi. Movarounnahrda tarix va geografiyaga oid ko'p sonli asarlarni qiziqib o'qilar edi. Ma'daniy, Balozuriy, Tabariy, ibn Miskavey va boshqalar o'sha davrning mashhur tarixchilari edi. Movarounnahrning madaniy kishilari orasida Tabariy o'z tarix kitobi tufayli mashhur bo'lganini shu faktdan ko'rish mumkin: somoniylarning Abulmalik va Mansur degan ikki amirining atoqli vaziri Bal'amiy Tabariy asarini tojik tiliga qisqartirib tarjima qildi. De Rde nashriga kirgan variantdan tashqari, boshqa yo'qolgan variantdan qilingan bu tarjima arab tilidagi so'nggi nashrlarda bo'lmagan bir qancha axborotlarni beradi. Ko'p mamlakatlardagi kishilar hozirga qadar Tabariy asari bilan Bal'amiy tarjimasi orqali tanishadilar. Qizig'i shuki, haligacha o'z qimmatini yo'qotmagan Bal'amiyning tarjima kitobi uz navbatida turk fransuz va, hatto, arab tillariga tarjima qilingan"[2.16-17]. O'zbekistondagi tarjima maktablari: Tarjima tarixi juda qadim zamonlardan boshlanadi. Qadim zamonlardan buyon turli tillarda so'zlovchi xalqlar bir-biri bilan muomala qilganda tarjimon orqali ish bitkazganlar. Tarjimonsiz ish bitish qiyin bo'lgan. Savdo-sotiq ishlarida, diplomatik munosabatlar va madaniy aloqalarda tarjimaga zarurat tug'ilgan. Markaziy Osiyoning dastlabki tarjimonlari Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Qoshg'ariy, Mahmud Zamaxshariy.

1. Forobiy Aristotelning "Metafizika", "Fizika", "Meteorologiya"sig'a sharhlar yozgan. Ayrim zarur kitoblarni grekchadan arab tiliga tarjima qilgan.

2. Ibn Sinoning 5 tomidan iborat "Alqonun fit-tib" nomli asari Yevropada XV asrda lotin tiliga 16 marta, XVI asrda esa 20 martadan ko'proq nashr qilindi. "Tib qonunlari" Yevropaning boshqa tillariga ham tarjima etilgan.

3. Beruniyning Arab tiliga qilgan tarjimalari Khandakhadyaka (al Arkanda jadvali).• Brahmasiddihonta (matematikaga oid kitob).• Ikkita Balian butparasti haqida hikoya.• Barohamihira.• Nilufar haqida hikoya.• Kapayara (kasallar haqida yozilgan kitob).• Sankhya (falsafaga oid kitob).• Patanjala (falsafaga oid kitob).•

4. Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" (Turkiy so'zlar devoni) asarini yozayotganda juda ko'p turkiy so'zlarni arabchaga tarjima etib, ularning nozik tomonlarini ustalik bilan talqin qilib berdi. Turkiy so'zlarni, maqol, matal, she'r parchalarini 1-marta arabchaga tarjima qilgan.

5. Zamaxshariy "Muqaddimatul-adab" (Nafis so'zlarga muqaddima) degan arabcha va forschaga lug'at tuzdi. Bu lug'at hozir O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanadi.

Adabiyotshunoslikda yana **mahalliy kolorit** degan tushuncha ham mavjud.

Mahalliy kolorit – biror mahalliy sharoit, urf-odat yoki joyga xos turmush, peyzaj va til xususiyatlarini badiiy adabiyotda aks ettirish. Ana shu milliy kolorit bilan bog'liq bo'lgan so'z, atamalar va realiyalar, boshqacha aytganda, milliy xos so'zlar deyiladi. Realiya lotincha so'z bo'lib, buyumga, narsaga oid degan ma'noni bildiradi. "Realiyalar asar tilining ajralmas qismi bo'lib, ular yordamida muallif qahramon obrazini yaratadi, xalqning milliy xususiyatini tasvirlab beradi. Ular badiiy asarning milliy koloritini ifoda etadi, turli uslubiy vazifalarni bajaradi, hodisa va predmetlarning xususiyatini haqqoniy, to'g'ri tasvirlashga yordam beradi". Shuning uchun ham realiyalar badiiy tarjimaning tarjimonni qiynab qo'yadigan, tarjimani murakkablashtiradigan, ko'pincha uni chalq'itadigan jihatlarni tashkil etadi. "Realiyalarga milliy taomlar, kiyim-kechaklar, milliy cholg'u asboblari, ro'zg'or anjomlari, nomlar, taxalluslar, laqablar, shahar, qishloq xususiyatlari, me'morchilik, geografik nomlar, tabiat manzaralari, hayvon va o'simliklarning nomlari, daraja, unvon, tabaqa va boshqa bo'linishlarni ifodalovchi so'zlar, muassasalar, tashkilotlar, diniy marosimlar va boshqa etnografik belgilarni bildiruvchi so'z va iboralar kiradi". "Milliy o'ziga xoslik deganda adabiy asarda tasvirlangan xalq hayotining moddiy sharoiti, ma'naviy turmush tarzi, tabiati, o'rmon, tog', dala, suv, zamin, osmon hamda afsona va cho'pchaklari, tarixi va dini, adabiyoti va san'ati hamda boshqa maxsus narsalar haqidagi tasavvurlari, tushunchalari, atamalari tushuniladi. Kiyim-kechaklar, udumlar, urf-odatlar, pul birliklari va hokazolar ham milliy xoslik komponentlari jumlasiga kiradi" [1.151]

Badiiy asarning milliy shaklini qayta tiklash – badiiy tarjimaning muhim muammolaridan biri hisoblanadi. Milliy o'ziga xoslikni boshqa til vositalari bilan berish sohasida katta tajribalar to'plangan. Biroq bu sohaning prinsip va mezonlari ishlab chiqilgani yo'q. Adabiyotning milliy xarakterga egaligi harakatdagi obrazlarning xarakterida, jumladan qiliqlari, yumor xususiyatlarida, fikrlash va intilish tarzida namoyon bo'ladi. Har qanday kishi biror millat vakili sifatida ma'lum xarakterga va o'ziga xosa psixologik bilimlarga ega. Badiiy obrazning milliy xarakteri – uning nutqi, muhitga munosabati, surati, siyrati, his-tuyg'ulari va boshqalarda ko'rinadi.

Milliy xarakter ma'lum moddiy asosda yaratilib, muayyan hayot sharoitining in'ikosi hisoblanadi. Shuning uchun ham obrazning milliy xarakterini o'sha millatning hayotini, milliy tarixini, o'ziga xosligini, milliy, madaniy va adabiy an'analarini o'rganish orqali to'g'ri tushunish mumkin. Badiiy obrazni qayta yaratishda tarjimon ishining birinchi bosqichi obraz yaratilgan millatning tarixi, ijtimoiy, adabiy sharoitlarini o'rganishdir. Undan keyingi bosqich xarakterning asosiy belgilarini, uning mazmunini belgilash. Shundan keyin obraz yaratilishi kerak bo'lgan asiyat tilining vositalarini va uslubiy yo'llarini tahlil qilishi hamda oxiri ona tilida ifodalashning kerakli vositalarini axtarib topish kerak deb o'ylayman. Adabiy asarning umumiy xususiyatlari

xalqning xususiy va ijtimoiy hayot tarzida, turmush sharoitida, kiyimida, urf-odatlarida, ko'cha, shahar, san'at yodgorliklari, muassasalarning nomi, mansabdor shaxslarning familiyalari va boshqalarda namoyon bo'ladi. Bularning yig'indisi asarning milliy xususiyatini tashkil etib, barchasi asliyatda nutq vositalari orqali bayon etilgan bo'ladi. Ularning to'g'ri tarjimai juda muhimdir. Har bir tilda psixikaning milliy xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan obrazli ifodalar mavjud. Masalan, o'zbek tilida qora ko'z, qo'y ko'z, quralay ko'z, ohu ko'z va boshqalar go'zallik alomati sifatida qo'llaniladi. Qadimgi yunonlarda go'zal, shahlo ko'z ho'kizning ko'ziga o'xshatilgan. Qirg'iz va qozoqlarda bo'tako'z chiroyli ko'zning sifati bo'lib keladi. Hindistonda sigir – nafosat, go'zallik, saxovat va ona mehrining timsoli bo'lganligi sababli go'zal mahbuba sigirga nisbat beriladi. Ko'p xalqlarda arslon yirtqichlik, shafqatsizlik ramzi bo'lsa, bizda dovyurak kishilarni arslonga o'xshatadilar. Masalan, Qirol Lirning shafqatsiz qizlari arslonlarga o'xshatiladi. Bizda arslon ijobiy ma'noga ega bo'lganligi uchun ham tarjimada G'afur G'ulom bu so'z oldidan "urg'ochi" sifatini qo'shadi: Nima qilib qo'ydingiz, yo urg'ochi arslonlarmisiz? Nemislarda esa cho'chqa omad va baxt timsoli ekan. O'zbeklarda yo'lpashsha – mehmon darakchisi.

Xulosa qilib aytganda tarjima asliyat tili bilan hamohang va unga uyg'unlashtirib, moslashtirib tarjima qilinganda adabiy asarning umumiy xususiyatlari xalqning xususiy va ijtimoiy hayot tarzi, turmush sharoiti, kiyimi, urf-odatlari, ko'cha, shahar, san'at yodgorliklari, muassasalarning nomi, mansabdor shaxslarning familiyalari va boshqalar ko'z oldingizda namoyon bo'ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Musaev Q. Tarjima nazariyasi. – Toshkent: "Fan", 2004.
2. Hamidov X, Tarjimashunoslik Toshkent – 2012
3. <https://arm.tdpushf.uz/>
4. <https://lib.jspi.uz/>

UO'K 808.5

## INGLIZZABON G'ARB VA O'ZBEK NASRIDA SHOH HAMDA SARKARDA BOBUR OBRAZI TALQINI

*K.R. Xayrullayeva, o'qituvchi, Buxoro davlat tibbiyot instituti, Buxoro*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Pirimkul Qodirovning "Yulduzli tunlar" hamda Flora Anna Stilning "Sayohatchi qirol" romanlarida Zahiriddin Muhammad Bobur obrazi talqini keng tadqiq qilingan. Boburning shoh va shoir, jangchi, san'at va madaniyat oshuftasi sifatidagi obrazlariga berilgan tavsiflar ko'rib chiqilgan hamda ikki g'arb va sharq yozuvchilarining shaxsiy fikr va mulohazalari vositasida yanada boyitilgan.

**Kalit so'zlar:** Zahiriddin Muhammad Bobur, Amir Temur, shoh va shoir, Chingizxon, Shayboniyxon, "Boburnoma", arab va fors, Boburiylar sulolasi, g'azal.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается интерпретация образа Захириддина Мухаммада Бабура в «Звездных ночах» Пиримкула Кадырова и «Турист Король» Флоры Анны Стил. Описания, данные Бабуру как королю и поэту, воину, искусству и культурной иконе, были пересмотрены и дополнительно обогащены личными мыслями и мнениями двух западных и восточных писателей.

**Ключевые слова:** Захириддин Мухаммад Бабура, Амир Темур, царь и поэт, Чингизхан, Шайбанийхан, «Бобурнома», арабский и персидский языки, династия Бабури, газель.

**Abstract.** This article examines the interpretation of the image of Zahiriddin Muhammad Babur in Pirimkul Kadyrov's "Starry Nights" and Flora Anna Steele's "King Errant". The descriptions given to Babur as a king and a poet, a warrior, an art and a cultural figure have been reviewed and further enriched by the personal thoughts and opinions of two western and eastern writers.

**Keywords:** Zahiriddin Muhammad Babur, Amir Temur, king and poet, Chingizhan, Shaybaniyhan, "Baburnama", Arabic and Persian, Baburid's dynasty, ghazal.

Butun dunyoga ham tengsiz shoh va sarkarda, Hindistonda yangi davlat asoschisi, ham adabiyot, san'at isxlosmandi sifatida nom qozongan ajdodimiz bo'lmish Zahiriddin Muhammad Bobur ko'p asrlardan buyon tarixchilar, ilmiy va badiiy adabiyot vakillari asarlarida mustahkam o'rin egallab kelmoqda. Bobur hayot yo'li va ijodiga bag'ishlab yozilgan kitoblarni tadqiq etar ekanmiz, shunga guvoh bo'ldikki, buyuk bobokalonimiz tarixda qoldirgan izlari nafaqat o'zbek olimlarini balki inglizzabon g'arb adabiyot namoyondalarini ham bir necha yuz yillardan buyon o'ziga jalb etib kelmoqda. Quyida maqolani yozar ekanmiz, bunda Pirimkul Qodirovning "Yulduzli tunlar" hamda Ingliz yozuvchisi Flora Anna Stilning "Sayohatchi qirol" badiiy asarlarida Zahiriddin Muhammad Boburning shoh va sarkarda sifatidagi obraziga nazar tashlangan parchalar tahlilini maqsad qildik. P.Qodirov o'z asarida yosh Boburning bolalik chog'laridan kelgusi janglarga tayyorgarlik ko'rganini hamda chavandozlik, kamonbozlik, qilichbozlik singari mashg'ulotlarda tengsiz kuch-qudratga ega bo'lganligiga urg'u beradi. Asardan olingan quyidagi parchada bu yaqqol namoyon bo'lgan: "Chorbog' ichida o'n ikki yoshli Bobur mirzo chavandozlik mashqlari o'tkazmoqda. U chorbog' chetidagi yalanglikdan bo'z otni choptirib chiqdi-yu, birdan jilovini qo'yib yubordi. Kamonga chapdastlik bilan o'q o'rnatdi va chopib borayotgan ot ustidan nishonga otdi. Yoy o'qi nishon yog'ochiga "taq" etib urilgani baralla eshitildi. Bobur bo'z otni

choptirib borib, navkarga yetganda oyoqlarini uzangidan bo'shatdi, qamchini tishiga oldi. Bo'z ot jiyron qashqa bilan jips kelgan zahoti Bobur bo'y cho'zib, narigi otning egaridan ikki qo'llab ushladi-yu, bor kuchi bilan egardan egarga sakradi. "

Flora Anna Stil esa o'zining "Sayohatchi Qirol" romanida yosh podshoh sifatida Boburning Samarqandni egallagan chog'ida shaharni talon-taroj qilishga uringan qo'l ostidagi askarlarga nisbatan ko'rgan oqilona va adolatli chora-tadbirlarini juda chiroyli tarzda tasvirlab beradi: "Ko'p o'tmay uning qarorgohiga yaqin bo'lgan joyda, shahardan savdo-sotiq qiluvchilar va savdogarlardan bir qancha kishilar kelib oldi-sotdi qilishdi va negadir, asr namozi vaqtiga yaqinlashganda ba'zi do'konlarda janjal ko'tarildi va ko'p musofirlarni mol-mulkleri talon-taroj qilindi. Shunday bo'lsa-da, musodara qilingan buyumlar yoki mol-mulkning biron bir qismi qaytarib berilmadi, ammo keyingi kunning birinchi soati tugagunga qadar Bobur vayron qilingan joylar butunlay qayta tiklanishi va har bir tortib olingan narsa qaytarilishi va hatto bir dona igna-ip ham tortib olinmasligi to'g'risidagi buyruq berdi!"

Yuqorida keltirilgan parchadan Boburning shoh sifatida qanchalik darajada o'z fuqaroliga g'amxo'r va jonkuyar bo'lganligini ko'rish mumkin. Samarqand shahri Shayboniyxon qo'shinlari tomonidan qamal qilingan paytda Bobur jasur yetakchi sifatida o'z xalqi xavfsizligi uchun kurashlar olib boradi. Xuddi shu vaziyat P.Qodirov "Yulduzli tunlar" romanida quyidagicha ta'rif beradi: "O'z qo'l ostidagi kichik kuch bilan qo'lidan kelganini qilib, shahardan ta'minotni uzib qo'ymaslikka, bozoriga kelgan shaharliklar va savdogarlar soni ko'payib borishiga harakat qildi. Va kundan-kunga atrofda shaharlar aholisi o'zlarini, qal'alarini, yerlarini dushmanga topshirishdi. Faqat Samarqand shahri qarshilik ko'rsatdi."

Tengsiz sarkarda sifatida Zahiriddin Muhammad Bobur o'z yurti sarhadlari himoyasi yo'lida dushmanlarga qarshi janglarda ko'plab jasoratlar ko'rsatadi. Mardlik va jasurlik xislatlarini Bobur o'z bobokaloni bo'lmish Amir Temurdan meros qilib olganligi shubhasizdir. Pirimqul Qodirov ham Boburga bag'ishlangan asarining bir necha o'rinlarida bunga urg'u berib o'tgan. "Biroq bir necha oylardan so'ng uning qo'rquvlari ro'yobga chiqdi va Shayboniyxon kuchayib, Boburning atrofida yana paydo bo'ldi. Bobur bundan xabar topganida, yosh qirol sifatida qolgan hamma narsani chetga surib qo'ydi va yana bir bor qilichini yalang'ochladi. U buyuk ajdodlari Amir Temurning xotiralarini o'qib, harbiy san'atni o'rgangan va janglarda jasorat ko'rsatishga intilardi. Shunday qilib, Shayboniyning qo'shinlari o'zini ko'rsatishi bilan oq, yosh general ularni kutib olish uchun yo'lga chiqdi."

Ko'p sonli qo'shin sarkardasi, cheksiz sarhadlarga ega davlat rahbari bo'lishiga qaramasdan Zahiriddin manmanlik, xudbinlik fazilatlaridan yiroq bo'lgan. U xalqi va askarlariga doimo har ishda o'rnak bo'lishga harakat qilgan. Odamlari og'ir vaziyatga tushgan, qiyinchiliklarni boshdan kechirayotgan paytda Bobur bir chetda tomoshabin bo'lib turishga odatlanmagan. Ingliz yozuvchisi Flora Anna Stilning "Sayohatchi Qirol" romanida keltirilgan voqea-hodisalarda yuqoridagi fikrlar o'z isbotini topgan: "Boburning odamlari qor va suv ostida bo'lgan paytda, askarlari qiyinchilik va qayg'uiga duchor bo'lganlarida uning o'zi issiqqina xonada dam olib, hordiq chiqarishi bu albatta Boburning prinsiplariga to'g'ri kelmas edi. "Do'stlar davrasidagi o'lim bayramdir." Sharoit qanday bo'lmasin, biz shu maqolga amal qilamiz, - dedi u yengil ohangda. — Haqiqatan ham bu bechora qalb egalarini shu dovonga olib kelgan ekanman, qanday azob va mashaqqatlarga duchor bo'lishmasin, men hamma narsada teng sherik bo'lishim to'g'ridir. Shunday qilib, qo'lidan kelganini qilib, boshqalarga nima qilish kerakligini ko'rsatib bo'lgach, ketmon olib, ko'kragigacha keladigan chuqur qorni kovladi, keyin cho'kkaladi." Boburning Hind diyorida yangi davlatga asos solish rejalarini amalga oshirish chog'ida ham bir necha janglarga boshchilik qilgan. Xususan, uning o'sha davrdagi Dehli sultoni Ibrohim Lodiga qarshi janglari chog'ida qo'llagan harbiy taktikalari unga tengsiz g'alabalarni olib keldi. Jang paytida kam sonli ammo zamonaviy harbiy qurol'aslahalar bilan ta'minlangan askarlari yordamida dushmanning bir necha ming qo'shinini mag'lub eta olgani bunga yaqqol misoldir. Pirimqul Qodirov ushbu jangga ta'rif bergan parchani o'qir ekanmiz, tasavvurimizda shubhasiz, o'sha jarayon manzarasi gavdalanadi: "Dehli sultoni Ibrohim Lodi yuz mingga yaqin askar va bir yarim ming harbiy fil bilan Agra tomondan yaqinlashib kelmoqda edi. Ibrohim Lodi shu fillari va askarlari bilan bultur Dehli bo'sag'asida Olamxon, Dilovarxon va boshqa dushmanlarining qirq ming kishilik qo'shinini tor-mor keltirgandi. Boburning qo'shini esa 12 ming kishidan oshmas edi. Boburning butun rejasi- yov qo'shinini to'rt tomondan o'rab olishga va qanotlarini ichkariga qayirib tashlashga qaratilgan edi. Lekin o'rab olingan yov Bobur qo'shiniga nisbatan yetti-sakkiz barobar ko'p edi, chopqir otlar bahaybat fillarning bir zarbasidan yumalab yiqilib ketar edi. Shu sababli Ibrohim Lo'di askarlari hali o'ngda, hali so'lda Bobur qo'shinining halqasini yorib chiqardi. Bobur yonida turgan aloqachi beklar va yasovullarni ketma-ket jang maydoniga choptirar, yovning qo'li baland kela boshlagan qanotlarga markazdan ko'mak yubortirar edi. U markazni yovga ataylab ochiq qoldirmoqda edi, chunki hali harakatsiz turgan aravalar va to'fanglar markazga qo'yilgan edi." Adolatli va rahmdil podshoh sifatida Zahiriddinning boshqalarga o'rnak bo'la oladigan jihatlari har ikkala asarning bir necha o'rinlarida turli misollar yordamida keltirilgan. Jumladan, Hindiston o'lkasini qo'lga kiritib, u yerda o'z nazoratini o'rnatgach, sobiq sulton Ibrohim Lodining onasi Malika Baydani qatl ettirish yoki surgun qilish o'rniga unga nisbatan hurmat-izzat ko'rsatadi. Bundan tashqari malikaning barcha istaklarini bajo keltirgan holda, barcha unga ehtirom keltirish shartligi to'g'risida buyruq beradi. "Bobur mulozimlari tomonga yuzlandi: -Minba'd malikaga hech kim ozor bera ko'rmasin, hamma uni mo'tabar onamizdek ehtirom qilsin!"

Ko'p yillik tajribaga ega rahbar sifatida Zahiriddin Muhammad Bobur o'z taxt vorisi bo'lmish o'g'li Humoyunga davlat boshqaruvi xususida ko'pgina o'g'itlar bergan. O'z pand-nasihatlarini bir kitobga jamlagan holda, uni Humoyunga ham taqdim etadi. Hattoki, o'limi oldidan o'g'liga adolatli va mard podshoh bo'lishni va davlatni oqilona boshqarishni vasiyat qiladi. Ota va o'g'ilning so'nggi suhbatidagi Boburning aytgan so'zlari asarda quyidagicha keltiriladi: "Humoyun, o'g'lim, mening qancha umrim qolgani xudoning o'ziga ayondir. Sohibqiron bobokalonimizning mana shu qilichini endi sen taqmog'ing kerak. Bu qilichga "Kuch-adolatdadir" degan so'zlar bitilgan. Doim odil bo'lg'in-u mag'lub bo'lmagin! Temuriylarning ko'pchiligi... Fidoyilikni unutib... Yo'q bo'lib ketdi. O'g'il otani o'ldirdi. Og'a iniga xiyonat qildi... Oqibatda... Bari razolatning qurboni bo'ldi... Undan ko'ra yaxshilikning fidoyisi bo'lgan afzal emasmi?... Mana amming Xonzoda begim... Samarqandda meni qutqarib o'zini asoratga soldi. Bu fidoyilik meni hamisha... shunday bo'lishga undab keldi. Sen ham endi inilaringu... avlodlaringni mardlikka... fidoyilikka o'rgatgin."

Qisqa ammo mazmunli hayoti davomida Zahiriddin Muhammad Bobur tarix sahifalarida o'chmas qoldira oldi. Buyuk podshoh nafaqat mohir sarkarda balki adolatli va xalqparvar yetakchi sifatida ham insonlar qalbidan joy egalladi. Adabiyot va san'at ixlosmand bo'lganligi sababli ko'plab badiiy asarlar, ruboiy va g'azallar, ilmiy va tarixiy kitoblar muallifiga aylandi. Boburning shu kabi fazilatlarini kelgusi avlod o'quvchilariga tanishtirish uchun zamonaviy o'zbek va inglizxon g'arb adabiyoti namoyondalari uning hayot yo'li va ijodiga bag'ishlab juda ko'plab badiiy, tarixiy va ilmiy asarlar yozib qoldirdilar. Ularni mutolaa qilish orqali XV asrdagi tarixiy jarayonlar, Zahiriddin Muhammad Bobur bilan bog'liq tarixiy haqiqatlardan boxabar bo'ldik.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. З.М.Бобур. Бобурнома.- Тошкент: Юлдузча нашриёти, 1989.
2. П.Қодиров. Юлдузли тунлар.- Тошкент: Шарқ нашриёт-маъбаа аксиядорлик махририяти, 2006-543 б.
3. Khayrullayeva K.R. Interpretation of Zahiriddin Muhamad Babur's image in Uzbek and world literature. EPRA International Journal of Research and Development. Volume 5, Issue 5, May, 2020.
4. Khayrullayeva K.R. Description of Zahiriddin Babur's achievements in various fields in the works of uzbek and world authors. International journal Scientific and Applied Science. Volume 89, Issue 9, September, 2020.
5. Khayrullayeva K.R., Hakimova M.A., Ne'matova Z.T. Exemplary life of Babur Mirza in the interpretation of Stephen Meredith. JournalNX- A Multidisciplinary Peer-Reviewed Journal. Volume 7, Issue 6. June.-2021.
6. H.Lamb. Babur The Tiger: First of the great Moguls. – New York: Doubleday and company inc, 1961- 351p.
7. J.Nehru. The discovery of India.- Oxford, New York: Oxford University Press,1985- P.237-257.
8. Fernand Grenard. Baber first of the Moghuls.- Thornton Butterworth Limited, London, 1931- P. 272.
9. S.M.Edwardes. Babur: diarist and despot.-Great Britain: London: A.M.Philpot LTD, 1926- 162p.

UO'K 808.3

### ERIX MARIYA REMARK VA O'TKIR HOSHIMOV ROMANLARIDA TIPOLOGIK O'XSHASHLIK MASALASI

*O.U. Xolmatov, o'qituvchi, Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona*

**Annotatsiya.** Maqolada qiyosiy metod orqali Erix Mariya Remark va O'tkir Hoshimovning urush mavzusidagi asarlari tahlil qilingan. Ob'ekt sifatida yozuvchilarning tegishli mavzudagi romanlari olingan. Tahlillar jarayonida XX asr nemis va o'zbek harbiy prozasi o'rtasidagi tipologik o'xshashliklar masalasi o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** harbiy proza, obraz, tipologik o'xshashlik, qiyosiy metod, "yo'qotilgan avlod", patsifizm, talqin.

**Аннотация.** В статье помощью сравнительного метода анализируются произведения Эрих Мария Ремарка и Уткир Хашимова на военную тематику. Объектом являются романы авторов ту же тему. В ходе анализа был изучен проблема типологические сходства немецкой и узбекской военной прозы XX века.

**Ключевые слова:** военная проза, образ, типологические сходства, сравнительный метод, "потерянное поколение", пацифизм, интерпретация.

**Abstract.** The article analyzes Erich Maria Remarque's and Utkir Khashimov's war-themed novels using a comparative method. The object is the authors' novels on the same theme. In the course of the analysis was researched the problem of typological similarities between XXth century German and Uzbek military prose.

**Key words:** military prose, image, typological similarities, comparative method, "lost generation", pacifism, interpretation.

**Kirish (Introduction).** XX asr adabiyotida urush talqini o'ziga xos o'rin tutadi. I va II jahon urushlari, "sovuq urush", Vyetnam urushi, Yaqin Sharq mojarosi va Arab – Isroil urushlari, "Karib inqirozi", afg'on urushi kabi jarayonlar XX asrda sodir bo'lib, jahon iqtisodiyoti, siyosati, madaniyatiga, shu jumladan badiiy adabiyotga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. XX asr adiblarining urush mavzusida yozilgan asarlarida inson fojiasi tasviri yetakchi o'rinda turdi. Shu xususiyatiga ko'ra zamonaviy adabiyot urush talqini masalasida qadimiy adabiyotdan jiddiy farqlanadi. Qadimgi va o'rta asrlarda urush asosan qahramonlik va jasorat tasviri orqali aks ettirilgan bo'lsa,

yangi davrga kelib bu munosabat o'zgardi. Ayniqsa, XX asr adabiyoti namunalarida bu xususiyat aniq ko'rinadi. Shu ma'noda XX asr harbiy adabiyotini qiyosiy aspektida o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

**Material va metodlar (Material and methods).** XX asr g'arb va o'zbek prozasida urush kishilari tasviriga bag'ishlangan asarlar g'oyasi, obrazlar tizimi va badiiy xususiyatlari jihatidan o'xshashliklarga ega. Bu o'xshashliklar nemis va o'zbek yozuvchilari Erix Mariya Remark va O'tkir Hoshimovlarning asarlari orqali aniq ko'rinadi. E.M.Remark va O'.Hoshimov asarlarining qiyosiy tahliliga bag'ishlangan tadqiqotlar hali ishlanmagan. Ammo, har ikki yozuvchining urush mavzusidagi asarlari bo'yicha yetarlicha tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, A.Antkoviak, H.Kleyn, M.Parvanova, O.Poxalenkov, I.Framkin, A.Porshneva kabi olimlar Remark ijodini ilmiy o'rgangan bo'lsalar, A.Rasulov, U.Normatov, B.Nazarov, U.O'ljaboyev, Y.Solijonov, Z.Mirzayeva hamda U.To'rayeva kabi olim va tadqiqotchilar O'.Hoshimovning urush mavzusidagi asarlari yuzasidan ilmiy qarashlarini bayon etganlar. Yuqoridagi olimlarning ilmiy qarashlari va ikkala yozuvchi ijodidagi o'xshash jihatlarni o'rganish asosida qiyosiy adabiyotshunoslik yuzasidan yaxshi natija va xuloslarga erishish mumkin.

**Natijalar (Results).** Nemis yozuvchisi Erix Mariya Remark ijodida urush mavzusi asosiy o'rinni egallaydi. Remark asarlari tasvir obyekti jihatidan ikki guruhga bo'linadi:

1) "yo'qotilgan avlod" haqidagi asarlar. Bu guruhga "G'arbiy frontda o'zgarish yo'q", "Qaytish", "Uch og'ayni", "Qora haykal" romanlari kiradi. Ushbu asarlar I jahon urushi va undan keyingi davr voqealarini aks ettiradi. Ularning asosiy qahramonlari urushda ishtirok etgan askarlar, shuningdek, I jahon urushining salbiy oqibatlarini natijasida hayoti izdan chiqqan turli toifadagi insonlar edi. Demak, bu guruhdagi asarlarning asosiy tasvir obyekti I jahon urushi va uning jamiyat hayotiga salbiy ta'siri hisoblanadi.

2) Muhojirlik mavzusidagi asarlar. Bu guruhga "Zafar darvozasi", "Hayot uchquni", "Hayot-mamot pallasi", "Lissabondagi tun" romanlari kiradi. Ushbu asarlarda II jahon urushi yillari voqealari tasvirlanadi. Ulardagi asosiy qahramonlar fashizm ta'qibi natijasida o'z yurtini tark etgan muhojir insonlardir. Ushbu guruhga kiruvchi asarlarning tasvir obyekti II jahon urushi va fashizmning vayronkor mohiyati bo'ldi [1,6].

XX asr o'zbek adabiyotida O'tkir Hoshimov ijodi patsifizm g'oyasini ifodalashda alohida ahamiyatga ega. O'tkir Hoshimovning urush mavzusida yaratilgan asarlari ham ikki guruhga bo'linadi:

1) II jahon urushi haqidagi asarlar. Bu guruhga "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasi va "Ikki eshik orasi" romani kiradi. Ularda II jahon urushining jamiyat hayotiga fojiali ta'siri Shoikrom, Umri xola, Muzaffar, Robiya, Kimsan, Shomurod kabi obrazlar vositasida aks ettirilgan.

2) Afg'on urushi haqidagi asarlar. Bu guruhga "Nega, nega-a?!" hikoyasi va "Tushda kechgan umrlar" romani mansub bo'lib, ularda shu urush sababli behuda qurbon bo'lgan yoshlar haqida hikoya qilinadi. O'tkir Hoshimovning yuqoridagi asarlarida ham fojiali ruh ustun turadi. Urushning vayronkor va g'ayriinsoniy mohiyati realistik usulda ochib beriladi. Shu tariqa, O'.Hoshimov ijodida patsifizm g'oyasi asosiy o'rinlardan birini egallaydi. Har ikki yozuvchining urush mavzusidagi asarlari ikki guruhga bo'linadi. Remark I va II jahon urushlarining, O'.Hoshimov esa II jahon urushi va afg'on urushining insonlar hayoti va taqdiriga ko'rsatgan ta'siri masalasini badiiy obrazlar vositasida ifodalagan.

**Tahlillar (Discussion).** E.M.Remarkning birinchi jahon urushi mavzusida yozilgan "G'arbiy frontda o'zgarish yo'q", "Qaytish", "Uch og'ayni" romanlarida "yo'qotilgan avlod" vakillarining urush ta'sirida izdan chiqqan hayoti tasvirlanadi. Xususan, "G'arbiy frontda o'zgarish yo'q" romanida yosh avlodning urush frontlarida urushning g'ayriinsoniy mohiyatini anglab yetish jarayoni aks ettiriladi. Romanning to'qqizinchi bobida askarlarning kayzer bilan uchrashuvi tasvirlanadi. Mana shu jarayonda Katchinskiy tilidan aytilgan urush haqidagi fikrlar asarning asosiy g'oyalaridan birini belgilab beradi: *"Richtig, aber bedenk doch mal, daß wir fast alle einfache Leute sind. Und in Frenkreich sind die moisten Menschen doch auch Arbeiter, Handwerker oder kleine Beamte. Weshalb soll nun wohl ein französischer Schlosser oder Schuhmacher uns angreifen wollen? Nein, das sind nur die Regierungen. Ich habe nie einen Franzosen gesehen, bevor ich hierherkam, und den moisten Franzosen wird es ähnlich mit uns gehen. Die sind ebensowenig gefragt wie wir"* [2,132]. (...To'g'ri, lekin shuni hisobga olish kerakki, biz oddiy odamlarmiz. Fransiyada ham ishchilar, hunarmandlar va mayda xizmatchilar ko'p. Lekin bironta fransuz chilangari yoki kosibi bizga hujum qildimi? Yo'q, bunaqa ishlar hukumat idorasida hal qilinadi. Men bu yerga kelguncha bironta fransuzni uchratmaganman, ular ham nemisni ko'rishmagan. Xuddi biz kabi ulardan ham hech kim so'rab o'tirmagan"[3,151]. – \*Nizom Komil tarjimasini). Katchinskiy uchun barcha askarlar kelib chiqishi va qayerlik ekanligidan qat'iy nazar qurbonlardir. Remark asarda nemis yoshlarining urushdagi fojiali qismatini tasvirlangan bo'lsa-da, romanda ko'tarilgan muammo faqat nemis xalqiningina emas, urushda ishtirok etgan barcha xalqlarning, butun insoniyatning global muammosi sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, Remarkning "Uch og'ayni" romanida ham Birinchi jahon urushida qatnashgan, urushdan keyin hayotda o'z yo'lini topishga intilgan turli taqdirli va xarakterli tasvirlangan. Yozuvchi "G'arbiy frontda o'zgarish yo'q" romanida o'smir yoshdagi askar yigitlarning bevosita frontdagi hayotini tasvirlagan bo'lsa, "Uch og'ayni" romanida o'sha o'spirinlarning ancha ulg'aygan vakillari haqida hikoya qiladi. Asarda urushdan o'n yil keyin ro'y bergan voqealar bayon etiladi. Biroq, asar qahramonlari urushning salbiy ta'siridan qutula olmaganlar. Bu holat quyidagi parchada yorqin aks etgan: *"Wir hatten marschieren wollen gegen die Lüge, die Ichsucht, die Gier, die Trägheit des Herzens, die all das verschuldet"*

*hatten, was hinter uns lag – wir waren hart gewesen, ohne anderes Vertrauen als das zu dem Kameraden neben uns und das eine andere, das nie getrogen hatte: zu den Dingen – zu Himmel, Tabak, Baum und Brot und Erde*”[4,46]. (Biz o'tmishimizga dahldor barcha narsaga qarshi – soxtalik va xudbinlik, ochko'zlik va shafqatsizlikka qarshi kurashmoqchi edik; biz bag'ritosh bo'lib qoldik va yaqin o'rtog'imizdan boshqa hech kimga, bizni hech qachon aldamagan osmon, tamaki, daraxtlar, non va zamindan bo'lak hech narsaga ishonmay qo'ydik[5,53] – \*Nizom Komil tarjimasini). Remarkning bu guruhdagi asarlari g'oyasi va obrazlari jihatidan O'.Hoshimovning “Nega, nega-a-?!” hikoyasi va “Tushda kechgan umrlar” romani bilan umumiylik kasb etadi. Xususan, “Tushda kechgan umrlar” romanida xuddi Remarkning yuqoridagi asarlari qahramonlari kabi yosh askarlarning afg'on urushida behuda qurbon bo'lishi, urushning askar ruhiyati va dunyoqarashiga ta'siri ifodalangan. O'tkir Hoshimov afg'on urushining halokatli ta'sirini bosh qahramon Rustam bilan birgalikda Xayriddin obrazi orqali ham bayon etadi. Romanda Xayriddin tilidan urushga quyidagicha ta'rif beriladi: “...Urush teskari haqiqat degani ekan. Odam bo'lg'ing kelsa, shafqatsiz bo'l. O'lg'ing kelmasa, o'ldir”[6,100]. Urushning adolat va haqiqat tamoyillariga mutlaqo to'g'ri kelmasligi ushbu jummalarda qahramonning xulosasi fonida ifodalangan. Bu orqali muallifning ham urush haqidagi o'z qarashlari badiiy ifodasini topgan. Har ikki yozuvchining ushbu asarlarida “yolg'on taqdir”, “behuda umr” masalalari yosh askarlarning fojiali taqdiri vositasida aks ettiriladi.

Remark va O'.Hoshimovlarning II jahon urushi mavzusidagi asarlarida ham tragik pafos ustuvorlik qiladi. Remark “Zafar darvozasi”, “Hayot uchquni”, “Lissabondagi tun” kabi romanlarida muhojirlarning og'ir hayotini tasvirlasa, O'.Hoshimov “Urushning so'nggi qurboni” hikoyasi va “Ikki eshik orasi” romanida front ortidagi insonlar taqdiriga ko'proq urg'u beradi. Bu orqali O'.Hoshimov urushning faqat frontdagi askarlar emas, frontdan uzoqda bo'lgan oddiy xalq vakillari uchun ham katta fojialar olib kelganini badiiy obrazlar orqali ifodalaydi. E.M.Remark va O'.Hoshimovlarning bu guruhdagi asarlarini antifashistik ruh birlashtirib turadi.

Har ikki yozuvchi ham yuqoridagi asarlarida urushga dahldor bo'lgan insonlarni umumlashma obrazlarini tasvirlaydilar. Remarkning bu qahramonlari ko'proq avtobiografik xususiyatga ega. O'.Hoshimov esa turli insonlardan olingan ma'lumotlar, hayotiy kuzatuv vositasida urush odamlarining umumlashma obrazlarini yaratgan. Shuningdek, ichki nutq va psixologizmlardan keng foydalanilishi ham ikki yozuvchining umumiy xususiyatlaridan biridir. Remark asarlarida voqealarni birinchi shaxs (men) tilidan hikoya qiladi. O'.Hoshimov esa “Ikki eshik orasi”, “Tushda kechgan umrlar” romanlarida polifonik nutqdan unumli foydalangan.

**Xulosa (Conclusion).** E.M.Remark va O'.Hoshimovlarning urush mavzusidagi har qanday asarlarida qahramonlik motivi emas, fojia va o'lim motivi yetakchi o'rinda turadi. Har ikki yozuvchining qahramonlari jasoratlariga tashna bahodirlar emas, aksincha, urushdan jabr ko'rgan va hayoti izdan chiqqan insonlardir. Bu umumiylik yozuvchilarning insonparvarlik prinsipi, shuningdek, patsifizm g'oyasini ilgari surganliklari bilan belgilanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Саидмуродов С. Тинчлик номи ила. // Ремакк Э.М. Лиссабондаги тун. – Т.: “O'ZBEKISTON”, 2016
2. Erich Maria Remarque. Im Westen nicht Neues. – Köln: Kiepenheuer&Witsch, 1971.
3. Remark. G'arbiy frontda o'zgarish yo'q. – Т.: “Yangi asr avlodi”, 2016
4. Erich Maria Remarque. Drei Kameraden. – Köln: Kiepenheuer&Witsch, 1991.
5. Ремакк Э. М. Уч оғайни. – Т.: ШАРҚ, 2015
6. Хошимов Ў. Тушда кечган умрлар. – Т.: “Янги аср авлоди”, 2016

UO'K 808.5

## JAHON VA O'ZBEK ADABIYOTIDA TETRALOGIYA YARATISHDA BADIY-ESTETIK TAJRIBALAR

Z.R. Yaxshiyeva, PhD, TATU Qarshi filiali dotsenti, Qarshi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Jahon va o'zbek adabiyotida tetralogiya namunalari yaratishning tarixiy asoslari va bu yaratilgan tetralogiya namunalari o'rgangan tadqiqotchilarning ilmiy asoslangan xulosalari berilgan. Shuningdek, o'zbek adabiyotidagi ilk tarixiy tetralogiya namunasi bo'lgan Muhammad Alimning “Ulug' saltanat” epopiyasi yaratilishidagi badiiy estetik tajribalar o'rganilgan. Shu bilan birgalikda, ushbu epopiyada keltirilgan misollar tahlilga olingan.

**Kalit so'zlar:** tetralogiya, roman-dilogiya, roman-trilogiya, roman-tetralogiya, epopiya, lirik kompozitsiya

**Аннотация.** В данной статье приводятся исторические основы создания образов тетралогии в мировой и узбекской литературе и научно обоснованные выводы исследователей, изучивших эти образы тетралогии. Также были изучены художественно-эстетические опыты создания эпопеи “Великое государство” Мухаммеда Али, являющейся первым образцом исторической тетралогии в узбекской литературе. В то же время басни, представленные были подвергнуты анализу в этой эпопее.

**Ключевые слова:** тетралогия, Роман-дилогия, роман-трилогия, Роман-тетралогия, эпопея, лирическая композиция

**Abstract.** This article presented the historical foundations of the creation of tetralogy samples in the world and Uzbek literature and the scientifically based conclusions of researchers who have studied these tetralogy samples. The artistic and aesthetic experiences of creating the epic of Muhammad Ali "The Great Reign" were also studied which is the first example of a historical tetralogy in Uzbek literature and analyzed the presented epic fables in epopee as well.

**Keywords:** tetralogy, Novel-dialogic, novel-trilogy, novel-tetralogy, epic, lyrical composition

Adabiyotshunoslik ilmida har bir janriy-kompozitsion izlanishlarda eksperiment tajribalar amalga oshirish tajribasi mavjud. Bu izlanishlar poetik istilohning to'laqonli tabiatini aniqlashda qo'l keladi. Xususan, keng epik ko'lamdorlik kasb etgan, hayotning nihoyatda ulkan manzarasini aks ettirishda roman, roman-dialogiya, roman-trilogiya, roman-tetralogiya singari janrlarda bu hodisa ma'lum ma'noda o'z ifodasini namoyish qiladi. Epopeik asarlarni o'trganish asnosida, anglash mumkinki, tetralogiya – roman bilan solishtirilganda bir-biriga mantiqan bog'langan (asarning g'oyaviy tayanch nuqtasi bir markazda uyushgan), syujet va kompozitsion jihatdan nisbiy mustaqillikka ega to'rt asar majmuidan iborat. Bu nazariy qarashlarni akademik A. Saidovning quyidagi ixcham ta'rifi ham tasdiqlaydi: "Tetralogiya – g'oyasi va mazmuni bir xil bo'lgan to'rtta adabiy yoki musiqiy asar, deganidir"[1]. Bizningcha, tetralogiyada ijodkor g'oyaviy maqsadining yagonaligi, yaxlit konsepsiyaga ega bo'lgan epik ko'lamdorligi ma'lum jarayon, davr silsilalarini aks ettirgani bilan boshqa janrlardan ajralib turadi.

"Adabiyotshunoslik" lug'atida: "Epopeya" (yun. epopia, ya'ni epos – hikoya va poieo – yaratmoq, ijod qilmoq) – hajman yirik asosga umumxalq ahamiyatga molik problematika qo'yilgan epik asar. Epopeyaning ilk namunalari sifatida qahramonlik eposi ko'rsatiladi. Keyinroq o'rta asrlar va ularga taqlid tarzida dunyoga kelgan epopeyalar yozma adabiyotda ham qaror topdi. (Tassoning "Vergiliy", "Eneida"; Volterning "Ozod qilingan qush Ireusalim"; "Genriada") Badiiy nasrning, xususan, romanchilikning taraqqiy etishi barobarida, millat hayotining muhim tarixiy bosqichini qalamga olib, umumxalq ahamiyatga molik muammolarni badiiy idrok etishga qaratilgan roman-epopeyalar paydo bo'ldi"[2]. Darhaqiqat, tarixiy tetralogiya genezisi haqida so'z borganda – eposdan o'sib chiqqan epik ko'lam, zamon va makon orasida kechuvchi ziddiyatlar, tarixiy silsilalar uzviy har bir davrning qiyofasini to'laqonli anglashga yordam beradi. Yevropa va rus adabiyotining oltin davrida, ya'ni XIX asrning ikkinchi yarmida epopeya yaratish an'anasi vujudga keldi. Epik ko'lamning zamon to'laqlinlarida evrilishi yoxud takomillashuvi L. Tolstoy, F. Dostoyevskiy, J. Joys, F.Kafka, A. Kamyu, M. Sholoxov singari yozuvchilar ijodida yanada ranginlasha boshladi. Insoniyat taqdiri bilan uzviy bog'langan, hayotiy haqiqatni o'z ko'zi bilan ko'rib, undan tegishli xulosalar chiqargan adiblar ijodiy kredosi "yangi inson ruhiyatini kashf etish to'laqlini" sifatida tarix zarvaraqlariga muhrlandi. Bu ijodiy jarayon takomilining yorqin namunasi jumlasiga L. Tolstoyning "Urush va tinchlik", M. Sholoxovning "Tinch Don", M. Aldanovning "Mutafakkir" singari asarlarini kiritish o'rindir. Shuningdek, bir haqiqatni aytish joizki, tarixiy tetralogiya muallifi Mark Aldanov o'z asarida Napoleon boshchiligidagi kechgan urush oqibatlarining ko'ngilsiz holatlarini qalamga oladi.

Jahon badiiy tamaddunining betakror yozuvchilari L.Tolstoy "Urush va tinchlik", M.Sholoxovning "Tinch Don" kabi epopeyalari kompozitsion qurilishida badiiy tafakkurning cheksiz qudratini, insonni tadqiq qilish manerasining benihoya kengligini, so'z va uning mohiyatida aks etgan ma'no jilvalarining serqirraligini yuzaga chiqarganligini adabiy jamoatchilik hozirga qadar e'tirof qilishmoqda.

O'tgan asrning boshlarida roman janri borasidagi izlanishlar, ayniqsa, A.Qodiriyning "O'tgan kunlar", Cho'lponning "Kecha va kunduz" singari asarlari keyingi yaratiladigan asarlarga ma'lum ma'noda o'z ta'sirini ko'rsatdi. Asr o'rtalariga kelib S.Ahmadning "Ufq" trilogiyasi romaniy tafakkur salmog'ining yanada kengayishiga zamin yaratdi. Joriy kunda badiiy adabiyot sahnasida o'z o'rniga ega iste'dodli yozuvchilardan biri M.Alining "Ulug' saltanat" tetralogiyasi yuqoridagi badiiy-estetik tajribalarning (bu o'rinda uslub, usul, ifoda nazarda tutilmoqda!) o'ziga xos shaklini to'laqonli namoyon qilganligini ta'kidlash o'rinni. Aslida, mazkur janr, ya'ni, tetralogiya muallifning o'zi alohida ta'kidlaganidek, 90-yillarda "Sarbadorlar" romanining yaratilishidan keyin tug'ilgan ijodiy niyat hamda tajribaning mantiqiy davomidir. M.Alining ijodiy niyati sifatida qaralayotgan ulkan epik polotno Movoraunnahrdagi hukmronlik qilgan Sohibqiron Amir Temur shaxsini ulug'lash, qadr-qiyamatini oshirish, ham ota, ham arbob, ham dorulsaltanat egasi, ham olijanob yurtparvar sifatidagi yuksak insoniy fazilatlarini, markazlashgan temuriylar saltanatining aslzodalari, keyingi hayoti, o'sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy islohotlarning nihoyatda keng qamrovligi borasida olib borilgan izchil strategik hamda diplomatik aloqalarni qayta kashf etishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Ilk ijodiy reja birgina she'rdan boshlangani, u bora-bora roman-epopeyaga aylanishida ham ramziy ma'no mujassam. "Ilk ijodiy reja hech vaqt osmondan tushmaydi. Uning yuzaga kelishiga ham xalq hayoti asosdir. Ana shu reja halqning qalbini, o'y-orzusini, intilishlarini, irodasini tushuna bilgan, uning porloq kelajagi uchun kurashga ongli ravishda, beminnat o'zini bag'ishlagan san'atkor qalbida juda ko'plab yuzaga kelaveradi. Lekin ularning qay biri "amal"ga keladi, qay biri yozuvchini tinchitmaydi, bu yana o'shu diffuziyaga, "katalizator"ga bog'liqdir"[3]. Bu iqtibos bevosita M.Alining "Ulug' saltanat" epopeyasiga muqoyasa qilsak, masala mohiyati yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Unda shaxs va uning botiniy olami, muqaddas sanalgan oila qo'rg'onining mustahkamligi, davr qiyofasini aks ettirishda ishonarli manbalarga murojaat qilinganli bilan ham o'lchanadi. Ya'ni muallif matn emotsional hissiy-



shuuriy taqdimnomasida barcha voqelikni Amir Temur shaxsiyati va hamiyati atrofida bog'lashga, syujet voqealarining tipologik xususiyatlarini ketma-ket rivojlantirib borishga ahamiyat qaratganligi bilan belgilanadi.

Har bir asarning alohida nom bilan atalishi, Amir Temur o'g'illarining ismiga moslab tartib berilishida ham mantiqiy aloqa mavjud. Jumladan, taxtni egallashda yoki uni tortiq qilishda Amir Temurning zakiyligi, uning keng va teran fikr-mulohaza yurituvchi podshoh ekanligini voqealar rivoji tasdiqlab boradi. Bu ham muallifning o'z oldiga qo'ygan asosiy vazifalaridan biri ekanligini dalolatlaydi.

Roman-epopeyaning "Jahongir mirzo", "Umarshayx mirzo", "Mironshoh mirzo", "Shohrux mirzo" nomlari bilan poetik qirralarini ifoda qilish yozuvchiga "ilk ijodiy niyatning" hal qilinishida muhim kalit vazifasini o'tagan[4]. Darhaqiqat, yozuvchining badiiy-estetik tajribasi sifatida dastlab "Gumbazdagi nur" dostoni, "Sarbadorlar" asari ham tarixiy haqiqatni qayta tiklashda muhim ahamiyat kasb etgan desak, mubolag'a qilmaymiz. Negaki, har qanday badiiy asar yozuvchining ijodiy niyati hamda izlanishlarining davomiyligi natijasida yangi-yangi kashflarni ixtiyor etishi shubhasiz. Shu ma'noda, roman-epopeyaning shakliyl-usbubiy qirralari yozuvchi dunyoqarashining takomillashib borayotganligini hamda to'laqonli maqsadlari sari qadam tashlaganligi natijasida yuzaga chiqqanligini isbotlab turibdi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, "Ulug' saltanat" romanini tasvir prinsipi jihatidan izchil realistik uslub mezonlari bilan baholab bo'lmaydi. Chunki roman tasvirida subyektiv asos ustun mavqeda, liro-publitsistik unsurlar bisyor. Favqulodda tabiatga ega bo'lgan qahramonlarning ehtirolari jo'shqin, o'zlari esa kurashchan. Romanning syujeti, kompozitsiyasi, yetakchi pafosi, tili, tasvir uslubida mazkur hol yorqin namoyon bo'ladi. Demak, "Ulug' saltanat" tahlilida u mansub bo'lgan ijod tipini inobatga olmasak, asarning go'zal fazilatlarini aniq aniq ko'rish imkoni ham butkul yo'qqa chiqadi. Badiiy ijodning shartlilik tamoyili unutilgani bois, ijodkorning badiiy haqiqati haqidagi tasavvurlarimiz ham biryoqlama bo'lib qoladi"[5]. Darhaqiqat, keltirilgan iqtibosda muallif ijodiy niyati, epopeyani yuzaga kelishida katta vaqt falsafasi, jahongirning strategik islohotlari, hamisha muzaffar bo'lish shifoati qabarib ko'rinadi. Aynan, roman-epopeyaning matnii tahlilida bu narsa yaqqol seziladi. Davr yaratgan adabiy polotnolarda jamiyat madaniy-ma'rifiy hayoti keng qamrovda tadqiq markaziga yo'naltiriladi. Muallif estetik tajribasida olam va odam muammolari aks ettirilishi masalaga to'g'ri talqin tamoyillarini qo'llashda dolzarbdir. M.Ali aynan shu jihati bilan asarda ishtirok etuvchi xarakterlarning to'laqonli shakllanish bosqichlarini intensiv yo'sinda "tezlashtirgan". L.Tolstoy va M.Sholoxov xarakter yaratishda matnii atayin cho'zish, voqelikni sinchiklab tasvirlash yo'lida borsa, M.Ali qisqalik orqali katta vaqt falsafasini namoyish qilishni asosiy ifoda yo'sini tarzida tavsiflaydi. Bu ifoda usuli badiiy-estetik tajribaga mos talqinni keltirib chiqargani quvonarli hodisadir.

Amir Temurning "Tuzuklari" roman-epopeyaning yanada ishonarli, jonli, kuchli drammatizmni yuzaga kelishida muhim omil bo'lgan. Unda Temurning olib borgan ijtimoiy-siyosiy islohotlari, oila va yurt oldidagi mas'uliyati – saroy ahlida katta mamnuniyat hissini oshirganligi, farzand tarbiyasida adolatli hamda zakiylik bilan ish yuritgani barchamizga ma'lum. Tarixiy fakti badiiy haqiqatga aylantirish uchun ham yozuvchidan katta ijodiy izlanishni talab qiladi. "Muhammad Ali asarda manbalarga suyanib to'g'ri ko'rsatganiday, Sohobqironning bunyodkorlik va yaxshilik, adolat, iymonu insofni ulug'lab, shu ezgu shiorlarga amal qilishida Andxo'yda yashovchi piri Mirzaid Barakaning muborak maktubi ham kuchli ta'sir qilgan. Romanda yozuvchi qahramonlarning tilini o'rta asrlar turkiy tili yoki eski o'zbek tiliga yaqinlashtirishga harakat qilgan"[6]. Tarixiy faktlarni qo'llashda yana bir muhim manba Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafaroma" asari ham yozuvchiga katta ijodiy niyatning yuzaga chiqishida rahnomolik qiladi. Undagi Amir Temur shaxsi va bajargan ezgu amallarini qayta kashf qilib, badiiy talqinga aylantirishda o'ziga xos yo'nalishning shakllanishiga zamin yaratadi. Garchi adib ko'proq oila va qo'rg'on boshqaruvdagi voqelikka ko'proq urg'u bersa-da, jangu jadallarda kechgan Amir Temur umri, vaqtini ikkinchi planda ko'rsatishga diqqat qaratganligi ayni haqiqatdir.

Umuman, badiiy-estetik tajriba, asarning bo'lak hamda qismlari, keyinchalik tetralogiyaning to'laqonli dunyo yuzini ko'rish – keng hayotiy tajriba, izlanish, mahorat singari ijodkor botiniy olami bilan bog'liq jihatlarining barqarorlashuviga mustahkam asos bo'ldi. Bu asos hayot va adabiyot, shaxs va shaxsiyat, ulug' bir shaxsning xarakter qirralarini qayta idrok qilish malakasini rivojlantirdi. Demak, badiiy ijod konsepsiyasi muallif ta'kidlaganidek, tarixiy haqiqatni qay darajada sinchiklab o'rganish, undan kerakli xulosalar chiqarish, eng muhimi, jiddiy izlanishga borib tutashuvini his qilgan holda ish yuritish muhim ekanligini adib diqqat markazida tutmog'i shartdir. Zero, badiiy ijod jarayonida muallif voqelikni boshqaruvchi emas, o'z taqdirini o'z yaratadigan xarakterlarni tasvirlashi bilan ham belgilanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Saidov A. Ulug' saltanat – ulug'vor ajdodlarimiz tarannum etilgan asar. "Ulug' saltanat vasfi" kitobi. –Toshkent: Mashhur press nashriyoti, 2017. – B. 84. Yoqubov I. Muhammad Ali ijodida tarixiy jarayon konsepsiyasi va liro-romantik talqin. – Toshkent: Fan. 2007. – B.15.

2. Qur'onov D., Mamajanov Z, Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademyashr, 2013. – B. 370.

3. Umurov H. Badiiy ijod asoslari. Toshkent: "O'zbekiston". 2001. –B.53.

4. To'rayev D. O'zbek tetralogiyasi. Toshkent: "Akademyashr". 2017. –B.14.

5. Yoqubov Islomjon. Muhammad Ali ijodida tarixiy jarayon konsepsiyasi va liro-romantik talqin. Toshkent: Fan. 2007. – B.48.

6. To'rayev D. O'zbek tetralogiyasi. Toshkent: Akademyashr. 2017. -B.48.

## MAIN PROBLEMS OF TRANSLATION OF SPORT TERMS FROM ENGLISH INTO CHINESE

Yuan Xiaowei, teacher, Jinnig Normal University, Jinnig

**Annotatsiya.** Maqola sport terminologiyasini tarjima qilish muammolariga bag'ishlangan. Termin yaratishning asosiy usullari, shuningdek, sport atamalarini ingliz tilidan xitoy tiliga tarjima qilishda qo'llaniladigan tarjima transformatsiyalari ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** sport terminologiyasi, tarjima o'zgarishlari, so'zlarning yasaliş usullari.

**Аннотация.** Статья посвящена проблемам перевода спортивной терминологии. Рассмотрены основные методы образования терминов, а также переводческие трансформации, используемые при переводе терминов с английского на китайский язык.

**Ключевые слова:** спортивная терминология, переводческие трансформации, способы образования слов.

**Abstract.** The article is devoted to the problems of translation of sports terminology. The main methods of term formation are considered, as well as translation transformations are used in the translation of sport terms from English into Chinese.

**Key words:** sports terminology, translation transformations, ways of forming words.

It is obvious that at present the sports terminology of both Chinese and English is undergoing significant changes, which are caused by globalization, the expansion of intercultural communication, the progress and development of sports in its various directions.

In recent years, the problems of sports translation in the domestic practice of translation are relevant - our country has hosted many major international sports competitions, from the European and World Championships to the World Universiad in Kazan and the Olympic and Paralympic Games in Sochi. In the coming years, Russia will host the World Ice Hockey Championship, the World Cup, the Winter Universiad and other tournaments that require professional translation in the sports field.

The relevance of this research topic is also due to the need for a deep analysis of such a rapidly developing system of lexical units as sports terminology. Studying the patterns in the field of actual and demanded subsystems of the language, one can get an idea of the current state and development of the language as a whole.

I would like to start with the definition of the term. Many leading Russian and foreign linguists-terminologists gave their definitions of terms, some of which are presented in Table. 1.

After analysing these definitions and highlighting the main thing in them, it can be argued that a term is a word or phrase, which is the designation of a strictly defined scientific concept, which, together with other concepts of a given branch of science or technology, constitutes one semantic system.

There are a myriad of areas in which the terms are used. Sports terms are terms that are used in the narrow field of sports, brand names of sports goods and equipment and names that make it difficult to translate, since some of them are missing in ordinary dictionaries: X - category - the level of achievements in windsurfing, starred - was a leading player, cup winners 'cup - cup winners' cup, supporting foot - support foot and many others.

Author	Definition
Danilenko Valeriy Petrovich	A component of a dynamic model of a language that dialectically combines a stable sign system and its constant rethinking [Danilenko, 1998: 140]
Grinev Sergey Viktorovich	A nominative special lexical unit (word or phrase) of a special language, taken for the exact name of special concepts [Grinev, 2008: 46]
Nemchenko Vasiliy Nikolaevich	A word or phrase (with a subordinate connection of components) denoting a professional concept [Nemchenko, 2008: 453]
Felber Helmut	A linguistic symbol, which is assigned to one or more concepts, which are defined from neighbouring concepts. It can be a word or a word group. It can also be a letter or graphic symbol, an abbreviation, an acronym, a notation, etc.
Richards. Jack.C.	The special lexical item, which occur in a particular discipline or subject matter.

Having considered the models for the formation of new sports terms, the following can be distinguished:

1. Prefix method: interception - interception, replacement - replacement, disadvantage - no advantage.
2. Suffix way: passer - passing, scorer - scoring, association - association, championship - championship.
3. New meaning of a word or phrase: line-backer - back line defender, pick - ball or puck rebound, freshman - a newcomer playing in the team for the first year, defender - defender, but not homeland, but on the field in the game.

4. Composition: penalty-kick - penalty, to pass a record - show the record, title - fight - fight for the title, point man - who scores the most washers, never - say-die defence - impenetrable defence, dribble-penetration - penetrating pass with a stroke.

5. Changing the meaning of individual elements in complex sports terms: a long - shot chance - a chance with an eye to the future, a bicycle kick - a coup kick, penalty - a penalty, not a penalty.

6. There are a number of sports terms that, in addition to full uniforms, also have an abbreviation: The Federation Internationale de Football Association - FIFA.

7. Conversion: He captained the team - He became the team captain.

When transferring sports terminology, there are two ways of translation: direct or literal translation and indirect (indirect) translation. It happens that a message in the source language translates perfectly into a message in the target language. In this case, when transferring a term, the translator chooses a direct translation.

Literal translation denotes the transition from the source language to the target language, which leads to the creation of a correct and idiomatic text, while the translator only monitors compliance with the mandatory norms of the language, for example: European champions' club - European Champions Cup, penalty-area line - penalty line square, shot into the near (long) corner of the goal - shot into the near (far) corner of the goal.

However, when the translator ascertains the presence of a "gap" in the target language, which must be filled with equivalent means, in order to ensure that the overall impression of the two messages is the same, he resorts to using different translation transformations.

Transcription and transliteration are ways of translating the lexical unit of the original by recreating its form using the letters of the translated language. During transcription, the sound form of a foreign language word is reproduced, and during transliteration, its graphic form: skateboarding - skateboarding, skeleton - skeleton, bobsleigh - bobsleigh, touchdown - touchdown.

When translating abbreviations, we either transfer the abbreviation itself using transcription or transliteration: UEFA - UEFA (which stands for the Union of European Football Associations), or we translate the abbreviation and fold it back into the PY version: EPL (English Premier League) - Premier League (English Premier League).

Calculation is a way of translating the lexical unit of the original by replacing its constituent parts - morphemes or words - with their lexical correspondences in the TL. There are two types of crippled words: derivational and semantic.

1. Word-building tracing paper are words obtained by the "pomorphic" translation of the word: goalpost - barbell, half-time - half of the game, handball - handball.

2. Semantic tracing-paper is Chinese words that have received new meanings under the influence of the corresponding words of another language as a result of literalism in translation: cannon ball - cannon strike, dead ball - a stationary ball, drop ball - a held ball, lobbed ball - a hanging ball, sky ball - a blow with a candle, spinning ball - a twisted ball, to clear the ball - to hit the ball, to rob the opponent of the ball - to pick up the ball.

However, sports terms are not limited to the names of sports games and their participants. They also include the names of equipment, sports organizations, competitions, competitions and awards. When translating these terms, the translator uses several translation transformations at once.

Sports organization: The Federation Internationale de Football Association (English: International Federation of Association Football) - FIFA International Football Association (tracing and transcription from French).

Sporting event names: The FIFA World Cup (tracing and transcription), The UEFA Europa League (tracing and transliteration), The UEFA Champions League (tracing and transliteration).

Sport awards: The UEFA Super Cup (copying and transliteration), The FIFA Balloon d'Or (English - "Golden Ball") - FIFA Golden Ball (copying and transcription).

In sports terminology there is such a phenomenon as eponymous terms, i.e. "Terms whose structural elements are proper names, either denoting the authors of the corresponding objects, phenomena, units of measurement, or assigned in honor of famous figures of science and culture (commemorative terms)" [Leichik, 1994: 12], most often we convey using transcription and tracing. For example, the Magnus Effect, named after the German scientist G.G. Magnus, means the appearance of lateral force when flying a spinning ball. Thanks to him, during a corner kick in football, the ball can hit the goal [Sports Terminology, 2001: 478].

Transposition is a translation method that consists in replacing one part of speech with another part of speech without changing the meaning of the entire message. This method can be used both within one language, and, in particular, in translation.

Let us take the names of footballers James Beattie and James Rodriguez as an example. The first is the former central striker of the English club Stoke City; therefore, taking into account the peculiarities of the English pronunciation, we will translate his name as James Beatty. The second is the striker of Real Madrid, Colombian James Rodriguez. Both names are spelled the same, but pronounced differently. Therefore, when translating, it is necessary to take into account the origin of this name.

Similarly, we can look at the names of German Bayer 04 midfielder Michael Ballack and former Manchester United striker 2001 Ballon d'Or Michael Owen.

There are also cases when in the target language there is no complete functional analogue of a particular term. In this case, we use a descriptive translation method.

Descriptive translation is a translation method used in cases where there is no possibility of transferring a language unit due to the lack of equivalents and analogues in the TL.

For example: libero - with the help of transcription we translate it into Chinese as libero and give a decryption: a free defender is a type of central defender whose main task is to select and "carry" the ball out of the penalty area as soon as the attacker approaches the goal with him.

Offside - with the help of transcription we translate as offside, decipher "offside" position, i.e. unacceptable position of the attacking player in relation to the players of the defending team, in which the referee stops the attack on the opponent's goal.

Thus, when translating terms from English into Chinese, we most often use translation techniques such as transcription, transliteration, descriptive and literal translation, tracing, transposition, which allows us to achieve maximum equivalence.

#### REFERENCES:

1. Бояркина В.Д. Основы спортивной терминологии, М. Дрофа, 2007. – 105 с.
2. Виноградов В.С. Введение в переводоведение. - М.: Издательство института общего среднего образования РАО, 2001. – 224 с.
3. Гринев С.В. Терминоведение. М: Академия, 2008. – 112 с.
4. Даниленко В.П. Общая лингвистика. - Иркутск, 1998. – 87 с.
5. Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты): Учеб. для ин-тов и фак. иностр. яз. – М.: Высшая школа, 1999.
6. Лейчик В.М. Обоснование структуры термина как языкового знака понятия // Терминоведение. – 1994. – №2. – С. 5–6.
7. Немченко В.Н. Введение в языкознание. – М.: 2008. – 703 с.
8. Реформатский А.А. Введение в языковедение: учеб. для филол. фак. пед. ин-тов / А. А. Реформатский. — 4-е изд-е, испр. и доп. – М.: Просвещение, 1967. – 542 с.
9. Суперанская А.В. Общая терминология: вопросы теории / А. В. Суперанская, Н. В. Подольская, Н. В. Василева. – 6-е изд. – М.: Либроком, 2012. – 248 с.
10. Терминология спорта. Толковый словарь спортивных терминов. Сост. Ф.П.Суслов, Д.А.Тишлер. – М.: СпортАкадемПресс, 2001. – 480 с.

UO`K 808.3

### NEMIS VA O`ZBEK TILLARIDA FRAZEOLOGIK BRIKMALARNING MA'NO JIHATDAN BIRHILLIGI VA FARQI

*Sh.M. Yusuffonova, o'qituvchi, Farg'ona da'lat universiteti, Farg'ona*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola leksikologiyaning bir bo`limi frazeologiya sohasiga bag`ishlangan bo`lib, unda asosan nemis va o`zbek tilshunosligidagi frazeologizmlar tasnif qil inadi. Tilshunos olimlarning fikrlari tahlil qilinadi. Ularga umumiy xulosalar misollar bilan beriladi.

**Kalit so`zlar:** fraza, frazeologizm, leksema, morfema, sintaktik bog`lanish, lisoniy birlik.

**Аннотация.** Статья посвящена области фразеологии, которая должна быть единым целым лексикологии, в которой классифицируются фразеологизмы немецкого и узбекского языкознания. Им даются общие выводы об использовании фразовых глаголов в обоих языках.

**Ключевые слова:** фраза, фразеология, лексема, морфема, синтаксическая связь, языковая единица.

**Abstract.** The article is devoted to the field of phraseology, which should be one of the lexicology, in which phraseological units in German and Uzbek linguistics are classified. They are given general conclusions about using phrasal verbs in both languages.

**Keywords:** phrase, phraseology, lexeme, morpheme, syntactic connection, linguistic unit.

Таржима жараёнининг барча йўналишларида, хоҳ у насрий таржима, хоҳ у назмий таржима бўлсин, хоҳ у оғзаки ёки ёзма бўлсин шу билан бирга чет тилларни ўқитиш жараёнида хар доим тиллардаги фразеологик бирликлар муаммосига дуч кела берамиз. Бу табиий хол,чунки аксарият фразеологизмлар хар қандай халқнинг миллий тили хусусиятлари асосида, миллий менталитети, дини, эътиқоди, анъанавий қадриятлари,этнос ва жуғрофий жойлашуви таъсирида воқеалаштирилган. Шу боисдан бўлса керак таржимашуносликда хозиргача ушбу ноёб тил унсурларини таржима қилиш бўйича қоникарли доминант “рецептлар” ишлаб чиқилмаган [2]. Бу табиий хол,чунки фразеологик бирликлар тилнинг иккинчи номинатив бирлиги сифатида бадий, илмий адабиётнинг барча жабхаларида,оғзаки нутқда кенг қўлланади ва мустақил тил мақомига эга бўлган холда ўзининг мураккаб семантик,структур хусусиятига эга. Бизнингча ушбу холатлардан келиб чиққан холда хар бир жанрда учрайдиган фразеологик бирликларнинг таржимасига алохида-алохида эътибор бериш талаб этилади. Агарда шеърятда шеърнинг стилистик бўёқдорлигидан, ноёб туйғулар ифодасидан келиб чиқиб таржима қилиш зарурияти мавжудлигини инобатга олсак, насрий адабиётда, жумладан, дostonлар таржимасида эпик-миллий услубни сақлаш олдинги ўринга чиқади. Бу икки холатда хам таржимоннинг индивидуал-услубий махорати фразеологик бирликларни таржима қилишда асосий ахамият касб этади.

Дарвоке, хар бир олинган аниқ текстда конкрет холатда фразеологик бирликларнинг умумий фразеологик маъносидан келиб чиққан холда алохида ёндошиш зарурияти мавжуд. Акс холда бир халқнинг миллий қадриятига тегишли ўзига хослик иккинчи тил миллий қадрияти билан суғорилган ибора билан ўгирилиб қолиши мумкин. Мисол тарикасида бир вақтлар Европа ва халқларига хос бўлган “бош кийимни осмонга отиш орқали хурсандчиликни ифодалаш” ибораси ўзбек тилига худди европалик қахрамонлар бошига дўши кийгизиб қўйгандек, “дўшилар етди осмонга” ибораси билан ўгирилиб қолиши мумкин. Бундай холатлар хар доим рўй бермаслиги учун мавжуд нейтрал сўз ёки фразеологизм орқали таржима қилиш тўғри бўлади. Ушбу ўринда “бошлар етди осмонга” деб таржима қилиш бунга мисол бўла олади. Алохида такидлаш лозимки, фразеологик бирликлар ўта мураккаб бирликлардир. Булар ифодалаётган фразеологик маънонинг шаклланиш кўлами турли фразеологизмларда турлича. Баъзи ибораларда иштирок этган лексик бирликлар маъносини янги фразеологик маъно шаклланишида таъсири сезилиб турсада, баъзи фразеологизмлар бундай боғлиқлик умуман сезилмаслиги ҳам мумкин. Бу ўринда немис тили фразеологияси билан чуқур шуғулланган профессор М. Умархаджаевнинг фикрича, “фразеологик таг тизимининг ядровий марказини “пучлашган” маънога эга компонентли фразеологизмлар ташкил этиши” ни алохида инобатга олишимиз зарур [1]. Бундай ўринларда фразеологик бирликларни ташкил қилувчи компонентлар, компонентлар маъноси орқали эмас, балки умум фразеологик маънодан келиб чиққан холда таржима қилиш талаб этилади. Фразеологик маъно уни ташкил қилган компонентларнинг денотатив маъносидан тўғридан- тўғри келиб чиқмаслиги эҳтимоли юқори. Фразеологик маъно шаклланишига бошқа бир қатор экстралингвистик факторлар таъсир кўрсатган бўлиши мумкин. Умуман олганда фразеологик маънони келиб чиқиши баъзи холларда хатто этимологик таҳлил орқали ҳам аниқлаштириш анча мушкул. Шу ўринда икки кўп тилли фразеологик луғатлар тузиш жараёнида фразеологик бирликлар ўртасида эквивалентлик-муқобиллик муносабатларини ўрнатиш таржимашунослик, луғатшуносликнинг муоммоли масалаларидан бири эканлигини алохида таъкидлаш лозим. Ушбу масала алохида тадқиқот объекти эканлигини инобатга олиб, биз ушбу мақоламизда турли жанрларда учрайдиган фразеологизмларни таржима қилиш жараёнида қайси холатларга эътибор берилиши лозимлиги тўғрисида тўхталамиз. Бизнинг назаримизда макон, географик жой номлари, топонимлар иштирокида шаклланган фразеологизмларни бир тилдан иккинчи тилга таржима қилиш алохида эътибор талаб қилади. Чунки жой номлари тил ташувчи шахсга жой номлари тил ташувчи шахсга маълум бўлиб, бу тўғрида таржима қилувчи тилда ҳеч қандай маълумот бўлмаслиги мумкин. масалан, ўзбек тилидаги “Онангни Учқўргонда кўрсатаман” ибораси ўзбек халқига фразеологик ибора шаклида тушунилади холос, бошқа халқ учун “Учқўргон” факат географик ном сифатида маълум бўлиши мумкин. Ушбу иборани бошқа тилга таржима қилишда у ибора қўлланилган текст мазмун-моҳиятидан келиб чиққан холда лексик ёки мавжуд бўлса, эквивалент фразеологик ибора билан ўгирилиши мумкин [8].

Яна бир мисол, немис тилида шахс номи билан шаклланган “*Derdumme August*” фразеологик ибораси мавжуд (с.с. ахмоқ Август). Унинг фразеологик маъноси оғзаки нутқда “масхарабоз” дейилади, ўзбеклар учун Август сўзининг исмдан ташқари ҳеч қандай фразеологик маъноси йўқлиги туфайли, ушбу миллий фразеологизмининг изохлаш талаб этилади, яъни “шайтоний, ахмоқ қилиқлар қилувчи” мисол, “*Fritz hat docheigentlich Albernheiten im Kopf. Er ist und bleib teindummer August*” [5] ёки немис халқининг оғзаки ва ёзма нутқда фаол қўлланилувчи “*daraner kennenich meine Hihtheimer*” - “биламан, бу кимни иши эканлигини, кўрябман, буларни яхши биламан” маъносидаги иборанинг келиб чиқиши Ф. Шиллернинг “Валленштайннинг ўлими” - “*Wallensteins Tod*” асаридаги Валленштайн харбий қисмидаги Паппенгейм аҳолисидан ташкил топган Паппенгеймлар тўғрисидаги воқеалар асосида шаклланган.

Бир қатор немис тили фразеологик бирликлари христиан дани муқаддас китоби “Библия” воқеалари асосида шаклланган бўлса, масалан, *David und Goliath* (катта – кичик маъносида), *der Fass der Danaiden* - (таги йўқ бочка, яъни самарасиз меҳнат) грек мифологияси билан боғлиқ. Баъзи фразеологизмлар кўшни мамлакат ва шаҳарлар номлари асосида шаклланади: *Et was ist faul im State Danemark* – Данияда қандайдир ёмон иш бўлябди; Шекспернинг “Гамлет” асаридаги *Samthingig Totten in the State of Denmark* – ибораси калкалаштирилиб “бу ерда нимадир нотўғри, яхши эмас” маъноларида ишлатилиб келинган. Ёки немис тилидаги фразеологизм – *Den Rubicon uberschreiten* – Рубрикондан ўтмоқ – яъни хал қилувчи ҳаракатни амалга оширмоқ маъносида антик муалиф хикояларига кўра Юрий Цезарнинг воқеалар асосида шаклланган. Бу каби фразеологик бирликларни таржима қилишда албатта биринчи навбатда улар ифодалаётган фразеологик маъно эътиборда бўлиши керак. Асарнинг мазмун- моҳиятига путур етказмаган холда имкон даражасида қисқа хаволалар орқали маълумот берилса мақсадга мувофиқ бўлади. Германиядаги катта дарёлардан бири Рейн дарёси номи билан ҳам бир қатор фразеологик бирликлари шаклланган. Масалан, - “*Viel Wasser ist seit dem den Rhein hin abgefließen*” ёки “*Wird bis dahin den Rhein hinab fließen*” иборалари сўзма – сўз таржима қилинса, “ўшандан бери Рейн дарёсидан анча сувлар оқиб ўтди, яъни бу воқеага анча вақт бўлди ва унча / Рейндан анча сув оқиб ўтади, яъни бунга хали анча бор” маъноларида қўлланади. Бундай

холатларда таржима қилинаётган тилларда ўхшаш ибораларни бериш, яъни "бу нарсага, ишга анча вақт ўтиб кетди, қанча сувлар оқиб кетди" ёки сўзма сўз таржима қилиниб, маъноси изоҳланса, мақсадга мувофиқ бўлади. Ушбу услубни тиллардаги мақол, матал ва афоризмларни таржима қилишда қўлланса, бир тарафдан маънони тушуниш осонлашади, иккинчи томондан мақолларини сўзма сўз таржима қилиш билан тилининг фразеологик захираси бойиши мумкин. Масалан, "Morgenstunde hat Goldim Munde, Vorsicht ist die Weisheit der Mutter" мақолларини ўзбек тилига сўзма - сўз таржима қилинса, "эрталабки вақтнинг оғзида олтини бор" ҳамда "эҳтиёткорлик доноликнинг онасидир" кўринишида берилса, маъно тушунарли бўлиши билан бирга ўзбек тилининг лугат бойлигига яна икки ибора қўшилиши мумкин.

Фразеологизмларнинг шаклланиши ҳар бир халқнинг ўзига хос бўлган миллий кийимлари, таомлари, урф одати, байрам тантаналари каби катта аҳамиятга эга. Миллий – диний қадриятлар, маросимлар билан боғлиқ фразеологизмлар алоҳида таъкидланиши лозим. Чунки ўзга халқ дини билан боғлиқ бўлган тушунчалар бошқа дин вакиллари томонидан тушунилмаслиги мумкин. Диний фразеологик бирликларда миллий – маданий фразеологик маъно алоҳида ажралиб туради. Бундай холатларда ҳам изоҳли таржима қилиш мақсадга мувофиқдир. Хайвонот ва нобобот дунёси таъсирида шаклланган фразеологик бирликлар таржимасига ҳам алоҳида эътибор қаратилиши лозим. Чунки бир халқ турмуш тарзидан ўрин олган хайвонлар ва уларнинг хусусиятлари асосида шаклланган фразеологизмлар бошқа халқ тасавурида ўзгача образларни бериши мумкин, масалан, ўзбеклар ҳаётидан қўй-қўзичоқларни қадимдан кадрлаб, улардаги ижобий фазилатлар кўчими асосида қатор фразеологизмлар шаклланган бўлса, европа ва рус халқларида чўчка зооними билан келган қатор фразеологизмларни учратамиз. Баъзи уларнинг баъзи фразеологизм маънолари ўхшаш бўлсада, уларни ҳам изоҳли таржима қилиш зарур деб ўйлаймиз. Акс ҳолда тушунмовчилик пайдо бўлиши мумкин.

Хулоса қилиб айтганда, фразеологик бирликлар ҳам структур, ҳам семантик, ҳам функционал хусусиятларининг ўзига хослиги билан бирга, улар миллий бўёқдорлиги, ҳар бирининг ноёблиги билан ажралиб туради. Уларни таржима қилишда таржимондан чуқур билим, маҳорат талаб этилади.

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Умархаджаев М.И. Основы фразеологии. Т.: Фан. 1983. 27-28
2. Жуманиёзов З. Таржима ва миллий калорит. Т., 1916
3. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик лугати. Т., 1972, 192 б
4. Duden. Redewendungen und sprichwörtliche Redensarten. Mannheim 1992.
5. Wiegand, Herbert Ernst (1998): Wörterbuchforschung. Untersuchungen zur Wörterbuchbenutzung, zur Theorie, Geschichte, Kritik und Automatisierung der Lexikographie. Berlin. S. 33
6. L.I. Binovich, N. N. Grishin «Nemetsko-russkiy frazeologicheskiy slovarg'» М. Russkiy yazqk. 1975g.
7. Ш.Рахматуллаев Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик лугати Т.1978, 1926

УЎК 808.3

### ЗООНИМИК КОМПОНЕНТЛИ ФРАЗЕОЛОГИК БИРЛИКЛАРНИНГ ТУЗИЛМАВИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ

*Х.Н.Абдуллаева, ўқитувчи, Андижон давлат тиббиёт институти, Андижон*

**Аннотация.** Ушбу мақолада инглиз тилидаги фразеологик бирикмаларнинг ўзига ҳос таҳлили, олимларнинг ушбу бирикмалар устида олиб борган илмий таҳлилий ишлари, иунингдек, янги талқин сифатида кириб келаётган зоонимик компонентли фразеологик бирликлар таснифи уларнинг лексик-семантик ва стилистик жиҳатларини таҳлил қилади. Бу ўрганиш натижаси икки тилда фразеологик лугат ишлаб чиқишига ёрдам беради.

**Калим сўзлар:** Зоонимик, лексик, семантик, компонент, синтагма, полиеталон, стилистик, лисоний, ишлатилиш частотаси

**Аннотация.** В данной статье проводится свойственный анализ фразеологических единиц в английском языке, обсуждаются научно-аналитические работы учёных по этим единицам, а также классификация фразеологизмов с зоонимическим компонентом, входящей как новая интерпретация их лексико-семантических и стилистических особенностей. Результат данного исследования поможет создать фразеологический словарь на двух языках.

**Ключевые слова:** зоонимический, лексический, семантический, компонент, синтагма, полиэталон, стилистический, языковой, частотность употребления.

**Abstract.** This article analyzes the lexical-semantic and stylistic features of phraseological units in English, the specific analysis of phraseological compounds in English, the scientific analytical work of scientists on these compounds, as well as the classification of phraseological units with a zoonomic component, which is entering as a new interpretation. The result of this study will help to develop a phraseological dictionary in two languages.

**Key words:** zoonomic, lexical, semantic, component, syntagma, polyetalon, stylistic, linguistic, frequency of use.

Фразеологик бирликлар тил эгаси бўлган халқнинг маънавий маданияти, урф-одати, касби, яшаш тарзи, ўтмиши, интилиши, воқеликка муносабати билан узвий боғлиқдир. Жаҳон тилшунослигида фразеологик бирликларни ўрганиш буйича катта ишлар амалга оширилган. фразеологик бирликлар келиб чиқиши жиҳатидан жуда қадимий бўлса-да, фразеология фани тарихи қарийб икки асрни ўз ичига олади [Шерба 1968. 35- 36]. фразеология назариясининг илк тадқиқотчиси Шарль Балли саналади. У ўзининг илмий асарларига фразеологик бирликларни тадқиқ қилувчи махсус боблар киритган эди [Шарль Балли 1905, 1909]. А.В.Кунин инглиз ва рус тиллари фразеологик луғатининг ҳам муаллифидир (1 нашри М.:1955, II нашри 1964, III нашри тузатилган М.: 1967) Биз ўз мақоламизда бу луғатда берилган зоонимик фразеологизмларни ҳам кўриб чиқдик. Ш.Рахматуллаев тузган «Ўзбек тилининг фразеологик луғати» ҳам ўрганилди (Тошкент: 1978). А.В.Кунин фразеологияни лексикологиянинг бир қисми эмас, балки алоҳида бир фан сифатида ўрганилиши тарафдорларидан бири эди. У фразеологизмларни нутқда қўлланилиши жиҳатидан таҳлил қилади ва фразеологик бирликларни айрим гуруҳларга ажратади [Кунин 1972..90].

Фразеология тез тараккий этаётган тилшунослик соҳаларидан бирига айланди. Бу соҳада ўзбек тилшунослигида ҳам салмоқли ишлар мавжуд (Рахматуллаев, 1966, Пинхасов., 1969, Йулдошев., 1993, Саломов., 1961, Маматов., 1991, ва бошқалар). Инглиз тилида "elephant" кўчма маънода салбий тушунча ифода этса, бунинг ўзбек тилидаги муқобили бўлган "фил" ижобий маъно англатади. Шу билан бирга хиндларда ҳам фил гўзаллик, орасталик рамзи ҳисобланади. Бундан ташқари, арабларда гўзал аёллар туяга тенглаштирилса, аксинча инглиз, француз, озарбайжонларда бу дағаллик, бесунақайлик, жahl ва қасос рамзи ҳисобланади. Шунини таъкидлаб ўтиш керакки, тилнинг лексик- семантик қатламида зоонимлар сингари бой ва мураккаб табиатга эга бўлган гуруҳни топиш кийин. Шунинг учун ҳам уларнинг тилда кенг вазифани бажариши кўп қизиқиш уйғотади. Ўзбек тилида хайвонлар образи асосида шаклланган фразеологизмлар кўпгина мавжуд бўлиб, уларнинг ижобий ва салбий жиҳатдан қўлланилиши А.Э.Маматов томонидан қисман ўрганилган. [Маматов 2000.25-27]

Зоонимлар кўп йилларда бери тилшуносларнинг ўрганиш объекти бўлиб келмоқда. Е.А. Гутман ва М.И. Черемисиналар (1970) рус ва француз тилларидаги хайвон номларини қиёсий ўрганганлар. Ю.Л. Лясота зоонимия ҳақидаги илмий ишида инглиз тилидаги зоонимик лексемаларни таҳлил қилади [Лясота, 1984:116] ва зоонимларни:

а) уй хайвонлари;

б) ёввойи хайвонлар;

в) қушлар-паррандалар,

г) судралиб юривчилар каби кичик гуруҳларга ажратади. Бундан ташқари, у таркибида зоосема мавжуд бўлган турғун бирикмали гапларни иккига ажратади:

д) содда гапларда қўлланган зоонимлар: all cats are grey in the dark оч қоринга ҳамма нарса ширин туюлади; the scalded sheep infects the whole flock - тиррақи кўй подани бузади;

е) боғланган қўшма гапларда қўлланган зоонимлар: the dog barks but the caravan goes on- ит хуради, карвон ўтади.

О.Ж. Латипов ўз номзодлик диссертациясида рус, ўзбек ва тожик тилларидаги уй хайвонлари номларининг семантик тузилишини қиёсий таҳлил қилади [Латипов, 1997]. У уз ишида учала тилдаги айнан бир хил хайвон номларини ифодаловчи сўзларнинг ҳар қайси тилдаги алоҳида маъно хусусиятларини изоҳлаб беради ва шу йўсинда айрим хайвон номларини учала тилда ҳам бир хил маънода келиши мумкинлигини таъкидлайди. Масалан, ўзбек тилидаги «чўчка» ва рус тилидаги «скотина» зоонимлари иккала тилда ҳам салбий маънода келади. Рус тилидаги «журица» зооними эса кўпроқ салбий маънода ишлатилади. Бу сўз иштирокидаги фразеологик бирликлар ўзининг конотатив хусусияти билан изоҳланади:

мокрая курица- хунук, башанг,

писать как курица лапой-хунук ёзмок,

оёғи қуйган товукдай-вахимага тушиб, (салбий маъно),

хўроз йигит-эпчил ва мард йигит,

хуроз гап- асосий гап, гапнинг индаллоси,

жўжа хўроз- ўзини мағрур тўтадиган бола, йигитча.

Турли тилларда зооним сўзларни ўрганиш ва уларни қиёслашдан бошланган тадқиқотлар кейинчалик фразеологияга ҳам кучди ва таркибида хайвон номлари бўлган фразеологизмларнинг структурал-семантик ва грамматик жиҳатлари алоҳида ўрганила бошланди фразеологик бирликларни қиёслашда У.К Юсупов таклиф этган метод ва тамойиллар назарий ва амалий аҳамиятга эгадир. Унинг фикрича, аввал тўғри келувчи (эквивалент) ва тўғри келмовчи (эквивалент бўлмаган, муқобил) фразеологик бирликлар аниқлаб олинади. Сунгра она тилида ва чет тилида эквивалент бўлган фразеологизмлар алоҳида ажратилиб, улар қуйидаги тамойилларга кўра қиёсланади:

а) семантикаси, образлилиги (метафоризацияси):

б) маъноларини қайта аниқлаш даражаси;

- в) компонентлари сони;
- г) компонентларининг жойланиш тартиби;
- д) синтактик алоқани ифодалаш усули;
- е) компонентларининг морфологик сўз туркумлари;
- ж) компонентларининг кичик гуруҳларга киришига кўра;
- 3) компонентлари сўзларнинг мавзусига тегишли бўлиши;
- и) вариантлилиги;
- к) қанча учраши (ишлатилиш частотаси), [Юсупов. 2007.: 66-67]

Юқорида кўрсатилган фразеологизмларни қиёслаш аслида учта катта тамойилга асосланган:

- 1) лексик, семантик ва стилистик жиҳати,
- 2) грамматик жиҳати, яъни морфологик структураси (компонентлари қайси сўз туркумига тегишлилиги) ва синтактик алоқага киришиши;
- 3) ўзаро бир-бирига муносабати, полисемик, синонимлик, антонимлик, вариантлик алоқалари ва оз ёки кўп қўлланилиши.

Зоонимик компонентли фразеологик бирликлар фразеологизмлар орасида муҳим ўрин тўтади ва улар фразеологик бирликларнинг структурасида каттагина ўрин эгаллайди. Одатда, ҳар бир хайвон, хашорот ёки парранда айрим ўзига хос хусусиятлари билан ажралиб туради. Чумоли ва асалари меҳнатсеварлик рамзи бўлса, шеър довюракликни, куён эса эҳтиёткорликни англатади. Масалан: a gay cat - тажрибасиз, ёш ниҳол.

Somewhat from the thickly strewn hazards. But green hoboes "gay cats" walked into these dangers blindly and were moved down in hundreds [Porter]

like a cat in a strange garret-ноқулай вазият

When he arrived in Boston, he felt like a cat in a strange garret.

a tame cat -хиссиз киши, уй қизи

And remember I don't want a fortune for this thing only a good price

There's a lot of tame cats who mightn't follow the new man around, [Cronin]

as weak as a cat- жуда беҳол

There isn't much fear of my getting up, dog "answered the captain, I feel as weak as a cat. [Maugham]

a wild cat- фойдасиз иш

Mr. Norbelt Keeman, in the legislative Assembly; he had drawn attention to the recent epidemic of "Wild cats" [Prichard]

Юқоридаги мисоллардан кўриниб турибдики, инглиз тилидаги a cat- мушук асосан салбий маънодаги фразеологик бирликларда зооними ишлатилади ва у кўпинча "тажрибасиз, фойдасиз иш", "хиссиз киши" каби маъноларда келади. Масалан, инглиз тилидаги spring chicken «тажрибасиз киши»ни англатса, ўзбек тилидаги «аммамнинг бузоғи» худди шу мазмунни беради. Бу ўринда, инглиз тилида "chicken" ўзбек тилида «бузоқ» зоонимларидан фойдаланилган. Айрим фразеологик бирликлар кишиларнинг бирор воқеа- ходисага нисбатан ҳолатини белгилайди: Ву cock! - Худо ҳаққи!

Has the cat got your tongue?-Мум тишлаганмисан? Нера гапирмайсан?

Donald and Felicity stood there paralyzed. "Come on" said Miss Hand Porth, Has the cat got your tongue? What have you too been up there, may I ask? [Murdock] What dog is hanging? -Ўзи нима гап ?

Айрим зоонимик компонентли фразеологик бирликлар ўз синонимлари ва антонимларига эгадир. Масалан инглиз тилидаги old bird «тажрибали киши»ни англатса, spring chicken «тажрибасиз киши»ни англатади. Бу ўринда old bird ⇔ spring chicken бир- бирига қарши фразеологик антонимлар ҳисобланади. Инглиз тилига доир изоҳли луғатларда "a cat" (мушук), "a dog" (ит) зоонимлари қатнашган фразеологизмларининг ёзилишида фарқланишлар мавжуд: cat and dog, cat-and-dog, dog's violet, dog-violet, dog violet кабилар. Вебстер луғатида "a cat" зооними қатнашган фразеологизмлар берилмаган.

Инглиз тилидаги зоонимик компонентли фонетик жиҳати, хусусан акцент структураси ўзига хослиги билан ажралиб туради. Зоонимик компонентли фразеологик бирликларда кўпинча ҳар бир мустақил сўзнинг биринчи бўғинига урғу тушади, лекин сўзларни боғлашга хизмат қилувчи предлоглар ҳамда сўзларга тегишли артиклар урғу олмайди: to 'teach an 'old 'dog 'new 'tricks- билимдонга иш ўргатмоқ to 'put the 'cat 'among the 'pigeons- бир-бирига душман қилиб қўймоқ. Зоонимик лексикага, фразеологик бирликларга бағишланган илмий ишлар қизиқарли ва хилма-хилдир. Фразеологик бирлик қанчалик кўп ўрганилса, таҳлил ва тасниф қилинса, ундаги янги қирралар очирилишига имкон туғилади.

#### ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. А.В.Кунин “ Инглиз ва рус тиллари фразеологик луғати” (1. нашри М.:1955, II нашри 1964, II нашри тузатилган М.: 1967)
2. Ш.Раҳматуллаев тузган “Ўзбек тилининг фразеологик луғати” (Тошкент: 1978).
3. Mr. Norbelt Keeman, “ Zoonomic phrases”.
4. У.К. Юсупов “ Фразеологик қиёслаш”.



ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА МИННАТДОРЧИЛИКНИ ИФОДА ҚИЛИШНИНГ  
УСУЛЛАРИ*Р.Х. Абидова, PhD, Урганч давлат университети, Урганч*

**Аннотация.** Ушбу мақола инглиз ва ўзбек тилларида миннатдорчиликни ифода қилиш усулларига қаратилган.

**Калим сўзлар:** Прагматика, этикет, термин, жанр, фалсафа, вербал, невербал

**Аннотация.** В данной статье рассматривается проблема выражения благодарности в английском и узбекском языках

**Ключевые слова:** Прагматика, этикет, терминология, жанр, философия, вербальное, невербальное.

**Abstract.** This article aims to reveal the ways of expressing gratitude in English and Uzbek languages.

**Keywords:** Pragmatics, etiquette, terminology, genre, philosophy, verbal, nonverbal

Инсон ва тил ўрасидаги боғлиқлик ўрганилганда шахс ва унинг руҳияти, ҳис туйғулари, ижтимоий ўрни ва миллий менталитети ҳам ўрганилади. Бу албатта прагматиканинг фалсафа, сотсиология, психология, этнография ва бошқа фанлар билан ҳамбарчас боғлиқ эканлигидан далолат беради.

**Прагматика** (юн. pragma, pragmatos — иш, ҳаракат) — **семиотика** ва тилшуносликнинг нутқда **тил** белгиларининг **амал** қилишини ўрганувчи соҳаси; бошқача айтганда, муайян белгилар тизимини ўзлаштириб, ундан фойдаланувчи субъектларнинг айна шу белгилар тизимига муносабатини ўрганувчи **фан** тармоғи. Прагматика ҳақидаги асосий **ғоя** америкалик олим Ч. **Пирс** томонидан ўртага ташланган; **яна** бир америкалик олим Ч. Моррис ушбу ғояни ривожлантирган ва «Прагматика» терминини семиотика бўлимларидан бирининг номи сифатида амалиётга киритган [1].

Биз биламизки мулоқот одоби-бу маълум бир жамиятда қабул қилинган ва муайян вазиятларда одамларнинг хулқ атвори ва мулоқот қилиш нормаларини ўрнатадиган яхши хулқ атвор қоидалари тўпламидир. Мулоқот қоидалари ўзига хос тарихий хусусиятга эга бўлиб, улар халқ ҳаётининг ижтимоий- тарихий ва иқтисодий шароитларга боғлиқ ҳолда ўзгаради ва шунингдек, миллий ўзига хос хусусиятларга эга ҳолда бир биридан фарқ қилади.

Демак, муайян тилда нутқий мулоқотнинг ўзига хослиги шу тилнинг ташувчиси, халқнинг менталитети билан ҳамбарчас боғлиқ. Тиллар ўртасидаги ўзига хосликни она тили билан бошқа тилни солиштириш орқали аниқ белгилаш ва аниқлаштириш мукин.

Мулоқот маданияти жамият билан бирга ривожланиб боради. Ҳозирги кунда мулоқот маданияти ижтимоий ҳаётнинг бориши ва демократик жараёнларни акс эттиради, шу билан бир қаторда ҳар бир шахсда нутқий этикет оила ва жамиятдаги вазиятга, теварак атрофдаги воқеа-ҳодисалар ривожига қараб шакллана боради.

Аввал таъкидлаганимиздек, нутқий этикет бу ҳар бир шахсга нисбатан индивидуал ёндашиладиган, миллий қадриятларга таянган ҳолда ифодаланувчи маданият белгисидир. Ҳар бир мамлакатнинг ўз мулоқот маданияти қоидалари мавжуд бўлиб, турли миллатларда нутқий этикет шу миллатнинг ўзига хосликларидан келиб чиққан ҳолда турлича бўлиши табиийдир. Нутқий этикет ҳар бир халқнинг келиб чиқишидан бошлаб то ҳозирги кунгача бўлган урф-одат ва анъаналарни ўз ичига олган ҳолда ифодаланади.

Инсонлар ўртасида ҳар қандай мулоқот шакли вербал ва невербал шаклда амалга оширилади. Мулоқот қилиш одоби инсонга болалигидан нутқнинг ижтимоийлашув жараёнларидан ўзлаштирилади.

Маълумки, инсонлар ўртасидаги ҳайрихоҳликни миннатдорчилик орқали ифода қилишда миллий менталитет хусусиятлари ва бошқа томондан умумий қабул қилинган нутқ ифода шакллари ётади. Бироқ инглиз ва ўзбек тилларида миннатдорчиликни ифода қилувчи нутқ нормалари бир биридан кескин фарқ қилади. Яъни, турли тилларда турли конструкциялар ёрдамида ифода қилинади ва таққосланаётган тилда уларнинг эквивалентлари ёрдамида кўрсатилади.

Барча халқларда миннатдорчилик билдириш азал-азалдан давом этиб келаётган инсоний қадриятлардандир. Одатда бирон ишдан мамнун бўлганимизда инсонларга амалларимиз ва сўзларимиз билан миннатдорчилик ифода қиламиз. Миннатдорчилик билдириш шахсларга нисбатан ҳурмат-эҳтиромни англатадиган, дилни дилга улайдиган, меҳр-оқибат кўприги бўлиб, одоб-ахлоқнинг асоси ҳисобланади. Турли вазиятларда ҳам юракдан изҳор қилинган миннатдорчилик киши юзида табассум уйғотади. Ташаккур изҳор қилиш инсонийлик бурчи – у ёш ва тил танламайди. Инглиз ва ўзбек тилларида миннатдорчилик билдириш жараёнида қўлланиладиган сўзларнинг маъно ва мазмунида нақадар эзгу ниятлар ифодаланади. Бизга миннатдорчилик *билдиришганда севинамиз*, миннатдорчилигимизни *изҳор этсак, бошқаларни* хурсанд қиламиз. Бунинг натижасида, инсонлар орасида дўстлик ришталаримиз мустаҳкамланади. Инглиз ва ўзбек тилларида миннатдорчилик билдириш хушмуомала бўлишни ва бошқаларга ғамхўрлик қилишни англатадиган муносабатдир.

Инсонларга миннатдорчилик билдириш жамиятда вазиятларга ижобий таъсир кўрсатиши ва шахсларнинг хатти-ҳаракатларини ўзгартириши мумкиндир.

Илмий адабиётларда миннатдорчилик жанри жуда кенг ёритилган бўлиб, тилшунос ва таржимон Т.В.Лариннинг таъкидлашича инглиз тилида миннатдорчилик формуласининг десемантизацияси “thank you” (рахмат) бўлиб, унинг вазифаси миннатдорчилик эмас балки қабул қилувчига эътибор беришдир. Бу семантик бўшлиқни қоплаш ва миннатдорчиликни янада самимийроқ ифодалаш мақсадида сўзловчилар уни турли хил йўллар билан кучайтирадилар. Масалан, *thank you very much / thank you so much / thank you so very much / thank you ever so much / thank you awfully / thanks a lot / many thanks* ва ҳакозо, бундан ташқари ушбу ифодалар қуйидаги иборалар билан ҳам кучайтирилиши мумкин, *I am very (so) appreciative / I really appreciate it / I don't know how I can thank you enough / I have no words to express my gratitude / I can't find words to express my thanks* ва ҳакозо.

Ўзбек тилида кўп қўлланиладиган миннатдорчиликни ифодаловчи сўзлар кўлами бироз камроқ бўлиб, улар қуйидагилардир: раҳмат/ катта раҳмат /

Мен сиздан жуда миннатдорман/ташаккур ва бошқалар.

Шуни таъкидлаш жоизки, англиззабон суҳбатдошлар турли вазиятларда ўзбек тилидагига нисбатан кўпроқ реплика(жавоб) қиладилар. Масалан, *That's fantastic. I really appreciate your doing that for me. Thank you*

*very much –Kamta rahmat! Siz menga kўp ёрдам бердингиз.*

*Thank you very much. You were so kind to ask me and it was a beautiful meal. You outdid yourself. – Таклифингиз учун kamta rahmat! Тайёрлаган овқатларингиз жуда ширин эди.*

Кўпинча инглиз тилидаги нутқда миннатдорчилик билдирилганда эмоционал баҳо берувчи реплика билан жавоб қайтарилади. Бунга комплиментни ифодаловчи қуйидаги мактов сўзлари бўлиши мумкин, (*Oh, you're so pretty*), мактов (*The cake was delicious*), ваъда (*I'll do it obligatory*) ва самимий бўлмаган эътироз (*You didn't have to do that*).

Шуни айтиш жоизки, ўзбек тили маданиятида инглиз тилидан фарқли ўлароқ ҳамдардлик билдирилганда жавоб тариқасида миннатдорчилик билдирилмайди. Масалан,

Аммо инглиз ва ўзбек тилларида шундай бир мисли кўрилмаган рағбатлар, тилаклар мавжуд бўлиб булар ўз навбатида миннатдорчилик ихорини қайтаришни талаб қилади.

Инсон туйғуларига муносабат, аниқроғи, уларни тушуниш инсон маънавий тушунчаларининг мавжудлигини аниқловчи хусусиятлар ҳисобланади. Бу эса муомала маданиятида миннатдорчилик билдириш актини семантик таҳлил қилиш эҳтиёжини туғдиради. Бундан мақсад унинг дистинктив белгиларини аниқлаш, чунки бу белгилар унинг предмет соҳаси чегараларини, иерархик системалашни амалга оширадиган муҳим белгиларни қайд қилиш имконини беради. Маълумки, инсон туйғулари табиатан турлича бўлади. Жумладан, миннатдорчилик акти шулардан биридир. Нутқий этикетнинг турли қирралари нафақат тилшунослар, балки социологлар ва маданиятшунослар томонидан ўрганилганлигидир. Айниқса, сўнгги йилларда бу масалага қизиқиш ва эътибор тобора ортиб бормоқда. Чунки нутқ этикети давлатлар, халқлар ўртасидаги ўзаро алоқаларда ҳал қилувчи аҳамиятга эга бўлган омиллардан бири ҳисобланади.

Норасмий ва расмий нутқда акс этган миннатдорчилик билдириш нутқий этикет бирликларини қўллаш стратегиялари инглиз ва ўзбек тилларида назарий ва амалий жиҳатдан тадқиқ қилиниши мақсадга моликдир.

Инглиз тилида ташаккур ихор қилиш учун умумий тарзда қуйидаги иборалардан фойдаланилади: *Thank you very much, I appreciate your consideration/guidance/help/time, I sincerely appreciate ..., My sincere appreciation/gratitude/thanks, My thanks and appreciation, Please accept my deepest thanks, Thank you for your assistance/ consideration/ encouragement/ guidance/ support/thoughtfulness/time/.*

Ўзбек тилида эса “рахмат” сўзининг синонимлари каторида “ташаккур”, “миннатдорман” сўзлари ҳам ишлатилади ва турли иборалар билан қўлланилади. Масалан, сизга жуда миннатдорман, катта раҳмат, сизга ташаккур ихор қиламан ва ҳакозо. Инглиз ва ўзбек тилларида миннатдорчилик тушунчалари билан боғлиқ ибораларни инсоннинг ёши, жинси, ижтимоий келиб чиқишига қараб гуруҳларга ажратиб ўрганиш мумкин. Қиёсланаётган тилларда мулоқот жараёнида шарт формалардан фойдаланар эканмиз, миқдор тамойилини импликатура, яъни тагмаъно ифодалаш учун инглиз тилида суҳбатдошига эмоционал таъсир ўтказиш ва ўз манфаати, қизиқишини муҳокама қилиш ва ўзбек тилида ўз ўрни, ҳурмати, обрў ва мақомини сақлаш мақсадларини ҳам инобатга олиш лозим. Инглиз ва ўзбек тилларида тил соҳиблари нутқий жараёнда миннатдорчилик экспрессив нутқ актини шарт гапларидан фойдаланиш орқали ифода қилишади. Маълумки, ўзбек тилида шарт конструкциялари инглиз тилидан фарқли равишда кўпроқ экспрессив актларни бажариши ушбу тилнинг ўзига хослигини ифода қилади.

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. <https://qomus.info/encyclopedia>
2. Ўринбоев Б., Солиев А. Нотиклик маҳорати. –Тошкент: Ўқитувчи, 1984.
3. Қудратов Т. Нутқ маданияти асослари. –Тошкент, 1993.

## ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА ПУБЛИЦИСТИК УСЛУБИНИНГ СЕМАНТИК-СТИЛИСТИК ХУСУСИЯТЛАРИ

Ахмаджонова Ш.Т., ўқитувчи, Фаргона давлат университети, Фаргона

**Аннотация.** Мазкур мақолада публицистик услубнинг инглиз ва ўзбек тилларидаги қиёсий таҳлили ҳақида умумий маълумот берилган.

**Калим сўзлар:** функционал услуб, стилистика, публицистик услуб, бадиий тил услуби, жараён, ҳодисалар, аниқлик, изчиллик.

**Аннотация.** В статье представлен обзор сравнительного анализа публицистического стиля в английском и узбекском языках.

**Ключевые слова:** функциональный стиль, стилистика, публицистический стиль, художественный языковой стиль, процесс, явления, ясность, согласованность.

**Abstract.** The article provides an overview of the comparative analysis of the publicist style in the English and Uzbek languages.

**Key words:** functional style, stylistics, publicistic style, artistic language style, process, phenomena, clarity, coherence

Публицистик услуб жамият фаол аъзосининг ижтимоий-сиёсий ҳаётга муносабатини акс эттиради. Ҳар қандай жамият аъзоси ўзи яшаётган жамиятнинг ижтимоий-иқтисодий, ижтимоий-сиёсий ва ижтимоий-маданий ҳаётига бефарқ қарамайди, уларга ўз муносабатини билдиради. Ана шундай муносабатни ифодалашни таъминлаш учун хизмат қиладиган нутқ кўринишлари публицистик услуб ҳисобланади [3, 55]. Публицистик услуб кенгайтирилган боғланишлар ва эҳтиёткор параграфлар билан изчил ва мантикий синтактик тузилиш орқали тавсифланади. Унинг ҳиссий жозибadorлигига ҳиссий маънога эга сўзлардан фойдаланиш орқали эришилади. Ушбу услуб қисқа ифодалари билан ҳам ажралиб туради, баъзан улар етакчи хусусиятга айланади [2, 68].

Публицистик услуб кўринишлари ижтимоий тараққиётнинг энг қадимги даврларидаёқ пайдо бўла бошлаганини, бу кўринишлар қадимги нотиклар нутқларида намоён бўлганлигини олимлар таъкидлаганлар. Публицистик услуб замонавийлик йилномаси деб аталади, чунки у ҳозирги тарихни тўлиқ акс эттиради, жамиятнинг долзарб муаммоларини ижтимоий-сиёсий, маданий-маиший, фалсафий ва бошқаларни ҳал қиладди. Бироқ, оммабоп услубнинг барча жанрлари кўплаб умумий хусусиятларга эга бўлиб, уларни бир бутунликка бирлаштириш имконини беради. Ва бу умумий хусусиятлар улар умумий функцияга эга бўлганлиги билан боғлиқ. Оммабоп услубнинг матнлари доимо оммага қаратилган бўлиб, ҳар доим ахборот билан бир қаторда таъсир қилувчи функцияни ҳам бажаради. Таъсир ўтказишнинг вазифаси бевосита ва очиқ бўлиши мумкин. Масалан, митингда сўзга чиққанлар оммани ҳукуматнинг, у ёки бу нотикнинг, сиёсатчининг у ёки бу қарорини қўллаб-қувватлашга ёки рад этишга очиқ чақирадилар.

Оммабоп услуб кенг оммага қаратилган ва муҳим ижтимоий ёки сиёсий воқеаларга, маданий ёки ахлоқий характердаги ижтимоий муаммоларга бағишланган оммавий нутқларда ва босма оммавий ишларда қўлланилади. Публицистик услубнинг ўзига хос хусусияти ҳам шундаки, у бир шахсга эмас, балки оммага, бутун жамиятга ва унинг алоҳида ижтимоий гуруҳларига таъсир қиладди. Оммабоп услубда муаллифнинг индивидуаллиги илмий, расмий услубга қараганда анча кучлироқ намоён бўлади. Бироқ, бунда муаллиф ўзини фақат конкрет шахс (ўзига хос хусусиятларга эга) сифатидагина эмас, балки жамият вакили, маълум ижтимоий ғоялар, манфаатлар намояндаси ва бошқалар сифатида ҳам намоён қиладди.

Демак, оммабоп услубнинг асосий хусусияти ижтимоий баҳоловчилик бўлиб, у фактларни танлашда, уларга эътибор даражасида ҳам, экспрессив лингвистик воситалардан фойдаланишда ҳам намоён бўлади. Мантикий фикрлаш ва ҳиссий жозибанинг характерли бирикмаси туфайли публицистик услуб бир томондан илмий наср ёки расмий ҳужжатлар услуби билан ўхшашликларга эга. Унинг изчил ва мантикий синтактик тузилиши кенг боғланиш ва синчковлик билан параграфлаш уни илмий услубга ўхшатади. Унинг эмоционал жозибadorлигига, одатда, ҳиссий маъноли сўзларни қўллаш, эмоционал насрдаги каби образлар ва бошқа услубий воситаларни қўллаш орқали эришилади. Оммабоп услубда ҳиссий рангдаги суҳбат услубининг элементлари ҳам мавжуд, чунки муаллиф ўз нутқини шахсиз (илмий ёки расмий услубда бўлгани каби) қилишига ҳожат йўқ, аксинча, у матнни тўғридан-тўғри алоқада бўлган одамлар билан гаплашаётгандек жонли мулоқот қилишни кўрсатиш орқали яқинлаштиришга ҳаракат қиладди.

Оммабоп нутқ, одатда, ижтимоий-сиёсий, иқтисодий, маънавий-ахлоқий, адабий-танқидий мавзулардаги оммавий нашрларда, ижтимоий-сиёсий журналларда, газеталарда, нотикларнинг нутқларида, радио ва телевидение чиқишларида намоён бўлади. Газета нутқи матбуот нутқининг ҳозирги кундаги энг асосий кўринишидир.

Нотиқлик услуги - публицистик услубнинг оғзаки бўлими сифатида намоён бўлади. Тингловчи билан тўғридан-тўғри алоқа қилиш тилнинг ёзма ва оғзаки турларининг синтактик, лексик ва фонетик хусусиятларини бирлаштиришга имкон беради. Бу услуб даврнинг сиёсий-ижтимоий масалаларига бағишланган нутқларида, тўй-ҳашамлар, дафн маросимлари ва юбилейлар, ваъз ва баҳс-мунозаралар каби махсус маросимлардаги маърузаларда, судларда адвокат ва судьяларнинг чиқишларида яққол намоён бўлади. Ушбу услубнинг ўзига хос хусусиятлари: томошабинларга бевосита мурожаат қилиш; баъзида қисқартма сўзлар; сўзлашув сўзларидан фойдаланиши билан бошқа оммабоп субуслугларидан ажралиб туради. Тингловчилар фақат хотирага таянганлиги сабабли, маърузачи тингловчиларга унга эргашиш ва нутқининг асосий фикрларини сақлаб қолиш учун кўпинча такрорлашга мурожаат қилади. Такқослаш ва метафора маърузачи томонидан тез-тез ишлатилади, лекин улар одатда анъанавийдир, чунки ҳақиқий сўзларни тушуниш кийин бўлиши мумкин.

Нотиқлик доираси аудиторияни қамраб олиш билан чекланади, шунинг учун фан, санъат ёки бизнес каби соҳалардаги муҳим масалалар кўриб чиқилмайди. Тингловчи билан тўғридан-тўғри алоқа қилиш тилнинг ёзма ва оғзаки турларининг синтактик, лексик ва фонетик хусусиятларини бирлаштиришга имкон беради. Бироқ, асосий хусусиятларига кўра, нотиқлик услуги оғзаки ифода шакли ва имо-ишоралар ёрдамида ўзгартирилган бўлса-да, тилнинг ёзма хилма-хиллигига тегишли. Ушбу услубда мавжуд бўлган сўзлашув хилма-хиллигининг баъзи типик хусусиятлари: [7]:

1) махсус формулалар ёрдамида тингловчиларга тўғридан-тўғри мурожаат қилиш: (*Ladies and Gentlemen!* (Хонимлар ва Жаноблар!); *My Lords!*(Одатда Буюк Британияда судьялар ва лордларга қаратилган мурожаат тури); *Mr. Chairman!*(Хурматли оқсоқол! Хурматли Раис!); *Honorable Members!*(Хурматли аъзолар! Жамоага нисбатан); *Highly esteemed members of the conference!*(Конференциянинг хурматли аъзолари); ёки баъзи расмий вазиятда, *Dear Friends!*; ёки кўпроқ ҳиссий ранг бериш, *My Friends!*; *Қадрли дўстлар!*; *Азиз юртдошлар!*; *Хурматли юртдошлар!* *Азиз дўстлар!*). Тўғридан-тўғри мурожаат ифодалари ижро давомида такрорланиб, турли йўллар билан ифодаланиши мумкин (*Mark you! Mind!*) [1].

2) Тингловчиларга эътибор учун миннатдорчилик билдириш учун нутқ охирида махсус формулалар (*Thank you very much* (Эътиборингиз учун раҳмат); *Thank you for your time*; (Вақт ажратиб келганингиз учун катта раҳмат).

3) биринчи шахс олмоши - биз; 2-шахс - сизни [4] қўлланилиши:

*Бугун бизнинг қўлимизда машҳур “Машираб девони” шоирнинг севгилиси Маҳваихоним томонидан тўпланган ва тартибга солингандир. Шоирамиз Маҳваихоним ўзбек адабиёти тарихи учун қилган бу азамат хизмати эвазига яна ўша Наманган диндорлари томонидан сочи қирқилди...*

*We hold these Truths to be self-evident, that all Men are created equal, that they are endowed by their Creator with certain unalienable Rights, that among these are Life, Liberty, and the Pursuit of Happiness* [11].

4) қисқартмаларни қўллаш ёрдамида *I'll; won't; haven't; isn't* ва бошқалар:

*We're talking about healing our nation. We're not talking about politics. We're all here to do everything in our power to save lives; I'm here to thank you for hearing that call. Actually, I shouldn't be thanking you, I should be thanking a Higher Power for giving you the call* (George W. Bush) [12].

5) сўзлашув услубининг хусусиятлари, масалан, сўзловчи яқинроқ алоқа ўрнатмоқчи бўлган пайтда тингловчилардан саволлар сўраши:

*Sometimes it is said that man cannot be trusted with the government of himself. Can he, then, be trusted with the government of others? Or have we found angels in the forms of kings to govern him?* (Th. Jefferson), or calling upon the audience: *Let us then, with courage and confidence, pursue our own federal and republican principles* [13].

Сўзлашув услуги сингари, оммабоп нутқ одатда ҳиссий оҳанглар ва коннотациялар билан тавсифланади. Журналистик услубнинг ҳиссий рангланиши юқори; у тантанали ёки истехзоли бўлиши мумкин, лекин у сўзлашув нутқига хос бўлган пастроқ маъноларга (ўйноқи, кўпол, вулгар ёки жаргон сўзларни қўлланилиши) эга бўлиши мумкин эмас. Услубнинг луғати одатда пухта ўйланган ва асосан юқори услублар соҳасида қолади:

“Бугун юртимизда улуг байрам, катта тантана. Қўпмиллатли Ўзбекистон халқи жонажон Ватанимиз истиқлолининг шонли ўттиз йиллик тўйини зўр шоду хуррамлик билан нишонламоқда. “Янги Ўзбекистон” деб ном олган мана шу муаззам боғда биз бугун биринчи марта Мустақиллик байрамини ўтказмоқдамиз. Шу муносабат билан сиз, азизларни, сизларнинг тимсолингизда бутун халқимизни чин қалбимдан табриклаб, ўзимнинг самимий ва енг езгу тилакларимни билдираман” [14].

Нотиқлик нутқининг стилистик воситалари мулоқот шароитлари билан белгиланади. Агар маърузачининг хоҳиши тингловчиларни уйғотиш ва уни шубҳада ушлаб туриш бўлса, у турли хил анъанавий стилистик усуллардан фойдаланади. Стилистик усуллар бир-бири билан чамбарчас боғланган ва бир-бирини тўлдирди, мураккаб нақш ҳосил қилади. Масалан, антитеза параллел конструкциялар орқали ҳосил бўлади, улар ўз навбатида такрорлаш билан бирга келади ва кулминация ҳар хил такрорлашлардан ҳосил бўлиши мумкин:

## ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Akramova Nozima Muzaffarovna, Akhmadjonova Shakhnoza Tolibjohn Qizi Characteristic features of word formation of a newspaper article in English and Uzbek languages // Проблемы Науки. 2020. №2 (147).
2. Crystal D., Davy D. Investigating English Style. — Ldn, 1969.
3. HUBÁČEK, Josef – Učebnice stylistika, p. 68
4. М.Халилова: “Ўзбек тили стилистикаси асослари”, “Фаргона” нашриёти, 2009. 6-бет
5. Мамажонов А. Кўшма гап стилистикаси. -Тошкент: Фан. 1990.
6. Арнольд И.В. Стилистика. Современный английский язык [Электронный ресурс]: учебник для вузов/ И.В.Арнольд. – 10-е изд., -М.: Флинта, 2010. -384с.
7. Гальперин И.Р. Стилистика английского языка. 3-е издание. / И.Р. Гальперин. – Издательство: М.: Высшая школа, 1988 г. – 316 с.
8. Сулаймонов А. Тил стиллари ҳақида // Совет мактаби, 1964, №6
9. Хошимова, Н. А. Ingliz va o'zbek tillarining funksional uslublari / Н. А. Хошимова, Ш. Т. Ахмаджонова. — Текст: непосредственный // Молодой ученый. — 2020. — № 19 (309). — С. 584-585.
10. Qo'ng'urov R.Q., Karimov S.A., Qurbonov T.I. O'zbek tilining funksional stillari. – Samarqand, 1984.
11. <https://www.archives.gov/founding-docs/declaration-transcript>
12. <https://georgewbushwhitehouse.archives.gov/news/releases/2004/03/text/20040303-13.html>
13. <https://jeffersonpapers.princeton.edu/selected-documents/first-inaugural-address-0>
14. <https://review.uz/uz/post/vstuplenie-prezidenta-shavkata-mirziyoyeva-na-ceremonii-posvyashennoy-30-letiyu-nezavisimosti-uzbekistana>

УДК 808.5

## ПЕЙЗАЖ И ПОРТРЕТ ДЛЯ ЦЕЛЕЙ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ИЗОБРАЖЕНИЯ

*Ф.Н. Ахмедов, стар. преподаватель, Шахриябзский филиал Ташкентского химико – технологического института, Шахриябз*

*Annotatsiya. Ushbu maqolada maxsus badiiy uslublardan foydalanishni talab qiladigan psixologik uslub masalalari ko'rib chiqiladi.*

*Kalit so'zlar: badiiy uslub, psixologik uslub, inson psixologik dunyosi*

*Аннотация. В этой статье рассматриваются вопросы психологического стиля, которые требуют применения особых художественных приемов.*

*Ключевые слова: художественный стиль, психологический стиль, психологический мир человека.*

*Abstract. This article discusses the issues of psychological style that require the use of special artistic techniques.*

*Keywords: artistic style, psychological style, human psychological world*

Если в том или ином произведении складывается психологический стиль, то психологизм становится в этом произведении важнейшим художественным свойством, определяющим эстетическое своеобразие. Задаче глубокого освоения и воспроизведения внутреннего мира начинают подчиняться приемы и способы изображения человека, все художественные средства, находящиеся в распоряжении писателя. Психологический стиль требует применения особых художественных приемов, особой их организации. Мы можем говорить, что психологизм – это принцип организации элементов художественной формы, при котором изобразительные средства направлены в основном на раскрытие душевной жизни человека в ее многообразных проявлениях.

Посмотрим, какими же приемами и способами пользуются для этой цели писатели – психологи. При этом для наглядности сопоставим психологический стиль с противоположной ему, непсихологической манерой письма, при которой элементы формы воссоздают прежде всего внешнюю сторону жизни человека, происходящие с ним события и т. п.

В общем виде изменение организации художественной формы при психологизме по сравнению с непсихологическим принципом письма состоит в изменении отношений между теми ее элементами, которые так или иначе изображают внешнее бытие (наружность героев, их действия и поступки, обстановку действия и пр.), и теми, которые призваны воспроизводить внутренний мир героев. В частности, с полной очевидностью он проявляется в сфере предметной изобразительности. То, что психологизм требует даже количественного увеличения деталей, характеризующих внутренний мир героя (подробности мыслительного процесса, нюансы чувств, эмоций, «разложение на составляющие» волевых импульсов и т.п.), и, соответственно, относительного уменьшения внешних деталей — это вполне ясно и не нуждается ни в комментариях, ни в примерах. Но меняется не только количественное соотношение внутренних и внешних деталей — меняются и более глубокие связи между ними, меняется их иерархия[1.33].

При непсихологическом принципе письма внешние детали совершенно самостоятельны, в пределах художественной формы они полностью довлеют сами себе и непосредственно воплощают особенности данного художественного содержания. Внешние детали могут не прямо входить в процесс внутренней жизни героев, а лишь косвенно соотноситься с ним. Очень часто такое соотношение

наблюдается при использовании пейзажа в системе психологического письма, когда настроение персонажа соответствует тому или иному состоянию природы или наоборот, контрастирует с ним. Так, например, в XI главе «Отцов и детей» природа как бы аккомпанирует мечтательно-грустному настроению Николая Петровича Кирсанова - и он «не в силах был расстаться с темнотой, с садом, с ощущением свежего воздуха на лице и с этой грустью, с этой тревогой...». А для душевного состояния Павла Петровича та же самая поэтическая природа предстает уже контрастом: «Павел Петрович дошел до конца сада, и тоже задумался, и тоже поднял глаза к небу. Но в его прекрасных темных глазах не отразилось ничего, кроме света звезд. Он не был рожден романтиком, и не умела мечтать его щегольски-сухая и страстная, на французский лад мизантропическая душа...».

В общем, мы можем без преувеличения сказать, что в системе психологизма практически любая внешняя деталь так или иначе соотносится с внутренними процессами, так или иначе служит целям психологического изображения. Появление абсолютно непсихологической детали для психологического стиля — явление почти невозможное. Сказанное относится и к тем художественным деталям, с помощью которых показываются внешние проявления внутренней жизни героя (мимика, пластика, жестикация, речь на слушателя, физиологические изменения и т.п.). Воспроизведение внешних проявлений переживания - одна из древнейших форм освоения внутреннего мира, но в системе непсихологического письма она способна дать лишь самый схематичный и поверхностный рисунок душевного состояния, в психологическом же стиле подробности внешнего поведения, мимика, жестикация становятся равноправной и весьма продуктивной формой глубокого психологического анализа.

Почему это происходит? Во-первых, внешняя деталь теряет свое монопольное положение в системе средств психологического изображения. Это уже не единственная и даже не главная его форма, как в непсихологических стилях, а одна из многих, причем не самая главная: ведущее место занимает внутренний монолог и авторское повествование о скрытых душевных процессах. Писатель всегда имеет возможность прокомментировать психологическую деталь, разъяснить ее смысл. Вот как развернуто раскрывает, например, Толстой психологический подтекст такого обыкновенного мимического движения, как улыбка: «Она никак не могла бы выразить тот ход мыслей, который заставил ее улыбаться; но последний вывод был тот, что муж ее, восхищающийся братом и уничтожающий себя перед ним, был неискренен. Кити знала, что эта неискренность его происходила от любви к брату, от чувства совестливости за то, что он слишком счастлив, и в особенности от не оставляющего его желания быть лучше, — она любила это в нем и потому улыбалась» («Анна Каренина»).

Во-вторых, освоенная литературой индивидуализация психологических состояний приводит к тому, что их внешнее выражение также теряет стереотипность, становится уникальным и неповторимым, своим для каждого человека и для каждого оттенка состояния. Одно дело, когда литература изображает одинаковые для всех и потому схематичные проявления чувств, эмоций и не идет дальше, и совсем другое — когда изображается, скажем, тщательно индивидуализированный внешний мимический штрих (подрагивающая верхняя губа у Раскольникова, например), причем не изолированно, а в сочетании с другими формами анализа, проникающими в глубину, в скрытое и не получающее внешнего выражения.

Внешние детали используются лишь как один из видов психологического изображения - прежде всего потому, что далеко не все в душе человека вообще может найти выражение в его поведении, произвольных или непроизвольных движениях, мимике и т.д. Постепенно освоенная литературой сложность психологического мира человека усложняет и изображение связи внешнего с внутренним. По одним только внешним признакам практически нельзя определить, что происходит в душе героя, так как эти признаки неоднозначны, могут быть по-разному истолкованы. Вообще растет несоответствие между внешним и внутренним состоянием, что часто используется писателями как особый, своеобразный художественный прием, усиливающий остроту положения или напряженность внутреннего состояния героя, оттеняющий какие-то особенности его внутреннего мира. Раз уж мы заговорили о различного рода внешних психологических деталях, то есть смысл особо сказать и о такой форме психологического изображения, как портрет. В широком литературоведческом обиходе существует тенденция называть любое портретное описание психологическим — на том основании, что оно раскрывает определенные черты характера, психологии человека. Это — частное проявление той терминологической неточности, о которой мы подробно говорили в первой главе, — представления о психологизме как универсальном свойстве художественной литературы [2.65]. По-видимому, всякий портрет характерен (иначе он просто был бы не нужен в литературе), но не всякий психологичен. Например, в портретах чиновников и помещиков в «Мертвых душах» Гоголя ничего от психологизма нет. Эти портретные описания косвенно указывают на устойчивые, постоянные свойства характера, но не дают представления о внутреннем мире, о чувствах и переживаниях героя в данный момент; в портрете проявлены устойчивые черты личности, не зависящие от смены психологических состояний.

Таким образом, психологический и непсихологический портреты входят в разные стилевые микросистемы. Русская классическая литература XIX века, особенно второй его половины, занимает здесь особое, уникальное место. По общему признанию, именно в ней психологизм достигает высочайших вершин, познание и освоение внутреннего мира человека приобретают небывалую глубину и остроту. Общие приёмы и способы психологического изображения используются разными писателями по – разному. Благодаря этому создается неповторимость, своеобразие психологических стилей таких писателей – психологов, как Лермонтов, Тургенев, Л.Толстой, Чехов, Горький.

#### СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Страхов И.В. Психологический анализ в литературном творчестве – М., 1973. Стр.33
2. Есин А.Б. “Психологизм русской классической литературы” книга для учителя - М., “Просвещение” 1988. Стр.65
3. Маркович В.М. Человек в романах Тургенева. – Л., 1975
4. Русские писатели XIX века. – М.: Дрофа, 2000,
5. Русская литература XIX век. – М.: Дрофа, 2003

УЎК 808.3

### АКСИОЛОГИК МОДАЛЛИКНИНГ АЖРАТИЛГАН ИЗОҲ БЎЛАКЛИ ГАПЛАРДА ИФОДАЛАНИШИНИНГ ПРАГМАТИК ХУСУСИЯТЛАРИ

*Д.Б.Бойматова, ўқитувчи, Жиззах давлат педагогика институти, Жиззах*

**Аннотация.** *Матн когнитив-дискурсив ҳодиса сифатида ўзида муаллифнинг шахсий қараши ва муносабатларини акс эттиради. Бу шахсий муносабат тилимуносликда “субъектив модаллик” термини билан аталади. Субъектив модаллик тури сифатида акс этадиган аксиологик модалликнинг ажратилган изоҳ бўлакли гапларда ифодаланиши ўзига хос прагматик жараёнлар билан намоён бўлади. Бу прагматик жараёнлар қадр-қиймат семасига эга бадиий матнлар мисолида ҳам акс этади. Мазкур мақолада мана шу масалага эътибор қаратилган.*

**Калим сўзлар:** *Аксиологик модаллик, ажратилган изоҳ бўлак, прагматика, субъектив муносабат, баҳолаш.*

**Аннотация.** *Текст как когнитивно-дискурсивное явление отражает личностные взгляды и установки автора. Это личное отношение называется в лингвистике термином “субъективная модальность”. Выражение аксиологической модальности, которая отражается как разновидность субъективной модальности, в обособленном комментарии проявляется в специфических прагматических процессах. Эти прагматические процессы нашли отражение и на примере художественных текстов со смысловой ценностью. Данная статья посвящена этому вопросу.*

**Ключевые слова:** *Аксиологическая модальность, обособленный комментарий, прагматика, субъективное отношение, оценка.*

**Abstract.** *The text as a cognitive discursive phenomenon reflects the personal views and attitudes of the author. This personal relationship is called in linguistics the term “subjective modality”. The expression of axiological modality, which is reflected as a kind of subjective modality, manifests itself in a separate commentary in specific pragmatic processes. These pragmatic processes are also reflected in the example of literary texts with semantic value. This article is devoted to this issue.*

**Keywords:** *Axiological modality, isolated commentary, pragmatics, subjective attitude, evaluation.*

Маълумки, матн мазмунининг англашилишида муаллифнинг интенцияси, яъни мақсади, матннинг ташқи ва ички тузилиши, муаллиф дискурсив компетенциясининг даражаси муҳим аҳамият касб этади. Ушбу омиллар бўлмаса ҳар қандай матн ўз аҳамиятини йўқотади. Буни куйидаги матн парчаси ифодалаётган маъно орқали ҳам кўриш мумкин: *Аёлнинг назарида у томонда – дераза ортида ўтмиш – жиндай азият аралашган бўлса-да, ҳароратли, мусаффо бир ҳаёт чексиз армон билан мўралаётгандай...* (Зулфия Куролбой қизи, “Армон асираси”). Келтирилган матн парчасида муаллиф интенцияси асар қаҳрамонининг “бахтли ҳаёт” ҳақидаги армонларини китобхонга етказишдир. Бунда муаллифга матн мазмунини очиб берувчи ажратилган изоҳ бўлак ҳамда уюшиқ бўлақлар кўмаклашади.

Ҳар қандай матн мазмунини тўлақонли очиб беришда субъектнинг муносабати ҳам муҳим роль ўйнайди. Бу муносабат субъект томонидан тасвирланаётган объектнинг қадр-қиймат жиҳатидан муҳим хусусиятларига нисбатан ҳам берилиши мумкин. Матнда қўлланилаётган субъектив муносабатнинг бу тури аксиологик модаллик бўлиб, у “... матн фаолияти субъектлари бўлмиш муаллиф ва реципиентнинг воқеликка ҳамда унинг матндаги тасвирига бўлган муносабатлари натижасида юзага келади” [1, 194]. Ушбу турдаги модалликнинг асосий моҳияти ва вазифаси муаллиф интенциясини намоён этишдир. Бу жараёнда воқеликни тавсифлаш ва уни баҳолаш ҳаракати асосий роль ўйнайди. *Ўзини ўзи енголмай эзилган мулла хомуш, афтадаҳол бир қиёфада настга–қалин дарахтлар билан ўралган қишлоққа гамгин нигоҳ ташлади* (Зулфия Куролбой қизи, “Ўлим ҳеч нарса эмас”). Берилган матн парчасида муаллифнинг субъектив баҳоси персонажнинг руҳий ҳолатига нисбатан берилмоқда. Матнда субъектив баҳо феълли

иборалар, сифат лексемалар иштирок этаётган ажратилган изоҳ бўлакли гап орқали ифодаланмоқда. Зеро, матнда ишлатиладиган ҳар бир восита муаллиф томонидан танланган ахборотга турли хил модаллик (баҳо) бўёғини беради. Аксиологик модаллик матн коммуникатив-прагматик мазмунининг муҳим қатлами бўлиб, у ҳар қандай турдаги матнда маълум кўринишда намоён бўлади. Бу турдаги модалликнинг воқеланишини таъминловчи лисоний воситалар салмоғи ва ҳажми ғоят кенг ҳамда ушбу воситалар турли матн муҳитларида ҳар хил маъно нозикликларини ифодалаш имкониятига эга.

Бадий матнда, хусусан, ажратилган изоҳ бўлақлар қатнашган матнда аксиологик модаллик ўзига хос хусусиятга эга бўлиб, унинг қай даражада воқеланиши матндаги воқеа-ҳодисага боғлиқ: *Агар дунёда иккита беозор одам бўлса яна биттаси—Эрмон буванинг кампири—Ҳабиба буви (Ў.Ҳошимов “Дунёнинг ишилари”)*. Келтирилган матнда муаллиф ўз хусусий муносабатини объект (Ҳабиба буви)нинг характер-хусусиятига нисбатан бермоқда. Муаллиф нуқтаи назари орқали берилаётган аксиологик баҳо бирликлари баъзан инсониятни тўлиғича англаш ва билиш (нисбий) каби хусусиятлар орқали ҳам намоён бўлиши мумкин.

Баҳо англатувчи бирликлар муаллиф томонидан берилаётган маълумотнинг муҳим ва номуҳимлиги жиҳатидан матндан жой олади. Бадий асарлар матнида аксиологик бирликларнинг жойлашуви асарнинг умумий ғояси, мавзуси ва муаллиф томонидан воқеликни ўқувчига етказиб бера олиши билан боғлиқ. “Муаллиф ўқувчига воқелик таҳлили вазифасини ушбу воқеликнинг баёни бошланишидаёқ юклаш мақсадини кўзлаётганида, баҳо тузилмалари матннинг илк қисмларида асосий ўринга чиқади. Лекин бадий матнда баҳо тузилмалари кўпинча якуний қисмдан ҳам ўрин олади. Бунинг билан муаллиф ўз мулоҳазалари, мушоҳадасига яқун ясаётганлигига ишора қилиб, ўқувчини ушбу мушоҳадани давом эттиришга ундайди” [1,194]. Демак, ҳозирда антропоцентрик жараён деб қаралаётган бадий матнда муаллиф-ўқувчи муносабати бирламчи ҳисобланади: *Бўлажак фан доктори, ёши қирқни уриб қўйган, ҳаётнинг анча-мунча аччиқ-чучугини тортган одам уч йилдан буён юрагининг энг тубига, яшириб қўйган гавҳари бир кунмас-бир кун бошқа бировнинг қўлига ўтиб кетиши мумкинлигини ҳаёлига ҳам келтирмабди (Зулфия Қуролбой қизи, “Ёвузлик фаршитаси”)*.

Баҳолаш фаолияти – шахснинг идрок қилинаётган воқеликка нисбатан муносабатини акс эттирувчи ва ушбу воқелик парчасининг прагматик қиймати ҳамда моҳиятининг субъект томонидан белгиланиши ҳисобланади. Бу фаолиятда муносабат билдирилаётган ҳодисанинг асосий хусусиятини маълум нормага қиёслайди, унга нисбатан ўлчов намуналарини тадбиқ этиб, уларнинг ижобий ёки салбий семага ҳослигини аниқлайди. Ушбу жараёнда аксиологик модаллик ҳосил бўлади. Лингвокогнитив фаолият деб қаралаётган баҳолашда предмет-ҳодисаларнинг аҳамиятли ва қийматли жиҳатлари маълум қисмларга ажратилади. Ушбу қисмларнинг баҳоси, яъни қиймати субъектнинг имконияти, истаги ва эҳтиёжига нисбатан белгиланади. Тасаввур қилинаётган воқелик объектларига бу тарзда баҳо бериш фаолияти матн қурилиши жараёнининг муҳим босқичларидан биридир. Объектларнинг баҳо қийматидаги муносабатлари матн таркибида турли лисоний воситалар иштирокида ифодаланади. Бу лисоний воситалар семантик ва прагматик жиҳатдан аксиологик баҳо бўёғини беришда муҳим роль ўйнайди: *Бир оқшом, Мирзо Ёдгорнинг тантана билан пойтахтга киришининг учинчи кун, Султонмурод шам олдидан ғамгин, танҳо ўтирар эди (Ойбек “Навоий”)*.

Замонавий жамиятнинг кўплаб муаммоларини ўрганиш ва уларнинг ечимини топишда аксиологик қийматга асосланган ёндашув бўйича ҳаракат қилиш, бу жараёнга антропоцентрик жиҳатдан қараш – тилшуносликка ҳам ўз таъсирини ўтказмай қолмади. Тилшуносликнинг антропоцентрик йўналиши орқали баҳолашни ўрганиш маълум бир маданият, миллат, тарихий даврнинг кадриятлар тизимидан ташқарида бўлиши мумкин эмас. Шахсни (лисоний шахсни) баҳолашнинг субъекти ва объекти сифатида шакллантирадиган, контекстан ташқарида ҳам субъектнинг мавжудлигини англашга ёрдам берадиган тил бевосита нутқий фаолият билан чамбарчас боғлиқ. Тил онгимиздаги маълумотларни таҳлил қилиб, назоратдан ўтказгандан сўнг билим сифатида уни нутқий фаолиятга йўналтиради. Нутқий фаолият иштирокчилари билиб ёки билмай баҳо бериш ҳаракатини ҳам бажарадилар. Аммо баҳолашни фақат кадрият ҳақидаги фикр сифатида тушуниш, бизнинг фикримизча, модаллик чегараларини торайтиради. Баҳолаш функцияси нарса ва ҳодисани дунёнинг маълум бир идеаллаштирилган модели билан ўзаро боғлашдан иборат бўлиб, унда субъект учун аҳамиятли бўлган бошқа (нафақат кадриятли) хусусиятлар, масалан, имконият, ҳақиқат, муқаррарлик, ишончлилик қийматлари ўз ифодасини топади.

Баҳо кадриятга нисбатан берилаётганда унинг мазмуни ва аудиторияга таъсир доираси ҳам ҳисобга олиниши керак. Қийматни баҳолашда асосий нарса объектнинг қийматга бўлган муносабати эмас, балки қийматларни ўз ичига олиши мумкин бўлган баҳолаш объектнинг меъёрий идеал, намуна, моделга мос келиши ёки мос келмаслиги тўғрисида фикрни ифодалашдир. Шу тариқа, агар кадрият эталонга йўналтирилган бўлса, у ҳолда баҳолаш эталон билан таққослаш натижаси ҳисобланади.

Баҳоловчи бирликлар тил тизимининг ҳамма сатҳларида ўз ифодасини топади. Аффикслардан бошланиб, матнлар билан яқунланадиган бирликларда баҳоловчи семантика ҳақида гап боради. Баҳоловчи семантика эса ҳар бир шахсга хос бўлган семантик билимни тақозо этади. Негаки, “Инсон



тилдаги барча семантик илмларни билиш билан бирга уларни ўз мақсади йўлида танлай олиши ва ифодалаш имконига эга бўлиши лозим” [4, 8]. Аксиолик баҳо ана шундай ифода имконига эга лексик-семантик категория сифатида фанга кириб келди.

Баҳоланувчи объектнинг аҳамиятли жиҳатига қаратилаётган диққат-этибор субъект нуқтаи назари бўйича амалга оширилади. Қадр-қиймат жиҳатидан баҳоланаётган объектнинг муҳим хусусиятлари матн орқали намоён бўлиб,

Баҳоловчи предикатларнинг баҳолар кутблари бўйича миқдорий тақсимланиши ифодаланувчи баҳо турига боғлиқ бўлади. Масалан, умумий баҳоловчи, аҳамиятли семемалар орасида ижобий баҳо семасига эга лексемаларнинг салбийларига нисбатан кўпроқлиги ҳар қандай миллат онгида эзгуликка йўғрилган тушунчалар асосий ўрин эгаллаши билан характерланади. Жамиятда бўлгани каби, тилда ҳам “ижтимоий огоҳлантириш” қонуни ишлайди: ахлоқий меъёрлардан четга чиқиш қайд этилади, улар, коида тариқасида, кескин қораланади. Ахлоқий меъёрга риоя қилиш огоҳлантиришни талаб қилмайди, шунинг учун, масалан, яхши хулқ-атвор учун махсус лексемалар мавжуд. Баъзида уларнинг ўрнини умумий баҳоловчи сўзлар билан қўшма номлар эгаллайди: *ўзини яхши, тўғри тутини*.

Субъектив модаллик ҳар бир матнда мавжуд бўлади, негаки матннинг ижодкори шахсдир. Лекин ушбу модалликнинг турлари матн ёки матн қисмларида учраши, қисман учраши ёки умуман бўлмаслиги билан фарқланади. Шунга биноан аксиологик модалликни ҳамма матнларда учратмаслигимиз мумкин. Баъзида аксиологик модаллик бўёғига эга бўлмаган матн, деб хулосага келганимизда аксиологик баҳонинг имплицит (яширин) тарзда ифодаланганига гувоҳ бўламиз: *Навоий “Унсия”даги кўп хоналарнинг бирида – катта, салқин чорхари уйда, қарийб ҳар вақт бирга бўладиган дўстлари, яқинлари билан бош яланг шатранж ўйнаб ўтирар эди. (Ойбек “Навоий”, 285-б.)*. Матнда баҳо муносабатини бир қарашда илғаш қийин, негаки баҳо тузилмасига эга лексемалар ҳар доим ҳам кўзга ташланавермайдилар. Келтирилган матний тузилмадаги этиборимизни қаратишимиз лозим бўлган синтактик бирлик – ажратилган изоҳ бўлак таркибидаги *чорхари* лексемасидир. Бу лексемага изоҳли луғатда шундай таъриф берилади: *Чорхари уй (ёки айвон) Ўртадаги битта устунга таянувчи тўртта харили катта квадрат хона, айвон* [3, 511]. *Чорхари уй* ёки айвоннинг аксиологик модаллик ифодаловчи хусусияти шундаки, бу тарздаги меъморчилик дастлаб фақат шарқ маданиятига тегишли бўлган. Демак, муаллиф объект тарзида танлаган лексемага баҳо бериш асносида у ҳақидаги ахборот ва маълумотга эга бўлиш зарурлиги ҳақида эслатиб ўтади. Негаки, “ахборот билим беради, у билим замирида яратилади. Жамланган ахборот маънога эга бўлиши керак, фақат шундагина уни бошқага узатиш, етказиш мумкин бўлади” [2, 216]. Узатилган ва етказилган ахборотларнинг ўқувчи ёки тингловчи томонидан қай даражада қабул қилиниши ҳам прагматиканинг тадқиқ объектига киради.

Аксиологик модаллик муаллиф ихтиёридаги энг муҳим семантик ва прагматик категория сифатида матнда ифодаланади. Муаллиф матн яратувчи ижодкор сифатида прагматик мақсадига мос тил сатҳи бирликларини танлаб ишлатади. Тил сатҳи бирликлари семантик имконият сифатида оламни билиш, субъектив ва шахслараро муносабат орқали нутқда реаллашади, баҳо мазмунини юзага чиқади. Ҳар қандай тил бирликлари иштирокидаги аксиологик баҳода модалликнинг лисоний уч кўриниши – оддийлик, субъективлик ва ихчамлик мавжуд бўлади. Модалликнинг субъект томонидан “ҳаракатга келувчи” категория эканлигини ҳисобга олсак, ҳар доим субъектдан баён этилган ахборот билан муносабатларини ифода этиш учун оғзаки ва ёзма билимлардан хабардор бўлишни, модалликни ифодалаш воситаларини (лингвистик ва нолингвистик) билиш ва у ҳақида тушунчага эга бўлишни талаб этади.

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Боймирзаева С. Ўзбек тилида матннинг коммуникатив-прагматик мазмунини шакллантирувчи категориялар. Филол.фанлари док...дис.– Тошкент: 2011. – 320 б.
2. Сафаров Ш. Семантика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2013. – 344 б.
3. ЎТИЛ, IV жилд.- Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. –591 б.
4. Ҳакимов М. Ўзбек прагматингвистикаси асослари. Тошкент: Akademnashr, 2013. – 176 б.

УЎК 81-13

### СУРХОНДАРЁ ЎЗБЕК ШЕВАЛАРИДА УЙ - РЎЗГОР БУЮМЛАРИНИНГ ЛЕКСИКОГРАФИК ТАЛҚИНИ

*Н.У. Бердиева, ўқитувчи, Термиз давлат университети, Термиз*

**Аннотация.** Ушбу мақолада ўзбек шеваларида уй рўзгор буюмларининг лексикографик талқини ҳақида сўз боради. Замонавий таърифлар орасида А.С.Герд қарашлари муайян илмий асосга эга. Олимнинг фикрича, термин – илм-фан тараққиётининг маълум даражасида мавжуд бўлган илмий тушунчанинг асосий хусусиятларини аниқ ва тўлиқ акс эттирадиган махсус терминологик маънога эга бўлган маълум табиий ёки сунъий тил бирлигидир (сўз ёки сўз бирикмаси). Бу қарашни О.С.Ахманованинг қуйидаги фикри ҳам тасдиқлайди: «Умуман, терминология фан тараққиётининг

юксак даражасига эришгандагина пайдо бўлади, яъни термин мазкур тушунча мутлақо аниқ илмий ифода касб этгандан кейин эътироф этилади.

**Калим сўзлар:** Термин, ном, ифода, муайян, касб, даража

**Аннотация.** В статье рассматривается лексикографическая интерпретация предметов быта в узбекских диалектах. Среди современных определений взгляды А.С.Герда имеют определенную научную основу. По мнению ученого, термин представляет собой общеизвестный термин с особым терминологическим значением, который четко и полностью отражает основные черты научного понятия, существующего на определенном уровне развития науки естественная или искусственная языковая единица (слово или фраза) Это мнение подтверждается следующим мнением О.С. Ахмановой: «В целом терминология появляется только тогда, когда она достигает высокого уровня научного развития, то есть после того, как термин приобретает вполне ясное научное выражение.

**Ключевые слова:** Срок, имя, выражение, конкретное, профессия, степень

**Abstract.** This article deals with the lexicographic interpretation of household items in Uzbek dialects. Among modern definitions, the views of A.S. Gerd have a certain scientific basis. According to the scientist, the term is a well-known term with a special terminological meaning that clearly and completely reflects the main features of the scientific concept that exists at a certain level of scientific development. is a natural or artificial language unit (word or phrase) 5. This view is confirmed by the following opinion of OS Akhmanova: "In general, terminology appears only when it reaches a high level of scientific development, that is, after the term has acquired an absolutely clear scientific expression of this concept recognized.

**Keywords:** Term, name, expression, specific, profession, degree

Терминни нотерминдан фарклашнинг муҳим воситаси уни илмий асосда таърифлаш мумкин, мумкин эмаслигидир». В.Г. Гак терминнинг янги таърифни бериб, унинг моҳиятини очиб беради ҳамда терминнинг тил луғавий тизимидаги ўрнини аниқлайди. У илмий адабиётларда терминни луғавий бирликларнинг алоҳида тури сифатида қаралишига эътироз билдириб, «терми – функция, луғавий бирлик қўлланишининг бир кўриниши» деган фикрни билдиради. Унинг ёзишча, ниманидир ифодаладиган ва тушунчалар қаторида муайян ўринни эгаллай оладиган ҳар қандай луғавий бирлик термин бўлиши мумкин. Шунингдек, ишда терминлашмаган ва терминлашган лексика орасидаги муносабат турлари ифода плани нуктаи назаридан ўрганилган.

Термин ҳақида билдирилган фикр-мулоҳазалар умумлаштириладиган бўлса, унинг қуйидаги хусусиятлари намоён бўлади: 1) тизимлилик; 2) таърифнинг мавжудлиги; 3) мазкур терминологик майдон доирасида моносемияга мойиллик; 4) услубий бетарафлик. Ҳар қандай термин ўзида ана шу хусусиятларни мужассам этган бўлиши шарт.

Терминологиянинг фан сифатида таркиб топиши австриялик О.В. Нубасов ва рус олими Д.С. Лоттенинг дастлабки ишларига бориб тақалади. Ҳозирги пайтда Австрия, Германия, Франция, Россия, Чехия каби мамлакатларда терминология мактаблари юзага келган.

Ҳозирги пайтда терминологияда илмий тадқиқотларнинг бир неча мустақил йўналиши юзага келган. Булар махсус лексика тараққиёти ва қўлланиши қонуниятларини ўрганадиган назарий терминология; термин ва терминологиядаги хато ва камчиликларни бартараф этиш, термин ва терминологияни тавсифлаш, баҳолаш, таҳрир қилиш, тартибга солиш, яратиш, қўллаш ва таржима қилиш бўйича тамойил ва тавсиялар ишлаб чикувчи амалий терминология.

Маълумки, тилларда турли типдаги луғатларнинг асосий тури изоҳли луғатдир. Дарвоқе, бундай луғатларда сўзларнинг маъноси, қўлланилиши, фонетик, грамматик, стилистик маънолари ўз ифодасини топади. Изоҳли луғатлар тиллардаги умумлексик бирликларни изоҳлаш билан бирга, ушбу тиллардаги маълум фан-техникага оид бўлган турли терминларни ҳам изоҳлаб беради. Шу ўринда таъкидлаш лозимки, тилшунослик терминлари изоҳларига бир тилли луғатларда алоҳида эътибор қаратилади. Уларнинг мазмун-моҳиятини очишда иллюстратив (далилий) мисоллардан ҳам кенг фойдаланилади.

В.Г. Гак изоҳли луғатда сўзликка доир асосий ва кўшимча маълумотлар, унинг этимологияси, грамматик тавсифи, тил меъёрига мослиги ҳақида ҳам қимматли маълумотлар берилганлигига диққатни қаратади. Унинг фикрича, изоҳли ва қисман таржима луғатларини тузишда қуйидаги уч тамойилга амал қилиш муҳим аҳамият касб этади: а) синхрония ва диахрониянинг ўзаро мослиги; б) тил ва нутқ талабларига амал қилиш; в) лингвистик ва экстралингвистик ахборот нисбатига эътибор бериш. Бу тамойилларга амал қилиш луғатнинг мукамал бўлишини таъминлайди.

Этнографияда «маданият» дейилганда асосан инсо» Қўли ва ақл-идроки билан яратилган барча моддий ва маънавий бойликлар тушунилади. Асли рус тилидаги «культура» лотинча сўз бўлиб «ишлаб чиқариш», «ясаш», «яратиш» деган маъноларни англатади.

Ўзбек тилининг изоҳли луғатида маданият сўзининг этимологик моҳияти ечилмасдан умумий тарзда «камиятнинг ишлаб чиқариши, ижтимоий ҳаётида қўлга киритган ютуқлари мажмуи» деб таърифланган. Этнографик жиҳатдан моддий маданиятга хўжалик ва транспорт воситалари, турар жой

ва ҳовлилар, уй-рўзгор буюмлари ва жиҳозлари, кийим-кечак ва безаклар, таом ва идиш-товоқлар, бадий буюмлар ва ҳоказолар киради. Маънавий маданият дейилганда этносларнинг миллий ҳистуйғулари ва табиати, урф-одат ва маросимлари, халқ ўйинлари ва сайиллари, рақс ва куйлари, оғзаки ижоди, диний тасаввурлари ва ҳоказолар тушунилади.

Этнографияда умумий. тушунча ва атамалардан ташқари махсус атамалар ҳам мавжуд. Масалан, ижтимоий тузум ва муносабатларни аниқлаш ва таърифлаш мақсадида «уруғ», «қabila», «элат» каби сўзлар билан бир қаторда уруғ жамоаси, қишлоқ ёки қўшничилик жамоаси, қabila иттифоқи ва кенгаши каби атамалар муҳим аҳамиятга эга.

Оила-никоҳ муносабатлари ва уруғ-қабилачилик тартиб-қоидаларини ўрганишда махсус атама — «экзогамия» (юнонча «экзо» — ташқи, «гамос» — никоҳ) сўзи катта роль ўйнайди. Қabila ичида қудандачилиқни ман эйтишни бйдирадиган «эндогамия» («эндон» — ички, «гамос» — никоҳ) эса ўз уруғи ёки қабиласи ичидаги никоҳ тартибларини ифодалайди. Қадимий никоҳ шаклларида «полигамия» (кўп никоҳлик), «левират» (лотинча «левир» — ака-укаларнинг бева янгаларига уйланиши) ёки «сорорат» (хотинининг синглиси ёки опасига уйланиш) одатлари ҳозирча айрим халқларда сақланиб келган тартибларни ифодалайди. Этнографларнинг хўжалиқ фаолияти ва, машғулот, айниқса чорвачилиқ, деҳқончилик, хунармандчилик, балиқчилик ва овчиликка оид атамалари жуда кўп. Масалан, деҳқончилик ерга ишлов бериш усулига қараб бир неча хилга бўлинади (ўрмон ёки бутазорларни чопиб, ўт ёкиб куйдиргандан кейин қулига уруғ сепиш, мотигат(кетмонча) билан ишлов бериш, баҳори экин ва еўғорма деҳқончилик қабилар). Чорвачилиқ ҳам ҳар хил тармоқларга бўлинган (йилкичилик, туячилик, буғучилиқ ва ҳоказо). Хунармандчиликнинг тармоқлари жуда кўп бўлиб, турли этносларга ҳос махсус атам алар қўлланилади. Ҳозиргача ўз номларига эга турар жойлар ва манзилгоҳлар, чайлалар ва ертўлалар, чодир ва қора уй (ўтов) лар, гувола, хом ғишт, паҳса, ёғоч ёки тошдан қурилган, текис ёки гумбазсимон томли оддий уйлардан тартиб то замонавий кўп қаватли шаҳар иморатлари, қўшқу биёбонларгача ўчратиш мумкин.

Узига ҳос атамалар уй-рўзгор буюмлари жиҳозларида, миллий хусусиятни ифодаловчи кийим-кечак ва безакларда, хилма-хил табиий муҳит ва турмуш тарзи билан боғлиқ таомлар ва ичимликларда ҳам намоён бўлади.

Маънавий-маданий тушунчаларга оид диний эътиқод, урф-одат ва маросимларнинг номлари ҳам кўпинча этник хусусиятларни белгилашга ёрдам беради.

Давримизнинг кўп қиррали мураккаб этник жараёнини, миллатлар ва элатлар орасидаги муносабатларни, никоҳ-оила ва маиший турмуш муаммоларини, болалар тарбияси, одоб-ахлоқ масалаларини тадқиқ қилиш этнографларнинг диққат марказида турибди. Ҳозирча энг кам ўрганилган, аммо муҳим аҳамиятга эга бўлган халқ ижобий тажрибалари (халқ табобати, этнопедагогика масалалари, анъанавий хунармандчилик ва хўжалиқ услублари, тижорат ва савдо-сотик қабилар) биринчи дараж али муаммолардан. Асрлар оша синовдан ўтган умуминсоний қадриятларни ўзида мужассамлаштириб миллий тусга кирган ҳамкорлик, биродарлик, маҳаллачилик, ҳашар каби анъанавий халқ одатларини яна ҳам ривожлантириш этнография фани олдида турган муҳим вазифалардан ҳисобланади.

Тарихий-этнографик тадқиқотлар айрим халқлар, элатларнинг, шу жумладан ўзбек халқининг инсоният тарихида тутган мавқеи ва ўрнини аниқлашга ёрдам беради. Тарихийлик қиёсий услуб ва материалистик дунёқарашга асосланган этник жараёнларни тўғри тушунишнинг бирдан-бир объектив омилдир. Шунинг учун этнография фанининг моҳияти ва жамиятда тутган ўрнини аниқлашда унинг тарихига назар таш лаш зарур бўлади. Ш у жумладан ўзбек этнографиясининг тарихини билиш ҳам катта аҳамиятга эга. Ҳар бир фан дастлаб фактик бйлимларни тўплашдан бошланади, кейин уларни тартибга солиб, чуқур ўрганиб моҳиятига тушуниб, тегишли назарий хулосалар чиқаради. Этнографик бйлимларнинг ўзига ҳос хусусияти шундаки, уларнинг пайдо бўлиши, зарур маълумотлар тўпланиши, далил (факт) лар англаб олиши лозим.

#### ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Шведова Н.Ю. Грамматика // Лингвистический энциклопедический словарь. – М.: Советская энциклопедия, 1990. – С. 113-115.
2. Иванова И.П., Бурлакова В.В., Почепцов В.В. Теоретическая грамматика современного английского языка. – М.: Высшая школа, 1981.- С. 174.
3. Иванова И.П., Бурлакова В.В., Почепцов В.В. Теоретическая грамматика современного английского языка. – М.: Высшая школа, 1981.- С. 4.
4. Гак В.Г. Слово//Лингвистический энциклопедический словарь. – М.: Советская энциклопедия, 1990. – С.464-467.
5. Гак В.Г. Теоретическая грамматика французского языка. – М.: Добросвет, 2000. - С. 8.

**НОВЕРБАЛ ВОСИТАЛАРНИНГ ЗАМОНАВИЙ ТАСНИФИ**  
*М.М. Бурханова, ўқитувчи, Фарғона давлат университети, Фарғона*

**Аннотация.** Ушбу мақолада невербал тизим элементлари тадқиқига семиологик ёндашув масалалари ва невербал мулоқотнинг тасниф тамойиллари ҳақида сўз боради.

**Калим сўзлар:** *Невербал воситалар, семиотика, этология, окулесика, аускультация, ольфакторика, гаптика, гастика, проксемика, хронемика, системалогия.*

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются вопросы семиологического подхода к изучению элементов невербальной системы и принципы классификации невербальной коммуникации.

**Ключевые слова:** *Невербальные средства, семиотика, этология, окулесика, аускультация, ольфакторика, гаптика, гастика, проксемика, хронемика, системалогия.*

**Abstract.** This article discusses the issues of semiological approach to the study of elements of the nonverbal system and the classification principles of nonverbal communication.

**Key words:** *Nonverbal means, semiotics, ethology, oculusics, auscultation, olfactory, haptic, gastric, proxemics, chronemic, systemology.*

Кейинги йилларда тилшунослар орасида фаннинг янги соҳаларига бўлган кизиқиш кундан кунга ортиб бормоқда. Ижтимоий-гуманитар, ҳатто фаннинг табиий йўналишларига мансуб масалалар лингвистика фани учун ҳам ўрганиш объекти сифатида қабул қилинмоқда. Бу эса тилшунослик соҳасидаги мавжуд турли тасаввурларни янгилаш заруратини юзага келтирмоқда. Турли фан уйғунлигидаги изланиш натижалари ўртага ташланаётган муаммоларнинг аниқ ечимини беришга хизмат қилмоқда. Тилшунослик соҳасида ҳам янги йўналишларнинг пайдо бўлиши баробарида ўзига хос янги метод ва усуллар ҳам шаклланиб бормоқда.

Невербал тизим элементлари тадқиқига семиологик ёндашув бу соҳада ҳам катор ишларнинг юзага келишига сабаб бўлмоқда. Тилшуносликда невербал воситаларнинг ўрганилишига бағишланган талай ишларда мазкур соҳанинг илмий таснифига эътибор қаратилади. М.Л.Бутовская инсоннинг невербал мулоқоти асосларини этология соҳаси мутахассиси сифатида изоҳлайди. У ўзининг бу соҳадаги қарашларини анъанавий ва хорижий илмий адабиётларни шарҳлаш баробарида амалга оширади. Инсон ва ҳайвонларнинг невербал мулоқоти этологик планда тадқиқ этилади. Инсон этологияси масалаларига бағишланган илмий асариди у невербал мулоқотни дастлаб инсон невербал мулоқоти ва ахлоқининг асосий шакллари тизимида ўрганади. Инсон невербал мулоқоти асосий шакллари янги тамойиллар асосида тасниф қилади. Жумладан, инсон ва ҳайвонларга хос барча сезги аъзолари фаолияти натижасида оламнинг концептуал манзараси шаклланади. Бу концептуал структура невербал мулоқотнинг тасниф тамойиллари учун асос бўлиб хизмат қилади. Олим невербал мулоқот таснифида биринчи бўлиб киши ҳаётидаги ҳидлар дунёсига асосланган “ольфактор коммуникация”ни алоҳида йўналиш сифатида ажратади. Инсон невербал мулоқотининг иккинчи типи сифатида “мимик коммуникация” масалаларига тўхталади. Мимик коммуникация юзнинг ранг, ажин билан боғлиқ ифодалари, лаб ва бурун ишораси, табассум, киприк, қош, кўз ҳаракати каби оптик воситаларни камраб олади. Таснифнинг навбатдаги қисмида “жестикультятив коммуникация” муаммолари таҳлил қилинади. Ҳақиқатан ҳам жистга асосланган мулоқотда эмоционал ҳолат бирламчи характерга эга бўлиб, нутқий мулоқот тизимига нисбатан устуворлик касб этади. Мулоқот жараёнида жестикультятив коммуникация имплицит структурага тегишлилиги билан ажралиб туради ҳамда жистларнинг ҳар бири алоҳида тағмаёно ифодалаш хусусиятига эга бўлади. “Тактил коммуникация” ҳам инсон невербал мулоқотининг асосий ифода шаклларида бири саналади. Коммуникациянинг бу тури семиологик бирликлар сифатида нутқ иштирокчилари ўртасидаги ахборот алмашиш жараёнини амалга ошириш учун хизмат қилади. Агар “... визуал канал инсон тафаккурида образли фикрни ҳосил қилса, товуш, фонцион сезгиси орқали узатилган ахборот мантиқий ва танқидий фикрни шакллантиради. Бундай пайтларда коммуникациянинг физик каналлари адресантни турли ҳаракатларни бажаришга йўналтиради”. Тактил мулоқот эса инсон онги ва тасавурида ёқимли ҳис-туйғу ифодасини юзага келтиради, масалан: *Сути қуриган кўксини чиқариб, боланинг гул куртакларига ўхшаши дудоқларига теккизгиси келди. Ўнг кўксини гўдакнинг оғзига тутди. Шу онда Ҳалима ҳайратга тушди, кўксиди тотли бир роҳатланиш сезди. Ёқимли туйғу эди бу. Сут келаетганини билдирувчи ҳис эди бу.* (Саодат асри қиссалари 30-бет) Ҳалима билан чақалоқ ўртасидаги тактил мулоқот натижасида юзага келган ёқимли туйғу бадан сезгисига асосланган тафаккурдаги эмоция ҳисобланади.

М.Л.Бутовская ўзининг тана тили ва маданияти масалаларига бағишланган изланишларида “ольфактор коммуникация”, “мимик коммуникация”, “жестикультятив коммуникация”, “тактил коммуникация” каби невербал тизим бирликлари таснифини тақдим этган бўлса, невербал семиотика масалаларига бағишланган илмий адабиётларда уларнинг аниқ илмий йўналишлари фан соҳасининг

қисмлари сифатида кўрсатилади. Бу изланишларда ҳар бир ифода воситаси мазкур тизимнинг ички соҳалари сифатида ўзаро дифференциацияланади.

Дунё тилшунослигида новербал воситалар системаси паралингвистика, кинесика, жестикуляция каби умумий номлар билан ўрганиб келинган. Бугунги замонавий тилшунослиқда у ўзининг янги йўналишларига эга бўлиб бормоқда. Хусусан, паралингвистика ва юқорида қайд қилинган айрим терминлар таркибига сиғмайдиган, новербал воситалар тизимида эндигина шаклланаётган, тилшунослиқ учун мутлақо янги ҳисобланган “...окулесика, аускультация, ольфакторика, гаптика, гастика, проксемика, хронемика, системалогия” каби соҳалар ҳам мавжуддир. Бу янги йўналишларга оид муаммоларни тадқиқ этиш ва ўрганиш бугунги тилшунослиқ учун муҳим бўлган масалалардир. Бу ҳақда шундай дейилади: “...новербал сигналларнинг сони ҳозирда тўрттадан ўнтагача ўзгариб туради, улардан паралингвистика, окулесика, кинесика, гаптика ва проксемика кабилар дунё тилшунослигида маълум маънода тадқиқ этилган. Гастика, хронемика, системалогия, аускультация ва ольфакция каби йўналишлар умуман ўрганилмади.”

Дунё тилшунослигида паралингвистика, коммуникация назарияси, психология, этнология каби фан соҳаларида мулоқотнинг янги сифатларини аниқлашга доир қатор ишлар амалга оширилган. Ушбу тадқиқотлар бошқа халқлар тилшунослиқларидаги соҳалар ривожига ҳам таъсир қилмоқда. Бундай изланишлар ўзбек тилшунослигидаги шундай йўналишлар учун ҳам илмий асос бўлиб хизмат қилмоқда. Жумладан, Г.Е.Крейдлиннинг новербал воситалар масалаларига бағишланган тадқиқоти фикримиз далилидир. Мазкур иш шу пайтга қадар паралингвистика номи билан ўрганилган соҳага оид изланишлардаги мавжуд муаммоларга аниқлик киритганлиги билан ҳам муҳимдир. Тадқиқотнинг асосий ютуқларидан бири шундаки, новербал воситалар номи билан умумлаштирилувчи белгилар системаси ўзининг аниқ илмий парадигмалари билан алоҳида йўналишларга ажратилган ҳолда берилди. Бу эса новербал воситаларнинг семиотикага асосланган ўзига хос таснифида кўринади.

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

- 1.Бутовская М.Л. Язык тела: природа и культура (эволюционные и кросс-культурные основы невербальной коммуникация человека). – Москва: Научный мир, 2004. – 440 с.
- 2.Дронова А.Л. Специфика передачи невербальных способов коммуникации в художественном тексте (на материале произведений И.С.Тургенева) автореф. дисс. ... док. филол. наук. – Калининград, 2016. –С.8
3. Солижонов Й. Деталлар тилга кирганда... / Ўзбек адабий танқиди. Антология. – Тошкент: Турон-иқбол, 2011. Б. – 205-214; Султонова М.М. Образ ва деталь. / Абдулла Қаҳҳор услуби. “ФАН” нашриёти, Тошкент 1967., 123-133-бетлар;
4. Крейдлин Г.Е. Невербальная семиотика в ее соотношении с вербальной: Автореф. дисс. ... док. филол. наук. – М., 2000.
- 5.Хахимов М. Прагматика экстралингвистических средств в узбекском языке.// Материалы Международной научно-практической конференции Кыргызско-Российский Славянский университет «Взаимодействие языков в полиэтническом государстве как фактор национальной безопасности» Российская туркология Бишкек, 23 апреля 2015 года, С.41-45
- 6.Lutfiy A. Saodat asri qissalari. Sharq nashriyoti, Toshkent –2006.30-b.

UO'K 808.5

## ЧЕТ ТИЛ ЁЗМА НУТҚИНИ ЎҚИТИШДА ЮРИСТ ТАЛАБАЛАРНИНГ ДИСКУРСИВ КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

*Д.А. Зойирова, ўқитувчи, Тошкент давлат юридик университети, Тошкент*

**Аннотация.** Ушбу мақолада юрист талабаларнинг ёзма нутқини дискурсив компетенциясини шакллантириш хусусида фикр юритилади. Ёзма нутқ фаолиятининг махсус билим, маҳорат ва қобилиятдан ташкил топган энг мураккаб бир тури сифатида тадқиқ этилади. Чет тил ёзма нутқини ўқитишда коммуникатив, дискурсив ва бир қанча бошқа касбий компетенциялари назарда тутилади.

**Калит сўзлар:** ёзма нутқ; компетенция; дискурсив компетенция; чет тил; юрист талабалар.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается формирование дискурсивной компетенции письменной речи студентов-юристов. Письменная речевая деятельность исследуется как наиболее сложный вид, состоящий из конкретных знаний, умений и навыков. При обучении иноязычной письменной речи предполагается коммуникативная, дискурсивная и ряд других профессиональных компетенций.

**Ключевые слова:** письменная речь; компетентность; дискурсивная компетентность; иностранный язык, студенты юридических факультетов.

**Abstract.** This article discusses the formation of discursive competence of written speech of law students. Written speech activities are explored as the most complex type, consisting of specific knowledge, skills, and abilities. Communicative, discursive and a number of other professional competencies are implied in the teaching of foreign language written speech.

**Keywords:** written speech; competence; discursive competence; foreign language, law students.

Ўзбекистон Республикасининг таълим тўғрисида, хусусан, чет тилларни ўргатиш ва ўрганиш масалаларига бағишланган барча ҳужжатларида ёшларни баркамол шахс, жаҳон стандартлари даражасида билим, малакаларга эга мутахассис қилиб тайёрлашга эътибор қаратилган. Жумладан, “Чет тилларини ўрганиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 1875-сонли Қарорда айнан шундай мақсадлар кўзда тутилган. Мазкур ҳужжатда барча ўқув муассасаларида чет тилларни ўрганиш давлатнинг устувор ижтимоий вазифаларидан бири сифатида қаралади.

Юридик ёзма нутқ – ижтимоий мулоқотнинг хилма-хиллигини акс эттирувчи касбий йўналтирилган нутқ турларидан биридир [1]. Юриспруденция соҳасида хорижий университетлар тажрибаси асосида махсус матнларни ўрганишда (фармонлар, шартномалар, васиятномалар, парламент актлари ва юридик маслаҳатлар, суд ҳужжатлари каби ҳуқуқий ҳужжатлар) инглиз тилини ўрни каттадир. Шу сабабли, университетни тугатган бўлажак юрист бугунги кунда дискурсив компетенцияни шакллантиришнинг этарлича юқори даражасига эга бўлиши керак, бу ўз навбатида маданиятлараро мулоқотнинг муайян ҳолатига мос келадиган турли коммуникатив хулқ-атвор стратегияларидан, коммуникатив компетенция жараёнида қўлланиладиган ўзаро таъсир шакллари тўлиқ ҳисобга олган ҳолда фойдаланиш қобилиятини беради. Бу профессионал маданиятлараро мулоқот нормаларини ва шунга мос равишда профессионал ёзма нутқни чет тилида яхши биладиган ҳуқуқшуносларни тайёрлаш заруриятини келтириб чиқаради.

Меҳнат бозорида талабга эга бўлган мутахассисни тайёрлаш бўйича янги таълим дастурлари асосида ўқитишнинг янги шакллари ва усуллари жорий этиш лозим [3]. Ушбу муаммони ҳал қилиш нафақат шахсга, унинг шахсиятига эҳтиёткорлик билан муносабатда бўлишни, балки шахсга йўналтиришни ўз ичига олган индивидуаллаштириш ва фарқлаш асосида талабаларга ёзма нутқни чет тилида ўқитишнинг шахсий усулини ишлаб чиқиш лозимдир. Шу асосида мустақил танқидий фикрлашни шакллантириш, онгли равишда ўзини-ўзи такомиллаштириш, шунингдек, ҳар бир талабага ўз таълим йўлини танлаш ва қуриш имкониятини беради.

Танлаш ҳуқуқи ва ўзгарувчанлик ёзма нутқни чет тилида инновацион ўқитишнинг ўзига хос белгисидир: биринчи курсда ўқиётган талабаларнинг тил ўргатишнинг нотекислиги, университетда чет тили дарсларининг чекланган вақти, бўлажак юристларнинг мустақил таълим фаолиятини ташкил этишдаги айрим камчиликлар мавжуд. Ушбу муаммоларни этиборга олган ҳолда ҳар бир талаба учун индивидуал методни ишлаб чиқиш керак. Замонавий илмий адабиётларда бўлажак юристнинг дискурсив қобилиятлари коммуникатив компетенцияларга қараганда кенгрок тушунилади: уларнинг тузилиши кўшимча равишда нафақат ҳуқуқий матн яратиш қобилиятини, балки турли хил экстралингвистик хусусиятларни, адвокатнинг маданиятлараро мулоқот муваффақиятига таъсир этувчи омиллар ҳам ҳисобга олади. Талабаларнинг чет тилида ёзма нутқ компетенциясини шакллантиришда ёрдам берувчи дидактик воситалар ўқув мақсадидан келиб чиқиб, яъни оғзаки ёки ёзма нутқни ўргатиш мақсадида дифференциал ёндашган ҳолда, танлаб олиншимиз лозим. Агар чет тилида ёзма нутқни ўргатувчи воситаларни бир комплекс ҳолда оладиган булсак, унинг биринчи қисмини ёзувга ўргатувчи дидактик воситалар, иккинчи қисмини эса чет тилида ёзма нутқни ўргатувчи воситалар ташкил қилади. Бундан кўришиб турибдики, чет тилида ёзма нутқ компетенциясини шакллантиришдаги комплекс ёндашув турли имконият, вазифа ва дидактик функцияга эга бўлиб, у ўқитувчи ва талабанинг ўқув жараёнидаги фаолиятини ташкил қилишга ёр-дам беради.

Компетенциявий ёндашув нуқтаи назрдан қараладиган бўлса, чет тилида ёзма нутқ коммуникатив компетенцияси В2 даражасида шаклланган бўлиши талаб этилади. Нолингвистик факултет талабаларининг дискурсив компетенциясини шакллантириш бўйича мавжуд тадқиқотларга қарамай, ушбу нашрлар таҳлили шуни кўрсатдики, юридик соҳа талабаларининг индивидуал услубий таъминоти асосида нутқий компетенциясини шакллантириш билан боғлиқ баъзи масалалар этарлича ўрганилмаган.

Бугунги кунда ўқув жараёни чет тилини амалий билишга қаратилганлиги сабабли, ёзма нутқ фаолиятининг катта аҳамиятини таъкидламоқчиман. Ёзма нутққа ўргатиш ўқувчиларнинг ёзма сўзларни бирлаштириб ўз фикрини мулоқот еҳтиёжларига мувофиқ ифодалаш, ёзма равишда чет тили воситасида мулоқот қилиш қобилиятини егаллашдир. Ёзма нутқни ўргатишнинг мақсади ўқувчиларнинг ёзма нутқий иш мазмуни ва шаклини ўзлаштиришни ўз ичига олган ёзма коммуникатив компетенциясини шакллантиришдан иборат.

Инглиз тилини иккинчи тил сифатида ўқитиш дастури доирасида юридик факултет талабалари учун касбий йўналтирилганликни ҳисобга олган ҳолда оралиқ ва якуний билимларни мониторинг қилиш учун турли ўқув қўлланмалар ва дастурлар таклиф этилади. Ўқув жараёнининг катта қисмини билимларнинг ўзлаштирилишини назорат қилиш ташкил этади ва талабалар билимини текширишнинг ягона натижаси бу курс учун субъектив баҳодир. Бироқ, якуний баҳолаш ҳар доим ҳам кейинги касбий фаолият учун зарур бўлган кўникмаларни эгаллашни кафолатламаслиги мумкин. Танқид қилинган ва энг аввало ўқув жараёнида олинган кўникмалар асосида ҳуқуқшунослик талабаларини тайёрлаш кўпинча назарийдан кўра кўпроқ концептуалдир ва талабаларда мавзуга идеалистик ёки реал бўлмаган

нуктаи назарни қолдиради. Юридик талабалари инглиз тилида ёзма нутқни ўргатиш учун зарур бўлган баъзи асосий педагогик усуллар, ёзма мулоқотни ўргатиш ва хусусан, хорижий тилда ҳуқуқий ҳужжатларни ўрганиб чиқиб, улар асосида тажрибасини оширишга имкон беради. Баъзилар ҳеч қандай махсус таълим методи талаб этилмайди ва маълум бир тил вазиятига мос келадиган ўз услуб ва услубларингизни ишлаб чиқиш яхшироқ деб баҳслаганса-да, биз инглиз тилини иккинчи тил талабалари сифатида ўқитишнинг тасдиқланган методологиясига мурожаат қилишни таклиф қиламиз.

Юридик университет талабаларига инглиз тилида ёзма нутқни ўргатиш учун зарур бўлган баъзи асосий педагогик усуллар, ёзма мулоқотни ўргатиш ва хусусан, хорижий тилда ҳуқуқий ҳужжатларни ишлаб чиқишга ёрдам беради. Лекин ҳеч қандай махсус таълим талаб этилмайди ва маълум бир тил вазиятига мос келадиган ўз услуб ва услубларингизни ишлаб чиқиш яхшироқ деб баҳслаганса-да, биз инглиз тилини иккинчи тил талабалари сифатида ўқитишнинг тасдиқланган методологиясига мурожаат қилишни таклиф қиламиз. Шундай қилиб, юридик факултет талабалари учун хорижий тилда ҳуқуқий ҳужжатларни ишлаб чиқиш бўйича компетенция зарур бўлиб, ҳуқуқий ёзувларни бир қатор курсларга киритиш умумий стратегияга айланиши керак. Бироқ, ҳар бир ўқитувчининг чет тилида илмий ёзишни ўргатиш усуллари ва методлари мавжуд. Интеграл ёндашув билан боғлиқ қийинчиликларни бартараф этишда фойдали бўлиши мумкин бўлган профессионал мақсадларда чет тилида ёзма нутқ ўргатишнинг иккита ёндашуви мавжуд: биринчидан, бутун курс учун мўлжалланган, бир нечта юридик ёзув услубларини ягона мавзу сифатида ўрганишга қаратилган горизонтал ёндашув; иккинчидан, ҳуқуқий ёзиш кўникмалари биринчи курсда ўргатилишига асосланган вертикал ёндашув ва талабаларга ҳуқуқий ҳужжатларни ишлаб чиқишнинг мураккаб жиҳатлари фақат маълум бир босқичда ўсиши билан таклиф этилади. Бу эса чет тилида ёзма нутқни ўқитишда дискурсив компетенциясини шакллантиради [2]. Қийинчилик ўқув қўлланмаларининг етишмаслиги, тилшуносларнинг ҳуқуқий билимлар бўйича етарли даражада малакасизлиги ёки ҳуқуқ фани ўқитувчиларининг тил билмаслиги билан изоҳланади.

Профессионал йўналтирилган тил дастурларини ишлаб чиқувчилар ёзма нутқ ўргатиш учун баъзи муқобил стратегиялар мавжуд. Хизмат кўрсатадиган ҳуқуқий ҳужжатларни ишлаб чиқиш учун инглиз тилидаги ёзма нутқ ҳозирда қўлланилаётган интегратив ёндашувга қўшимча ва улар мажбурий эмас, балки фақат тренингнинг мақсад ва вазифаларига мувофиқ қўлланиладиган амалий вариантлар сифатида қаралиши керак.

Ҳуқуқий ҳужжатларнинг бир неча жанрлари мавжудлигини ҳисобга олсак, уларни она тили бўлмаган тилда тузиш малакасига эришиб бўлмайди бир кечада ёки битта катта ҳажмли вазифа орқали, норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг илмий-услубий хусусиятини ҳисобга олган ҳолда талабаларга таклиф қилиш, ҳуқуқий ёзиш кўникмаларини эгаллаш учун махсус курслар ёки семинарлар ташкил қилиш мумкин. Бу уларга ҳар томонлама ёзма нутқни инглиз тилида семинар ёки ёзиш курси асосида интенсив ўрганишга имкон беради. Бундай ҳолда, ўқувчиларга ёзиш қоидаларидаги фарқларни тушунишга ёрдам бериш, она тиллари ва мақсадли тилларнинг профессионал мулоқоти фойдали бўлиши, шу асосида махсус амалий материални ўқитувчи ўзи ишлаб чиқиши мумкин. Профессional йўналтирилган чет тили ёзма нутқни ўргатиш билан боғлиқ қийинчиликларни ўрганиб, ўқитувчи ўзига мос метод ва усулни ишлаб чиқиши керак бўлади. Олинган натижалардан хулоса қилиш мумкинки, ёзма нутқни ўстириш жараёни юқорида қайд этилган, дискурсив компетенциясини ҳисобга олиб ташкил қилинса, нофилологик факультет талабаларининг чет тилида ёзма нутқ компетенциясини шакллантириш самарадорлиги ортади. Талабаларда ёзма нутқ компетенциясини шакллантириш уларни фикрлаш, мулоҳаза қилиш, таҳлил қилиш, хулоса чиқариш, ўз фикрларини изоҳлаб беришга ўргатишни ҳам ўз ичига олади.

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Алимов Ф. Effective ways of improving the written speech skills of the non-philological faculty students/ Eastern European Scientific Journal. № 3. www.Auris-Verlag. de Germany.2019. P. 156-158.
2. Жалолов Ж.Ж. Чет тил уқитиш методикаси. - Т.: «Ўқитувчи», 2012. -294-б.
3. Кудряшова О.В. Компоненты коммуникативной компетенции при обучении письменной речи. // «Вестник ЮУрГУ», 2020, № 15.
4. Zoyirova, D. A. (2018). Forming Discursive Competence of Law Students. Eastern European Scientific Journal

УЎК 808.5

### БАДИЙ АДАБИЁТДА ИСЛОМИЙ ҚАДРИЯТЛАР ВА АЁЛЛАР ОБРАЗИ

*Ҳ.Исмоилова, ўқитувчи, Фарғона Давлат Университети, Фарғона*

**Аннотация.** Ушбу мақолада бадий ва диний адабиётларда исломий қадриятлар ва аёллар масаласига диор олга сурилган илмий манбалар устида сўз боради. Асосан, Аннемарие Шиммельнинг “Жонон менинг жонимда” асари орқали аёл образининг талқини ифодаланган.

**Калит сўзлар:** Аёл образи, ўзбек ва хориж адиблари, бадий ва диний манбалар, роман ёки ҳикоялар, меҳр-муҳаббат, исломий қадриятлар

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются научные источники, пропагандируемые в художественной и религиозной литературе по исламским ценностям и проблеме женщин. В основном произведение Аннемари Шиммель «Моя душа -женщина» выражает интерпретацию образа женщины.

**Ключевые слова:** Женский образ, узбекские и зарубежные писатели, художественные и религиозные источники, романы или рассказы, любовь, исламские ценности.

**Abstract.** This article discusses the scientific sources that have been promoted in the fiction and religious literature on Islamic values and the issue of women. Basically, Annemarie Shimmel's work "My soul is a woman" expresses the interpretation of the image of a woman.

**Keywords:** Female image, Uzbek and foreign writers, artistic and religious sources, novels or stories, love, Islamic values

**Кириш.** Муस्ताқилликга эришганимиздан сўнг кўплаб тарихий манбаларга катта эътибор берилди ва диний кўмиталарда қайта чоп этиш масалалари кўриб чиқилди. Шу жумладан, бадий ва диний манбаларга қизиқиш уйғонди, чунки ушбу манбалар ўзига ҳослик билан ажралиб туради. Бизга маълумки, тарихий, бадий ва диний адабиёт тўпламлари бизгача етиб келган. Айниқса, бу масалаларда буюк мутафаккирларимизни асарларини инобатга олмасдан ҳеч имкони йўқ. Уларнинг асарлари илмий манбаларнинг калитидир. Уларнинг ижодлари нафақат роман ёки ҳикоялар билан чегараланган эмас, балки аёллар масаласига доир шеър ва мақолларни ҳам учратишимиз мумкин. Мисол тариқасида, куйидаги форс мақолини келтириш мумкин.

“Аёл эмас ҳар бир аёл

Ҳар эркак эркакми денг

Зеро, Худо беш бармоқни

Яратганмас қилиб тенг”. [1, 73-бет] (Йўлдош Парда таржимаси)

**Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили.** Яна шу аснода кўплаб диний ва бадий манбаларни келтиришимиз мумкин. Шу жумладан, ғазал мулкининг султони буюк мутафаккир шоир Алишер Навоий “Жаннат равзосию боғлари оналар оёғи остидадир, лекин равзани кўрмоқ ва ундан баҳрамад бўлмоқ бахтига эришмоқни истар бўлсанг, оналар оёғи остида тупроқ бўлишни ихтиёр қил” деган эканлар. Бизга маълумки, исломий таълимотларда бот-бот такрорланадиган аёллардан бирлари Пайғамбаримиз Муҳаммад соллоллоҳу алайҳи вассаламнинг тўрт қизларидир. Улар Зайнаб, Руқайя, Умм Гулсум ва кенжа қизлари Фотимадир. Исломий халқларнинг шеърий асарларида Фотима розийаллоҳу анҳо шаҳид бўлган фарзандлари учун йиғлаётган мушфиқ она тимсолида тасвирланган. Шиалар Фотима розийаллоҳу анҳони кўплаб таҳаллус билан аташган. Масалан, “Захро”, яъни “Нур таратувчи”, “Батул”, яъни “Бокира”, “Масъума”, яъни “Беғуноҳ”. Бундан ташқари кўплаб Шарқ адиблари ва шоирлари ҳам ўз асарларида Фотима розийаллоҳу анҳони тасвирлашган. Ғазналик шоир Санойининг (1331 йил вафот этган) ушбу мисралари қалбларни ром этувчидир.

“Қизлар, жувонларга ташла бу дунё,

Аммо хайруннисо Фотима қайда?” [1, 25-бет]

Бундай мисраларнинг кўпчилигини келтиришимиз мумкин. “Хайруннисо”, яъни “аёлларнинг аълоси” [1, 25-бет] деган маънони англатади. Бундан кўринишича, ушбу мавқе нафақат Хадича розийаллоҳу анҳога, балки унинг кенжа қизи Фотима розийаллоҳу анҳога ҳам берилган.

**Тадқиқот методологияси.** Мен шу аснода бир ривоятни келтириб ўтмоқчиман. Исломий кадрятларимиздан яна бири бу фарзандларнинг ўз ота онаси олдидаги бурч ва мажбуриятлари бор. Бу Куръони каримнинг 17-сураси, 23-24-оятларда келтириб ўтилган. Фарзандлар ота-оналарни умр бўйи ҳурмат қилиш асосий исломий кадрятлардан бири ҳисобланади. Пайғамбаримиз Муҳаммад соллоллоҳу алайҳи вассалам ҳам мусулмон кишининг ўз ота-онаси олдидаги исломий бурчларга куйидагича урғу берганлар. “Ота-оналарингга меҳрибон бўлинглар, шунда фарзандларингиз ҳам сизларга меҳрибон бўлади. Хотинларингизга ифбатли (покиза) бўлинглар, шунда хотинларингиз ҳам сизларга ифбатли бўлмай”. Кимки оллоҳ ризолигини олмоқчи бўлса, ўз ота-онасига иззат-икром кўрсатмоғи лозим ва меҳр-муҳаббат билан муносабатда бўлиши керак. Зеро, “Жаннат оналарнинг оёғи остидадир”. [1, 10-бет] Исломий манбаларда баён қилинишича, бир мусулмон йигит Пайғамбаримиз Муҳаммад соллоллоҳу алайҳи вассалам олдида ташриф буюриб шундай: Ё Расулulloҳ биринчи навбатда ота-онамга иззат-икром кўрсатишимда қай бири биринчи ўринда туради? [1, 82-бет] деб сўраган экан.

“Шунда ул зот онангга деб жавоб берган экан!

-Кейин-чи?

-Яна онангга деганлар!

- Ундан кейин-чи?

- Пайғамбаримиз Муҳаммад соллоллоҳу алайҳи вассалам шундай жавоб қиладилар: Онангга!” [1, 82-бет]



Мавлоно Румий “Хар бир зот онасига мурувват кўрсатиб, эҳтиромли бўлиши зарур, зеро она худонинг марҳаматидан баҳрадордир” [1, 83-бет] ўз мисраларида ифодалаган. Бундай мисраларда оналарнинг улуғланиши юқоридаги фикримизнинг яққол табиридир.

**Таҳлил ва натижалар.** Исломушунос олимлар, буюк уллома ва мутафаккирлар, шоирларнинг таржимаи ҳолларида оналарнинг ўрни муҳим аҳамият касб этганлигига амин бўламиз. Чунки онанинг мукамал тарбияс назарияси фарзанднинг келажак пойдеворининг калитдир. Кўплаб уламоларимиз исломий қадриятларимиздан бири тарбия мавзусига ҳам улкан ҳисса қўшишганлар. Масалан, Тҳанавийнинг “Жаннат зеб-зийнати” асари ана шундай асарлар сарасига киради. Ушбу асарда айнан кўпроқ кизлар тарбиясини акс эттирувчи, анъанавий қарашларга бағишланган ҳолда яратилган. Унда ўз мол-мулкларини ўғилларининг билим олишлари учун сарф қилган оналар ёки опа сингиллар тўғрисидаги масалалар ўз аксини топган бўлиб, ўша даврларда бу масалалар ўта аҳамиятли ҳодиса талқинида яққол тасвирланган. Бу фикр далили шуки, буюк муҳаддис олим Муҳаммад ибн Исмоил ал-Бухорийнинг ҳаёт йўллари олишимиз мумкин. Лекин диний таълимотларга кўра хусусан, Қуръони каримда кўрсатилишича оналаримиз ҳамда опа-сингилларимиз ўз мол-мулкларини хоҳласалар ўз ўғилларига ёки оға иниларига сарф қилишади, хоҳламасалар сарф қилишмайди. Бу уларнинг мажбуриятига кирмайди, чунки бугунги дунёвий ҳуқуқий тизимда ҳам аниқ қонун-қоидалар тузилган бўлиб, уларнинг ҳақ-ҳуқуқлари ҳимояланаган ҳолда бугунги ҳаёт тарзига татбиқ этилган. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарорига мувофиқ “Тендер тенглиги ҳамда хотин-қизларнинг ҳуқуқ ва имкониятларини янада кенгайтириш, хотин-қизларга нисбатан камситилишларга барҳам бериш, уларнинг жамиятнинг барча соҳаларида эркин ва фаол бўлишларини таъминлаш” [2, 190-бет] чора тадбирлари кўзда тутилган.

**Хулоса ва таклифлар.** Исломий қадриятлардан яна бири оға-ини ва опа-сингилар билан бир оила бўлиб яшашдир. Исломий қадриятларда қавми -қориндошлик яъни қондошлик ҳам энг юқори ўринда туради. Мисол тариқасида, Пайғамбаримиз Муҳаммад соллоллоху алайҳи вассалам нафақат умматларига балки ўз қориндошларига ўта эътиборли бўлишган. У зот ўз амакилари Аббосга (розияллоху анҳо) ҳам дунё ва ислом таълимоти бўйича билим берганлар. Унга дунё ва охират саодатини англатувчи оят ва сураларни ўргатганалар. Мисол тариқасида ушбу дуода Пайғамбаримиз Муҳаммад соллоллоху алайҳи вассалам мана бу сўзларни айтган: “Эй Аллоҳ, сендан афв ва офият сўрайман”. Бу дуо шундай ифодаланган: “Яхшилиқни жамловчи, ёмонликларни тўсовчи ва ҳаммасини ўрнини босувчи дуодир” [9] Бизнинг мусулмон жамиятимизда яна шундай қадрият борки, у художўй кишиларнинг мурувватидир. Хусусан, художўй инсонлар оналарини кўтариб Ҳаж сафарига олиб боришлари ёки касалманд кишиларга мурувват қилишларига гувоҳ бўламиз. Айтишларича, Ҳаж сафари чоғида кўзи ожиз оналаримизнинг кўзлари очилиб, бемор оналаримиз эса шифо топишар экан. Аёллар мавзусига боғлиқ бўлган кўплаб машҳур жаҳон исломшунос олимларнинг асарларини илмий таржима вариантларини тадқиқ этилиши устида музокара ва мунозаралар олиб борилса мақсадга мувофиқ бўларди.

#### ҲОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Аннемарие Шиммел “Жонон менинг жонимда” Тошкент: Шарк, 1999.бет. 10-83
2. Оиз Қарний “Ўқинма” Самарқанд: 2017 190 бет

УЎК 81-13

### ТИЛДА ҚИЁСЛАШ МУНОСАБАТИНИНГ СУПЕРСИНТАКТИК БУТУНЛИК ОРҚАЛИ ИФОДАЛАНИШИ

*А.Мамажонов, проф., Россия ФА нинг муҳбир-аъзоси, Фарғона Давлат Университети, Фарғона Ш.Дадабаева, таянч докторант, Фарғона Давлат Университети, Фарғона*

**Аннотация.** Қиёслаш муносабати суперсинтактик бутунлик орқали ҳам ифодаланиб, мазмунан ўхшатиши мазмунидаги суперсинтактик бутунлик ва чоғиштирма мазмунидаги суперсинтактик бутунлик каби турларга бўлинади. Ушбу мақолада, айнан, чоғиштирма мазмунидаги суперсинтактик бутунлик ва унинг антитеза ва фарқлаш усулларининг иштирокига кўра турлари ўзбек ва инглиз тилларидаги лисоний далиллар билан ёритилди.

**Калит сўзлар:** суперсинтактик бутунлик (ССБ), тема, ўхшатиши мазмунидаги ССБ, чоғиштирма мазмунидаги ССБ, антитеза, фарқлаш ва зид маъноли сўзлар.

**Аннотация.** Отношение сравнения также выражается через суперсинтаксическое целое, которое подразделяется на такие виды, как суперсинтаксическое целое в плане уподобления и суперсинтаксическое целое в плане сопоставления. В данной статье на основании языковых фактов узбекского и английского языков, освещены суперсинтаксическое целое сопоставительного содержания и его виды в зависимости от использования приемов антитезы и дифференциации.

**Ключевые слова:** суперсинтаксическое целое (ССЦ), тема, ССЦ плана уподобления, ССЦ плана сопоставления, антитеза, различие и антонимы.

**Abstract.** The comparative relationship is also expressed through supersyntactic integrity, which is divided into types such as supersyntactic integrity with the meaning of similarity and supersyntactic integrity with the meaning of contrast. In this article, it is precisely that the supersyntactic integrity with the meaning of contrast and its types in relation to the participation of antithesis and differentiation methods are covered with linguistic examples in Uzbek and English.

**Keywords:** supersyntactic integrity (SSI), Theme, SSI with the meaning similarity, SSI with the meaning contrast, antithesis, differentiation and antonymies.

Дастлаб, тилшуносликда энг йирик синтактик бирлик гап ҳисобланиб, кейинчалик XX асрнинг 70-80 йилларида гапдан йирик нутқ бирлиги – микроматн – суперсинтактик бутунлик ҳам мавжудлиги исботланди.

Матн ва унинг турлари, дастлаб, ижтимоий коммуникатив нутқ бирлиги сифатида когнитив психология томонидан ўрганилди. Кейинчалик когнитив тилшуносликнинг ривожланиши, унга тил бирлиги сифатида ёндашишга асос бўлди.[2;21] Ушбу ўрганиш жараёнини Бринкер уч босқичга бўлади:

1. Матннинг коммуникатив-прагматик хусусиятларини ўрганиш босқичи;
2. Матн мавзусини(контекст) ўрганиш босқичи;
3. Матннинг лисоний-стилистик хусусиятларини (синтакти-стилистик муносабатларини) ўрганиш босқичи.[1;80-85]

Айнан матн лингвистикаси бўйича Европа ва рус тилшунослари томонидан олиб борган тадқиқотлар ўзбек тилшунослигида ҳам ушбу соҳанинг ривожланишига асосий туртки бўлди.

Ўзбек тилшунослигида матн ҳақидаги дастлабки маълумот Тошкент шаҳрида 1980 йилда бўлиб ўтган Бутуниттифок турколог олимларнинг илмий анжуманида Ғ. Абдурахмонов томонидан қилинган матн назариясига оид маъруза ҳисобланиб, у матн тилшунослигининг юзага келишига асос бўлди [3;93]. Ундан кейин И.Расулов [14;147], М.Асқарова [4], А.Мамажонов [7],[8],[9], Н.Турниёзов [11], М.Ҳакимов [12], М.Йўлдошев [5], М.Курбонова [5], М.Абдупаттоев [9;114], Д.Худойберганова [13], У.Носирова [10;31] каби олимлар олиб борган тадқиқотлар ушбу соҳанинг ривожланишига сабаб бўлди.

Олиб борилган тадқиқотларда матннинг мазмуний томони, хусусан, қиёслаш мазмуни матннинг йирик бирлиги суперсинтактик бутунлик орқали ҳам ифодаланиши ҳақидаги фикрлар ҳам баён этилган бўлиб, аммо улардан салмоқлилари қиёслаш муносабатининг ушбу бирлик (хусусан *суперсинтактик бирлик*) орқали ифодаланиши ҳақида ўз фикрларини айтиб ўтган.

А.Мамажонов ўзининг “Текст лингвистикаси” номли қўлланмасида қўшма гап каби микро матнда (ССБ) да ҳам мазмуний муносабатларнинг қиёслаш тури мавжуд эканлигини айтиб ўтади ва бунда икки фикрни ўзаро қиёслашда *антитеза* усулини иштирокини таъкидлайди [8;35].

*Зумрад билан Манзура кўп йиллар мактабга бирга қатнадилар. Зумрад зеҳни баландлиги, ўқишга ҳаваси зўрлигидан, кўп ўтмай саводини чиқариб олди. Манзура тузук ўқимади, ҳаёли, ҳаваси ўзга нарсаларга банд бўларди. Мактабга шунчаки, “ўқидингми- ўқидим” қабилда қатнашганидан чала савод қолиб кетди.*(Ойбек)

Юқоридаги суперсинтактик бутунлик мазмунан икки қутбга ажралиб, уларнинг биринчисида Зумрадга ҳос сифатлар, иккинчисида эса унга қарама-қарши бўлган Манзуранинг характер-хусусиятлари ёритилади. Бу икки қаҳрамон характер-хусусиятларининг бир-бирига солиштириш орқали қисмлар ўртасида қиёслаш-зидлаш муносабати ўрнатилади, шу йўл билан уларнинг фарқли томонлари очиб берилади.

М.Курбонова, М.Йўлдошев ҳаммуаллифлигидаги “Матн тилшунослиги” номли китобида, айнан, бадиий матннинг лексик ва синтактик таҳлилида қиёслаш маъносини шакллантиришда иштирок этувчи воситалар турли мисоллар билан ёритилган [5;60-61,78-79].

Д.Худойберганова ўзининг матннинг антропоцентрик тадқиқига бағишланган илмий ишида матнларнинг лингвокультуралогик хусусиятлари ва уларнинг матн яратилишидаги ўрнида *ўхшатиши мазмунли матнлар* ва уларнинг хусусиятларини ўрганган [13;93-101].

Демак, “ Матн ўзига ҳос мураккаб синтактик структурага эга бўлган нутқнинг энг йирик ифодаси” [8;7] бўлиб, у кенг маънода бир бутун асарни, тор маънода эса суперсинтактик бутунликни ифодалайди. Профессор А.Мамажонов ўзининг матн лингвистикага оид тадқиқотларида матннинг куйидаги бирликларидан иборат эканлиги айтиб ўтади:

*Гап*

*Супер синтактик бутунлик*

*Абзац*

*Период*[8;12]

Супер синтактик бутунлик (ССБ) микро матн кўриниши гапга нисбатан йирик, бадиий асарга нисбатан кичик ҳажмга эга нутқ бирлигидир. “Ҳар бир ССБ ўз бошланиш, ривож ва тугалланмасига эга бўлган бир воқеани ифодаловчи миниатюра ҳолидаги ҳикоядир” [6; 63] ССБнинг биринчи гапи *тема* деб номланади ва у бош ғояни ифодалайди. ССБ таркибидаги гаплар ўзаро бирлашиб, маълум бир

мазмуний муносабатни юзага чиқаради. У қўшма гаплардаги каби қуйидаги мазмуний муносабатларга эга: пайт-шарт, шарт-тўсиқсизлик, сабаб-натижа, қиёслаш зидлаш [8;30].

Кўришиб турибтики, тилларда ССБ орқали ҳам қиёслаш муносабати ифодаланиши мумкин. Айнан қиёслаш муносабати ушбу бирлик орқали ифодаланганда икки объектнинг хусусиятлари бир-бирига қиёсланади.

Юқоридаги манбаларга асосланган ҳолда, қиёслаш муносабатидаги ССБни, дастлаб, икки турга ажратиш мақсадга мувофиқдир:

1. Ўхшатиш мазмунидаги ССБ;
2. Чоғиштирма мазмунидаги ССБ.

Ўхшатиш усули орқали юзага келган микро матн *ўхшатиш мазмунидаги ССБ* бўлиб, уни турли тилларда келувчи мисоллар билан таҳлил этиш мақсадга мувофиқдир.

*“Маҳфуза ҳудди келичаклардай кийиниб ҳовлига чиққанда кўёи анча кўтарилиб бўлганди. Гарчи кеч бўлса ҳам сув сепди. Ҳаммаёқни супуриб-сидирди, сўнгра овқат тайёрлади, ундан кейингина тишиллаб уҳлаётган Шокирни назокат билан юзида ўпиб, уйғотди”* (“Иблис салтанати”)

Ўзбек тилидаги ушбу ССБда ўхшатиш усули орқали қиёс субъекти *Маҳфуза* қиёс эталони *келинчакка* ўхшатишган. Натижада, қиёс субъекти, қиёс эталони ва қиёснинг шаклий кўрсаткичлари (*ҳудди,-дай*) ва қиёс асоси (*кийиниб чиқиши, сув сепиши* каби фаолиятлар ҳақидаги жумла орқали берилган) *қиёслаш муносабатини* юзага чиқарган.

*“Defeat, like a headache, warns us that something has gone wrong. If we are intelligent we look for the cause and profit by the experience.”* (Napoleon Hill)

Ушбу мисолда эса қиёс субъекти *defeat* (*мағлубият*) қиёс эталони *headache* (*бош оғриғи*)га ўхшатилиши орқали қиёслаш муносабатини юзага чиққан.

Қуйида чоғиштирма мазмунидаги ССБ ларни кўриб чиқамиз.

Чоғиштирма мазмунидаги ССБларда икки фикр ўзаро қиёсланиб, мазмунан улар бир-бирига зид қўйилади, фарқланади. Бунда *антитеза* ва *фарқлаш* каби стилистик ҳодисалар иштирок этади.

Матнда (ССБ) *зид маъноли сўзлар, қўшимчалар ва гаплар* иштирок этиб, улар қиёсланаётган икки объектни зидлантириш, қарама-қарши қўйиш каби вазифаларни бажаради. Ушбу ҳодиса илмий адабиётларда *антитеза*, Шарқ санъатида *тазод* [5;61] деб номланади.

Қуйида тилларда ушбу жараённинг содир бўлишини лисоний далиллар орқали кўриб чиқамиз:

*Луверга янги кириш жойи ҳудди музей каби маиҳур бўлиб кетган. Уни америкалик меъмор И.И.Пей томонидан бунёд этилган ойнаванд эҳром беаб турирди. Эҳромнинг модернизм услубида қурилган анъанадорларга ёқмагани аниқ. Ула ушбу иншоот Уйғониш даври услуби ва мавқега путур етказида деб ҳисоблар эдилар. Гёте ушбу меъморчилик асарини тўхтаб қолган мусиқа деб атаган бўлса, Пейнинг танқидчилари уни синф таҳтаси бўйлаб тирноқнинг гичирлашига ўхшатишган. Илғор фикрли кишилар эса буйи етмиш фут келадиган шаффоф эҳромни қадимий анъаналар ва замонавий технологияларнинг ажойиб уйғунлиги, ўтмиш ва бугунги кунни боғлаб турувчи рамзий ҳалқа деб ҳисоблашган. Улар ана шундай безакка эга Лувер учинчи минг йилликда ўзининг муносиб ўрнига эга бўлишига ишонганлар.* (“Да Винчи сирин”)

Ушбу ССБ да анъанадорлар билан илғор фикрли кишиларнинг эҳром ҳақидаги қарашлари антитеза ёрдамида ўзаро зидлантирилган.

Ушбу инглиз тилидан олинган ССБда юқори калорияли таомлар билан экологик тоза таомларнинг ўзаро фарқи антитеза усулида қиёсланган.

*Highly processed foods – package goods made from high amounts of sugar and other simple carbohydrates - drain us more than they fuel us. Rather than increasing your energy, these essentially “dead” foods cause your to spike and then crash, leaving you tired and listless. On the other hand, whole foods like fruits, vegetables, nuts, and seeds typically keep you healthier and maintain your energy levels, empowering your body and mind and enabling you to perform at your best.* (“Miracle morning millionaires”)

ССБларда *фарқлаш* ҳам қиёслаш муносабатини ифодалашда иштирок этади. “*Фарқлаш* деб икки нарса-буюм, воқеа-ҳодиса ёки ҳолатлардаги дифференциал белгини аниқлашга айтилади” [5;79] У мантиқан антитеза ҳодисасидан ажратилиб, антитезада қарама-қарши асосларга эга бўлган икки объект қиёсланса, фарқлашда маълум асосга кўра икки объект фарқланади. Масалан,

*“Ўрдақнинг узри*

*Покларнинг поки бўлиб ўрдақ сувдан чиқди, бошқа қушлар ичида у яхшилик ва поклик рамзи эди. Деди:*

*- Икки жаҳонда бирон киши мендан кўра покроқ, пок юзлироқ эмас. Ҳар лаҳзада савоб учун гусл қилиб, сув узра жойнамоз тўшайман. Менга ўхшаб ҳеч ким сув устида тик туролмайди. Кароматимга шубҳа қилолмайсиз. Қушларнинг пок ниятли зоҳиди менман, жойим ҳам, тўним ҳам тозадир. Мен жаҳонда сувсиз яшолмайман, чунки мен тугилганимдан сувдаман ва сув менинг борлигимдир...*” (“Мантикут-тайр(настрий баёни)”)

Ўзбек тилидаги ушбу нутқ парчасида ўрдакнинг бошқа кушлардан маълум бир белгилар - покров ва юзлроклиги билан фарқланиши таъкидланмоқда. Бу ўринда *фарқлаш* ҳодисаси кузатилмоқда.

“*Henry Ford, Thomas A. Edison, and Harvey Firestone are men of great achievement in their respective fields of endeavor. Of the three, Henry Ford is the most powerful, with reference to economic power. So great is his power that he may have anything of a physical nature that he desires, or its equivalent. Millions of dollars, to him, are but playthings, no harder to acquire than the grains of sand with which the child builds and tunnels.*” (“Law of success”)

Ушбу ССБ орқали Ҳенри Форднинг бошқа ишбилармонлардан кучлироқлиги қайд этилган. Унинг кучлилиги асосида қолганлардан устунлиги фарқлаш ҳодисасини юзага чиқарган.

Юқоридаги маълумотларга тайанган ҳолда, чоғиштирма мазмунидаги ССБларнинг икки турини ажратиб кўрсатиш мумкин:

1. *Зидлантирувчи чоғиштирма мазмунидаги ССБ;*
2. *Фарқловчи чоғиштирма мазмунидаги ССБ.*

Тилшуносликка оид манбаларда ўхшатиш мазмунидаги матнларда ҳам худди гап каби қиёс унсурлари мавжуд бўлиши таъкидланган [13;97]. Айнан чоғиштирма мазмунидаги ССБ ларда ҳам қиёс унсурлари иштирок этади.

Аммо зидлантирувчи чоғиштирма мазмунидаги ССБларда қиёс компонентлари тўлиқ иштирок этмайди. Унда икки қутб бир-бирига қарама-қарши қиёс белгилари асосида таққослангани учун қиёсланаётган объектларнинг бири қиёс субъекти ёки қиёс эталони бўла олмайди. Сабаби уларнинг бири бошқасига меъёр бўла олмайдиган икки мустақил қарама-қарши фикрлар ҳисобланади. Айнан ушбу ҳолатдан келиб чиқиб, қиёс субъекти билан эталони ўрнида иккала қиёс компонентини бирлаштириб, қиёсланувчи икки объектлар дейилиши тўғридир. Ундан ташқари, ССБнинг ушбу турида икки ёки ундан ортиқ қарама-қарши қиёс асослари ва қиёслаш муносабатини ифодаловчи воситалар иштирок этади. Масалан,

“*Бир бор экан, бир йўқ экан, бир чол бор экан. Унинг Зумрад исмли қизи бор экан. Чол бир қизи бор аёлга уйланибди. Қизининг исми Қиммат экан. Угай она Зумрадни ёқтирмас экан. Энг оғир ишларни унга буюрар, қаргаб, ураркан. Узининг қизини жуда яхши кўраркан, доим уни мақтагани мақтаган экан. Зумрад ақлли, чиройли ва мулойим қиз экан. Қиммат эса унга ҳеч ҳам ўхшамас экан. У тантиқ, кўпол ва дангаса экан. Кун бўйи овқат ер, бўлар-бўлмасга уришаркан.*” (“Қиммат ва Зумрад”эртагидан)

Ушбу ССБда Зумраднинг ақлли, чиройли, мулойимлиги каби сифатлари Қимматнинг тантиқ, кўпол ва дангаса эканлигига қиёс этилмоқда. Бунда икки объект мустақил белгилари билан ўзаро зидлантирилмоқда. Эса воситаси орқали қиёслаш муносабати кучайтирилган ҳолда ифода этилмоқда.

Бундан фарқли ўлароқ, фарқловчи чоғиштирма мазмунидаги ССБларда қиёс унсурлари тўлиқ ҳолда иштирок этади. Бунга асосий сабаб қиёсланувчи икки объект маълум бир қиёс белгилари асосида солиштирилади. Масалан,

“*Бошловчи киши учун қоронғиликда эшик бор, бу ёруғликдан кўра яхшироқ. Қоронғиликда у саҳоват денгизига буткул чўмади ва демак, вужудидан бирор қисми денгиздан ташқарида қолмайди. Зеро, шу денгиздан унинг бир қисми ташқарида қолиб, зоҳир бўлса, шунга мағрурланиб, кўфрга берилади. Неки ҳасад ва ғазабдан сенда бўлса, буни пири комиллар кўзи кўради, сенинг ўз кўзинг буни кўролмайди.*” (“Мантикут-тайр”)

Ушбу ССБда қиёс субъекти *эшик*, қиёс эталони *ёруғлик*, қиёс асоси *яхши ва қиёс кўрсаткичи –роқ* орқали ифодаланган.

“*It’s much easier to procrastinate than it is to write a book and risk that people might not like it. It’s much procrastinate that it is to start a business and risk failing.*” (“Stop procrastinating”)

Юқоридаги жумлада қиёс субъекти *to procrastinate* (*кечиктирма*) қиёс эталони *to write book and risk* (*китоб ёзиш, таваккал қилиш*) қиёс асоси *easier* (*осон*) ва қиёснинг шаклий кўрсаткичи *more and than* (*-роқ*) каби қиёс унсурлари тўлиқ иштирок этган.

“*For example, losing 2 pounds a month sounds far more focused than losing 2 stone in a ear. It allows you to measure your progress, reward your progress and react to changes as your plan bumps into real life.*” (“Stop talking start doing action...”)

Бунда эса қиёс унсурлари: қиёс субъекти *losing 2 pound a month* (*ойига икки поунд йўқотиш*), қиёс эталони *losing 2 stone in a ear* (*йилга икки тошни йўқотиш*), қиёс асоси *focused* (*эътиборли*) ва қиёснинг шаклий кўрсаткичи *more and than* (*кўпроқ*) тўлиқ иштирок этиб қиёслаш муносабатини юзага чиқарган.

Қиёслаш муносабатининг суперсинтактик бутунлик орқали ҳам ифодаланиши ўзига ҳос мураккаб жараён бўлиб, ушбу ҳолат билан боғлиқ масалаларни ўрганиш тилшуносликда муҳим аҳамиятга эга. Бундан қиёслаш муносабатининг кенг қамровли категория, тилда уни ифодаловчи воситалар қамровининг кенг деган хулосага келиш мумкин.

#### ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Brinker K .Text struktur analyse. Halban d.Walter de gruyter: Berlin.-pp80-85
2. Jurin S , Kriskovic A.Texts and their usage through text linguistic and cognitive linguistic.2017.-Rijeka.-21p

3. Абдурахмонов Ғ. Теория текста. Доклад на III Всесоюзной тюркологической конференции. «Советская тюркология», -1981, №1, стр.93.
4. Фуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. –Тошкент: Ўқитувчи, 1987;
5. Курбонова М., Йўлдошев М. Матн тилшунослиги. –Тошкент: “Университет” нашриёти, 2014.
6. Лосева Л.М. Как строится текст. Москва., 1980, стр.63
7. Мамажонов А. Йирик синтактик бирликлар // Ўзбек тили ва адабиёти, 1980. –№5; Сверхфразовое единство как синтактико-стилистическая категория // Сов. тюркология. –Баку, 1983. –№ 6
8. Мамажонов А. Текст лингвистикаси. –Т.: 1989;
9. Мамажонов А., Абдупаттоев М. Матн назарияси. –Фарғона, 2016. –114.
10. Носирова У. Поетик матнларнинг прагматик хусусиятлари.ПХД диссер.-Фарғона.2021.-Б.31.
11. Турниёзов Н. Матн лингвистикаси (маърузалар матни). –Самарқанд, 2004.
12. Ҳакимов М. Ўзбек илмий матнинг синтагматик ва прагматик хусусиятлари. Филол.фан.номз. дисс... – Тошкент, 1993.
13. Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: ”Фан”. 2013
14. Шомақсудов А., Расулов И., Кўнгулов Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – Б. 147.

УЎК: 811.111.26

### ҲАРБИЙ ТЕРМИНЛАРНИНГ СЎЗЛАРДАН ФАРҚИ

#### Ш. Мусирманова, катта ўқитувчи, Чирчиқ олий танк кўмондон мухандислик билим юрти, Чирчиқ

**Аннотация.** Ушбу мақолада ҳарбий терминларнинг сўзлардан фарқи ҳақида кўриб чиқилади ва бир неча кеакли тавсиялар берилади

**Калим сўзлар:** Термин, терминология, методика, конвертация, географик номлар, ҳарбий атамалар, таржима методид.

**Аннотация.** В этой статье обсуждается разница между военными терминами и словами и дается несколько советов.

**Ключевые слова:** терминология, терминология, методология, конверсия, географические названия, военные термины, метод перевода.

**Abstract.** This article discusses the difference between military terms and words and gives some tips.

**Keywords:** Terminology, terminology, methodology, conversion, geographical names, military terms, translation method.

Кўпчилигимиз атама ва сўз ўртасидаги фарқ ҳақида кўп ўйламаймиз ва уларни бирбирининг ўрнида ишлатамиз. Бироқ, сўз тилда маъноли элемент ҳисобланади. Бошқа томондан, атама сўздир, лекин вазиятда маълум бир маънога эга. Шунинг учун бу иккаласини бирбирининг ўрнида ишлатиб бўлмайди [1].

Термин - фан, техника, касб - ҳунарнинг бирор соҳасига хос муайян бир тушунчанинг аниқ ва барқарор ифодаси бўлган сўз ёки сўз бирикмаси атамадир. Ботаника терминлари. Заргарлик терминлари. Пахтачилик терминлари. Терминлар илмий коммуникациядан жонли сўзлашувга ўтганда, халқ учун тушунарли сўзларга айлана боради.

Терминологик - терминларга оид сўзлар. Терминологик луғат. Сўзнинг терминологик маъноси. Детерминлашиш – терминологик системадаги сўзнинг адабий тилга тўла ўзлашишидир.

Терминология - 1. Фан, техника, касб-ҳунарнинг бирор соҳасида қўлланадиган терминлар мажмуи. Техника терминологияси. Ҳарбий терминология. Илмий терминология. Ўзбек тили терминологияси, Қори ака фанлар ичида аввало метематикани севиб ўрганади ва унинг ўзбекча терминологиясини ишлаб чиқади [2]. 2. Тилошуносликнинг терминларни ўрганиш, тартибга солиш билан шуғулланувчи соҳаси. Терминология мутахассиси. Терминология бўлими. Нарса буюм маъноси ва тушунча маъноси орасидаги муносабатни ўрганишда қуйидаги уч ҳолатни инобатга олган ҳолда иш кўриш мақсадга мувофиқ. Терминга қўйиладиган меъёрий талаблар дастлаб терминология мактаби асосчиси Д.с. Лотте [3] томонидан ишлаб чиқилган.

Ҳарбий тилни чуқур ўрганишга ҳалақит бераётган объектив омил ҳисобланади. Шу пайтгача ҳарбий олий ўқув юртида ўқиётган талабалар учун ҳарбий терминларнинг минимум ҳам ишлаб чиқилмаган. Терминология масаласида уларни ўзбекча таржималари унификация қилинмаган. Терминлар табиати, терминлар хусусияти уларнинг аниқ бўлишини талаб этади. Камчиликни ташкил этадиган ҳарбий соҳадаги дарслик ва қўлланмаларни мавжуди ҳам илмий асосланмаган. Бу ҳарбий соҳаларда термин, терминология, терминология таржимаси, ҳарбий терминологик луғат тузиш принциплари каби мавзулар бўйича монографик тадқиқотлар, яъни диссертациял йўқлиги билан изоҳланади. Бу дегани ўқув адабиётлар етарли бўлмаса, баъзи методик масалалар илмий ёритилмаган бўлса ҳарбий олий ўқув юртлари талабаларига ҳарбий тилде мулоқот қилишни ўргатмаслик деган фикр келиб чиқмаслиги керак..

Ҳозирги глобаллашган , техниканинг ривожланиши, янги педагогис ва ахборот технологиялар мавжуд даврда тегишли ўқув материалларини тўплаш ва уни хорижий тил ўқитиш машғулотларида фойдаланиш имконияти кенг ҳисобланади [4].

Ҳарбий билим юртида ўқиётган талабалар бошқа предметда ўқиган нарсасига инглиз тилида қайта мурожаат этиши фақат инглиз тилинигина эмас, балки бошқа фанни ҳам чуқур ўзлаштириш имкониятини яратади. Бунда хорижий тил ўқитувчиси бошқа фанларнинг мазмунини , режасини ва қачон режа бўйича ўтилишидан ҳам хабардор бўлиши лозим ва талабаларга хорижий тилде ҳам айнан шу материалларни берилишига эътибот қаратиш яхши натижа беради [5]. Амалий жиҳатдан бошқа фанлардан ўтилган материалларни хорижий тилде тўлиқ такрорлашнинг иложи бўлмаслигини инобатга олиб, хорижий тилга ўқитиш даврида бошқа фанлар ўтган материалларни хорижий тилде тўлиқ бўлмаса ҳам уларнинг асосий ва муҳим жиҳатларига эътибор бериб, уларни талабаларнинг турли малакаларини ривожлантиришда самарали фойдаланиш зарурати пайдо бўлади.

Шу муносабат билан махсус ҳарбий билим юртларида хорижий тилни ўқитиш методикасига ўзгартириш киритиш зарурати пайдо бўлмоқда. Грамматик таржима методидан фойдаланиш ҳозирги кунда ўз долзарблигини юқотди [6]. Бу метод асосан талаффузни тўғирлаш, ўқиш ва таржима қилишга асосланган эди. Бундан ташқари у диалоглар тузиш, уларни ёд олиш, гап тузиш, матнни гапириб бериш, бир қатор грамматик машқларни бажаришни назарда тутди.

Ҳозирги кунда ҳарбий терминларни ўқитиш методикаси талабаларда лингвокультурологик компетенцияни ривожлантиришга алоҳида эътибор бермоқда. Лингвокультурологик компетенция аслиятда ёзилган матнни ўқиб тушунишни энгиллаштиради, аутентик материаллар билан ишлаш имкониятини кенгайтиради ва хорижий тилде мулоқот қилишга пухта замин яратади.

Ҳарбий атамаларни шакллантириш инглизча сўз ясаш қоидаларига мувофиқ амалга оширилади: морфологик, аффиксация билан (рәкет, маневр, ракета), сўз ясаш (жанг, ядровий қувват), конвертация (миномётга, офицерга), қисқартма (радар, ФРБА), лексик-семантик силжишлар (эрга дастлаб қуруқликка тушишни билдириш учун ишлатилган, энди эса ҳар қандай (шу жумладан, сув) юзасига қўнишни амалга оширишни англатади), бошқа тиллардан олинган қарзлар (маневр, давлат тўнтариши), ёрдамчи де лагерь, бункер).

Ҳарбий материалларни, яъни ҳарбий терминологиялар ва қисқартмаларни таржима қилиш хусусиятлари таржимон-ёрдамчи, одатда ҳарбий бадий материалларга мурожаат қилади;

ҳарбий-публицистик ва ҳарбий-сиёсий материаллар, ҳарбий-илмий ва ҳарбий-техникавий материаллар, ҳарбий қўмондонлик ҳужжатлар;

(турли хил ҳарбий ҳужжатлар). Ҳақиқий ҳарбий материалларга қабул қилинади;

тегишли илмий-техникавий материаллар ва бошқарув актларига тегишли;

Қуролли Кучларнинг қўшинлари ва ҳарбий муассасалари ҳаёти ва фаолияти;

Ҳарбий фантастика, ҳарбий публицистика ва ҳарбий-сиёсий материаллар фақат ҳарбий хусусиятга эга;

мақсадлили ва одатда шу хусусиятларга эга;

умуман олганда, барча ижтимоий-сиёсий ҳаётга хос бўлган, публицистик ва бадий матнлар.

Ҳарбий терминларни таржима қилишда ҳарбий-бадий материаллар ва ҳарбий-журналистика материалларива чет тилида сиёсий йўналишни ўрганиш муҳим аҳамият касб этади. Чет эл адабиёти ва матбуотининг услуб ва услублари, турлимилитаристик ташвиқот, армияларнинг ҳарбий доктриналарини мақташуларнинг давлатлари, ҳарбий тарихини атайлаб бузиб кўрсатиш, мутлақо таъқиқланади. Махсус ҳарбий луғат бойлиги бўлган ҳар қандай бошқа материаллар илмий ва ҳарбий терминологиядан кенг фойдаланиш, барқарорфақат ҳарбий алоқа соҳасига хос иборалар, махсус қисқартмалар ва белгиларнинг ҳарбий номенклатураси фақат ҳарбий материалларда ишлатилади, лекин синтаксис нуктаи назаридан эллиптикнинг кенг қўлланилиши (айниқса, ҳарбий соҳаҳужжатларида) ва конструкциялар, ифоданинг нотўғри шакли, ичида қўлланишқўплаб параллел дизайнларнинг инфинитив ва кесимли иборалар билан ифодаланади. Буларнинг барчаси билан боғлиқҳарбий соҳани тавсифловчи маълум функционал вазифанинг йўқлиги, ихчамлик, аниқлик ва сўзнинг аниқлиги, мантиқий изчилликни таъминлайдиган тақдимотнинг равшанлиги таржимани курилишининг уйғунлиги, бир фикрни аниқ чегаралаш иккинчиси узатилаётган ахборотни идрок этиш қулайлиги таржимадан қўзланган мақсадга эришишда ёрдам беради .

Асосий умумий ва махсус таржима тамойиллари, усуллари, техникаси, ҳарбий таржима учун хосдир. Бирок, бошқа коммуникатив ва функционал йўналиш, бу турдаги таржимауслубнинг хусусиятлари билан боғлиқ ўзига хос хусусиятларга эга хорижий ҳарбий материаллар тилининг луғати ва грамматикаси ҳарбий материални таржима қилишда қийинчиликларга олиб келиши мумкин. Ҳарбий хизматда таржиманинг аниқлиги жуда муҳим, чунки таржима қилинган материал муҳим қабул қилиш учун асос бўлиб хизмат қилиши мумкин (қарорлар, ҳарбий ҳаракатлар ва бошқалар). Шунинг учун, ҳарбий материалларни таржима қилиш нафақат аниқ узатишни ўз ичига олади балки материалнинг мазмуни, унинг таркибий тузилишини янада чуқурроқ ўтказишшакли, қисмларнинг тартиби ва

материалнинг жойлашиши, тақдим этиш кетма-кетлиги ва бошқа бир қатор омиллар бўлиб хизмат қилади.

Масалан, жанговар ҳужжатларда, тартибипараграфлар ва кичик бандлар, уларнинг белгиланиши (араб рақамлари ва ҳарфлари билан). лотин алифбоси) сана, вақт, координаталарни узатишнинг аниқлиги, географик номлар, қисмларни рақамлаш ва номлаш вабирликлар ва бошқа маълумотлар ҳар хил тилда ҳар хил бўлиши мумкин.

#### ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. T. Edward. Towards a Better Knowledge of the Turkic Military Terminology. Konferenser 12, Sweden, 1984. – P. 122
2. М. Ўрозбоев, Мўъжизалар олами/ Тошкент 1996
3. Д.с. Лотте, Основы построения научно-технической терминологии. Москва 2007
4. <http://www.jcs.mil/Doctrine/DOD-Terminology/>
5. Нелюбин Л.Л. Перевод оевых документов. М.:Воениздат, 1989-С 265
6. Ғанишер Жўраев. Таржимашуносликнинг махсус усуллари хусусида/ Тил ва адабиёт таълими. 2019. 2-сон 46 Б

УЎК 808.5

### БАДИЙ АДАБИЁТДА САНЪАТКОР АЁЛ ОБРАЗИ

*Г.Муҳаммаджонова, доц., ф.ф.н., Фаргона Давлат Университети, Фаргона*

**Аннотация.** Мақолада ижодкор инсон, хусусан, санъаткор аёл образининг бадиий-эстетик идеал сифатидаги талқинлари юзасидан фикр юритилади. Санъаткор аёл образини тадрижий, таснифий ўрганилиши асосида унинг бадиий-эстетик моҳияти ойдинлаштирилган.

**Калим сўзлар:** образ, муסיқа санъати, санъаткор аёл образи, бадиий синтез, Алишер Навоий, хамсанавислик, Чулпон.

**Аннотация.** В статье исследуется образ творческой женьщины, как художественно-эстетического идеала, рассуждается об их интерпритациях, на основе эволюционно-классифицированного изучения образа женьщины творческого мира( певицы) уточняется его художественно-эстетическая сущность.

**Ключавые слова:** образ, музыкальная искусство, образ женьщины, художественный синтез, Алишер Наваи, традиция пятерицы, Чулпан.

**Abstract.** The article discusses about a creative person, mostly, an illustration of artist woman's role as an artistic-aesthetic ideal woman. On the basis of the gradual, classification study of the image of the artist, its artistic and aesthetic essence is clarified.

**Key words:** image, the art of music, the image of an artist women, artistic synthesis, Alisher Navoi, xamsa, Chulpon.

Бадиий асарда муסיқага мурожаат, муסיкий талқинлар лиризмга хос хусусият бағишлайди. Лирик чекинишлар қахрамон рухий олами ва давр руҳиятини теран ҳамда таъсирли ифодалашда муҳим ўрин тутати. Муסיқа уйғунлигида яратилган композиция худди кинотасмада муҳрлангани сингари китобхон кўз ўнгида жонли тасвирлар яратади. Асли сўз санъати ва муסיқа образлилик бадиий константасида кесишади, улар муштараклик касб этса-да, кўп ҳолларда айро талқин этилади.

“Таҳлил ва муסיқа. Туйқус бир-бирдан жуда узоқ ҳодисаларга ўхшайди. Лекин масала зимнига боқиб фикр қилсак, аён бўладики, асл бадиий асар ижодкор қалбига Яратган жойлаган мусиқадан (хоҳланг уни илҳом деб атанг) туғилади ва бу муסיқа сўз ва оҳанг санъати бўлиб яралган асарга кўчиб ўтади”[1.33], – дея эътироф этган профессор С.Мелиев мутлақо ҳақдир. Муғанний ва мутриб образининг бадиий талқинлари, генезиси, миллий менталитет ва гендер ёндашув жиҳатидан фаркланади. Ўзбек фольклорида мусиқага истеъдоди бор аёллар образи учрамайди. Эпос ва ривоятларда, эртақ ва афсоналарда қатор аёллар образи мавжуд бўлса-да, улардаги муסיкий қобилият, кўшиқчилик сифатлари бадиий талқинини топмаган. Бу муайян маънода миллий менталитет масаласи билан туташади. Шунингдек, шарқона кадрятларга кўра аёллар образи талқинларида оилавий кадрятлар, инсоний фазилатлар устуворлик қилади.

Маълумки, санъаткор шахс бошқалардан ўз истеъдоди, рухий-маънавий олами, дунёни айрича идрок этиши каби қатор жиҳатлари билан фарқланиб туради. Унинг ижод дунёсини на мураккаблик ва на болаларча соддалик мезонлари билан ўлчаш мумкин. Бу соҳир оламнинг табиатини, ижод машаққати ва бахтини фақат ижодкоргина қалбан ҳис эта олади. Мустақиллик даври ўзбек адабиётида шундай ўзгача табиатли санъаткор, хусусан, кўшиқчи, мусиқачи аёллар образи етакчи ўрин тутган асарлар деярли учрамайди. Ёзма адабиётда санъаткор аёл образи генезиси хамсачилик анъанасига, хусусан, Алишер Навоий асарларига бориб тақалади. Навоийнинг ўзи ҳам куй, кўшиқ, санъатга бефарқ бўлмаган бир инсон сифатида шеърларида ва лиро-эпик асарларида муғанний, мутриб образига қайта-қайта мурожаат қилади. Асарларидаги муғанний ва мутриб образларини ноёб истеъдод соҳиби ва оламни теран идрок этувчи инсонлар тимсоли, десак янглишмаймиз. Мутафаккирнинг муғанний ва мутриб ҳақидаги қарашлари “Маҳбуб ул-қулуб” асарида ҳам таъсирли баён қилинган. Жамиятда хотин-

қизларнинг ўрни масаласига эса муносабати ўз давридан кескин фарқ қилади. Яъни хотин-қизлар жамиятнинг фаол бир аъзоси(худди Меҳинбону сингари), нодир ижодкор, санъаткор сифатида кўрсатилади. Бу билан аёлларнинг ҳаётдаги ўрни алоҳида эътироф этилиши баробарида уларнинг руҳий олами теран ёритиб берилади.

Навоийнинг «Сабъаи сайёр»[2.] дostonидаги асосий образлардан бири Дилоромдир. «Дилором хусн-латофатда тенгги йўқ аёл. Дилоромнинг олижаноб қалби, мусаффо хулқ-атвори унинг хуснига хусн қўшади, булбулдек овози, мусиқага майли ва истеъдоди ҳаммани мафтун қилади»[2.101]. Дилором айниқса, чолғучилиқда зўр муваффақият қозонади. Унинг сеҳрловчи чолғусидан таралган куй нафақат инсонларни ром этади, балки ҳайвонларни ҳам сеҳрлаб, ором бағишлаб, ухлатиб қўяди. Дилором садоқатли ёр. У Баҳромни сидқидилдан севади, севгисига бир умр содиқ қолади. Устоз санъаткорлардан олган сабоқ туфайли Дилором камолотга етишади. Аммо тутқун аёл сифатида давр шамолида бир япроқдек саргардонликка маҳкум бўлади, охири фожелик гўзаллик ва нодир санъатни ҳам ўз домига тортди.

Санъаткор аёл образини яратишда маърифатпарвар ижодкор Чўлпоннинг муайян тажрибаси борлигини таъкидлаш лозим. Унинг “Октябрь қизи” ҳикояси бу йўлдаги дастлабки уриниш эди. Ҳикоя қаҳрамони дутор чалиб қўшиқ куйловчи аёл, халқ таъбири билан айтганда, Ваннайчахондир. У санъатда беназир қиз сифатида тасвирланади. “Дуторнинг қиллари устида унинг бармоқлари шамол юмшоғлиғи билан югурган”да бутун сахна сукут билан уни тингларди. “Ўзбек қизининг ўз оғзидан, ўз тили билан тўкилган дардлари” “Ўзбек халқининг занг босиб келаётқон дилларига шунча яхши таъсир қилди ким, секин-секин ювулуб, артилиб борғондек бўлдилар”. Ўз санъати билан халқнинг руҳиятига катта таъсир кўрсатаётган Ваннайчахоннинг қўшиқчилик қобилияти истеъдоднинг ёрқин намунаси эди. “У сахнага чиққон кунининг оёқлари остида бу халқ маҳшари, бир одам қиёмати уюшар эди”. “Халқнинг руҳ озуқиға муҳтож бўлғон кўнгли гоҳ-гоҳ ўз қизи Ваннайчахоннинг ихчам бармоқлари билан, ширин тилларидан ўзига озик олар эди”[3.305,308]. Халқнинг маънавий оламини покламоқ, унга руҳий қувват бағишламоқ истаган ёрқин истеъдод соҳибаси ўзининг жоҳил турмуш ўртоғи томонидан шафқатсизларча ўлдирилади. Асарда қўшиқчи ўзбек аёлининг фожели такдири пейзаж воситасида рамзий-мажозий тасвирланади: “Йироқларда қарғаларнинг мудҳиш нағмалари, шодлик куйлари эшитилди”.

Тақрорлар, сарбаст сингари сатрларда поэтик фикр ифодалаш усули, лиризм, лирик хотима эпик воқелик ва лирик кечинма уйғунлигидаги тасвирни намоён этган. Ижодкор аёлнинг фожелик қисмати орқали жоҳиллик, маърифатсизликнинг оқибатлари кўрсатилади. Чўлпоннинг «Кеча ва кундуз» романидаги асосий қаҳрамонлардан бири қўшиқчи Зеби образи мисолида санъаткор аёл образини яратишдаги тадрижий ўсишни кузатиш мумкин. Аввал ҳикоя, кейинроқ роман жанри имкониятлари доирасида санъаткор образи инсон ва жамият муаммолари кесимида кўрсатиб берилади. Унда ёзувчининг ижодкор инсон концепциясига чизгилар акс этади. Аммо романдаги асосий концепция маърифат ва эрк масаласидир. Чўлпон мутеликни ўз қисматига айлантирган инсон фожиасини романининг қаҳрамонларида, айниқса, Зеби тимсолида ёрқин ифодалаб беради. Адиб мутеликнинг ҳар қандай кўринишини, жумладан, эътиқод масаласидаги мутеликни ҳам кескин қоралайди. Зеби содда, оққўнғил, санъатни, ҳаётни беҳад севувчи қиз. Унинг ҳаёти ўз даврининг оддий қизларидек кўринса-да, улардан фарқли равишда у ижодкор. Отасининг жоҳиллиги, давр зулмига қарши исён сифатида асар давомида ўрни билан унинг «тиник ғуборсиз, жонон пиёладек жаранглаб чиқадиған чиройли ва ўткир овози» баралла янграйди. «Бу овоз пешона устида пилпиллаған энг ёруғ юлдуз сингари бошқа овозлардан очик ажралиб туради»[4.24]. Унинг санъати Ўлмас аравакашнинг оғир «ух» тортишига, қизларнинг, кеча оғушидаги оламнинг сукут сақлаб тинглашига, аёллар анжуманига жон киритишига, Акбарали мингбошининг эса ҳар қандай пастликдан воз кечиб, санъат шайдоси бўлишга мажбур этади. Булбулникидай овози билан бир зумда донғи кетган, Мирёкуб томонидан Акбаралига «Довуд пайғамбарники каби овозли», дея таърифланган ашулачи Зебининг тақдири кундошлик балоси билан туташади. Зеби билан боғлиқ сюжет линияси А.Йўлдошевнинг «Алвидо, гўзаллик» асари билан муштараклик касб этади. Бир гўзаллик, ноёб санъат бузилган муҳит тўфонидида маҳв бўлганлиги ҳар икки асар мисолида таъсирли тасвирланган. У хассос қалб соҳиби, бироқ унда ўз тақдири йўлида курашиш учун билим ва журъат етишмайди. У яшаётган муҳит уни шундай вояга етказган эди. Аёл кишини олдида «тил қалдиратиш»ни жоиз топмайдиган, аёли ва қизини ўзидан бир неча поғона паст кўрадиган оила бошлиғи тарбиясида ўсган қиздан бошқача характерни кутишнинг ўзи ножоиз. Зебининг характер ривожини асар давомида уч босқичда кузатиш мумкин: беғубор ўспирин қиз, Акбарали мингбошининг аёли ва суд жараёнидаги айбланувчи мазлума. Ана шу уч босқичда мусиқа, қўшиқни севувчи, орзулари улкан ижодкор тақдирининг давр зулмида янчилиши кўрсатиб берилади. Айниқса, суд эпизодида Зебининг содда, оддий дунёси чиркин жамият сиёсати билан қарама-қарши тасвирланади. Романда ўзбек халқи тарихининг муҳим бир даври кенг эпик кўламда тасвирлаб берилган. Мавжуд ижтимоий тузумни ўзгартириш, мустамлакачилик кишанларини парчалаш лозимлиги ҳақидаги фикр Чўлпон ижодининг бош масаласи сифатида бу романда катта бадий куч билан ифодаланади. Айни ғояни



ифодалашда ёзувчи асосий образлардан бири сифатида санъатга муҳаббати баланд қиз Зебини танлайди. Зебининг нозик қалби, таъсирчан руҳияти, орзулар оламида яшовчи дунёси давр муаммоларини теран ифодалашда жуда қўл келган. Маърифат учун курашилмас экан, гўзал ҳилқат – аёл тақдири, гўзаллик, миллат келажаги, санъат ва ижод хавф остида қолиши ёрқин кўрсатиб берилган.

Исажон Султоннинг “Алишер Навоий” романида Алишербекнинг энагаси Кутб (Кутбия) унинг энг яқин кишиларидан биридир. “Оху кўзли”, “тиник юзли, узун киприкли малак” нинг бола Алишерга “мехр шоён” эди. Хушфёъл, хушахлоқ, санъат ва адабиётга меҳри баланд бу киз умрининг охирига қадар Алишерга бўлган меҳри, эътиқоди билан яшайди. “Кутбнинг яна бир фазилати – мусиқийни билмоғи бўлиб, гоҳида уд чалиб ироқ қўшиқларидан айтиб берарди. Овози тиник дардчил бўлиб, шунчалар гўзал эдики, одамни сеҳрлаб қўярди”[5.38].

Бола Алишернинг улуғ шоир, мутафаккир бўлиб вояга етишида у яшаган муҳит, атрофидаги инсонларнинг роли катта бўлган. Асарда эпизодик образ сифатида кўрсатилган Кутб образи Алишернинг тарбиясида, унинг парваришда ўзини масъулиятини теран ҳис этади, унга чексиз ғамхўрлик кўрсатади. Ўзбек адабиётида яратилган санъатга ихлосманд аёллар образи орасида эпизодик образ бўлса-да, тақдири хайрли бўлган образлардан бири Кутбиядир. Бола Алишернинг меҳр-муҳаббатга тўла болалик онлари тасвирини яратишда мазкур образ ота-она, тағойилар, устозлар каторида ардоқли ўрин тутаяди. Асарда Хирот ва Ироқ адабий-маданий муҳити ёрқин рангларда ва жўшқин руҳиятда ифодаланади.

Хулоса шуки, муғанний ва мутриб образлари акс этган асарларда оламни куй ва оҳанглар асосида идрок этиш, мусиқий ижод ва унинг хос жиҳатлари, мусиқа тарихига доир маълумотлар ҳам ўз ифодасини топадики, бу асарга маърифий моҳият бағишлайди. Мусиқачи образини яратиш гендер ёндашув жиҳатдан фарқланади. Ўзбек адабиётида аёл санъаткорлар образи анчайин кам учрайди. Улар асосан эпизодик образда ва санъатга ҳавасманд инсон сифатида кўрсатилади. XX асрнинг ўрталарига қадар яратилган бадий асарларда санъаткор аёлларнинг тақдири асосан фожеавий яқун топган. Бу талқинлар воситасида жамият ва аёл муаммоси, аёл руҳияти масаласи юзасидан муҳим ғоялар илгари сурилган.

#### ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Милиев С. Глобал илмий-бадий талқин поэтикаси. Филол.ф.д.дисс... автореф. –Т., 2020.
2. Маллаев Н. Сўз санъатининг гулгожи. –Т., Ғафур Ғулом номидаги нашриёт уйи, 1991.
3. Навоий, Алишер. Сабаи сайёр. –Т., Ғафур Ғулом номидаги нашриёт уйи. 2006.
4. Чўлпон, Абдулҳамид. Асарлар II жилд. –Т., 1994.
5. Чўлпон, Абдулҳамид. Кеча ва кундуз. –Т., “Шарк”, 2000.
6. Султон, Исажон. Алишер Навоий. –Т., “АДАБИЁТ”, 2021.

УЎК 811.111Г373.613

#### ИНГЛИЗ ТИЛИНИНГ РИВОЖЛАНИШИДА ЎЗЛАШГАН СЎЗЛАРНИНГ ЎРНИ

*Г.А.Назарова, илмий изланувчи, Қўқон давлати педагогика институти, Қўқон*

**Аннотация.** Ушбу мақолада замонавий инглиз тилининг лугат бойлиги асрлар давомида босқичма-босқич бошқа тиллардан ўзлашган сўзлар ва уларнинг даврлар ўтиши билан тилининг асосий лугат бойлигидан муносиб ўрин эгаллаб боришини изоҳланган. Яна шу ҳам таъкидланганки, тилдан тилга сўзларнинг ўзлашуви бу табиий жараён бўлиб, инглиз тили бу умумжараёнда фаол ва жадал тараққий этиб бориши хусусиятини намоён этган ҳолда ҳақли равишда етакчи халқаро мулоқот ва илм-фан тили сифатида ўзини намоён этиб келмоқда.

**Калит сўзлар:** ўзлашмалар, лексик ўзлашувлар, транскрипция шакли, лаҳжа.

**Аннотация.** В этой статье объясняется, что словарный запас современного английского языка - это слова, которые постепенно ассимилировались из других языков на протяжении веков, и что со временем они заняли свое законное место в базовом словаре языка. Также было подчеркнуто, что усвоение слов из языка в язык - это естественный процесс, и английский по праву зарекомендовал себя как ведущий международный язык общения и науки, демонстрируя природу активного и быстрого развития в этом мире.

**Ключевые слова:** ассимиляция, лексические ассимиляции, форма транскрипции, диалект.

**Abstract.** This article explains that the vocabulary of modern English is words that have been gradually assimilated from other languages over the centuries, and that over time they have taken their rightful place in the basic vocabulary of the language. It was also emphasized that the assimilation of words from language to language is a natural process, and English has rightly established itself as a leading international language of communication and science, demonstrating the nature of active and rapid development in this world.

**Key words:** assimilations, lexical assimilations, transcription form, dialect.

Инглиз тили лексикасининг бойиб бориши дастлаб ўзининг сўз тузиш, аффиксация ва сўзларни қайта тузиш каби ички имкониятлари ҳисобига ошиб борган бўлса-да, бошқа тиллардан ўзлашмалар ҳам

мазкур тилни ривожда катта ўринга эга [1]. Тиллар ривож қонуниятларига биноан, инглиз тили лексикасининг сон ва сифат ўзгариши инглизларнинг тарихи билан чамбарчас боғлиқдир. Хусусан, замонавий инглиз тилининг луғат бойлиги асрлар давомида босқичма-босқич бошқа тиллардан ўзлашган сўзлар ва уларнинг даврлар ўтиши билан тилнинг асосий луғат бойлигидан муносиб ўрин эгаллаб бориши билан аксланади. Бу жараёнда дастлабки даврларда ўзлашган сўзлар кейинчалик мулоқотда қўлланилмай бориши ёки ушбу сўзларнинг бошқалари билан алмашинуви содир бўлиб борган. Лекин, ҳар қандай ҳолатда ҳам ушбу ўзлашмалар ва улар билан боғлиқ жараёнлар инглиз тилининг ривожланиб бориши жараёнларини ўзида ак этади.

Замонавий инглиз лексикаси ўзида бутун бир даврлар ўзгаришларини акс эттиради. Хусусан, христиан динини қабул қилиниши ва лотин маданияти билан туқнаш келиниши ҳамда ушбу қадимий тилдан инглиз тили таркибига катта ҳажмдаги сўзларни шўлаштирилишининг ўзи бир босқични ташкил этади. Бунга биз лотин тилидан қадимги инглиз тилига кириб келган ва бугунги кунгача сақланиб қолган “ancora”дан ancor (anchor); “bursa”дан purs (purse); “soccus”дан socc (sock); “pondo”дан pund (pound); “camelus”дан camel (camel); “rosa”дан rose (rose); “episcopus”дан biscop (bishop) ва бошқа кўплаб мисолларни келтиришимиз мумкин [2].

Скандинавиялик ва норманлар босқинларидан кейин инглиз тилида қадимдан мулоқотда бўлган, кундалик ҳаётда қўлланиладиган сўз бойликлари қўлланилмай, мулоқотдан чиқди. Лекин, шу билан бир қаторда, скандинавия тилларидан bread (қадимги инглиз – “нон бўлаги”), dream (қадимги инглиз – “хурсандчилик”), holm (қадимги инглиз – “океан, денгиз”), plough (қадимги инглиз – “ер ўлчови”) каби сўзлар мулоқотга кириб келди ва бугунги кунга қадар шу мазмунда қўлланилиб келмоқда [3].

Инглиз тилида ўзлашма сўзларни кенг ҳажмда кириб келишига Юз йиллик уруш, Уйғониш даври, Англиянинг денгиз ҳукмронлиги ва мустамлакачилик босқинчиликлари, савдо ва саноат, илм-фан ва адабиёт ривож, буржуа инқилоби ва ишчилар синфининг ўз-ўзини англаши ва алоҳида интеллектуал қатлам сифатида шаклланиб бориши, Биринчи ва Иккинчи жаҳон урушлари воқеъликлари катта таъсир ўтказган. Ушбу жараёнлар таъсирида инглиз тилининг луғат таркиби ўзининг туб инглиз сўзлардан иборат асосини сақлаган ҳолда юқори даражада аралашган шаклга эга бўлди.

Юқоридаги лексик ўзлашувлар натижасида инглиз тилида ўзга тил лексикаси янги воқеъликлари белгилаш услуби ва мавжуд белгилашларни алмашинуви сифатида инглиз тили луғатини тулдирилиб боришида муайян ва муҳим ўринни эгаллади. Албатта, бу янгиланишлар тезда умумэтирофга ва тилда мустаҳкам ўрин олмаслиги ҳам табиий жараёндир.

Ўзлашувлар жараёнида лаҳжалардан ўзлашиш, яъни мазкур тилни ўзидан, лаҳжалардан умумтилга кўчиш ва маданий ўзлашиш – бошқа тилдан ўзлашув каби шаклларда амалга ошади. Юқорида таъкидланганидек, бу икки жараён ҳам халқ тарихи, унинг ривож ва бошқа тил вакиллари билан яқин этно-маданий алоқалари маҳсулидир. Инглиз тилида бу икки жараённи изчил ва фаол кечганини гувоҳи бўлаемиз.

Инглиз тилини луғат таркибини таҳлил этиш жараёнида қадимги герман ва умум ҳиндоевропа тиллар бирлашмасига бориб тақалувчи лексик элементлар ҳамда инглиз тилида сўз яратилиши натижасида шакланган сўзлар асосий негизни ташкил этишини кўзатишимиз мумкин. Бироқ, бу манбалар ўз ўрнида инглиз тили луғат таркибини бойиши ва ривожланишини ягона манбаи бўлмаганлигини ҳам таъкидлашимиз мақсадга мувофиқ.

Шу ўринда таъкидлаш мумкинки, замонавий инглиз тили луғати таркибига ўзга тиллардан лексик ўзлашувлар ҳам ўрин олган. Бунда, ўзлашувларнинг муҳим манбаи бўлиб лотин, француз ва скандинавия тиллари хизмат қилган. Мазкур тиллар сўзларининг маълум қисми шу даражада инглиз тилига шунчалик ассимиляциялашганки, ҳатто асосий лексик ядрога сингиб борган. Бироқ, ушбу тиллардан ўзлашган сўзларнинг катта қисми лексик ядро таркибида жой олмаганлигини ҳам таъкидлаш зарур [4].

Тадқиқотчилар томонидан инглиз тили лексикасининг иккита асосий англосаксон ва роман қатламлари ажратилади. Роман қатлами ўз ўрнида лотин ва француз қатламларидан иборат бўлиб, улар бир-биридан инглиз тилига кириб келиши вақти ва ўзларининг семаник хусусиятларига кўра таркибий қисмларга бўлиниши мумкин. Бундан ташқари, инглиз тили лексикасида юнон, скандинавия, итальян, испан тиллари ҳамда рус ва туркий тилларни қўшган ҳолда 50 дан ортиқ дунё тиллари қатламларини ҳам мавжудлигини қайд этиш ўринлидир.

Шу ўринда лексик ўзлашувларнинг асосий усуллари таснифлаганда транскрипция, калькалаш, транслитерация ва семантик шакллари ажратишимиз мумкин. Транскрипция шакли – бу луғат бирлигини овоз шакллари сақлаган ҳолда ва айрим ҳолларда ўзлашаётган тилнинг фонетик хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда муайян ўзгаришлар билан ўзлаштирилиши. Мисол учун, француз тилидан regime, bal-let, bouquet ва кўплаб бошқа ўзлашган сўзларни келтиришимиз мумкин. Бу сўзлар овозининг таркибий қисмлари, кам истисноларни ҳисобга олмаганда, қабул қилувчи тил овозлари билан алмаштирилса-да, ўзлаштираётган тил учун умумий овоз комплекслари янги ҳисобланади.

Транслитерация – бу хорижий сўзни ёзилиши ўзлаштирилиши усули. Бунда ўзлашаётган сўзнинг харфлари ўзлаштираётган тилнинг харфлари билан алмаштирилади ва ушбу тил қоидалари асосида ўқилади. Инглиз тили қоидалари асосида ўқилса-да юнон, лотин ва француз тилларидан транслитерация услубида ўзлашган ва ўз график хусусиятларини сақлаб қолган сўзлар кўпчиликни ташкил этади [5]. Худди шундай, транслитерация услубида инглиз тилидан бошқа тилларга ўзлашган сўзлар ҳам кўпчиликни ташкил этади.

Калькалаш – бу сўз ва сўз бирикмаларини ассоциатив мазмуни ва тузилишини модели ўзлаштирилиши. Яъни, хорижий сўз ва ибораларни тўғридан-тўғри таржимаси кўринишида, ўзлашган сўзни морфологик тузилиши ва далилланишини сақлаган ҳолда аниқ талаффуз этилишидир. Калькаланганда ўзлашаётган сўз ва ибораларнинг компоненталари алоҳида таржима қилинади ва хорижий сўз ва иборалар намунаси бўйича бирлаштирилади. Масалан, немис тиладаги от Vaterland, қисмлаб таржима қилинганда, инглизча Fatherland калькасини келтириб чиқарган.

Семантик ўзлаштириш – бу янги, кўп ҳолларда кўчма мазмунни тилда мавжуд сўзларга ўзлаштириш. Pioneer ва brigade сўзлари инглиз тилида “советивизмлар” кириб келгунга қадар ҳам мавжуд эди. лекин, “болалар коммунистик ташкилотлари” ва “меҳнат жамоалари” мазмунлари инкилобдан кейинги рус тили таъсирида ўзлашган. Семантик ўзлашувлар қардош тилларда айниқса осон ўзлаштирилади.

Транскрипция, калькалаш, транслитерация ва семантик ўзлашувларни бир номли таржима усулларида фарқлаш керак. Механизмларига кўра фарқланмаса-да, натижасига кўра фарқланади. Таржимада лўғат кенгайиши кузатилмайди. Лекин ўзлашувда янги лўғат бирликлари вужудга келади.

Инглиз тили ўзининг 1500 йиллик ривожланиши тарихида, унинг ташувчилари Европа ва дунёнинг турли минтақаларида бошқа тиллар ташувчилари билан яқиндан мулоқот олиб борганликлари ва ўзаро таъсир орқали 50 дан ортиқ тиллардан сўзларнинг ўзлашганлигини кўришимиз мумкин [6]. Бу эса ўз ўрнида инглиз тилида ўзлашган сўзлар кўплигини назарий жиҳатдан асослайди. Ўзлашувлар тилларни чатишуви ва халқлар ўртасида маданий-тарихий, ижтимоий-иқтисодий алоқалар натижасида амалга ошади.

Инглиз тили ўзининг тарихий ривожланиши жараёнида скандинавия тиллари, француз тилининг норман лаҳжаси билан чатишган. Ундан ташқари, инглиз тили, ўзнинг бутун тарихи давомида муайян даражада лотин, француз, испан, рус, немис ва дунёнинг бошқа тиллари, шу жумладан, туркий тиллар билан алоқада, шу аснода, ўзаро таъсирда бўлган. Халқлар ўртасида маданий-иқтисодий алоқалар натижасида тиллар чатишуви каби, ўзаро таъсир ҳам бир тилнинг иккинчи тилга таъсири нуқтаи-назаридан бир ҳил қийматда бўлмаган. Ўзлаштирилган сўзларнинг сони ва характери асосан бир тилнинг иккинчи тилга таъсири амалга ошган аниқ тарихий шароитларга боғлиқ.

Тиллар алоқаси натижасида скандинавия тилларидан ўзлашган сўзларнинг лўғат таркибининг тахминан 60% ташкил этган француз тилидан ўзлашган сўзларга нисбатан камчиликни ташкил этади.

Ўзлашган сўзларни тилда мустақкам ўрнашувига бир қатор омиллар сабаб бўлади. Кириб келган сўзнинг мазмунан воқеъликни аниқ ифодалаши, аввал мавжуд тушунчани қушимча ифодалаши даражасига боғлиқ. Ўзлаштирилган сўзларнинг тилда ўрнашуви ҳолатида уларнинг инглиз тилининг фонетик ва морфологик қоидаларига мослашуви жараёни ҳам содир бўлиб, бу ўзлаштирилган сўзларнинг тарнсформациясининг табиий жараёнидир. Бироқ, тил инглиз тилининг тушунчаларнинг мавжуд шакллари бўйича ўзгартиришдан кўра ўзлашган сўзларни дастлабки кўринишида қабул қилишга мойил.

Шу билан биргаликда, таъкидлаш жойски, китоб лексикасидаги бошқа тил ўзлашмалари маълум бир вақт ўзининг дастлабки шаклини сақлаб қолади. Масалан, урғу, график кўриниш ва талаффуз сақланади. Кўпликдаги шакллари камдан-кам ҳолларда сақланади. Натижада, ўзлашмалар асл мазмунни ўзгартиради, бу эса табиий ҳолат. Қолаверса, янги мазмун олишлари ҳам мумкин. Яъни, сўзлар ўзлашув жараёнида мазмунан янгиланиб боришлари ҳам амалда кузатилади.

Демак, таъкидлаш мумкинки, ўзининг узоқ ривожланиши тарихида инглиз тили улкан ҳажмда сўзларни қабул қилган ва улар лўғат таркибига киритилган. Улар орасида хизмат сўзлари ва сўз тузувчи морфемалар ҳам мавжуд. Тадқиқотчиларнинг таъкидлашича, замонавий инглиз тили лексикасида, азалий сўзлар тахминан 30% ташкил этади. Юқорида таъкидлаганимиздек мазкур тилда 50 дан ортиқ, шу жумладан, лотин, француз, итальян, испан, голланд, рус, немис, шарқ ва бошқа тиллардан ўзлашувлар мавжуд. Ўзлашган сўзлар сонининг кўплиги айрим тилшунослар томонидан инглиз тили ўзининг ўзига хослиги йўқотган, у “гибрид тил”ни намоён этади, деган таъкидларни илгари сўрадилар.

Бироқ, инглиз тили ҳеч қачон ўзига хосликни йўқотмаган, чунки унинг грамматик тузилиши ташқи таъсирларга учрамаган. Бошқа тиллардан кўп сонли ўзлашувларга қарамасдан инглиз тили ўзига хосликни йўқотмади ва ўзининг ривожланиши давомида ўзига хос бўлган хусусиятли жиҳатлари билан герман гуруҳи тили сифатида сақланиб қолди. Ўзлашувлар натижасида ўзгаришлар эса фақатгина унинг лўғатини бойитди холос. Умуман олганда, тилдан тилга сўзларнинг ўзлашуви бу табиий жараён бўлиб,

инглиз тили бу умумжараёнда фаол ва жадал тараққий этиб бориш хусусиятини намоён этган ҳолда ҳақли равишда етакчи халқаро мулоқот ва илм-фан тили сифатида ўзини намоён этиб келмоқда.

#### ҲОИДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Сарангаева Ж.Н., Даржинова Л.В. Роль заимствований в английском языке. // Вестник Калмыцкого университета. 2015 г. №3(27). – С. 22-26.
2. Бородина, М.А. Латинский язык в современном мире / М.А. Бородина, В.С. Горбунова // .
3. Молодой ученый. – Выпуск № 12. – М., 2015. – С. 898-906.
4. Арсеньева М.Г., Балашова С.П., Берков В.П., Соловьева Л.Н. Введение в германскую филологию. / Учебник для филологических факультетов. – М.: ГИС, 2003 – С. 320.
5. Merriam-Webster: Dictionary and Thesaurus [Электронный ресурс]. <http://www.merriam-webster.com/>.
6. <http://lingvotech.com/zaimstvovaniya>

УДК 808.5

### ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ КОНСТРУКЦИИ ПРЯМОЙ РЕЧИ

Ш.К.Нуманов, преподаватель, Андижанский Государственный Медицинский Институт,  
Андижан

**Annotatsiya.** *Matn yaratish va talqin qilish jarayonining mahsulidir. Diskurs - bu matn tarkibiy qismi bo'lgan dinamik jarayon. Shunday qilib, matn tahlili nutq tahlilining faqat bir qismidir. Matnni tahlil qilishdan tashqari nutq matnning paydo bo'lishi va idrok etilishini, psixik jarayonlarni oldindan belgilab beradigan ijtimoiy sharoitlarni o'z ichiga oladi.*

**Kalit so'zlar:** *nutq, to'g'ridan-to'g'ri, bilvosita nutq, so'zlarning o'zaro ta'siri, transformatsiya, mulqot, biomulqot, intermulqot.*

**Аннотация.** *Текст есть продукт процесса порождения и интерпретации. Дискурс представляет собой динамический процесс, частью которого является текст. Таким образом, анализ текста – это есть лишь часть анализа дискурса. Кроме анализа текста дискурс включает социальные условия, которые определяют порождение и восприятие текста, ментальные процессы.*

**Ключевые слова:** *речь, прямая, косвенная речь, взаимодействия слов, трансформация, коммуникативности, бикоммуникативности, интеркоммуникативности*

**Abstract.** *The text is the product of a process of generation and interpretation. Discourse is a dynamic process of which text is a part. Thus, text analysis is only a part of discourse analysis. In addition to text analysis, discourse includes social conditions that predetermine the generation and perception of text, mental processes.*

**Keywords:** *speech, direct, indirect speech, word interactions, transformation, communicativeness, bicomunicativeness, intercommunicativeness.*

Современные исследования чужой речи представляют систему средств ее передачи как совокупность традиционно выделяемых видов: прямой, косвенной, несобственно-прямой, свободной косвенной и тематической (или скрытой косвенной) речи. Системно-функциональный подход к разработке данной проблемы вызвал необходимость определения границ указанной системы. Главным критерием отнесения конструкции к системе средств передачи речи является выраженность содержания исходного высказывания, а границей системы – свернутая косвенная (или тематическая) речь. В лингвистике статус тематической речи до сих пор считается спорным. В настоящей работе под тематической речью понимается такой способ передачи речи, при котором наблюдается полная или частичная трансформация грамматической и лексической структуры высказывания и который указывает на тему, предмет, свернутое содержание или общий смысл исходного высказывания или дает косвенную возможность их интерпретации в рамках текста, например: When Jack was given a flowerbed of his own he asked his da for seeds... (J. Dos Passos)

Если признать статус тематической речи как отдельного вида передачи речи, то косвенную и тематическую речь можно разграничить исходя из того, что косвенная речь дает понятие о том, что говорилось, а тематическая – о чем говорилось. Включение тематической речи в рассматриваемую систему позволяет выделить подсистему прямой передачи речи, сохраняющей исходные пропозиции (прямая, несобственно-прямая, косвенная и несобственно-косвенная речь) и подсистему не прямой передачи речи, включающую косвенные трансформы и тематическую речь. За пределами системы находятся конструкции, указывающие лишь на факт совершения какого-либо речевого акта или речевого взаимодействия типа...he had a small shrewd talk with Verena... (Т.Сароте).

Анализ фактического материала, однако, позволил выделить еще один вид свернутой передачи речи, находящийся на самой границе упомянутой выше системы. Он занимает промежуточную ступень между структурами выраженной и невыраженной чужой речи. Этот вид охватывает те случаи, когда и вводящее ядро, и тематический компонент сливаются в одной лексической единице, например: "How exciting", old Lillian said. Then she introduced me to the Navy guy. (J.Salinger). В глаголе говорения **introduce** заложена сема содержания всего исходного высказывания. Эта сема, однако, не может быть

однозначно трансформирована в прямую речь, но способна передать общий смысл высказывания в стереотипной коммуникативной ситуации «знакомство». Гипотетически глагол **introduce** можно развернуть в прямую речь в виде фраз *Meet N.* или *I'd like to introduce N. to you* и прочие варианты, удовлетворяющие данную коммуникативную ситуацию. Глаголов, подобных **introduce**, в английском языке существует целая группа: **greet, swear, thank, apologize, threaten, welcome, curse, agree** и др. так как эти глаголы способны в свернутом виде передавать чужую речь, они выделяются в данной работе в отдельный вид, называемый конденсированной тематической речью. Предполагается, что именно этот вид замыкает всю систему средств передачи речи.

Конструкции с чужой речью не существуют изолированно, но вписываются в ткань авторского повествования. Единство языка обеспечивает возможность точного моделирования аутентичной речи, что позволяет рассматривать речевые взаимодействия персонажей художественного произведения как модели реальных коммуникативных ситуаций.

В настоящей работе конструкцией прямой и авторской речи (сокр. КПАР) будут именоваться переданные в тексте речевые взаимодействия персонажей, выраженные прямой речью и одним из видов не прямой передачи, объединенные единым топи́ком и представляющие собой семантическое, структурное и коммуникативное единство: “*And there's a number...*” She read it out twice. I repeated it. “*That's right. I thanked her.* (D.Francis).

Структурное построение КПАР напоминает диалогическое единство. Оно может быть двучленным, трехчленным и т.д. Но, в отличие от последних, КПАР способен представлять речь в свернутом виде, т.е. посредством косвенных трансформов, тематической и конденсированной тематической речи.

Анализируя взгляды на КПАР, можно выделить два направления в трактовке этого сложного явления:

- 1) как одной из традиционных грамматических структур (Р.Квирк, О.Йесперсен, У.Миттикэ, Е.М.Галкина-Федорук, Д.Э.Розенталь, Г.Фаулер)
- 2) как особой грамматической конструкции (Е.М.Степанова, В.И.Кодухов, А.И.Молотков, Т.П.Ломтев, Е.П.Васильева, Г.М.Чумаков, М.К.Милых и др.). Исследование относится ко второму направлению.

На основании принятого в работе толкования предикативности как отношения содержания предложения к ситуации речи, т.е. ко времени речевого акта (темпоральные отношения), к определенному отрезку действия (модальные отношения) и к говорящему (персональные отношения), предикативность схематически представлена как система координат, где персональность, темпоральность и модальность являются осями координат, а ситуация речи – центром системы – предикативным центром.

Таким образом, КПАР можно охарактеризовать как высказывание с двумя текстуально сопряженными предикативными центрами.

Определение КПАР как высказывания с двумя текстуально сопряженными предикативными центрами отделяет ее от монологического высказывания, с одной стороны, и от диалогической пары – с другой.

Монолог, диалог и КПАР отличаются также типом коммуникативности. В монологе направленность коммуникации одна: от субъекта речи к объекту. В диалоге, поскольку субъект и объект речи меняются местами, следует говорить о бикоммуникативности или интеркоммуникативности.

Коммуникативность КПАР – особая. Предложение *He said, "I know you"* напоминает конверт в конверте, коммуникацию, которая передает коммуникацию. Этот тип коммуникативности можно назвать транскомуникативностью.

Совокупность описанных выше признаков: наличие двух текстуально сопряженных предикативных центров, представленных обязательным сочетанием компонентов АР и ПР, и особый характер коммуникативности составляет ту специфику синтаксических конструкций прямой речи, которая закрепляет за ними особое место в синтаксической системе языка.

Компоненты КПАР связаны сложными отношениями. С одной стороны АР и ПР предполагают друг друга, их связь нерасторжима, ибо только в совокупности они образуют особое синтаксическое единство, с другой стороны, роль АР и ПР в структуре КПАР различна: АР выступает как индекс, сигнал появления новой коммуникации, носителем которой является ПР в границах данной структуры, т.е. участвует в реализации транскомуникативности.

Никаких специфических формальных средств, таких, как союзы, соединительные слова, фиксированное расположение компонентов, эта связь не использует, ее формальными признаками являются интонационный контур, графически представленный пунктуацией, и обязательный двухкомпонентный состав.

По-видимому, есть основания говорить об особом типе синтаксической связи, присущей КПАР, которую можно назвать синтаксической связью прямой речи.

Рассмотрим важный компонент конструкции – авторскую речь. Носители предикативных центров – компоненты КПАР AP и ПР обнаруживают ряд подтипов, выделяемых на основании набора признаков. По синтаксической структуре выделяются простое ПР, т.е. представленное одним предложением различной синтаксической характеристики (“May I speak now?” asked Doris), и сложное ПР, где в роли ПР выступает сложное синтаксическое целое (“Yes, she will”, Pa said. “She’ll believe any crazy thing you say Seventeen now. Don’t forget.”).

Классификация AP оказывается более разнообразной. Выделяются следующие основные типы AP:

1) по синтаксической структуре – простой, состав которого ограничен подлежащим и сказуемым (Ann said); осложненный, включающий второстепенные члены (Tom said to him) и сложный, представленный сложным предложением любого типа (Bob said when I came in);

2) по числу ядер, т.е. элементов, вводящих ПР (said, asked etc) – одноядерный, двоядерный (“Charming, charming”, Bertrand said and his girl said, “You enjoy doing that, don’t you”) и многоядерный (“I took nothing of yours, little sir”, said Gui and as Benny began to say, “But...” he winked quite seriously and continued, “And if I did-there is honour between the gentlemen, is there not);

3) по характеру ядра – глагольный и именной, т.е. выраженный сочетанием глагола с именем (“What else has she got”- was Mr Poulter’s argument).

Авторская речь функционально достаточна

Для того, чтобы выполнить свою основную функцию – указание точки на системе координат, в которой находится предикативный центр ПР, AP достаточно иметь в своем составе только подлежащее и сказуемое, так как именно с их помощью устанавливаются темпоральные, персональные и модальные показатели предикативности ПР.

#### СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Гальперин И.Р. Очерки по стилистике английского языка. - Москва, 1958.
2. Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. - Москва, Наука, 1981.
3. Солганик Г.Я. Синтаксическая стилистика. 1991.
4. Тураева З.Я. Лингвистика текста. Москва, 1986.
5. Бондарко А.В. Грамматическое значение и смысл. –Л., 1978.
6. Гальперин И.Р. Очерки по стилистике английского языка. –М.,1958.
7. Гальперин И.Р. Очерки по стилистике английского языка. –М.,1958.

UO’K 808.5

### ОШИБКИ И ТРУДНОСТИ ПРИ ПЕРЕВОДЕ ЮРИДИЧЕСКИХ ТЕКСТОВ

*У.С. Пулатова, преподаватель, Андижанский государственный медицинский институт, Андижан*

*Annotatsiya. Ushbu maqolada yuridik matnlarni tarjima qilishda uchraydigan xatolar va qiyinchiliklar va professional tarjimada e'tiborga olish kerak bo'lgan eng muhim jihatlari muhokama qilinadi.*

*Kalit so'zlar: tarjima sifati, tarjimadagi xato va qiyinchiliklar, yuridik matnlar, tarjima tahlili.*

*Аннотация. В этой статье обсуждаются ошибки и трудности, возникающие при переводе юридических текстов, а также наиболее важные аспекты, которые следует учитывать при профессиональном переводе.*

*Ключевые слова: качество перевода, ошибки и трудности перевода, юридические тексты, анализ перевода.*

*Abstract. This article discusses the mistakes and difficulties encountered in translating legal texts and the most important aspects to consider in professional translation.*

*Key words: translation quality, translation errors and difficulties, legal texts, translation analysis.*

Юридический перевод нуждается в услугах эксперта, который очень осведомлен в юридических условиях и практиках. Перевод юридических документов нуждается в точном и правильном переводе и является одним из самых сложных среди всех переводческих работ. Есть много вещей, которые нуждаются в законном переводе, включая сертификаты с родами, письма для применения, техническое подтверждение патента, записи о осаждениях, финансовое отделение, документы доказательств, судебные разбирательства и деловые контракты. Переводчики должны иметь не только общие знания о юридической терминологии, они также должны быть хорошо разбираться в уставных требованиях и юридическими слоями иностранных культурных и правовых систем.

Благодаря этому, профессиональный переводчик юридических документов должен быть частью детектива, юридического ученого и лингвист с суммой исследовательской работы, которая должна быть сделана, чтобы иметь возможность декодировать источник и писать его фактическое значение, которое никогда не будет, отклоняться от исходного контента, даже если точный перевод невозможен. Основными методами, которые я использовал в этой статье, являются метод анализа контента

различных румынских и зарубежных авторов, опорных источниках и текстах, которые были выбраны для использования тематических исследований и примеров в пункте, сравнительный подход посредством качественных исследований, а также Способ наблюдения, начиная с эмпирических исследований в области.

Основная цель состояла в том, чтобы подчеркнуть необходимость и полезность анализа перевода юридических текстов, без содействия специалистам, чтобы подчеркнуть основные угрозы и риски, созданные такого типа перевода. Таким образом, этот анализ перевода может быть замечен как способ разрешения исследователя /переводчика выявить возможные проблемы. Настоящая работа адресована прежде всего юридическим специалистам, связанным с терминологией в доменах государственного и частного права. Он включает в себя английский, американский и европейский закон об латинском происхождении, потому что у некоторых из них нет точных структурных соответствий на румынском языке, это привело к трудностям в поисках эквивалента в процессе перевода английских юридических текстов на румын.

Эта часть является практическим подходом на перевод. Используя количество тематических исследований (юридические тексты, извлеченные из различных документов и статей), тематическое исследование иллюстрирует разнообразие ситуаций, которые могут возникнуть в результате ошибок и трудностей перевода. Этот раздел является анализом переводов экономических текстов и ошибок, которые могут возникнуть при попытке дать точный и правильный перевод оригинального текста.

1. Работа с корпусом юридических текстов, которые мы столкнулись с большим количеством латинских юридических выражений. Латинское существо в средние века. Язык закона на территории Западной Европы невероятно повлиял на формирование юридической терминологии большинства европейских языков, не говорить о том, что латынь была основой многих романских языков, а также Английский язык, потому что английский не был исключением. Все возможные языки заимствовали обе корни латинского происхождения слов, слов комбинаций, крылатых выражений также. Таким образом, основные лингвистические трудности в легальном переводе являются отсутствие эквивалентной терминологии на разных языках.

2. Другим источником трудностей в судебном плане представлен культурными различиями «культура», определяемая как «семиотическая система» и «система значений» или информация, закодированная в потенциале поведения членов общества. Перевод включает доверие на стороне читателя или пользователя. Аудитория, которая не знает первоначального значения условий текста, считает, что перевод является справедливым представлением этого. Следовательно, переводчик должен быть готов, когда это возможно, с соблюдением всех культурных деталей для перевода юридической лексики в текстах юридических документов.

3. Перевод слов, имеющих эквиваленты на румынском языке, но указывая реалии, не присущие румынской правовой культуре. В таких случаях буквальный перевод, требующий некоторых заметок или приблизительный перевод, когда конкретный термин на английском языке переводится на романтический термин на румынском языке. Во всяком случае, такие единицы требуют либо использование внутри языковой компенсации, то есть слово переводится фразой или межкультурной компенсацией, когда перевод требует некоторых комментариев. Типичным примером является использование такой пары, как тюрьма, переведенная как правило, как

3. Литеральный перевод слов-комбинаций, требующих подробного объяснения со стороны переводчика, если, конечно, переводчик компетентен, чтобы дать такой комментарий. Рассмотрим перевод таких слов-комбинаций, как ограниченный развод, неопределенное предложение, индекс

Преступления, преступность индекса, чувствительность обучения и устное дзюдо. Во всех этих случаях слов комбинации назначить реалии, которые не существуют в практике российской судебно-правовой системы, и, следовательно, требовать компенсировать объективное несоответствие перевода с культурным комментарий. Итак, Limited Divorce является SOUPEIE DE CORP, неопределенное предложение Sentință Fără Soluție /Nerezolvată. Индекс преступности является Clasificarea Infraacțiunilor, список из 8 самых могилых исследование случая, которое мы достигли, дает нам возможность сделать некоторые выводы: - главная группа латинских слов, которые на английском языке не имеют там аналогии. Они представляют собой «закон» сам и представляют определенный лингвистический интерес.

- некоторые латинские юридические слова и слов комбинации переводятся в описательный способ;

- Юридические термины всегда имеют только одно значение, не являются полисемантическими, их значения не зависят от контекста.

Проблема для будущих десятилетий является то, как обеспечить осведомленность об этих новых инструментах перевода и что они более широко используются.

#### СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Bassnett, Susan. Translation Studies. London: Routledge, 1988.
2. Beaupré, Michael. Interpreting Bilingual Legislation, Toronto: Carswell, 1986.

3. Bocquet, Claude. Pour une méthode de traduction juridique, Prilly: CB Service, 1994.  
 4. Chirilă, Camelia and Georgiana Mindreci. "Linguistic Changes in the Context of European Regional Development," Management Strategies Journal, 2013

УЎК 398.21

## СЕХРЛИ ЭРТАКЛАРДА ТИЛСИМ

## 3. Расулова, к.и.х., ЎзР ФА Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори институти, Тошкент

**Аннотация.** Ушбу мақолада сўз сеҳрли эртакларидаги тилсим ҳақида сўз юритилади. Ўзбек халқ эртакларида учрайдиган тилсим билан боғлиқ анъанавий “ғаройиб нарса”лар қаторида сеҳрли тош кўп учраши, шунингдек, бу деталнинг тарихий илдизи тош култи билан боғлиқ қарашларга алоқадор эканлиги ҳақида фикр юритилган. Жумладан, тош култи барча халқлар орасида қадимдан шаклланганлиги, сеҳрли-фантастик эртакларида “ғаройиб нарса”лар воситасида яхлит тизимга асосланган тилсим ва тилсимотлар тафсилоти бадиий ифода этилиши илмий-назарий жиҳатдан асослаб берилган.

**Калим сўзлар:** эртақ, сеҳрли эртақ, тилсим, ғаройиб нарса, детал, тош култи, сеҳрли китоб, сеҳрли олма, ғаройиб ўсимликлар.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается волшебство в словесных сказках. Среди традиционных «странностей», связанных с талисманами в узбекских народных сказках, распространены волшебные камни, а исторические корни этой детали связаны с воззрениями культа камня. Художественное воплощение деталей талисманов и талисманы на основе целостной системы посредством «странных вещей» научно и теоретически обоснованы.

**Ключевые слова:** сказка, волшебная сказка, талисман, странная вещь, деталь, культ камня, волшебная книга, волшебное яблоко, диковинные растения.

**Abstract.** This article discusses the magic in word fairy tales. Among the traditional "strange things" associated with talismans in Uzbek folk tales, it is believed that magic stones are common, and that the historical roots of this detail are related to the views of the stone cult. The artistic expression of the details of talismans and talismans based on a holistic system by means of "strange things" is scientifically and theoretically substantiated

**Key words:** fairy tale, magic fairy tale, talisman, strange thing, detail, stone cult, magic book, magic apple, strange plants.

Маълумки, ўзбек халқ сеҳрли эртакларида учрайдиган “ғаройиб нарса”ларнинг аксарияти эпик матн табиатига хос бўлган тилсимнинг юзага келишига хизмат қилади. Яъни тилсим “сеҳрли” нарса-буюмлар воситасида юзага чиқади. Ўзбек халқ эртакларида учрайдиган тилсим билан боғлиқ анъанавий “ғаройиб нарса”лар қаторида **сеҳрли тош** кўп учрайди. Табиийки, бу деталнинг тарихий илдизи тош култи билан боғлиқ қарашларга алоқадор. Тош култи барча халқлар орасида қадимдан шаклланган.

Масалан, “Тимсоҳлар шаҳри” эртаги [1] сюжетида сеҳрли тош алоҳида эътиборни тортади. Унда тимсоҳлар шоҳи деҳқонга бир тош бериб, уни эҳтиёт қилишини, агар қизини соғинса, шу тошни дарёга ташласа, қизи билан дийдорлашиши мумкинлигини айтади. Дарҳақиқат, деҳқон бу сеҳрли тошни дарёга ташлаганда, йўл очилади ва у ичкарига киради. Кирса, бу ерда катта қасрлар қурилган эмиш.

Бу эртақда сеҳрли тош сув ости мамлакатига йўл бошловчи тилсим куч сифатида талқин қилинмоқда. Шу ўринда беихтиёр қадимги одамларнинг Яда тоши ёрдамида ёмғир чақириш маросимини ўтказганликлари ҳақидаги маълумотлар ёдга тушади. Чунки бунда ҳам тош ва сув стихиясининг ўзаро боғланиши кўзга ташланади. Демак, юқоридаги каби мотивларнинг яратилишига шундай тасаввур-тушунчалар мавжудлиги асос бўлганлигига шубҳа йўқ.

Ўзбек халқ эртакларида учрайдиган “ғаройиб нарса”лардан яна бири **сеҳрли китобдир**. У кўпинча эврилириш хусусиятига эга тилсим буюм сифатида гавдалантирилади. Жумладан, унга хос бу хусусият “Тулиқаҳқаҳ” эртагида ёрқин тасвирланган [2].

Баъзи эртақларда сеҳрли, тилсимот китобларнинг сирли ғор ичида сақланиши ва унинг дунёдаги ҳамма сирларни айтиб бериш қудратига эгаллиги таърифланади. Айнан шу мотивга “Ниёзбой ва Аёзбой” эртагида дуч келиш мумкин [3].

“Тул узук”, “Негиз узук” номли ўзбек халқ эртакларида **олтин ковуш** ҳам бор. Йигит уни тўйининг учинчи кунда суюкли хотинига туҳфа қилади. Хотини олтиндан ясалган бу ковушни кийиб юрса, оёғининг тагидан олтин кўчади. Бунинг бир хизматкор қиз унинг кетида юриб териб олади. Бир кун хотин дарё бўйида оёғини ювиб турганида, оёғидаги ковуши дарёга тушиб кетади. Ковуш бошқа шаҳарлик балиқчиларнинг тўрига илинади. Шу билан ўша шаҳарнинг подшоҳи ковуш эгасига ошиқ бўлиб, уни излатади. Маълумки, бу мотив “Олтин ковуш”, “Подачининг қизи” сингари ўзбек ва Ғарб халқларининг “Золушка” эртаги сюжетида ҳам учрайди.

“Ғаройиб нарса”лар қаторида **сеҳрли олма** тилсоли ҳам учрайди. Ҳатто ўзбек халқ эртаклари орасида “Сеҳрли олма” номли алоҳида эртақ бор. Номидан кўриниб турибдики, бу эртақда сеҳрли олма сюжет марказида туриб, воқеаларнинг ривожланиб боришига таъсир кўрсатувчи асосий восита



сифатида гавдаланади. Эртақда олма инсон умрини узайтирувчи ёки унга ажал келтирувчи магик восита сифатида бадиий талқин қилинган. “Ниёзбой ва Аёзбой” эртагида олма қари киши еса ёш бўладиган магик восита деб кўрсатилади. Бу эртақда яна сеҳрли беҳи тимсоли келтирилган бўлиб, у ҳам инсонга абадий ҳаёт бахш этувчи магик воситалардан бири сифатида акс эттирилган [3].

Баъзи эртақларда олма мифологик персонажларнинг эврилиш қиёфаси сифатида акс эттирилади. Масалан, “Гулиқаҳқаҳ” эртагида олма парига айланади [4]. Эртақларда фаол қўлланиладиган сеҳрли олма ва сеҳрли сув (ҳаёт суви) кишига соғлиқ ва ёшлиқни қайтариб берувчи магик восита сифатида ҳам талқин қилинади. Шунинг учун “Сеҳрли олма” эртагида “Олма гулини ҳидласа, кишининг умри узаяди, мевасини еса ўлган киши тирилади”, – дейилади. Хоразмдан ёзиб олинган “Маликаи Гулизор” эртагида ўлик маликага олмани ҳидлатишганда, у тирилади [5].

Наманган вилоятидан ёзиб олинган “Ҳасан билан Хурлиқо” эртагида [6] эса бир чўпон най чаламан деб созини олиш учун қўнига қўл солганида қўлига иккита олма илинади. Олмаларни олиб ҳидлаб кўрса, улардан ёш чақалоқнинг бўйи анқийганини ҳис қилади. Ана шу олмалар орқали эртақ қаҳрамони ўзининг йўқолган фарзандлари тириклигини билиб олади ва узоқ саргузаштлар орқали уларни ахтариб топади.

Фольклоршунос олим Ж.Юсуповнинг ёзишича, олмани ҳидлаганда тирилиш мотиви эртақ қаҳрамонининг олма еб ҳомиладор бўлган аёл фарзанди сифатида талқин қилиниши билан бевосита алоқадордир. Яъни “олма ҳиди – тириклик, ҳаёт аломати бўлгани учун Маликаи Гулизор уни искаб, қайта тирилади. Олмани ҳидлаб тирилиш бу рамзий деталь билан боғлиқ анъанавий сюжет элементлари тизимидаги мотивлар блокига мансубдир. Эпик қаҳрамоннинг ғайриоддий туғилиши бефарзанд шох хотини ёки кекса кампирнинг олма еб ҳомиладор бўлиши мотивини ҳам ўз ичига олади” [7].

Зеро, кўпгина дoston, эртақ каби эпик жанрлар ҳамда халқ кўшиқларида сеҳрли олма фарзанд тимсолини ўзида ифодалаб келади. Масалан, “Шунқор” эртагида қизил, сариқ, оқ рангдаги учта олмадан учта фарзанд туғилади [8].

Олма тимсоли эртақларда ҳамма вақт сеҳрли кўринишда гавдалантирилмайди. Айтايлик, “Етти пакана” эртагида [9] ўтай она ўздан кўра гўзал бўлган етим қизнинг барнолигига ҳасад қилиб, унинг олдига гадой қиёфасидаги мастон кампирни жўнатади. Мастон кампир ўтай она берган заҳарланган олма ёрдамида қизни ўлдиради. Кўриниб турибдики, бу эртақда ғаройиб, тилсимли олма ҳақида эмас, балки ғаразли мақсадда заҳарлаб, зарарли ашёга айлантирилган оддий олма устида сўз юритилмоқда.

Айрим эртақларда малика баланд кўшқидан туриб, куёв сифатида танланажак йигитга ёки суйган ёрига қарата олма отади. Умуман айтганда, эртақларга хос бу анъанавий мотив аслида ҳаётий асосга эга бўлиб, унинг заминида қадимий миллий урф-одатларимиздан бири ётади. Бу ўринда олма севги-муҳаббат рамзини ўзида ифодалаб келади ва “ғаройиб нарса” эмас, рамзий деталь сифатида қаралади. Олманинг севги-муҳаббат ва фарзанд рамзи сифатида талқин қилиниши билан боғлиқ “олма отиш” номли анъанавий халқ ўйини ҳам мавжуд бўлган. “Хоразм вилоятида байрам, сайил ва ҳайитларда қизлар ҳалинчак учишаётганда йигитлар ўзига унаштириб қўйилган қизга олма отиши удуми қайд этилган. Наврўз байрами, “қизил гул” байрами, “қовун сайли” ва бошқа маросимлар, ҳайитларда қизлар йиғилишиб ҳалинчак – “соринжок” учишган. Унаштирилган қизлар ҳам ўз янгалари ҳамроҳлигида ҳалинчак учгани келганлар. Шунда куёв ўн-йигирма дона олмани олиб жўралари билан келган ва олмаларни бир дўстининг қўлига бериб томоша қилиб турган. Агар соринжокда ўзига фотиҳа қилинган қиз учаётган бўлса, куёв бўлгучи йигит келини кўриб “юз кўрим”, яъни “ҳайитлик” совға берган ва секин олма билан қизни урган. Бошқа йигитлар ҳам соринжокда учган қизлардан ўзлари севганларига олма отишган. Баъзан йигитнинг олмаси уни севмаган қизга отилса, қиз чап бериб олмани ўтказиб юборган. Айрим қизлар отилган олмани ушлаб олиб ўзи севган йигитга қайтариб отган” [10].

“Олма” детали билан боғлиқ эпик мотивларнинг тарихий асослари ва бадиий вазифаларини ёритишда фольклоршунос А.Мусакуловнинг “Олма оғочидан йироқ тушмас” мақолидаги олма поэтик кўчим сифатида ота-она ва фарзандни англантириши, мифологик тафаккурда эса кўчимсиз шу маънога эга бўлиши” [11] ҳақидаги фикри муҳим илмий қимматга эга. Чунки бу мулоҳаза ўзбек халқ эртақларидаги “сеҳрли олма” деталига алоқадор мотивлар замирида қадимги аждодларимизнинг серҳосиллик ғояси билан боғлиқ мифологик тасаввурлари ётишини кўрсатади.

**Сеҳрли гул ва ғаройиб ўсимликлар**нинг эртақларда, асосан, инсон саломатлигини тикловчи ва яхшиловчи ёки инсонни бир кўринишдан бошқа кўринишга айлантирувчи тилсим восита сифатида талқин қилиниши кузатилади. Масалан, “Оловполвон” эртагида тасвирланган сеҳрли гул тирилтирувчи хислатга эга. Уни ўлган одам ёки жониворга ҳидлатилса, тирилтиради. Бу гулнинг уруғи эса кексайтиради [12].

“Гуллар сири” номли эртақда сеҳрли гулнинг ғаройиблиги гапириш хусусиятига эгаллиги билан изоҳланади. Эртақда гул “агар кимда-ким унинг гули билан баргини қўшиб қайнатиб, юзини ювса, чиройли қилиши”ни маслаҳат беради [12]. Аслида, гул тилидан айтилаётган ушбу маслаҳат – оддий ҳақиқат бўлиб, ҳаётий асосга эга. Чунки маиший турмушда гулобдан, яъни гулнинг сувидан

шифобахшлик ва парфюмерия мақсадида кенг фойдаланилади. Хусусан, гул сувидан хушбўй атирлар тайёрланади.

Эртақларда тирилтирадиган гиёх [12] ҳамда меҳригиёх деб аталувчи меҳр уйғотувчи ўсимлик тимсоллари ҳам образлантирилган.

Баъзи эртақларда тол химчалари ғайритабиий шаклда қатор аскарларга айланади [13].

**Сеҳрли най** халқ эртақларида уч хил бадий талқин қилиниши кузатилади:

а) у чалинса, ҳамма тинимсиз рақсга тушади;

б) одамларни эрк ва озодлик учун курашга бошлайди;

в) узок вақт яшириб келинган сирнинг очилишига сабабчи бўлади.

Эртақларда **сеҳрли сув** ҳақида ҳам гапирилади. Бунда унинг булоқ суви эканлиги, ичса тугамаслиги, шифобахшлиги алоҳида таъкидланади. Жумладан, “Ниёзбой ва Аёзбой” [13] эртагида сеҳрли сув сюжет воқеалари ривожланишига таъсир кўрсатувчи тимсоллардан бири сифатида гавдаланади.

Хулоса қилиб айтганда, сеҳрли-фантастик эртақларда “ғаройиб нарса”лар воситасида яхлит тизимга асосланган тилсим ва тилсимотлар тафсилоти бадий ифода этилади. Уларнинг баёнида бадий тўқима, ҳаёлий ва ҳаётий уйдирмалар ўзаро бирлашиб, эртақ бадийиятини яратади. Сюжетида “ғаройиб нарса”лар иштирок этадиган эртақлар мураккаб сюжетли эртақлар сирасига киради. “Ғаройиб нарса”лар иштирокида яратилган эртақларда халқ идеали акс этади. Улар бош қаҳрамон киёфасини идеаллаштиришга хизмат қилади.

Ўзбек халқ сеҳрли эртақларидаги ғаройибликлар **антропоморф шаклда ёки инсон кўринишида** (Хизр, сеҳргар чол ёки кампир, зар кокилли бола, кулса оғзидан гул, йиғласа кўзидан дур сочадиган бола ва ҳоказо; **зооморф шаклда** ёки ҳайвон, қуш киёфасида (учар от, булбулигўё, симурғ, анқо, олтин балиқ, олтин туёқли кийик ва ҳ.к.); **ўсимлик шаклида** (ҳаёт гули, доривор сеҳрли гиёх, меҳригиё); **“ғаройиб нарса”лар** (очил дастурхон, қайнар хумча, ур тўқмоқ, сеҳрли най, учар гилам, ойнаи жаҳон, сеҳрли чироқ, сеҳрли тароқ ва ҳоказолар); **мифологик образлар** (дев, ажина, алвасти, пари, ялмоғиз кампир, аждар); **истеъмол қилинадиган нарсаларнинг ғаройиб типлари** (обиҳаёт, сеҳрли олма, олтин тарвуз); **сеҳрли макон** воситасида (Эрам боғи, жаннат, ер ости, сув ости мулки, ўликлар салтанати, дўзах, Кўҳи Қоф); **сеҳрли сўзнинг** амал қилиши мисолида (сўз билан тошни ёриш, ғор оғзини очиш каби) намоён бўлади.

Эртақларда тилсим нарсалар инсон тақдири ёки табиат олами билан боғлиқ бирор-бир сирни очиш (сеҳрли тош, меҳригиё, сеҳрли олма ва ҳ.к. воситалар орқали), ёмонликни махв этиш (масалан, таъқиб қилиб қувиб келаётган ялмоғизни йўқ қилиш учун сеҳрли тароқ, сеҳрли ойна кабилардан фойдаланиш, ур тўқмоқ ёрдамида алдамчи ва золим кимсаларни жазолаш), машаққатли меҳнат азобларини енгиллатиш, тинч ва осуда, фаровон ҳаёт кечириш (очил дастурхон, қайнар хумча, очил, супра, учар гилам кабилар кўмагида) сингари юксак инсоний орзу-истакларни ўзида намоён этади.

#### ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. ЗЎФА. Инв.№1657.
2. Гулиқаҳқаҳ. ЎХФ. VI китоб. – Тошкент: Ёш гвардия, 1988. – Б.13.
3. Само тулпори. ЎХФ. V китоб. – Тошкент: Ёш гвардия, 1987. – Б.107.
4. Гулиқаҳқаҳ. ЎХФ. VI китоб. – Тошкент: Ёш гвардия, 1988. – Б.6.
5. ЗЎФА. Инв.№1593.
6. Гулпарӣ / Наманган эртақлари. – Тошкент: Фан, 1969. – Б.246.
7. Юсупов Ж. Хоразм эртақлари поэтикаси. – Урганч, 2005. – Б.104-105.
8. Само тулпори. ЎХФ. V китоб. – Тошкент: Ёш гвардия, 1987. – Б.48.
9. ЗЎФА. Инв.№147.
10. Жўраев М., Худойқулова Л. Маросимнома. Ўзбек халқининг урф-одат ва маросимлари ҳақида қисқача маълумотнома. – Тошкент: Ўзбекистон миллий кутубхонаси, 2008. – Б.84.
11. Мусақулов А. Ўзбек халқ кўшиқларининг тарихий асослари. – Тошкент, 1994. – Б.33.
12. Гулиқаҳқаҳ. ЎХФ. VI китоб. – Тошкент: Ёш гвардия, 1988. – Б.29, 42.
13. Само тулпори. ЎХФ. V китоб. – Тошкент: Ёш гвардия, 1987. – Б.114.

УЎК 803

### ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА ГЕОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ ТЕРМИНЛАРНИНГ ТЕМАТИК ТАСНИФЛАНИШИ

*Л.А. Рихсиева, катта ўқитувчи, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети, Тошкент*

**Аннотация.** Мазкур мақолада геология соҳаси терминологияси ҳамда терминларнинг тематик таснифлаш баёни қилинган. Хусусан, геология соҳасидаги инглиз ва ўзбек терминларни тематик таснифланиши бўйича асосий тушунчаларга бириктиришида гуруҳларга ажратилиши баён этилган.

**Калит сўзлар:** терминология, геология соҳаси, терминлар, тушунча(концепция), тематик таснифланиши.

**Аннотация.** В данной статье описана терминология области геологии и тематическая классификация терминов. В частности, разделение английских и узбекских терминов в области геологии на группы привязано к основным понятиям тематической классификации.

**Ключевые слова:** терминология, область геологии, термины, понятие, тематическая классификация.

**Abstract.** This article describes the terminology of the field of geology and thematic classification of terms. In particular, the division of English and Uzbek terms in the field of geology into groups is tied to the basic concepts of the thematic classification.

**Key words:** terminology, field of geology, terms, concept, thematic classification.

**Қириш.** Инсон жамиятининг тараққиёти ва барқарор ривожланишининг барча жиҳатлари илмий кашфиётлар орқали равнақ топади. Ҳозирги кунда илм-фан халқаро ва миллатлараро ривожланиш даражасига кўтарилмоқда. Илм-фан ривожланишининг муҳим омили бу халқаро билимларнинг бирлаштирилиши бўлиб, илмий тадқиқотларни чуқурроқ даражасига эришишга имкон беради. Ўзбек, рус ва инглиз тилшунослигида соҳалар терминологиясининг жадал суръатларда тадқиқ қилинганлигини тилшунослар томонидан кимё, ботаника, заргарлик, тиббиёт, солиқ, экология каби соҳалар терминологиясининг ўрганилганлигида кўришимиз мумкин. Терминологик масалалар бўйича Г.О.Винокур, А.С.Герд, В.М.Лейчик, Д.С.Лотте, К.Кагеура, Ж.Парсон, Р.Теммерман, П.С.Рей, Ҳ.Бектемиров, Э.Бегматов, Ш.Абдуллаева, Х.Д.Палуанова, Д.Х. Қодирбекова, О.С.Аҳмедов ва кўплаб олимлар томонидан илмий ишлар олиб борилган бўлсада, термин табиатига оид ўрганилмаган муаммолар ҳам мавжуд бўлиб, уларни замонавий тилшунослик тенденцияларига мос равишда ўрганиш талаб қилинади.

**Материал ва усуллар.** Умумий тил лексик тизимининг элементлари сифатида терминлар турли хил принципларга мувофиқ тўпламда бирлаштирилиши мумкин. Бунда, терминларни тематик таснифига мувожаат қилишимиз мумкин. Тематик таснифланишда терминлар икки ёндашув орқали, яъни тематик жиҳатига қараб белгиланган тушунчаларга бириктириш ёки қайси соҳа ва тармоқларда фойдаланиш асосида гуруҳларга бўлиниб, амалга оширилади. Геология соҳасидаги инглиз ва ўзбек терминларни тематик таснифланиши бўйича асосий тушунчаларга бириктиришда қуйидаги гуруҳларга ажратдик:

а) Геология билан боғлиқ тушунчалар ва геологик жараёнлар: **ablation**-абляция (музликларнинг эриши, буғланиши, *abrasion*(*attrition*)-абразия(тўлқин таъсирида денгиз, қўл ва йирик сув омборлари қирғоқининг емирилиши ва текисланиши), **absorption**-абсорбция (киришиши жараёни), **allochthon**-аллохтон (тоғ жинслари мажмуасининг пайдо бўлган жойларидан маълум геологик жараёнлар сабабли янги ўринга қиялик ва кўпинча тўлқинсимон юза бўйлаб силжиши (кўчиши) ва қайтадан ётқизирилиши), **azimuth**-азимут, **barysphere**-барисфера (ер шарининг ядро ва мантиядан иборат ички қисми, баъзи ҳолларда фақат ядро тушунилади), **bitumen**(**asphalt**)-битум(асфальт), **desquamation**-десквамация (тоғ жинси юзасининг кўчиши ва қатламларга ажрალიши), **drilling**-бурғилаш, **genesis rock**-қадимги тоғ жинси(она тоғ жинси), **lithogenesis**-литогенез(тоғ жинсларини ҳосил қилувчи жараён), **logging**-коратаж(бурғи қудуқларида ўтказиладиган геофизик тадқиқот усуллар), **metamorphism**-метаморфизм, **ridge**-айдар ёки ҳайдар (устида тош парчалари уюлиб ётган қир, тела, дўнлар);

б) Тоғ жинслар ва минералларнинг номи: **adularia**-адуляр, **augite**-авгит, **basalt**-базальт, **bioliths**-биолитлар, **lardstone**-агальматолит, **porphyry**-порфир, **siltstone**-алеврит

в) Тоғ жинслар, минерал ва металлларнинг кўриниши (физик хоссаси): **agglomerate**-агломерат, **anticline**(**arch**)-антиклиналь, **ductile**-қайишқоқ, **quick**(**powdered**)-кужунсимон;

г) Геология соҳасидаги ишлатиладиган асбоб-ускуналарнинг номи: **bathometer**(**waterbottle**)-батометр(гидробатометр), **christmastree**-фонтансимон арматура, **drill**-бурғи, **gold-washer**-вашигерд, **niveler**-геометрик(геодезик нивелирлаш асбоби).

**Таҳлил ва натижалар.** Эркинов Сухроб таъкидлагандек, замонавий тиллар, шу жумладан, ҳозирги замон инглиз тилида касбга доир лексик birlikларни семантик жиҳатдан мавзули турларга ажратиш тамойили устун туради. Терминларни тематик, аниқроғи, концептуал-тематик принцип бўйича тақсимлаш, умумий термин майдонига киритилган алоҳида гуруҳлардаги ва кичик гуруҳлардаги терминларнинг ўзига хос хусусиятларини кўриш, уларни ўхшаш ва фарқли жиҳатларини кўрсатиш имкониятини беради. Ж.Баган таъкидлагандек, терминологияда таснифлаш икки жараёни: тушунчаларни(концепция)таҳлил қилишни ва уларни белгилаш учун лексик birlikларни таҳлил қилишни ўз ичига олади. Айрим типик объектларнинг хусусиятлари ва тавсифи тасниф моҳиятини бир бутун сифатида тушунишга ва тушунчаларни таснифлаш, (объектларни)уларни тизимларга бирлаштиришга ёрдам беради.

**1. Геология умумий соҳасининг асосий йўналишлари биринчи гуруҳ бўйича тематик таснифлаши:**

**1.Фойдали қазилмалар конларини қидириш ва разведка ишлари.** Параллел ички тармоқлар: *Ёқилгини қидириш ва разведка ишлари; Маъдан конларини қидириш ва разведка ишлари; Металл бўлмаган конларни қидириш ва разведка ишлари; Металлогения; Фойдали қазилма конларини қидириш ва разведка ишларининг геофизик усуллари; Фойдали қазилма конларини қидиришнинг геокимёвий усуллари.* **2. Умумий ва минтақавий геология; 3. Океанлар ва денгизлар геологияси; 4. Геофизика.** Параллел ички тармоқлар: *Магнит геофизикаси; Сейсмология; Сейсмометрия ва геоакустика; Электр таъминоти қидирув ишлари.* **5. Литология; 6. Структуравий геология; 7. Муҳандислик геологияси.** Параллел ички тармоқлар: *Грунт механикаси; Муҳандислик геодинамикаси; Грунטיшуносликнинг техник мелиорацияси; Минтақавий муҳандислик геологияси; Грунטיшунослик.* **8. Геоэкология.** Параллел ички тармоқлар: *Атмосфера экологияси; Гидросфера экологияси; Атроф-муҳит геологияси.* **9. Геотектоника; 10. Планетология; 11. Вулканология.** Параллел ички тармоқ: *Геотермия.* **12. Геокриология ( музли тоғ жинслар); 13. Тарихий геология ва стратиграфия; 14. Гидрогеология; 15. Палеонтология; 16. Геокимёвий фанлар.** Параллел ички тармоқлар: *Геокимё; Петрология; Биогеохимё; Минералогия; Минералконларини қидиришнинг геокимёвий усуллари; Кристаллография.*

**2. Инглиз ва ўзбек тилларда термин бирликлари геологиянинг ички соҳалараро ва параллел ички тармоқлараро бўйича иккинчи гуруҳ тематик таснифланиши:**

Термин	Геологиянинг ички асосий соҳалари	Параллел ички тармоқлар
Ablation-Абляция ( <i>музликларнинг эриши, бузланиши</i> )	а)Тарихий геология ва стратиграфия; б)Гидрогеология	
Anhedral-Ангедрал ( <i>ўзига хос хусусиятларидан маҳрум бўлган минералнинг донсимон шакли</i> )	а)Геокимёвий фанлар	а)Петрология; Минералогия; Кристаллография
Anthracite-Антрацит ( <i>Тимқора, ялтироқ, зич, кучли иссиқ берадиган тошкўмир</i> )	а)Фойдали қазилмалар конларини қидириш ва разведка ишлари	а)Ёқилгини қидириш ва разведка ишлари; Маъдан конларини қидириш ва разведка ишлари
Vauxite-Боксит ( <i>Алюминий маъдани</i> )	а)Фойдали қазилмалар конларини қидириш ва разведка ишлари; б)Литология; в)Геокимёвий фанлар	а)Маъдан конларини қидириш ва разведка ишлари; в)Петрология
Cleavage-Кливаж ( <i>парчаланиш, дарс кетиши, тектоник ҳаракат вақтида қатлам ичидаги моддаларнинг тангенциал (ёнбосим остида) бир томонга қараб силжиши натижасида варақсимонланиши</i> )	а)Геокимёвий фанлар; б)Структуравий геология	а)Петрология; Минералогия; Кристаллография
Geyser-Гейзер ( <i>вақти-вақти билан буғ аралаш иссиқ сув отилиб турадиган қайнар булуқ</i> )	а) Вулканология; б) Гидрогеология	
Loess-Лесс ( <i>соз тупроқ</i> )	а) Умумий ва минтақавий геология; б) Литология;	
Maficminerals- Мафитлар ( <i>асосий тоғ жинслар</i> )	а)Геокимёвий фанлар	а)Петрология; Минералогия
Polished section-Анилиф ( <i>маъданли минераллар жойлашиши ва таркибини биноқулар остида ёки акс этган нурда кўриб ўрганиши учун сайқаллабтайёрланган тоғ жинси намунаси</i> )	а)Фойдали қазилмалар конларини қидириш ва разведка ишлари; б)Геокимёвий фанлар	а)Металлогения; б)Минералогия
Tuffite-Туффит ( <i>вулканоген чўкинди</i> )	а)Вулканология; б)Геокимёвий фанлар	б)Петрология;
Weathering-Нураш ( <i>тоғ жинслари ва минералларнинг бузилиши ва емирилиши жараёни</i> )	а)Умумий ва минтақавий геология; б)Тарихий геология ва стратиграфия; в)Геокимёвий фанлар	в)Петрология; Минералогия

**Хулоса.** Юқорида келтирилган инглиз ва ўзбек тилларидаги термин бирликларини геологиянинг ичкиасосий соҳалараро ва параллел ички тармоқлараро тематик таснифланишига кўра, терминлар умумий соҳани бир ва ундан ортиқ ички соҳаларда ва уларнинг ички тармоқларда қўлланилади. Терминларнинг геологиянинг соҳаларидаги маънолари маълумот сифатида келтирилди. Ушбу тематик тасниф учун геологиянинг ҳар бир терминосферасида, яъни маълум бир соҳасига оид терминлар ядровий бирлик сифатида соф ёки ядрога яқин бўлганинглиз ва ўзбек тилидаги **Anhedral-Ангедрал, Anthracite-Антрацит, Vauxite-Боксит, Geyser-Гейзер, Loess-Лесс, Tuffite-Туффит** бир сўзли терминлар, ҳамда инглиз тилида икки сўзли **Mafic minerals**, ўзбек тилида эса бир сўзли **Мафитлар**

термини танланиб олинди. Шунингдек, терминлар **Ablation-Абляция, Cleavage -Кливаж, Weathering-Нураш(эрозия)** бошқа махсус, яъни тиббийёт, биология ва ҳарбий соҳаларда ҳам қўлланилиши сабабли, геологиянинг маълум бир терминосфераларининг перифериясидан жой олган бўлиб, соҳани ички тематик таснифланиши учун танланиб олинди.

Хулоса қилиб айтсак, агар соҳанинг терминологияси ҳажми қанчалик катта бўлса, уни янгилаш ва бошқариш шунча қийин бўлади. Тематик таснифлаш терминология тўпламидаги терминларни ва улар ҳақидаги маълумотларни нафақат излашни осонлаштиради ва тезлаштиради, балки соҳа терминологиясини бошқаришда, яъни тематик луғат тузиш, янги терминларни қўшиш ва таҳрирлаш, терминларни йиғишни тизимли равишда ташкил этиш, соҳа терминосистемасини тартибга солиш каби кўп мақсадларга хизмат қилади.

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Б.Т. Тошмухамедов. Умумий геология – Т.: Ношир, 2011. – Б. 64–65.
2. Б.А.Исаходжаев, М.У.Умарходжаев, А.А.Адилов, М.М.Пирназаров, А.М.Азимов. “Геология атамаларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати” Биринчи жилди, Тошкент - 2007й
3. Эркинов Сухроб “Ҳарбий касбга оид лисоний бирликларнинг систем-функционал хусусиятлари” филология фанлари бўйича фалсафа доктори (phd) диссертацияси автореферати
4. A. Balasubramanian “150 Branches of geology(Earth Sciences)”- Department of Studies in Earth Science Centre for Advanced Studies, University of Mysore, 2017
5. Bagana Zh., Taranova E.N. The role of the thematic classification in terminological research//Bulletin of Russian Peoples' Friendship University. Ser. Linguistics. 2010. No. 3.P.46-49.
6. Cotsoes, Recommendation for Terminology Work, Berne, 2002, 2nd, revised and enlarged edition, 81 page

УДК 81-11

### ОСНОВНЫЕ ПРИНЦИПЫ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИХ КОНЦЕПЦИЙ В ЛИНГВИСТИКЕ

Г.Б. Сабирова, лектор, Узбекский государственный университет мировых языков, Ташкент

**Annotatsia.** *Maqola tilshunoslik nazariyasida qo'llaniladigan lingvokulturologik tushunchalarning turli tamoyillariga bag'ishlangan. Olimlarimiz zamonaviy fan tamoyillarini o'rganishda va til birliklarining keilib chiqishi, ularning faoliyati bilan tobora ko'proq qiziqib kielishmoqda va madaniy ma'lumotlarni saqlash va avloddan avlodga etkazishga katta e'tibor qaratilmoqda.*

**Kalit so'zlar:** *antropotsentrizm, taqqoslash, lingvomadaniy, etnik o'ziga xoslik, semantik tuzilma, etimologiya, so'zlarning talqini, asosiy tushuncha, e'tiqod, timsol.*

**Аннотация.** *Статья посвящена различным принципам лингвокультурологических концепций, которые используются в теории лингвистики. Большое внимание уделяется изучению принципов современной науки, поскольку ученых все больше интересуют вопросы природы языковых единиц, их функционирования и способности хранить и передавать культурную информацию от поколения к поколению.*

**Ключевые слова:** *антропоцентризм, сопоставление, лингвокультурная, этническая идентичность, семантическая структура, этимология, интерпретация слов, ключевой концепт, убежденность, воплощение.*

**Abstract.** *The article is devoted to various principles of linguocultural concepts that are used in the theory of linguistics. Much attention is paid to the study of the principles of modern science, since scientists are increasingly interested in the nature of linguistic units, their functioning and the ability to store and transmit cultural information from generation to generation.*

**Key words:** *anthropocentrism, comparison, linguocultural, ethnic identity, semantic structure, etymology, interpretation of words, key concept, conviction, embodiment.*

Антропоцентризм стал доминирующим научным принципом лингвистики в последние десятилетия. Антропоцентризм как особый принцип исследования состоит в том, что «научные объекты изучаются прежде всего по их роли для человека, по их предназначению в его жизни, по их функциям для развития человека. Он отмечает тенденцию. на переднем крае всех теоретических предпосылок научного исследования и определения его конкретных перспектив.[1:с.212] При таком подходе язык как главный объект лингвистики изучается с целью лучшего понимания и объяснения природы человека, его сущности. Единая антропоцентрическая перспектива современной лингвистики (А. Т. Хроленко) показывает ее неоднородность: когнитивные и культурные элементы могут быть дифференцированы друг от друга.

Данное исследование проводилось в смысле лингвокультурологии, которая, согласно общему направлению современной лингвистики, учитывает явления языка в тесном контакте с человеком, его духовную и практическую деятельность. Главный постулат этой науки - изучение органического единства языка, менталитета и культуры этноса. Как отмечает В.В. Воробьев пишет: «Язык - это страна

(национальная идентичность), культура - это стержневая триада лингвокультурологии, область, где важные проблемы этой отрасли знания пересекаются и могут быть решены». [2: стр.12]

Язык всегда был самой яркой чертой, определяющей этническую группу. Это отражает самобытность общества и национальную мечту мира. Согласно определению Э. Сепира, структура языка и системная семантика его единиц коррелируют со структурой мышления и способом познания внешнего мира конкретной нации. Это означает, что язык иногда может служить только источником информации о культуре, психологии и мировоззрении людей. Через призму языка можно увидеть национальные особенности, культурные модели, этическое и моральное поведение и так далее. Это позволяет ученым рассматривать язык как сущность, способную объяснить такие явления, как сознание, общество и культура.

В изучении различных национальных культур язык становится все более актуальным. Самая современная (Ю.А. Апресян, 1995), Д. Арутюнова (1976), Т.В.Бульгина, А.Вешбицкая, Н.Караулов (2000) и Е.С. Кубрякова (2009), А.М.Мелерович (2000), С.Степанов (2009) и многие другие ученые считают, что полное понимание души людей и культура возможна только через язык. Ученые в своей работе доказывают, что языковые данные играют решающую роль в понимании особенностей культуры и менталитета людей. Помимо явного содержания, для которого он создан, словесный текст «неявно содержит информацию об этническом и личном мировоззрении его автора и представляет культурные значения, в том числе этнические» [3: с.7].

Роль лингвиста состоит в том, чтобы определить, как культурные значения накапливаются в слове и как слово способствует культурному функционированию. Исследование ключевых концептов культуры, обозначенных словом «концепт» в современных исследованиях Н.М. Абакарова (2001), Е.В. Базылев (2001), В. Алтабаева (2001), А.Б. Болхоева (2001), О.В. Ивашенко (1999), помогая решить эту проблему .... Концепции являются продуктом синтеза лингвистических и этнокультурных знаний согласно взглядам лингвокультурологов. Средство контакта и создания идеи - это язык. Многоуровневые языковые единицы структурируют понятия: слова, фразеологизмы, учебно-синтаксические конструкции и т. Д. Понятие может быть выражено во всем богатстве своего содержания с помощью комбинации языковых средств, каждый из которых раскрывает его часть. Мы можем изучить сущность и содержание концепции после раскрытия состава языковых инструментов, представляющих концепцию и описывающих семантику этих единиц. В. Колесов, описание словесных знаков в соответствии с национальными ментальными концепциями принципиально новая форма толкования слова, поскольку слово (языковая единица) является материалом концепта [4: с.156].

Поскольку это слово является «не эквивалентом объекта, а эквивалентом того, как оно понималось в развлекательном акте во время изобретения слова» (В. фон Гумбольдт, цит. По: Зубков, 1989, с. 32), концепции различных культур отличаются даже. Анализ концепта позволяет получить наиболее полное представление о концепте, который существует в сознании носителей языка и культуры, и помогает распознать системную сущность их картины мира и культурных стереотипов, отражающих характеристики национального характера. Большое внимание уделяется вопросу изучения основ современной науки. Это связано с тем, что ученых все больше интересуют вопросы природы языковых единиц, их функционирования и способности хранить и передавать культурную информацию из поколения в поколение. Концепции - это сложные, многомерные явления, о чем свидетельствует обширный фактический материал, накопленный в современной науке. Ученые предпринимают попытки, наряду с общим продвижением концептуального типа, дать подробное описание различных концепций. Понятия «реальность» (Лукин, 1993), «любовь», «удивление», «презрение» (Воркачев, 1995,1997, 2000), «радость», «удовольствие» (Михайлова, 1993), «язык» ( Яковлева, 1995), русский (Фархутдинова, 2000) и многие другие.

Концепция греха - одна из важнейших составляющих человеческого сознания и универсальной культуры. Он присутствует во многих системах мифологии, теологии, философии и этики. Идея имеет глубокие исторические корни. Возникнув в языческие времена, он стал одним из основных принципов всех религий в мире, включая христианские догмы. Важность и необходимость понятия греха. Он присутствует во многих системах мифологии, теологии, философии и этики. Идея имеет глубокие исторические корни. Возникнув в языческие времена, он стал одним из основных принципов всех религий в мире, включая христианские догмы. Фома Аквинский, Иоанн Дамаскинский, Климент Александрийский и другие писали о важности и значении концепции греха для христианина. Мы стремились понять концепцию греха в рамках религии, ввести ее в сознание людей, а также расширить границы этой концепции. Таким образом, Тертуллиан (II в.) Ввел термин «смертный грех» в терминологический аппарат церкви (ср. Библия: «грех к смерти», Иоанна 5:16, Первое послание). Степан Фиванский (VIII век), пытаясь обобщить идею, Степан Фиванский составил список неуместных для монахов греховных поступков, пытаясь сделать эту идею социальной. В трактате «Точное изложение православной веры» св. Иоанн Дамаскин (VIII век) дал определение этого понятия в специальном разделе «О страхе».

Изучение различной культурной и богословской литературы, созданной в течение длительного периода времени, показало, что грех, являющийся одним из понятий христианства, неоднозначно воспринимается даже церковными лидерами, и остаются спорные вопросы относительно его значения. Во-первых, не известны пределы понятия греха, нет четкого списка смертных грехов, нет однозначного ответа на вопрос, какой из пороков для христианина считается более важным. Мы находим еще больше разногласий среди философов по поводу понимания этого определения. Мы находим еще больше разногласий среди философов по поводу понимания этого определения. Например: В. Н. Лосский (1949) по-разному истолковал библейскую историю о падении Адама. Другое Многие авторы писали о природе греха и греховности глазами своих героев, например О. Де Бальзак, В. И. Даль, В. Гюго, Ф. М. Достоевский, Н. Лесков, М. Шолохов, В. Шекспир.

Существует также естественнонаучное понимание концепции греха. Грех интерпретировался В. Вернадским и его последователями Тейяром де Шарденом как отклонение от нормального состояния, сравнивая его с эволюцией. Концепция греха была и остается одной из самых актуальных для повседневного человеческого сознания. Это определение управляет действиями и регулирует индивидуальные и общественные отношения, устанавливая моральные принципы. Оно носит личный и социальный характер и относится к отдельной этнической группе и ко всему человечеству. Это понятие одновременно выступает как категория морально-этической и социально-оценочной, имеющая словесное воплощение на разных языках и представленных в разных культурах. Можно сказать, что одним из элементов русской культуры и русского народа является идея греха. Важность этого исследования определяется, во-первых, представлением российскому сознанию одной из важнейших концепций духовной культуры, в которой отражены мировоззрение русских людей, их психология, этические и моральные ценности, религиозный и мирской опыт; во-вторых, путем применения системно-функционального подхода к изучению языка и всестороннего изучения языковых единиц, участвующих в разработке определения и содержащих информацию о нем. Цель исследования определяется актуальностью: объяснить российское восприятие греха, выявив этническую специфику его интерпретации русского сознания. Исходной теорией для достижения этой цели является представление информации о ключевых концепциях как хранителя знаний о мировоззрении россиян. Обращая внимание на сложную организацию русского самосознания, ученый указал, что напряжение внутри самого сознания глубоко и многократно выражается в языке благодаря конвергенции в нем элементов языческого и христианского видения мира. В центре внимания проведенного исследования – русское понятие греха, определенное разными лингвистическими средствами. Тем не менее, рассматривать этническую культуру и национальный язык как однородную структуру нецелесообразно. В процессе понимания теории Н. Толстого мы пришли к этому убеждению. Толстого о характере этнической культуры как пласта. Ученые отметили, что сравнение языковых и культурных явлений позволяет выявить определенный изоморфизм в функциональном и внутриерархическом контексте их системы. На основе фактов славянских языков и культур Н. Толстой пришел к выводу, что этническая культура включает множество подсистем (культурных слоев), каждая из которых имеет свое языковое воплощение. Согласно этой теории, этническая культура включает культуру образованного слоя («книжная, элитарная»), формой языкового воплощения которой является литературный язык: крестьянская народная культура», формой реализации которой является язык фольклора, территориальные диалекты; промежуточная культура («третья» культура), языковым выражением которой является городской народ и традиционно техническая культура, отраженная в языке сельского хозяйства и торговли. Поэтому этническая идентичность реализуется по-разному, оставаясь единой, скрепленной национальным языком [5: с.16-17].

Принимая во внимание все эти принципы, мы можем резюмировать следующее: Для достижения этой цели необходимо решить следующие задачи:

1. Выявление особенностей понимания соответствующего термина в элитарной культуре для проведения лексикографического анализа слова.
2. Отслеживание динамики семантической структуры слова, изучение его этимологии и современного использования речи.
3. Моделировать производное поле слова, определите путь «приращений семантики слова».
4. Описать общее понимание соответствующего выражения, включенное во фразеологические единицы языка.
5. Создать круг понятий в народных и элитных культурах, связанных со значением этого термина.

Лингвокультурология- как молодая научная дисциплина открывает широкие перспективы для исследования основных концепций культурных концепций, изучение которых позволяет проникнуть в основы убеждений людей, выявить их духовные ценности и национальную самобытность.

#### СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Е.С.Кубрякова, 1995, (с. 212). «Когнитивная лингвистика».
2. В.В. Воробьев, 1997, (с.12). «Лингвокультурология». (Теория и практика).

3. А.Т.Хроленко А.Т., 2000, (с.7). «Теория лингвокультурологии».
4. В.В. Колесов, 1999, (с.156) «Жизнь возникла из слова» ООО Центр “Златоуст”, 1999
5. А.Н. Толстой, 1995, (с. 16-17) «Язык и культура».
6. Ю.С.Степанов, 1997, (с.45-46) «Лингвокультурный концепт и его терминологическая система».
7. Е.С.Зиновьева 2016, (с.19-35) «Лингвокультурология: от теории к практике».

УЎК 81-13

## ЎЗБЕК ВА НЕМИС ТИЛЛАРИДА ФРАЗЕОЛОГИЗМЛАР МУВОФИҚЛИК ДАРАЖАЛАРИ ВА ОМИЛЛАРИ

*Р.Б. Сапаева, катта ўқитувчи, Урганч давлат университети, Урганч*

**Аннотация.** Мақолада ўзбек ва немис тилларидаги фразеологизмлар мувофиқлик даражалари ҳамда уларни юзага келтирувчи омиллар ҳақида сўз юритилган. Мисол тариқасида кенг ареалда тарқалган айрим иборалар ва баъзи колороним таркибли фраземалар таҳлил қилинган.

**Калим сўзлар:** фразеология, қиёсий фразеология, тўлиқ эквивалентлар, қисман эквивалентлар, фразеологик эквивалентлар, эквивалентсиз фразеологизмлар.

**Аннотация.** В статье рассматривается степень совместимости фразеологизмов узбекского и немецкого языков и факторы, их создающие. В качестве примера анализируются некоторые фразы и фразы с широкими разнообразными компонентами.

**Ключевые слова:** фразеология, сравнительная фразеология, полные эквиваленты, частичные эквиваленты, фразеологические эквиваленты, безэквивалентная фразеология.

**Abstract.** The article discusses about the important levels of phraseology in Uzbek and German languages and the factors that create them. For example, analysed some of the coloronim phrases scattered over a wide area.

**Keywords:** phraseology, comparative phraseology, full equivalents, partial equivalents, phraseological equivalents, non-equivalent phraseology.

Тўла мувофиқлик (эквивалентлик) ибораларнинг семантик, лексик, синтактик-морфологик, шунингдек, образлилик жиҳатидан мос келишидир. Турли тиллар ўртасида бир-бирига бу даражада мувофиқ келувчи иборалар миқдори унча кўпчиликни ташкил қилмайди. Хусусан, бошқа-бошқа тил оилаларига ҳамда морфологик типларга мансуб немис ва ўзбек тилларига тўла эквивалент ибораларни учратиш қийин, албатта.

Тадқиқотларда фразеологик эквивалентлар ва унинг мезонлари хусусида турли мулоҳазалар баён қилинган. Масалан, Р.П.Зоривчак тўла эквивалентликни мантиқий-мундарижавий, структур-грамматик шаклланиш, бир хил денотативли ҳамда функциональ-стилистик ва экспрессив-эмоционал коннотацияли бирликлар ташкил қилади, деб ҳисоблайди [1:20]. Ғ.Саломов наздида контекстан қатъи назар бир ёки бир неча тилда бир-бири билан мувофиқ келувчи фразеологизмларни эквивалент санаш мумкин [2:20]. Олимнинг ушбу фикрларини бошқа асарларидаги бир неча мисоллар орқали ҳам яхшироқ тушунамиз: “Рус тилида яхши гапни ҳам тил гапирди, ёмон гапни ҳам тил гапирди” деган маънода *язык без костей* деган идиома ишлатилади. Ўзбек тилида ҳам тилнинг суяги йўқ деган фразеологик ибора борлигини биламиз. Худди шу иборани озарбайжон тилида ҳам топамиз. Унинг татар тилида ҳам борлиги маълум. Олим бундай ҳолда уларнинг қайси халқ мулки, уни ким биринчи бўлиб яратгани хусусида адолатли хулоса ҳам чиқарган: “...бу иборани шундай иборага эга бўлган халқларнинг ҳаммаси ҳам биринчи бўлиб яратганлар” [3:99].

О.П.Иванова фразеологик эквивалентликнинг қурилма, образлилик, валентлик, ҳиссий ва услубий бўёқ каби таркибий қисмларини мавжуд бўлиши лозимлигини таъкидлайди [4:22]. Яна бир муҳим мулоҳазани Ё.Ф.Арсентьева билдирган бўлиб, умумий сигнификатив-денотатив маъно, функциональ-стилистик ва эмоциональ-экспрессив коннотация, структур-грамматик ҳамда компонент таркибга эга бўлган бирликлар тўла эквивалентли фразеологизмлар саналади [5:98]. Олима фикрларини инглиз ва рус тилларидаги *Promethean fire – прометеев огонь; long tongue – длинный язык* бирликларини юқоридаги мезонларга солиш орқали асослайди. Фолдес Ксаб ҳам шунга яқин мулоҳаза юритиб, бир-бири билан қурилиши, денотатив ва коннотатив, эмоциональ-экспрессив, услубий ҳамда таркибий қисмлар занжири жиҳатидан умумийликка эга бирликлар тўла эквивалент саналишини қайд этади [6:112]. Рус ва немис тиллари мисолида бунга қуйидаги фразеологик бирликларни келтиришимиз мумкин: *Бедность не порок – Armut ist keine Schande; биться как рыба об лед – sich abmühen wie der Fisch auf dem Trocknen; быть на седьмом небе (парить на седьмом небе) – auf Wolke sieben sein, auf Wolke sieben schweben (сўзлашувда); Вилами на воде писано – Das steht noch in den Sternen; Vom где собака зарыта! – Da liegt der Hase im Pfeffer! (сўзлашувда); Голодный как волк – Einen Bärenhunger haben.*

О.Д.Добровольский ибораларни бу жиҳатдан даставвал қуйидаги қисмларга бўлади:

I. Тўлиқ эквивалентлар.

II. Қисман эквивалентлар.



III. Фразеологик эквивалентлар.

IV. Эквивалентсиз фразеологизмлар[7:530].

Олим тўла эквивалентлар мезони ва талабларини нисбатан осон ҳамда ихчам ифодалайди. Яъни тўла эквивалентлик бирор тил ( $L_1$  шартли белгиси билан берилган) иборалари иккинчи бир тил ( $L_2$ ) иборалари билан зухур этган маъно, синтактик, лексик ва зоҳирий шакл жиҳатидан мос келишидир. Масалан, русча *играть с огнем* – инглизча *top play with fire*; русча *буря в стакане воды* – немисча *ein Sturm im Wasserglas*; инглизча *to put one's hand into the fire (for sth.)* – немисча *seine Hand ins Feuer legen (für etw.)* Шунингдек, бир умумий манбадан келиб чиққан фразеологик бирликлар ҳам тўлиқ эквивалентлар саналади: инглизча *to rest on one's laurels* – немисча *auf seinen Lorbeeren ausruhen*-русча *почивать на лаврах* каби.

Айрим ҳолларда фраземаларнинг бир-бири билан мувофиқлик доираси ниҳоятда кенг бўлиши кузатилади. Масалан, ўзбекча *пашиадан фил ясамоқ* ибораси ареалини қуйидагича кўришимиз мумкин:

Немисча: *aus einer Mücke einen Elefanten machen.*

Русча: *делать из мухи слона.*

Инглизча: *make a mountain out of a molehill.*

Данча: *gøre en myg til en elefant.*

Эстонча: *teha sääsest elevant.*

Финча: *tehdä kärpäsestä härkänen.*

Французча: *faire une montagne d'une taupinière.*

Юнонча: *κόνω την τρύχα τρύχιά.*

Исландча: *gera úlfalda úr múflugu.*

Италянча: *fare di una mosca un elefante.*

Нидерланча: *van een mug een olifant maken.*

Форсча: *از کاه کوهی ساختن.*

Поляк (лах) тилида: *robić z igły widły.*

Руминча: *a face din țânțar armăsar.*

Шведча: *göra en höna av en fjäder, göra elefanter av myggor*

Словкча: *robiť z komára slona.*

Словенча: *delati iz muhe slona.*

Испанча: *hacer una montaña de un grano de arena, hacer de una pulga un elefante.*

Чехча: *dělat z komára velblouda*[8].

Кўриниб турибдики, мазкур фразема келтирилган тилларнинг катта кўпчилигида тўла эквивалентлик мавжуд. Форс тилида берилган *از کاه کوهی ساختن* – “аз коҳ куҳе сохтан” ибораси айнан “сомондан тоғ ясамоқ” маъносини беради. Лекин форс тилида ушбу иборага айнан мувофиқ келувчи *از جعل من الحبة قبة* – “жаъала минал-ҳиббати қуббатан” айнан *битта дондан минора ясамоқ* маъносини беради[10:549]. Бу ўринда арабча иборанинг испан тилидаги ифодага бир қадар яқин келишида ибора таркибидаги компонентларнинг моддий қиёфаси, яъни товуш таркиби ўрни бор, шубҳасиз. Араб тилидаги *ҳибба* (битта дон) ва *қубба* (минора); испан тилидаги *montaña* (тоғ) ва *grano* (дон) сўзлари мисолида ушбу фикр исботини кўришимиз мумкин. Шу тарзда қариндош ёки қариндош эмаслигидан қатъи назар турли тиллар семантик структураси қиёси фраземаларнинг шаклий ва мазмуний мувофиқ ёки ўзгачалиги сабабларини изоҳлашда қўл келиб, мавжуд омилларни шарҳлашда ёрдамлашади. Семантик структура деганда, одатда, у ёки бу сўзнинг иерархия шаклида ташкил бўлган лексик-семантик вариантлари назарда тутилади. Сўзнинг семантик структурасига ўша сўзнинг бошқа сўзлар билан парагматик ва синтагматик муносабатлари, унинг сўз ясалишдаги фаоллиги ва экспрессив оттенкалари киради. Шу ўринда бу меъёрлар асосида немис ва ўзбек тилларида қўлланган асосий ранг номларининг семантик-структур хусусиятлари қиёсий таҳлили жараёнида ўша сўзларнинг ҳар икки тилда семантик жиҳатдан бир-бирига эквивалент бўлган ва бўлмаган ўринлари таҳлили ва ифода йўллари солиштиришни мақсадга мувофиқ деб биламиз. Аслида ҳар икки ёндашув бир-бирини тўлдиради, кенгайтиради ва ранг номларига тизимли ёндашувни акс эттиради. Немис тилида ранг номлари, уларнинг хусусиятларига оид кўплаб ишлар амалга оширилган[11]. В.П.Жешко немис тилидаги асосий ранглар сифатида *rot* – қизил, *schwarz* – қора, *gelb* – сарик, *weiß* – оқ, *braun* – жигарранг, *grau* – кулранг, *grün* – кўк, *blau* – мовий рангларни санаб, бошқа рангларни иловалар сифатида қайд этади. Ю.В.Зольникова лексикографик манбалар асосида рус ва немис тилларидаги ранг таркибли фразеологик бирликларни пухта таҳлил қилган[12:23]. Олима рус тилидаги “олам” ва немис тилидаги “Licht” концептини ҳам қизиқарли фактлар орқали очиб берган[13:108-110]. Ю.В.Зольникова диссертациясининг тўртинчи боб биринчи бўлимида рус тилидаги 397, немис тилидаги 448 та колороним таркибли фраземаларни

рангларга нисбатан статистикасини ишлаб чиқади[12:18]. Масалан, *оқ ранг* таркибли фраземалар рус тилида 22 фоизни (биринчи ўринда), немис тилида эса 9 фоизни (иккинчи ўрин), *қора ранг* эса рус тилида 21 фоизни (биринчи ўрин), немис тилида эса 19 фоиз (иккинчи ўрин)ни ташкил қилади. Бир қарашда мазкур рақамлар ҳеч нарсани ҳал қилмайдигандай туюлса ҳам, биринчи навбатда, ҳар иккала тилда колоронимлар миқдори катта фарқ қилмаса ҳам, оқ ва қора ранг ифодаловчи фраземалар миқдори ва уларда колороним улуши фарқ қилиши бир оз мулоҳазага ундайди. Бунга жавобан айтганда, колоронимлар ҳам миллат тафаккур тарзини яққол акс эттирувчи фаол бирликлар қаторида туради. Масалан, рус тилида *оқ* ва *қора* ранг ифодаловчи компонентли фраземаларнинг бошқаларига нисбатан кўпроқ ишлатилиши рус характеридаги кескинлик, хиссиёт устуңлиги каби жиҳатларни ёрита олади.

Ранг номларининг семантик структурасига назар солсак, оқ тусга мувофиқ лексик бирликлар ҳар икки тилда “қор”, “сут”, “бўр” денотатларининг характеристикасига уйғун келадиган *ein weißes Tisch Tuch-оқ дастурхон, eine weiße Fahne-оқ байроқ*, – “очик”, “оқ (баёз)”, “порлоқ” маъносини билдиради: *weißer Wein; оқ шароб*. “Оқ” маъносида бу сўз, шунингдек, инсон тери рангини ёки унинг қайси ирққа мансуб эканини билдиради: *ein weißer Mann, weißhäutig* – оқ, оқюзли, оқтанли; шунингдек, “покиза” маъносини билдиради, бу ҳолда “оқ” ва “тоза” маънолари бири-бири билан боғлиқлиги сезилиб туради: *ein weißes Hemd* – оқ кўйлак; мазкур колороним “тоза”, “нуқсонсиз”, “виждонли”, “номусли” маъноларини ҳам билдирадигани, буни турли типдаги ҳамда турли минтақаларда тарқалган тиллар материалларида ҳам кўришимиз мумкин. Бу борада Д.Юлдашевнинг оқ ва қора рангларнинг атоқли отлар таркибидаги маънолари таҳлилига оид фикрлари эътиборга молик[14:138-140]. А.А.Глашевнинг хазар тилидаги оқ ва қора колоронимларининг маъно тарққиёти ва ифодалари ҳақидаги аксар фикрлари ўзбек тили, хусусан, унинг топонимия ҳамда фразеологияси учун ҳам хосдир[15:82-88]. О.Ғафуров ишларида *қора* колоронимининг туркий халқлар антропонимиясида *буюк, катта, улуғ* каби маъноларни англатиши қайд этилган[16:142]. Қора ранг номининг конататив маънолари хусусидаги ишлар, хусусан, И.Ҳаққул ва С.Очил ўртасидаги мунозаралар кўпчиликнинг ёдида бўлиши керак[17].

Дунёнинг кўплаб халқлари каби немисларда ҳам оқ ранг поклик, самимият, шодиёна ранги сифатида қаралади. Шу қараш билан боғлиқ қатор иборалар ҳам шаклланган. Масалан, *weißer Sonntag* – оқ якшанба, яъни Пасхадан кейинги биринчи якшанба. Рус тилида *Кровавое воскресенье, Красное воскресенье, Фомино воскресенье, Антипасха, Радостное воскресенье*; белорусча *Ярылавіца, Фаміна нядзеля, Хамова нядзеля, Правадная нядзеля*; украин тилида *Красна гірка, Ляля*; серб тилида *Антипасха, Мали васкр, Томина недељ*[18]. Бу ерда рус ва немис тафаккурида бир хил ҳодиса турли ранглар орқали идрок этилади, унинг тимсоли икки халқ тафаккурида икки хил жилоланади. Бундай ҳолатда яна бир жиҳатга эътибор қаратиш лозим: баъзан бир хил колороним таркибли бир хил иборалар турли тилларда ўзгача оҳанг ва маъно касб этиши мумкин. Масалан, рус тилида *белая ворона* ибораси “бирор муҳит учун бегона, бошқалардан ажралиб турадиган одам” [19:61] маъносини билдирса, немис тилида *ein weißer Rabe* камёб, ноёб, нодир маъноларини англатади. Кўринадики, рус тафаккурида *қарға* сўзига сифат бўлган *оқ* бу қушнинг ранги одатда қора бўлиши эътибори билан, немис тафаккурида эса қарғанинг оқ ранглиси ўта камёб бўлгани боис қайд этилган иборалар юзага келган. Немислардаги оқ қарға ибораси ўзбек тилидаги бошқа бир орнитоним таркибли *анқонинг уруғи* иборасига мос келади. *Оқ қарға* ибораси лотин тилидаги *Albus corvus* айнан таржимаси бўлиб, Рим сатирик шоири Децим Юний Ювеналнинг еттинчи сатирасида учрайди. [20]

Шу билан бирга оқ рангнинг немис тилида ҳам, бошқа кўпгина тилларда ҳам холис, соф каби маънолари бор. Бу ҳолни ўзбек тилида ҳам кўриш мумкин. Масалан, Хоразм воҳасида *оқ товба, қара товба (оқ тавба, қора тавба)* деб қасам ичиш бор. Бунда оқ мутлак, қора қатъий маъноларини англатади. Оқ ранг ҳамшиша ижобий маъно касб этувчи ёки ҳаётнинг ёрқин томонларинигина рамзи эмас. Масалан, унинг салбий маъно отенткалари ҳам борлигини рус тилидаги айнан “оқ жигар” маъносини ифодаловчи *белая печень* ибораси кўрқоқ, *показать белое перо* (мағлуб бўлмоқ). Хоразмда шум қадам, хосиятсиз маъноларида *оқ оёқ* ибораси мавжуд. Лекин ундаги оқ оқпадар сўзи, оқ бўлмоқ қўшма феъллари таркибидаги аслида арабча бўлган ота-онани норози қилиш (уқук) маъносидаги *оқ* бўлиши ҳам мумкин. Ўзбекча *оқ* ва арабча *оқ (оқ бўлмоқ)* буткул бошқа сўзлар эканини уларнинг тарихий шакли ҳам яққол кўрсатади: *оқ* أبيض – *оқ* عاق .

Ўзбек тилида *оқ* сўзи бу ҳолда “хурматли”, “ёши улғ”, “тажрибали” сифатида *weißhaarig, weißbärtig*– сочи оқ, оқсоқол. Бу борада қариндошлик тилларда шаклланган иборалар ҳамда идеомалар асосида шаклланган лексемаларда доимо ҳам яқинлик бўлавермайди. Масалан, ўзбек тилида оқсоч умуман бошқа маънодаги лексема ҳосил қилса, озарбайжон тилида *ағсаҷли* сўзи *мўйсафид* маъносини англатади[21:13]. Мўйсафид сўзининг ўзи ҳам айнан *соч* маъносидаги *мўй* ва *оқ* маъносидаги *сафид* сўзлари бирикмасидан ҳосил бўлган. Қардош тиллардан озарбайжон тилида оқ ранг номи бошқа маъноларда ҳам ишлатилади. Масалан, “бахтли”, “бахтиёр” маъносида *ағ гўн ағардар, қара гўн қаралдар*. “Ҳаддан ташқари”, “муболағали”, “очикчасига” маъноларида: *оқ ёлгон, оқ бўҳтон*; “кўрқоқ”, “жасоратсиз” маъноларида: *оқбағир, оқжигар*. Туркий тилларда, “оқ” сўзи “катта”, “муҳташам” маъноларда ҳам ишлатилади. Албатта, *Оқдара, Оқтом, Оқтош* топонимларидаги *оқ* элементи ҳам айни

“катта” сўзининг семантикасига уйғун келади. Ўша сўз мажозийлашиб, рамзий маънолар касб этиб бахтли сўзининг маъноси билан тенглашиши билан ҳозирги ўзбек тилида кенг миқёсда қўлланади. Қиёсласак, ҳар икки тилда оқ ранг номи билан бир қанча турғун қўшилмалар борки, буларда оқ сўзи турли маъноларда ишлатилади: *weiße Kohle, jemand ist ein weißer Rabe, keine weiße Weste haben, weiß wie die Wand* ва шу қабилир.

Кўринадики, ўзбек ва немис тилларидаги ибораларнинг қиёсий антропоцентрик тадқиқи ҳар иккала халқ тили ва тафаккурини қиёсий ўрганишда муҳим соҳа саналади.

#### ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Зоривчак Р. П. Фразеология писателя как проблема перевода (на материале переводов поэтических произведений Т.Г.Шевченко на английский язык): автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Киев, 1976.
2. Саломов Г. Лексико-фразеологические вопросы художественного перевода. (Принципы перевода пословиц, поговорок идиом с русского на узбекский язык): автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1964.
3. Саломов Г. Рус тилидан ўзбек тилига мақол, матал ва идиомаларни таржима қилиш масаласига доир.– Тошкент: Ўзбекистон Фанлар академияси нашриёти, 1961.
- 4.Иванова, О. П. Русские наречные фразеологизмы и их соответствия в английском языке: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Новосибирск, 1979.
5. Арсентьева Е.Ф. Сопоставительный анализ фразеологических единиц – Казань. 1989.
- 6.Талабов Т.С. Сопоставительный анализ фразеологических единиц таджикского и немецкого языков ( на материале повести С.Айни «Смерть ростовщика») дис. ... канд. филол. наук: Душанбе, 2015.
7. Добровольский О.Д. Беседы о немецком слове. – М.: Языки словянской культуры, 2003.
- 8.[https://de.wiktionary.org/wiki/aus\\_einer\\_M%C3%BCcke\\_einen\\_Elefanten\\_machen](https://de.wiktionary.org/wiki/aus_einer_M%C3%BCcke_einen_Elefanten_machen)
9. Гафарова К.Т. Сопоставительный анализ фразеологических единиц с зоонимами и фитонимами в таджикском, немецком и русском языках: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 2007.
10. Иброҳимов Н. ва бошқалар. Ал-комус. Арабча-ўзбекча комусий луғат. II жилд.– Тошкент: Гафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017.
- 11.Жешко В.П. Цветообозначения в современном немецком языке как объект исследования в этнолингвистике // Электронный ресурс Интернет: <http://ebooks.grsu.by/philologos/zheshko-v-p-tsvetooboznacheniya-v-sovremennom-nemetskom-yazyke-kak-ob-ekt-issledovaniya-v-etnolingvistike.htm>.
- 12.Зольникова Ю. В. Цветовые фразеологизмы как фрагмент идиоматической картины мира русского и немецкого языков (на материале лексикографических источников: – Тюмень, 2010.
13. Зольникова Ю. В. Русские и немецкие пословицы как лингвокультурологические единицы (на материале русского концепта «СВЕТ» и немецкого концепта «LICHT») // Лексические и грамматические категории в свете типологии языков и лингвокультурологии: материалы Всероссийской науч. конф. – Уфа: РИЦ БашГУ, 2007.
14. Юлдашев Д. Т. Атоқли отларнинг антропоцентрик тадқиқи. Филол. фанлари док-ри (DSc) дисс... Тошкент, 2021.
- 15.Глашев А.А. Слово кара / ҳара и его значения в хазарском языке // Российская тюркология, №1. 2013.
- 16.Гафуров А. Имя и история. –М.: Наука, 1987.
- 17.Хаққулов И. Қора ранг – муборак ранг // Муаллифнинг “Занжирбанд шер қошида” китоби. – Тошкент, 1989. ; Очил С. Орзулар кўкидаги шафақлар. – Тошкент, 1993.; Иброҳим Хаққул. Қора ранг ҳақида // <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/ibrohim-haqqul-yana-qora-rang-talqini-haqida.html>
18. [https://ru.wikipedia.org/wiki/Красная\\_горка\\_\(праздник\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/Красная_горка_(праздник))
- 19.Русча-ўзбекча луғат. Тошкент: Ўзбек Совет Энциклопедияси Бош редакцияси, 1983.
- 20.[https://dic.academic.ru/dic.nsf/dic\\_wingwords/164/Белая](https://dic.academic.ru/dic.nsf/dic_wingwords/164/Белая)
- 21.Cabarova A.Q. Müxtəlif sistemli dillərdə rəng adlarının semantik-struktur xüsusiyyətləri (alman və Azərbaycan dillərinin materialları əsasında) Filologiya üzrə fəlsəfə doktoru elmi dərəcəsi almaq üçün təqdim olunmuş dissertasiyanın avtoreferatı, Bakı – 2015.

УЎК 808.3

## Ч. ДИККЕНСНИНГ “ДЭВИД КОППЕРФИЛЬД” АСАРИДА “ТАРБИЯ РОМАНЛАРИ” ГА ХОС ХУСУСИЯТЛАР ТАҲЛИЛИ

З.Т. Сафарова, ўқитувчи, Бухоро Давлат Университети, Бухоро

**Аннотация.** Инглиз адабиётининг буюк ёзувчиси Чарльз Диккенс етим болалар ҳаёти ва кечинмаларини тасвирлайдиган асарлари билан машхур. Ушбу мақолада муаллифнинг “Дэвид Копперфильд” асаридаги тарбия романлари элементлари тасвири таҳлил қилинади.

**Калит сўзлар:** Чарльз Диккенс, роман, етим, етимлик, тарбия романлари, автобиография, бош қаҳрамон.

**Аннотация.** Великий писатель английской литературы Чарльз Диккенс известен своими произведениями, описывающими жизнь и переживания детей-сирот. В данной статье анализируется изображение элементов воспитательных романов в его известном произведении “Дэвид Копперфильд”.

**Ключевые слова:** Чарльз Диккенс, роман, сирота, сиротства, воспитательный роман, автобиография, главный герой.

**Abstract.** *The great writer of English literature Charles Dickens is well-known for his works describing the life and experiences of orphan children. The following article analyses the depiction of the elements of Bildungsroman novels in authors' masterpiece "David Copperfield".*

**Key words:** *Charles Dickens, novel, orphan, orphan hood, Bildungsroman, autobiography, main hero.*

Атоқли инглиз ёзувчиси Чарльз Диккенснинг “Дэвид Копперфильд” асари таржимаи ҳол тарзида ёзилган бўлиб, адиб унда ўз даврининг ижтимоий зиддиятларини бош қахрамон ҳаёти ҳамда унинг орзу-умидлари мисолида маҳорат билан ёритиб берган. Ёзувчи ижодига мансуб бошқа кўпгина романлари сингари бу асар ҳам етимлик мавзусини четлаб ўтмаган. Ушбу мақола асардаги етимлик ва етим образнинг ички кечинмалари тасвирини ҳамда унда мавжуд бўлган тарбия романларига хос хусусиятларни таҳлилга тортади.

Маълумки, тарбия романлари (bildungsroman) бош қахрамоннинг ёш болалик давридан то вояга етиб жамиятда ўз ўрнини топгунигача, яъни мустақил шахс сифатида шаклланишигача бўлган ҳаёт йўлини акс эттиради. Бундай усулда ёзилган энг машҳур инглиз романлари сифатида Ч.Диккенснинг “Катта умидлар”, Г.Фильдингнинг “Том Жонс топилдиқ тарихи”, Ш.Бронтенинг “Жейн Эйр”, Ж.Жойснинг “Мусаввирнинг ёшликдаги портрети”, Д.Г.Лоуренснинг “Ўғиллар ва Жазманлар” [9,4] каби дурдона асарларни санаб ўтиш мумкин. Айнан шу китоблар дунёни ўзгартирган, вақт чиғирғидан ўтган асарлардир. Улар қаторида “Дэвид Копперфильд” асарини ҳам таъкидлаб ўтиш лозимки, ўз вақтида буюк рус ёзувчилари Толстой ва Достоевский ҳам романдан қаттиқ таъсирланганларини ёзишган [10]. Ҳатто, муаллифнинг ўзи бу китоб ўзининг 15 та романи ичида энг севимлиси эканлигини айтиб, Дэвиднинг бахтсизликларини-синовларига нисбатан кучли алоқадорликни ҳис қилишини, асар унинг ҳиссиётларини жунбушга келтиришини бир неча бор эътироф этган [10].

Маълумки, етим образлар ҳам оғзаки, ҳам ёзма болалар адабиётида тез-тез учраб туради [4,1]. Айниқса, қиролича Виктория ҳукмронлиги даврида Чарльз Диккенс ўз романлари орқали инглиз адабиётидаги энг машҳур етим образларни яратишга муваффақ бўлди. Бундай образларни унинг деярли барча асарларида учратиш мумкин. Уильям Мейкпис Теккерей Диккенс романларига таъриф бериб, унинг етим образлар яратишдаги “аъло қобилият” соҳиби эканлигини таъкидлаб ўтади [8].

Ўша даврда яратилган бошқа ёзувчиларнинг асарлари билан солиштирганда Диккенс романлари ҳаётнинг энг долзарб, нозик нуқталарини ёритиб берганлиги билан ажралиб туради. Фикримизни далиллаш сифатида ҳинд олими Б.П. Чаудхури (1992) Чарльз Диккенс ҳақида айтган қуйидаги жумлаларни келтириш мумкин:

*Dickens has a unique position in English literature for his special form of self-expression in prose, fiction. Dickens's artistic method, his choice of material and his manner of rendering that material, is Dickens's style.* [10,32] (Диккенс Инглиз бадий адабиётида ўзига хос ифода услуби билан алоҳида ўрин эгаллайди. Диккенснинг бадий усули, материал танлаши ва бу материални ифодалаш тарзи унинг оригинал услубини ташкил қилади.)

Асарни ўқир эмасмиз, унда адиб ҳаётида содир бўлган бир қатор реал воқеаларнинг ўз аксини топганини кўриш мумкин, аниқроқ қилиб айтганда, Дэвиднинг Мурдстоун ҳамда Гринсби омборхоналарида бошидан кечирганлари Диккенснинг Уоррен поябзал фабрикасида ўтказган кунлари билан деярли бир хил. Ягона фарқ шундаки, Диккенс отасининг ўрнида Жаноб Микобер исми ишлатилган. Дэвид ҳам ўғай отаси туфайли эрта ёшидан ишлашга мажбур бўлади ва айнан ўша қийинчиликларнинг гувоҳи бўлади. Бобур Наби айтганидек, Диккенс бешафқат кечган болалик йилларини “Дэвид Копперфильд” автобиографик романида ниҳоятда таъсирли қилиб қуйидагича тасвирлайди:

*“Менинг на маслаҳатгўйим, на насиҳатгўйим, на руҳлантирувчим, на кўнгилга таскин берувчим, на менга ёрдам берувчи ва на мени қўллаб-қувватловчи одамим бўлган, умуман, мен ҳеч кимдан мурувват кутмаганман, гўё Арига кетаётгандек ёлғизланиб қолганман”.* [5,187]

Диккенс мазкур асарда нафақат етим болаларнинг машаққатли ҳаётини, балки, ўша даврдаги таълим, ижтимоий ишчи қатлам ва камбағаллик масалаларини ҳам муваффақиятли ёритишга эришди. Таҳлиллар шунини кўрсатадики, Диккенснинг “Оливер Твист”, “Катта Орзулар” ҳамда “Дэвид Копперфильд” асарларидаги бош қахрамонлар шаклланиши ва воқеалар ривожидида муштаракликлар мавжуд. Бу протогонистларнинг барчаси ё жамиятнинг ё атрофларидаги одамларнинг адоласиз муносабатларига гувоҳ бўлишади. Шундай бўлса-да, улар ҳаётлари давомида узоқ қариндошларидан, баъзида ҳатто мутлақо бегона кишилардан қутилмаган кўмак олишади. Ёзувчи бу билан жамият бутунлай разолатга ботмагани, меҳрибон ва инсофли одамлар ҳам мавжудлигини кўрсатиб беради. Ўз асарлари орқали адиб жамият вакиллари қалбида инсонпарварлик руҳини уйғотишни ният қилади, уларни тарбиялай олишига ишонади. Виржиния Вулф Диккенс романларига қуйидагича таъриф беради: *“Диккенсни ўқиганимизда руҳий жиҳатдан ўзимизни яна қайта поклангандек бўламиз. У аниқ ва муқаррар бўлмаган, деталларда учрамайдиган қахрамонларни яратди, лекин унинг ёввойи қалами ажабтовур, ўзига хос образларни кашф этдики, уларни илғамасликнинг иложини йўқ эди”* [5,188].

Дарҳақиқат, Ч.Диккенснинг тарбия романлари дидактик хусусиятга эга бўлиб, инсоннинг маънавий-ахлоқий шаклланишига таъсир этувчи жамиятнинг конструктив ва деструктив механизмларини очиш имконини беради [6,5].

Гарчи Дэвид Копперфильд асари бош қаҳрамони Дэвиднинг отаси у туғилганидан олти ой ўтиб вафот этган бўлса-да, Оливер ва Пипдан фарқли ўлароқ у болалик даврини онаси билан бахтли ўтказади, аммо, Дэвид етти ёшга тўлганида онаси ёвуз ва жоҳил одамга турмушга чиқади ва бу бахтли кунлар якун топади. Шундан сўнг, қийинчиликлар гирдобидида қолган қаҳрамон бутун ҳаётини *жамиятда ўз ўрнини топиш* учун курашиб ўтказади [7,221]. Бу кураш тарбия романларининг энг муҳим жиҳатларидан биридир. Етимлик ҳақидаги бошқа романлар сингари Дэвид ҳам ўғай отасининг золимлигидан азият чекади. Жаноб Мурдстоуннинг шавқатсиз муносабати тасвири келтирилган кўйидаги мисраларда ўғай отанинг қанчалик раҳмсиз эканлигини кўриш мумкин:

*I caught the hand with which he held me in my mouth, between my teeth, and bit it through. It sets my teeth on edge to think of it. He beat me then, as if he would have beaten me to death. Above all the noise we made, I heard them running up the stairs, and crying out -I heard my mother crying out -and Peggotty. [3,45]*

Бечора болани қаттиқ қалтқалаб бўлгач, уни аянчли аҳволда қолдириб, хонани қулфлаб чиқиб кетади. Ёзувчи бу изтиробларни шундай моҳирлик билан тасвирлайдики, воқеалар китобхон кўз олдида жонлангандек бўлади:

*Then he was gone; and the door was locked outside; and I was lying, fevered and hot, and torn, and sore, and raging in my puny way, upon the floor. [3,45]* (Кейин у кетди; эшикни ташқаридан қулфланган эди; Мен эса иситмадан титраётган, жароҳатлари зиркираётган ҳолда полда ётардим.)

Бош қаҳрамон тўққиз ёшга тўлганида онасидан ҳам ажралиб, бутунлай етим бўлиб қолгач, қийинчиликлар янада кучаяди. Шу даврдан бошлаб, Дэвиднинг нақадар ёлғиз ва ҳимояга муҳтож эканлигини ҳис қилиш мумкин. Ўғай отанинг зулми кундан-кунга ошиб борар, бола ўзини гўё бутун оламда ёлғиздек ҳис қиларди. Жаноб Мурдстоун меҳр-шавқат нималигини билмай, уни оғир меҳнатлар қилишга мажбур қилади. Кўйидаги парчадан кўриниб турибдики, ўғай отаси Дэвидни ўқитиш ўрнига уни пул топиб келишга мажбур қилган:

*You have received some considerable education already. Education is costly; and even if it were not, and I could afford it, I am of opinion that it would not be at all advantageous to you be kept at a school. That is before you, is a fight with the world; and the sooner you begin it, the better [3,134].* (Сен аллақачон етарли таълимни олиб бўлдинг. Таълим олиш анча қиммат; нима бўлганда ҳам сени ўқитишга қурбим етмайди, ўйлашимча сени мактабда қолдиришнинг ҳеч қандай афзаллиги йўқ. Олдинда бу дунё билан кураш турибди, ва уни қанча тез бошласанг шунча яхши.) Ўғай ўғлидан шу баҳона билан қутулишни истаган жаноб Мурдстоун Дэвидни Мурдстоун ва Гринсби оғирликларида ишлашга юборади. Бирок, доимий оч бўлишига қарамай хўжайинлари томонидан қаттиқ меҳнат қилишга мажбурланган бола, қочиш йўлини қидиришга тушади. Айтиш жоизки, адиб ёшлигида иш излаб юрган кезлари Лондон кўчаларида ўзи гувоҳ бўлган ноҳақликларни оғирликларидаги ҳаёт мисолида тасвирлаб берган. Ниҳоят, Дэвид ўз ҳаёт йўли, ўз тақдирини излаб, бу золим макондан қочиш кетади. Қочқинлик даври эса асарда тарбия романларига оид яна бир хусусият мавжудлигини кўрсатиб беради.

Асарнинг кейинги воқеалари Дэвидга маълум ягона қариндоши, отаси томонидан катта аммаси, меҳрибон ва раҳмдил Бетси Тротвуд билан боғлиқ. Аммаси билан бир неча йилни хотиржамликда ўтказган Дэвид унинг қўллаб-қувватлаши билан яхшироқ мактабда ўқийди ва сифатли таълим олиш имкониятига эга бўлади. Асар сўнггида қийинчиликларни енгиб ўтган қаҳрамон севган инсони билан оила қуриб, ёзувчилик соҳасида муваффақият қозонади ва ўз бахтини топади.

Таҳлиллардан келиб чиқиб, “Дэвид Копперфильд”ни Чарльз Диккенснинг “Катта умидлар” асари сингари яна бир муваффақиятли “Тарбия романи” (Bildungsroman) деб хулоса қилиш мумкин. Бу турга мансуб бошқа романларда бўлгани сингари, “Дэвид Копперфильд” асарида ҳам бош қаҳрамон қийинчилик ва ноҳақликларга қарамай, ўзлигини, софдил қалбини йўқотиб қўймайди.

#### ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Ahronqulov A, Rahmonqulov A. Jahon bolalar adabiyoti namoyondalari. – Farg’ona, 2012. – Б.92.
2. Холбеков М.Н. Инглиз адабиёти классиклари. Био-библиографик қўлланма. -Жиззах: ЖДПИ,2014,-88 б.
3. Charles Dickens. David Copperfield. – Москва, 1949. P. 847
4. Бобур Наби. Диккенснинг иқрори. Жаҳон адабиёти журнали, 2013, №2.
5. Махмудова Н.А. Чарльз Диккенс ижодида тарбия романи жанри типологияси: Филол. Фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. Автореф. – Тошкент, 2020.
6. Safarova Z.T. Depiction of orphan hero in Great Expectations. Monographia poconferencyjna: Science, Research, development # 33 Paris, French 30.09.2020
7. Safarova Z.T. Analysis of orphan images and orphanhood in children’s literature. Бухоро давлат университети илмий ахбороти, 2020- йил 6-сон
8. Simhachalam Thamarana. Origin and Development of Bildungsroman Novels in English Literature. International journal of English Language, Literature and Humanities, Volume III, Issue VI, August 2015 – ISSN 2321-7065
9. Ali Albashir Mohammed Alhaj. Charles Dickens’s David Copperfield: New Critical Reconsiderations. English Language and Literature Studies; Vol. 5, No. 4; 2015, ISSN 1925-4768 E-ISSN 1925-4776

10. <https://50yearproject.com/2012/01/10/woolf-and-dickens/>

УЎК 81-13

## ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТИ НИКОХ ТЎЙ МАРОСИМИ ВА УНИНГ ТАРБИЯВИЙ АҲАМИЯТИ

*К.Н. Суннатиллаев, ўқитувчи, Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти, Тошкент*

**Аннотация.** Ушбу мақолада Қашқадарё вилояти тўй маросимларининг тарбиявий аҳамияти ва ўзига хос хусусиятлари ҳақида маълумотлар берилган. Тўй – бу, оилавий маросимлар сирасига киради ва ижтимоий-маданий муҳитда катта бадиий-эстетик тарбияга эга маросим ҳисобланади. Шунингдек, Қашқадарё воҳаси тўй маросимларининг тарбиявий жиҳатларини ўрганиши ва янада такомиллаштириши юзасидан таклиф ва тавсиялар берилган.

**Калим сўзлар:** тўй, воҳа, этнография, маросим, маданият, санъат, тарбия, фольклор, маърифат.

**Аннотация.** В статье представлена информация об образовательном значении и особенностях свадебных церемоний в Кашкадарьинской области. Свадьба – это семейная церемония, которая требует большого художественного и эстетического воспитания в социокультурной среде. Также были внесены предложения и рекомендации по изучению и дальнейшему совершенствованию образовательных аспектов свадебных церемоний в Кашкадарьинском регионе.

**Ключевые слова:** свадьба, оазис, этнография, обряд, культура, искусство, воспитание, фольклор, просвещение.

**Abstract.** This article provides information about the educational significance and peculiarities of wedding ceremonies in Kashkadarya region. A wedding is a family ceremony and has a great artistic and aesthetic upbringing in a socio-cultural environment. Suggestions and recommendations were also made to study and further improve the educational aspects of wedding ceremonies in the Kashkadarya region.

**Keywords:** wedding, oasis, ethnography, ceremony, culture, art, upbringing, folklore, enlightenment.

Ўзбек халқ оғзаки ижоди ажодларимиз бадиий салоҳиятининг асрлар мобайнида тараққиёт этиш жараёнида шаклланган кудратли маънавият хазинасидир. Зукко ажодларимизнинг дастлаб воқеликка бўлган мифологик қарашлари, тафаккур доирасининг ривожланиши давомида бадиий-эстетик ҳодисага айланиб, сўз воситасида поетик ифодалашлар натижасида хилма-хил жанрлардан таркиб топган фольклор аънаналари шаклланиб, асрлар давомида халқ бадиий салоҳияти сарчашмасидан озикланиб, ривожланиб келган. Фольклор ва этнография халқимизни юксак кадриятлар руҳида тарбияловчи маънавият сарчашмасидир. Халқ оғзаки ижодиётида мужассамлашган халқона миллий ғоялар ёш авлодни маънавий комил инсонлар қилиб тарбиялашда муҳим амалий аҳамият касб этган.

Айниқса маросимлар инсонлар ҳаётининг маданий-маърифий кўзгуси сифатида хизмат қилган. Халқимиз томонидан яратилган фольклор санъати аънаналарини ривожлантириш ва янада камол топтиришда, айниқса фольклор кадриятларини жаҳонга танитишда ўзбек фольклоршунослари, санъатшунос олимлар қатори фольклор-этнографик жамоалар, аскиячи ва қизиқчилар, дорбозлар ва халқ хунармандлари, бахши-шоирлар, халфа ва жировлар улкан ишларни амалга оширмоқдалар [1: 60]. Албатта, фольклор ва этнографиямизнинг илмий-амалий жиҳатларини ўрганиш, таҳлил қилиш ва жаҳон санъати билан интеграцион жараёнини таъминлаш ёш фольклоршуносларнинг долзар масъулиятли вазифаси ҳисобланади.

Фольклор санъати қадим даврлардан халқ орасида шаклланиб, замонлар ўтиши билан сайқалланиб, профессионал илмий-амалий тадқиқот объектига айланган. Чунончи, халқ оғзаки ижоди миллий маънавиятимиз ва маданиятимизнинг негизи ҳисобланади. Фольклор-этнография санъат соҳаси билан уйғун ривожланган бўлиб, бири-бирини мукаммаллаштириб, бадиий жиҳатдан тўлдириб туради. Қашқадарё воҳаси ҳам ўзининг ранг-баранг урф-одат, маросим ва маданий тадбирлари билан бошқа вилоятлардан маълум даражада ажирлиб турган. Қашқадарё вилояти ўзининг узоқ тарихга, ўзига хос фольклор ва этнографиясига эгадир. Муҳтарам Президентимиз Ш. Мирзиёев: “Қашқадарё – қадимий ва табаррук замин, мард ва бағрикенг, меҳнаткаш ва лафзи ҳалол, ғурури баланд инсонлар юртидир. 2700 йиллик тарихга эга Шаҳрисабз ва Қарши шаҳарлари билан бутун халқимиз фахрланади. Ўрта асрларда Насаф, яъни бугунги Қарши Ислом цивилизациясига бекиёс ҳисса қўшгани учун “Мадина” деган олий мақомга сазовор бўлган. Бундай юксак мақомга Ислом оламида фақат 8 та шаҳар лойиқ кўрилган. “Илм ва дин қуббаси” номини олган Шаҳрисабздаги Оқсарой, Дорус-саодат, Дорут-тиловат каби меъморий обидалар, Темурийлар Ренессанси даврининг буюк намуналари сифатида бекиёс аҳамиятга эга [2: 1] – дея таъкилдаб ўтгани юқорида келтирган фикримизни яна бир қарра тасдиқлаб, Қашқадарёнинг тарихи, адабиёти ва санъатини теранроқ ўрганишга даъват этади. Ҳозирги кунда бу ишларни таълим-тарбия тизимида, ёшлар орасида кўпроқ олиб бориш, илмий-тадқиқот ишларини чуқурлаштириш ва тарғибот-

ташвиқот ишларини ташкил этиш, маданий-маърифий тадбирлар орқали ўзбек оғзаки ижодининг жамият ҳаётидаги ролини ошириш керак.

Фольклор-этнографиянинг ажиралмас қисми – маросимлардир. Маросимлар эса ўзида халқ оғзаки ижодини умумлаштириш орқали шаклланган. Инсонга сиҳат-саломатлик тилаш, унинг турмушида тўкин-сочинлик, кундалик ҳаётида омад келтириш ёки инсон ҳаётининг муҳим нуқталарини қайд этиш, нишонлаш мақсадида махсус ўтказиладиган, халқ орасида қатъий анъанага айланиб қолган хатти-ҳаракатлар “маросим” – дейилади. Таниқли олим Баҳодир Саримсоқовнинг таърифидан маълум бўладики, маросим халқ орасида қатъий анъанага айланган тадбир ҳисобланади. Инсон туғилганидан то ҳаётдан кўз юмгунига қадар ўнлаб маросимлар гувоҳига айланади. Гоҳида унинг марказий қаҳрамони, гоҳида иштирокчи, гоҳида оддий кузатувчи бўлади. Аммо, маросимлар ҳаётнинг ажралмас қисми сифатида ҳамisha ҳамроҳликда содир бўлаверади.

Маросим араб тилидаги “марсум” сўздан олинган бўлиб, биринчиси – чизилган; иккинчиси – расм қилинган; ўчинчиси – одат бўлган маъноларини англатади. Муайян қоидалар асосида чизилган, миллат томонидан расм қилинган ва одат тусига кирган тадбирларни эса шартли равишда уч турга бўлиш мақсадга мувофиқдир. Улардан биринчиси, оилавий маросимлар бўлиб, одатда, бирор шахс ёки оила аъзоси ҳаётидаги муҳим воқеалар муносабати билан амалга оширилади. Оилавий маросимлар иштирокчилари қариндошлар, куда-андалар, дўстлар, таниш-билишлар, қўшнилари ва маҳалладошлар иштирокида ўтади [3: turizm.kasaba.uz]. Қашқадарё вилояти тўй маросимлари ичида оилавий маросимлар сирасига кирувчи тўй маросимлари ҳам воҳада қадим-қадим замонлардан катта шодиёна билан ўтказилиши урфга айланган. Тўй-ҳаётнинг катта шодиёнаси, оила бахт-саодати ва фаровон турмуш рамзи, инсон умрининг гултожи, ҳаётнинг энг бахтли, энг қувончли дамларидир. Дунёдаги барча халқларда тўй ўтказиш удуми мавжуд. “Тўй ўзига хос ибрат олиш тантанаси. Зеро, тўй маросимида баҳамжихатлик, аҳиллик, иноқлик, иззат-иқром, меҳр-оқибат, меҳмоннавозлик каби фазилатлар ўз ифодасини топади. Инсон зотини қадрлаш, ҳурматлаш ва улуғлашда тўйлар ана шундай беқиёс қимматга эга. Ўзбек халқимизда қадимдан никоҳ тўйининг тарбиявий аҳамияти юқори бўлганлиги маълум. Ҳозирги пайтда айниқса никоҳ тўйларининг янгича, замонавий шакллари қарор топмоқда. Лекин, бунда унинг тарбиявий аҳамияти ва тарихий ривожланиш босқичлари ўзгаришларга ўшрамаслиги лозим. Унинг тарихий асослар сақлаб қолинган ҳолда, мазмунан ўзгармаслиги зарур. Тўй маънавий-маърифий тадбир сифатида ҳам алоҳида эътироф этилиши мумкин. Сабаби, унда ижод маҳсули ҳисобланган куй, қўшиқ, ҳажвий сўзлар, “тул базми” (шеърый мусобақа), миллий спорт мусобақаларидан кенг фойдаланилган.

Тўй бир кишининг шахсий хусусий иши бўлмай, у кенг жамоатчилик ташаббуси ва иштироки билан ўтадиган тантанадир. Шунинг учун тўйларни замон талаби даражасига кўтариш доимо муҳим муаммо ҳисобланади. Чунки ҳозирги пайтда тўйларни ташкил қилиш борасида кўпгина муаммолар мавжуд. Биз биринчи ўринга тўйларнинг моддий эмас, маънавий хусусиятини қўйишимиз керак. Тўғри бугунги кунда моддий эҳтиёж ижтимоий-маданий ҳаётнинг ажиралмас бир қисмига айланиб бўлди. Шунинг учун ҳам маҳаллаларда тўйнинг маънавий тарбиясини ва ҳақиқий эстетикасини асраб-авайлаш учун махсус комиссиялар ташкил этилган. Аммо, бу дегани тўйлар бўйича барча муаммолар ҳал бўлди, деган эмас. Тўйлар тарбия, оммавий тарбия қуроли эканлигини унутмаслигимиз зарур. Жамиятда маънавиятли шахсларни тарбиялашда тўйнинг маънавий аҳамияти юқоридир. Бу ҳақида У.Қорабоев кўйдаги фикрни билдирган.

“Ҳозир тўйларнинг моддий томонига кўп эътибор берилади. Аммо тўйларнинг маънавий-бадий савияси замон талабидан анча орқада қолмоқда. Тўғри, маҳалла, қишлоқ кенгашлари қошида ташкил этилган тўй комиссиялари ушбу халқ тадбирларини замон талаблари даражасида ўтказишга интиломоқда. Лекин баъзи жойлардаги комиссиялар тўйларнинг моддий ва маиший томонлари билангина машғул бўлиб қолмоқдалар холос.

Комиссия таркибига тўйнинг бадий қисмини ташкиллаштиришга ёрдам берувчи маданият марказлари ходимлари ва ижодкорларни ҳам қўшиш мумкин. Тўйнинг бадий дастурини тузиш, оммавий рақс, қўшиқларни бошқариб бориш кабиларга ёрдам бериш уларнинг асосий вазифаси қилиб белгиланиши керак. Комиссия ўзининг махсус иш режасига эга бўлиши, тўйлар махсус сценарий асосида ўтказилиши лозим. Сценарийда тўйнинг барча иқир-чиқирлари (столга нима қўйилишидан бошлаб, кимга сўз берилиши ва ким қайси қўшиқни ва бошқа бадий номерларни ижро этишигача) ўз ифодасини топмоғи керак. Чунки маълум режага мувофиқ ўтказилмаган тўй тартибсиз, файзсиз бўлади. Маданият ходимлари ёрдамида тузилган сценарий тўй комиссиясининг кенгайтирилган йиғилишида муҳокама қилиниб, тасдиқланиши муҳим аҳамиятга эга. Тўйларни ўзига хос байрам тарзида ташкил этиш, ҳар томонлама тартибга солиш, ихчамлаштириш, айниқса, бадий жиҳатдан бойитиш ҳозирги давр талабидир [4: 126]. Ҳақиқатан ҳам ҳозирда оилавий тўй маросимларини ташкил этиш билан шуғулланадиган махсус ташкилотлар фаолият олиб бормоқда. Уларнинг вазифаси эса, тўйларни широйли ва тартибли ўтказишидан иборат. Уларнинг фаолияти моддийлик билан боғлиқ бўлган бўлса да, тўйнинг маънавий жиҳатини тўй эгалари ҳал этиши зарур. Чунки, никоҳ тўйи ҳар бир кишининг

хаётида янги саҳифа очадиган, муҳим бурилиш ясайдиган энг муҳим воқеанинг тантанали нишонланишидир. У ҳар бир йигит ва қиз ҳаётидаги энг унитилмас воқеадир. Никоҳ тўйи оилавий маросимлар ичида энг йириги бўлиб, уни ташкил қилиш ва ўтказиш жараёни узок муддатни ўз ичига олади. Никоҳ тўйи билан боғлиқ одатлар, ирим, удум, расм-русумлар ҳам жуда кўпдир. Ўзбекистоннинг турли шаҳар қишлоқларида ўтказиладиган никоҳ тўйларининг умумий жиҳатлари бўлганидек, ҳар бир худуддаги тўйларнинг ўзига хос томонлари ҳам мавжуддир. Юқорида ўзбек никоҳ тўйлари уч босқичли жараён эканлигини алоҳида таъкидлаб ўтган эдик. Улар қўйидаги босқичлар:

Биринчи босқич – келин танлаш, унга совчи юбориш, нон синдириш, фотиҳа қилиш каби маросимлардан ташкил топади.

Иккинчи босқич – келинни куёвнинг ўйига олиб келиш, никоҳлаш, тўй-томоша, базм каби тадбирларни ўз ичига олади. Фольклоршунос Б. Саримсоқов таъкидлаганидек, бу босқич моҳият жиҳатидан маросимнинг энг олий нуқтаси ҳисобланади.

Учинчи босқич – никоҳ тўйидан сўнг ўтадиган – “юз очди”, “келин салом”, “куёв чақирди” кабилардан иборат. Хоразм, Бухоро, Фарғона водийси, Қашқадарё Сурхондарё воҳаси, Тошкент ўтказиладиган никоҳ тўйларида ўзига хос одатлар, удумлар мавжуд. Фарғона ва Қашқадарё тўйлари қиёсланса, улар ўртасида ўхшаш ва ўзига хос жиҳатлар борлиги ҳам аниқ билинади. Масалан, Қашқадарё тўйларининг биринчи босқичида: “қўлини сўраш”, “ковуш йиртар”, “оғиз боғланди”, “эшик очди”, “бешик кертти”, “қулоқ тишлар”, “кулча синдириш”, “фотиҳа тўйи”, “пайшанбалик”, “хайитлик”, (“байрамлик”), “қопқайтарди”, “қуда қувди”, “сават қайтди”, “тўққиз бичар”, “хордик”, “ўтин пули”, “тутун пули”, “овул пули”, “кўрпа бичди”, “кўрпа ювиш”, “пахта пули”, “сарпо бичар”, “қўл солишиш”, “қуш оши”, (“буғдой оши”), “куёв ҳашар”, “сут пули” “борлик”, “келин кесиш”, “тўққиз жўнатиш” каби удумлар мавжуд[5:19].

Қашқадарё воҳасининг тўй маросимлари негиздан ўтказиладиган бу удумларнинг ғоявий тарбияси аҳолининг миллий кадриятларини юзага чиқариш ва тарбиялашдан иборат. Никоҳ тўйлари таркибидаги удумлар бебаҳо маданий-маърифий кадрият бўлиб, у тириклик шукронаси, орзиқиб қутилган эзгу мақсадлар, шод-у хуррамликнинг рамзий ифодаси ҳисобланади. Барча худудлардаги каби, Қашқадарё вилоятининг тўй маросими ҳам учта босқичта ўтказилади. Уларнинг ҳар бири маълум тарбиявий аҳамиятга эга. Қашқадарё воҳасидаги никоҳ тўйларининг уч катта босқичи ҳақида С.Давлатов қўйидаги фикрлари билдириб ўтган.

Биринчи босқич қиз танлаш совчилар юбориш, унаштириш, фотиҳа тўйи ўтказиш каби удумлардан ташкил топган. Иккинчи босқич катта тўй, яъни келинни куёвниқига олиб келишдан иборат. Учинчи босқич юз очди, келинсалом ва куёв чақирди каби удумларни ўз ичига олади. Албатта, тўй маросими бир-икки кунда ўтадиган тадбир. Уни бадий жиҳатдан, маданий-маърифий хусусиятларини кенг ёритиб беришда Қашқадарё вилоятидаги маданий-маърифий муассасаларнинг роли ва аҳамияти катта ҳисобланади. Қашқадарё воҳаси тўй маросимларининг тарбиявий аҳамиятини саҳнавий асарлар орқали томошабинга этказиб бериш унинг таъсир кучини оширади.

Қашқадарё вилояти Муборак тумани маданият ишлари бўлимининг “Занжирсарой” фольклор-этнографик ансамблида воҳа тўй маросимларини саҳналаштириш бўйича репертуарлар мавжуд. Қашқадарё тўй маросимлари негизда саҳналаштирилган мазкур асарларнинг тарбиявий аҳамияти юқори. Энди, ансамбл фаолиятига қисқача тўхталиб ўтамиз. Саноатчилар шаҳри баҳорни Наврўзи олам билан қаршилашга одатланган. Байрам шукухи ўша кезлари шаҳарга ўзгача тароват бағишлайди. Шаҳарликлар куйга, қўшиққа эҳтиёж сезади. Шунда “Занжирсарой” фольклор-этнографик жамоаси ўзининг сержило кўшиқ ва рақслари, саҳнавий кўринишлари билан уларнинг жонларига оро қиради, шаҳар баҳорий гўзаллик билан янада уйғунлашади. “Занжирсарой” фольклор-этнографик ансамблининг тарихига назар ташласак, у 1995 йил Муборак туманидаги иккинчи маданият уйи қошида ташкил топган. Унинг номи бевосита туман тарихи билан боғлиқ. Ансамбл “Муборак мадҳи”, “Қулов”, “Чўпон қўшиғи”, “Нон тами”, “Совчилик – элчилик” (тўй маросимларининг тарбиявий аҳамиятини кўрсатиб берувчи), каби қўшиқлари билан эл оғзига тушди. Жамоа 1996-1997 йилларда Тошкент шаҳрида ўтказилган Наврўз тантаналарида халқ куйлари ва термаларини, воҳанинг ўзига хос миллий кадриятларини ва удумларини маҳорат билан ижро эта билдики, кейинчалик бу қўшиқ ва рақслар мамлакат миқёсидаги юксак саҳналарда ҳам намойиш этилди. 1999 йил Урганч шаҳрида Жалолиддин Мангуберди таваллудининг 800 йиллиги тантаналарида жамоа ўзининг янги репертуарлари билан қатнашиб, хорижлик меҳмонларнинг ҳам ҳайратини оширди.

Халқ оғзаки ижодиёти қайнар булоққа ўхшайди. Тарбиявий асослари негизда эса, аллақачон тарбиявий мактаб яратилган. Унинг қатларидан минг-минг йиллик умумбашарий кадриятлар, урф-одатлар ва анъаналар қайнаб чиқаверади. “Занжирсой” жамоаси ана шулардан илҳом олиб ижод қилади. Уларнинг қўшиқларидан ўтмишни хотирлаш, бугунни кадрлаш, келажакни тасаввур қилиш туйғусини англаб олиш қийин эмас. “Занжирсой” фольклор-этнографик ансамбль жамоаси ўн йилдирки халқ дилига яқин оҳанглари куйлаб келмоқда. Ансамбл томонидан кўпгина тўй маросимларига оид санъат дурдоналари қайта тикланди ва тарбиявий жиҳатлари аҳоли орасида тарғиб қилинмоқда. Эндиликда



улар олтин меросимиз сифатида авайлаб сақланмоқда. Ансамблнинг миллий қадриятларимизни тиклашдаги хизматлари муносиб баҳоланган. Яъни, 1996 йилда Тошкентда ўтказилган фольклор жамоаларнинг “Миллий қадриятлар – халқ бойлиги” кўрик-танловида биринчи ўринга лойиқ деб топилган.

Ансамблда 20 нафардан ортиқ турли касб эгалари бўлган иккинчи истеъдод соҳиблари фаол иштирок этиб, ўзларининг мазмунли репертуарлари билан туман, вилоятда ўтказилган байрам ва барча халқ сайлларида, пахта, ғалла мавсумларида воҳа аҳлига намунали хизмат кўрсатиб келмоқда. Жамоа республика миқёсида ўтказиладиган кўрик-танловлар, фестиваллар, Наврўз ва Мустақиллик каби умумхалқ байрамларига бағишланган тантаналарида фаол иштирок этиб, томошабинлар олқишига сазовар бўлмоқда [6: 134].

Ансамбль репертуарида Қашқадарё тўй маросимларининг тарбиявий аҳамиятини мадҳ этувчи асарлар мужассам. Улар нафақат воҳанинг турмуш тарзи, маросим-удумларининг тарбиявий аҳамиятини акс эттиради, асарлари орқали инсонларни маънавий етукликка шорлайди. “Занжирсой” фольклор-этнографик ансамбль жамоаси фаолиятини атрофлича ўрганиб чиқдик. Шу билан бирга Қашқадарё тўй маросимларининг тарбиявий жиҳатларини ўрганишда бирмунча қийинчиликларга ҳам душ келдик. Қашқадарё тўй маросимларини мукамал тарғиб этиш ва ўрганиш бўйича қуйидаги таклифларни билдирамыз:

- Қашқадарё тўй маросимлари билан боғлиқ илмий-амалий ишларни янада такомиллаштириш, тўй маросимларининг тарихини чуқур ўрганиш ва таҳлил қилиш;
- Қашқадарё вилоятида фаолият олиб бораётган фольклор-этнографик ансамбллар, ҳаваскорлик жамоалар фаолиятини қўллаб-қувватлаш, моддий ва маънавий рағбатлантириш;
- Вилоят маданият марказида тўй маросимларнинг тарбиявий аҳамиятини ошиб берувчи сахна асарларини яратишга туртки бўладиган танлов ва фестивалларни ташкил этиш ва тизимли ўтказишни йўлга қўйиш;
- Қашқадарё вилоятида фольклор-этнографик жамоалар, фольклоршунос олимлар билан ҳамкорликда ҳар уч йилда бир марта илмий-амалий, маданий-маърифий конференция, семинар-тренинг, анжуманлар ўтказишни йўлга қўйиш;
- Фуқаролик ҳолати далолатномаларини ёзиш (ФХДЁ) органлари билан фольклор-этнографик жамоалар ўртасида ҳамкорлик лойиҳаларини ишлаб чиқиш ва амалиётга жорий қилиш;
- Тўй маросимларини ташкил этиш ва ўтказиш билан шуғулланадиган замонавий ташкилотлар фаолиятини назорат қилиш ва маънавий жиҳатдан ёт ғоялардан асраш тизимини ишлаб чиқиш;
- Қашқадарё тўй маросимларининг тарбиявий ва ўзига хос хусусиятларини ёритиб берадиган қисқа метражли кинофильмлар ва ижтимоий роликлар танловини ўтказиш;
- “Ўзбеккино” миллий агентлиги ва Ўзбекистон МТРК билан воҳа тўй маросимлари ҳақида кинематография маҳсулоти ва теледастурлар тайёрлаш мумкин.

#### ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Davlatov S. O'zbek marosim-udumlarining etnohududiy xususiyatlari. – Toshkent, O'zR Fanlar Akademiyasi asosiy kutubxonasi bosmaxonasi, 2019. 123-b.
2. “XXI asr” gazetasi. 2021 йил. 14 октябр. № 40 (934) сони
3. [http://turizm.kasaba.uz/uz/uzbek\\_legends\\_and\\_mythes/uzbek\\_national\\_folklore](http://turizm.kasaba.uz/uz/uzbek_legends_and_mythes/uzbek_national_folklore). Ўзбек маросим фольклори мақола.
4. Қорабоев У. Ўзбек халқ байрамлари. – Тошкент.: Шарқ, 2002. – 240 б.
5. Давлетов С. Қашқадарё воҳаси ўзбек тўй маросимлари фольклори. Автореферат. Т., 1996, 19-бет.
6. Юлдашева С. Фольклор-этнографик жамоалар услуги. – Тошкент, Наврўз 2014. 162 б.

УЎК 81-119

### АЛИШЕР НАВОЙИЙ АСАРЛАРИНИНГ ЎЗБЕК ТИЛИ РИВОЖИГА ҚЎШГАН ХИССАСИ

*М.Р. Тожибоева, филология фанлари номзоди, Кўкон Давлат педагогика институти, Кўкон*

**Аннотация.** Мақолада буюк мутафаккир ва шоир, давлат ва жамоат арбоби Мир Алишер Навоийнинг она тилимизга бўлган муносабатлари, асарлари орқали ўзбек тили ривожланишига қўшган хиссалари борасида фикр юритилган. Миллатимиз, миллий адабий-эстетик тафаккуримиз тарихида бобомизнинг қолдирган меърос теран мазмун ва юксак аҳамиятга молик. Қуйида шу ҳақда батафсил фикр юритилади.

**Калит сўзлар:** Навоий асарлари, ўзбек тили ривожини, ўзбек тили ва адабиёти, сўзнинг қудрати, ёзма ва оғзаки нутқ, нутқ маданияти.

**Аннотация.** В статье отражено отношение великого мыслителя и поэта, государственного и общественного деятеля Мир Алишера Навои к нашему родному языку и его вклад в развитие узбекского языка своими произведениями. В истории нашего народа, нашего национального литературного и эстетического мышления наследие наших предков имеет глубокий смысл и большое значение. Более подробно это обсуждается ниже.

**Ключевые слова:** произведения Навои, развитие узбекского языка, узбекский язык и литература, сила слова, устная и письменная речь, культура речи.

**Abstract.** The article reflects the attitude of the great thinker and poet, statesman and public figure Mir Alisher Navoi to our native language and his contribution to the development of the Uzbek language with his works. In the history of our people, our national literary and aesthetic thinking, the heritage of our ancestors has a deep meaning and great significance. This is discussed in more detail below.

**Key words:** works of Navoi, the development of the Uzbek language, the Uzbek language and literature, the power of words, oral and written speech, culture of speech.

"Дунёдаги қадимий ва бой тиллардан бири бўлган ўзбек тили халқимиз учун миллий ўзлигимиз ва мустақил давлатчилик тимсоли, бебаҳо маънавий бойлик, буюк қадриятдир. Кимда-ким ўзбек тилининг бор латофатини, жозибаси ва таъсир кучини, чексиз имкониятларини ҳис қилмоқчи бўлса, мунис оналаримизнинг аллаларини, минг йиллик дostonларимизни, ўлмас мақомларимизни эшитсин, бахши ва ҳофизларимизнинг сеҳрли кўшиқларига қулоқ тутсин".

**Ш.М. Мирзиёев.**

Она тили мамлакатнинг ғурури, ифтихори ҳисобланади. Миллатнинг маданияти, маънавияти, зиёлилик даражаси она тилига муносабатда ҳам аниқ кўринади. Ўзбек тили ўзбек халқининг миллий бойлиги сифатида қадим-қадимдан бугунгача аждодларимиз томонидан эъзозланиб, ардоқланиб, сайқалланиб келинмоқда.

Буюк мутафаккир ва шоир, давлат ва жамоат арбоби Мир Алишер Навоийнинг она тилимизга муносабатлари, бу тилнинг ниҳоятда бой, гўзал, такрорланмас тил сифатидаги имкониятларини ўзларининг шоҳ асарлари билан исботлаб берганликлари, она тилимизнинг софлиги, обрў-эътибори, таъсирчанлиги, юқори нутқ маданияти учун курашганликлари, миллатимизнинг фахри сифатида, ҳар қанча таҳсинга, эъзозга лойиқдир. Тил ва нутқ маданияти жамият ҳаётининг ажралмас қисми, чунки она тили муҳим тарбия воситаси сифатида кишиларни буюк мақсадлар сари йўналтиради, руҳлантиради, эзгу орзу-умидлар билан яшашга ундайди. Сўзнинг куч-қудрати, тилнинг ўткир қурол эканлигини Алишер Навоий асарлари мисолида аниқ ҳис этиш мумкин.

Она тилимиз бой, сержило ва гўзал тил эканлигига ҳеч ҳам шубҳа йўқ. У асрлар оша сайқал топиб келмоқда. Улуғ бобомиз Алишер Навоий бошқа тилларни камситмаган ҳолда, ўзбек тилининг нақадар бой тил эканлигини кўрсатиб берганликлари ва шоҳ асарлари билан буни исботлаганликлари катта ибратдир.

Буюк бобоколонимизнинг улкан мероси, ўзбек тили ва адабиёти таракқиётига кўшган ҳиссаси, бадиий маҳорати, тилдан фойдаланишдаги ўзига хослиги ҳақида адабиётшунос, тилшунос олимлар кўп ва ҳўб ёзишган. Навоийнинг бой мероси ва навоийшунослик соҳасидаги илмий, ўқув манбаларни чуқур ўрганиш ва улардан кенг фойдаланиш кундалик вазифаларимиздан бўлиб қолмоқда. Айниқса, мустақиллик йилларида улуғ шоиримиз сўзларининг кадри яна баланд, тобора юксак бўлиб бормоқда.

Ўзбекистон Республикасининг «Давлат тили тўғрисидаги»ги қонуни ижросини тўла таъминлаш билан ўзбек тилининг мавқеини янада ошириш, унинг тарихий сарчашмаларидан фойдаланиб, гўзаллигини сақлаб қолиши ва бойлигини янада ёрқин намоён этиши учун катта имкониятлар яратиш мумкин. Бу соҳада энг бой ва боқий сарчашмалардан бири буюк мутафаккир ва улуғ шоир, йирик тилшунос олим Алишер Навоий меросидир.

«Хазойин ул-маоний», «Хамса», «Муҳокамат ул-луғатайн», «Махбуб ул-қулуб» каби шоҳ асарлар она тилимиздан моҳирона фойдаланишнинг ўзига хос маҳорат мактаби вазифасини ўтайди.

Алишер Навоий сўзнинг қудрати ҳақида тўхталиб, у инсон учун зарур қурол ва манба эканлигини баён этади. Масалан:

*Донау дур сўзини афсона бил,  
Сўзни жаҳон бағрида дурдона бил.*

Ёки:

*Сўз қотиғи эл кўнглига озор айлар,  
Юмишгои кўнглиларни гирифторм айлар.*

Она тилимизнинг бойлиги, қудратини юксак баҳолаган шоир «Муҳокамат ул-луғатайн» асарида унинг фазилятларини ниҳоятда чиройли тасвирлаб беради. Тилимиздаги сўзларни юлдузларга ўхшатиш билан уларнинг ниҳоятда кўплиги, хилма-хиллиги ва бир-бирига ўхшамаслигини акс эттиради.

Тилдаги сўзларни чаманзордаги гулларга ўхшатиш билан сўзларнинг ўзига хос маъно, мазмунга эгаллиги назарда тутилади. Гул инсонни ўзига маҳлиё қилади, эътиборини тортади, уни қувонтиради, тилдаги сўзлар ҳам ана шундай фазилятга эга.

Киши сўзлашдан олдин сўзларни танлайди, уларни саралаб, зарурини, маъқулини ишлатади. Ҳар бир сўзни ишлатганда ҳам бошқаларга озор етказмасдан, маъносини ҳисобга олиб қўллайди. Тилдаги сўзлар инсоннинг энг нозик туйғуларини ифодалаш билан бирга кишининг ҳиссиётига катта таъсир

кўрсатади. Шунинг учун сўзнинг қудратидан бошқаларга озор бериш учун эмас, уларни руҳлантириш учун моҳирона фойдаланиш зарур.

Бу ҳақда сўз юритганда, Навоийнинг «Тилга эътиборсиз - элга эътиборсиз» деган сўзлари замирида нақадар чуқур ҳаётий ҳақиқат мужассам эканига яна бир бор ишонч ҳосил қиламиз. Ҳазрат Алишер Навоий фикрларининг бугунги кун учун аҳамияти ва унинг Президентимиз томонидан янада бойитилганлиги она тилимизга янада эътиборли бўлишга ундайди.

Буюк бобомиз Навоий мероси ўзига хос ижод, маҳорат булоғидир. Бу булоқдан маҳорат билан фойдаланиш, унинг гўзаллигини ёзма ва оғзаки нутқимизда намоён эта олиш, бой имкониятларини юзага чиқариш, нутқ маданиятига эътибор бериш асосий вазифалардандир. Демак, ҳар биримиз юқори тил маънавияти ва нутқ маданиятини эгаллаш, саводхон, маҳоратли ва нотик бўлиш, таъсирчан ёзиш ва гапира олиш учун Алишер Навоий меросини чуқур ўрганишимиз ва ўргатишимиз зарур. Баркамол авлоднинг ҳар томонлама тарбиясида ҳам энг муҳим манбалардан бири Ҳазрат Навоий меросидир. Зеро, давлат тили ҳақидаги қонуннинг талаби ҳам шу – ўзбек тилининг мавқеини янада кўтариш билан унинг ҳам юртимизда, ҳам дунё миқёсидаги обрў-эътиборини янада юксакликка олиб чиқиш, аждодлар анъанасига содиқ қолиб, унинг гўзаллигини кенг намоёиш қилиш, бойитиб бориш, юқори нутқ маданияти ва маҳоратига эришишдир.

Сўз мулкининг султони Алишер Навоий бобомиз “*Кўнгул қулфи маҳраининг қулфи тил ва гулфин калитин сўз бил*” Яъни инсон қалбининг хазинасининг калити сўздир, деганларида тилнинг наинки мулоқот, балки дилларни боғловчи восита эканлигига эътибор қаратган. Халқимизнинг неча асрлик бой тарихи тарихи, кўҳна ва серқирра маданияти ўзбек тили таъсирида шаклланган. Улуғ шоиримиз Алишер Навоий шу тилда бебаҳо асарлар яратиб, дунёни лол қолдирган.

1470 йилларнинг охирида Алишер Навоий ўзининг ўзбек тилида ёзган шеърларидан иборат илк девони – “Бадоеъ ул-бидоя” (“Бадийлик ибтидоси”) ни тузди.

ЮНЕСКО маълумотида кўра, ҳозирги кунда дунёда 6 минг 909 тил мавжуд бўлиб, улардан 200 га яқини давлат тили мақомига эга. Улар орасида она тилимиз-ўзбек тилининг ҳам борлиги қалбимизни фаҳр-ифтихорга тўлдирди. Инсон қалбига жамики эзгу фазилатлар она алласи, она тилининг бетақдор жозибаси орқали сингади. Ўзликни англаш, миллий онг ва қадриятлар, авлодларни бир-бирига руҳий ва маънавий жиҳатдан боғловчи восита бу тилдир.

1989 йилда қабул қилинган қонунга асосан ўзбек тили Ўзбекистон Республикасида ягона давлат тили сифатида тан олинди. 1995 йил 21 декабрда қонун янги таҳрирда қабул қилинди. Ўзбекистон Республикасининг давлат тили тўғрисидаги қонуни қабул қилинган кунни байрам этиб нишонлаш тўғрисида 2020 йил 23 мартда Олий Мажлис қонунчилик палатасининг қонуни қабул қилинди.

Шундай экан ўзбек адабий тилни асраш ва уни ривожлантириш ҳар биримизнинг бурчимиз. Ўзбек тилига давлат тили мақомининг берилиши ва бу давлатимизнинг Асосий Қонунида мустаҳкамлаб қўйилиши халқимиз тарихида буюк воқеа бўлганлиги шубҳасиз. Ўзбек тили давлатимиз рамзлари қаторида турадиган муқаддас тимсоллардан бирига айланди, бу тимсолга эҳтиром кўрсатишни юртимиздаги, миллатидан қатъий назар, барча кишилар ўзларининг фуқаролик бурчи деб билади. Айни пайтда мамлакатимизда 130 дан ортиқ миллат ва элат вакилларининг тиллари ва миллий қадриятларининг ривожини учун тегишли шароитлар яратилган.

Тил-миллат қиёфаси, маънавий бойлигимиз тимсоли. Тил туфайли халқ ва элатларнинг маданий урф –одатлари сақланиб қолади. Қачонки болалар ўз она тилларида ўқишни тўхтатар экан, ўша тил йўқолиш сари юз тугади. Тилларни сақлаб қолиш бу ўша халқнинг маданияти, урф –одати, расм-русумларининг боқийлигини аниқлатади.

Ёшларимиз бугунги кунда ўз она тилимиз билан бир қаторда кўплаб чет тилларни ҳам ўрганмоқда. Глобаллашув даврида миллий тилимизнинг софлигини асраш, унинг луғавий бойлигини ошириш, турли соҳаларда тилимизга чет тиллардан кириб келаётган атамаларнинг ўзбекча муқобилларини яратиш ва истеъмолга киритиш вазифалари турибди.

Мамлакатимизнинг таълим-тарбия муассасаларида турк, инглиз, хитой, рус, япон, корейс, немис, испан, француз, араб ва ҳинд тиллари ўрганилмоқда. Ёшларимиз чет тилларини яхши билиши уларнинг камолотида катта аҳамият касб этади. Лекин ҳар бир йигит-қиз аввало, ўз она тилисини мукамал билиши ва уни ривожлантиришга ўз ҳиссасини қўшиши лозим.

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Арагон Л. Навоий (В журн. "Шарк; Юлдузи", 1987, N4).
2. Ахмедов Б. Двлатшоҳ Самарқандий. Шоирлар бўстони. Фан, Т., 1981.

## ОГАҲИЙ ТАРИХИЙ АСАРЛАРИДА ДИНИЙ-МАЪРИФИЙ ЛЕКСИКАНИНГ АСОСИЙ МАВЗУ ГУРУҲЛАРИ

*Ж.Халлиев, мустақил тадқиқотчи, Урганч давлат университети, Урганч*

**Аннотация.** Мақолада Огаҳий тарихий асарларида ишлатилган диний-маърифий лексика хусусида гапирилиб, унинг асосий мавзу гуруҳлари таснифи берилган. Ишда таҳлил қилинган луғавий бирликларга диний-маърифий лексика деб қараши татбиқ қилинган.

**Калим сўзлар:** диний-маърифий лексика, тарихий асар, тарихий лексика, мавзу гуруҳлари.

**Аннотация.** В статье обсуждается религиозно-просветительская лексика, используемая в исторических трудах Огахи, и дается классификация ее основных предметных групп. Лексические единицы, проанализированные в исследовании, трактовались как религиозно-просветительские лексик.

**Ключевые слова:** религиозно-просветительская лексика, исторический труд, историческая лексика, предметные группы.

**Abstract.** The article discusses the religious-enlightenment vocabulary used in Ogahi's historical works and gives a classification of its main subject groups. The lexical units analyzed in the study were treated as religious-enlightenment lexicons.

**Keywords:** religious-enlightenment vocabulary, historical work, historical vocabulary, subject groups.

Кардош ҳақлар тилшунослигида биз ўрганаётган мавзуга яқин қатр ишлар амалга оширилган. Масалан, А.М.Миннеғалиева “Татар диний-дидактик адабиёти тили: ислом юриспруденцияси трактати “Мухтасар ал-Қудури” материали асосида” номли номзодлик диссертациясини ҳимоя қилган... Ишда татар диний адабиёти тили семантик-стилистик аспектда ўрганилган. Муаллифнинг ўзи таъкидлаганидек, халқ тарихи яширинган, ҳаётнинг маънавий жиҳати учун хизмат қиладиган диний-дидактик услубнинг инсон ўз-ўзини англашидек энг сирли ва муҳим жиҳатларини очиб беришга ҳаракат қилинган. [12: 16]

Эски ўзбек тилида диний, шунингдек, тасаввуфий терминларнинг катта кўпчилиги араб тилидан ўзлашганлиги табиий, албатта. Шундай бўлишига қарамай, эски ўзбек тилидаги ҳам, ҳозирги адабий тилимиз ва шевааримиздаги диний терминларнинг генетик мансублиги араб тили билан чегараланмайди. Ўзбек тили диний терминлар тизимида форс тилига мансуб сўзлар ҳам, ўз қатламга мансуб сўзлар ҳам анча. Биз куйида мавзумиздан келиб чиққан ҳолда Огаҳий тарихий асарларида қўлланилган генетикаси эроний тилларга, хусусан, форс тилига алоқадор диний терминлар хусусида сўз юритамиз.

Огаҳий тарихий асарларида қўлланилган форс тилидан ўзлашган диний терминлар ўз навбатида кичик мавзу гуруҳларига бўлинади. Буларни а) мутлақ илоҳ тушунчасини ифодаловчи сўзлар; б) пайғамбар тушунчасини ифодаловчи сўзлар; в) фаришта тушунчасини ифодаловчи сўзлар; г) жаннат ва дўзах тушунчасини ифодаловчи сўзлар; д) ибодатга алоқадор тушунчаларни ифодаловчи сўзлар; ж) турли мазмундаги диний терминлар каби гуруҳларга ажратиш мумкин. [8:84]

Диний-маърифий лексика барибир бошқа мавзу гуруҳларга нисбатан ўзига хослиги, авваламбор, араб, форс тилларидан ўзлаштирилган луғавий бирликлари, уларнинг маъно нозикликларига эътибор қаратиш лозим. Огаҳий тарихий асарларида оят ва ҳадислар аслиятда берилган.

Огаҳий тарихий асарларида Аллоҳнинг номлари тадқиқи асосан *Аллоҳ* лафзи, Таборак ва таолонинг асмой хусно деб номланган 99 та номи, *Тангри*, *Худо*, *Рабб*, *Яздон*, *Кирдигор*, *Парвардигор*, *Илаҳи* каби лексик бирликлар ҳамда уларнинг келиб чиқиши, этимологияси, семантикаси каби масалаларни ўз ичига олади. Араб тилидан тилимизга кириб келган *Аллоҳ* калимаси ислом динини қабул қилган барча халқлар тилларида, шунингдек, ислом ҳақида тасаввурлари яхши шаклланган, мусулмонлар билан яқин ижтимоий-сиёсий, маданий муносабатдаги тиллар (масалан, рус, ҳинд каби)да мавжуддур. Бу турли халқ ва этносларнинг жуда қадим илдизга эга алоқалари ва диний-мифологик қарашлар борасида бир-бирига таъсири боғлиқдир.

Қадимги туркий тилда улуқ илоҳ оти бўлган *Тангри* // *тенгири* диний мифологизми қадим хитой тилида диний термин бўлган тьян (осмон) калимаси билан семантик алоқадорлиги бор. *Танри* // *тенгири* дини-мифологизмининг қурилиши унинг туркий манбага эга сўз эканини тасдиқлайди. Бу диний-мифологизм билан боғлиқ мақоллар, фразеологик бирликлар ва бошқа унсурлар, асосан, туркий тилларнинг деярли барчасида ҳамда уларнинг диалектларида учрайди. И.Жафарсўйлу хунлар ва кўк туркларнинг бош тангриси *Тенгри* деб номланган. Шумерларнинг бош тангриси эса *Тенгир*дир. Хетт ва Урарту миҳхатларида илоҳ номи *Дингир* дейилган ва бу тасодифан эмас. [1]

Адабиётларда бу сўзнинг *осмон*, *худо* маъноларини англагани ва туркий тилда VIII асрдан қўлланилиши қайд этилиб [6:544; 2: 523], замонавий туркий тилларда кенг тарқалган [3:578-580; 5: 474]. Ушбу сўз билан катта қўламдаги илмий қарашлар Р.Маҳмудов томонидан таҳлил қилинган [7: 74-76].

Муҳими, Г.Дёрфер бу сўз ҳақида адабиётларда келтирилган фикрларга танқидий ёндашиб ҳамда П.Пеллио ва Л.Лигетиларнинг қарашларини ёқлаб, бу сўзнинг келиб чиқиши номаълумлигини таъкидлайди [3: 577-585]. Ҳақиқатан, дунё туркологиясида асл туркий бирликларни имкон қадар қариндош бўлмаган тилларга боғлаш ҳаракатларини ҳам илғаш қийин эмас. А.Ўразбоев мусулмон одам тилида Аллоҳ лафзидан бошқа сўз ҳам, жумладан, *тангри*, *худо* калималари ҳам мутлақ илоҳ маъносини англатишини таъкидлаб ёзишча, Алишер Навоий “Лисон ут-тайр”да

Жон қуши чун мантиқи роз айлагай,

*Тангри* ҳамди бирла оғоз айлагай. –

байтидаги “тенгри ҳамди бирла оғоз айлагай” мисрасидаги “оғоз”нинг денотатив маъноси *бошлаш* эканини назарда тутсақ, Алишер Навоий ғоят санъаткорона тарзда Қуръони карим Тангри – Аллоҳ ҳамди – “Фотиҳа” сураси билан бошланишига ишора қилади. Худди шу фикр исботини “Риёзу-д-давла”да ҳам кўрамиз:

Қудратин чун Тенгри изҳор айлади,

Йўқтин ашёни намудор айлади. [4: 17]

Огаҳий тарихий асарларида асмой хусно баён қилинаётган воқеаларга алоқадор тарзда жуда юксак бадий ифодага хизмат қилган: “Ул ҳазрат шикор асносида ва тоғу туз фазосида *Соней қодир* санъатининг ажойиби ва *Қодир соней* қудратининг ғаройиби тамошосидин кўнгул кўзиға сафо ҳосил қилиб, ул кўзгуни жамоли ийқон нақшиға восил этти”. [4: 83] Ушбу парчанинг ўзида сажъ ва тарди акс асосида таносуб билан биридан муштак *соней*, *сунъ*; *қодир*, *қудрат* сўзлари иштироки иштиқоқни келтириб чиқарган. Хусусан, Огаҳий тарихий асарларининг ҳар бири муқаддимасида асмой хуснонинг ҳар бири ўта юксак ақидавий, руҳий, таълимий вазифа бажара олган. Жумладан, “Риёзу-д-давла” муқаддимасидан: “*Молику-л-мулкеким*, мулки безаволи инқилоби замондин нуқсонпазир эрмас, Сохибу-л-қудратеким, қудрати лоязали андин ўзга ҳеч кишига даст бермас... Ҳакимеким, ҳикмати комиласи била малойикайи муқаррабининг халифайи соҳибиззатин ибоу нафаронлиғ жиҳатидин “ва инна ‘алайка ла’натй ила йавмиддйн” нафриниға мухотаб қилиб, лаънати абадийға сазовор этти... [4: 16-17]

Эски ўзбек тилида, жумладан, Огаҳий асарлари тилида илоҳ тушунчасини англатувчи сўзлардан бири *яздон* *یزدان* дир. Бу сўз “Авесто”да *yazatanam*, паҳлавий тилида *yaztân*, *yazdân* шаклларида ишлатилган бўлиб, аслида авестовий “илоҳ” маъносидаги *yazata* сўзининг кўплигидир [8:85]. “Фирдавсу-л-икбол”даги китъалардан бирида ўқиймиз:

Ҳар кимга ажал етушса ногоҳ,

Бўлмастур анга қутулмоқ имкон.

Ҳар ён қадам урса топмайин йўл,

Гўр узра чекар қазойи *Яздон*.

Огаҳий тарихий асарларида пайғамбар тушунчасини англатувчи сўзлардан бири *пайғамбар* *پیغمبر* ёки *паёмбар* *پیامبر* бўлиб, иккинчи шакли кўпроқ шеърӣ нутқ учун хосдир. Ўзбек тилининг XIV асрдан кейинги тараққиётида бу сўз мазкур тушунчанинг туркий ифодаси бўлган *савчи*, *ялавач* сўзларига нисбатан фаоллашган. Тарихан бу сўз икки қисмдан иборат: *пайғом* *پیغام* ва *бар* *بر* дан ташкил топган. *Пайғом* *پیغام* – “хабар” ва *бар* *بر* – “элтиш”, “етказиш”. [9: 193] Бу сўз Огаҳий тарихий асарларида Алишер Навоий асарларида (жумладан, “Лисон ут-тайр”да бўлгани каби) ўзининг арабий эквиваленти *расул* *رسول* га ўхшаб луғавий маъносида кўзга ташланмайди, яъни дипломатик термин сифатида ёки бирор хабарни етказувчи шахс маъносида учрамайди. Фақат *пайғом* *پیغام* сўзи “хабар”, “янгилик” маъносида ишлатилган ҳолатлар бор. Масалан, “Бекиш халифани Солорға элчи қилиб, мундоқ *пайғом* йибордиларким...” (ЖВС, 217<sup>б</sup>) *Пайғамбар* сўзидаги *бар* қисми *фаришта* *فرشته* сўзида ҳам бор. Чунки *фаришта* сўзининг ўзи санскрит тилида *prêshita* шаклида ишлатилган бўлиб, *êsh* + *pra* таркибидан ташкил топган ва айнан “хабар берувчи”, “хабар етказувчи” маъносини беради. [11: 1423] К.Бартоломэ қадимги эронийда *fraishita* шаклида бўлган бу сўз *aish* + *fra* таркибидан ташкил топиб, “элчи”, “хабар етказувчи” маъноларида ишлатилганини қайд қилади. [12: 31] Огаҳийнинг мазкур асарида бу сўз арабча *малак* *ملك* сўзига синоним сифатида ишлатилган. Фаришта ҳақидаги тасаввурлар ва эътиқодлар натижасида унинг “беғуноҳ”, “маъсум” маънолари келиб чиққан.

Келтирилган фактлар ва мисоллар Огаҳий тарихий асарларидаги диний-маърифий лексиканинг бир қирраси – Ҳақ таоло номларининг бир қисмини ташкил қилади. Мавзу ўзбек тарихий лексикаси тадқиқида алоҳида ўрин тутади.

#### ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Cəfərsoylu İ.Y. Türk, Urartu, Alban etnolingvistik uyğunluqları. Bakı, 2008, 327 s.
2. Clauson G. An etimological dictionary of pre-thirteenth-century Turkish. Oxford, 1972.
3. Doerfer G. Türkische und Mongolische elemente im Neupersischen unter besonderer Berücksichtigung älterer Neupersischer geschichtsquellen, vor allem Mongolen und Timuridenzeit. Bd. II: Türkische elemente im Neupersischen Wiesbaden, 1965.
4. Muhammad Rizo Ogahiy. Riyozu-d-davla. Nashrga tayyorlovchi, so‘z boshi va izohlar muallifi hamda forsiy matnlar tarjimoni Abdulla O‘rozboev. – Urganch: Quvanchbek-Mashxura, 2021.
5. Räsänen M. Versuch eines etymologischen Wörterbuchs der Türksprachen. Helsinki, 1969.
6. Древнетюркский словарь / Под ред. Надежлева В.М., Насилова Д.М., Тенишева Э.Р., Щербака А.М. Л., 1969.

7. Махмудов Р. Ўзбек тилида авестизмлар. Филол.фан. фалс. докт. (PhD) диссертацияси. – Урганч: 2020.
8. Ўразбоев А.Д. Огаҳийнинг тарихий асарлари лексикаси. Филол. фанлари д-ри дисс ... – Тошкент, 2018.
9. Персидско-русский словарь. Том II. – М.: Русский язык, 1983.
10. Bartholomae Ch. Altiranisches Wörterbuch. – Strassburg, 1950.
11. Шамсиддин Мухаммад бин Халаф Табризий. Бурхони қотғъ. – Техрон: Амири Кабир, 1997.
12. Амонтурдиева Ш. Р. Ўзбек диний матнининг функционал-стилистик таҳлили: Филол.фан. бўйича фалс. докт. (PhD) дисс... автореф. Самарқанд, 2020.

УДК 808.5

## УЧЕБНО АНГЛО-РУССКИЙ ВОКАБУЛЯР ДЛЯ ЧТЕНИЯ ЛИТЕРАТУРЫ ПО СПЕЦИАЛЬНОСТИ КАК СРЕДСТВО ОТБОРА И СИСТЕМАТИЗАЦИИ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ

*Л.С. Худайбердиева, к.ф.н., доц., Андижанский государственный медицинский институт,  
Андижан*

*Annotatsiya. Qadimgi Yunoniston va Rim tibbiyot, farmatsiya rivojiga va jahon fani va madaniyati tarixidagi ko'plab hodisalarga opp ta'sir ko'rsatdi. Bu tarixiy ta'sir dunyoning deyarli barcha davlatlarining lug'atlarida o'z aksini topgan. Biz hammamiz ko'pincha qadimgi yunon va lotin tillarining so'zlari va elementlaridan foydalanamiz. Ushbu tillarning lug'at boyligi minglab xalqaro so'zlarni yaratish uchun asos bo'lib xizmat qildi. Bunday so'zlar xalqaro deb ataladi, chunki ularni dunyoning aksariyat tillarida topish mumkin.*

**Kalit so'zlar:** *Vokabulyar, terminologiya, adabiyot.*

*Аннотация. Древняя Греция и Рим оказали огромное влияние на развитие медицины, фармации и на многие явления в истории мировой науки и культуры. Это историческое влияние нашло свое отражение в словарях почти всех стран мира. Все мы часто пользуемся словами и элементами древнегреческого и латинского языков. Словарное богатство этих языков послужило основой для создания многих тысяч так называемых интернациональных слов. Такие слова называются интернациональными, так как их можно найти в большинстве языков мира.*

**Ключевые слова:** *вокабуляр, терминология, литература.*

*Abstract. Ancient Greece and Rome had a huge impact on the development of medicine, pharmacy and many phenomena in the history of world science and culture. This historical influence is reflected in the dictionaries of almost all countries of the world. We all often use the words and elements of the ancient Greek and Latin languages. The vocabulary richness of these languages served as the basis for the creation of many thousands of so-called international words. Such words are called international because they can be found in most languages of the world.*

**Key words:** *Vocabulary, terminology, literature.*

Составление терминологического двуязычного, а в нашем случае трехязычного словаря – это долгая и трудоемкая работа. Для интенсификации процесса лексикографического описания терминологических систем следует провести предварительное, пусть даже элементарное, упорядочение терминов в пределах существующей терминологической системы в виде учебных вокабуляров для чтения литературы по специальности. Этот промежуточный этап заключается в отборе и выделении как уже устоявшихся, так и окказиональных терминов, не получивших общего признания, а также в выработке критериев отбора и систематизации терминологической лексики, что в конечном итоге будет способствовать обмену информацией специалистами на межъязыковом уровне.

Учебные вокабулярии необходимы также для чтения специальной литературы в вузе, поскольку фоновые знания студентов, особенно на младших курсах, недостаточны для понимания текстов, имеющих профессиональную ориентацию. Для чтения литературы по специальности «провизор», не имея отраслевого словаря, студенты, как и преподаватели пользуются англо-русско-узбекскими медицинскими, химико-технологическими и ботаническими словарями, которые, во-первых, в незначительной степени покрывают фармацевтическую терминологию, а во-вторых, не удобны в использовании с точки зрения интенсификации учебного процесса. В связи с этим нами предпринимается попытка создания учебного вокабуляра для чтения фармацевтической литературы на английском языке.

Учебный вокабуляр включает в себя лексику четырех слоев: слова общенационального языка; слова, относящиеся к научному регистру; слова - профессионализмы; термины, на основе которых базируется подъязык фармации. Основным критерием отнесения слова к терминологической системе мы считаем способность его определения через отношение к родовому классу и выделение видового отличия. Учитывается также реализация его потенциальных способностей сочетания с другими словами или терминами, опущение которых меняет значение словосочетаний.

Терминологическая часть учебного англо-русско-узбекского фармацевтического вокабуляра включает однословные термины (*mixture, ointment, pharmacy, medicine etc.*), термины-словосочетания (*pyrogen content, water content, daily dose, single dose, maintenance dose, sustained released dosage form, gas-*

*liquid chromatography, thin-layer chromatography, flat-faced tablets, etc.*) Фармацевтические термины, включенные в вокабуляр, представляют собой по составу однословные, многословные и сложносокращенные слова (*alkaloid, ointment base, biopharmaceutics*).

С целью упорядочения фармацевтической терминологии термины группируются по разделам с общим понятийным признаком. Так, в частности выделены термины, отражающие методы исследования: *chromatography, gas-liquid chromatography, paper chromatography, surface culture method of penicillin production*; термины, связанные со специальностью «провизор»: *chemist, chemist-analyst, pharmacist, dispensing pharmacist, prescription pharmacist*; термины, обозначающие лекарственные формы, дозы: *tincture, infusion, tablet, ointment, pill, powder, dose drug, restricted drug*; термины, обозначающие цвет, запах, вкус, консистенцию лекарств, лекарственных веществ: *bitter, acid, acrid, fatty, sweet, tasty, sour, soft, powdery, sugary, etc.*; термины, обозначающие названия групп лекарств: *drugs for cough, cardiac drugs, drugs for headache, tonics, sedatives, tranquillizers* и другие разделы.

Научно-профессиональная информация достигается благодаря включению в наименования соответствующих терминологических элементов, за которыми закрепляется определенное значение.

Так, например, терминологический элемент –циллин указывает на принадлежность к пенициллину, –мицин – к антибиотикам, продуцируемым штаммами *Streptomyces* и т.п.

Таким образом, формируются тривиальные наименования, отражающие важную информацию о классификации лекарственных веществ.

Тематическая направленность и общий достаточный объем исследуемого текста позволяет прийти к выводу, что англо-русско-узбекский фармацевтический вокабуляр является не только пособием для чтения литературы по специальности в течение периода обучения фармацевтической терминологии, но и приближается к уровню словаря-минимуму. Дальнейшая работа с литературой позволяет дополнять учебный вокабуляр терминами, и таким образом, объединять их в отдельный англо-русско-узбекский терминологический словарь по фармации.

#### СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Т.Г. Казачёнок «Практическое пособие по латынскому языку», Минск-1972.
2. Л.У.Ходжаева, Х.А.Зохидова, З.З.Рахматуллаева. «Lotin tili fani bo'yicha qo'llanma» Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent -2005.
3. Л.У.Ходжаева, Ё. Насирдинова, Х.М.Икрамова. «Лотин тили ва тиббий атамашунослик бўйича ўқув-услубий кўлланма» Андижон -2010.
4. М.Н.Чернявский «Латинский язык и основы медицинской терминологии» Высшая школа. Минск- 1989.

УЎҚ 81-13

#### ИНТЕРНЕТ МАТНЛАРИ ТАРЖИМАСИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

*Н.Х. Эрнарзорова, ўқитувчи, ЎзДЖТУ, Тошкент*

**Аннотация.** Ушбу мақолада интернет матнларининг ўзига хос жиҳатлари, уларнинг ёзилиш услублари, интернет матнлар таржимасидаги муаммолар, яъни фонетик, грамматик ва лексик қийинчиликлари ҳамда уларни таржима қилишда лексик ва грамматик трансформацияларнинг ўрни, транскрипция, транслитерация, калка, тавсифлаш, каби таржима методларидан фойдаланилиш ҳақида фикр юритилади ва асл интернет матнлари билан унинг таржима қилинган матнларидан мисоллар таҳлили берилган.

**Калим сўзлар:** Оммавий ахборот воситалари, хабар, интернет сайтлари, ахборот агентликлари, манба, информация таржима, лексик ва грамматик трансформация, транслитерация, транскрипция, калка, АМ(асл матн), ТМ(таржима қилинган матн).

**Аннотация.** В данной статье рассматривается специфика интернет-текстов, способы их написания, проблемы перевода интернет-текстов, т.е. фонетические, грамматические и лексические трудности и роль лексико-грамматических трансформаций в их переводе, использование таких переводческих методов, как транскрипция, транслитерация, калька, описание, и дан анализ примеров из оригинальных интернет-текстов и их переводных текстов.

**Ключевые слова:** СМИ, новости, веб-сайты, информационные агентства, источник, перевод информации, лексическая и грамматическая трансформация транслитерация, транскрипция, калька, ИТ (исходный текст), ПТ (переведенный текст).

**Abstract.** This article discusses the specifics of Internet texts, the ways of writing them, the problems of translating Internet texts, i.e. phonetic, grammatical and lexical difficulties and the role of lexico-grammatical transformations in their translation, the use of such translation methods as transcription, transliteration, calque, description, and an analysis of examples from the original Internet texts and their translated texts is given.

**Keywords:** Media, news, websites, news agencies, source, translation of information, lexical and grammatical transformation transliteration, transcription, calque, OT (original text), TT (translated text).

Бугунги кунда оммавий ахборот воситалари жамият ҳаётига, инсонлар онги ва тасаввурига, ҳамда миллат тили ва маданиятига катта таъсир кўрсатмоқда, чунки кўп нарса хабарлар етказилишининг

оперативлиги ва мувофиқлигига бевосита боғлиқдир. Шунинг учун ҳеч қачон оммавий ахборот воситалари(ОАВ) орқали етказилаётган матнлар ҳозирги кундагидек долзарб аҳамият касб этмаган.

Бизнинг фикримизча, ҳозирги даврда энг оммабоп ОАВ бу интернет ҳисобланади. Ҳозирда интернет маълумотларни тарқатишда энг қулай воситалардан бирига айланган. Дунёнинг деярли барча янгилик каналлари, шу билан бирга замонавий газета-журналлар, радиостанция ва телеканалларнинг интернет сайтлари мавжуд. Маълумотларни ўқувчиларга аниқ етказишда мамлакатимиз ва хорижий ОАВ матнларининг ёзилиш хусусиятларини яхши билишимиз зарур. Бунда таржима асосий ўринни эгаллайди.

Интернет матнлари таржимаси ҳам ўз қийинчиликларига эга. Биринчидан, бу ОАВ саҳифаларида азалдан ўз аксини топган маълум бир миллат маданиятига оид реалиялари ҳамда тил муаммолари, яъни фонетик, лексик ва грамматик муаммолар билан боғлиқ. Иккинчидан, интернет- нашр ўзига хос ҳажм(формат)га эга бўлиб унда турли ахборот агентликларининг ўз хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда истеъмолчиларга хабарлар турлича кўринишда етказиб берилишига боғлиқ. BBC, Euronews, CNN, Reuters, Livenews, Voice of America каби ахборот агентликларининг сайтлари орқали биз дунёда бўлаётган хабар ва воқеалар билан миллий ОАВ ёрдамида ўзбек тилида ҳам танишишимиз мумкин.

Интернет тармоғи орқали узатилаётган ОАВдаги янгиликларнинг ёритилиш шакли тобора янгиланиб, ўзгариб боргани боис, мазкур манба материаллари билан ишлашда биз янги нутқ лексикалари, иборалар ва фразеологик бирликларни учратишимиз мумкин.

Интернет ресурсларидаги янгиликлар, даврий нашрлар, яъни газета ва журналлар ҳамда публицистик мақолалар таржималари инфорацион ёки информатив таржима ҳисобланади. Илмий жиҳатдан олиб қараганда, информатив таржима деб бирор бир маълумотни етказиш мақсадидаги таржима тушунилади, инфорацион таржимага эса турли хил, яъни илмий соҳага, бизнесга оид, ижтимоий-сиёсий, кундалик ва бошқа турли хил йўналишлардаги таржималар киради. Интернет янгиликлар сайти, одатда аниқ сиёсий йўналишга эга. Бу эса матн таржимонига қўшимча вазифа юклайди. Мақоланинг тўлиқ таржимаси бу маънони ўқувчига асл нусхадаги барча эмоционал элементларни қамраб олган ҳолда аниқ етказиб берилишидир. Интернет матнларда лексик бир хиллилик четлаб ўтилади.

Барча интернет матнлар таржима қилишдаги муаммоларларни фонетик, лексик ва грамматик муаммоларга бўлиш мумкин. Матнлар таржимасидаги лексик жиҳатлар бу неологизмлар, фразеологизмлар ва оғзаки нутқ лексикаларини учрашидир.

Неологизмларни тўғри таржима қилишда авваламбор уларнинг келиб чиқиши, семантикаси ва ясаиш йўларини билиш зарур. Инглиз тилидаги неологизмлар кўп ҳолларда аффиксация, сўзларни ўзаро қўшиш, қисқартириш, қисқартмалар, конверсия, семантик бўлиниш, сўзларни ўзлаштириб олиш кабилар орқали пайдо бўлади. Масалан, **selfie** - ўзини телефонга ёки рақамли камерага олиш(аффиксация), **digital detox** – ўзини виртуал дунёга эмас, балки реал ҳаётга бағишлайдиган инсон вақти( сўзларни ўзаро қўшиш), **ICYMI**–In Case You Missed It – агар сиз бунни ўтказиб юборган бўлсангиз, **BYOD**-Bring Your Own Technology – ҳодимларга ишхонага иш учун ўз компьютерларидан фойдаланишга рухсат бериш(қисқартмалар), **to amazon** – Amazon.com сайтидан харид қилиш(конверсия). Неологизмларни ўзбек ва рус тилларига таржима қилишда қуйидаги усуллар амалга оширилади: транслитерация(**vegan**-веган), транскрипция(**interface**-интерфейс), калка(**cyber-store**–интернет-магазин), тавсифлаш(**pescetarian**-пескетариан, яъни вегетариан парҳезига балиқ қўшувчи одам), ноассимиляция(**wifi, vip**).

Неологизмлардан ташқари замонавий ОАВнинг асоси фразеологизмлар ҳисобланади. Фразеологизмлар мақолага алоҳида маънодорлик ва ифодалилик беради. Таржима назариясида фразеологизмларни тасвирлаш, уларнинг мос келиши ёки муқобилларини акс эттириш асосий муаммо ҳисобланади(А.Д.Швейцар, А.В.Фёдоров, В.Н.Комиссаров, А.В.Кунин). Таржимоннинг вазифаси шундан иборатки, у тиллардаги ўзаро коммуникация воситасини яратган ҳолда ўзи таржима қилаётган матндаги сўз ва сўз бирикмаларининг асл таржимаси ёки мавжуд эквиваленти билан алмаштиради. Масалан, **AM(асл матн)**: Incidentally, Hammond has also **punctured the idea** that the bubbles in soft drinks are themselves a hazard, debunking claims that it could harm your stomach and weaken your bones. – **ТМ(таржима қилинган матн)**: Кстати, параллельно Хэммонд развеял миф о том, будто пузырьки в газировке по себе представляют опасность, поскольку якобы способны нанести вред желудку и снизить плотность костной ткани;

Фразеологизмларни таржима қилишда тавсифлаш, сўзма-сўз, транскрипция ва транслитерация методлари қўлланилади. ОАВ матнлар таржимасида конкретлаштириш (аниқлаштириш), умумлаштириш, шунингдек модуляция ёки маъно тараққиёти каби лексик трансформациялардан ҳам фойдаланилади. Модуляция усулида таржимон таржима қилаётган лексик бирлик ўрнига контекстуал ҳамда ўша сўз ва сўз бирлигига мантқан мос вариантини танлайди. **AM: Is this the sweet secret to Swedish success? ТМ: Работать по-шведски: ни дня без фики.** Мазкур таржимада эса лексик алмаштириш яъни, модуляция қўлланилган бўлиб, асл матндаги савол тарзида берилган сарлавҳа жавоб



тариқасида таржима қилинган. Бунда таржимон эмоционалликни пасайтириб ўқувчига асосий ғояни етказиб берган.

Таржиманинг грамматик трансформацияси асосида антоним таржима ётади. Бу ҳам лексика ҳам грамматикага боғлиқ бўлган комплекс алмаштиришдир. Ундан мақсад матнни ўқувчига кўпроқ қизиқарлироқ ва мос қилиб муаммони қарама-қарши томондан кўрсатишдан иборат. Антоним таржима кўп ҳолларда сарлавҳаларда ишлатилади. Масалан, **AM: Are any foods safe to eat anymore? Here's the truth. TM: Вредно всё? Разоблачение мифов о еде.**

Экспликация ёки тавсифий таржима методи орқали эквиваленти мавжуд бўлмаган лексикани ва таржима қилинаётган тилга хос бўлмаган ҳар қандай реалияни ҳам интернет матнларида учратиш мумкин. Масалан,

**AM:** According to research by Chris Bird at the **University of Sussex**, all it requires is a few seconds of your time and a bit of imagination.

**TM:** Способ этот недавно был подтвержден экспериментальным исследованием ученого из **университета британского графства Сассекс** Криса Бёрда. Ушбу гапда таржимон рус ўқувчиси учун янада тушунарли бўлиши учун “University of Sussex” бирикмасига аниқроқ изоҳ бермоқда.

Таржиманинг грамматик хусусиятларидан яна бири унинг морфологик ва синтактик ҳодисаларга ажратилишидир. Таржимоннинг морфологик ва синтактик трансформациялардан кўп фойдаланишига сабаб сўз ва сўз бирикмаларни алмаштириш ёки бошқача жойлаштиришга эҳтиёж сезади. Масалан, **AM: US faces renewed challenge from Russian navy. TM: Российский военно-морской флот бросает вызов США.** Берилган таржимадан шуниси маълумки, таржимон ўз аудиториясига мослашиш учун Россияга эътиборни қаратиш мақсадида гап бўлақларини ўрнини алмаштирган.

Таржимада грамматика билан боғлиқ бўлган бошқа бир муаммо бу атрибутив занжирдир. Ушбу муаммо айниқса босма нашр ва янгиликлар сайтларида, яъни ижтимоий-сиёсий ҳамда илмий-техник матнларда учрайди. В.Н.Крупнованинг фикрига кўра, атрибутив бирикмаларнинг тўғри таржимасини бериш учун таржимон уларнинг семантик тузилишини билиши зарур. Атрибутив гуруҳлар ўрганилганда улар ўртасидаги катта маъновий боғлиқлик борлиги аниқланган. Бунда таржимон аналитик таҳлилга ёндашиши керак. Масалан, **background paper** – масаланинг тарихини кўрсатувчи маълумотлар хужжати.

ОАВ матн таржимасидаги грамматик трансформацияларнинг яна бошқа кенг тарқалган тури гапларни иккига бўлишдир, яъни инглиз тилидаги бир гапни икки ёки ундан ортиқ гапларга бўлиб таржима қилиш мумкин. Тадқиқотларчиларнинг фикрича, грамматик трансформацияларни турли хил ўрин алмашиш турлари мавжуд бўлиб улар қуйидагилардир: 1) сўз шаклини, яъни сон ва замон категорияларини алмашиши, 2) сўз туркумлари, 3) гап бўлақлари, 4) қўшма гапларни содда ёки содда гапларни қўшма гапларга алмаштириш, 5) бош гапни эргашган қисми билан ёки эргашган бўлакни бош гап билан алмаштириш.

Шунга эътиборни қаратиш лозимки, грамматик трансформациялар ОАВ матнларидаги сарлавҳаларни таржима қилишда муҳим роль ўйнайди, чунки айнан сарлавҳа ўқувчининг диққатини кўпроқ жалб этади. Инглиз тилида воқеа ва ҳодисаларнинг ифодалаётган матн сарлавҳалари ҳозирги замонда берилади: **Russia vows harsh response to US and EU following diplomats' expulsions.**

Охирги йилларда ОАВ таржимонлари ўз фаолиятларига ижодий ёндашишмоқда, бу эса таржимондан янги муаммолар ечимини талаб қилади. Ҳозирги даврда ўқувчилар интернетдан янги хабарлар олишга ҳаракат қилишаётган бир пайтда, эҳтимол айнан “онлайн” дастуридаги таржимон одатий таржимага биринчи бўлиб ўзгартириш киритиши, таржимадаги ўзига хос бўлган трансформациялардан фойдаланиши ва ОАВ тилини ўз аудиториясига қараб янгилаши мумкин. Бироқ таржимон қайси бир таржима усулини қўллашидан қатъий назар, унинг асосий вазифаси асл интернет матни билан таржима матни ўртасидаги боғлиқликни таъминлаган ҳолда аниқ, мос таржима қилиб, ўқувчининг эътиборини тортиб, ўша хабарга нисбатан унинг қизиқишини ошириши мумкин.

Шундай қилиб, Британия ва Америка ОАВ-интернет матнларининг ўзига хослиги уларда кўплаб неологизмлар, фразеологик бирикмалар ва оғзаки нутқ лексикасининг учрашидадир. Улар эса ўзбек ва рус тилларига калка, транскрипция, транслитерация, модуляция, тавсифлаш, антоним таржима, аниқлаштириш, умумлаштириш, алмаштириш, сўз ва бирикмаларни ўзига хос жойлашуви, гап бўлақларини ўзгартириш каби йўллар орқали таржима қилинади.

#### ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Виноградов, В.С. Введение в Переводоведение / В.С. Виноградов. - М.: Издательство института общего среднего образования РАО, 2001.
2. Классификация грамматических трансформаций [Электронный ресурс] // Study-English. – 2016. – Режим доступа: <http://studyenglish.info/article059.php>.
3. Кунин, А.В. О переводе английских фразеологизмов / Самиздат. – 2009.
4. Микоян, А.С. Проблемы переводов текстов СМИ [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://evartist.narod.ru/text12/12.htm>
5. Габдуллиной Дианы Ренатовны, Особенности перевода Британских Американских статей интернет СМИ на русский язык, Пермь 2016.

## КИМЁ ФАНЛАРИ

УЎК 54-3

ОЛОВЛИ ЎТ (*Phlomis nuda*) ЎСИМЛИГИНИНГ КИМЁВИЙ ТАРКИБИ ВА АЙРИМ ЖИГАР КАСАЛЛИКЛАРИДА ФОЙДАЛАНИШ

Д.Р.Хайдарова, ўқитувчи, Наманган давлат университети, Наманган

**Аннотация.** Ушбу мақола Фарғона водийсида ўсадиган Оловли ўт (*Phlomis nuda*) ўсимлиги таркибида инсон организми учун фойдали бўлган табиий кимёвий бирикмалар, уларнинг хусусиятлари, ҳамда айрим жигар касалликларида қўлланиладиган синтетик дори воситалари билан қиёсий таққослаш бўйича маълумотлар келтирилган.

**Калим сўзлар:** Оловли ўт (*Phlomis nuda*), *Phlomis speciosa*, *Phlomis angreni*, *Phlomis tuberosa*, алкалоидлар, флавоноидлар, иридоидлар, эфир мойлари, сапонинлар, Асихон, халқ табобати.

**Аннотация.** В данной статье приведены сведения о сравнении природных химических соединений, содержащих *Phlomis nuda*, произрастающих в Ферганской долине их свойств, а также синтетических препаратов, применяемых при некоторых заболеваниях печени.

**Ключевые слова:** Огневик обнажённый (*Phlomis nuda*), *Phlomis speciosa*, *Phlomis angreni*, *Phlomis tuberosa*, алкалоиды, флавоноиды, иридоиды, эфирные масла, сапонины, лечебные свойства, Асихон, народные.









**Abstract.** This article provides information on the comparison of natural chemical compounds, properties, as well as synthetic drugs used in some diseases of the liver, containing *Phlomis nuda*, which grows in the Fergana Valley.

**Keywords:** Fiery plant (*Phlomis nuda*), *Phlomis speciosa*, *Phlomis angreni*, *Phlomis tuberosa*, alkaloids, flavonoids, iridoids, essential oils, saponins, healing properties, Asixon, folk.

Бугунги кунда инсон организмидаги касалликларни даволаш мақсадида синтетик дори воситалари яратилган ва қўлланилиб келинмоқда. Мазкур синтетик дори воситаларининг айримлари инсон организмга тушгач парчаланиб, асосий таъсир этувчи бирикма ва қуйи молекуляр ёнаки моддалар ҳосил бўлади. Мазкур ёнаки бирикмалар қон орқали жигар, буйрак, ўт каби муҳим аъзоларнинг зарарланиши ва фаолияти бузилишига олиб келади. Шунинг учун айрим касалликларни даволашда синтетик дори воситалари ўрнига, таркибида табиий, биологик фаол моддалар сақлаган, ўсимликлар асосида тайёрланган озик-овқат маҳсулотларидан фойдаланиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади. Шу боисдан доривор ўсимликларнинг кимёвий таркибини ўрганиш, улардан биологик фаол моддаларни ажратиш олиш, ҳамда доривор ўсимликлар асосида инсон организми иммунитетини оширувчи, турли хил касалликларни даволаш ва олдини олиш хусусиятига эга, синтетик дори воситаларининг ўрнини босувчи, зарарсиз, биологик фаол озик-овқат қўшилмаларини ишлаб чиқиш ва улардан халқ табобатида кенг фойдаланиш долзарб масалалардан бири ҳисобланади [1,2]. Бу борада, Ўзбекистонда ўсадиган доривор ўсимликларнинг кимёвий таркибини ўрганиш ва мазкур ўсимлик асосида таркибида организм учун фойдали табиий бирикмалар сақлаган, зарарсиз, биологик фаол озик-овқат қўшилмаси тайёрлаш бугунги кунда долзарб масалалардан бири ҳисобланади.

Ҳозирги кунда антиоксидант, гепатопротектив ва липидларни камайтирувчи хусусиятга эга бўлган Липоевик кислота, Урсодеоксихол каби синтетик дори воситалари айрим жигар касалликларини даволашда қўлланилмоқда. Лекин мазкур дори воситалари таркибидаги синтетик бирикмалар организмда парчаланиши натижасида юқорида таъкидланганидек жигар, ўт, буйрак, талок каби муҳим органлар фаолиятига таъсир этиб, уларни зарарланишига олиб келади [3]. Шунинг учун, биз томонимиздан жигар касалликларини даволаш хусусиятига эга бўлган доривор ўсимликларнинг кимёвий таркиби аниқлаш бўйича тадқиқотлар олиб борилди. Ўтказилган тадқиқотлар давомида биз Фарғона водийсида ўсадиган Оловли ўт (*Phlomis nuda*) ўсимлигининг кимёвий таркибини ўргандик. Натижада, мазкур ўсимликнинг ер устки қисми таркибида учувчан компонентлардан Терпинен-4-ол, Бензил спирт, 2-фуранметанол, бензилацеталдегид, 1-Бутанол, 3-Карен, Д-Лимонен, 1,8-Синеол, м-Симен бирикмалари мавжуд эканлиги аниқланди [4]. Ушбу маълумотлар Оловли ўт (*Phlomis nuda*) ўсимлиги таркибида инсон организми учун фойдали бўлган бирикмаларнинг кўпчилигини инобатга олиб, ундан замонавий тиббиёт ва халқ табобатида кенг фойдаланиш мумкинлигига асос бўлиб хизмат қилди. Ўтказилган тадқиқот натижаларига асосланиб, биз томонимиздан Оловли ўт (*Phlomis nuda*) ўсимлиги асосида, инсон организми учун зарур бўлган макро- ва микроэлементлар, биологик фаол табиий бирикмалар сақлаган “Асихон” номли биологик фаол озик-овқат қўшилмаси ишлаб чиқилди, ҳамда мазкур янги биологик фаол озик-овқат қўшилмаси Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги томонидан озик-овқат қўшилмаси сифтида рўйхатга олинди ва амалиётда қўллашга руҳсат этилди. Мазкур озик-овқат қўшилмаси антиоксидант, гепатопротектив хусусиятга эга бўлиб, жигар гепатоцит хужайраларини тиклаш ва фаолиятини яхшилаш, шунингдек, инсон организми

иммунитетини мустаҳкамлаш, қон босимини нормаллаштириш, қонни тозалаш ва танадаги қон айланишини яхшилаш, жигар фаолиятини тиклаш ва ўт ажралиб чиқишини нормаллаштириш, организмни зарарли моддалардан тозалаш хусусиятига эга. “Асихон” биологик фаол озиқ-овқат қўшилмасининг жигар фаолиятини яхшилаш ва айрим жигар касалликларини даволаш хусусиятини намоён қилишининг сабабини аниқлаш мақсадида унинг таркибидаги биологик фаол моддаларни айрим синтетик дори воситалари таркиби билан қиёсий таққосланди. Таққослаш натижалари қуйидаги жадвалда келтирилган.

Т.р.	Жигар касалликларида ишлатиладиган айрим синтетик дориларнинг кимёвий таркиби	<i>Phlomoïdes nuda</i> ўсимлиги таркибидаги айрим жигар касалликларини даволовчи табиий бирикмалар
1	Липоевик кислота 	терпинен-4-ол 
2	Урсодеоксикхол 	Бензил спирт 
3	S-аденозилметионин 	2-фуранметанол 
4	4-метоксиацетофенон 	Бензацетальдегид 

Юқоридаги жадвалдан кўриниб турибдики жигар касалликларида ишлатиладиган синтетик дори воситалари таркибидаги асосий таъсир этувчи бирикмаларнинг таркиби ва тузилиши, *Phlomoïdes nuda* ўсимлиги таркибидаги табиий биологик фаол бирикмаларнинг таркиби ва тузилишига яқин. Шунга асосланиб, *Phlomoïdes nuda* ўсимлиги асосида тайёрланган “Асихон” биологик фаол озиқ-овқат қўшилмасининг жигар фаолиятини яхшилаш ва айрим жигар касалликларини даволаш хусусиятини намоён қилади деб хулоса қилиш мумкин.

#### ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. И.Р.Аскарлов. Табобат қомуси. Мумтоз сўз. Тошкент – 2019. – 1590 б.
2. И.Р.Аскарлов. Сирли табобат. – Т: Фан ва технологиялар нашриёт-матбаа уйи. 2021. – 1084 б. [https://www.vidal.ru/drugs/lipoic\\_acid\\_59994](https://www.vidal.ru/drugs/lipoic_acid_59994).
3. Хайдарова Д.Р., Сиддиқов Г.У., Абдуллаев Ш.В., Абдилалимов О Макро- и микроэлементный состав некоторых видов *Phlomoïdes* произрастающих в Узбекистане. Журнал СамДУ. Илмий хабарнома. 2021 йил. 104-106 б.

## COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING AND ITS INFLUENCE ON STUDENTS' PROGRESS

*M. Abdurakhmonov, teacher, Pedagogical Institute of Karshi State University, Karshi*  
*D. Tilavov, teacher, Pedagogical Institute of Karshi State University, Karshi*

**Annotatsiya.** Kommunikativ til o'qitish (KTO) ko'plab Yevropa va Osiyo mamlakatlari orasida ingliz tilini o'rgatishda mashhur o'qitish usullaridan biri sifatida keng e'tirof etilgan. Tadqiqotning o'zagi o'zbek o'quv dasturini va o'quvchilarning metod bo'yicha ish faoliyatini tahlil qilishdan iborat. CLT boshqa usullar bilan solishtirganda juda ko'p afzalliklarga ega, ammo tadqiqotda qishloq va shahar maktablarida ushbu yondashuv o'rta maktab o'quvchilari uchun qanday ishlashini tahlil qilish kuzatilgan. Bundan tashqari, ingliz tilini o'zlashtirishning to'rtta mahoratiga asoslangan yana bir eksperimental tadqiqot o'qish, yozish, tinglash va gapirish qobiliyatini o'z ichiga oladi. CLT talabalarga kommunikativ ta'lim uslubini aniqlashga yordam beradigan vosita sifatida belgilangan.

Tadqiqotning asosiy maqsadi talabalarning sinfdagi faolligini yaxshilash uchun ESL o'qituvchilari tomonidan ikkinchi tilni o'zlashtirishda kommunikativ tilni o'rgatish yondashuvini amalga oshirishni tekshirishdan iborat. Ishtirokchilar turli xil ta'lim uslublariga ega bo'lgan maktab o'quvchilari. Ma'lumotlar yig'iladi va ingliz tilini o'rganuvchilarga ba'zi so'rovnomalar beriladi. Tekshiruv davomida o'rganish uslublari, kuzatishlar va anketalar tadqiqotni aks ettirishga qaratilgan. Ushbu tadqiqot davomida olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, guruh ishi, juftlik va muhokama talabalarni kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga jalb qilishning asosiy strategiyasi hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** Kommunikativ til o'qitish metodikasi, o'zbek tili o'quv dasturi, ikkinchi tilni o'zlashtirish

**Аннотация.** Коммуникативное обучение языку (KTO) широко признано во многих странах Европы и Азии как один из самых популярных методов обучения английскому языку. Основное внимание в исследовании уделяется анализу узбекской учебной программы и успеваемости студентов по этому методу. CLT имеет много преимуществ по сравнению с другими методами, но в исследовании был проведен анализ того, как этот подход работает для старшеклассников в сельских и городских школах. Кроме того, еще одно экспериментальное исследование, основанное на четырех навыках овладения английским языком, включает умение читать, писать, слушать и говорить. CLT определяется как инструмент, помогающий учащимся определить коммуникативный стиль обучения.

Основная цель исследования заключалась в изучении реализации коммуникативного подхода к обучению языку при изучении второго языка учителями ESL с целью повышения вовлеченности учащихся в классе. Участники - старшеклассники с разными стилями преподавания. Будут собраны данные, и некоторые анкеты будут переданы изучающим английский язык. В ходе опроса использовались методы исследования, наблюдения и анкеты для отражения результатов исследования. Результаты, полученные в ходе этого исследования, показывают, что групповая работа, работа в паре и обсуждение являются ключевыми стратегиями для вовлечения учащихся в развитие коммуникативной компетенции.

**Ключевые слова:** коммуникативная методика обучения языку, учебная программа узбекского языка, изучение второго языка.

**Abstract.** Communicative Language Teaching (CLT) is widely accepted as one of the popular teaching methods in teaching English among many European and Asian countries. The core of the study is to analyze Uzbek curriculum and students performance regarding the method. CLT has numerous advantages compared with other method, yet in research it was observed among rural and urban schools to analyze how this approach works for high school students. Moreover, another experimental research based on four skills of English acquisition includes reading, writing, listening, and speaking skill was conducted. CLT is identified as a tool to help students out communicative learning style.

The basic goal of the study is to check the implementation of Communicative Language Teaching Approach in the Second Language Acquisition by ESL teachers to improve students' engagement in classroom. The participants are school learners who have different learning styles. The information is collected, and some questionnaires are given to the English learners. During investigation, learning styles, observations and questionnaires are focused to reflect the study. The results obtained throughout this study disclose that group work, pair work and discussion are the prime strategies to get students engaged to develop communicative competence.

**Key words:** Communicative Language Teaching Method, Uzbek Curriculum, Second Language Acquisition

**Uzbekistan curriculum and communicative competence.** The importance of CLT is the engagement of students in interaction so as to allow them to bolster communicative method. Savignon (2006) expressed that CLT as we know is existed in 20<sup>th</sup> century in linguistic theory and language acquisition in European and American continents. According to the Framework of Uzbekistan curriculum, perfect curriculum is considered to rely on natural environment. To achieve this target, it requires constantly teacher training, qualification standards, political expectations and culture. Task- Based learning and CLT method are highly emphasized in the country and students are independent to exchange ideas, optimize topics to communicate, but at the same time the curriculum is required to have strong relationship to illustrate social and authentic situations such as restaurants, airports, streets, shops.

Competencies should consist of clear understanding of knowledge, attitude and skills which support learners to overcome the difficulties of the digital era.

Important competences that students must acquire completely during the underground academic year

1. Skills of communication and interaction
2. Critical thinking competencies
3. Learning skills
4. Competencies associated with Social life, work and environment
5. Personal competencies

**3. Communicative Language Teaching (CLT).** Richard (2006) noted that people acquire the language for the reason of requirement rather than studying its functions. In this case CLT is becoming globally popular around the world. This means learning second language based on CLT turns out due to the need. Communication language teaching implies natural teaching rather than focusing on involving rules. According to linguistics, that it is essential how to communicate the language. Most people in the world implement the language for communication only and didn't acquire any grammatical rules of the language. Jack Richard mentioned that grammar mistakes aren't important as they are accepted in real world. More importantly, individuals should know how to express their feeling and understand one another.

**4. Literature review.** Everybody has to communicate to convey their feelings, comments and ideas. This is main reason why communicative activities and visual tools need to integrated into lessons. Speaking discourse is quite productive when it is associated with real life atmosphere that bolster students to do their assignments and activities as well. It is known that all individuals should comprehend spoken and oral languages in different situations such as daily and social life, work place, educational setting among others. The apply of communication is illustrated as listening to others and speaking with others in any activity (Moss and Ross-Feldman, 2003). Communicative activities and assignments are effective to lose each student shyness and inhibition in the classroom, expressing ideas about oneself and learning about variety of cultures. Jeyasala (2014) believes that English instructors should be trained to motivate students' communicative competence all the time and to break down the limitation to employ English fluently and accurately. Exposing students to authentic contexts and materials is the most outstanding option teacher can make as students can exchange real life data, and this might cause languages, expressions and phrases based on situations.

**5. How do students acquire a language?** Most linguistics agree that language acquisition is regarded in previous century as mechanical. They also focus on the accuracy of the language in the context. This implies that by focusing on morphology and syntactic does not make any grammatical mistakes. In my argument students highly count on teachers in this method, not giving privilege to students to communicate in natural way. Hence, it is appeared an obstacle between students and teachers. When CLT method compared with other teaching method, it is highly mentioned learners are the center of the class and teacher's role is a facilitator. Richard (2006) states that interactivity between students and speakers comes up through the CLT. The broad goal of CLT is to employ theoretical point of communicative approach leads to communicative competence that is main purpose of teaching and accepting interconnection of a language and interaction (Diane, 2000)

**Research methodology.** Research question is that how extent CLT is applied in Republic of Uzbekistan? We observed how CLT is implemented and common method school teachers are using in the classroom according to the curriculum. The analysis and experiment in rural and urban area applying CLT method to observe the changes in students' performances while educating students through CLT and other teaching method and approaches which practice different textbooks and materials. In the experiment 150 students participated in urban area "school N-2" in Karshi and in rural area "school - 44" in Kitab. At the beginning of the academic year, these 11<sup>th</sup> grade students were tested on common and traditional method existed in the curriculum before implementing CLT method. This research implies to see whether the 11<sup>th</sup> grade of students needs required knowledge according to Uzbek curriculum. At the end of the academic year students' knowledge was tested again to calculate overall results after practicing CLT method.

**Results.** These methods are used to see scientific methods and transformation of results. This research shows and analyzes the data collection and results set out in this study based on some activities, materials, strategies and the percentages of language use in the classroom while applying the CLT approach. Results are developed focusing on descriptive statistics parameters. They incorporate Arithmetic Average,

Standard Deviation, Minimum and Maximum score, and Skewness.

In table 1 we can see the rates of primary statistical measurements of the research results of the students of secondary school in N-2 in Karshi were examined with four integrated skills; writing, listening, reading, and speaking. As seen in the table, central tendency calculation and distribution of results from average values have illustrated normal outcomes while Skewness rates appeared to be lower than 1.

Of all four skills speaking is the highest rate. Reading shows 18.40 while speaking 23 max. On the other hand, listening and writing express the same number, 19 each.

In table 2 secondary school N-44 in rural area, Uzbekistan is depicted based on four integrated skills. Apart from writing and speaking skills, the other skills are acceptable. Skewness value is lower than 1. Reading skill and listening skill equals to 16 and 15 percentage respectively while both writing and speaking hits lower rate 10 and 11 each.

**Discussion and Conclusion.** To conclude, the results of experiment showed that CLT implementation is much better in urban area rather than rural zone. Students of urban area took part in the experiment were satisfied with teacher's role in the classroom. The practice of Study-Engaged- Activated approach was appealed to students, so students feel free to express their comments and feelings.

Finally, the implementation of CLT in the schools will be beneficial and productive and all ESL teachers switch old classical methods to modern and real life approaches and practices.

#### REFERENCES:

1. Diane, L (2000) "Techniques and Principles in language teaching." Oxford University press 2000
2. Harmer, J (2003) "how to teach English" Pearson Education Limited
3. Richards, J.C (2006) Communicative Language Teaching Today. Cambridge University Press 2006.
4. Savignon, S.J (2006) Beyond Communicative language teaching. Journal of Teaching Pragmatics

UO'T: 37.02

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'ZBEK TILI DARSLARIDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

*D.N. Abduxalilova, stajor-o'qituvchi, O'zbekiston jahon tillari universiteti, Toshkent*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan guruhlarda o'zbek tili darslarida o'quvchilarning nutqini o'stirishda didaktik o'yinlarning o'рни, ahamiyati va samarali vosita ekanligi yoritib berilgan.

**Kalit soz'lar:** til o'rganish jarayoni, didaktik o'yin va metodlar, og'zaki va yozma nutq, ko'rgazmalilik metodi.

**Аннотация.** В статье освещается роль, значение и эффективные инструменты дидактических игр в развитии речи учащихся на уроках узбекского языка в группах с другими языками обучения.

**Ключевые слова:** процесс изучения языка, дидактические игры и методы, устная и письменная речь, демонстрационный метод.

**Abstract.** This article highlights the role, importance and effective tools of didactic games in the development of students' speech in Uzbek language classes in groups with other languages of instruction.

**Keywords:** language learning process, didactic games and methods, oral and written speech, demonstration method.

Qo'shnimizning o'g'li Daniilning o'zbek tilida gapirishga qiziqishi, o'zbekcha she'rlarni yoddan aytib berishini ko'rib, unga qiziqishim uyg'ondi. O'zi ham meni ko'rganda uni qiziqtirgan narsalarni o'zbek tilda so'rashga harakat qiladi. Uning onasidan o'g'lining o'zbek tiliga qiziqishining boyisi nimada ekanligini so'raganimda, bola ta'lim olayotgan maktabda o'zbek tili o'qituvchisi darslarni qiziqarli o'tishi, o'g'li har bir darsda yangi so'zlarni o'rganib kelishi, o'zbek tilidan uyga berilgan topshiriqlarni o'zi bajarishga harakat qilishini to'lqinlanib gapirib berdi.

O'z fanini sevuvchi o'qituvchilar darsni tashkil etishda o'quvchilar qiziqishini oshirish va darslarni jonlantirish uchun turli metod va o'yinlardan foydalanadi. O'yin asosida olib boriladigan mavzular esa xotirada uzoq muddat saqlanib qoladi. Qolaversa o'quvchilar ham noodatiy darslarni yaxshi ko'radilar.

Til o'rganish jarayoni, avvalo, jonli muloqotni taqozo etadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining vazifasi o'quvchining og'zaki nutqini o'stirish uchun o'quvchilarga zarur yordamni tez hamda qulay usul bilah yetkazishdan iborat.

Shundagina o'quvchining shaxsiy layoqati, bilim saviyasiga mos ravishda mashq va topshiriqlar berish orqali tilni o'rganish jarayonini yuksak saviyada tashkil etish mumkin. Rusiyazabon o'quvchilarga o'zbek tilini o'rgatishda o'quv jarayonida pedagogik texnologiyalarning ilg'or usullaridan qo'llash hamda axborot texnologiyalaridan o'rinli foydalanish darslarni samarali tashkil etishga yordam beradi. Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda o'zbek tili darslarida o'quvchilarning so'z boyligini oshirish nutq o'stirish asoslaridan biri bo'lib, boshlang'ich sinflarda asosiy e'tibor o'quvchilarning so'z boyligini oshirish, ularning o'zbekcha nutqini shakllantirish, nutq tovushlarini to'g'ri talaffuz qilish ko'nikmalarini shakllantirishga

qaratilgan. Didaktik o'yinlar tashkil etish orqali o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirishga erishiladi. Ta'limda o'yin texnologiyalaridan foydalanish eng samarali vositalardan biridir. O'yin davomida ularning tafakkuri, dunyoqarashi, fikrlashi kengayib boradi. Olimlar ta'limga o'yin orqali yondashuv ta'lim jarayonini osonlashtiradi, deb hisoblagan. Nafaqat osonlashtiradi, balki bu fanga qiziqishini kuchaytirib bolani chuqur bilim olishiga undaydi. O'yin tarzidagi darslar bolalarning og'zaki nutqini rivojlanishiga yordam beradi. Bolaning nutqi qancha rivojlangan bo'lsa, uning bilim imkoniyati shuncha keng bo'laveradi. Nutq bola hayotida turli vazifalarni, ya'ni o'zaro aloqa qilish, tajribalarni o'zlashtirish, umuman faoliyatini boshqarish kabi vazifalarni bajaradi. Buning uchun talablarga javob beruvchi zamonaviy darslarga juda katta e'tibor berishimiz va ulardan foydalanishimiz zarur.[1] Kichik yoshdagi o'quvchilarni dars jarayonida va darsdan tashqari vaqtlarda tabiat hodisalarini, narsa-buyumlarni kuzatish va tahlil qilishga o'rgatish, ularni atrof-muhit, ya'ni o'simliklar, hayvonot dunyosi, tabiatga oid tushunchalar, narsa-buyumlarning nomlari, belgi va miqdorini bildiruvchi so'zlar bilan tanishtirish orqali ularning lug'at boyligini oshirib borish, ayni paytda o'rgangan so'zlarini ular xotirasiga singdirib borishga qaratilgan mashqlarni qo'llash til darslarining asosiy ta'limiy maqsadlari hisoblanadi. Buning uchun pedagogik texnologiyalarning ushbu maqsadlarga muvofiq keladiganini tanlash, ushbu metodlarni guruh, sinf imkoniyatlarini e'tiborga olgan holda eng sodda vositalardan murakkab vositalarga qarab o'stirib borish kerak bo'ladi.

Turli o'yinlardan foydalanish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

1. O'zbek tilida so'zlashga qiziqishni shakllantiradi.
2. Bolalarda o'zining lug'at boyligini jadal kengaytirish istagini uyg'otadi.
3. Nutq qurilmalarini ko'r-ko'rona qaytarmasdan, ular asosida o'z fikr va istaklarini ijodiy tarzda ifodalashga o'rgatadi.

Boshlang'ich sinflarda tilni o'qitishda og'zaki bayon qilish, ko'rgazmalilik, ta'limiy o'yinlar va noan'anaviy ta'lim metodlari keng qo'llanadi. Suhbat metodi og'zaki bayon qilish metodi bo'lib, o'quvchilarda faollikni yuzaga keltiradi, o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob topish jarayonida o'quvchi fikr yuritadi, o'z fikrini bildirib, uni dalillashga harakat qiladi. Bu o'quvchida mustaqil fikrlash ko'nikmasini rivojlantiradi. Ko'rgazmalilik metodi turli ko'rgazmali vositalar yordamida amalga oshiriladi. Yangi so'zlarni ongli va puxta o'zlashtirish ko'rgazmalilikni taqozo etadi. Bunda turli buyumlar, jadvallar, rasmlar va boshqa tasviriy vositalardan, diafilm, kinofilm, multimediali vositalardan foydalanish mumkin. O'yin – boshlang'ich sinf o'quvchilarida ta'lim sifatlarini shakllantirish uchun kattalar–o'qituvchilar, tarbiyachilar, ota-onalar tomonidan qo'llanilayotgan usul. O'yin vositasida o'quvchilar bilim o'zlashtirish jarayoni qulaylashadi, turli xil predmetlar bilan munosabatda bo'lishga o'rganadi, shuningdek ularda muomala madaniyati shakllanadi. O'yin – muhim aqliy faoliyat turlaridan biri bo'lib, unda o'quvchi qobiliyatining hamma turlari rivojlanadi, uning atrof-olam haqidagi tasavvurlari kengayadi, nutq boyligi oshadi. Didaktik o'yinlar o'quvchining turli-tuman qobiliyatlari, idroki, nutqi va diqqatining rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi.[2]

Ta'limiy didaktik o'yinlardan ko'proq amaliy mashg'ulotlarda foydalaniladi. Shunday o'yin usullari borki, til o'rganishga motivatsiya uyg'otishga, nutq jarayonini faollashtirishga, mavzuni tez va oson o'rganishga yordam beradi. Ta'lim boshqa tilda olib boriladigan maktablarning boshlang'ich sinflarida o'zbek tili darslarini o'qitishda quyidagi didaktik o'yin va metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Boshlang'ich sinflarda suhbat metodini mavzuga oid rasmlardan foydalanib Bu kim? Bu nima? Bu qayer? O'quvchi nima qilyapti? Kim raqsga tushyapti? Kim rasm chizyapti? Nechta olma? va h.k shunga o'xshagan savollardan foydalanib o'tkazish mumkin.

«So'z top» o'yini. Ushbu metodni 2–3-sinflarda darsning kirish qismida avvalgi darsni mustahkamlash maqsadida yoki lug'at ustida ishlash maqsadida o'tkazish mumkin. O'qituvchi birona so'z aytadi, o'quvchilar esa davom ettiradilar. O'yin qoidasiga ko'ra o'qituvchi boshlagan so'z qaysi harfda tugasa, o'quvchi shu harfdan boshlangan so'zni aytishi kerak. Kitob-bog'cha-ayiq-qush. Bunday ish turini biror mavzuga oid so'zlar bo'yicha ham o'tkazish mumkin. O'quvchilar navbatma-navbat bir soha yoki bir mavzu guruhiga oid so'zlarni topishlari lozim.

«Xatosini top va tuzat» o'yini ham o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish maqsadida darsning mustahkamlash qismida o'tkazish maqsadga muvofiq. Guruhlarga kartochkalar tarqatiladi. Kartochkalarda berilgan gaplarning xatosini o'quvchilar topadilar va tuzatib yozadilar. Keyin bir o'quvchi taqdimot qiladi. Namuna: 1-guruh: Kuz faslidan so'ng kuz keladi. Bir yilda besh fasl bor. Oktyabr oyidan o'quv yili boshlanadi. Bahor faslida qovoq pishadi. 2-guruh: Bahor faslida daraxtlar sarg'ayadi. Kuz faslida daraxtlar gullaydi. Yoz faslida havo soviy boshlaydi. Qish faslida dehqonlar hosilni yig'ishga kirishadilar.

«Xotira» mashqi. Bu o'yin juda qiziqarli bo'lib, o'quvchilar o'rgangan so'zlarini xotirada yaxshi eslab qolishlariga yordam beradi. A4 shakldagi qog'ozga katakchalar chizilib, har bir katagiga o'zbekcha so'zlar yoziladi va o'quvchilarga tarqatiladi. O'qituvchi ruscha so'zlarni o'qiydi, o'quvchilar esa o'qilgan so'zlarning o'zbekcha tarjimasini katakchalarda bo'lsa belgilashlari kerak. Topshiriqni birinchi bo'lib to'g'ri bajargan o'quvchi g'olib sanaladi.

“Baliq skeleti”metodi orqali o`quvchilarning unli va undosh tovushlarni qanday o`zlashtirganliklari, undosh va unli harflarni farqlashlari mustahkamlanadi.

Har bir o`quvchiga baliq skeleti chizilgan A4 qog`ozi tarqatiladi. O`quvchilarga baliqning pastki qismiga o`zbek alifbosidagi barcha harflarni beshtadan yozishlari, yuqori qismiga harflar ichidan faqat unli harflarni topib yozish topshirig`i beriladi. Baliqning dumiga esa xulosa, ya`ni nechta unli harf borligi yoziladi. O`quvchining javobi tekshirib, umumlashtirildi.

**“Klaster” metodi.** Klaster “g`uncha”, “bog`lam” degan ma`noni bildirib, o`quvchilarga erkin, ochiq o`ylash va fikrlarini bemaolol bayon etish uchun yordam beradi. Bu usulni barcha sinflarda “Vatan” mavzusini o`rganishda, 2-sinfda “Idishlar”, “Oziq-ovqatlar” mavzusini, yuqori sinflarda “Buyuk allomalar”, “Milliy hunarmandchilik” mavzularini o`rganishda qo`llash mumkin. 3-sinfda “Oila” mavzusini tushuntirishda, mavzu bo`yicha o`quvchilar bilimini tekshirish maqsadida doskada aylana chizib, oila so`zi yoziladi va o`quvchilarga “Oilada kimlar yashaydi? Sizning oilangiz necha kishidan iborat?” degan savollar bilan yuzlanamiz. O`quvchilar doskaga chiqib oila haqida bilganlarini aylana atrofiga yozadilar. Mavzuni o`rganib bo`lgandan so`ng mustahkamlash maqsadida bu usulni guruhlarda o`tkazish mumkin. Bunda A4 formatdagi qog`ozlarga murakkab klaster chizib, guruhlarga beriladi. O`quvchilar oila a`zolari haqida: oilada kimlar yashashi, ular qanday kasb egalari, yoshlari nechada ekanliklari haqidagi ma`lumotlarni to`g`ri va xatosiz yozishlari kerak bo`ladi. Qaysi guruh birinchi bo`lib bajarsa, g`olib bo`ladi. Bu bilan o`quvchilarning mustaqil fikrlashini va so`zlarni to`g`ri yozish malakasini shakllantiramiz.

**Venn diagrammasi metodi.** Bu metod grafik tasvir orqali o`qitishni tashkil etish shakli bo`lib, u ikkita yoki uchta o`zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalarning umumiy va farqlovchi jihatlarni aniqlash, taqqoslash imkonini beradi. Buning uchun ishtirokchilar kichik guruhlarga birlashib, ko`rib chiqilayotgan tushunchaga xos farqli jihatlarni doiralarda ichiga yozib boradilar. 3-sinfda “Mevalar”, “Sabzavotlar” mavzularini o`tgandan so`ng darsni mustahkamlash maqsadida ushbu metodni qo`llashimiz mumkin.

Ta`lim rus tilida olib boriladigan maktablarning 2-3 sinflarida “O`zbek tili darslarida aynan shunday mavzular o`tiladi, shu bois bu ta`limiy o`yinlar o`tilgan mavzular va o`rganilgan so`zlarni o`quvchilar xotirasida mustahkamlashga juda kata yordam beradi. O`zbek tilini mukammal o`rganish uchun lug`at bilan ishlashga urg`u berish talab etiladi. Matn uchun berilgan lug`atlarni shunchaki o`qish emas, lug`atlarni o`qish va eslab qolish, eslab qolingani lug`atlarni takrorlash va yoddan zanjir usulida so`rash yoki aksincha lug`atlarni o`qish va eslab qolish, eslab qolganlarini yozish, berilgan lug`atlardan foydalanib so`z birikmalari tuzish kabi topshiriqlarni dars jarayonida muntazam qo`llab boorish o`quvchilarning so`z boyligini boyitishga xizmat qiladi. Ko`p marta takrorlash orqali o`rganilgan nutq materiallari oson o`zlashtiriladi. Didaktik o`yinli ta`lim texnologiyasining o`ziga xos jihati, an`anaviy ta`limdagidan farq qilib, boshlang`ich sinf o`quvchilarining mustaqilligi va o`quv fani faoliyatini ta`qiqalmasdan, balki belgilangan maqsadga yo`naltirish o`quv faoliyatini hamkorlikda tashkil etishni talab etadi. Ularni faoliyatiga ongli ravishda yo`llash biror bir faoliyatni buyruq orqali amalga oshirmasdan, balki samarali tashkil etish orqali o`quvchilarga fan asoslarini o`rganishga bo`lgan qiziqishlarini orttirish, shaxsning extiyoji, qiziqishi imkoniyatlarini chegaralamasdan erkin tanlash huquqini berish sanaladi. Shundan kelib chiqib, o`zbek tili darslarida o`quvchilarning o`zbekcha nutqiy ko`nikmalarini rivojlantirish uchun quyi ta`lim bosqichlarida krossvordlar, rebuslar, topishmoqlar, tez aytishlardan ko`proq foydalanish maqsadga muvofiq.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. “Buyuk Ipak Yo`lida umuminsoniy va milliy qadriyatlar: til, ta`lim va madaniyat” Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari Samarqand, 2019-y.
2. Таълим сифатини такомиллаштиришда инновацион ҳамкорликнинг долзарб масалалари. Халқаро илмий онлайн конференция 2020 йил.
3. Muxiddinova X.S. O`zbek tilini o`qitish metodikasi (o`zga tilli guruhlarda). Toshkent: “Vneshinvestprom” 2020.

UDC: 378

## DEVELOPMENT OF LINGUISTIC COMPETENCES IN STUDENTS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

*Sh.A. Alimbayeva, teacher, Tashkent State Technical University, Tashkent*  
*M.M. Khusamiddinova, teacher, Tashkent State Technical University, Tashkent*

**Annotatsiya.** Ushbu modda oliy o`quv yurtlarida va zarurat sifatida bosqichma-bosqich rivojlanish bosqichlarida lingvistik kompetentsiyani shakllantirishni tahlil qiladi. Leksik ko`nikmalar nuqtai nazaridan leksik ko`nikmalarining ahamiyati ta`kidlangan, ularning o`ziga xos xususiyati sifatida, ularning o`ziga xosligi va shakllanishning o`ziga xos xususiyati va shakllantirilgan liniyadagi tuzilgan leksik kompakt-disklarning afzalliklariga asoslanadi asos. Bu talabalarning tiliy xususiyatlarini, shuningdek, o`quv va kognitiv faoliyatni hisobga olishni o`z ichiga oladi.

**Kalit so`zlar:** lingvistik kompetentsiya, leksik maxorat, so`zlar izohi, jadallashuv tarkibi, kasbiy jarayon, nutq holati.



**Аннотация.** В этой статье анализируются формирование лингвистической компетентности в обучении иностранного языка в высших учебных заведениях и ее этапах постепенного развития в качестве необходимости. Подчеркивается важность лексических навыков в контексте междисциплинарных отношений как неотъемлемой частью лексической компетентности иностранного языка, описана их специфика и условия формирования, основанные на преимуществе структурированных лексических компетенций иностранного языка на междисциплинарном основа. Это включает в себя с учетом лингвистических характеристик студентов, а также образовательные и познавательные мероприятия.

**Ключевые слова:** лингвистическая компетентность, лексические навыки, словарный запас, динамическое единство, профессиональный процесс, речевая ситуация.

**Abstract.** This article analyzes the formation of linguistic competence in foreign language teaching in higher education institutions and its stages of gradual development as a necessity. The importance of lexical skills in the context of interdisciplinary relations as an integral part of the lexical competence of a foreign language is emphasized, their specificity and conditions of formation are described, based on the advantage of structured lexical competencies of a foreign language on an interdisciplinary basis. This involves taking into account the linguistic characteristics of the students as well as the educational and cognitive activities.

**Key words:** linguistic competence, lexical skills, vocabulary, dynamic unity, professional process, speech situation.

**Introduction:** It is known that the modern concept of higher education implies the organization of educational culture based on a set of basic competencies of a general cultural and professional nature and necessary in the relevant areas of activity. The tasks facing students in modern conditions are formed on the basis of professional vocabulary as mastering all types of speech activities, as well as mastering professional communication skills. Foreign language lexical competence is the linguistic basis of professional and communicative competence. They can be considered as a dynamic unit: lexical competence is formed in the process of students' communicative activity and improves with the development of lexical competence, i.e. their formation is interrelated.

Professional linguistic competence is a holistic concept that represents the ability of students to apply relevant vocabulary, skills and competencies formed on its basis, knowledge speech experience in different situations related to their future professional activity.

**Research methods:** The main purpose of teaching a foreign language at all stages of education in the Republic of Uzbekistan is the formation of communicative competence in students. Communicative competence is the ability to apply the knowledge, skills and competencies acquired in a foreign language in the process of communication.

Active or interactive methods include stimulating cognitive activity and reader autonomy. Interactive methods are aimed at creating a comfortable learning environment in which all students actively interact with each other. The organization of interactive education includes the modeling of living conditions, the use of role-playing games, the general solution of information on the basis of analysis of tasks and situations, the introduction of information flows into the mind, which leads to its active activity. An integral part of interactive approaches are interactive exercises and tasks performed by learners. The main differences in interactive exercises and habitual work, they are aimed not only at combining the material studied, but also at learning something new.

Modern pedagogy is rich in many interactive approaches, among which are:

- creative tasks;
- work in small groups;
- educational games (role playing, imitation, business games and educational games);
- use of public resources (invite specialists, excursions);
- social projects (social projects, contests, radio and newspapers, movies, shows, performances, songs and fairy tales);
- learning and strengthening of new materials (interactive lectures, visual aids, working with video and audio materials, "student as a teacher", "everyone teaches");
- discussion of complex and controversial questions and problems.

With the interactive learning method, students communicate directly in the learning environment, which in turn serves as a source of experience. Mutual relations in the understanding of pedagogical methods presupposes their preparation when organizing the teaching of students and teachers. Reader-listener, does not work as an observer, but actively participates in the lesson. With such a form of Organization of the educational process, not only school lyceum, college and even higher education students become full participants. The task of the teacher is, in principle, to stimulate independent activities, to find ways to achieve their goals [2].

In the process of training future personnel in the higher education system and finding the necessary information for scientific purposes, English language classes are held in order to form the skills of reading the original literature on specialization, participation in oral communication in a foreign language. A specialist in his field of study should be able to read the original English-language literature of his profession, understand the read text and apply it to his profession. In addition, he must be able to freely exchange views with his interlocutor on a given topic in a foreign language.

Thus, with the use of various pedagogical technologies in the lesson, the process of teaching English can be viewed from a completely new point of view and master the new principles of personality formation, achieving quality results in a favorable environment.

#### REFERENCES:

1. Jalolov J. Chet til o'qitish metodikasi. -Toshkent-2012.
2. Alimov Sh.S. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari fanidan ma'ruzalar kursi. 2009
3. Douglas brown. Teaching by principles. Pearson Longman,USA. 1996.

**ОЛИЙ ФИЛОЛОГИК ТАЪЛИМДА ЎҚУВ ТОПШИРИҚЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ  
ЛИНГВОМЕТОДИК ВА ДИДАКТИК ХУСУСИЯТЛАРИ**

*М.Э. Ахмедова, п.ф.н., доц., Тошкент тиббиёт академияси, Тошкент*

**Аннотация.** Мақолада она тили ўқитиш методикасида ўқув топшириқларидан фойдаланишнинг мавжуд ҳолати, хусусан, олий ўқув юрларида ўзбек тили ўқитиш методикаси маишулотларида бўлажак она тили ва адабиёт ўқитувчиларини тайёрлашга мўлжалланган ўқув адабиётларида савол, машқ ва топшириқларнинг берилиши таҳлилий ўрганилди, шунингдек, кейинги йилларда ўқув топшириқларини такомиллаштириши бўйича олиб борилган тадқиқотларга қисман муносабат билдирилди.

**Калим сўзлар:** олий таълим, ўзбек тили ўқитиш методикаси, замонавий ўқитиш талаблари, ўқув топшириқлари, нутқий компетенция

**Аннотация.** Данная статья анализирует современное состояние использования учебных заданий при обучении родному языку, в частности, задействование вопросов, упражнений и заданий в учебниках для подготовки будущих учителей родного языка и литературы. Затрагиваются вопросы методики преподавания узбекского языка в системе образования Высшего учебного заведения. По проведенному исследованию были получены соответствующие отзывы.

**Ключевые слова:** высшее образование, методика обучения узбекскому языку, современные требования к обучению, задания, коммуникативная компетенция.

**Abstract.** The article analyzes the current state of the use of educational assignments in teaching native Uzbek language, in particular, the application of questions, exercises and assignments in textbooks for the preparation of future teachers of native Uzbek language and literature. The issues of the methodology of teaching the Uzbek language in the educational system of the higher educational institution are touched upon. According to the research, the corresponding responses were received.

**Key words:** higher education, methods of teaching Uzbek language, modern requirements for teaching, assignments, communicative competence.

Ҳар бир методикага доир тадқиқотнинг асосини ўқув топшириқлари ташкил этади. Она тили таълимида кейинги бир аср давомида кўплаб тадқиқотлар олиб борилди. Жадидлар бошлаб берган таълимнинг мазмуни ўзида ўзбек тилига хос миллийликни қамраган эди.

Жадидларнинг саъй-ҳаракатлари билан яратилаётган, ўз даврида секин-аста шаклланаётган миллий руҳдаги “Она тили” дарсликлари ўз ўрнини 1939 йилга келиб А.Ғуломов таъкидлаганидек [1], 1938 йилда (С.Бархударов ва Досичеваларнинг рус мактаблари учун “Рус тили” дарслиги стабил қўлланма сифатида қабул қилинган), ўзбек мактаблари учун ҳам кейинги йилларда тил меъёрларини белгилашда назарий асос вазифасини ўтаган Олим Усмон ва Барот Авизовларнинг тўлиқсиз ўрта ва ўрта мактаблар учун тавсия этилган дарслиги эгаллади [2], кейинчалик профессор А.К.Боровков раҳбарлигида тузилган дарсликлар [3], олдингиларига нисбатан анча мукаммалликка эгаллиги билан ажралиб туради. Эътиборли жиҳати шундаки, мазкур дарсликлар мазмуни кейинчали олий таълим дарсликларига кўчди, ўзбек тили грамматикасининг асосий қисмига айланди. Йигирманчи йилларнинг бошларида яратилган ўзбек тили дарсликлари таркибида ўқув топшириқлари мавжуд эмас эди. Кейинчалик А.Боровков бошчилигида 1950 йилларда яратилган дарсликларда ўқув топшириқлари киритила бошланди. Аммо, олий таълим дарсликларида машқларга ўрин ажратилмаган. Ўзбек тили ўқитиш методикаси дарсликларида айрим ўқув топшириқлари бор, ўқув қўлланмаларда кейинги йилларда қатъий тартибда киритилди. Узоқ йиллар олий таълим дарслик ва қўлланмаларида ўқув топшириқларидан умумли фойдаланилмади. Бу ҳолат ўзбек адабий талаффуз меъёрларининг талабалар томонидан етарлича ўзлаштирилмай қолишига олиб келди. Она тили таълими тарихига назар ташласак, бундай машқлар ўзбек тили фан сифатида шаклланган дастлабки йилларда (1930–1940) чоп этилган дарсликларда ҳам мавжуд бўлмагани юқорида таъкидланди. [4],

Методист Ғ.Ҳамроев тадқиқотларида ўқув топшириқлари умумий ўрта таълим тизими доирасида ўрганиб чиқилган. Бу борада унинг ўзбек тили ўқитиш методикасида машқ ва топшириқлар вазифа жиҳатидан фарқланмайди, бунинг натижасида ўқувчиларда нутқий кўникмалар тўлақонли ривожланмаяпти, [5], деган фикрига кўшилиш мумкин. Дарҳақиқат, олий таълим дарслик ва қўлланмаларида ҳам ўқув топшириқлари махсус ўрганилмаган, саволни топшириқдан, топшириқни эса машқдан фарқлаб бўлмайди. “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”да машқ атамасига шундай таъриф берилган: “**Машқ 1.** [арабча. –хуснихат, расм чизиш учун намуналар] бирор фаолиятни пухта ўрганиш, малака ҳосил қилиш учун бажариладиган иш, тайёргарлик машғулоту. *Ҳарбий машқ. Машқ қилмоқ. Сиддиқжон кўкрагини сандалга бериб, хат машқ қилар, Қанизак унинг рўпарасида китоб ўқиб ўтирар эди. А. Қаҳҳор, Қўшчинор чироқлари. – Иш ёмон, – деди келган милиционерлар, – кўп машқ кўрмаган, ҳали милтиқ отишни билмайдиган милиционерлар, қўлидан нима келар эди. С. Айний, Қўллар. 2. Маълум*

мақсадда бажариладиган, қилинадиган муайян иш, ҳаракат. Имлога доир машқлар. *Жисмоний машқлар. Болалар бир-бирларининг қўлларини ушлаб, гимнастика машқларини енгил ва чиройли бажарадилар. Газетадан.* [6], “Педагогика Энциклопедияси”да машққа берилган таърифнинг анча такомиллашган ва таълим соҳасига мослаштирилган шаклини кўриш мумкин: Машқ (арабча – хуснихат, расм чизиш учун намуналар) – бирор фаолиятни пухта ўзлаштириш ёки сифатини яхшилаш мақсадида кўп марта такрорлаш. Мас., ўқиш, ёзиш. М. таълимда кўникма ва малакалар ҳосил қилишда муҳим ўрин тутади. [7], Топшириқ атамасига “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”да қуйидагича таъриф берилган: “**Топшириқ** 1. Кимсанинг зиммасига юклатиладиган иш, вазифа. Ҳукумат топшириғи. Топшириқ бермоқ. *Терговчи ҳам хит бўлди. Ахир, у бу ерга ўйнагани келмаган-ку. Махсус топшириқ билан оқни оққа, қорани қорага ажратгани келган*” [8],

Ғ.Ҳамроев таъкидлагани каби ҳар бир атама ўз мазмун-моҳиятига эга. Яъни, *машқ* муайян ҳаракатни, бир неча бор айнан такрорлаш орқали шу машғулотдан кўзланган кўникма ва малакага эга бўлишни назарда тутса, *топшириқ* кишининг, жумладан, ўқувчининг зиммасига бирор мазвун мустақамлаш мақсадида бир марта бажариш учун бериладиган иш, вазифани англатади.[9] Демак, машқ – кўникма ёки малака ҳосил қилиш воситаси. Топшириқ эса маълумотларни хотирага киритувчи қурилмага ўхшайди. У йўналтирувчи хусусиятга эга. Топшириқ орқали ўқувчини фикрлашга, мустақил ишлашга ўргатиш мумкин. Зеро, машқлар ҳам, топшириқлар ҳам “Она тили” дарсликларининг муҳим таркибий қисми ҳисобланади. Назарий маълумотлар, яъни грамматик қоидалар ўқувчида белгиланган мавзу доирасида билим, тушунча ҳосил қилади. Таълим мазмунида ўқувчи эгаллаши кўзда тутилган кўникма ва малакани, асосан, машқлар шакллантиради. Топшириқлар бу ўринда кўпроқ ўқувчи билимини бойитишга хизмат қилади. Олий таълим тизимида она тили ўқитиш методикасига доир ўқув методик адабиётларида ўқув топшириқлари анъанавий шаклда қуйидагича келтирилади:

Amaliy ish. Savol va topshiriqlar.

1. O‘zbek tilida so‘z oxirida qanday tovush o‘zgarishlari yuz berishi mumkin?

2. Qaysi tovushlar so‘z oxirida jarangsizlanadi?

3. Qaysi tovushlar talaffuzda so‘z oxirida tushib qoladi?

4. Talaffuz qilinmasa-da, imloda yoziladigan harflar ishtirok etgan so‘zlarga misollar keltiring. (pas(t), sus(t), juf(t)...

5. Mazkur harflarning mavjudligini qanday aniqlaysiz? (Toshkentimiz jamoli, mol go‘shiti kabi) [10],

Қўлланма муаллифлари юқоридаги каби топшириқларни бажаришда талабалар тил материалларини кузатадилар, сўзларни қиёслайдилар, ўхшаш ва фарқли томонларини шарҳлайдилар. Мазкур жараён фақат имло саводхонлигининг шаклланишини мас, балки товуш ва ҳарфларни фарқлаш, сўз маъносининг ўзгаришида тўғри талаффузнинг ўрни ва аҳамиятини тушуниб етишга сабаб бўлади, талаба сўз бойлигининг ошишига, сўзларни нутқий вазиятга қараб тўғри танлаш, ўз ўрнида тўғри қўллашга ҳам ўргатади. Бирок бугунги она тили ўқитиш методикаси ўқувчиларни, шу жумладан, талабаларни матн билан ишлаш, турли услублардаги матнларни ўқиб тушуна олиш, матндан англаганларини ёзма ва оғзаки баён қилиб бера олиш кўникмаларига эга бўлиши кўзда тутилмоқда.

Ўзбек тили ўқитиш методикаси дарслигида талабаларнинг билим ва малакаларини синаш тақдим этилган савол ва топшириқларни ҳам прагматик ўқув топшириқлари билан алмаштириш вақти келган:

Savol va topshiriqlar:

1. Metodika fani nimani o‘rganadi?

2. Metodikaning o‘quv predmeti sifatidagi o‘ziga xosliklarini izohlab bering.

3. Uning fan sifatidagi xususiyatlarini tushuntiring.

4. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi fanining boshqa fanlar (fonetika, grafika, hozirgi o‘zbek adabiy tili, shevashunoslik, tilshunoslik asoslari)dan

farqini tushuntirib bering.

5. Aniq misollarda umumiy, xususiy hamda maxsus metodikaning o‘ziga xosliklarini izohlab bering. [10],

Бу ўринда ўзбек тили ўқитиш методикаси билан тил сатҳлари ўртасидаги фарқларни солиштириш бўйича берилган топшириқ ўзини оқламаслиги мумкин. Унинг фан сифатидаги аҳамияти ҳақида фикр юритиш ўрнига хусусиятларини сўраш аҳамиятсизроқдир.

Она тили ўқитувчилари тайёрлаш кўзда тутилган пайтда уларнинг касбий маҳоратларини оширишга хизмат қиладиган ўқув топшириқлар тузиш вақти келган. Шу маънода, она тили ўқитиш методикаси бўйича яратиладиган келгуси методик адабиётларда бунинг, албатта, эътиборга олиш зарур.

Хулоса ўрнида, шуни айтиш мумкинки, ўзбек тили ўқитиш методикаси замон талабларига жавоб бериши учун барча диққатни нутқий кўникмаларни ривожлантиришга қаратиш лозим. Бўлажак она тили ва адабиёт ўқитувчилари ўз ўқувчиларига тинглаб тушуниш, ўқиб тушуниш, гапириш ва ёзиш кўникмаларини ҳосил қилишни ўргатиши лозим. Бунинг учун ҳар бир бўлажак ўқитувчи матн устида ишлашни билиши, бир фикрни турли шаклларда бера олишни ўрганиши, энг асосийси, ўқув топшириқларини фарқлай олиши, улардан машғулотлар давомида самарали фойдалана олиши лозим.

## ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Фуломов.А.Ф. //Ўзбекистон совет энциклопедияси.–Т., 1981. – 394-б.
2. Usman A., Avizov B. Ozbek tili grammatikasi. Birinci bolim. Fonetika va morfologija.Toluqsiz orta va orta maktablar uchun darslik.–Т.: Ozdavnashr,1939. –235 б.
3. Боровков А., Фуломов А., Маърупов З., Шермухаммедов Т. Ўзбек тили грамматикаси.–Т.: Ўздавнашр, 1946 – 227-б.
4. Ramazan Q., Qajjumij X. Grammatik. Sarf. Orta maktablar ucun darslik. I qism. –Т.: Oquvpeddavnashr. 1937. –149 б.
5. Ғ.Ҳамроев Она тили ўқитишнинг самарали усуллари. Методик қўлланма. – Тошкент. Баёз. 2018. 197 б.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. 2-жилд.–Т.: ЎЗМЭ, 2004. – 562-б.
7. Педагогика Энциклопедияси. 2-жилд. –Т.: Ж – М., 2012. – 223-б.
8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. 4-жилд.–Т.: ЎЗМЭ, 2004, – 150-б.
9. Ғ.Ҳамроев Она тилидан ўқув топшириқларини тузиш методикаси –Тошкент. Донишманд зиёси, 2021. 19-б.
10. То'хлиев, В. O'zbek tili o 'qitish metodikasi / В. То'хлиев, М. Shamsiyeva, Т. Ziyodova ; red. Т. Niyazmetova. - Toshkent : Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010 – 13- б.

УЎК 37.02

СПОРТ ЎЙИНЛАРИДА “ЎНАҚАЙЛАР ВА ЧАПАҚАЙЛАР” ЁКИ  
АМБИДЕКСТР БЎЛИШ АФЗАЛМИ?

Ш.Ш. Исроилов, ўқитувчи, ЎзДЖТваСУ, Тошкент

**Аннотация.** Ушбу мақолада спорт амалиётида “чапақайлик-ўнақайлик” ҳаракатлар асимметрияси ёритиб берилган.

**Калим сўзлар:** спорт, “чапақайлик-ўнақайлик”, амалиёт, жисмоний тарбия.

**Аннотация.** В данной статье подчеркивается острота действия “чапақайлик-ўнақайлик” в спортивной практике.

**Ключевые слова:** спорт, “чапақайлик-ўнақайлик”, практика, физическое воспитание.

**Abstract.** In this article, the acuity of the action "chapaqaylik-o'naqaylik" in sports practice is highlighted.

**Keywords:** sports, "chapaqaylik-o'naqaylik", practice, physical education.

**Ишнинг долзарблиги.** Инсон фаолиятида, жумладан турли касб ва спорт амалиётида “чапақайлик-ўнақайлик” феномени бугунги кунда ўта долзарб муаммолардан бирига айланган бўлиб, бундай ҳаракатлар асимметриясини симметризациялаш имконияти бир қатор мутахасис-олимлар томонидан ўрганилиб келинмоқда (В.И.Лях, 2006; Я.Е.Козлов, 2008; В.А.Москвин, Н.В.Москвина, 2008; Ш.Х.Исроилов, Ф.А.Пулатов, 2014; Ф.А.Пулатов, 2017). Гап шундаки, ўнақай одамлар турли ҳаракатларни (касбий ёки спорт фаолиятида) чап қўли ёки чап оёғи билан мохирона ижро этаолмайди, чапақайлар эса аксинча. “Ўнақайлик-чапақайлик” асимметрияси ўнг ва чап томонга бурилиш-айланиш ҳаракатларида ҳам яққол кўзга ташланади. Ўнақайлар одатда чап томонга осонроқ бурилади ва айланади, ўнг томонга эса-мушкул кечади, чапақайлар учун аксинча. Бундан ташқари, зарба бериш асосида ижро этиладиган спорт турлари (волейбол, теннис, футбол ва ҳ.) билан узоқ вақт шуғулланиб келаётган спортчилар етакчи қўли ёки оёғи бўғимлари ва мувофиқ мушак толаларида маълум оғрик сезади. Шунинг учун ҳам бундай спортчилар ҳар бир машғулот ва мусобақага чиқишдан аввал ушбу оғрикни қисман бартараф этиш мақсадида ўзларининг етакчи қўли ёки оёғига киздирувчи дорилардан (випросал, випротокс, капси-кам ва ҳ.) суради. Шундай экан спорт амалиётида “ўнақай-чапақай” ҳаракат функцияларини симметрик тартибда шакллантириш нафақат етакчи қўл ёки етакчи оёқга тушувчи юклама таъсирини камайтиради (шикастланишлар олдини олади), балки бундай ёндашув спортчининг техник-тактик маҳорат доирасини кенгайтиради ва бойитади.

**Ишнинг мақсади** айрим касб ва спорт ўйинларида қайд этиладиган “ўнақай-чапақай” ҳаракат функцияларини симметризациялаш имкониятини ўрганишга бағишланган. Тадқиқотга юқори малакали баскетболчилар, ЎзДЖТваСУнинг “Информатика ва ахборот технологиялари” кафедраси профессор-ўқитувчилари (компьютерда ишловчи касб эгалари) ва 7-10 ёшли мактаб ўқувчилари жалб қилинди.

**Тадқиқот натижалари ва уларнинг тахлиги.** Юқори малакали баскетболчиларда ўтказилган тадқиқотлар шунни кўрсатдики, ўнақай спортчилар (чапақай спортчилар бўлмаган)да мусобақа ўйинлари давомида тўпни ўнг қўл билан уриб югуриш усуллари 74,4% ни ташкил этган бўлса, чап қўл билан 25,6% га тенг бўлди. Тўпни ўнг қўл билан саватга ташлаш ҳаракатлари 84,2% ни, чап қўл билан-15,% ни ташкил этди. Тўпни ўнг қўл билан узатиш ҳаракатлари-23,4% атрофида қайд этилди, қолган тўп узатишлар икки қўл иштирокида ижро этилди. Чап қўл билан тўп узатиш ҳаракатлари умуман кузатилмади.

Эътиборли жойи шундаки, ўнг ва чап қўл билан ижро этиладиган ҳаракат асимметрияси компьютерда иш юритувчи – ЎзДЖТваСУнинг “Информатика ва ахборот технологиялари” кафедраси профессор-ўқитувчилари мисолида ҳам қайд этилди. Ўтказилган тадқиқот натижаларидан шу нарса аниқландики, текширилувчи профессор-ўқитувчилар белгиланган турли мураккабдаги компьютер вазибаларини ўнг қўлда чап қўлга нисбатан тезроқ ва аниқроқ ижро этишди. Чунончи, ўнг қўлда 0-9 ва 9-0 клавишларини босиш ва мониторинга чиқариш тезлиги чапдан ўнг томонга 2,20±0,29 сек.ни ташкил

этган бўлса, ўнг томондан чап томонга ушбу рақамларни босиб ва уларни мониторга чиқариш тезлиги  $2,34 \pm 0,37$  сек билан ифодаланди. Асимметрик фарқ  $0,14$  сек.га тенг бўлди. Шу ҳаракат вазибалари чап қўлда ижро этилганда қайд этилган кўрсаткичлар мувофиқ тартибда  $2,37 \pm 0,26$  ва  $2,53 \pm 0,44$  сек.ни ташкил этди. Ушбу вазибаларга нисбатан мураккаброқ бўлган символларни (А 101, В 201, С 301, D 401, E 501, F 601, G 701, H 801, I 901) ўнг қўлда клавиш билан босиб, мониторга чиқариш тезлиги  $36,07 \pm 5,29$  сек.ни ташкил этган бўлса, чап қўлда -  $50, 63 \pm 7,69$  сек. миқдориди қайд этилди. Асимметрик фарқ  $14,56$  сек.га тенг бўлди. Бунданда мураккаброқ бўлган, яъни “интеллект, непосредственный, характер, индивидуальный, пространственный, кансилиум, консервирование, делопроизводство, таинственный, пролонгированный” сўзларни клавишлар билан босиб, мониторга чиқариш тезлиги ўнг қўлда –  $73,81 \pm 9,51$  сек. билан ифодаланган бўлса, чап қўлда –  $95,31 \pm 26,41$  сек.ни ташкил этди. Асимметрик фарқ  $21, 50$  сек.га тенг бўлди. Алоҳида шуни ҳам таъкидлаш жоизки, компьютер вазибаларини чап қўлда амалга оширишда нафақат ҳаракат тезлиги нисбатан суст даражада намойиш этилди, балки ҳаракат координацияси ҳам айрим ҳатолар қайд этилди.

Муҳокама этилаётган масала моҳиятини янада чуқурроқ ўрганиш мақсадида биз ўнақай-чапақай ҳаракатлар асимметриясини 7-10 ёшли мактаб ўқувчиларида ҳам тадқиқот остига олдик. Тадқиқотда ўнг ва чап қўл билан кучи, ўнг ва чап қўл билан тўпни уриб югуриш, сабатга ташлаш (баскетбол), ўнг ва чап оёқ билан  $10$  м. ораликдан  $1 \times 1$  м<sup>2</sup> ли нишон-дарвозага тўп тепиш (футбол), танани ўнг ва чап томонларга ўз ўқи атрофида айлантириш каби инновацион тестлардан фойдаланилди. Олинган тадқиқот натижаларидан маълум бўлдики, ўнақай-чапақай ҳаракатлар асимметрияси ёш болаларда янада яққолроқ кўзга ташланди.

**Хулоса.** Юқори малакали баскетболчилар, компьютерда иш юритувчи касб эгалари ва 7-10 ёшли мактаб ўқувчиларида ўтказилган тадқиқот натижалари шуни исботлаш имконини бердики, ўнақай-чапақай ҳаракат функциялари ўртасида ёши ва касб-коридан қатъий назар сезиларли асимметрик фарқ қайд этилар экан. Тадқиқот давомида “амбидекстр” (икки қўлда ҳам бир ҳилда ишловчи) феноменига яқин айрим текширилувчилар кузатилди. 7 ёшли 12 нафар ўнақай болалар устида ўтказилган 9 ойлик педагогик тажриба натижалари шуни кўрсатдики, узоқ муддат давомида “ўнақай-чапақай” ҳаракат функцияларини симметрик тартибда мунтазам шакллантириб бориш ўнг қўл ва оёқ, чап қўл ва оёқ ҳаракатлари ўртасидаги асимметрик фарқни минимал даражагача қисқартириши мумкин экан. Тажриба якунига келиб “амбидекстрга” айланган текширилувчилар сони ортди.

#### ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Исроилов Ш.Х., Пулатов Ф.А. Возможности симметричного развития право-и левосторонних двигательных функций у детей 7-10 лет в ходе эксперимента// Ж: «Известия Тульского государственного университета» Физическая культура Тула: 2014.- с.21-29
2. Козлов Я.Е. Объективные проблемы двигательной асимметрии у футболистов различного возраста и уровня подготовленности. - М.: ТиПФК, 2008. - №7. - С. 23-26.
3. Лях В.И. Теория управления двигательными действиями по Н.А.Бернштейну. - М.: Физкультура в школе, 2006. - №7. - С. 15-19.
4. Москвин В.А., Москвина Н.В. Спорт и латеральные профили леворуких. - М.: ФиС, 2008. - 484 с.

УЎК 340

## ШАРҚ МУТАФАККИРЛАРИНИНГ МАЪНАВИЙ МЕРОСДА ЁШЛАРДА ҲУҚУҚИЙ МАДАНИЯТНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ДОИР ҚАРАШЛАРИ

*Ф.Н. Пирназаров, PhD, Тошкент тўқимачилик ва енгил саноат институти, Тошкент*

**Аннотация.** Ушбу мақолада ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни шакллантиришининг нечоғлик зарур эканлиги, фуқаролик жамиятини шакллантиришида ҳуқуқий маданиятнинг ўрни ва ёшларда ҳуқуқий маданиятни шакллантиришида шарқ мутафаккирларининг маънавий меросини ўрни ва аҳамияти ҳақида сўз юритилади.

**Калит сўзлар:** Фуқаролик жамияти, фаол фуқаролик позицияси, ҳуқуқий маданияти, фуқаролик бурчи, фуқаролик масъулияти, ёшлар, ёшларга оид давлат сиёсати, комил инсон, баркамол авлод.

**Аннотация.** В статье рассматривается необходимость формирования правового сознания и правовой культуры, роль правовой культуры в формировании гражданского общества, а также роль и значение духовного наследия восточных мыслителей в формировании правовой культуры молодежи.

**Ключевые слова:** гражданское общество, активная гражданская позиция, правовая культура, гражданский долг, гражданская ответственность, молодежь, государственная молодежная политика, совершенный мужчина, гармонично развитое поколение.

**Abstract.** The article examines the need for the formation of legal consciousness and legal culture, the role of legal culture in the formation of civil society, as well as the role and significance of the spiritual heritage of oriental thinkers in the formation of the legal culture of youth.

**Key words:** civil society, active civic position, legal culture, civic duty, civil responsibility, youth, state youth policy, perfect man, harmoniously developed generation.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев ўз чиқишларида тарихдан ибрат олиш, аждодларнинг нафақат исми шарифларини, балки улар қолдирган улугъ маънавий меросдан бугун учун хулосалар чиқариш, тафаккурни ўзгартириш зарурлигини ва жамиятда янгича тафаккурнинг, ҳар бир соҳада маданиятнинг ҳал қилувчи ролини илгари сурди. Бундан ҳуқуқий муносабатларда ҳам миллий, маданий асослар белгилловчи аҳамиятига эга бўлиши лозим, деган хулоса келиб чиқади.

Ўзбек давлатчилиги тарихида ҳуқуқий маданият фикҳнинг бош масалаларидан бўлиб келган. Бу эса миллий ҳуқуқий маданият тарбияси ўзининг бой илмий манбаларига эга эканлигини кўрсатади. Ўзбекистонда юксак миллий ва умуминсоний қадриятларга асосланган янги фуқаролик жамияти барпо этилмоқда. Бугунги кунда мамлакатимизда ҳуқуқий давлатчилик ва фуқаролик жамиятининг ҳуқуқий, сиёсий, иқтисодий ва маънавий асосларини барпо этишда жиддий ютуқларга эришилди. Бу борада ислохотларнинг давоми сифатида 2014 йил 15-16 май кунлари мамлакатимиз ўтказилган “Ўрта асрлар Шарқ алломалари ва мутафаккирларининг тарихий мероси, унинг замонавий цивилизация ривожига даги роли ва аҳамияти” мавзусида халқаро конференция бўлиб ўтди. Ташкил этилган ушбу халқаро анжуманда АҚШ, Буюк Британия, Италия, Хитой, Жанубий Корея, Германия, Япония, Ҳиндистон, Миср, Индонезия, Саудия Арабистони, Кувайт, Россия, Озарбайжон каби элликка яқин мамлакатдан олимлар, нуфузли халқаро ташкилотлар раҳбарлари, олий таълим муассасалари профессорлари, илмий марказлар ва институтлар мутахассислари, экспертлар иштирок этди. ЮНЕСКО Бош директорининг ўринбосари, Осиё ва Тинч океани минтақавий бюроси директори Хуберт Гизен ўрта асрлар Шарқ алломаларининг дунё тамаддунида тутган ўрни, илм-фан ва санъат ривожига қўшган ҳиссаси ҳақида сўз юритди. Мамлакатда миллий қадриятларни тиклаш, бой тарихни ўрганиш, фан ва таълим тизимини ривожлантиришга қаратаётган эътибори учун президентга миннатдорлик билдирди.

Бугунги кунда Республика аҳолисининг 60 фоизига яқин қисмини ташкил этувчи ёшларнинг ҳуқуқий маданияти масаласини ва унинг ёзма тарихий анъаналарини тиклаш муҳим аҳамият касб этмоқда. Шу боис талаба-ёшлар ҳуқуқий маданиятини шакллантиришнинг назарий жиҳатларини илмий ўрганиш аждодларимиздан қолган бой ёзма манбаларга мурожаат қилишни тақозо қилади. Маълумки, X-XV асрларда Яқин ва Ўрта Шарқ, Марказий Осиё ва Эрон минтақаларида Араб халифалигининг сиёсий аҳамияти заифлашуви жараёнида бирин-кетин Бувайхийлар, Сомонийлар, Ғазнавийлар, Салжуқийлар, кейинроқ, Темурийларнинг мустақил ва қудратли давлатлари вужудга келди. Шунинг оқибатида Бағдод, Қоҳира ва Дамашк билан бир қаторда Бухоро, Самарқанд, Ҳирот, Исфохон, Шероз шаҳарлари фикҳ ва маданият марказларига айланди. Бу даврда халқларнинг ўз давлатчилик тарихига қизиқиши, ўз миллий давлатчилик анъаналарини тиклашга интилиши кучайди. Масалан, Боласоғунлик Юсуф Хос ҳожиб, Маҳмуд Қошғарий, Аҳмад Югнакий, Аҳмад Яссавий, Юсуф Хоразмий каби шоир, мутафаккирлар туркий тилда асарларини яратиб, уларда ўз халқларининг миллий давлатчилик анъаналарини, фикҳ анъаналарини, ахлоқий, маънавий меросини тиклашга интилдилар.

XIV асрнинг иккинчи ярмида мўғуллар истилосига қарши озодлик ҳаракати натижасида буюк соҳибқирон Амир Темур давлатининг вужудга келиши билан Марказий Осиёда илм-фан, маданият, адабиёт, меъморчилик ва қурилишда катта юксалиш юз берди. Амир Темур ва темурийлар даври ҳуқуқий маданияти фикҳнинг аҳамиятга молик ютуқларини яратди. XV асрда миллий давлатчилик, адолат, ҳукмдор ва фуқаро ҳуқуқий муносабатларининг бадиий талқини Алишер Навоий ижодида ўз камолига етди.

Шарқ мамлакатларида вужудга келган ижтимоий-ҳуқуқий тафаккурда давлатчилик ғояларининг кенг тарқалишига замин яратди. Фуқаро ҳуқуқий тафаккурида энг эзгу орзу-умидлар, тенглик, биродарлик, адолатли подшоҳ идеали, бахт-саодатга элтгувчи мукамал давлат тўғрисидаги таълимотлар ўзининг нафақат фалсафий, балки ҳуқуқий ифодасини ҳам топди.

Бу даврдаги ҳуқуқий хурфикрлилик асосида давлат ва жамиятга янгича қараш шаклланди, давлат, жамият ва ҳар бир фуқаронинг ҳуқуқ ва бурчлари янгича талқин этила бошланди. Айниқса, давлатнинг энг яхши тузумлари, давлат қурилишининг энг яхши шаклларини излашда ўрта асрлардаги подшоҳнинг илоҳий иродаси ҳақидаги умумий гаплар ўрнига тенглик ва адолатга асосланган баркамол давлат тузуми идеали мутафаккирларга илҳом берар эди.

Шу муносабат билан ҳуқуқий, маънавий-ахлоқий ва сиёсий фалсафага эътибор кучайди. Худди шу эҳтиёжлардан келиб чиқиб, шарқ мутафаккирлари Афлотун ва Арасту асарларини - «Давлат», «Қонунлар», каби асарларни таржима қилиш ва шарҳлашга киришдилар.

Ибн Синонинг фикрига кўра “кишилар ўртасидаги ўзаро ҳамкорликни тўғри йўлга қўйиш учун ҳам қонунларга эҳтиёж сезилар экан, уларни уларни қабул қилиши лозим” [1]. Қонунларни халққа этказиш ва ижро этиш учун эса, аввало халқ бу қонунларга ишониб керак. Ибн Синонинг энг йирик асарларидан бири «Аш-Шифо» инсон ва жамиятни маънавий поклаш, ижтимоий-ҳуқуқий иллатларни қандай даволаш муаммоларига бағишланган. Шарқ Уйғониш даври мутафаккирларининг инсонлар аҳил яшайдиган жамият қуриш, ижтимоий иллатларни йўқотишга интилишлар уларнинг гуманистик руҳидан - инсонга меҳр-муҳаббатидан, инсонларнинг бахт-саодатга эришиш муаммоларини ҳал этишга уринишлари бу мутафаккирларнинг барча учун бир хил амал қилувчи адолатли қонунлар ҳақидаги



камбағал - деҳқонларнинг орзу-армонларини акс эттирди. Алломанинг бошқа асарлари ҳам рус ва ўзбек тилларига таржима қилинган [2].

«Китоб ал аҳл ал-мадинат ал-фозила» (Фозил шаҳар одамларининг қарашлари ҳақида рисола) асарида Форобийнинг ижтимоий-сиёсий ғоялари, давлат тузилиш ва комил инсон хусусида қарашлари батафсил баён қилинган. Унинг фикрича, инсоннинг бу оламга келиши ва яшашидан мақсад - бахт-саодатга эришишдан иборатдир. Фозил жамоа ўзининг ҳуқуқий мукамаллиги, яшаш қонуниятлари бўйича коинотга киёс қилинади: коинотаро турли ҳодисалар ва нарсалар ўртасида уйғунлик, ҳамжиҳатлик ва ҳамкорлик Сабаби Аввал (Худо) фаолиятининг натижаси экан, худди шунингдек, жамиятда ҳам турли тоифалар ўртасидаги ҳамжиҳатлик ва мутаносибликка Биринчи имом - ҳукмдор фаолияти, намунали ишлари туфайли эришилади. Мукамал жамиятда ҳар бир табақа, яхлит социал организмнинг ажралмас қисми сифатида, ўзининг муайян функцияларига эга бўлиб, шу вазифаларни бажариш бўйича ихтисослашгандир. Буларнинг ичида энг мукамал шахс, давлатни идора қилувчи Биринчи раҳбар ҳисобланади. У жамиятдаги бошқа тоифаларнинг мавжудлиги ва яшашларининг сабабчиси, уларнинг тўғри ташкил этилиши, ўзаро уйғунлиги ва тартибга солинишининг ҳам сабабчиси [3], дейди Форобий.

Форобий ёшларни тарбиялаш муаммоси ҳақида гапирар экан, уларни назорат қилиш ва сақлаш муаммосини ҳам кўтаради. Ушбу вазифалар нафақат педагогикада, балки ҳуқуқни муҳофаза қилиш фаолияти зарур. Ёшлар билан ишлаш мураккаб, лекин улр назорат қилинмас экан, ёмон фель-атвор шаҳарни таназзулга олиб келади. Ҳукмдор одамларнинг ва жамиятнинг руҳий ҳолатини шу даражада ўрганмоғи лозимки, «унга нафснинг қандай ҳолатида одамлар фазилатли ишларни қила олиши, шаҳар ақлининг камчиликлари ва иллатларини қандай бартараф этилиши, қандай санъат йўллари билан шаҳар аҳли қалбларида яхши фазилатларни шакллантириш мумкин эканлиги ҳамда бу фазилатларни қандай воситалар ёрдами билан сақлаб қолиш мумкинлиги аён бўлиши керак» [4].

Ахлоқий фазилатлар ва иллатлар(ҳуқуқбузарлик) одамларнинг кундалик турмушида кўп такрорланган хатти-ҳаракатлари натижасида шаклланади. Яхши ҳаракатларнинг оқибатида фазилатлар пайдо бўлади, ёмон ишлар - турли ахлоқий иллатларни келтириб чиқаради: «Одам боласи онадан фазилат ёки разолат соҳиби бўлиб туғилмайди, худди шунингдек, одам тўқувчи ва ёзувчи (котиб) бўлиб оламга келмайди. Лекин одам туғма равишда (табиатан) фазилат ёки разолат билан боғлиқ ҳолатига мойил бўлиши мумкин. Мана шу ҳолатдан келиб чиққан ҳолда одам фазилатли ёки иллатли ҳаракатларга мойил бўлади. Лекин унинг қайси йўналишда бориши тарбияга боғлиқдир»[5]. Демак, потенциал жиҳатдан ҳар бир одамда фазилат ёки разолатга мойиллик мавжуд. Аммо тарбия натижасида ундаги фазилатли сифатларни ривожлантириш, камол топтириш мумкин, ёки, аксинча, унинг табиатидаги салбий сифатлар (разолат) бир томонлама устунлик қилиши мумкин. Шу боисдан ҳамма одамлар бир хил даражада қомилиққа эриша олмайди: фазилатга мойил одамлар тарбия натижасида тобора камол топади, разолатга мойил кишиларнинг эса камол топиши ва маънавий юксалиши анча суст бўлади.

Юсуф Хос хожибнинг машҳур асари «Қутадғу билиг» («Билимлар булоғи», «Бахт-саодат келтирувчи билим») унинг барча асарлари орасида муҳим аҳамият касб этди. «Қутадғу билиг»да ҳуқуқий таълим-тарбия, маърифат, турли ижтимоий табақалар ва кишилар ўртасидаги ҳуқуқий муносабатлар, давлатни бошқариш хусусида баҳс қилинади. «Қутадғу билиг» асарининг бир муҳим хусусияти шундаки, унда кўпгина ҳуқуқий истилоҳлар, масалан, давлатчилик, давлатни идора қилиш, маъмурият, ички ва ташқи сиёсат, амал ва мансаб, амалдор шахслар ва бошқа қатор масалаларга оид соф туркий терминлар учрайди. Бу истилоҳлар Қорахонийлар салтанати ва даври ҳуқуқий тизимини ўрганишимиз учун бениҳоя қимматли аҳамиятга эгадир.

Миллий давлатчилигимизда оқил подшоҳларимиз давлатни адолатли, қонун-қоидалар чегарасида бошқарганлар. Бу хусусда жаҳонгир Амир Темур ёзади: «... Салтанатим мартабасини қонун-қоидалар асосида шундай сақладимки, салтанатим ишларига аралашиб, зиён етказишга ҳеч бир кимсанинг қурби етмасди». Бизнинг давримизда ўша қонун-қоидалар тузуклар бирлашиб, мукаммаллашиб, қонунларда жамланган. Қайси мамлакатда қабул қилинган қонун-қоидаларга ҳамма баравар амал қилсагина, салтанат мустаҳкам бўлади, халқ фаровонлиги ошади, у ҳақ-ҳуқуқидан тўла фойдаланишга эришади. Шу қонун кучига эга бўлган вазифалар аллақачон амалда қўлланила бошланди. Бу қонун олдида барча тенг жавоб беради. Агар қонун амалда татбиқ этилмаса, у халқ олдида ҳеч қандай обрў-эътиборга эга бўлмайди. Қонун ҳамма учун тенг бўлса, у маънавий, тарбиявий куч-қудратга эга бўлади. Шунинг учун ҳам «фуқаро-жамият-давлат» ўртасидаги ўзаро муносабатнинг оқилона ҳуқуқий ечими топилмоқда. Бу ечим қонун ва ҳуқуқларнинг барча учун баробарлигида яққол кўринади.

Жаҳон ҳуқуқ маданияти ютуқларидан ижодий сабоқ олиб, ўрганиб, ўз давлатчилигининг бой меросига таяниб, ҳуқуқий давлат қуришга азму-қарор қилган халқимиз бой ҳуқуқий маданият тарихига эга.

Ҳар бир ёш авлод жамиятнинг сиёсий, ҳуқуқий, ахлоқий маданиятини эгаллаганда, ўзидан аввалги авлодларнинг ижтимоий-сиёсий тажрибаларига ёндашади ва уларни ўз онгидан ўтказиши, яхшиларини

олиб, фаолиятида тадбиқ қилади, бу билан ўзининг маданиятини юксалтиради. Ёшларда ҳуқуқий, сиёсий ахлоқий маданиятни қарор топтиришда аввало уларнинг дунёқарашларида, тафаккурида умуминсоний қадриятлар, миллий қадриятлар билан уйғунликда миллий истиқлол мафқураси ҳам сингиши лозим. Ана шу дунёқараш шаклланишдан сўнг уни ҳимоя қилишга қодир ҳуқуқий, сиёсий, ахлоқий маданият шаклланишига шарт-шароитлар яратиш зарурияти туғилади. Чунки ҳуқуқий, сиёсий маданият ва ҳуқуқий ҳимоянинг мавжудлиги жамият демократлашувининг асосий кафолатларидан биридир.

Ислом дининг асоси бўлган қуръони Карим ва Хадиси шариф, Фаробий, Беруний, Ибн Сино, Алишер Навоий, Бобур, Нақшбанд, Аҳмад Яссавий, Ал-Бухорий, Ат-Термизий, Марғилоний ва бошқа алломалар асарларида олға сурилган ғояларни инсонпарварлик, халоллик, поклик, миллатни севиш, ватан билан ғурурланиш, меҳнатсеварлик, ҳурфикрлик каби ғояларни ёшлар онгига сингдирмоқ лозим.

#### ҲОИДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти раислигида Тартиб-интизом ва масъулиятни кучайтириш, жиноятчиликнинг олдини олиш муҳитини мустаҳкамлаш – ҳуқуқбузарлик профилактикаси самарадорлигининг асосий омилдир”. // Халқ сўзи, 2017 йил 16 ноябрь.
2. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. –Тошкент, Ўзбекистон, 2017. - 48 б.
3. Каримов И.А. Юксак маънавият – энгилмас куч. – Тошкент, Ўзбекистон, 2008.
4. Амир Темур ўғитлари. Тузувчилар Б. Аҳмедов, А.Аминов Т: “Наврўз” 1992 йил.
5. Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шаҳри. Т: “Мерос”. 1993 йил
6. Тожихонов У. А.Саидов. Ҳуқуқий маданият назарияси. Дарслик. Т 3.2 . Ўзбекистон Республикаси ИИВ академияси. 1998 й.
7. Муҳаммад Қуронов. Аҳолининг ҳуқуқий маданиятини юксалтириш: тарғибот – тарбия – тажриба. // Фуқаролик жамияти. 2007 й.
8. Ф.Мухитдинова. Абу Наср Фаробийнинг давлат ва ҳуқуқ ҳақидаги таълимоти. Юридик фанлар номзоди. Дис.- Т.,2001 –Б. 117-129.

УДК 372.881.1(075.8)

### МЕТОДИЧЕСКИЕ ПРИЕМЫ ИСПОЛЬЗУЕМЫЕ НА НАЧАЛЬНОМ ЭТАПЕ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ

*Л.У. Раджабова, преподаватель, Бухарский филиал ТИИИМСХ, Бухара*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada o'qish va yozish orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish usullaridan foydalangan holda ta'limning boshlang'ich bosqichida rus tilida o'quv jarayonini tashkil etish, shuningdek, rus tilida o'quv jarayonida yaratilgan turli pedagogik vaziyatlarga yondashuv ko'rib chiqiladi.*

**Kalit so'zlar:** *ta'limning boshlang'ich bosqichi, usullar, tovushlar, so'zlar, lug'at, sonlar, odob, madaniyat.*

**Аннотация.** *В данной статье рассмотрены вопросы организации учебного процесса по русскому языку на начальном этапе обучения с использованием приемов развития критического мышления через чтение и письмо, а также подход в различных педагогических ситуациях, создаваемых в учебном процессе по русскому языку.*

**Ключевые слова:** *начальный этап обучения, методы, звуки, слова, лексика, числа, этикет, культура.*

**Abstract.** *This article discusses the organization of the educational process in the Russian language at the initial stage of education using the methods of developing critical thinking through reading and writing, as well as the approach to various pedagogical situations created in the educational process in the Russian language.*

**Keywords:** *initial stage of education, methods, sounds, words, vocabulary, numbers, etiquette, culture.*

Начальный этап обучения является наиболее важным и трудным периодом, этот период во многом определяет дальнейшее изучение русского языка. И как показывает практика, успех обучения во многом зависит от методики работы учителя русского языка, от его умения пользоваться различными современными методами в контексте решения конкретных образовательных задач.

Несмотря на разнообразие методик проведения уроков русского языка в учебных заведениях, многие преподаватели испытывают трудности по использованию образовательных проектов.

Данное занятие, которое может провести преподаватель русского языка, состоит из нескольких фрагментов. Каждый фрагмент посвящен отдельному методическому приему, используемому на начальном этапе обучения русскому языку. Все этапы занятия соотносятся с частями практического курса русского языка, вызывающего постоянные затруднения у студентов. При этом задания для студентов должны быть посильными и иметь только одну трудность. Привычность формулировок облегчает работу студентов, экономит время на уроке. Инструкции к выполнению заданий должны четко определять, что делать и как делать. Задания, которые учитель предлагает для выполнения, должны иметь четкую цель, известную учащимся, т.е. должны быть мотивированными.

Так в *первом фрагменте* нашла отражение такая особенность русской фонетики, как чтение и произнесение безударного (о).

Задание. Слушайте, считайте количество звуков (о).

Посмотрел, гроза, столы, дорогая, золотая, моя, столица, поля.

Студенты должны определить, сколько звуков (о) в этих фразах, соотнести их с числом букв «о» и объяснить причину расхождения в количестве звука (о) и буквы «о». Затем фраза правильно, в соответствии с законами русской фонетики, прочитывается учениками. (Студенты обнаруживают, что в данном предложении нет ни одного звука (о).)

### **Второй фрагмент.**

Задание. Слушайте, считайте количество звуков (э).

*Земля, весна, движение, серебро, песня, вечер, лесной, ленивый, меч, варенье.*

Студенты соотносят, как в первом фрагменте, число звуков (э) с числом буквенных обозначений и правильно читают текст.

Предваряющие и последующие комментарии делаются преподавателем. На примере двух фрагментов настойчиво подчеркивается роль правильного произнесения безударных гласных для качества русской речи иностранными студентами для устранения нерусского акцента.

### **Третий фрагмент.**

Задание. Кто быстрее прочитает числа?

*13-15-43-18-32-16-33-69*

*5-76-40-87-19-90-96-20*

*50- 59- 66- 88- 11- 32- 24 -29*

Использование секундомера усиливает элемент соревновательности. Однако занимательный характер заданий не должен заслонять всех фонетических трудностей, которые подчеркивает преподаватель, комментируя результаты соревнования.

Привлекает внимание к русским числительным и такое задание: «Прочитайте по-русски и на родном языке за одинаковое время!».

7.30 – 9.20 – 15.40 – 19. 80

11.50 – 3. 15 – 37.60- 40.90

30.10 – 13.50 – 11.20 – 12.70

**Четвертый фрагмент** служит для того, чтобы обратить внимание студентов на роль речевых формул, - вопросов и ответов, используемых в ситуациях повседневного общения.

Задание. Представьте себе, что вы – турист, и вам нужно узнать, как пройти (проехать) в нужный вам район.

Студенты задают вопросы: как пройти..? Как проехать..? Как добраться..? как попасть..? Задание выполняется в форме мини – диалогов: на вопросы даются ответы. Фрагмент завершается инсценированным чтением стихотворений, посвященных русскому этикету.

Что такое этикет?

Это можно,

Это нет...

Этикет, как этикетка

И хорошая отметка,

Но не только в дневнике,

У людей на языке...

Очень просто жить культурно.

Все прекрасно,

Что не дурно.

(А. Степанов)

Если мы по –русски спросим

И о чем –нибудь попросим,

Пассажир или прохожий

Нам всегда во всем поможет.

Что туристу надо знать?

Где продукты покупать?

Как пройти или проехать,

Где театр или аптека?

Далеко ли до музея?

Как попасть туда скорее?

На трамвае? На каком?

Может, можно и пешком?

Чтоб спросить, найти дорогу,

-- Извините! Объясните!

Вы не скажете? Скажите...

Как попасть нам побыстрее

В исторический музей?

-- До угла идите прямо,

Надо там свернуть направо

И квартал пройти вперед,

Там в метро подземный вход.

Поезд слева – до музея,

Этот путь всегда быстрее! (автор Н. А.

Журавлева),

У сеньора Этикета

Есть всегда на все ответы;

Как ходить и где стоять,

Кому место уступать,

Как прилично одеваться,

Где молчать, а где смеяться,

Как к обеду пригласить,

Что подруге подарить

В школе, в доме, на работе,

И в трамвае, в самолете,

И в театре, и в кафе

Пригодится он тебе.

И пора нам всем понять

Надо знать не очень много,  
Знаем русский этикет? –  
Вот вопрос, а вот ответ.

Чтоб воспитанными стать,  
Чаще надо к Этикету  
Обращаться за советом.

**Пятый фрагмент** помогает студентам развивать умения задавать вопросы.

Задание. Задайте как можно больше вопросов в связи с данными фразами.

- 1) *Я получил посылку.*
- 2) *У меня есть мобильный телефон.*

**Шестой фрагмент** опять привлекает внимание аудитории к русскому этикету.

Задание. Послушайте диалоги найдите ошибку в ответах (нарушение нормы этикета).

- а) –*Здравствуйте, студенты!*  
–*Привет, учитель!*
- б) –*Привет, Дильшод! Как дела?*  
–*Рад вас приветствовать!*
- в) –*Товарищ Алишер! Разрешите с вами попрощаться!*  
–*Пока! До вечера!*
- г) –*Вы не скажете, где магазин «Корзинка»?*  
–*Не скажу! (грубо)*

Задание. Отвечайте быстро, одним словом, но нельзя употреблять «да» и «нет».

1. *В магазине / продают / авиабилеты?*
2. *Тут / проходит / автобус / 37?*

**Седьмой фрагмент.**

Задание. «Переведите» жесты на русский язык.

- Дайте, пожалуйста! (карандаш, отвертку, расческу, утюжок для волос)*
- Идите сюда! туда!*
- *Отойдите!*
- *Я не понимаю!*
- *Читайте! Молчите! Встаньте!*

В комментарии к фрагменту подчеркивается, что рекомендуемый прием – хорошее средство для активизации лексических знаний студентов.

**Восьмой фрагмент** привлекает внимание студентов еще к одному приему эффективной работы по обучению лексике. Это – антонимы.

Задание. Сыграем с тобой! (Назови антоним!)

- |                   |                  |
|-------------------|------------------|
| <i>Плохой –</i>   | <i>Широкий –</i> |
| <i>Холодный –</i> | <i>Легкий –</i>  |
| <i>Короткий –</i> | <i>Темный –</i>  |
| <i>Дальний –</i>  | <i>Веселый –</i> |
| <i>Высокий –</i>  | <i>Большой –</i> |
| <i>Худой –</i>    | <i>Быстрый –</i> |
| <i>Новый –</i>    | <i>Чистый –</i>  |

Задание проводится как игра на скорость и может вызвать неожиданные затруднения при быстром темпе произнесения.

В заключение следует еще раз подчеркнуть необходимость комплексного подхода к обучению всем видам речевой деятельности на основе общего лексико-грамматического материала, а также эффективность развития устной и письменной речи в тесном взаимодействии, когда материал вводится и первично закрепляется в устной речи, а затем отрабатывается в письменных подготовительных и речевых упражнениях. Развитие устной и письменной речи студентов на начальном этапе обучения языку – процесс длительный, и достижение положительных результатов в первую очередь зависит от преподавателя.

#### СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Методика обучения иностранным языкам в начальной и основной общеобразовательной школе: Учеб. пособие / В.М.Филатов, В.П.Белогрудова, Т.Е.Исаева. - Ростов-на-Дону: Феникс, 2004.
2. Онищук В.А. Урок в современной школе. Пособие для учителей. — М.: Просвещение, 1981. — 191 с.
